1. Babich S.V. Usovershenstvovanie metodiki otsenki vsxojesti semyan ovoщnых kultur / Dissertatsiya kandidata selskoxozyaystvennых nauk. - Moskva, 2009. - 120 s.

2. Ostonaqulov T.E., Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O. Sabzavotchilik. – Toshkent: 2009. – B. 256-298.

3. Xakimov R., Xakimov A., Toshmuxammedov A. Sabzavot va poliz ekinlari urug‘chiligi. – Toshkent: 2003. – B.50-126.

UO‘T: 631.879.1

ORGANIK O‘G‘ITLARNI ERLARGA BERISHNING AFZALLIKLARI VA O‘SIMLIKNING RIVOJLANISHIDAGI TA’SIRI

G‘.T.Otamurodov
“TIQXMMI” MTU huzuridagi Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti magistranti
Ilmiy rahbar: B.G.Ganiyev
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti 1-bosqich doktaranti

Annotatsiya: O‘g‘itni solishdan asosiy maqsad – o‘simliklar o‘zining dastlabki rivojlanish davrida kuchli ildiz tizimini rivojlantirib olishlari va ularning keyingi jadal rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Bu qulay sharoitni yaratish uchun ekinlarning ozuqa qatlamiga (odatda 20-25 sm) beriladi. O‘simliklarning keyingi jadal rivojlanishi va yaxshi hamda ko‘p miqdorda hosil (sentnerda) oshishi uchun yanada ko‘proq ozuqa kerak bo’ladi.

Kalit so’zlar: yer fondi, mahalliy o‘g‘itlar, ekologik toza, biogumus, fizik-mexanik xossalari, gips.

UDC: 631.879.1

BENEFITS OF APPLYING ORGANIC FERTILIZERS TO THE LAND AND THE EFFECT ON PLANT DEVELOPMENT

G.T.Otamurodov
The master of the Karshi institute of irrigation and agrotechnology under "TIIAME" National research university
Supervisor: B.G.Ganiyev
"TIIAME" NRU Bukhara Institute of Natural Resources Management

Annotation: The main purpose of fertilization is to create favorable conditions for plants to develop a strong root system during their initial development and their subsequent rapid development. It is given to the nutrient layer of crops (usually 20–25 cm) to create favorable conditions. Plants need more nutrients for further rapid growth and good and abundant yields (in quintals).

Keywords: soil, local fertilizers, ecologically clean, biohumus, physical and mechanical properties, plaster.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 20.2 mln gektar yerlarning atigi 20.7 foizi sug‘oriladigan yerlar hisoblanadi. So‘nggi 15 yil mobayinida aholi jon boshiga sug‘oriladigan yerlar 24 foizga (0,23 ga dan 0,16 ga gacha) kamaygan. Mazkur holat aholi soning o‘sishi, suv ta’minoti hajmining qisqarishi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning boshqa yer fondi toifalariga o‘tishi natijasida yuzaga kelgan. Prognozlarga ko‘ra, kelgusi 30 yil mobayinida sug‘oriladigan yer maydonlari ya’ni 20-25 foizga qisqarishi mumkin.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi, yer va suv tabiiy resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda [1].

Raqobatbardoshlikni xorijiy davlatlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasi dunyoning eng ko‘p don etishtiruvchi o‘nta davlati qatoriga kiradi, o‘rtacha hosildorlik nisbatan past va 2021 yilda gektariga 31 sentnerni tashkil etgan bo‘lsa, Niderlandiyada bu ko‘rsatkich gektariga 90 sentnerni, Germanida gektariga 75 sentnerni tashkil etadi, Xitoyda gektariga 50 sentner hosil olishgan [2].

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarixida ushbu amaliyot o‘z o‘rniga ega, ya’ni asrlar davomida shakllangan an’anaviy sabzavotchilik va

bog‘dorchilik madaniyati mahalliy o‘g‘itlardan foydalanishni ko‘zda tutadigan biologik dehqonchilik tamoyillariga asoslangan. Bu genlarni modifikasiya qilish texnologiyalarini qo’llamasdan, ozuqaviy qiymati yuqori, o‘ziga xos ta’m va iste’mol xususiyatlariga ega bo‘lgan organik (ekologik toza) meva va sabzovotlarni yetishtirish imkonini beradi [3].

Organik o‘g‘itlarni (biogumusni) ekin turlari to‘liq o‘zlashtira oladigan darajada ekin maydonlariga solish ishlari yuqori darajada mexanizatsiyalashmagan va bunga e’tibor juda kam bo’lib qolmoqda. Bunga asosiy sabab, organik o‘g‘itlarni (biogumusni) solish me’yorlari sezilarli darajada kattaligidadir.

Organik o‘g‘itlarni (biogumusni) yerga solish texnologiyasiga asosan shudgorlangan va tekislangan maydonlarda kech kuzda yoki bahorgi ekishdan 10-15 kun oldin organik o‘g‘itlarni (masalan, biogumusni) solish uchun qurilmaning bir o‘tish paytida yerlarni shudgorlash, yerning ichiga o‘g‘it solib, solingan o‘g‘itni bir yo‘la ko‘mib va sug‘orish egatlari ochib, ikkita o‘g‘itlangan pushta hosil qilib ketadi.

O‘g‘itning samarasini pasaytirmagan holda uni solish me’yorini kamaytirish yo‘llaridan biri – o‘g‘itni lokal usulda solishdir. Bunda o‘g‘it bevosita o‘simlik ildizlari rivojlanadigan hududga solingani uchun samarasi sezilarli darajada ortadi. O‘g‘itni lokal usulda solishdan yana bir maqsad – o‘simliklar o‘zining dastlabki rivojlanish davrida kuchli ildiz tizimini rivojlantirib olishlari va ularning keyingi jadal rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishdan iborat [4].

Bu qulay sharoitni yaratish uchun ekinlarning ozuqa qatlamiga (odatda 20-25 sm) beriladi. O‘simliklarning keyingi jadal rivojlanishi va yaxshi hamda ko‘p miqdorda hosil (senterda) oshishi uchun yanada ko‘proq ozuqa kerak bo’ladi. Bu ozuqani biogumusning yer ostida harakatlanish xarakteridan (biogumus pastdan yuqoriga harakatlanishdan) kelib chiqib, yerning chuqurroq qatlamiga (masalan 60-70 sm) ham ozuqa zahirasini barpo qilish ishlarini talab qiladi. Bunda erning qattiq qatlami (gipsni) fizik-mexanik xossalari hamda biogumusni fizik - mexanik xossalari o‘rganiladi. Shu xossalardan kelib chiqib organik o‘g‘itlarni erning qattiq qatlamiga berish qurilmasini eng maqbul varianti tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son

2. https://dspace.tltsu.ru/bitstream/123456789/8484/1/Karpov%20M.S._XTM_1601a.pdf
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.05.2020 yildagi PF-5995-son
4. Agro ilm ilmiy jurnali №4. 2019 109-bet

UO‘T: 631.315.4

PAXTA YETISHTIRISHDA SUG‘ORISHDAN OLDIN BO‘YLAMA VA KO‘NDALANG POLLARNI HOSIL QILISHNING AHAMIYATI

Hakimov Qurbon Ziyodulloyevich
Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Abdualiyev Nuriddin Habibovich
“Umumkasbiy fanlar” kafedrasi mudiri, t.f.f.d., v.b.dotsent,
Email: n.abdualiyev.91@mail.ru

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institute

Annotatsiya. Maqolada uchinchi iqlim mintaqasiga kiruvchi Buxoro, Navoiy, Xorazm, viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida g‘o‘zani sug‘orishda qator oralarida bo‘ylama va ko‘ndalang pollarni hosil qilishning ahamiyati keltirilgan.

Kalit so‘zlar: G‘o‘za qatorlari orasi, bo‘ylama pol, ko‘ndalang pol, hududning nisbiy tekisligi, uchinchi iqlim hududi.

UDC: 631.315.4

THE IMPORTANCE OF FORMING LONGITUDINAL AND TRANSVERSE BOLLARDS BEFORE WATERING IN COTTON GROWING

Khakimov Kurbon Ziyodulloyevich
Mechanization of Hydro-reclamation works Master of the 1st level
Scientific supervisor:Abdualiev Nuriddin Khabibovich
Head of the Department of ”General Professional Discipline”, Ph.D., Associate Professor
Email: n.abdualiyev.91@mail.ru

"TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.

Annotation. The article presents the importance of the formation of longitudinal and transverse thresholds between rows when irrigating cotton in Bukhara, Navoi, Khorezm regions and the Republic of Karakalpakstan, which are part of the third climatic region.

Keywords: cotton row spacing, longitudinal threshold, transverse threshold, relative flatness of the territory, the third climatic region.

Respublikamizda barcha sohalar kabi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ham energiya va resurstejamkorlikka erishish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda ish unumi yuqori bo‘lgan, sifatli ishlov beradigan hamda ilg‘or texnologiyalar asosida ishlaydigan ishchi organlar bilan jihozlangan mashinalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan «...qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ish unumi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan keng foydalanish» vazifalari belgilab berilgan [1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan sho‘rlanish darajasi yuqori bo‘lgan g‘o‘za maydonlarini sifatli sug‘orish uchun bo‘ylama pol hosil qilish texnologik jarayonini bajaradigan qurilmalarining ratsional konstruksiyalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, paxta yetishtiruvchi hududlaridagi sug‘oriladigan yerlar o‘ziga xos xususiyatlari, tabiiy-iqlim va tuproq sharoitlari, tuproqning mexanik tarkibi, unga ishlov berish texnologiyasi, mashina turlari va unga qo‘yilgan agrotexnik talablarga ko‘ra uch hududga bo‘lingan.

Paxta yetishtiriladigan hududlardagi sug‘oriladigan yerlar tabiiy-iqlim va tuproq sharoitlari, tuproqning mexanik tarkibi, unga ishlov berish texnologiyasi, mashina turlari va unga qo‘yilgan agrotexnik talablarga ko‘ra uch hududga bo‘lingan.

Birinchi hududga chigitni tabiiy namlik hisobiga unib chiqishini ta’minlovchi atmosfera yog‘inlari miqdori yetarli bo‘lgan yerlar kiradi. Bu hudud, asosan, sho‘rlanmagan bo‘z tuproqli yerlardan iborat bo‘lib, jami paxta maydonining 25 foizini tashkil etadi. Mazkur hududga Farg‘ona,

Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining tog‘ oldi rayonlari kiradi.

Ikkinchi hudud - relefi unchalik notekis bo‘lmagan va atmosfera yog‘inlari miqdori chigitni tabiiy namlik hisobiga unib chiqishini ta’minlay olmaydigan ekish oldidan sug‘orish talab qilinadigan tog‘ oldi rayonlari kiradi. Bu hudud asosan, sizot suvlari chuqur joylashgan bo‘z tuproqdan iborat. Mazkur hududga yuqoridagi viloyatlarning birinchi zonadan quyiroqda joylashgan yerlari kiradi. Bunday yerlar Respublikamizdagi paxta yetishtiriladigan maydonlarning 17 foizini egallaydi.

Paxta maydonining 58 foizini tashkil etuvchi uchinchi hududga ishlov berish qiyin bo‘lgan va turli darajada sho‘rlangan yerlar kiradi. Chigit tabiiy namlikda normal unib chiqishi uchun bu hududda sho‘r yuvish talab qilinadi. Hududning tuprog‘i mineralli sizot suvlar beqaror chuqurlikda joylashgan bo‘z tuproqdan, turli darajada sho‘rlangan o‘tloq, o‘tloq-botqoq tuproqlardan iborat. Sizot suvlarning sho‘rligi va chuqurligi har xil bo‘ladi. Mazkur hududga Markaziy Farg‘ona va ikkinchi hududdan quyiroqda joylashgan yerlar, ya’ni Jizzax, Sirdaryo, Buxoro, Xorazm, Qoraqalpog‘iston Respublikasining yerlari kiradi [2].

Uchinchi iqlim mintaqasiga kiruvchi Buxoro, Navoiy, Xorazm, viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida g‘o‘zani birinchi sug‘orishdan oldin dalalarning relyefiga qarab bo‘ylama va ko‘ndalang pollar olinadi. Shuningdek, ushbu hudud tuproq iqlim sharoitida pol olmasdan turib birinchi sug‘orish ishlarini bajarishning imkoniyati yo‘q. Ushbu hududda dalaning nisbiy tekisligidan kelib chiqqan holda gektariga 300-400 pogonometrgacha bo‘ylama va shu miqdorda ko‘ndalang pol olish talab etiladi [3].

Hududning nisbiy tekisligi o‘rtacha 60 – 80 foiz atrofida ekanligini inobatga olsak, pol olishning quyidagi afzalliklarini sanab o‘tishimiz mumkin [4]:

- sug‘orish jarayonini qirqimlar asosida tartibli tashkil etish uchun qulaylik yaratiladi;
- sug‘orishda suv sarfining kamayishiga erishiladi;
- pollar orqali ajratilgan qirqimlardagi g‘o‘za nihollarining to‘liq bir tekis suv bilan ta’minlash imkoni tug‘iladi;
- dalaning balandroq bo‘lgan joylaridagi g‘o‘za nihollarini sug‘orish imkoni yaratiladi va buning hisobidan hosildorlik oshadi;

– dalaning chuqurroq qismlarining ko‘llab ketishining oldi olinadi va buning hisobidan hosildorlikka va suv tejamkorligiga erishiladi;
– sug‘orishdan so‘ng dala bir me’yorda keyingi ishlov berish uchun yetiladi;
– g‘o‘za nihollarini bir tekis rivojlanishiga erishiladi
– g‘o‘za nihollari bostirib sug‘orilganda yer yuzasida sho‘r ko‘tarilishining oldi olinadi.

Pollarni hosil qilish bilan ularning yetarli miqdorda bo‘lishi sug‘orishdagi suv sarfini 8 – 12 foiz tejashga olib keladi.

Paxta maydonlarini pol olib sug‘orish texnologik jarayoni 2016 yilda qishloq xo‘jaligi ilmiy – ishlab chiqarish markazi hamda Qishloq iqtisodiyoti ilmiy tadqiqot instituti tomonidan 2016 – 2020 yillar uchun ishlab chiqilgan namunaviy texnologik xaritalarda hisobga olinmagan, lekin ikkinchi va uchinchi iqlim mintaqalarida bu texnologik jarayonsiz g‘o‘zani sug‘orish jarayonlarini o‘tkazishning imkoniyati yo‘q. Shu sababli viloyatlardagi ilmiy markaz va ilmiy tadqiqot institutlarining filiallari, viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmalari tomonidan ishlab chiqilib, ilmiy – amaliy kengashlar tomonidan tasdiqlangan va ishlab chiqarishga joriy etilgan namunaviy va ishchi texnologik xaritalarda bu texnologik jarayon o‘z aksini topgan [5]

Buxoro viloyati uchinchi iqlim hududiga kirib, asosiy ekin maydonlari yarim cho‘l va cho‘l hududiga to‘g‘ri keladi. Yer osti sizot suvlarining sho‘rligi yuqori bo‘lib, har xil chuqurlikda joylashgan. Bunday maydonlarda dalaning bir tekisda sug‘orilishi katta ahamiyatga ega. Dalaning bir tekisda sug‘orilishi suv sarfini maqbul miqdorda bo‘lishiga, dalaning pastlik tomonidagi tuproqning zichlashgan loyli bo‘lmasligi va baland tomonidagi tuproqda sho‘r parchalarni paydo bo‘lmasligiga erishiladi. Dalani bir tekisda sug‘orish dalada bo‘ylama va ko‘ndalang pollar hosil qilish orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti Buxoro filiali tomonidan fermer xo‘jaliklari uchun “Buxoro-6”, “Buxoro-8” va “Buxoro-102” o‘rta tolali g‘o‘za navlarini yetishtirish agrotexnikasi doir ishlab chiqilgan tavsiyalarida g‘o‘zalarni sug‘orish jarayonlarida pollarning ahamiyati va unga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha aytib o‘tilgan. Unda ta’kidlanishicha, pol olinmagan dalalarda pol olingan dalalarga nisbatan quyidagicha farqlar kuzatiladi:
– hosildorlikning dalaning relyefi va tekisligiga qarab 15-30 foizga kam bo‘lishi;

- suv sarfi 20-30 foizga yuqori bo‘lishi;
- dalaning notekisliklarida sho‘r parchalarining hosil bo‘lishligi;
- dalada suvni nazorat qilishning qiyinligi;
- sug‘orish davomiyligini maydonning kattaligiga qarab 30 – 50 foizga ortishligi kabilardan iborat [6].

Shundan kelib chiqqan holda, sug‘oriladigan dalalarni ko‘ndalang va bo‘ylama pollar miqdori va sifatini ta’minlashga asosiy e’tiborni qaratish talab etiladi. Sug‘orishdan oldin olinadigan dastlabki bo‘ylama va ko‘ndalang pollar to‘lig‘icha qo‘l mehnati evaziga amalga oshirilib kelingan. Natijada dalalarni birinchi sug‘orish uchun tayyorlash jarayoni uzayib, hosildorlikka o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatgan holda, mehnat sarfini oshishiga va sarf-xarajatni ko‘payishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda hosil qilinadigan polning sifatli bo‘lishi sug‘orish texnologik jarayonining talab darajasida bajarilishini ta’minlaydi. Hosil qilinadigan polning balandligi, pol hosil qilinadigan qatordagi g‘o‘za nihollarining ko‘milmasligi va shikastlanmasligi, polning hosil qilishda tuproq olinadigan yon qatorlardagi g‘o‘za nihollarning ildiz va tana qismlarining zararsizlanmasligi katta ahamiyatga ega. Hosil qilinadigan polning balandligi bir tekisda va suv chizig‘idan yuqori bo‘lishi shart. Shu bilan birga uning zichligi va profilining talab darajasida bo‘lishi talab etilib, bu esa sug‘orish vaqtida suvchining qirqimlar bo‘yicha nazoratini olib borishi uchun qulaylik yaratadi.

So‘nggi yillarda g‘o‘za qatorlari orasida bo‘ylama pollarni hosil qilish texnologik jarayoni fermer xo‘jaliklarida qo‘lbola usulda tayyorlangan turli konstruksiyaga ega qurilmalar yordamida amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu qo‘lbola qurilmalar yordamida hosil qilingan pollar belgilangan talablarga javob bermaydi. Qurilma ish organlarining belgilangan texnologik jarayonga mo‘ljallanmaganligi sababli texnologik jarayon to‘laligicha amalga oshirilmay, g‘o‘za nihollarini ko‘milishiga, shikastlanishiga sabab bo‘lmoqda. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki bo‘ylama pol hosil qilinadigan qatorlarda qo‘lbola tayyorlangan qurilmalar yordamida pol hosil qilish jarayonida 8-10% gacha g‘o‘za nihollarini yo‘qotilishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, ushbu qurilmalar yordamida hosil qilingan pollarni qo‘l kuchi yordamida zichlab mustahkamligini oshirish talab etadi. Bu o‘z navbatida jarayonga sarflanadigan mehnat sarfini oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bugungi kunda qishloq xo‘jaligida mexanizatsiyalashgan ishlarni tashkil etish, qo‘l mehnatini kamaytirish fermer xo‘jaliklari uchun ham ijtimoiy, ham iqtisodiy samara beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, g‘o‘za qatorlari orasida bo‘ylama va ko‘ndalang pollarni hosil qilish avvalambor, suv tejamkorligiga, g‘o‘za nihollarini bir xil o‘sishi va rivojlanishiga, bir xil me’yorda sug‘orishdan so‘ng sifatli qator orasiga ishlov berish ta’minlanishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma/nashr uchun ma’sul R.S.Qosimov. – T.: «Ma’naviyat», 2018. -320 bet.

2. Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot etishtirish buyicha namunaviy texnologik kartalar. 2016-2020 yillar uchun. I-qism. – Toshkent: QXIITI, 2016. – 8 b.

3. O‘z PITI Buxoro filiali jamoasi. “Fermer xo‘jaliklari uchun Buxoro-6”, “Buxoro-8” va “Buxoro-102” o‘rta tolali g‘o‘za navlarini etishtirish agrotexnikasi doir tavsiyalar” Buxoro.2012. 68 b.

4. Buxoro viloyati qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasining 2018 yil hisoboti. Buxoro. 2019. 48-bet.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 dekabrdagi “2019 yilda g‘o‘zani navlar bo‘yicha joylashtirish va paxta xomashyosini etishtirishning prognoz hajmlari to‘g‘risida” № VM-1037-sonli qarori. 4-ilova. 13-b.

6. Murtazoev A.N. G‘o‘za qator oralarida bo‘ylama pol hosil qiladigan qurilmani takomillashtirish va parametrlarini asoslash. Diss. ... PhD, Namangan, 2020.-16 b.

УДК: 621.9.048.7

ОСНОВНЫЕ ДЕФЕКТЫ ДЕТАЛЕЙ РАБОЧЕГО ОРГАНА СКОРОСТНЫХ ПЛУГОВ ПРИ АБРАЗИВНОМ ИЗНАШИВАНИЕ

Грашков Сергей Александрович, к.т.н., доцент
Сазонов Евгений Владимирович, студент
Полянский Илья Сергеевич, магистрант
Иерусалимов Дмитрий Сергеевич, магистрант

rigii46@mail.ru
ФГБОУ ВО Курская ГСХА, г. Курск, Россия

Анотация. Интенсификация земледелия привела к увеличению скорости обработки почвы. Не осталось без внимания и проведение пахотных работ, так скорость движения агрегата выросла с 5 км/час до 14 км/час. В свою очередь, повышение производительности внесло коррективы в конструкцию плугов отечественного и зарубежного производства, что повлекло изменение деталей рабочих органов плугов, и поставило вопрос о создании адаптированных технологий восстановления. Разработка же технологий реставрации конструктивных элементов не возможна без информации об их дефектах, приобретенных в период эксплуатации. Новизна и небольшой период использования скоростной вспашки, а также недостаточное внимание со стороны ученых к этому вопросу ставит задачу, заключающуюся в изучении и анализе дефектов деталей рабочих органов скоростных плугов. Анализировалось состояние левых, правых и вертикальных ножей плугов ПСКу-10, по 27 единиц каждого наименования для получения достоверных ре-42 зультатов. Наличие дефектов и их геометрия оценивались визуально и определялся коэффициент повторяемости. В результате было установлено, что всем наблюдаемым деталям присуще лучевидный износ различного характера. Выявлено так же, что износ по толщине и ширине деталей, кроме вертикальных ножей, не является критерием предельного состояния плуга в целом. Кроме износов были выявлены местные разрушения и сквозные протирания. Коэффициенты повторяемости в зависимости от типа дефекта колеблются в диапазоне от 0,1 до 1,0.

Ключевые слова: скоростной плуг, дефекты, левый нож; правый нож; вертикальный нож; лучевидный износ, истирание, местный излом, сквозное протирание.

UDC: 621.9.048.7

THE MAIN DEFECTS OF THE PARTS OF THE WORKING BODY OF HIGH-SPEED PLOWS DURING ABRASIVE WEAR

Grashkov Sergey Alexandrovich, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor
Sazonov Evgeny Vladimirovich, student
Polyansky Ilya Sergeevich, Master's student
Dmitry Sergeyevich Jerusalem, Master's student
rigii46@mail.ru
Kursk State Agricultural Academy, Kursk, Russia

Anotation. The intensification of agriculture has led to an increase in the speed of tillage. The carrying out of arable work was not left without attention, so the speed of the unit increased from 5 km/h to 14 km/h. In turn, the increase in productivity made adjustments to the design of plows of domestic and foreign production, which led to a change in the details of the working bodies of the plows, and raised the question of creating adapted restoration technologies. The development of technologies for the restoration of structural elements is not possible without information about their defects acquired during operation. The novelty and short period of use of high-speed plowing, as well as insufficient attention from scientists to this issue poses the task of studying and analyzing defects in the parts of the working bodies of high-speed plows. The condition of the left, right and vertical knives of the Pskov-10 plows was analyzed, , 27 units of each name to obtain reliable results. The presence of defects and their geometry were assessed visually and the repeatability coefficient was determined. As a result, it was found that all the observed details are characterized by xiphoid wear of various nature. It is also revealed that wear in thickness and width of parts, except for vertical knives, is not a criterion for the limiting condition of the plow as a whole. In addition to wear, local destruction and through-wiping were detected. The repeatability coefficients, depending on the type of defect, range from 0.1 to 1.0.

Keywords: high-speed plow, defects, left knife; right knife; vertical knife; xiphoid wear, abrasion, local fracture, through wiping.

Введение. За последнее десятилетие произошло существенное увеличение скорости вспашки, что потребовало создание новых или модернизации существующих конструкций плугов [1]. В свою очередь, изменение конструкции приводит к изменению агротехники пахоты и соответственно к появлению специфичных износов конструктивных

элементов рабочих органов. Однако изучению дефектов деталей таких плугов не уделяется должного внимания, что затрудняет или вообще не позволяет провести разработку оптимальных технологий упрочнения и восстановления конструктивных элементов [2,3]. Поэтому в задачу работы входило выявление и систематизация приобретенных дефектов их рабочих органов. Скоростная вспашка, как отмечает ряд авторов [4,5], это перспективный способ обработки почвы, который получит в дальнейшем широкое распространение, а, следовательно, возрастет интерес и производственная необходимость к вопросам упрочнения и восстановления деталей.

Методика. Скоростные плуги являются бинарнолемешными плугами, у которых вместо полевой доски располагается дополнительный лемех [6]. Детали, выполняющие функцию резания и подрезания почвы называются ножами. Помимо левого и правого ножей, рабочий орган имеет еще и вертикальный нож, выполняющий функцию долота. Плуг для скоростной вспашки оснащается отвалом по аналогии с «классическими» пахотными орудиями.

Техническое состояние контролировалось у следующих групп деталей: левый нож; правый нож; вертикальный нож; отвал; (рисунок 1 а, б, в, г - соответственно). Обследовалось по 27 единиц каждой группы. Непосредственно перед проведением контроля опытные изделия очищались от образовавшихся загрязнений. Базовыми были детали серийно выпускаемого плуга ПСКу-10.

Рисунок 1- Детали рабочего органа скоростного плуга ПСКу-10 в состоянии поставки и восстановленные

Лемех левый имеет две режуще - лезвийные области (подрезающая часть). Его конструкция устроена таким образом, что позволяет менять положение путем переворота на 180°, тем самым вводя в работу неизношенную подрезающую часть т.е. он является оборотным. Тыльная сторона ножа наплавлена сплавом Сормайт, обеспечивая тем самым эффект самозатачиванияи увеличивая способность к сопротивлению абразивному изнашиванию. Деталь термоупрочнена до твердости 40 HRC на 35 мм по ширине от лезвия [7].

В отличие от левого, правый нож конструктивно позволяет его эксплуатировать толь-ко в одном положении. Термоупрочнение на твердость 40 HRC и наплавленный слой Сормайта твердостью 74 HRC с тыльной стороны, также позволяет обеспечить эффект самозатачивания режуще-лезвийной области и повышенную абразивную износостойкость.

Вертикальный нож заглубляется на 10 см ниже горизонтальных ножей правого и левого и имеет 2 противоположные термоупрочненные области твердостью 40 HRC, выполняющие функцию подрезания почвенного пласта. Его конструкция, как и левого ножа, позволяет менять положение путем поворота на 180°, тем самым увеличивая ресурс рабочего органа в целом.

Отвал штампованный, винтовой, сложной геометрической формы хорошо измельчает и производит оборот почвенного пласта на 180°. Измельчение и оборот почвы на такую величину обусловлены наличием изогнутого элемента в верхней части крыла. Дополнительные меры по упрочнению рабочей поверхности заводом изготовителем не предусмотрены. Твердость рабочей поверхности около 100 НВ.

Оценка дефектов проводилась визуально с определением коэффициента повторяемости (k). Изучались износы деталей без учета их оборота.

Результаты и их анализ. Все рассматриваемые детали работают в условиях интенсивного абразивного изнашивания, поэтому характерными дефектами являются износы. Однако имеется своя специфика. В связи с этим необходимо рассмотреть износы каждой отдельной детали в соответствии с выполняемой работой.

Все поступившие в ремонт ножи имели лучевидный износ. На ряде деталей он ярко выражен в заглубляющей области, что совпадает с подобными износами цельнометаллических лемехов [8]. Лучевидный износ расположен между подрезающими частями. Это связанно с тем, что они термоупрочнены, и их тыльная сторона наплавлена Сормайтом. Коэффициент повторяемости такого дефекта составляет 1,0. Среди изучаемых ножей наблюдались изделия с изломом заглубляющей части (k =0,1). Причинами этого могут являться два фактора: первый – истончение участка; второй – случайные факторы (нарушение правил эксплуатации или наезд на препятствие – например, валуны значительной массы). Наряду с этим имеет место износ лезвия с k =1,0.

Обследованные правые ножи имели дефект в виде лучевидного износа в области полевого обреза. Причем данный порок выражался в износах по двум сечениям. В некоторых случаях лучевидный износ приводит к излому заглубляющей части, вследствие ее чрезмерно малой толщины. Другим дефектом ножа является износ режуще – лезвийной части (износ по ширине). У обследованных ножей сохранилась заточка и наплав-ленный слой Сормайта на ширину 5 мм, что дает основание для их детальнейшего использования. Повторяемость таких пороков составляет 100%. Судя по величине износов этих конструктивных элементов можно утверждать, что они подвержены значительному воздействию почвенной среды

Общим для этих изделий является лучевидный износ, выходящий на боковую часть, которая в большой степени подвержена истиранию, поэтому есть все основания утверждать, что изнашивание вертикального ножа (его боковой области) будет определять предельное состояние плуга в целом. Чрезмерное истончение режущей области из-за развития лучевидного износа может привести к местному сквозному протиранию детали. Отмечается частичное истирание боковой области, расположенной вне зоны термоупрочнении. Подрезающая же область остается пригодной для дальнейшей эксплуатации. Повторяемость дефектов следующая: лучевидного -1.0; истирание боковой части -1,0; протирание – 0,1.

Выводы. 1. Проведено обследование технического состояния деталей рабочих органов. Все детали корпуса плуга имели, в разной степени, износ по толщине.

Список используемой литературы.

1. Состояние отечественного сельхозмашиностроения и пути повышения эффективности сельскохозяйственного бизнеса Макарова А.В., Грашков С.А., Еськов Д.И. В сборнике: Современные проблемы и направления агроинженерии в россии, сборник научных статей Междлународной научно-технической конференции. Курск, 2021.С 59-63

2. Качество наплавленных покрытий лемехов плугов *Алехин Ю.Г., Грашков С.А., Угримов А.С.* В сборнике: Качество в производственных и социально-экономических системах. Сборник научных трудов 5-й Международной научно-технической конференции. Ответственный редактор Е.В. Павлов. 2017. С. 11-13.

3. Инновационная технология восстановления изношенных деталей автотракторной техники путем применения электроискровых покрытий на основе электроэрозионных наноматериалов *Алехин Ю.Г., Грашков С.А., Угримов А.С.* В сборнике: Прогрессивные технологии и процессы. Сборник научных статей 3-й Международной молодежной научно-практической конференции. Ответственный редактор Горохов А.А., 2016. С. 14-17.

4. Показатели качества и технического уровня восстановления коленчатых валов *Белан Э.А., Грашков С.А., Алехин Ю.Г.* В сборнике: Перспективное развитие науки, техники и технологий. сборник научных статей материалы 6-й Международной научно-практической конференции. 2016. С. 22-26

5. Исследование химического состава порошков, полученных электроэрозионным диспергированием твердого сплава / Агеев Е.В., Семенихин Б.А., Агеева Е.В., Латыпов Р.А. // Известия Юго-Западного государственного университета. 2011. № 5-1 (38). С. 138а-144.

6. К вопросу осаждения электролитического сплава железо-кобальт//*Блинков Б.С., Калуцкий Е.С., Грашков С.А., Степашов Р.В.*В сборнике: Актуальные проблемы и инновационная деятельность в агропромышленном проризводстве. материалы Международной научно-практической конференции. Курская государственная сельскохозяйственная академия имени И.И. Иванова. 2015. С. 55-57.

7. Влияние состава пастообразного карбюризатора на цементацию низколегированной стали ХВГ// *Грашков С.А., Пивовар*

*Н.А., Алехин Ю.Г.*В сборнике: Инновационные тенденции развития российской науки. материалы XI Международной научно-практической конференция молодых ученых. Министерство сельского хозяйства Российской Федерации; Департамент научно-технологической политики и образования; Красноярский государственный аграрный университет. 2018. С. 170-171.

8. Повышение информативности процесса диагностирования двигателей автомобилей за счет технической эндоскопии// *Агеев Е.В., Щербаков А.В., Алехин Ю.Г., Грашков С.А. Известия Юго-Западного госдарственного университета. 2018.№1 (76). С.18-26*

UO‘T: 631.312.

CHIGITNI SUYUQ ORGANIK O‘G’IT BILAN EKADIGAN QURILMA

Halimov Tilavjon Azamat o‘g’li-magistr, halimovtilav@gmail.com
Ilmiy rahbar: Ergashov Zuhriddin Jo`rayevich - tayanch doktorant,
zuxriddin72@mail.ru
”Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash sohasiga xususan ekinlarni qatorlab ekish bilan birga unga organik o‘g’itlarni solish jarayoniga taalluqlidir.

Kalit so`zlar: organik o‘g’it, chigit, anaerob, suyuq organik o‘g’it.

UDC: 631.312.

DEVICE FOR PLANTING SEEDS WITH LIQUID ORGANIC FERTILIZER

Halimov Tilavjon Azamat o‘g’li - master, halimovtilav@gmail.com
Ergashov Zuhriddin Jurayevich - basic doctoral student,
zuxriddin72@mail.ru
Bukhara Institute of Natural Resources Management “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers” National Research. Bukhara City. Gazli ave. 32. 200100. Uzbekistan.

Annotation. This article deals with the process of mechanization of agriculture, in particular the process of applying organic fertilizers to it, along with the row planting of crops.

Keywords: organic fertilizer, seeds, anaerobic, liquid organic fertilizer.

So‘ngi yillarda dunyoda shu jumladan Respublikamizda, qishloq xo‘jaligini organik o‘g’itlar bilan ta’minlash muammo bo‘lib qolmoqda. Sababi, O‘zbekiston sharoitida gumus balansini taqchiliksiz holatda ushlab turish uchun har bir gektar sug’oriladigan yerga har yili 18-20 tonna organik o‘g’itlar qo‘llanilishi kerak. Buning uchun qishloq xo‘jaligi , chorva mollari va tovuq go‘ngini anaerob qayta ishlab yuqori sifatli tayyorlash ularni foydali suratda ishlatishning eng samarali usuli hisoblanib, u birdaniga ikkita masalani hal qiladi; birinchidan, organik o‘g’it muammosini, ikkinchidan, atrof muhitning chiqindilar bilan ifloslanishdan saqlash masalalari o‘z yechimini topadi [1]. Bunday chiqindilardan organik o‘g’it tayyorlash yo‘li bilan foydali suratda ishlatish va dehqonchilikda oziq moddalar balansini tartibga solishda, chiqindilar tarkibidagi oziq elementlarning moddalar almashinish zanjirida ishtirok etishida muhim o‘rin tutadi.

Chigitni ekish paytida organik o‘g’itlar qo‘llanilsa, g’o‘za barvaqt, qiyg’os, sog’lom nihol undirib olish mumkin. Bunda urug’lik chigit tuproq haroratiga bog’liq holda 3,0-6,0 santimetr ekish qatori chuqurligiga anaerob qayta ishlash natijasida suyuq organik o‘g’it shaklida solinadi. Suyuq organik o‘g’it qo‘llash evaziga chigit ekish chuqurligidagi tuproq harorati 0,2-0,50S ga, tuproq namligi 1,0-1,5 %ga ortib, nihollar to‘liq unib chiqishiga erishiladi [2].

Ma’lumki tukli chigitlar g’altakli apparatlar bilan jihozlangan SCHX-4A-I, SXU-4-I va SMX-4-I seyalkalari bilan uyalab yoki qatorlab qator oralarini 60 va 90 sm qilib ekiladi. Hozirda eng ko‘p SCHX-4A rusumli seyalkadan hozirga qadar foydalanib kelinmoqda [3].

Ushbu seyalkaning asosiy kamchiligi shundaki, undan chigit ekish jarayonida, uni ekish bilan birgalikda suyuq organik o‘g’it solish ishlarini amalga oshirib bo‘lmaydi. Buning asosiy sababi, ular faqat chigit ekish uchun mo‘ljallangan.

Ushbu chigit ekish seyalkasining asosiy kamchiligi shundaki, hududning tabiiy iqlim, tuproq sharoitidan kelib chiqib, chigit ekish bilan birga suyuq organik o‘g’it solish ishlarini amalga oshira olmasligidir.

Bu esa sho‘rlangan yerlarda chigitni unib chiqish davrida tuproq tarkibidagi gumusning yetarli darajada bo‘lmasligi va tuproq yuza qismida zichlangan qatlam hosil bo‘lishi tufayli chigitning bir xil va bir tekis unib chiqmasligi hisobiga agrotexnik talabning buzilishi va hosildorlikning nisbatan pasayishiga olib keladi.

Ushbu muammoni hal qilish qilish uchun hududning tabiiy tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda chigitni ekish bilan birga unga suyuq organik o‘g’it solish ishlarni amalga oshirish orqali chigitni bir xil unib chiqishini ta’minlash hisobiga hosildorlikni oshirishdan iborat.

Qo‘yilgan masala chigit ekish seyalkasiga o‘rnatishga moslashgan suyuq organik o‘g’it solish bunkeri hamda ushbu bunkerdan o‘g’itni miqdorlagichlar orqali chigitni ekish soshnigiga uzatadigan o‘tkazgichlardan iborat bo‘lgan ishchi organli qurilma orqali hal qilinadi.

Qurilmaning ishlashi rasmlar orqali tushuntiriladi. 1–rasmda chigitni suyuq organik o‘g’it bilan ekadigan qurilmaning yon tomondan ko‘rinishi, 2–rasmda chigitni suyuq organik o‘g’it bilan ekadigan qurilmaning old tomondan ko‘rinishi, 3–rasmda chigitni suyuq organik o‘g’it bilan ekadigan qurilmaning yuqoridan ko‘rinishlari tasvirlangan.

Chigitni suyuq organik o‘g’it bilan ekadigan qurilma aniq miqdorda ekish apparati 1, soshnik sektsiyasi 2, chigitni ko‘madigan ish jihozlari sektsiyasi 3, rama 4, chigit saqlanadigan idish 5, harakatlantiruvchi chap val 6, iztortgich 7, suyuq organik o‘g’it berish uchun bunker 8, g’altaksimon me’yorlagich 9 va suyuq organik o‘g’it o‘tkazgich 10, tayanch g’ildirak 11 lardan iborat.

Qurilma quyidagi tartibda ishlaydi. Ekish seyalkasi traktor yordamida harakatlanganda tayanch g’ildirak 11 orqali aniq miqdorda ekish apparati 1 ga harakat uzatiladi. Shu bilan birga soshnik sektsiyasi 2 yordamida ochilgan uyaga idish 5 dagi chigit donalab tashlanadi va chigit ustiga bunker 8 dan g’altaksimon aniq me’yorlagich 9 yordamida me’yorlangan o‘g’it o‘tkazgich 10 lar orqali uzatiladi. G’altaksimon me’yorlagich 9 ga harakat chap val 6 yordamida uzatiladi. Ekilgan chigitni ko‘madigan ish jihozlari sektsiyasi 3 yordamida ko‘miladi. Iztortgich 7 orqali keyingi ekish jarayoni uchun iz tortib ketiladi.

Yuqorida bayon etilgan texnologik jarayon orqali ekilgan paxta

hosilini oshirishga erishiladi.



1–rasm. Chigitni suyuq organik o‘g’it bilan ekadigan qurilmaning yon tomondan ko‘rinishi



2–rasm. Chigitni suyuq organik o‘g’it bilan ekadigan qurilmaning old tomondan ko‘rinishi



3–rasm. Chigitni suyuq organik o‘g’it bilan ekadigan qurilmaning yuqoridan ko‘rinishi

Ushbu qurilmadan foydalanib chigit ekishda hududning tabiiy tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda chigitni ekish bilan birga unga suyuq organik o‘g’it solish ishlarni amalga oshirish orqali chigitni bir xil unib chiqishini ta’minlanadi va yetishtirilgan paxta hosildorligi 10-15 % gacha oshadi.

Adabiyotlar:

1. Imomov Sh J 2017 Technological foundations of the process of obtaining biogas and fertilizers from agricultural wastes p 96 Tashkent

2. Ergashov Z.J; Saidova G. K..2021 Influence of organic fertilizer (biofertilizer) obtained as a result of anaerobic processing on soil fertility and germination of cotton sprouts. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal https://saarj.com. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02010.3

3. Ф.М.Маматов, И.Ғ.Темиров. Қишлоқ хўжалиги машиналари. T.Voris. 2019 й. 204...205 бетлар.

UDC: 621.436

SOLAR COLLECTOR FOR WATER SOFTENING USING NATURAL COMPONENTS.

[1]Bremen Zakaria Maher, [2]Shodiev Sadir Ne'matovich,

[3]Fayzullaev Mukhriddin Nasriddin o'g'li.

[1]Volgograd State Medical University Ministry of Health of the Russian Federation

[2,3]Bukhara Institute of Natural Resources Management, National Research University, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, n.shodiyev1991@gmail.com, fayzullayevmux@yandex.com

Annotation. In this article, you can soften water using the natural method. For preliminary softening of water, we need to design and manufacture a stationary plant using solar energy for heating. For softened water, we used the ashes of cotton stalks and leaves of the "Gujum" tree.

Key words: water softening, hard water, solar collector, ash, ash filling neck, battery, regulated, cotton stalks and leaves of the Gujum tree.

УДК: 621.436

СОЛНЕЧНЫЙ КОЛЛЕКТОР ДЛЯ УМЯГЧЕНИЯ ВОДЫ С ПРИМЕНЕНИЕМ ЕСТЕСТВЕННЫХ КОМПОНЕНТОВ.

[1]Бремен Закария Махер, [2]Шодиев Садир Неъматович,

[3]Файзуллаев Мухриддин Насриддин ўгли

[1]Волгоградский государственный медицинский университет Министерства здравоохранения Российской Федерации

[2,3]Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства, n.shodiyev1991@gmail.com, fayzullayevmux@yandex.com

Аннотация. В данной статье приведены можно умягчения воды по натуналной способой. Для предварительного умягчения воды нами необходимо спроектирована и изготовлена стационраная установка с использованием солнечной энергии для подогрева. Для умягченной воды нами била использована зола стеблей хлопчетника и листья дерева "Гужум".

Ключевые слова: умятчения вода, жесткая вода, Солнечный коллекторб, золы, горловина для засипки золы,батарея, регулированныи чток, стеблей хлопчетника и листья дерева "Тужум",

For preliminary softening of water, we have designed and manufactured a stationary plant using solar energy for heating. Fig.1. The main element of the installation are; standard flat steel heating radiators, dimensions 1400x560 mm, capacity 1 pc. 6 l. Each battery is covered with cellophane film. The installation is assembled from 6 pieces of such batteries at an angle of 45-50°c. This angle is adjustable with a stem. The basis is pipes ∅ 75-100 mm. At ambient temperatures of 25°c and above, the body and base of the unit also turn into a heating element[1]..

Water for heating is supplied from the tank, passes through the top and drains through the tap into the tank for collecting water.

Tanks of the OVH7 installation can serve as containers.

When performing the whole system, the valve opens, the valve is in the closed position. To determine the heating time, experiments were carried out with the installation of the "Kagan" in place. The results of the experiments are shown in Figure 2. The temperature of the water in the batteries rises for 1 hour, and then stabilizes. At an ambient temperature of 24.5°c, the water in the batteries



Figure.1. We use a solar collector for heating and softening water for the cooling system in MTP.

1-Tank for non-softened water. 2-neck for sifting ash. 3- bases. 4 - batteries. 5 - tank for non-softened water. 6 - regulated what.



Figure.2. Dependence of the water temperature in the wave collector on the duration of heating.

1- Ambient air temperature t_{ok} = 18 °c, *2- Ambient air temperature* t_{ok} = 24 °c, *3- Ambient air temperature* t_{ok} = 35 °c. heats up to 70°C water temperature at the beater inlet is 21°C.

Vegetation ash is an effective agent for softening hard water. For this purpose, we used the ashes of cotton stalks and leaves of the Gujum tree. The ash can be poured through the mouth of the upper part of the unit or directly into the water collection tank. In the water collection tank, the water should stand for 0.5 hour and then be used for the cooling system. The daily productivity of the installation is 324 liters at an ambient temperature of 15-25°c, -450-550 liters at an ambient temperature above 25°c.

Cotton ash is available to almost every tractor driver, free of charge, non-toxic. The effectiveness of the use of cotton stalks ash mainly comes down to the quantitative assessment of this preparation[2,3]..

We have conducted studies to determine the rational specific consumption of ash per 1 liter of water of different hardness, the effect of water temperature on its softening with ash. The water used for the engine cooling system has an average hardness of 25-30 mg. equiv./l

The experiments were carried out with water hardness of 25 mg. equiv/l and 30 mg. equiv/l. water in MTII department 2, state farm "Kagan" at a water temperature of 45 °c and 80 °c, time - 0.5 hours, the dose of ash was as follows: 1 g per 1 liter of water, 2 g/l.,5 g /l., 15 g/l., 20 g/l., 30 g/l.
The obtained results of the experimenters are presented in fig. 3.

Figure.3. Changes in water hardness with the addition of cotton stalks ash (initial water hardness 25 mg)

1-At water temperature current = 45 °c, 2-At water temperature current = 80 °c,

References.

1. Kozlov Yu. S. "Cleaning cars during repairs" M. Transport. 1982. 151s

2. Kuznetsev Yu. S. "Electrizability of automotive fuels" M. MADI. 1978.60s

3. Yakubovich, A.I. Cooling systems for tractor and car engines. Design, theory, design: Monograph / A.I. Yakubovich, G.M. Kukharenok, V.E. Tarasenko. - Minsk: BNTU, 2011. - 435 p.

UO‘T: 630.114.445

TUYNUKLI DRENAJ HOSIL QILISHNING TAKOMILLASHGAN TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASI

Hamroyev Ilxomjon Fayzullo o’g’li
Hamroyev G’iyosjon Fayzullo o’g’li
TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti
Ilmiy rahbar: Jo‘rayev Fazliddin o‘rinovich,
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektori t.f.d., prof.

Annotatsiya. Maqolada sho‘rlangan tuproqlarda shudgordan oldin belgilangan (45-50 sm va 70-80 sm) chuqurliklarda tuynukli drenaj hosil qilish, so‘ngra me’yorida sho‘r yuvish, tuproq tarkibidagi zararli tuzlarni suvni tejash orqali oson chiqarib yuborish, kuzgi sho‘r yuvishda kam suv sarflab, maksimal darajada zararli tuzlarni tuproq tarkibidan chiqarib

yuborish bo‘yicha takomillashgan texnika va uni qo‘llash texnologiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Drenaj, tuynukli drenaj, konus uchli silindr, marker, tayanch g‘ildirak, kontur, qamrov kengligi.

UDC: 630.114.445

ADVANCED TECHNIQUES AND TECHNOLOGY OF NUCLEAR DRAINAGE

Hamroyev Ilkhomjon Fayzullo ugli
Hamroyev Giyosjon Fayzullo ugli
TIQXMMI ”MTU Bukhara Institute of Natural Resources Management
Supervisor: Jurayev Fazliddin Urinovich,
”TIQXMMI” MTU Vice-Rector for Research and Innovation of Bukhara Institute of Natural Resources Management. t.f.d., prof.

Annotation. In the article, in saline soils to create a hole drainage at depths set before plowing (45-50 cm and 70-80 cm), followed by normal saline washing, easy removal of harmful salts from the soil by saving water, autumn sho r Information on advanced techniques and technologies for its application to the maximum extent of harmful salts in the soil with low water consumption in washing.

Keywords: Drainage, perforated drainage, conical tip cylinder, marker, support wheel, contour, coverage width.

Bugungi kunda Respublikamizda 4,2 mln gektar sug‘oriladigan maydon mavjud bo‘lib, shundan 45% turli darajada sho‘rlangan maydonlar hisoblanadi. Respublikamizda har yili 680 ming gektardan ortiq maydonda sho‘r yuvish ishlari olib boriladi. Buxoro viloyatida 274612 gektar sug‘oriladigan maydonning 85,8% turli darajada sho‘rlangan, shu sababli har yili 180 ming gektar maydonda sho‘r yuvish ishlari olib boriladi [1].

Sho‘rlangan tuproqlarning hosil bo‘lishi va ularning salbiy oqibatlariga nihoyatda katta. meliorativ tadbirlar va bu tadbirlarni mexanizatsiyalash orqali amalga oshirish hozirgi kunning dolzab muammolaridan biri ekanligi barchamizga ma’lum.

Buxoro viloyati sharoitida umumiy sho‘rlangan tuproqlar 86% ni tashkil etgan bo‘lsa, yildan yilga bu ko‘rsatgich kamayish o‘rniga ba’zi bir hududlarda o‘sish holatlari kuzatilmoqda.



1-rasm. Qavatli ishlov beradigan qurilma sxemasi.
1-taqish moslamasi; 2-P simon rama; 3- iz tortkich (markor); 4-doloto; 5-tutgich qulflar;
6-tuynukochgich; 7-orqa stoykalar; 8-old stoyka.

Shu sababli ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida biz tomondan kuzgi sho‘r yuvishdan oldin qo‘llaniladigan qavatli ishlov beradigan suv tejamkor tuynukli drenaj hosil qiladigan yangi qurilma ishlab chiqildi. Qurilmaga anolog sifatida TDHQQ-1/100 qurilmasidan foydalanildi. Ilmiy izlanishlar va laboratroriya dastlabki sinovlari natijalariga tayanib na’muna sifatida qurilmaning madeli ishlab chiqildi. Madel laboratoriya sharoitida sinovdan mofaqiyatli o’tdi. Hozirda qurilmaning dala sharoitida ishlaydigan mustahkam shakilda ishlab chiqish ustida Buxoro shahar RMZ tashkiloti bilan birgalikda ishlar olib borilmoqda, tajriba ishlarini kuzgi mavsumda olib borishga tayyorgalik ko‘rilmoqda.

Mavjud TDHQQ-1-100 qurilmasi sho‘rlangan yerlarda kuzgi sho‘r yuvishdan oldin tuynukli drenaj hosil qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning osma ramasi ikki qismga, ya’ni old va orqa ramalarga bo‘linadi. Old rama traktorning orqa taqmasiga ildiriladi va orqa rama old ramaga uchta nuqta orqali sharnirli birikma bilan biriktiriladi. Old va orqa rama o‘rtasida o‘rnatilgan gidrotsilindr yordamida orqa ramani ish ustuni, ishchi organ konus uchli, po‘lat arqon bilan birgalikda ishchi va transport holatlarida bo‘lishini ta’minlab turadi. Orqa ramada o‘rnatilgan ish ustunining ishlov berish chuqurligini ishga tushirish oldidan o‘zgartirish mumkin.

Yumshatuvchi ish organi sirti to‘lqinsimon shakldagi uncha katta bo‘lmagan burchak ostida joylashgan yumshatkich (doloto) ish ustuni va konus uchli silindrni bog‘lovchi po‘lat arqon va tuynukli drenaj hosil qiluvchi konus uchli silindr bilan jihozlangan [4,6].

Mavjud TDHQQ-1-100 tuynukli drenaj hosil qiluvchi qurilmada bitta ish organi bilan jihozlangan, ish samaradorligi past, ishlov berishi chuqurligini qo‘l yordamida ishga tushirishdan oldin bir xil chuqurlikda o‘zgartirish mumkin va ish unumdorligi past bo‘lganligi sababli [2,5], takomillashgan qavatli ishlov beradigan suv tejamkor tuynukli drenaj hosil qiluvchi qurilma loyihalanib, ishlab chiqilmoqda konstruktiv chizmalari asosida dala sharoitiga moslangan yangi tuynukli drenaj hosil qiladigan qurilma yaratilmoqda va u 1-rasmda keltirildi.

Qurilma sodda qilib ishlab chiqilgan, rama va unga o‘rnatilgan uchta old va orqa ish ustuni hamda uning orqa tomonidan po‘lat arqon orqali konus uchli silindrlar o‘rnatilgan, stoykalarniung ishlov berish oraliqlari belgilangan chuqurlikda 1,5-2 m ni tashkil qiladi.

Ushbu qurilmaning tortishga qarshilik kuchi quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin [3].

$$\sum F_{tc} = 3(R_{rez} + F_{sd} + F_{kts} + F_{pkts} + F_{tro} + F_{ktsy} + F_{ioy}) + 2(F_{opk} + F_{mar}) \quad (1)$$

Bunda: $\sum F_{tc}$ - qurilmaning umumiy tortishga qarshilik kuchi, kN;

R_{rez} - ponasimon ish ustunining tuproqni kesishdagi qarshilik kuchi, kN;

F_{sd} - to‘lqinsimon yumshatuvchi ponaning qarshilik kuchi, kN;

F_{kts} - konus uchli silindrlarning qarshilik kuchi, kN;

F_{pkts} - konus uchli silindrlarning tuproqning yopishib qolishidan hosil bo‘ladigan qarshilik kuchi, kN;

F_{tro} - ish ustuni va ishchi organni bog‘lovchi zanjirning qarshilik kuchi, kN;

F_{ktsy} - ish ustuniga tuproqning yopishib qolishidan hosil bo‘ladigan qarshilik kuchi, kN;

F_{ioy} - ish ustunining qarshilik kuchi, kN;

F_{opk} - tayanch g‘ildiraklarning qarshilik kuchi, kN;

F_{mar} - markyorning qarshilik kuchi, kN.

Ish jarayonida tuynukli drenaj hosil qiluvchi qurilma tuproqning mexanik tarkibi o‘rtacha bo‘lgan tuproqlarda o‘rtacha $\sum F_{tc} = 27 \div 33$ kN qarshilik kuchi yuzaga kelishi o‘rganilgan.

Qurilmaning ish jarayonida talab etiladigan quvvat quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$N_{kd}=\frac{\Sigma F_{tc}\cdot V_{kd}}{\eta_{kd}}\ \text{kVt};\qquad N_{kd}=52\div 79 кВт \tag{2}$$

Bunda: N_{kd} - tuynukli drenaj hosil qiluvchi qurilmaga talab etiladigan quvvat, kVt;

V_{kd} - qurilmaning ishchi tezligi, m/s;

η_{kd} =0,80-0,85- mashinaning foydali ish koeffitsienti.

Kuzgi shoʻr yuvishdan oldin tuynukli drenaj hosil qiluvchi qurilmaning normal ish jarayonini tashkil etish uchun tuproqning fizik-mexanik xossalari uning mexanik tarkibi va shoʻrlanish darajasi bogʻliq ravishda ishlov berish chuqurligi toʻgʻri tanlab, shoʻr yuvish meʼyorlarini belgilab, tuproqning shoʻr yuvishdan oldingi va shoʻr yuvishdan keyingi tuproq tarkibidagi zararli tuzlar miqdorini oʻzgarish dinamikasi oʻrganib borilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent, Oʻzbekiston, 2016.-56 b.
2. N.M.Murodov, F.Oʻ.Joʻraev foydali modelga patent №FAP00727 Tuynukli drenaj ochuvchi qurilma, Oʻzbekiston Respublikasi foydali modelga patent davlat restorida roʻyxatga olingan 05.04.2012 yil Toshkent.
3. Xamidov M.X., Joʻraev F.U. “Ustroystvo i prinsipы raboty drenajno-krotovogo orudiya”. //Irrigatsiya va Mellioratsiya. –Toshkent, 2017. №1 (7). –B.9-12.
4. Juraev F.U.,Rajabov YA.J. Foydali modelga patent № FAP20200172 Tuynukli drenaj ochuvchi qurilma, Oʻzbekiston Respublikasi foydali modelga patent davlat reestorida roʻyxatga olingan 05.07.2020 yil Toshkent.
5. FU Zhurayev, GF Khamrayev, AN Zhurayev. Technology of reclamation machines application in the conditions of irrigated agriculture // The Way of Science, 2014. №3. c. 32.
6. F U Zhurayev, G' F.Khamroyev, I F.Khamroyev, Z. Khaydarova, I.Ibodov. THE USAGE OF A COMBINED MACHINE IN THE PROCESS OF PREPARING THE LAND FOR PLANTING // CONMECHYDRO - 2021. IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering Scopus.

UOʻT: 631.315.4

CHOPIQ KULTIVATORLARI UCHUN QOTOR ORALARINI YUMSHATUVCHI TISH

Qayimov Shuxrat Mehriddin o‘g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Hasanov Ulug’ Ibrohimovich
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi
Email: Ulugbek.hasanov.1989@mail.ru

Annotatsiya : Mazkur maqolada paxtachilikda qator oralariga ishlov berishda,qo‘llaniladigan chopiq kultivatori ishchi organlariga qo‘shimcha yumshatuvchi tishlar o‘rnatish orqali tuproqqa samarali ishlov berish agrotexnikasiga doir ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Kultivator, yumshatuvchi tishlar, mineral o‘g‘itlar, jo‘ya olgich, yumshatuvchi iskanasimon panja, kesuvchi panja, o‘qyoysimon tishlar, yumshatuvchi tishlar.

UDC: 631.315.4

TOOTH THAT SOFTENS ROW SPACING FOR HOEING CULTIVATORS

Kayimov Shukhrat Mekhriddin ugli
Studetnts of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
Scientific supervisor: Khasanov Ulug Ibrohimovich
Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
Email: Ulugbek.hasanov.1989@mail.ru

Annotation: This article provides information on agronomic techniques for efficient tillage by installing additional softening teeth on the working bodies of the cultivator used in inter-row cultivation in cotton growing.

Keywords: Cultivator, softening teeth, mineral fertilizers, cultivator, hanging mechanism, softening claw, cutting claw, curved teeth, softening teeth.

Chopiq kultivatorlari sug'oriladigan ekinni parvarishlashda uning qator oralig'idagi tuproqni yumshatish, begona o'tlar ildizini kesib ketish, o'g'itlash, juyaklar ochish kabi ishlar chopiq kultivatori yordamida bajariladi. Qatordagi ko'chatlarga zarar keltirmaslik uchun ularga nisbatan kultivator tishlari birinchi kultivatsiyalashda ko'chatga nisbatan 8–12 sm, keyingilarida esa ko'chatga nisbatan 14 –15 sm himoya zonasi qoldirilib joylashtiriladi. Ishchi qismlari. Chopiq kultivatorlarida ham yerga yoppasiga ishlov beradigan kultivatorning 2- rasmda keltirilgan ishchi qismlari va o'g'it solgich, rotatsion yulduzcha, jo'yak olgich, panjarasimon qanotli jo'yak olgich, oziqlantirib jo'yak olgich, sferik disk va boshqalar ishlatiladi. Har bir qator oralig'idagi tuproqqa ketma-ket ishlov berish uchun kerak bo'lgan ishchi qismlarning majmuasi bitta gryadilga o'rnatiladi.Gryadil qatorlar oralig'ining o'rtasida joylashgan bo'lib, ishchi qismlar uning o'ng va chap tomonlariga kerakli masofa va chuqurlikda o'rnatiladi. Har bir ishchi qism ustuni gryadilga tutqich va qulflar yordamida, uning kerakli holatini ta'minlaydigan qilib mahkamlanadi.O'toqlovchi va o'q-yoysimon tishlar begona o'tlarning ildizini kesib ketishi va tuproqni qisman yumshatishi uchun ishlatiladi. Ular tig'ining qalinligi 1,0 mm dan kamroq bo'lishi kerak. Ish jarayonida o'zi o'tkirlanib urishi va yeyilishga chidamli bo'lishi uchun tig'ga qattiq qotishma (masalan, sormayt) payvandlangan bo'ladi. Bunday tishlarning tuproqni yumshatish darajasi, ularning engashish burchagi α ga bog'liq bo'lganligi sababli, ularni ustunga α = 12–18° qilib bolt bilan o'rnatish mumkin. Sug'oriladigan jo'yakdagi tuproqni yumshatish uchun, kengligi 35 mm li yumshatuvchi tishlar qo'llaniladi. Ko'pincha, bunday tishlarning ishchi qismi ikki tomonlama bo'lib, bir tomoni o'tmas bo'lib qolganda, uni 180° ga to'ntarib, ikkinchi tomoni bilan qo'yiladi. Bunday tishni ustunga engashish burchagi α = 36–40° qilib o'rnatish mumkin[1].

Kultivator- shudgorda tuproq qatlamini ag'darmay yumshatish,begona o'tlarni yo'qotish, chopiq qilivadigan ekinlarning qator oralariga ishlov berish, o'simliklarni mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish, niholdarni yaganalash va egat ochishga mo'ljallangan qishloq xo'jaligi quroli. Vazifasiga ko'ra, yoppasiga ishlaydigan, chopiq qiladigan, oziqlantirgich kultivatori, muayyan ishlarni bajaradigan maxsus kultivatorlarga; traktorga qo'shilishiga ko'ra, tirkama va o'rvatma kultivatorlarga bo'linadi. Har qanday kultivatorlar rama, osish mexanizmi (o'rvatma kultivatorlar uchun) yoki tirkash qurilmasi (tiralma kultivatorlar

uchun), ish organlari, ish organlarining ishlash chuqurligini rostlash va ularni koʻtarish mexanizmlari, ta-yanch gʻildiraqlardan iborat. Kultivatorlar ga uning vazifasiga qarab quyidagi ish organlari oʻrvatiladi (1-rasm). Kultivatorlarning asosiy ish organi panja hisoblanadi. Yoppasiga ishlaydigan kultivatorlar shudgorda begona oʻtlarning ildizini qirqish, ekish oldidan tuproqni 12 sm gacha chuqurlikda yumshatish uchun qoʻllaniladi. Chopiq qiladigan kultivatorlar qator oralarini ishlash, ekinlarni sugʻorish uchun egatlarni ochish, qatorlarga mineral oʻgʻitlar solish ishlariga moʻljallangan[1]. Kultivatorlar oziqlantirgich ekin qator oralarini ishlash (yumshatish, oʻtoq qilish va boshqalar) bilan birga oʻsimliklarning oʻsish davrida mineral-organik oʻgʻitlar solishda qoʻllaniladi. Kultivatorlar, shudgorni begona oʻtlardan xoli qiladigan oʻtoq kultivatorlar, qator oralari 4–10 m li bogʻlar tuprogʻini 14—20 sm chuqur yumshatadigan bogʻbop keng kamrovli kultivatorlar, shudgorda tuproqning yuza qatlamini 10—15 sm chuqurlikda kesib, oʻzining ustki gʻilofiga urib maydalab yumshatadigan frezali kultivatorlar, chopiq qilinadigan ekinlarning qator oralarini aylanadigan frezalar bilan yumshatadigan frezali chopiq kultivatorlar va boshqa kiradi 1-rasm.



1-*rasm.Chopiq kultivatorining kinematik sxemasi:*
1-traktor g'ildiragi; 2,23-g'ildirak g'iloflari; 3-oldingi seksiya ramasi; 4-osish mexanizmi;
5-jilov; -tirak; 7-prujina; 8,17-koʻtargich; 9-sirpang'ich; 10-shayka; 11-shtift;
12,16-tortqi; 13,18-oʻg'itlash apparati; 14-gidrosilindr; 15-koʻtarish vali; 19-oʻg'it

o‘tkazgich; 20-gryadil; 21-tayanch-g’ildirakcha; 22-kronshteyn; 24-ishchi qism; 25-qulf; 26-pasaytirgich.

Tuproq palaxsasini ag‘darib yerga ishlov berish ko‘pincha salbiy oqibatlarga, ya’ni tuproqdagi uglerodning kamayishi, shamol va suv eroziyasining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tuproqni ag‘darmasdan yumshatib, tabiiy namlikni saqlab qolish, begona o‘tlarga qarshi kurashish, ekilgan urug‘ni unib chiqishi uchun eng qulay sharoit yaratish kabi maqsadlarda yerga ishlov berish uchun kultivatorlardan keng foydalaniladi. Kultivatorlar yerga yoppasiga ishlov beradigan va maxsus chopiq qiluvchi turlarga bo‘linadi. Yerga yoppasiga ishlov beradigan turlari ishlov berilmagan joylarni qoldirmasdan tuproqni yumshatish va begona o‘tlarni yo‘qotish maqsadida ishlatiladi. Maxsus kultivatorlar bog‘ va o‘rmonlarda daraxtlar oralig‘iga hamda eroziyaga uchragan joylarga ishlov berishda ishlatiladi. Bu guruhga chuqur yumshatkich-keskich kultivatorlari ham kiritiladi. Chopiq kultivatori sug‘oriladigan dehqonchilikda ekinlar qator oralig‘idagi tuproqqa ishlov berish, begona o‘tlarni yo‘qotish va o‘g‘itlash uchun ishlatiladi. Kultivator bilan ishlov berishda quyidagi agrotexnik talablarga: tuproqning pastki, nam qatlamini yer yuzasiga chiqarmaslik; eroziyani kuchaytiradigan changsimon zarrachalarni hosil qilmaslik; yumshatiladigan chuqurlik tayinlanganidan 1, 0 sm dan ortiq farq qilmasligi va begona o‘tlarni 98 - 99 % yo‘qotilishiga rioya qilinadi. Kultivator ishchi qismlari bajaradigan ishiga qarab, asosan to‘rt turga bo‘linadi: yumshatuvchi tishlar, o‘toqlovchi yotiq tishlar, o‘qyoysimon tishlar va chuqur yumshatuvchi tishlar.Yumshatuvchi tishlar iskanasimon (1- d rasm), to‘ntarma (2- e rasm) va nayzasimon (3- f rasm) kabi turlarga bo‘linadi. Bunday tish sirtining yumshatish burchagi α o‘zgaruvchan bo‘ladi (balandligi ortsa, α kattalashadi) [2].

Paxtachilikda KRX-4, KRT-4, KRX3,6, KXU-4A, KXO-3,6/4,2, KXO-5,4 va boshqa kultivator-oziqlantirgichlar ishlatiladi. O‘zbekistonda "O‘zqishloqxo‘jalikmashxolding" kompaniyasi g‘o‘za va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlariga mo‘ljallangan kultivatorlarning bir necha modifikatsiyasini ishlab chiqarmoqda.



2-rasm. Kultivatorning ishchi qismlari: a-o‘toqlovchi yotiq tish; b- o‘qyoysimon (universal) tish; v- iskanasimon tish; g -to‘ntarma tish; d- nayzasimon tish; e- chuqur yumshatuvchi tish.

KXU-4A; KXO-3,6/4,2; KXO-5,4; KOV-4 va boshqa KXU-4A modifikatsiyasi (3-rasm) paxtachilikka mo‘ljallangan 4 qatorli universal kultivatorlar bo‘lib, ekinning qator oralariga ishlov beradi, begona o‘tlardan tozalaydi, tuproqni yumshatadi, jo‘yaklar oladi, qator oralariga o‘g‘it tashlab ketadi. Bu kultivatorlardan g‘o‘zadan tashqari kanop, makkajo‘xori va boshqa uzun poyali ekinlarni o‘g‘itlashda ham foydalanish mumkin. Kultivatorlar ga PRX-4 rotatsion ish organi bo‘lgan moslama o‘rvatib 60 va 90 sm qator oralig‘ida ekilgan go‘zalarga tasma usulda ishlov berish mumkin. Moslama katorga yaqin yerni yumshatadi[3].

3-rasm. KXU-4A chopiq kultivatorining umumiy ko‘rinishi.

Kultivator ishchi qismlari bajaradigan ishiga qarab, asosan to‘rt turga bo‘linadi: yumshatuvchi tishlar, o‘toqlovchi yotiq tishlar, o‘qyoysimon tishlar va chuqur yumshatuvchi tishlar. Mavjud kultivatorlar bilan g’o‘za

qator oralariga ishlov berishda yumshatuvchi ishchi organlari sifatida asosan o‘qyoysimon panja ko‘rinishidagi yumshatkichlar orqali ishlov beriladi. Bu ishchi jihozlar bilan qator oralarida ishlov berish jarayonida egat tubini yumshatilishi to‘liq ta’milanmaydi. Bu esa ishlov berilgan qatlam tubi va egatning yon devorlarini qayta zichlanishiga olib keladi va o‘simlikni yaxshi rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammoni yechimi sifatida biz qator oralariga ishlov berish jarayonida o‘qyoysimon panja ko‘rinishidagi ishchi jihoziga yumshatuvchi tishlarni o‘rnatish orqali hal qilsh mumkin 4-rasm.



1-yumshatkich ustuni; 2- yumshatuvchi tish; 3- o‘qyoysimon panja;
4-rasm. Qotor oralariga ishlov berishda yumshatuvchi tishlar bilan jihozlangan ishchi organning yon tomondan ko‘rinishi a), old tomondan ko‘rinishi b) va ustdan ko‘rinishi s)



5-rasm. Yumshatuvchi tishlar o‘rnatilgan ishchi organning umumiy ko‘rinishi

Takomillashtirilgan ishchi jihoz chuqur yumshatkich ustuni 1, yumshatuvchi tish 2 va o‘qyoysimon panja 3 dan tashkil topgan bo‘lib,

g’o‘za qator oralarida ishlov berish jarayonida traktor g’ildiraklari tuproq bilan ta’sirlashishi orqali hosil bo‘lgan zichlangan qatlamni yumshatish bilan birga g’o‘za o‘sib rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan tuproq iqlim sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi. Bundan tashqari g’o‘za qatorlari orasiga sifatli ishlov berish ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kultivator
2. M. Shaumarova, T. Abdillayev “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” darslik.Toshkent-2019 yil.
3. F.M.Mamatov “Qishloq xo‘jaligi mashinalari”. “Fan” nashriyoti Toshkent-2007 yil.

UO‘T: 621.436

TRANSPORT VOSITALARINING ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISHIGA TA’SIRI

Shodiyev Sadir Ne’matovich, Fayzulloyev Muxriddin Nasriddin o‘g‘li, Kurbanov Muxammad Maxsudovich.

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o’qituvchilari ***fayzullayevmux@yandex.com***

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonyatning atmosferaga yetkazayotgan antrapogen ta’siri, zavod, korxonalar va transport mashinalaridan chiqayotgan zaxarli gazlarning tabiatga yetkazayotgan zarari, atmosferaning ifloslanayotgani va atmosferadagi o‘zgarishlar natijasida havo haroratining ko‘tarilishi, bu zararlar natijasida insonlarda kuzatilayotgan kasalliklar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Transport vositalari, atmosfera, ekologya, resurs, kislorod, is gazi, uglevodorod, azot, azot oksidlari, oq qon, imunitet, utilizatsiya

THE ROLE OF MOTOR TRANSPORT IN AIR POLLUTION

Shodiev Sadir Ne’matovich, Fayzullaev Mukhriddin Nasriddin ugli, Kurbanov Muhammad Maxsudovich.

Bukhara Institute of Natural Resources Management, National Research University, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers,
n.shodiyev1991@gmail.com fayzullayevmux@yandex.com

Annotatsiya: This article provides information about the anthropogenic impact of man on the atmosphere, the damage caused to the environment by poisonous gases from factories, enterprises and vehicles, air pollution and temperature rise as a result of changes in the atmosphere, human diseases.

Keywords: Vehicles, atmosphere, ecology, resource, oxygen, carbon monoxide, hydrocarbons, nitrogen, nitrogen oxides, white blood cells, immunity, utilization.

Yildan-yilga demografik o‘sish, fan, texnologya texnikalarning jadal suratlar bilan rivojlanishi, yer osti va usti tabiiy resurslarning notekis joylashganligi sababli, mavjud tabiiy resurslardan xaddan tashqari ortiq foydalanish bu jamiyat taraqqiyotining ildamlab borishini taqazo qiladi. Buning natijasida tabiat va insonyat o‘rtasida o‘zaro munosabat qonunyatlari buzilmoqda xozirgi kunda ekologya tabiatning buzilishi dunyo aholisiga birdek zarar yetkazmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining oxirgi bosqichlarida antropogen ta’sirlarni tabiatga sezilarli darajada ko‘payyapti. Bunga sabab fan va texnikaning rivojlanishini jadallashuvi natijasidir. O‘tgan asrning o‘rtalaridagi ilmiy-texnikaviy inqilob kutilmagan jarayon emas, balki jamiyatning taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiquvchi qununiy zaruryat edi. Bu insonyatni tabiatga ta’sir etishning katta imkonyatlarini ochib berdi [1,2].

Ular o‘zlarining extiyojlari uchun katta katta korxonalar, zavod fabrikalarni qurdilar juda ko‘p konlarni qozdilar. Qurilgan korxonalar va konlarni ishlatish jarayonida bulardan chiqadigan turli xildagi, turli darajada ta’sir etuvchi zaxarli chiqindilar, tutunlar tabiatni ekologik xolatiga va insonlarni sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishni boshladi. Ramiy ma’lumotlarga qaraganda dunyo bo‘yicha o‘rtacha 50-65 mln azot oksidlanadi, 2-2,5 mln tonnadan ortiq chang va kulsimon moddalar, 50-60 mln tonna xar xil uglevodorodlar, 260-265 mln tonna oltingugurt oksidlari atrof muhitga chiqarilmoqda.

Shuningdek atmosfera havosining yildan yilga ifloslanishiga transport vositalarining hissasi borligi yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Ma’lumotlarga qaraganda transport vositalaridan 200 xildan ortiq zararli ta’sir etuvchi konsfagen moddalar atrof muhitga chiqariladi [3].

Bugungi kunda dunyo bo‘yicha 550-600 mlndan ortiq yengil avtomobil va 500 mlndan ortiq yuk avtomobillari mavjud bo‘lib, ular yiliga 3,5 mln tonnadan ortiq uglevodorod yoqilg‘isi zararlantirmoqda. Hisob kitobga ko‘ra yer yuzasidagi barcha avtomobillar sutkasiga 0,6-0,8 mln tonnadan ortiq zararli gazlar chiqarar ekan.O‘rtacha avtomobil 100 km masofani bosib o‘tganda bir insonning yilida nafas olish uchun zarur bo‘lgan kislorodni zararlab yuboradi.

Atrof muhitga chiqariladigan chiqindi gazlarni ichidagi IC gazi 60-70% ni tashkil etadi. Atrof-muhitning bunday ifloslanishi oqibatida atmosfera havosi tarkibidagi chiqindi gazlar konsentratsiyasining oshib borishi toksik (zararli) tumanlar hosil bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Buning oqibatida odamlarda umumiy xolsizliklar, yo‘talishlar, bosh aylanishlar, tovushning (tomog‘ning) bo‘g‘ilishi, o‘pkaning va ko‘zning turli xil kasalliklari, organizimning umumiy zaxarlanishi, organizmning kasalliklarga qarshi kurashish imunitetining susayishi(pasayishi)ga olib keladi. Bundan tashqari ftor-xlorli, uglevodorodli chiqindilarning ta’siri natijasida ozon qatlamining teshiklari kattalashishi natijasida quyoshdan ultrabinafsha nurlar to’g’ridan to’g’ri yerga o‘tib, insonlarning oq qon kasalliklariga chalinishi ko‘paytirmoqda. Shuningdek atmosfera havosining xarorati oshishiga olib kelish bashorat qilinmoqda [4].

Xozirgi paytda atmosferani muhofazalash maqsadida uch xil tadbirlar amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda. Bulardan mantiqiy, texnologik va loyihalashga asoslangan tadbirlar. Atmosferani ifloslashga qarshi o‘tkazilga mantiqiy tadbirlar majmuasiga ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biri bo‘lgan transport vositalariga yangi turdagi zaxarli va zararli moddalarni chiqishini kamaytiruvchi dvigatellarni yaratish, yonilg‘i ekologik toza turiga o‘tish, dvigatelni slindirlarida hosil bo‘ladigan zaxarli gazlar va moddalarni netralizatorlar yordamida tutib qolish, atmosferani ifloslantiruvchi korxonalardan chiqadigan zaxarli va zararli moddalarni kamaytiruvchi texnologyalarni yaratish va bu chiqindilarni shaxardan tashqariga chiqarib utilizatsiyalash (zararsizlantirish) shular jumlasidan.

Atmosfera havosini muhofaza qilish uchun texnologik tadbirlar katta axamyatga ega. Ko‘riladigan tadbirlar asosida atrof muhidga chiqarib tashlanadigan chiqindilarning miqdori konsentratsiyasini kamaytirish yoki chiqindisiz texnologiyalarga o‘tish zarur. Buning uchun barcha ishlab

chiqarish korxonalardagi texnologik jarayonlarni va jihozlarni takomillashtirish lozim. Albatta, nazariy jihatdan chiqindisiz texnologyalarni yaratish oson bo‘lsada, uni amalga oshirish (tadbiq etish) anchagina murakkab [5].

Loyihalashga asoslangan tadbirlarda esa shaharlarni hududlarga ajratish, sanitariya himoya zonasini chegaralarini tashkil etish,turar joylarni takomillashtirish va uning hududlarini ko‘kalamzorlashtirish asosiy vazifa sanaladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. «Xalq so’zi» gazetasi No 28 (6692), 02.08.2017 y.

2. Великанов Д.П. Автомобильные транспортные средства-М; Транспорт, 1977-326с.

3. O.Yo’ldoshev va boshqalar «Mehnatni muhofaza qilish » T. Mexnat 2005.y.

4. Салов А.Н «Охрана труда на предприятиях автотраспортного» М. Транспорт 1983.г. 35 с.

5. Козлов Ю. С «Очистка автомобилей при ремонте» М. Транспорт. 1982.г 151с

UO‘T: 631.331.1

G’O‘ZA QATOR ORALARIGA KUZGI BUG’DOY EKISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI

Boysoatov Abduxoliq Charshanbi o‘g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti
Bobirova Madina Bobir qizi
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Isakov Zafarjon Shuxrat o‘g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi
zafar.isakov.95@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashga bag‘ishlangan bo‘lib, dala dehqonchiligida g’o‘za qator oralariga kuzgi bug’doy ekishning hozirgi kundagi holati va bug’doy ekishda dehqonlarni og‘irini yengil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Syelka, o‘g’it sepgich, yarovatsiyasida, agrotexnik, sochma ekish, SZ-3,6, DEM-3,6, KRX-3,6; KRT-4; KRX-2,4; KXU-4, kultivator.

UDC: 631.331.1

CURRENT STATUS OF AUTUMN WHEAT PLANTING BETWEEN COTTON ROWS

Boysoatov Abdukholiq Charshanbi ugli
“TIIAME” NRU Master of the Bukhara Institute of Natural Resources
Bobirova Madina Bobir kizi
Studetnt of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management
Scientific adviser: Isakov Zafarjon Shukhrat ugli
Teacher of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management
zafar.isakov.95@mail.ru

Annotation. This article is devoted to the mechanization of agriculture, the current state of sowing of winter wheat between rows of cotton in field farming and to alleviate the burden of farmers in the cultivation of wheat.

Keywords: Selka, fertilizer, in sowing, agrotechnical, sowing, SZ-3,6, DEM-3,6, KRX-3,6; KRT-4; KRX-2,4; KXU-4, cultivator.

Kuzgi ekinlar odatda kuzda ekiladi va hosili kelgusi yili yig’ishtirib olinadi. Kuzda ekiladigan ekinlar bir yillik bo‘lib yaxshi hosil beradi. Kuzda ekinlarning bahorgi ekinlardan asosiy farqi yarovatsiyasida. Kuzgi don ekish o‘simliklarning nisbatan past haroratda uzoq vaqt yarovatsiya holatini kechirish uchun ekiladi. Kuzgi don urug’ini bahorda ekish yaxshi samara bermaydi, chunki urug’ uzoq yarovatsiya bosqichini boshidan kechirolmay qoladi, juda katta ildiz sistemasini hosil qiladi va tuproq tagi vegetatsiya jarayoni kechiriladi, barg hosil bo‘ladi, hosil kurtagi kam biroq urug’ beradigan qismi yaratilmaydi ekin hosil bermaydi. Kuzgi ekinlar ekilgandan keyin ancha sovuq haroratda uzoq vaqt (30-70 kun) yarovatsiya davrini kechiradi. Qishki harorat ko‘tarilib ketgan taqdirda yarovatsiya sekinlashadi va o‘simlikning unib chiqishi 100 kunga cho‘ziladi, shuni ham inobatga olish kerakki, shimoliy rayonlarning ko‘plarida tuproqning muzlashi kuzgi don urug’iga salbiy ta’sir qiladi va u unib chiqmaydi [1].



1-rasm. Bug'doyning kimyoviy tarkibi.

Kuzgi ekinlarning o‘ziga xos agrotexnik ahamiyati ham bor. Kuzgi ekinlar erta bahorda ko‘pgina begona o‘tlardan ham oldin unib chiqadi va bahorgi ekinlarga nizbatan kami bilan 10-15 kun erta pishadi. Kuzgi o‘simlikda begona o‘tlar kam bo‘ladi va u bahorgi ekindan oldin yig’ishtirib olinadi natijada o‘rim-yig’im davrida (kuzgi va bahorgi donni birga o‘rish) qiyinchiligi bo‘lmaydi, ekinzor o‘rnidan ikkinchi hosilni olish uchun foydalanish imkoniyati tug’iladi.

Kuzgi ekiladigan ekinlar ichida kuzgi bug’doy, kuzgi javdar va kuzgi arpaning ulushi katta. Dala ekinlari ichida bug’doyning ahamiyati alohidadir. Bug’doyning qimmatli oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadigan ekin. Bug’doy yetishtirishda bu boisdan ham dunyo dehqonchiligida katta o‘rin berilgan. Dunyoda kuzgi va bahorgi bug’doyning maydoni 230 million gektarni tashkil qiladi.

2-rasm. Kuzgi bug'doy ekish jarayoni.

Respublikamizning sug’oriladigan yerlarida kuzgi bug’doy ekish uchun xo‘jalik jihatidan yaroqliligi 100% bo‘lgan urug’lardan gektariga 130-180 kg yoki 4,5-5,5 mln dona urug’ni qatorlab ekish tavsiya qilinadi. Biroq xo‘jaliklar ekish muddatini kechiktirgani, ko‘proq sochma ekish

usullari qo‘llangani va boshqa sabablarga ko‘ra gektariga belgilangan me’yordan ko‘proq, ya’ni 250-300 kg gacha urug’ ekmoqdalar. Ma’lumki Respublikamizda sug’oriladigan yerlarda kuzgi bug’doy ochiq maydonlarga va g’o‘za qator oralariga ekilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligining ma’lumotlariga qaraganda (1-jadval) so‘nggi yillarda sug’oriladigan maydonlarda yetishtiriladigan g’allaning 50 foizidan ortig’i g’o‘za qator oralariga ekilmoqda. Buning asosiy sababi paxta hosilini va g’o‘zapoyalarni bug’doy ekish muddatigacha to‘liq yig’ishtirib olish imkoni bo‘lmaganligi hamda g’o‘za-bug’doy almashlab ekish tizimini ta’minlash zarurligidir [2].

1-jadval

Kuzgi bug’doy ekiladigan maydonlar bo‘yicha ma’lumotlar

Yillar	**Umumiy ekilgan maydon, mln.ga**	**G’o‘za qator oralariga ekilgan maydon**	
		ming ga	**umumiy maydonga nisbatan, %**
2014	1,022	343,8	33,64
2015	1,059	395,2	37,3
2016	1,100	475,2	43,25
2017	1,083	532,5	49,16
2018	1,083	632,2	58,37
2019	1,083	650,7	60,1

G’o‘za qator oralariga kuzgi bug’doy moslangan kultivatorlar, o‘g’it sepkichlar va boshqa moslamalar yordamida ekilmoqda. Ammo bu moslama va mashinalar bug’doyning bir xil chuqurlikka ko‘milishini ta’minlamaydi, uning ancha qismi tuproq betida qolib ketadi. Bundan tashqari urug’lar g’o‘za qator oralig’ida bir tekis taqsimlanmaydi, ya’ni urug’lar egatlar o‘rtasida to‘planib, pushtalarga siyrak tushadi. Bu hol o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan oziqlanish maydonining bir xil bo‘lishini ta’minlay olmaydi. Natijada nihollar yaxshi to‘plamaydi, nimjon va siyrak bo‘lib o‘sganligi sababli yetarli miqdordagi hosilni bermaydi.[2]

Ochiq maydonlarga kuzgi bug’doy asosan sanoat tomonidan ishlab chiqarilgan SZ-3,6 va DEM-3,6 kabi seyalkalar bilan qatorlab ekiladi. Bunda qatorlar orasi 12,5-15,0 sm bo‘ladi. Lekin bu usul ham o‘ziga xos kamchiliklarga ega: o‘simlik qatorlarda zich joylashadi, ayniqsa

rivojlanishning dastlabki vaqtlarida qator oralari ekin maysalari bilan etarli qoplanmaganligi natijasida dalani yovvoyi o‘tlar bosib ketadi.

3-rasm.Ochiq maydonlarga don ekgich SZ-3,6 seyalkasi

Olib borilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha kuzgi bug’doyni ochiq dala va g’o‘za qator oralariga tor qatorlab, ya’ni qatorlar orasini 6-7 sm qilib ekish begona o‘tlarning chiqishi va rivojlanishiga imkoniyat bermaydi.

G’o‘za qator oralarini bug’doy ekishga tayyorlashga quyidagi asosiy agrotexnika talablari qo‘yiladi.

1) qator oralari yumshatilganda yirik kesaklar hosil bo‘lmasligi va ularning o‘lchami 2-2,5 sm dan oshmasligi kerak;

2) ishlov berish chuqurligi 15-18 sm oralig’ida bo‘lishi darkor;

3) begona o‘t qoldiqlari to‘liq yo‘qotilishi lozim;

4) ishlov berilmay qolib ketgan joylar bo‘lmasligi kerak.

Respublikamizning ko‘pgin paxtakor xo‘jaliklari g’o‘za qator oralariga kuzgi bug’doy ekish uchun har xil qurilma, seyalka hamda vazifasi boshqa ishlarga mo‘ljallangan qishloq xo‘jalik mashinalaridan foydalanib kelmoqdalar. Bular jumlasiga NRU-0,5 osma o‘g’it sepgich, g’o‘za qator oralariga ishlov beruvchi KRX-3,6; KRT-4; KRX-2,4; KXU-4 moslangan kultivatorlar, O‘zagromashservis birlashmasining ta’mirlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan qurilmalar kiradi.

4-rasm. G'o'za qator oralariga kuzgi bug'doy ekish NRU-0,5 qurilmasi

NRU-0,5 o'g'it sepgich dala yuzasiga mineral o'g'itlar va ularning aralashmalarini yerni haydashdan oldin sepish uchun mo'ljallangan. U 0,6 ; 0,9 hamda 1,4 klassdagi traktorlarga osib ishlatiladi.

O'g'it solgich rama, bunker, miqdorlovchi qurilma, sepish mexanizmi, sepuvchi disklar va harakatlantiruvi mexanizmlardan tashkil topgan. Rama payvandlangan konstruksiyada bo'lib, unga hamma uzellar mahkamlangan.

Xulosa. Sanoat tomonidan ochiq maydonlarga bug'doy ekish uchun mo'ljallab ishlab chiqarilayotgan seyalkalarni g'o'za qator oralariga bug'doy ekishda qo'llab bo'lmaydi. Xo'jaliklarda g'o'za qator oralariga bug'doy ekish uchun qo'llanilayotgan mashina, moslama va moslashtirilgan kultivatorlar bug'doy ekish bo'yicha qo'yilgan agrotexnika talablariga to'liq javob bermaydi va bu agregatlar bilan bug'doyni bir o'tishda sifatli ekib bo'lmaydi. Bundan tashqari o'tkazilgan patent izlanishlari va adabiyotlar sharhiga asosan bug'doy urug'ini aylanuvchan kurakchali disklar bilan sepish ularning g'o'za qator oralarida bir tekis taqsimlanishini ta'minlaydi.Yuqoridagilarni inobatga olib g'o'za qator oralariga kuzgi bug'doy ekish bugungi kunda dolzarb masalalardan bo'lib kelmoqda va bu borada yanada ko'proq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish qishloq xo'jaligining asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. https://arxiv.uz/ru/ documents/slaydlar/botanika/don-yetishtirish-va-kuzgi-ekinlar
2. M.T.Mansurov. G'o'za qator oralariga bug'doy sepuvchi ish organining parametrlarini asoslash: diss. tex. fan. nom. – Yangiyo'l 2007. 165 b.
3. M.Shoumarova, T.Abdillayev. Qishloq xo'jalik mashinalari. Toshkent 2007 y.
4. A.A Juraev. "Determining the cross profile of manmade pawl and pawl before creating longitudinal pawl between cotton rows // International scientific conference "Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering" (CONMECHYDRO - 2020).

5. A N Juraev, S J Imomov, S S Orziev, Application of energy and resource engineering software in cotton fields, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 868 (2021) 012067

UO‘T: 631.315.4

YERLARNI TEKISLASHDA ZAMONAVIY YER TEKISLAGICHLARDAN FOYDALANISHNING TAHLILI VA SAMARADORLIGI

Sadulloyev Asadbek Dilmurotovich, Ergashev Saidolim Inomjon o‘g’li, Safarov Husniddin Sirojiddin o‘g’li, Qurbonboyev Sindorbek Sarvarbek o‘g’li, Ro’ziqulova Dilnoza O’ktamovna
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari
Ilmiy rahbar: Ro‘ziqulov Jasur O‘ktam o‘g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi
jasurruzikulov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada yerlarni tekislashda dastlabki qilinadigan ishlar, yerlarni tekislashda zamonaviy yer tekislagichlardan foydalanishning samaradorligi va ularning tahlili, shuningdek yerlarni tekislashda serxosil tuproq qatlamining fizik – mexanik xususiyatlarini o‘zgartiradigan omillar xususida ma’lumotlar bayoni va yerlarni tekislashda lazerli yer tekislagichlardan foydalanish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: resurs, yer, sug’orish, ekin, egat, tekislash, transmitter, lazer nurini qabul qilgich, elektrogidroklapan, teleskopik o‘lchov lineykasi.

UDC: 631.315.4

ANALYSIS OF THE USE OF MODERN LEVELERS IN LAND LEVELING, AND EFFICIENCY

Sadulloyev Asadbek Dilmurotovich, Ergashev Saidolim Inomjon ugli, Safarov Husniddin Sirojiddin ugli, Qurbonboyev Sindorbek Sarvarbek ugli, Ruzikulova Dilnoza Uktamovna
Studetnts of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management
Scientific supervisor: Ruzikulov Jasur Uktam ugli

Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management
jasurruzikulov@mail.ru

Annottation: This article provides information on the initial work on land leveling, the effectiveness of modern land leveling and their analysis, as well as information on the factors that change the physical and mechanical properties of fertile soil and the use of laser leveling.

Keywords: resource, land, irrigation, crop, furrow, leveling, transmitter, laser light receiver, electrohydraulic valve, telescopic measuring line.

Mamlakatimizda qishloq va suv xo'jaligini rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asoslar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bozor munosabatlari mexanizmlarini joriy qilishda fermer xo'jaliklari uchun qo'shimcha shart - sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki tuproq unumdorligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri suv, yerlarning tekislanganlik darajasi va irrigatsiya erroziyasidir.

Buning natijasida tuproqda gumus va oziqlantiruvchi moddalar yo'qoladi. Xuddi shuningdek, shamol ta'sirida tuproq deformatsiyasi ham zararlidir. Respublikamizda sug'oriladigan yerlar 4,2 mln ga ni tashkil etadi.

Aynan shu sug'oriladigan yerlarda Respublika qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 90% dan ortig'i olinadi. Ana shu holatlar bois mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarni tekislash, meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish, shuningdek meliorastiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart - sharoitlarni yaratish maqsadida 2013 yil 29 - oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3932-sonli "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonga asosan 2013-2017 yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilandi va amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Qishloq xo'jaligi xodimlari» kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida

sug'orish inshootlari eskirib, tarmoqlar yaroqsiz holga kelib qolgani oqibatida 830 ming gektar yerni sug'orishda qiyinchiliklar yuzaga kelayotganligi, bundan tashqari, 1 mln. 300 ming gektar sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va tekislash ishlarini rivojlantirish, 18 ming kilometr kollektor va drenaj tarmoqlarini bosqichma - bosqich tozalash lozimligi, shuningdek, 103 ta yirik, 720 ta o'rta va kichik suv inshootlari yangilash va ta'mirlashga muhtoj ekanligi ta'kidlab o'tilganligini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 noyabrdagi "2018-2019 yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida" gi PQ-3405-sonli qaroriga asosan 2018 yilda katta hajmdagi irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari, suvni tejaydigan texnologiyalarni, zamonaviy yer tekislagichlarni joriy qilish ishlari amalga oshirilishi belgilab olindi.

Jumladan, melioratsiya ishlarining buyurtmachilari va ijrochilari o'rtasida vazifalarni qat'iy taqsimlash hamda ularning javobgarligini oshirish asosida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishga yondoshuvlarni tubdan o'zgartirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha zamonaviy yer tekislagichlarni amaliyotga tadbiq etish ishlarni moliyalashtirishning ishonchli mexanizmini ta'minlash, lizing operastiyalarini keng joriy etish yo'li bilan suv xo'jaligi tashkilotlari va suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining moddiy - texnika bazasini mustahkamlash, melioratsiya texnikasi saroyini yangilash vazifalari qo'yildi.

Shu maqsadda, maydonlarni tekislashning amaliy tajribalari shuni ko'rsatdiki, yaxshi va sifatli qilib tekislangan yer maydonlarida tabiiyki, tuproq unumdorligi va mashina traktor agregatlarining ish unumi ham yuqori bo'ladi.

Tuproq butun maydon bo'ylab bir xil tekislikda yoyiladi, dala sug'orilganda esa suv butun maydonda bir xil taqsimlanadi. Bir xil taqsimlangan suv tuproqning bir vaqtda yetilishiga olib keladi. Bu esa boronalash, chizellash, gerbitsid va o'g'it solish, ekish va boshqa texnologik jarayonlarni o'z muddatida bajarilishiga sharoit yaratadi.

Tekis dalada, notekis daladagiga nisbatan, suv 100 metrli egat bo'ylab bir soatga tezroq o'tadi, haydalgan tuproq qatlamlari bir xilda tekis namlanadi.

Ma’lumki, yerlarning muntazam tekislab borilmasligi va sifatsiz haydalishi oqibatida dehqonchilik ekinlari ekiladigan dalalarning tekislik darajasi qoniqarsiz ahvolga tushib qoladi. Natijada, qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda suv sarfi ortib, sug’oriladigan yerlarning samaradorligi va ekinlar hosildorligi kamayib ketadi. Shu bilan birgalikda birlamchi va ikkilamchi sho‘rlanishining vujudga kelishi kuzatiladi. Natijada yerlarning meliorativ holati buzilishiga olib keladi.

Yer tekislash nafaqat dala yuza qismini tekislaydi, balki serxosil tuproq qatlamining fizik – mexanik xususiyatlarini o‘zgartiradigan omillardan biri hisoblanadi. Yer tekislashda tuproqqa bir vaqtni o‘zida ko‘p yo‘llar bilan; traktorning yurish qismi va tuproq sudralishi prizmasini ishqalanishi bilan, kesish kuchlari, yer tekislagichning yurish qismi, tuproq qatlamining biologik jihatidan hosildor qismini kesish va aralashtirish bilan ta’sir ko‘rsatiladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan ta’sirlar asosan tuproqqa noqulaydir: struktura buziladi, yuqori qavat zichlashadi, ozuqa moddalari olib ketiladi va shu kabilar, ya’ni tuproqni hosildorligi yomonlashadi. Shuning uchun bu muhim agrotexnik ishni bajaruvchi qurolga tuproqqa minimum zararli ta’sir ko‘rsatib, relefni tekislashni yuqori sifatini ta’minlaydigan talablar qo‘yiladi.

Yerlarni tekislashda dastlab maydonda panjara nuqtalari belgilanadi. Shundan keyin esa maydondagi panjara nuqtalarini belgilagandan keyin maydonning balandliklarini o‘rganish va kontur xaritasi tuziladi (1 va 2 - rasmlar).



1 – rasm. Maydondagi panjara nuqtalarni belgilash sxemasi



2 – rasm. Maydonning balandliklarini o‘rganish va kontur xaritasi sxemasi

Bizga ma’lumki, mavjud yer tekislagichlar nisbatan eskirgan bo‘lib, ularning konstruksiyalarini takomillashtirish yoki zamonaviy ish

samaradorligi yuqori tekislagichlarni qo‘llashni taqozo etadi. Bunday ishlarni cho‘michning hajmi o‘zgaradigan, yuqori unumli, keng qamrovli, bir necha ishlarni bir yo‘la bajara oladigan, universal, ya’ni ham tekislaydigan, ham tuproqni yumshatadigan, turli xil ishchi organlar o‘rnatish mumkin bo‘lgan, lazer qurilmalari bilan jihozlangan hamda avtomatik boshqariladigan qisqa bazali yer tekislagichlar yaratish va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshirish mumkin. Lazerli uskunalarni yer tekislash ishlarida qo‘llash traktor operatorlarining ishini osonlashtirib tekislagich kovshini avtomatik ravishda kerakli sathda ishlashiga imkon beradi. Lazer uskunasi bo‘lmagan holatda esa traktor operatori surunkali traktorni to‘xtatib kovsh holatini loyihaviy sath bilan solishtirishga majbur bo‘lar edi. Bu esa albatta qiyin va murrakab hisoblarni talab qiladigan ishdir. Shuning uchun ham bugungi kunda suv va energiya tejamkorligini ta’minlovchi lazer uskunali yer tekislagichlardan samarali foydalanish zarur.

Yerlarni lazerli tekislagichda tekislash bu dala maydoni yuzasidagi eng past va baland joylar farqi 1-3 sm.dan oshmaydigan darajada, maxsus lazer jihozli qurilmalarida tekislash usuli tushuniladi. Yerlarni lazer nivelirida tekislashda traktorchi, traktor, tekislash uskunasiva lazer qurilma ishtirok etadi (3 - rasm).



3 - rasm. Yerlarni tekislashda lazer nuri bilan boshqarish sxemasi.

Lazer uzatkich (transmitter) – ushbu qurilma 360 gradusli gorizontal aylana bo‘ylab lazer nurini tarqatadi. Dunyo bozorida ushbu qurilma turli kompaniyalar tomonidan ishlab chiqariladi. Ularning lazer nurini uzatish uzunligi bir necha yuz metrdan kilometrgacha bo‘lgan maydonni tashkil etadi. Havfsizlik tariqasida lazer transmitter bilan ishlagan vaqtda lazer nuri ko‘zga tushishidan qochish lozim yoki maxsus himoya ko‘zoynaklarni taqish talab etiladi (4 - rasm).

4 - rasm. Lazer uzatgich.

Lazer nurini qabul qilgichning (resiver) asosiy vazifasi transmiterdan qabul qilingan lazer signalni ma'lumotlarni boshqaruv qurilmasiga uzatadi. Transmitterdan uzatilayogan signal, resiverdagi har xil fotoelement chiroqli indikatorlarda namoyon bo'lib, dala maydon gorizontal tekisligining past va baland joylarini ko'rsatadi. Resiver tekislagich cho'michining ustidagi machtaga mahkamlanadi (5 - rasm).



5 - rasm. Lazer nurini qabul qilgichning(resiver).

Ma'lumotlarni boshqaruv (blok) qurilmasi signalni qabul qilgich (resiver)dan olib, uni elektrogidroklapanga uzatadi. Dala maydon gorizontal tekisligining balandpastligi boshqaruv qurilmasining fotoelementli chiroqlarida aks etadi. Ma'lumotlarni boshqaruv qurilmasi traktor kabinasiga o'rnatilgan bo'lib, avtomatik yoki qo'lda boshqarish orqali ishlaydi (6 - rasm).

6 - rasm. Ma'lumotlarni boshqaruv (blok) qurilmasi

Elektrogidroklapan (solenoid gidroklapan) – ma'lumotlarni boshqaruv qurilmasidan olgan elektr signalni cho'michning mexanik ishiga aylantiradi. Traktordan chiquvchi shlanglar elektrogidroklapan orqali tekislagich cho'michiga boradi. Signalning qanday berilishiga qarab, tekislagich cho'michining ko'tarilishi yoki tushirilishi boshqariladi (7 - rasm).

7 - rasm. Elektrogidroklapan (solenoid gidroklapan)

Teleskopik o'lchov lineykasiga mahkamlangan, dala maydon topografiyasini qo'lda o'lchashga moslashgan resiver. Teleskopik o'lchov lineykasi (uzunligi 3-4 m), asosan topografik relefni aniqlashda ishlatiladi (8 - rasm).

8 - rasm. Teleskopik o‘lchov lineykasi

Sug’orib dehqonchilik qilinadigan va zaxi qochirilgan tumanlardagi maydonlar yuzasini tekislashda yer tekislagich texnikasidan samarali foydalanish yuqori hosil olishning eng muhim shartlaridan biridir. Dalalarning yuzasi notekis bo‘lsa, donli ekinlar hosildorligi 15-20%, sabzavot ekinlariniki esa bundan ham kamayadi. Tekislagichlar asosan I-II toifalardagi gruntlarda qo‘llaniladi. Sug’oriladigan dalalar tekislanganda tuproqning bir tekis namiqishi uchun yaxshi sharoit yuzaga keladi va sug’orish normasi kamayadi. Yerlarni tekislashning ikki turi: dastlabki (xomaki) va asosiy turlari bor. Dastlabki tekislash paytida dalaning relefi tekislanadi: do‘ngliklar kesib tashlanadi va o‘ydim-chuqurlar to‘ldiriladi. Bu ish buldozerlar, greyderlar va okreperlar bilan bajariladi. Yerning mikrorelefini tekislash uchun uzun bazali kombinatsiyalangan avtomatik boshqariladigan yer tekislagichlar yordamida amalga oshiriladi. Do‘ngliklar, o‘ydim-chuqurlar, katta kesaklar bo‘lmagan tekis dalalarda faqat asosiy tekislash ishlari o‘tkaziladi.

Demak, lazer uskunali yer tekislash ishlari bilan yer tekislanganda, an’anaviy tekislash usuliga qaraganda quyidagi samaradorlikka erishiladi. Sug’orish suvi sarfi 20 – 25 % ga tejaladi, tuproqni tayyorlash uchun suv miqdori kamayadi (sho‘r yuvish va oldindan tuproqni namlash), ekinlar zich va tekis unib chiqadi, sug’orishga ketadigan vaqt, ishchi kuchi va energiya tejaladi, dala maydoni ekinlar bir tekis unuvchanlikga ega bo‘ladi, ekinlar bir xil oziqa moddalar va namlik bilan ta’minlanadi, begona o‘tlar miqdori kamayadi, qishloq xo‘jaligida 1 gektar maydonda qo‘shimcha 5 – 7 s hosil olishga erishiladi. eng asosiysi, yerga ishlov berish to‘g’ri olib borilsa dala maydoni 3 – 5 yilda qayta tekislanadi, 1-2 yilda harajatlar qoplanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 noyabrdagi “2018-2019 yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha Davlat dasturi to‘g’risida” gi PQ-3405-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2013-2017 yillar davrida sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi № PQ-1958 sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 29 - oktabrdagi PF-3932-sonli “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

UO‘T: 630.114.445.631.34.631.312.575.146

BIOSOLVENT PREPARATINI SEPADIGAN PURKAGICHLAR BILAN JIHOZLANGAN TUYNUKLI DRENAJ HOSIL QILUVCHI QURILMA.

Hamroyev G’iyosjon Fayzullo o’g’li
TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti
Hamroyev Ilxomjon Fayzullo o’g’li
TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Jo‘rayev Fazliddin o‘rinovich,
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektori t.f.d., prof.
e-mail: hamroyev1995@bk.ru

Annotatsiya. Maqolada yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida bir qator rivojlangan mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda mavjud yer maydonlarining salmog‘i va bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari hamda qo‘llaniladigan zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib xususan tuproqqa qavatli drenaj-tuynuk hosil qilish davomida bir vaqtning o’zida biosolvent preparatini tuproq yuza qatlamiga purkovchi moslama bilan jihozlangan yangi qurilma keltirib o’tilgan.

Qurilmadan foydalanib sho‘r yuvish sifatini hamda tuproqning g’ovaklik koeffitsientini oshirib, tuproq tarkibidagi zararli tuzlarni suv bilan birga oson shimilishi orqali kollektor zovurlarga yoki muaqqat ariqlarga chiqarib yuborish, kuzgi sho‘r yuvishda kam suv sarflab, maksimal darajada zararli tuzlarni tuproq tarkibidan chiqarib yuborilishi, shuningdek bu muammo yechimini topish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotgan Buxoro viloyati yerlarining hozirgi davrdagi meliorativ holati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Drenaj, tuynukli, biosolvent, preparat, purkagich, konus uchli silindr, marker, tayanch g‘ildirak, kontur, qamrov kengligi.

UDC: 630.114.445.631.34.631.312.575.146

DRAINAGE DEVICE PRODUCTION EQUIPMENT EQUIPPED WITH SPRAYER BIOSOLVENT PREPARATION.

Hamroyev Giyosjon Fayzullo ugli
Basic doctoral of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
Hamroyev Ilkhomjon Fayzullo ugli
Studetnt of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
Scientific supervisor: Jurayev Fazliddin Urinovich,
"TIIAME"NRU Vice-Rector for Research and Innovation of Bukhara natural resources management.Bukhara Institute of Natural Resources Management.
t.f.d., prof.
e-mail: hamroyev1995@bk.ru

Annotation. The article describes a number of developed countries, including Uzbekistan, in order to improve the land reclamation situation, as well as scientific research work carried out in this regard, and in particular during the formation of a soil-layer drainage-hole using modern techniques and technologies, at the same time a new device equipped with a spray device for the preparation of biosolvent.

The information on the current meliorative status of the Lands of Bukhara region, where scientific research work is carried out on the solution of this problem, is presented by increasing the quality of salt washing and the porosity coefficient of the soil by using the device, easily absorbing the harmful salts in the soil along with water, expelling them to collector trenches or

Keywords: Drainage, hole, biosolvent, preparation, spray, cone-tip cylinder, marker, base wheel, contour, coverage width.

Hozirgi vaqtda jahonning ko‘plab mamlakatlarida jumladan Eronda - 35-40 %, Turkiyada–50 %, Hindiston, Suriya, Misr Arab Respublikasida - 20-30 % erlar sho‘rlangan.

Rossiyada-12 mln. ga, Pokistonda-6 mln. ga, Xitoyda-6 mln.ga, O‘zbekistonda-2,0 mln. ga yerlarni sho‘rlangan maydonlar tashkil etadi.

Bu borada kollektor-zovur tizimini qurib, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda MDH davlatlarida, AQSH, Avstraliya, Misr, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlarda, Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, O‘zbekistonda ham katta ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Ma’lumki qishloq xo‘jaligida yerlarning meliorativ holatini yomonlashishi va suv taqchilligi kuchayib borayotgan hozirgi davrda sho‘rlangan va gipsli tuproqlarda maxsus texnika va texnologiyalarni qo‘llash hamda kuzgi sho‘r yuvish ishlarini sifatli olib borish, tuproq tarkibidagi zararli tuzlarni chiqarib yuborish va unumdorligini oshirish dolzarb muammolardan bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda qishloq xo‘jaligida yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda qo‘llanilib kelinayotgan ochiq drenajlarning keyingi vaqtlarda zax qochirishdagi samarasi yaxshi emasligi, ya’ni yerlarning sho‘rlanishi yil sayin oshib borish tahlillaridan bu yerlarda qo‘shimcha agrotexnik tadbirlar o‘tkazishni talab qilinayotganligi xulosa qilindi.

Bugungi kunda Respublikamizda 4,2 mln gektar sug‘oriladigan maydon mavjud bo‘lib, shundan 45% turli darajada sho‘rlangan maydonlar hisoblanadi. Respublikamizda har yili 680 ming gektardan ortiq maydonda sho‘r yuvish ishlari olib boriladi;

- Buxoro viloyatining sug‘oriladigan maydonlari 275200 gektarni tashkil qilib, shundan 230270 gektari kollektor-zovur tizimlari bilan ta’minlangan;
- Viloyatdagi mavjud sug‘oriladigan maydonlarning 238000 gektari yoki 86,2 foizi turli darajada sho‘rlangan yerlardan iborat. Shundan, 66932 gektari o‘rta va kuchli sho‘rlangan maydonlarni tashkil qiladi. Sho‘rlangan tuproq sharoitida qishloq xo‘jalik ekinlaridan mo‘l, sifatli va kafolatlangan hosil yetishtirish ko‘p jihatdan tuproq tarkibidagi tuz-suv rejimlarini tartibga keltirishga bog‘liq;

Mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlarning 2,0 mln gektari yoki 50 % ga yaqini turli darajada sho‘rlangan va sho‘rlanishga moyil tuproqlar bo‘lib, bunga Orol dengizining qurishi, yer, suv resurslaridan tartibsiz foydalanish, ayrim yerlarda yer osti sizot suvlarining ko‘tarilishi, global iqlim o‘zgarishlar va boshqa omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda[1].

Shu sababli ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida biz tomondan kuzgi sho‘r yuvishdan oldin qo‘llaniladigan biosolvent preparatini sepadigan purkagichlar bilan jihozlangan suv tejamkor tuynukli drenaj hosil qiladigan yangi qurilma ishlab chiqildi.

- An’anaviy usulga nisbatan tuynukli drenaj hosil qilinib, 0,35 m chuqurlikda shudgorlab, sho‘r yuvish ishlari amalga oshirilganda sho‘r yuvish muddatlarining 15-20 kungacha qisqarishi;
- Biosolvent preparati tuproqdagi tuzni oddiy suvga nisbatan 2–3 barobar ko‘proq yuvadi hamda tuproqni yuvishga ketadigan suv sarfi 1,5–2

barobargacha kamayadi. Ushbu preparat tuproqning mexanik holatini yaxshilab, g‘ovaklik darajasini 2−3 martaga oshiradi va hosildorlikni 7 sentnerdan 10 sentnergacha oshadi. Biosolvent preparati bilan yuvilgan maydonlarda hosidorlik 1,4-1,5 marotaba yuqori bo‘ladi;

- Sho‘rlangan tuproq tarkibidagi tuzni 70 foizgacha yuvish xususiyatiga ega. Past darajada sho’rlangan yerlarda o’rtacha qiymatda 1 gektar sho‘rlangan yer maydoniga 5-7 kg biosolvent preparati kerak bo’ladi yerning sho’rlanish darajasiga qarab;
- Preparat ixtirochilarining ta’kidlashicha, u tuproqdagi tuzni oddiy suvga nisbatan 2−3 barobar ko‘proq yuvadi. Tuproqning mexanik holatini yaxshilab, g‘ovaklik darajasini 2−3 martaga oshiradi. Preparat qo‘llanganida, tuproqni yuvishga ketadigan suv sarfi 1,5−2 barobar kamayadi. Bu ayniqsa suv tanqis hududlarda qo‘l keladi. Shuningdek biosolvent preparati ozuqa moddalarining o‘simliklar tomon faol harakatlanishini ta’minlab, hosildorlikni 7 sentnerdan 10 sentnergacha oshiradi;
- biosolvent preparati sho‘rlangan tuproq tarkibidagi tuzni 70 foizgacha yuvish xususiyatiga egaligi bilan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi;
- Preparat yordamida tuproqning sho‘rini yuvish jarayoni yiliga ikki marta - *kuzgi shudgordan keyin va bahorgi ekish mavsumidan oldin amalga oshiriladi*;
- Biosolvent preparati bilan yuvilgan maydonlarda hosidorlik 1,4-1,5 marotaba yuqori bo‘ladi, 1 gektar sho‘rlangan yer maydoniga 5-7 kg biosolvent preparati kerak, respublika qishloq xo‘jaligining biosolvent preparatiga ehtiyoji 2000 tonnadan ortiqroqni tashkil qiladi;
- Biosolvent preparatini qo‘llash, suv sarfini va tuproqning sho‘rlanish darajasini 2-3 marotabaga kamaytiradi. Natijada tuproq unumdorligi va uning g‘ovaqligi ortadi [2].

Bu masalaning yechimini ijobiy hal qilish uchun fermer xo‘jaliklarining meliorativ holati yomon yerlarida drenaj-kollektorlar va drenaj-quvurlar o‘rnatish, hududida mavjud zaxkashlarning zax qochirishi borasidagi ishlari samaradorligini oshirish va qo‘shimcha drenaj-tuynuk hosil qiluvchi qurilmadan keng miqiyosda foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi o‘z isbotini topmoqda. Mavjud drenaj-tuynuk hosil qiluvchi qurilamlarni tahlil qilib ko‘rilganda bir qator kamchiliklar aniqlandi. Bu mashinalar asosan 1 metrdan 1.2 metrgacha chuqurlikadagi drenaj-tuynuklar ochishga mo‘ljallangan[4,5]. Kamchliklari shundan iboratki bir

o‘tishda faqatgina bir xil chuqurlikda hamda dala bo‘ylab bir qatorda drenaj-tuynuk hosil qilishga mo‘ljallangan. Bu esa turli darajada sho‘rlangan tuproqlarda qo‘llashda yaxshi samara bermasligi hamda sug‘oriladigan yer maydonida drenaj-tuynuk hosil qilishda dala bo‘ylab traktorning bir necha marotaba o‘tishida drenaj-tuynuklarining hosil bo‘lishi aniqlandi. Bu kamchliklarni bartaraf qilish maqsadida “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti olimlari tomonidan biosolvent preparatini sepadigan purkagichlar bilan jihozlangan tuynukli drenaj hosil qiluvchi qurilmaning yangi loyihasi ishlab chiqildi *(1-rasm).*



1-rasm. Biosolvent preparatini sepadigan purkagichlar bilan jihozlangan tuynukli drenaj hosil qiluvchi qurilma

Takomillashtirilgan drenaj-tuynuk hosil qiluvchi qurilma, tayanch g‘ildirakli osma rama va ishchi organlar, uchta bo‘ylama ramada ikki qatorda birinchi qatorda eng kam tortish kuchiga ega egrilik radiusli birta ish ustuni va ikkinchi qatorda P-simon shakldagi chap va o‘ng ramalarning bo‘ylama qo‘zg‘aluvchan ramalarida ikkita to‘g‘ri ustun ishchi qismlari bilan o‘rnatilgan. Ishchi qismlar ikki qavatda ishlov berish chuqurligida dranaj-tuynuklar hosil qilish uchun moslashtirilgan. Birinchi qavatda ishlov beruvchi ishchi qism 45-50 sm, ikkinchi qavatda ishlov beruvchi ishchi organlar 70-80 sm chuqurliklarida drenaj-tuynuklar hosil qiladi, bundan tashqari qurilmaning orqa tomoniga o’rnatilgan tuynuk ochish davomida bir vaqtning o’zida biosolvent preparatini sepuvchi purkagichlar bilan jihozlangan. Ikki qavatli qilib ishlov berishdan hamda biosolvent preparatini sepishdan maqsad, birinchi galda tuproqning g’ovakligini va suvda tuzlarning oson eruvchanligi hamda suvni oson shimilishini ta’minlab berishdan iborat, birinchi qavat shudgor osti qatlamidan 10-15 sm chuqurlikda, ya’ni yer yuzida 45-50 sm va ikkinchi qavat yer yuzasida 70-80 sm chuqurliklarda drenaj-tuynuklar hosil qilinib, tuproq tarkibidagi zararli tuzlarni oldin birinchi qatlamdagi va undan

ikkinchi qatlamdagi drenaj-tuynuklarga oson sizib o‘tish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek yuvilgan sho’rlar drenaj-quvurlar orqali ochiq kollektor zovurlarga va mexanik tarkibi og‘ir yerlarda muvaqqat zovurlar orqali chiqarib yuborilishi yaxshi samara berishi o‘z isbotini topgan[3,6].

Xulosa: Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo’jaligi va atrof muhitga hamda yerlarning meliorativ holatini yomonlashishiga, tuproq strukturasining buzilishi, tabiiy boyligimiz suv zaxiralarining kamayib borishiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan muhim omillardan biri bu yerlarning sho’rlanish darajasi yuqoriligidir. Ushbu masalaning yechimi yuqorida takidlangan zamonaviy sho’rni oson yuvadigan preparatlardan foydalanishning mexanizatsiyalashgan usulda kambinatsiyalashgan sho’r yuvish oldi ishlov beradigan texnikalardan foydalanib sho’rni yuvib chiqarib tashlash orqali yerlarning meliorativ holati yaxshilanib, tuproqning go’vakligini oshirish orqali hosildorlikni oshirish mumkin. Qurilmamizda biosolvent preparatini qo’llash orqali biz suv sarfini va tuproq sho’rlanish darajasini kamaytirib, qishloq xo’jaligi ekinlaridan mo’l sifatli hosil olishga erishishiamiz mumkin. Biosolvent preparati sho‘rlangan tuproq tarkibidagi tuzni 70 foizgacha yuvish xususiyatiga egaligi bilan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Qurilmani qo’llaganda sho’r yuvish muddati qisqaradi va suv sarfi maksimal darajada tejalishiga olib kelinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

7. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent, O‘zbekiston, 2016.-56 b.

8. https://www.gazeta.uz/oz/2019/03/05/biosolvent/

9. F.Juraev i dr. Drenajno-krotovoe orudie. FAP 20180107. O‘zbekiston Respublikasi foydali modelga patent davlat restorida ro‘yxatga olingan 23.07.2018 yil Toshkent.

10. N.M.Murodov, F.O‘.Jo‘raev foydali modelga patent №FAP00727 Tuynukli drenaj ochuvchi qurilma, O‘zbekiston Respublikasi foydali modelga patent davlat restorida ro‘yxatga olingan 05.04.2012 yil Toshkent.

11. Xamidov M.X., Jo‘raev F.U. “Ustroystvo i prinsipы raboты drenajno-krotovogo orudiya”. //Irrigatsiya va Mellioratsiya. –Toshkent, 2017. №1 (7). –B.9-12.

12. Juraev F.U.,Rajabov YA.J. Foydali modelga patent № FAP20200172 Tuynukli drenaj ochuvchi qurilma, O‘zbekiston Respublikasi foydali

modelga patent davlat reestorida ro‘yxatga olingan 05.07.2020 yil Toshkent.

13. FU Zhurayev, GF Khamrayev, AN Zhurayev. Technology of reclamation machines application in the conditions of irrigated agriculture // The Way of Science, 2014. №3. c. 32.

UO’T: 631.315.4

ISH JARAYONI TAKOMILLASHTIRILGAN TUPROQCHUKURLATKICHLI PLUG

Ochilov Muhriddin Zokir o’g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Hasanov Ulug’ Ibrohimovich
“TIQXMMI” Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktaranti
e-mail: Ulugbek.hasanov.1989@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada tuproqqa asosiy ishlov berishda, xususan shudgorlash bilan birga haydov osti qatlamini va traktor g’ildirak izini yumshatish uchun takomillashtirilgan tuproqchuqurlatkichlar bilan jihozlangan plugni yaratishga doir ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: plug, tuproqchuqurlatkich, korpus, haydov osti qatlami, ikkilamchi zich tovon, energiya sarfi, berch qatlam, gipsli, shag‘alli, qumli qatlamlar, haydov osti qatlami.

UDC: 631.315.4

WORK PROCESS IMPROVED SOIL DEEPENING PLOW

Ochilov Muhriddin Zokir ugli
Student of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management
Supervisor: Hasanov Ulug’ Ibrohimovich
Teacher of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management
e-mail: Ulugbek.hasanov.1989@mail.ru

Annotation: This article provides information on the archive plow-in with improved soil excavators to provide additional assistance to the soil, plowing under the drive and softening the tractor wheel clearance.

Keywords: plow, soil deepener, overturner, drive underlayment, secondary compaction, energy consumption, birch layer, gypsum, gravel, sand layers, under drive.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalarining raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy, sifatli qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy davlatlardan kirib kelayotgan ayrim qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalarining respublikaning tuproq-iqlim sharoitlariga mos kelmasligi qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirishda belgilangan agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish vaqtida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalari hamda ularning agregatlari va butlovchi qismlarini respublika hududlarining tuproq-iqlim sharoitlarida samarali qo‘llash va ularning ishonchliligini tekshirish uchun tegishli sinovlarni o‘tkazish, sohani rivojlantirishga ko‘maklashuvchi innovatsion usullar, dasturlar va istiqbolli g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalari hamda ularning agregatlari va qismlarini ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar faoliyatiga samarali ilmiy ishlanmalar keng joriy etilmoqda [1].

Haydov osti qatlamni 2-3 yilda bir marta 50-60 sm chuqurlikda yumshatiladi. Bunda tuproqchuqurlatkichlar bilan jihozlangan pluglar yoki maxsus chuquryumshatkichlar (GRX-2-50, GRP-3/5,GNU-1MS) qo‘llaniladi .

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligidagi asosiy ekin maydonlarini plug bilan har yili yuqorigi hosildor qismini doimiy 30-35 sm gacha bo‘lgan chuqurlikda ishlov berilganda shudgor tubida o‘ta zichlangan ,,berch tovon” paydo bo‘lishi natijasida o‘simlik ildizining rivojlanishi va suvni shimilishini yomonlashishiga olib keladi. Bunday erlarda yildan - yilga hosildorlik pasayib boradi va tuproq strukturasi yomonlashishi kuzatiladi [2].

Ushbu muammoni yechimi sifatida shudgorlash jarayonining o‘zida haydov osti qatlamni yumshatish imkonini beradigan konstruksiya ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tuproqchuqurlatkich asosiy plug korpusidan keyin va traktor g’ildiragi izidan, unga nisbatan chuqurroq o‘rnatiladi va u orqali korpus lemexi zichlab ketgan ,,plug tovoni” ni tilib, buzib ketishga erishiladi. Bunda zichlashgan qatlam yumshatishi bilan birgalikda o‘simlik ildizi rivojlanishi va tuproqning suv o‘tkazuvchanligini yaxshilanadi.

Hozirgi paytda haydov osti qatlamini yumshatish shudgorgacha yoki shudgordan so‘ng tuproqchuqurlatkichlar bilan alohida hamda tuproqchuqurlatkichli ish organlar bilan jihozlangan pluglar bilan yumshatish bilan birga shudgorlash amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tuproqqa asosiy ishlov berish jarayonini, ya’ni shudgorlash bilan birga haydov osti qatlamini chuquryumshatish texnologik jarayonini takomillashtirish orqali ushbu jarayonga sarflanadigan energiya sarfini kamaytirish agrar sohadagi dolzarb masalalardan biridir [3].

Mavjud tuproqchuqurlatkichli pluglarda barcha tuproqchuqurlatkichlar korpuslarning orqa tomonida joylashtirilgan bo‘lib, g‘ildirakli haydov traktorlari qo‘llanilganda ularning o‘ng tomon g‘ildiraklari haydov agregatining oldingi o‘tishida plugning oxirgi korpusi hosil qilgan egat ichida harakatlanadi.Mavjud tuproqchuqurlatkichli pluglar g‘ildirakli haydov traktorlariga qo‘shib ishlatilganda ularning egat ichida harakatlanadigan g‘ildiraklari agregatning oldingi o‘tishida plug oxirgi korpusining tuproqchuqurlatkichi tomonidan yumshatilgan egat tubida harakatlanadi. Bu birinchidan, egat tubini qaytadan zichlanishiga, ikkinchidan, traktorning egat tubidan harakatlanayotgan g‘ildiraklari yumshatilgan egat tubida harakatlanganligi sababli ularning tortish-ilashish xossalari yomonlashuviga olib keladi. SHulardan kelib chiqqan holda, ish jarayoni takomillashtirilgan tuproqchuqurlatkichli plugning konstruktiv sxemasini ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Takomillashtirilgan tuproqchuqurlatkichli plug
1-plug ramasi, 2- tuproqchuqurlatkichning ishchi organi, 3-tuproqchuqurlatkich ustuni, 4- plug korpusi, 5-tayanch g’ildirak.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan mavjud texnologiya orqali shudgorlishda yumshatilgan egatni keyingi o‘tishda

traktor g‘ildiragi tomonidan qayta zichlanishi hisobiga ish sifatining pasayishiga olib keladi.

Tavsiya etilayotgan tuproqchuqurlatkichli plug bilan erlarni shudgorlanganda ishchi organlari tomonidan shudgor osti kam energiya sarflab yumshatiladi va bunda egat tubi hamda devorlari qo‘shimcha zichlanmaydi.

Xulosa qilib aytganda shudgor osti berch qatlamini yumshatishda taklif qilinayotgan takomillashtirilgan konstruksiyaga ega bo‘lgan nosimmetrik shaklidagi tuproqchuqurlatkichli ishchi organlar qo‘llanganda tuproqning berch qatlamini yumshatiladi. Bu orqali yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, haydov osti qatlamini bir vaqtning o‘zida yumshatish bilan shudgorlash va shudgorlashda energiya sarfini kamaytirishga hamda tuproqning suv va havo o’tkazuvchaligini yaxshilashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalarini sinash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4760-sonli qarori 27.06.2020.1-b.https://lex.uz/docs/4874274?query=Qishloq xo‘jaligi texnikalarini takomillashtirish.

2.Muxamedjanov M.V. Kornevaya sistema i urojaynost xlopchatnika. Tashkent. Uzbekistan. 1978. 328 s.

3.A.N.Murtazoyev “Tuproqqa asosiy ishlov berishda pluglar uchun takomillashgan chuquryumshatgich parametrlarini asoslash” mavzusidagi yosh olimlar loyihasi bo‘yicha oraliq hisoboti. 2018.

УДК: 631.315.4

ТЕОРИТИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЯГЛОГО СОПРОТИВЛЕНИЯ КАНАВОКОПАТЕЛЯ С ДИСКОВЫМИ НОЖАМИ

Сафаров Хусниддин Сирожиддин угли,
Курбанбаев Синдорбек Сарварбек угли, Рузикулова Дилноза Уктамовна
Студенты 2 курса Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства

Научный руководитель:Рузикулов Жасур Уктам угли,
Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства
jasurruzikulov@mail.ru

Аннотация: В данной статье описаны интервалы установки дисков усовершенствованной землеройной машины с дисками, действующие на них силы, условия, необходимые для работы дисков, глубина выемки грунта.

Ключевые слова: канал, диск, деформация, грунт, глина, песок, срезанный слой, поверхность поперечного сечения канала, откос

UDC: 631.315.4

THEORETICAL PREREQUISITES FOR DETERMINING THE DRAFT RESISTANCE OF A DITCHER WITH DISC KNIVES

Safarov Khusniddin Sirojiddin ugli, Kurbonboyev Sindorbek Sarvarbek ugli,
Ruzikulova Dilnoza Uktamovna
Students of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management
Supervisor: Ruzikulov Jasur Uktam ugli
Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management
jasurruzikulov@mail.ru

Abstract: This article describes the installation intervals of the disks of an improved earth-moving machine with disks, the forces acting on them, the conditions necessary for the operation of the disks, the depth of excavation.

Keywords: channel, disk, deformation, soil, clay, sand, cut layer, channel cross-sectional surface, slope

Исследованиями резания торфяной почвы дисковым ножом установлено, что он скользит в почве. Величина коэффициента скольжения зависит от глубины резания, с увеличением которой он возрастает. Однако при движении дискового ножа в почве со скольжением на передней, погруженной в почву части лезвия диска имеется участок, разрезающий почву без скольжения.

В результате экспериментального определения величины составляющих усилия резания торфяных пластов дисковыми ножами установлено, что основной составляющей является усилие резания лезвием, которое зависит от процесса резания, т. е. от того, производится ли разрез почвы со скольжением или без него. При резании минеральных почв как дисковыми, так и черенковыми ножами большая часть усилия резания идет на смятие почвы.

Определение усилия резания торфяной почвы дисковыми ножами можно производить по формуле:

$$P = T + rp_1(\cos\theta_2 - \cos\theta_3) + rp_2(\cos\theta_2 - \cos\theta_1) + rp_1(1 - \cos\theta_1) + \\ + f_1 rp_1(\sin\theta_2 - \sin\theta_3) + f_1 rp_1 \cdot \sin\theta_1$$

(1)

где $T = 2fqS$ – сила трения на боковых поверхностях дискового ножа (в *кг); (* q – нормальное давление почвы на боковую поверхность (в $кг/см^2$); S – площадь сегмента, определяемого глубиной погружения дискового ножа в почву (в $см^2$); f – коэффициент трения почвы о сталь);

r – радиус дискового ножа (в *см);*

p_1 – удельное давление при резании лезвием со скольжением (в $кг/см$)

p_2 – удельное давление при резании без скольжения (в $кг/см$)

f_1 – коэффициент трения торфяной почвы по лезвию

$\theta_1, \theta_2, \theta_3$, – центральные углы, определяемые по следующим зависимостям:

$$\cos\theta_0 = \frac{r}{r + \Delta r}, \qquad \cos\theta_1 = \theta_0 - \varphi_1, \qquad \theta_2 = \theta_0 + \varphi_1, \qquad \cos\theta_3 = \frac{r - h}{r},$$

(2)

в которых $\Delta r = \frac{Er}{1 - E}$, *– расстояние от нижнего конца опорного* диаметра до полюса мгновенного вращения (E – коэффициент скольжения, φ_1 – угол трения торфа по лезвию, h – глубина резания дисковым ножом в *см).*

Формула позволяет определить как суммарную величину усилия резания дисковым ножом, так и ее составляющие – усилие резания лезвием и трение на боковых поверхностях ножа.

С увеличением диаметра дискового ножа усилие резания торфяной почвы уменьшается при прочих равных условиях. Усилие резания заторможенного дискового ножа на 50% больше катящегося.

Уменьшение тягового усилия при копании торфяного грунта можно объяснить тем, что наличие ножей уменьшает деформацию сжатия и облегчает условия изгиба пласта. При работе канавокопателя без ножа для среза пласта боковыми кромками копающего органа необходимо предварительно сжать грунт до определенного предела, пока усилие бокового среза не превысит сопротивление пласта сжатию:

$$L_{ср} \cdot k_{ср} \geq S \cdot k_{сж}, \text{ или } \frac{L_{ср}}{S} \geq \frac{k_{сж}}{k_{ср}},$$

(3)

где $L_{ср}$ – длина периметра бокового среза (в *см);*

$k_{ср}$ – напряжение среза (в *кг/см);*

S – площадь сечения пласта (в *см²);*

$k_{сж}$ – напряжение сжатия (в *кг/см²).*

Для торфяного грунта значение $k_{ср}$ выше $k_{сж}$.

Из выражения 24 видно, что уменьшение периметра бокового среза, которое достигается у канавокопателей предварительным разрезанием грунта боковыми ножами, вызывает уменьшение деформации сжатия пласта, а следовательно, и уменьшение усилия копания.

При работе канавокопателя с ножами одновременно с уменьшением деформации в пределах самого подрезаемого пласта происходит уменьшение распространения деформации за его пределами, что также в свою очередь ведет к уменьшению тягового усилия копания.

Так, при работе канавокопателя КМ-800 без ножей деформация распространяется на расстояние до 2,85 ***м,*** а с ножами – до 1,65 метра.

При работе канавокопателей с ножами на торфяном грунте подрезанный с боковых сторон пласт поднимается значительно выше по отвалу, чем при работе без ножей, в результате чего он дальше отодвигается от бровки канавы, уменьшая тем самым сопротивление бермоочистителей, а следовательно, и общее сопротивление копанию. Кроме того, в торфяных грунтах при работе канавокопателя с ножами получаются более гладкие и более устойчивые откосы.

Однако опытом эксплуатации канавокопателей установлено, что при работе на торфяном грунте с наличием в почве большого количества древесных остатков или на закустаренных участках боковые ножи целесообразно снимать, так как это резко уменьшает забивание рабочего органа древесными остатками и грунтом.

При работе канавокопателя с ножами на минеральных грунтах происходит увеличение суммарного тягового усилия копания. Это объясняется тем, что в минеральных грунтах работа отделения стружки скалыванием значительно меньше работы резания.

По данным проф. А.Д.Далина, если работа скалывания принимается за 100%, то работа резания будет равна 160%. Кроме того, при прокладке канавы в минеральных грунтах без дернового слоя и особенно при повышенной их влажности предварительное разрезание боковыми ножами не облегчает работу копающего органа еще и потому, что под действием последнего грунт снова сжимается и восстанавливает почти полностью свое первоначальное сцепление (в противоположность торфяному грунту). В таких условиях канавокопатели должны работать без боковых ножей.

Наблюдения ряда исследователей за работой экскаваторов на минеральных грунтах также показали, что вертикальные режущие элементы ковшей создают дополнительные сопротивления, которые приводят к увеличению силы копания. Поэтому у большинства современных экскаваторов вертикальные режущие элементы (боковые стенки ковша) исключаются из работы путем выдвижения вперед зубьев на горизонтальной режущей кромке.

На торфяном грунте уменьшение усилия копания канавокопателем имеет место при увеличении глубины резания ножей до 50 ***см***. Свыше указанной глубины усилие копания уменьшается медленнее. Уменьшение усилия копания с увеличением глубины резания ножей более 50 ***см*** вызвано тем, что на этой глубине плотность и связность торфяного грунта значительно меньше, чем в верхних слоях, а следовательно, меньше и сопротивление сдвигу ($k_{ср}$).

Чрезмерное увеличение глубины резания нецелесообразно ввиду возможного взаимного влияния ножей в нижней части сечения выемки и встречи их с древесными остатками, находящимися в торфяном грунте.

При глубине резания до 40–50 ***см*** древесные остатки перерезаются или выворачиваются ножами в сторону, а затем выносятся на поверхность копающим органом. Таким образом, исходя из рассмотренных условий, оптимальную глубину резания ножей канавокопателя при работе на торфяных грунтах следует принимать не свыше 40–50 сантиметров.

При работе на минеральных грунтах с наличием дернового слоя канавокопатель должен иметь глубину резания ножами, равную толщине этого слоя, обычно 15–20 ***см.*** Дальнейшее увеличение глубины резания ножами вызывает значительный рост тягового сопротивления копанию за счет быстрого роста сопротивления резанию.

Отсутствие среднего ножа вызывает неустойчивую работу канавокопателя в горизонтальной и вертикальной (перпендикулярной направлению движения) плоскостях, что объясняется неравномерностью распределения вынутого грунта по сторонам рабочего органа. Это явление особенно сильно сказывается при работе на торфяно-болотных или минеральных задернелых почвах. При работе без среднего ножа грунт сгруживается впереди рабочего органа. При наличии среднего ножа пласт, разрезанный посередине, разваливается по сторонам, не поднимаясь высоко по рабочему органу.

Опытами доказано, что средний нож должен заглубляться на 30–40 ***см.*** При этом тяговое сопротивление канавокопателя изменяется незначительно в сторону увеличения, и его практически можно считать постоянным.

В таблице 2 приводятся результаты опытов по определению влияния глубины установки среднего ножа на тяговое сопротивление канавокопателя КМ-1400 при работе на минеральном грунту.

Таблица 1

Грунт	**Глубина резания ножом h, см**	**Тяговое сопротивление канавокопателя**		**Примечание**
		P, кг	**P, %**	
Суглинок	0	9 441	100	Суглинок легкий с толщиной дернового покрова 10–12 *см*
	15	9 686	103	
	25	9 988	106	

	33	10 370	110	
	50	11 600	121	
Глина	0	12 095	100	Связный тяжелый глинистый грунт с сильно развитым дерновым слоем толщиной 15–20 *см*
	15	12 150	100	
	25	12 506	103	
	35	12 966	111	
	50	15 034	124	

Как видно из таблицы 1, тяговое сопротивление канавокопателя возрастает с увеличением заглубления ножа. На задернелых минеральных почвах средний нож необходимо устанавливать на глубину 15–25 ***см*** только для разрезания дернового слоя, что увеличивает сопротивление канавокопателя на 3–5%. На песчаных минеральных грунтах можно работать без среднего ножа.

Необходимым условием работы ножа является правильное определение расстояния от копающего органа канавокопателя до ножа. При малом расстоянии копающий орган, деформируя находящийся впереди его грунт, может сделать бесполезной работу среднего ножа. Расстояние между копающим органом и средним ножом должно-быть таким, чтобы исключалось их взаимное влияние. Опытами установлено, что это расстояние должно быть 1,5–2,5 ***м,*** в зависимости от размеров копающего органа канавокопателя.

Использованная литература

1. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года. Народное Слово 30 декабря 2020 г. № № 276.
2. З.А.Артукметов, Х.Ш.Шералиев. Основы полива сельскохозяйственных культур. Т. 2007
3. А. Джораев и др. Полезная модель "Усовершенствованная дисковая землеройная машина с дисками". Патент ФАП 01573. 2020 г.
4. Model technological map for 2016-2020 developed by the Agricultural Research and Production Center of the Republic of Uzbekistan and the Research Institute of Agricultural Economics of Uzbekistan. T. 2016 y.
5. Marupov I, Imomov S, Ermatova D, Majitov J, Kholikova N, Tagaev V, Nuritov I, 2020 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 614 012153

6. Sharipov L A, Imomov S J, Majitov J A, Komilov O S, Sharipov M Z, Pulatova F, Abdisamatov O S, 2020 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 614 012035

7. I S Hasanov, J U Ruzikulov, F A Ergashov, M J Toshmurodova, M R Sotlikova, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 868 (2021) 012091

8. Ruzikulov Jasur Uktam ugli, Kurbanbayev Sindorbek Sarvarbek ugli, Nasrullayev Alpomish Anvarjon ugli, Safarov Khusniddin Sirojiddin ugli, Research on the establishment of an improved temporary ditch production device, Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ), Volume 9, Issue 11, November, 2021.

UO‘T: 634.631(571.1)

TOMCHILATIB SUG’ORILADIGAN INTENSIV BOG’LAR VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Imomqulov Qutbiddin Boqijonovich
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.d., professor.
Xalilov Jahongir Mansur o‘g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti
Nishanboyev Nizomjon Ne’mat o‘g’li
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch doktoranti
xalilovjahongir328@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bugungi kunda mamlakatimiz bog’dorchilik sohasida yuqori hosildorlikka ega bo‘lgan zamonaviy intensiv bog’larning an’anaviy bog’larga nisbatan afzalliklari, uning mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati shuningdek, intensiv bog’dorchilikni rivojlanitirish sabablari va istiqbollari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: intensiv bog’**,** klaster, pakana va yarim pakana, payvand, kultivator, agrotexnik tadbir, resurstejamkor, samaradorlik.

UDC: 634.631(571.1)

INTENSIVE GARDENS WITH DRIP IRRIGATION AND THEIR IMPORTANCE TODAY

Imomkulov Kutbiddin Bokijonovich
Research Institute of Agricultural Mechanization, Doctor of Technical Sciences. Professor.
Khalilov Jakhongir Mansur ugli
Basic doctoral student of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
Nishanboyev Nizomjon Nemat ugli
Basic doctoral student of Research Institute of Agricultural Mechanization,
xalilovjahongir328@gmail.com

Annotation: In this article, the advantages of modern intensive orchards with high yields in the field of horticulture in the country today compared to traditional orchards, its role in the economy of our country, as well as the reasons for the development of intensive horticulture, and prospects are given.

Keywords: intensive gardening, cluster, small and semi-small, grafting, cultivator, agronomic activity, resource saving, efficiency.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, fermerlik harakati yo‘lga qo‘yilib, yer o‘zining haqiqiy egasini topdi. Qishloq xo‘jaligini iqtisodiy rentabelli tarmoqqa aylantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, hosildorlikni oshirish, g’alla mustaqilligiga erishish, aholining meva-sabzavot, uzum va boshqa mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojini yurtimizda yetishtirilgan mahsulotlar bilan to‘la qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rildi va bu islohotlar qisqa vaqtda o‘z samarasini bera boshladi. Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va fermer xo‘jaliklarini yuqori unumli qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlash hisobiga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarga o‘tish uchun ushbu sohani samarali va barqaror rivojlantirishda eng muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Birlashgan millatlar tashkilotining ma’lumotiga qaraganda, dunyo aholisining soni ayni vaqtga kelib deyarli 8 milliardga yaqinlashgan va bu ko‘rsatkich 2050-yilga kelib 9,7 milliardga, 2100-yilda esa, 11,2 milliardga etishi kutilmoqda. Umuman oladigan bo‘lsak, dunyo aholisi yiliga 82 million kishiga ko‘paymoqda va har soniyada o‘rtacha 3 ta bola dunyoga keladi. Dunyo aholisini bunday jadal sur’atda ortishi, aholiing oziq-ovqatga bo‘lgan talabini kundan-kunga orttirib, dunyo aholisini sifatli shuningdek, hamyonbop narxlarda oziq-ovqat va mevalar bilan ta’minlab berishdek bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida

cheklangan miqdordagi yer maydonlaridan kamroq mablag' sarf-xarajat qilib, yuqori va sifatli hosil olishni talab yetadi. Zamonaviy intensiv bog' va tokzorlarni tashkil yetish ushbu muammolarning yechimlaridan biri bo'lishi mumkin.

Tomchilatib sug'oriladigan intensiv bog' bu pakana va yarim pakana payvantaglarda yetishtirilgan ko'chatlarni nisbatan zich yekish sxemasida resurstejamkor agrotexnologik tadbirlarni amalga oshirish asosida tashkil yetilgan va suv tejovchi texnologiyarni joriy yetish orqali tashkil yetilgan bog'dir. Zamonaviy intensiv bog'larning afzalligi shundaki, bu daraxtlarning tanalari kichik bo'lib, ular bilan ishlash oson (kultivatsiya, sug'orish, kesish, shakl berish, sepish va yig'ish). Bunday bog'larda, daraxt tanasi yorug'lik va yaxshi havo aylanishi ta'sirida bo'lganligi sababli mevaning sifati yuqori bo'ladi. Shuningdek, mevalarni yig'ishda, ayniqsa narvonlardan foydalanmasdan yig'ib olinadigan bog'larda ba'zi qulayliklar mavjud.

Butun dunyoda qator muammolarni muammolarni keltirib chiqarayotgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining tabiiy meva va sabzavotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, iqtisodiyotning agrar yo'nalishida eksport salohiyatini yuksaltirish borasida respublikamizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Respublikamizda ho'l meva yetishtirishni ko'paytirish va bu sohani rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 24.07.2021-yildagi 458-son qarori bilan Qishloq xo'jaligi birlashmalarining a'zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik sub'ektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko'chatlar (pakana va yarim pakana) hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Shundan so'ng, respublikamizda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llagan holda, yuqori texnologiyaga asoslangan intensiv bog' va uzumzorlarni barpo etishga katta e'tibor berilmoqda.

Yetakchi va rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligida intensiv bog'larni barbo etish bo'yicha bir qancha ijobiy natijalarga erishilgan. Shuningdek, qator orasiga ishlov beradigan, energiya va resurstejamkor texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarning yangi turlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan kultivatorlarning takomillashtirilgan ishchi qismlarini ishlab chiqish, ular bajaradigan

texnologik jarayonlarini va eng maqbul parametrlarini asoslash, tuproqqa ishlov berish jarayonining resurstejamkorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizga Serbiya, Ukraina, Polsha, Turkiya kabi davlatlardan turli xildagi meva ko‘chatlarini keltirib, payvandlab, bog’dorchilik fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga erishildi. Intensiv bog’larni yo‘lga qo‘yilishi bozor va eksport talabidir. Sababi, an’anaviy bog’larning bir gektaridan o‘rtacha 15 tonna atrofida meva olinsa, intensiv bog’larda bu ko‘rsatkich 67 tonnagacha yetadi. Bundan tashqari intensiv bog’lardan olingan mahsulot eksportbop hisoblanadi.

Tomchilatib sug’oriladigan intensiv bog’ning ekish zichligi va hosildorligi an’anaviydan sezilarli darajada farq qiladi. Birinchisida bir gektarga 800 dan 2,5 mingtagacha, ikkinchisida esa 350-450 tagacha daraxt ekilgan. An’anaviy bog’larda daraxt 5-6 yilda meva bera boshlasa, intensiv bog’ ikkinchi yildan hosilga kiradi. Shuningdek, ilgari bir gektarli bog’ga 1000 kubometr suv sarflangan bo‘lsa, yangi usuldagi bog’lar uchun tomchilatish yo‘li bilan atigi 70 kub suv yetarli. Bu o‘z navbatida so‘nggi vaqtlarda nafaqat yurtimizda balki butun dunyoda global muammoga aylanayotgan suv tanqisligi muammosiga ham yechim bo‘la oladi.

Har yili ekiladigan 15 ming gektar intensiv bog’lar o‘rtacha hosildorlikka – 35 t/ga ko‘paytirilsa, qo‘shimcha 525 ming tonna olma hosili olinadi. Nazariy jihatdan, biz 3-4 yil ichida sanoatning hozirgi rivojlanish sur’atida bunday hosilni olishimiz mumkin. An’anaviy bog’lar gektaridan 10-12 tonna hosil bersa, intensiv texnologiyalar bu ko‘rsatkichni 55-80 tonnagacha ko‘taradi. Shunday yekan, yurtimizda amalga oshirilayotgan mevachilik sohasidagi tub islohotlar va ilm-fan yutuqlari nafaqat xalqimizni, balki butun dunyo ahlini turli xil mevalarimizdan bahramand qilishga shubha yo‘q.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlarga yerishish uchun bog’dorchilikda ilm-fan yutuqlarini joriy etish, yangi texnika va texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tomchilatib sug’oriladigan intensiv bog’ va tokzorlarni tashkil etish bilan bir qatorda, zamoniy agrotexnik jarayonlarni o‘z vaqtida qo‘llashimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “Bog’dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish: pakana va yarim pakana (intensiv) mevali bog’larni tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda

yuqori talabga ega bo‘lgan, yuqori hosildor uzum navlarini yaratish” bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent – 2016 «Tafakkur» nashriyoti – 113 b

2. T.E.Ostonaqulov, S.X.Narzieva “Mevachilik asoslari” Qishloq xo‘jalik oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2010 – 223 b

3 . A. U. Aripov, A. A. Aripov, Urug’li intensiv meva bog’lari. -T., Sharq, 2013, - B. 224.

UO‘T: 631.315.4

TAKOMILLASHGAN MUVAQQAT ARIQ QAZGICH QURILMASI

Safarov Husniddin Sirojiddin o‘g’li, Ro’ziqulova Dilnoza O’ktamovna
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Ro‘ziqulov Jasur O‘ktam o‘g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi
jasurruzikulov@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada muvaqqat ariq qazgich qurilmasini takomillashtirish bo’yicha tadqiqotlar bayon etilgan. Kanalqazgichning tortish qarshiligini kamaytirish va kanal sifatini yaxshilish maqsadida kanal qazgich oldida ikkita to’g’ri diskli o’rnatilgan. Qazish paytida, diskning aylanish harakati tufayli tuproq qatlamining qisman parchalanishi tufayli muvaqqat ariqning qiyaligi talab darajasida saqlanib, muvaqqat ariq yon devorining bir xilligini saqlash masalasiga to’xtalib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Sug’orish, muvaqqat ariq, disk, kanalqazgich, deformatsiya, ag’dargich, lemex, tayanch chang’i.

Bugungi kunda Respublikamizda sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, irrigatsiya obyektlarning tarmog’ini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnika va texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada suv tejamkor zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, sug’orish tarmoqlarini doimiy texnik soz holatda saqlash hamda energiya tejamkor texnika va texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ekinlarni hosildorligini oshirish o‘z-o‘zidan sug’orishga bog’liqdir. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug’orishda sug’orish tarmoqlaridan foydalaniladi. Sug’orish tarmoqlari foydalanish muddatiga ko‘ra *doimiy* va *muvaqqat tarmoqlarga* bo‘linadi. Muvaqqat sug’orish tarmoqlari sug’orish mavsumi boshida olinib, sug’orish mavsumi tugallanishi bilan tekislab yuboriladi. Muvaqqat tarmoqlarni qazish uchun ariqqazgich-tekislagichlardan foydalaniladi: ular ariqni 20 - 40 1/sek. dan 100 - 200 1/sek. gacha suv o‘tkaza olishini hisobga olgan holda tanlanadi.

Respublikamiz sug’oriladigan dehqonchiligida ekinlarni sug’orish uchun vaqtinchalik sug’orish tarmoqlari hosil qilish maqsadida КОР-500А, КЗУ-0,5, КПУ-2000А, КБН-0,35, КЗУ-0,3 ariq qazgichlardan foydalanib kelinmoqda. Ushbu ariq qazgichlar tuproqni qazish, qazilgan tuproqni ko’tarish va uni kanal qirg’og’ini bir yoki ikkala tomoniga joylash va surish ishlari bilan bir qatorda, uning sirtini tekislash va silliqlash, hamda nishabligini ta’minlash ishlarini bajarishlari zarur. Ushbu ariq qazgichning asosiy kamchiligi shundaki, qattiq maydonlarda ariq qazishda ko’p energiya talab etadi, namlik past bo’lgan maydonlarda yirik kesaklar miqdori ko’payadi natijada yumshatish sifati pasayadi va ko’p deformatsiyalanishi natijasida ish ustunlarining geometrik shaklini yo’qotadi. Ulardan ariq qazish jarayonida ish jihozini tortish uchun katta miqdorda kuch talab etilishi, tuproq qarshiligining kattaligi hamda ariq tubining yetarli darajada zichlanmasligi evaziga suv shimilishining yuqoriligidir.



1-rasm. Muvaqqat ariq qazgichning umumiy ko'rinishi
1-rama, 2-osish qurilmasi, 3-ishchi jihoz.

Ma'lumki, muvaqqat ariqlarning asosiy vazifasi ekinlarni suvga bo'lgan talabini vaqtida qondirish hisoblanadi. Buning uchun ariqdan, masalan g'o'za dalasiga talab etiladigan suvni gektariga 70…100 m^3 yetkazib berish talabi qo'yiladi. Bunda sug'orish me'yori (m^3/ga) bilan o'simliklar talab etadigan 1 ga yer uchun bir martalik sug'orishdagi sarfni quydagicha aniqlab olsak bo'ladi:

$$Q = \frac{1000 \cdot m}{86400 \cdot t} \qquad (ga) \qquad l/sek$$

bu yerda *m* – sug'orish me'yori m^3/ga; t – sug'orish davriyligi sutka.

Agar formulaga e'tibor berilsa sug'orish me'yori bir turdagi o'simlik yoki yetishtiriladigan yer sharoiti inobatga olingan. Ammo tajribalarimizda Buxoro vohasining iqlim sharoiti va tuproq strukturasi inobatga olinsa bu tartibda suvni me'yorlash va unga suv keltiruvchi muvaqqat ariqlar tanlash to'g'ri kelmasligini ko'rsatadi. Shuning uchun biz tamondan taklif etilayotgan qurilma yuqoridagilarni inobatga olib muvaqqat ariq qazgich ish samaradorligini oshirish maqsadida ag'dargichining old qismida tuproqni yumshatish, qarshilikni kamaytirish, tuproq fraksiyasi va nishabligi sifatini yaxshilash maqsadida to'g'ri disklar va hosil qilinayotgan muvaqqat ariq tubini zichlash maqsadida katok o'rnatildi.



1-rasm. Takomillashgan muvaqqat ariq qazgichning umumiy ko'rinishi.
1-rama, 2, 5-disklar, 3-ag'dargich, 4-zichlovchi katok.

Takomillashgan ariq qazgich rama 1, unga o'rnatilgan asosiy ish jihozi 3, uning oldi qismiga o'rnatilgan aylanuvchi disklar 2, 5, ariq tubini zichlash maqsadida o'rnatilgan katok 4 dan tashkil topgan. To'g'ri disklar

maxsus kronshteynga biriktiruvchi gupchak - o'q yordamida o'rnatilgan. Ariq qazgich qurilmasi orqa qismiga sirpanuvchi chang'i o'rniga kanalqazgich ramasiga maxsus payvandlangan dastak orqali vint gayka yordamida prujina ta'sir kuchi ostidagi katok o'rnatiladi.

Disklar bilan takomillashtirlgan kanal qazgichning kanal qazish jarayonlari tadqiq qilinganda shu aniqlandiki, disklar tuproqda sirpanadi. Sirpanish koeffistienti kesish chuqurligiga bog`liq bo'lib, disklar kattalashgan sari, sirpanish ham oshib boradi. Biroq disklar tuproq bo'ylab sirpangan holda harakatlanganda keskichning old, tuproqqa botgan qismida tuproqni sirpanmasdan kesuvchi sohasi bo'ladi.

Tortish kuchini tadqiq qilish hamda diskli qurilmalar ishining sifatini agronomik jihatdan baholash shuni ko'rsatdiki:

1. Disk diametrining oshishi bilan tortish kuchi hamda bir diskka ketadigan kuch kamayadi;

2. Disklar bilan tortish chizig`i o'rtasidagi o'rnatish burchagi oshishi bilan umumiy kuch, bir diskka ketadigan kuch hamda bir birlik qamrov ham oshadi.

3. Bunda umumiy kuch quyidagi empirik bog`liqlik orqali hisoblanishi mumkin:

$$P^{/} = P_o^{/} + 10\alpha^{1,15},$$

bu yerda $P_o^{/} - \alpha = 0$ sharoitdagi tortish kuchi;

α – disklarni o'rnatishning tortish chizig`iga nisbatan burchagi;

4. Disklarni o'rnatishning tortish chizig`iga nisbatan burchagini 15 gradusdan ko'proqqa oshirish plastning yumshatish darajasini ko'p ham yaxshilamaydi, biroq tortish kuchining oshishiga, shuningdek dala yuzasidagi chim palaxsasini chiqarish foizining ko'tarilishiga olib keladi;

5. Disklar orasidagi masofa oshgan sari har bir qamrov birligiga to'g`ri keladigan tortish qarshiligi kamayadi, bir diskka to'g`ri keladigan tortish qarshiligi esa har bir disk mustaqil jo'yani o'tkazguncha oshib boradi.

Disklarsiz va disklar bilan takomillashtirilgan kanal qazgichlarlarning sinov natijalari turli tuproq sharoitlaridagi ko'rsatkichlari 1-jadvalda ko'rsatiladi.

1-jadval

Tuproq	**Kesish kuchi**	**Disk bilan kesish chuqurligi *h, sm***			
		0 (pichoqsiz)	**25**	**50**	**75**
Torfli	*P, kg*	7 450	6 650	6 120	6 075

	P, %	100	89	82	80.9
O'rtacha qumoq tuproq, *W=18%*	*P, kg* *P*, %	13 960 100	14 700 105.2	15 680 112.2	– –

Takomillashgan ariq qazgichning ishlash texnologik jarayoni quyidagicha: ariq qazgich ish jarayonida traktorning orqa tomoniga osma tarzda o'rnatilib ishchi holatga keltiriladi. Traktorning ilgarilanma harakati evaziga ishchi jihoz tuproqqa ma'lum chuqurlikda tushuriladi. Muvaqqat ariq qazish jarayonida bir-biriga nisbatan ma'lum oraliqda joylashtirilgan kesuvchi to'g'ri disklar tuproqqa botib, tuproq bilan ilashishi natijasida o'z o'qi atrofida aylanma harakat qilib belgilangan chuqurlikda ag'dargich oldidagi tuproqni kesib, kesilgan tuproq qatlami ag'dargich yordamida yon tomonga surilib kanal hosil qilinadi. Natijada agregatning ishlash jarayonida tortishga qarshilik kuchi kamayadi. Ariq qazish jarayonida disklar yordamida tuproq qatlamining kesib berilishi hisobiga ariq yon tomonining qiyaligi va geometrik shaklining bir xilligi ta'minlanadi hamda o'rnatilgan katok ariq tubini zichlashi natijasida sifatli ariq hosil bo'ladi.

Demak, tavsiya etilayotgan disklar bilan takomillashgan energiyatejamkor kanal qazgich muvaqqat ariq qazishda mavjud qurilmaga nisbatan yonilg'i sarfini 15 % gacha kamaytirish va ish unumini 1,5 barobar oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi 2020 yil 30 dekabr № 276 son.

2. Z.A.Artukmetov, H.Sh.Sheraliyev. Ekinlarni sug'orish asoslari. T. 2007 y.

3. S.T.Vafoyev. Melioratsiya mashinalari. T., "Fan texnologiya", 2013 y.

4. A.Jo'rayev va boshqalar. "Disklar bilan takomillashtirilgan ariq qazish mashinasi" nomli foydali model. Patent FAP 01573. 2020 y.

5. Model technological map for 2016-2020 developed by the Agricultural Research and Production Center of the Republic of Uzbekistan and the Research Institute of Agricultural Economics of Uzbekistan. T. 2016 y.

6. Murodov N M, Juraev A A and others. Utility model 2021 "Device

for forming a longitudinal pawl between rows of cotton in one pass of the unit". Patent FAP 01645 06.21

7. Marupov I, Imomov S, Ermatova D, Majitov J, Kholikova N, Tagaev V, Nuritov I, 2020 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 614 012153

8. Sharipov L A, Imomov S J, Majitov J A, Komilov O S, Sharipov M Z, Pulatova F, Abdisamatov O S, 2020 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 614 012035

9. I S Hasanov, J U Ruzikulov, F A Ergashov, M J Toshmurodova, M R Sotlikova, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 868 (2021) 012091

10. Ruzikulov Jasur Uktam ugli, Kurbanbayev Sindorbek Sarvarbek ugli, Nasrullayev Alpomish Anvarjon ugli, Safarov Khusniddin Sirojiddin ugli, Research on the establishment of an improved temporary ditch production device, Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ), Volume 9, Issue 11, November, 2021.

UO'T: 631. 315. 4.

BUXORO VILOYATI SHAROITIDA QATQALOQ YUMSHATGICH TEXNIKASINI TADBIQ QLISH.

Abdurahimov Mustafo Akmaljon o'g'li, Bobirova Madina Bobir qizi
"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti 2-bosqich talabalari
Ilmiy rahbar: Jo'rayev Asliddin Nasriddin o'g'li
"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o'qituvchisi
(Email: asliddinj688@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada erta bahorda urug' qadalgan dalalarda kuchli yog'inlar va sug'orishdan so'ng tuproq betida hosil bo'ladigan qattiq qatlam ya'ni qatqaloqni yumshatishda samarali texnika va texnalogiyalardan foydalanish tog'risida fikr yuritiladi.Shu sababli tadqiqotlarda ekishdan keyin dalalarda yog'ingarchiliklar oqibatida tuproq ustki qatlamida hosil bo'ladigan qatqaloqli qatlamni yumshatishda qo'l kuchi orqali bajariladidan mexnatni mexanizim yordamida amalga oshirish, vaqtdan unumli foydalanish va urug' ekilgan dalalarni buzib qayta ekmasdan iqtisodiy sarf xarajatlarni kamaytirish maqsadida bu turdagi agregatlarni ish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida, qatqaloqli yerlarni yumshatuvchi agregatning maqbul variantini ishlab chiqilib yerlarni yumshatishda qo'l kuchi mexnat

sarfini kamaytirish va resurs tejamkorlikni oshirish maqsad qlib olingan.

Kalit so‘zlar: tekislash, qatqaloq, texnologik, struktura, agregat, yumshatgich, disk, rama, samaradorlik, resurs, qatlam.

UDC: 631. 315. 4.

APPLICATION OF COATING SOFTENING TECHNIQUES IN THE CONDITIONS OF BUKHARA REGION

Abdurakhimov Mustafo Akmaljon ugli, Bobirova Madina Bobir kizi
Studetnts of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
Scientific supervisor: Jurayev Asliddin Nasriddin ugli
Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.

Annotation: This article discusses the use of effective techniques and technologies to soften the hard layer that forms on the soil surface after heavy rains and irrigation in early spring. Therefore, studies show that after sowing, the fields are formed in the topsoil due to precipitation. Based on the results of scientific research on improving the efficiency of this type of aggregates in order to reduce the economic costs of manual labor, time management and re-sowing of sown fields. An optimal variant of the softening aggregate has been developed with the aim of reducing manual labor consumption and increasing resource savings in land softening.

Key words: leveling, hard surface, technological, structure, aggregate, softener, disc, boron, rama, resource, layer.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish, shuningdek melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart – sharoitlar yaratish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Urug’ qadalgan yerlarga sifatli ishlov berishni sifatli amalga oshirish ekinlardan mo‘l hosil olish garovi hisoblanadi. Tuproqning strukturali va strukturasiz bo‘lishi dehqonchilik madaniyatiga ham bog‘liqdir. Strukturali tuproqlarda urug’liar yaxshi unib chiqadi, o‘sadiva rivojlanadi. Strukturasiz tuproqlarda esa yog’in-sochindan keyin qatqaloq xosil bo’ladi. Qatqaloq ostida urug‘lar yaxshi unib chiqmaydi, unib chiqqan nihollar esa

ezilib nobud boiadi. Hosil bo‘lgan qatqaloq tuproqning havo va suv rejimini buzadi. Berilgan suv tuproqqa qiyin shimiladi va tez bugianadi. Qatqaloq ta’sirida tuproq bilan atmosfera orasida havo almashuvi sustlashadi.

Qatqaloq hosil bo‘lishi turli tuproqlarda bir xil emas. Qatqaloqning paydo boiishida ko‘pincha karbonatlar muhimro’l o‘ynaydi. Masalan, kalsiy bikarbonat $Ca(HCO_3)^2$ tuproq ning qurishi natijasida $CaCO_3$ ga aylanadi. Bu esa zararchalarini bir biriga qattiq jipslashtirib, qatqaloq hosil qiladi. Sug‘oriladigan dalalarda qatqaloq hosil bo‘lishi asosan suv ta’sirida makro va mikroagregatlarini buzilishi sababli, ya’ni strukturasiz holatga o‘tishi natijasida vujudga keladi. Qatqaloq bo‘lmasligi uchun tuproq chirindiga boy, donador strukturali holatda saqlanishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil yetishning klaster modeli keng joriy etilmoqda, natijada oxirgi yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlariga ajratilgan yer maydonlari hajmi mazkur ekin turi uchun ajratilgan qishloq xo‘jaligi yerlarining 52 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda samarali bozor mexanizmlarining mavjud emasligi tarmoqning raqobat-bardoshligini oshirish imkonini bermayapti.

Bu islohotlar keng ko‘lamli zamonaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish va sifatli qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish imkoniyatini oshirish orqali qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash lozimligini taqozo qiladi. Qishloq xo‘jaligida yerlardan unumli foydalanishda sifatli ekin urug‘larini tayyorlash, mahalliy va xorijiy seleksiya navlari, shu jumladan biotexnologik navlarning birlamchi urug‘chiligini tashkil etish va rivojlantirish kabi muammolarni bartaraf etish ko‘zda tutilgan.

Dalalarda urug‘ ekilgandan so’ng qisqa muddatlarda tuproqqa sifatli ishlov berish kompleks agrotexnik tadbirlar orasida qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olish turg‘unligini ta’minlash uchun birinchi galda bajariladigan asosiy vazifalardan hisoblanadi[2].

Paxtachilik hududlaridagi sug‘oriladigan yerlarda ekishdan keyin tuproqqa ishlov berishning o‘ziga xos xususiyatlari tabiiy-iqlim va tuproq sharoitlari, tuproqning mexanik tarkibi, unga ishlov berish texnologiyasi, mashina turlari va unga qo‘yilgan agrotexnik talablarga ko‘ra uch hududga bo‘lingan. Paxta maydonining 58 foizini tashkil etuvchi uchinchi hududga ishlov berish qiyin bo‘lgan va turli darajada sho‘rlangan yerlar

kiradi. Mazkur hududga Markaziy Farg‘ona va ikkinchi hududdan quyiroqda joylashgan yerlar: O‘zbekiston Respublikasining Toshkent, Jizzax, Samarqand, Sirdaryo, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining yerlari kiradi.

Urug’ qadalgan yerlarda qatqaloq hosil bo’lish jarayoni qanday yuz beradi:

Qatqaloq – kuchli yog‘inlar va sug‘orishdan so‘ng tuproq betida hosil bo‘ladigan qattiq qatlam. O‘rta Osiyoda sug‘orma dehqonchilik rayonlarining deyarli barcha tuproqlari qatqaloqlanishga moyil. Bunga asosiy sabab, shu tuproqlarning haddan tashqari kam donadorligi va tuproq agregatlarining suvga juda ham chidamsizligidir. Yomg‘irdan yoki sug‘orishdan so‘ng yerning ustki qavati ivib suyuladi, quriganda qotib qatqaloq hosil qiladi va beti yorilib ketadi. Qatqaloq tuproq xossalari va qishloq xo‘jaligi ekinlari rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, tuproqning suv o‘tkazuvchanligi va havo almashinuvini sekinlashtiradi, shuningdek, tuproqdagi namning (20–30% gacha) bug‘lanishini tezlashtiradi. Sho‘rlanish hamda sho‘rtoblanish qatqaloq hosil qilishga moyillikni kuchaytiradi. Masalan, qo‘riq va yengil qumoqli och tusli bo‘z tuproqlarda qatqaloqning qalinligi 0,3–0,5 sm, och hamda to‘q tusli bo‘z tuproqlarda 0,8–1,5 sm, kuchsiz sho‘rlangan qumoqli va soz mexanik tarkibli taqirli tuproqlarda 2,4–4,5 sm ni tashkil etadi. Bir metr kv yerdagi qatqaloqning og‘irligi 50–70 kg gacha yetadi.

1-rasm. Yogingarchilikdan so’ng ekinzor dalalarda hosil bo’ladigan qatqaloq aks etgan

Qatqaloq yumshatgich mashinaning konstruktiv (2-rasm) yechimi, ularni qo‘llash joyi va xajmi, xududning tabiiy iqlim sharoitlari, ishlov beriladigan tuproqning fizik-mexanik va texnologik xossalari, tuproqqa ishlov berish texnologiyasiga agrotexnik talablar, texnologik operatsiyalarni bir vaqtda o‘tkazish mumkinligi va maqsadga movofiqligi

hamda energetik asos (qo‘llaniladigan traktorning quvvati, konstruktiv va foydalanish afzalliklari) bilan belgilanadi.



2- rasm. Tavsiya etilayotgan agregatning konstruktiv ko’rinishi.

Buxoro viloyati sharoitida ekin ekilgan yerlarda erta baxorda yog’ingarchiliklardan so’nghosil bo’lgan qatqaloq unib chiqgan g’o’za nixollari qsib qoyishi natijasida nixol keragicha rivojlana olmaydi va natijada yerlarga qlingan yuqori sarf xarajatlarga qaramasdan buzib qayta urug’ qadashga to’g’ri keladi. Bu esa eng avvalo vaqtni bekorga ketqazishga xamda sarf xarajatlarni rejadan oshib ketishiga olib keladi.Tavsiya etilayotgan qatqaloq yumshatgich qurilmasi orqali yerga ishlov berilganda esa go’za nixollariga shikast yetkazmasdan tagini yumshatish imkoni paydo bo’ladi.Talab qilinadigan sarf xarajatlarni yanada kamaytirish maqsadida agregatning tuproqqa ko’rsatadigan qarshilgini kamaytirish orqali samaradorligini oshirishni ilmiy asoslash asosiy vazifalardan qilib olindi.

Professor V.P. Goryachnikovning tadqiqotlarida tortishish kuchi qarshiliklarni quyidagi toifalar bo‘yicha sarflanadi deyilgan:

$$P = f_n \cdot G + K\,ab + \varepsilon\,ab\,\vartheta^2,$$

Bu erda: P - tortishish kuchlari, N;

G - tuproqni ag‘darilib jo‘yak bo‘ylab tashish sarfi, N;

a, b - plastlarning ko‘ndalang kesimi hajmi, sm;

ε - ko‘tarilgan plastlarni bir tomonga tashlash sarfi, N;

K - grunt deformatsiyasi qarshiligi koeffitsienti, sm^2;

f_n - dumalash qarshiligi koeffitsienti;

ε - ag‘darilishning ishchi yuzasi shakli, grunt xususiyatiga bog‘liq bo‘lgan koeffitsient, $H \cdot C^2$/sm^4;

ϑ - agregat xarakati tezligi; m/s

Yuqorida keltirilgan nazariyalar asosida agregatning har bir tashkil etuvchi qismlari bo‘yicha qarshiliklari hisolanib, agregatning samaradorligi aniqlanadi.

Dala dehqonchiligida yangi texnologiyalarni kiritish, energiya tejamkor universal mashinalarni qo‘llash, resurs tejamkor texnologiyalarni qishloq xo‘jaligida tadbiq etib Buxoro viloyatidagi sug‘oriladigan ekin maydonlaridan yuqori hosil olish va dunyoning nufuzli davlatlari qatorida tavsiya etilayotgan agregat orqali o‘z o‘rnimizni yaratish oldimizga qo‘yilgan muhim vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

1. SH. M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, Qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. 2017.https://kitobxon.com/uz/yozuvchi/Mirziyoyev_shavkat.

2. F. Mamatov, B. Xudoyorov, E. Haydarov, U. Qo‘ziev. Erni tayyorlashda yangi usul afzalliklari //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. – Toshkent, 2003. №10. B.16-17.

3. F. M. Mamatov. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. Toshkent: O‘zbekiston - 2007

4. M. Toshpo‘latov. Mashina-traktora gregatlari ish unumini oshirishning nazariy va amaliy prinsiplari, Toshkent-2015.

5. M. Toshpo‘latov. A Boqiev. Texnika ta’miri: Ekish agregatlari, Toshkent - 2006

6. A. Xamidov. Qishloq xo‘jaligi mashinalarni loyixalash. Toshkent o‘qtuvchi - 1991.

7. F. M. Mamatov. Teoriya i raschet ploskix diskovix nojey selskoxozyastvsnnых mashin. Qarshi: Nasaf, 1992.

8. M. SHoumarova, T. Abdillaev. Qishloq xo‘jaligi mashinalari Toshkent: fan-2002

UO‘T: 631. 315. 4.

SUG’ORILADIGAN YERLARDA BIR O’TISHGA ISHLOV BERUVCHI AGREGATLARDAN FOYDALANISH SAMARASI

Sobirov Komil Sodiq o’g’li., Safarov Shavkat To’xta o’g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti 3-bosqich talabalari
Ilmiy rahbar: Qo’chqorov Jur’at Jalilovich
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o’qituvchisi

qjurat@mail.ru

Annotatsiya: *maqolada sug'oriladigan ekin maydonlariga ishlov beruvchi agregatlar va ularning ish texnologiyasi, foydalanish tartibi hamda ularning tahlillari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *kombinatsiyalangan agregat, ishchi organ, texnologik jarayon,texnik-iqtisodiy ko'rsatkich, meteorologik sharoit, energiya manbai, ishlov berishlar soni, tuproq zichligi, quvvat sarfi, mehnat unumdorligi, ish sifati, minimal ishlov berish.*

UDC: 631. 315. 4.

EFFICIENCY OF USING ONE-TRANSITION ENGINEERING IN IRRIGATED LAND

Sobirov Komil Sodiq ugli., Safarov Shavkat Tuxta ugli
Studetnts of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
Scientific supervisor: Kuchkarov Jurat Jalilovich
Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
qjurat@mail.ru

Annotation: The article provides information on irrigated arable lands and their operation technology, mode of use and their analysis.

Keywords: combined unit, working body, technological process, technical and economic indicators, meteorological conditions, energy source, number of treatments, soil density, energy consumption, labor productivity, work quality, minimum processing.

Bir qancha jarayolarni bajarishni zarurligi bilan bog'liq bo'lgan tuproqqa ishlov berish agregatlarining dala bo'yicha ko'p marta o'tishi albatta, tuproqni o'ta zichlanishiga va changlanishiga olib keladi. Besh korpusli plug bilan shudgorlanganda dala yuzasining 40...50% ini traktor zichlaydi. Traktorning yurish qismi va mashinalarning g'ildiraklari ta'sirida tuproqning donador kesaklari parchalanadi va zarrachalarga aylanadi, uning zichligi oshadi, kapillyarligi va nam o'tkazishi kamayadi, tabiiy hosildorligi buziladi. Ayniqsa, nam yetarli bo'lmagan va yengil strukturasiz tuproqlarda ko'p ishlov berish o'ta zararli. Jadal ishlov berilganda hosildor qatlam zarralari shamol ta'sirida uchib ketadi, suv eroziyasi tufayli organik moddalar yo'qoladi va tuproqning strukturasi

yomonlashadi[3]. SHuning uchun tuproqqa minimal ishlov berish keng tarqalmoqda, bunda ishlov berish soni va traktorlarni dala bo'yicha o'tishi kamayadi, operatsiyalarni o'tkazish muddatlari keskin qisqaradi. Buning uchun bir o'tishda bir nechta operatsiyalarni bajaradigan kombinatsiyalashgan mashinalar va agregatlarni qo'llash hozirgi vaqtda asosiy muammolardan biridir. Kombinatsiyalashgan mashinalar va agregatlarni qo'llash quyidagicha amalga oshiriladi ularning yurish qismlarni tuproqqa zararli ta'sirini kamaytiradi, ishlarning sifatini va mehnat unumdorligini oshiradi, ishlab chiqarish vositalarini kamaytiradi. Kombinatsiyalashgan mashinalar asosan uch turga bo'linadi: ayrim operatsiyalarni bajaradigan ketma-ket bog'langan oddiy qurollardan tuzilgan agregat; ramasiga oddiy qurollardan olingan ketma-ket berkitilgan vazifasi bo'yicha har xil ishchi organli mashina; texnologik jarayonning barcha operatsiyalarini bajaradigan maxsus kombinatsiyalashgan ishchi organ bilan jihozlangan mashina[2]. Zamonaviy kombinatsiyalashgan agregatlar ta'sir prinsipiga asosan passiv, faol, faol va passiv ishchi organlar birikmasidan tuzilgan bo'lishi mumkin.

Kombinatsiyalashgan mashinalarning konstruktiv yechimi, ularni qo'llash joyi va hajmi, hududning tabiiy-iqlim sharoitlari, ishlov beriladigan tuproqning fizik-mexanik va texnologik xossalari, tuproqqa ishlov berish texnologiyasiga agrotexnik talablar, texnologik operatsiyalarni bir vaqtda o'tkazish mumkinligi va maqsadga muvofiqligi hamda energetik asos (qo'llaniladigan traktorlarning quvvati, konstruktiv va foydalanish afzalliklari) bilan belgilanadi [3,4,5]. Kombinatsiyalashgan mashinalar tanlanganda ularning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari e'tiborga olinishi lozim. Texnologik operatsiyalarni bir vaqtda o'tkazish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi qo'llaniladigan deqhonchilik va tuproqqa ishlov berish tizimi, dalalarni begona o'tlar bilan ifloslanganligi va ularni turi bo'yicha tarkibi, meteorologik sharoitlar, energetik vositalarning parametrlari, agronomik, texnik-iqtisodiy va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Texnologik operatsiyalarni bir vaqtda o'tkazish va kombinatsiyalashgan mashinalarni qo'llashni quyidagilar belgilaydi.Operatsiyalarni bajarish muddatlarini to'g'ri kelishi, masalan, g'o'zapoyani yig'ib olish, asosiy ishlov berish, tuproqni ekishga tayyorlash, o'g'it solish, ekish; ekish oldidan ishlov berish, o'g'it solish va boshqa;

operatsiyalarni qisqa muddatlarda o'tkazishni maqsadga muvofiqligi va zaruriyati, masalan, paxta dalalariga kuzgi bug'doy ekish uchun tuproqni tayyorlash va ekish; ko'zda tutilgan operatsiyalar ayrim holda bajarilganda meteorologik sharoitlar ularning samaradorligini pasaytirishi, masalan, yoz oylarida takroriy ekinlar ekish uchun tuproqni an'anaviy usulda tayyorlash issiq havo ta'sirida uni ortiqcha qurishiga olib keladi; kombinatsiyalashgan mashinalarni agregatlash uchun mos tortish sinfdagi serquvvatli traktorlarni mavjudligi; texnologik operatsiyalarni bir vaqtda bajarish uchun ishchi organlarni moslashganligi, masalan, tuproqni ekishga tayyorlash va ekish uchun[5,6,7].Texnologik operatsiyalarni bir vaqtda o'tkazishning maqsadga muvofiqligi tekshirishlar va ishlab chiqarish tajribalari bilan tasdiqla ngan: ko'pchilik hollarda operatsiyalarni bir vaqtda bajarish ularni ayrim-ayrim bajarganga nisbatan tuproqni qisqa muddatlarda sifatli tayyorlashga imkon yaratadi. Bu tuproqda namni saqlash va urug'ni belgilangan muddatlarda yangi ishlov berilgan nam tuproqqa ekishga imkon beradi, natijada ekinlarning hosildorligini oshirish uchun sharoit yaratiladi; texnologik operatsiyalarni bir vaqtda o'tkazish agregatni dala bo'yicha o'tishlar sonini keskin qisqartiradi va traktorlar yurish tizimlarining zararli ta'sirini kamaytiradi. Operatsiyalar ayrim o'tkazilganda dalaning 80% gacha yuzasi traktor g'ilidiraklari bilan zichlanadi, shundan 30% yuza bir marta, 20% - ikki karra, 15% - uch karra va 5% - to'rt karra o'tishlar ta'sirida bo'ladi. Texnologik operatsiyalar biriktirilganda o'tishlar soni va zichlanadigan yuza 2-3 martaga kamayadi; texnologik operatsiyalarni biriktirish tuproqqa ishlov berish va ekishning umumiy quvvat sarfini kamaytiradi natijada mehnat unumdorligi oshadi, solishtirma yoqilg'i sarfi kamayadi va xarajatlar qisqaradi; operatsiyalarni biriktirish texnologik jarayonlarni tugallashga noqulay ob-havo sharoitlar ta'sirini kamaytiradi; kombinatsiyalashgan mashinalar va agregatlarni qo'llash serquvvat traktorlarni yaxshi yuklashga imkon yaratadi, ayniqsa, keng qamrovli agregatlarni qo'llash qiyin bo'lgan kichik dalalarda. Bir qator ishlarni faqat kombinatsiyalashgan mashinalar bilan bajarish mumkin. Masalan, tuproqqa o'g'it va meliorantlar, ayrim hollarda pestitsid, suvsiz ammiak solish[3,7]. Qishloq xo'jalik texnikalarining rivojlanishini hozirgi bosqichida O'zbekiston sharoitida quyidagi texnologik operatsiyalarning birikmasi mumkin: g'o'zapoya maydalash, tuproqqa asosiy va ekish oldi ishlov berish, ekish o'g'it solish; tuproqqa ekish oldi ishlov berish, ekish va

o’g‘it solish; tuproqqa asosiy va ekish oldi ishlov berish va o’g‘it solish bilan birga kerakli dala yuzasini shakllantirish (masalan, egat va juyaklar olish); qator oralariga ishlov berish bilan birga o’g‘it solish va zaharli moddalar sepish.Tuproqni ekishga tayyorlash operatsiyalari (yuza tekislash, kesak ezish, tuproqni zichlash va boshqa) bilan birga o’g‘it solish. Hozirgi vaqtda xorijiy mamalakatlarda kombinatsiyalashgan agregatlarning ko’p variantlari yaratilgan va ular keng qo’llanilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, sug’orilgan yerlarni meliorativ holatini yaxshilashda yerlarga bir o’tishda ishlov berish juda katta ahamiyatga ega ekanligini yuqorida keltirilga fikrlar va qator tadbirlardan ko’rishimiz mumkin. Yerlarga bir o’tishda ishlov beruvchi mashinalarni takomillashtirish va sifatli yerga ishlov berish ishlariga jalb qilish ekin maydonlarini meliorativ holatini yaxshilash hamda hosildorlikni oshirish bilan birgalikda suvni iqtisod qilishga ham olib keladi, bu esa o’z o’zidan ko’rinib turibdiki qishloq xo’jaligini rivojlanishiga ijobiy ta’sirini ko’rsatadi.

Adabiyotlar ro’yxati.

1.“Qishloq va suv xo’jaligining zamonaviy muammolari” mavzusida ilmiy amaliy anjuman materialari II-qism. Toshkent 2013 yil

2.Internet ma’lumotlari.www.ziyonet.

3.Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirishning ahamiyati va rivojlantirish istiqbollari. Toshkent TIQXMMI 2019 y

4.Ostonov SH.S va boshqalar. Fermerlar mehnatini osonlashtirish yo‘lida.”O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi” jurnali №4, 2020 y.-b.

UO‘T: 624.132.3

10Э20M 32.1. RUSUMLI LOYQASO‘RGICHNING ISHCHI JIHOZINI TAKOMILLASHTIRISH (AMU-BUXORO MASHINA KANALI SHAROITIDA)

Safarov Husniddin Sirojiddin o‘g‘li, Qurbonboyev Sindorbek Sarvarbek o‘g‘li,
Ro‘ziqulova Dilnoza O‘ktamovna
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari
Ilmiy rahbar: Ro‘ziqulov Jasur O‘ktam o‘g‘li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi
email: jasurruzikulov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada suv osti gruntlariga uzluksiz ishlov berib uni suvga aralashtirib so‘ruvchi va bu aralashmani chiqarib

tashlovchi suvda suzib yuruvchi mashinalarning ishchi jihozining kamchiliklari va uni takomillashtirish yo'llari to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: loyqaso'rgich snaryad, motor, chig'ir, qoziq, grunt, suv, nasos, mashina, g'ildirak, cho'kindi.

UDC: 624.132.3

10Э20М 32.1. RUSUMLI LOYQASO'RGICHNING ISHCHI JIHOZINI TAKOMILLASHTIRISH (AMU-BUXORO MASHINA KANALI SHAROITIDA)

Safarov Husniddin Sirojiddin ugli, Kurbonboyev Sindorbek Sarvarbek ugli,
Ruzikulova Dilnoza Uktamovna
Studetnts of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management
Scientific supervisor: Ruzikulov Jasur Uktam ugli
Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management
email:jasurruzikulov@mail.ru

Annottation: This article describes the shortcomings of the working equipment of floating machines that continuously process underwater soils, absorb it into the water and remove this mixture, and ways to improve it.

Keywords: mud projector, engine, track, pile, soil, water, pump, car, wheel, sediment.

Loyqaso'rgich snaryadlari deb, suv osti gruntlariga uzluksiz ishlov berib uni suvga aralashtirib so'ruvchi va bu aralashmani chiqarib tashlovchi suvda suzib yuruvchi mashinalarga aytiladi.

Loyqaso'rgich snaryadining umumiy ko'rinishi 1-rasmda ko'rsatilgan. Suvda suzib yuruvchi asosiy korpus 5 ga dizel-elektrik motor, loyqaso'rgich 6, chig'ir 3, qoziq 8 va uni qoqib, qo'paruvchi uskunalar joylashtirilgan.



1-rasm. Loyqaso'rgich snaryadining umumiy ko'rinishi:
1- asosiy korpus; 2-loyqaso'rgich nasosi; 3 – eguluvchan so'ruvchi quvur; 4-

so‘ruvchi quvur;

5-cho‘kindini qabul qiluvchi moslama; 6-val; 7- so‘ruvchi quvurni tutib turunchi kran; 8-chig‘ir; 9- boshqaruv honasi; 10-qoziq; 11-aralashmani chiqaruvchi quvur;

Ichki yonuv dvigateliga ulangan generator yordamida ishlab chiqilgan elektr energiyasi; loyqaso‘rgich boshqaruv honasiga, loyqaso‘rgich nasosiga, gruntni yumshatuvchi va tegishli chig‘irlarni harakatga keltiruvchi elektr dvigatellariga uzatiladi. Cho‘kindini qabul qiluvchi moslama grunt turiga qarab, turlicha bo‘lishi mumkin (2-rasm).



2-rasm. Cho‘kindini qabul qiluvchi moslamalar turlari.

Yumshoq yaxshi bog‘lanmagan gruntlardan hosil bo‘lgan cho‘kindini erkin so‘rib oluvchi (2, *a*-rasm) turi qo‘llaniladi.

Qattiq yaxshi bog‘langan g‘runtlardan hosil bo‘lgan cho‘kindilar esa yumshatilib, so‘riladi. Ularni yumshatishda quyidagi moslamalardan foydalaniladi; gidromonitorlar (2,*b*-rasm), frezali (2,*c*-rasm) va gidroejektorli (2,*d*-rasm).

Suv bilan aralashgan cho‘kindini so‘rish, maxsus so‘ruvchi quvur 4 orqali loyqaso‘rgich 6 yordamida amalga oshiriladi. Loyqaso‘rgich nasosining og‘ir sharoitda ishlashini (suv tarkibida grunt, tosh, metall bo‘laklarining mavjudligini) hisobga olib, uning korpusi va ish g‘ildiragi mustahkam, eyilishga chidamli metalldan yasalgan bo‘lishi kerak. Loyqaso‘rgich korpusiga, so‘ruvchi quvur nasos g‘ildiragi o‘qiga parallel qilib, chiqaruvchi quvur esa perpendikulyar ravishda ulanadi. Aralashmani chiqaruvchi quvurni suv ustida ishlab turish maqsadida, maxsus suvda cho‘kmas moslamalardan foydalaniladi. So‘ruvchi ish jihozini ko‘tarib, tushirish xartumga ulangan po‘lat arqon va uni chig‘iri yordamida bajariladi. Loyqaso‘rgich snaryadni suvda ushlab turish uchun maxsus qoziq 8 dan foydalaniladi. Bunda qoziq, suv tubidagi gruntga maxsus qoziq qoquvchi uskunalar yordamida qoqiladi. Bu qoziq, mashinani suvda ushlab turish bilan birga uni qoziq atrofida aylanishiga ham xizmat qiladi. Loyqa-so‘rgich snaryadning qoziq atrofida o‘ng va chapga burilishi, suv ostidagi cho‘kindini qamrash oralig‘ini uzaytiradi.

Loyqasoʻrgich snaryadni ishlatish jarayoni. Loyqasoʻrgich snaryad 2, suv havzasining oʻrtasiga olib kelinadi va oʻrnatiladi (3-rasm).



3-rasm. Loyqasoʻrgich snaryadning plandagi ish jarayoni

Uni shu joyda ushlab turish uchun, ustun qozigʻi 1 suv tubidagi gruntga maxsus qoziq qoquvchi uskuna yordamida qoqiladi. Havzaning qarama-qarshi qirgʻoqlariga qoziqlar qoqilib, unga ilmoq 6 oʻrnatiladi. Ilmoqqa ulangan poʻlat arqon 5 tegishli bulok orqali chigʻir 7 ga ulanadi.

Poʻlat arqon yordamida ushlab turilgan, frezali yumshatgich 4 ga ega boʻlgan ish jihozi, uning ogʻirlik kuchi hisobidan foydalanib, arqonni boʻshatish orqali suv tubidagi choʻkindiga botkuncha tushiriladi.

Frezaga harakat, uning uchun oʻrnatilgan maxsus elektr mator, reduktor va qardan val orqali beriladi. Choʻkindiga botirilgan frezaga harakat berilgandan soʻng, loyqasoʻrgich nasosi ishga tushirilib, aralashmani soʻrish va uni transport qilish jarayoni boshlanadi. Aralashma, maxsus soʻruvchi va transport qiluvchi quvurlar ichida harakat qiladi. Choʻkindini tozalash, frezani gorizontal tekislikda yoysimon harakatlantirish orqali olib boriladi. Bunda qirgʻoq va mashina bilan bogʻlangan arqon va uning chigʻirlari hamda qoqilgan qoziqdan foydalaniladi. Agar chap chigʻirdagi arqon oʻralib, oʻng chigʻirdagisi boʻshatilsa, mashina qoziq atrofida chapga burilib, 3 qatlam choʻkindini, oʻngga burilganda esa 3 qatlam choʻkindini suvga aralashtirib tortib oladi (3-rasm). Bunda tozalashning umumiy qamrovi $2V$ ga teng boʻladi. Mashina har bir tozalash holatiga oʻtganda qoziq qoʻparilib, qaytadan qoqiladi.

Suvosti gruntlari massasining ayrim qismlarini suvga aralashtirib gidroaralashma hosil qilinadi. Gidroaralashmani erkin so‘rib olish va uni chiqarib tashlash loyqaso‘rgich snaryadining ish jihozi va nasosi yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayon, suv sathi va gidroaralashmaning loyqaso‘rgich nasosidan chiqishdagi bosimlarining farqi hisobiga amalga oshadi. Demak, erkin so‘rish, suvosti gruntlarini eroziyali yuvib ko‘chirish jarayonidir.

Odatda eroziyali oqim energiya sarfini chegaralaydi shuning uchun bu usulni bog‘lanmagan gruntlar (qumli yoki qum-toshli) da qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Suvosti gruntlariga gidravlik ishlov berishda asosan ularga yuqori bosim ostidagi suvni maxsus moslamalar yordamida purkab yumshatiladi va suv-grunt aralashmasi hosil qilinib so‘rib olinadi.

Suvni bosim ostida purkab gruntni yuvish nazariyasi bo‘yicha tadqiqot ishlari bilan A.Ya. Milovich, T.N. Abromovich, I.M. Konovalov va boshqa olimlar shug‘ullangan.

Yupqa qalinlikdagi suvosti gruntlarini gidravlik yumshatishada asosan A.S.Starikov va P.P.Puxovlar tomonidan tavsiya etilgan ish jihozlari ko‘proq qo‘llaniladi.

Suvosti gruntlariga mexanik ishlov beruvchi uskunalar. Suvosti gruntlari qattiq bo‘lganda ularni yumshatish ularga mexanik ish-lov berish orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy loyqaso‘rgich snaryadlarining ish jihozlari bo‘lmish suvosti gruntlariga mexanik ishlov berishda faol ish jihozdaridan foydalaniladi. Shunday ish jihozlaridan birining umumiy ko‘rinishi 4-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib u quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan.



4-rasm. Gruntga mexanik ishlov beruvchi freza jihozi qirqimi
a - tekis pichoq bilan; b - egri pichoqlar bilan; 1 - markaz; 2 – qovurg'a; 3 - kesish elementlari.

Suv xo'jaligi sohasida ishlatilayotgan zemsnaryadlarning suv osti gruntlariga mexanik ishlov beruvchi ish jihozlari konstruksiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki hozirgi kunda mamlakatimizda ishlatilayotgan zemsnaryadlar asosan daryolar, kanal va ko'llarni cho'kindi va loyqalardan tozalash ishlarida qo'llanilib kelinmoqda.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki mavjud ish jihozlari bilan suv osti grunlariga ishlov berilganda gidroaralashmada loyqaning konsentratsiyasi 30-37% atrofida bo'ladi. Bu esa o'z navbatida zemsnaryadlarning ish unumdorligining kamayishiga olib keladi.



5 - rasm. Frezali ish jihozlarining konstruksiyasi

Yuqoridagi konstruksiyalarni tahlil qilib, gidroaralashmadagi loyqa konsentratsiyasini ko'paytirish maqsadida hamda zemsnaryad ish unumdorligini oshirish maqsadida suv osti gruntiga ishlov beruvchi cho'michli aralashtirgich ish jihozi konstruksiyasi taklif qilinmoqla. Uning konstruktiv sxemasi 5 - rasmda keltirilgan. Ish jihozi quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan bo'lib u quyidagicha ishlaydi: kardan val orqali aylanma harakat zemsnaryad korpusida joylashgan elektr dvigatelidan cho'michga va uning yon tomonlarida joylashtirilgan rotor yumshatgichiga yuboriladi. Yon tomonda o'rnatilgan yumshatgichlarning vazifasi kanal tubi chuqurlashtirilayotganda qattiq gruntlarni yumshatish va uni cho'michga yetqazib berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.T.Vafoyev, I.J.Xudayev. “Gidromexanizatsiya vositalari”. Toshkent 2014 y.
2. K.Sh.Latipov, O.M.Arifjonov Gidravlika va gidravlik mashinalar.Toshkent 2011, 336 b.
3. Vafoyev S.T. Melioratsiya mashinalari (Darslik). Toshkent. «Fan va texnologiyalar». 2013, 304 b.
4. Шкундин Б.М. Землесосные снаряды. Москва. Государ-ственое энергетическое издательство. 1973.
5. Шкундин Б.М. Землесосы и землесосные снаряды. Москва. Государствееное энергетическое издательство. 1961.

UO‘T: 631.315.4

OCHIQ ZOVURLARNI QURISH VA TA’MIRLASHDA QO‘LLANILADIGAN BIR CHO‘MICHLI EKSKAVATORLARNING ISH SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING NAZARIY YONDASHUVI.

Ergashev Saidolim Inomjon o‘g‘li, Sobirov Komil Sodiq o‘g‘li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari
Ilmiy rahbar: Maxmudova Maftuna Maqsud qizi
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi
Email: mmm926458@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada viloyatda mavjud ochiq kollektor - zovurlar ularning gidravlik parametrlarini inobatga olgan holda ekskvatorlarni tanlash va kollektor- zovurlarning ahamiyati hamda uni tozalash va rekonstrruksiya qilishda ishlarini o‘z muddatlarida bajarishni ta’minlash masadida Buxoro viloyati kollektor – zovurlarni tozalashda talab etiladigan ekskavatorlar va ularning maqbul variantlarini mavjud formulalardan foydalanib asoslash. Shuningdek mavjud ekskavatorlardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kollektor, zovur, ekskavator, rekonstruksiya, cho‘mich, ish unumdorlik, grunt, mehnat sarfi.

UDC: 631.315.4

THE ORETICAL APPOACH TO DETERMINING THE EFFICTIENCY OF SINGLE EXCAVATORS USED IN THE CONSTRUCTION AND MAINTENANCE OF OPEN DITCHES

Ergashev Saidolim Inomjon ugli, Sobirov Komil Sodik ugli
Studetnts of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management
Scientific supervisor: Makhmudova Maftuna Maksud kizi
"Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management
Email: mmm926458@gmail.com

Annotation. The article contains excavators in Bukhara region and their optimal options for the selection of excavators, taking into account their hydraulic parametrs and the importance of collectors- ditches, as well as the timely completion of work on its cleaning and reconstruction. Substantiation using formulas. Its also provides advice on the effective use of existing excavators.

Keywords: Collector, ditch, excavator, reconstruction, bucket, productivity, soil, labor.

Bugungi kunda viloyat kollektor-zovurlarni tozalash va rekonstruksiya qilish ishlarida O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan XE 260 SLL hamda XE 215 SLL rusumli va chet eldan olib kelingan GLG −205 S, GLG −225 S, GLG 925 LL, JY−230 ELD, JY-230 ELB, JY-623 E, HXW 230 LC rusumli quyidagi ekskavatorlardan keng foydalanilmoqda.

Olib borilayotgan tadqiqotlarni davom ettirib, viloyatimizdagi "...davsuvmaxsuspudrat" DUKlarda mavjud bo‘lgan va eng ko‘p qo‘llanilayotgan JY-623 E, GLG 205C va XE-215CLL kabi 3 rusumidagi zamonaviy ekskavatorlar misolida ish unumdorliklarini aniqlashga nazariy yondashildi. Bu rusumli ekskavatorlarni nazariy solishtirishda asosan ularning texnik parametrlari bir-biriga yaqinligi inobatga olingan. Masalan: Har uchchala ekskavatorning ham ishlab chiqarish normalari bo‘yicha umumiy texnik parametrlari yaqin bo‘lib, ya’ni dvigatelning quvvati 108 (145) kVt (o.k.), Maksimal qazish chuqurligi 6.35 m, maksimal to‘kish balandligi 6,73 m, Cho‘mich sig‘imi 0.65 m^3, zanjirli yurish uskunasiga ega bo‘lgan gidravlik ekskavatorlar hisoblanadi. Grunt turi-graviyli qum-loy.

Ekskavatorlarning ish unumdorligini nazariy hisoblashlarda asosan 3ta qo‘rsatkichlar bo‘yicha o‘zgarishini aniqlash orqali tahlil etildi. Bular:

1. Kollektor-zovurning zaboy chuqurligi o‘zgarishini ekskavator ish unumdorligiga ta’siri;

2. Ekskavatorning qazish radiusi o‘zgarishini uning ish unumdorligiga ta’siri;

3. Kollektor-zovurning kengligi o‘zgarishini ekskavator ish unumdorligiga ta’siri.

Kollektor-zovurlarni tozalash va rekonstruksiyalash ishlarini olib borishda zaboy chuqurligining ekskavator ish unumdorligiga ta’sirini nazariy hisobi bo‘yicha olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan. Bunda strela uzunligi ekskavatorning zavoddan ishlab chiqarilgan sterela uzunliklari bo‘yicha qabul qilingan.(1 -jadval)

1-jadval

Ekskavator ish unumdorligini zaboy chuqurligiga bog‘liqligi bo‘yicha aniqlangan qiymatlar

Ekskavator rusumi	Strela uzunligi, m	Ekskavatorning ish unumdorligi, m³/soat											
		Zaboy chuqurligi, m											
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
JY-623 E	6	56,3	60,7	65,9	67,4	68,9	84,4	87,4	91,1	86,7	82,2	71,8	57,0
GLG 205 C	5.68	69,0	73,3	77,6	79,4	84,5	94,9	96,6	99,2	105,2	90,6	77,6	69,0
XE215 CLL	6.5	73,6	79,6	83,5	93,5	95,5	109,4	115,4	118,3	119,3	107,4	93,5	80,6

Aniqlangan 1-jadval qiymatlari asosida quyidagi diagrammani qurish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Zaboy chuqurligi o'zgarishining ekskavator ish unumdorligiga ta'siri.

Yuqoridagi grafikdan hamda ilg'or mexanizatorlar ishlarini tahlil qilib va vizual kuzatib shunday xulosa qilish mumkinki, viloyatda qo'llanilayotgan zamonaviy gidravlik ekskavatorlar orqali tozalash va rekonstruksiya ishlarida zaboy chuqurligi 6...10 m.gacha bo'lgan zovurlarda yuqori ish unumdorligida erishiladi.

Zaboy chuqurligi oshib boradigan ob'ektlar uchun ikki pag'onali qazish talab etiladi. Ushbu holda ish sarfi va iqtisodiy xarajatlar oshib ketadi. Buning eng maqbul yechimi, ya'ni strelasi uzun (qazish radiusi katta) bo'lgan ekskavatordan foydalanish tavsiya etiladi. Faqat unda kovsh hajmini kichiklashish va sikl davomiyligining uzayishi hisobiga ish unumdorligi pasayishi kuzatiladi.

Yuqoridagi taxlildan kelib chiqqan holda tadqiqot ishlarini davom ettirib, qazish radiusining ekskavator ish unumdorligiga ta'siri nazariy aniqlandi. Unda JY-623 E rusumli gidravlik zanjirli ekskavator misolida zovur guruhlari bo'yicha maksimal qazish radiusining ish unumdorligiga ta'siri nazariy hisoblab chiqildi (2-jadval).

2-jadval

Ekskavator ish unumdorligini qazish radiusiga bog'liqligi bo'yicha aniqlangan qiymatlar

Zovur guruhi	**Ekskavatorning ish unumdorligi, m³/soat**											
	Qazish radiusi, m											
	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
I gurux	70,7	74,1	58,7	50,4	45,1	42,1	39,9	38,0	34,6	33,8	32,0	30,8
II gurux	62,0	64,7	68,1	71,4	74,1	68,8	64,3	60,5	52,6	45,9	42,1	33,8
II gurux	35,0	38,4	42,1	45,5	53,8	59,4	66,2	68,8	74,1	54,9	42,1	38,4
IV gurux	34,6	38,4	43,6	47,4	53,0	57,2	59,8	62,4	64,7	68,1	74,1	77,1

Aniqlangan 2-jadval qiymatlari asosida quyidagi diagrammani qurildi (2-rasm).



2-rasm. Qazish radiusi o‘zgarishining ekskavator ish unumdorligiga ta’siri.

2-rasmdagi grafikdan qo‘rinib turibdiki, I gurux zovurlar uchun maksimal qazish radiusi 6 metrgacha bo‘lgan ekskavatorlar, II gurux zovurlari uchun maksimal qazish radiusi 9 metrgacha bo‘lgan ekskavatorlar, III gurux zovurlari uchun maksimal qazish radiusi 13 metrgacha bo‘lgan ekskavatorlar va IV guruh zovurlari uchun maksimal qazish radiusi 15 metrdan uzun bo‘lgan ekskavatorlar bir tomonlama qazishda ish unumdorligidan samarali foydalanila oladi. Shu o‘lchamgacha bo‘lgan kollektor-zovurlarni qazish radiusiga mos ekskavatorlardan bir tomonlama tozalashdan foydalanish nisbatan samarali ekanligini ko‘rish mumkin.

Ekskavatorlarning nazariy ish unumdorligini hisoblashlarda kollektor-zovurlarning kengligi ham asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqot ishlarini davom ettirilib, ekskavator ish unumdorligining kollektor-zovur kengligiga bog‘liqligi nazariy o‘rganildi. Olib borilgan nazariy izlanishlar natijasida mavjud ekskavatorlarning texnik parametrlaridan kelib chiqqan holda zovurlarning kengligini ularning ish unumdorligiga nisbati quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadval).

Ekskavator ish unumdorligini kollektor-zovur kengligiga bog‘liqligi bo‘yicha aniqlangan qiymatlar

3-jadval

Ekskavator rusumi	Ekskavatorning ish unumdorligi, m^3/soat											
	Kollektor-zovur kengligi, m											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
JY-623 E	74,1	66,2	57,2	53,0	51,5	48,9	46,6	44,7	38,0	30,8	30,8	30,8
GLG 205C	86,3	77,9	72,6	65,0	58,1	55,1	41,8	34,2	34,2	34,2	34,2	34,2
XE-215CLL	99,5	94,8	93,6	88,9	80,3	72,5	68,6	59,3	39,8	39,8	39,8	39,8

Aniqlangan 3-jadval qiymatlari asosida quyidagi diagrammani qurildi (4-rasm).



4-rasm. Kollektor-zovur kengligi o‘zgarishining ekskavator ish unumdorligiga ta’siri.

4-rasmdagi grafikdan ko‘rinab turibdiki, zovur kengligi 8...10 metrgacha bo‘lgan zovurlar (1-2 guruh) ni tozalashda ish unumdorligi 1 soatdagi ish sikllar sonining ko‘p bo‘lishi hisobidan yuqoriroq bo‘lmoqda, bunday holatda bir tomonlama qazish bo‘yicha yuqorida berilgan tavsiyamiz yana o‘rinli ekanini xulosalash mumkin. Kollektor-zovurning kenligi 10 metrdan oshganda ish sikllar soni minimal bajarilish chegarasida bo‘lganligi sababli ish unumdorligi o‘zgarmaydi. Bunday holda ikki tomonlama qazish orqali ish unumdorligi va ish sifatini oshirish mumkin. Viloyatdagi mavjud gidravlik ekskavatorlarning texnik parametrlaridan

kelib chiqqan holda olingan nazariy ma’lumotlarga asoslanib, ayrim III va IV guruh zovurlarida ikki tomonlama qazish tavsiya etiladi

Olib borilgan tadqiqotlar va nazariy tahlillar natijasida gidravlik ekskavatorlarning nazariy hisoblash asosida o‘rganish natijasida I guruhga asosan xo‘jalik ichki zovurlari, II guruhga esa ayrim xo‘jalik ichki va qisman xo‘jaliklararo zovurlar, III guruhga xo‘jaliklararo zovurlar hamda IV guruhga ayrim xo‘jaliklararo va asosan magistral zovurlar kirishi aniqlandi. Shu natijalarga asoslangan holda ekskavatorlarni to’g’ri tanlash lozimligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1.Vafoyev S.T. Melioratsiya mashinalari (Darslik). Toshkent, «Fan va texnologiya». 2013. -304 b.

2. Vafoev S.T. va boshqalar. Melioratsiya mashinalarini hisoblash (O‘quv qo‘llanma). Toshkent, «FAN» nasharyoti, 1996. -104 b.

3. Muratov A.R. Gidromelioratsiya ishlarini tashkil qilish va mexanizatsiyalash. Toshkent, “Turon-Iqbol”, 2007.- 240 b.

4. A.R.Muratov, O.A.Muratov. IKN V 12.1-2015. Meliorativ tizimlar va inshootlarda ta’mirlash-tiklash hamda qurilish ishlariga idoraviy normalar. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi. Toshkent, 2015.- 156 b.

5. A.R.Muratov.“Ekskavator bilan kanal qazishni tashkil qilish va texnologiyasi” mavzuli hisob grafik ishini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma.Toshkent. TIMI, 2006.- 44 b

6. Веденяпин Г.В. Общая методика экспериментального исследования и обработка опытных данных. – М.: Колос, 1979. - 199 с.

УДК: 631.315.4

ЕР ТЕКИСЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА УЛАРНИ АМАЛГА ОШИРАДИГАН МАШИНАЛАР ТАҲЛИЛИ

Собиров Комил Содиқ ўғли.,Сафаров Шавкат Тўхта ўғлиі
“ТИҚХММИ” МТУ Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти талабалари
Илмий раҳбар: Қўчқоров Журъат Жалилович
“ТИҚХММИ” МТУ Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти ўқитувчиси
qjurat@mail.ru

Аннотация: *келтирилган мақолада ер текислаш усуллари ва уларни амалга оширадиган машиналар таҳлили ҳамда иш технологиялари келтирилган бўлиб, бунда ҳар бир машинани қўллаш шароитлари, иш самарадорлигини ошириш бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижаси келтирилган.*

Kalit so'zlar: *текислаш, ишчи орган, технологик жараён, жорий текислаш, капитал текислаш,тупроқ зичлиги, қувват сарфи, самарадорлик.*

UDC: 631.315.4

ANALYSIS OF THE IMPORTANCE OF LAND LEVELING AND THE MACHINES THAT IMPLEMENT IT

Sobirov Komil Sodiq ugli., Safarov Shavkat Tuxta ugli
Studetnts of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
Scientific supervisor: Kuchkarov Jurat Jalilovich
Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
qjurat@mail.ru

Annotation: The article presents the methods of leveling and analysis of machines that perform them, as well as the technology of work, the conditions of use of each machine, the results of research to improve work efficiency.

Keywords: leveling, working body, technological process, current leveling, capital leveling, soil density, power consumption, efficiency.

Дунё ва ватанимиз деҳқончилигида исботланишича, экин майдонларини текислаш ерларни мелиоратив ҳолатини яхшилашга ва суғоришда сув сарфини камайтиришга замин яратади. Агротехник талаб бўйича экин майдонлари юзасидаги нотекисликлар баландлиги ±5см дан ошмаслиги керак. Ўтказилган тажрибалар ва олиб борилган илмий тадқиқот ишларининг кўрсатишича, экин майдонларининг юза нотекислиги ±10-13 см бўлганда экинлар ҳосилдорлиги 1,5- 1,7 марта камайган ва суғориш учун сув сарфи 1,7 - 3,4 марта кўпайган [1].

Текисланган майдонларда пахта ва бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари яхши ривожланади. Машина-трактор агрегатлари нотекис экин майдонларида ишлаганда иш қуролининг тортиш қаршилиги ўзгаради, бунинг натижасида ҳаракатланиш тезлиги камаяди, вертикал тебранишлар ошиб, машина трактор агрегатнинг иш

режимига салбий таъсир этади ва тупроқ юза қисмининг нами кўтарилиб кетиши учун шароит яратилади [3]. Шунинг учун қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда бажариладиган технологик жараёнларни ва юза суғоришни амалга оширишдан олдин ҳайдалган тупроқ юзасини юқори сифатли қилиб текислаш ҳозирги вақтнинг долзарб муаммоларидан биридир[4]. Экин экиш учун тайёрланадиган майдондаги тупроқ юзасига сувни бир текис тақсимланиши ва ундан самарали фойдаланиш учун суғориладиган экин майдонларини сифатли текислаш ишларини олиб бориш керак бўлади. Текислаш ишлари майдоннинг рельфи ва нишаблигини ҳисобга олган ҳолда махсус лойиҳа бўйича геодезия тасвири асосида бажарилади. Бунда барча суғориладиган экин майдонларида баландликлардан тупроқни кесиш қалинлиги унумдор қатлам чуқурлигининг ярмидан ошмаслиги керак, яъни 15 - 20 см бўлиши лозимлиги илмий тадқиқотлар натижасидан келиб чиққан [3]. Қишлоқ хўжалиги машиналаридан фойдаланиш ва суғориш даврида тупроқнинг ўтириши ва ювилиши, шамол ва сув таъсирида ҳосил бўладиган тупроқ эррозияси натижасида - экин экиладиган майдонлар нотекис ҳолга келиб қолиши, бу эса такрорий текислаш ўтказилишини талаб этади.

Экин майдонларини суғоришга тайёрлашда базали текислагичлар ёки грейдерлар ёрдамида текислаш ишлари бажарилади. Бу машиналар асосан текислаш ишларининг ҳажми 300-350 м^3/га бўлган майдонларга қўлланилади[2]. Каттароқ иш ҳажмига эга бўлган майдонларда скрепер ёки бульдозерлар ёрдамида дастлабки асосий (капитал) текислаш ишлари амалга оширилади. Базали ер текислагичларни асосий фарқли томони улар горизонтал базага (узунлиги 10-15 м) бўлиб, бунинг эвазига текислагичлар узунлиги ўзининг базасидан (икки ғилдирак орасидаги масофа) икки мартадан ошиқ бўлмаган нотекисликларни тўлиқ бартараф этиб текислайди [2]. Ҳозирги кунда узун базали текислагичнинг текислаш сифатини яхшилаш мақсадида ковш олд томонига ўрнатилган юмшаткичлардан фойдаланиб келинмоқда (1-расм).

1-расм. ППА-3,1 яриmтиркама автоматик текислагич

Илгари ҳайдалган ва тош ҳамда ғўзапоя қолдиқларидан тозаланган далаларни эксплуатацион ва экиш олдидан текислаш учун П-2,8 текислагичи ишлаб чиқилган. У ер қазиш қуролидан иборат бўлиб, 3-4 синфдаги тракторлар билан агрегатланиб, текислаш ишларини амалга оширади (2-расм).

2-расм. П-2,8 типидаги текислагичнинг иш жараёни

Жорий текислашда тупроққа ишлов бериш натижасида ҳосил бўлган нотекисликлар текислаб борилади. Мазкур тадбир юқори қувватли тракторларга тиркаладиган П-2,8А, ППА-3,1, П-4А, ПА-3 узун бўйли (базали) ва кенг қамровли (2,8 - 4 метр) текислагичлар ёрдамида шудгорлашдан кейин ёки такрорий экинларни экиш олдидан ўтказилади. Жорий текислашни экин майдонидаги мавжуд нотекисликларнинг баландлигига қараб, унинг диагонали бўйича бир ёки икки марта ўтиш билан бажариш тавсия қилинади.

3-4-расмларда Канада ва АҚШ да ишлаб чиқарилган юмшаткичли ер текислагичлар келтирилган. Бундай текислагичларнинг иш жараёнида юмшаткичлар қаттиқ ерларни юмшатиб боради, бу эса тракторга тушадиган умумий қаршиликни камайтириб беради.

3-расм. Канаданинг "S Houle" фирмасида ишлаб чиқарилган юмшаткичли

ер текислагич

4-расм. Канада давлатида ишлаб чиқарилган N 160 русумли ер текислагич

5-расм. АҚШ нинг Жоржия штати Tough Man Drag (Bottomless) фирмасида ишлаб чиқарилган. ТМ - 8 русумли комбинациялашган ер текислагич

Тадқиқотлар натижасида тўпланган маълумотларга асосланиб, қуйидаги текислагичлардан фойдаланиш тавсия этилган:

а) нотекисликларининг баландлиги 18 - 20 см атрофида бўлган ерларда П-4А, П-2,8А ва Д-719 типидаги узун базали текислагичлардан;

б) нотекисликларининг баландлиги 10 - 12 см атрофида бўлган ерларда - ППА-3,1 типидаги узун базали автоматик текислагичлардан;

в) нотекисликлар баландлиги 6 - 8 см атрофида бўлган ерларда ВП-8, ПР-5 ёки КЗУ-0,3 типидаги текислагичлардан.

Суғориладиган экин майдонларини текислашдан олдин майдон юмшатилади (шудгорланади, чизелланади). Биринчи ўтишда текислагич ковшининг пичоғи ғилдирак таянч юзасидан 50 - 60 мм юқори ўрнатилади, иккинчи ўтишда биринчи ўтиш юзасидан 20 - 30 мм пастроққа, учинчи ўтишда эса ғилдираклар сатҳига мос ўрнатилади [3].

Шулардан келиб чиқиб мазкур тадқиқот ишида базали

текислагичларнинг иш тезлиги ва қамров кенглигини асослаш ва текислагич ишчи органларини такомиллаштириш ва унинг ишлаш технологик жараёни устида тадқиқот ишини бажаришда текислагич ковши олд томонига тупроқни юмшатиш учун сферик дискли қурилма ўрнатиш таклиф этилган. Қурилма бўйлама балка ва ўнг ҳамда чап ўқларга жойлашган сферик дисклардан иборат бўлиб, дисклар ўнг ва чап ўқларда икки қарама - қарши томонда қобуғи ташқарида қилиб жойлаштирилган. Базали текислагичга ўрнатилган дискли қурилма тупроқни юмшатиш ҳисобига машинага тушадиган умумий қаршиликни камайтиради ва ковшни юмшатилган тупроқда ишлаши текислагични равон ишлаши ҳамда текислаш сифатини яхшилайди (6-расм). Ушбу техник ечимнинг янгилиги Ўзбекистон Республикаси интеллектуал мулк агентлигининг FAP 01235 сонли фойдали моделга патенти билан ҳимояланган. Мазкур иш ушбу қурилманинг экин майдонларини сифатли текисланишини таъминловчи ўлчамларини асослашга йўналтирилган [2].



6-расм. Юмшатувчи дискли қурилма билан жиҳозланган базали ер текислагич

Тавсия этилаётган қурилма кўндаланг балка 1, дисклар жойлашган ўнг ўқ 2, чап ўқ 3, уларга ўрнатилган юмшатувчи сферик дисклар 4 ва 5, иш органларини тупроққа ботиш чуқурлигини ростлаш учун қурилма босим пружиналари 6, дискли қурилма рамаси ва дискли қурилмани ушлаб турувчи тортқи 7, қурилмани кўтариб туширишини таъминловчи гидроцилиндр 8 дан иборатдир. Бу текислагич бир вақтнинг ўзида бевосита экин майдонларини юмшатиб, текислаб кетади. Бу эса машиналарнинг қувватидан самарали фойдаланиш ва текислаш сифати ошиши имконини беради. Қурилма ёрдамида экин майдонларини бир вақтнинг ўзида юмшатилиб текислаш ишларининг сифати яхшиланади. Базали ер

текислагичга ўрнатилган дискли қурилма (ишчи органи) ўлчамларини асослаш бўйича илгари тадқиқот ишлари олиб борилмаганлигини таъкидлаш лозим. Илмий тадқиқот ишлари ҳамда келтирилган таҳлиллардан келиб чиқиб, жорий текислашда қўлланиладиган механизация воситасининг иш самарадорлигини ошириш мақсад қилиб олинган. Хулоса қилиш мумкинки, суғориладиган экин майдонларини базали ер текислагичлар билан текислашда мақбул тавсия этилаётган қурилма билан текислаш ишларини ташкил қилиш базали текислагичлардан фойдаланиш самарадорлигини оширишга олиб келади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Патент UZ FAP №01235. Узун бўйли текислагич // Ҳасанов И.С., Қўчқоров Ж.Ж., Ҳасанов У.И // Расмий ахборотнома. – 2017. – №2.

2. FAP № 20180100. Такомиллашган узун бўйли текислагич // Қўчқоров Ж.Ж., Ҳасанов И.С., Ҳасанов У.И., Иноятов И.Ш.

3. Қўчқоров Ж.Ж. Базали текислагич дискли юмшаткичларининг параметрларини асослаш: Автореф дисс. ... техн.фан.фал.докт.– Қарши, 2021.–36 б.

4. Khasanov I S, Kuchkarov J J, Nuriddinov Kh 2020 IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1) 012174

5. J. Kuchkorov, Musurmanov R K, Khasanov I S, 2019 International Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology, 1

УДК: 621.762

К ВОПРОСУ О ПРОЧНОСТИ СЦЕПЛЕНИЯ ЭЛЕКТРООСАЖДЕННЫХ ЖЕЛЕЗНЫХ ПОКРЫТИЙ

Серебровский Владимир Исаевич, д.т.н., профессор;
(e-mail: svi.doc@yandex.ru)
Калуцкий Евгений Сергеевич, к.т.н.;
(e-mail: kalutsky1990@mail.ru)
Сафронов Руслан Игоревич к.т.н., доцент;
(e-mail: russafronov@yandex.ru)
Мамонова Людмила Геннадьевна, к.э.н.
(e-mail: mamonova_lg@mail.ru)
Гнездилова Юлия Петровна, к.т.н., доцент;
(e-mail: juliagup@yandex.ru)
Курская государственная сельскохозяйственная академия имени И.И. Иванова

В данной работе излагается экспериментальный материал о влиянии параметров процесса электролиза на величину сцепляемости в условиях проточного электроосаждения железа на периодическом токе. Показаны зависимости прочности сцепления от скоростей вращения катода, скоростей движения электролита, катодно-анодного показателя, кислотности электролита и его температуры.

Ключевые слова: прочность сцепления, проточный электролит, электроосажденное железо.

UDC: 621.762

ON THE QUESTION OF THE STRENGTH OF ADHERENCE OF ELECTRODEPOSITIONED IRON COATINGS

Serebrovsky Vladimir Isaevich, Doctor of Technical Sciences, Professor;
(e-mail: svi.doc@yandex.ru)
Kalutsky Evgeny Sergeevich, Ph.D.;
(e-mail: kalutsky1990@mail.ru)
Safronov Ruslan Igorevich Candidate of Technical Sciences, Associate Professor;
(e-mail: russafronov@yandex.ru)
Mamonova Lyudmila Gennadievna, Ph.D.
(e-mail: mamonova_lg@mail.ru)
Gnezdilova Yuliya Petrovna, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor;
(e-mail: juliagup@yandex.ru)
Kursk State Agricultural Academy named after I.I. Ivanova

Annatation: This paper presents experimental material on the effect of electrolysis process parameters on the adhesion value under conditions of flowing iron electrodeposition on a periodic current. Dependences of adhesion strength on cathode rotation speeds, electrolyte movement speeds, cathode-anode index, electrolyte acidity and its temperature are shown.

Key words: adhesion strength, flow electrolyte, electrodeposited iron.

В настоящее время перед ремонтным производством, в связи с постоянным расширением номенклатуры и удельного веса чугунных

коленчатых валов в общем объеме производства, возникает необходимость восстановления их изношенных шеек.

Известна высокая износостойкость осадков электролитического железа, поэтому надежность и долговечность железненных валов, работающих в тяжелых условиях, определяется в основном прочностью сцепления покрытий с подложкой [1].

Для исследования прочности сцепления покрытий железа с высокопрочным чугуном был принят метод отрыва штифтов, т.к. при этом можно получить качественную и количественную характеристику величины сцепления. Образец со штифтами состоит из полого цилиндра, прижимных винтов и штифтов. С целью уменьшения влияния трения цилиндрической части штифта, он выполнен конусообразным. Для исключения попадания электролита между штифтом и цилиндром штифты притирались пастой ГОИ. Острые части образца и торцы прижимных винтов изолировались составом из цапон-лака и нитроэмали при соотношении 3:1. Подготовка образцов перед железнением осуществлялась по известной технологии. Осаждение железа производилось до получения толщины покрытий более 1,2 мм [2,3].

После нанесения осадка и разборки образца отрыв штифтов от покрытия производился на специальном приспособлении. Усилие отрыва фиксировалось при помощи динамометра [4,5].

При железнении на периодическом токе возможны следующие варианты выхода на рабочий режим: 1 – рабочая катодная плотность тока и малое значение катодно-анодного показателя в начальный момент электролиза, а затем постепенное увеличение его до рабочего значения; 2 – малые значения катодной плотности тока и катодно-анодного показателя, а затем постепенное совместное увеличение их до рабочих значений.

Исследования показали, что первый вариант неприемлем для проточного железнения, т.к. осаждаются покрытия с пониженной прочностью сцепления. Это объясняется пассивацией поверхности катода при заданной большой начальной плотности тока, когда часть его выходит из-под анода. Поэтому наши исследования проводились по второму варианту выхода на рабочий режим электролиза.

Исследования сцепляемости железных покрытий с высокопрочным чугуном показали, что существенное влияние на

прочность сцепления оказывает скорость вращения катода (рисунок 1, кривая 1). Очевидно, что в проточном растворе скорость движения электролита может оказывать решающее значение на величину прочности сцепления (рисунок 1, кривая 2).



Рисунок 1 – Влияние скоростей катода (1 - $Д_к$=80 А/дм²; 3 – $Д_к$=60 А/дм²) и движения электролита (2) на прочность сцепления покрытия с высокопрочным чугуном

Исследования показали, что на прочность сцепления оказывает влияние коэффициент асимметрии β (рисунок 2). Наибольшая прочность сцепления достигается при β=1,25-2,0 а с его увеличением она снижается. При приведенных значениях достигается наиболее полное активирование поверхности катода и осаждаются мягкие, прочносцепленные покрытия; при более высоких значениях β в начальный момент электролиза осаждаются хрупкие и напряженные покрытия, которые при сильных ударах могут отслаиваться.



Рисунок 2 – Влияние катодно-анодного показателя на прочность сцепления покрытий с высокопрочным чугуном

Анализ результатов влияния кислотности электролита на сцепляемость показал, что наивысшая прочность сцепления обеспечивается в интервале pH, равном 0,5…0,8; а с понижением кислотности она значительно падает (рисунок 3).



Рисунок 3 – Влияние кислотности электролита (1) и температуры электролита (2) на прочность сцепления покрытий с высокопрочным чугуном

Увеличение температуры электролита до 318 К вызывает быстрый рост прочности сцепления. Дальнейшее повышение температуры электролита несколько снижает скорость роста величины сцепляемости покрытия с модифицированным чугуном. Это связано с образованием гидроокиси железа, включением ее в покрытие, что согласуется с данными других авторов.

Список литературы

1. К вопросу о сцепляемости электроосажденных покрытий с основным металлом / Серебровский В.И., Серебровский В.В., Сафронов Р.И., Гнездилова Ю.П. и др. // В сборнике: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ ПРОИЗВОДСТВЕ. материалы Международной научно-практической конференции. Курская государственная сельскохозяйственная академия имени И.И. Иванова. 2015. С. 216-218.

2. Сафронов Р.И., Калуцкий Е.С., Жигулин А.А., Серебровский А.В. Повышение прочности электролитических железных покрытий // Региональный вестник. 2016. № 2 (3). С. 46-47.

3. Калуцкий Е.С., Серебровский В.В., Блинков Б.С., Должиков Г.В. Электроосаждение бинарных сплавов на основе железа // Сельский механизатор. 2016. № 5. С. 35-37.

4. Серебровский В.И., Серебровский В.В., Гнездилова Ю.П., Богомолов С.А. Восстановление и упрочнение деталей машин электроосажденными покрытиями // В сборнике: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА. материалы Международной научно-практической конференции. Ответственный за выпуск И.Я. Пигорев. 2016. С. 180-183.

5. Повышение прочности сцепления гальванических покрытий с металлической основой / Серебровский В.И., Молодкин А.Ю., Колмыков Д.В., Серебровская Л.Н., Бедин В.В. // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии. 2012. № 8. С. 79-80.

UO‘T: 664.002.5.002.37.

MEVA VA UZUMLARNI QURITISH JARAYONIDA QUYOSH QURITKICHLARINING ISSIQLIK HISOBI

M.Sotliqova, D.Ro‘ziqulova

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari

Ilmiy rahbar: t.f.n.dotsent X.Nuriddinov

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada insoniyatning energiyaga bo‘lgan talabini oshib borishi shuningdek, bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun foydalanilayotgan issiqlik elektrostansiyalarini (IES) ishlatish uchun turli xildagi mineral yoqilg‘ilardan foydalanganda har xildagi zaharli gazlarni chiqishi natijasida atrof-muhitni ifloslanishi keltirilgan. Atrof-muhitni sof, toza holda saqlash uchun muqobil (alternativ) energiyalardan foydalanish masalalariga e’tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: uglevodor xom ashyosi, muqobil energiya, quyosh energiyasi, karbonat angidrid gazi, infraqizil nurlar.

UDC: 664.002.5.002.37.

HEAT CALCULATION OF SOLAR DRYERS IN THE PROCESS OF DRYING FRUITS AND GRAPES

M.Sotlikova, D.Ruzikulova

Studetnts of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management

Scientific supervisor: Candidate of Technical Sciences, Associate Professor. X.Nuriddinov

Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management

Annotation: This article discusses the growing human demand for energy, as well as the pollution of the environment as a result of the release of various types of toxic gases when using different mineral fuels to generate electricity today, using thermal power plants. Attention is paid to the use of alternative energy sources to keep the environment clean.

Keywords: hydrocarbons, alternative energy, solar energy, carbon dioxide, infrared rays.

Hammamizga yaxshi ma'lumki, qishloq xo'jalik sohasida tahsinga sazovor turli xildagi o'zgarishlar ro'y bermoqda. Hozirgi kunda dehqon fermer xo'jaliklari, oilaviy pudratchi, shirkat xo'jaliklari faoliyat ko'rsatib, turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirmoqdalar. Ayniqsa yetishtirilayotgan meva va uzumlarni toza uzib olingan holatida saqlash uchun katta hajmdagi sovutish xonalari yoki muzlatkichlar kerak bo'ladi. Shuning uchun yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining bir qismini quritib saqlash bizning asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib hisoblanadi.

Meva va uzumlarni quritish uchun ishlatiladigan quritgichlarning issiqlik hisobi, ya'ni (material va issiqlik balans tenglamalari, aerogidrodinamik hisoblari, ventilyatorlarni tanlash) ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ammo, quyosh quritkichlaridagi jarayonlar nostatsionar holat bo'lganligi uchun ularni hisoblash va loyihalash ancha murakkab. Hisoblash ishlarini osonlashtirish uchun quyosh quritgichlarida ko'pgina quritishga oid kattaliklar o'rtachalashtiriladi. Ushbu ishda Radiatsion–konvektiv quritgichini hisoblash usuli bilan tanishamiz.

Quyosh quritgichlarini hisoblashda dastlabki ma'lumotlar sifatida quyidagi kattaliklar olinadi.

1.Quritgich unumdorligi P_s, $\frac{kg}{sutka}$ yoki $\frac{kg}{soat}$;

2.Quritiladigan materialni dastlabki namligi, W_H,%

3.Materialning oxirgi namligi W_0,%

4.Atrof-muhit temperaturasi, ^0C.

5.Quritgichning o`rtacha temperaturasi , ^0C.

6.Quritilayotgan materialning temperaturasi va boshqa fizik kimyoviy parametrlari.

7.Mahsulotlarni qurishini davom etish vaqti, τ (sutka).

Quritish kamerasida bug`lanadigan nam miqdori quyidagi ifodadan topiladi.

$$Q = \frac{G_1\omega_1 - G_2\omega_2}{1000} \qquad (1)$$

bu yerda G_1, G_2-quritgichga quritiladigan va undan olinadigan material (meva)ning massasi;

ω_1, ω_2-materialni quritishgacha va quritilgandan keyingi namligi,%.

Quritiladigan materialda mavjud bo`lgan namni (suv)ni bug`latib yuborish uchun zarur bo`lgan issiqlik miqdori quydagicha aniqlanadi.

$$Q = \frac{1000m}{d_2 - d_1} \cdot i_0 \qquad (2)$$

bu yerda i_0-quritish agenti entalpiyasi

$$i_0 = ct_0 + 0{,}001d_0(2500 + 1{,}82t_0)$$

Bunda d_1, d_2, d_0-quritish agentining quritish kamerasidagi kameradan chiqadigan va quruq havoning absalyut namligidir.

C-quruq havoning issiqlik sig`imi

$$C = 1\frac{kj}{kg \cdot {}^0C}$$

t_0-havo temperaturasi ${}^0C$.

Berilgan temperaturalardagi d_1, d_2 va d_0 larning qiymatini $i \cdot d$ diagrammadan foydalanib (2) ga qo`yib Q issiqlik miqdori topiladi. Radiatsion-konvektiv quritgichning shaffof sirtiga tushadigan quyosh energiyasini quyidagi munosabat orqali topamiz.

$$ADJ_{s\cos i} = Q_{nur} + Q_{kon} + Q_{np} + Q_b = C\left[(\frac{T}{100})^4 - (\frac{T_0}{100})^4\right] + \alpha(t_B - t_0) + Q_{np} + Q_b$$

bu yerda J-qurulma sirtiga tushadigan quyosh energiyasini intensivligi; $\frac{Vt}{M^2}$

;

D-shisha yoki plyonkaning issiqlik o`tkazish koeffisenti.

A-yutilish koeffisenti ;

T-quyosh qizdirgichi (kamera) temperaturasi ;

T_0-shisha temperaturasi.

Q_{kon}-konveksiya tufayli yo`qolgan energiya;

Q_{np}-quritgich kamerasi shaffof bo`lmagan qismidan va ishlatilgan havo bilan tashqariga chiqarib yuborilgan issiqlik miqdori;

t_B -kamera temperaturasi;

t_0 -havoning o`rtacha temperaturasi ;

α -issiqlik almashinuvchanlik koeffisenti $\frac{VT}{M^2 \cdot K}$

$\alpha = 5{,}7 + 3{,}8\vartheta$; ϑ -havo tezligi.

Shisha va plyonkaning issiqlik xarakteristikalari malumotnomalardan olinadi. Masalan ПТЭФ plyonkasining issiqlik xarakteristikalari quydagicha:

$D = 0{,}88$; $A = 0{,}94$; $\lambda_n = 0{,}44 \frac{VT}{M^2 \cdot K}$; $\alpha = 8 \frac{VT}{M^2 \cdot K}$ plyonka qalinligi $d = 0{,}001m$

Quritiladigan materialdan yoki (meva)dan m massali suvni bug`latish uchun zarur bo`lgan issiqlikni olish uchun kamera shaffof yuzasini kattaligi aniqlanadi.

Radiaksion-konvektiv quritgichda havo sarfi quyidagicha aniqlanadi.

1.O`rtacha sutkalik bug`lanish miqdori quyidagicha :

$$m_{o`r} = \frac{m}{\tau}$$

bu yerda τ -mevaning qurish vaqti.

2.Quritgichda havo sarfi L quyidagi formuladan topiladi:

$$L = \frac{1000m}{d_2 - d_1}$$

d_1 va d_2 larning qiymati o`rtacha havo parametrlariga bog`liq bo`lib ($i - d$) diagrammadan foydalanib topiladi.

Mevalarni o`rtacha qurish davomiyligini τ ni bilgan holda butun mevalarni qurishi davomidagi havo sarfini topish mumkin:

$$L = L_{o`rt} \cdot \tau$$

L ni bilgan holda havo hajmini quyidagi formuladan topish mumkin.

$$V = \frac{L}{\rho}$$

Yuqoridagi takidlanganidek m-massali mevani quritish uchun sarf bo`lgan issiqlik miqdorini issiqlik balansidan topiladi :

$$Q = Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4$$

bu yerda Q_1 va Q_2 mos ravishda mevani qizdirish va bug`latish uchun zarur bo`lgan issiqlik miqdori.

Q_3 -konveksiya tufayli yo`qolgan issiqlik miqdori.

Q_4-quritgichda ishlatilgan havo bilan birga chiqib ketadigan issiqlik miqdori. Bu issiqlik miqdorlarini quyidagi munosabatlardan topish mumkin:

$Q_1 = cm(t_2 - t_1)$-mahsulotni (meva)ni qizdirish uchun zarur bo`lgan issiqlik miqdori;

C-meva issiqlik sig`imi ;

$Q_2 = rm$-mevani bug`latish uchun zarur bo`lgan issiqlik miqdori;

$Q_3 = \alpha(t - t_0)$-konveksiya tufayli yo`qoladigan issiqlik miqdori;

$Q_4 = L(i_1 - i_2)$-ishlatiladigan havo bilan tashqariga chiqarib yuboriladigan issiqlik miqdori. Quritgichning shaffof yuzasi orqali kiradigan quyosh radiatsiyasi quyidagi ifodadan topiladi:

$$Q_{kir} = B_{kir} \cdot JS \cdot \cos i ;$$

bunda i – quyosh nurlarini quritgich sirtiga tushish burchagi.

Bu munosabatlardan foydalanib quritgichning foydali ish koeffitsientini topish mumkin:

$$\eta = \frac{rm}{\Sigma Q} = \frac{rm}{Q_1 + Q_2 + Q_3}$$

Foydalanilgan adabiyotlar

1.X.Nuriddinov. “Meva-sabzavot mahsulotlari uchun qo`shma quyosh quritgichini ishlab chiqish va tadqiq qilish” dissertatsiya ishi.Toshkent 1994.

УДК: 621.365.3

ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ПРИ РАБОТЕ ЭЛЕКТРОТЕРМИЧЕСКИХ УСТАНОВОК

Бирюлин Владимир Иванович, к.т.н., доцент
Куделина Дарья Васильевна, к.т.н., доцент
Серебровский Вадим Владимирович, д.т.н., профессор
Юго-Западный государственный университет, г. Курск
Серебровский Владимир Исаевич, д.т.н., профессор
Курская государственная сельскохозяйственная академия, г. Курск

Аннотация. Электрические печи сопротивления имеют широкое распространение на различных предприятиях, в том числе и сельскохозяйственных. Мощность нагревателей данных печей зависит от напряжения электрической сети во второй степени и при

снижении напряжения происходит уменьшение выделяемой мощности и температуры нагревателей.

Это приводит к падению производительности процессов нагрева изделий в печах сопротивления, и неизбежно негативно скажется на выпуске продукции. Это снижение производительности можно компенсировать применением средств регулирования напряжения. Но для принятия решения о внедрении данных средств нужно владеть информацией о влиянии снижения напряжения на производительность печей сопротивления.

Ключевые слова: электрическая печь, нагревательный элемент, качество электроэнергии, производительность, температура нагрева, мощность нагревателей.

UDC: 621.365.3

ENSURING STABILITY OF ELECTRICAL PARAMETERS WHEN OPERATING ELECTROTHERMAL INSTALLATIONS

Biryulin Vladimir Ivanovich, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor
Kudelina Daria Vasilievna, Ph.D., Associate Professor
Serebrovsky Vadim Vladimirovich, Doctor of Technical Sciences, Professor
Southwestern State University, Kursk
Serebrovsky Vladimir Isaevich, Doctor of Technical Sciences, Professor
Kursk State Agricultural Academy, Kursk

Annotation. Electric resistance furnaces are widely used in various enterprises, including agricultural ones. The power of the heaters of these furnaces depends on the voltage of the electrical network to the second degree, and when the voltage decreases, the output power and temperature of the heaters decrease.

This leads to a drop in the productivity of the processes of heating products in resistance furnaces, and will inevitably have a negative impact on product output. This decrease in performance can be compensated by the use of voltage regulation. But to make a decision on the introduction of these tools, you need to have information about the effect of voltage reduction on the performance of resistance furnaces.

Key words: electric furnace, heating element, power quality, productivity, heating temperature, heater power.

Электротермические установки предназначены для выполнения различных технологических процессов, в которых используется преобразование электрической энергии в тепловую. Наибольшее распространение среди них получили электрические печи сопротивления (ЭПС), в которых теплота выделяется за счет разогрева нагревательных элементов или нагревателей данных печей при протекании электрического тока через нагреватели [1].

Мощность нагревателей ЭПС зависит от напряжения электрической сети во второй степени. Следовательно, у этих печей при отклонениях напряжения сети от номинального значения изменяется мощность, выделяемая нагревательными элементами. Для электрических сетей промышленных предприятий характерны проблемы, связанные с качеством электроэнергии, в том числе и отклонениями напряжения от номинального значения [2].

Уменьшение мощности нагревателей при снижении напряжения в электрической сети приводит к падению производительности ЭПС. В связи с этим является актуальным изучение взаимосвязи между производительностью печей сопротивления и напряжением питающей сети.

Рассмотрение влияния отклонения напряжения в электрической сети, к которой подключена печь сопротивления, для получения оценок такого влияния, чтобы определить снижение производительности электрических печей и в конечном итоге величину ущерба для предприятия от снижений напряжения на вводах ЭПС.

Для этой цели необходимо определить время нагрева изделий до заданной температуры при понижении напряжения в электрической сети. Это время зависит от температуры нагревательных элементов печи сопротивления, принимающей разные значения при изменениях напряжения. Температура нагревателей при нормальном режиме работы с номинальным напряжением сети заранее известна, так как она определяется при проектировании электрической печи сопротивления.

Значение температуры нагревателей при пониженном напряжении находится по значению удельной поверхностной мощности нагревательных элементов, используя для этого площадь нагревателей, мощность этих элементов при том или ином значении

напряжения и графики зависимости между температурой нагревателей и их удельной поверхностной мощности. Далее по графикам нагрева изделий находится время нагрева при пониженном напряжении сети и в конечном итоге – снижение производительности электрической печи сопротивления.

Печи сопротивления используются в основном для процессов нагрева различных изделий, например для последующей закалки [3]. Для выделения тепловой энергии используются нагревательные элементы различной конструкции, расположенные на стенах рабочего пространства электропечи. В зависимости от характера производства эти печи могут использовать питание либо от однофазной электрической сети, либо от трехфазной. При работе ЭПС от трехфазной сети мощность, потребляемая такой печью, может быть определена как:

$$P = \frac{3U_{\phi}^2}{R}, \quad (1)$$

где U_{ϕ} – фазное напряжение электрической сети;

R– активное сопротивление нагревательного элемента.

Согласно формуле (1), мощность, выделяемая нагревателями ЭПС, зависит от квадрата питающего напряжения. Следует признать, что в формуле (1) и активное сопротивление нагревателей не является постоянной величиной и зависит в некоторой степени от напряжения питания, так как при снижении напряжения уменьшается температура нагревательных элементов.

Но данным изменением активного сопротивления при различных температурах можно пренебречь в практической деятельности. Это объясняется тем, что нагревательные элементы для ЭПС производятся из материалов, обладающих низкими значениями ТКС. Поэтому в дальнейшем не принимаем во внимание изменение величины сопротивления при колебаниях температуры нагревателей.

Согласно нормативному документу по качеству электроэнергии, действующему в настоящее время, снижение напряжения относительно его номинального значения не должно превышать 10%. Понижение напряжения сопровождается уменьшением мощности, выделяемой нагревателями ЭПС. В конечном итоге это приводит к падению температуры нагревательных элементов и в рабочем пространстве электрической печи.

По формуле (1) мощность нагревателей пропорциональна квадрату напряжения питающей сети, следовательно, если напряжение составит 0,9 от номинального значения (допустимая величина согласно ГОСТ), то мощность нагревателей снизится в $0{,}9^2$ = 0,81 раз.

При разработке производственных процессов нагрева изделий технологами задается величина конечной температуры этих изделий, при которой процессы нагревания заканчиваются. Используя значение этой температуры, можно выбрать величину удельной поверхностной мощности идеального нагревателя согласно [3]. После этого по данной величине находится реальная удельная поверхностная мощность нагревателя, примененного в рассматриваемой ЭПС, $W_{нагр}$ как:

$$W_{нагр} = \alpha W_{ид}, \quad (2)$$

где α – добавочный коэффициент, учитывающий наличие потерь теплоты в рассматриваемой ЭПС и зависящий от реализованной конструкции нагревательных элементов.

Для дальнейших действий представим удельную поверхностную мощность нагревателя ЭПС через соотношение мощности и площади нагревателя как:

$$W_{нагр} = \frac{P}{S}, \quad (3)$$

где P – мощность нагревателей ЭПС;

S – площадь поверхности нагревательных элементов.

Из полученной формулы выразим мощности ЭПС для двух режимов – первый с номинальным напряжением электрической сети, второй с пониженным напряжением питающей сети.

Для режима работы ЭПС с номинальным напряжением электрической сети мощность нагревательных элементов $P_Н$ определяется как:

$$P_H = SW_{нагр.H}. \quad (4)$$

При пониженном напряжении электрической сети мощность нагревателей ЭПСP_1 определяется следующим соотношением:

$$P_1 = SW_{нагр.1}. \quad (5)$$

Используя формулы (4) и (5), выразим удельные мощности нагревателей печи сопротивления для каждого из рассматриваемых режимов и найдем затем их отношение:

$$W_{нагр.1} = \frac{P_1}{S}, \quad W_{нагр.Н} = \frac{P_Н}{S}; \tag{6}$$

$$\frac{W_{нагр.1}}{W_{нагр.Н}} = \frac{P_1}{P_Н}. \tag{7}$$

Из формулы (7) выражаем удельную мощность нагревательных элементов ЭПС в режиме работы с пониженным напряжением электрической сети:

$$W_{нагр.1} = \frac{P_1 W_{нагр.Н}}{P_Н}. \tag{8}$$

В полученной формуле (8) все величины, находящиеся в правой части, известны. Поэтому, используя ее, можно рассчитать удельную мощность нагревателей для режима с пониженным напряжением $W_{нагр.1}$. Зная эту величину по соответствующему графику, применяя значения найденное значение $W_{нагр.1}$ и задаваемую технологами температуру изделий $t_{изд}$, нагреваемых в печи сопротивления, находим температуру нагревательных элементов ЭПС, соответствующую режиму работы ЭПС с пониженным напряжением.

Предложенный в данной статье способ позволяет определить, как изменится время нагрева обрабатываемых изделий в рабочем пространстве ЭПС при снижении напряжения в электрической сети относительно номинального значения. Основываясь на полученной величине увеличенного времени нагрева изделий, можно рассчитать возрастание длительности всего рабочего цикла и в конечном итого - снижение производительности работы ЭПС.

Список литературы

1. Lupi S. Induction and direct resistance heating: theory and numerical modeling : monograph / S. Lupi, M. Forzan, A. Aliferov. - Heidelberg : Springer, 2015. - 370 p. - ISBN 978-3-319-03478-2, eISBN 978-3-319-03479-9. - DOI 10.1007/978-3-319-03479-9.

2. Вагин, Геннадий Яковлевич; Куликов, Александр Леонидович. Качество электрической энергии в системах электроснабжения. Анализ состояния методов нормирования и контроля. **Электрические станции**, [S.l.], n. 6, p. 54-59, июнь 2019.URL: http://elst.energy-journals.ru/index.php/elst/article/view/1103>. Дата доступа: 12.11.2020. doi:http://dx.doi.org/10.34831/EP.2019.1055.44184.

3. Использование электрической энергии / Под общ. ред. профессоров МЭИ В. Г. Герасимова и др. (гл. ред. А. И. Попов). – 9-е изд., стер. – М.: Издательство МЭИ, 2004. – 696 с.

4. Гусовский, В. Л. Современные нагревательные и термические печи (конструкции и технические характеристики) : справочник / В. Л. Гусовский, М. Г. Ладыгичев, А. Б. Усачев; под. ред. А. Б. Усачева. – М. : «Теплотехник», 2007. – 656 с.

5. Чередниченко, Владимир Семенович. Электрические печи сопротивления: конструкции и эксплуатация электропечей сопротивления / В. С. Чередниченко, А. С. Бородачев, В. Д. Артемьев ; под ред. В. С. Чередниченко. - Новосибирск : [б. и.], 2006. - 571

УДК 514.2

ОЦЕНКА УРОВНЯ СЛОЖНОСТИ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ РАБОЧИХ ОРГАНОВ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ МАШИН ПО КОНСТРУКТИВНЫМ ПАРАМЕТРАМ

Жураев Тожиддин Хайруллаевич - PhD, доц., кафедры Общепрофессиональные дисциплины,
Хайруллаев Хусниддин Тожиддин огли - специалист Центра информационных технологий
Бобирова Мадина Бобир кизи - магистрант
Бухарский институт управления природными ресурсами НИУ "ТИИИМСХ" tojiddin_1968@mail.ru,hxayrullayev@mail.ru

Аннотация. Статья посвящена вопросам определения уровней сложности геометрических моделей. Обосновывается важность применения методов геометрического моделирования при разработке рабочих органов сельскохозяйственных машин. Методом исследования является системный анализ конструктивных параметров рабочих органов влияющих рабочим и технологическим параметрам. Системный анализ проведен на основе теории клина, а в качестве опорных элементов выделены пространство измерения, образование и воздействие клина. В результате системного анализа установлена взаимосвязь геометрических характеристик рабочего органа с его техническими и функциональными характеристиками, совокупность которых определяет уровень сложности геометрических моделей.

Ключевые слова: геометрическое моделирование, рабочие органы, геометрия клина, конструктивные параметры, геометрические, технические и функциональные характеристики, уровень сложности модели.

Введение. Республика Узбекистан является одной из развивающихся стран, основным сектором экономики, которой является сельское хозяйство. Если учесть, что решение ряда глобальных проблем человечества в современном мире напрямую связано с сельским хозяйством, то оно и впредь будет оставаться в этом качестве. Поэтому правительством страны уделяется огромное внимание развитию этого сектора, особенно в плане внедрения инновационных техники и технологий [1-3]. Как известно, на полях страны работает огромное количество сельскохозяйственных машин, эффективное использование которых требует качественной и количественной модернизации. При этом необходимо учесть, что определяющим звеном этих машин в выполнении возложенных на них технологических операций являются рабочие органы [4-8]. Каждый рабочий орган, как деталь или сборочная единица изделия, имеет конструктивные, рабочие и технологические параметры, входящие в базу инженерных данных изделия. Сегодня научные исследования направлены именно на совершенствование и оптимизацию этих параметров. При разработке рабочих органов необходимо учитывать тесную взаимосвязь конструктивных параметров с рабочими и технологическими параметрами, а также первичность конструктивных параметров по отношению последним [9]. Следовательно, процесс оперирования конструктивными параметрами, реализуемый методами и средствами геометрического моделирования, играет определяющую роль в разработке рабочих органов. Однако анализ состояния проблемы показывает недостаточное применение возможностей методов и средств геометрического моделирования в разработке рабочих органов. Исходя из этого, можно утверждать, что достаточное их применение приведет к уменьшению материальных и трудовых расходов, а также сроков разработки рабочих органов сельскохозяйственных машин [10].

Материалы и методы. Одной из задач решения данной проблемы является разработка геометрических моделей разрабатываемых рабочих органов. Конструктивные параметры

рабочих органов разделим на три категории: параметры, относящиеся к размерам, форме и положению в пространстве. Эти категории параметров являются взаимосвязанными, и изменение параметров одной категории приводит к изменению других категорий. Например, рабочее положение отвала бульдозера определяется углом лезвия отвала относительно направления движения, и количественное изменение ее угловых размеров может привести к качественному изменению положения, например, с фронтального положения наклонному. Или ещё один пример, форма рабочей поверхности отвала плуга определяется относительными положениями ее образующих, при изменении этих углов рабочая поверхность может приобрести различные формы, т.е. культурную, полувинтовую или другую форму. Под оперированием конструктивных параметров необходимо понимать изменение параметров одних категорий с целью изменения параметров других категорий. Как видно из приведенных выше примеров, часто при изменении количественных значений размерности получается необходимая форма или положение. Поэтому, если при проектировании рабочих органов в качестве определяющих конструктивных параметров используются параметры, относящиеся к размерам, то при их геометрическом моделировании используются параметры, относящиеся к форме и положениям. В обеих случаях параметры по форме и положениям определяют конструктивную сложность рабочего органа и его геометрической модели. Соответственно, при проектровании рабочего органа необходимо разработать геометрическую модель соответствующей сложности. Исходя из вышесказанного, определим сложность геометрической модели рабочего органа в увязке его конструктивных параметров с рабочими и технологическими параметрами. Конструктивные параметры (***R***) рабочего органа определяют его геометрические характеристики (***G***), Как известно, рабочий орган, являясь основной частью сельскохозяйственных машин, предназначен для непосредственного взаимодействия с обрабатываемой почвой, растительностью или другим видом рабочей

среды. Поверхность рабочего органа, взаимодействующая с рабочей средой, назовем рабочей поверхностью и условно рассмотрим как клин. Здесь пространство измерения элемента рабочей поверхности как конструктивные параметры в увязке с типом клина определяют геометрические характеристики рабочего органа.

Результаты и обсуждения. По положениям начертательной геометрии, точка, как элемент с нулевой размерностью, условно изображается, так как она имеет координаты в пространстве. Это положение можно использовать и как обратная задача при упрощении процесса моделирования. Например, элемента рабочей поверхности с незначительными размерами относительно масштаба измерения и моделирования, которыми можно пренебречь, назовем точечным. Так при моделировании расположения отверстий по поверхности решетного стана воздушно-решетной семяочистительной машины, центры отверстий рассматриваются как точки с координатами на плоскости. Такой элемент рабочей поверхности является самым простым элементом геометрического моделирования. Следовательно, элемента рабочей поверхности, со значительными размерами по длине, но незначительными размерами по толщине и ширине (по сечению), которыми можно пренебречь при геометрическом моделировании, назовем линейным элементом. Например, прутки – кустодержатели машин для уборки стеблей хлопчатника, пружинные зубья борон и т.д. Элемента рабочей поверхности, со значительными размерами по длине и ширине, но незначительным размером по толщине, которыми можно пренебречь, назовем плоским элементом. Например, дисковый нож плуга общего назначения, ножевая полоса сегментно-пальцевого аппарата косилки и т.д. А элемента рабочей поверхности с размерами, измеряемыми в трехмерном пространстве, которыми нельзя пренебречь, назовем объемными элементами. Например, отвал корпуса плуга, ковш экскаватора, лопатки ротора аксиально-роторного молотила зерноуборочного комбайна и т.д. Необходимо отметить, что пренебрегаемые размеры рабочих органов не учитываются только при

геометрическом моделировании, а в инженерно-технологических расчетах они учитываются. Например, при геометрическом моделировании дискового ножа плуга общего назначения его толщина $t=0,01D$ не учитывается, где $D\geq 450$ мм, но при инженерно-технологических расчетах их нельзя пренебречь [12]. В зависимости от размеров по объему, площади и длине, которыми можно пренебречь, выделим точечные (R^0), линейные (R^1), плоские (R^2) или объемные (R^3), элементы. Геометрия рабочей поверхности клина (R_g) вместе с его размерностью (R^n) определяют геометрические характеристики (G) рабочего органа, т.е. $G=R^n+R_g$ (см. табл.).

Таблица. Оценка уровня сложности модели по геометрическим характеристикам G
в увязке с геометрией рабочей поверхности клина R_g

№	Пространство измерения и параметры R^n			Геометрия рабочей поверхности R_g		G
1.	R_0	Положения (x,y,z), размеры (отсутствуют), форма (отсутствуют).	0	Точечный элемент рабочей поверхности с отсутствием клина	0	0
2.	R_1	Положения (x, y, z), размеры (длина – l), форма (m_1 - прямая или m_2 - кривая).	1	Линейный элемент рабочей поверхности с двухгранным клином	0	1
3.	R_2	Положения (x, y, z), размеры (площадь - lxb), форма (плоская фигура - f_1).	2	Плоская рабочая поверхность с двухгранным клином	0	2
4.	R_3	Положения (x, y, z), размеры (объем - lxbxh), форма (граненая поверхность - f_2).	3	Плоская рабочая поверхность с трехгранным клином	0	3
5.	R_3	Положения (x, y, z), размеры (определители - u и v), форма (кривая поверхность - f_3).	3	Кривая рабочая поверхность с двухгранным клином	1	4
6.	R	Положения (x, y, z), размеры	3	Кривая рабочая	2	5

	3	(определители - u и v), форма (кривая поверхность - f_3).		поверхность с трехгранным клином		

Выводы. Установленная взаимосвязь, определяющая уровень сложности геометрических моделей рассмотрена с геометрической точки зрения и основана на принципах образования рабочей поверхности и клина, что является предпосылкой применения геометрического моделирования в процессе разработки рабочих органов. По предварительным исследованиям геометрического моделирования рабочих органов выделены десять уровней сложности (от 0 до 9) геометрических моделей рабочих органов. Исследования показывают, что независимо от сложности модели и конструкции рабочих органов, все разработки, хотя они производятся в различных пространствах измерения, они сводятся к трехмерному пространству измерения, где материально реализуется проекты.

ЛИТЕРАТУРА

1. Holden, N. M., Wolfe, M. L., Ogejo, J. A. & Commins, E. J. (Eds.) (2020). Introduction to Biosystems Engineering. ASABE in association with Virginia Tech Publishing, Blacksburg, Virginia. Available from https:// doi.org/10.21061/Intro Biosystems Engineering
2. Горячкин В.П. Собрание сочинений. Т.1,2. – М.: Колос, 1965. – 648 с.
3. Juraev T.Kh., Murodov N.M., Naimov S.T. Decision Maintenance Management Problems in Agriculture Engineering by Constructive Geometric Modeling Methods. Maintenance Management. Ed. F.P.García Márquez and M.Papaelias. London, UK, 2020 IntechOpen, 23-37 p. http://dx.doi.org/10.5772/intechopen.79248.
4. Голованов Н.Н. Геометрическое моделирование. М.«Физматлит».2002.472 с.
5. Вальков К.И. Лекции по основам геометрического моделирования. Ленинград: ЛИСИ, 1970. 238 с.

6. Juraev T.Kh., Voloshinov D.V. Geometric modeling laboratory as an engineering infrastructure in the digital economy. FORM-2020. N.2, July 2020, Smart City, 022037, https://iopscience.iop.org/volume/1757-899X/869
7. Juraev T.Kh. Computer modeling the moldboards' surface in AutoCAD system. CONMECHYDRO-2020, 012156, IOP Publishing. https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1757-899X/883/1/012156.

UO'T: 631.879.1

KO'CHAT YETISHTIRISHDA BAZALT VA BIOGUMUS QADOQCHALARINI QO'LLASH LABORATORIYA TAJRIBALARI.

Amrulloyev Timurbek Odilbek o'g'li, Husenov O'lmasbek Fayzullo o'g'li
" TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari
Orziyev Sardor Samandar o'g'li – "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti
Halimov Tilavjon Azamat o'g'li – "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti
Ilmiy rahbar: Imomov Shavkat Jaxonovich – "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, t.f.d., professor
sardororziyev9309@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada issiqxonalar tashkil etish va yuqori hosil olishda hozirda qo'llanilayotgan texnika va texnologiyalar, o'g'itlarni qo'llash usullari va laboratoriya tajribalarini amaliyotda qo'llash natijasida hosildorlikni 80 foizgacha oshirish va ko'chat yetishtirish tannarxini 30 foizga kamaytirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Issiqxonalar, sabzavot ekinlari, namlik, organik o'g'it, bazalt, chimdilash, harorat, termometr yelim qadoqcha, pikirovka, labaratoriya.

UDC: 631.879.1

LABORATORY EXPERIENCE IN THE USE OF BASALT AND BIOGUMUS PACKAGES IN PLANT GROWING.

Amrulloyev Timurbek Odilbek uglu, Husenov Ulmasbek Fayzullo uglu
Students of "TIIAME" NRU the Bukhara Institute of Natural Resources

Orziyev Sardor Samandar uglu – teacher of "TIIAME" NRU Bukhara Institute of Natural Resources Management
Halimov Tilavjon Azamat o'g'li – Master of "TIIAME" NRU Bukhara Institute of Natural Resources
Supervisor: Imamov Shavkat Jahonovich - Rector of Bukhara Institute of Natural Resources Management "TIIAME" NRU, Doctor of Engineering, Professor
sardororziyev9309@gmail.com

Abstract: The The article discusses the possibility of increasing yields up to 80% and reducing the cost of growing seedlings by 30% as a result of the application of techniques and technologies currently used in the organization of greenhouses and high yields, methods of applying fertilizers and laboratory experiments. the data is given.

Key words: Greenhouses, melons, moisture, mineral fertilizers, bazalt, pinching, temperature, thermometer, cellophane packaging, meditation, laboratory.

O'zbekiston Respublikasi Rezidentining farmoni "PF-5303" bozorni sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, agrar kompleksni rivojlantirish, ijtimoiy va davlat-xususiy sheriklikning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish, oziq-ovqat bozori barqarorligiga tahdidlarni o'z vaqtida bartaraf etish, oziq-ovqat tovarlari importini qulay bojxona-tarif tartibga solish bo'yicha choralarni belgilovchi "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi farmoni [1] va keyingi yillarda cheklangan suv zaxiralaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi yerlari biofondini tiklash, sho'rlangan va eroziyaga uchragan maydonlarni qayta foydalanishga kiritish, ekotizimlar biologik xilma-xilligini saqlab qolish, "yashil energetika" va agrotexnologiyalar kabi muhim yo'nalishlarda ta'lim, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar transferini samarali yo'lga qo'yish talab etilmoqda [2].

Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, qishin-yozin sifatli sabzavot ekinlari hamda mevalarni yurtimiz dasturxonlariga arzon narxda yetkazib berish hamda eksportini ta'minlash uchun hozirgi kunda issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish va yuritish uchun hukumatimiz tomonidan ilmiy asoslangan talablar qo'yildi.

Issiqxonada ishlab chiqarishni tashkil etishda ko'chat turiga qarab qator agro texnik talablar jumladan, issiqxona haroratini kerakli haroratda saqlash , tuproqni tarkibiy qismidagi namlik va minerallarning kerakli miqdorini ta'minlash, ko'chatlarning kassalanishiga qarshi kimyoviy

dorilash, urug'ni unib chiqishini doimiy ravishda nazorat qilishni raqamli texnologiyalarga o'tkazish talablari mavjud. Yopiq gruntdagi o'simlik agrotexnik talab asosida parvarish etish kutilganiday sifatli ko'chat yetishtirish mumkinligini ko'rsatib o'tdi.

Yopiq gruntdagi o'simliklarni agrotexnik talablarda hosil berish kurtaklarini saqlab qolish talab etiladi. Bunga yopiq grunt ichidagi harorat, yorug'lik va namlikni talab darajasida saqlash uni tartibga solib turish yo'li bilan erishiladi. Buxoro viloyatida bodring, pomidor ko'chati kunduzi 18-25^0 C, kechasi 10-15^0 C, karam ko'chati kunduzi 12-18^0 C, kechasi 8-10^0 C haroratda saqlash kerak. Havo haroratini kuzatib borish uchun yopiq grunt ichida zamonaviy harorat nazorat qurilmalari bilan ta'minlanadi. Tuproq yetarli darajada namlikka ega bo'lishi uchun u gulchelakdan sug'orib turiladi. Yopiq grunt ichidagi tuproqning namligini ortib ketishiga yo'l qo'yilmaydi [3].

Ko'chat niholchalari va ularni yetishtirish va parvarishlashda maxsus yelim qadoqchalarda organik o'g'it va tuproq aralashmasidan tayyorlangan (aralashmaning tarkibida 20% li tuproq 80% 208organik o'g'it bo'lishi talab etiladi) qadoqchalarda ko'chatlar o'tqaziladi va bu jarayonda ko'chatning ildizi aralashmadan o'ziga kerakli minerallarni hamda suvni olib rivojlanadi (1- rasm).

1-rasm. Yelim qadoqchalarga ko'chirilgan ko'chatlar

Amaliyotda qo'llanilayotgan usulning kamchiligi yelim qadoqlarga bazalt va bioo'g'it solishda qo'l kuchidan foydalanish hisobidan bir kishi bir ish kunida 4000-5000 yelim qadoqchani aralashma bilan to'ldira olishi hisoblandi. Yelim qadoqlarda 60-80 sm^3 aralashma solinadi va ildiz rivoji davrida siqilib qolishi kuzatiladi hamda aralashmadagi haroratni nazorat qilish imkoniyatini yo'qligi hisoblanadi.

Issiqxonada pomidor va bodringlarni yetishtirishda yopiq gruntda ko‘chatlar chiniqtirilishi (pikirovka qilinishi) lozim. Ko‘chatlar urug’ ekilganidan keyin 2-3 hafta o‘tgach, ikkitadan chinyaproqcha chiqargan paytda pikirovka qilinadi. Bu tadbir har bir ko‘chatni joyidan olib, asosiy ildizining uchdan bir qismini chimdilash va ko‘chatni oldindan tayyorlangan boshqa parnikka ko‘chirib o‘tqazishdan iborat bo‘ladi (1-rasm). Bu jarayonlar ko‘p mehnat va ishchi kuchini talab qilib kelmoqda. Shuning hisobiga hosilni yetishtirish tannarxi oshishiga sabab bo‘lmoqda [4,5].

Shu muammolarning yechimini 209o‘rganish uchun Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti professor o‘qtuvchilari tomonidan “Botir Ali Zamini” MCHJ va “Azizbek Jamshid Agro Servis” MCHJ issiqxonalarida tajribalar o‘tkazilib kelinmoqda. Bunda yelim qadoqchalar o‘rniga bazaltni qo‘llash amaliyotidan foydalanildi. Dastlabki tajribalarimizda 4 xil 209organik o‘g’it va bazalt aralashmali qadoqchalarida pomidor ko‘chati o‘tqazildi(2-rasm).

2-rasm. Organik o‘g’it va bazalt aralashmali qadoqchalarida undirish jarayoni

Nisbatan yaxshi, baquvvat poyali pomidorlar ko‘chatlar olingan aralashmali qadoqchalarni tajriba maydonchalariga olib chiqib ekildi (2-rasm). Bazalt o‘zida isiqlikni yaxshi saqlashi hajmi yelim qadoqdagi aralashmadan ortig’ligi (120 sm^3 ga) bilan bir qator avzalliklar bermoqda. Urug’ni bazalt qadoqchalariga ekib undirilishi natijasida niholni yaxshi o‘sishiga, nihol poyasining rivojlanishiga sezilarli tasir ko‘rsatishi buning asosiy sabablaridan biri bazalt qadoqchasini o‘simlik ildizi ruvojlanishi uchun hajmining kattaligi deb topildi. Bazalt qadoqchalarini qo‘llash natijasida yelim qadoqlarga aralashmani solishga mehnat sarfidan foydalanilmaydi va pikirovka qilinishiga hojat qolmaydi. Ko’chat

yetishtirish jarayonida qadoqchalarning tarkibidagi bazalt chirindiga aylanishiga uzoq vaqt ketishi uning asosiy kamchiligi deb belgilandi.

3-rasm. Voyaga yetib ko'rak tukkan ko'chatlar.

Bazalt qadoqchalarini hozirda donasining tannarxi 150-200 so'mgacha bo'lib bitta qadoqchadan 2 marta urug' undirishda foydalanish mumkin. Ko'chatlar 40-50 kungacha qadoqda saqlanib oldindan tayyorlangan issiqxonalarga o'tqiziladi. Bir gektar issiqxonada 25000 dona pomidor ko'chatini yetishtirish mumkinligini hisobga olsak bir gektarning o'zidan bazalt qadoqchalarini qo'llash orqali 3 750 000 so'm iqtisod qilinishi hamda mehnat sarfini kamaytirish imkoni mavjud.



4-rasm. Bazalt va biogumus qadoqlash uskunasining sxemasi
1-siquvchi qopqoq , 2 -varonka, 3-varonka qopqog'i, 4- yelka, 5- shatun, 6- yelka,
7-siquvchi porshin.

Bazalt va biogumus qadoqlash uskunasi orqali balandligi *h=80 mm,* eni *b =100 mm* uzunligi *l=120 mm* qadoqcha zichlab beriladi (4-rasm). 2–varonkaga bazalt, biogumus aralashmasi solinadi, solingan aralashmani yetkazib berish davrini nazorat qilish

hamda aralashma bir tekisda 7-siquvchi porshin yo‘liga yetib boroshini ta’minlash uchun varonkaga 3-varonka qopqog’i o‘rnatilgan, 1-siquvchi qopqoq porshin yo‘lidagi aralashmani tutib qolib aralashmani kerakli darajada siqililishiga va hajimni egalashiga yordam beradi, 4- yelka harakatni porshin shatunidan olib 3-varonka qopqog’i va 1-siquvchi qopqoqni porshinga nisbatan to‘g’ri proporsional ravishda harakatlanishini ta’minlaydi, 5- shatun harakat manbasidan buruvchi momentni olib uskunaning detallarini harakatini ta’minlab boradi, shatunga 7-siquvchi porshin o‘rnatilgan bo‘lib, u yo’li davomida varonkadan kelgan aralashmani tarkibidagi havo va suvni siqib chiqarish va uskuna devorlari orasidagi hajimni egalashiga yordam beradi, tayor bo’lgan zichlangan breketni 6-yelka uchudagi turtgich 1-siquvchi qopqoq ochilganda turtib uskunadan chiqaradi.

Hozirgi kunda bazaltga biogumusni 20, 80 % nisbatta aralashtirib urug’ undirish labaratoriya tajribalari Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti professor o‘qtuvchilari tomonidan o‘tkazib natijalar olinmoqda.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. 2018- yil 16- yanvardagi PF-5303-son “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.M. 10.12.2021 yildagi PQ-42-son “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.

3. G'.A. Samatov, J.Y.Yodgorov, Z.T.Siddiqov issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish va yuritish Toshkent – 2007.

4. Imomov, S., Sultonov, M., Aynakulov, S., Usmonov, K., & Khafizov, O. (2019). Mathematical Model of the Processes of Step-By-Step Processing of Organic Waste. In International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2019. Institute of Electrical and Electronics Engineers Inc. https://doi.org/10.1109/ICISCT47635.2019.9011929

5. Kh. Kh. Olimov, A. N. Juraev, S. J. Imomov, S. S. Orziev, Application of energy and resource engineering software in cotton fields, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 868 (2021) 012067

6. Imomov, S., Shodiev, E., Tagaev, V., Qayumov, T. Economic and statistical methods of frequency maintenance of biogas plants. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2020, 883(1), 012124

7. Vafoev, R., Vafoev, S., Akhmedov, S., Imomov, S. Method for sealing ground in trench closed drain. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2020, 614(1), 012093

8. sales@bazaltwool.uz

9. https://youtu.be/nejf4c72q5y

UO‘T: 631.315.4

DIZEL DVIGATELIDA COMMON RAIL YONILG‘I TA’MINLASH TIZIMINI QO‘LLASH

Sh.Safarov, K.Sobirov, R.Kerimov
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari
Ilmiy rahbar: Sh.Ostonov
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada dizel dvigatellari ta’minlash tizimida yuzaga keladigan nosozliklar, ularni bartaraf etish yo‘llari, zamonaviy dizel dvigatellari ta’minlash sistemasida foydalaniladigan yuqori aniqlikda ishlaydigan resurstejamkor COMMON RAIL tizimini qo‘llash bayon qilingan. Bunda tizimni qo‘llash natijasida erishiladigan aniqlik, iqtisodiy va texnik samaradorlikka erishilganga oid olingan natijalar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’minlash tizimi, COMMON RAIL tizimi, forsunka, electron boshqarish tizimi, yoqilg’i moylash materiallari, atrof muhit himoyasi,dizel dvigateli,yuqori aniqlik.

UDC: 631.315.4

USE OF COMMON RAIL FUEL SUPPLY SYSTEM IN DIESEL ENGINE

Sh.Safarov, K.Sobirov, R.Kerimov
Studetnts of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management

Ilmiy rahbar: Sh.Ostonov
Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management

Annotation: This article describes the failures of the diesel engine supply system, ways to eliminate them, the use of high-precision, resource-efficient COMMON RAIL system used in modern diesel engine supply systems. It describes the results obtained in terms of accuracy, cost-effectiveness, and technical efficiency achieved as a result of using the system.

Keywords: supply system, COMMON RAIL system, injectors, electronic control system, fuel and lubricants, environmental protection, diesel engine, high precision.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ko‘plab zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, jumladan, avtomobilsozlik sanoati vujudga keldi. Birgina misol, to‘qsoninchi yillar boshlarida taxminan har 15 oilaga bitta avtotransport vositasi to‘g’ri kelgan bo‘lsa, hozir taxminan 4 oilaga bir avtotransport vositasi to‘g’ri kelmoqda. Bu yaxshi natija, albatta, ammo avtotransport vositalari soni ortib borgani sari ulardan, ayniqsa, eski avtotransport vositalaridan atrof - muhitga tarqalayotgan zararli gaz moddalari miqdori belgilangan me’yordan ancha ziyoda bo‘lmoqda. Avtotransportni yangi, ekologik bezarar yonilg’i turlari va tejamli dvigatellarga o‘tkazish, ko‘chalar chekkasiga ko‘plab daraxtlar ekish hamon atrof - muhit holatini yaxshilashdagi muhim muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Jumladan, avtotransport vositalaridan atmosferaga, inson va biosferaga aks ta’sir etuvchi moddalar, ya’ni yonilg’ini yonishi natijasida ajralib chiqadigan gazlar tarkibidagi zararli komponentlar karbonat angidrid, azot oksidlari, uglevodorodlar ajralib chiqadi. Benzinda ishlaydigan avtomobillardan qattiq, zarralar va qurumdan tarkib topgan chang, dizel yonilg’isida ishlaydigan dvigatellardan azot oksidlari tarqaladi.

Zamonaviy avtomobil dvigatellarining ish vaqti birligida sifat o‘zgarishlarini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlaridan biri dvigatelning ishonchliligidir. Bu ko‘rsatkich orqali dvigatellarning mavjud bo‘lgan va yangi konstruktsiyalarini takomillashtirish mumkin bo‘libgina qolmay, balki ularning ishlash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Avtotransport dvigatellari ishonchliligini oshirishning asosiy

omillaridan biri qo‘llanilayotgan konstruktsion va yoqilg‘i moylash materiallarining (YoMM) sifatini oshirishdir.

Dizel ta’minlash tizimi(1-rasm) samaradorligini oshirishda yonilg‘i uzatuvchi asboblar va aralashma tayyorlash asboblari bilan birgalikda yonish kamerasining shakli hamda ularda havo harakatini va yonilg‘i kiritishni tashkil qilishning ta’siri alohida ahamiyatga egadir.



1-rasm. Dizel dvigatelining ta’minlash tizimi.
1-yuqori bosim yonilg’i nasosi, 2-yonilg’i baki, 3-qabul qilgich, 4,6,7,11-15-yonilg’i trubkalari, 5-dag’al tozalash filtri, 8-haydovchi nasos, 9-rukoyatka, 10-mayin tozalash filtri, 16-forsunka, 17-havo filtri, 18-silindr.

XX asrning oxirida elektronika va mikroprotsessor texnikasini katta sur’atlar bilan rivojlanishi, ularni avtomobillarda keng joriy qilinishiga, xususan dvigatel, transmissiya va qo‘shimcha jihozlarni ishini elektron boshqarish tizimlarinini yaratilishiga olib keldi. Ilk bor elektron boshqarish tizimlari benzinli dvigatellarda yonilg’ini purkash jarayonida qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirga kelib dizelli dvigatellarning ta’minlash tizimidadizel yonilg’isini purkashda elektron boshqa ruv tizimlardan foydalanib kelinmoqda. Bu esa albatta yonilg’ini to‘la yonishiga, dvigatelni quvvatini oshishiga, dvigatelni shovqinsiz ishlashiga, zaharli gazlarni kamaytirishga va eng asosiysi yonilg’i tejamkorligiga erishib kelinmoqda.

Dizel ta’minlash tizimining karburatorli dvigatel ta’minlash tizimidan farqi ish aralashmasini hosil qilish va uni alangalatish usulidadir. Dvigatellarni elektron boshqarish tizimlaridan eng keng tatbiq topganlari-yonilg’i uzatish va o‘t oldirish (benzinli dvigatellarda) jarayonlarini boshqarishdir.Shuni hisobga olgan holda qo‘llanib kelingan an’anaviy ta’minlash tizimlaridan asta-sekin biz quyida batafsil ta’rifini keltirmoqchi bo‘lgan zamonaviy elektron boshqaruv tizimi hozirgi zamon dvigatellarida keng qo‘llanilmoqda. Benzinli dvigatellarda yonilg’ini

purkash tizimlarining turli avlodlari (K- Jetronik, KE-Jetronik, L-Jetronik, LH-Jetronik, Mono-Jetronik, ME-Motronik, … va hokao) bo‘lgani kabi dizelli dvigatellarda yonilg’i purkashning yangi avlodi **Common-Rail** tizimidir. Bu tizim ham o‘zining rivojlanish bosqichiga ega bo‘lib, quyida biz dizel dvigatellarda yonilg’ini purkashni elektron boshqaruvchi tizim haqida fikr yuritamiz (2-rasm).

“**Common-Rail**” yonilg’i purkash tizimi “**Umumiy taqsimlovchi rampa**” ma’nosini anglatib, u asosan yonilg’ini elektron purkashda tartibga solingan yuqori bosim tizimning umumiy taqsimlovchi rampasiga yuqori bosimli yonilg’i nasosi tomonidan yuboriladi. Taqsimlash rampasidan yonilg’i elektro-gidro-mexanikli boshqariluvchi injektorlar asosida silindrlarning yonish kamerasiga bevosita purkab beriladi.



2-rasm. Common-Rail tizimi.

1-yonilg’i baki, 2-yonilg’i filtri, 3-yuqori bosimli yonilg’i nasosi, 4-yonilg’i trubasini sozlagich, 5-yonilg’i rampasi, 6-rampaning bosim datchigi, 7-forsunka, 8- gaz taqsimlash valining holati datchigi, 9-kiritish quvuri tadchigi, 10-yuklanish bosimi datchigi, 11-havo massasini o‘lchagich, 12-yonilg’i temperatura datchigi,13-cho‘g’lanish shamining boshqaruvchisi, 14-elektron boshqaruv bloki, 15- cho‘g’lanish shami, 16-dvigatelning temperatora datchigi, 17-tirsakli valning aylanishlar soni datchigi, 18-CAN, 19-haydovchining gaz pedal datchigi, 20-tormoz pedali yoqgichi, 21-mufta pedal yoqgichi, 22-AGR-klapani, 23-yuklama klapani, 24-past bosimli nasos, 25-turbonadduv.

Bu Common Rail yonilg’i purkash tizimining 3 avlodi asosan Dizel yonilg’isi bilan ishlaydigan avtomobillarda qo‘llanilib kelinmoqda.

Masalan, zamonaviy avtomobillardan biri bu AUDI A8 markali V-simon 6 silindrli (V6) to‘liq ish hajmi 3,0 sm^3 li (Piezo-Inline-Injektoren) ya’ni bosim bilan ishlaydigan Ijektordir. Uning bosimi 180-240 MPa (1800-2400 bar) ga yetadi.



3-rasm. Bosh firmasi ishlab chiqarilgan Common Rail 3 –avlodi

Hozirgi vaqtda yengil va yuk avtomobillarining dizel dvigatellari ishini boshqarishning kompyuter tizimini qo‘llah ko‘proq, tus olmoqda. Bu tizimlarda (3- rasm) ko‘rib chiqilgan kabi datchiklar va boshqarish shakllari ishlatiladi. EBB esa datchik yordamida reyka-akkumulyatordagi bosimni nazorat qiladi va forsunkalar orqali avtomobil hamda dvigatelning ishlah tartibiga mos ravishda yonilg’ini davriy yetkazib berishni va yonilg’ini purkash burchagini ilgarilatib berishni elektron boshqarishni ta’minlaydi. Yonilg’i baki - 1 dan filtr va yonilg’i haydovchi nasos – 3 orqali, EBB yordamida nazorat qilinib turiluvchi yuqori bosimli yonilg’i nasosi – 4 yordamida reyka – akkumulyatorga yetkaziladi. Bu vaqtda yonilg’ining bosim kattaligi reduktsion klapan – 5 orqali o‘rnatiladi va EBB yordamida nazorat qilinadi.COMMON RAIL tizimlarida yuqori bosim ostida siqilgan yoqilg’ini yonish kamerasiga juda aniq purkashda elektr gidravlikli, elektr magnitli, magnit klapan elementli nasosli, piezoelektrik forsunka va boshqa turlardagi forsunkalar qo‘llaniladi.

Forsunkaning boshqacha nomi injektor ya’ni purkagich ma’nosini anglatadi. Bu forsunkalardan (4-rasm) keng foydalanish dizelli dvigatellarning yonilg’i bilan ta’minlash tarmog’ining eng asosiy elementlaridan hisoblanib, dizel yonilg’isini bug’ holda yuqori bosim ostida silindrlarning yonish kamerasiga ish siklining ikkinchi taktining

oxirida qizib turgan 700-1000 °C havoga dizel yonilg'isini purkab alangalanishni sodir qiladi.

Common-Rail" dizelli yonilg'i purkash tizimiga ega bo'lgan dvigatellar qo'llanilsa bu dvigatellarni yonilg'i tejamkorligi va quvvati yuqori bundan tashqari dvigatelning shovqini, zaharli gazlarning kamligi transport vositalariga ekologiyani saqlash bo'lgan talablarga javob beradi.



4-rasm. Dizel dvigatellarida yonilg'i purkash tizimidagi forsunkalarining zamonaviy turlari tahlili

Afzalliklari:

- Dvigatelni tubdan o'zgartirmasdan tizimni o'rnatish mumkin;
- Yonilg'ining bosimi dvigatel tirsakli valining aylanish chastotasiga bog'liq bo'lmagan holda zaruriy darajada ushlab turiladi. Bu dvigatelning kichik aylanishlar sonida burovchi momentni oshirish imkonini beradi;
- Tizim elektron boshqarilgani uchun silindrga purkalayotgan yonilg'ining miqdori aniq dozalanadi. Bu yonish jarayonini yaxshilaydi va yonilg'i sarfini kamaytiradi;
- Yonilg'i 120-180 MPa bosimda purkaladi. Bunday katta bosim juda mayda yonilg'i zarrachalarini hosil qiladi. U toza yonadi va zararli chiqindilarni kamaytiradi;

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki zamonaviy yoqilg'i ta'minlash tizimlarinida yonilg'ini elektron purkashda tartibga solingan yuqori bosim umumiy taqsimlovchi rampasiga yuqori bosimli yonilg'i nasosi tomonidan yuborilishi har bir uzel va detallarni aniq ishlashi hisobiga atrof muhitga zararli gazlarni kam chiqishini, yoqilg'ini sezilarli darajada kam sarflanishini hamda dvigatel quvvatidan maksimal foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyun 17-iyun “Qishloq xo’jaligida yer va suv resurslaridan samarali ishlab chiqarish chora tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5742 sonli qarori.

2. I.Soliyov “Traktor va avtomobillar” Cho‘lpon nashriyoti, Toshkent 2012 y.

3. N.Ikromov “ Dizel dvigatellarida yonilg’i purkash forsunkalari va ularni zamonaviy turlarini tahlil qilish” Andijon mashinasozlik instituti, 2015 y.

4. I.Ma’rupov, Q.A.Sharipov “Traktor va avtomobillar tuzilishi” Toshkent 2012 y.

UO‘T: 631.31

O‘G’ITLARNI EKIN MAYDONLARIGA TAQSIMLOVCHI O‘G’ITLASH MASHINALARINI RESPUBLIKAMIZ SHAROITIDA QO‘LLASH.

M.B.Bobirova “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Q.I.Ro‘ziqulov, O.A.G’aniyev “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti qruzikulov@mail.ru

Anatatsiya: Maqolada mineral o‘g’itlarni yerga kiritish uchun qanday xossalarga javob berishi kerakligi, o‘gitash usullari o‘g’itlashdagi agrotexnik talablar va yerga mineral o‘git kiritadigan qurilmaning ishlash jarayoni keltirib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: O‘g’it, ishqalanish burchagi, agrotexnik talab, miqdorlagich, ekinni oziqlantirish, to‘kiluvchanlik darajasi.

UDC: 631.31

FERTILIZER PROPERTIES AND THE BASIS OF THE FERTILIZER WORK PROCESS, DISTRIBUTING THEM TO THE SEEDS.

M.B.Bobirova Studetnt of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management

Scientific supervisor: Q.I.Ruzikulov, O.A.Ganiyev

Teachers of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management
qruzikulov@mail.ru

Annotation: The article describes the properties of fertilizers to be applied to the field, the methods of fertilization, agrotechnical requirements for fertilization and the operation of the fertilizer.

Key words: Fertilizer, friction angle, agrotechnical requirement, metering, crop feeding, spill rate.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan suv resurslaridan oqilona foydalanish, yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, sug‘oriladigan yerlarni ekin ekishga tayyorlash va qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3671-son qarorini. Ijrosini taminlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining tashkiliy tuzilmasi 5-ilovasining b) qismiga ko‘ra belgilangan «Paxta va texnik ekinlarni yetishtirishga doir agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishini ta’minlash, shuningdek, boshoqli, dukkakli va moyli ekinlar yetishtirishni rivojlantirish, suvdan foydalanish sohasida o‘zaro hamkorlikda ishlashini ta’minlash, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini oshirish, shuningdek, agrokimyoviy tadbirlarni amalga oshirish, Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishning ilg‘or agrotexnologiyalari, resurs hamda suvni tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun respublikada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

O‘simliklarning oziqlanishini yaxshilash uchun tuproqga o‘g'it solinadi. o‘g'itlar organik va mineral o‘g'itlarga bo‘linadi. Organik o‘g'itlar go‘ng, torf, torf-shaltoq va torf- fekaliy kompasti shaklida ishlatiladi. O‘g’itlar muxim xususiyatlariga ko‘ra 3 xil organik, mineral, bacterial turlarga bo‘linadi. Ekishdan keyingi o‘g’itlash o‘simliklarning vegetasiya davrida amalga oshiriladi va u kultivator oziqlantirgichlar yordamida tuproq tagiga beriladi.

O‘g’it berish mashinalariga qo‘yiladigan agrotexnika talablari quidagilarga bo‘linadi:

1. Mineral o‘g’it sochish bir tekis amalga oshirilishi kerak.

2. O‘g’it berish normasi belgilangan normadan 5 dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

3. Qotib qolgan mineral o‘g'itlarni maydalab elakdan o‘tkazish kerak.

4. O‘g'it sepilgandan keyin 12 soatgacha muddatda tuproqga ko‘milishi kerak.

5. O‘g’it sepish apparatlarining notekisligi 8% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

6. O‘g’itlar o‘simlikning o‘suv fazasiga mos ravishda agrotexnik muddatlarda berilishi kerak.

Tayyorlangan mineral o‘g'itni NRU-0,5, MVU-0,5, l-RMG-4, RUM-8, RUM-16 rusumli mashinalar yordamida dalaga sochiladi va tuproqga ishlov berish qurollari yordamida tuproqga aralashtirib ko‘miladi.

1-rasm. RUM-2200 rusumli o‘g’itlash mashinasi

Suyuq o‘g'itlarni dalaga chiqarish uchun ZJV-3,2, RJU-3,6, RJT-4, RJT-8, MJT-6, MJT-16 va MJT-23 rusumli mashinalardan foydalaniladi.

2-rasm. MJT-6 rusumli suyuq o‘g’itlash mashinasi

Bu mashinalardan gerbisidlarning ishchi eritmalari va zaharli ximikatlar, torf-gung va boshqa kompostlar tayyorlashda, suyuq

materiallarni tashishda, mashinalarni yuvishda va qishloq joylarda yong'inni oʻchirishda foydalanish mumkin.

Suyuq organik oʻg'itlarni, organik va mineral oʻg'itlarning namligi 92% dan yuqori boʻlgan aralashmasini tuproqga koʻmish uchun AVV-F-2,8 agregatni qoʻllash mumkin.

3-rasm. AVV-F-2,8 rusumli suyuq oʻgʼitlash mashinasi

Bu agregat MJT-10 mashinasi asosida yaratilgan boʻlib, orqa qismida oʻg'itni tuproqga koʻmib ketuvchi moslamasi borligi bilan farq qiladi.

Oʻgʼit sochish apparatlari katta koʻlamdagi organik va mineral oʻgʼitni me`yorlab, tuproqqa ishlov berishdan oldin yer yuzasiga yoppasiga sepish uchun ishlatiladi. Sepilgan oʻgʼit keyinchalik plug, kul tivator, diskli tirma kabi kurollar yordamida tuproqqa aralashtiriladi.

Oʻgʼitni yerga solish uchun tayyorlashda qopdagi qotib qolgan mineral oʻgʼit, agregat bunkeriga solinadi. Tebranib turadigan ta`minlagich , ularni bir-biriga teskari aylanayotgan barabanlar orasidagi tirqishga uzatadi.

Oʻgʼit seyalkalarining soddalashtirilgan sxemasi koʻrsatilgan. Bunday seyalka donalangan (granulalangan) hamda kukunlangan mineral oʻgʼitlarni gʼalla, sabzavot ekilgan va yaylov uchun ajratilgan yerlarga sepadi. Kerakli miqdorda oʻgʼit sochishni ta`minlash uchun oʻgʼit tarnovi yoki toʻkuvchi plankaning tebranish amplitudasi oʻzgartirilishi lozim. Bunday mashina oʻgʼitni 10...11 m kenglikdagi yerga sochib beradi.

Rotorli organik oʻgʼit sochish apparati gorizontal oʻq atrofida aylanadigan uzun rotor, baraban yoki biterlar koʻrinishida yasaladi. Ularning ustiga turli shakldagi parrak yoki kurakchalar oʻrnatiladi.

4-rasm. Rotorli o‘g’itlash mashinasi

Yuqoridagilardan tashqari respublikamizda bir qator yosh olimlar ushbu yo‘nalishda ishlar olib bormoqdalar. Jumladan Q.I.Ro‘ziqulov tomonidan FAP 0332 raqamli “Yerlarni ekishdan oldin mineral o‘g’it kiritish qurilmasi” ga talabnoma rasmiylashtrilgan bo‘lib, qurilma quidagicha tavsiflanadi. Yerga solinayotgan mineral o‘g’itning bir-biriga yopishib qolgan bo‘laklari 1...5 mm zarrachalarga aylantirib maydalangan bo‘lishi, namligi 15 % dan ortiq bo‘lmasligi kerak. Mashinalar mineral o‘g’itni 50.. 1000 kg/ga, rganic o‘g’itni esa 5…60 t/ga sepa oladigan bo‘lishi kerak. Mashina o‘g’itni tayinlangan chuqurlikka ko‘mishni (farqi ±15%) ta’minlashi kerak. Foydali elementlari parchalanmasligi uchun mineral o‘g’it sepilganidan so‘ng 12 soat, 222rganic o‘g’it esa 2 soat ichida tuproqqa ko‘milishi lozim**.**

5-rasm. Tavsiya etilayotgan Yerlarni ekishdan oldin mineral o‘g’it kiritish qurilmasi

Xulosa: Yerlarni ekishdan oldin biz tavsiya qilgan, qurilma yordamida mineral o‘g’it bir xil meyorida yerlarga ko‘ndalang hamda bo‘ylamasiga

20-25 sm chuqurlikda yerga kiritilsa, hosildorlikning sezililarli oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Prezidentining 2018 yil 17-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3671-son qarori. Xalq so‘zi. 2018 yil 19-aprel soni.

2. I.Hasanov, J.Qo‘chqorov, A.Jo‘rayev. Paxta yetishtirishning texnologik jarayonlarini mexanizatsiyalasho‘quv qo‘llanma Buxoro-2019.

3. Agroximiya, PG’r prof. B.A.Yagodina. M.,Agropromizdat, 1989.

4. Musayev B.S. «O‘g’it qo‘llash tizimi» Respublika o‘quv uslubiyot markazi. T. 1998.

5. Balashov N.N., Zemyan G.S. Ovohevodstvo. T., «Uzbekistan»,1981.

6. Organicheskie udobreniya v intensivnoy zemledelii. PG’r V.G.Mineeva.M., 1984.

7. H.CH.Bo‘riyev.,O.A.Ashurmetov. «Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi». T. Mehnat-2000

UO‘T: 631.31

G‘O’ZA PARVARISHIDA RESURSTEJAMKOR MAQBUL QATOR ORALIQLARINI ISHLAB CHIQISH.

Mavluda Eshmurodova Qodiralievna
Samarqand veterenariya meditsina instituti assistenti

Annotatsiya. G‘o‘za parvarishida yer resurslaridan samarali foydalanishda resurstejamkor maqbul qator oraliqlarini ishlab chiqish, g‘o‘za ildiz tizimining zararlanishi orqali unga tuproqdan o‘tuvchi bakterial va zamburug‘li kasalliklarni yuqishini oldini olishga imkon beruvchi qator oralig‘ini, tup son qalinligi va g‘o‘zani oziqlantirishni maqbul me’yorlari ustida ish olib borilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘z tuproq, resurstejamkor texnologiya, qo‘shqator, bateriyal, koeffitsient, zamburug‘

Annotation. The development of resource-saving technologies concerning inter-row cultivation of cotton.The Research work has been carried out on inter-row processing of the density of the state and nutrition

of cotton which ensures the limitation jf bacterial and fungal disease, infections that pass through the root system of cotton.

Key words: gray soil, resource-saving technologies, inter-row, bacterial, fungal

Respublikamiz paxtachilgining bugungi kundagi ustuvor masalasi paxta hosildorligini va tola chiqishi va sifatini oshirish, mahsulot tannarhini kamaytirish hamda moddiy texnik resurslarning tejamkor usullarini yaratishdir.

So‘ngi yillarda respublikamizda paxta ekiladigan ekin maydonlarining qisqarishi va axoli sonining ortib paxta dan olinadigan xomashyolarga bo‘lgan talabning ortishi mavjud ekin maydonlaridan yuqori xosil olish uchun qo‘shqatorlab chigit ekish usulining keng joriy etilishini taqozo etmoqda. G‘o‘zaning o‘sib-rivojlanishi, xosilining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari turli omillar ta’sirida o‘simlikda sodir bo‘ladigan biokimyoviy jarayonlarga natijasidir. Bular muayan g‘o‘za navi parvarish qilinayotgan tuproqning iqlim sharoiti, fizik kimyoviy xususiyati va unumdorligiga, namligiga, haroratiga, vegetatsiya davomida qo‘shimcha ozuqa moddalarni qo‘llash me’yoriga, shuningdek, kunning uzun va qisqaligiga bog‘liq jarayonlardir.

Ushbu jarayonlar yuqoridagi qator xususiyatlarini e’tiborga olgan xolda belgilanadigan va ilmiy jihatdan asoslangan, yuqori saviyadagi zamonaviy agrotexnologiyaga rioya qilgan xolda tegishli agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida qo‘llanilishiga bog‘liqdir.

Ushbu talablarni bajarish va sifatli paxta hosili etishtirish esa yuqorida ko‘rsatilgan talablarga javob bera oladigan yangi g‘o‘za navlarini yaratish va ularning agrotexnikasi ustida ilmiy tadqiqot ishlarini muntazam kuchaytirish hamda ularning natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etib borishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi: Yuqorida ko‘rsatilgan talablar olimlarimiz oldiga g‘o‘zaning o‘suv davrida qator oralariga ishlov berish, oziqlantirish tartiblari hamda tup son qalinligi kabi qator agrotadbirlarni o‘rganish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini qo‘ymoqa. Ayni damda ushbu tadbirlarga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini jadal rivojlantirish xozirgi kunning dolzarb talabidir.

Yaratilayotgan yangi g‘o‘za navlarining barchasi ham respublikamiz turli mintaqalari ekologik sharoitlariga mos kelavermasligi mumkin. Bu

esa o‘z novbatida navlarning shu mintaqaga mos agrotexnik tadbirlarini ishlab chiqish zarur ekanligin ko‘rsatadi.

Samarqand viloyati juda xilma xil tabiiy-geografik sharoitlari bilan ajralib turadi. Viloyatning tabiiy-geografik sharoitlarida turli tuproq tip va tipchalari tarqalgan [3. 9-13b].

Samarqand viloyatida asosan sizot suvlari chuqur qatlamlarda joylashgan o‘rtacha va engil qumoqli tipik bo‘z tuproqlar keng tarqalgan bo‘lib, ushbu tuproqlar viloyat umumiy maydonining 38% ni tashkil etadi. Qolgan qismi deyarli och tusli bo‘z tuproqlar hisoblanib, viloyatning g‘arbiy va janubi-g‘arbiy qismida uchraydi. Bundan tashqari o‘tloqi, o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi tuproqlar ham keng tarqalgan [4. 6-7].

Paxta etishtirishda kam mehnat va xarajat sarflab mo‘l hosil etishtirish muhim ahamiyatga ega. Ekilgan g‘o‘za navlarining chigitlarini erta unib chiqishini va nihollarning ildiz chirish, gommoz va vilt kasalliklariga chalinmasliklarini ta’minlovchi agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammosidir.

Tadqiqot natijalari: Samarqand viloyatining qadimdan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida yangi «Omad» g‘o‘za navini yakka qator va qo‘shqator usulida ekib parvarishlashda tup son qalinliklari va uni g‘o‘za hosildorligiga ta’siri bo‘yicha etarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmaganligini sabali , resurs tejovchi agrotexnologiyalarni e’tiborga olgan holda, gektariga 150-160; 170-180; 190-200; 210-220 ming tup son miqdorini yaratish maqsadida Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanining Usto Temir ATM ga qarashli xo‘jaligi dalalarida tajriba o‘tkazdik. Dala tajribalari tipik bo‘z tuproqlarida olib borildi. Tajribada g‘o‘zaning davlat reestriga kiritilgan Omad navi o‘rganildi. Barcha agrotexnologik jarayonlar xo‘jalikda qabul qilingan reja asosida bajarib borildi.

С.Н.Рыжов [1.53 – 60-b]malumotlariga ko‘ra, qadimdan dehhqonchilik bilan shug‘ullanib kelingan dehqonchilik xo‘jaliklarida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari tuproqning suv-fizik hossalarini o‘rganishdan boshlanishi muhimligini ta’kidlagan.

Shuni nazarda tutgan holda tadqiqot avvalida tajriba dalasining suv-fizik hususiyatlari, hususan mexanik tarkibi, agregat tarkibi, hajm massasi, g‘ovakligi, cheklangan dala nam sig‘imi va suv o‘tkazuvchanligi dastlabki ma’lumot sifatida hamda tajriba dalasi tuprog‘ining umumiy tavsifi sifatida aniqlandi.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan tajriba dalasi tuprog‘ining mexanik tarkibi o‘rtacha qumoq ekanligi aniqlandi. Tajriba dalasi tuprog‘ining agregat tarkibi tuproqning 0 – 100sm qatlamida aniqlandi.

Bizga ma’lumki, mineral zarrachalarning chirindi va boshqa birikmalar ta’sirida donador holatga o‘tish jarayonida agregatlar yoki strukturali tuproqlar hosil bo‘ladi. S.N.Rыjov [1.53-60-b] tuproqlarda 70-80 foizni tashkil etadigan mikroagregatlarning ahamiyatiga alohida baho berib, uglerod, azot va fosforning eng ko‘p miqdori aynan shu agregatlarda to‘planishi, shuning uchun sug‘orma dehqonchilikda bu agregatlarning ahamiyati katta ekanligini ta’kidlagan.

Umuman olganda, tajriba dalasi tuprog‘ida agronomik nuqtai-nazaridan maqbul hisoblangan 10 – 0,25 mm.li agregatlar miqdori 63 – 71 foizni tashkil etadi.

Ushbu tadqiqotlarda aniqlanishicha, tuproq hajm massasi xaydov qatlamida 1,2 – 1,3 g/sm^3 ni tashkil etib, g‘o‘zaning maqbul o‘sib-rivojlanishi uchun qulay tuproq sharoitini vujudga keltirgan. Xuddi shunday tuproq sharoitida g‘o‘za ildizi yaxshi rivojlangan. Tuproq aeoratsiyasi mo‘tadillashib, havo rejimi yaxshilangan, tuproqning mikrobiologik va nitrifikatsiya jarayonlari faollashgan. Shu sababli mazkur tadqiqotda ekish usullarini tuproqning agrofizik hususiyatlariga ta’siri o‘rganildi. Tajriba yillarida chigit ekish usullarining tuproq hajm massasiga turlicha ta’siri natijasida o‘simliklar tegishli ravishda o‘ziga xos o‘sib, rivojlandi. Chunki, pushtalarga qo‘shqatorlab chigit ekish usuli tuproqning hajm massasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan sug‘orish miqdori va soniga, texnikada ishlov berishlar soni va muddatlariga ta’sir etdi.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, tajriba dalasi tuprog‘ining hajm massasi chigit ekishdan, to g‘o‘zaning amal davri ohirigacha ortib bordi. Bu qonuniy holat, albatta. Chunki, g‘o‘zaning amal davri mobaynida o‘tkazilgan sug‘orishlar, dalaga texnikaning bir necha bor kiritilishi bu ko‘rsatkichga ta’sir etmay qolmaydi.

Xususan, 2019 yil tajriba natijalariga qaraganda, nazorat sifatida qabul qilingan, tekis erga ekish usulida chigit ekilgan 1-variantda amal davrining boshida tuproqning 0-30 va 0-50 sm qatlamlarida hajm massasi 1,28 va 1,30 g/sm^3 ni tashkil etdi. Amal davri ohirida (sentyabr) esa 1,42-1.43 g/sm^3 gacha qayd etilib, o‘rtacha 3-yilda amal davrining ohirida 1,40 g/sm^3 gacha zichlashgan. Qo‘sh qator ekilgan variantlarning 0-30 va 0-50 sm. li tuproq qatlamlarida bu raqam o‘rtacha 3 yilda tegishli ravishda amal davrining

boshida 1,27 g/sm^3 va 1,29 g/sm^3 tashkil etgani holda, amal davrining ohirida yakka qatorlarda 1,40 g/sm^3 gacha zichlashib borgan bo‘lsa, qo‘sh qatorlarda esa 1,36 g/sm^3 gacha zichlashganligi aniqlandi.

Tajriba dalasida chigit ekish usulini tuprqning hajm massasiga tasiri tuproqning xar 10 sm qatlamida o‘rganilib chiqildi.

Tuproq g’ovakligiga chigit ekish usullarini tasiri % . 2020 y

Tuproq qatlami chuqurligi, sm	Amal davri boshida	Amal davri ohirida		
		Yakka qator	Qo’shqator	Tekis er
0-10	52.6	49.2	50.6	48.1
10-20	52.5	48.3	50.2	48.2
20-30	52.7	48.2	49.6	47.6
30-40	50.8	47.7	49.1	47.8
40-50	50.5	47.1	49.3	47.1
50-60	49.8	47.2	47.4	46.6
60-70	48.3	46.4	48.2	46.1
70-80	47.2	46.6	46.1	44.7
80-90	46.6	47.1	45.1	45.4
90-100	45.5	44.0	49.5	44.5
0-50	50.5	48.1	49.7	47.6
0-70	50.3	47.8	49.5	47.4
0-100	49.1	47.2	48.4	46.3

Tajribalardan ko’rinib turibdiki chigitlar yakka qator ekilgan variantlarda tuproqning zichlashishi tekis erga nisbatan 0,03 g/sm^3 ga kamayganligi kuzatildi. Qo‘sh qatorlab ekilganda bu ko‘rsatkich boshqa variantlarga nisbatan 0,05- 0,07 g/sm^3 gacha kamayganligi bu variantlarda tuproq g‘ovakligining ham yaxshilanishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun bu variantlarda tuproqning havo va issiqlik hossalari hamda suv o‘tkazuvchanlik hususiyatlarining oshishi natijasida g‘o‘zaning o‘sish va rivojlanishi uchun qulay tuproq muhiti vujudga kelgan deb xisobladik. Natijada, tajriba yillarida tuproq hajm massasi va g‘ovakligi chigit pushtaga yakka qator ekish usuliga nisbatan qo‘sh qator ekish usulida nisbatan maqbul sharoit vujudga kelganligi aniqlandi.

G‘o‘za parvarishida resurstejamkor maqbul qator oraliqlarini ishlab chiqish,chigitni qo’shqatorlab ekish natijasida ekin maydonlariga texnika

yordamida ishlov brining kamayishi g‘o‘za ildiz tizimining zararlanishi orqali unga tuproqdan o‘tuvchi bakterial va zamburug‘li kasalliklarni yuqishini oldini olishga imkon beradi. Olingan ma’lumotlarga qaraganda, tuproqning g‘ovakligi bahordan kuzga tomon kamayib borishi kuzatildi. Jumladan, chigitlar tekis erga ekilgan variantlarda tuproqning 0-30 sm qatlamining amal davri boshidagi g‘ovakligi o‘rtacha uch yilda 52,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, amal davri ohirida 48,6 foizgacha kamayishi kuzatildi. Chunki, erni ekishga tayyorlash, ekish va g‘o‘zani parvarishlash tadbirlari tuproq qatlamlarini sezilarli darajada zichlashtirdi. Bunday ekish usullarining o‘zgaruvchanlik holati barcha tadqiqot yillarida ham kuzatildi.

Xulosa. Tajribada ko‘rsatib o‘tilgan chigitlar yakka qator va qo‘sh qator ekilgan variantlarning qator oralariga ishlov berishdagi farqlarga ko‘ra, tuproqning g‘ovaklik hususiyatida ham tegishli farqlar kuzatildi. Chigitlar qo‘sh qator ekilgan variantlarda tuproqning g‘ovaklik xususiyatlari 50,4% ni tashkil etib, butun amal davri davomida uning fizik holatlari yaxshi saqlandi. Har ikkala variantga nisbatan uning g‘ovakligi xususiyatlari 1,5-1,6% ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Demak, chigitlarni qo‘shqator ekish usuli yakka qator ekish usuliga nisbatan g‘o‘zaning o‘sish va rivojlanishi uchun qulay tuproq sharoitini yaratishi aniqlandi. Shuning uchun, erdan samarali, maqbul agrofizik hususiytlarini saqlagan holda yuqori paxta hosili etishtirishda g‘o‘zani qo‘shqatorlab eng samarali usul ekanligi aniqlandi.

G‘o‘za parvarishida resurstejamkor maqbul qator oraliqlarini ishlab chiqish, g‘o‘za ildiz tizimining zararlanishi orqali unga tuproqdan o‘tuvchi bakterial va zamburug‘li kasalliklarni yuqishini oldini olishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Рыжов С,Н. И другие Агрономические значеные структуры и сложения почвы . [Теорические вопросы обработкы почвы. Л. 1968. Стр. 53-60.] 2.Ибрагимов Г.А. [Определеные густоты стояния хлопчатника. Агротехника хлопсатныка и культур хлопкового комплекса .Труды СоюзНИХИ, вып. 39,Ташкент-1978 г стр 64-67.]

3.Uzoqov P.U., Ortiqov T.Q. Zarafshon vohasi har xil o‘zlashtirilganlik va unumdorlik darajasiga ega bo‘lgan gidromorf tuproqlarida g‘o‘za o‘stirishda o‘g‘itlarning samaradorligi .Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishdagi muammolar va ularning echimlari. Professor-

o‘qituvchilarning XVI ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. II-qism. 2008 yil 30 aprel – 2 may. –Samarqand, 2008. –B. 9-13.

4.Qo‘ziev R. Tuproq unumdorligini tiklash omillari yoki kuzgi-qishki mavsumdagi zarur tadbirlar xususida . O’zbekiston qishloq xo’jaligi. 2015. -№ 11. –B. 6-7

UO‘T:631.372(075)

TRAKTOR VA AVTOMOBIL DVIGATELLARINING SOVUTISH TIZIMI RADIATORINING TRUBKALARINI TOZALASH USULLARI

Shodiyev Sadir Ne’matovich, Savriddinov Abror Anvar o‘g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchilari
abror7481@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada avtotraktorlarning sovutish tizimida qo‘llaniladigan sovutuvchi suyuqliklar, ularning tarkibi, hosil bo‘uvchi maxsulotlarni va maxsulotlarni sovutish tizimiga, xususan radiator trubkalariga ta’siri, ularning oldini olish va radiator trubkalarining tozalash usullari to‘g’risidagi fikirlar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar. Radirator, trubka, suyuqlik, korrozion-nakip, shompulash, qattilik, vanna, porshenli nasos, harorat, avtotraktor.

UDC:631.372(075)

TRACTOR AND VEHICLE ENGINE COOLING SYSTEM RADIATOR PIPE CLEANING METHODS

Shodiyev Sadir Ne’matovich, Savriddinov Abror Anvar o‘g’li
Teacher of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management
abror7481@mail.ru

Annotation. The article describes the coolants used in the cooling system of motor tractors, their composition, the products and the impact on the cooling system, in particular, the radiator pipes, their prevention and methods of cleaning the radiator pipes.

Keywords. Radiator, pipe, fluid, corrosion-resistant, pumping, hardening, bath, piston pump, temperature, autotractor.

Bizga ma’lumki O‘rta Osiyo sharoitida yani Turon past tekisliklari sharoitida xalq xo‘jaligida ishlatiladigan avtotraktor o‘ziga xos xususyatdagi ishlatish sharoitiga ega. Bularga: havo haroratining o‘ta issiqligi , yog’ingarchilikning kamligi , ishlatiladigan suvlarning qattiqligi , yer osti suvlarning balandligi va h.k lar kiradi. Boshqacha qilib aytganda Turon past tekisligida sharoitida ishlovchi avtotraktorlar arid iqlim sharoitida ishlaydilar.

Qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan avtotaktorlarning sovutish tizimiga turli xildagi sovutuvchi suyuqliklar qo‘llaniladi Sovtish suyuqligi sifatida asosan suv ishlatiladi, chunki issiqlikni o‘zigz tez oladi va o‘zidan tez tarqtadi, arzon va yetarli miqdorda. Biroq suvning tarkibida turli xildagi tuzlar mavjud bo‘lib, suvlar sovutish tizimida qaynaganda uning tarkibidagi tuzlar qizigan devorlarga cho‘kib quyunqa (nakip) hosil qiladi. Buning natijasida cho‘kindilar blokning issiqlik o‘tkazish qobilyati pasayadi, suv g’iloflarining devorlari zanglaydi. Qish faslida yani harorat noldan past bo‘lganda tizimdan to‘kilgan suvlar muzlab, silindirlar blokini yorib yuborishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda juda ko‘p, aksaryat harorat noldan past bo‘lgan iqlim sharoitlarida antifriz, spirt va boshqa sovutuvchi suyuqliklardan foydalaniladi.

Antifrizni ikki xil turi ishlab chiqariladi: tarkibida 47% suv va 53% etilenikol bo‘lgan antifriz M-65 (muzlash harorati -40^{o}C gacha). Tarkibida 34% suv va 66% etilenikoldan tashkil topgan antifriz M-65 (muzlash harorati -65^{o}Cgacha). Antifriz odam organizimi uchun zaxarli hisoblanadi. Uning suvga nisbatan issiqlik sig’imi kichik. Shu sababli u sovutish tizimiga qo‘llanilganda, suv builan sovutilganganga nisbatan issiqlik tarqalish qobilyati past bo‘ladi, natijada esa silindirning devorlaridagi harorat 15…20^{o}Cga yuqori bo‘ladi.

Sovutvchi suyuqlik sifatida qo‘llaniladigan suv qatttiqligi bo‘yicha quytdagilarga bo‘linadi yumshoq suv (0-5m.gr.ekv/l), o‘rtacha qattiqlikdagi suv (5-8mgr.ekv/l), qattiq suv(8-12mgr.ekv/l). Turon past tekisligida ishlatiladigan avtotraktor dvigatellarini sovutish tizimida aksaryat hollarda qattiq va o‘ta qattiq suvlardan foydalaniladi. Bunday suvlardan foydalanilganda dvigatelning sovutish tizimini qizigan detallarning yuzasiga quyka (nakip) cho‘kadi. Nakipning tarkibi tahlil qilinganda kalsiy, magniy, temir moddalarini eng ko‘p ekanligi aniqlangan. Temir moddasini miqdori ayrim hollarda 93%gacha yetadi.

Bundan ko‘rinadiki nafaqat quyka (nakip) balki u korrozionli-nakip hisoblanadi. Demak suvni tarkibida tuzlar sovutish tizmining detallari yani silindr blokini korroziylanib yeyilishiga ham olib keladi.

Korrozyali-nakip silindirlar blokida harorat o‘zgarib turadi yani harorat yuqori bo‘lishi yoki pasayishi mumkin. Ushbu haroratning o‘zgarishi hisobidan silindirlar blokidagi koorrozionli-nakip yoriladi va joyida qoparilib ajraladi, natijada esa suyuqlikning sirkulatsiyalanishida suyuqlik bilan birga radiatorni trubkalariga kelib tushadi. Qoparilib tushgan korrozionli –nakipning bo‘laklarini o‘lchamlari har xil bo‘lishi mumkin. Shu sababli ayrim bo‘laklar radiator trubkasidan suyuqlik bilan oqib o‘tishi mumkin, o‘lchamlari kattalari esa radiator trubkasiga tiqilib qoladi, oqibatda radiator trubkasi bitib suyuqlikning o‘tish yo‘lini berkitadi va oxir oqibatda radiatordagi sovutish yuzasini qisqarishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida dvigatelning issiqlik rejimini buzulishiga sabab bo‘ladi. Buning oldini olish uchun radiator trubkalarini tozalash kerak bo‘ladi.

Radiator trubkalarini tozalashning bir necha xil usullari mavjud, bularga: kimyoviy moddalarni qo‘shib qaynatishusuli, shompulash usuli va boshqalar. Bu usullarning yutuq va kamchiliklari mavjud. Kimyoviy usulda tozalashda, kimyoviy moddalar odam organizimi uchun ham sovutish tizimi detallari uchun ham zararli ta’sirga ega. Shompulash usulida, trubkalarga kirib qolgan korrozion-nakip qattiq bo‘lganligi sababli trubkaga tiralib qolib chiqishi qiyinlashadi, natijada shompulni qattiqroq itarganda trubkalarni yorib-teshib shikastlantiradi. Bu esa trubkalarni ikkala uchini berkitib, sovutish yuzasini kamayishiga olib keladi.

Yuqoridagi kamchiliklarni inobatga olgan holda bizlar quydagi tozalash usulini taklif etamiz. Bu usul quydagilardan iborat. Avtotraktorlarning sovutish tizimi radiatorini kostruksiyalaridan bog’liq holda, har bir kontiruksiya uchun alohida yuvish qurulmasi tayyorladik.

Bu qurulmaga quydagilar kiradi:



1-rasm.Radiator trubkalarini tozalochi qrulma

1-Elektro dvigatel, 2-Porshenli nasos, 3-Suv o'tkazish quvurlari, 4-Tozalash qurulmasi, 5-Vanna,
6-Radiator

Ushbu qurulma qo'llanilganda radiatorning trubkalarini umuman shikastlamaydi. Chunki porshenli nasos yordamida suvning bosimi 10-12Mpa. gacha ko'tariladi. Bu suv tozalash qurulmasini forsunkalaridan radiatorni trubkalariga yuborilganda uning ichidagi korrozion-nakip maxsulotini parchalab mayda-mayda bo'laklab, trubkadan suv bilan birga vannaga chiqarib tashlaydi va radiator trubkasini shikastlantirmasdan tozalashga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Бурков В.В. Индейские А.И Автотракторные радиаторы-Л; Машиностроения, 1978, 216с

2. Великанов Д.П. Автомобильные транспортные средства-М; Транспорт, 1977-326с.

3. Великанов Д.П. Эффективность автомобильных транспортных средств и транспортной энергетики-М; Наука , 1989-199с.

4. Великанов Д.П. Соответствие конструкций автомобилей климатическим условиям-Автомобилный транспорт, 1955. N 1.25-28с

5. Великанов Д.П. Эксплуатационные качества автомобиля-М ; автотрансиздат 1962-399с

6. Давыдов А, Давыдова Р, Мягкая вода для охлаждения тракторов-машно-тракторная станция, 1954, №7-1с

7. Егорушкин В.Е. Влиняние различной толшины накипи в системе охлождения на мащность автотракторных двигателей и подбор присадок охлаждающей воде с цельо предотвращения отложения накипе. Автореф. Канд. Дисс. М:1955-21с.

8. Ждановский Н.С., Николаенко А.В. Надежность и доляовечность автотракторных дивигвтелей.-Л:, Колос. 1981,295с,

9. Кузнецов Е.С. Исследование эксплуататционной надежности автомобилей.-М; Транспорт, 1969,-153с

10.Крамаренко Г.В. Техническая эксплуатация автомобилей.-М; Транспорт, 1972,- 439с

11. Кадыров С.М. Долговечность автотракторных дизелей в условиях средней Азии. –Ташкент,; Узбекистан,1982,- 262с

12. Крушель Г.В. Образование и предотвращение отложений в системе водянного охлаждения .-М-Л; Госжергоиздат. 1955-224с

13. Ерохов В.И. Экономичная эксплуатация автомобиля.-М; Uз-во ДОСААФ. 1986-128с

14. Авлиякулов Н.Х., Шадыев С.Н. Влияние теплового состояния двигателя на производительность тракторов. Ташкент; Механизация хложоводства 1989. 21-22с

15. Литвинов Я.М. Предотвращение и удаление накипи в двигателях и котлах кормозапррников . Минск. Госиздпт БССР.1960

UO‘T: 631

ZAMONAVIY SKREPERLARNI QO‘LLASH BO‘YICHA OLIB BORILGAN TAHLILI

Murodov Tohir Faxriddin o‘g‘li, Islamova Maftuna Hikmatullayeva, Ro’ziqulova Dilnoza O’ktamovna

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Ilmiy rahbar: Imomov Shavkat Jahonovich

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori t.f.d, professor

email: tohirmurodov6400@mail.com

Annotatsiya: Maqolada asosan xorijda va mamlakatimizda qo‘laniladigan zamonaviy skreperlar foydalanib ya’ni skreperlar orqali tuproqlarni surishda, kotlovan va transheyalarda gruntni kesib olib, uni to‘kmalar yoki ag’darish joylariga surib keltirishda, kanallar,to‘g’on va dambalarga grunt yotqizilada, foydali qazilmalar qazib olishda va yerlarning baland joylardagi tuproqni kesib olib past joylarga to‘kish va yoyib tekislash ishlarida zamonaviy skreperlardan foydalanishning ahamiyati to‘g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Skreper, kovsh, K-tec, Cat, Ilgi, Fontana, lizing, uchastkalar, traktor, model, tirkama kovsh, dvigatel quvvati.

UDC: 631

ANALYSIS OF MODERN SCRAPPERS USED IN OUR COUNTRY AND ABROAD

Murodov Tohir Fakhriddin uglu, Islamova Maftuna Hikmatullayeva,

Ruzikulova Dilnoza Uktamovna
"TIIAME" NRU Bukhara Institute of Natural Resources
Scientific supervisor: Imamov Shavkat Jahonovich
Rector of "TIIAME" NRU Bukhara Institute of Natural Resources
email: tohirmurodov6400@mail.com

Annotation: Modern scrapers, mainly used in foreign and domestic conditions, are stable when pushing soil through scrapers, cutting soil in trench trenches and pushing it into dumps or landslides or dumping lands, bringing soil, d. Information on the importance of rising from modern scrapers in the laying of the body, in the extraction of minerals and in the work of cutting and leveling the soil in the highlands.

Keywords: Scraper, bucket, K-tec, Cat, Ilgi, Fontana, leasing, plots, tractor, model, trailer bucket, engine power.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Qishloq xo'jaligining texnik jihozlanish darajasini yanada oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3459-sonli qarorining ijrosini ta'minlash borasida respublikamiz qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, fermer xo'jaliklarining ekinlardan oladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish uchun zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadigan zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash, mavjudlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy va innovatsion ishlar olib borilmoqda [1].

Skreper davriy ravishda ishlovchi yer qazish-tashish mashinasi bo'lib, gruntni qazish (I, II guruh gruntlarni o'z kuchi bilan, III, IV gu-ruh gruntlarni esa qo'shimcha traktorlar yordamida) tashish va ularni qatlam-qatlam qilib yoyishda ishlatiladi. Skreperlar kotlovan va transheyalarda gruntni kesib olib, uni to'kmalar yoki ag'darish joylariga surib keltirish uchun keng ko'lamda ishlatiladi. Skreperlar yordamida kanallar quriladi, to'g'on va dambalarga grunt yotqiziladi, foydali qazilmalar qazib olish ochish ishlari bajariladi.

Skreperlar ish vaqtida harakatlanishi bo'yicha ham ma'lim bir turlarga bo'linadi, ular ishlov beradigan maydoniga qarab tanlanadi.

Skreper odatda xalqa sxemasida va qayiqcha usuli bilan ish olib boradi, bunda burilishlarga kam vaqt ketkazish uchun iloji boricha katta uchastka tanlanadi. Burilishlarga vaqtni qisqartirish uchun ular to'rtinchi uzatishda aylana bo'ylab, ikkinchi uzatishda uchburchak bo'ylab

xarakatlanganda zichlashtirilgan sharoitlarda, ag'darilgan joydan yurishni oldini olish uchun ikkinchi uzatishda qayiqcha usuli tekislash uchun yurishlar sonini ortirish talab etiladigan joylardagi ag'darish joylarida qo'llaniladi.



1-rasm. Skreperlarining bir zagonli, har xil burilish usullari qo'llanilgan mokisimon sxemasi:
a) sirtmoqsimon noksimon; b) orqaga yurish bilan noksimon almashinuvi; v) sirtmoqsimon noksimon sxemalar burilib olish yo'laklarini oxirgidan oldingi o'tish; 2-oxirgi o'tish.

Uzun asosli rejalashtiruvchi ishining texnologiyasi. Uzun asosli rejalashtiruvchi sug'orishga tayyorlanadigan sug'oriladigan erlarni rejalashtirishni bajaradi. Ular 300…350 m3 /ga xajmidagi er ishlarida qo'llaniladi. Ekspluatatsion va joriy rejalashtirishdagi katta xajmli er ishlarida skreper va buldozerlar yordamida oldindan rejalashtirish amalga oshiriladi. Cho'michli rejalashtiruvchining asosiy o'ziga xosligi uzun ishchi asosidir (12…15 metrgacha), buni evaziga ular dala relefini o'zida aks ettirmaydi, gruntni baland joylarini kesib, uni past uchastkalarga bir tekis qavat bilan to'kadi.

Skreper yuqori samarali va murakkab mashinadir. Ular faqat yuqori malakali mutaxassislarga ega yaxshi jihozlangan kompaniyalar tomonidan ishlab chiqariladi. Skreper markalari boshqa qurilish mashinalari kabi turli xil emas. Ko'pincha bu Caterpillar, John Deere, K-Tec. modellar va texnik xususiyatlar diapazoni juda keng va hozirda xorij mamlaktlarida buday

skreperlar yetakchi hisoblanadai.Masalan K-Tec 1263 ADT dunyodagi eng katta kuchli skreperlardan biri hisoblanadi.U 40 tonnalik, 450 ot kuchiga ega toshish yuk mashinasi quvvat bloki bilan tortilishi bilan birga surish uchun mo‘ljallangan. 1263 ADT xorijga jo‘natish va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligini ta’minlaydigan murvatli dizaynga ega.K-Tec skreperlari yuqori quvvatli, minimal texnik xizmat ko‘rsatadigan, yengil va bardoshli mashina bo‘lib hisoblanadi. K-Tec skreperlari I-II toifali guruntlarda juda yaxshi. Faqat 4 ta shinaga ega bo‘lgan an’anaviy motorli skreperlari bilan taqqoslaganda, K-Tec ADT kombinatsiyasi mashina bo‘ylab teng ravishda joylashtirilgan 10 ta shinaga ega bo‘lib, oyoq ostida maksimal flotatsiyani ta’minlaydi.Ushbu skreper uzoq masofaga mo‘ljallangan yirik tuproq qazish mashinasi. Ultra yuqori sig’imli 1263ADT skreper konstruktsiyasi oddiy texnik xizmat ko‘rsatish va xalqaro konteynerlarni arzon tashish imkonini beradi. Skreperning orqa tomonidagi standart rolikli surish bloki 63 kub metr / 48,1 kubometr sig’imli turlari mavjud.

2-rasm K-Tec 1263 ADT skreperining ish jarayoni.

Cho‘mich sig’imi bo‘yicha, skreper cho‘michi kichik bo‘lishi mumkin - 5 m^3 gacha, o‘rta - 5 dan 15 m^3 gacha, katta - 15 m^3 dan ortiq.Yuklash usuli bilan an’anaviy dizayn birliklarida tuproq yangi bosim ostida cho‘michi kiradi, pichoq bilan, ya’ni tortishish bilan kesiladi. Ammo yuk ortishi bilan qarshilik kuchayadi, tuproq yetarlicha yuqori ko‘tarila olmaydi. Muammo liftli konveyerni o‘rnatish orqali hal qilindi. U pichoq bilan kesilgan materialni ko‘taradi va cho‘michga quyiladi.

3-rasm Cat 637K skreperining ko‘rinishi.

American Caterpillar 657K , bir oz pastroq tashish hajmiga ega . Uning dvigatel quvvati 447 kvt, to‘liq yuklanganda maksimal tezlik 55,5 km/soat.Skreperning asosiy afzalligi shundaki, u bir vaqtning o‘zida bir nechta qurilmalarni almashtiradi. Boshqa mashinalarda bunday foydali funktsiyalar kombinatsiyasi yo‘q. Skreper tuproqni oldindan belgilangan qatlamlarga to‘kib tashlaydi. Harakat tezligi tufayli ba’zi modellar tuproqni 5 yoki hatto 8 km ga tashish uchun samarali.Hozirgi vaqtda Caterpillar o‘ziyurar qirg’ichlarning eng keng turini ishlab chiqaradi. Uning o‘lchamlari diapazoni 8,4 dan 33,6 m^3 gacha bo‘lgan cho‘mich sig’imi ("to‘plangan") bo‘lgan 13 ta modelni o‘z ichiga olad.

Mamlakatimizada skreperlar chet mamlakatlardan olib kelinadi.O‘zimizda bunday yer qazish tashish mashinalarini ishlab chiqarish zavodlari mavjud emas.Bugungi kunda mamlaktimizda meliorativ ishlarni olib borish sezilarli rivojlanmoqda. Hozirda viloyatlarda meliorativ holatini yaxshilash va meliorativ texnikalarga xizmat ko‘rsatish tashkilotlari hisobida texnikalar soni va sifati ancha yaxshilanib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi kunda lizing orqali kirib kelayotgan zamonaviy meliorativ va qurilish texnikalarni ishlarni samarali tashkil etilishiga sabab bo‘lmoqda.Misol tariqasida ILGI 6C7 skreperini oladigan bo‘lsak tiraktorga tirkama o‘rnatilib yer tekislash va qazish ishlari olib borilmoqda

4-rasm ILGI 6C7 yarim tirkama skreperining ko‘rinishi.

Italiyaning Fontana kompaniyasining SCR 260S, tirkamali qirg’ichlari tuproqni nisbatan qisqa masofalarga qatlam qatlam qirqib ko‘chirish uchun mo‘ljallangan.

5-rasm Fontana yarim tirkama skreperining ko‘rinishi.

Mashinaning o‘lchamlari va uning imkoniyatlari asfaltlanmagan o‘rmon yo‘llarini ta’mirlash va saqlash uchun juda mos keladi, bu sizga jalb qilingan asbob-uskunalar va xodimlar sonini kamaytirish orqali ushbu ishlarning narxini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi (bir kishi va bitta mashina barcha ishlarni bajaradi). . Faqatgina ushbu mashina barcha asosiy operatsiyalarni bajarishga qodir va ekskavator yoki old yuk ko‘targichni (yo‘llarni to‘ldirish uchun tuproqni yuklash), samosvalni (tuproqni kerakli joyga tashish), buldozerni (tuproqni tushirish joyidagi tuproqni tekislash) almashtiradi.

Bu skreper yo‘llarning alohida bo‘limlarini to‘ldirish uchun qum chuqur ochish zarurligini bartaraf qilishda juda muhim ahamiyatga ega. Uning yordami bilan tuproqning bir qismini tuproq yo‘llarining baland uchastkalaridan kesib tashlash va uni pastki (o‘tish qiyin) qismlarga o‘tkazish mumkin. Kesilgan tuproqning qalinligi atigi 5-10 sm.Shu bilan birga, skreperning tanasini to‘ldirish uchun 20 metrni haydash kifoya. Ko‘pgina hollarda, yo‘lning bir qismini ta’mirlash uchun tuproqni bir necha yuz metrga siljitish kifoya.

Mashinani ishlatish nafaqat oson (traktor haydovchisi uni bir necha soat ichida o‘zlashtiradi), balki ishlashda ham juda ishonchli (uni buzish uchun deyarli hech narsa yo‘q, skreperning xizmat qilish muddati juda uzoq va amalda mavjud. operatsion xarajatlar yo‘q).

Bu xususiyatlarning barchasi ishni samarali, juda samarali va arzon narxlarda bajarishga imkon beradi.

Ayni paytda skreper Belarusiyada joylashgan, bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tgan, MTZ traktori bilan agregatda foydalanishga moslashtirilgan va ishlashga to‘liq tayyor holda qo‘lanilmoqda, lazerli turlari ham keng tarqalgan va hozirda bizda keng qo‘llaniladi.

Qishloq va suv xo‘jaligida qo‘llaniladigan mavjud skreperlar. Qo‘zg’aluvchan cho‘michlarning ishlash xususiyatlari.Ushbu turdagi maxsus jihozlarning zamonaviy modellari 5-7 m gacha chuqurlik va

xandaklarni tashkil qilishda eng samarali hisoblanadi.Ushbu keltirilgan skreperlardan foydalanib ish unumdorligini va ish sifatini, iqtisodiy jihatlarini yaxshilashga erishiladi.Chunki eski skreperlardan foyadalanilganda ish sifati yomonlashishi iqtisodiy jihatlarini ortib ketishiga olib keladi.Shu maqsadda zamonaviy skreperlardan yer qazish tashish ishlarida foydalanish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Qishloq xo‘jaligining texnik jihozlanish darajasini yanada oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-3459-sonli qarori. 2018 yil 4 yanvar.

2. T.U.Uusmonov, N.K.Usmanov.“Qurilish mashinalari” o‘quv qo‘llanma Toshkent 2011.-111 bet.

3. N.Raximov., R.Muradov “Lazerli yer tekislash va tuproqni chuqur yumshatish ishlari bo‘yicha” qo‘llanma Toshkent 2012 y.

4. Вопросы технологии механизированного сельскохазяйственного производства, Минск-1963,68-69ст

UO‘T: 662.62

MUZLAGAN GRUNTLARNI QAZISH JARAYONIDA EKSKAVATOR CHO‘MICHIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Halimov Tilavjon Azamat o‘g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magstri
Qurbonboyev Sindorbek Sarvarbek o‘g’li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Jo‘rayev Akram Azamat o‘g’li, t.f.f.d., dots.
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
e-mail: halimovtilav@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bir cho‘michli ekskavatorlar yordamida qattiq va muzlagan gruntlarni qirqish va qazish texnologik jarayonini bir ishchi jihoz yordamida bajarish hamda ish unumini oshirish bo‘yicha ekskavatorlar uchun takomillashgan energiyatejamkor ish jihozining konstruktsiyasini yaratish bo‘yicha dastlabki izlanishlar natijalari keltirilgan.

Kalit so`zlar: Sharnir, diskli pichoq, richag, yumshatuvchi tish, o‘q, grunt, cho‘mich, sirt, tish, gidrosilindr.

UDC: 662.62

IMPROVING THE EFFICIENCY OF USING AN EXCAVATOR BUCKET DURING THE EXCAVATION OF FROZEN SOILS.

Halimov Tilavjon Azamat ugli
"TIIAME" NRU Master of the Bukhara Institute of Natural Resources
Qurbonboyev Sindorbek Sarvarbek ugli
"TIIAME" NRU Students of the Bukhara Institute of Natural Resources
Ilmiy rahbar: Jo'rayev Akram Azamat ugli, (PhD).
"TIIAME" NRU Bukhara Institute of Natural Resources Management
e-mail: halimovtilav@gmail.com

Annotation. This article presents the results of preliminary research on the technological process of cutting and digging hard and frozen soils with the help of single-bucke excavators using a single work piece and the creation of an improved energy-saving work equipment for excavators to increase productivity.

Key words: Hinge, disc blade, handle, softening tooth, arrow, ground, bucket, surface, tooth, hydraulic cylinder.

Bugungi kunda Respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning provard maqsadi qishloq xo'jalik ishlarini kam xarajat, tezkor va sifatli bajarib, yuqori hosildorlikka erishishdan iboratdir. Bu bilan birgalikda energiya va resurtajamkor texnologiyalarni yaratish bu kunning dolzarb masalasi sifatida bo'lib kelyabdi.

Ma'lumki, aholining iste'molga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan mahsulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun esa ko'p mehnat talab qilingan. Asosiy muammo sifatida aholi o'z ekin yerlarini sug'orish uchun suvning mavjud bo'lmaganligi yoki uzoq masofalardan suv yo'li (kanallar)ni tortib

kelish bo‘lgan. Bu muammolorni bartaraf etish uchun yerlarni qazuvchi maxsus mashinalar yaratila boshlagan.

Bugungi kunda kelib gruntni qazish ishlarini amalga oshirishda qurilish va melioratsiya mashinasi hisoblangan bir cho‘michli ekskavatorlardan foydalanib kelinmoqda. Bir cho‘michli ekskavatorning ish jihozini konstruksiyasi bo‘yicha: teskari cho‘michli, to‘g’ri cho‘michli, draglayn hamda greyfr turlari mavjud bo‘lib, ular yordamida gruntni qazish va yuklash ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda yer qazish mashinalari yordamida bajariladigan ishlarga talabning tobora ortib boryotganligi, ish samaradorligi va sifatini oshirishni taqozo qiladi. Mavjud yer qazish mashinasi hisoblangan bir cho‘michli ekskavatorlar yordamida olib borilayotgan ishlar asosan I-II grunt toifalarida o‘z ishini talab darajasida olib boradi. Shu sababdan bugungi kunda qattiq, o‘ta qattiq va muzlagan gruntli yerlarda ishlov berish uchun mavjud bir cho‘michli ekskavatorlarni cho‘mich tishlarining samarasi past ekanligini kuzatilmoqda. Chunki qattiq, o‘ta qattiq va muzlagan gruntni yumshatish uchun grunt turi va zichligiga qarab, katta kuch talab qilinadi (har bir sm^2 uchun 60…120 kg kuch). Ekskavator, buldozer, skreper va boshqa grunt qazuvchi mashinalar bunday kuchga ega emas. Shuning uchun mashinalarni ishlatishdan oldin, gruntni maxsus mashina yoki uskunalar yordamida yumshatish zarur. [1,2,3]

Qish faslida qazish jarayonlarini amalga oshirish vaqtida uchraydigan muzlagan gruntlar, bazi bir cho‘l hududlarda mavjud gips qatlamli gruntlar va tarkibida tosh bo‘laklari uchraydigan gruntlarni qazish jarayonida juda ham ko‘p muammolar yuzaga kelib ish hajmi oshishiga va ish sifati yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari yuqorida keltirilgan grunlarni qazish jarayoni bevosita bir nechta yer qazish tashish mashinalarining (buldozer,skreper, va yumshatuvchi jihozlar) ishtiroki ta’minlansagina ijobiy natijaga erishish munkin ekanligi hech kimga sir emas. Bu esa o‘z navbatida vaqt sarfining oshib ketishi, ortiqcha ishchi kuchi va texnikaga bo‘lgan talabning ortishiga hamda qo‘shimcha sarmoya sarflanishiga olib keladi.

Bu muammolarning yechimi sifatida biz quyida muzlagan va qattiq gruntlarni bir ishchi jihoz yordamida qo‘shimcha texnikalarsiz qazish ishlarini amalga oshiradigan energiya tejamkor ishchi jihozni tafsiya etgamiz.

Biz tafsiya etayotgan energiya tejamkor ishchi jihozning sxemasi quyida 1-rasmda keltirilgan.



1-rasmda takomillashgan ekskavator cho‘michi tasvirlangan.

1-tirsak; 2-aylanovchi richag; 3-gidrosilindr; 4-cho‘mich; 5,6-o‘qlar; 7-yumshatuvchi tish; 8-diskli pichoq.

Biz tafsiya qilayotgan takomillashgan cho‘michning vazifasi asosan ishchi qurilmaning ish unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Tafsiya etayotgan ish jihoz yordamida ikki texnalogik jarayonni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Takomillashgan ishchi jihoz tirsak, gidrosilindr yordamida boshqariladigan aylanuvchi richag, ikkita erkin aylanuvchi diskli pichoq va tirsakga sharnirli mahkamlangan cho‘michdan tashkil topgan.

Ushbu ishchi jihozda cho‘michni boshqaruvchi gidrosilindr va aylanuvchi richaklar bevosita diskli pichoqlar orqali bog’langan, yumshatuvchi tish bir tomoni sharnirning bir o‘qiga, ikkinchi tomoni aylanuvchi disklar o‘qiga mahkamlangan. Diskli pichoqlar, yumshatuvchi tish o‘rnatilgan o‘qning ikki yon sirtida o‘zaro simmetrik joylashtirilgan. 1-rasmda yumshatuvchi tishlar yordamida muzlagan va qattiq guruntlarni bo‘laklab, maydalash jarayoni ko‘rsatilgan.

Qurilma quyidagi tartibda ishlaydi: birinchi navbatda ekskavatorning yurishi davomida yoki tirsakning ish harakati vaqtida diskli pichoqlar orqali muzlagan yoki qattiq gruntlar qirqiladi, so‘ngra yumshatuvchi tishlar yordamida qirqilgan grunt qatlam-qatlam qilib o‘yib olinadi. Bu jarayon tirsakning ishchi harakati va aylanma harakatlanuvchi richaklarga gidrosilindrning tasiri orqali yuz beradi. Keyingi jarayonda yumshatilgan qatlam cho‘mich orqali qazilib transheya va kanallar hosil qilinadi. Ushbu

jarayonlarni amalga oshirishda gidroyuritma orqali ekskavator cho‘michiga beriladigan suyiqlik bosimi yetarli hisoblanadi.

Biz taklif qilayotgan takomillashgan ishchi jihozning ustunliklari sifatida konstruksiyasi oddiyligi, muzlagan va qattiq gruntlarni qazish jarayonida qo‘shimcha texnika talab qilmasligi va cho‘michni boshqa turdagi ekskavatorlarga ham osongina o‘rnatish munkin ekanligini ko‘rsatishimiz munkin.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki biz tavsiya qilayotgan takomillashgan ishchi jihoz yordamida endilikda muzlagan va qattiq gruntli hududlarda yangi kanal va kallektorlar hosil qilishning imkoniyati mavjud, bu esa o‘z navbatida o‘zlashtirilmagan yangi hududlarni o‘zlashtirish, suv yetib bormagan hududlarni suv bilan ta’minlashdek muammoli vaziyatlarning yechimi bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Halimov T., Islamova M., Hamdamov B. Qattiq gruntlarga ishlov berishda bir cho‘michli ekskavatorlar uchun takomillashgan ishchi jihoz. «Eurasian Journal of Academic Research» jurnalining 3-soni to‘plami, 2022, 46-pp, URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.6369491

2. S.T.Vafoyev “Qurilish mashinalari” Toshkent -2014 yil.

3. S.T.Vafoyev “Melioratsiya mashinalari” Toshkent -2013 yil.

УДК: 621.762

ПРИМЕНЕНИЕ НЕСТАЦИОНАРНЫХ РЕЖИМОВ ЭЛЕКТРОЛИЗА ПРИ ЭЛЕКТРООСАЖДЕНИИ ЖЕЛЕЗА

Калуцкий Евгений Сергеевич, к.т.н.;
(e-mail: kalutsky1990@mail.ru)
Гнездилова Юлия Петровна к.т.н., доцент;
(e-mail: juliagup@yandex.ru)
Сафронов Руслан Игоревич, к.т.н., доцент
(e-mail: russafronov@yandex.ru)
Серебровская Людмила Николаевна, к.т.н., доцент
(e-mail:serebrovskayaln@yandex.ru)
Серникова Ольга Сергеевна, магистрант
(e-mail: olga.sernikova@mail.ru)
Курская государственная сельскохозяйственная академия имени И.И. Иванова

В статье рассматривается влияние переменного тока промышленной частоты на процесс электроосаждения железа. Показаны зависимости величины катодного потенциала от плотности тока и величины микротвердости получаемых покрытий от плотности тока. Указаны основные рекомендации, касающиеся параметров электролиза для получения наиболее износостойких покрытий.

Ключевые слова: плотность тока, электроосаждение, электроосажденное железо, рентгенографические исследования.

UDC: 621.762

APPLICATION OF NON-STATIONARY MODES OF ELECTROLYSIS IN THE ELECTRODEPOSITION OF IRON

Kalutsky Evgeny Sergeevich, Ph.D.;
(e-mail: kalutsky1990@mail.ru)
Gnezdilova Yulia Petrovna Candidate of Technical Sciences, Associate Professor;
(e-mail: juliagup@yandex.ru)
Safronov Ruslan Igorevich, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor
(e-mail: russafronov@yandex.ru)
Serebrovskaya Lyudmila Nikolaevna, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor
(e-mail:serebrovskayaln@yandex.ru)
Sernikova Olga Sergeevna, undergraduate
(e-mail: olga.sernikova@mail.ru)

Kursk State Agricultural Academy named after I.I. Ivanova

Основные цели сбережения энергии и любых соответствующих мероприятий или технических инноваций на предприятиях, это снижение расходов на приобретение ресурсов и получение прибыли [1].

Сокращение расходов в бизнесе

Достижение этих целей включает в себя следующие шаги:

- вычисление доли затрат на получение энергии в себестоимости производства
- тщательное исследование предприятия и анализ энергопотребления

• повышение эффективности технологии производства (прежде всего, с точки зрения сокращения потребления энергетических ресурсов)

• ужесточение учёта потребления

• реализация бюджетных вариантов экономии (без внедрения дорогих инноваций)

• обучение персонала принципам экономии (сюда входит информационная поддержка и распространение тематических инструкций)

• внедрение технологий с окупаемостью больше одного года

• регулярный мониторинг технического состояния приборов учёта и исполнения персоналом внедрённого регламента, направленного на сбережение энергии

• дополнительно применяется моральное и финансовое стимулирование всех участников мероприятий по сбережению ресурсов [2].

Для повышения энергетической эффективности на предприятиях необходимо проводить специальные технические мероприятия, снижающие потребление ресурсов и позволяющие сэкономить бюджет. У каждой из таких технологий имеется срок окупаемости и начальная цена внедрения в производство, а также процент эффективности такого внедрения.

Мы кратко опишем данные технологии и приведем их особенности и характеристики.

Установка тепловых насосов

Прекрасное дополнение или полная замена устаревшего газового отопления. Такой прибор способен дать тепло, используя альтернативную энергию. Например, тепло окружающего воздуха или геотермальных источников [1]. Мощность прибора от 300 кВт до нескольких мегаВатт.

Установка тепловых насосов

У воздушного теплового насоса имеется такой параметр как коэффициент преобразования энергии (COP). В случае применения данной техники он составляет от 2.0 до 5.0. Это означает, что потребляя 1 кВт электроэнергии он отдает от 2 до 5 кВт тепловой энергии. Такого высокого параметра не способна добиться никакая иная современная технология.

Может работать не только на отопление, но и охлаждать рабочие помещения. Его эффективность достигает минимум 25-30%.

Гелиоактивные здания

Новое слово в энергосбережении. Такие строения могут сберегать тепло в пассивном режиме либо преобразовывать энергию солнца (активные системы). Чаще всего используются фотоэлементы, преобразующие солнечное тепло в электричество. Также используется преобразование в энергию воздушного потока (термовоздушные электростанции), установка аэростатов (генерация водяного пара в баллонах).

Эффективность метода 15% (электричество) и 30% (снабжение горячей водой). В этом методе важно учесть архитектуру зданий (наличие уклона территории и крыши для максимального получения солнечного освещения).

Повышение энергосбережения с помощью утепления

Самый простой в реализации метод сохранения тепла в помещениях, при этом очень эффективный. Заключается в герметизации и устранении теплопотерь через окна, двери, вентиляционные коммуникации и других инженерных коммуникаций. Благодаря применению данного метода, вы достигаете значительного уменьшения энергетических(а значит и финансовых) затрат на достижение необходимой температуры в помещении.

Эффективен на 30-70%, окупается за два-четыре месяца. В расходы входит приобретение теплоизолирующих материалов.

Пассивное отопление

Повышение энергосбережения используя методы сохранения тепла внутри помещения за счёт захвата воздуха вентиляционной системой. Такое тепло выделяется, например, работающим персоналом. Попадая через теплообменник в систему отопления, воздух нагревает воду. Эффективность составляет 10-15%. Затраты окупаются через три-четыре месяца.

Альтернативные источники энергии

Альтернативные источники энергии, это использование силы энергии солнечного тепла, силы ветра, тепла земных недр, биологического топлива (растительных остатков), достаточно

перспективна для промышленности. В зависимости от источника энергии эффективность составляет от 15 до 30 и больше процентов.

Повышение энергосбережения используя светодиодное освещение

Установка светильников светодиодного типа и светодиодных лент (для подсветки, например, лестничных площадок, подвалов, глухих помещений небольших размеров), приводит к снижению потребления электричества в пять раз. Срок окупаемости 9-15 месяцев. Стоимость модернизации зависит от типа выбранных осветительных приборов.

Оборотное водоснабжение

Подразумевает замкнутый цикл при использовании этого ресурса в любом технологическом процессе. Это позволяет значительно сократить расход воды вашим предприятием. Метод эффективен на 95%, так как чистую воду используют только для пополнения запасов в замкнутой системе водоснабжения. Окупаемость происходит за один год.

Вторичные энергоресурсы

Один из лучших способов экономии. Могут быть использованы любые материалы, до этого подлежащие выбросу — опилки, щепки. Такие материалы сжигаются в газогенераторных установках. Полученная энергия в четыре раза ниже по себестоимости от поставляемых ресурсов. Эффективность метода 30%, срок окупаемости составляет 1,5-2 года.

Рекуперация энергии

Метод сбережения тепла с помощью специальных пластин, устанавливаемых в кондиционеры и вентиляционные системы. Тепло забирается из отработанного воздуха и передаётся свежему потоку кислорода, что исключает охлаждение помещения в зимний период. Эффективность напрямую зависит от типа рекуперационного устройства: у пластинчатых моделей это показатель в 50%, у роторного типа от 70 до 90%. Срок окупаемости один-два года.

Хорошо известный и достаточно часто применяющийся метод сбережения ресурсов. Он включает в себя сбор и переработку отходов производства. Следует отметить, что к отходам относят любые продукты или вещества, образующиеся в результате производственного процесса. При этом вторичным сырьём считается только тот продукт, который подходит для переработки в готовую

продукцию (не опасен для человека и окружающей среды). Чтобы организовать переработку предприятию необходимо оборудовать специализированное строение и приобрести оборудование. Эффективность метода достигает 40% [3].

Внедрение энергосберегающих технологий — процесс интеллектуальный. Владельцу предприятия необходимо не только проанализировать ситуацию, но и выбрать лучший способ решения стоящей перед ним задачи. Причём повышение эффективности на 30-40% — далеко не предел. Для иностранных предприятий снижение энергозатрат в три или даже четыре раза явление обыденное. И это хороший факт, доказывающий, что не все возможности по модернизации производства в нашей стране исчерпаны.

Список литературы

1 Сариго Н.В. Повышение качества и снижение потерь электрической энергии путем выбора технических средств симметрирования при несимметричных режимах работы// Научное обеспечение агропромышленного комплекса (материалы международной научно-практической конференции, 20-21 февраля 2018 г., ч.1) - Курск: Изд-во Курской ГСХА, 2018. - С. 356- 358.

2 Уварова А.Г. Инновационные сельскохозяйственные технологии https://www.elibrary.ru/item.asp?id=47172981// Современные проблемы и направления развития агроинженерии в России. Сборник научных статей Международной научно-технической конференции. Курск, 2021. С. 138-142.

3 Уварова А.Г., Канунникова А.О. Применение информационных технологий в производстве // Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. Сборник научных трудов международной научно-практической онлайн конференции, посвященной 10-летию образования Бухарского филиала Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства. Отв. редактор Т.Х. Жураев. 2020. С. 476-478.

УДК 658.5.012.7

ПРОИЗВОДСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ, КАК СПОСОБ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ

Ярыгина Ирина Викторовна
кандидат с.-х. наук, доцент кафедры стандартизации и оборудования перерабатывающих производств
e-mall: yarygina-irina@rambler.ru
ФГБОУ ВО Курская государственная сельскохозяйственная академия Имени И.И.Иванова

Аннотация: *В цивилизованном мире каждому работодателю полагается уделять внимание безопасности своих сотрудников во время выполнения работы. Кроме того, он обязан следить, чтобы деятельность предприятия не приносила вреда окружающим. Эти требования отражены в законодательстве. Для обеспечения безопасности в организациях внедряется производственный контроль.*

Ключевые слова: *производственный контроль, норматив, производственные риски, нормативные документы, утилизация, отходы.*

Любое предприятие, занятое в сфере производства, в ходе своей работы влияет на здоровье человека и на экосистему. Если это, к примеру, химическая промышленность, то здесь все понятно: ядовитые выбросы попадают в атмосферу, воду и почву, сотрудникам приходится контактировать с опасными веществами. Но даже самое безобидное на первый взгляд производство связано с теми или иными вредными факторами. Промышленное оборудование может стать причиной травм, а не соответствующие нормативам условия труда в помещении (чрезмерно сухой или влажный воздух, повышенная концентрация пыли, находящаяся за пределами нормы температура) могут вредить здоровью сотрудников [1].

Производственные риски можно устранить или минимизировать. Для этого созданы санитарные правила и нормы (СанПиН). А их соблюдение на предприятиях обеспечивает организация производственного контроля (ПК).

Главные нормативные документы, которые устанавливают необходимость и определяют правила проведения производственного контроля, — это Федеральный закон №52-ФЗ «О санитарно-

эпидемиологическом благополучии населения» и санитарные правила СП 1.1.1058-01.

Статья 11 упомянутого Федерального закона гласит, что проведение производственного контроля — это обязательная мера для всех компаний, зарегистрированных как юрлицо или ИП.

Какие цели преследует организация производственного контроля на предприятии? Основная — защитить жизнь и здоровье работников от возможного риска, исключить или максимально уменьшить вред для окружающей среды [2]. Эта большая цель достигается путем решения нескольких частных задач:

по регулярной оценке безопасности на производстве (для этого проводятся лабораторные исследования вредных факторов);

по обеспечению соблюдения технологии производственного процесса всеми сотрудниками предприятия;

по разработке мер предупреждения аварийных ситуаций;

по наблюдению за состоянием здоровья сотрудников.

В ходе проведения ПК проверке подлежит собственно производственная деятельность, а также самые разнообразные объекты:

здания, помещения, сооружения, эксплуатируемые при производственной деятельности;

промышленное оборудование;

рабочие места сотрудников;

продукция на всех стадиях производства от исходных материалов до готового товара, а также отходы.

В зависимости от сферы работы предприятия осуществляются разные виды ПК. Санитарный контроль оценивает соблюдение СанПиН, экологический — влияние на окружающую среду, технический — следование мерам безопасности и качество производимой продукции, энергетический — затраты энергоресурсов. Для многих предприятий актуально сразу несколько видов ПК [3].

Правила организации производственного контроля определяют СП 1.1.1058-01. Данный нормативный документ регламентирует состав мероприятий в рамках ПК и требования к их проведению.

Первоочередная мера — это разработка программы производственного контроля предприятия. Документ положено

составить и утвердить еще до того момента, как юридическое лицо или ИП начнет свою работу. Четких требований к программе нет, но в СП 1.1.1058-01 обозначен перечень сведений, которые должны быть в нее включены. Это информация:

об официальных санитарных правилах и методах проверки, актуальных для конкретной сферы деятельности;

о должностных лицах, которые наделены полномочиями по организации и осуществлению производственного контроля;

о должностях сотрудников, которым по роду деятельности необходимо периодически проходить медицинское обследование;

о факторах и объектах производства, несущих потенциальную опасность или вред и поэтому подлежащих лабораторной экспертизе;

о частоте проверок в отношении этих объектов и факторов;

о потенциально вредных или опасных видах деятельности, производимых товарах, оказываемых услугах — обо всем, на что распространяется требование обязательной сертификации или лицензирования;

о мероприятиях, предпринимаемых для повышения безопасности;

о возможных аварийных ситуациях.

Содержание программы может различаться. Оно зависит от области, в которой работает предприятие, класса опасности объекта, предполагаемых последствий при несоблюдении санитарных правил и от многих других условий. Впрочем, разработаны типовые программы организации производственного контроля для некоторых предприятий — занятых в сфере торговли, общественного питания, обслуживания. Но в любом случае их придется адаптировать под конкретные условия, учитывая множество частных деталей. Для этого необходимы знания по технологии производства, промышленной безопасности, гигиене, охране труда, экологии.

Программу ПК утверждает руководитель предприятия. Согласовывать ее в контролирующих органах не обязательно, но при очередной проверке инспектор из Роспотребнадзора непременно проверит, правильно ли составлен документ.

Помимо программы, в каждой организации должно быть разработано так называемое положение о производственном контроле. Оно подробно описывает мероприятия по ПК и порядок их

проведения. Также в документе указывается сотрудник, на которого возложен функционал ответственного за организацию производственного контроля, обозначаются его права и обязанности [4].

Следующая часть производственного контроля — лабораторные анализы и испытания. Их вправе проводить только аккредитованные организации, имеющие в своем распоряжении хорошо оснащенную лабораторию. Эксперты оценивают условия труда и производственные факторы на предмет соответствия нормам безопасности. Выполняют отбор проб воздуха и воды, исследуют образцы продукции и материалов, измеряют уровень шума и вибрации, радиационного излучения, определяют состояние микроклимата, контролируют процесс утилизации отходов.

Перечень проводимых исследований зависит от специфики работы. Например, на предприятиях, где производится пищевая продукция, крайне важно соблюдение санитарно-гигиенических норм, чистота в помещениях, отсутствие микробов. Здесь особое внимание будет уделено исследованию образцов сырья, готовых изделий на предмет бактериологических загрязнений. А на химическом производстве берут пробы воздуха, чтобы определить концентрацию вредных примесей.

Обязательная часть производственного контроля — проверка наличия документов, свидетельствующих о качестве и безопасности технологического процесса, сырья и готовой продукции. К ним относятся сертификаты соответствия на товары, санитарно-эпидемиологические заключения, медкнижки сотрудников и прочее.

Производственный контроль подразумевает составление регулярной отчетности. На каждом предприятии должен быть сотрудник, ответственный за проведение ПК, или даже целый отдел производственного контроля.

Производственный контроль очень важен для обеспечения санитарно-эпидемиологического благополучия на предприятии, который является как бы защитной мерой как для работодателя, так и для работников. И служит показателем ответственности юридического лица перед своими работниками и государством, поэтому стоит уделить особое внимание своей программе производственного контроля.

Список литературы

1 Сариго Н.В. Использование контрольных карт при определении качества продукции машиностроения// Инновационная деятельность науки и образования в агромромышленном производстве (материалы Международной научно-практической конференции, г. Курск, 27-28 февраля 2019 г., ч.3) - Курск: Изд-во Курской ГСХА, 2019. - С. 153-157.

2 Сариго Н.В. К вопросу об обеспечении безопасности работы Курской АЭС// Молодежь и наука: Шаг к успеху Сборник научных статей 4-й Всероссийской научной конференции перспективных разработок молодых ученых - Курск: Изд-во Университетская книга,, 2020. - С. 174-178.

3 Уварова А.Г. Инновационные сельскохозяйственные технологии https://www.elibrary.ru/item.asp?id=47172981// Современные проблемы и направления развития агроинженерии в России. Сборник научных статей Международной научно-технической конференции. Курск, 2021. С. 138-142.

4 Уварова А.Г., Канунникова А.О. Применение информационных технологий в производстве // Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. Сборник научных трудов международной научно-практической онлайн конференции, посвященной 10-летию образования Бухарского филиала Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства. Отв. редактор Т.Х. Жураев. 2020. С. 476-478.

3-SHO‘BA. QISHLOQ XO’JALIGIDA AGROEKOTIZIMLARNI O'RGANISHDA EKOLOGIK YONDASHUV

УЎТ: 577.3:551.4 (575.1)

ЧЎЛНИНГ МАҲАЛЛИЙ СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ЛОКАЛ СУҒОРИШ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Тўхтаева Хабиба Тошевна- География фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент, ТИҚХММИ МТУ БухТРБИ “Гидрология ва экология” кафедраси мудири, Бухоро шаҳри, Ўзбекистон Республикаси.

Абдуҳалимова Фотима Шукрулло қизи - Бухоро давлат Университети магистри

Мухиддинова Шахзода Хуснидиновна-Гидрология (Дарё ва сув омборлари гидрологияси) таълим йўналиши 1 курс талабаси

Аннотация: Мақолада Марказий Қизилқумдаги паст тоғларда икки тарафлама қиялик асосида вақтинча оқар сувлар йиғилувчи районда локал ва лиман суғориш тизимларини ривожлантириш масалалари ёритилган. Анъанавий суғориш тизимлари таҳлил этилган, атмосфера ёғинлари ҳамда ер ости сув заҳиралари асосида локал суғориш тизимларини ривожлантириш имкониятлари белгиланган.

Калит сўзлар: Локал ва лиман суғориш тизими, ер ости сувлари, атмосфера ёғинлари, каак, чирле, сардоба, чўлланиш.

UDC: 577.3:551.4 (575.1)

DEVELOPING LOCAL IRRIGATION SYSTEMS USING DESERT WATER RESOURCES

Tukhtaeva Khabiba Toshevna -Doctor of Philosophy (PhD) of geographical sciences, the head of “Hydrology and Ecology” department, Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers. Bukhara, Republic of Uzbekistan

Abduhalimova Fotima Shukrullo qizi- Masters of Bukhara State University

Muxiddinova Shaxzoda Xusnidinovna- 1st year student Hydrology (Hydrology of rivers and reservoirs)

Annotation: The article discusses the development of local and firth irrigation systems in the zone of temporary flow in the Central Kyzylkum. Traditional irrigation systems have been analyzed and opportunities for the development of local irrigation systems based on precipitation and groundwater resources have been identified.
Keywords: Local and firth irrigation system, groundwater, atmospheric precipitation, kaak, chirle, sardoba, desertification.

Кириш. Республикамизда чўлланиш даражаси, ўсимликлар қопламининг камайиши, қумли чўллардаги дефляция, сув эрозияси, Орол денгизининг қуриши туфайли тупроқларнинг шўрланиши, суғориладиган ерларда шўрланиш, техноген чўлланиш, яйловлар маҳсулдорлигини ошириш бўйича бир қатор ютуқларга эришилмоқда. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида "янги ичимлик суви тармоқларини қуриш, тежамкор ва самарали замонавий технологияларни босқичма-босқич жорий этиш орқали қишлоқ жойларда аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлашни тубдан яхшилаш, атроф-табиий муҳит, аҳоли саломатлиги ва генофондига зиён етказадиган экологик муаммоларнинг олдини олиш"[2] каби муҳим вазифалар белгилаб берилган. Бу борада, жумладан, Марказий Қизилқумда маҳаллий сув манбаларини йиғиш, сақлаш ва фойдаланиш усулларини такомиллаштириш орқали чўлланиш каби экологик муаммоларнинг олдини олишга йўналтирилган илмий-тадқиқотлар муҳим аҳамият касб этади.

Марказий Қизилқумда чўлланишга қарши курашишда маҳаллий сув манбаларидан рационал фойдаланиш бўйича илмий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат. Марказий Қизилқумда мавжуд сув заҳираларидан суғорма деҳқончиликда фойдаланиш имкониятларини табиий географик асослаш ҳамда чўлланишга қарши курашишда маҳаллий сув манбаларидан фойдаланиш асосида локал суғориш тизимларини яратишдан иборат.

Муаммонинг қўйилиши ва тадқиқот услуби**. Илмий тадқиқот ишида дала-тадқиқот, лаборатория-аналитик ҳамда ҳавзали ва экологик ёндашувлардан фойдаланилган.**

[2]Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036

Муҳокама қилиш ва натижалар Қизилқумни геоэкологик ўрганишнинг назарий ва умумий методологик масалалари Л.Алибеков, М.Маматқулов, А.А.Рафиқов, А.А.Абулқосимов, А.Ниғматов, С.Б.Аббасов, Н.Р.Ҳамраев, С.А.Азимбоев, Л.П.Пейдо, П.Н.Ғуломов, И.Қ.Назаров, Ф.Ҳ.Ҳикматов, Н.И.Сабитова, Б.А.Бахритдинов, В.А.Рафиқов, Ш.М. Шарипов ва бошқа қатор олимлар томонидан ўрганилган.

Марказий Қизилқумда табиий ресурслардан фойдаланиш масаласига кўпгина ишлар бағишланган, лекин унинг маҳаллий сув манбалари ва чўлланиш муаммоларини ҳал этиш бўйича илмий ишлар бажарилмаган.

Бироқ, юқоридаги тадқиқотларнинг кўпчилигида илмий ишлар аввалги режали иқтисодиёт тизими доирасида бажарилган бўлиб, улар сув манбаларига бўлган эҳтиёжнинг ортиши нуқтаи назаридан бугунги кун талабларига тўлиқ жавоб бермайди. Бинобарин, мазкур мақолада, чўлланишга мойил ҳудудларнинг сув имкониятлари ўрганилди ва ушбу мавзу айнан шу жиҳати билан юқорида келтирилган илмий ишлардан фарқ қилади.

Марказий Қизилқумда атмосфера ёғинларининг ҳудудий тақсимланиши ва вақтинча оқар сувлар ҳажми аниқланган, ушбу маълумотлар асосида вақтинча оқар сувлар йиғилувчи ҳавзаларни районлаштириш харитаси яратилган.

Марказий Қизилқумда табиий ресурслар ва вақтинча оқар сувлар йиғилишининг табиий-географик асосларини ишлаб чиқишда рельеф пластика картаси катта аҳамият касб этди. Марказий Қизилқумнинг рельеф пластикаси картасида баландлик ва пастликлар маълум бир геометрик шаклларни ҳосил қилган ҳолда тасвирланади. Бу карта рельеф билан бошқа компонентлар ўртасидаги узвий боғлиқликни ўрганишда ва вақтинча оқар сув манбаларини аниқлашда йирик масштабли топографик карта (масштаб 1: 100 000) асос бўлиши илмий жиҳатдан исботланди.

Марказий Қизилқумда топографик карталар асосида бир неча вақтинча оқар сувларнинг ҳавзалари ажратилиши ҳудудда бу ҳавзаларни районлаштиришга имкон берди. Бунда ҳавзавий усулнинг ўрни алоҳида қайд этилди. Марказий Қизилқумда вақтинча оқар сув

ҳавзалари рельеф пластикаси картаси асосида учта: Вақтинча оқар сувлар оқими мавжуд бўлмаган; Вақтинча оқар сувлар бир тарафлама қиялик асосида йиғилувчи; Вақтинча оқар сувлар икки тарафлама қиялик асосида йиғилувчи районларга ажратилди.

Марказий Қизилқумдаги вақтинча оқар сувлар йиғилувчи ҳавзаларни районлаштириш харитаси Ўзбекистон Республикаси Давлат геология ва минерал ресурслар қўмитаси томонидан нашр этилган "Ўзбекистон Республикасининг геологик хариталари атласи"да фойдаланилган (МРИТИ, Тошкент, 2016 й.-Б.33-35). Натижада Қизилқум геотизимларининг чегаралари аниқлигини ошириш имконини берган.

Чўлланишни олдини олиш мақсадида сув манбалари мавжуд ҳудудларда локал ва лиман суғориш тизимлари такомиллаштирилган. Лиман суғориш тизими баҳорги вақтда тоғли ҳудуддан кучли интенсивликда ёғаётган ёмғирдан ҳосил бўлган вақтинча оқар сув оқими тоғ олди текислигида сунъий тўғон орқали секинлаштирилади. Тиндирилган лойқа оқизиқли ҳудудларга бошоқли экинлар экиб ҳосил олинади. Ана шу усулдан Марказий Қизилқум тоғ олди текисликларида фойдаланиш тавсия этилди.

Яқин Шарқда вақтинча оқар сувлардан моҳирлик билан фойдаланиш натижасида барқарор ҳосил олинмоқда. Бунга йиллик ёғин миқдори 80мм дан ошмаган вақтда ҳам қадимги суғориш тизимидан унумли фойдаланиш орқали эришилмоқда. Шуни таъкидлаш жоизки, Марказий Қизилқумда ёғин миқдори икки баробар кўп. Демак, вақтинча юза оқар сув оқимини бошқаришнинг бу усулидан Марказий Қизилқумда чўлланиш жараёнига қарши курашда кенг фойдаланиш мумкин.

Кейинги вақтларда модернизациялашган (замонавийлаштирилган) суғориш усули билан Иордания, Исроил, Саудия Арабистони ва бошқа мамлакатларда амалга оширилмоқда. Чунки вақтинча юза оқар сув оқимидан фойдаланишнинг бу усули кўп капитал сарфлашни талаб қилмайди ва техник жиҳатдан нисбатан оддийлиги билан ажралиб туради.

Марказий Қизилқумда ер ости сувларининг заҳираси жами 836,37 минг м^3 /сут. ни ташкил этар экан, шундан тасдиқлангани 516,79 минг м^3/ сут. тенг. Вақтинча юза оқар сойларнинг, ер ости сувларининг сув заҳиралари Марказий Қизилқумда локал суғориш тизимларини

шакллантириш имконини беради. Йиғиладиган маҳаллий сув манбаларидан 2 минг га. дан 5 минг га.ча бўлган ерларни ўзлаштиришга етади.

Тақир ландшафтларида вақтинча оқар сув оқимини йиғувчи ҳовузчалар (кааклар)дан, атмосфера ёғинларидан йиғилган сувларни сақлайдиган қудуқ (чирли)лардан, сунъий равишда ташкил этилган чучук грунт сувларидан, сувни яхши сақланиши учун сардобалардан фойдаланиш қурғоқчилик шароитида сувдан рационал фойдаланиш имкониятини беради.

Марказий Қизилқум тоғ олди текисликларида лиман суғориш тизимини шакллантириш ва вақтинча юза оқар сув оқимини бошқариш, чўлланиш жараёнига учраган ерларни қора саксовул билан ўрмонлаштириш (иҳоталаш), сунъий яйловлар яратиш чўлланишга қарши курашиш чоралари бўла олади. Ботиқлардаги артезиан сувлардан чорвачиликда, яйловларга сув чиқаришда, ем-хашак ва полиз экинлари етиштиришда рационал фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Хулоса. Марказий Қизилқумда маҳаллий сув манбаларидан рационал фойдаланиш асосида чўлланишга қарши курашиш бўйича берилган таклиф ва тавсиялар асосида:

- Марказий Қизилқумда маҳаллий сув манбаларидан рационал фойдаланиш асосида чўлланишга қарши чора-тадбирлар мажмуаси ишлаб чиқилди ва аниқланган муаммоларни бартараф этишнинг истиқболли йўналишлари белгиланди.

Чўлланишга қарши курашиш бўйича маҳаллий сув манбаларидан фойдаланиш асосида локал ва лиман суғориш тизимларини шакллантириш усулларини яратишнинг ечимига оид илмий-амалий таклиф ва тавсиялар берилган. Тадқиқот натижаларининг ишончлилиги Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш қўмитасининг Бухоро ва Навоий вилоятлари бўлими, Сув хўжалиги бошқармаси, Қўйи Зарафшон ирригация тизими ҳавза бошқармаси ҳамда Давергеодезкадастр давлат қўмитаси маълумотларидан фойдаланилгани, дала-тадқиқотлари асосида яратилган карталар, суғориш тизимларини шакллантириш усуллари, таклиф ва тавсиялари амалиётга жорий этилгани, олинган натижаларнинг ваколатли тузилмалар томонидан тасдиқлангани билан изоҳланади.

- Марказий Қизилқумда шаклланадиган вақтинча оқар сувларнинг ҳажми, уларнинг шаклланиши ва йиғилишини тасвирловчи хариталар Қуйи Зарафшон ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси амалиётига жорий этилган (Қуйи Зарафшон ирригация тизимлари ҳавза бошқармасининг 2018 йил 09 мартдаги №01-03-105/3-сон маълумотномаси). Натижада Конимех туманида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 ноябрдаги ПҚ-3405-сон "2018-2019 йилларда ирригацияни ривожлантириш ва суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш давлат дастури тўғрисида"ги Қарори ижросини таъминлаш имконини берган;

- Чўл ҳудудида суғорма деҳқончилик қилиш учун яроқли бўлган ерларда локал ва лиман суғориш тизимларининг такомиллаштирилган усуллари Қуйи Зарафшон ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси амалиётига жорий этилган (Қуйи Зарафшон ирригация тизимлари ҳавза бошқармасининг 2018 йил 09 мартдаги №01-03-105/3-сон маълумотномаси). Натижада Конимех тумани "Қарақата" ширкат хўжалигида 10 гектар ерда суғорма деҳқончиликни ривожлантириш имконини берган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-2024-yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning 2019-yilga mo'ljallangan milliy dasturini tasdiqlash to'g'risidagi qarori.

2. Аббасов С.Б. Қизилқум ландшафтлари ва уларнинг геоэкологик жиҳатлари. Докторлик диссертацияси – Т..; 2007. -б. 80-92

3. Азимбаев С.А., Тухтаева Х. Т. Изучение почв массива Карагата для развития локальних систем орошения. //Ўзбекистон жанубида ер ва сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш муаммолари. Илмий-амалий конф. материали. Қарши, 2004.100-102б.

4. Алибеков Л. А. Эколого-географические проблемы Центральной Азии. Самарканд, 2010., 271-341с.

5. Тўхтаева Х.Т., Рахматов Ю.Б.Чўл ҳудудини ландшафтлаштиришда рекреацион зоналар аҳамияти.O'zbekiston zamini.1/2021 72-74б.

УЎТ: 577.3:551.4 (575.1)

ТЎДАКЎЛ СУВ ОМБОРИ ЗОНАСИДАГИ АНТРОПОГЕН ЛАНДШАФТЛАР ВА ЭКОТУРИЗМДАГИ ИСТИҚБОЛЛАРИ.

Рахматов Юсупжон Бабакулович-Навоий давлат педагогика институти География ва иқтисодий билим асослари кафедраси доценти, география фанлари номзоди.yu_raxmatov_b@mail.ru
Сулаймонова Мастура -2 курс талабаси Экология ва атроф мухит мухофазаси

Аннотация: Мақолада антропоген ландшафтларнинг ўзига хос геотизим ёки табиий-худудий мажмуалар эканлиги, улардан фойдаланишда антропоген ландшафтларнинг ҳосил бўлиши, ривожланиши, улардаги ўзгаришларни ўрганиш билан бирга албатта, антропоген ландшафтларни табақалаштириш, классификация қилиш муҳим аҳамиятга эга эканлиги ҳақидаги фикрлар келтирилган.
Калит сўзлар: экотуризм, антропоген ландшафт, рекреация ресурслар, Қуйимозор, Тўдакўл, Хожкаб шўрхоги, «Табиатни муҳофаза қилиш халқаро иттифоқи», «Халқаро туризм жамияти», «Ёввойи табиат умумжаҳон жамғармаси»

UDC: 577.3:551.4 (575.1)

ANTHROPOGENIC LANDSCAPES AND FUTURES IN ECOTURISMISM IN THE TODAKOL WATER RESERVOIR ZONE

Rakhmatov Yusupjon Babakulovich - Associate Professor of Geography and Fundamentals of Economics, Navoi State Pedagogical Institute, Candidate of Geographical Sciences. yu_raxmatov_b@mail.ru
Sulaymonova Mastura - student of the 2 course Ecology and environmental protection

Annotation: The article argues that anthropogenic landscapes are specific geosystems or natural-territorial complexes, the use of which is important for the formation and development of anthropogenic landscapes, changes in them, as well as the classification of anthropogenic landscapes.

Keywords: ecotourism, anthropogenic landscape, recreational resources, Kuyimozor, Tudakul, Khojkab salt marshes, International Union

for Conservation of Nature, International Tourism Society, World Wildlife Fund.

Кириш: Антропоген ландшафтлар ўзига хос геотизим ёки табиий-худудий мажмуалар ҳисобланиб, улардан фойдаланишда антропоген ландшафтларнинг ҳосил бўлиши, ривожланиши, улардаги ўзгаришларни ўрганиш билан бирга албатта антропоген ландшафтларни табақалаштириш, классификация қилиш муҳим аҳамиятга эга. Антропоген ландшафтларни классификация қилишда эса унинг морфологик бирликларини ажратиш асосий омил ҳисобланади[1]. Чунки антропоген ландшафтларнинг турли тоифадаги таксономик бирликларига табақаланишида ландшафтгача бўлган босқич зонал, азонал, регионал ва баландлик минтақаланиш асосида ажратилади.

Антропоген ландшафт тузилмаси эса юқоридаги барча қонуниятларга бўйсунган умумийлик қоидасига амал қилиш билан бирга ўзига хос хусусий жиҳатларни ҳам намаён қилади. Шунга кўра антропоген ландшафт доирасида унинг морфологик бирликларини ажратиш ва ўрганиш бугунги кунда халқ хўжалгининг барча тизимларида ва айниқса сув омборлари атрофларида экотуризмни ривожлантиришда, дам олишда ва рекреация ресурсларидан фойдаланишда, қишлоқ хўжалигида, ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бундай ҳолатларни ўрганиш мазкур ишнинг долзарблик жиҳатларини келтириб чиқаради. Бугунги кунда мамлакатимиз хаётининг барча соҳаларида бўлганидек, экотуризмни ривожлантиришда, дам олишда, рекрация ресурсларидан фойдаланиш каби кенг қамровли ислоҳотлар чуқур кириб бормоқда.

Асосий қисм: Тўдакўл сув омбори ҳудуди маъмурий жиҳатдан салкам тўлиғича Навоий вилоятининг Қизилтепа туманига тегишли ҳудудининг фақатгина жануби–ғарбий чегара атрофи Бухоро вилоятининг Қизилтепа сув тақсимлагичи, яъни бу сув тақсимлагичидан Хожкаб шўрхоклигигача, Хожкаб пастқамлигидан Шохруд сув тақсимлагичигача бўлган йўлак Когон туманига қарайди. Табиий географик нуқтайи назардан ҳудуд Қуйи Зарафшон округи доирасида жойлашган, бошқача қилиб айтганда Зарафшон табиий географик округининг жанубий-шарқий чеккасини эгаллайди[3].

Иқтисодий-ижтимоий нуқтаи назардан бу ҳудуд Бухоро-Навоий вилоятлари учун жуда аҳамиятли. Чунки суғорма деҳқончилик, ичимлик сув манбалари ҳисобланган Қуйимозор, Тўдакўл сув омборлари ва улар билан боғлиқ гидротехник иншоотлар: Аму-Бухоро машина каналининг бир қисми, Тўдакўл сув тақсимотлагич «Учлик», «Қуйимозор», «Қизилтепа», «Навоий» насос станциялари ушбу ҳудудда жойлашган. Ҳудуд сал қийшиқроқ тўртбурчак шаклга эга. Уни жануби-ғарби томонидан Аму-Бухоро машина канали ўраб туради. Чегара Хожкаб шўрхоги-Ахбори Вали тепалигининг жануби-ғарбий этаги бўйлаб Бухоро воҳаси чегарасига боради. Шимоли-ғарб томондан эса чегара кескин ифодаланган бўлиб, Бухоро воҳаси билан ўралган, шимоли-шарқ томондан чегара шартли равишда Аму-Бухоро машина каналининг Хорхур тармоғи ва Ўртачўл канали ўзани орқали ўтган. Бу ерда Зиёвуддин тоғларининг Қоратоғ (669, 741 м) тоғлари табиий девор сифатида ҳудудни ўраб туради. Жануби-шарқ томондан ҳудудни Буермана тоғлари (297, 334, 347 м) платоси ўраб туради. Жануб томондан эса Подаутау, Учқум текисликларига («Учлик»-Шоҳимардон қудуғи кенглигигача) туташдир. Тўдакўл сатҳи 222 метр ўртача чуқурлиги тахминан 300 м.[5]

Расм-1. Тўдакўл сув омборининг умумий кўриниши.

Ўзбекистоннинг етмиш фоиздан ортиқроқ майдони қурғоқчил, яъни чўл ва тоғ олди, чала чўл–қуруқ дашт зонасига киради. Мазкур зонада бунёд этилган воҳалар, иқтисодий-ижтимоий тизимлар ва аҳолининг сув таъминоти асосан ўзга ҳудудлардан кириб келаётган сув манбалари ҳисобидан қондирилади. Шу боис бугунги кунда

республикамизда ичимлик ва суғорма сув муаммоси давлат сиёсати даражасида турган вазифалардан биридир.

Шу сабабли Тўдакўл сув омбори зонасидаги антропоген ландшафтлардаги табиий ресурслардан фойдаланишда ёки уларни баҳолашда ресурсларни бир-бири билан боғлиқлиги ғоясини инобатга олган ҳолда иш тутмоқ зарур. Айниқса, иқлим ўзгариши ва бошқа антропоген омиллар таъсири оқибатида бугунги кунда Амударё, Сирдарё, Зарафшон дарёлари шаклланадиган музликлар ўртача 30 фоизга қисқариб, дарёларнинг сувлилик даражаси кескин пасаймоқда. Чўл зонасида содир бўлаётган чўлланиш туфайли яйловлар биомаҳсулдорлигини ва генофондининг камайиши, тупроқларнинг шўрланиши, ботқоқланиши, минерологик, бактериологик ифлосланиши тобора хуруж қилмоқда.

Ўзбекистон Республикасида сув муаммосини ҳал қилиш, юмшатишнинг стратегик йўлларидан бири чўл зонасида (ландшафтларда) атмосфера ёғинлари туфайли ҳосил бўладиган сувлардан самарали фойдаланиш ҳамда атроф ҳудудларда экотуристик жойларни ташкил этишдир[4].

Расм-2. Дарёларнинг тўйиниш манбалари.

Бир қараганда кам кўринсада аслида атмосфера ёғинлари туфайли чўл зонасида катта миқдорда сув ҳосил бўлади. Бизнинг ҳисоб-китобларга қараганда Бухоро вилояти ҳудудида атмосфера ёғинларининг ўртача йиллик миқдори 130 мм бўлиб, ҳар 7,7 $м^2$ майдонда 1$м^3$ сув ҳосил бўлади. Атмосфера ёғинларининг ўртача йиллик ялпи ҳажми 5,2 $км^3$ ни ташкил қилади. Бу Тўдакўл сув омбори сиғимидан (1 $км^3$) беш марта ортиқ ёки Бухоро, қисман

Навоий вилоятини сув билан таъминлаб турган Аму-Бухоро машина каналининг йиллик оқимидан (4,3-4,8 км^3) ҳам кўпдир[4]. Ота-боболаримиз ўтган асрлар давомида бундай сувлардан самарали фойдаланиб келганлар. Сувларни тўплаш ва сарф қилиш йўлида турли хил гидротехник иншоотлар қурганлар. Катта тажриба асосида чўл яйловларидан самарали фойдаланиб келганлар. Кейинги асрларда чўл зонасида ҳосил бўладиган маҳаллий сув ресурсларидан фойдаланиш эътибордан четда қолиб кетди. Атмосфера ёғинларидан фойдаланган ҳолда яйловларни бойитиш усулларини ишлаб чиқиш бугунги кундаги долзарб вазифалардандир. Ота-боболаримиз томонидан яратилган гидротехник иншоотлар эса ҳозирги вақтда тарихий обидалар сифатида баъзи жойларда сақланиб қолган холос. Бу қадимги тарихий обидалар атрофида экотуристик ҳудудларни ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир. Бугунги кунда табиат муҳофазасида ва инсонларда экологик онг ва маданиятни шакллантиришда экотуризмнинг муҳим ўрнини даставвал тушунган давлатлар қайд қилинган методлар ва халқаро моделларни ҳеч иккиланмасдан қабул қилдилар ва ўз давлатларида экотуризмни жадал суратлар билан ривожлантириб бормоқдалар. Ўзбекицон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2016 йил 2-декабрдаги ПФ-4861 сонли Фармони мамлакатимизда туризмни ривожлантиришда туб бурилишни, янги босқичнинг заминини, истиқболли ислоҳатларнинг шароитларини яратди. Президент фармонида:

«Мамлакатда туризмни жадал ривожлантириш, мавжуд улкан туризм салоҳиятидан янада тўлиқ ва самарали фойдаланишда:

- ички, кириш ва чиқиш туризмини комплекс ривожлантиришнинг миллий ва ҳудудий дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш»;
- Республиканинг барча минтақаларида замонавий жаҳон стандартларига, туристларнинг талаблари ва эҳтиёжларига жавоб берадиган туризм индустрияси объектларини ривожлантириш; белгиланган.

Фармон туризм тармоғини жадал ривожлантиришни таъминлаш, туризмга иқтисодиётнинг стратегик сектори мақомини бериш, уни мамлакат иқтисодиётини барқарор ўстиришнинг, минтақаларда

туризм салоҳиятидан самарали фойдаланишнинг, аҳоли турмуш даражаси ва сифатини оширишда туризм ролини кучайтиришнинг қудратли воситасига айлантиришга қаратилгандир. Бу фармон мамлакатимизда туризмнинг барча турларини бир текис ривожлантириш масалаларини тадбиқ қилишга, туризмни ҳудудий ва минтақавий ривожлантириш учун асосий дастур бўлиб хизмат қилади. Шу нуқтаи-назардан ва «Фармон»да экотуризмни ривожлантириш алоҳида таъкидланганлиги ҳам, экотуризмни жадал ривожлантиришнинг жиддий муаммоларини аниқлашимиз ва бу муаммоларнинг ечимларини ишлаб чиқишнинг илмий-амалий тадқиқотларни бошлашимизнинг вақти келди. Экотуризмни ривожлантиришдаги кўплаб муаммолар ҳам мамлакатимизда экотуризмни ривожлантиришга киришганимиздан кейингина аниқланмоқда.

Ҳозирга келиб республикамизда экотуризмни ривожлантиришда ечимлари жиддий бўлган муаммолари ҳам юзага чиқмоқда. Бу муаммоларнинг биринчи навбатда ўз ечимини кутиб тургани, экотуризм учун малакали кадрлар тайёрлаш ҳисобланади. Мамлакатимизда экотуризмни ривожлантиришда давлат табиат қўриқхоналаридан фойдаланишда бу қўриқхоналарга экотуризм-рекреация маршрутларини ишлаб чиқишнинг долзарблиги юқорида келтирилган асослардан иборат. Экотуризмнинг моҳияти ва мазмуни ҳақида «Табиатни муҳофаза қилиш халқаро иттифоқи», «Халқаро туризм жамияти», «Ёввойи табиат умумжаҳон жамғармаси» ва бошқа кўплаб халқаро ташкилотлар Бутунжаҳон туризм ташкилотининг экотуризм ҳақидаги таърифини қабул қилишди[5]. Юқорида экотуризмнинг объекти ва предмети тўғрисидаги таърифлардан кўриниб турибдики, экологик туризм ўтган асрнинг охирларидан бошлаб жаҳон туризми индустриясига аста-секинлик билан кириб келди. Ҳозирги кунга келиб, экотуризм жаҳонда жадал суръатларда ривожланиб бораётган иқтисодиёт соҳаларидан бирига айланди.

Демак, хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, мамлакатимизда экологик туризмнинг назарий ва амалий масалалари турли йўналишда ва турли ёндошувда тадқиқ этилган. Бу эса ўлкамизда ушбу йўналишини ривожлантириш учун имкониятлар тўлиғича этарли эканлигидан далолат беради. Айниқса бу борада Тўдакўл сув омбори ҳудудида имкониятлар этарлиги билан диққатга сазовардир.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Зокиров Ш.С. Антропоген ва амалий ландшафтшунослик. Т., «Университет», 1998, [1,68 б.].
2. Назаров И.К, Тошев Х.Р. Ландшафтлар ресурсшунослиги. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 23-жилд. -Тошкент: 2003. [2,18-20 б.].
3. Назаров И.К. Тошев Х. География чегаралар ва амалиёт. «Тоғ ва тоғолди ҳудудлардан фойдаланишнинг географик асослари». Тошкент, 2002., [3,96-98 b.].
4. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш., Рахмонов У, Явмутов Д. Ўртачўл геотизимларининг антропоген омил таъсирида чўллашуви ва унинг оқибатлари хусусида. Географик экология ва табиатдан фойдаланиш муаммолари. Т.:- 1999., [4,38-40 b.]
5. Нурова Д.Р. Қуйи Зарафшон ландшафтларини муҳофаза қилишнинг геоекологик муаммолари(Ўртачўл мисолида). Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг XXX-илмий-амалий анжумани материаллари. Навоий.:-2015.,[5, 87-90 b.].

UO‘T: 577.3:551

INTRODUKTSIYA QILINGAN GALOFIT O‘SIMLIKLARNING AYRIM MORFOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

O‘.Jumanov tadqiqotchi., T.Kuliev q.x.f.n. dotsent., H.Qo‘shiev b.f.d.prof,
A.Kenjaev doktarant., H.Xaqberdieva tadqiqotchi,
Guliston davlat universiteti “Eksperimental biologiya” laboratoriyasi.
E-mail: jumanovotkirjon@gmail.com

Annotatsiya Chetdan introduktsiya qilingan *Atriplex undulata*, A. *nummularia A. amnicola* va *Acacia ampliceps* o‘simlik turlarining har xil darajada sho‘rlangan tuproq sharoitida o’sishi va rivojlanish bosqichlaridagi morfofiziologik xususiyatlari o‘rganildi. Har xil darajada sho‘rlangan tuproq sharoitida o‘simliklarning poyasining uzunligi hamda yer usti biomassasining quruq va xo‘l xoldagi ko‘rsatkichlari asosida farq aniqlandi. Bunda *Atriplex undulata*, A. *nummularia A. amnicola* kuchsiz va o‘rta sho‘rlanish darajasiga ega bo‘lgan tuproq sharoitida poya uzunligi kuchli farq qilmadi, lekin yer ustki biomassasi sho‘rlanmagan tuproq sharoitda yuqori ekanligi qayd qilindi. Kuchli sho‘rlangan tuproq

sharoitda esa o‘simliklar urug‘ining unuvchanlik hamda poya uzunligi va yer usti biomassaslarida ham farq, ya’ni past ko‘rsatkichlar kuzatildi. Huddi shuga o‘xshash xolat *Acacia ampliceps* o‘simligida ham kuzatilgan bo‘lsada, lekin kuchsiz sho‘rlangan va sho‘rlanmagan tuproq sharoitda ham o‘simlik bo‘yicha, yer usti biomassasida sezilarli farqlar kuzatildi.

Kalit so‘zlar: *Atriplex undulata*, A. *nummularia A. Amnicola, Acacia ampliceps*, sho‘rlanish, biomassa, chidamlilik.

UDC: 577.3:551

SOME MORPHOPHYSIOLOGICAL PROPERTIES OF INTRODUCED HALOPHITIC PLANTS

A.Jumanov researcher T.Kuliev dotsent H.Qo‘shiev prof,
A.Kenjaev doktarant., H.Xaqberdieva researcher
Gulistan State University Laboratory of Experimental Biology.
E-mail: jumanovotkirjon@gmail.com

Anatation:The morphophysiological characteristics of the plant species Atriplex *undulata,* A. *nummularia* A. *amnicola* and *Acacia ampliceps* at different stages of growth and development in saline soils were studied. Differences were found in different saline soil conditions based on the length of plant stems and dry and wet ground biomass. *Atriplex undulata, A. nummularia A. amnicola* In stem soils with weak and moderate salinity, the stem length did not differ significantly, but the surface biomass was higher in non-saline soils. In highly saline soils, differences in plant seed germination and stem length and surface biomass were also observed. A similar situation was observed in the *Acacia ampliceps* plant, but in the slightly saline and non-saline soil conditions, significant differences were observed in the vegetation and surface biomass.

Keywords: *Atriplex undulata, A. nummularia A. Amnicola, Acacia ampliceps*, salinity, biomass, endurance.

Tuproq sho‘rlanishi Yer sharining barcha mintaqalarida kuzatilib, quruqlikning ¼ qismini, sug‘oriladigan ekin maydonlarining yarmidan ko‘proq qismida har xil darajada qayd etiladi [1-3]. O‘simliklarning sho‘rga chidamliligi o‘ta murakkab va dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Tuproq sho‘rlanish darajasi, tipi, uning unumdorligi, organizmning biologik xususiyati (sho‘rga moslashish mexanizmlari), suv, ozuqa rejimi kabi ko‘plab omillarga bog‘liqligi uning murakkabligidan dalolat beradi. Global iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligining yuzaga kelishi ushbu

masalaning jiddiy tus olishiga sabab bo‘lmoqda. Tuproq sho‘rlanishi o‘simliklarga stress omil sifatida ta’sir etib, ularda sodir bo‘ladigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlarning buzilishiga sabab bo‘lib, xosildorlikni pasayishiga olib kelmoqda [3]. Albatta, sho‘rlangan tuproq sharoitida genotipning sermahsul bo‘lishi uning sho‘rga chidamliligini belgilaydi. Chunki genotip tashqi muhit ta‘sirida, o‘zining irsiy imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan holda shakllanadi.

Sho‘rlangan tuproq sharoitda o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishi susayadi, suv almashinishi va ionlar muvozanati hamda fotosintez va nafas olish jarayoni buziladi. Bu ko‘p ayrim hollarda o‘simlik nihollarining nobud bo‘lishi yoki mahsuloti sifatining ekologik jihatdan talabga javob bermaligiga sabab bo‘ladi [2, 4, 5]

O‘simliklarning sho‘rga chidamligini oshirish, sho‘rlangan tuproqlardan samarali foydalanish, chorva ozuqa bazasini mustahkamlashda galofit o‘simliklarning imkoniyatlari yuqori. Dunyo tajriblaridan ma’lum bo‘lishicha, galofit o‘simliklardan ozuqa, dorivor, yem-xashak va moy ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. AQSh ning Arizona universitetida galofitlarning genetik kollektsiyasi tashkil etilib, uning tarkibidan moyli galofit (Salicornia bigelovii) o‘simligining SOS-7 navi yaratilgan. Mazkur navni sho‘r suv bilan sug‘orish tavsiya etilib, gektaridan chorva uchun 20 tonna yashil massa va 600 kg moy olish mumkinligi aniqlangan [6].

Aynan shunday genetik kollektsiya ICBA (International Center for Biosaline Agriculture) markazida tarkibi 252 ta tur va 8000 ortiq namunalardan tashkil topgan genofond tashkil etilgan. Mazkur genofondan sho‘rga chidamli o‘simlik turlari va ularning navlarini tanlash hamda yaratishda bog‘lang‘ich manba sifatida foydalanilmoqda [7].

Ma’lum bo‘lishicha dunyo bo‘yicha galofitlarning 2000 ta, Markaziy Osiyoda-700 dan ortiq turlari uchraydi. Ushbu turlarning 206 tasi Markaziy Osiyo uchun endemik turlardan hisoblanadi

Galofit o‘simliklar nafaqat sho‘rlangan, qurg‘oqchilik mintaqalarda ozuqabop ekin balki ekologik muhitni yaxshilashda o‘simlikshunoslikning muhim ob’ekti sifatida e’tirof etildi. Buni keyingi yillarda Orol xududida olib borilgan ko‘kalamzorlashtirish ishlaridan ham ko‘rish mumkin.

O‘z navbatida shuni qayd etish kerakki galofit o‘smliklarning genetik imkoniyatlaridan hali to‘liq foydalanilganicha yo‘q. Buning uchun birinchi

navbatda ularning genetik kollektsiyasini tashkil etish, selektsion qiymatini aniqlash va urug'chiligini tashkil maqsadga muvofiq.

Ushbu tadqiqotdan asosiy maqsad chetdan introduktsiya qilingan *Atriplex undulata*, A. *nummularia A. amnicola* va *Acacia ampliceps* o'simlik turlarining har xil darajada sho'rlangan tuproq sharoitida morfofiziologik belgilarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotlar Sirdaryo viloyati hududida Guliston davlat unversiteti "Ekspermental biologiya" laboratoriyasi dala tajriba maydonida olib borildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida introduktsiya qilingan galofit o'simliklarning Atripleks (*Atriplex undulata*, A. *nummularia A. amnicola*) va Akasiya (*Acacia ampliceps*) turlari olindi. Ushbu turlarning biologik xususiyatlari har xil darajada sho'rlangan tuproq sharoitidagi dala tajriba maydonida o'rganildi.

Tajribalar uchun tuproq tarkibi va strukturasiga har xil darajada sho'rlangan 3 ta tajriba maydonlari tanlandi. Har bir tajriba maydoniga o'simlik namunalarining urug''lari 3 qaytariqda ekilib, morfofiziologik ko'rsatkichlari bo'yicha kuzatuvlar olib borildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, atripleks o'simligining A. nummularia A. Amnicola turlari sovuqqa chidamsiz bo'ldi. Ushbu turlar orasidan Atriplex undulata turi sovuqqa chidamligi bilan e'tiborni qaratdi. Atriplex undulata vegetatsiya davrining dastlabki aprel, may oylarida sekin rivojlandi. Avgust, sentyabr oylarida o'sish jarayoni jadallashdi. Buni jadvaldagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin. Sentayabr oyida Acacia ampliceps o'simligining bo'yi 29.5 sm teng bo'lgan bo'lsa, oktyabrda- 51.5 sm noyabr oyida 68.2 sm ni tashkil etdi. Atripleks turlari akatsiyaga nisbatan jadal o'sdi. Buni Atriplex undulate o'simligida aniq ko'rish mumkin. Mazkur o'simlik bo'yi sentyabrda 56.6 sm teng bo'lgan bo'lsa noyabr oyida 91.6 sm teng bo'ldi.

jadval

Sirdaryo sharoitiga itroduktsiya qilingan galofitlarning o'sish dinamikasi

№	Galofitlar	O'simlik bo'yi, sm		
		1.09	1.10	1.11
1	Acacia ampliceps	29,5	51,5	68,2
2	Atriplex nummularia	62,7	71,0	72,8
3	Atriplex undulate	56,6	82,0	91,6

4	Atriplex amnicola	48,6	75,6	89,9

Atriplex undulata o‘simligi ko‘p yillik bo‘lib birinchi yilda hosildorligi yashil massa sifatida 16 tsG‘ga ni tashkil etdi. Tadqiqotning ikkinchi yilida mazkur turning hosildorligi 35-40 tsG‘ga ni tashkil etdi. Mazkur turdan ikkinchi yilda 7-9 tsG‘ga urug‘ olindi(1-rasm). Vegetatsiya davrida ikki marta yashil massa olish mumkinligi aniqlandi. Atripleks o‘simligining yashil massasidan chorva ozuqasi sifatida foydalanish mumkinligi aniqlandi.

Atriplex undulata o‘simligini urug‘ va vegetativ yo‘l bilan ko‘paytirish mumkin. Buning uchun atripleks urug‘i diametri 20sm, balandligi 30 sm bo‘lgan maxsus idishlarga erta bahorda issiqxonada ekiladi. Aprel oyining boshida tuvaklarga ekilgan ko‘chatlari maxsus tayyorlangan qator orasi 2-3 m, o‘simlik orasi 1-1.5 m paykalchalarga ekiladi. Chunki atprileks o‘simligi yoyilib o‘sadi. Erga qadalgan qismi namlik etarli bo‘lsa ildiz ortadi shu yo‘l bilan ko‘payishi mumkin. Atprileks o‘simligini vegetiv yo‘l bilan ham ko‘paytirish mumkin. Ikkinchi yil atprileks o‘simligidan aprel oyining boshida 20-30 sm uzunlikda shoxlari kesib olinib maxsus tayyorlangan juyaklarga ekiladi va har 7-8 kunda suv berildi.

1-расм. Atriplex undulata

Akatsiya -**Acacia ampliceps** dukkakli o‘simliklardan bo‘lib nafaqat sho‘rga chidamli balki tuproq unumdorligini oshiradi. Akatsiyaning vegetativ massasidan chorva ozuqasi sifatida foydalanish mumkin. Ilmiy manbalarda ikkinchi yildan boshlab akatsiya poyalari o‘rib olinib hashak sifatida foydalanish tavsiya etilgan. Akatsiya urug‘i aynan atripleks o‘simliklariga o‘xshash issiqxonada maxsus idishlarga ekiladi. Tayyor bo‘lgan ko‘chatlar aprel oyining boshida qator orasi 3 x 2 m sxemada ochiq maydonga ekiladi. Vegetatsiya davrida qator orasiga ishlov beriladi,

begona o‘tlardan tozalanadi va mineral o‘g‘it berildi. Akatsiya o‘simligi jadval rivojlanib ayrimlarining bo‘yi 1.5-1.90 m ni tashkil etdi. **Acacia ampliceps** kech kuzgi borib gullaydi. Buni 2-rasmdan ham ko‘rish mumkin. Rasmda akatsiya daraxtining gullash fazasining boshlanishi tasvirlangan. Kuzda havoning sovushi natijasida gullash jarayoni to‘liq amalga oshmadi va o‘simliklar soquqdan nobud bo‘ldi. Akatsiya daraxti sovuqqa chidamsiz bo‘lib har yili uning ko‘chatini ekishga tayyorlash kerak bo‘ladi.

2-расм. Acacia ampliceps

Umuman olganda Sirdaryo viloyatining sho‘rlangan tuproq sharoitida introduktsiya qilingan galofitlardan bo‘lmish **Atriplex undulata** va **Acacia ampliceps** o‘simliklarini sho‘rlangan ekin maydonlarida ekish uchun tavsiya etish mumkin. Akatsiya o‘simligining sovuqqa chidamsiz ekanligini yuqorida qayd etgan edik. Selektsiya usullari yordamida ushbu o‘simlikni sovuqqa moslashtirish mumkin. Introduktsiya qilingan galofitlardan ozuqabop ekin sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Buning uchun ushbu o‘simliklarning birlamchi urug‘chiligini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Har xil darajada sho‘rlangan tuproq sharoitida o‘simliklarning poyasining uzunligi hamda quruq va ho‘l holdagi yer usti biomassasi farq qildi.

Atriplex undulata, A. *nummularia A. amnicola* kuchsiz va o‘rta sho‘rlanish darajasiga ega bo‘lgan tuproq sharoitida poya uzunligi kuchli farq qilmaydi, lekin er ustki biomassasi sho‘rlanmagan tuproq sharoitda morfofiziologik ko‘rsatkichlari bilan farq qiladi.

Kuchli sho‘rlangan tuproq sharoitda esa o‘simliklar urug’ining unuvchanlik hamda poya uzunligi va er usti biomassaslarida ham farq qildi. Xuddi shuga o‘xshash holat *Acacia ampliceps* o‘simligida ham

kuzatilgan bo‘lsada, lekin kuchsiz sho‘rlangan va sho‘rlanmagan tuproq sharoitda ham o‘simlik bo‘yicha, yer usti biomassasiga sezilarli farqlar kuzatildi.

Adabiyotlar:

1. Кузнецов В.В. Физиология растений. –М.: Высшая школа. 2006. 742 с.
2. Flowers T.J. Improwing Crop Salt Tolerance //J. Exp. Bot. 2004. –Vol.55. –P.307-319.
3. Munns R.. Tester M. Mechanisms of salinity tolerance // Ann. Rev. Plant Biol. 2008. V. 59. P. 651–681.
4. Азимов М.Л. Некоторые биохимические особенности устойчивых к NaCI растений картофеля in vitro и in vivo: дисс.. … канд. Биол. Наук: 03.01.04. Душанбе, 2013. 100 с.
5. Давятназарова З.Б. особенности функционирования механизмов устойчивости растений в условиях абиотического стресса. Автореф. Дисс. докт. Биол. Наук: 03.01.04. Душанбе, 2016. 46 с.
6. Шамсутдинова Э.З., Шамсудинов З.Ш. Кормовые и экологические возможности однолетнего галофита кохии веничной в аридных районах России и Центральной Азии//Сельскохозяйственная биология, 2012, №6.С.100-108.
7. Annual Report. ICBA, 2004. –P. 95-99.
8. Акжигитова Н.И. Галофильная растительность Средней Азии и ее индикационные свойства. Ташкент, «Фан» 1982 . -С.189.

УДК: 614.846.4.003.

ЭКОМЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТНИ ЯХШИЛАШ МАҚСАДИДА МЕЛИОРАТИВ НАСОС СТАНЦИЯЛАРИДАГИ АГРЕГАТЛАРИНИ ИШЛАТИШ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ.

СХЕХ 3/1 гуруҳ талабаси Норқулов Н.Ш., т.ф.н.,доц.Уралов Б.Р, ассистент Шарипов А.Э., маг. Абдуллаев Ж., маг.Назаров Д., бак.Махмудов А.

Аннотация. Ушбу ишда, суғориш тармоқларида қўлланиладиган марказдан қочма (Д, НД, М типли) ва ўқий (ОГ, ОП) насослар конструкцияси жихатидан содда, хамда яхши энергетик ва кавитацион характеристикаларга эга бўлганлари билан сувнинг

лойкалик даражаси юкори булган талабларга кўпинча жавоб бера олмайдилар. Юкорида келтирилган насосларни тайёрловчи заводлар эса, суғориш насос станцияларининг ўзига хос талабларини эътиборга олмайдилар ва бу насосларни “тиниқ-тоза” сув учун мўлжалланган деб хисоблайдилар . Ишда насос агрегатларидан фойдаланиш шароитлари ва бунда уларнинг ишчи деталларини ейилиши ўрганилди .

Калит сузлари: насос станциялари, туб окизиклар, насос агрегатлари, лойка сув заррачалари, гидроабразив ейилиш, насос станциясини напори ва сув сарфи, марказдан кочма ва укий насослар, лойкалилик таркиби ва микдори.

UDC: 614.846.4.003.

FACTORS AFFECTING THE USE AND EFFICIENCY OF AGGREGATES IN MELIORATION PUMPS IN ORDER TO IMPROVE THE ECOMELIORATIVE STATUS.

students Norkulov N.Sh., doccent.Uralov B.R, assistant Sharipov A.E., magician. Abdullaev J., mag.Nazarov D., tank.Makhmudov A.

Annotation. This article discusses the importance of well pumps used in agriculture and the principles of their use in maintaining environmental balance.

Keywords: Ecology, hydrology, hydraulic engineering, arid, humidity, critical.

Кириш. Насос станциялари ишининг самарадорлигини оширишга унинг жихозлари ва иншоотларининг конструкцияларини такомиллаштириб бориш хамда машинали сув кўтариб бериш комплексининг иши самарадорлигига таъсир қилувчи махаллий шароит ва омилларини ўрганиш мақсадида илмий ишлаб чиқариш ишларини системали тарзда йўлга қўйиш билангина эришиш мумкин.Насос агрегатларининг эксплуатацион кўрсаткичларини пасайишига таъсир қилувчи сифатли маълумотларни олиш мақсадида хамда тажриба тадқиқотлари таркибини аниқлаш мақсадида Республиканинг бир қанча насос станцияларида ўрганиб чиқилган.

Кўпгина насос станцияларнинг эксплуатацион иш шароитларини тахлил қилиш шуни кўрсатадики сув сарфини ўлчовчи асбоб – ускуналарнинг йўқлиги ёки борлари хам ишламаслиги сабабли хизмат кўрсатувчи ходимлар насос агрегатларининг сув кўтариб беришининг лойихавий катталикларидан фойдаланмоқдалар. Масалан Андижон вилояти насос станциялар бошқармасига қарашли 416 насос агрегатидан фақат 41 таси УРЗ-В типли ултратовушли сарф ўлчагичлари билан жихозланган. Шу 41 сарф улчагичларнинг хам бир қисми яроқсиз холатдадир [1,2].

Насоснинг эксплуатацион параметларининг назорат қилишнинг йўқлиги унинг характеристикаси (сув кўтариб бериши, босими, ФИК) бўйича бирон-бир боғланишни аниқлаш имконини бермайди.Машинали сув кўтариш учун Марказий Осиё дарёларининг ўзига хос хусусияти бор бўлиб, бу – дарё сувларидан лойқаликлар миқдорининг анча юқори эканлигидир. Масалан Ўрта Осиё ирригация илмий тадқиқот институти (САНИИИРИ)нинг маълумотлари бўйича минтақанинг асосий сув манбаларида ўртача йиллик лойқалилик миқдори 5-7 кг/м^3 гача, ўртача ойлик лойқалилик эса 10-12 кг/м^3 гача етади. Лойқалиликни хосил қилувчи деярлибарча заррачалар 0,25 мм дан кичик бўлиб, уларнинг 40-60%ини эса йириклиги 0,01 мм бўлган заррачалар ташкил қилади. Кузатувларнинг кўрсатишича Сурхондарё вилоятидаги “Кокайти”” насос станциясида сув таркибидаги лойқалилик апрел ойида 16,88 кг/м^3 га етган. Лойқалилик таркибидаги заррачаларнинг 50-60% “Моос” шкаласи бўйича 6 ва ундан ортиқ каттиқликка эга бўлган заррачалардир.(3).



Расм 1.1. Насос станциялари чиқарган сув таркибидаги лойқалик миқдорининг ўзгариш графиги: 1-Сирдарё дарёси, 2-Амударё дарёси, 3-“Дўстлик” насос станцияси, 4-“Обихаёт” насос станцияси, 5-“Мустақиллик-1” насос станцияси, 6-“Хожабосмон” насос станцияси, 7-“Тўрақўрғон-1” насос станцияси.

Қабул қилинган техник меъёрлар бўйича лойқа оқизиқларнинг ярми тиндиргичларга чуктирилиб тутиб қолиниши қолган ярми эса суғориш тармоқлари томонидан далаларгача етиб бориши керак. Бундай иш шароитларида ишлаш, насосларни конструктив тузилишини, хамда иш режмини танлашда сувни лойқалилигини хам эътиборга олишни тақазо қилади [1,2].

Суғориш тармоқларида қўлланиладиган марказдан қочма (Д, НД, М типли) ва ўқий (ОГ, ОП) насослар конструкцияси жихатидан содда хамда яхши энергетик ва кавитацион характеристикаларга эга бўлганлари билан юқорида келтирилган талабларга кўпгинча жавоб бера олмайдилар. Бу насосларни тайёрловчи заводлар суғориш насос станцияларининг ўзига хос талабларини эътиборга олмайдилар ва бу насосларни тиниқ-тоза сув учун мўлжалланган деб хисоблайдилар [3,5].

Д4-125-О русумли марказдан қочма насослардан фойдаланиш тажрибаси шуни кўрсатадики, бу насосларни абразив ейилишга чидамли қилиб тайёрлаш (деталлари зангламайдиган пўлат 12х18 Н10Т, ОХ, 12 НЧ, пўлат 10х12 НДЛ) хам уларнинг бронли дискларнинг, химоя втулкаларининг, зичловчи ва абразив заррачалардан химояловчи халқаларининг ейилиши жадаллигини камайтира олмаган [4,5,6].

Юқорида айтилганлардан келиб чиқадики, насос агрегатларидан фойдаланиш самарадорлигига таъсир қилувчи омиллардан бири бу кўтариб берилаётган сув таркибида қаттиқ абразив заррачаларнинг борлиги экан.

Шу холатни эътиборга олиб бир қанча суғориш мавсумларида Республикамизнинг бир қанча насос станцияларида,насос агрегатларидан фойдаланиш шароитлари ва бунда уларнинг ишчи деталларини ейилиши ўрганилди .

Сувдаги муаллақ холдаги қаттиқ заррачаларнинг концентрацияси ва дисперслиги насос станцияларнинг босимли ховузларидаги сувдан хар 10-15 кунда 3 литрли сиғимли банкага намуналар олиш йўли билан аниқланди. Ўлчамлари 1-0,25 мм ва 0,25-0,1 мм бўлган заррачалар миқдори намуналарни йирик ва майда ўлчамли элаклар ёрдамида сузиб олиш йўли билан аниқланади. Бунда майда заррачалар миқдори эса Стокснинг заррачаларнинг чўкиш тезлиги уларнинг диаметрига боғлиқлигига асосланган пипетка усули билан

аниқланади. Қаттиқ заррачаларнинг концентрацияси намунадаги қуруқ қолдиқ массасини намуна хажмига нисбати сифатида аниқланади.

Насослар томонидан кўтариб берилаётган сув таркибидаги муаллақ холдаги қаттиқ заррачалар коцентрацияси ва дисперслигининг ўзгариш характерини ўрганиш бўйича ўтказилган тажрибаларнинг натижалари 1.1 ва 1.2 расмларда келтирилган. 1.1 расмдан кўриниб турибдики сувдаги қаттиқ заррачаларнинг концентрациясининг ўзгариш характери параболасимон эгри чизиқ бўлиб, унинг миқдори суғориш мавсуми охирига тўғри келмоқда. Концентрациянинг максимал миқдори май ойи охири ва июл ойининг биринчи ярмига тўғри келиб 2,5....3,8 кг/м^3 ни ташкил қилади. Баъзан, кучли ёмғирли об-хавода каналлар ўзанининг ювилиши хамда уларга юқорида жойлашган адир ерлар ёнбағирликларини ювилишидан хосил бўлган кучли лойқаликка эга бўлган сувларнинг қўшилиши натижасида сувдаги лойқа концентрацияси 6,5....7 кг/м^3 гача етган. “Туракургон-1” насос станциясининг сув келтирувчи каналини ўзанини адирлик жойлардан ўтгани учун ёмғирли об-хавода лойқа босган. Ёмғирли об-хаво шароитида махсус олинган намуналардан туб оқизиқларнинг миқдори 0,5.....1 кг/м^3 эканлигини аниқланган. Туб оқизиқлар фракцияси ўлчамлари 1...5 мм га тенг бўлган. 1.1 ва 1.2 расмлар асосида бажарилган хисоблар суғориш мавсуми давомида сувдаги қумнинг (α>0,01мм) концентрацияси 0,4 дан 1,63 кг/м^3 гача, физик лой (α<0,01 мм)нинг концентрацияси эса 0,7 дан 2,17 кг/м^3 гача оралиқдаги миқдорни ташкил этишини кўрсатди.

Олинган маълумотларнинг кўрсатишича сувдаги лойқалик концентрациясининг ўртача миқдори 2,15 кг/м^3 бўлганда ва Д6300-80 (24НДС) насоснинг ўртача сув хайдаши 1,5 м^3/с ни ташкил қилганда насос орқали 1 соатда 11,6 т, 1 суткада эса 278 т қаттиқ заррачалар оқиб ўтади. Агар шундай хисобларни 10 м^3/с сув сарфига эга бўлган ўқий насос учун бажарилса насос орқали ўтаётган муаллақ холдаги қаттиқ заррачаларнинг суткалик миқдори 1858 т.ни ташкил қилади.



Расм 1.2. Кўтариб берилаётган сувдаги қаттиқ заррачаларнинг дисперс таркиби: 1 – "Қуйимозор" НС, 2 – "Олот" НС (САНИИИРИ маълумотлари), 3 – "Мустақиллик-1" НС, 4 – "Дўстлик" НС, 5 – "Обихаёт" НС, 6 – "Хожабосмон" НС, 7 – "Тўрақўрғон" НС.

1.2 расмдан кўриниб турибдики сув таркибидаги қаттиқ механик аралашма таркибида ўлчамлари 0,1-0,05 мм бўлган заррачалар салмоқли ўринни эгалламоқдалар.

Хулоса. Гидроциклонларнинг назариясидан хамда улардан фойдаланиш тажрибасидан маълумки, йириклиги 0,04 мм дан ортиқ бўлган заррачалар яхши сепарацияланади. Демак, насосларнинг ичида бўлган ва марказдан қочма куч майдонида харакатланаётган, заррачаларнинг анча қисми ишчи деталларнинг сув оқими томонидан ювилиб турувчи юзаларига кесиб уларни ейилишида иштирок қилади. Бу холат қуйида келтириладиган кўплаб мисоллар асосида тасдиқланади.Бу хажм ва фракцион таркиблар суғориш мавсуми охирида яъни насослар ишдан тўхтатилгач аниқланган. Фракцион таркиб намуналари олиниб, юқорида айтиб ўтилган услуб билан аниқланди. Чўккан лойқалар хажми эса нивелир асбоби ёрдамида геометрик ва геодезик ўлчов усуллари ёрдамида аниқланади. Сув таркибидаги лойқанинг бир қисми сув келтирувчи иншоотларга чўккани билан, уларнинг асосий қисми (суткасига юзлаб тонналар миқдорида) насослар ичида ўтади.

Адабиётлар:

1. Абдураманов А.А. Гидравлика гидроциклонов и гидроциклонных насосных установок: /Монография/. Ч.1 и 2. -Алматы: Гылым, 1993. - 353с

2. Волков П. М. Моделирование запыленных потоков и его практическое приложение. В кн. «Теория подобия и моделирования». – М.: Изд. АН . 1989. с.75-82.

3. Ким В.А., Кабулов И.Н. Опыт эксплуатации центробежных насосов Д4-125-О на насосной станции «Кокайты» // Мелиорация и водное хозяйство. 1991. № 5. с. 37-39.

4.Мамажонов М., Уралов Б., Турсунов Х. Изменение водоподачи насосов . // Сельское хозяйство Узбекистана. 2005. № 1. с. 28-29.

5. Мамажанов М.,Уралов Б.Р.,Хидиров С. Влияние гидроабразивного износа деталей центробежных и осевых насосов на эффективность эксплуатации оросительных насосных станций.ISSN 2181-8584, журнал“Ирригация и мелиорация,№1(15), Ташкент, 2019, с. 37-43.

6. Shaazizov F., UralovB.,,ShukrovE.,NasrulinA. «Development of the computerized decision-making support system for the prevention and revealing of dangerous zones of flooding».E3S Web of Conferences, Volume 97 (2019), Construction the formation of Living Environment. XXII International Scientific Conference on Advanced In Civil Engineering. April 18-21,2019, Tashkent,Uzbekistan.

УДК: 614.846.4.003

TO`DAKO`L SUV OMBORINING EKOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA`MINLASH MASALALARI

Tuxtayeva Xabiba Toshevna- Geografiya fanlari boyicha falsafa doktori, dotsent, TIQXMMI MTU BuxTRBI “Gidrologiya va ekologiya” kafedrasi mudiri, Buxoro shahri,

Hamroyeva Zarina Bekmurodovna – TIQXMMI MTU BuxTRBI Umumkasbiy fanlar kafedrasi asisstenti, Buxoro shahri, O`zbekiston Respublikasi

TIQXMMI MTU BuxTRBI EAMM 2/1 guruh talabasi, Buxoro shahri, O`zbekiston Respublikasi

Fayzullayev Dilshod- Гидрология (Дарё ва сув омборлари гидрологияси) таълим йўналиши 2 курс талабаси

Annotatsiya: Ushbu maqolada To`dako`l suv omborining hozigi holati va ekologik xavfsizligi bo`yicha tavsiyalar berilgan. Buda suv omborining

gidrotexnik inshootlari ishonchliligi va ekologik xavfsizligini ta’minlashdagi muammolari o’rganilgan

Kalit so`zlar: Suv ombori, gidrotexnik inshootlar, ekologik xavfsizlik, xavfsizligi qoidalari, inshootlarni ekspluatatsiya qilish

UDC: 614.846.4.003

ISSUES OF ENVIRONMENTAL SAFETY OF THE TODAKOL RESERVOIR

Tukhtaeva Khabiba Toshevna -Doctor of Philosophy (PhD) of geographical sciences, the head of “ General professional sciences” department, Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers.
Khamroyeva Zarina Bekmurodovna, Fayzullayev Dilshod- 2 year student Hydrology (Hydrology of rivers and reservoirs

Annotation: This article gives recommendations on the current state and environmental safety of the Todakol reservoir. The problems of reliability and environmental safety of hydraulic structures of the Todakol reservoir have been studied.

Keywords: Reservoir, hydraulic structures, environmental safety, safety regulations, operation of facilities

To‘dako‘l suv tashlamasi 1970 yillarda tashkil topgan, asosan Zarafshon daryosining suvlari va kollektor hamda oqava suvlar tushgan, suvga bo‘lgan talabning oshishi bilan 1979 yillardan suv ombori sifatida foydalanish boshlangan, ABMKning PK 1520 dan suvni To‘dako‘lni to‘ldirish uchun tashlash boshlangan, umumiy maydoni 22,0 ming ga.ni, dambaning uzunligi 4,2 km.ni tashkil etadi, balandligi 11 m, loyiha asosida qurilmagan, dambada geologik qidiruv ishlari olib borilmagan, dambaning hozirgi holati ilmiy-texnik talablarga umuman javob bermaydi, suv to‘ldirish shakli nasos stansiyalari orqali.

Hozirgi kunda To‘dako‘l suv omborining gidrotexnika inshootlaridan uzoq yillik foydalanish natijasida ma’naviy va moddiy eskirishlar yuzaga kelgan, roy berishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarning oldini olish, ularning ishonchliligini baholash va ekspluatsiya sharoitini yaxshilash bo‘yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

To`dako`l suv omborida o‘tkazilgan dala tadqiqot natijalarini

S.B.Mirsxulava taklif qilgan nazariyaga binoan ishonchlilik kriteriyalaridan foydalanilgan holda inshootning ishonchliligini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- 1. Suv omborlarining gidrotexnik inshootlari ishonchliligini va ekologik xavfsizligini ta’minlashdagi muammolarini o’rganishdan iborat.

Atrof-muhit va ijtimoiy xavfsizlikning turli muammolari, shu jumladan gidrotexnika bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar turli yillarda A.B. Avakyan, N. A. Alekseev, V. A. Anikeev, V. V. Anikeev, G. A. Bachinskiy, K. M. Berkovich, A. G. Vasilevskiy, Yu. S. Vasilev, S. L. Vendrov, e.V. Girusov [12; 128-b.].

I. Klim, OM Larichev, e. Mushik, P. Myuller, C. Starr [57; 285-b.] kabi olimlarning asarlarida bayon qilingan: Shuningdek, muhandislik va atrof-muhitni boshqarish sohasida xavfsizlik muammolarini hal qilishdan noaniqlik va xavf omillarini hisobga olishga, tizimlashtirish va ularni hal qilishning asosiy usullarini, ekologik va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy talabini shakllantirishgan. Tabiiy barqarorlik elementlarini – inson hayoti va sog‘lig‘ini saqlab qolish va ularni minimallashtirish bilan tabiiy boyliklarni iqtisodiy ekspluatatsiya qilish va ularni samarali ko‘paytirish sharoitlarini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan tabiatni oqilona boshqarish tizimini bosqichma-bosqich joriy etishgan.

O‘zbekistonda 55 ta suv ombori ishlaydi, yirik gidrotexnik inshootlarning asosiy qismi 1960-1972 yillarda foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, bir necha o‘n yillar oldin gidrologik kuzatuvlar seriyasining qisqa davomiyligi asosida qabul qilingan va amalga oshirilgan loyihalardagi chiqindilarning maksimal miqdorini kam baholash ham muhim omil hisoblanadi. Gidroelektrstantsiyasining ishlashi davomida to‘plangan gidrologik ma’lumotlar daryo rejimining ko‘plab xususiyatlarini, ayniqsa, avval qabul qilinganlardan sezilarli darajada farq qiladigan va oqimning chiqarish qobiliyatini aniqlaydigan maksimal oqim tezligini to‘g‘rilash zarurligini ko‘rsatadi.

Suv omborlaridagi baxtsiz hodisalarni tahlil qilishdan kelib chiqadigan bo’lsak, asosiy sabablar bu ekologik yoki texnik sabablarga ko’ra ba’zi inshootlarning ishlamay qolishini misol qilsak bo’ladi. Drenaj inshootlarini ekspluatatsiya qilish bo’yicha jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, turli xil zararlarning sabablari odatda tadqiqotlardagi kamchiliklar, loyihalash yechimlari yoki seysmik ta’sir, sifatsiz qurilish ishlari va ekspluatatsiya buzilishlarini misol qila olamiz. Suv omborlarida

suv inshootlarining shikastlanishining odatiy turlariga quyidagilar kiradi: metall qismlarning korroziyasi; tiqilib qolgan eshiklar: qo'llab-quvvatlovchi qurilmalarning shikastlanishi; to'kilgan yo'lning kavitatsiyasi va eroziyaga zarar yetkazishi; beton qoplamasidagi yoriqlar orqali yo'l qo'yib bo'lmaydigan filtrlash; quyi oqimdagi damping moslamalarini gidrodinamik yuklanish va kavitatsion eroziya natijasida yo'q qilish va boshqalar kiradi.

Suv omborlaridagi suv oqimlariga kuchli kavitatsiyaning shikastlanishlar soni ayniqsa so'nggi o'n yilliklar ichida ko'paygan (taxminan 25%), bu birinchi navbatda gidroelektr inshootlarida bosimning oshishi bilan bog'liq. Oqim yuzalarning texnologik va konstruktiv nosimmetrikliklari bilan kavitatsiyaning shikastlanishi suv omborlari yo'llardagi og'ir shikastlanishlarning umumiy sonining 40 foizini tashkil qiladi, eshik kameralari elementlari avariyalarning to'rtdan bir qismini, ishlarning umumiy sonining 20 foizini tashkil qiladi, suv omboridagi suv o'tkazgichlarining energiya so'ndiruvchi moslamalari elementlari eroziyalangan holatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirining buyrug'iga binoan Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-sentabrdagi 744-son "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, shuningdek kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida davlat nazoratini olib borish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilingan.

Bunga ko`ra 5 bo`limida GTIlarda suvni muhofaza qilish zonalari, qirg'oqbo'yi mintaqalari belgilanishi va sanitariya muhofazasi zonalari tashkil etilishi kerak deb belgilab qo`yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Xusanxo'jaev Z.X "Suv omboridagi gidrotexnika inshootlari "Toshkent. O'qituvchi. 1986 y .214b

2. To'dako'l suv boshqarmasi hisoboti.

3.Kaveshnikov N.T. "Ekspluatatsiya I remont gidrotexnicheskix soorujeniy" Moskva. Agroprizdat. 1989g. 272s.

8.Dzerjinskogo M.R. Bakiev va boshqalar" Gidrotexnika inshootlari" Toshkent 2008 y.I qism.

9.Bakiev M.R, Tursunov T.N, Durmatov J. Suv xo‘jaligi tashkilotlari ekspluatatsiya xizmatini ishini tashkil etish (suv xo‘jaligi tashkilotlari ekspluatatsiya xizmati uchun eslatma). TIMI Irrigatsiya gidrotexnika inshootlarini qurish va ulardan foydalanish fakulteti ilmiy–tadqiqot, uslubiy ishlari Ekspress–byulleteni №1,2. (qo‘shma son) Toshkent 2006.

UO‘T: 627.133 (575.144)

ZARAFSHON HAVZASINING GIDROLOGIK O’RGANILGANLIGI VA OQIM KO’RSATKICHLARINI BAHOLASH

Qurolov Doston Ilxomidin og’li O`zbekiston Milliy Universiteti magistri
Aminova Zaynura Iskandar qizi- BuxTRBI DSOG 1/1 guruh talabasi

Annatasiya. Maqolada Zarafshon havzasida amalga oshirilgan gidrologik kuzatishlar va oqimning o'rtacha yillik suv sarfi daryoning toyinish manbalari tahlili yoritilgan.

Kalit so`zlar: gidrologik kuzatish, suv resurs, oqim miqdorini kamayishi, daryo, toyinish, nazorat.

UDC: 627.133 (575.144)

GEOLOGICAL SURVEY OF ZARAFSHAN BASIN EVALUATION OF THE STUDIED AND FLOW INDICATORS

Qurolov Doston Ilkhomidin ogli master of National University of Uzbekistan
Aminova Zaynura Iskandar daughter Student of Bukhara Institute of Natural Resources Management

Annotation: The article describes the hydrological observations carried out in the Zeravshan basin and the analysis of the average annual water consumption of the stream and sources of water saturation of the river

Keywords: Hydrological monitoring, water resource, flow reduction, river, saturation, control

Kirish. O’zbekiston daryolarida doimiy gidrologik kuzatishlar XIX asrning oxirlarida boshlangan. Mamlakatimiz hududida gidrologik kuzatish tarmoqlari o’tgan asrning birinchi choragidan boshlab, yanada jadal suratlarda rivojlana boshladi.

Biz o’rganayotgan Zarafshon daryosi havzasining O’zbekiston qismida o'tgan yillar davomida, Zarafshon daryosining o'zi bilan qo'shib hisoblaganda, 14 ta daryodagi 42 ta gidrologik postlarda kuzatishlar olib borilgan.Ularning 24 tasi bevosita Zarafshon daryosi hamda uning Oqdaryo va Qoradaryo tarmoqlarida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, qolgan 18ta gidrologik postlar havzadagi kichik daryolarda joylashgan.

Havza boshqarmasi 4 viloyatga xizmat ko’rsatishini hisobga olib borishda

antropogen gidrografik tarmoqlari asosida suv taqsimotini to’g’ri va tezkor amalgaoshirishni ta’minlash maqsadida boshqarma ta’sarrufidagi 1 Magistral va 8ta irrigatsiya tizimlari boshqarmalariga quyidagi vazifalar belgilab berilgan

- Zarafshon daryosi- suv resurslarini o’z hisobidagi daryolar va kanallar orqalitranzit holda o’tkazish va talabnomalar asosida Irrigatsiya tizimlari hisobida bo’lgan kanallarga yetkazib berish va viloyat hududidagi 8ta suv omborini ishlatishdan iborat;
- Eski Tuya- Tortor kanali- asosan Jizzax viloyatining tumanlarini suv bilan ta’minlashdan iborat;

Tahlil va natijalar. Zarafshon daryosidan oqilona,samarali,ekologik jihatdan xavfsiz foydalanish har bir insonning burchi hisoblanadi.

Zarafshon daryosi oqimining gidrologik o'zgaruvchanligini iqlimiy ommillarga bog'liqligi, ularning tahlili asosida berilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida joriy etilgan (Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2018 yil 6 apreldagi 02/30-211-son malumotnomasi). Natijada daryo oqimining miqdoriy ko'rsatkichlari, jumladan, suv sarfi va oqim hajmlari aniqlashtirilgan va bu holat daryo oqimini viloyatlar, tumanlar va ularga suv keltiradigan kanallar bo'yicha taqsimlash samaradorligini oshirish imkonini bergan;

Konstitutsiyamizda suv va boshqa tabiiy resurslar o’sha hududda yashaydigan xalqlar hayoti va faoliyatining asosi sifatida foydalanishi va muhofaza etilishi belgilab qo’yilgan. Har qanday tabbiy resurslar suv bilan uzviy bog’liqdir.

Zarafshon daryosi suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan, iqlimning kelajakdagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarini hisobga olgan holda, samarali foydalanish bo'yicha berilgan ilmiy asoslangan xulosalar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhafaza qilish

davlat qo'mitasida daryo suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan rejalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Ekologik va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2018 yil 25 iyoldagi 03-03/2-3173- son malumotnomasi). Natijada Zarafshon daryosi suv resurslaridan foydalanib, ekologik vaziyatni yaxshilash va aholini toza ichimlik suvi bilan uzliksiz taminlashda qo'shimcha imkoniyatlar yaratilgan.

Ma'lumki, daryo oqimi ko'rsatkichlariga suv sarfi, suv sathi, suvning oqishtezligi, oqim hajmi, oqim moduli, oqimning modul koeffitsiyenti, minerallashuv darajasi va boshqalar kiradi. Ishning obyekti sanalgan Zarafshon daryosining oqimi ko'rsatkichlarini tahlil qilishimiz uchun dastlab, Dupuli postida kuzatilgan o'rtacha ko'p yillik suv sarflari ma'lumotlaridan foydalandik. Ushbu ma'lumotlar asosida ishning mazkur bo'limida daryo oqimining ko'rsatkichlari va ularning taqsimlanishi masalalarini o'rganib chiqamiz

Zarafshon daryosi havzasidagi daryolar va soylar haqidagi gidrologik ma'lumotlar, jumladan, suv sarflari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish va tahlil
qilish uchun V.E.Chub (2007) monografiyasida keltirilgan ma'lumotlardan foydalandik. Shu maqsadda Zarafshon daryosi irmoqlarining oqim hosil bo'lish
zonasida shakllangan o'rtacha ko'p yillik oqim ko'rsatkichlari haqida V.E.Chub
ma'lumotlari bilan tanishib chiqdik va ularni tahlil qildik.
Ushbu tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan monografiyada Zarafshon daryosi
va uning irmoqlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu monografiyada keltirilgan ma'lumotlar asosida jadval tuzildi

Zarafshon daryosining gidrometrik kuzatishlar olib borilgan irmoqlarining oqim hosil bo'lish zonasida shakllangan o'rtacha ko'p yillik oqim ko'rsatkichlari (V.E.Chub, 2007).

T.r	Daryo- kuzatish joyi	*F, km2*	*H, km*	*m3 Q,/s*	*10W6 m3 ,*	*l/sM*km , 2*	*U, mm*
1	Urgutsoy-Urgut sh.	25,1	1,710	0,402	12,7	16,0	504
2	Omonqo'tonsoy Omonqo'ton q.	57,8	1,601	0,951	30,0	16,5	518

3	Oqdaryo-Og’aliq q.	70,9	1,384	1,07	33,7	15,1	475
4	Sagansoy-Sazagan q.	26,8	1,456	0,381	12,0	14,2	448
5	Qorasuv-Kosa q.	120	1,040	0,230	7,25	1,92	60,4
6	Tegirmonsoy Sag’ishmon q.	39,3	1,143	0,278	8,77	7,08	223
7	Tusunsoy-quyilishi	1100	0,940	1,74	54,8	1,58	49,8
8	Oqtepasoy-Ocha q.	43,8	1,570	0,304	9,58	6,94	219
9	Qarag’achsoy Mavlyan q.	34,7	1,257	0,227	7,13	6,53	206
10	Maydonsoy Maydonsoy.	62,5	1,138	0,488	15,4	7,80	246
11	Ko’ksaroysoy tog’dan chiqishi.	247	0,938	0,961	30,3	3,89	123
12	Beglarsoy-Yangi Oqchob q.	180	-	0,714	22,5	3,97	125
Hammasi	2008	7,75	244,13	3,86	122		

Ushbu jadvalda Zarafshon daryosining irmoqlari quyidagi ikki qismga ajratildi:

1) gidrometrik kuzatishlar olib borilgan daryolar;
2) gidrometrik kuzatishlar olib borilmagan daryolar

Navoiy viloyati Karmana-Konimex irrigatsiya tizimi boshqarmasi tomonidan 2013-2016-yillarda limitga nisbatan ajratilagan suv miqdori to’g’risida ma’lumot

№	Tumanlar	Sug’oriladigan maydon (ga)	2013-yil	2014-yil	
Limit	Amalda	%	Limi	Amald	%

		bajarilishi	t	a	bajarilishi			
1	Xatirchi	2550	18,6	19	102	18,6	15,8	85
2	Navbahor	25480	235	241	103	235	174	74
3	Konimex	5055	45,8	49	106	45,8	34	74
4	Qiziltepa	4150	22,6	22,6	100	22,6	19,4	86
5	Karmana	12560	120	124	103	120	93,6	78
6	Nurota	4560	38,6	24.7	64	38,6	15,4	40
Jami sug'orish ishlariga	54355	481	481	100	481	353	73	
№	Tumanlar	Sug'oriladigan maydon (ga)	2015-yil	2016-yil				
Limit	Amalda	% bajarilishi	Limit	Amalda	% bajarilishi			
1	Xatirchi	2550	16,5	13,3	81	18,5	18,8	101,6
2	Navbahor	25480	245,9	213,2	87	246	248	100,8
3	Konimex	5055	47,75	33,2	70	47,8	47,5	99
4	Qiziltepa	4150	19,7	18,1	92	22,6	22,6	100
5	Karmana	12560	125,5	107,5	86	122	122	100
6	Nurota	4560	38,6	21,2	55	38,6	37	96

Jami sug'orish ishlariga	54355	493,9	406,5	82	495	495	100,1	

Karmana- Konimex irrigatsiya tizimi boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-iyuldagi "Suv xo'jaligini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi 320-sonli qarori hamda Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2003-yil 28-iyuldagi 121-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan. Karmana- Konimex irrigatsiya tizimi boshqarmasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari, Qishloq va suv xo'jalik vazirligining hamda Zarafshon irrigatsiya tizimi havza boshqarmasining qaror, buyruq va ko'rsatmalariga amal qiladi,bo'ysunadi, ish yuritadi.
Hududning asosiy suv manbai Zarafshon daryosi hisoblanadi. Zarafshon daryosi qo'shni Tojikiston Respublikasidagi tog'larning muz va qorlaridan 5 ta
Fondaryo, Iskandaryo, Matchidaryo, Ko'shtutdaryo va Mochiyondaryolardan
tashkil topib, O'zbekiston Respublikasida 576 km uzunlikda, 11722 km2 umumiy suv yig'ilish maydoniga ega. Zarafshon daryosi to'xtovsiz oqimi bilan asosan xalq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda foydalanib kelinadi. Yilning vegetatsiya davrida to'yintiruvchi Kattaqo'rg'on va Oqdaryo suv omborlarining suvidan foydalaniladi.Karmana-Konimex irrigatsiya tizimi boshqarmasi Navoiy viloyatining Xatirchi, Navbahor, Konimex, Qiziltepa, Karmana va Nurota tumanlariga xizmat ko'rsatadi. 54355 ga sug'oriladigan maydondan Xatirchi tumanining 2550 ga-6,7%, Navbahor tumanining 25480 ga-100 %, Konimex tumanining 5055 ga-100%,Qiziltepa tumanining 4150 ga-12 %, Karmana tumanining 12560 ga-56% va Nurota tumanining 4560 ga -100% maydonlarini shu bilan birgalikda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan Navoiy GRES, Navoiy TVS tashkilotlarini ham Qizilqum sement O.A.J. va Navoiyazot O.A.J. yordamchi xo'jalik maydonlariZarafshon daryosi suvi bilan ta'minlab kelmoqda. Viloyatda 4ta kuzatuv stansiyalari orqali ish yuritiladi. 2016-yilning yanvar, fevral, mart hamda aprel oylarida yog'ingarchilik me'yorda bo'lishi, havo harorati esa may, iyun,iyul,avgust hamda sentabr oylarida kutilgandek bo'ldi.

Irrigatsiyatizimi balansida 335,6km,tumanlararo va xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlari, 173 dona gidroinshoat, 202 dona gidropost va shularga xizmat ko'rsatuvchi 97 km nazorat yullari mavjud

Xulosa. Mamlakatimiz hududida gidrologik kuzatish tarmoqlari o'tgan asrning birinchi choragidan boshlab, yanada jadal suratlarda rivojlana boshladi.
Zarafshon daryosi sersuv bo'lib, Zarafshon, Turkiston va Hisor tog'larida joylashgan umumiy maydoni 556.7 kv km bo'lgach 424 ga yaqin muzliklardan va doimiy qorlardan suv oladi. Zarafshon daryosining yillik oqimini 100 foiz desak,shuning 65 foizi muz va qorlarning erishidan, 34 foizi qor suvlaridan va atiga 1 foizi yomg'ir suvlaridan iborat. Demak, Zarafshon daryosining suvi ayni kun isigan yoz faslida (iyun-sentabr oylari), qishloq xo'jalik ekinlari uchun suv kerak bo'lgan davrda ko'payadi. Bu oylarda Zarafshon daryosi yillik oqimining 61,1foizini o'tkazadi. Eng kam suv sarfi (30-35 m3/sek) esa qish fasliga to'g'ri keladi.Aksincha, suvi eng ko'paygan davr yozga to'g'ri kelib, iyulda ba'zan sekundiga165 kub metrni tashkil etadi. Zarafshon daryosi yozda loyqalanib oqqanligi sababli hududning sug'oriladigan har gektar yeriga 10-20 tonnagacha loyqakeltiriladi.Keltirilgan loyqa tarkibida fosfor va kaliy Amudaryo va Sirdaryoganisbatan1,5-2marta ko'p bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ҳикматов Ф.Ҳ., Ҳайдаров С.А. ва бошқ. Зарафшон дарёси ҳавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. Монография. – Тошкент: «Fan va texnologiya», 2016. -276 б.

2. Rasulov A.R., Hikmatov F. H., Aytbayev D.P. Gidrologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2003. -327 b

3.Chub V.E. -Izmeneniye klimata i yego vliyaniye na prirodno-resursnыx potensial Respubliki Uzbekistan. -Tashkent: NIGMI, 2000. -252 s

4.Ҳикматов Ф.Ҳ., Ҳайдаров С.А. Зарафшон дарёси оқимининггшаклланишига ҳаво ҳароратининг таъсири ҳақида // ЎзМУ хабарлари. №3.-Тошкент, 2012.-Б. 150-154 (11.00.00; № 7)

5.Ҳайдаров С.А., Қулматов Т.Ш. Зарафшон дарёси оқимининггйилларарo тебраниши ҳақида // Ўзбекистонда атроф-муҳитни муҳофазақилишнинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материалари. – Самарқанд, 2013. –Б. 565.

УЎТ: 577.3:551.4 (575.1)

БУХОРО ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК МУҲИТНИ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Тўхтаева Хабиба Тошевна- География фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент, ТИҚХММИ МТУ БухТРБИ "Гидрология ва экология" кафедраси мудири, Бухоро шаҳри, Ўзбекистон Республикаси.

Хакимов Шерзод Хамзаевич - Гидрология и экология кафедра ассистенти. доцент, ТИҚХММИ МТУ БухТРБИ "Гидрология ва экология" кафедраси мудири, Бухоро шаҳри, Ўзбекистон Республикаси.

Мавлонова Дилафруз- Бухоро давлат университети магистри

Аннотация: Мақолада чўл зонасида қум, туз ва чанг заррачаларининг салбий таъсирини камайтириш учун яшил қопламалар ҳимоя ўрмонзорлари барпо этиш чора тадбирлари ёритилган. Глобал иқлим ўзгаришларини аҳоли ҳаёти ва фаолиятига салбий таъсирини янада юмшатиш, экологик муҳитни барқарорлаштириш омилларининг асослари келтирилган.

Калит сўзлар: Барқарор ривожланиш, экологик муҳит, ҳимоялаш, тиклаш, оқилона фойдаланиш, биологик хилма-хиллик, яшил қопламалар.

UDC: 577.3:551.4 (575.1)

PROBLEMS OF ENVIRONMENTAL STABILIZATION IN BUKHARA REGION

Tukhtaeva Khabiba Toshevna- Doctor of Philosophy (PhD) of geographical sciences, the head of " General professional sciences" department, Bukhara Branch of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization EngineersBukhara, Republic of Uzbekistan

Hakimov Sherzod Hamzaevich - Assistant of the Department of Hydrology and Ecology, Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers. Bukhara, Republic of Uzbekistan

Mavlanova Dilafruz- master of Bukhara State Universitety

Annotation:*The article describes measures to establish protective forests of green coverings to reduce the negative impact of sand, salt and dust particles in the desert zone. The basis for further mitigating the negative impact of global climate*

change on the lives and activities of the population, the factors of environmental stabilization are presented.

Keywords:*Sustainable development, ecological environment, protection, restoration, rational use, biodiversity, green cover.*

Жаҳон аҳолисининг 1/5 қисми истиқомат қилаётган *чўл ҳудудлари* ҳозирда жами табиий ресурсларнинг 1/3,жаҳон ялпи маҳсулотининг 1/10, чорвачилик маҳсулотининг 1/3, туристик ресурсларнинг1/4 қисмини етказиб бермоқда.Улардан, аксарият ҳолларда, умумэътироф этилган глобал барқарор ривожланиш талбаларигамос равишда фойдаланмаслик ер ва сув ресурсларининг кескин даражада минералланиши ва ифлосланиши, биохилма-хилликнинг камайиши, касалликларнинг кўпайишикаби салбий оқибатларга олиб келмоқда. Мазкур муаммоларнинг ечимини топишда универсал кўринишдаги БМТнинг 2015 йил 27 сентябрда қабул қилинган 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш (БР) соҳасидаги17 та мақсад ва 169 та вазифа кўрсаткичлари давлатлар учун тавсия этилган. Дастурнинг 15-мақсади айнан "...экотизимларни муҳофаза қилиш ва тиклаш, чўллашишга қарши курашиш, экологик вазиятни яхшилаш"га тегишли вазифаларини ечишга қаратилган[3].

Ўзбекистон Республикасини Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 октябрдаги "2030 йилгача бўлган даврда БР соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 841-сон қарорининг 1-иловасидаги 15-мақсади "Қуруқлик экотизимларини ҳимоялаш ва тиклаш, улардан оқилона фойдаланишга кўмаклашиш, ўрмонлардан оқилона фойдаланиш, чўлланишга қарши курашиш, ерларнинг емирилишини тўхтатиш ва ортга қайтариш, биохилма-хилликнинг йўқолиб кетиши жараёнини тўхтатиш"га қаратилган. Қарорнинг 2-иловасидаги "Йўл харитаси"нинг II қисми Барқарор ривожланиш мақсадларига эришишнинг кўрсаткич мезонларини шакллантиришга бағишланган. Унда, Қуйи Зарафшон табиий географик округи каби, воҳа ва чўл геотизимларда ҳам кенг қамровли тадқиқотлар асосида экологик вазиятни оптималлаштириш йўлларини қидириб топиш вазифаси Ҳукумат қошида тузилган махсус комиссияга топширилган.

[3]Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года. www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 24 декабрдаги №1031 сонли Орол денгизи тубидаги суви қуриган ҳудудларда “Яшил қопламалар” ҳимоя ўрмонзорлари барпо этиш бўйича қўшимча чора тадбирлартўғрисидаги қарорига мувофиқ тизимли ишлар ташкил этилди.

Бунда экологик муҳитни барқарорлаштириш ҳамда табиий мувозанатни тиклаш мақсадида чора тадбирлар ва йўл харитаси ишлаб чиқилиб тасдиқланди.

Орол денгизининг суви қуриган тубидан кўтарилаётган қум, туз ва чанг заррачаларининг салбий таъсирини камайтириш, ушбу ҳудудларда чўл ўсимликларидан яшил қопламалар ҳимоя ўрмонзорларибарпо этиш ишларини изчиллик билан давом эттириш ҳамда глобал иқлим ўзгаришлари аҳолининг ҳаёти ва фаолиятига салбий таъсирини янада юмшатиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Ўрмон хўжалиги давлат қўмитаси ва Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг бу ҳақдаги таклифига розилик билдирилди. Орол денгизининг суви қуриган тубида “яшил қопламалар” ҳимоя ўрмонзорлари барпо этиш ҳажмлари ва барпо этиш учун чўл ўсимликлари уруғларини тайёрлаш ҳажмлари, ҳудудда қиш ва баҳор мавсумлари давомида ўрмон мелиорация тадбирларини амалга ошириш бўйича “Йўл харита”си ишлаб чиқилди ва тасдиқланди.

Бугунги кунда ушбу қарор ижросининг натижаси ҳамда самарадорлигини ошириш мақсадида Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтининг Сув хўжалигида экологик хавфсизлик таълим йўналиши талабалари ўқув танишув амалиётлари мисолида кўришимиз мумкин. Амалиёт раҳбарлари билан биргаликда Бухоро вилояти Ромитан тумани Қоқиштувон МФЙга яқин жойлашган қумли чўл ҳудудидан саксовул ва чўл ўсимликлари уруғларини териш жараёнида фаол қатнашдилар. Оқ ва қора саксовулнинг уруғларини лаборатория шароитида экишга тайёрлаш, уруғни экиш ва униб чиқиш жараёнлари бўйича изланишлар олиб борилди. Очиқ ҳавода баҳор мавсумида саксовулни турли тупроқ типларида униб чиқиш ва лаборатория шароитида ундирилган ниҳолчаларнинг дала шароитига мослашиш жараёнлари кузатилди. (Расм 1.)

Чўлланиш жараёнига учраган ерларни қора саксовул билан ўрмонлаштириш (иҳоталаш) энг истиқболли усул эканлиги исботланди.

Тажрибалар шуни кўрсатадики, йиллик ёғин – сочин миқдори 100-200 мм бўлган жойларда қорасаксовулдан ҳимоя ўрмон полосаларини ўтказишга эришилмоқда. Масалан, Қарнобчўлда қорасаксовул ўрмон полосалари 8 йилда 4 м баландликка етган, ҳавонинг нисбий намлигини оширишга имкон берган, нисбатан юмшоқ микроиқлим яратиб яйлов маҳсулдорлигини 25%гача оширган. Ҳатто ҳосилдорлик кам йиллари ҳам саксовул ўрмон полосаларида эфемерларнинг озуқа массаси очиқ яйловларга нисбатан 14-18%га ортган. Қорасаксовул ўрмон полосалари дефляция (шамол эрозияси)ни тўлиқ тўхташига олиб келиши мумкин.

Маълумки, чўллардаги яйловлардан йил бўйи арзон озуқа олиш мумкин. Аммо Бухоро вилояти ҳудудида жойлашган чўл-яйловларининг ҳосилдорлиги жуда паст (1-3ц/га). Ем-хашак базасининг озуқа бирлиги ўзгариб туради. Яйловларнинг маҳсулдорлигини ошириш учун ем-хашак етиштиришда бир йиллик ва кўп йиллик ўсимликларни экиш мақсадга мувофиқ.

Қоракўлчилик институти (ҳозирги чўллар экологияси институти) нинг “Қарноб”, “Нишон”, “Нурота” тажриба майдонларида олиб борган тадқиқотлари ўринли. Тажрибага асосан нисбатан қисқа вақт ичида минимал ҳаражат сарфлаб, табиий яйловларнинг унумдорлигини ошириш мумкин. Бунга қорасаксовул, изень, чогон, черкез, терескен каби ўсимликларни экиш орқали эришиш кўзда тутилган. Институтнинг сунъий яйлов яратиш бўйича олиб борган илмий текширишлари натижасида табиий ўсимликларнинг (қорасаксовул, Рихтер черкези, чогон, терескен, изень, коврак ва бошқалар) ҳар хил турлари ва ҳаёт шаклларининг аралашмасидан яратилган сунъий яйловлар барқарор юқори ҳосил бериши ва чорва молларини йил бўйи яйлов озуқаси билан таъминлаш йўлга қўйилди. Шувоқ –эфемер яйловларида сунъий яйловларнинг ҳосилдорлиги 14- 20 ц/га етган (Гаевская, 1971]).

Сув танқис шароитларда экин майдонлари учун кам намсевар экинларни танлаш йўли билан улардан самарали фойдаланиш керак.Чўл шароитида фитомелиоратив чора - тадбирлар ушбу ўзига

хосликларни эътиборга олган ҳолда табақалантирилиб бажарилиши мақсадга мувофиқ.

Юқорида келтирилган маълумотларни умумлаштириб шуни айтиш керакки, чўл шароитида маҳаллий сув манбаларидан рационал фойдаланишда чўлланишга қарши кураш чораларини,фитомелиорация ишларини кенг масштабда олиб бориш чўлланиш жараёнини олдини олишга ёрдам беради.

Расм 1. Ромитан туман Қоқиштувон МФЙда жойлашган Филиал лабораториясида тажриба ўтказиш жараёнидан лавҳалар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Тухтаева Х.Т. Исломова Н.Н.Рациональное использование местных водных ресурсов. Полский научный журнал. 05/57. 2020г. 14с.
2. Тўхтаева Х.Т., Рахматов Ю.Б.Чўл ҳудудини ландшафтлаштиришда рекреацион зоналар аҳамияти.O‘zbekiston zamini.1/2021 72-74б.
3. SH.Hakimov.Применение современных водосберегающих ирригационных технологий в условиях Бухарской области.Polishscience journal.2021, 64-67р.

UO‘T: 577.3:551.4 (575.1)

KO‘P QAVATLI UYLAR ATROFIDA BARPO ETILADIGAN LANDSHAFT DIZAYNIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Hazratov Ozodbek Abdullayevich, Gidromelioratsiya fakulteti “Gidrotexnika qurilishi “
2-bosqich talabasi Email: ozodbekhazratov@gmail.com

Shamsiyeva Nasiba Fayzilloyevna, “Umumkasbiy fanlar” kafedrasi assisenti
Email: nasibashamsiyeva925@gmail.com
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti
Azimov Sadriddin Juraqulovich, Toshkent Davlat Transport Universiteti
“Materialshunoslik va mashinasozlik” kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada zamonaviy ko'p qavatli binolar, bolalar o'yin maydonchalari, dam olish maskanlari atrofidagi landshaft uchun yechimlar, kamchiliklar muhokama qilinadi
Kalit so‘zlar: turar joy, bolalar maydonchasi, landshaft, atrofmuhit, zamonaviy.

UDC: 577.3:551.4 (575.1)

LANDSCAPE DESIGN PROBLEMS AND SOLUTIONS TO BE BUILT AROUND MULTI-STOREY HOUSES

Khazratov Ozodbek Abdullayevich, Faculty of Irrigation and Drainage "Construction of hydraulic engineering" 2nd year student
Email: ozodbekhazratov@gmail.com

Shamsiyeva Nasiba Fayzilloyevna, Head of the Department of "General Professional Discipline", assistant
Email: nasibashamsiyeva925@gmail.com
Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"
Azimov Sadriddin Juraqulovich, Tashkent state transport university

Department of Mechanical Engineering and Materials Science, Senior Lecturer

Abstract: This article discusses the shortcomings and solutions of today'smulti-storey buildings, children's playgrounds, recreation areas, the surroundinglandscape.

Darhaqiqat, O‘zbekiston murakkab geosiyosiy sharoitda mamlakatda qaror
topgan barqarorlik va osoyishtalikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishayapti, ijtimoiy soha rivojlanmoqda, ta’lim va tibbiyotni ravnaq toptirish hamda qishloqni yanada obod qilishga katta miqdorda investitsiya yo‘naltirmoqda. Bugungi izchil islohotlarning namunasi sifatida aholining ijtimoiy hayotini yaxshilash, hududlarda mahallalarning yangicha ko‘rinishdagi guzarlarini bunyod etish bo‘yicha ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilayotganini aytish mumkin. O‘zbek ahli qadimdan insonparvarlikka va bolalarni asrab avaylashga targ‘ib qilgan halqlardan. Bu borada bobolarimiz qurgan inshoatlardan ham bilib olsak bo‘ladi.

Qadimgi binolarimizga nazar tashlasak bino atrof-muhitiga katta e’tibor berilganini ko‘rish mumkin. Uning atroflarini ko‘kalamzor bog‘lar, favvora ekib o‘stirilgan. Shunday ekan biz shu an’ana niyana hayotimizga targ‘ib qilishimiz kerak. Bu dunyodagi Hamma narsa inson hayoti va faoliyatini yaxshilash uchun xizmat qilishi lozim. Shu sababli biz bu muammolarini bartaraf qilishimiz va qulayliklarini yanada oshirishimiz kerak. Bu borada shu masalalar bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda va muammolar qay yo‘l bilan hal qilinishi va atrof-muhitini landshaft dizayni talablari nimalardan iborat ekanligi haqida fikr yuritamiz.

Bolalarimiz–bizning kelajagimiz. Biz mana shu kelajagimizning poydevorini to‘g‘ri qo‘ysak, ko‘zlagan oliy maqsadlarimizga so‘zsiz etamiz. Bu bolalar yurtda bo‘layotgan o‘zgarishlarni hozirdanoq his eta borishlari kerak, ana shunda ularning qalbidan joy oladigan Vatan tuyg‘usi hech qachon so‘nmaydi‖ [1].

Farzandlarimizni jismonan sog‘lom qilib tarbiyalashda ko‘p qavatli bino atrof muhitini estetik go‘zalligi ham ayanchli ahvolda. Birgina bolalar maydonchasiga to‘xtalsak, poytaxtning turar-joy mavzelarida bolalar maydonchalari ochiqdan-ochiq etishmaydi. Borlari esa asosan o‘tkir, uchli, nari beri payvandlanib, mahkamlangan temir konstruksiyalardan iborat bo‘lib, turli shikastlangan joylari bo‘lgan, qattiq qoplamga ega. Afsuski, Toshkentda (boshqashaharlarhaqidagapirmasahambo‘ladi) mavzelarichidavako‘pqavatlibinolarhovlisidabolalarmaydonchalariayanchliahvolgakeltirilgan, borlariham —turarjoymavzelarinizichlashtirish‖niko‘zdatutuvchisirlidasturdoirasidaqurilishstandartlaribuzilgan

Turar-joydahalarinibezaydiganvako‘zlarniquvontiradigan, muhimi avfsizlik qoidalariga to‘g‘rikeladigan yorqin, jozibador maydonchalar ko‘p emas.

Avtomashinalarturargohjoylariyoppasigaolibtashlanganidankeyinbolalarmaydonchalario‘z-o‘zidanavtomobillarto‘xtashjoylarigaaylanibboraètganitashvishlidir. Shusabablibugungikundaijtimoiytarmoqlargavasmartfonlardaturlio‘yinlargaberilibketgan. Oqibatida – xotiranisusayishiga,diqqatinijamlashiqiyinlashiga, bilimga, kitobxonlikka,

birorbirkasbgamehrquyishqiziqishiningsoʻnishigaolibkeladi. Bundantashqariayrimfuqarolarkoʻpqavatliuylaroldidapanjaralar, toʻsiqlarvashungaoʻxshashnoqonuniyqurilmalarniquriboladilar. Maʼlumki, koʻpqavatliuylaratrofidagiyerlarhamkoʻpqavatliuyningqaysiqavatidayashashidanqatiynazar, shuuydayashovchilarningumumiyfoydalanishidagiyermaydonihisoblanadi.Lekin, hozirgikundagiholatgakoʻra, koʻpqavatliuylarning 1-qavatidayashovchishaxslartomonidanharxilyoʻllarbilanvaharxilvositalarbilanuygabirikkanerlaroʻrabolinmoqda. Tabiiyki, buholatboshqayuqoriqavatlardayashovchi, aslida 1-qavatdayashovchifuqarobilantenghuquqqaegaboʻlganaholiganoqulayliklartugʻdirmoqda. Masalan, avtomashinasiniqoʻyishgajoytopaolmaydi. Vaholanki, birinchiqavatdayashovchilar 10 taavtomashinasigʻishimumkinboʻlganjoyniegallabolib, biriekinmaydonisifatidafoydalanmoqda, yanabirioʻzavtomashinasigamoykaqilibolgan, yanabiriezgioshxonaqilibolgan, yanaboshqabirovesaoʻrabolgan, oʻzihamfoydalanmaydi, boshqalarfoydalanishigahambermaydi. Shubilanbirga, daraxtlarningtartibsizekilganligi, yashilhududningkamligi, yoʻlakchalarningnoteksiligi, damolishzonalarningyuqligi, oʻrindiqvaaxlatqutilarningyetishmasligiyanadaaholiganoqulayliklartugʻdiradi [2].

Yuqoridakeltirilganbirqanchamuammolarnihalqilishdayangiqurilayotgankoʻpqavatlibinoatrofmuhitidizaynitaklifinikoʻribchiqamiz.

Zarurmikroiqlimniyaratishuchunimkonqadarko‘proqko‘kalamzorlashtirish kerak.
Ayniqsamanzaralidaraxtlarningo‘rnigaimkonqadarmevalidaraxtlarniko‘paytirishkerak.
Yashilmaydonlarningmavjudligihayotningfarovonliginioshirishga, changkonsentratsiyasinikamaytirishga,
ma’lumkimyoviymoddalarnikamayishiga, shovqinrejiminitartibgasolishga, tuproqningifloslanishinioldiniolishgavatozalanishigayordamberadi.
Haddantashqariquyoshnurlarita’siriningoldiniolishuchunbarchako‘chalartурlixildaraxtturlaribilanma’lumbirmasofadabirnechaqatorgaekilganbo‘lishi kerak. Ayniqsa, yo‘laklarsoyalibo‘lishikerak.
Shuningdek,butavagulzorlaruchunjoylarajratishkerak.Tuproqningchanglanishinihisobgaolganholda,
yozgiyomg‘irlarningyo‘qligivahududnivayashilmaydonlarnisug‘orishzarурiyatihisobgaolinsa, barchako‘chalarvodoprovodtarmog‘i (agarmarkazlashtirilgansuvta’minotiningimkonibo‘lsa) bilanyokiariqsuvibilanta’minlanishilozim[3].
Lotoklarnidaraxtdanma’lumbirmasofauzoqlikdajoylanishi, hamdamaishiychiqindilarnitashlamasligiuchunzamonaviyaxlatqutilarniko‘paytirishshart.Avtomobillarmaxsusjoydaturishikerak (buo‘zimizuchunxamboshqalaruchunxamfoydali. Tasavvurqiling - yotoqxonaderazasidano‘simlikvagullarnihidi, tozahavo, qushlarningsayrashio‘rniga - benzinhidi, tutuni, avtomashinamotoriningyokisignaliovozikelibtursa).
Ko‘pqavatliuylarorasidagiavtomobilyuradiganyo‘llarnikamida 2 taavtomobilsig‘adiganqilibkengaytirish.foiziniegallashikerak. [3].

Keksayoshdagiodamlaruchundamolishjoylarniajratishkerak. Zamonaviyo‘rindiqlarniko‘paytirish.Bolalaro‘yingohlari, sportmaydonchalari,
keksalardamolishzonalar,o‘rindiqvaboshqaqurilmalarningxavfsizligiavvaloishlabchiqaruvchilarningbelgilanganstandartlar, sanitariyanormalarivaqoidalarigarioyaetishlaridankelibchiqishikerak[3].

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, kelgusida ko’pqavatliuy-joyhududlarida bog‘-park tizimini shakllantirish va unda turli xildagi dam olish istirohat bog‘larini barpo etsa bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Siddiqov, A.Axmedov, B.Axmedovvaboshqalar. —Amir Temur Jahon tarixida‖ Toshkent. 2001y.
2. O‘zbekiston shaxar mikrorayonlari qurilishinikompleksta’minlashuchunko‘rsatmalar. Toshkent 1970 yil.
3.https://gazeta.norma.uz/publish/doc/text128297_ehtiet_buling_bolalar_maydonchasi
4. https://meningfikrim.uz/uz/petitions/view/1226
https://regulation.gov.uz/uz/document/13650

UO‘T: 631.67:633.511

OZON QATLAMINI YEMIRILISHINI OLDINI OLISH BORASIDAGI XALQARO CHORA - TADBIRLAR.

Berdiyeva Zarina Farxod qizi
”Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi 2-kurs 1-guruhi talabasi
Qobulova Barno Baxriddin qizi.
”Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya. Ozon (qadimgi yunon tilidan ὄζω – hidli) – bu O_3 triatomik molekulalaridan tashkil topgan kislorodning allotropik modifikatsiyasi. Oddiy sharoitlarda u ko’k zaharli gazdir. O’tkir hidga ega. Suyultirilganda u indigo suyuqligiga aylanadi. Qattiq shaklda u quyuq ko’k, kulrang, deyarli qora kristallardir. Dunyoda biologik muvozanatni saqlaydigan atmosferadagi eng muhim gazlardan biri bo’lgan ozon, havoni tozalash orqali dunyo hayotining davom etishiga hissa qo’shadi. Bir necha oy davomida oziq-ovqat va suvsiz yashay oladigan odam havosiz 5 daqiqa yashay olmaydi. Shu sababli, hayotning qurilish bloklaridan biri bo’lgan turli xil kislorod shakllari ham sog’lom hayot uchun ishlatiladi. Ozon bu shakllardan biridir. Havoga ko’k rang beradigan ozon deyarli barcha yomon hidlarni yo’q qila oladigan noyob gazdir. Bu ma’lum bo’lgan eng kuchli dezinfektsiyalovchi va oksidlovchi gaz hisoblanadi.

Kalit so’z: Ozon qatlami, biologik muvozanat, dezinfektsiya, biologik qatlam, ozon tuynugi, ultrabinafsha nurlar.

UDC: 631.67:633.511

INTERNATIONAL MEASURES TO PREVENT THE DEPLETION OF THE OZONE LAYER

Berdiyeva Zarina -"Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers" National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Ecology and Environmental Protection 2-Course 1-Group student

Qobulova Barno -"Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers" National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management

Annotation. Ozone (from the ancient Greek ὄζω - fragrant) is an allotropic modification of oxygen, consisting of triatomic molecules O3. Under normal circumstances, it is a blue poison gas. It has a pungent odor. When diluted, it turns into an indigo liquid. In solid form, it is a dark blue, gray, almost black crystal. Ozone, one of the most important gases in the atmosphere that maintains the biological balance in the world, contributes to the survival of the world by purifying the air. A person who can live without food and water for several months cannot live 5 minutes without air. Therefore, various forms of oxygen, which are one of the building blocks of life, are also used for healthy living. Ozone is one of these forms. Ozone, which gives the air its blue color, is a unique gas that can eliminate almost all odors. It is the most potent disinfectant and oxidizing gas known.

Keywords: Ozone layer, biological balance, disinfection, biological layer, ozone hole, ultraviolet rays.

Olimlarning tadqiqotlariga koʻra, ozon qatlamining yemirilishiga sovitish texnikalari, yongʻin oʻchirish vositalari, tarkibida galogenlar (ftor, xlor va brom) kimyoviy moddalar sanoat va qurilish sohasida keng qoʻllanilishi asosiy sabab sanaladi. Ekologik xavfning oldini olish maqsadida 1985 - yilda dunyoning 147 mamlakati ishtirokida ozon qatlamini muhofaza qilish toʻgʻrisidagi Vena konvensiyasi qabul qilindi. Oradan ikki yil oʻtgach, 1987- yilning 16-sentabrida ozon qatlamini yemiruvchi moddalar boʻyicha Monreal protokoli imzolandi. Shukundan eʻtiboran ushbu sana ozon qatlamini himoya qilish xalqaro kuni sifatida nishonlandi. Ozon-(yunonchadan ozon - aniqlaydigan ozon molekulalari (O3) dan hosil boʻlgan har biri kislorodning uchta atomlaridan iborat gaz.

Garchi, hozirda atmosfera havosidagi ozon juda oz qismni tashkil etsada, ularning ahamiyati benihoya kattadir. U oqsil va nuklein kislotalarni yemiruvchi qat‘iy ultrabinafsha nurlarini ushlab qoladi Ta‘kidlash lozimki, stratosfera ozoni ob - havoning qisqa muddatli va lokal o‘zgarishlarini belgilaydigan muhim iqlimiy omildir. Quyosh nurlarini yuta turib va energiyani boshqa gazlarga uzata turib, ozon stratosferani isitadi va bu bilan butun atmosferada sayyoraviy issiqlik va sirkulyar jarayonlarning xususiyatlarini tartibga soladi. Ozonning o‘zgaruvchan molekulalari tabiiy sharoitlarda, jonli va jonsiz tabiatning turli omillari ta‘sirida hosil bo‘ladi va parchalanadi, uzoq tadrijiy rivojlanish davomida ushbu jarayon birmuncha dinamik muvozanatga keldi. Ozon qatlamini olimlar ‘‘biologik qalqon” deb ham ataydilar. Taassufki, bu qalqonning yemirilishiga inson omili katta rol o‘ynayapti. Kosmik parvozlar, reaktiv samolyotlar parvozi, avtomobil va boshqa manbalardan chiqayotgan gazlar, ayniqsa, sovitish tizimlaridagi freon gazi bu qatlam holatiga aks ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mutaxassislar malakasini oshirish borasida esa ayrim xorijiy mamlakatlarning tajribalarini namuna tariqasida o‘rgansak foydadan xoli emas. Masalan Germaniyadagi tabiati go‘zal maskanlarda maxsus ekologik tarbiya berish joylari tashkil etilgan. Sog‘lom, mehnatsevar dunyoqarashi keng yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazsakgina kelajagimiz nurli bo‘ladi. ‘‘Toza havo” tadbiri doirasida 20 mingdan ortiq transport vositasi me‘yoridan oshiq CO2 ajratyotganligi aniqlandini va joyida sozlandi. Natijada atmosfera havosida 1.1 tonna zararli tashlanmalar chiqishi oldi olindi. Bu tadbir doimiy tarzda o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, vazirlar Mahkamasining 2005- yil 11- noyabrdagi ‘‘Ozonni buzuvchi moddalarni va tarkibida ular mavjud bo‘lgan mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirishni va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqishni tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida‘‘gi 247- sonli qaroriga asosan viloyatda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda .

Ushbu qarorga asosan

Ozon atmosferaning yuqori chegarasiga tushdigan quyosh nurlanishining 3% ga yaqinini yutadi. Yutilish spektrning 0.22-0.29 km to‘lqin uzunligidagi ultrabinafsha sohasida sodir bo‘ladi. Spektrning bu sohasini yutilishi shunchalik kattaki, quyosh nurlarining energiyasi ozon

qatlamining eng yuqori qismlarida, 50-45 km balandlikda deyarli to‘liq yutiladi. Shu sababli bu balandlikdagi havoning harorati 0° gacha ko‘tariladi. Agar ozon bo‘lmaganda biologik faol ultrabinafsha nurlar Yerdagi barcha bioligik jarayonlarni va balki butun organik hayotning sezilarli o‘zgartirgan bo‘lar edi . Demak, ozon himoya ekranini hosil qiladi. Atmosferaning ba'zi moddalar bilan global ifloslanishi ozon ekrani zichligini kamaytirishi va ‘‘ozon tuynuklari” ni paydo qilishi mumkin deb hisoblanadi. Atmosferada ozon paydo bo‘ladigan fizikaviy va kimyoviy jarayonlar murakkab tabiatga ega. Ikki atomli kislorod molekulalari quyoshning ultrabinafsha nurlarini yutganda qisman atomlarga parchalanadi. Kislorod atomlari qo‘zg‘algan holatda bo‘ladi (ya'ni me‘yoriy holatdagiga nisbatan katta energiya zaxiradiga ega bo‘ladi. Ozon qatlami Yer atmosferasining qismini tashkil qiladi va yuqori konsentratsiyadagi ozonni (O3) saqlaydi. Ushbu qatlam taxminan 93 % dan 99 % gacha quyoshning o‘tkir ultrabinafsha nurlarini yutadi. Agar bu qatlamdan ultrabimafsha nurlari to‘liq o‘tsa, yerdagi hayotga yakun yasashi mumkin. Ozon qatlamining katta qismi stratosferaning quyi ya‘ni, Yer yuzasinidan 10 dan 50 kmgacha bo‘lgan masofada joylashgan. Ozon yemiruvchi moddalarning moddalarning atrof-muhitga ta‘siri birinchi marta 1980-yilning o‘rtalarida Antarktida ustidagi stratosferadagi ozon qatlamining 1975- yildagi holatiga nisbatan 60-70 foiz kamayishining kuzatilishi bilan aniqlangan. Umumiy kenglikda ozon qatlamining taxminan 3-6 foizga siyraklashgan. Ozon qatlamining siyraklashishi natijasida, nurlarning ultrabinafsha nurlarining ortishi oqibatida, Yer yuzasi bu nurlarning yetib kelishi, o‘z navbatida aholi salomatligi va ekologiya bilan bog‘liq muommolarning ortishiga olib kelmoqda. Xususan: teri saratoni, o‘simliklarning shikastlanishi, shu jumladan o‘simlik mahsulotlarini yetishtirishning kamayishi, fotosintez jarayonlarining susayishini chaqiruvchi plankton va fitoplankton kabi okeanning xilma -xilligining muhim turlarining kamayishiga olib keladi. Fitoplanktonlarning qisqarishi global isishga ta‘sir qiladi. Ma‘lumki , ular okeandagi uglerod zaxirasini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi . Ozon qatlamini yemirilishi inson salomatligi va qishloq xo‘jaligi sohasidagi ishlab chiqarishga ta‘siri tufayli hukumatlararo choralar ko‘rilmoqda . O‘zbekiston Respublikasi 1993-yilning mayida Vena konvensiyasi va Monreal protokolini ratifikatsiya qildi. Monreal protokolini bajarish uchun O‘zbekiston 1994 - yil yanvarida gallonlar importi (foydalanishi), 1996 - yil yanvarida esa, xlorftoruglerod(

keyingi o‘rinlarda XFU) va boshqa turdagi ozon yemiruvchi moddalarning importi to‘xtatishi lozim edi. Gallonlarni oborotdan chiqarish o‘z muddatidan keyin ham davom etdi. Monreal protokoli mamlakatlari bu muommoni muhokama qildilar va 1998 - yilda qaror qabul qildilar . Unga muvofiq, O‘zbekiston o‘ziga ozon yemiruvchi moddalardan foydalanishni to‘xtatish bo‘yicha milliy dasturni qabul qilish majburiyatini oldi. Shu bilan bir qatorda, barcha mamlakatlar ustida olib borilishini nazarda tutuvchi umumiy hal bo‘lmaganmuommolar qolmoqda. Umuman olganda, ozon va ‘‘ozon tuynigi muommolarni hali yanada izlanishni, o‘rganishni talab qiladi, biroq bir narsa muhim - bu muommoga e‘tiborsiz bo‘lmaslik lozim. Shu sababli jahon hamjamiyati ozonni parchalovchi moddalar, xususan sovitgichlarda ishlatiladigan freonlarni ishlab chiqarish va foydanishni kamaytirish uchun harakat qilmoqda. Atmosferada mavjud bo‘lgan ozon miqdori uch milliard tonnadan iborat bo‘lib u havoning milliondan uch foizini tashkil etadi. Bu esa mavjud bo‘lgan ozon konsentratsiyasining nihoyatda kamligini bildiradi. Agar ko‘plab km ga cho‘zilgan atmosfera qatlamini siqib qo‘ysak, paydo bo‘lgan ozon qatlamini qalinligi o‘rta hisobda faqat 3 mm ga teng bo‘ladi. Atmosferada joylashgan o‘rniga qarab, ozon o‘ziga xos fizikaviy xususiyatlarga ega. Yer atmosferasi bir jinsli bo‘lib ko‘rinsa ham, aslida ko‘p qatlamlidir. Yer atmosferasining eng pastki qatlami troposfera deb nomlanadi, uning balandligi 15 kilometrgacha cho‘zilgan. Bu yerdagi ozon inson sog‘ligi uchun zararli bo‘lib, u sanoat chiqindilari mahsulidir.

Sovutgichlar ozon qatlamiga xavf tug‘diradi. O‘tgan asrning 30-yillarida sovutgichuskularida notoksik alangalanmaydigan, arzon gazsimon kimyoviy birikmalar sinfiga kiruvchi xlorftoruglerodlar yoki freonlar sovuqlij tashuvchilari sifatida va maishiy sovutgichlar, savdo sovutish usjunalari aifatida, havoni sovutish uchun muqum va ko‘chma uskunalar, issiqlik nasoslari bilan suvning uskunalarini tayyorlashda foydalanilgan. Ozon qatlami ko‘zga ko‘ronadigan barcha to‘lqinlarni o‘tkazadivaturli hayotiy shaklda mavjud bo‘lgan tirik organizmlar ulardan o‘z faoliyatida foydalanadi. Ultrabinafsha nurlar bir xil emas. Uning har bir qismi turli xususiyatlarga ega. Ultrabinafsha to‘lqinlarining 400 dan 320 nm gacha masofada joylashgan qismi UB- A deb nomlanadi. UB - A odamga ayniqsa o‘shish paytida, zarur, chunki u immunitetni oshiradi, ‘‘D ‘‘ vitamini hosbo‘lishida yordam beradi va shu bilan birgalikda raxit kasalligining oldini oladi. UB-V-bu tirik organizmlarni yo‘q qiluvchi nurlanish

hisoblanadi. O‘tkir ultrabinafsha deb nomlangan nurlanishning to‘lqin uzunligi 200-300 nmni tashkil etadi va u ozon qatlamida butunlay yutiladi. Ozon qatlamining yemirilishiga sabab bo‘lgan birinchi omillardan biri bu insonning bevosita tabiatga ta‘siridir. Ikkinchidan esa sanoat korxonalarining zararli chiqindilarni atmosferaga chiqarishi natijasida. Insonning ta‘siri tufayli va yana boshqa muommolar sabai ozon qatlanining yemirilish holati kundan kunga ortib bormoqda. Biz bularni oldini olish uchun atmosferaning havosini filtrlovchi va boshqa texnikalardan foydalanish lozim [1-4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmo‘minov J. ‘‘Ekologiya va qonun‘‘ Toshkent “Adolat” 2000-yil.
2. Ergashev A. ‘‘Umumiy ekologiya” Toshkent “O‘zbekiston” 2003-yil.
3. Alixanov B.B, Dotsenko N.P. “Ozon qatlami”Toshkent 2007-yil.
4. Baratov A. ‘‘Tabiatni muhofaza qilish” Toshkent “O‘qituvchi” 1991- yil.

UO’T: 58.01/.07

XORAZM VOHASI AGROTSENOZLARINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Masharipov Adamboy Atanazarovich- Urganch davlat universiteti dotsenti
adamboymasharipov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasi agrotsenozlarining ekologik xususiyatlari, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishda qo‘llaniladigan agrotexnologiyalarning ilmiy-amaliy ahamiyati to‘g‘risida ma’lumolar berilgan.

Kalit so‘zlar: agrotsenoz, agrotexnologiya, tuproq unumdorligi, iqlim o‘zgarishlari, agrosistema, almashlab ekish.

UDC: 58.01/.07

ECOLOGICAL FEATURES OF AGROTSENOSES OF KHOREZM OASIS

Masharipov Adamboy Atanazarovich-Associate Professor of Urgench State University
adamboymasharipov@mail.ru

Annotation. This article provides information on the ecological features of the agrocenoses of the Khorezm oasis, the scientific and practical significance of agro-technologies used in the rational use of land and water resources.

Keywords: agrocenosis, agrotechnology, soil fertility, climate change, agrosystem, crop rotation.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligidagi ekologik vaziyat tuproq unumdorligining yomonlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan agroekosistemalarga antropogen ta’sirining yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Agrotsenozlarda insonning iqtisodiy faoliyati biosferaga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi, tabiiy muhitning turli parametrlariga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining barqaror o‘sishi ekinlar yetishtirishda resurs va energiya harajatlarini kamaytirish, atrof-muhitning ekologik xavfsizligini saqlab qolish va stressli ob-havo hodisalari, hosil sifatini yaxshilash bilan birga uning begona o‘tlar, kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, yuqori mahsuldor agrofitotsenozlarni yaratishga qaratilgan texnologik jarayonlarning kuchayishi bilan bog‘liq.

Zamonaviy davrda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar katta qiziqish uyg‘otmoqda, chunki ular intensivlashtirish vositalarining ekinlarning ekologik holatiga, hosildorligi va yakuniy mahsulot sifat ko‘rsatkichlariga va qishloq xo‘jaligi landshaftlari ekologik xavfsizligiga ta’sirini ob’ektiv baholashga imkon beradi.

Umumiy ekologik vaziyat ko‘p jihatdan agrotsenozlardagi hosildorlik darajasini belgilaydi, shuning uchun ekologik toza mahsulotlardan yuqori hosil olish usullari atrof muhitga antropogen ta’sirining kuchayib borishini hisobga olish kerak.

Agrotsenozlarda salbiy oqibatlarga olib keladigan asosiy antropogen omillar orasida eroziya uchun xavfli tuproqlarni hosil qilish, intensivlashtiruvchi vositalardan bilimsizlarcha foydalanish, og‘ir qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish, texnogen chiqindilar va boshqa ta’sirlar mavjud. Qishloq xo‘jaligida ekologik muammolarni hal qilish uchun

qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda intensivlashtirish vositalari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning murakkab xususiyatlarini hisobga olish, tuproqlar holati va yakuniy mahsulotlarni kuzatish muhimdir.

Shu munosabat bilan agroekosistemalar tuproqlaridagi xususiyatlar va jarayonlarni o‘rganish, ularning hozirgi ekologik holatini tahlil qilish va evolyusiyasini bashorat qilish, aniq iqlim sharoitining mo‘ljallangan maqsadi va xususiyatlarini hisobga olgan holda favqulodda ehtiyoj tug‘iladi.

Agrotsenoz – madaniy ekinlar va atrof-muhit tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlar bilan bog‘langan hamda organizmlarning o‘ziga xos tur tarkibi bilan antropogen jihatdan tartibga solingan tizim. Bunday tizimlarning yuqori mahsuldorligi serhosil o‘simliklarni oziqa va almashlab ekishning intensiv agrotexnologiyasi bilan ta’minlanadi.

So‘ngi yillarda kuzatilayotgan iqlim va ob-havo o‘zgarishi sababli suv hamda boshqa omillarni tanqisligi sharoitida ko‘llaniladigan agrotexnologiyalarni ekinlar o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri bo‘yicha ilmiy izlanishlar o‘tkazilmagan va ilmiy asoslangan tavsiyalar mavjud emas. Shu bois, g‘o‘za-bug‘doy navbatlab ekish tizimida ekinlar parvarishining turli agrotexnologiyalarini qiyosiy tadqiq qilish talab etilmoqda.

Hozirda agrosistemalar muhim ekologik stressni boshdan kechirmoqda, chunki ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq antropogen va tabiiy hodisalarning butun doirasiga ta’sir qiladi. Bu borada o‘tkazilgan tadqiqotlar bir qator mualliflarning ilmiy izlanishlarida ham qayd etib o‘tilgan (Prusakova va boshqalar, 1995; Pirogovskaya va boshqalar, 2001; Nilovskaya va boshqalar, 2001). Salbiy jarayonlarning rivojlanishi tuproqlarning tuzilishi va barqarorligining buzilishiga, unumdorligining pasayishiga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining odam salomatligi uchun zararli moddalar bilan ifloslanishiga olib keladi (Krasnitskiy V.M., 2001; Buyankin N.I., 2006; Kashtanov A.N., 2008).

Shuningdek, ko‘p yillik va har tomonlama o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida respublikamizning turli tuproq va iqlim sharoitlariga mos keladigan g‘o‘za va kuzgi bug‘doy yetishtirishning maqbul agrotexnologiyalari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Yaratilgan

agrotexnolgiyalarni ayrim elementlarini (tuproqqa ishlov berish, ekish, sug‘orish, o‘g‘itlash, defoliatsiya va xokazo) doimiy ravishda tadqiq qilinib takomillashtirilmoqda.

Shu bilan birgalikda mamlakatimizning har bir mintaqasida yangi navlarning ekish muddatlari, ko‘chat qalinligi, sug‘orish va oziqlantirish tartibi kabi masalalar o‘rganilmoqda. Natijada yangi g‘o‘za va kuzgi bug‘doy navlari yetishtirishning mintaqaviy agrotexnologiyalari yaratilmoqda [3].

Mamlakatimizda g‘o‘za yetishtirish agrotexnologiyasini yaratish va takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar o‘tgan asrning boshlaridan buyon o‘tkazilib kelinmoqda. Ushbu ilmiy natijalarga tayangan holda ishlab chiqarish uchun ko‘pchilik amaliy tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqilgan (masalan, “Ensiklopediya po xlopkovodstvu”, Tashkent, 1985; “Paxtachilik spravochnigi”, Tashkent, 1989).

Respublikamizning mustaqillik yillarida g‘o‘za parvarishlash agrotexnologiyasi masalasi borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari yanada jadal rivojlantirildi. Olib borilgan va bajarilayotgan ko‘pchilik ilmiy izlanishlar natijalariga asoslangan holda g‘o‘za yetishtirishning mintaqaviy agrotexnologiyalari yanada takomilashtirilmoqda (G‘o‘zani parvarishlashda suv va resurs tejovchi agrotexnologiyalar bo‘yicha tavsiyalar, Toshkent, O‘zPITI, 2007, 2011) [4].

O‘zbekistonning sug‘oriladigan tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doy yetishtirishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar oxirgi 15 yil davomida jadal ravishda o‘tkazib kelinmoqda (Tojiev va Xo‘jmanov, 1996, 1998; Otaqulov va Yusupov, 1998; Siddiqov va boshqalar, 2004; Iminov, 2006; Xoliqov, 2000, 2007; Suvanov, 2010, Djumaniyazova, 2011 va boshqalar). Turli hududlarda o‘tkazilgan ushbu ilmiy tadqiqotlar natijasida kuzgi bug‘doy yetishtirish agrotexnologiyasi yaratilgan (Sug‘oriladigan maydonlarda kuzgi bug‘doy yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar, Toshkent, 2008) va yanada takomillashtirilmoqda.

Kuzgi bug‘doydan bo‘shagan maydonlarda tezpishar makkajo‘xori, dukkakli don, sabzavot va boshqa ekinlarni yetishtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan (Ne’matov, 2004; Isroilov, 2005; M.Xoliqov, 2007; Xasanova va Abdukarimov, 2008; Babadjanova va boshqalar, 2012) va davom ettirilmoqda.

Shuningdek, yer va suv resurslarining cheklanganligi, respublikamizda tarqalgan tuproqlarning unumdorlik jihatdan

turlichaligini inobatga olib, turli tuproqlarda qo‘llanilgan agrotexnologiyalarni asosiy ekinlar o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga hamda tuproq unumdorligiga ta’sirini o‘rganishni talab qiladi.

Shularni inobatga olgan holda, Xorazm vohasi sharoitida g‘o‘za va kuzgi bug‘doy navbatlab ekish tizimida turli tuproqlar sharoitida qo‘llaniladigan agrotexnologiyalarning samaradorligini o‘rganish ham nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Hozirda kuzatilayotgan iqlim va ob-havo o‘zgarishi, suv hamda boshqa omillarni tanqisligi sharoitida ko‘llaniladigan agrotexnologiyalarni asosiy ekinlar o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri, shuningdek, g‘o‘za-bug‘doy navbatlab ekish tizimida tuproqlarda kechayotgan sho‘rlanish jarayonlari, ularning sho‘rlanganlik darajasi, sizot suvlarining tarkibi va ularni sho‘rlanish jarayoniga ta’siri va tartibi, shuningdek, tuproq unumdorligi, tuproq tarkibidagi asosiy oziqa unsurlari (N.P.K) miqdorlari, ularning ekinlar o‘sishi va rivojlanishiga ta’siri to‘g‘risida hamda agromeliorativ tadbirlarni ishlab chiqishda tuproqning agrofizik va agrokimyoviy xossalarining ahamiyatini ko‘rsatuvchi muhim jihatlardir.

Xorazm viloyatining o‘tloqi allyuvial tuproqlarida g‘o‘za-kuzgi bug‘doy navbatlab ekish orqali ekinlarda qo‘llanilgan agrotexnologiyalar tuproq unumdorligining o‘zgarishi, o‘simliklar o‘sishi va rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifati yaxshilanib, mazkur sharoitda turli tuproqlar sharoitda qo‘llanilgan agrotexnologiyalarning potensial imkoniyatlari oshib, agroiqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Hududning sug‘oriladigan tuproqlari sharoitida asosiy ekinlarda qo‘llanilgan agrotexnologiyalarning tuproqlarning agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalariga ta’siri to‘g‘risida to‘plangan ma’lumotlar asosida kelgusida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jarayonlarni bashorat qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Xorazm vohasi sharoitida antropogen omillarning ta’siriga (tuproqni unumdorligini oshirish intensivligi va intensivlash vositalarini qo‘llash darajasiga) qarab, kuzgi bug‘doy va g‘o‘za agrotsenozlari ekologik holatining xususiyatlari belgilanadi. Antropogen ta’sirning turli darajalarida agrotsenozlarning ekologik holati, Xorazm vohasi sharoitida kuzgi bug‘doy va g‘o‘za agrotsenoziga antropogen yuklanish intensivligi, agrotsenozni umumiy ekologik baholash uchun kompleks usul ishlab chiqish, bu tuproq-o‘simlik tizimidagi biologik jarayonlarga to‘sqinlik qilib, atrof-muhit omillarining yig‘ma ta’sirini hisobga olish imkonini beradi.

Bu jarayonlar Xorazm vohasi sharoitida agroekosistemalar va uning ekologik salohiyatini o‘rganishga katta hissa qo‘shadi. Xorazm viloyati sharoitlari agroekosistemalarining bioekologik monitoringi va tuproq holatining biodiagnostikasini tashkil qilishda, atrof muhitga ta’sirini baholashda, yerdan foydalanishni rejalashtirishda, agroekologik tizimlarda tuproq unumdorligini ekologik yo‘naltirilgan boshqarish tizimini asoslashda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaev S.A., Boirov A.J., Sattorov J.S. Xorazm viloyati tuproqlari. Toshkent: Fan, 2002.
2. Yormatova D. Dala ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. Toshkent, 2000.
3. Xalikov B.M., Tillaev R.Sh., Chaldanbaev S. G‘o‘za –g‘alla almashlab ekishda tuproq agrofizikaviy xossalarining o‘zgarishi. “Tuproq unumdorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya mavzulari asosidagi maqolalar to‘plami. Toshkent, 2007.
4. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. Toshkent, O‘zPITI, 2007.

UO‘T:581.192.8

N, P, K NING TURLI KOMBINATSIYALARDA OZIQLANTIRILGAN KARTOSHKANING O‘SISH VA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI.

N.M.Sultonova[1], H.H.Qo‘shiyev[2], O‘.M.Shopo‘latov[3]
[1]GulDUtayanch-doktoranti, sultonova.n2005@mail.ru
[2]GulDU, B.f.d., prof. kushiev@mail.ru
[3]GulDU, PhD.Kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Kartoshkaning o‘sishi va rivojlanishi, hosildorligi, hosili sifatiga fosfor va kaliy elementining ta’siri hamda samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida laboratoriya va dala sharoitida optimal ozuqa muhitini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. P va K miqdorining 60:40 kg/ga kontsentratsiyali ozuqa variantlarida P va K ning kartoshkaning o‘sish va rivojlanishini fenologik kuzatishlar natijalariyuqori bo‘ldi. 80:60 kg/ga kontsentratsiyali ozuqali variantlarida 60:40 kg/ga

kontsentratsiyali variantlarga nisbatanbitta o‘simlikdagi barg sathi ko‘p bo‘lishiga qaramay gullash davrini kechikishi kuzatildi. Ozuqa tarkibida P:K ning 60:40 kg/ga kontsentratsiyali variantlarda o‘simlik bo‘yi, bitta tupning hosildorligi va umumiy hosildorlik bo‘yicha ustunlik aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Kartoshka, optimal oziqa, nav, o‘g'it,hosildorlik, minerallar, gumus, fosfor, kaliy, barg yuzasi.

UDC:581.192.8

EFFECTS OF N, P, K ON THE GROWTH AND DEVELOPMENT OF FEEDING POTATOES IN DIFFERENT COMBINATIONS

N.M.Sultonova[1], H.H.Qo‘shiyev[2], O‘.M.Shopo‘latov[3]

[1]*GulDU, doctoral students, sultonova.n2005@mail.ru*

[2]*GulDU, B.f.d., prof. kushiev@mail.ru*

[3]*GulDU, PhD.chemistry teacher*

Gulistan State University

Annotation. In order to determine the growth and development of potatoes, productivity, the effect of phosphorus and potassium on the quality of the crop, as well as productivity indicators, studies were carried out to determine the optimal nutrient medium in laboratory and field conditions. The results of phenological observations of the growth and development of P and K potatoes turned out to be high on the variants of nutrients with a concentration of P and K of 60:40 kg/ha. In the nutrient variants with a concentration of 80:60 kg/ha, a delay in the flowering period was observed, despite the fact that the content of leaves per plant was higher than in the variants with a concentration of 60:40 kg/ha. In the feed in the variants with a P:K concentration of 60:40 kg/ha, the advantage in terms of plant height, yield per bush and overall yield was determined.

Keywords: Potato, optimal nutrition, variety, fertilizer, yield, minerals, humus, phosphorus, potassium, leaf surface.

Inson organizmi kamida 22 xil mineral elementlarga muhtoj [6]. Ushbu elementlarga bo‘lgan ehtiyojga bo‘lgan talabni qondirishning asosiy vositalari ovqatlanish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha dunyo bo‘yicha olti milliard odamlarning 60% dan ortig'ida temir (Fe), 30% -da rux (Zn), 30% da yod (I) va 15% da esa selen (Se) tanqisligi mavjud [6, 7]. Kaltsiy (Ca), magniy (Mg) va mis (Cu) yetishmovchiligi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham keng tarqalgan. Bunday holatning qayd etilishi tuproq va ularda yetishtirilgan

oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida mineral moddalar miqdori hamda kontsentratsiyasining pastligi bilan bog'liq [5, 7]. Shundan kelib chiqib, mazkur muammoning ijobiy yechimi oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini minerallar moddalar bilan boyitish, kontsentratsiyani oshirish (biofortifikatsiya) kabi amaliyotlar orqali hal qilish bilan bog‘liq. Mineral o‘g‘itlarni qo‘llash orqali ekinlarni biofortifikatsiya qilish, menerali moddalar kontsentratsiyasini oshirish va unumsiz tuproqlarda hosildorlikni oshirish uchun agronomik strategiya tavsiya etiladi [6].

Tuganaklardagi minerallar kontsentratsiyasi o‘simlikning yetishtirilgan muhitiga qarab sezilarli darajada farq qiladi, bu mahsulotning mintaqaviy kelib chiqishini tekshirish uchun foydalanishga imkon beradi[1, 2, 3, 4].

Kartoshkaning hosildorligi va hosil sifatini oshirish bo‘yicha tuproq tarkibiga ko‘ra fosfor miqdorini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari Sirdaryo viloyati sharoitida hamda Guliston davlat universitetining Jizzax viloyatining Yangiobod tumani tog‘ oldi zonasida joylashgan amaliyotlar bazasi yer maydonida tadbiq etildi. Amaliyotga tadqiqot natijalarini tadbiq etishda kartoshkaning “Sante”, “Pskem” navlaridan foydalanildi.

Buning uchun fosfor va kaliyning quyidagi jadvalda keltirilgan nisbatlarda ozuqa variantlari tanlab olinib, tadqiqot natijalarida qayd etilganidek, to‘rt qaytariqda amaliyotda qo‘llanildi.

N, P, K ning turli kombinatsiyalar nisbati (kg/ga)

1-jadval

№	Озукаэлементлари кг/га				
	N	**P**	**K**	**Zn**	**Mg**
T0	0	0	0	0	0
T1	90	0	0	5	3
T2	60	30	40	5	3
T3	90	60	20	5	3
T4	90	60	40	5	3
T5	120	80	60	5	3
T6	120	80	60	0	0

Izox: T-threatment (ing.)-ozuka

N, P, K ning turli kombinatsiyalarda oziqlantirilgan mineral o‘g‘itlar miqdori (kg/ga)

2-jadval

№	O‘g‘itlar kg/ga				
	NH4NO3	**NH4H2PO4**	**K2SO4**	**ZnSO4*H2O**	**Mg(NO3)2*5H2O**
T0	0	0	0	0	0
T1	263	0	0	15	30
T2	147	154	89	15	30
T3	263	308	45	15	30
T4	263	308	89	15	30
T5	350	410	133	15	30
T6	350	410	133	0	0

Kartoshka ekilganidan to‘rt haftadan keyin tuproqlarning elementar tarkibi va miqdori «Eksperimental biologiya” laboratoriyasida SMART Fertilizer dasturi bilan spektrfotometrda LCK 339 (LASA AGRO) test kvetalar yordamida aniqlandi.

Tuproq tarkibini optimallashtirish maqsadida aniqlangan tarkib asosida SMART Fertility dasturi yordamida tuproqda kartoshka yetishtirish uchun optimal ozuqasini aniqlash va tayyorlash uchun mineral ozuqaning qo‘shimcha miqdori hisoblab chiqildi.

O‘simliklar rivojlanish fazalarida jami uch marotaba (o‘sish, shonalash va gullash) oziqlantirildi va nazorat variantidan tashqari variantlari fosfor va kaliyning (T1, T2, T3, T4, T5, T6) 1-jadvalda keltirilgan nisbatlarda ozuqa variantlari bilan ildiz orqali hamda nazorat va T6 dan tashqari variantlar barglarga ozuqa eritmalarini purkash yo‘li bilan oziqlantirib chiqildi.

Tuproqning tarkibi va tuzilishi, pH ko‘rsatkichi, undagi gumus, fosfor, kaliy miqdori, organik o‘g‘itlar turi va miqdori hamda oldin yer maydoniga ekilgan ekin turi e’tiborga olindi. Bu kartoshka yetishtirishda o‘g‘it tarkibi va miqdorini aniqlashda ahamiyatli bo‘ldi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki o‘rganilgan variantlardan T4 ($N_{90}P_{60}K_{40}Zn_5Mg_3$) varianti kartoshkaning o‘sish va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘simlik bo‘yi nazoratda o‘rtacha (navlar bo‘yicha)62,5 sm tashkil etgan bo‘lsa T4($N_{90}P_{60}K_{40}Zn_5Mg_3$) variantida 77,80 sm ga teng bo‘ldi. Bu o‘z navbatida o‘simlikda shakllangan barglar miqdorini ortishiga olib keldi. Mazkur variantda bitta o‘simlikda shakllangan barg yuzasi 0,89 m^2 teng bo‘ldi. Bitta tupda shakllangan hosil miqdori nazoratda (o‘g‘itsiz variantda) 321,0 g ni tashkil etgan bo‘lsa T4 variantda-586,6 g teng bo‘ldi. Hosildorlik

bo‘yicha ham ijobiy natija T4 variantida qayd etildi. Mazkur variantda hosildorlik 29,10 t/ga ga teng bo‘lib o‘g‘itsiz variantga nisbatan 15,3 t/ga va ishlab chiqarishda qo‘llanilgan variantga T6($N_{120}P_{80}K_{60}Zn_0Mg_0$) nisbatan - 4 t/ga ko‘p bo‘ldi(3-jadval).

3-jadval

Har xil miqdordagi fosfor ta’sirida kartoshkaning o‘sish va rivojlanishini fenologik kuzatishlar natijalari

Tajribavariantlari	O‘simlikbo‘yi, sm	Bittao‘simlikdagibargsathi, m^2	Bittatupninghosildorligi,g	Hosildorlik, t/ga
T0 ($N_0P_0K_0$)	62,50	0,18	321,00	13,80
T1($N_{90}P_0K_0$ Zn_5Mg_3)	65,60	0,36	385,20	23,80
T2($N_{60}P_{30}K_{40}$ Zn_5Mg_3)	68,50	0,56	428,60	27,60
T3($N_{90}P_{60}K_{20}$ Zn_5Mg_3)	65,60	0,46	444,20	25,30
T4($N_{90}P_{60}K_{40}$ Zn_5Mg_3)	77,80	0,89	586,60	29,10
T5 ($N_{120}P_{80}K_{60}$ Zn_5Mg_3)	76,40	0,77	515,60	27,30
T6($N_{120}P_{80}K_{60}$ Zn_0Mg_0)	74,20	0,63	465,30	25,10
Ўртача кўрсаткич	**70.08±2.27**	**0,55±0.10**	**449,50±32.56**	**24.57±1.91**

Tadqiqot natijasida tanlab olingan variant (T4($N_{90}P_{60}K_{40}Zn_5Mg_3$) ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o‘tkazildi. Kartoshka navlarini oziqlantirishda $N_{90}P_{60}K_{40}$ Zn_5 Mg_3nisbatli oziqadan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. Ushbu variantda kartoshka navlaridan yuqori(29,10t/ga) va sifatli hosil olish mumkinligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, K.A., Magnuson, B.A., Tschirgi, M.L. & Smith, B. 1999 Determining the geographic origin of potatoes with trace metal analysis using statistical and neural network classifiers *J. Agr. Food Chem.* 47 1568 1575
2. Di Giacomo, F., Del Signore, A. & Giaccio, M. 2007 Determining the geographic origin of potatoes using mineral and trace element content *J. Agr. Food Chem.* 55 860 866

3. Casañas Rivero, R., Suárez Hernández, P., Rodríguez Rodríguez, E.M., Darias Martín, J. & Díaz Romero, C.D. 2003 Mineral concentrations in cultivars of potatoes *Food Chem.* 83 247 253
4. Padín, P.M., Peña, R.M., García, S., Iglesias, R., Barro, S. & Herr ero, C. 2001 Characterization of Galician (N.W. Spain) quality brand potatoes: A comparison study of several pattern recognition techniques *Analyst (Lond.)* 126 97 103
5. Graham, R.D., Welch, R.M. & Bouis, H.E. 2001 Addressing micronutrient malnutrition through enhancing the nutritional quality of staple foods: Principles, perspectives and knowledge gaps *Adv. Agron.* 70 77 142
6. White, P.J. & Broadley, M.R. 2005a Biofortifying crops with essential mineral elements *Trends Plant Sci.* 10 586 593
7. Welch, R.M. & Graham, R.D. 2002 Breeding crops for enhanced micronutrient content *Plant Soil* 245 205 214

УДК:551.583

ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИ УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ ВА ЮМШАТИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ

Ибрагимова И.Я.-Тошкент ирригатсия ва қишлоқ хўжалигини механизатсиялаш муҳандислари институти миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни институти Экология ва атроф мухит мухофазаси 2/1 гурух талабаси
Раджабова М.М.– Гидрология ва экология кафедраси асисстенти Тошкент ирригатсия ва қишлоқ хўжалигини механизатсиялаш муҳандислари институти миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти radjabovamaxliyo33@mail.ru
Хусанбаева Н.С – докторатн Тошкент ирригатсия ва қишлоқ хўжалигини механизатсиялаш муҳандислари институти миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти noilasobirjonqizi@mail.ru

Аннотатция. Ушбу мақолада Иқлим ўзгариши ва унинг оқибатлари ва юмшатиш чора тадбирлари хақида ма’лумотлар берилган.Хозирги кундаги глобал ўзгаришлар,иқлим ўзгаришига та’сир етувчи омиллар ва Иқлимшунос олимлар хақида ма’лумотлар

келтирилган.Табиий ресурсларнинг ўзгариши ер шари иқлимининг ўзгариши далиллар билан асослаб берилган.

UDC:551.583

CLIMATE CHANGE ITS CONSEQUENCES AND MITIGATION MEASURES

Ibragimova I.Y.- Toshkent Irrigation and Agriculture Engineering National Institute of Research University of Bukhara Natural Resource Institute of Ecology and Environment 2/1 group of students
Rajabova M.M.- Hydrology and Ecology Department asisstenti
Tashkent Irrigation and Agriculture Engineering National Institute of Research University of Bukhara Natural Resource Institute
radjabovamaxliyo33@mail.ru
Khusanbayeva N.S. – doctoral student Toshkent irrigatsia va kishlok khizhaligini mechanizatsiyalash muandislari institut milliy tadkikot universiteti Bukhoro tabiyi resurslarni boshkarish institut noilasobirjonqizi@mail.ru

Annotation: This article provides information on climate change and its consequences and mitigation measures.Current global developments, factors affecting climate change,and climate scientists have been cited.The change in Natural Resources has been substantiated by evidence of the change in the Earth's sphere climate.

Глобал иқлим ўзгариши – XXI асрнинг асосий муаммоларидан бири. Инсониятнинг тараққиётга эришиш йўлида табиатга нисбатан хўжасизларча муносабатда бўлиши атроф-муҳитдаги мувозанатнинг издан чиқишига сабаб бўлаётир.

Об-ҳаво ва иқлим нима? Об-ҳаво маълум ҳудуддаги атмосферанинг 10-12 километр баландликда бир вақтдаги, бир кунлик физик ҳолатини ифодалайди. Об-ҳавонинг қатор метеорологик катталикларига ҳаво ҳарорати, ҳаво намлиги, ҳаво босими, шамол тезлиги ва йўналиши, булутлар ва турли атмосфера ёғинлари тури ва жадаллиги, нурли энергия ва иссиқлик оқимлари кабилар киради.

Иқлим эса маълум бир ҳудуддаги об-ҳавонинг кўп йиллик режими билан ифодаланиб, жойнинг географик кенглиги, ер усти тузилиши (орографик, рельеф), денгиз сатҳига нисбатан баландлиги,

океанга нисбатан узоқ ёки яқинлиги ва бошқа қатор омиллар билан аниқланади.

Иқлим атамаси грекча “клима” - қиялик маъносини, яъни қуёш нурларининг ерга тушган пайтида оғиш-тушиш қиялигини англатади. Бу атама юнон астрономи Гиппарх (мил.авв.160-125 йиллар) томонидан фанга киритилган.

Иқлим – қуёш атрофида ҳаракатланиб турадиган Ер сайёраси юзасига яқин бўлган атмосфера қобиғининг тропосфера қатламида рўй берадиган табиий жараёнлар натижасидир. Иқлим фасллар бўйича ўзгариш хусусиятига эга. Иқлимга таъриф берадиган бўлсак - “Иқлим деб-маълум бир ҳудудда узоқ йиллар давомида такрорланиб турадиган об-ҳаво режимига айтилади”. Об-ҳаво эса иқлим кўрсаткичларининг айни жойдаги, айни вақтдаги ҳолатидир. Об-ҳаво бир кеча-кундузда бир неча марта ўзгариши мумкин. Йил давомида маълум жойнинг иқлимида унинг фаслларига хос ҳолда об-ҳаво ҳолатлари содир бўлиб туради.

Иқлимни ҳосил қилувчи асосий омил, манба Қуёш ҳисобланади. Ер юзасига тушадиган қуёш нурларининг тушиш бурчаги қанча катта бўлса, нурларнинг иссиқлик ва ёруғлик даражаси, қуввати шунча кучли, аксинча бўлса шунча кам ва кучсиз бўлади. Ернинг юзасида атмосфера ёки ҳаво қоплами мавжуд, ундан биз нафас оламиз ва усиз ерда ҳаёт бўлиши мумкин эмас. Ҳар бир киши бир кеча-кундузда 1 килограмм озиқ-овқат, 3 литр сув ва 12 килограмм ҳаво истеъмол қилади. Ер атмосфераси йигирмага яқин газ аралашмасидан ташкил топган. Уларнинг асосий қисми – азот ва кислороддан ҳамда сув буғи, азон ва мутлақ ҳолатда турувчи чанг ва бошқа аэрозоллардан иборат.

Об-ҳавони кузатиш метеорологик станцияларда олиб борилади.

Метеорологик кузатишлар кун давомида ҳар 3 ёки 6 соатда олиб борилади. Бундай бир вақтда олиб борилган кузатишлар бутун дунё об-ҳаво хизматининг (ВСП) асосидир. Бундай принцип метеорологик прогнозлар тузиш ва довуллардан огоҳлантириш ва глобал иқлим ҳақидаги билимларни тўлдириш учун керак.

Шуни алоҳида айтиш жоизки, иқлимий шароит билан боғлиқ бўлган жараёнлар таъсирида табиатнинг ривожланиш босқичларида ўзгаришлар бўлиб турган. Бунга Антарктида материги ва Шпицберген оролларида мавжуд бўлган кўмир конлари ҳамда тўртламчи даврда рўй берган такрорий музланишлар даври инкор этиб бўлмайдиган

далиллардир. Олимлар иқлимий жараёнларда даврий ўзгаришлар мавжудлигини ҳам эътироф этадилар.

Иқлимшунос олим А.В.Шнитников томонидан Ернинг шимолий ярим шаридаги қуруқликларда (материкларда) табиий намликнинг 1800 йил давомидаги даврий ўзгаришлари ўрганилган. Ҳар бир давр икки фаслдан иборат бўлади, биринчиси 300-500 йил давом этадиган салқин, нам, илиқ давр бўлса, иккинчиси 1000 йилдан ортиқ кузатиладиган иссиқ ва қуруқ иқлим давридир [1]. Кейинчалик олиб борилган тадқиқотлар Шнитников фикрини тасдиқлади. Масалан, Э. Ле Руа Ладюри Шарқий Европа иқлимини ўрганар экан "кичик музлик даври" бўлганлигини ва асрлар оша, яъни ҳар 2000 йилда иқлим кескин ўзгаришини исботлади [2].

Иқлим ўзгариши – атмосферада парник газлари ҳаддан ташқари кўп миқдорда тўпланиши натижасида дунё миқёсидаги барқарор иқлим жараёнларининг ўзгариши.

Иқлим ўзгариши сабаби ҳисобланган иссиқхона газлари:

сув буғи

карбонат ангидрид (CO_2)

метан (CH_4)

азот оксиди (N_2O)

гидрофторуглеродлар (ГФУ)

перфторуглеродлар (ПФУ)

олтингугурт гексафториди (SF_6) [4]

Ер тарихида рўй берган иқлимий ўзгаришлар палеоиқлимшунослик фани вакиллари томонидан ўрганилади. Бундан ташқари, бу соҳага тегишли палеогеоморфология, палеоботаника, палеозоология каби фан илмий йўналишлари ҳам мавжуд. Бу ўринда геология фани алоҳида ўринга эга.

Сайёрамизда ҳукмронлик қилаётган ҳозирги иқлимий шароит асосан яқин ўтмишда, тўртламчи даврнинг қуйи, ўрта ва юқори қисмида рўй берган музлик давридан сўнг юзага келган. Ердаги ҳаётнинг асосий манбаи қуёш бўлсада, иқлимнинг ҳосил бўлишида атмосфера қобиғининг аҳамияти алоҳида ўрин тутади. Атмосфера таркибининг шаклланиши ва ўзгариши органик дунёнинг ривожланиш жараёни билан бевосита боғлиқ. Академик И.В.Вернадский фикри билан айтганда, у органик дунёнинг тараққиёти ҳосиласидир[3]. Атмосфера сайёрамизни ўта қизиб ва

кескин совуб кетишдан сақлаб турувчи ҳимоя воситасидир. Ернинг ҳаво қобиғи бўлмаса, ҳаёт ҳам бўлмас эди. Иқлимшуносларнинг ҳисоблашларига кўра атмосферада карбонат ангидрид гази бўлмаганда ҳарорат 60С га, сув буғлари бўлмаганда эса ер сиртида ҳарорат 250С га пасайиб кетган бўлар эди.

Ҳаво ҳароратининг кўтарилиши 1850 йилдан бошлаб, бугунги кунга келиб 1 даражага ошган. Агарда у 2 даражага етса, кризис ҳолатлар вужудга келади. Саноат инқилоби амалга оширила бошлангач атмосферада карбонат ангидриднинг миқдори 30 фоизга ошган. Олимлар иқлим ҳосил қилувчи табиий омилларни 3 гуруҳга – астрономик, географик ва ҳавони циркуляцион омилларга ажратадилар. Бу омиллар қандай гуруҳланмасин, Ер иқлимининг шаклланишида қуйидагилар муҳим ўрин тутади. Бу борада бош омил қуёшдан ер сиртига етиб келадиган радиация ва ёруғлик миқдоридир. Ер юзида сувлик ва қуруқликнинг тақсимланиши, жойнинг географик ўрни, ер юзасининг тузилиши, қуёш нурларининг ер сиртидан қайтиши кўрсаткичлари, атмосфера таркиби ва циркуляцияси ва ҳаво-денгиз оқимлари кабилардир.

Ер шари иқлимини табақалаштиришда турлича ёндашувлар мавжуд. Булар орасида Б.П.Алисов томонидан 1930 йилларда ишлаб чиқилган генетик классификацияси кўпчилик томонидан мақулланган.

Бу классификацияда йил давомида ёки иссиқ ва совуқ даврларда ҳукмронлик қиладиган ҳаво массалари типлари асос қилиб олинган. У географик кенгликлар бўйлаб ҳукмронлик қиладиган еттита ҳаво массаларини қамраб олади: экваториал, 2 та тропик, 2 та мўътадил ва Арктика, Антарктика. Бунга асосан 4 та асосий: экваториал, тропик, мўътадил, арктика-антарктика ва 3 та оралиқ: субэкваториал, субтропик, субарктика-субантарктика иқлимий минтақаларига ажратади. Юқорида қайд қилинган ҳаво массаларининг, иқлим минтақаларининг шаклланишида Ер юзида радиация баланси, ҳаво ҳарорати ва намликнинг қутблардан экваторга томон ўзгариши асос қилиб олинган.

Ер юзида қарор топган ушбу иқлимий шароит XX асрнинг ўрталарига келиб кучли антропоген таъсирга учради. Яъни, ер юзасида аҳоли сонининг ортиши, табиий ресурсларга бўлган талаб ва эҳтиёжнинг тўхтовсиз ошиши ва ниҳоят фан ва техникани

ривожланиши инсоннинг табиатга таъсир кучининг ортиб бориши Ер шари иқлимининг ўзгаришига олиб келди ва бу жараён шиддат билан давом этмоқда.

Бу жараённи қуйидаги далилллар билан асослаш мумкин:

Атмосферанинг кимёвий, физик таркибига инсон фаолият таъсирининг ортиб бораётганлиги, Озон қатламини емирувчи турли ис газларини ҳамда карбонат ангдрид ва бошқа иссиқхона эффекти ҳосил қилувчи газларни ва аэрозолларни чиқариш, турли органик ёқилғиларни ёқиш ва энергия сарфлаш орқали атмосфера ҳароратига кўрсатилаётган таъсирнинг ортиб бораётганлиги;

Табиий ресурсларнинг тез суръатлар билан ўзлаштирилиши (ер, сув, ўрмон, тоғ-кон) туфайли ер сирти альбедосининг ўзгариши;

Дунё океани сатҳининг кўтарилиши ва сув таркибининг ифлосланиши, бузилиши туфайли атмосфера-океан-қуруқлик тизимида кечадиган модда, энергия ва газ алмашинувига салбий таъсир кўрсатиш;

Ер шарида бўладиган, бўлаётган этник низолар, давлатлараро келишмовчиликлар, урушлар, халқаро терроризм, маиший ва саноат чиқиндиларининг табиатга тартибсиз катта миқдорда чиқарилаётгани;

Инсон омили таъсирида ер юзида модда, энергия алмашинуви туфайли, табиий, иқтисодий, ижтимоий жараёнларни шиддатининг ортаётганлиги;

Космосни ўзлаштириш мақсадида ракеталарни фазога чиқарилиши натижасида Озон қатламига етказилаётган зарар ва бошқалар.

Иқлимшуносларнинг маълумотларига кўра, юқорида қайд қилинган жараёнлар туфайли глобал иқлим исиши кузатилмоқда. Атмосферада иссиқлик газлари ҳаддан ташқари кўп миқдорда тўпланиши дунё миқёсидаги барқарор иқлим жараёнларининг ўзгаришига олиб келмоқда. Уларнинг бундай ғайритабиий кўпайиши инсон фаолияти, чунончи: энергия ишлаб чиқаришда, кимё саноатида ва бошқа ишлаб чиқаришларда нефть, газ ва кўмирдан ҳаддан ташқари кўп фойдаланилиши натижасида юз беради. Миқдори йилдан-йилга кўпайиб бораётган асосий иссиқлик газлари оксидланган газ ва метан бўлиб, маълумки, метан табиий газнинг асосий элементи ҳисобланади.

Иқлим ўзгариши муаммоси Ўзбекистонга ҳам ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Содир бўлиши мумкин бўлган оқибатлар қаторида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

- сув ресурслари тақчиллигининг кучайиши;
- ўртача ҳароратнинг ошиши;
- ёғингарчиликларнинг нотекис тақсимланиши – ёғингарчиликларсиз қурғоқчилик узоқ давом этиши ва бир мартада кўп миқдорда ёғингарчиликлар бўлиши;
- қишлоқ хўжалигида етиштириш учун мақбул экинлар таркиби бутунлай ўзгариши;
- ҳарорат режими кучайиши натижасида аҳоли саломатлиги билан боғлиқ муаммолар кўпайиши;
- ўсимликлар ва ҳайвонларнинг аксарият турлари яшайдиган ареаллар қайта тақсимланиши, демак, экологик жараёнлар, бериладиган маҳсулотлар ва бажариладиган функциялар тубдан ўзгариши;
- саҳролашиш жараёнларининг кучайиши, демак, яшаш ва хўжалик юритиш мумкин бўлган ерлар камайиши;
- иқтисодиёт секторлари таъсирининг тўлиқ қайта тақсимланиши ва бошқалар [5].

Иқлим исиши, яъни ҳаво ҳароратининг глобал ортиши муаммосини бартараф қилиш жуда мураккаб вазифадир. Чунки, бу муаммо ҳам “табиат-инсон-жамият” муносабатларига, яъни учликнинг мувозанатига, уйғун ривожланишига боғлиқдир. Ушбу мувозанат йўлларини топиш ва уни сақлаш учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш лозим:

- иқлим ўзгариши муаммоси мазмун-моҳиятини чуқур англаш, ер шари аҳолиси, давлатлар, халқаро ташкилотларнинг ҳамкорлигига эришиш;
- иссиқхона ҳосил қилувчи газлар эмиссиясини (атмосферага чиқаришни) камайтириш имкониятини берадиган янги технологияни ишлаб чиқиш ва унга ўтиш;
- муқобил энергия манбаларига ўтиш ва уларнинг самарадорлигини ошириш;
- экинзорлардан, айниқса шолипоялардан метан газининг ажралиб чиқишини камайтирадиган технология ва усулларга эришиш;

- уй-жой ва биноларни иситишда тежамкор, экологик талабларга жавоб берадиган усулларни жорий этиш;

- ҳар бир инсонда “Сайёрамиз-умумий уйимиз” туйғуси ва масъулиятини ошириш, экологик маданиятни шакллантириш;

- маиший чиқиндиларни оқилона бартараф қилиш технологиясини такомиллаштириш;

- иқлим исиши индикатори ва оқибатларини худудлар доирасида ўрганиш ва уни бартараф қилишнинг географик асосларини излаш ва ушбу мавзуда лойиҳаларни ишлаб чиқиб амалиётга тадқиқ қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Шнитников А.В. Внутривековая изменчивость компонентов общей увлажненности. – Л. Наука, 1969. –244 с.
2. Э. Ле Руа Ладюри История климата с 1000 года. – Л.: Гидрометеоиздат. 1971. – С. 270.
3. Дмитриев А. Л. Иван Васильевич Вернадский как статистик // Вопросы статистики. — 2010. — № 10. — С. 73—76.
4. Н.Қосимова. Иқлим ўзгариши нега хавфли? http://экolog.uz/article_view.php?id=174
5. Н.Қосимова. Иқлим ўзгариши нега хавфли? http://ekolog.uz/article_view.php?id=174
6. Ўша ерда.
7. http://uzb.econews.uz/index.php/index.php?option=com_content&view=article

UO‘T:631.671.2

HOZIRGI KUNNING EKOLOGIK MUAMMOLARI VA MADANIYATI

Muhammadjonova Muslima Murodulla qizi. – “Ekologiya va atrof muhit muhofazasi” yo’nalishi talabasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

mahammadjonovamuslima47@gmail.com

Murodova Hilola Umarqulovna – “Biologiya”yo’nalishi magistranti Buxoro DavlatUniversiteti

To'xtayeva Gulshan Po'lotovna - "Gidrologiya va ekologiya" kafedrasi assistenti
Email: gtuxtayeva1879@gmail.com

Annotatsiya. Iqlimning o'zgarishi natijasida paydo bo'ladigan muammolar, ishlab chiqarish korxonalarida vujudga keladigan ba'zi bir favqulodda vaziyatlar va hodisalar, ba'zi bir hayvonot turlarining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib borishi ekologik muammo bo'la oladi.

Kalit so'zlar: Fan va texnikaning keskin rivojlanishi, ekologik ta'lim va tarbiya, yoshlarda ekologik ongni shakllantirish, insoning tabiatga va biosferaga bo'lgan yangicha munosabatlarini yaratish, iqtisodiy - ijtimoiy tangliklar, ekologik tangliklar.

UDC:631.671.2

ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND CULTURE OF THE PRESENT

Muhammadjonova Muslima-student of the direction" Ecology and Environmental Protection " Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management
mahammadjonovamuslima47@gmail.com
Murodova Hilola Umarkulovna-master of Biology Bukhoro State University
Tuxtayeva Gulshan Polotovna-assistant of the Department " Geology and ecology
Email: gtuxtayeva1879@gmail.com

Abstract. The given article deals with one of the main guidelines of social politics in our country, which is impact of various dangerous and harmful factors, which appear in the process of production and other situations, providing them with social protection on the basis of law and other regulations as well as forming appropriate sanitation and hygiene work conditions.

Key words: physiological characteristics, to leave one's mark, theory, principle, dust, vibration, strong heating and cooling of organism biological and social, significance, realizing of convention action.

Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning hayotida, iqtisodiyotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq har qanday hodisa tushuniladi. Masalan, iqlimning o'zgarishi yoki suv toshqini natijasida paydo bo'ladigan muammolar,

ishlab chiqarish korxonalarida vujudga keladigan ba’zi bir favqulodda vaziyatlar va hodisalar, ba’zi bir hayvonot turlarining bir joydan ikkinchi joyga ko’chib borishi ekologik muammo bo’la oladi.

Ma’lumki, 1993-yil 9-dekabrda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Tabiatni muhofaza qilish” to’g’risidagi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda qanday mutaxassis tayyorlashdan qat’iy nazar barcha o’rta va oliy o’quv yurtlarida fuqarolarning hayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo’lish huquqini ta’minlash uchun ekologik o’quvning majburiyligi belgalab qo’yildi. Chunki ekologik ta’lim va tarbiya yoshlarda ekologik ongni shakllantirishda, insoning tabiatga va biosferaga bo’lgan yangicha munosabatlarini yaratish muhim o’rin tutadi. Qolaversa, mustaqil respublikamizda ekologik madaniyatli, o’z Vataniga va eliga xizmat qiladigan yetuk, komil va barkamol insonning shakllanishiga katta ko’mak beradi.

Hozirgi kunda fan va texnikaning keskin rivojlanishi, sanoat, transnort, qurilish, energetika tarmoqlari tez sur’atlar bilan o’sdi, tabiiy boyliklar (neft va gaz, ko’mir, rangli metallar) dan haddan tashqari foydalanildi, quruq yerlar-yaylovlar, to’qayzorlar, botqoqliklar o’zlashtirildi, sanoatda va qishloq xo’jaliga tarmoqlarida turli zaharli kimyoviy moddalardan qo’llanib kelindi. Natijada tabiiy muhitda ekologik muvozanat buzildi, tuproq, suv va atmosfera havosining tabiiy tarkibi o’zgardi, turli ifloslanishlar paydo bo’ldi. Bular nafaqat iqtisodiy - ijtimoiy tangliklarni, balki ekologik tangliklarni kelib chiqishiga asosiy sabab bo’ldi va tabiiy boyliklarni kun sayin kamayishiga olib keldi. Masalan, Jarqoq va Gazli yer osti boyliklari yildan yilga kamayib borishi ko’pchilikka ma’lum bo’lib qoldi.

Tabiat yer yuzidagi jamiki tirik mavjudot uchun muqaddas go'shadir. Tabiat ularni to'ydiradi, kiydiradi, issiq va sovuqdan asraydi. O'z navbatida tirik mavjudot ham tabiatga mehr qo'yadi. Bu mehr tabiatni asrash, uning boyliklari-ni ko'paytirish tuyg'usi bilan uyg'unlasha olsagina haqiqiy sanaladi. Yaqin o'tmishimizda biz «Tabiatni sevamiz» deb bong urdigu, biroq uni asrab-avaylash ishiga mas'ul ekanligimizni unutib qo'ydik. Ana shu mas'uliyatsizligimiz «Ekologiya» deb nomlanuvchi yangi fanga zamin yaratdi. «Ekologiya» so'zi «eko» — uy, turar-joy, «logos» — fan so'zlaridan olingan bo'lib, u atrof-muhitning buzilishi va bunga sabab bo'lgan omillar, muhit halokatining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish borasidagi bilimlarni targ'ib etish asoslarini o'rganadi.

Ma'lumki, tabiatda hamma narsa bir-biriga uyg'undir. Fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanayotgan inson esa ana shu uyg'unlikni buzmoqda, unga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lmoqda. Tabiiy boyliklardan: suvdan, yerdan o'rinsiz foydalanish ekologiyani o'zgartirib yubordi. Tabiiy muhitda vujudga keladigan vulqonlar, shamol va yog'ingarchiliklar, tabiiy ofatlar (suv toshqini, zilzila) tufayli atmosfera havosi ifloslanadi. Bundan tashqari, atmosfera havosi tarkibiga o'simliklar va hayvonot qoldiqlari, zaharli gazlar (SO, NO_2, SO_2), uglevodorodlar (metan, etan, ammiak va boshqa gazlar va suyuqliklar), koinotdagi gazlar va chang zarrachalari tabiiy holda kelib qo'shiladi. Atmosfera havosining bunday ifloslanishiga tabiiy (biologik) ifloslanishi deyiladi.

Atmosfera havosining sun'iy (antropogen) usulda ifloslanishi inson faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Sanoat korxonalari, qurilish, energetika tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, konchilik va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalaridan chiqadigan zararli gazlar, bug'lar, changlar, bakteriya va mikroblar atmosfera havosini sun'iy ifloslantiradi.

Atmosfera havosiga chiqariladigan iflos moddalarning asosiy qismini zaharli gazlar (SO, SO_2, NO_2), uglevodorodlar, chang, qurum, metal birikmalari tashkil etadi. Ular ko'pincha organik moddalar va yoqilg'ilarni yondirish paytida vujudga keladi.

Atmosfera havosi tabiiy holda 78% azotdan, 21% kisloroddan, 0,9% argondan, 0,003% karbonat angidirid gazidan va qolgan qismi inert gazlarning mexanik aralashmalaridan iboratdir.

Atmosfera havosi yer sharini isib ketishidan va sovub ketishidan himoya qiladi, tirik organizmlar hayotida aloqa vositasi, ya'ni to'liq tarqatish vazifasini bajaradi.

Havoning ifloslanganligi natijasida, yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarning ancha miqdori yetib kelmaydi. Korxonalardan oqib chiqayotgan zararli oqavalar suv havzalarini ifloslantirishi birinchi navbatda hayvonot olami va o'simliklar dunyosiga zarar keltirmoqda. Transport vositalaridan chiqayotgan tutun-gaz havoning tozaligini buzyapti. Bularning barchasi insondan ekologik madaniyatni talab etmoqda.

Umum insoniyat bunday vazifalarni yechishga birgalikda kirishsagina ekologik muammolar hal bo'ladi. Masalan, birgina Orol muammosi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Bundan tashqari, ba’zi-bir mintaqalarda suv muammolarining kelib chiqishi (masalan, Orol dengizining qurib borishi, Zarafshon daryosining qurib borishi, Arnasay ko’llari atrofidagi ekologik muammolar va hokazolar), o’simlik va hayvonot turlarining qirilib ketishiga sabab bo’ldi.

Orol dengizining suvi kamayib ketishi haqida dastlabki xavotirlar bildirilganidan beri yarim asrdan ortiq vaqt o'tdi. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishidan oldingi yillarda dengizning sathi keskin kamayib ketayotganligi baralla gapirilib, bu masalaga butun dunyo mamlakatlari va suvchi mutaxassislarning e'tibori tortildi.

Orolning qurib ketishi faqatgina uning atrofida joylashgan O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston emas, butun dunyo iqlimiga salbiy ta'sir etadi. Shu-ning uchun Orolni saqlab qolish dunyo ahamiyatidagi muammodir.

Aslida, ekologik madaniyat tabiatni barcha go'zalliklari bilan his qilishdan, sevishdan boshlanadi. Insonning tabiat kuchlari — sovuq va issiq, qurq'oqchilik, yong'inlar, turli ofatlar ustidan g'alabasi unga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Bu ko'r-ko'ronalikdan asta-sekin ongli munosabatga aylana boradi. Tabiatga bo'lgan mehr tuyg'usi, unga munosabat shaxs madaniyatining ajralmas bir bo'lagini tashkil etadi.

Yangi asrning barkamol kishisi o'zida ekologik madaniyat unsurlarini ham namoyon eta olishi zamon talabidir. Ekologik madaniyat — bu atrof-muhit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatishga, tabiat zahiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir. Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonni ekologik madaniyat egasi, deb atash mumkin.

Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar-

joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatlilikning eng oddiy ko'rinishlari sanaladi.

Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-texnika taraqqiyoti va atrof-muhit, jamiyat va ekologiya o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelayapti. Bularning barchasi ekologik madaniyatni yanada yuksaltirish masalasini ko'ndalang qo'ymoqda.

Har bir inson tabiatdan bahra oladi. Ammo bu hali tabiatga muhabbat degani emas. Tabiatga muhabbat uni tushunishdan, uning go'zalliklarini anglashdan, tabiat bilan munosabatga kirishishdan boshlanadi. O'z navbatida, tabiat insonda kuzatuvchanlik, sezgirlik, nazokatlilik kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi. Bu — insonda ikki ko'rinishda: tabiatga va o'ziga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Inson tabiatdan faqat zavqlanishni emas, balki uni yaxshi tushunishni ham o'rganadi. Natijada, o'zligini his qilib, tabiatdan unga inson bo'lish imkonini bergan «narsa»ni, ya'ni insonga xos madaniyat hislarini topishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Molles Manuel C. “Ecology: Concepts and Application Published by MoGrav-Hill, a business unit of The Mc Graw-Hill Companies, Inc”, New York, 2008.
2. Sultonov P.S. “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari”. Toshkent, 2007.
3. Saloxiddinov A.T, Valiev X.I., Xolmirzaeva M. “Ekologiya” Toshkent, 2014.
4. Mustafoyev S, O’roqov S, Duvonov A. “Umumiy ekologiya” Toshkent, 2006.
5. Hamdamov J., Bobomurodov Z., Hamdamova E., “Ekologia” Toshkent, 2009.
6. Шодиметов Ю.Ш. «Экология» Ташкент, 2016.
7. Исломов И., Тухтаева Г.П. «Режим орошения хлопчатника сорта Бухара – 8 в условиях аллювиально – луговые почвы Бухарской области» Хоразм, 2021.

8. Kabildjanov Alexander, Bozorov Elmurod, Okhunboboyeva Charos, Tuhtaeva Gulshan. «Intellectualization of Decision Making Support in Tasks of Optimization
of Complex Technical Systems based on Anfis Neuro-Fuzzy Network»Annals of the Romanian Society for Cell Biology 2021.
9. A Anarbaev, O Tursunov, R Zakhidov, D Kodirov, U Vakhidov, E Bozorov, G Tuhtaeva, and A Babaev «Determination the installation efficiency of the evaporative air cooling in the
greenhouse by temperature-moisture regime» ICECAE 2020.

УДК;631:

EKOLOGIK MUVOZANATNI SAQLASHDA QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLATILADIGAN QUDUQLI NASOS QURULMALARINING AHAMYATI.

Sayfullayeva M. Suv xo'jaligida ekologiya xavfsizligi ta'lim yo'nalishi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
Sharipov A.E.–"Ekologiya va gidrologiya" kafedrasi assistenti
sharipovarmon@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik muvozanatni saqlashda qishloq xo'jaligida ishlatiladigan quduqli nasos qurulmalarining ahamyati hamda ularni ishlatish prinsiplari nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: *Ekologiya,gidrologiya,gidrotexnik, zax, arit, kritik.*

UDC;631:

THE IMPORTANCE OF BOREHOLE PUMPS USED IN AGRICULTURE IN MAINTAINING ENVIRONMENTAL BALANCE.

M. Sayfullayeva Direction of Ecology safety in water economy Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management
Sharipov A.E.–Assistant of the Department" ecology and geology "
sharipovarmon@gmail.ru

Annotation: This article provides for the importance of borehole pumps used in agriculture in maintaining the ecological balance, as well as the principles of their use.

Keywords: Ecology,geology,hydrotechnics, zakh, arit, critical.

Mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishi suv xo'jaligi, meliorasiya va gidrotexnikaning bundan keyingi rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli Respublikamizda yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, Gidrotexnika inshotlari xavfsizligi yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga etibor qaratilmoqda.

Respublikamizda "Suv va suvdan foydalanish", "Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi va ishonchli ishlashi" to'g'risidagi qarorlarni qabul qilinishi fikrimiz dalilidir.

Gidrotexnika qurulishi bilan qamrab olingan xalq xo'jaligining tarmoqlari ko'p sonli va kengdir. Shu jumladan – zax qochirish, sug'orish, suv taminoti, suv transporti, suv energiyasidan foydalanish, suv toshqini va qirg'oqlarini himoya qilish, mudofaa inshootlari va boshqalar kiradi.

Quduqning aholi suv bilan taminlash va sug'orish uchun yer osti suvlarini yig'ish maqsadida quriladigan suv tindiruvchi daryo, ko'l, suv omborlaridan olinadigan suvlarini rostlash maqsadida qirg'oqda yaqin quriladigan qirg'oq bo'yi xillari bo'ladi.

Xozirda O'zbekistonda 8 mingga yaqin vertikal zovur va sug'orish quduqli nasos qurilmalari mavjud. Quduqli nasos qurulmalari sug'orish bilan kompleksda sug'orilayotgan xududni loyxaviy meliorativ rejimini taminlashi lozim. Shuninguchunquduqlinasosqurulmalariishonchliliginiyetarlikafolatlashkerak.

O'zbekistonRespublikasidaxozirgikundasho'rlanganyerlarsug'oriladiganyerlarning 53% initashkilqiladi.Shunutakidlashkerakki, sho'rlanganyerlarekilganekinlarxosildorligini 20-80% gachakamaytirishmumkin.Zaxqochirishmelioratsiyasiningvazifasituproqningunumdorliginioshirishmaqsadidaundao'simliklaruchunqaytasuvrejiminiva u bilanbog'liqbo'lgantuzxamdaozuqarejimlarinivujudgakeltirishdaniborat.

To’g’ritanlangansharoituchunyerlarningmeliorativxolatiniyaxshilashningsamaraliusullaridanbiribo’libbotirilgannasoslarbilanjixozlanganvayerostisuvlariniyuzagachiqaribtashlaydiganvertikalzovurxisoblanadi. Vertikalzovurbirinchimartayerlarsho’rlanishigaqarshi AQSH da 1918-yildan buyonishlatilaboshlandi. 1959-yilda kelibesaularnisoni 130 minggayetdi.Xozirgipaytdazovurnafaqat AQSH balkiMisr, Hindiston, Jazoirvaboshqamamlakatlardaxamishlatiladi. O’zbekistonda 1966 yildanboshlabMirzacho’lFarg’onavodiysi, BuxoroviloyativakeyinchalikesaSherobodvaQarshcho’llaridaxaishlatilaboshlandi.

Umuman, O’rtaOsiyorespublikalaridavertikalzovur 600 minggayergaqurilganbo’lib 6 mingdanko’roqquduqdanfoydalaniladi. Suvbilantaminlashbilanesa 18 mingdonanitashkilqiladi. Bundantashqari, xozirgikundashaxarvaqishloqniichimliksuvbilantaminlashdaquduqninasosqurulmalaridankengqo’llanilmoqda.Ularsuvtaminotitiziminingajralmasbirqismibo’libqolmoqda.ZaxqochirishmelioratsiyasiningasosiymuammosiQo’rg’oqchilzonadasho’rlanganvasho’rlanishigamoyilbo’lgansug’oriladiganerlarniyaxshilashsanaladi. Tuproqdagiortiqchanamniqochirishfaqatissiqlikvamikrobiologikrejimlarniyaxshilabqolmasdanbalkizaxiqochirilayotganmaydondagiyerustixavoqatlaminingnamlikvaxaroratsharoitlarinio’zgartiradi. Zaxqochirish-ortiqchanamiqqanyerdagisuvniyetkazishtuproqtarkibidaxavomiqdoriniosh iradi, buesaundaorganikmoddalarningchirishituproqunumdorliginioshirishgayordamberadi. 30 yillarningikkinchiyarmidaO’zbekistondasug’oriladiganyerlarningsho’ranishigavabotqoqlashishigaqarshikurashishmaqsadidabirqanchazovurvakollektorlarqurildi. Melioratsiyaishlariasosan 1947-yillarda boshlandi.Engko’pmelioravishlarFarg’onavodiysida, Mirzacho’lda, Xorazmviloyatidaboshlandi.

O’zbekistodasho’rlanganyerlarmiqdorisug’oriladiganyerlarning 45-55%ini

tashkilqiladi.Sho'rlanganyerlarmiqdorano'zgaribturadi.Aritzonadazaxqochirishmelioratsiyasideganda, faqatzaxyerlarzaxiniginaketgazishemas, balkituproqningaktivqatlamidagituzlarnizovurlarvositasidayuvishyo'libilanbutunlayyoqatishvaminerallashgansizotsuvsathinikiritikchuqurlikdanpastgatushuribyuborishni ham tushunishlozim.Sug'oriladiganyerlardagiortiqchatuzlarodatdasho'ryuvishvakollektorzovurtarmoqlaryo'libilandaladanchetlashtiriladi.

YerostisuvlariningmanbalarijixatidanO'zbekistonxududiuchtaasosiytabiiyzonagabo'linadi.

1.Tog'lar,tekisliklarzonasi, Farg'onavodiysi, Mirzacho'l, Zarafshonvodiysiningyuqoriqismi.

2.Birtomonitog'largatutashgantekisliklarzonasiBuxoroviloyati, Qashqadaryoviloyatibirqismi.

3.Daryolarhisobigahosilbo'ladigansizotsuvlitelisliklarzonasi:Qizilqum, Qoraqum.

Sizotsuvlardoimoo'zgaruvchan, yanioquvchanbo'ladi.Ularsuvomborlaridaryo, ko'l, kanalvasug'orishmaydonlariorqalifiltirlamishhisobigabalandroqdajoylashganuchaskalardanoqibkeladigansuvlarvanihoyattuproqdasuvbug'lariningkondensiyalanishivayong'insuvlariningsizibo'tishihisobigato'xtovsizto'libturadi.

Hozirgikundayerlardanunumlifoydalanishekinlardanmo'l-ko'lhosilolishengdolzarbmuammolardanbirisanaladi.Buninguchuo'simliko'sibrivojlanishigaqulaysharoityaratish, yanisizotsuvlarikritiknuqtagatushurilgan, yerlarningmelioativholatitalabdarajasida, ekilganekingaqandaysharoitdabo'lishidanqatiynazarvaqtidasug'orishsuvbilantaminlashtalabetiladi. Bundabizlarquduqlinasosqurulmalarinihoyatdakata yordamberadi.Bizlarbundanbuyon ham quduqlinasosqurulmalarinisonoiniko'paytirish, borlarinijoriykabikapitaltamirlarhardoyimishchiholatdaekanligininazoratqilibturishimizkerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI:

1. Quduqli Nasos Qurulmalari / A. S. Badalov, B. R. Uralov, E. K. Kan/
2. O'quv qo'llanma Toshkent 2011 y. 111 bet.

UO'T:631.671.2

CHIQINDILARNI BARTARAF ETISH VA QAYTA ISHLASH MUAMMOLARI

Itolmasova Madina Islom qizi. – "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" yo'nalishi talabasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
To'xtayeva Gulshan Po'lotovna - "Gidrologiya va ekologiya" kafedrasi assistenti
Email: gtuxtayeva1879@gmail.com

Annotatsiya. Sanoat va turmush chiqindilari tuproqda, suvda, o'simliklarda mikroelementlarning ko'payib ketishiga sabab bo'ladi, shahar aholisining zichligi natijasida yuqumli kasalliklar keng tarqaladi.

Kalit so'zlar: Qattiq holatdagi chiqindilar, suyuq holatdagi chiqindilar. Chiqindilarni yoqish yoki qizdirish usullarini qollab zararsiz holatga keltirish, texnik va xo'jalik tadbirlari

UDC:631.671.2

WASTE DISPOSAL AND RECYCLING PROBLEMS

Italmasova Medina . – Student of the direction" ecology and Environmental Protection " Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources
Tuxtaeva Gulshan Polotovna-assistant of the Department " Geology and ecology
Email: gtuxtayeva1879@gmail.com

Abstract. The given article deals with one of the main guidelines of social politics in our country, which is impact of various dangerous and harmful factors, which appear in the process of production and other situations, providing them with social protection on the basis of law and other regulations as well as forming appropriate sanitation and hygiene work conditions.

Key words: physiological characteristics, to leave one's mark, theory,

principle, dust, vibration, strong heating and cooling of organism biological and social, significance, realizing of convention action.

Iste`molga yaroqsiz chiqindilar. Bu dastlabki xossalarini tiklab bulmaydigan, qo'llash muddatini o'tab bo'lgan materiallar yoki turli eskirgan buyumlardir. Chiqindilarni to`plash va olib chiqishning yaxshi yo`lga qo`yilmagan mexanizmi ekologik xavfni oshirib, aholi salomatligiga ta`sir qilishi mumkin. Sanoat va turmush chiqindilari tuproqda, suvda, o'simliklarda mikroelementlarning ko'payib ketishiga sabab bo'ladi, shahar aholisining zichligi natijasida yuqumli kasalliklar keng tarqaladi.

Ma'lumki, 2002 yil 5 aprelda "Chqqindilar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Bir kishi bir yilda 83 kg chiqindi chiqaradi. Hozirgi paytda Buxoro, Kogon shaharlaridagi hamda Olot, Qorako'l, Shofirkon, Jondor tumanlardagi axlatxonalar va ularning sanitariya-gigienik holati jozirgi zamon talablariga javob bermayotir. Ularning atrofi o'ralmagan, chiqindilarni turlarga ajratish va zararsizlantirish chora-tadbirlari amalga joriy etilmagan. Natijada atrof-muhit ifloslanib boryapti. Ammo shuni yodda tutish kerakki, chiqindilardan samarali foydalanish muammalarini ushlab qolingan tashlanmalar va chikindilarning mikdori echolmaydi, balki ularni tabiiy atrof-muxit uchun zararsiz xolatga keltirish katta ekologik axamiyatga ega. Shahar, posyolka va qishloqlardagi turar joylarni toza tutishning epidemiologik gigiyenik ahamiyati juda katta. Turar joylarning tozaligi, obodonligi, ariqlardan suvlarning oqib turishi, daraxtzor va ko'kalamzorlarni mavjudligi yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam beradi.

Turar joylarni tozaligini saqlash va tashkil qilishda rejali, tashkiliy, sanitar – texnik va xo'jalik tadbirlari ishlab chiqiladi. Bunday tadbirlarni amalga oshirishda sanitariya nazoratini to'g'ri uyushtirishning epidemiologik ahamiyati juda katta. Aholi turar joylarini toza tutish uchun chiqindi axlatlarni o'z vaqtida yig'ish, olib chiqib ketish va zararsiz holatga keltirish hamda ba'zi bir chiqindilarni qayta ishlash uchun jo'natish zarur. Shu bosqichlardan birortasi bajarilmay qolsa, tozalikni saqlash qiyin bo'ladi.

Chiqindilar uch xil bo'ladi.

1. Qattiq holatdagi chiqindilar – bular tog' - kon sanoatidan chiqadi.

2. Suyuq holatdagi chiqindilar – bularga aholi turar joylaridan va ayrim sanoat tarmoqlaridan chiqadigan chiqindilar kiradi.

3. Gaz holatdagi chiqindilarga gaz konlaridan chiqadigan chiqindilar kiradi.

Axlatlar tezda zararsizlantirilmasa, u tashqi muhitni ya'ni atmosferani, suv havzalarini, tuproqni, oziq – ovqatlarni, binolarni, korxonalarni va boshqalarni zararlaydi. Uy xo'jalik axlatlari, oziq – ovqat chiqindilari va boshqalar juda ko'p organik moddalarni ushlagani uchun tez chiriy boshlaydi, oqibatda turli gazlar: ammiak, serovodorod, metan, indol, stakol va boshqalar paydo bo'ladi. Yog'ingarchilik oqibatida yer yuzasidan yuvilib daryolarni, kichik ariq suvlarini ifloslantiradi. Suyuq chiqindilar hatto yer osti suvlariga sizilib o'tib ularni ifloslantirishi mumkin. Ayrim chiqindilar axlatlarida turli mikroorganizmlarning mavjudligi va ularning uzoq vaqt yashashi aniqlangan. Jumladan qorin tifi, paratif, ichburug', sil, kuydirgi va boshqalar axlatlar tarkibida uchraydi. Bu chiqindilar bizning issiq iqlim sharoitida har xil kasallik tarqatuvchi mikroblarning tez ko'payishi uchun qulay muhit yaratadi. Ular hashoratlar, shamol yoki suv orqali tez tarqalib, odamlarni turli yuqumli kasalliklarga yo'liqtiradi.

Hozirgi zamon sanoat korxonalari ishlab chiqarish texnologiyasi har qanday sharoitda juda ko'p chiqindi - axlatlarni hosil bo'lishiga sababchi, bu chiqindilar ko'p vaqtlar davomida kishi sog'lig'iga juda xavfli bo'lib, tashqi muhitning hamma ob'ektlarini ifloslantiruvchi omillardan hisoblanadi. Shuning uchun ham dunyodagi sanoat korxonalarining asosiy masalalari texnologiya jarayonlarini takomillashtirib, korxonalarda chiqindilarning ajralishini kamaytirishdir ya'ni isrofgarchilikka yo'l qo'ymasdan chora – tadbirlarini ishlab chiqish va hokazolar. Sanoat korxona chiqindilari ikkiga bo'linadi, ya'ni biridan foydalanish mumkin va ikkinchisidan esa mumkin emas. Foydalanish mumkin bo'lgan chiqindilar xalq xo'jaligining turli sohasida ishlatiladi. Korxona chiqindilari o'g'it, qurilish materiallari va ba'zi bir mahsulotlarni tayyorlashda xom ashyo sifatida ishlatiladi. Masalan, kimyo, neft sanoatlaridan chiqadigan shlam qoldiq qatlamlarining 1mln. tonnasi qayta ishlansa, 4300 onna kobalt olinishi mumkin. Dunyo mamlakatlari tajribasida foydalanish mumkin

bo’lmagan chiqindilarni yoqish yoki qizdirish usullarini qollab zararsiz holatga keltiriladi va sanoat korxonalari uchun mo’ljallangan poligonlarda ko’miladi.

Chiqindilarni termik, ya’ni issiqlik usullari bilan zararsizlantirishda maxsus o’chog’larda 1000-1200 S da kuydiriladi, ammo ular yonishi oqibatida paydo bo’lgan zaharli gazlar gaz ushlagich moslamalarda, chang ushlagich qurilmalarida tutib qolinadi, bunda atmosfera havosi ifloslanishdan holi bo’ladi. Goho sanoat korxona chiqindilarini xo’jalik axlatlari bilan ham birga yoqish mumkin. Ko’p vaqtlar foydalanish mumkin bo’lmagan sanoat chiqindilari maxsus ajratilgan joyda to’planadi. Masalan, Olmaliqda joylashgan sanoat korxonalarining shu usul bilan yig’ilgan chiqindilari hozirda taxminan 40 mln. tonnani tashkil qiladi, keyinchalik ularni qayta ishlashga jo’natiladi. Korxonalarda yig’iladigan chiqindilar juda zararli bo’lsa, keyinchalik maxsus poligonlarda ko’mib tashlanadi.

Chiqindi – bu xomashyodir. Ularning tarkibida makulatura, oziq – ovqat chiqindilari, plastmassalar bor. Shuning uchun ham AQSH va boshqa rivojlangan mamlakatlarda bunday chiqindilar sotib olinadi.

Umuman aholi turar joyida to’planadigan axlatlarni axlatxonalarga tashlash allaqachonlar gigiyena fani tomonidan qoralangan. Bu iqtisodiy jihatdan samarasiz, iflosgarchilikka yo’l qo’yiladigan usuldir.

Axlatlarni 2 yo’l bilan zararsizlantirish va ulardan foydalanish mumkin:

a) biotermik usul – ya’ni axlatni kompost qilish, issiqxonalarda foydalanish va mukammallashtirilgan axlatxonalarda zararsiz holatga keltirish;

b) axlatlarni kuydiriladigan, sortlaydigan zavodlarida zararsizlantirishdir.

Biotermik usul tuproq bilan zararsizlantirish usuliga o’xshaydi, asosan organik moddalarning bioximik parchalanish jarayonlari mikroorganizmlar hisobiga bo’ladi, ammo jarayon yuqori haroratda jadalroq o’tib, tezroq nihoyasiga yetadi.

Keyingi vaqtlarda axlatlarni mexanizmlar yordamida qayta ishlash uchun zavodlar qurilmoqda. Masalan, har yili 65000 tonna axlatni qayta ishlash zavodi Sankt – Peterburgda qurildi. Bu zavodni loyihalashda G’arbiy YEvropa mamlakatlari loyihalaridan va tajribalaridan foydalanilgan.

Zavod organik azotli o’g’itlarni qishloq xo’jalik ehtiyoji uchun ishlab chiqadi. Zavodda axlatlarni qabul qilish, hamda axlatlarni sortga ajratish, nazorat qilish bo’linmalari bor. Zavodga axlat temir, tosh va boshqalardan ajratilgach, aylanuvchi barabanlarga (diametri 4 m, uzunligi 60 metrli) solinadi. Barabanlarda axlatlar aralashtiriladi 1–3 kundan so’ng ma’lum darajada namlik berilgach, chiqindilar qizishib ularning harorati 50 – 60 S ga yetadi, bu bioximik jarayonlarni keltirib chiqaradi.

Sivilizatsiyalashgan mamlakatlardagi shahar va qishloq ko’chalarining bir joyida axlatning to’kilib yotganini ko’rmaymiz. Ro’zg’or va korxonalardan chiqqan chiqindilar maxsus joylarga to’kilib, o’z vaqtida qayta ishlovchi zavodlarga olib boriladi. Bu zavodlarning texnologiyasi ham ekologik jihatdan sog’lom, ya’ni ularning trubalaridan zaharli tutun emas, toza bug’ chiqadi. Tsexlari gigiyenik jihatdan toza, ishchilar maxsus orasta kiyintirilgan. Eng asosiysi ularga to’lanadigan ish haqi boshqa korxonalardagiga qaraganda yuqoridir.

Chiqindilarni qayta ishlovchi zavod hozircha respublikamizning hamma viloyatlarida yo’qligi uchun axlatlarni maxsus joylarga to’kib, ko’mib tashlash davom etmoqda. Axlatxonalar manzilgohlar va daryolarning o’zanlari, ariqqlar yaqiniga joylashtirilishi aslo mumkin

emas. Ular devor yoki sim setkalar bilan o'ralib qo'yilishi kerak. Axlatlarni to'kish uchun chuqurligi 3- 4 m ga yetkazib xandak qazish va ularga to'kilgan axlat ustidan xlorli ohak sepib qo'yish lozim. Xandaklar to'lgach, ular ko'mib tashlanadi.

Chiqindilar masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo'lib, ularni yig'ishtirib qayta ishlash yoki gigiyenik talablar bo'yicha sarishta qilinsa nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda ko'ramiz, balki yerni, havoni suvni, oziq – ovqat mahsulotlarining ifloslanishi oldi olinardi, kishilar sog'lig'ini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Вайсман Я.И. Управление отходами. Сбор, транспортирование, прессование, сортировка твердых бытовых отходов. Пермь: Пермский НИПУ 2012.-236 с.,

2. Уланова О.В. Управление твердыми бытовыми отходами. Европейский опыт.

Часть 1. Иркутск: ИрГТУ, 2009. — 136 с.

3. Уланова О.В. Управление твердыми бытовыми отходами. Европейский опыт.

Часть 2. Иркутск: ИрГТУ, 2010. — 180 с.

4. Коныk О.А., Кузиванова А.В. Технологии переработки твердых отходов:

учебное пособие. Сыктывкар: СЛИ, 2013. - 202 с. П.Ченцова Л.И. и др.

Очистка и переработка промышленных выбросов и отходов. Учебное пособие.

Красноярск: СибГТУ, 2012.-250 с.

5. Исломов И., Тухтаева Г.П. «Режим орошения хлопчатника сорта Бухара – 8 в

условиях аллювиально – луговые почвы Бухарской области» Хоразм, 2021.

6. Kabildjanov Alexander, Bozorov Elmurod, Okhunboboyeva Charos, Tuhtaeva Gulshan.

«Intellectualization of Decision Making Support in Tasks of Optimization of Complex

Technical Systems based on Anfis Neuro-Fuzzy Network»Annals of the Romanian Society
for Cell Biology 2021.
7. A Anarbaev, O Tursunov, R Zakhidov, D Kodirov, U Vakhidov, E Bozorov, G Tuhtaeva,
and A Babaev «Determination the installation efficiency of the evaporative air cooling in the
greenhouse by temperature-moisture regime» ICECAE 2020.

UDC:635.655

ECOLOGICAL FEATURES OF SOYBEAN CULTIVATION IN SALINE SOILS OF ARID REGIONS

Babadjanova Shirin Kadamovna, Jamalova O'g'iljon Umarjonovna.
Urgench city, Uzbekistan, Senior teacher Department of Ecology, Faculty of Natural Sciences,Urgench State University,shirinka_74@mail.ru
Urgench city, Uzbekistan, Master Department of Biology, Faculty of Natural Sciences, Urgench State University, umarjonqizi@gmail.com

Annotation: The results of the analysis show that the use of fertilizers at the rate of $N_{30}P_{120}K_{100}$kg/ha in combination with presowing seed inoculation with nitragin provides the highest yield of soybean grains.

Key words: Soil, planting,nitrofen, legumes, biomass, grain yield, resulted, fertilizer, landscape, accumulation.

УДК:635.655

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ СОИ НА ЗАСОЛЕННЫХ ПОЧВАХ ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНОВ

Бабаджанова Ширин Кадамовна[1], ДжамаловаУгилджон Умарджоновна[2]
Город Ургенч, Узбекистан, старший преподаватель кафедры экологии факультета естественных наук Ургенчского государственного университета shirinka_74@mail.ru
Город Ургенч, Узбекистан, Магистерская кафедра биологии факультета естественных наук Ургенчского государственного университета
umarjonqizi@gmail.com

Аннотация: Результаты анализа показывают, что использование удобрений в норме $N_{30}P_{120}K_{100}$ кг/га в сочетании с предпосевной

инокуляцией семян нитрагином обеспечивает наибольший урожай зерна сои.

Ключевые слова: обогащать,биомасса,бобовые,эффективность, урожай,посев, сохранения, почва, протеин, удобрения.

Globally, secondary salinization of irrigated lands is one of the main degradation processes leading to a decrease in soil fertility. In particular, the negative impact of salinity on plants leads to the development of water scarcity, the degradation of agrocenosis areas, a decrease in plant productivity. Much attention is paid to the study of the ecological and biological basis of plant development in order to provide society with food and to regulate its production in the agro-industry.

In this regard, the development of agro-ecological measures for the cultivation of legumes is important in order to effectively use agriculture, improve the ecological balance of agroecotems, improve the structure of arable lands, as well as increase the productivity of agrocenoses[1].

In modern conditions, it will be necessary to develop a complex approach to the study and assessment of the resistance of plant resources to adverse abiotic conditions, based on agroecological methods. The problem of studying the sustainability of plant resources is also relevant for the Aral Sea, including the Khorezm region[2,4].

In this regard, the impact of environmental factors on grain yield in alluvial soils with increasing salinity, as well as adaptation to saline soils and the use of effective agro-ecological methods in the cultivation of ecologically clean products and increasing soil fertility are important priorities.

The processes that take place in saline soils and the subsequent soil composition, in particular the salts that make up the salinity of the soil, the number of leaves in a plant growing in the same saline soil, the number of pods, leaf level, legume base, surface biomass and so on. and studied on the basis of modern methods.

Agroecological measures have been developed to provide the population with quality food products in agriculture, increase soil fertility and cultivate plant varieties growing in saline soils and achieve high yields, and certain scientific results are being achieved.

Soybean is the most important protein and oil crop. In Uzbekistan, soybeans are used for food, for processing into butter, dairy products, confectionery and animal feed. Being a good nitrogen fixer, the crop

accumulates biological nitrogen in the soil, which is environmentally friendly and does not have a detrimental effect both for the soil, without leaching into groundwater, and for consumers, without accumulating in the crop.

A field experiment with soybean (Glycine hispida) on irrigated meadow alluvial soils of the desert zone of Uzbekistan was carried out on the experimental fields of the Khorezm branch of the Uzbek Research Institute of Cotton Growing. Experiments repetition in 4 types. The inoculation of soybean seeds with the active strain Nitragin-137 was carried out before sowing the culture on the variant using $N_{30}P_{120}K_{100}$ kg/ha (2 variant). In the experiment, the soybean variety "Orzu" was sown at a rate of 60 kg/ha in the first ten days of July, after harvesting winter wheat. Mineral fertilizers in the norm of $N_{30}P_{120}K_{100}$ kg/ha were applied as a background in all variants before soybean sowing[3].

Also clearly seen from the data of dry above-ground plant biomass during the maturation of the soybean vegetation (R8), although by this time there was a complete abscission of the leaves (Table 1).

Table 1.Influence of nitrogen fertilizer and nitragin rates on biomass accumulation and soybean grain yield in re-sowing

№	Variation	Aboveground dry biomass at maturity, t/ha	Harvest, t/ha	Harvest index, %
1	N_{30} – withoutnitrogen	$2,29^{c}$ (0,08)§	$1,47^{b}$ (0,02)	$0,47^{b}$ (0,01)
2	N_{30} + withnitrogen	$2,49^{b}$ (0,02)	$1,59^{a}$ (0,03)	$0,56^{a}$ (0,01)
3	N_{100} - withoutnitrogen	$2,86^{a}$ (0,05)	$1,34^{c}$ (0,02)	$0,40^{c}$ (0,02)

§ Standard deviation

However, in this case it is shown that an intensive development of the vegetative plant parts and in a relatively less accumulation of soya bean generative organs. The relatively favorable ratio of dry weight of vegetative and generative organs of soya beans found in the application nitrogen and low rate of nitrogen (N_{30}) on the background $P_{120}K_{100}$ kg/ha, where the harvest index was 0,56. Therefore, in most research, the yield of soya bean (1,59 t/ha) with the addition of reliable within 0,12-0,25 t/ha obtained by using $N_{30}P_{120}K_{100}$ kg/ha in combination with pre-inoculation nitrogen seeds.If the plants are grown in ecologically clean soils, the chemical composition of this product will be ecologically clean. Plants

absorb toxins and heavy metals from the soil during growth and development and enter the human body through the products using the food chain. Based on this, we determined the chemical composition of the grain of soybean varieties grown in moderately saline soils. The grain of soybean is a type of environmentally friendly product according to its chemical composition. Soybean grains grown in our country do not contain the substances contained in genetically modified organisms.

In short, what does sowing allow for:

- enriches our nation's table with food and livestock products;
- Livestock and poultry are provided with high-quality and protein-rich feeds;
- Low-quality, high-quality raw materials are delivered to the republic's oil factories, whose life expectancy is increased and vegetable oil is not imported;
- In agriculture, soil fertility increases and a short-term crop rotation system is created.

In the ecologically difficult conditions of the Khorezm region, the Parvoz and Orzu varieties gave high yields and were ecologically adapted to the climate of this soil[5].

Thus, the experiments showed that in moderately saline soils of the Khorezm region, despite the presence of external stressors in the development of soybean varieties, it is possible to achieve a high yield in soybean varieties, having achieved a certain improvement in soil composition.

Bibliography

1. Постадийная схема развития растений сои. Extension of University of Illinois. http://weedsoft.unl.edu/documents/GrowthStagesModule/Soybean/Soy.htm. Downloaded December 01, 2011.
2. SAS Institute. 2008. SAS/STAT User's Guide, Version 9.2. SAS Institute, Inc., Cary, North Carolina, USA
3. Booker, H. M., P. Umaharan, and C. R. McDavid. 2005. Effect of Cowpea severe mosaic virus on Crop Growth Characteristics and Yield of Cowpea. J. Plant Disease 5: 515-520.
4. Abdullayev S.A. Soil Khorezm region. Tashkent, 2003.-188 c.
5. Atabayeva X.N. Soya bean Toshkent: Uzbekiston, 2004. – 82 c.

UO‘T:631.671.2

EKOLOGIK ONG VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Berdiyeva Zarina Farhod qizi. – “Ekologiya va atrof muhit muhofazasi” yo‘nalishi talabasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
Email: zarinaberdiyeva1@gmail.com
To‘xtayeva Gulshan Po’lotovna - “Gidrologiya va ekologiya” kafedrasi assistenti
Email: gtuxtayeva1879@gmail.com

Annotatsiya. Ekologik muammolar kengayib, ularni hal etish dolzarb vazifa bo’lib qolgan hozirgi davrda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekologik ong va ekologik madaniyatning o’rni beqiyosdir

Kalit so‘zlar: umumsayyoraviy, mintaqaviy, milliy, lokal ekologik, havo, suv ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida, turli soha ilm va texnologiyalarining taraqqiyoti, yangi energiya manbalari va kimyoviy moddalarning paydo bo’lishi.

UDC:631.671.2

FORMATION OF ENVIRONMENTAL CONSCIOUSNESS AND ECOLOGICAL CULTURE

Berdiyeva Zarina-student of the direction ”Ecology and Environmental Protection” Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Email: zarinaberdiyeva1@gmail.com
Tuxtayeva Gulshan Polotovna-assistant of the Department ” Geology and ecology
Email: gtuxtayeva1879@gmail.com

Abstract. The given article deals with one of the main guidelines of social politics in our country, which is impact of various dangerous and harmful factors, which appear in the process of production and other situations, providing them with social protection on the basis of law and

other regulations as well as forming appropriate sanitation and hygiene work conditions.

Key words: physiological characteristics, to leave one's mark, theory, principle, dust, vibration, strong heating and cooling of organism biological and social, significance, realizing of convention action.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri o'sib boradi. Inson tabiat bilan, ya'ni o'simliklar hamda hayvonot dunyosi hamda yer osti va yer usti boyliklari bilan o'zaro muloqotda bo'ladi.

Ekologik muammolar kengayib, ularni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolgan hozirgi davrda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekologik ong va ekologik madaniyatning o'rni beqiyosdir.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi, ularga rioya qilmaslik ertami kechmi, albatta ekologik halokatga olib keladi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirayotgan va keltirishi mumkin bo'lgan fojiali oqibatlari jihatidan yadro urushi halokatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Albatta, ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida, turli soha ilm va texnologiyalarining taraqqiyoti, yangi energiya manbalari va kimyoviy moddalarning paydo bo'lishi, tabiiy resurslardan yovuzlarcha foydalanish natijasida havo, suv ifloslanadi, insoniyatni boquvchi yer yaroqsiz holga kelib, oqibatda uni yashash muhitidan mahrum etadi.

Hozirgi davrda insoniyat u qanday xavf qarshisida kelib qolganligini tushunib yetdi, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi.

Inson faoliyatining natijasida atrof muhitga ancha sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bular asosan hozirgi kunda mavjud bo'lgan ekologik xavfsizlik klassifikatsiyasida bo'lgan: umumsayyoraviy, mintaqaviy, milliy, lokal ekologik xavfsizliklar mamlakatimiz hududini ham chetlab o'tmadi. Bu xavflardan ozon qatlami muammolari, ya'ni yemirilishi, iqlimning o'zgarishi, cho'llanish, toza ichimlik suvi tanqisligi, Orol dengizi muammosi, hayvonot va o'simlik dunyosi turlarining

qisqarib borishi, o'simlik dunyosining noqonuniy kesilib borishi, yer degradatsiyasi, suv resurslari tanqisligi, atmosfera ifloslanishi shular jumlasidandir.

Ekologik fojialarning bu darajadagi jadallashib borishida ekologik ong va ekologik madaniyat alohida o'rin tutadi.

Ekologik ong va ekologik madaniyatning asosiy vazifasi xalqimiz ekologik madaniyatini oshirish orqali huquqiy fuqarolik jamiyati tamoyillari asosida tabiatdan foydalanishni yo'lga qo'yish, tabiatni muhofaza qilish sohasida Davlat nazorati bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalqimiz ongi va madaniyatida ona Vatanimiz tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish, uni asrab-avaylash va kelgusi avlod uchun zarur hayotiy sharoitlar qoldirishimiz kerakligini ko'rsatishdir.

Davlatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshdan kechirayotgan hozirgi kunda ko'p sarmoya talab qiladigan ekologik tadbirlarni o'tkazish qiyindir. Lekin xalqimiz eng avvalo yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik, ongida millatimiz va davlatimiz rivojiga xavf solib turgan xodisalarga, shu jumladan, ekologik xavfga ham, faqat ularni bilishi va sodiqligi, tadbirkorligi va mas'uliyatliligi bilan javob bera olishi hamda xavfni bartaraf etish mumkinligini singdira olishimiz, shu jumladan, ekologik ong va madaniyatni yo'lga qo'yish orqali kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan ko'p ofatlarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Inson tabiatning bir bo'lagi bo'lgan holda u bilan bo'lgan munosabat orqali ekologik madaniyat shakllana borishi tufayli tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishda uni boshqarish uchun tabiat qonunlarini kashf qilib kelgan. Ammo inson o'zining tabiatga ta'siri orqali undagi muvozanatni buzdi va tabiat hodisalarining davriy muvozanatini izdan chiqardi.

Ijtimoiy ongning o'zgarishi, qadriyatlarga nisbatan munosabatlarning ekologik yo'nalishdagi ma'naviy madaniyatning rivojlanishi, sayyoramiz hayotiga yangicha qarashning shakllanishi uzoq yillar davomida va qiyin kechadigan jarayon bo'lib, bu o'rinda ekologik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda, ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda bir qator yutuqlarga erishilayotgan bir vaqtda ushbu sohani singdirishda muhim o'rin tutadigan maktab tarbiyasiga, o'rta va oliy ta'lim muassasalariga e'tibor qaratishimiz lozim.

Ekologik bilimlar tashviqoti, aholini ekologik tarbiyalash va ularni o'qitish bo'yicha ishlar avj oldirilganligiga qaramay, Respublikamiz oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida atrof muhit muhofazasi, ya'ni ekologiya sohasida boshqa sohalar kabi Davlat noziri singari mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kunga qadar yo'lga qo'yilmagan. Ushbu soha uchun bu kabi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun talabidir.

Bundan tashqari, insoniyat tarbiyasi uchun uning mahallasi ham alohida o'rin egallaydi. Mahallalar ham ushbu ishlarga jonbozlik ko'rsatishi lozim, deb o'ylayman.

O'simlik dunyosi yer yuzidagi hayot muvozanatini ta'minlash va ijtimoiy hamda iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash uchun hayotiy zarur bo'lgan ekzotizmlar, turlar, genetik tiplar va ekologik jarayonlarning rang-barangligini saqlaydi, insonning hayotiy ehtiyojlari talablariga javob beradigan genetik xilma-xillik va turlarni himoya qiladi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o'rni faqatgina Davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rolini oshirish bugungi demokratik, huquqiy davlat qurish yo'lidagi ekologik bilimlarni targ'ibot qilish, aholining ekologik saviyasini ko'tarish borasida bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay bu sohada bir qator kamchiliklar ham mavjud.

Insoniyat qadimgi zamonlardanoq tabiatning bir qismi ekanligini anglab, u o'zining harakatlari bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda boshqariladiganligini his qilib kelgan. Lekin insoniyat tabiatdan foydalanib uni qayta tiklanishiga e'tibor qaratilishini kech bo'lsa-da, tushunib yetdi. Insonlar madaniyati shakllanib rivojlana borar ekan, tabiat in'omlari bo'lmish o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini bir qanchasini madaniylashtirib, o'zlari uchun foydalanishni amalga oshirish jarayoni hozirda ham davom etayotgan jarayondir.

Atrof-muhit sofligi, uning rang-barangligi-yu xilma-xilligini saqlash, ekologik madaniyatni rivojlantirish va uni boshqarish asosan tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va uning joylardagi tashkilotlari faoliyatiga bog'liq bo'libgina qolmay, joylardagi davlat hokimiyati organlarining ham burchidir. Ularning atrof-muhit muhofazasiga oid Qonun va hukumatimiz qarorlarini bajarishda ma'lum bir sustkashliklarga yo'l qo'yilmoqda. Sabab esa, qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qaysidir yillarda ekilgan daraxtlarni parvarishlash, ularning qurigan turlari o'rniga qayta ko'chat ekish yo'li bilan tiklash ishlari qoniqarli darajada emas. Chunki mahsulot hosildorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan ixotazorlarning zarurligini tasavvur etolmagan holda ayrim fermerlar tomonidan ixota daraxtzorlarini kesish hollari davom etmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda va tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda hozirgi kunda qo'llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, tabiatdan noto'g'ri foydalanganlarga tabiat solig'ini qo'llash hamda jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishni rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Bu bilan respublikamizda ishlab chiqarishni va insonning tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga solish imkoniyati tug'iladi.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlarining ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo'lgan farzandlik burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Molles Manuel C. "Ecology: Concepts and Application Published by MoGrav-Hill, a business unit of The Mc Graw-Hill Companies, Inc", New York, 2008.

2. Sultonov P.S. "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari". Toshkent, 2007.

3. Saloxiddinov A.T, Valiev X.I., Xolmirzaeva M. “Ekologiya” Toshkent, 2014.
4. Mustafoyev S, O’roqov S, Duvonov A. “Umumiy ekologiya” Toshkent, 2006.
5. Hamdamov J., Bobomurodov Z., Hamdamova E., “Ekologia” Toshkent, 2009.
6. Шодиметов Ю.Ш. «Экология» Ташкент, 2016.
7. Исломов И., Тухтаева Г.П. «Режим орошения хлопчатника сорта Бухара – 8 в условиях аллювиально – луговые почвы Бухарской области» Хоразм, 2021.
8. Kabildjanov Alexander, Bozorov Elmurod, Okhunboboyeva Charos, Tuhtaeva Gulshan. «Intellectualization of Decision Making Support in Tasks of Optimization
of Complex Technical Systems based on Anfis Neuro-Fuzzy Network»Annals of the Romanian Society for Cell Biology 2021.
9. A Anarbaev, O Tursunov, R Zakhidov, D Kodirov, U Vakhidov, E Bozorov, G Tuhtaeva, and A Babaev «Determination the installation efficiency of the evaporative air cooling in the
greenhouse by temperature-moisture regime» ICECAE 2020.

UO‘T: 504.4:502.48(262.83)

OROL DENGIZI MUAMMOSI OQIBATLARINI YUMSHATISH BO'YICHA CHORA TADBIRLAR TAHLILI

Abdullayev S.X. - Gidromelioratsiya fakulteti Meliorativ gidrogeologiya 1/1 guruh talabasi
Radjabova M.M. – Gidrologiya va ekologiya kafedrasi stajyor o’qituvchisi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti jahongir.d.94@mail.ru
Xusanbaneva N.S – doktoratn Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti noilasobirjonqizi@mail.ru

Annotatsiya. Orol muammosi " ning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, Orol bo'yi aholisining yashash muhiti, hayot sharoitlarini yaxshilash uchun O'zbekiston Respublikasining say'i-harakatlari, xalqaro hamjamiyat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samarasi, Orol muammosi oqibatlarini yumshatish bo'yicha harakatlar yo'nalishi tahlilini keltirish.

UDC: 504.4:502.48(262.83)

ANALYSIS OF MEASURES TO MITIGATE THE CONSEQUENCES OF THE ARAL SEA PROBLEM

Abdullaev S.X. - Group 1 Student Of The Faculty of gidromelioration Melioration
Radjabova M.M. – Intern teacher of the Department of Geology and ecology
Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management
jahongir.d.94@mail.ru
Khusanbaneva N.S-doktoratn Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Managementnoilasobirjonqizi@mail.ru

Annotation. To provide an analysis of the direction of efforts to eliminate the negative consequences of the "island problem", to improve the living environment, living conditions of the inhabitants of the island, the efforts of the Republic of Uzbekistan, the effectiveness of measures taken by the international community, mitigation of the consequences of the island problem.

Mavzuning asosiy maqsadi: Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta’siri natijasida atrof muhitda sezilarli o’zgarishlar ro’y bermoqda. Jumladan, iqlim o’zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o’rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda.

Tabiiy muhit holatining inson ta’sirida o’zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta’sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.Jumladan, shu kabi ta’sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan "Orol muammosi” vujudga keldi. Orol dengiziga oid juda ko'plab muammolar mavjud, lekin ushbu muammolar to'g'risida emas,

balki, bu muammolarni yumshatishga doir qilingan, chora-tadbirlar haqida so'z yuritib o'tsak[1].

Amudaryo va Sirdaryoning Orolga umumiy quyilish hajmi keyingi ellik yil ichida qariyb 5 barobar, Orol dengizining suvi 14 barobardan koʻproq kamaydi, uning shoʻrlanish darajasi esa deyarli 25 marta ortdi. Bu Orol dengizida ilgari boʻlgan baliq va boshqa dengiz havzasida yashovchi turlarning deyarli butkul yoʻqolishiga olib keldi. Ammo Orolboʻyida roʻy berayotgan fojia koʻlamini, bu yerda yashayotgan millionlab odamlarning dardi va orzu-armonlarini quruq raqamlar bilan ifoda etib boʻlmaydi. Oʻzbekiston, Qozogʻiston va Turkmanistonning Orol fojiasining kuchl taʼsiri ostida qolgan mintaqalari aholisi har kuni suv resurslari yetishmasligi, ichimlik suvi sifatining pasayishi va tuproq tarkibining buzilishi, iqlim oʻzgarishi, aholi, birinchi navbatda, bolalarning turli kasalliklarga chalinishi koʻpayib borayotgani bilan bogʻliq ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarni boshdan kechirmoqda [2].

Mavjud muammoni bir davlat hal qila olmaydi. Uni hal etishda koʻpgina davlatlarning hamkorligi, ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Avvalo shuni taʼkidlash joizki, Orol dengizi muammolarini bartaraf etish masalasi oʻz koʻlami jihatidan mazkur mintaqa davlatlari iqtisodiy imkoniyatlaridan yuqori turadi.

Деҳқончилик қилинадиган майдонларда мелиоратив вазиятни ёмонлашувини олдини олиш учун энг аввало ер ости сизот сувлари сатҳини имкон қадар пастроқда жойлашишини таъминлаш талаб этилади.

Ҳозирда Республикамиздаги мавжуд 4304,5 минг гектар суғориладиган майдонларнинг 15,7 фоизида, ёки 622954 гектарида ер ости сизот сувлари сатхи ўткан йилнинг декабр ойида 2,0 метргача бўлган чуқурликда жойлашган. Кўриниб турганидек Республикамиздаги суғорма деҳқончилик қилинадиган 622954 минг гектар майдонда айнан сизот сувлари сатҳи юқорида жойлашганлиги сабабли мелиоратив ҳолати ёмон ҳисобланади ва бу майдонларда қишлоқ хўжалиги экинларидан олинадиган ҳосилдорликнинг ўртача 20-35 фоизи йўқотилади [1].

Худди шундай ҳолат Бухоро вилоятидаги мавжуд 274559 гектар суғориладиган майдонларнинг 50,0 минг гектарида ошиқроқ қосмида кузатилади.

Айниқса вилоятнинг Қоракўл, Олот, Ромитан, Когон ва Жондор туманларида ер ости сизот сувлари сатҳини юқорида жойлашганлиги бу туманларда мелиоратив вазиятни мураккаблигига сабаб бўлиб келмоқда. Шу сабабли кўрсатилган туманларда пахта, бошоқли дон ва

бошқа қишлоқ хўжалиги экинларидан минглаб тоннагача имконият даражасидан кам ҳосил йиғиштирилиб келинмоқда. Ҳозирги нархларда ҳисобланганда кўрсатилган туманлардаги ердан фойдаланувчилари ҳар йили салмоқли даражадаги олиши мумкин бўлган даромадни қўлдан бой бериб келишмоқда.

Демак ер ости сизот сувларининг салбий таъсирини бартараф этиш йўли билан экин майдонларида ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш тадбирлари континентал иқлимли минтақаларнинг аграр соҳа ривожланган ҳудудларида долзарб масала бўлиб турибди.

Ер ости сизот сувлари ҳаракати давомида бутун суғориладиган майдонларда ирригация шахобчалари ва ерларга бериладиган сувлар ҳисобига тўйина боради, шу сабабли айрим ерларда ирригацион – сизот сувлари ҳисобига фильтрация зоналари ҳосил бўлади. Сизот сувлари сатҳининг чуқурлиги суғориладиган майдонларга бериладиган оқава сувлар миқдорига боғлиқ ҳолда ўзгариб туради, бундан ташқари сизот сувлари сатҳининг ўзгаришига чуқурда жойлашган ер ости сувларининг босими ҳам ўз таъсирини кўрсатади [2].

Аксарият ҳолларда ер ости босимли сизот сувлари суғориладиган майдонлар ташқарисидан, релъеф бўйича мутлоқ баландлиги юқори бўлган ҳудудлардан ер остидан оқиб келадиган сизот сувлари ҳисобидан тўйиниб боради. Сизот сувларида босимни ҳосил бўлишига асосий сабаб суғориладиган ерлар ҳудудига ер остидан оқиб келадиган сизот сувларини шу ҳудуддан чиқиб кетадиган сизот сувлари миқдоридан анча кўплигидир.

Шунингдек суғориладиган ерларда ирригация ва мелиорация шахобчалари сунъий сув босими системаси бўлиб хизмат қилади. Суғориш маълум масофада сизот сувларида қўшимча босим ҳосил қилади, бу босим 1,0 метр ва ундан ҳам юқори бўлиши мумкин, бу босим шағал қатлами ва улар устида ётган майда заррали жинслардаги ер ости сизот сувлари сатҳининг фарқидан иборатдир. Бу ҳодиса суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини ўзгаришида муҳим роль ўйнайди. Ер ости босимли сувлар сатҳини, сизот сувлари сатҳидан 1,0 метрдан юқори бўлиши ерларда мелиоратив вазиятни янада оғирлашувини тезлаштиради. Чунки бу ҳолатда ер ости босимли сизот сувлари сизот сувларини тўйинтириш

жараёни тезлашиб, унинг сатҳини кескин кўтарилиб кетишига олиб келади [5].

Босимли сизот сувлари асосан биринчи минтақавий сув ўтказмайдиган қатламларнинг юқори қисмида икки ва ундан юқори таркибли тупроқ қатламлари мавжуд бўлган, ҳамда қуйи қатламларда яхши сув ўтказувчан тупроқлар мавжуд бўлган минтақаларда пайдо бўлади.

Юқорида қайд этилганидек, босимли сизот сувларининг сатҳи сизот сувлари сатҳидан анча юқори бўлади. Амалиётда босимли сизот сувлари сатҳини (босимини) пасайтиришнинг бир неча усуллари мавжуд.

Бу усуллардан бири "Қурама зовурлар" ни қўллаш усули ҳисобланади.

Қурама (комбинированый дренаж) зовурлар бу ётиқ (очиқ ёки ёпиқ зовур ва коллекторлар) зовурларга уланган, ўзи қуйиладиган (булоқ кўринишдаги) тик (кучайтирувчи) қудуқлар кўринишидаги иншоотлар комплексидан иборатдир. Бошқача қилиб айтганда "горизонтал (ётиқ)" дренаж билан "вертикал (тик)" дренажларнинг бир жойда, бутун яхлит ҳолда ишлатилишига қурама зовурлар деб айтилади.

Улар табиий ва юқори қатламлардан сувларнинг сизишидан, ер остидан мутлоқ баландлиги юқори бўлган ҳудудлардан (подземный приток) оқиб келадиган сизот сувлари ҳисобидан ҳосил бўлган гидроденамик босимлар натижасида, кучайтирувчи қудуқлардаги сизот сувлари сатҳининг улар уланган ётиқ зовурлардаги сув сатҳига нисбатан юқори бўлиши ҳисобига ишлашга асосланган.

Курама зовурларнинг бир дона кучайтиргич қудуғи билан секундига 1,0-1,5 литргача босимли сизот сувларини горизонтал дренажларга чиқариб ташлаш имконияти мавжуд бўлади. Бу кўрсатгич босимли сизот сувлари босими қанча юқори бўлса шунча катта бўлади [4].

Вилоятдаги мавжуд гидрогеологик шароитлардан келиб чиқиб, суғориладиган майдонларда дренаж модули бир гектар майдон учун 0,22л/сек.лиги ҳисобга олинадиган бўлса, ҳеч қандай (электр энергияси, насос агрегатлари ва таъмирлаш ишлари) қўшимча харажатларсиз секундига 5,0-10 гектар суғориладиган майдонлардан ётиқ дренажлар орқали чиқариладиган дренаж сувлари миқдорида ер

ости босимли сизот сувларини суғориладиган майдонлар ҳудудидан чиқариб ташлаш имкониятини беради.

Курама зовурларни лойиҳалаш юқорида қайд қилинганидек, 2 ва ундан юқори таркибли қатламларда, агар юқори қатлам сувни ёмон ўтказувчан ва унинг қалинлиги зовур чуқурлигидан катта бўлса, ҳамда қуйи қатламларда босимли сизот сувларига эга бўлган яхши сув ўтказувчан қатламлар мавжуд филтрацион схемаларда тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. П. Баратов “Ўзбекистон табиий географияси”. Тошкент “Ўқитувчи” 1996 й.
2. Д.А.Кувватов “Мелиоратив тартиботнинг ҳосилдорликка таъсири” “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журнали. №6. 2011, 33-бет
3. Кац Д.М., Шестаков В.М. “Мелиоративная гидрогеология” М.: МГУ, 1992-256 с.
4. Шестаков В.М., Пашковский И.С., Сойфер А.М. “Гидрогеологические исследования на орошаемых территориях” М., Недра, 1982. 244 с.
5. Юсупов Г.У., Қувватов Д.А. “Мелиоратив гидрогеология” Тошкент 2008. -170 с.
6. Д.А.Кувватов, Ш.Тўраев «Қашқадарё вилояти сув ресурслари» “Агро-Илм” журнали. №6. 2011 й.

Интернет сайтлари

3. www.books.google.com
4. www.google.ru

UO‘T:633.51

PESHKO` TUMANI YER OSTI SUVLARI SATXINING O`ZGARISHINI TAHLIL QILISH

Sobirova G. Yoqubov F.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Hakimov Sh. *Gidrologiya va ekologiya kafedrasi asisstenti*

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

sherzodhk4@mail.ru

**Kalit so`zlar:** Sizot suvlar, nishablik, sho`rlanish, zovur, kollektor, kuzatuv qudug`i.

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Peshko` tumanining geografik joylashuvi, tumandagi meliorativ obyektlar, ularning ishlar rejimlar, hududlarning tarkibiy qismlari, ularning maydonlari, 2020-yil va 2021-yillardagi meliorativ holatlari va sizot suvlari sathining oylar bo`yicha o`zgarish grafiklari ko`rsatilgan.*

Annotation: *This article shows the geographical location of Vobkent district, reclamation facilities in the district, their modes of operation, components of the territory, their areas, reclamation conditions in 2020 and 2021 and graphs of changes in the level of sewage by months.*

Anotatsiya: *V dannoy state pokazanы geograficheskoe polojenie Vobkentskogo rayona, melioativnыe soorujeniya rayona, rejimы ix raboty, sostavnыe chasti territorii, ix ploщadi, usloviya melioratsii v 2020 i 2021 godax i grafiki izmeneniya urovnya stochnыx vod po mesyasam.*

Peshko` tumani Zarafshon daryosining o‘ng qirg`og`ida joylashgan bo‘lib, viloyat markazining Shimoliy qismida joylashgan. Tuman Janubiy tomondan Romitan tumani, g`arb tomondan Vobkent tumani, va Shofirkon tumani bilan chegaralangan.

Tumanda birta asosiy suv tarmog`i mavjud bo‘lib, u ham bo`lsa Zandani kanalidir. Zandani kanali "Polyakov" nomli gidrouzeldan suv oladi. Tumanda 14 ta hudud mavjud bo‘lib, ularning asosiy yo‘nalishi paxtachilik va g`allachilikdir. Peshko` tumani 1978 yil 5 aprelda tashkil qilingan. Maydoni 36 ming, shundan sug`oriladigan yer maydoni 22776 gektarni tashkil qiladi.

Sug`oriladigan yer maydonlar Ibn Sino hududida 1174 gektar. Sadir hududida 1227 gektar, Istikbol hududida 1302 gektar, Qorakalpok hududida 1328 gektar. Dustlik hududida 1100 gektar, Zandani hududida 2170 gektar, Qalaymirishkor hududida 1501 gektar, Navoiy hududida 1588 gektar, Sh.Ergashev hududida 1964 gektar, Turkiston hududida 1954 gektar, Chibog`oni hududida 1963 gektar, Peshko` hududida 1789 gektar. Bog`imuso hududida 1235 gektar, Mustaqillik hududida 2471 gektarni tashkil qiladi. Tuproklari asosan o‘tlok-allyuvial, sur tusli qung`ir bo‘z va cho‘lli qum tuproqlardan iborat. Iqlimi kontinental quruk bo‘lib,

yog`ingarchilik yiliga 114-125 mmni tashkil etadi, sovuq tushmaydigan kun 246-272, foydali effektiv temperatura miqdori 2430-2690 gradus S dan iborat. Yog‘ingarchiliklar asosan qish va bahor fasllarida kuzatiladi.

Tuman markazi Yangibozor qo‘rg`oni hisoblanadi. Peshko` tumani uchun asosiy suv manbai “Amudaryo” havzasi hisoblanib, sug`oriladigan yerlarni suvga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi asosiy suv yo‘llari esa "Amu-Buxoro" mashina kanalining 1-11 navbatidir. Shular bilan bir qatorda "Quyi-Mozor", va "To`dako`l" suv omborlari ham tuman uchun qo‘shimcha suv olish manbalari hisoblanadi. Shuningdek, yilning asosan bahor oylarida "Zarafshon" daryosidan keladigan suvlar ham tumanni suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda ishlatilmoqda.

Bulardan tumanning gidrografik tarmoqlari ko‘p miqdordagi sug`orish inshootlari, zovur va uning tarmoqlaridan tashkil topgan. Tumandagi meliorativ tarmoqlarning asosiylari: "Xalach", "T-9 Shimoliy", "Shimoliy", "Shimoliy-5" , va "Zandani" zovurlaridan iborat.

Tumanning iqlim sharoiti kontinental bo‘lib, havo harorati yil davomida keskin o‘zgarib turishi bilan ajralib turadi, yozi quruq issik, qish fasli esa qisqa, qattiq sovuq kunlar deyarli kam bo`ladi, yog‘in-sochin aytarli ko‘p emas. Yil davomida bo‘ladigan yog‘ingarchiliklarning qariyb 60 foizini yilning yanvar oyidan, aprel oyining oxirigacha bo‘lgan yog‘ingarchiliklar tashkil qiladi. Tumanda iqlimning asosiy faktori hisoblangan shamol aytarli butun yil mobaynida esib turadi, shamol yo‘nalishi asosan janub va janubiy shark tomonga buladi. Ayrim hollarda shamolning tezligi sekundiga 18-20 metrni tashkil qiladi. Peshko` tumani sharoitida iqlimning yuqorida qayd etilgan xususiyatlari ya’ni havoning quruq kelishi va yoz oylarida juda issik bo‘lishi, yog`in sochinni juda kam bo‘lishi, yer yuzasiga yaqin joylashgan tarkibida mineral tuzlari ko`p bo‘lgan yer osti suvlarining bug`lanib ketishini birmuncha tezlashtiradi, transpiratsiyaga sarflanadigan suv miqdori ko‘payadi, bu esa o‘z navbatida sho`rlanishga moyil bo‘lgan yerlarning qayta sho‘rlanishiga olib keladi.

Tuman sug`oriladigan yer maydonlarining gidrogeologik meliorativ sharoiti o`ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, viloyatning janubiy tumanlari singari bir munchamurakkab hisoblanadi. Peshko` tumanida gidrogeologik

meliorativ sharoit, asosan yer osti sizot suvlari gidro hamda gidrokimyoviy rejimiga bog`lik bo`lib, sug`oriladigan yer maydonlari "Zarafshon" daryosining quyi kismida joylashganligi sababli, murakkab hisoblanadi.

Yer po`stlog`ining yuza qismida joylashgan supes va suglinka jinslarining qalinligi 2 metrdan to 11 metrgacha o‘zgaradi. Qum va mayda shag‘allarning qalinligi 7 - 23 metrni tashkil qiladi. Sizot suvlarining satxi sug‘oriladigan yerlarga beriladigan suvlar miqdoriga bog`lik holda o`zgarib turadi. Suv harakat qiluvchi jinslar qumlardan, suglinkalardan, mayda va katta xumtoshlardan iborat. Sizot suvlari hosil bo`lish manbasi asosan oliy tomondan yer osti sizot suvlarining harakati shimoliy sharqdan – janubiy g‘arb tomonga vujudga kelishi bilan bog`liqdir.

Yer osti sizot suvlari harakati davomida bugun sug`oriladigan maydonlarda krungatsiya shaxobchalari va yerlarga beriladigan suvlar hisobiga to‘yina boradi, shu sababli ayrim yerlarda irrigatsion - sizot suvlari hisobiga filtratsiya zonalari hosil bo`ladi. Sizot suvlari sathining chuqurligi sug`oriladigan maydonlarga beriladigan oqova suvlar miqdoriga bog`lik holda o‘zgarib turadi, bundan tashqari sizot suvlar sathining o‘zgarishiga chuqurda joylashgan yer osti suvlarining bosimi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tumanda yer osti bosimli suvlari sug`oriladigan maydonlar tashqarisidan oqib keladigan sizot suvlari hisobidan hosil bo‘ladi. Sizot suvlarida bosimni hosil bo‘lishiga asosiy sabab sug`oriladigan yerlar hududiga yer ostidan oqib keladigan sizot suvlarini chiqib ketadigan sizot suvlari miqdoridan ancha ko`pligidir. Sug`oriladigan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya shaxobchalari sun’iy suv bosimi sistemasi bo‘lib xizmat qiladi. Sug`orish ma’lum masofada sizot suvlarida ko‘shimcha bosim hosil qiladi, bu bosim 1,0 m va undan ham yuqori bo‘lishi mumkin, bu bosim shag`al qatlami va ular ustida yotgan mayda zarrali jinslardagi yer osti sizot suvlari sathining farkndan iboratdir. Bu hodisa sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini O‘zgarishida muhim rol o`ynaydi. Yer osti bosimli suvlar sathini, sizot suvlari sathidan 1.0 m dan yuqori bo‘lishi yerlarda meliorativ vaziyatni yanada og`irlashuvini tezlashtiradi.

Sizot suvlari gidrorejimini bir tekisda saqlab turishda asosan zovur – drenaj tarmoklarining doimiy ishchi holatda bo‘lishi, shuningdek sizot suvlarining yer osti harakati muhim rol o`ynaydi. Peshko` tumanining o‘rta qismida sizot suvlari oqimi "Shimoliy " zovuri tomon bo`ladi. Tuman hududining bu qismida yer nishabligi va yer osti sizot suvlari oqim yo‘nalishi nisbiy balandligi hisobidan aynan "Shimoliy" zovuri tomon yo‘nalgan. "Shimoliy" zovuri bu hudud uchun tabiiy drenajlik vazifasini o`tab keladi. Sizot suvining sathining o‘zgarishi bo‘yicha rejim o‘ziga xos xususiyatga ega bo`lib, u yilning har-xil vaqtida turli chuqurliklarda bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar qator yillar davomida aytarli bir xil bo‘ladi. Davriy joylashuvi va uni vujudga kelishi bo‘yicha sizot suvining sathini Peshko` tumanida uning o‘zgarish amplitudasini hisobga olgan holda ikki xil davriy rejimga ajratish mumkin.

1. Sizot suvining birinchi xil davriy rejimi bahorgi yozgi maksimum va kuzgi - qishgi minimum bilan harakterlidir. Sizot suvining sathini maksimal chuqurligi 3.0 -5,0 m. ni tashkil qiladi. Rejimning bu turi "Shimoliy " zovurining oqimi bo`yicha o‘ng tomoniga, tumanning eskidan sug`orib kelinayotgan yerlarining yuqori qismiga to`g`ri keladi.

2. Davriy rejimning ikkinchi turi tumanning o‘rta va janubiy qismlariga ta’luqli bo‘lib, bahorgi yozgi maksimum va kuzgi-qishgi minimum bilan harakterlidir. Sizot suvining minimum joylashuvi 2,0 -2,5 metrni tashkil qilsa, uning maksimal chuqurlik bo‘yicha joylashuvi 2,5 - 3,1 m ni tashkil qiladi. Sizot suvi sathining o‘zgarishi oralig`i 0,5-1,5 m ga teng bo‘ladi.

Sug`oriladigan yerlar asosan tekisliklar iborat bo`lib, ayrim yerlarda mayda-mayda chuqurliklar (past yerlar) va tepaliklar uchrab turadi. Yer yuzasining nishabligi 0,0001 - 0,04 ni tashkil qiladi. Nishablikning kichikligi, sizot suvining yer osti harakati qiyinligi, yozgi yuqori harorat va havoni quruqligi juda katta miqdordagi sizot suvini bug`lanishi va transpiratsiya bo‘lganligi sababli mavjud 22776 gektar sug‘oriladigan maydonning qariyb 78 foizi vegetatsiya mavsumi oxirida har xil darajadagi sho‘rlangan yerlarni tashkil qiladi. Shu sababli ham tuman dehkonchiligida yer osti sizot suvlarini zovurlar orqali sug`oriladigan yerlar hududidan

chiqarib yuborish, barqaror suv-tuz balansini ta’minlash uchun juda katta ahamiyatga egadir. Tuman sug`oriladigan yer maydonlaridan sizot suvlarini chiqarishda tuman bo‘yicha mavjud 268,13 km uzunlikdagi hududlar hisobida turgan ichki zovurlar, 234,36 km uzunlikdagi qismi davlat hisobida turadigan xo`jaliklararo zovurlar xizmat qiladi. O‘rtacha sug`oriladigan bir gektar maydonga 29,47 p.m. uzunlikda zovur tarmoqlari to`g`ri keladi.

Janubiy hududlarda yer osti sizot suvining tuproqdagi tabiiy harakati ancha pastligi sababli, zovurlarning uzunligi yuqori zonada joylashgan hududlarga nisbatan birmuncha ko‘pdir va bir gektar sug`oriladigan yerga to`g`ri keladigan zovur tarmoqlarining solishtirma uzunligi Bog‘imuso hududida 30,19 p.m. Ibn Sino hududida 23,83 p.m. va Do`stlik hududi buyicha 19,70 p.m. ni tashkil qiladi. Yer osti suvlarining kimyoviy tarkibi ancha murakkab bo‘lib, ko‘p miqdordagi zararli mineral tuzlar konsentratsiyasidan iborat.

Gidrokimyoviy rejim sizot suvlarida yiliga uch marotaba kuzatuv quduqlaridan olinadigan suv namunalarini tekshirish yo‘li bilan o‘rganiladi. Sug‘oriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlarining minerallik darajasi va kimyoviy tarkibi bo‘yicha yerlarning tabiiy drenajlik xususiyati, geomorfologik tuzilishi hamda sizot suvlarini yer osti harakatiga asoslangan holda bir necha turlarga bo‘lish mumkin:

1. Qayta tiklanadigan gidrokimyoviy rejim, avvaldan yerlarda. Qayta tiklanmaydigan gidrokimyoviy rejim:

a) avvaldan sug`oriladigan yerlarda:

b) yangidan sug`orila boshlangan maydonlarda sug`oriladigan yer maydonlarining tabiiy sharoitiga ko‘ra yer osti sizot suvlari

Tuman suvlarining gidrokimyoviy rejimi, asosan yuqorida ko‘rsatilgan ana shu ikkala tur bo`yicha o‘rganiladi. Eskidan sug`orilib kelinayotgan maydonlardagi sizot suvlarining minerallik darajasi va tarkibi yangi o‘zlashtirilgan maydonlardagi yer osti sizot suvlarining tarkibi va minerallik darajasi bilan deyarli keskin farq qilmaydi. Sug`oriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlarining gidrokimyoviy rejimi asosan sug`orishga olinadigan suvlar miqdori va tarkibiga hamda

zovurlar orqali chiqarib yuborilayotgan drenaj suvlari miqdori va tarkibiga mos ravishda o‘zgarib boradi. Ularning mikdori yozgi vegetatsiya davrida oshib boradi, qishgi sho‘r yuvish mavsumidan keyin esa kamayadi va bu holatni keyingi ko`p yillar davomida bir xil chegaralarda o`zgarishi kuzatilmoqda.

Tuman	Yillar	kuzatiladigan maydon (ga)	Quduqlar	Oylar											
				I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XII	X
Peshko`	2020	22776	261	2.96	2.71	2.79	2.82	2.94	2.90	2.83	2.7	2.76	2.9	3.09	3.2
	2021	22776	261	3.12	2.65	2.67	2.94	2.84	2.90	2.86	2.83	2.94	2.08	2.35	2
2021 yilga nisbatan farqi				0,16	-	-	0,12	-0,1	0	0,03	0,13	0,18	-	-	

1-jadval

Peshko` tumani bo`yicha 2020-2021 yillardagi yer osti suvlarining sathi to`g`risida ma`lumot

		0,06	0,12							0,82	0,74	0,8



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amu-Buxoro ITHB huzuridagi Melioprativ ekspeditsiya ma`lumotlar
2. Peshko` tuman hokimligi ma`lumotlari
3. Sh. Hakimov va I. Tursunov, T. Yoqubov// Buxoro viloyati sharoitida zamonaviy suvtejamkor sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash (Buxoro viloyati Peshku tumani misolida)// jamiyat va innovatsiya, 2021
4. S. O`lmasov. Sh. Hakimov, Egamberdiev M. S.// Resistance of Concrete and Cement to Chemical and Aggressive Environments//3(12), 133-138. https://doi.org/10.31149//https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/249

UO‘T:633.51

VOBKENT TUMANI YER OSTI SUVLARI SATXINING O`ZGARISHINI TAHLIL QILISH

Tog`ayev Sh. Qobilov F.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Hakimov Sh. *Gidrologiya va ekologiya kafedrasi asisstenti*

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

sherzodhk4@mail.ru

**Kalit so`zlar:** Sizot suvlar, nishablik, sho`rlanish, zovur, kollektor, kuzatuv qudug`i.

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Vobkent tumanining geografik joylashuvi, tumandagi meliorativ obyektlar, ularning ishlar rejimlar, hududlarning tarkibiy qismlari, ularning maydonlari, 2020-yil va 2021-yillardagi meliorativ holari va sizot suvlari sathining oylar bo`yicha o`zgarish grafiklari ko`rsatilgan.*

Annotation: *This article shows the geographical location of Vobkent district, reclamation facilities in the district, their modes of operation, components of the territory, their areas, reclamation conditions in 2020 and 2021 and graphs of changes in the level of sewage by months.*

Аннотация: *В данной статье показаны географическое положение Вобкентского района, мелиоративные сооружения района, режимы их работы, составные части территории, их площади, условия мелиорации в 2020 и 2021 годах и графики изменения уровня сточных вод по месяцам.*

Vobkent tumani Buxoro viloyatining shimoliy qismida joylashgan tomonidan Peshko` Shofirkon tumanlari janubiy sharqdan Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Kogon tumani janub tomonidan Buxoro tumani shimoliy-sharqdan Romitan tumani bilan chegaralangan bo‘lib yer maydonining asosiy qismi ekin yeri va yaylovlardan iboratdir.

Vobkent tumani 1926 yil 29 sentyabrda tashkil qilingan. Maydoni 44 ming shundan sug‘oriladigan yer maydoni 21 515 ga ni tashkil qiladi. Roxkend hududi 1482 ga Kungrod hududi 1537 hududida 1688 ga Ehson hududi 1518 ga Pirmas hududida 1427 Xayrobod hududida 2187Imon qozixon hududida 1964 y.da Yangikent 2281 ga Kumushkent hududida 1937ga Panob hududida 1220 ga tashkil qiladi. Tuproqlari asosan o‘tloqi allyuvial sur tusli ko‘mir bo`z va turli qum tuproqlardan iborat.Iqlimi kontinental quruq bo‘lib yog’inarchilik yiliga 114-125 mm ni tashkil etadi tushmaydigan kun 246-272, foydali effiktiv temperatura miqdori 2430-2690 gradus C dan iborat. Asosan qish va bahor fasllarida kuzatiladi. Tuman markazi Vobkent shahri hisoblanadi. Vobkent tumani uchun asosiy suv manbai Amudaryo havzasi hisoblanib ko‘riladigan yerlarni suvga bo‘lgan

ehtiyojini qondiruvchi asosiy suv yo‘llari esa Amu-Buxoro mashina kanalining I-II navbatidir.

Shular bilan bir qatorda Quyimozor va To‘dako‘l suv omborlari ham tuman uchun qo‘shimcha suv olish manbalari hisoblanadi shuningdek yilning asosan bahor oylarida Zarafshon daryosidan keladigan suvlar ham tumani suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda ishlatilmoqda. Bulardan tashqari tumanning gidrografik tarmoqlari ko‘p miqdordagi sug‘orish inshootlari zovur va uning tarmoqlari dan tashkil topgan tumandagi meliorativ tarmoqlarning asosiylari: Markaziy Buxoro, Xargo’sh, Xalach, Roxkent, Nayman va Rozmoz zovurlaridan iborat.

Tuman sug`oriladigan yer maydonlarining gidrogeologik meliorativ sharoiti o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib viloyatning janubiy tumanlari singari birmuncha murakkab hisoblanadi. Vobkent tumanida gidrogeologik meliorativ sharoit asosan yer osti sizot suvlari gidro hamda gidrokimyoviy rejimiga bog`liq bo‘lib sug‘oriladigan yer maydonlari zarafshon daryosining quyi qismida joylashganligi sababli murakkab hisoblanadi. Tumanning ayniqsa o‘rta va quyi qismlarida sizot suvlarining yer osti harakati sekinligi va uning yer yuzasiga yaqin joylashganligi sababli meliorativ vaziyat o‘ta og‘ir hisoblanadi. Tumanning ayniqsa o‘rta va quyi qismlarida sizot suvlarining yer osti harakati sekinligi va uning yer yuzasiga yaqin joylashganligi sababli meliorativ vaziyat o‘ta og‘ir hisoblanadi. Oqibatda sugoriladigan maydonlarda sho‘rlangan qayta tiklanadigan gidromet xizmatining kuzatuvlari bo‘yicha tuman hududida bug‘lanishiga sarflangan suvning bor yo‘g‘i 10 foizi qismi atmosfera yog‘in sochinlarini tashkil etadi xolos.

Shu sababli dehqonchilikda qishloq xo‘jaligi ekinlarining mo‘l-ko‘l hosil yetishtirishning asosiy omillardan biri sug‘oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish yerlarning meliorativ holatini yomonlashuvini oldini olishdan iboratdir. Sug‘oriladigan maydonlarning meliorativ holatidan kelib chiqib asosiy meliorativ tadbirlar amalda holati tabiiy yomon yerlarda yuza nishabligi kichik tabiiy drenaji xususiyati va yer osti sizot suvlarining harakati sekin bo‘lgan yerlarda birinchi navbatda qo‘llaniladi. Sug‘oriladigan maydonlarning meliorativ holatidan kelib

chiqib asosiy meliorativ tadbirlar amalda holati tabiiy yomon yerlarda yuza nishabligi kichik tabiiy drenaji xususiyati va yer osti sizot suvlarining harakati sekin bo‘lgan yerlarda birinchi navbatda qo‘llaniladi. Bo`layotgan davri yotqiziqlari tuman yer yuzasidan 400 - 500 metr va undan chuqurda joylashgan bo‘lib asosiy suv o`tkazmaydigan qatlam hisoblanadi. Bu yotqiziqlarning qalinligi 270 m gacha bo‘lib ular to‘q chiziqcha ko‘k rangli yillardan va ular orasida joylashgan merge va to‘q sariq rangli toshlardan iboratdir. Tuman hududida to‘rtlamchi davr yotqiziqlari yer yuzasining asosiy qismini tashkil qiladi. Ular asosan mayda va katta shahar tarkibli yotqiziqlar- dan iboratdir. Yer po‘stlog‘ining yuza qismida joylashgan to‘qqiz va suvlik jinslarning qalinligi 2 m dan to 11 m gacha o’zgaradi va mayda shaharlarning qalinligi 7-23 metrni tashkil qiladi. Sizot suvlarining sathi soladigan yerlarga beriladigan suvlar miqdoriga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Harakat qiluvchi jinslar qumlardan suglinkallardan mayda va katta shag`allar va qumtoshlardan iborat. Sizot suvlari hosil bo`lish manbasi asosan shimoliy tomondan yer osti sizot suvlarining harakati shimoliy-sharqdan janub tomonga vujudga kelishi bilan bog’liqdir. Yer osti sizot suvlari harakati davomida butun sug`oriladigan maydonlarda irrigatsiya shahobchalari va yerlarga beriladigan suvlar hisobiga to`yina boradi shu sababli ayrim yerlardan irrigatsiya sizot suvlari hisobiga filtiratsiya zonalar hosil bo‘ladi. Sizot suvlari sathining chuqurligiga soladigan maydonlarga beriladigan oqava suvlar miqdoriga bog`liq holda o‘zgarib turadi bundan tashqari sizot suvlari sathining o‘zgarishiga chuqur joylashgan yer osti suvlarning bosimi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tumanidagi bosimli suvlar sug`oriladigan maydonlar tashqarisidan oqib keladigan sizot suvlari hisobidan hosil bo‘ladi. Sizot suvlarida bosimni hosil bo‘lishiga asosiy sabab sug`oriladigan yerlar hududiga yer ostidan oqib keladigan sizot suvlarini chiqib ketadigan sizot suvlari miqdordan ancha ko‘prigidir. Sug‘oriladigan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya shahobchalari suvni suv bosim sistemasi bo‘lib xizmat qiladi.

Sug‘orish ma’lum masofada sizot suvlarida qo‘shimcha bosim hosil qiladi bu bosim 1.0 m va undan ham yuqori bo‘lishi mumkin bosim shag`al qatlami va ular ustida yotgan mayda zarrali jinslardagi yer osti sizot

suvlari sathining farqi- dan iboratdir. Bu hodisa sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini o‘zgarishi muhim rol o‘ynaydi yer ostida bosimli suvlar sathini sizot suvlari satxidan 1.0 m dan yuqori bo‘lishi yerlar meliorativ vaziyatni yanada og’irlashivuni tezlashtiradi. Sizot suvlari gidro rejimini bir tekisda saqlab turishda asosan zovur drenaj tarmoqlarining doimiy ishchi holatda bo‘lishi shuningdek sizot suvlarining yer osti harakati muhim rol o‘ynaydi.

Vobkent tumanining o’rta qismida sizot suvlari oqimi “Markaziy Buxoro’’ zovuri tomon bo‘ladi. Tuman hududining bu qismida yer nishabligi va yer osti sizot suvlari oqimi yo‘nalishi nisbiy balandligi hisobidan aynan markaziy Buxoroga tomon yo‘nalgan. Markaziy Buxoro zovuri bu hudud uchun tabiiy drenajlik vazifasini o‘tab keladi. Suvining sathining o‘zgarishi bo‘yicha rejim o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib u yilning har xil vaqtida turli chuqurliklarda bo’ladi. Bu o‘zgarishlar qator yillar davomida aytarli bir xil bo‘ladi. Davriy joylashuvi va uni vujudga kelishi bo’yicha sizot suvining sathini Vobkent tumanida uning o’zgarish ampilitudasini hisobga olgan holda ikki xil davriy rejimga ajratish mumkin.

1.Sizot suvining birinchi xil davriy rejimi bahorgi-yozgi maksimova kuzgi qishgi minimum bilan harakterlidir. Yuqorida sizot suvining sathini maksimal chuqurligi 3.0-5.0 metrlik tashkil qiladi.

Rejimning bu turi Markaziy Buxoro zovurning oqimi bo‘yicha o‘ng tomoniga tumanning eskidan sug‘orib kelinayotgan yerlarning yuqori qismga to’g’ri keladi. Davriy rejimning ikkinchi turi tumanning o‘rta va janubiy qismlariga taalluqli bo‘lib bahorgi-yozgi maksimum va kuzgi-qishki minimum bilan xarakterlidir. Sizot suvining maksimal yuqori joylashuvi 2.0-2.5 m ni tashkil qilsa uning minimal chuqurlik bo‘yicha joylashishi 2.5-3.5 metrni tashkil qiladi. Sizot suvi sathining o’zgarishi oralig’i 0.5-1.5 m ga teng bo’ladi. Sug‘oriladigan yerlar asosan tekislikdan iborat bo`lib ayrim yerlarda mayda mayda chuqurliklar past yerlar va tepaliklar uchrab turadi.

Yer yuzasining nishabligi 0.0001-0.4 ni tashkil qiladi, "Markaziy Buxoro" zovuri tomon yo`nalgan. Markaziy Buxoro zovuri bu hudud uchun tabiiy drenajlanganlik vazifasidan o'tab keladi.

Sizot suvining sathining o'zgarishi bo'yicha rejmi o'ziga xos bo'lib, u xususiy har-xil vaqtida turli chukurliklarda bo'ldi. Davriy joylashuvi va uni vujudga kelishilgan bo'yicha sizot suvining sathini Vobkent tumanida uning o'zgarish amplitudesini hisobga olgan holda ikki xil davriy rejimga ajratish mumkin.

1. Sizot suvining birinchi hil davry rejimlari bahorgi yozgi maksimal va kuzgi - qishgi minimal bilan harakterlidir. Sizot suvining sathini maksimal chukurligi 3.0-5.0 metr tashkil kiladi. Rejimening bu turi "Markaziy Buxoro" zovurining oqimi bo'yicha o'ng tomonga, tumanning eskidan sug`orib kelinayotgan yerlarining yukori kismiga to`g`ri keladi.

2. Davriy rejimning turi tumanning o'rta va janubiy qismlariga taluqli bo`lib, bahorgi yozgi maksimal va kuzgi-qishgi minimal bilan xarakterli 2.5-3.5 m tashkil qiladi. Sizot suvi sathining o'rtacha oralig'i 0.5 – 1.5 m ga teng bo`ladi.

Sug‘oriladigan yerlar asosan tekisliklar iborat bo‘lib, ayrim yerlarda mayda - mayda chukurliklar (past yerlar) va tepaliklar uchrab turadi. Yer yuzasining nishabligi 0,0001 0,04 ni tashkil kiladi. Nishablikning kichikligi, sizot suvining yer osti harakati qiyinligi, yozgi yuqori harorat va havoni quruqligi juda katta mikdordagi sizot suvini bug‘lanishi va transperatsiya bo‘lganligi sababli mavjud 21515 gektar sug‘oriladigan maydonning qariyb 87,1 foizi vegetatsiya mavsumi oxirida har xil darajadagi sho‘rlangan yerlarni tashkil qiladi. Shu sababli ham tuman dexkonchiligida yer osti sizot suvlarini zovurlar orqali sug‘oriladigan yerlar hududidan chiqarib yuborish, barqaror suv - tuz balansini ta’minlash uchun juda katta ahamiyatga egadir.

Tumanda sug`oriladigan yer maydonlaridan sizot suvlarini chiqarishda tuman bo‘yicha mavjud 129,1 km uzunlikdagi hududlardagi ichki zovurlar, 141.56 km uzunlikdagi qismi davlat hisobida turadigan magistral va xo‘jaliklararo zovurlar xizmat qiladi. O‘rtacha sug‘oriladigan bir gektar maydonga 12,57 p.m. uzunlikda zovur tarmoqlari to‘g‘ri keladi.

Janubiy hududlarda yer osti sizot suvining tuproqdagi tabiiy harakati ancha pastligi sababli, zovurlarning uzunligi yuqori zonada joylashgan hududlarga nisbatan birmuncha ko‘pdir va bir gektar sug‘oriladigan yerga to`g`ri keladigan zovur tarmoqlarining solishtirma uzunligi Yangikent hududida 11,9 p.m. Imom Qozixon hududida 19,8 p.m. va Xargush hududida 20,05 p.m. ni tashkil qiladi.

Gidrokimyoviy rejim sizot suvlarida yiliga uch marotaba kuzatuv quduqlaridan olinadigan suv namunalarini tekshirish yo‘li bilan o‘rganiladi. Sug‘oriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlarining minerallik darajasi va kimyoviy tarkibi bo‘yicha yerlarning tabiiy drenajlik xususiyati, geomorfologik tuzilishi hamda sizot suvlarini yer osti harakatiga asoslangan holga bir necha turlarga bo‘lish mumkin:

1. Qayta tiklanadigan gidrokimyoviy rejim, avvaldan sug`oriladigan yerlarda.

2. Qayta tiklanmaydigan gidrokimyoviy rejim:

a) Avvaldan sug‘oriladigan yerlarda;

b) Yangidan sug‘orila boshlangan maydonlarda.

Tuman sug‘oriladigan yer maydonlarining tabiiy sharoitiga ko‘ra yer osti sizot suvlarining gidrokimyoviy rejimi, asosan yuqorida ko‘rsatilgan ana shu ikkala tur bo‘yicha o‘rganiladi. Eskidan sug‘orilib kelinayotgan maydonlardagi sizot suvlarining minerallik darajasi va tarkibi yangi o‘zlashtirilgan maydonlardagi yer osti sizot suvlarining tarkibi va minerallik darajasi bilan deyarli keskin fark kilmaydi.

Sug‘oriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlarining gidrokimyoviy rejimi asosan sug`orishga olinadigan suvlar miqdori va tarkibiga hamda zovurlar orqali chikarib yuborilayotgan drenaj suvlari miqdori va tarkibiga mos ravishda o‘zgarib boradi. Ularning miqdori yozgi vegetatsiya davrida oshib boradi, kishgi sho‘r yuvish mavsumidan keyin esa kamayadi va bu xolatni keyingi ko‘p yillar davomida bir xil chegaralarda o‘zgarishi kuzatilmokda.

1-jadval

Vobkent tumani bo`yicha 2020-2021 yillardagi yer osti suvlarining satxi to`g`risida ma`lumot

Tuman	Yillar	kuzatiladigan maydon (ga)	Quduqlar soni	Oylar										
				I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	
Vobkent	2020	21515	220	3,05	3,74	2,67	2,89	3,04	3,02	2,76	2,6	2,59	2,96	3
	2021	21515	202	3,33	2,87	2,7	2,78	2,87	2,89	2,73	2,7	2,79	2,91	3
2021 yilga nisbatan farqi				0,28	-0,9	0,03	-0,1	-0,2	-0,1	-0	0,1	0,2	-0	



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amu-Buxoro ITHB huzuridagi Melioprativ ekspeditsiya ma`lumotlar
2. Vobkent tuman hokimligi ma`lumotlari
3. Sh. Hakimov va I. Tursunov, T. Yoqubov// Buxoro viloyati sharoitida zamonaviy suvtejamkor sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash (Buxoro viloyati Peshku tumani misolida)// jamiyat va innovatsiya, 2021
4. S. O`lmasov. Sh. Hakimov, Egamberdiev M. S.// Resistance of Concrete and Cement to Chemical and Aggressive Environments//3(12), 133-138. https://doi.org/10.31149//https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/2491

UO‘T:633.51

SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANILMASLIKNING SALBIY OQIBATLARI (OROL DENGIZI MISOLIDA)

Minturganov Y., Shodiyorov H.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi
Hakimov Sh. *Gidrologiya va ekologiya kafedrasi asisstenti*
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
sherzodhk4@mail.ru

**Kalit so`zlar:** Suv sarfi, sho`rlanish, suv taqchilligi, qor, qum, tuz, chang, qandim, cherkiz, saksovul.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so`ngi yillarda dunyoda va ayniqsa Markaziy Osiyoda kuzatilayotgan suv tanqisligi muammolar, ularning yuzaga kelish sabablari, Orol dengizining qurish dinamidasi ga aloqador bo`lgan muhim ma`lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari O`zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida “Yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonzorlarini barpo etish hajmlari bo`yicha belgilangan yo`l xatiratasining asosiy ko`rsatkichlari haqida ma`lumotlar keltirilgan.*

Annotation. *In this article, the problems of water shortages observed in the world and especially in Central Asia in the last years, the reasons for their occurrence, the dynamics of the construction of the Aral Sea are related to important information. In addition, the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan provides information on the main indicators of the road accident identified by the volume of restoration of “green covers” — protective forests in the Aral Sea and Aral Sea water-drained depths.*

Аннотация. *В данной статье представлены проблемы дефицита воды, наблюдаемые в последние годы в мире и особенно в Центральной Азии, причины их возникновения, важная информация, связанная с видовой динамикой Аральского моря. Кроме того, представлена информация об основных показателях дорожной карты, установленной Кабинетом*

Министров Республики Узбекистан по объемам создания "зеленых насаждений" — защитных лесных массивов на засушливом дне Аральского моря и в Приаралье.

Aholi sonining ko'payishi, shaharlarning kengayishi sanoat ishlab chiqarishining o'sishi va qishloq xo'jaligiga bo'lgan talab ortib borishi oqibatida suvga bo'lgan extiyoj ortmoqda. Taxmin qilinishicha, 2025 yilga kelib o'rtacha yoki qattiq suv tanqisligi bilan og'rigan odamlarning soni 5,5 milliardga yetadi va dunyo aholisining uchdan ikki qismini tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda suv, ayniqsa, chuchuk suv o'ta muhim strategik manba hisoblanadi. So'nggi yillarda dunyoda suv iste'moli oshdi va hamma uchun suv etarli bo'lmaydi, degan qo'rquv bor. Butunjahon suv komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda har bir kishiga ichimlik, ovqat tayyorlash va shaxsiy gigiena uchun har kuni 20 dan 50 litrgacha suv kerak bo'ladi.

Biroq, dunyoning 28 mamlakatidagi bir milliardga yaqin odam juda ko'p hayotiy resurslarga ega emas. Taxminan 2,5 milliard odam o'rtacha va og'ir suv taqchilligi bo'lgan hududlarda yashaydi. Taxminlarga ko'ra, 2025 yilga kelib bu raqam 5,5 milliardga etadi va dunyo aholisining uchdan ikki qismini tashkil qiladi.

O'zbekiston jahon resurslar instituti [1] tomonidan e'lon qilingan dunyodagi eng suv ta'siriga uchragan mamlakatlar reytingida 164 ta davlat ichida 25-o'rinni egalladi . Ayrim hududlarda, xususan, Qoraqalpog'istonda taqchillik ijtimoiy va ekologik inqirozga olib kelishi mumkinligini inobatga olsak, suv tanqisligi O'zbekiston uchun juda dolzarb masala hisoblanadi. Suv nafaqat qishloq xo'jaligi, balki maishiy ehtiyojlar uchun ham tanqis. Shunday ekan, quyidagi savollarni ko'tarishimiz maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonning gidroenergetika resurslari butun mamlakat hududining atigi 4,92 foizini tashkil qiladi; Jami suv resurslari yiliga 50-60 km^3 ni tashkil qiladi, shundan atigi 12,2 km 3 respublika ichida hosil bo'ladi, qolgan suv esa boshqa joylardan – Tyan-Shan va Pomir-Oltoy tog'laridan, qor erishi va muzliklardan keladi.[2] . Suv resurslarining katta qismi paxta dalalarini sug'orish uchun sarflanadi.



5. 1-rasm. Orol dengizining 1960-2018 yillardagi holati

2030 yilga borib respublika aholisining qariyb 40 million kishiga koʻpayishi prognoz qilinmoqda, bu esa mavjud suv resurslarining 7-8 km3 ga qisqarishiga olib keladi . Bunday sharoitda hozirgi suv tanqisligi 2030 yilga borib 13-14 foizdan 44-46 foizgacha oshib, qishloq xoʻjaligi va sanoat rivojlanishiga putur yetkazadi.

Jahon banki ma'lumotlariga koʻra, 2018 yilda Oʻzbekistonda chuchuk suv yoʻqotishlari 469 million kub metrni yoki ishlab chiqarilgan ichimlik suvi umumiy hajmining 32 foizini tashkil qilgan. Katta hajmdagi suv yo'qotishlari Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda kelajakdagi suv ta'minoti uchun noqulay prognozlar fonida sodir bo'lmoqda. Jahon bankining prognozlariga ko'ra, 2050 yilga borib Sirdaryo havzasida oqimning pasayishi 2-5 foizga, Amudaryo havzasida esa 10-15 foizga yetishi mumkin, bu esa suv tanqisligining kuchayishiga olib keladi. Nafaqat qishloq xoʻjaligi, balki gidroenergetika ham xavf ostida, chunki 2050 yilga kelib gidroelektrostantsiyalarning hosildorligi mintaqaning ayrim qismlarida 20% gacha pasayishi mumkin [3] . Orol muammosi nafaqat Oʻzbekistonga, balki qoʻshni davlatlarga ham tegishli. Amudaryo va Sirdaryoga har yili 135-145 million tonna tuz quyiladi, bu esa yiliga 1 ga sug'oriladigan yer uchun 17-20 tonnani tashkil etadi. Agar 1960-yilga kelib Orol dengiziga daryolarning oʻrtacha yillik oqimi 55 km3 yoki 45-50% ni tashkil etgan boʻlsa, 1990-yilga kelib qurgʻoqchilik davrida suv oqimi 6-12 km^3 gacha kamayib, nolga yaqinlashdi. Hozirgi vaqtda dengiz sathi yiliga taxminan 0,5 m tezlikda pasayib, 37,0 m ga etadi; dengiz yuzasi

32 000 km^2 gacha qisqardi ; sho'rlanish 40 yoki undan ko'p g / l gacha oshdi va hali ham o'sib bormoqda [4] .Orol dengizi Markaziy Osiyodagi eng kata sho'r ko'ldir. Bu sho'r suv havzasi 1960-yillrda erni sug'orish uchun suvi tortib olinishi tufayli qisqara boshlangunga qadar dunyodagi to'rtinchi eng katta ko'l edi. O'tgan asirning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 680 ming km^2 tashkil etgan.
Dengiz shimoli-sharqdan jannubi-g'aribga cho'zilgan uzunligi 428 km eng keng joyi 235 km (45^{0}sh.k) bo'lgan. Havzaning maydoni 690 ming km^2 suvining hajmi 1000 km^2 o'rtacha chuqurligi 16.5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzaning kattaligi uchun dengiz deb atalgan.

Janubdagi Amudaryo havzasi O'zbekiston hududining 86.5 foizini egallaydi. Asosiy Amudaryoni uch oqimga bo'lish mumkin yuqori oqimi Afg'oniston va Tojikiston bilan chegaradosh va suv oqimining katta qismi hosil bo'lgan joyda :

Dastlab O'zbekiston va Afg'oniston bilan chegaradosh so'ngra Turkmanistonga kiradigan o'rta oqim: Orol dengiziga quyilishidan oldin esa O'zbekistoning asosiy irmoqlari Sherobod, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zaravshon daryolaridir. Bu oxirgi ikkisi Tojikistonda ko'tariladi. Amudaryo havzasida hosil bo'lgan oqimning umumiy miqdori yiliga 78-46 km^3 deb baholanadi: 5% va 95% ehtimollar 108,4 va 46,9km^3 deb baholanadi. Uning cho'l qismidagi muhim yo'qatishlar va qishloq xo'jaligi tamonidan katta miqdorda suv tortib olinishi tufayli Orol dengiziga keladigan oqim bu ko'rsatkichning kichik bir qismi bilan cheklangan eng qurg'oqchil yillarda 10% dan kam yiliga 4,7 km^3 yoki Amudaryo havzasining o'rtacha umumiy yer usti suv resurslarining 6 % O'zbekiston hududida hosil bo'lgan. 2050 yilga borib O'zbekistonda suv tanqisligi besh barobarga oshishi aytildi.

Mamlakatimizda ekologik holatni yaxshilash, Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo'yi mintaqasidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" — barpo etish ishlarini izchillik bilan davom ettirish hamda global iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirini yanada yumshatish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4850-son qaroriga muvofiq 2022 — 2026-yillarda Orol dengizining suvi qurigan tubi

va Orolbo‘yi hududlarida “Yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonzorlarini barpo etish hajmlari ko`zda tutilgan.

2022 — 2026-yillarda Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonzorlarini barpo etish HAJMLARI										ming gektar
T/r	Hududlar nomi	2022-2026-yillarda	Shu jumladan, yillar bo‘yicha:					Cho‘l o‘simliklari turlari	Shundan ekish usullari bo‘yicha:	
			2022-yilda	2023-yilda	2024-yilda	2025-yilda	2026-yilda		urug‘dan	ko‘chatdan
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	500	100	100	100	100	100	saksovul, qoraburoq, qandim	475	25
2.	Buxoro viloyati	200	40	40	40	40	40	saksovul, cherkez	180	20
3.	Navoiy viloyati	250	50	50	50	50	50	saksovul, qandim, cherkez	235	15
4.	Xorazm viloyati	50	10	10	10	10	10	saksovul	49	1
Jami		1000	200	200	200	200	200	x	939	61

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.gazeta.uz/ru/2019/08/08/water-stress
2. Gusev L. Markaziy Osiyoning suv-energetika muammolari va ularni hal qilish yo'llari // MGIMO universiteti axborotnomasi. 2013.6 (33). p. 36.
3. Iqtisodiy sharh. № 10 (238). 2019. p. 21.
4. Alimjonov B. O`zbekiston suv xo`jaligi: ekologiya va boshqaruv masalalari// Markaziy Osiyo tahliliy hisobotlar byurosi. 22.04.2020.
5. Sh. Hakimov va I. Tursunov, T. Yoqubov// Buxoro viloyati sharoitida zamonaviy suvtejamkor sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash (Buxoro viloyati Peshku tumani misolida)// jamiyat va innovatsiya, 2021

UO‘T:633.51

BUXORO VILOYATI SUG`ORILADIGAN YERLARINING MELIORATIV HOLATINI TAHLIL QILISH

[1]Choriyev R. [2]To`rayev Sh. [3]Fayziyeva M.

[1,2]Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari

[3]*Buxoro Davlat universiteti magistranti*

Hakimov Sh. *Gidrologiya va ekologiya kafedrasi asisstenti*

sherzodhk4@mail.ru

**Kalit so`zlar:** gidrokimyoviy, mineral tarkibi, sho‘rlik darajasi, zovur, kollektor-drenaj tarmog‘i, kuzatuv qudug`i, vegetatsiya.

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro viloyatining* sizot suvlarining gidrokimyoviy rejimi, shuningdek sug‘oriladigan maydonlarga beriladigan oqava suvlari miqdori va mineral tarkibi hamda uning joylashuvi, viloyat sug‘oriladigan maydonlar hududida yer osti sizot suvlari tarkibidagi mineral tuzlar miqdori bo‘yicha ma`lumotlar keltirilgan.

Annotation: *The article provides information on the hydrochemical regime of the underground waters of Bukhara region, as well as the amount of wastewater supplied to the irrigated areas, the mineral composition and its location, the amount of mineral salts contained in the underground waters in the territory of the irrigated areas of the region.*

Anotatsiya: *В статье представлена информация о гидрохимическом режиме подземных вод Бухарской области, а также количестве сточных вод, подаваемых на орошаемые участки, минеральном составе и его местоположении, количестве минеральных солей, содержащихся в подземных водах на территории орошаемых участков области.*

Buxoro viloyati sharoitida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yoki uni bir me’yorda saqlab turish uchun sug‘oriladigan maydonlarga beriladigan suvlarning kamida 40-45 foiz qismini drenajlar orqali chiqarib yuborish zarur. Aks holda maydonlarda suv-tuz muvozanatini buzilishiga olib keladi. 2019 yilda Buxoro viloyatidagi sug‘oriladigan maydonlardan

kollektorlar orqali 1971,95 mln.m3 sizot suvlari chiqarildi. Shundan 1756,77mln.m3kollektorlar va 47,82 mln.m3 tik-drenaj quduqlari orqali chiqarilgan.

Viloyatdagi mavjud kollektorlardagi zax suvlarining sho‘rlik darajasi o‘zgarib turadi. Buning asosiy sababi ob-havoning issiq kelishi, hamda sug‘orishga berilgan suvning tarkibi va tuproq tarkibining sho‘rlik darajasi yuqori bo‘lganligidir. Qorako‘l va Olot tumanlaridagi sug‘oriladigan yerlardan chiqadigan sizot suvlariining sho‘rlik darajasi juda yuqori bo‘lib, o‘rtacha 4,932 gr/litr ni tashkil etadi. Bu mintaqadan chiqadigansizot suvlar “Bosh Qorakul”, “Dengizko‘l” kollektorlari orqali o‘tkazib yuboriladi. Buxoro, Kogon, Jondor tumanidagi sug‘oriladigan yerlardan chiqadigan sizot suvlari “Parallel”, “Markaziy Buxoro” va “G‘arbiy Romitan”kollektorlari orqali chiqib ketadi. “G‘arbiy Romitan” va “Markaziy Buxoro”kollektorlari suvini “Sho‘rko‘l” (Zamon bobo) tashlamasiga tashlaydi va uning suvini sho‘rlik darajasi –4,200 gr/litr ni tashkil etadi.

Sug‘oriladigan yerlarga beriladigan suvlar va atmosferadan keladigan yomg‘ir hamda qorning tuproqqa singishi, yer osti suvining harakati nihoyatda kam bo‘lganligi natijasida suv tuz muvozanatini buzilishiga sabab bo‘ladi. Buxoro viloyatida yer osti suvining oqimi yo‘nalishi g‘arb, shimoliy g‘arb hamda janubiy g‘arb tomonga bo‘lib, nishabning kichikligi tufayli sug‘oriladigan hududdan chiqib ketmaydi. Bu suvlarni chiqarib yuborish uchun sun’iy drenaj tarmoqlari qurilgan bo‘lib, yer osti suvining satxi zarur chuqurlikda bo‘lishi ta’minlanadi.

Viloyat bo‘yicha sug‘oriladigan maydonlar chegarasida 4803,84 mln.m3 suv olingan. Kollektorlar orqali sug‘oriladigan yerlar hududidan chiqarib yuborilgan suvlar miqdori esa 2019 mln.m3 ni tashkil qildi. Sug‘orish uchun olingan suvning mineral tarkibi, ya’ni olingan suvning 1 litrida 1,293 gramm qattiqqoldiq shundan xlor ionlari 0,151 gramni tashkil etdi. Kollektor suvlarining mineral tarkibi sho‘rlanganligi bilan xarakterlanadi. Bu ko‘rsatgich doimiy ravishda bir xil bo‘lmay, yil davomida sug‘orish uchun olingan suvning miqdori va sifatiga hamda yog‘ingarchilikning bo‘lishiga qarab ma’lum miqdorda o‘zgaradi.

Viloyatning Qorovulbozor va Olot tumanlarida kollektorlar orqali chiqib ketayotgan suvning har bir litrida 4,870 gramgacha xar xil tuzlar bo‘lsa, G‘ijduvon tumanida bu ko‘rsatkich 2,968 grammni tashkil etadi. Hisobot yilida kollektor suvlaridan 79,2mln.m3 sug‘orishga foydalanildi.

Buxoro, Kogon tumanlar quyi hududlarining yer osti sizot suvlari, shuningdek Jondor tumanining bir qism kollektorlari suvlari“Parallel” magistral trakti orqali“Dengizkul” va “Bosh suv tashlama” ga tushirilib, “Parsanko‘l” tashlamasi orqali“Amudaryo” ga tashlanadi. “Parallel” magistral traktidan chiqarib yuborilgan suv346,22 mln.m3 ni va uning mineral tarkibi 5,752 gr/l ni tashkil etdi.

Vobkent, Romitan tumanlarining bir qismi hamda Buxoro va Jondor tumanlarining yer osti suvlari “Markaziy – Buxoro” magistral trakti orkali “Sho‘rko‘l” (Zamonbobo) ko‘liga tashlandi.

Yil davomida olingan suvlar bilan 6,21 mln.tonna har xil zararli tuzlar sug‘oriladigan yerlarga kelib tushgan bo‘lsa, kollektorlar orqali shu maydonlardagi7,02 mln.tonna zararli tuzlar chiqarib yuborildi. Suv bilan

kelgan tuzga nisbatan chiqarilib yuborilgan tuzlar 0,81 mln.tonna ko‘p bo‘lib, sug‘oriladigan yerlarning faol qatlamida sho‘rlik darajasi pasaytirilganligini ko‘rsatadi.

Oqava suvlarining tanqisligi viloyatda olinayotgan suvlardan unumli foydalanish qishloq xo‘jaligi ekinlaridan olinayotgan hosildorlikning mo‘l bo‘lishi omillaridan biridir.

Buxoro viloyatining sug‘oriladigan yerlari uchun suv manbai “Amudaryo” daryosihisoblanadi. Daryodagi suv “Dvoynik” (ikkilik) gidroinshootiga o‘z oqimi bilan kelib, ikkiga ya’ni “Amu-Qorako‘l” kanaliga va “Hamza” nasos stansiya tomonga taqsimlanadi. “Hamza-I” va “Hamza” yordamchi nasos stansiyalari yordamida “Amu-Buxoro” mashina kanaliga quyiladi. Bundan tashqari Jondor tumanidagi “Moxonko‘l” massividagi yerlarni sug‘orish uchun “Zarafshon” kanali qurilib ishga tushirilgan. Suv manbalarida suv ko‘p bo‘lgan yillarda “Zarafshon” daryosi suvidan ham sug‘orishga foydalaniladi.

O‘tgan hisobot yilida vegetatsiya va novegetatsiya mavsumlarida 4803,84 mln.m3 suv olindi. Olingan suvning mineral darajasi 1,293 g/l ni tashkil etdi.

Ekinlarni sug‘orishda boshqa suv manbalaridan ya’ni, kollektor va tik drenaj quduqlari suvlaridan 235,82 mln.m3 foydalanildi. Vegetatsiya mavsumi tugagandan keyin o‘simliklarni ildizi rivojlanadigan tuproq qatlami sho‘rlik darajasini pasaytirish va kelgusi yil hosili uchun puxta zamin yaratish maqsadida sho‘r yuvish tadbirini amalga oshirish eng muhim tadbirlardan hisoblanadi.

Yerlarni sho‘rini yuvish va sug‘orish ishlari uchun novegetatsiya mavsumida 1217,4 mln.m3suv olindi. 274,60 minggektar sug‘oriladigan maydondan 180,6 ming gektari bir marta, shundan 92,82 ming gektari ikki marta va 12,48 ming gektarida uch marta, jami sho‘ri yuvilgan maydon 285,93 ming gektarni tashkil etdi. Shu mavsumda viloyat bo‘yicha yer osti suvi sathi o‘rtacha 2,61 metr chuqurlikda joylashdi.

Hisobot yilining vegetatsiya mavsumida 2828,10mln.m3 suv olinib ekinlarni, xususan kuzgi boshoqli don va paxta ekinini sug‘orish uchun ishlatildi. Mavsumda suvdan foydalanishni joylarga chiqib nazorat qilish uchun ekspeditsiyada ishchi guruhi tashkil etildi. Ishchi guruh viloyatning barcha tumanlarida bo‘lib, suvdan foydalanish bo‘yicha kamchiliklar, sug‘orish texnologiyalarini buzilganligi va suvlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kollektorlarga tashlaganlari xaqidagi holatlarni bartaraf etib turdilar.

Viloyat sug‘oriladigan maydonlarida yer osti sizot suvlari sathi va uning kimyoviy tarkibidagi o‘zgarishlar haqida gapiradigan bo`lsak:

Viloyatning deyarli barcha maydonlarida gidrogeologik vaziyat ancha murakkab bo‘lib, sug‘oriladigan yerlarga suv quyilishi bilan yer osti suvi harakati bo‘lmaganligi tufayli, uning yuqoriga ko‘tarilishi tezlashib, tarkibidagi tuzlarni faol qatlamga olib chiqadi. Yozning issiq va uzoq davom etishi yer yuzasiga yaqin bo‘lgan sizot suvining tarkibidagi tuzlarni bug‘lanish natijasida tuproq faol qatlamida to‘planishini tezlashtiradi. Bunday salbiy oqibatlar ekinlarni unib chiqishi va uning rivojlanishini keskin pasaytiradi.

Ma’lumki sizot va yer osti suvlarining vaqt mobaynida sathining va kimyoviy tarkibining o‘zgarishi bir necha tabiiy va xo‘jalik faktorlariga uzviy bog‘liqdir.

Klimatik tabiiy faktorlarga (haroratning o‘zgaruvchanligi yog‘ingarchilik, bug‘lanish kabilar), gidrogeologik (daryolardan oqayotgan suv sarfining o‘zgarib turishi, suv omborlaridagi suv sathining o‘zgarishi), biologik hamda geologik (seysmik va boshqa hodisalar) o‘zgarishlar kiradi.

Xo‘jalik faktorlari bu yerni sun’iy sug‘orish va yer osti suvini chiqarib olish, har xil suv omborlari va suv inshootlari qurish kabilardir.

Yer osti suvining parametrlarini o‘zgarib turishi faqat tabiiy hodisalar va o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lsa, bu tabiiy o‘zgarish hisoblanadi. Agar yer osti yoki sizot suvining sathi yoki mineral tarkibi o‘zgarishi tabiiy va sun’iy ta’sirlar natijasida bo‘lsa, bunday o‘zgarish buzilgan (sun’iy) o‘zgarish hisoblanadi.

Yer osti sizot suvlarining tabiiy rejimini saqlab qolish yoki sun’iy ravishda o‘zgartirib, ekinlarning yaxshi rivojlanishi uchun tuproqda tuz miqdori o‘zgarishini to‘g‘ri hosil qilish bu sug‘oriladigan yerlarda dexqonchilikning muvoffaqiyatlarini yanada yuksaltirishning asosiy omili hisoblanadi. Bunday sharoitni yaratish uchun sizot suvlarining tuproq namlanishidagi salbiy ta’siri, ya’ni tuproqni qayta sho‘rlanishi, botqoqlanishi kabi sizot suvlarini yer yuziga yaqin joylashganligi bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarni oldini olish zarurdir.

Irrigatsiya shaxobchalari bo‘yicha sizot suvlarining sathini joylashuvi va tarkibini o‘zgarishini qayd etish sizot suvini ma’lum davr bo‘yicha o‘zgarib turishiga asosiy rejimni vujudga keltiruvchi faktorlarga bog‘liqholda

taqqoslash imkoniyatini yaratadi va shunga asosan sizot suvlari rejimining qaysi ko‘rinishdaligini aniqlashga yordam beradi.

YER OSTI SIZOT SUVLARI REJIMI.

Sug‘oriladigan maydonlarning meliorativ holatiga ta’sir qiluvchi omillardan asosan yer osti sizot suvlarining sathini joylashuvi hamda ularning gidrokimyoviy rejimi hisoblanadi. Ma’lumki, sug‘oriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlari rejimi asosan hudud chegarasiga olinadigan suvlar va chegaradan chiqarib yuboriladigan drenaj suvlari miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek hudud chegarasiga keladigan yer osti suvlar oqimi hamda, yer ostidan chiqib ketayotgan suvlar miqdori ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ko‘p yillik kuzatuvlarni ko‘rsatishicha Buxoro viloyatidagi sug‘oriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlarining sathini o‘rtacha yillik joylashuvi 2,45 m-2,86 m ni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatgich viloyatning yuqori tumanlarida (G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Peshko‘) 2,40 –3,40 m, viloyat markazi atrofidagi tumanlarda (Buxoro, Romitan, Kogon) 2,35 – 2,65 m va quyi tumanlar (Olot, Qorako‘l, Jondor) da 2,14 - 2,35 m atrofida bo‘ldi. Yer osti sizot suvi sathining eng yuqoriga ko‘tarilgan davri martoyiga va eng pastda joylashgan davri dekabr oyiga to‘g‘ri keladi. Uning bir yillik o‘zgarish amplitudasi 0,42 m.ni tashkil etdi. Yer osti sizot suvi sathining xarakterli joylashuv davriga kelib, ya’ni vegetatsiyadan oldin 1 aprel holatida – 2,53 m, vegetatsiya davrida1 iyul holatida – 2,54 m va vegetatsiyadan keyin 1 oktabr holatida -2,60 m.da joylashuvi tahlil qilinganda, shu davrda viloyatda o‘tkazilgan sho‘r yuvish tadbirlaridan

keyin1 aprelda sug‘oriladigan maydonlarning aksariyat qismida sizot suvlarining sathi 1,98–3,40 m gacha bo‘lgan chuqurlikda joylashgan.

Sizot suvlarining gidrokimyoviy rejimi ham xuddi shuningdek sug‘oriladigan maydonlarga beriladigan oqava suvlari miqdori va mineral tarkibi hamda uning joylashuvi bilan uzluksiz bog‘liqdir. Xuddi shu sababdan ham viloyat sug‘oriladigan maydonlar hududida yer osti sizot suvlari tarkibidagi mineral tuzlar miqdori bo‘yicha uchga bo‘linadi. Ya’ni tarkibidagi tuzlar miqdori 1,0-3,0 gr/l gacha bo‘lgan hududlar, bular Buxoro, Vobkent, Peshko‘ tumanlari kiradi, yer osti sizot suvlari tarkibidagi tuzlar miqdori 3,0-5,0 gr/l gacha bo‘lgan hududlar, bularga Qorovulbozor, Romitan, G‘ijduvon, Shofirkon tumanlari sug‘oriladigan yer maydonlarining aksariyat qismi kiradi hamda 5,0 gr/l dan yuqori bo‘lgan hududlar, bularga Qorako‘l, Olot tumanlarining aksariyat maydonlari kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amu-Buxoro ITHB huzuridagi Melioprativ ekspeditsiya ma`lumotlar
2. Sh. Hakimov va I. Tursunov, T. Yoqubov// Buxoro viloyati sharoitida zamonaviy suvtejamkor sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash (Buxoro viloyati Peshku tumani misolida)// jamiyat va innovatsiya, 2021
3. S. O`lmasov. Sh. Hakimov, Egamberdiev M. S.// Resistance of Concrete and Cement to Chemical and Aggressive Environments//3(12), 133-138. https://doi.org/10.31149//https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/249

UO‘T:633.51

SUG`ORILADIGAN YERLARINING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH TADBIRLARI

[1]Saidgarayeva I. [2]Sherozova K. [3]Fayziyeva M.

[1,2]Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari

[3]Buxoro Davlat universiteti magistranti

Hakimov Sh. *Gidrologiya va ekologiya kafedrasi asisstenti*

sherzodhk4@mail.ru

**Kalit so`zlar:** Sizot suvlar, nishablik, sho`rlanish, zovur, kollektor-drenaj tarmog‘i, kuzatuv qudug`i, shudgorlash, chuqur yumshatish, kultivatsiya

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Tuproq sho‘rlanishi sabablari, Dalada sho‘rlanish tarqalishining o‘ziga xosligi va sabablari, Sho‘rlangan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha tadbirlar hamda yerning sho‘rini yuvish uchun dala tuprog‘ining sho‘rlanishini baholashdan tashqari, yuvilgan suv qayerga chiqarib tashlanishini ham aniqlash bo`yicha ko`rsatmalar berilgan.*

Annotation: *In this article, the reasons for soil salinity, the peculiarities and causes of the spread of salinity in the field, measures to improve the melioration of saline soils, as well as the assessment of the salinity of millet for washing the brine of the earth, as well as instructions for determining where the washed water will be removed.*

Anotatsiya: *В этой статье рассмотрены причины засоления почв, особенности и причины распространения засоления в полевых условиях, меры по улучшению мелиорации засоленных почв, а также оценка*

засоленности проса для промывки рассолом земли, а также инструкции по определению места промывки водой будут удалены.

Ona zaminimiz va undagi suv resurslari xalqimizning eng katta boyligidir. Qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish aholi turmush darajasining o‘sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ekin maydonlarining sho‘rlanganligi paxta va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish oldidan, tuproq sho‘rini yuvish va qator meliorativ tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Respublika Paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining ko‘p yillik tajribalaridan ma’lum bo‘lishicha, sho‘rlanmagan yerlarga nisbatan kuchsiz sho‘rlangan yerlarda g‘o‘za hosili 15-20, o‘rtacha sho‘rlangan yerlarda 30-35 va kuchli sho‘rlanganda 70-80 foizga kamayadi. Bunday yerlar melioratsiyasini me’yoriga keltirish uchun sho‘r yuvish tadbiri o‘tkazilib, bu tadbir tuproqning 0-100 santimetr qatlamida xlor ioni 0,01 foizni tashkil etguncha davom ettiriladi.

Yerdan foydalanuvchilar shuni unutmasliklari kerakki tuproqning sho‘rlanishi ***- bu hosildorlikning kamayishidir.***

Tuproq sho‘rlanishi sabablari

- qishloq xo‘jalik ekinlarini kollektor-drenaj suvlaridan foydalanib sug‘orish;
- qishloq xo‘jaligi ekinlarini tarkibidagi tuz miqdori me’yordan ortiqcha bo‘lgan suv bilan sug‘orish natijasida suv bilan dalaga kirgan tuzlarning tuproqda to‘planishi;
- ekin maydonida tabiiy drenaj yoki sun’iy kollektor-drenaj tarmog‘ining yo‘qligi yoki yetishmasligi;

- sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari o‘z vaqtida o‘tkazilmasligi natijasida, suvning isrof bo‘lishini ko‘payib, yer osti suvlari sathining ko‘tarilishi va tuproqdagi tuz miqdorining ko‘payishi;
- kollektor-drenaj tarmog‘ining o‘z vaqtida tozalanmasligi, ularning o‘zaniga fermer va dexqon xo‘jaliklari tomonidan ekin maydonlaridan oqova suvlarini va sug‘orish tarmoqlaridan ariq suvining tashlanishi hamda ularning o‘zanlariga har xil sun’iy to‘siqlarning o‘rnatilishi o‘zandagi suv oqimining, yer osti suvlarining ekin maydoni hududidan ravon chiqib ketishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va oqibatda tuz miqdori keskin oshadi;
- yerni shudgorlash, chuqur yumshatish va kultivatsiya ishlarini o‘z vaqtida sifatli amalga oshirmaslik, o‘g‘it solmaslik, sharbat bilan sug‘ormaslik tuproqning strukturasini yomonlashtirib, kapillyarlik darajasini oshiradi va natijada yer osti suvlari sathining ko‘tarilishiga hamda tuzlarning to‘planishiga olib keladi;
- tuproq sho‘rlanishining yana bir sababi yerlarning notekisligidir;
- kollektor-drenaj tarmog‘inig ishlash qobiliyatini

hisobga olmasdan ekin maydoniga katta miqdorda suv berish sho‘r yuvish va nam to‘plash ishlari natijasini keskin pasaytirib qolmasdan, balki yer osti sizot suvlari sathini keskin ko‘tarilib ketishiga hamda tuproqda qayta tuz to‘planishiga olib kelishi mumkin.

Dalada sho‘rlanish tarqalishining o‘ziga xosligi va sabablari

Ekin maydonlarining notekisligi, suvning ortiqcha sarflanishiga olib kelib, sizot suvlari satxini ko‘tarilishining asosiy sabablaridan biri bo‘ladi. Maydonning notekis namlanishi notekis (dog‘li, ola) sho‘rlanishiga olib keladi.

Ekinlar egatlar bo‘ylab sug‘orilganda egat boshi va oxirida yerga singigan suv miqdori bir xil bo‘lmaganligi sababli egat boshi yuvilgan, sho‘rlanmagan, oxirida esa sho‘rlanganlik sodir bo‘ladi, chunki, egat boshida suv tuproqqa singadi, egat oxirida esa yo‘q. Sho‘rlanish ayniqsa o‘simlikning boshlang‘ich rivojlanish pallasida xavflidir. Namlik yetarli bo‘lmaganda, sho‘rlangan tuproqni o‘simlik yengib o‘tishi qiyin bo‘ladi, o‘simlik ildizi tuproqdan kerakli namlikni so‘rib ololmaydi, bundan tashqari tuzlarning yuqori konsentratsiyasi (masalan xlor) o‘simlikning zaxarlanishiga olib keladi, uning rivojlanishi buziladi. Tuproq sho‘rlanish darajasiga qarab, turli ekinlar o‘z xosilini 15-20 foizdan 70-80 foizgacha yo‘qotishi mumkin.

Sho‘rlangan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha tadbirlar.

Sho‘rlangan tuproqdagi tuzni kamaytirish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun birinchi galda uni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olib, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- sug‘orish tarmoqlarini va ulardagi gidrotexnika inshootlarini o‘z vaqtida va sifatli tozalash, ayniqsa ariqlarni va lotok tarmoqlarini qo‘lda har yili bahorda va kuzda hashar qilib tozalash;

- SIU va fermer xo‘jaliklarining suv olish quloqlarini suvni rostlash hamda hisob-kitobini yuritish vositalari bilan jihozlab, suv isrofgarchiligining oldini olish va oqilona foydalanishni tashkil qilish;
- shudgorlash va chuqur yumshatish, sho‘r yuvish va nam suv berish ishlarini qat’iy ravishda agrotexnika qoidalariga amal qilib, maqbul muddatlarda bajarish;
- qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish ishlarini sug‘orish rejimlariga qat’iy amal qilib, sharbat bilan sifatli amalga oshirish. Sug‘orishdan keyin kultivatsiya ishlarini o‘z vaqtida bajarish va hokazo.

Sho‘r yuvish usullari va texnologiyasi

Yerning sho‘rini yuvish uchun dala tuprog‘ining sho‘rlanishini baholashdan tashqari, yuvilgan suv qaerga chiqarib tashlanishini ham aniqlash zarur. Dalada sizot suvlarining sathi qanday? Ishlab turgan drenaj va kollektorlar mavjudmi? Suvni chiqarib tashlash ta’minlanmagan, sizot suvlari yuza (masalan 1 metrga yaqin) joylashgan holatda sho‘r yuvishni amalga oshirish tavsiya etilmaydi, chunki bu sho‘rlanish jarayonining chuqurlashuviga va botqoqlanishiga olib keladi. Sho‘r yuvishni sizot suvlari eng chuqur nuqtada bo‘lgan holatda ob-havo imkon berganda olib borish lozim. Sho‘r yuvish ishlari o‘simlikning ildiz qatlamida tuproqdagi yengil eruvchi tuzlarni kamaytirib, ekinlar urug‘larini to‘liq va tekis undirish hamda qishloq xo‘jalik ekinlarini normal rivojlanish imkoniyatini yaratadi. Ko‘p yillik tajribalar tuproqning sho‘rini pol olib yuvish eng asosiy texnologiya ekanligini ko‘rsatib, barcha viloyatlarda keng qo‘llanib, o‘zining yuqori samarasini bermoqda.

Sho‘r yuvish ishlarini sifatli amalga oshirish uchun sho‘r yuviladigan maydon dastlab g‘o‘zapoya yoki boshqa o‘simliklar qoldiqlaridan tozalanadi hamda kamida 35-40 sm chuqurlikda sifatli qilib chuqur shudgor qilinishi kerak.

Pollarning o‘lchamlari, maydonning nishabligiga qarab quyidagicha bo‘lishi tavsiya qilinadi

Dala nishabligi	Pol o‘lchamlari, (m)	Pol maydoni, (ga)
0,002	50x50	0,250
0,002-0,004	50x33	0,165
0,004-0,006	50x25	0,125
0,006-0,01	50x17	0,085

Ko‘rsatilgan o‘lchamlarga pol olish paytida qat’iy rioya etish ancha qiyin. Lekin chekning eng katta hajmi 0,5 gektardan oshib ketmasligiga harakat qilish kerak. Chunki, hajmi 0,4-0,5 gektardan ortiq bo‘lgan pollarda maydonning barcha qismida suvni bir tekisda ushlab turish mumkin bo‘lmaydi va natijada tuproqning sho‘rsizlanishi har xil bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, mikrochuqurliklar mavjudligi tufayli sho‘r yuvishdan keyin pol ichidagi tuproq bir tekis yuvilmaydi. Oqibatda ekin ekish oldidan amalga oshiriladigan baxorgi ishlar muddati cho‘zilib ketadi. Maydonlar bo‘laklarining jadvalda ko‘rsatilgan o‘lchami yerlarning birinchi sho‘rini yuvish uchun shart bo‘lib, ikkinchi va uchinchi sho‘r yuvilganda ayrim pollar qo‘l kuchi bilan pasaytiriladi va bo‘laklar maydon (0,5 gacha) kengaytirilib, suv quyiladi. Shunda pollar ostidagi va pollar uchun ishlatilgan tuproqlar sho‘ri yuvilmay qolishi holatining oldi olinadi.

Haydalgan dalalarda yer bo‘laklarining kattaligi 0,15-0,2 gektar va sho‘r yuvish normasi 2000-2500 m3 bo‘lishi uchun quyiladigan suv oqimining miqdori 40 l/s dan kam bo‘lmasligi kerak.

O‘rta sho‘rlangan yerlarni fevral-mart oylarida ham yuvish mumkin, ammo hududning zovur tarmoqlari bilan ta’minlanganligi holatida sho‘r yuvishni avvalroq boshlash maqsadga muvofiqdir, chunki kech boshlangan sho‘r yuvish, ekish vaqtida yerning “yetilmasligi” ga, namlikning oshib ketishiga olib keladi va tuproqqa ishlov berishga xalaqit beradi. Pol olishdan oldin maydon tekislagich bilan tekislanishi zarur.

Pol olish bilan bir vaqtning o‘zida o‘q-ariqlar (dala qiyaligining yuqori tomonidan) olinadi va har bir chekka suv dalaning quyi qismidan boshlab beriladi.

Dalani tayyorlashda, yerning yuzasi yaxshilab tekislanadi, o‘q-ariqlar, egatlar yoki pollar olinadi.

- Sho‘r yuvish ishlarini belgilangan muddatdan kechiktirilishi-ekish vaqtigacha yerning “yetilmasligi” ga ya’ni, namlikning belgilangan me’yordan baland bo‘lishiga olib keladi va tuproqqa ishlov berishga xalaqit beradi;

- Suvdan unumli foydalanish ya’ni, vegetatsiya davrida ekinlarni belgilangan me’yorda sug‘orish, sho‘r yuvishni belgilangan tartibda amalga oshirish hamda kollektorlarning turg‘un ishlashi natijasidagina yer osti sizot suvlarining miniralizatsiyasini pasaytirishimiz mumkin. Buning natijasida tuzlarning mavsumiy yig‘ilishini kamayishi ta’minlanadi;

- Bir yilda 1 gektar ekin maydoniga sug‘orishlar natijasida o‘rtacha 12,0-13,0 tn zararli tuzlar kiradi;

- Tuproqning shoʻrlanishi natijasida qishloq xoʻjaligi ekinlari hosildorligi kuchli shoʻrlangan maydonlarda 70-80 foiz, oʻrta shoʻrlangan maydonlarda 30-40 foiz, kuchsiz shoʻrlangan maydonlarda esa 10-15 foizga pasayib ketishi aniqlangan.

- Shuni yodda tutish kerak-ki, sugʻorishdan soʻng yer yuzasidan bugʻlanishi natijasida, tuproq namligining pasayishi va tarkibidagi tuzlarning konsentratsiyasi ortadi. Natijasida oʻsimlik ildiz tuganaklari tuproq tarkibidagi namlikni oʻzlashtira olmaydi. Bu esa xosildorlikning yoʻqotilishiga olib keladi, shuning uchun shoʻr yuvish va sugʻorish yoʻli bilan shoʻrlanishni yoʻqotilishiga xarakat qilishi kerak;

- Tuproqlarning shoʻrlanishini oldini olish uchun iloji boricha qishloq xoʻjaligi ekinlarini faqat sharbat usulida daryo suvi bilan sugʻorish lozim.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalardan amalda foydalanib, shoʻr yuvish tadbirlarini sifatli amalga oshirgan holda mavjud drenaj tarmoqlarini doimiy ishchi holatda boʻlishini ta'minlash - qishloq xoʻjaligi ekinlaridan kafolatlangan, yuqori hosil olish imkonini beradi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. Amu-Buxoro ITHB huzuridagi Melioprativ ekspeditsiya ma`lumotlar
6. Sh. Hakimov va I. Tursunov, T. Yoqubov// Buxoro viloyati sharoitida zamonaviy suvtejamkor sugʻorish texnologiyalarini qoʻllash (Buxoro viloyati Peshku tumani misolida)// jamiyat va innovatsiya, 2021
7. S. O`lmasov. Sh. Hakimov, Egamberdiev M. S.// Resistance of Concrete and Cement to Chemical and Aggressive Environments//3(12), 133-138. https://doi.org/10.31149//https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/2491

UO'T: 634.36: 632.7: 632

TUT PARVONASIGA QARSHI NOKIMYOVIY KURASH USULLARI

Mirzaeva Mutabar Azamovna *– Farg'ona politexnika instituti – q.x.f.n., dotsent*

Annotatsiya. Zararkunandalardan himoya qilishning agrotexnik usuli tut daraxtlarini himoya qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri mablag' sarflamagan holda, daraxtlarni bardoshli qilish yo'li bilan unga qarshi kurashish imkonini beradi. Buning uchun eng avval daraxtlarning yerga nisbatan bo'lgan
ehtiyojini qondirishdan iborat bo'ladi. Ya'ni ildiz atrofi o'tlardan toza bo'lishi, ildizi turgan
yerda ma'danli hamda organik o'g'itlar, namlik yetarli bo'lishi daraxtlar baquvvat o'sib, turli
shikastlarga hamda kasalliklarga chidamli bo'lishini ta'minlaydi.

Tayanch so'z va iboralar: tut parvonasi, agrotexnik kurash usuli,ildiz sistemasi,ma'danli
o'g'itlar, aldamchi belbog', kapalak, g'umbak,lichinka, daraxt po'stlog'i, insektitsid, qo'llash
muddati.

Tut parvonasiga qarshi nokimyoviy kurash usullari qatoriga: agrotexnik, mexanik hamda
biologik kurash va vositalari kiradi. Agrotexnik usuli tut daraxtlarini himoya qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri mablag' sarflamagan holda, daraxtlarni bardoshli qilish yo'li bilan unga qarshi kurashish imkonini beradi. Buning uchun eng avval daraxtlarning yerga nisbatan bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat bo'ladi. Ya'ni ildiz atrofi o'tlardan toza bo'lishi, ildizi turgan yerda ma'danli hamda organik o'g'itlar, namlik yetarli bo'lishi daraxtlar baquvvat o'sib, turli shikastlarga hamda kasalliklarga bardoshli bo'lishini ta'minlaydi.

Mexanik choralar qatoriga, qurigan novda va daraxtlarni kesib, yoqib yuborish; daraxt to'nka, ko'chgan po'stloq va g'ovaklarini tozalab tashlash hamda "aldamchi" belbog'larni ishlatish kiradi. Boshqa bargo'rovchi kapalaklarning (olma qurti va b.) qurtlari kabi TP qurtlari ham oziqlanib voyaga yetgach g'umbakka aylanish uchun daraxtning turli pana joylarida

(qisman bargning o'zida) g'umbakka aylanadi. Shu maqsadda qurtlarning asosiy qismi daraxt bo'ylab pastga qarab harakatlanadi va po'stloq osti va boshqa yerlarda maqsadiga erishadi. Yo'lida uchragan “aldamchi” belbog' ham yaxshi sharoit bo'lib, ichiga kirib g'umbaklanishini ta'minlaydi.

“Aldamchi” belbog' deb daraxtlarning yo'g'on novdalariga yoki asosiy shtambiga o'rab bog'lab
qo'yiladigan dag'al materialga aytiladi. Bu material turli bo'lishi mumkin (kanop, paxta, sun'iy materiallar). Eng zaruri belbog' ichiga qurt o'rmalab kirishiga imkon qoldirilgan bo'lishi kerak.

“Aldamchi” belbog' ishlatishning albatta bajarilishi lozim bo'lgan sharti bor. Bu ham bo'lsa – uning ostiga kirib g'umbakka aylanmoqchi bo'lgan qurt albatta o'ldirilishi lozim. Aks holda teskari samara ko'rishimiz mumkin, ya'ni qurt g'umbaklashib kapalak bemalol uchib chiqsa, zararkunanda yanada ko'p bo'lishi uchun sharoit yaratib bergan bo'lamiz. “Aldamchi” belbog'da qurtlarni o'ldirishning 3 usuli mavjud. Birida belbog'lar tez-tez (5-6 kunda bir) yechib olinib qaynoq suvga tiqib olinadi va yana qaytadan bog'lab qo'yiladi. Ikkinchisida insektitsid ishlatiladi. Bunda, 1,5-2 oyda bir marta belbog' yechib olinib, birorta samarali insektitsid eritmasiga botirib olinib, silqiganidan keyin qaytadan daraxt tanasiga bog'lab qo'yiladi. Bu usulda belbog' ostiga kirgan qurt insektitsid ta'siriga duchor bo'lib o'ladi va tabiiyki, kapalak uchib chiqmaydi.

Uchinchi usul, oldin J. Berdiev hamda SH.T. Xo'jaevlar (2000) tomonlaridan olma qurtiga qarshi tavsiya qilingan bo'lib, “aldamchi” belbog'ning takomillashtirilganidir. Bunda daraxt tanasiga
belbog' ustidan (yerdan 0,5-1 m balandlikda) maxsus, teshiklari 1,5-2 mm keladigan sim elak o'rab, ikki chekkasi qattiq qisilmasdan bog'lab qo'yiladi. Sim ichiga qurt g'umbakla-shishi uchun qulay mato o'rab qo'yiladi. Oqibatda, g'umbaklashish uchun sim elak ichiga kirgan qurt muvaffaqiyat bilan g'umbakka va keyin kapalakka aylanadi, ammo sim ichidan tashqariga uchib chiqa olmaydi. Masalaning 2-nchi va 3-nchi ijobiy tomonlari mavjud. Ya'ni, kapalakka qirg'in keltirishdan tashqari, qurt va g'umbak tanasida ku-shandalik qilgan turli mayda pardaqanotli entomofaglar (brakonid, ixneu-monid) bemalol tashqariga uchib chiqa oladi. Va uchinchisi, o'lgan kapalaklar soniga qarab
zararkunanda zurriyotini bashorat qilish imkoni tug'iladi.

Har uchchala usulni Farg'ona viloyatining Toshloq tuman xo'jaliklarida bir necha yillar davomida sinab ko'rdik. Olingan natijalarni

umumlashtirib aytishimiz mumkinki har uchchala usulda belbog'larni ishlatish daraxtlarni parvonadan, to'liq himoya qila olmaydi. Bu usulda tutlarni himoya qilish ma'lum mablag' va e'tiborni talab etib, u o'zini iqtisodiy oqlamasligi ham mumkin, ammo ayrim xo'jalik hovlisida joylashgan hamda manzarali daraxtlarni himoya qilishda qo'l keladi. U zararsizdir va kimyoviy himoyaga ehtiyoj qoldirmasligi ham mumkin.

Tabiiyki, tut parvonasi (TP) kushandalarining turlari hamda ular-ning samaradorligi tobora oshib boradi. Sababi, TP har bir agrobiotsenoz hamda biotopga kirib borishi, uning u yerda moslashuviga hamda mahalliy turlar bilan o'zaro oziqlanish zanjiriga a'zosi bo'lishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham, turning kirib kelishi qanchalik uzoq bo'lsa, shunchalik unga moslashgan turlar (entomofag hamda zoofaglar) ko'p bo'lib, samarasi ham oshadi (Jumanov, 1995; Niyazov, 1982). Bu borada bizlarning keyingi yillarda o'tkazgan nazoratlarimiz misol bo'la oladi. Andijon, Farg'ona hamda Surxondaryoda 2007-2009 va 2017-2018 yillarining avgust-sentyabr oylarida tanlab o'tkazgan nazoratlarimizdan ma'lum bo'ldiki, TP ancha oldin tarqalgan Surxondaryo viloyati mintaqasida uning kushandalari ko'proq tarqalib, samara berayapti. Misol uchun, brakon kushandasi tabiiy ravishda Farg'ona viloyatida 7-9%, Andijon viloyatida esa 9-13% qurtlarni zararlaganligi aniqlangan, Surxondaryo viloyatida esa 26-57% ni (Angor, Muzrobod tumanlari) tashkil qilgan. Pardaqanotli hasharotlardan ixneumonidlarning, oltinko'zning hamda arilarning (Vespidae oilasi) ham tarqalishi va samaradorligi Surxondaryoda yuqoriroqdir.

Bulardan tashqari, umurtqali hayvonlardan chumchuqlar ham bu viloyatda ko'proq tutlarga qo'nib, TP ning ashaddiy dushmaniga aylangan. Umuman olganda, hozir TP zichligiga entomofag hasharotlar hamda umurtqali hayvonlar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelajakda TP ixtisoslashgan kushandalari ham paydo bo'lib, ularning samaradorligiga odamzod ham hissa qo'shishi mumkin. Ammo, hozircha yuqorida keltirilgan ma'lumotning amaliy ahamiyati unchalik yuqori emas. Sababi,
TP zurriyotining kuchliligidir; uning ko'payish tezligi 4-5-6 avlodlarga borib shunchalik oshadiki, uni qaytarib olish juda mushkul bo'lib qoladi. Shuning uchun, biolaboratoriyalarda ko'paytirilayotgan trixogramma, brakon hamda oltinko'zning TP ga qarshi samarasi bor – yo'qligini chuqur o'rgandik. Bunda, laboratoriya sharoitlarida trixogramma (T.pintoi) 1:5 dan 1:20 gacha, hamda brakon 1:5 dan 1:30 gacha nisbatlarda bo'lganlarida 100% samara olindi.

Laboratoriya sharoitlarida olingan dalillarga ko'ra, amaliy tajriba o'tkazdik. 2008 yilning
avgust oyida (zararkunandaning 4-nchi avlodi rivoj-lanayotganda) 4 ta variantdan iborat dala tajribasi qo'yilib, unda mahalliy biolaboratoriyada ko'paytirilgan trixogramma 3 ta sarf-me'yorda (0,5; 0,7 va 1,0 g/ga) 3 martadan, variantga ajratilgan dalalarga tarqatildi. Har va-riantda dala atrofida yakka-yakka bo'lib joylashgan 160-170 tadan (0,5 gektar) daraxtlar mavjud edi.

Laboratoriya sharoitida yuqori samarani ta'minlagan trixogramma TP ga qarshi dala sharoitida
qoniqarli samara bera olmasligini ko'rsatdi. Zararkunandaning qurtlari soniga (zichligiga) qarab baho berilgan samarada eng qalin qilib 3 marta tarqatilgan kushanda (1,0 g/ga) 15 kun mobaynida 21-27% gacha biologik samara ko'rsatdi. Qurtlar zichligi nazorat varianti-dan uncha farq qilmadi. Shuning uchun olingan natijalarni qoniqarsiz deb topib, past bo'yli o'simliklarda tarqatish uchun mo'ljallangan trixogramma-ni tut daraxtlarida ishlatish mumkin emasligini aniqladik. Bu sohada daraxtlarda ishlatish uchun mo'ljallangan sariq trixogramma bilan izlanishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'lsa kerak (Dyachenko, Frantsevich, 1978).

Hozirgi davrda TP ga qarshi tabiiy vositalar yordamida biologik kurashning sarkardasi brakon (Bracon hebetor Say) bo'lsa kerak, chunki, birinchidan, tabiiy sharoitda TP qurtlari eng ko'p
shu kushanda bilan zararlanganligi bo'lsa, ikkinchidan, bu quyida izohlanadigan maxsus tadqiqotlarimizda o'z ifodasini topdi. Qolaversa, bu haqda boshqa tadqiqotchilar ham xabar berishgan (Irisboev va b., 2001).

2009 yilda O’zbekiston o’simliklarni himoya qilish ilmiy tadqiqot instituti Qo'qon tayanch punktining dala atroflarida joylashgan tutlarda amaliy tajriba o'tkazilib, u yerda brakon kushandasini 1:5; 1:10 va 1:15 nisbatda tut daraxtlariga tarqatib sinov o'tkazdik. Tajriba avgust oyida, zararkunandaning 4 nchi avlodi shiddatli rivojlanayotgan davrda o'tkazildi.

TPqurti ustida tekinxo'rlik qilayotgan brakon lichinkalari

Natijalardan xulosa qilsa bo'ladiki, biolaboratoriyalarda ko'paytirilgan brakon kushandasi amaliy ishlatilganda TP ga qarshi qoniqarli samara olsa bo'ladi. Ishlatishda kushandaning sarf-me'yori TP qurtlarini oldindan sanab aniqlab olishga bog'liq bo'lib, har avlodiga qarshi 3 marta 1:5; 1:10 va 1:15 nisbatda (5 kun oralatib) yoki 2 marta: 1:5 va 1:10 nisbatda (10 kun oralatib) ishlatsa bo'ladi. Har ikkala usulda ham brakon yordamida himoya qilinganida olinadigan samara zararkunanda zichligiga bog'liq bo'lib, u kuchli rivojlangan bo'lsa, to'la qoniqarli samara olib bo'lmaydi. Zararkunandaning zichligi nazoratga nisbatan past bo'lsa ham, u daraxt uchun xavfli darajada bo'lib qolaveradi. Aksari, TP oldingi avlodlari kam sonli bo'lib rivojlanayotgan paytlarda ishlatilgan brakon, zararkunanda soni yanada ozroq bo'lishini ta'minlab, 4-5 avlodlarida kimyoviy kurashga ehtiyoj qoldirmasligi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda, brakon kushandasini TP ga qarshi ishlatishni zararkunandaning IV-V avlodlari rivojlanayotgan paytlarda emas, balki II-III avlodlari rivojla-nayotgan paytlardan boshlash kerak. Bunda TP ning rivojlanish tezligi susayib, IV-V-VI avlodlarga borib kuchaymaydi, maxsus himoya ishlovlariga extiyoj qolmaydi.

Adabiyotlar

1. Бердиев Ж.Х. Усовершенствование мер борьби против яблонной плодожорки и минируюших молей на примере Кашкадаръинской области /Автореф. канд. дисс. по спетс. 06.01.11 – зашита растений от вредителей и болезней. – Ташкент: УзНИИЗР, 2000. – 21 с.

2. Дядечко Н.П., Франтсевич Л.А. Применение местной формы жёлтой трихограмми в боръбе с яблонной и восточной плодожорками в условиях степной зони Украини /Тр. Укр. СХИ, 1978. - №209. – С. 8-11.

3. Жуманов Б.Ж. Биоекологические и агротехнические основи исполъзования природних энтомофагов в интегрированной зашите кулътур хлопкового комплекса от вредителей. – Автореф. док. дисс. – Ташкент, 1995. – 51 с.
4. Xo'jaev SH.T., Mirzaeva M. Tutqator - g'o'za agrobiotsenozining davomi /Halqaro ilmiy-amaliy konf. – Toshkent: UzPITI (2-3.XII.2010 y.).

AGROEKOTIZIMLARNI EKOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH ASOSIY YO'LLARI

Farg'ona politexnika instituti "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi kafedrasi dotsenti, t.f.n. ***X.M.Shodmonov****., talaba* ***D.D.Abdullayev****., Shodmonovxomidjon1946@gmail.com*

Annotasiya. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini zararli moddalar bilan ifloslanish sabablari, asosiy manbalari, xavfli kimyoviy ifloslovchi moddalar, ularning oziq-ovqat mahsulotidagi konsentrasiyasini meьyorlash va ekologik toza mahsulot olishning asosiy yo'llari shuningdek zamonaviy biotexnologiyaning yutuqlaridan foydalanish xaqida bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: toksikologik, agroekotizimlar, meliorant, pestisid, og'ir metallar, konsentrasiya, neytral, gumus, mikrobiologik, kimyoviy element, kompost, biogumus.

MAIN WAYS TO ENSURE ENVIRONMENTAL SAFETY OF AGROECOSYSTEMS

Fergana Polytechnic Institute, Associate Professor of "Technology of storage and primary processing of agricultural products, Ph.D. ***X.M. Shodmonov****., student* ***D.D.Abdullayev****., Shodmonovxomidjon1946@gmail.com*

Annotation. The article provides information about the causes of contamination of agricultural products with harmful substances, the main sources, dangerous polluting chemicals, the regulation of their concentration in food products and the main ways to obtain environmentally friendly products.

Key words: toxicological, agroecosystems, ameliorant, pesticide, heavy metals, concentration, neutral, humus, microbiological, chemical element, compost, biohumus.

Qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy muhitda barqaror, sifatli biologik mahsulot ishlab chiqarishda agroekotizimlarning tabiiy bioenergetik potensialidan foydalanish, agrar sektorning boyliklar bazasini muhofaza qilish, uni tiklash, kuchaytirish, ekologik toza mahsulot olish choralarini yoritish va agrar muhit sofligini saqlash, uni ifloslanishini oldini olishdan iborat.

Agroekotizimlarni ekologiyalashtirishning bosh vazifasi dehqonchilikda yetishtirilayotgan mahsulotlarning ekologik zararsizligi, ya’ni qishloq xo‘jalik mahsulotlarining insonlar salomatligi uchun zararsiz va xavfsiz bo‘lishini taьminlashdan iborat. Ekologik sof mahsulotlar qayta ishlanayotgan vaqtda ham umumiy gigiyena, texnologik va toksikologik me’yorlarga to‘la javob berib, insonlar va hayvonlar hayotiga hamda atrof muhitga xavf solmasligi kerak.

Qishloq xo‘jalik ekinlari hosili va chorvachilik mahsulotlarining ifloslanishi agroekotizimlarni ekologotoksikologik holatiga bog‘liqdir. Ayniqsa, yerlarni tinimsiz kimyolashtirish (ortiqcha o‘g‘itlar, pestisidlar, meliorantlar berish) natijasida tuproq va tuproq qoplamining ekologik-biologik holati buziladi. Bunga qo‘shimcha sanoat, transport va xo‘jalik chiqindilari ham agrotizimlarni turli zaharli kimyoviy elementlar va polixlor bifenillar, oltingugurt hamda og‘ir metallar bilan ifloslanishiga olib keladi.

Muhitni ifloslovchi kimyoviy moddalar ichida eng xavflisi og‘ir metallar bo‘lib, ularga qo‘rg‘oshin, simob, kadmiy, mishyak, rux, nikel kabilar kirib, muhitga tushgan ushbu elementlarning 90 % i tuproqda to‘planadi va undan suv, o‘simlik, hayvon va boshqa ozuqa xalqalari orqali insonga o‘tadi va shu yerda yig‘iladi.

Texnogen omillar hisoblanmish Pb, Hg, Cd, As, Zn kabi og‘ir metallar muhitda to‘planib, biotopdagi organizmlarning fiziologik jarayonlarida salbiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, o‘sish va rivojlanishni sekinlashtiradi.

Ana shular sababli qishloq xo‘jaligida og‘ir metallar miqdorini tuproqda, o‘simlik va uning hosilida me’yorlash eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Agroekotizimlarda yetishtiriladigan ozuqa mahsulotlarida toksik elementlar konsentrasiyasini me’yorlash, ular miqdorini oziq-ovqat tarkibida kamaytirish inson salomatligini saqlash borasidagi birdan-bir yo‘ldir. Shu sababli ozuqa mahsulotlari va yem-xashakning sifatini baholash, ularni inson va chorva mollari uchun zararsizligini aniqlashda ruxsat etilgan konsentrasiya (REK) yoki ruxsat etilgan qoldiqlar miqdori (REQM) yoxud maksimal ruxsat etilgan daraja (MRED) me’yorlari orqali amalga oshiriladi.

Agroekotizimlarni ekologik himoyalanishini ta’minlashda tizimdagi mavjud zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlar ta’siridan kelib chiqadigan noqulay sharoitlardan qutilish uchun qo‘llaniladigan uslublar har hil va tabiiy sog‘lom muhit voqeliklariga juda yaqin bo‘lishi kerak. Bu uslublar majmuaviy chora-tadbirlar bo‘lib, ular agrotexnika, agrokimyo, agrobiologiya, biokologiya, karantin, mexanik, seleksiya va urug‘ tanlash kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi va ma’lum xududning yer tuzilishi, tuproq-iqlim kabi sharoitlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Masalan, qishloq xo‘jalik zararkunandalariga qarshi biologik uslubni qo‘llashda foydali xasharotlar va kanalar – entomofaglar, yirtqich sifatida zararli xasharotlarning yosh vakillari, tuxumlari bilan oziqlanib, ularning ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi Bu sohada xonqizi, oltinko‘z, jujelisalar, pashsha, chumolilar, trixogrammalar, brakonidlar, telenomuslar, ekkarziya kabi pashshalar keng qo‘llaniladi.

O‘simliklarni turli zararkunandalardan saqlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish borasida keng ko‘lamda ishlar olib borilmoqda. Jumladan, xasharotlarning o‘zgarish va ko‘payish jarayonlarini boshqaradigan gormonlar sintez qilindi. Bu biologik faol moddalar havoda tez tarqalish qobiliyatiga ega bo‘lib, xasharotlarnin ko‘payish joylari, tuxum va tuxum qo‘yuvchi formalarini tez nobud qiladi.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini zararkunandalardan himoya qilishda imkoni bo‘lgan hamma majmuaviy (kimyoviy, biologik, biosenotik,

agrotexnik, mexanik va ju jumladan, mahalliy dehqonlar qo‘llaydigan) uslublarni qo‘llash kerak va jarayonlarda kam xarajat qilib, yuqori va sifatli hosil olishga erishish mumkin.

Agroekotizimlarda toza ekologik mahsulot yetishtirish uchun agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va yuqori talab darajasida o‘tkazish va agrokimyoviy vositalardan to‘g‘ri foydalanish talab etiladi. Ya’ni, ilmiy tavsiyalarga asoslangan holda tuproqqa ishlov berish, sifatli urug‘ni o‘z vaqtida ekish, belgilangan me’yorda mineral va organik o‘g‘itlar berish, vaqtida biologik uslublarni qo‘llash, yerlarni sho‘rini yuvish, ohaklash, ekinlarni o‘z vaqtida sug‘orish kabi amaliy ishlarni amalga oshirish bilan turli zararli kimyoviy elementlarning tuproqda to‘planishi, undan o‘simlikka, uning hosiliga o‘tishi kamayadi va insonga ekologik toza ozuqa mahsuloti yetib keladi, inson salomatligi uchun xavfi kamayib boradi.

Tuproqqa ishlov berish yo‘li bilan inson uning zahiralaridan o‘ziga kerakli ozuqa mahsulotlarini tayyorlab oladi. Bu mahsulotlarning ekologik tozaligi tuproq tarkibidagi gumusning ekologik-biologik holatiga va miqdoriga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Ya’ni, gumus so‘rish, shimish qobiliyatiga ega bo‘lganligi tufayli og‘ir va zaharli moddalar bilan birikmalar hosil qilib, ularning dehqonchilik mahsulotlariga o‘tishini chegaralaydi. Masalan. Tuproqdagi gumin kislotalari o‘z tarkibida 4 % gumus tutadi, shu gumus 1 gektar maydonda 17929 kg temir, 4500 kg qo‘rg‘oshin, 1517 kg mis, 1012 kg rux, 913 kg marganes kabi kimyoviy elementlar bilan birikmalar hosil qilib, uning zararsizlanishiga sabab bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligida ekologik toza, xavfsiz mahsulot yetishtirishda tuproq eritmasi kam nordon, kam ishqor, neytralga yaqin bo‘lishida toksikantlarning o‘simliklar orqali mahsulotga o‘tishi kam bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, tuproqda ortiqcha namlik va tuproqning zichligi yuqori (0,6-1,0 dan1,3-1,8 g/sm^3) bo‘lsa, undagi harakatchan metallarning tuproqdan o‘simlikka o‘tishi tezlashadi, mahsulot ifloslanadi, sifati past, ekologik toza bo‘lmaydi.

Shunday qilib, tuproqda gumus miqdorini oshirish, muhitni neytral holda saqlash, tuproq donadorligini (strukturasini) ta’minlash kabi

tadbirlar ekologik toza mahsulot olishni kafolatlovchi asoslaridir. Bularning negizida maxsus kimyoviy, fizikaviy, biologik va agrotexnik uslublar yotadi, ya'ni, tuproqni ohaklash, kaliy o'g'iti va boshqa vositalardan me'yorda foydalanish, ushbu jarayonda:

-qishloq xo'jalik ekinlariga tuproqdan og'ir metallar, radioaktiv elementlarni kam yoki umuman o'tmaydigan muhitni (pH=6-6,5) tashkil qilish.

-tuproq eritmasida antagonist elementlarning yuqori konsentrasiyasi (kaliy, fosfor, kalsiy va boshqalar) ni hosil qilish bilan o'simlikka o'tadigan toksikantlar miqdorini kamaytirish.

-tuproqdagi kimyoviy reaksiyalarni boshqarish yo'li bilan toksikantlarning xavfli formalarini xavfsiz formalarga aylantirish imkonini yaratish kabi yondoshishlar ekologik toza mahsulot olishga imkon beradi.

Yana muhim masala: agroekotizimlarda ekologik toza mahsulot olish uchun biotexnologiyaning yutuqlaridan foydalanishda: mikrobiologik o'g'itni qo'llash, xo'jalik chiqindilarini sanoatda qayta ishlashdan keyin qo'llash, chorvachilik chiqindilaridan kompost qilish texnologiyasini ishlab chiqish va ekologik toza organik o'g'it (biogumus) olish, ulardan ekin maydonlarida foydalanish bilan tuproqning biologik xususiyatlarini tiklash, hosildorligini oshirish, yuqori va ekologik xavfsiz mahsulot olishdan iborat. Masalan, kompost o'g'itlar 1 ga yerga kerakli miqdori vegetasiya davrida ishlatilganda, ishlab chiqarish rentabelligi 13-25 % ga oshadi, 50-60 kg mineral o'g'it tejaladi, sabzavot ekinlari hosili 10-20 t/ga, don ekinlari 0,5-0,8 t, kartoshka hosili 1,5-2,0 t/ga oshadi, mahsulot ekologik tozaligi xavfsizligi ta'minlanadi**.**

Shunday qilib, har bir ekin turi bo'yicha barcha agrotexnik tadbirlarni yuqori talab darajasida amalga oshirish, agrokimyoviy vositalardan ilmiy asoslangan tavsiyalarga binoan to'g'ri foydalanish, shuningdek zamonaviy biotexnologiyaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish ekologik toza mahsulot olishning kafolatlovchi garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev A., Ergashev T. Agroekologiya. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006.
2. Nazarov M.N. Dexqonchilikda sof ekologik mahsulot yetishtirish.

Farg‘ona 2000 y.
3. Azimboyev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2006.
Internet ma’lumotlari:
4. www.ekosan.uz
5. www.agrokultural.com

Kolmatajlangan tuproqlarda ekologik toza sarimsoqpiyoz yetishtirish imkoniyatlari.

G‘ulomjon Yuldashev-q.x.f.d., professor, FarDU, tel:(998)99-407-48-56, E-mail: gulyam48@mail.ru
Sotiboldiyeva Go‘zalxon Tolibjonovna-b.f.f.d.(PhD), FarDU, tel: (998)93-731-82-15, E-mail: guzalkhon85@mail.ru
Ismoilova Layloxon Azimjon qizi-magistrant, FarDU, tel:(998)90-179-55-71, E-mail: abdullayeva.laylo1997@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sarimsoqpiyozning bir qator xususiyatlari va sug‘oriladigan kolmatajlangan tuproqlarda yetishtirishning afzalliklari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tuproq, kolmataj, sarimsoqpiyoz, ekologik toza, oziq-ovqat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 oktabrdagi PQ-4863-son “Sarimsoqpiyoz hamda to‘qsonbosti usulda sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishni ko‘paytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida sarimsoqpiyoz yetishtirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va ekologik toza eksportbop sabzavot hajmini ko‘paytirish ko‘zda tutilgan [1].

Hech kimga sir emaski bugungi kunda inson salomatligi bilan bog‘liq kasalliklar turi va soni ortib bormoqda. Kasalliklar bilan kurashishda immunitet asosiy vazifani bajarar ekan, uni kuchaytirish uchun iste’mol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarimizga e’tibor qilishimiz zarur. Bu jarayonda su’niy ishlab chiqarilgan dorilardan ko‘ra tabiiy immunitetni oshiradigan maxsulotlar afzaldir. Shunday mahsulotlardan biri

sarimsoqpiyoz bo‘lib, tarkibida uglevodlar (10,5-21 %), oqsillar (36,7 %), efir moylari (150 mg/kg), vitaminlar (piyozida 70 mg/kg, yashil bargida 15 mg/kg), undan tashqari kaliy, marganets, magniy, molibden, kalsiy, fosfor, yod, mishyak tuzlari, inson salomatligi uchun foydali oltingugurt birikmalari, xavfli o‘simtalarga qarshi yaxshi samara beradigan germaniy va selen kabi mikroelementlari mavjud [2.: -44 b].

Sarimsoqpiyoz tarkibida fitonsidlar-bakteritsid (mikroorganizmlarga xalokatli ta’sir ko‘rsatuvchi) uchuvchi efir birikmalari mavjud [3.:-186 s].

Sarimsoqpiyoz piyozdoshlar oilasiga mansub bo‘lib, uning bir qancha navlari mavjud. Misol qilib, Mayiskiy, Dushanbinskiy, Bryanskiy va boshka bir qancha navlarini keltirishimiz mumkin.

O‘zbekiston sharoitida sarimsoqdan yuqori sifatli hosil olish uchun navlarni to‘g‘ri tanlash – mo‘l hosil yetishtirish garovi. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jaligi ekinlaridan davlat reyestriga kiritilgan sarimsoq navlarining tavsifi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan [4].

Sarimsoqpiyoz navlari

1-jadval

Navning nomi	O‘suv davri, kun	Pishib yetilishi	Piyozboshning o‘rtacha vazni, g.	Piyozbosh shakli	Piyozbosh rangi	Saqlanishi
Yujno-fioletoviy	90-94	kechpishar	23-25	yassi yumaloq	siyohrang	yaxshi saqlanadi
Chidamli	95-100	ertapishar	15-18	yassi yumaloq	oq, sarg‘ish	yaxshi saqlanadi
Mayskiy VIR	99-103	ertapishar	18-20	Yumaloq	oq	yaxshi saqlanadi

Sarimsoq o‘simligi mexanik tarkibi o‘rta va yengil qumoq, unumdorligi yaxshi, sho‘rlanmagan, sizot suvlari nisbatan chuqurda

bo‘lgan tuproqlarda yuqori hosil beradi. Sarimsoqpiyoz netral va kuchsiz ishqoriy muhitda, ya’ni rN=6,5-7,9 bo‘lgan karbonatli tuproqlarda yaxshi o‘sib, rivojlanishi sababli kolmatajlangan tuproqlarga ekilganda yuqori hosil olish mumkin. Kolmatajlangan tuproqlar esa karbonatlarga boy, gips va epsomitga esa kambag‘al, sho‘rlanmagan bu holat 2-jadvalda o‘z ifodasini topgan.

2-jadval

Kolmatajlangan tuproqlarda kalsiy, magniy karbonatlari va sulfatlari, %.

Kesma t/r, tuproqlari	Chuqurligi, sm	CO_2	$CaCO_3$	$MgCO_3$	$CaSO_4 \cdot 2H_2O$	$MgSO_4 \cdot 7H_2O$
So‘x daryosini konus yoyilmasida tosh-shag‘allar ustida shakllangan tuproqlar.						
1g - Eskidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z	0-36	7,10	4,20	2,12	0,120	0,011
	36-45	8,11	5,30	2,71	0,110	0,013
	45-66	8,16	5,20	2,68	0,120	0,012
	66-100	8,11	5,15	2,61	0,130	0,015
Isfayramsoy konus yoyilmasida tosh-shag‘allar ustida shakllangan tuproqlar.						
4g - Eskidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z	0-22	8,20	5,30	3,01	0,140	0,020
	22-33	9,11	6,15	3,16	0,135	0,030
	33-56	9,20	6,20	3,17	0,140	0,030
	56-80	9,20	6,20	3,21	0,140	0,031

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, umumiy karbonatlar, ya’ni CO2 miqdori tadqiqotga tortilgan tuproqlarda 7,1-9,3% atrofida tebranadi, lekin So‘x daryosi konusi va konus yoyilmasida shakllangan tuproqlarga nisbatan Isfayramsoy sohillari va konus yoyilmasi tuproqlari CO2 ga nisbatan boyroq.

Ma’lumotlaridan yana shu narsa ko‘zga tashlanadiki, sug‘oriladigan madaniylashgan va tuproq tiplari ham bir xil bo‘lganligi bois korbonatlar ushbu tuproqlarda deyarli bir xil miqdorda tarqalgan. CaCO3 va MgCO3 larning profil bo‘yicha taqsimlanishi ham CO2 ni differensiatsiyasini nisbatan 4g kesmaga nisbatan 1g kesmada kamaygan miqdorlarda qaytaradi. CaCO3 ga nisbatan MgCO3 deyarli ikki barobar atrofida kam ekanligi ham diqqatga sazovor. Kutilgandek, ushbu tuproqlarda gips deyarli yo‘q yoki juda kam miqdorlarni, ya’ni 0,110-0,150% ni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkichlardan ham deyarli 10 barobar kam miqdorda

epsomit differensiatsiyalanadi, bu holatlar ushbu tuproqlarni sho‘rlanmaganligidan dalolat beradi[5.:-40-50 b]. Bu esa sarimsoqpiyoz yetishtirish uchun tuproqlarga qo‘yiladigan talablardan biridir.

Sarimsoqpiyoz uchun kerakli asosiy makroelementlar azot, fosfor, kaliy bo‘lsada, uning unib rivojlvnishida biomikroelementlar mis, rux, marganets, bor va molibdenni ham ahamiyati katta. Bu biomikroelementlar kimyoviy tarkibini yaxshilaydi, piyoz yetilishini tezlashtiradi va hosildorlikni oshiradi. Bu borada sarimsoqpiyoz yetishtirish uchun kolmatajlangan tuproqlar biomikroelementlarga boyligi bilan boshka tuproqlarga qaraganda ancha qulay hisoblanadi.

3-jadval

Biomikroelementlarning kolmatajlangan tuproqlardagi o‘zgarishi

Kesma t/r, tuproqlari	Chuqurligi, sm	n	Yalpi, mg/kg					Harakanchan, mg/kg				
			Cu	Zn	Mn	B	Mo	Cu	Zn	Mn	B	Mo
So‘x konus yoyilmasida tosh-shag‘allar ustida shakllangan tuproqlar.												
1g – Eskidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z	0-36 36-45 45-66 66-100	7 7 7 7	24,2 28,8 31,6 7,4	107 130 101 86	610 600 540 510	63,1 65,4 66,4 15,0	2,6 2,6 2,4 1,4	2,3 2,4 2,2 0,41	1,61 1,51 1,35 0,91	187,3 143,4 133,4 116,0	0,31 0,23 0,21 0,13	0,25 0,28 0,24 0,21
Isfayram konus yoyilmasida tosh-shag‘allar ustida shakllangan tuproqlar.												
4g – Eskidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z	0-22 22-33 33-56 56-80	7 7 7 4	18,4 20,2 21,4 6,8	80,2 77,0 73,0 81,9	420 400 420 480	53,1 55,6 56,1 14,0	1,4 1,5 1,5 3,9	2,1 2,0 2,2 0,51	2,11 2,02 2,10 0,67	191,0 187,1 167,3 87,0	1,30 0,87 0,41 0,18	0,27 0,26 0,24 0,19
Litosfera klarki, mg/kg			47	83	1000	12	1,1	47	83	1000	12	1,1

Jadvaldan koʻradigan boʻlsak, misning harakatchan miqdori bu tuproqlarda deyarli bir xil boʻlib, 1,8-2,4 mg/kg ni tashkil qiladi va taʼminlanganlik tasnifiga koʻra toʻyingan provinsiyalarga kiradi, demak ushbu tuproqlarda qoʻshimcha Cu++ yaxshi samara bermaydi. Ikkita daryoning konus yoyilmasida shakllangan kolmatajlangan tuproqlarda ruh, marganets, bor, molibdenlarning kolmatajlangan, sugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlardagi differensiatsiyalarida umumiy oʻxshashlik va kichik farqlar mavjud. Umumiy oʻxshashliklari ularni Soʻx daryosi sohillari va konus yoyilmalaridagi tuproqlarda miqdorlarini nisbatan, yaʼni Isfayramsoy sohillari va konus yoyilmasi tuproqlaridagi miqdorlari koʻpligi boʻlsa, farqi bir birlaridan miqdoriy emasligida. Bu holatni yalpi miqdorlarining haydov qatlamlari va onalik jinslarida kimyoviy formulada koʻradigan boʻlsak, quyidagicha koʻrinishni oldi.

1g kesma Ah Mn>Zn>B>Cu>Mo, yaʼni agar Mn miqdori 610 mg/kg ni tashkil qilsa, Mo 3,6 mg/kg ni tashkil qiladi. Ushbu ketma-ketlik qonuniyati tuproq qatlamlarida va onalik jinslarda saqlanadi, yaʼni hamma holatda eng koʻp miqdor Mn ga, eng kam miqdor Mo ga toʻgʻri keladi.

Qatlam boʻylab differensiatsiyasida ham katta oʻzgarishlar, yaʼni yaqqol akkumulyatsiya yoki differensiatsiya holati yoʻq. B va Mo da onalik jinslarida tuproqqa nisbatan keskin farqlarni koʻrish mumkin. Bu holatlar ham mis elementi borasida aytilganidek qator omillar bilan bogʻliq.

Harakatchan miqdorlariga kelsak, ular ham yalpi miqdorlarini bir qator xossalarini, jumladan qatlamlar orasidagi farqni kamligini koʻrsatadi.

Xususan, Isfayramsoy bilan bogʻliq tuproqlarni ushbu mikroelementlarni harakatchan qismga boyligi oʻz ifodasini topgan.

Ushbu elementlar, yaʼni Zn, Mn, B, Mo larning harakatchan miqdorlari bilan taʼminlanganligiga kelsak, ruh bilan haydov va haydov osti qatlamlari meyorida taʼminlangan.

Mn bilan taʼminlanganlik haydov qatlamlarida toʻyingan provinsiya darajasida, keyingi qatlamlar yuqori darjada taʼminlangan.

V mikroelementi bilan och tusli boʻz tuproqlar (1g), 4g kesmalarining haydov qatlamlarida bu koʻrsatkich meyoridagiga toʻgʻri keladi. Bor bilan bogʻliq bu xususiyatlar, yaʼni yetarli emas va qisman meyorida koʻrsatkichlar bu tuproqlar uchun xos, chunki ular shoʻrlanmagan. Nisbatan Isfayramsoy tuproqlarida koʻpligi bu yuqorida qayd etilganidek, kolmataj mahsulotlari bilan bogʻliq.

Umumiy holatga kelsak, Cu, Zn, Mn, B, Mo larning miqdori qayd etilganidek kesma bo‘ylab kuchsiz diffirensiatsiyalangan. Bu holat tuproq bilan hamda kolmataj mahsulotlari bilan va ekilgan ekin turlari bilan bog‘liq.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, sarimsoqpiyoz yetishtirish uchun kolmatajlangan tuproqlar o‘zining kimyoaiy, mexanik tarkibi, biomikroelementlarga boyligi, ekomeliorativ holatining yaxshiliga va boshqa bir qancha xususiyatlari bilan mikroelementlarga boy ekologik toza mahsulot yetishtirib, yuqori hosil olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sarimsoqpiyoz hamda to‘qsonbosti usulda sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishni ko‘paytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 15 oktabrdagi PQ-4863-son qarori.
2. Ayupov.R.X. Sarimsoq yetishtirish va undan foydalanish.-T.: Iqtisod-Moliya, 2011:-44 b
3. Н.П.Родников, Н.А.Смирнов, Я.Х.Пантиелев Овощеводство.-Москва “Колос”, 1984.-186 с
4. **https://www.agrobank.uz/upload_files/documentation_file/6088f85297e45.pdf**
5. G‘.Yuldashev, G.Sotiboldiyeva, M.Isag‘aliyev “Kolmatajlangan tuproqlar geokimyosi va xaritalash” monografiya-Farg‘ona: 2020. 40-50 s

УДК 631.152

КОМПЛЕКСНЫЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ - ПЕРСПЕКТИВНАЯ ОБЛАСТЬ ИССЛЕДОВАНИЙ АГРОЭКОСИСТЕМ

Уварова Анна Георгиевна,

к.т.н, доцент, заведующий кафедрой стандартизации и оборудования перерабатывающих производств

e-mail: a.g.uvarova@yandex.ru

ФГБОУ ВО Курская государственная сельскохозяйственная академия имени И.И.Иванова, г.Курск, Россия

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы применения экосистемных подходов к сельскохозяйственному

Yer resurslarini takror ishlab chiqarish ikki taraflama iqtisodiy ahamiyatga ega. Birinchidan, bu – yer resurslarining takror ishlab chiqarilishi uchun sarflanadigan mablag' va takror ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini takror ishlab chiqarish maxsus tadbirlarning muntazam va tez-tez amalga oshirilishini talab etadi, bu esa katta miqdordagi mablag' sarflanishi va uning samaradorligini baholash zarurati bilan bog'liq. Yangi yerlarni o'zlashtirish ham uzoq muddatli kapital xarajatlarni talab etadi.

Ishlab chiqarishning qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan sohasida yerlarni takror ishlab chiqarish qisqa muddatli bo'lishiga qaramay, sezilarli sarfxarajatlarni talab etadi

Qishloq xo'jaligi korxonasi uchun yer resurslarining ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi, chunki u qo'shimcha qiymatning katta qismini ta'minlaydigan va korxona rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan yerdir. Shuning uchun yer resurslaridan oqilona foydalanish har bir korxona uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, raqobat kurashida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ratsional foydalanish kontseptsiyasi ham ekinlardan maksimal hosil olish chora-tadbirlarini, ham malakali va unumdorroq mehnatni hamda fan-texnika taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan foydalanishni o'z ichiga olishi kerak.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining natijalari nafaqat yerning kattaligi va joylashishiga, balki asosan yerdan foydalanish samaradorligiga ham bog'liq.

Yerdan foydalanish uchun haq to'lash tamoyili yer solig'i, ijara haqi, yer maydonlarini qaytarib olishda ko'rilgan zararlar uchun tovon puli, mulk, 27 ijara va egalik huquqini garovga qo'yib kredit olish, umrbod avloddanavlodga merosga o'tuvchi yer egaligi huquqining narxi, yerning kadastr qiymati, bozor narxi va me'yoriy qiymati, yer uchastkasini xususiylashtirish kabilar ham yer munosabatlarini ifodalovchi o'ziga xos shakl hisoblanadi

Tatqiqot metodi. Yerdan foydalanish sohasida vujudga kelgan amaliyotning kamchiliklari keltirib chiqargan ekologik muammolar tuguni faqat mamlakat qishloq xo'jaligini izchil suratida isloh qilgan taqdirdagina yechilishi mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligining o'zini ham, dehqon va qishloq aholisining yashash muhitini ham sog'lomlashtirish uchun ekinlarni almashlab ekiladigan turlarini ko'paytirishga o'tish (bedazorlar va boshqa o'tzorlarni kengaytirgan holda) muhim ahamiyatga ega. Mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlashishi va uning eksport imkoniyatlarinioshib borishi buning uchun yaxshi sharoitlar yaratadi.

Bunda quyidagilar asosiy o'rinni egallashi kerak; qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishni yaxshilash, qishloq hujalik ishlab chiqarishi tarkibini qayta ko'rib chiqish, yaylov yerlaridanfoydalanishni yaxshilash, samaradorligini oshirish yerni sho'rlanishini bartaraf etish va boshqalar.

Tatqiqot metodi yer resurslaridan foydalanish jarayonida iqtisodiy qonunular hamda tahlillar asosida olib borilgan.

Natijalar. Yerdan foydalanishn, uni asrash, muhofazalash sohasidagi ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va o'tmish davr asoratlarini bartaraf etishning asosiy yunalishlari qo'yidagilardan iborat sanaladi:

- Zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish.
- Zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish.
- Ekin zararkunandalariga qarshi kurashishda biologik usullardan keng foydalanish.
- Sug'orish suvidan me'yoridan ortiqcha foydalanish oqibatida ikkilamchi sho'rlanishining avj olishiga qarshi kurash tadbirlarini amalga oshirish.
- Tuproqlar erroziyasiga qarshi kurashish.
- Erdan foydalanishni oqilona tejab tergab foydalanishning intensiv yo'liga o'tish.
- Erdan foydalanishda iqtisodiy rag'batlantirish, ifloslantirganlik uchun solinadigan maxsus soliqlardan keng foydalanish.

Yer mulk salohiyatidan samarali foydalanishning muhim yo'nalishlarini tanlash murakkab jarayon bo'lib, tarmoqlararo va tarmoq ichidagi ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlanishini belgilab beruvchi shart-sharoit hamda omillarga bog'liq. Tarmoqlararo yer taqsimotida shu majmua uchun tegishli rivojlanish bosqichida ijtimoiy – iqtisodiy maqsadni tanlash asos bo'lib hisoblanadi. Demak, tarmoqlararo yer taqsimoti muammosiga davlat miq'yosidagi maqsad yo'nalishlarga va alohida olingan tarmoq oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda asosiy bo'g'in va belgilovchi omil sifatida qaramoq kerak. Biroq mamlakatning moddiy resurslarining va davlat byudjetining shakllanishi va ularning tarmoqlararo taqsimoti ham yer mulk salohiyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa. Yer maydoni birligiga to'g'ri keladigan milliy daromadni orttirishga quyidagi sabablar to'skinlik qilmoqda:

- xalq xo'jalik majmuida ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini amalda qo'llash, fan-texnika taraqqiyoti, yangi texnika va texnologiyani joriy etish ishlari davlat qo'mitalari o'rtasida tarmoq xolda tashkil etilgan;

- ilmiy uslub qilinmagan;

- fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy sohadagi rivojlanishga to'liq mos kelmaydi. Natijada mehnat, moddiy, texnik va yer resurslarining o'zaro munosiblik tamoyillari ko'pol ravishda buzilmoqda;

- ishlab chiqarishga tavsiya etilayotgan yangi texnika yoki texnologiya mavjud amaldagi ko'rsatkichlarga taqqoslangan holda baholanadi. Bu esa jahon standarti darajasidan ancha past bo'lgan va «yangi» texnologiyani tezda ma'naviy jihatdan yaroqsiz holga keltirishga sabab bo'lmoqda;

Ko'zda tutilayotgan yer islohoti umumdavlat miq'yosida o'tkazilishini chuqur his qilgan holda bu tadbirlarga qonun tusini berishni davr talabi, bozor iqtisodiyotiga yirik iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik talofatlarsiz o'tishni kafolatlaydi deb hisoblaymiz. Mustaqil respublikamizning yagona yer mulk salohiyatini to'g'ri boshqarish iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishni boshqarishning tarkibiy qismi hisoblanadi va yerning iqtisodiy - ijtimoiy bog'liqligi hamda uning tabiiy resurs sifatida o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Bugungi kunda yaxlit halq xo'jalik majmuiga ega bo'lgan mustaqil mamlakatimiz iqtisodiyoti o'zining butun tarkibiy qismi, yaьni iqtisodiy mintaqalar, tarmoqlararo komplekslar o'zaro munosib va muvozanatli tarzda rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ayni paytda davlatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining uzviy bog'liqligi ma'lum darajada shakllangan bo'lib, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ko'p jihatdan shu mutanosiblik jamiyatning taraqqiyot talabiga bog'liq bo'ladi. Lekin taraqqiyotning jadallik usuli ustun bo'lib, qolayotgan hozirgi sharoitda alohida olingan tarmoq va tarmoqlararo muassasalar, ma'muriy organlar hamda xo'jalik idoaralarining tarmoq ichidagi va tarmoqlararo munosabatlari tizimida chigalliklarning mavjudligini eьtirof etishni o'rinli deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.T.: 2002.
2. Astashov A.M. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil yetish. -M: Akademik loyiha Alma Master. -2007 yil
3. Bakanov M.I., Sheremet A.D., Iqtisodiy tahlil nazariyasi: Darslik. - M .: "Moliya va statistika", 2005 yil
4. Makar S.V. Osnovi ekonomiki prirodopolzovaniya. M. IMIE, 1998.O'zbekiston qishloq xo'jaligi-2003. №8. 31-32 bet.
5. Altiyev S.A. Yerdan foydalanish iqtisodi. T.: 2019
6. Adizov, S. B., & Khamidov, F. R. (2022). Directions to Increase the Economic Efficiency of using Farmer Lands in the District. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(2), 108-111.

7. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.

8. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.

9. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.

10. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.

11. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.

12. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Development of Effective Methods for the Use of Pasture Land" International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology, 7(3).

13. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Measures to prevent degradation of pastoral lands. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 7(3).

14. Sh, F. (2020). Xudoyberdiyev Yaylovlardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish. Fan, muhandislik va texnologiya sohasida ilg'or tadqiqotlar xalqaro jurnali , 7 (3).

15. Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). " Разработка эффективных методов использованию пастбищных земель" Современные проблемы землепользования и кадастров: Материалы 4-й международной межвузовской научно-практической конференции, 19 декабря 2019 г.

16. Karimov, E. K., Asadov, T. A., Kodirov, M. I., & Soliev, A. A. (2017). Evaluation, preservation and improvement of soil fertility, organization of rational land utilization. In European Conference on Innovations in Technical and Natural Sciences (pp. 55-60).

17. Pirimov, J. J., Khudoyberdiyev, F. S., Muhamadov, K. M., & Axtamov, S. F. (2021). Modern Geographic Information Systems in Land

Resource Management. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 8, 66-69.

18. Asatov, A. R., Pirimov, J. J., Muhamadov, K. M., Bobojonov, S. O., & Axtamov, S. F. (2021). The Importance of Orthophotoplans in Cadastre Work.

19. Sayitqul Rakhimberdiyevich Asatov, Erkin Kodirovich Karimov, Behzod Obidovich Ahmadov., & Sukhrobjon Farkhodovich Akhtamov. (2021). USE OF LAND INFORMATION SYSTEM IN DISTRICT LAND FUND DISTRIBUTION . "ONLINE - CONFERENCES&Quot; PLATFORM, 18–19. Retrieved from http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/45

20. Асатов, С. Р., & Фармонов, Н. К. (2016). ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИЯ. In СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ (pp. 1733-1735).

UO‘T: 528.7

FOTOGRAMMETRIK USLUBLAR YORDAMIDA KADASTR KARTALARINI YANGILASH YO‘LLARI.

Pirimov Jonibek Jumamurodovich- tayanch doktorant
Email:jpirimov@mail.ru
Muxamadov Qamoriddin Muxtor o‘g‘li – talaba
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola kadastr kartalarini fotogrammetrik metodlar yordamida yangilash masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: geodeziya, kartografiya, fotogrammetriya, zondlash, geoaxborot tizimlari, ma’lumotlar banki

УДК: 528.7

СПОСОБЫ ОБНОВЛЕНИЯ КАДАСТРОВЫХ КАРТ ОТОГРАММЕТРИЧЕСКИМИ МЕТОДАМИ.

Пиримов Жонибек Жумамуродович-докторант
Email:jpirimov@mail.ru
Мухамадов Камориддин Мухтор угли – студент
Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета "Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"

Аннотатсия: Данная стати посвящена обновлению кадастровых карт с использованием фотограмметрических методов.

Ключевые слова: геодезия, картография, фотограмметрия, зондирование, геоинформатсионные системы, база данных

UDC: *528.7*

METHODS OF UPDATING CADASTRAL MAPS BY PHOTOGRAMMETRIC METHODS.

Pirimov Jonibek Jumamurodovich- base doctoral student
Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu – student
Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Abstract. This article is devoted to updating cadastral maps using photogrammetric methods.

Key words: geodesy, cartography, photogrammetry, sounding, geographic information systems, database

Yer umummilliy boylik, O'zbekiston xalqining hayoti, faoliyati va farovonligi asosi, eng muhim tabiiy resurs hisoblanadi. Shu sababli, yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash, yerlarni muhofaza qilish, yer bilan uzviy bog'langan Davlat

kadastrlari yagona tizimini to‘laqonli yuritish davlatning eng muhim vazifalaridandir.

Iqtisodiy sohadagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar yer va unga bog‘liq resurslarning aniq hisobini yuritish, ulardan oqilona foydalanish tizimini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Vaqt o‘tishi bilan joyda turli xil o‘zgarishlar sodir bo‘ladi: yangi aholi punktlari, yangi yo‘llar paydo bo‘ladi, relef va gidrografiya o‘zgaradi. Joydagi o‘zgarishilar hisobiga kartalar eskirib boradi va natijada ushbu kartalardan foydalanish qiyinchilik tug‘diradi, ayrim hollarda esa foydalanishning imkoni bo‘lmaydi.

Shuning uchun topografik kartalarni muntazam ravishda yangilab borish talab etiladi.

Kartalarni yangilash joyni bevosita ko‘rib chiqish, aerofotosyomka yoki kosmik s’yomka materiallari hisobiga amalga oshiriladi[1].

Kartalarni yangilashda tayyorgarlik ishlari quyidagicha bo‘ladi:

kartalarni yangilash uchun zarur materiallarini yig‘ish va bir tizimga keltirish, ulardan foydalanish darajasi va tartibini aniqlash;

joydagi o‘zgarishlarni va ularning xarakterini aniqlash;

kartani yangilashning texnik proektini ishlab chiqish.

Yig‘ilgan materiallar ichida eng asosiysi aerofotosyomka materiallari, qolganlari esa yordamchi materiallar hisoblanadi. Transformatsiya qilingan aerofotosuratlarda stereofotogranimetrik usul yordamida joydagi o‘zgarishilar aniqlanadi va kartaga ko‘chiriladi yoki aerofotosuratlardan tuzilgan fotoplanlarda barcha obyektlar deshifrirlanadi[2].

Suratlarni deshifrirlash joyning fotosuratidagi obyektlarni topish, ularning tavsiflarini aniqlash va mohiyatini ochib berishdan iborat. Suratlarni deshifrirlash kartalar tuzish va yangilashdagi eng muhim va murakkab jarayonlardan biridir. Deshifrirlash aniqligi tuzilgan kartaning sifatiga qarab baholanadi. Suratlarni deshifrirlash bir necha bosqichdan iborat: dala ishlariga tayyorgarlik, dala ishlari, deshifrirlash, suratlardagi obyektlarni chizish, xatolarni to‘g‘rilash va tayyor mahsulotni topshirish.

Suratlarni deshifrirlash sifati joyda obyektlarning fazoviy tarqalish qonuniyatlari bilan birga fotosuratlarning optik va geometrik xususiyatlarini qanchalik chuqur bilishga bog‘liq bo‘ladi. Bunda deshifrirlashning asosini tashkil qilgan 2 ta omilni hisobga olish kerak: 1) fizik-matematik — tasvirning optik va geometrik hususiyatlari; 2) geografik - obyektlarning fazoviy joylashishi. Deshifrirlash uchun

geodeziya, geografiya, aerofotografiya, kartografiya, geomorfologiya fanlari bo‘yicha yetarlicha jiddiy bilim va tayyorgarlik talab qilinadi. Bundan tashqari maxsus fanlarni (qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, geologiyani) ham bilish kerak[3].

Qo‘yilgan maqsad va vazifaga qarab deshifrirlash 2 turga bo‘linadi:

Umumgeografik.

Tarmoqli (mavzuli, maxsus).

Umumgeografik deshifrirlash yer yuzasi to‘g‘risida umumlashtirilgan informatsiya olish, ya’ni yer yuzasini regional va tipologik rayonlashtirish, aloqa yo‘llari, aholi punktlari, o‘simliklarni va ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlash hamda topografik kartalarni tuzish va yangilash uchun amalga oshiriladi. U o‘z navbatida, 2 xil deshifrirlash — topografik va landshaftli deshifrirlashga bo‘linadi. Suratlarni topografik deshifrirlash topografik kartada tasvirlanishi lozim bo‘lgan obyektlarni anglash, ular orasidagi bog‘liqlik va tavsiflarini aniqlash maqsadida olib boriladi. Topografik deshifrirlash kartalarni yaratish va yangilashda asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Landshaftli deshifrirlash maxsus texnik vazifalarni yechish va yer yuzasini o‘rganish uchun joyni regional va tipologik rayonlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Tarmoqli deshifrirlashning ko‘p turlarini ajratish mumkin. U asosan yer yuzasi va atniosferada joylashgan obyektlarning alohida xususiyatlari va qonuniyatlarni aniqlash va shu bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni yechish maqsadida olib boriladi. Deshifrirlash turlari bir-biridan keskin farq qilmaydi. Xususan bu deshifrirlashning barcha turlarida qo‘llaniladigan metodlarning va ishni bajarish usullarining bir xilligida ko‘rinadi. Ishni tashkillashtirish va uni bajarish sharoitiga ko‘ra quyidagi deshifrirlash metodlari ajratiladi:

1. Deshifrirlashning dala metodi suratda anglash mumkin bo‘lmagan va mufassal tekshirilishi lozim bo‘lgan obyektlarni bevosita joyning o‘zida o‘rganishni nazarda tutadi. Bu metodning asosiy kamchiligi ishning mashaqqatliligi va ko‘p xarajatlar talab qilishidir. Bundan tashqari dalada deshifrirlashni tashkillashtirish ham bir muncha murakkabdir. Lekin bu metodda tuzilgan kartalarning aniqligi yuqori bo‘ladi.

Deshifrirlashning aerovizual metodining mohiyati obyektlarning tasvirini samolyot yoki vertolyotdan turib aniqlashdan iborat. Bu metod ish unumdorligini oshirish bilan birga sarf- xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga suratlarni deshifrirlashning bu metodi

operatorlardan obyektlarni qisqa vaqt ichida tez orientirlash, anglash va topish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikni talab qiladi.
Kameral metod obyektlarni anglash, topish va uning tavsiflarini aniqlashni dalaga chiqmasdan fototasvir xususiyatlarini o‘rganish hisobiga amalga oshirishni nazarda tutadi. Suratlarni kameral deshifrirlashda bir yechimga kelish uchun suratda aniq qiyofada tasvirlangan obyektlarning belgilari asos bo‘lib xizmat qiladi.
Suratlarni deshifrirlashning kombinatsiyalangan metodida obyektlarni anglash, topish va tavsif larini aniqlash bilan bog‘liq ishlarning asosiy qismi kameral sharoitda bajariladi. Dalada yoki uchish vaqtida (aerovizual) esa kamerai sharoitda aniqlash imkoni bo‘lmagan obyektlarni, ularning tavsiflarini anglash va aniqlash ishlari olib boriladi.

Aerofotosuratlarni deshifrirlash mexanizatsiyalashganlik darajasiga qarab vizual, avtomatik va kombinatsiyalashgan (inson va mashina) usullarda amalga oshiriladi:

Vizual usul — hozirgi kunda suratlarni deshifrirlashning asosiy usuli hisoblanadi. Avtomatik usullarning rivojlangani bilan dala va aerovizual metodlardagi ishlarni amalga oshirishda vizual usul ko‘proq qo‘llanilmoqda. Vizual deshifrirlashda insonning ko‘zi va miyasi suratdagi informatsiyani qabul qiladi va qayta ishlash vazifasini amalga oshiradi. Agar ko‘z qurollanmagan bo‘lsa, bevosita vizual deshifrirlash amalga oshiriladi. Lekin, odatda, inson ko‘zining imkoniyatlarini kengaytiradigan texnik vositalardan foydalaniladi. Bunday paytda instrumental vizual deshifrirlash amalga oshiriladi. Deshifrirlash masalalarini muvaffaqiyatli yechish uchun ko‘pincha berilgan rayon bo‘yicha deshifrirlash namunasi ko‘rsatilgan suratlardan foydalaniladi. Bu suratlar etalon suratlar deyiladi. Ulardan foydalanishga asoslangan deshifrirlash usuli esa etalonlar bo‘yicha vizual deshifrirlash deb yuritiladi.

Suratlarni mashina yordamida deshifrirlash usuli deshifrirlashning barcha bosqichlarini maxsus qurilmalar yordamida amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu usulning rivojlanishi ish unumdorligini oshirish bilan birga inson mehnatini yengillashtirish imkonini beradi. Bu usulning mikrofotogrammetrik, fotoelektron, fazoviy filtratsiya va kombinatsiya-lashgan turlari ajratiladi:
mikrofotogrammetrik usul obyektlarning fototasvirida uning xususiyatlari va statistik tavsiflari orasidagi korrelyatsion bog‘liqlikdan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Bunda fototasvirning fotogram-metrik (o‘rtacha

zichlik, optik zichlikning korrelyatsion funksiyalari), geometrik (o‘rtacha kattalik, qiyalik) va boshqa tavsiflaridan foydalaniladi;
fotoelektron usul mikrofotogrammetrik usulga o‘xshash bo‘lib, bu yerda ma’lumotlar bir vaqtning o‘zida olinadi va parallel ravishda qayta ishlanadi. Bu ishlar «Perseptron» tipidagi qurilmalar yordamida bajariladi;
d) fazoviy filtratsiya usuli obyekt xususiyatlari va uning tasvirdagi fazoviy chastotadagi spektrlar orasidagi korrelyatsion bog‘liqlik asosida amalga oshiriladi.
3. Deshifrirlashning kombinatsiyalashgan usulida operator- deshifrirlovchi bilan avtomatik tizimlar orasida bog‘liqlik muhim o‘rin tutadi. Inson avtomatik tizimlarga nisbatan deshifrirlash jarayonini tez va ishonchli bajarishga qodir. Avtomatik tizimlar esa insonga ma’lumot olish va bir yechimga kelish uchun asosli ma’lumotlarni berishi kerak. Shundagina bu ikki usul birlashib nisbatan mukammal deshifrirlash usulini yaratadi.
Deshifrirlash nazariyasi va amaliyotida u qanaqa metod yoki usulda bajarilmasin, aniqlanadigan obyektlarning tasnifi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.D.Oxunov., I.Y Abdullayev. “Fotogrammetriya" O’quv qo’llamna. T., Cho'lpon. 2007,-160 b.
2. V.M. Biriksin Texnologiya sozdaniya kompleksnogo banka dannых distansionnogo zondirovaniya «MAK-2008» / Barnaul: Izd-vo Alt. un-ta, 2008. – S. 40–41.
3. Novakovskiy B.A. Fotogrammetriya i distansionnые metodы izucheniya Zemli / B. A.Novakovskiy. - M.: Izd-vo Mos. un-ta, 1997. - 193
4. Wim H.Bakker, Lucas L.F.Janssen, Colin V.Reeves (2001), ITC: Principles of Remote Sensing.
5. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Development of Effective Methods for the Use of Pasture Land" International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology, 7(3).
6. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Measures to prevent degradation of pastoral lands. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 7(3).
7. Pirimov, J. J., Khudoyberdiyev, F. S., Muhamadov, K. M., & Axtamov, S. F. (2021). Modern Geographic Information Systems in Land Resource Management. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 8, 66-69.

8. Asatov, A. R., Pirimov, J. J., Muhamadov, K. M., Bobojonov, S. O., & Axtamov, S. F. (2021). The Importance of Orthophotoplans in Cadastre Work.

9. Karimov, E., Akhrorov, A., & Sh, T. (2022). Natural Geographical Zoning of Agricultural Land. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(2), 100-103.

10. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).

11. Karimov E. K., Bobozhonov S. U., Mukhammadov K. M. Influence of the properties of irrigated soils on the productivity of the vobkent district EK Karimov //" Online-conferences" platform. – 2021. – С. 59-61.

12. Karimov, E. K., Asadov, T. A., Kodirov, M. I., & Soliev, A. A. (2017). Evaluation, preservation and improvement of soil fertility, organization of rational land utilization. In European Conference on Innovations in Technical and Natural Sciences (pp. 55-60).

13. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. Актуальные проблемы современной науки (pp. 101-103).

14. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.

15. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.

16. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.

17. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.

18. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.

UO‘T: 631.4

TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA ALMASHLAB EKISHNING AHAMIYATI (BEDA HAMDA BOSHOQLI EKINLAR MISOLIDA)

G’aybullayeva Mashhura Faxritdinovna - assistent
Muxamadov Qamoriddin Muxtor o`g`li- talaba
Email:qmuxamadov@gmail.com
Axrorov Abdullo Kurbonovich – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish ta’lim yo’nalishi 1-bosqich magistranti
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Tuproq unumdorligi tuproqning suv va oziq moddalar bilan tuyinganiga aytiladi**.** Unumdor tuproqlarda insonga asosiy oziqovqat mahsulotlarini beruvchi qishloq xo‘jaligi. o‘simliklari o‘stiriladi. Yer faqat unumdorlik xususiyati tufayli qishloq xo‘jaligi.da ishlab chiqarish. vositasiga aylangan. Tuproq unumdorligi tuproq hosil qiluvchi omillar: iqlim, relyef, tuprok hosil qiluvchi jinslar, tabiiy va madaniy o‘simliklar bilan uzviy boglik, ammo unumdorlik darajasida, ayniqsa, yerdan foydalanish xarakteri katta ahamiyatga ega.Unumdorlikni oshirishda almashlab ekishning ahamiyati juda kata.Almashlab ekishda beda o’simligidan hamda boshoqli ekinlardan kuproq foydalanamiz.Sababi beda tuproq unumdorligini oshirish hamda chorva ozuqa bazazini yaratuvchi asosiy ekin hisoblanadi

Kalit so’zlar: Tuproq unumdorligi, cho’rga chidamlilik,almashlab ekish,beda o’simligi,boshoqli ekinlar,tuproqda suv va oziq moddalarning yetarli yoki yetmasligi

UDC 631.4

THE IMPORTANCE OF CROP ROTATION IN INCREASING SOIL FERTILITY (ON THE EXAMPLE OF ALFALFA AND SPIKE CROPS)

Gaybullaeva Mashhura Fakhritdinovna- assistant
Muxamadov Kamoriddin Mukhtor oglu – student
Email:qmuxamadov@gmail.com

Akhrorov Abdullo Kurbonovich- 1st year master's degree in land use and management
Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation: soil fertility is said to be saturated with water and nutrients in the soil. Agriculture, which gives Man the main food products in fertile soils. plants are grown. Land is agriculture only because of its fertility feature.production at. has become a tool. Soil fertility soil fertility factors: climate, relief, intertwined with soil-forming Rocks, Natural and cultural vegetation, but at the fertility level, especially the nature of land use is of great importance.The importance of exchanging crops in increasing productivity is much greater.When planting alternately, we use cubes from alfalfa and Spike crops.The reason is that alfalfa is the main crop that increases soil fertility and creates a pet nutrient base

Key words: Soil Fertility, grass resistance,crop rotation, alfalfa, spike crops, water in the soil and insufficient or insufficient nutrients

Tuproqning suv, oziq moddalar va boshqa bilan ta'minlash xususiyati. Tuproq tog‘ jinslaridan unumdorligi bilan farq qiladi. Unumdor tuproqlarda insonga asosiy oziqovqat mahsulotlarini beruvchi qishloq xo‘jaligi. o‘simliklari o‘stiriladi. Yer faqat unumdorlik xususiyati tufayli qishloq xo‘jaligi.da ishlab chiqarish. vositasiga aylangan. Tuproq unumdorligi tuproqhosil qiluvchi omillar: iqlim, relyef, tuprok hosil qiluvchi jinslar, tabiiy va madaniy o‘simliklar bilan uzviy bog'lik, ammo unumdorlik darajasida, ayniqsa, yerdan foydalanish xarakteri katta ahamiyatga ega. Tuproq unumdorligining eng muhim omillar: o‘simlik rivojlanishi uchun zarur oziq moddalar va ular turining yetarli miqdorda bo‘lishi; o‘simlik o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan namning mavjudligi; yaxshi tuprok, aeratsiyasi; tuproqning granulometrik tarkibi, struktura holati va tuzilishi; zaharli moddalar (kislota, ishqor, tuz va boshqalar) miqdori; tuproq reaksiyasi va boshqalardan iborat. Bu xususiyatlar yigindisi tuproqning madaniylashganlik holati darajasini belgilaydi. Unumdorlikning barcha elementlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bu elementlardan birortasining o‘zgarishi boshqalariga ham ta'sir ko‘rsatadi. Har xil o‘simliklarning Tuproq unumdorligiga talabi turlicha bo‘lganligi

sababli va o‘simlik biologiyasiga bog‘liq holda bir tur o‘simlik uchun unumdor hisoblangan tuproq boshqa tur uchun unumdor bo‘lmasligi mumkin ekinlar Almashlab ekish qo‘llanildi.

Almashlab ekishning mazkur sxemalarida g‘o‘za salmog‘i 60–70%ni tashkil etdi. 90-yillar boshidan O‘zbekistonda don mustaqilligiga erishish uchun sug‘oriladigan maydonning katta qismi g‘alla ekinlari uchun (1997-yilda kariyb 1 mln.ga) ajratildi. Natijada g‘o‘za yakka-ziroatchiligiga barham berilib, ayrim xo‘jaliklarda g‘o‘za-g‘alla nisbati deyarli teng bo‘lib Agronomik nuqtai nazardan ekinlarni rejali tartibda navbat bilan almashtirib turishning zarurligi quyidagi sabablardan kelib chiqadi. Turli xil o`simliklarda ildiz tizimi turlicha chuqurlikda taraladi, shuning uchun ildizlarning tuproq har xil gorizontidagi ozuqa moddalardan foydalanishi ham turlicha bo`ladi. Hamma ekinlar tuproqdagi moddalarga ta’siri jihatdan 2 guruhga bo`linadi. Bir guruh ekinlar tuproqdan moddalarni hosil bilan olib chiqib ketadi. Boshqa guruh ekinlar havodan moddalarni olib, uni ildizida tuproqda to`playdi. Shuning uchun bu ikki guruhga taalluqli ekinlarni o`zaro almashtirib turish tuproq unumdorligini saqlash va oshirish imkonini beradi.

Ma’lum yer maydoniga bir necha yil bir xil ekin ekilaversa, yer kuchsizlanib qoladi, dalani begona o`tlar bosadi, har xil kasallik va zararkunandalar ko`payadi, nihoyat, tuproqda mikrobiologik jarayon yomonlashadi. Turli xil o`simliklar tuproq unumdorligining oshishiga turlicha ta’sir ko`rsatadi. Chunki hosil yig`ishtirib olingandan so`ng tuproqda turli miqdorda ildiz massasi qoladi. Bular tuproqda ozuqa moddalari to`plab, chirigandan so`ng, qimmatli organik o`g`itga aylanadi. Demak, ular tuproqni ozuqa moddalari bilan boyitishdan tashqari uning mexanik va fizik xossasini ham yaxshilaydi. Qishloq xo`jalik korxonalarida almashlab ekish ma’lum tizimda loyihalashtiriladi va qo`llaniladi. Almashlab ekish asosan dalachilik, yem-xashak (ferma oldi) va maxsus almashlab ekishdan iborat uchta turga bo`linadi. Dalachilik almashlab ekishi almashlab ekishning eng ko`p tarqalgan turi bo`lib, don ekinlari, kartoshka, lavlagi, texnik va boshqa dala ekinlari yetishtirishda qo`llaniladi. Bu turdan mamlakatimiz ekinzorlarining yarmidan ko`prog`ida foydalaniladi. Asosiy ekinga ko`ra, dala almashlab ekishi don, lavlagi, paxta beda va hokazo almashlab ekish turlariga bo`linadi. Yem-xashak chorvachilikning zarur ozuqaa talabini qondirishga yo`naltirilgan bo`lib, har xil ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun mo`ljallanadi. Yem-

xashak almashlab ekishda ozuqabop ekinlar jami ekinzorning yarmidan ko`prog`ini tashkil qiladi. Ferma oldi yem-xashak almashlab ekishida ko`k o`tlar, shirali ozuqalar etishtirilishi asosiy o`rinni egallaydi va chorvachilikda yil davomida «yashil konveyer»ni tashkil qilishning asosi hisoblanadi. Maxsus almashlab ekish maxsus sharoit va agrotexnikani talab qiladigan ekinlarda qo`llaniladi. Masalan, sho`rlangan yerlarni melioratsiyalashda qo`llaniladigan almashlab ekish, sholichilik almashlab ekishi va hokazo. O`rta Osiyoning sug`oriladigan yerlarida g`o`za asosiy ekin hisoblanadi. Shuning uchun sug`oriladigan umumiy maydonning kamida 50-60 foizini g`o`za, qolgan 40-50 foizini g`alla, yem-xashak, ozuqa-ovqat ekinlari tashkil etishi kerak. Beda em-xashak ekinlari orasida yetakchi o`rinni egallaydi.

Beda almashlab ekishda eng yetakchi o'simlik hisoblanadi.bedaning ekish uchun tavsiya etilgan navlar: tuproq-iqlim sharoitiga qarab Toshkent–1, Toshkent–1728, Toshkent–2009, Xorazm–2, Qoraqalpoq–15, Aridnaya va Boygul navlaridan biri ekiladi. Beda ekilgan maydonga yaxshi chirigan go‘ngni sepish yaxshi samara beradi. Bu birinchidan, yer va unib chiqadigan nihollar uchun ozuqa bo‘lsa, ikkinchidan, yomg‘irdan keyin qatqaloq bo‘lishining oldini oladi. Chirimagan go‘ngni (ayniqsa, qo‘y go‘ngini) tomorqaga solish aslo mumkin emas. Chunki unda begona o‘t urug‘i ko‘p bo‘lib, dalani o‘t bosishiga olib keladi.

Qoplama usulda beda ekish. Bedani boshqa ekinlar (arpa, suli, makkajo‘xori, bug‘doy) bilan aralashtirib ham ekish mumkin. Bunda avval arpa (suli yoki bug‘doy) urug‘i 1 sotixga 600–700 gramm me’yorda sepilib, ketmon bilan chopib chiqiladi, so‘ng xaskashlanadi. Keyin beda urug‘i sepilib, qayta xaskashlanadi, yengil mola qilinadi va sug‘orish egatlari olinadi. Makkajo‘xori bilan birga ekilganda oldin beda ekilib, keyin uning urug‘larini egat bo‘ylab (1 sotixga 600–800 gramm) qadab chiqqan ma’qul. Qoplama ekinlar urug‘ini qalin sochib bo‘lmaydi. Chunki qoplama ekin nihollari bedani siqib qo‘yib, yaxshi o‘sib-rivojlanishiga xalaqit qiladi. Boshoqli ekinlar ham sho’rga chidamliligi bilan hamda bu ekinga talab yuqorili sabab almashlab ekishda keng foydalaniladi Boshoqli don bilan ekib, donni pishirib olish maqsad qilinganda, don pishguncha kutiladi. Ko‘k massa uchun yetishtirilganda sut-mum pishish davrida ham o‘rimga tushish mumkin. Bunda chorva mollari uchun to‘yimli va seroqsilli ozuqa olishga erishiladi.*Sug‘orish.* Bahorgi ekishda yerning nami yetarli bo‘lsa, ekishdan keyin sug‘orish tavsiya etilmaydi.

Namlik kam bo‘lsa, sug‘orish kerak. Ariqdan sug‘orish imkoniyati bo‘lmasa, kichik maydonlarda kun oralatib leyka yordamida yomg‘irlatib (albatta to‘yintirib) sug‘orish orqali ham bedani undirib olish mumkin. Yer qatqaloq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Qatqaloqni yengil suv berish (yoki sepish) orqali bartaraf etish mumkin. Havo haroratiga qarab (5–8 ^{o}S) beda 7–8 kunda unib chiqa boshlaydi. Maysalarning bo‘yi 10–12 sm. ga yetganda albatta sug‘orish kerak. Sug‘orish davomiyligi 10–12 soatdan oshmasligi kerak. Bostirib sug‘oriladigan maydonlarda suvning qalinligi 8–10 sm. Nam yuqori bo‘lishi urug‘ning dimiqib, chirishga, nam yetishmasligi esa uni palag‘da (chala bo‘rtish) bo‘lishiga olib keladi.Tuproq-havo sharoitidan kelib chiqqan holda, birinchi o‘rimga qadar, kamida 2–3 marta sug‘orish talab etiladi. Me’yordan oshiqcha sug‘orish (ayniqsa, bostirib sug‘orish) ko‘chat sonining siyraklashishiga va begona o‘tlar ko‘payishiga, kam sug‘orish esa unib chiqqan nihollarning nobud bo‘lishiga olib keladi.Sug‘orish jarayonida birinchi yilgi bedalarning 1 sotixiga sof holda 300–400 gramm azotli o‘g‘it berish tavsiya etiladi.*Hasharot va begona o‘tlarga qarshi kurashish.* Bedaning asosiy zararkunandalari bo‘lgan fitonomus, shira, urug‘xo‘r va boshqalarga qarshi quyidagi kimyoviy preparatlardan biri ishlatilishi lozim: Mospilan 20% n.kuk. (10 sotixga 30 ml), Karate 5% em.k. (15–20 ml), sipermetrin 25 % em.k. (10 sotixga 30 ml) me’yorda qo‘llaniladi.Ishlanadigan suyuqlik me’yori 400–600 l/ga bo‘lib, o‘simlikning rivojlanish fazasi va hasharot bilan zararlanganlik darajasiga e’tibor berish kerak. Kimyoviy preparatlar bilan ishlovni kechki yoki ertalabki paytlarda o‘tkazish zarur.

Zarpechakka qarshi Titus 25% q.o.sus. 40–50 g/ga preparati bedaning birinchi o‘rimidan 7–10 kundan keyin purkaladi. Zarpechak tushgan paykaldagi bedani qo‘lda tozalash, agar buning imkoni bo‘lmasa, darhol o‘rib, ehtiyotlik bilan daladan tashqariga olib chiqish kerak.*O‘rish.* Birinchi yilgi bedaning birinchi o‘rimi nihollarning 40–50 foizi gullaganda boshlanadi. O‘rish oldidan tomorqa yeri loy bo‘lmasligi kerak. O‘roq yoki chalg‘i o‘tkir bo‘lishi shart. Bedani juda past o‘rish tavsiya etiladi. Iloji bo‘lsa, bedani chalg‘ida emas, o‘tkir o‘roqda o‘rgan ma’qul. Bedani yerning yuzasiga taqab o‘rish, bitta niholdan ko‘plab yangi yon novdalar hosil qilish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, beda siyrak chiqqan tomorqa yerlarida bu o‘zining ijobiy natijasini beradi.O‘rilgan ko‘k massa darhol chorva mollariga berilishi mumkin. Agar bunga ehtiyoj bo‘lmasa, tomorqada ma’lum muddat qoldirilib quritilgach, qishki mavsumga bog‘

qilib g‘aramlash kerak. Birinchi o‘rim va keyingi o‘rimlar hosili yig‘ishtirib olingan keyin, maydonni o‘simlik qoldiqlaridan tozalash (iloji bo‘lsa yengil xaskashlash) va albatta sug‘orish zarur. Beda yorug‘sevar o‘simlik. Daraxtlar tagiga ekilganda unchalik yaxshi hosil bermaydi. Kimyoviy preparatlar bilan ishlov berishni o‘rimdan 15–20 kun burun to‘xtatish kerak. Imkon qadar kimyoviy vositalardan foydalanishga harakat qilmaslik kerak. Chorva va insonlar uchun uchun zararsiz bo‘lgan usullar masalan, oltingugurt, ohakli suv, ISO, Bordo suyuqligi kabilardan foydalangan ma’qul.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, E., Akhrorov, A., & Sh, T. (2022). Natural Geographical Zoning of Agricultural Land. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, *2*(2), 100-103.
2. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).
3. Karimov, E. K., Asadov, T. A., Kodirov, M. I., & Soliev, A. A. (2017). Evaluation, preservation and improvement of soil fertility, organization of rational land utilization. In European Conference on Innovations in Technical and Natural Sciences (pp. 55-60).
4. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. *Актуальные проблемы современной науки* (pp. 101-103).
5. Karimov, E. Q. (2020). IMPROVEMENT OF SOIL QUALITY ASSESSMENT WITH OF INFORMATION TECHNOLOGIES. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 321-324).
6. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)
7. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In *E-Conference Globe* (pp. 35-37).
8. Qodirovich, K. E., Obidovich, A. B., & Kurbonovich, A. A. (2022). Developing the System of Efficient use of Land in Household in Uzbekistan. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, *15*, 249-253.

9. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.

10. Pirimov, J. J., Khudoyberdiyev, F. S., Muhamadov, K. M., & Axtamov, S. F. (2021). Modern Geographic Information Systems in Land Resource Management. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 8, 66-69.

11. Asatov, A. R., Pirimov, J. J., Muhamadov, K. M., Bobojonov, S. O., & Axtamov, S. F. (2021). The Importance of Orthophotoplans in Cadastre Work.

12. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.

13. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-

14. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.

15. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.

16. Shuxrat, A., & Erkin, K. (2020). WAYS TO INCREASE THE EFFECTIVE USE OF LANDS OF PERSONALITIES AND DEKHAN ECONOMIES IN THE BUKHARA REGION. Агропроцессинг, 2(2).

17. Shuhrat, A., Behzod, A., Mironshoh, M., & Azizbek, A. (2021, July). FURTHER DEVELOPMENT OF THE LEMON INDUSTRY IN UZBEKISTAN AND FURTHER IMPROVEMENT OF THE INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THIS AREA. In *E-Conference Globe* (pp. 261-263).

18. Adizov, S. B., Obidovich, A. B., & Maxmudov, M. M. (2021). Rights and Responsibilities of the Spouses. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 7, 14-17.

19. Khamidov, F. R., Adizov, S. B., Karimov, E. Q., & Maxmudov, M. M. (2021). The Role of Peasant Farms and Homestead Lands in The

Development of Agriculture. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 3, 5-8.

20. Directions to Increase the Economic Efficiency of using Farmer Lands in the District SHB Adizov, FR Khamidov - … JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN …, 2022

21. SB Adizov, AB Obidovich, MM Maxmudov. (2021). The Tragedy of the Aral Sea-The Problem of the Century. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 7, 10-13.

22. PROSPECTS FOR THE USE OF HOMESTEAD LANDS FR KHAMIDOV, SB ADIZOV - Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021, 2021

23. ANALYSIS OF CROPS GROWN FOR THE EFFICIENT USE OF LAND DEHKAN FARMS AND HOMESTEAD LANDS OF BUKHARA REGION AS Bafoevich, MR Muxiddinjonovich

UO‘T: 631.638.862.520

BUXORO VOHASINING SHO‘RLANGAN TUPROQLARIDA RESURSTEJAMKOR SUG‘ORISH TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

Radjabova Lobar Ramazonovna-Техника фанлари бўйича фалсафа доктори.
Abdualiyeva Shafoat Xamdamovna-assistent
Ko’chimov Amirxon Maxliboy o’g’li-talaba
Email: shafoabdualieva86@gmail.com

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Maqolada asosan, Tuproq tarkibidagi gumus va tuproq strukturasini yaxshilaydi. Tabiiy resurslar, ularni ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish usullari, yer uchastkalariga mulk huquqi, yer resurslarini yaxshilash va ularni muhofaza qilish, ulardan foydalanish, yer fondini asrash, meliorativ holatini yaxshilash, ekologik xavfsizligini ta’minlash, ishlab chiqarish vositalarini tashkil etish va muvaffaqiyatli rivojlantirish masalalari qisqacha ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: o‘tloq-alyuvial, agro-ekologik, o‘simlikshunoslik, pestitsidlar, tuproq profili, mexanik tarkibi, suvli so‘rim,

tadqiqot,gumus,tabiiy resurs, ishlab chiqarish, yer loyihalari, yer resurslari, yer fondi, meliorativ va ekologik xavfsizlik.

УДК.631.638.862.520

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕСУРСНО-ПОЛИВНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ НА БУХАРСКИХ ДУБОВЫХ ЗАСОЛЕННЫХ ПОЧВАХ

Раджабова Лобар Рамазоновна-Доктор философии по техническим наукам.
Абдуалиева Шафоат Хамдамовна- ассистент
Кочимов Амирхон Махлыбой угли-студент
Email: shafoabdualieva86@gmail.com
Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета "Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"

Аннотация. Согласно статье, улучшает структуру гумуса и почвы в почве. Краткое изложение природных ресурсов, способы их использования, средства производства, право собственности на землю, улучшение и охрана земельных ресурсов, их использование, охрана земель, мелиорация, экологическая безопасность, организация и успешное развитие средств производства.

Ключевые слова:лугово-аллювиальные, агроэкологические, ботанические, пестициды, почвенный профиль, механический состав, водоносный горизонт, исследования, гумус, природные ресурсы, производство, земельные проекты, земельные ресурсы, земельный фонд, мелиорация и экологическая безопасность.

UDC.631.638.862.520

IMPROVING RESOURCE-BRIGHT IRRIGATION MEASURES IN THE SALTED SOILS OF THE BUKHARA OAS.

Radjabova Lobar Ramazonovna-Doctor of Philosophy in Technical Sciences.
Abdualieva Shafoat Khamdamovna - assistant
Kochimov Amirkhon Makhlyboy ugli-student
Email: shafoabdualieva86@gmail.com

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Abstract: According to the article, it improves the humus and soil structure in the soil. Summary of natural resources, methods of using their means of production, ownership of land, improvement and protection of land resources, their use, conservation of land, reclamation, environmental safety, organization and successful development of means of production shown.

Key words: meadow-alluvial, agro-ecological, botanical, pesticides, soil profile, mechanical composition, aquifer, research, humus, natural resource, production, land projects, land resources, land fund, reclamation and ecological safety

O‘zbekistonda irrigatsiya va melioratsiya sohasida bir qancha e’tiborga molik ishlar qilingan.Masalan, sobiq Ittifoq davrida O‘zbekiston Respublikasidagi bir qancha cho‘llar: Mirzacho‘l, Qarshi dashti, Farg‘ona vodiysidagi Yozyovon cho‘llari, Buxoro viloyatidagi O‘rtacho‘l, Varaxsha, Qutchi, Jilvon va boshqa cho‘llariga suv chiqarilib bog‘u-bo‘stonga aylantirilgan. Ammo, ichimlik suvi, ya’ni chuchuk suvni rejasiz, ko‘p miqdorda o‘zibo‘larchilik qilib noto‘g‘ri foydalanish natijasida tuproqlarning meliorativ holatlari yomonlashgan. Orol dengiziga Sirdaryo, Amudaryo tarmoqlaridan oqib tushadigan suvlarning ma’lum bir qismi kelib tushmasligi oqibatida Orol quriy boshladi.Natijada Orol bo‘yi atrofidagi hududlarning tuproq-iqlim sharoitlariga hayvon, o‘simlik va barcha tirik mavjudotga salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qo‘ymadi.

Rossiya Fanlar Akademiyasiga qarashli suv muammolari ilmiy – tadqiqot instituti ma’lumotlariga ko‘ra, Yer yuzida yashayotgan 6,5 mlrd. aholidan 1,1 mlrd.i suv taqchilligi sharoitida yashaydi. 2025 yilga borib, suv taqchilligida yashayotgan aholi soni 3 mlrddan ortiq bo‘ladi.Bu esa yashayotgan aholining 40 % ini tashkil etishi kutilmoqda.

Ma’lumki, Buxoro viloyati boshqa viloyatlarning tuproq-iqlim sharoitlaridan o‘zinig keskin-kontinentaligidan, yer osti sizob suvlarining yaqin joylashganligidan, tuproq haydov usti qatlamidan namlikni tezlikda uchib ketishi (transpiratsion koeffitsientning yuqoriligi) bilan daryo suvlari bilan oqib kelgan xlorli va sulfatli tuzlarining tuproq yuza qatlamida to‘planishi va ularning bahordan kuzga qarab ko‘payishi bilan farqlanadi.

Buxoro viloyati sharoitida kuzgi-qishki mavsumlarda yer shoʻrini yuvmasdan turib, ekin turlaridan yuqori hosil olib boʻlmaydi, hatto ekinni oʻstirish ham juda qiyin. Shu bois ham ayni yer osti sizot suvlari sathi pastga tushgan paytda shoʻri yuviladi (bu dekabr-fevral oylariga toʻgʻri keladi), lekin shoʻr yuvish mavsumi tuproq va havo haroratining past boʻlgan vaqtiga toʻgʻri kelishi natijasida oqar suvlar bilan kelgan tuzlarning maʼlum bir qismi erimay, tuproqning yuza qatlamida qoladi.Vegetatsiya davrida esa transpiratsion koeffitsientning yuqori boʻlishi sababli, namlik tuproqning yuza qatlamidan uchib ketib, zararli tuzlar miqdori shu qatlamda toʻplana boshlaydi.Ana shu paytda dalalarni koʻndalangiga chel olib, pallarga ajratib, yerning nishabligiga qarab bostirib sugʻorilsa, havo va tuproq haroratlari yuqori boʻlganda tuzlarning erish koeffitsienti yuqori boʻlganligi sababli, ular erib, pastki haydov qatlamlariga tushadi, zah.suvlari bilan birlashib, oʻsimlikning oʻsish va rivojlanishiga qulay muhit yaratiladi. Shuning uchun ham Buxoro viloyati tuproqlarini oʻziga xos sugʻorish tizimi va usullarida sugʻorish talab etiladi..

Shoʻr yuvish tadbirini tuproqning mexanik tarkibiga, yer osti sizob suvlarining joylanishiga, yerning nishabligiga, shoʻrlanish meʼyoriga qarab, bu muhim jarayon amalga oshirilsa foydasi katta boʻladi. Buxoro sharoitida qishloq xoʻjalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish uchun boshqa viloyatlarga nisbatan bizda suv koʻproq sarflanadi, sababi- 2-3 martalab yerning shoʻrini yuvish uchun gektar boshiga 2.5-3,5 ming kub suv ortiqcha sarflanadi.

Suvni tejash va tuproqning shoʻrlanish darajasini pasaytirish mavzusi boʻyicha dunyo miqyosida va mamlakatlarimiz olimlari oʻrtasida bir muncha resurstejamkor, eʼtiborga molik boʻlgan ilmiy – tadqiqot ishlari amalga oshirilib, bugungi kunga qadar ham oʻzining mavqeini yoʻqotmagan. Matbuot orqali chiqishlar qilganlar.Ularning koʻpchiligi dunyo ahamiyatiga molik. Bugungi kunda ishlab chiqarishda qoʻllanilib kelinmoqda. Masalan: Isroillik va Oʻzbekiston olimlari tomonidan ishalab chiqilgan tomchilatib, yomgʻirlatib sugʻorish usullari, egatlarga sugʻorish oldidan qora plyonka toʻshash, egat pushtasiga somon toʻshash orqali, egat oralatib diskret, koʻchma quvurlar vositasida sugʻorish, subirrigatsiya, torfli, goʻngli, turli xil daryo, kanal chiqitlaridan iborat boʻlgan toʻshamalar yotqizish va h.k shunga oʻxshash bir qator muhim ahamiyat kasb etuvchi ilmiy tajribalar oʻtkazilgan. (S.Рыjov, M.Mednis, S.Axmedov, F.Satarov, Q.Mirzajonov, G.A.Bezbororodov, B.Komilov, A. Avliyoqulov,

A.Toshtemirov va b.). Ammo, yuqorida zikr etilgan olimlarimiz respublikamizning turli viloyatlarida (Toshkent, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo,Samarqand va h.k.) resurstejamkor sug‘orish texnologiyalarini egat olingan maydonlarda o‘tkazishgan.

Keyingi yillarda suv taqchilligi ro‘y berayotgan bir paytda, har bir tomchi suvdan oqilona foydalanish muhim ahamiyatni kasb etmoqda.Shu kunga qadar olimlarimiz suvdan unumli foydalanish, suvni tejash,1 s hosil yetishtirish uchun ketgan suv sarfi va yuqorida qayd etib o‘tilgan ilg‘or sug‘orish texnologiyalari va boshqa usullar to‘g‘risida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

Qanday qilib, tannarxi arzon, oddiy, ko‘p mehnat va mablag‘ talab qilmaydigan usullar orqali suv va resurstejovchi texnologiyalarni har bir viloyat o‘zining tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib takomillashtirsa, ilmiy asoslangan ishlanmalar ishlab chiqishsa, faqat foydadan xoli bo‘lmasdi. Ana shunday texnologiyalar bo‘yicha hali atroflicha ma’lumotlarga ega emasmiz.

2013 yilning 19-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013/2017 yillar davrida yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-1958-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan 2013/2017 yillar davrida respublikamizda 25 ming gektar bog‘-tokzor va boshqa ekin maydonida tomchilatib sug‘orish, 46,4 ming gektar maydonda g‘o‘zani egatga plyonka to‘shab sug‘orish, 34,0 ming gektar maydonda esa g‘o‘zani ko‘chma egiluvchan quvurlar yordamida sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish vazifalari yuklatilgan.

Buxoro viloyati sharoitida kuzgi-qishki mavsumlarda yer sho‘rini yuvmasdan turib, ekin turlaridan yuqori hosil olib bo‘lmaydi, hatto ekinni o‘stirish ham juda qiyin. Shu bois ham ayni yer osti sizot suvlari sathi pastga tushgan paytda sho‘ri yuviladi (bu dekabr-fevral oylariga to‘g‘ri keladi), lekin sho‘r yuvish mavsumi tuproq va havo haroratining past bo‘lgan vaqtiga to‘g‘ri kelishi natijasida oqar suvlar bilan kelgan tuzlarning ma’lum bir qismi erimay, tuproqning yuza qatlamida qoladi.Vegetatsiya davrida esa transpiratsion koeffitsientning yuqori bo‘lishi sababli, namlik tuproqning yuza qatlamidan uchib ketib, zararli tuzlar miqdori shu qatlamda to‘plana boshlaydi.Ana shu paytda dalalarni ko‘ndalangiga chel olib, pallarga ajratib, yerning nishabligiga qarab bostirib sug‘orilsa, havo va tuproq haroratlari yuqori bo‘lganda tuzlarning erish koeffitsienti yuqori

bo‘lganligi sababli, ular erib, pastki haydov qatlamlariga tushadi, zah suvlari bilan birlashib, o‘simlikning o‘sish va rivojlanishiga qulay muhit yaratiladi. Shuning uchun ham Buxoro viloyati tuproqlarini o‘ziga xos sug‘orish tizimi va usullari bilan sug‘orish talab etiladi

G‘o‘za ekinining o‘suv-amal davrlarida sug‘orish uchun beriladigan suvni kamida 20-30 % ga tejash va tuproqning yuza qatlamida o‘simlikning vegetatsiya davrida zararli tuzlar miqdorini ko‘paytirmaslik maqsadida jo‘yak olmasdan, kultivatsiya qilingandan keyin yerning nishabligiga qarab, chel olib, pallarga ajratib, turli xil sug‘orish texnologiyalariga ba’zi bir elementlarni kiritish orqali sug‘orib, eng maqbul, resurstejamkor variantlarni tanlash, ularga ilmiy nuqtai nazardan baho berish borasida tadqiqot ishlari olib borishni o‘z oldilariga maqsad va vazifa qilib olishdi.

Mazkur texnologiyaning ijobiy tomonlari Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoiti uchun quyidagilardan iborat:

1. Jo‘yak olinganda g‘o‘zani ilk bor sug‘orish paytida ularning asosiy o‘q ildizi va yonaki ildizlarining ko‘proq qismi (75 %) tuproqning 15-25 sm qatlamida joylashgan bo‘ladi. Jo‘yak chuqurligi esa 20-25 smni tashkil etganligi sababli, kelayotgan suv avval tuproqning pastki qismiga o‘ta boshlaydi. Sug‘orish suvi bilan pastki qatlam to‘yib bo‘lgunga qadar 2-3 kun o‘tib (suv ortiqcha sarflanadi), keyin tuproqning ustki qismi namlanadi.

2. Suv sarfi an’anaviy sug‘orishga nisbatan 20-30 foizga kamayadi.

3. Sug‘orish davomiyligi qisqaradi, masalan, bir maydonni 3 kun davomida sug‘oradigan bo‘lsak, bunda 1,5-2 kun ichida sug‘orib bo‘linadi.

4.Berilayotgan ma’danli o‘g‘itlarning o‘zlashtirish koeffitsienti oshadi. Bunda o‘g‘itlarning kiritish chuqurligi 14-18 sm ni tashkil etganligi sababli, suv tuproqning yuza qatlamiga birdan borib yetadi va yuqori qatlamda tuproq harorati baland bo‘lganligi sababli, o‘g‘itlarning suvda dissotsiatsiyalanishi (kation va anionlarga ajralishi) yuqori bo‘lib, o‘simlik tomonidan o‘zlashtirilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

5. Qishki sho‘r yuvish mavsumida havo haroratining pastligi tufayli, ba’zi bir erimay qolgan zararli tuzlar miqdori, jo‘yak olmay bostirib sug‘orilganda, havo va tuproq haroratining isishi natijasida ularning eruvchanligi ortib, zararli tuzlar tuproqning pastki qismiga erib tushadi va yer osti sizob suvlari bilan oqib ketadi. Pirovardida o‘simlikning o‘sish va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ko‘zda tutilgan hosildorlik olinadi.

Sug‘orishlar ekin maydonining adog‘idan boshlanganligi va nishabligiga qarab ko‘ndalang chellar olib, pallarga ajratilganligi sababli, suv “ko‘llab” ketmay, ortiqcha suv “ob partovga “ tashlanmaydi.Natijada g‘o‘za qatorlari bir tekisda suvdan qoniqib ichishi tufayli, suv 20-30 % ga iqtisod qilinadi.

Ekinlarni egatlab sug‘orishning suv tejovchi quyidagi usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq:

- egat oralatib sug‘orish;
- kalta egatlar bilan sug‘orish;
- avval ko‘p suv berib, oqava chiqqanda suvni kamaytirish;
- sug‘orish vaqtida avval kam suv berib, so‘ngra ko‘paytirib va yana kamaytirish (diskret sug‘orish);
- oqava suvini chiqarmaslik uchun egat oxirini to‘sib, to‘silgan suvni teskari oqizib egatlar oxirini namlash;
- egatlab sug‘orishda turli texnik vositalarni qo‘llash.

at oralatib sug‘orilganda:

- sug‘orish vaqtida avval kam suv berib, so‘ngra ko‘paytirib va yana kamaytirish
- oqava suvini chiqarmaslik uchun egat oxirini to‘sib, to‘silgan suvni teskari oqizib egatlar oxirini namlash
- umumiy suv berish hajmi 15-20 % ga kamayadi.

Ko‘chma polietilen novlar yordamida sug‘orilganda:

- odatdagi usulga nisbatan 15-20 % suv tejaladi;
- suv har bir egatga bir tekis taqsimlanadi;
- Foydali ekin maydoni 1,5-2,5 % ga ortadi;
- sug‘orish ishlari yengillashadi, qo‘l mehnati 2 martaga kamayadi.

Egatlarga plyonka to‘shab sug‘orilganda:

- oqava suvlar miqdori kamayadi;
- egatlar butun uzunligi bo‘yicha bir tekis namlanadi;
- o‘qariqni qisqa masofada olinmaydi;
- sug‘oriladigan maydondan bug‘lanish kamayadi.

Xulosa: XX asrning boshi va o‘rtalarida dehqonlarmiz, aynan Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida piyoz, shalg‘om, turp, boshoqli-don, beda va h.k ekinlarni jo‘yak olmasdan, yoppasiga chel olib sug‘orishgan. Natijada oqar suv bilan kelgan turli xil mineral tuzlar miqdori tuproqning yuza qismiga to‘planadi. Bu esa uning sho‘rlanishiga olib keladi. Tuproq yuzasidan sho‘rni ketkazish uchun jo‘yak olmasdan, maydonning

nishabligini e'tiborga olgan holda, katta – kichik ko'ndalang chellar yordamida bostirib sug'orilsa, sho'r yuvish jarayoni me'yorida kechib, tuproq sho'rsizlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov J.X., Teshaev Sh.J., Mirzajonov Q.M., Xoliqov B.M., Avliyoqulov A.E., Bezborodov G.A. va boshqalar. G'o'zani parvarishlash agrotexnologiyalari bo'yicha tavsiyalar. Toshkent, 2010 y.
2. Bezborodov G.A. Primenenie solomы v kachestve organicheskogo udobreniya i depressora ispareniya vlagi v oroshaemom zemledelii.//Tuproq unumdorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslari. Toshkent, 2007, 9-14str.
3. Karimov, E., Akhrorov, A., & Sh, T. (2022). Natural Geographical Zoning of Agricultural Land. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, *2*(2), 100-103.
4. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).
5. Karimov, E. K., Asadov, T. A., Kodirov, M. I., & Soliev, A. A. (2017). Evaluation, preservation and improvement of soil fertility, organization of rational land utilization. In European Conference on Innovations in Technical and Natural Sciences (pp. 55-60).
6. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. *Актуальные проблемы современной науки* (pp. 101-103).
7. Karimov, E. Q. (2020). IMPROVEMENT OF SOIL QUALITY ASSESSMENT WITH OF INFORMATION TECHNOLOGIES. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 321-324).
8. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)
9. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In *E-Conference Globe* (pp. 35-37).
10. Qodirovich, K. E., Obidovich, A. B., & Kurbonovich, A. A. (2022). Developing the System of Efficient use of Land in Household in Uzbekistan. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, *15*, 249-253.

11. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.

12. Pirimov, J. J., Khudoyberdiyev, F. S., Muhamadov, K. M., & Axtamov, S. F. (2021). Modern Geographic Information Systems in Land Resource Management. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 8, 66-69.

13. Asatov, A. R., Pirimov, J. J., Muhamadov, K. M., Bobojonov, S. O., & Axtamov, S. F. (2021). The Importance of Orthophotoplans in Cadastre Work.

14. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.

15. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.

16. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.

17. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.

18. Shuxrat, A., & Erkin, K. (2020). WAYS TO INCREASE THE EFFECTIVE USE OF LANDS OF PERSONALITIES AND DEKHAN ECONOMIES IN THE BUKHARA REGION. Агропроцессинг, 2(2).

19. Shuhrat, A., Behzod, A., Mironshoh, M., & Azizbek, A. (2021, July). FURTHER DEVELOPMENT OF THE LEMON INDUSTRY IN UZBEKISTAN AND FURTHER IMPROVEMENT OF THE INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THIS AREA. In *E-Conference Globe* (pp. 261-263).

20. Adizov, S. B., Obidovich, A. B., & Maxmudov, M. M. (2021). Rights and Responsibilities of the Spouses. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 7, 14-17.

21. Khamidov, F. R., Adizov, S. B., Karimov, E. Q., & Maxmudov, M. M. (2021). The Role of Peasant Farms and Homestead Lands in The

Development of Agriculture. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 3, 5-8.

22. Directions to Increase the Economic Efficiency of using Farmer Lands in the District SHB Adizov, FR Khamidov - … JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN …, 2022

23. SB Adizov, AB Obidovich, MM Maxmudov. (2021). The Tragedy of the Aral Sea-The Problem of the Century. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 7, 10-13.

24. PROSPECTS FOR THE USE OF HOMESTEAD LANDS FR KHAMIDOV, SB ADIZOV - Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021, 2021

25. ANALYSIS OF CROPS GROWN FOR THE EFFICIENT USE OF LAND DEHKAN FARMS AND HOMESTEAD LANDS OF BUKHARA REGION AS Bafoevich, MR Muxiddinjonovich Агропроцессинг

UO‘T: 528.91

NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI XUSBIDIN SHAHARCHA CHEGARASINI BELGILASH

Egamova Dilchehra Adizovna – tayanch doktrant

Email:dilchehraadizovna@gmail.com

Boboqulov Baxtiyor Kamol o’g’li – magistr

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya.Mamlakatda iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bog'liq holda, sanoat va boshqa obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun yer uchastkalarini berish doimiy ehtiyoj bor. Qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan maqsadlarda yangi yerdan foydalanishni shakllantirish, yer uchastkalarini joylashtirish yer tuzish loyihasini ishlab chiqish, uni ko‘rib chiqish, muvofiqlashtirish va davlat hokimiyati organlari tomonidan ta’sis sub’yektlarining tasdiqlashi natijasida amalga oshiriladi.Ushbu maqolada Qiziltepa tumani Xusbiddin shaharcha chegarasi tavsiflangan.

Kalit so’zlar: Yer tuzish, xo’jaliklararo yer tuzish, chegaralash, yer uchastkasi, loyiha, loyiha hujjatlari, yer tuzish chizmalari, ishlab chiqarish obyektlari, yer hisobi.

UDC: 528.91

SETTING THE BORDER OF KHUSBIDIN SETTLEMENT OF KYZYLTEPA DISTRICT OF NAVOI REGION

Egamova Dilchehra Adizovna-base doktrant

Email:dilchehraadizovna@gmail.com

Babakulov Bakhtiyor Kemal Oglu-master

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation. In connection with the development of economic relations in the country, there is a constant need for the allocation of land for the construction and reconstruction of industrial and other facilities. The formation of new land use for non-agricultural purposes, the allocation of land plots is carried out as a result of the development, consideration, coordination and approval of the land management project by the state authorities. This article describes the boundaries of Husbiddin town of Kyzyltepa district.

Keywords: Land management, inter-farm land management, demarcation, land plot, project, project documentation, land management drawings, production facilities, land accounting.

УДК: 528.91

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ГРАНИЦ ПОСЕЛКА ХУСБИДИН КИЗИЛТЕПИНСКОГО РАЙОНА НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Егамова Дилчехра Адизовна-основной докторант

Email:dilchehraadizovna@gmail.com

Бобокулов Бахтиер Камал угли – мастер

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета "Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"

Аннотация В связи с развитием экономических отношений в стране возникает постоянная потребность в выделении земельных участков под строительство и реконструкцию промышленных и других объектов. Формирование нового землепользования несельскохозяйственного назначения, размещение земельных участков осуществляется в результате разработки, рассмотрения, согласования

проекта землеустройства и утверждения государственными органами В данной статье описаны границы города Хусбиддин Кызылтепинского района.

Ключевые слова: Землеустройство, межхозяйственное землеустройство, межевание, земельный участок, проект, проектная документация, землеустроительные чертежи, производственные объекты, земельный учет.

Kirish. Bozor sharoitida yer tuzishning mazmuni va vazifalari sezilarli darajada o'zgaradi. Bu, asosan, yerning tabiiy resurs va asosiy ishlab chiqarish vositasi, fazoviy asosga aylanibgina qolmay, balki tovarga ham aylanib borayotgani bilan bog‘liq. Yer tuzish yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil qilishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaft larni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi. Yer tuzish istiqbolga mo‘ljallangan, loyihalash oldidan, xo‘jaliklararo hamda ichki xo‘jalik turlariga bo‘linadi. Istiqbolga mo‘ljallangan va loyihalash oldidan amalga oshiriladigan yer tuzishda respublika va mintaqalarning yer-suv resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish chizmalari; tumanlar va viloyatlar yer tizimi chizmalari tayyorlanadi, tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq istiqbol rejalari ishlab chiqiladi

Xo‘jaliklararo yer tuzish yer egaliklarini va yerdan foydalanishlarni tashkil etish va tartibga solish masalalarini yechib, katta hududlarning tashkil etilishiga sezilarli o‘zgarishlar kiritadi. Xo‘jaliklararo yer tuzish bo‘yicha asosiy ishlar, odatda, xo‘jaliklar guruhini qamrab olgani va ko‘pchilik hollarda ma’muriy tumanlar chegaralarida amalga oshirilganligi sababli, xo‘jaliklararo yer tuzish tuman yer tuzish chizmalari bilan yagona texnologik va axborot aloqasida o‘tkaziladi.

Xo‘jaliklararo yer tuzish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

-tayyorgarlik ishlari;

-loyihani tuzish va asoslash, loyiha hujjatlarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash; loyihani joylarga (naturaga) ko‘chirish;

-yer tuzish bilan bog‘liq hujjatlarni tayyorlash, yerdan foydalanish yoki unga egalik qilish huquqini beradigan davlat aktlarini (dalolatnomalarini) berish;

-xo‘jaliklararo yer tuzish loyihasini, yer mulkdorlari, egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan loyihaning bajarilishi ustidan mualliflik nazoratini amalga oshirish.

Xo‘jaliklararo yer tuzishni o‘tkazishda ikkita maqsad ko‘zlanadi. Birinchi maqsad - yerdan oqilona foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etish.

Ikkinchisi - ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish, ya’ni, hududda, uning ishlab chiqarish kuchlari xususiyatlarini hisobga olgan holda - ishlab chiqarish ob’ektlarini va mehnat resurslarini joylashtirish.

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Xusbidin shaharcha chegarasining tavsifi

Ishning borishida quyidagilar aniqlandi(1-rasm):

(A)1-nuqtadan ariq bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 95 metr masofada 2-nuqtagacha davom etadi.

2-nuqtadan ariq bilan janubiy-sharqiy ynalishda 349 metr masofada 3-nuqtagacha davom etadi.

3-nuqtadan ariq bilan shimol tomonga 23 metr masofada 4-nuqtagacha davom etadi.

4-nuqtadan ariq bilan sharq tomonga 120 metr masofada 5-nuqtagacha davom etadi.

5-nuqtadan ariq bilan shimol tomonga 19 metr masofada 6-nuqtagacha davom etadi.

6-nuqtadan ariq bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 124 metr masofada 7-nuqtagacha davom etadi.

7-nuqtadan ariq bilan shimol tomonga 23 metr masofada avtomobil yo‘lini chap tomoniga tutashib 8-nuqtaga davom etadi.

8-nuqtadan avtomobil yo‘lini chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 77 metr masofada 9-nuqtagacha davom etadi.

9-nuqtadan avtomobil yo‘lini chap tomoni bilan janub tomonga 35 metr masofada 10-nuqtagacha davom etadi.

10-nuqtadan avtomobil yo‘lini chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 37 metr masofada, 11-nuqtagacha davom etadi.

11-nuqtadan avtomobil yo‘lini chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 258 metr, 12-nuqtagacha davom etadi.

12-nuqtadan avtomobil yo‘lini chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 197 metr masofada 13-nuqtagacha davom etadi.

13-nuqtadan avtomobil yo‘lini chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 472 metr masofada 14-nuqtagacha davom etadi.

14-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janub tomonga 27 metr masofada 15-nuqtagacha davom etadi.

15-nuqtadan avtomobil yo‘lini chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 152 metr masofada 16-nuqtagacha davom etadi.

16-nuqtadan avtomobil yo‘lini chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 157 metr masofada 17-nuqtagacha davom etadi.

17-nuqtadan avtomobil yo‘lini chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 128 metr masofada dambaga tutashib 18-nuqtagacha davom etadi.

18-nuqtadan damba bilan janub tomonga 91 metr masofada, avtomobil yo‘lining o‘ng tomoniga tutashib 19-nuqtagacha davom etadi.

19-nuqtadan damba bilan janub tomonga 183 metr masofada dala yo‘liga tutashib 20-nuqtagacha davom etadi.

20-nuqtadan dala yo‘li bilan shimoliy-g‘arbil yo‘nalishda 34 metr masofada avtomobil yo‘lining chap tomoniga tutashib 21-nuqtagacha davom etadi.

21-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janub tomonga 81 metr masofada 22-nuqtagacha davom etadi.

22-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni balan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 335 metr masofada, 23-nuqtagacha davom etadi.

23-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 62 metr masofada 24-nuqtagacha davom etadi.

24-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 87 metr masofada 25-nuqtagacha davom etadi.

25-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni janubiy-sharqiy yo‘nalishda 58 metr masofada dambaga tutashib 26-nuqtagacha davom etadi.

26-nuqtadan damba bilan sharq tomonga 362 metr masofada avtomobil yo‘lining o‘ng tomoniga tutashib 27-nuqtagacha davom etadi.

27-nuqtadan avtomobil yo‘lining o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 666 metr masofada 28-nuqtagacha davom etadi.

28-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 252 metr masofada 29-nuqtagacha davom etadi.

29-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 98 metr masofada 30-nuqtagacha davom etadi.

30-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 34 metr masofada 31-nuqtagacha davom etadi.

31-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 142 metr masofada ariqga tutashib 32-nuqtagacha davom etadi.

32-nuqtadan ariq bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 86 metr masofada 33-nuqtagacha davom etadi.

33-nuqtadan ariq bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 241 metr masofada dambaga tutashib 34-nuqtagacha davom etadi.

34-nuqtadan damba bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 323 metr masofada avtomobil yo‘lining chap tomoniga tutashib 35-nuqtagacha davom etadi.

35-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janub tomonga 406 metr masofada 36-nuqtagacha davom etadi.

36-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan g‘arb tomonga 79 metr masofada ariqga tutashib 37-nuqtagacha davom etadi.

37-nuqtadan ariq bilan g‘arb tomonga 181 metr masofada 38-nuqtagacha davom etadi.

38-nuqtadan ariq bilan shimol tomonga 347 metr masofada 39-nuqtagacha davom etadi.

39-nuqtadan arisq bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 311 metr masofada 40-nuqtagacha davom etadi.

40-nuqtadan ariq bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 240 metr masofada 41-nuqtagacha davom etadi.

41-nuqtadan ariq bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 148 metr masofada 42-nuqtagacha davom etadi.

42-nuqtadan ariq bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 24 metr masofada 43-nuqtagacha davom etadi.

43-nuqtadan ariq bilan g‘arb tomonga 174 metr masofada 44-nuqtagacha avtomobil yo‘lining chap tomoniga tutashib davom etadi.

44-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 54 metr masofada 45-nuqtagacha davom etadi.

45-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 38 metr masofada 46-nuqtagacha davom etadi.

46-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy 147 metr masofada 47-nuqtagacha davom etadi.

47-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 71 metr masofada 48-nuqtagacha davom etadi.

48-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 44 metr masofada 49-nuqtagacha davom etadi.

49-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 76 metr masofada 50-nuqtagacha davom etadi.

50-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 186 metr masofada 51-nuqtagacha davom etadi.

51-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 116 metr masofada 52-nuqtagacha davom etadi.

52-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan sharq tomonga 50 metr masofada ariqga tutashib 53-nuqtagacha davom etadi.

53-nuqtadan ariq bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 256 metr masofada avtomobil yo‘lining chap tomoniga tutashib 54-nuqtagacha davom etadi.

54-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 238 metr masofada 55-nuqtagacha davom etadi.

55-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 42 metr masofada 56-nuqtagacha davom etadi.

56-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 273 metr masofada 57-nuqtagacha davom etadi.

57-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan sharq tomonga 79 metr masofada ariqga tutashib 58-nuqtagacha davom etadi.

58-nuqtadan ariq bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr masofada 59-nuqtagacha davom etadi.

59-nuqtadan ariq bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 110 metr masofada avtomobil yo‘lining chap tomoniga tutashib 60-nuqtagacha davom etadi.

60-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy 120 metr masofada 61-nuqtagacha davom etadi.

61-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-sharqiy 330 metr masofada 62-nuqtagacha davom etadi

62-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishida 48 metr masofada 63-nuqtagacha davom etadi.

63-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-sharqiy 83 metr masofada 64-nuqtagacha davom etadi.

64-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 123 metr masofada 65-nuqtagacha davom etadi.

65-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 98 metr masofada 66-nuqtagacha davom etadi.

66-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 34 metr masofada 67-nuqtagacha davom etadi.

67-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 62 metr masofada 68-nuqtagacha davom etadi.

68-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 41 metr masofada 69-nuqtagacha davom etadi.

69-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 102 metr masofada 70-nuqtagacha davom etadi.

70-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 61 metr masofada 71-nuqtagacha davom etadi.

71-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 197 metr masofada 72-nuqtagacha davom etadi.

72-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 59 metr masofada 73-nuqtagacha davom etadi.

73-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishida 197 metr masofada 74-nuqtagacha davom etadi.

74-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 161 metr masofada 75-nuqtagacha davom etadi.

75-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janub tomoniga 49 metr masofada 76-nuqtagacha davom etadi.

76-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 113 metr masofada 77-nuqtagacha davom etadi.

77-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 279 mertda 78- nuqtagacha davom etadi.

78-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 131 mert masofada 79-nuqtagacha davom etadi.

79-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 111 metr masofada 80- nuqtagacha davom etadi.

80-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 259 metr masofada 81- nuqtagacha davom etadi.

81-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 65 metrda 82-nuqtagacha davom etadi.

82-nuqtadan avtomobil yo‘lining chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 80 metrda masofada 1-nuqtaga Arabon qishlog‘i yerlari bilan chegaralanadi.

Xusbidin shaxarchasining umumiy chegara uzunligi 12139 metrni tashkil etib, umumiy yer maydoni 172,53 gektardan iboratdir.

1-rasm

Tadqiqotdan maqsad qishloq xo‘jaligi emas, yerdan foydalanishni joylashtirishning asosiy iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy oqibatlarini har tomonlama o‘rganish va tahlil qilish asosida. atrof-muhitga va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan maqsadlarda, qishloq xo'jaligidan tashqari ehtiyojlar uchun berilgan yer uchastkalarining joylashuvi va hajmining ijtimoiy-iqtisodiy asoslanishini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish orqali quyidagilar tavsiya qilinadi:

1) qishloq xo'jaligidan tashqari maqsadlarda yerlardan foydalanishni shakllantirishning nazariy masalalari;

2) ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlar uchun yer berish amaliyotini o'rganish;

3) yer uchastkalarini berish normalarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot va tavsiyalar ishlab chiqish;

4) yer islohoti sharoitida qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan ob’yektlarning yerdan foydalanishni joylashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. 2020-yil 7- sentabrda “Yer hisobi va davlat kadastlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6061-son Farmoni
2. O’zbekiston Respublikasi yer resurslari geodeziya katografiya va davlat kadastri davlat qo’mitasi tomonidan tayyorlangan “O’zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to’g’risidagi Milliy hisobot. Toshkent 2020yil. 2020yil 1-yanvar holatiga ko’ra
3. “O‘zdaverloyiha”ning “Texnik topshiriq” va “Ishlar dasturi”ga asosan O’zdavyerloyiha DILI Navvilyerloyiha bo’linmasi tomonidan Qiziltepa tumanida o’tkazilgan xatlov ishlari hisoboti.
4. Egamova, Dilchehra Adizovna; Bobojonov, Said; Muhamadov, Qamariddin Muxtarovich. "BUXORO VILOYATIDA TUPROQ MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Студенческий вестник 18-11 (2021): 92-94
5. Egamova, D.A, Shukurova N.O, Ahmadov B.O (2020). EFFICIENT AND RATIONAL USE OF LAND RESOURCES IS A REQUIREMENT OF THE TIME. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 327-328).
6. Karimov E Q 2020 Improvement Effectiveness of Soil Quality Index Assessment in Irrigated Areas Int. J. Adv. Res. Sci. Eng. Technol. **7(3)** 13145-13150
7. Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. **International** Journal of Human Computing Studies (IJHCS). https://journals.researchparks**.** org/index. php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 | April 2022. Page 70
8. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
9. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
10. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.

11. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.
12. Egamova Dilchehra Adizovna, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). IMPROVEMENT OF SOIL RECLAMATION (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION). Euro-Asia Conferences, 5(1), 285–286.
13. Egamova, D. A., Azimova, S. J., Muxamadov, Q. M., & Bobojonov, S. (2021). LABOR RELATIONS ON THE FARM. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (6-2), 23-26.

UO'T 631.1.631.4.6575.172.043

EKOLOGIK BEQARORLIK SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISHNI OQILONA TASHKIL ETISH

Asatov Sayitkul Rahimberdiev - Biologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
Email:sasatov1968@gmail.com.
Sulaymonov Javohir Ne'matjon o'g'li – assistent
Hasanov Fayzullo Fazliddin o'g'li - magistrant
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institute

Annotatsiya. Maqolada ekologik beqarorlik sharoitida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni oqilona tashkil etish, foydalanish samaradorligini oshirish, sug'oriladigan tuproqlarning unumdorligini saqlash, oshirish va ulardan oqilona foydalanish, ikkilamchi sho'rlanish jarayonlariga qarshi kurashda resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish muammolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yer fondi, qishloq xo'jdaligi, degradatsiya, tuproq qoplami, sho'rlanish, eroziya, cho'llanish, voha, unumdorlik, almashlab ekish, Meliorativ, gumus.

UDC 631.1.631.4.6(575.172).(043)

FROM AGRICULTURAL LAND IN CONDITIONS OF ENVIRONMENTAL INSTABILITY RATIONAL ORGANIZATION OF USE

Asatov Sayitkul Rahimberdiev-doctor of philosophy in Biological Sciences (PhD) Email:sasatov1968@gmail.com

Sulaymonov Javahir Ne'matjon ugli – assistent

Khasanov Fayzullo Fazliddin ugli-Master

"Tashkent Institute of irrigation and agricultural engineers"

Nationaliqotiqat University Bukhara institute of Natural Resources Management

Annotation. The article analyzes the problems of rational organization of the use of agricultural land in conditions of ecological instability, increasing the efficiency of its use, maintaining, increasing the fertility of irrigated soils and their rational use, introduction of resurstejamkor technologies in the fight against secondary salinization processes.

Key words: Land Fund, rural area, degradation, soil cover, salinity, erosion, desertification, Oasis, fertility, crop rotation, Reclamation, humus.

Muammoning dolzarbligi. Bugungi kunda «dunyo yer fondining asosiy muammolari tuproqlar unumdorligining kamayishi, tuproq eroziyasi, ularning ifloslanishi, biologik hosildorligining yo'qolishi, sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanishi va botqoqlanishidir. Hisob-kitoblarga qaraganda insoniyat hozirga kelib 2 milliard gektar hosildor yerlarni yo'qotib bo'ldi, jumladan, birgina eroziya sabab har yili dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligida foydalaniladigan 5-6 million gektar, sho'rlanish va botqoqlanish sababli 1,5 million gektar yer maydonlari qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketmoqda»[4]. Shu sababli ekologik beqarorlik sharoitida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni oqilona tashkil etish, sug'oriladigan yerlarni meliorativ-ekologik holatini yaxshilash, degradatsiya jarayonlaridan muhofaza qilish, ularning oldini

[4] https://hozir.org/jahon-qishloq-xojaligiga-umumiy-tarif. html

olish va unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida agrar sohani isloh qilish va yanada rivojlantirish yangi shakllardagi qishloq xo‘jalik korxonalarini tashkil etish hamda har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha juda katta tarixiy ishlar amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnika va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan yilga jadallanib bormoqda. Turli yo‘nalish va ixtisosliklardagi fermer xo‘jaliklarini tashkil etish, ularni ko‘p tarmoqli, iqtisodiy jihatdan qudratli xo‘jaliklarga aylantirish va nihoyat bunday xo‘jaliklarni asosiy tovar qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchilariga aylantirish bo‘yicha davlatimiz rahbariyati tomonidan katta tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday tadbirlar natijasida cheklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan, va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi oshmoqda, qishloq aholisining turmush madaniyati yanada yuksalmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish orqali ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning ekspert salohiyatini sezilarli darajada oshirish muhim vazifalardan xisoblanadi. Respublikamizda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish, sug‘oriladigan tuproqlarning unumdorligini saqlash, oshirish va ulardan samarali foydalanish, ikkilamchi sho‘rlanish jarayonlariga qarshi kurashda resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali ilmiy asoslangan dehqonchilikni rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar va ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.

Tadqiqotning vazifalari. Dissertatsiya ishining maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- Ekologik beqarorlik sharoitida qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanishning mavjud holatini tahlil qilish va baholash;

- Fermer xo‘jaliklari yerlarini joyning ekologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- Sug‘oriladigan tuproqlarning qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan zaharli moddalar bilan ifloslanishi darajasini aniqlash va ular asosida hudud tuproqlarining ekologik holatini baholash;

- Joyning ekologik sharoitlari asosida qishloq xo‘jaligi ixtisosliklariga zaruriy o‘zgartirishlar kiritgan holda mavjud qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanishini qayta tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqot obyekti bo‘lib Buxoro viloyatining ekologik beqaror hududlaridan hisoblangan qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yer maydonlari hisoblanadi.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi va bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olish va iqtisodiyotimizni mustahkamlash eng muhim vazifalaridai biridir. Bu borada sug‘oriladigan yerlardan foydalanishni har tomonlama va chuqurroq o‘rganish, tuproq unumdorligini oshirishga oid tadbirlarni sifatli va me’yorida hamda o‘z vaqtida o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan sug‘oriladigan yerlarda tuproqning sho‘rlanish darajasining asta-sekin ortib borishi, asosiy ekinlar hosildorligining pasayishi va atrof-muhit ekologik holatining yomonlashishi hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Tuproq ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, uning unumdorligini oshirish, suv-tuz tartibini maqbul darajada boshqarish, hozirgi kunda sodir bo‘layotgan jarayonlarni ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri tahlil qilishni taqazo etadi. Bu borada Buxoro viloyatida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari e’tiborga loyiq. Buxoro viloyatining umumiy maydoni 4183,1 ming gektar bo‘lib, u 11 ta qishloq xo‘jalik tumanlariga bo‘linadi. Sug‘orishga yaroqli yerlar 954,3 ming gektarni, shundan sug‘oriladigan yerlar 226,6 ming gektarni tashkil qiladi, ushbu maydonning 192,8 ming gektari yoki 85,1 foizi turli darajada sho‘rlangandir.[2]

Yerni inson faoliyati uchun muhimligini e’tirof etgan holda, eng avvalo, resurs sifatida qarash zarur. U resurs sifatida qator xususiyatlarni o‘ziga mujassamlashtirgan. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat: joyning kengligi va relefi, tuproq qatlami, tabiiy o‘simliklari, geografik va gidrogeologik xususiyatlari. Ushbu xususiyatlar yerni tabiyatning bir bo‘lagi, tabiiy tana sifatida tavsiflanadi. Bular ichida qishloq xo‘jaligi uchun eng asosiysi tuproq bo‘lib, u o‘zida eng muhim xususiyat-unumdorlik xususiyatini mujassamlashtirgan. Aynan ushbu xususiyat yerni boshqa tabiiy resurslardan tubdan farqlanishiga asos bo‘ladi. Umuman resurslarni quyidagi turlarga ajratish mumkin (1-chizma).



1-chizma. Resurslarning umumiy tavsifi.

Ushbu resurslar ichida tabiiy nuqtai nazardan yer tabiatning ulug‘ ne’mati, uning bir bo‘lagi sifatida qaraladi. Iqtisodiy nazardan esa yer ishlab chiqarish vositasi sifatida tushuniladi. Yer bu yerda moddiy obyekt sifatida qaralishi bilan bir qatorda jamiyat ishlab chiqarishni mavjud bo‘lish jarayonining obyektiv birligi sifatida tushuniladi. Shu jihatdan yer undan unumli foydalanishni ifodalaydigan sifatni o‘zida mujassamlashtirgan. Boshqacha qilib aytganda, yer jamiyatning ishlab chiqarish jarayonida shunday bir muhim shartki, ushbu shartsiz mehnat jarayonini va umuman har qanday faoliyatni amalga oshirish mumkin emas.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerning, ya’ni tuproqning muhim xususiyati – bu uning unumdorligidir. Yer aynan ushbu xususiyati bilan boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farq qiladi. Tuproqning unumdorligini oshirish uchun inson yerga turlicha ta’sir o‘tkazadi: yer haydaydi, yumshatadi, sug‘oradi, mineral va mahalliy o‘g‘itlar soladi va hakoza. Natijada u tuproqdagi ozuqo moddalar miqdorini oshiradi hamda ularni o‘simliklar tomonidan oson o‘zlashtirishiga imkoniyat yaratadi. To‘g‘ri, tuproq unumdorligini oshirish imkoniyatini beradigan boshqa qator tadbirlar ham mavjud. Ammo foydalaniladigan yer maydonlari sifatining barcha ijobiy o‘zgarishlari qo‘shimcha mablag‘ va mehnat sarfi bilan uzviy bog‘liqdir.

Hozirgi paytda qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarda, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlarda shakllangan salbiy ekologik jarayonlarning birinchisi cho‘llanish (saxrolanish), ikkinchisi esa ikkilamchi sho‘rlanish ekanligini va bu jarayonlarning tuproq meliorativ holati va o‘simliklarga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur o‘rganib, ularning oldini oladigan texnologik tadbirlar ishlab chiqish lozimligini ko‘rsatib o‘tgan. Uchinchi salbiy jarayon

bu sug‘oriladigan yerlarning irrigatsiya eroziyasiga uchraganligi hisoblanib, tuproq unumdorligini pasayishining to‘rtinchi sababi, tuproqdagi gumus miqdorining kamayib ketishidir. Bugungi kunda tuproqlarning qishloq xo‘jalik ekinlari uchun zarur bo‘lgan oziqa elementlari bilan qanday ta’minlanganligi ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa tuproq tarkibidagi fosfor va kaliyning harakatchan miqdori kamayib bormoqda. Bularning oldini olish uchun qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildor navlarini ekish, sug‘orish va o‘g‘itlashni eng samarali tizimini ishlab chiqish, tuproqni toza, sog‘lom saqlab unumdorligini muttasil oshirib borish eng asosiy yo‘ldir.

Kuzatuv davrida Buxoro vohasining sug‘oriladigan maydonlari meliorativ holatida sodir bo‘layotgan salbiy jarayonlarni o‘rganib chiqish uchun viloyatdagi suv xo‘jalik tashkilotlari ma’lumotlari olib o‘rganildi. Tahlil qilingan ma’lumotlarda, shuningdek, meliorativ kadastr ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda viloyat bo‘yicha 38 ming gektar (13,8 %) yaxshi, 211,4 ming gektar (76,8 %) qoniqarli hamda 26,3 ming gektar (9,6%) meliorativ nuqtai nazardan qoniqarsiz maydonlarni tashkil qiladi (2.4.1-rasm). Viloyatda mavjud sug‘oriladigan maydonlarning 238,0 ming gektari, yoki 86,2 foizi turli darajada sho‘rlangan yerlardan iborat. Shundan 66,932 ming gektari o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan maydonlarni tashkil qiladi. Vohada har yili vegetatsiya mavsumida sho‘ri yuvilgan maydonlarda sho‘rlanishning qayta tiklanishi keyingi yillarda deyarli bir xil sur’atlarda davom etmoqda.

Yerdan foydalanishni tashkil etish sug‘oriladigan hududlarda, albatta, suvdan foydalanishni tashkil etish bilan uzviy bog‘liqdir. Ekologik tanglik hukm surayotgan mintaqalarda bu muammani hal qilish juda muhimdir, negaki bu hududdagi sug‘oriladigan yerlarning aksariyat qismi sho‘rlangandir. Bunday sho‘rlangan yerlarda faoliyat ko‘rsatish sho‘rlanmagan yerlarga nisbatan mahsulot yetishtirish uchun qo‘shimcha sarf-xarajatlarni talab qiladi, demak, mahsulotning tannarxi ham yuqori bo‘ladi. Shuning uchun ham sho‘rlangan yerlarda faoliyat ko‘rsatayotgan yerdan foydalanuvchini iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish, bu hududlarda moddiy manfaatdorlikni yaxshilash orqoli turli sifatdagi yerdan foydalanishlar bo‘yicha daromad muvozanatini tiklash nafaqat iqtisodiy samara, balki, ijtimoiy samara ham beradi. Chunki bu bir tomondan yerlarni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishdan chiqib ketishni

oldini olsa, ikkinchi tomondan ushbu hududda yashayotgan xalqlarni ko‘chib ketmasligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://hozir.org/jahon-qishloq-xojaligiga-umumiy-tarif. html
2. SR Asatov, EK Karimov, BO Ahmadov, SF Akhtamov Use of Land information system in district land fund distribution " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM, 18-19
3. Asatov S.R., i.dr. Pyti ylyчшeniyu meliorativno-ekologiчeskogo sostoyaniya poчvennogo pokrova Byxarskogo oazisa respybliki Yzbekistan. “POKOLENIE BYDYЩEGO: Vzglyad molodыx ucheныx-2021”. Sbornik nayчnыx statey 10-y Mejdynarodnoy molodejnoy nayчnoy konferensii.Rossiya, g. Kyrsk, 2021.st-265-268
4. Asatov Sayitqul, Axtamov Suxrob, Mahmudov Mironshoh. Removal of chemical weed killers and organics from irrigated land. International Conference on Scientific, Educational & Humanitarian Advancements Hosted online from, Samsun, Turkey, July 15 th , 2021.pp-264-267. www.econferenceglobe.com.
5. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
6. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.
7. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
8. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
9. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. Актуальные проблемы современной науки (pp. 101-103).

10. Karimov, E. Q. (2020). IMPROVEMENT OF SOIL QUALITY ASSESSMENT WITH OF INFORMATION TECHNOLOGIES. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 321-324).
11. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)
12. Karimov, E. K., Bobozhonov, S. U., Mukhammadov, K. M., & Akhtamov, S. (2021, June). POSITION AND EFFECTIVE USE OF LAND FOR AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In E-Conference Globe (pp. 50-53).
13. Karimov E, Ahrorov A, & Tolibov Sh. (2022). FUNDAMENTALS OF EFFICIENT USE OF LAND AND WATER RESOURCES. Euro-Asia Conferences, 39–41.
14. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In E-Conference Globe (pp. 35-37).
15. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).
16. Bullock.D.G 1992 yil “Ekinlarni aylantirish”.O`simlikshunoslik bo`yicha tanqidiy sharhlar. Ekinlarni aylantirish.Yangi xalqaro ensiklopediya.1905 yil.

UO‘T 332.6

KO‘P QAVATLI UY - JOYLARNI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Adizova Farangiz Nurali qizi – assistent
Email: adizovafarangiz090@gmail.com
Ahmadov Behzod Obidovich – Doktorant
Ganiyev Islombek Homidjon o’g’li – Talaba
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Qayd qilish zarurki, urbanizatsiya jarayonining keskin rivojlanishi hamda aholi sonining oshib borishi mamalakatda uy-joy

qurilishiga bo'lgan talabni sezilarli ravishda kuchaytirmoqda. Bu masalaning optimal yechimi ko'p qavatli uy-joylar qurilishidir. Bugungi kunda olib borilayotgan uy-joy islohotlari buning yaqqol dalili desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'p qavatli uy-joylar nafaqat aholini uy-joy bilan ta'minlash , balki shaharlar qiyofasini tubdan o'zgartirish va zamon talabiga javob bera oladigan darajaga yetkazishda qo'l keladi. Shu sababli mamlakatimizda ham ko'p qavatli turar joylar qurilishi ham jadal tus olmoqda.

Kalit so'zlar: Ko'p qavatli uy joylar, kommunal xizmat ko'rsatish, ko'chmas mulklarni baholash, texnik jihatdan baholash, bozor nuqtai nazardan baholash.

UDC 332.6

THEORETICAL BASIS FOR THE EVALUATION OF MULTI-STOREY HOUSING

Adizova Farangiz Nurali qizi- assistant Email: adizovafarangiz090@gmail.com
Ahmadov Behzod Obidovich – Doctoral student, Ganiyev Islambek Homidjon oglu – student
Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation: It should be noted that the sharp development of the urbanization process as well as the increase in the population significantly exceeds the demand for housing construction in the country. The optimal solution to this issue is the construction of multi-storey houses. It would not be an exaggeration to say that the housing reforms carried out today are evidence of this. Multi-storey houses are used not only to provide housing for the population, but also to radically change the appearance of cities and bring them to the level to which they can meet the modern demand. For this reason, the construction of multi-storey residences in our country is also gaining momentum.

Key words: multi-storey housing, utility, real estate valuation, technical valuation, market valuation from a market perspective.

O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga oqilona va samarali

integratsiyalashuvi bosqichida bozor qonuniyatlariga asoslangan milliy iqtisodiyot bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda, uning tarkibida, xususan, tarmoqlar va hududiy tuzilmalar rivojlantirilmoqda. Bozor transformatsiyasi jarayonlarida milliy iqtisodiyot amal qilishi va rivojlanishida o'ziga xos tendensiya va qonuniyatlar yuzaga chiqmoqda. Mamlakatimizda mavjud moddiy, iqtisodiy, intellektual resurslardan oqilona foydalanish, cheklangan zahiralardan yuqori samara olish, aholi turmush darajasining pasayib ketishining oldini olish va muttasil oshirib borish, va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda, tegishli islohotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ko'p qavatli uy-joy siyosati kommunal sohani ham chetlab o'tmadi. O'zbekiston Respublikasida Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi 2017 yil 18 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5017- sonli Farmoniga asosan tashkil etilgan bo'lib, turli vazifa yo'nalishlarni qamrab oladi. Har bir shahar, viloyat, tuman qishloq uy-joy tan1ashda ularda yashaydigan aholining demografik tarkibiga qarab har-xil sonli nisbatlari olinadi. Respublikamiz aholisining demografik tarkibi, albatta boshqa davlatlar ko'rsatkichidan o'zgachadir. Ayniqsa ko'rsatkich Boltiq bo'yi davlatlari Belorussiyadagidan katta farq qiladi. O'zbekistonda bir yillik aholining o'sishi 3% ni tashkil etadi. Boshqa qo'shni davlatlar ko'rsatkichiga nisbatan bizning respublikamizda ko'p bolali oilalar ko'proqdir. Bu esa, o'z navbatida, ko'p xonali xonadonlaming nisbiy foizini oshirishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari:

- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;
- ko'p xonadonli arzon uylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilishini ta'minlash, ko'p xonadonli arzon uylar, suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti obyektlari qurilishi bo'yicha buyurtmachi funksiyalarini amalga oshirish, eski va avariya holatidagi uy-joylar buzilishini tashkillashtirish;
- ko'p xonadonli uylarning texnik holatini monitoring qilish, shu jumladan, ko'p xonadonli uy-joy fondini mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini tashkil qilish;

- xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash, ulardan foydalanish va ekspluatasiya harajatlarini aniqlash bo'yicha talablarga, ko'p xonadonli uylarni texnik ekspluatasiya qilish qoidalari va normalariga, ko'p xonadonli uylarga tutash hududlarning sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga muvofiq holda saqlanishiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- suv ta'minoti va kanalizatsiya obyektlarini, issiqlik ta'minoti tizimlarini aholi punktlarini rivojlantirish sxemalari va bosh rejalari bilan bog'lagan holda rivojlantirish, modernizasiya va rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning sifatli bajarilishini tashkillashtirish, mazkur soha tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqaruvini ta'minlash;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimiga resurs va energiya tejaydigan texnologiyalar hamda uskunalarni tadbiq etish, jumladan, uy-joy kommunal xo'jaligi obyektlarini zamonaviy hisoblash o'lchov asboblari bilan jihozlash, qurilish-montaj ishlari tannarhining pasayishini ta'minlaydigan mahalliy zamonaviy va sifatli qurilish materiallari hamda buyumlarini keng qo'llash;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash, rivojlangan horijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini inobatga olgan holda uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga tarif siyosatini shakllantirish, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha takliflar kiritish, o'quv stajirovkalarini chet ellarda o'tkazishni nazarda tutgan holda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, idoraviy axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi joriy etilishini nazarda tutish.

O`zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasi va farovonligini o`rganish maqsadida, davlat statistika organlari tomonidan har yili uy xo`jaliklarida tanlama usulda kuzatuvlar o`tkaziladi. "Aholi

turmush darajasi" tushunchasi juda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uni tavsiflash uchun biror indikatorni tanlash qiyin, shuning uchun bu atamaning turli jihatlarini tavsiflaydigan bir qator statistik ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi. O`z navbatida, uy xo`jaliklarida kuzatuv o`tkazish uslubiyoti Jahon Banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining tavsiyalariga asoslangan bo`lib, O`zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o`tkaziladi. Bir yil davomida respublika bo'yicha 10 000 dan ortiq uy xo'jaliklarida, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 588 ta, Andijon 780 ta, Buxoro - 648 ta, Jizzax - 492 ta, Qashqadaryo - 828 ta, Navoiy - 516 ta, Namangan - 756 ta, Samarqand - 936 ta, Surxondaryo - 720 ta, Sirdaryo - 432 ta, Toshkent - 840 ta, Farg'ona - 936 ta, Xorazm - 624 ta va Toshkent shahrida 912 ta uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkaziladi. 2017 yilda o`tkazilgan uy xo`jaliklari tanlama kuzatuvlarida 53 mingdan ortiq aholi qamrab olingan bo`lib, o`rtacha bir uy xo`jaligiga 5,1 kishidan to`g`ri kelganini ko`rsatdi.

Ko'p qavatli uy joylar hisobi ko'p qavatli uy-joylar ning miqdolari, xolatlari va sifati bo'yicha to'liq ma'lumotlarni olish, qayta ishlash, ma'lum bir tizim va tartibga solish hamda saqlash bo'yicha majmuali tadbirdir. Ko'p qavatli uy-joylar miqdor jixatidan hisob - kitob qilish ularni aholi punktining ma'lum bir hududiy birikmalari, idoraviy mansubliklari, binolarning funksional mohiyatlari bo'yicha taqsimlanishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bino va inshootlarni sifat jihatidan hisob qilishning asosiy vazifasi - bino va inshootlarni qurilish materiallari, kapitalligi, moddiy va ma'naviy eskirishi nuqtai nazarlardan obyektlarga sifat tavsifnomasini berishdan iboratdir. Ko'chmas mulklarni baholash- bu bugungi bozor munosabatlari sharoitlaridan kelib chiqqan holda ko'chmas mulk bozori qatnashchilari tomonidan mavjud tamoyillar asosida bino va inshootlarni iqtisodiy qiymatini aniqlashdan iborat.

Bino va inshootlarni baholash 2 ko'rinishga ega bo'lishi mumkin: texnik jihatdan baholash (qurilishga sarflangan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni hisobga olgan holda) va bozor nuqtai nazardan baholash:

- Birinchi ko'rinishadagi baholash ma'lum ko'rsatkichlarga va qiymatlarga asoslanadi. Bunday baholash natijalari sug'urtalash, soliq, investitsiya, garovga qo'yish kabi masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Albatta, bunday baholash natijalari ushbu bino yoki inshootni bozorga

tortishda uni boshlang’ich qiymatini belgilashga ham muhim asos bo’ladi;

- Ko’p qavatli uy-joylarni bozor nuqtai nazaridan baholashda uni nazariy asoslari bo’lib ko’chmas mulk bozaori qatnashchilarini jahon amaliyoti jarayonida ishlab chiqilgan baxolash tamoyillari (talab va taklif, o’zgarish, raqobat, o’rnini egallash, chegaralangan mahsuldorlik, ancha yaxshi va ancha jadal foydalanish, moslik, kutish) ning soddalashtirilgan tamoyillari hisoblanadi.

Shiddatli zamon o’zgarishi oqibatida shaharlardagi turar joy obektlarining ko’proq qismini ko’p qavatli uy-joylar tashkil qiladi. Bunda, jismoniy shaxslarga tegishli bo’lgan ko‘chmas mulk obyektlari jumladan turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffiqiyatini belgilab beradi. Ko’p qavatli uy xonadonining qiymatini baholash metodologiyasini qo‘llashga oid masalalar va ularning mazmun-mohiyati, hususiyatlari va jihatlarini mustaqil ravishda tahliliy ochib berish va tizimlashtirish asosida konkret bilimlarga ega bo‘lish, muhim nazariy-amaliy xulosalar shakllantirish, shaxsiy fikr va qarashlarni asoslab berish qobiliyatiga erishish va ko‘nikmasini egallash zarurati mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ko'p qavatli uylar Qurilish iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan qaralsa uylar o’rtaqavatli uylardan qimmatroqqa tushadi,ammo yer sathida ko'proq aholini joylashtirish imkonini beradi. Shuning uchun bu xildagi uylar katta shaharlar uchun asosiy turar joy binolari hisoblanadi. O'zbekistonning iqlim sharoitida xonadonni yer sathi va ochiq havo bilan bog'lash an'anaga aylanib qolgan. Shaharlaming tez o'sishi va yer sathini ehtiyot qilish o'rta va ko'p qavatli uylaming qurilishiga olib keldi. Mazkur ilmiy-tadqiqotning maqsadi ushbu ko’p qavatli uy joydagi ko’chmas mulk obektlarining kadastr bahosini aniq hisoblash usullarini o’rganishdan iborat.

Xulosa: Hozirgi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga xos bo‘lgan raqobatli va intensiv ravishda rivojlanish sharoitida mulkning adolatli qiymatini baholash hamda baholashda yondashuv va usullarni asoslangan holda qo‘llanilishiga katta ahamiyat berilib kelinayotganligi bejiz emas. Chunki, baholash faoliyati obyekti bo‘lmish mulkning turli-tuman shakllari, turlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda hamda mulkning tabiati, xarakteristikalariga qarab baholashning yondashuv va usullarini asosli qo‘llanilishi zarur va muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ko‘chmas mulk qiymatini, jumladan, ko‘p qavatli uy xonadonining qiymatini

baholashda yondashuv va usullarni ilmiy asoslangan holda va sifatli qo‘llanilishi aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynaydi va mulkiy munosabatlarni amalga oshirishda ishonchli qaror qabul qilishga xizmat qiladi. Chunki, barcha iqtisodiy subyektlar, ya’ni davlat organlari, yuridik yoki jismoniy shaxslar ko‘p qavatli uy xonadonining qiymatiga to‘g‘ri va sifatli baho berilishiga ehtiyoj sezib, ular uchun sotish va sotib olish, ijara, garov, sug’urta, merosxo‘rlik huquqining bajarilishi, sud hukmining ijro etilishi va boshqa bir qancha faoliyatlarni amalga oshirilishi uchun o‘z vaqtida obyektni sifatli va ishonchli baholash katta ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalarini amaliyotda qo‘llash, ko‘p kvartirali uy-joydagi ko‘chmas mulk obyektlarning kadastr yig‘ma jildlarini o‘rganib chiqish, ishlab chiqarish personalini tanlab olish va tayyorlash (yo‘riqnomalar bilan tanishish hamda sinov ishlarini bajarish).

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov, E., Akhrorov, A., & Sh, T. (2022). Natural Geographical Zoning of Agricultural Land. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, *2*(2), 100-103.
2. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).
3. Karimov E. K., Bobozhonov S. U., Mukhammadov K. M. Influence of the properties of irrigated soils on the productivity of the vobkent district EK Karimov //" Online-conferences" platform. – 2021. – С. 59-61.
4. Karimov, E. K., Asadov, T. A., Kodirov, M. I., & Soliev, A. A. (2017). Evaluation, preservation and improvement of soil fertility, organization of rational land utilization. In European Conference on Innovations in Technical and Natural Sciences (pp. 55-60).
5. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. *Актуальные проблемы современной науки* (pp. 101-103).
6. Karimov, E. Q. (2020). IMPROVEMENT OF SOIL QUALITY ASSESSMENT WITH OF INFORMATION TECHNOLOGIES. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 321-324).
7. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)

8. Karimov, E. K., Bobozhonov, S. U., Mukhammadov, K. M., & Akhtamov, S. (2021, June). POSITION AND EFFECTIVE USE OF LAND FOR AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In *E-Conference Globe* (pp. 50-53).

9. Karimov E, Ahrorov A, & Tolibov Sh. (2022). FUNDAMENTALS OF EFFICIENT USE OF LAND AND WATER RESOURCES. *Euro-Asia Conferences*, 39–41.

10. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In *E-Conference Globe* (pp. 35-37).

11. Qodirovich, K. E., Obidovich, A. B., & Kurbonovich, A. A. (2022). Developing the System of Efficient use of Land in Household in Uzbekistan. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, *15*, 249-253.

12. Obidoglu, A. B., & Kodirovich, K. E. (2021). Protection of Property in Uzbekistan and Further Improvement of Private Property. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, *1*(3), 25–27.

13. Pirimov, J. J., Khudoyberdiyev, F. S., Muhamadov, K. M., & Axtamov, S. F. (2021). Modern Geographic Information Systems in Land Resource Management. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 8, 66-69.

14. Asatov, A. R., Pirimov, J. J., Muhamadov, K. M., Bobojonov, S. O., & Axtamov, S. F. (2021). The Importance of Orthophotoplans in Cadastre Work.

15. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.

16. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.

17. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.

18. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.

19. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.

UO‘T 549.4

YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YERGA NISBATAN XUSUSIY MULKCHILIK SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.

Adizova Farangiz Nurali qizi – assistant Email: adizovafarangiz090@gmail.com

Ahmadov Behzod Obidovich – Doktorant , Axrorov Abdullo Kurbonovich – Magistrant

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annonatsiya: Ushbu maqolada yerlarni xususiy sektorga o’tkazish, yerlarni xususiy sektorga o’tkazishning tashkiliy-huquqiy jihatlari, yer uchastkalarini ajratishning barcha uchun teng, shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan tartibini joriy etish, yerga oid mulkiy va huquqiy munosabatlarda barqarorlikni ta’minlash, yerlarni muhofaza qilish, yer egalarining mulkiy huquqlarini kafolatlash, shuningdek, yerning iqtisodiy qiymatini belgilash orqali uni fuqarolik huquqiy munosabatlar obyekti sifatida erkin muomalaga kiritish masalalari haqida fikr yurutilgan.

Kalit so’zlar: xususiylashtirish, xususiy mulk, bozor aktivi, oborot, yer hisobi, iqtisodiy qiymat, ijara huquqi, ijara huquqi, auksion

УДК 549.4

ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ФОРМ ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ НА ЗЕМЛЮ В ЭФФЕКТИВНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЗЕМЛИ.

Адизова Фарангиз Нурали кизи-ассистент Email: adizovafarangiz090@gmail.com

Ахмадов Бехзод Обидович – докторант, Ахроров Абдулло Курбанович-Магистр

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета "Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос передачи земель частному сектору, организационные и правовые аспекты передачи земель частному сектору, введение равной, прозрачной и рыночной процедуры для всех при выделении земельных участков, обеспечение стабильности в имущественных и правовых отношениях с землей, защита земель, гарантирование прав собственности землевладельцев, а также.

Ключевые слова: приватизация, частная собственность, рыночный актив, оборот, земельный учет, экономическая ценность, аренда, аренда, аукцион

UDC 549.4

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING PRIVATE OWNERSHIP FORMS IN RELATION TO LAND IN EFFECTIVE USE OF LAND.

Adizova Farangiz Nurali qizi- assistant Email: adizovafarangiz090@gmail.com
Ahmadov Behzod Obidovich – Doctoral student, Akhrorov Abdullo Kurbanovich - Master

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation: in this article, the issue of transferring lands to the private sector, the organizational and legal aspects of transferring lands to the private sector, the introduction of an equal, transparent and market-based procedure for all the allocation of land plots, ensuring stability in property and legal relations with the land, protection of land, guaranteeing the property rights of land owners, as well as.

Keywords: privatization, private property, market asset, turnaround, land account, economic value, lease, lease, auction

Kirish: Yerlarni xususiylashtirish yerning bozor aktiviga aylanishiga zamin yaratadi. Yerlar xususiylashtirish yerga nibatan mulkchilik shaklining rivojlanishiga mulkning daxlsizligini yanada mustahkamlashga olib keladi. Xususiy mulkka aylangan yerning bahosi yil o'tgan sayin ortib

boradi. Mulkini xususiylashtirgan mulkdor o'z mulkini to'laqonli himoya qila oladi, uni garovga qo'yish va ijaraga berishda mukammal huquqiy munosabatlarga kirisha oladi. Yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risidagi qaror suddan tashqari tartibda qayta ko'rib chiqilmaydi. Xususiylashtirilgan yerni oldi-sotdi qilish jarayonida mulkdor yerning bahosini erkin belgilay oladi. Xususiylashtirilgan yerning qiymati doimiy oshib boradi. Xususiylashtirilgan yer uchastkalari xususiy mulk va fuqarolik muomalasi obyektlaridir.

Muammoning qo'yilishi: Ko'pchilikka yaxshi ma'lumki, yer ajratish, umuman, yerga oid munosabatlarni tartibga solishda tarixiy qadam qo'yilmoqda. Davlatimiz rahbarining qat'iy irodasi va tashabbusi bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini mulk huquqi asosida xususiylashtirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu bir tomondan ham tadbirkorlik subyektlarining, ham jismoniy shaxslarning mulk huquqi kafolatini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan yer uchastkalarini qonuniy bozor aktiviga aylantirish orqali iqtisodiyotga bir necha milliard dollarlik qo'shimcha kapital kiritilishini anglatadi. Boshqacha aytganda, birgina shu islohot doimiy yoki ijara huquqi asosida yer maydonlaridan foydalanib kelayotgan bir necha million jismoniy va yuridik shaxslarga o'z yer uchastkalarini imtiyozli shartlarda xususiylashtirish orqali bir kechada minglab dollarga boyish imkoniyatini beradi. Qolaversa, fuqarolar o'rtasidagi yer uchastkalari oldi-sotdisi ham vanihoyat qonuniylashadi (shu kungacha quruq yer maydoni oldi-sotdisi noqonuniy hisoblangan). [1].

Bugungi kunda 1 million 100 mingta uy-joyning hujjati 15 yildan ortiq vaqt mobaynida rasmiylashtirilmagani, 145 mingta ko'chmas mulk obyektidan 15 yildan kam muddat mobaynida hech qanday hujjatsiz foydalanib kelingani, shuningdek, noqonuniy egallangan 8,5 ming gektar yerda va muhofaza zonalarida 67 mingta obyekt qurilgani aniqlangan. Biroq, kadastr xizmati organlari, tumanlar va shaharlar hokimlari ushbu obyektlarning kadastr hujjatini tayyorlab, ular bo'yicha mulk huquqini e'tirof etish, o'zboshimchalik bilan egallangan yerlarda qurilgan obyektni buzish yoki ularga egalik huquqini byerish ishlari to'liq yakunlamagani qattiq ko'rsatib o'tildi. Jumladan, 15 yildan ortiq vaqt foydalanib kelingan 1,1 millionta uy-joydan 751 mingtasi yoki 68 foizi bo'yicha kadastr hujjatlari tayyorlangani, ushbu ishlar nazoratdan chetda qolgani aniqlangan. Bugun yer hisobi va davlat kadastri sohasidagi kamchiliklarga

ko’z yugurtirib chiqadigan bo’lsak birgina 2020-yilda 50 mingga yaqin holatda 11200 gektar yer o’zboshimchalik bilan egallangan, shundan 3200 gektarda noqonuniy uy-joy qurilgan. Bularning 99 foizi sug’oriladigan, unumdor qishloq xo’jaligi yerlari hisoblanadi. Umuman, 113 tumanda yer fondi toifalari va turlarining aniq hisob-kitobi bo’lmagani oqibatida ko’plab zaxiralar yo’qotilmoqda. Bundan tashqari O’zbekistonda 21 turdagi davlat kadastri mavjud. Lekin bugungi kunda 9 ta kadastr bo’yicha ma’lumoV tlar atigi 50foiz shakllantirilgan 21ta davlat kadatstridan biri bo’lgan o’rmon kadastri ma’lumotlari 1987-yildan buyon yangilanmagan. Bu kabi kamchiliklar o’z navbatida davlat kadastrlari yagona tizimining mukammal bazasini yaratishga to’stqinlik qiladi. Ko’chmas mulk tizimida ham kamchiliklar yetarligina. Misol uchun 340 mingta obyektning kadastr qiymati belgilanmagan. Shundan 200 mingdan ziyod obyekt bo’yicha soliq hisoblanmayapti. Bundan tashqari, 1 milliondan ortiq uy-joyning kadastr hujjati yo’q.

Tadqiqot uslubi: Yerlarni bozor aktiviga aylantirish va yerlardan samarali foydalanishni mukammal tizimga olib chiqish uchun yerlarni xususiy sektorga o’tkazish kerak. Xususiy mulk huquqi shaxsning qonunchilikka muvofiq qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasidadir. Davlat xususiy mulkning but saqlanishini ta’minlash va uning ko‘paytirilishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratadi. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina o‘z mol-mulkidan mahrum etilishi mumkin [2].

Yer uchastkasini xususiylashtirish -ommaviy mulk bo‘lgan yer uchastkasini O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan jismoniy shaxslar va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar mulkiga o‘tkazish Yer uchastkalarini xususiylashtirish obyektlari quyidagilardan iborat: yuridik shaxslarga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan yoki ular tomonidan xususiylashtirilayotgan binolar, inshootlar, ishlab chiqarish obyektlari joylashgan yer uchastkalari, shuningdek ularga tutash bo‘lgan, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur o‘lchamlardagi yer uchastkalari [3].

O’zbekistonda bugungi kunda yerni xususiy sektorga mulk va ijara huquqi, davlat tashkilotlariga doimiy foydalanish huquqi asosida berish tartibi joriy etildi. **Meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik, doimiy**

egalik, vaqtincha f**oydalanish** huquqlari bilan yer ajratish kabi bozor iqtisodiyoti talablariga mos bo‘lmagan amaliyotlar tugatish va yerga bo‘lgan huquq turlarini 6 tadan 3 taga qisqartirildi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich tomonidan 2021-yil 8-iyun kunida “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243son farmon imzolandi Ushbu farmonga asosan 2021-yil 1-avgustdan boshlab:

• yer uchastkalari xususiy sektorga- **mulk va ijara** huquqi asosida, davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga (keyingi o‘rinlarda- davlat tashkilotlari) - **doimiy foydalanish** huquqi asosida ajratiladi,

• meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik, doimiy egalik, vaqtincha foydalanish huquqi bilan yer ajratish tartibi bekor qilinadi, bunda ilgari ajratilgan yer uchastkalariga bo‘lgan bunday huquqlar ularning egalarida amaldagi tartibda saqlanib qoladi,

• ijaraga olingan yer uchastkasida qonunchilikda belgilangan tartibda qurilgan ko‘chmas mulk obyektiga mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tgan taqdirda, ushbu obyektga mulk huquqi bilan birgalikda u joylashgan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi ham yangi mulkdorga o‘tadi [4].

Mulkini xususiylashtirgan mulkdor o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishiga ko‘ra hamda o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor o‘z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday harakatlarni bajarishga haqli. U o‘z mol-mulkidan xo‘jalik faoliyatini va qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanishi, uni boshqa shaxslarga egalik qilish va (yoki) foydalanish uchun tekinga yoxud haq evaziga berishi mumkin. Mol-mulkdan foydalanish fuqarolarning, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi, atrof-muhitga zarar yetkazmasligi kerak. [2].

Noqishloq yerlarni xususiy sektorga faqat auksion orqali sotish tartibi kiritiladi. Noqishloq yerlar O‘zbekiston fuqarolari va yuridik shaxslariga xususiy mulk qilib, xususiylashtirish mumkin bo‘lmagan yerlar esa ijara huquqi asosida sotiladi. Hokim qarori bilan nodavlat sektorga yer ajratish hamda yerlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va tekinga berish amaliyoti bekor qilinadi. Qishloq xo‘jaligi yerlarini faqat ijara huquqi asosida ajratish tartibi kiritiladi. Bunday yerlar fuqaro va tashkilotlarga (chet elliklardan tashqari)

ochiq tanlov asosida beriladi. Ochiq tanlovga ariza qabul qilish, talabgor haqidagi ma'lumotlarni to'plash va baholash elektron shaklda amalga oshiriladi Xususiylashtirilgan yer uchastkalari xususiy mulk va fuqarolik muomalasi obyektlaridir. Xususiylashtirilgan yer uchastkasiga bo'lgan xususiy mulk huquqi unga bo'lgan huquq Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning va ularga doir bitimlarning davlat reyestriga elektron tarzda tegishli yozuv kiritish orqali davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuzaga keladi [4].

O'zbekiston Respublikasi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonning ijrosini taminlash maqsadida 2022yil 14-fevralda Vazirlar mahkamasi tomonidan "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallnamagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" gi 71-sonli qaror qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan yer uchastkalarini xususiylashtirish uchun ariza beruvchilar yer uchastkasi joylashgan tegishli hududdagi Davlat xizmatlari markazlariga o'zlari kelgan holda murojaat qiladilar yoki davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanishi uchun YIDXP da ro'yxatdan o'tishlari mumkin. Xususiylashtirilayotgan yer uchastkasini sotib olish qiymati: ariza beruvchi tomonidan yer uchastkasini xususiylashtirish maqsadida to'lanadigan xususiylashtirish paytida belgilangan yer solig'i bazaviy stavkasining karrali miqdorida to'lov to'lanadi. [5].

Biz bugun tilga olayotgan urbanizatsiya haqida qanchalik ko'p bilamiz.Urbanizatsiya (lotincha urbanus — shaharlik) jamiyat rivojida shaharlar, shahar madaniyati va shaharlarga xos boshqa munosabtlarning rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Urbanizatsiya qishloq aholi punktlarining shaharlarga aylanishi, shahar atrofi zonalarining kengayishi va qishloq aholisining shaharlarga ko'chib borishi hisobiga yuz beradi.Bu jarayon yildan yilga tezkorlik bilan aks etib bormoqda. Masalan, 1800-yilda dunyo aholisining 2 foizi shaharlarda yashagan bo'lsa, 1950-yilda bu ko'rsatkich 30 foizni, hozir esa 50 foizni tashkil qiladi. 2050-yilga borib esa Yer shari aholisining 2/3 qismi shaharlarda yashashi kutilmoqda.

Ko'pchilikni shu kecha kunduzda qiynab kelayotgan bir savol bor. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtrirish

nima uchun kerak. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishiga olib keladi. Bugun urbanizatsiyani yanada rivojlanish masalasida davlat rahbari Mirziyoyev Shavkat Mirziyoyev ulkan islohotlar davrini boshlab berdilar. Biz bugun bong urib gapirayotgan yerlarni xususiylashtirish masalasi aslida qanday xususiyatga ega. Yerni xususiy mulk qilib olganimizdan so'ng qanday o'zgarishlar ro'y beradi.

Yerni xususiylashtirishdan maqsad nima? Yer uchastkalariga nisbatan xususiy mulk biz uchun mutlaqo yangi tushuncha emas. Amaldagi Yer kodeksida ham savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari xususiylashtirilayotganda ular egallagan yer uchastlari bilan birgalikda xususiylashtirish mumkinligi, shuningdek xorijiy diplomatik vakolatxonalar mamlakatimizda yer uchastkalarini xususiy mulk sifatida sotib olishlari mumkinligi nazarda tutilgan.Shuni aytish kerakki, bundan ko'zlangan eng asosiy maqsad ayrim tahlilchilar tushunib-tushunmay aytayotganlaridek davlat byudjetini qo'shimcha daromad bilan to'ldirish emas. Birinchi navbatda bu islohot odamlarni mulkdor qilishga qaratilgan. Ya'ni fuqarolar va tashkilotlar o'zlari egalik qilyotgan yoki foydalanayotgan yer uchastkasini davlatdan muayyan nominal qiymatda xarid qilgan holda, bozor narxida undan bir necha barobar qimmat mol-mulkka ega bo'ladi. Xususiylashtirilgan yerlar fuqarolik oborotiga kirishi natijasida esa, uning narxi borgan sari ortib boraveradi. Natijasida fuqarolar qo'lidagi mol-mulkning qiymati, o'z navbatida ularning iqtisodiy holati ortib boraveradi. Yerga nisbatan xususiy mulkni joriy etishdan ko'zlangan keyingi maqsad mulk huquqini to'liq kafolatlashdan iborat. Yer uchastkasi mulk huquqi asosida tegishli bo'lgandan keyin uning o'zi ham, uni ustida joylashgan bino ham to'liq daxlsiz bo'ladi. Bu investorlar uchun eng muhim kafolat hisoblanadi.

Prezidentning 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623 son "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni aynan ana shu muammolarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, urbanizatsiya darajasini har tomonlama puxta o'ylab, aql bilan tartibga solish uchun qabul qilindi. Olib borilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida yirik strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bir qatorda shaharlar aholisi farovonligining o'sishi va barqaror rivojlanishiga yetaklovchi omil sifatida urbanizatsiya jarayoni tegishli darajada hisobga olinmagan. Natijada so'nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayish

tendensiyasi kuzatilmoqda, shahar aholi punktlari soni esa atigi 1065 dan 1071 gacha ko‘paygan. Yirik qishloq aholi punktlarini shahar posyolkalariga aylantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bugungi urbanizatsiya darajasi shaharlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy talablariga javob bermaydi va jahon tendensiyalaridan sezilarli darajada qolib ketmoqda.

Bunda urbanizatsiya darajasi hanuzgacha barqaror xususiyatga ega emas. 2019-yil 1-iyuldan boshlab yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari ularga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan yoki ular tomonidan xususiylashtirilayotgan bino va inshootlar, sanoat infratuzilmasi obyektlari joylashgan yer uchastkalarini, shuningdek ularga tutash hududlardagi ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur miqdordagi yer uchastkalarini xususiylashtirish huquqiga ega, jismoniy shaxslar — O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ularga yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyga xizmat ko‘rsatish uchun ajratilgan yer uchastkalarini xususiylashtirish huquqiga ega. Ko‘rsatilgan yer uchastkalarini xususiylashtirish jismoniy va yuridik shaxslarning arizalari asosida mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan amalga oshiriladi. [6].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yerni xususiylashtirish davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni fundamental jihatdan qayta formatlashda muhim qadamlardan hisoblanadi hamda qulay investitsiya muhiti va mukdorlar sinfini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Biroq bu aholi manfaatlarini inobatga olmasdan amalga oshirilsa, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiruvchi islohotlardan biri bo‘lishi shubhasiz. Xususiy mulki bo‘lgan mol-mulkni, shu jumladan yer uchastkasini natsionalizatsiya va rekvizitsiya qilingan hollarda olib qo‘yish, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mulkdorga uning bozor qiymati, shuningdek bunday olib qo‘yish munosabati bilan mulkdorga yetkazilgan zararning o‘rni to‘la qoplanishi sharti bilangina amalga oshirish imkoni mavjud bo’ladi. Mulkdor xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkini natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilish to‘g‘risidagi qaror ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqli bo’ladi. Yerning xususiy mulkka aylanishi ma’naviy tomondan fuqaroga katta ishonch beradi.

Shuningdek, yer xususiy mulkka aylangach, o‘z-o‘zidan yer bozori paydo bo‘ladi, xuddiki bir paytlar uy-joy xususiylashgach, uy bozori paydo bo‘lganidek. Demak, yerning haqiqiy bozor bahosi shakllanadi.

Bundan tashqari yerni garovga qo‘yish, ijaraga berish kabi imkoniyatlar paydo bo‘ladi, ya’ni yer iqtisodiy muomala obyektiga aylanadi. Oddiy fuqaro hayotida nima o‘zgaradi? Birinchi navbatda, uning xususiy mulki mustahkam himoyaga ega bo‘ladi. Yerlarni xususiylashtirish har tomonla ham iqtisodiy tomondan ham ijtimoiy tomondan ham ekologik tomondan muhim bo’lib inson yashashi va o’zini to’laqonli mulkdordan his qilishi uchun asos bo’ladi. Yerni xususiy sektorga o’tkazish mulkdorlar sinfining yanada shakllanishiga va mulkni to’laqonli himoya qilish uchun muhim omil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. **@D_Ganiyev** telegram ijtimoiy tarmog’i.
2. O’zbekiston Respublikasi qonuni: “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O’RQ 336-son 2012-yil 24-sentyabr.
3. O’zbekiston Respublikasi qonuni: “Qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlarni xususiylashtirish tog’risida”gi O’RQ 552-son 2019-yil 13-avgust.
4. O’zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni: “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243son. 2021-yil 8-iyun.
5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Qishloq xo’jaligiga mo’ljallnamagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida 14.02.2022yil 71-son.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5623 son farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2020-yil 7-sentyabr PF-6061
8. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
9. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.

10. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
11. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
12. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.

UO‘T 631.4.6(575).415.52

YERLARNI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISHNING CHORA TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH.

Abdualiyeva Shafoat Xamdamovna “Yer tuzish va yerdan foydalanish” kafedrasi assistenti

Email: shafoabdualieva86@gmail.com

Raxmatullayeva Anora -magistr

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya. Maqolada yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish sharoitida qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni oqilona tashkil etish, foydalanish samaradorligini oshirish, sug‘oriladigan tuproqlarning unumdorligini saqlash, oshirish va ulardan oqilona foydalanish, ikkilamchi sho‘rlanish jarayonlariga qarshi kurashda resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish muammolari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yer fondi, qishloq xo‘jdaligi, degradatsiya, tuproq qoplami, sho‘rlanish, eroziya, cho‘llanish, voha, unumdorlik, almashlab ekish, Meliorativ, gumus.

УДК 631.4.6(575.16).415.52

ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ И РАЗРАБОТКА МЕРОПРИЯТИЙ ПО РАЦИОНАЛЬНОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИХ.

Абдуалиева Шафоат Хамдамовна -Ассистент кафедры землеустройства и землепользования
Email: shafoabdualieva86@gmail.com
Рахматуллаева Анора- мастер

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета "Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"

Аннотация. В статье анализируются проблемы рациональной организации использования земель сельскохозяйственного назначения в контексте охраны земель и рационального использования, повышения эффективности использования, сохранения, повышения и рационального использования плодородия орошаемых земель, внедрения ресурсосберегающих технологий в борьбе со вторичным засолением.

Ключевые слова: Земельный фонд, сельская местность, деградация, почвенный покров, засоление, эрозия, опустынивание, оазис, плодородие, севооборот, мелиорация гумус.

UDC631.4.6(575.16).415.52

LAND PROTECTION AND DEVELOPMENT OF MEASURES FOR THE RATIONAL USE OF THEM.

Abdualiyeva Shafoat Khamdamovna -Assistant of the Department of Land Management and Land Use Email: shafoabdualieva86@gmail.com
Rakhmatullayeva Anora- master
Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation. The article analyzes the problems of rational organization of the use of agricultural land in conditions of ecological instability, increasing the efficiency of its use, maintaining, increasing the fertility of irrigated soils and their rational use, introduction of resurstejamkor technologies in the fight against secondary salinization processes.

Key words: Land Fund, rural area, degradation, soil cover, salinity, erosion, desertification, Oasis, fertility, crop rotation, Reclamation, humus.

Muammoning dolzarbligi. Keyingi yillarda respublikamizda yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, ta'sirchan nazoratni ta'minlash va yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri sohasida munosabatlarni kompleks tartibga solishda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yer resurslarini tizimli hisobga olish va ulardan foydalanishni nazorat qilish, davlat kadastrlarini tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi kartografiya fondini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi doirasida yer qonunchiligiga rioya etish yuzasidan doimiy monitoring qilish tizimi ishlab chiqildi va joriy qilindi, ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish ishlari tashkil etildi, 21 ta davlat kadastrlarini integratsiyalashuvini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Milliy geoaxborot tizimini tashkil etish ishlari boshlandi.

Shu bilan birga, yerdan foydalanish holatining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yerlardan foydalanishda muntazam davlat nazoratini ta'minlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, yer resurslarini tizimlashtirilgan holda hisobga olish ishlari yetarli darajada samarali bo'lmayapti. Sohaga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, ilmiy tadqiqot ishlarini tezkor va samarali amalga oshirishda tarmoqning moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermaydi. Amaldagi xodimlar soni, ayniqsa quyi pog'onada, yer resurslaridan foydalanishni nazorat qilish va ularning to'liq hisobini yuritish imkonini bermayapti.

Sohaning yetakchi xorijiy tashkilotlari bilan yaqin aloqalar o'rnatish, ilg'or xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va qo'llash, mutaxassislarning amaliyot o'tashlari va malakalarini oshirishni tashkil etishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish yuzasidan nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining: davlat kadastrlari, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohalari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishga mas'ul hisoblanadigan, O'zbekiston

Respublikasi davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi raisining o‘rinbosari lavozimini joriy etish;

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi organlari tomonidan yerlardan xo‘jasizlarcha foydalanganligi yoki ularni yaroqsiz holga tushirganligi, xo‘jalik ichidagi yer tuzish loyihalaridan o‘zboshimchalik bilan chetga chiqilganligi, davlat yer kadastrini yuritish qoidalari buzilganligi, chegara va cheklov belgilarining yo‘q qilinganligi yoki shikastlanganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga muvofiq solinadigan jarimalarning 100 foizi;

fuqarolarning uy-joyga doir mulk huquqini ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlarda o‘z vaqtida rasmiylashtirilmaganligi uchun undiriladigan jarimalarning 10 foizi;

kadastr hujjatlarini texnik xatlovdan o‘tkazish va rasmiylashtirish bo‘yicha davlat xizmatlariga belgilangan narxlarni 25 foiz oshirish hisobiga tushadigan mablag‘larning (soliqlar hisoblangandan keyin) 100 foizi;

Keyingi yillarda respublikada yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, ta’sirchan nazoratni ta’minlash hamda yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri sohalaridagi munosabatlarni kompleks tartibga solishga yo‘naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublikamiz uchun o‘ta dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan sug‘oriladigan yerlar 4,3 million gektarni, yoki mamlakat umumiy maydonining 9,6 foizini tashkil etib, ularda barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 95 foizdan ortig‘i yetishtiriladi.

Dasturiy chora-tadbirlar doirasida tizimli ravishda yer resurslarini hisobga olish va yerlardan foydalanishni nazorat qilish, ko‘chmas mulk obyektlari, kartografik fondni takomillashtirish yuzasidan yer munosabatlarini tartibga solish sohasida yer qonunchiligiga rioya etish bo‘yicha doimiy monitoring qilish tizimi ishlab chiqilib joriy etildi, ko‘chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o‘tkazish, 21 ta davlat kadastrlarini integratsiyalashuviga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Milliy geoaxborot tizimini tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlillar quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

joylarda yerdan oqilona foydalanishning o‘z vaqtida oldini olish bo‘yicha o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda yetarli darajada tizimli ishlar amalga oshirilmayapti;

qishloq aholi punktlarida va mahallalarda, ayniqsa, olis hududlarda yerlardan foydalanish holatini muntazam monitoring qilish ishlari yetarli darajada olib borilmayapti;

mavjud xodimlar soni yer resurslaridan foydalanishni nazorat qilish va ularning hisobini yuritishni to‘liq amalga oshirish imkonini bermayapti.

Yuqoridagi kamchiliklar yerlardan oqilona va maqsadli foydalanish, shuningdek, tarmoqda qonun hujjatlariga rioya etish ustidan to‘laqonli ta’sirchan nazoratni ta’minlash imkonini bermayapti.

Shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil qilish, sohaga ilg‘or fan-texnika yutuqlarini joriy etish, moddiy-texnika bazasini yangilash, tarmoqqa xalqaro grantlarni jalb qilish chora-tadbrlari dasturi tasdiqlangan.

Qo‘mita va uning hududiy bo‘linmalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlarini xizmat avtomashinalari, joylardagi mutaxassislarni zamonaviy o‘lchov asboblari, xizmat xonalari bilan ta’minlash belgilangan.

Yer resurslaridan oqilona foydalanish va qonun hujjatlariga rioya etilishi nazoratini ta’minlash kabi asosiy vazifalarni bajarish uchun qo‘mita va uning hududiy organlari o‘zlarining vakolatlari doirasida sudlarga beriladigan da’vo arizalari bo‘yicha davlat boji to‘lashdan ozod etilmoqda.

Tuproq biogen tuzilishga ega bo`lgan yerning ustki g`ovak qatlami bo`lib, u tabiatda hayot jarayonlarining kechishida, biosferada moddalar almashinuvini ta'minlashda muhim rol uynaydi. Namlik, issiqlik va mikroorganizmlar ta'sirida tuproqda organik moddalar doimo parchalanib va sintezlanib turadi. Tuproqqa aralashgan o`simlik va hayvon qoldiqlaridagi organik moddalar mikroorganizmlar yordamida parchalanadi ya'ni chiriydi. Hosil bo`lgan bu chirindilar esa tuproqdagi mineral birikmalar bilan birga o`simlik tanasiga o`tadi va unda o`zaro reaktsiyaga kirishib, yangi organik moddalarni hosil qiladi. Bu organik moddalardan inson va hayvon ozuqa sifatida foydalanadi. Kelajakda ular o`simlik, odam va hayvon qoldiqlari bilan yana tuproqqa qaytadi va yana parchalanish jarayoniga uchraydi. Shu asnoda organik va mineral moddalar «tuproq-o`simlik-hayvon-tuproq» tizimidagi yopiq

zanjirda aylanib yuradi. Bu esa, o`z navbatida, tabiiy holda tuproq unumdorligining saqlanib turishiga asos soladi.

Tuproq tabiatning murakkab tuzilgan hosilasi bo`lib, u qattiq, suyuq, gazsimon va tirik tarkibiy qismlardan iborat. Tuproqning qattiq qismi asosan mineral va organik moddalardan hamda qattiq zarrachalardan tarkib topgan bo`lib, bular tuproq umumiy massasining ma'lum bir qismini tashkil qiladi. Uning qolgan qismini esa zarrachalar orasidagi bo`shliqlarni egallagan suv, havo va tirik organizmlar tashkil qiladi. Bu tarkibiy qismlarning nisbati tuproq unumdorligini belgilaydi. Tuproqning unumdorligi ko`p jihatdan undagi makroelementlar ya'ni unda birikma holida uchraydigan mineral moddalar – alyuminiy, temir, kaliy, magniy, kaltsiy, fosfor, oltingurgurt, kremniy, shuningdek mikroelementlar va organik moddalar asosini tashkil qiluvchi gumus miqdoriga bog`liq.

Tuproqdagi tirik jonivorlarning ahamiyati to`g`risida yuqorida aytib o`tildi. Bu jonivorlar orasida ayniqsa mikroorganizmlar ko`p bo`lib, ular tuproq zarrachalari orasidagi bo`shliqlarda joylashgan. Taniqli o`zbek olimi M.V. Muxamedjonov ma'lumotiga qaraganda 1 gektar unumdor tuproqdagi mikro-organizmlar soni 3-3,5 mlrd bo`lib, yarim metr qalinlikdagi 1 gektar tuproqda ularning massasi 8-12 tonnaga yetadi. Yil davomida bu mikroorganizmlar avlodi 18-27 martagacha almashadi. Rus olimi V.A. Kovdaning hisoblariga ko`ra tuproqdagi mikroorganizmlar biomassasining yillik yig`indisi o`sha maydonda o`sgan o`simlik fotomassasiga teng, ba'zi unumdor yerlarda esa hatto undan 1,5-2 baravar ortiq. Qora tuproqlarda va boshqa unumdor yerlar tuprog`ida mikroorganizmlar biomassasining yillik yig`indisi gektariga 20-50 tonnaga yetadi.

Shunday qilib, tuproqning unumdorligini ta'minlashda uning barcha tarkibiy qismlari ishtirok etadi. Shuning uchun ham hakli ravishda aytish mumkinki, tuproq o`zining bu tarkibiy qismlari bilan birgalikda organik hayotning manbaidir va shu bilan birga uning o`zi ham organik hayotning hosilasidir, binobarin ular bir-biri bilan doimo o`zaro ta'sirda bo`ladi. Darhaqiqat, o`simlik tuproqdagi oziq moddalar va suvni o`zlashtirib o`sadi va rivojlanadi. Hayvonlar o`simliklar bilan ozuqlanadi. Natijada iste'mol qilingan oziq moddalar yana tuproqqa qaytadi va unda parchalanib yana o`simlik o`zlashtiradigan mineral moddalarga aylanadi. Shunday qilib, tuproq «hayot» deb ataluvchi zanjirning muhim halqalaridan biridir. U

o`simliklar uchun, demak hayvonlar va pirovardida inson uchun ham zaruriy omildir.

Tuproqning inson va hayvonlar uchun yana bir ahamiyati shundaki, tuproq tarkibidagi mikroelementlar tirik organizmlar tarkibida ham uchraydi. Hozirgi vaktda o`simlik va hayvonlar organizmida 60 ga yaqin kimyoviy modda borligi aniqlangan. Bu kimyoviy moddalar biomikroelementlar sifatida oziq-ovqat bilan odam organizmiga tuproqdan o`tadi. Odam qoni tarkibida aniqlangan 24 xil va ona sutidagi 30 xil mikroelementlarning barchasi inson uchun zarur moddalar bo`lib, tuproqda u yoki bu elementning yetishmasligi ularning oziq - ovqat mahsulotlarida va demak odam organizmida ham yetishmasligiga olib keladi. Buning ta'sirida organizmda modda almashinuvi buzilib, kishi turli kasalliklarga chalinishi mumkin.

Yerdan foydalanish masalasi tahlili davomida yana shunday holat ham ko`zga tashlanadiki, unga ko`ra dehqonchilik qilinadigan yer maydonlarini kengaytirishning imkoniyati yo`q. Masalan, YUNEP ma'lumotlariga ko`ra yangi yerlarning o`zlashtirilishi 2000 yilga borib jami o`zlashtirilgan yerlar maydoni 3,2 mlrd. gektarga yetkazilsada, dehqonchilik qilinadigan yerlar aholi jon boshiga 1975 yildagiga qaraganda amalda ikki baravarga kamayadi. Buning sababi aholi soni ko`payib borishi bilan birga ko`p yerlar eroziyaga uchrab ishdan chiqadi, bir qism yer esa shaharlar va sanoat kommunikatsiyasi ko`rilishiga sarf bo`ladi. Amerikalik mutaxassis Braun (1978) bashoratiga ko`ra 1975-2000 yillar orasida Yer yuzining shahar aholisi sonining taxminan ikki baravarga ko`payib, 3 mlrd. dan oshadi, shunga ko`ra shaharsozlikka qo`shimcha 63 mln. gektar yer ketadi.

Insonning xo`jalik faoliyati ta'sirida tuproqning sifati buzilib, hosildorligi pasayishi kuzatilmoqda. Jamiyat o`zining rivojlanish tarixida 2 mlrd. gektarga yaqin yerni ishdan chiqargan. Faqatgina suv va shamol ta'sirida, qum bosish va sho`rlanish oqibatida har yili Yer yuzida 6-7 mln. gektar yer xo`jalik oborotidan chiqib ketmoqda. Bu hol hakli ravishda mutaxassislarni tashvishga solmoqda. Chunki tuproqning hosil bo`lishiga qaraganda uning maydoni kamayishi minglab marta tez boradi. Masalan, 10 sm. qalinlikdagi tuproq hosil bo`lishi uchun 1400-1700 yil kerak. Shunday qalinlikdagi tuproqni suv eroziyasi 20-30 yildayoq ishdan chiqarish mumkin. Ba'zan esa bu jarayon uchun faqat bitta suv toshqini kifoya qiladi.

Umuman olganda, tuproqning holati biz unga qanaqa ta'sir o`tkazishimizga bog`liq bo`ladi. Odam o`zining dehqonchilik faoliyatida tuproqda hosil yetishtiradi va uni yig`ishtirib oladi. Bu demak – u tuproqda yetishtirilgan organik moddalarni olib, uni kambag`allashtiradi. Ayni vaqtda u tuproqni o`gitlaydi, almashlab ekish va boshqa agrotexnik tadbirlarni qo`llaydi va shu asosda tuproqni boyitib, uning unumdorligini qayta tiklaydi. Bunday tadbirlarning o`z vaqtida bajarilmasligi, faqatgina shu kunning foydasini ko`zlab ish tutish tuproqni eroziyaga uchratish, uning sho`rlanish va botqoqlanishi oqibatida ishdan chiqishini tezlatishi mumkin.Bunday achchiq saboqlar O`zbekiston dehqonchiligida ham uchraydi. Hozirgi vaqtda respublikaning umumiy maydoni 44,9 mln. gektar bo`lib, shundan 28,1 mln. gektarida dehqonchilik qilinadi. Sug`oriladigan ekinzorlar maydoni esa 4,2 mln. gektarni tashkil qiladi. Oldingi yillarda respublikada cho`l zonalarini o`zlashtirish, yangi yerlar ochib dehqonchilik qilishni kengaytirish avj olgan edi. 1975-1985 yillar davomida 1 mln. gektar yangi yerlar o`zlashtirildi. Bu ish hatto shiorbozlikkacha ko`tarilib «ovchining zo`ri sher otar, yigitning zo`ri yer ochar» degan shior ham paydo bo`lgan edi. Lekin bu ish o`zining kutilgan samarasini bermadi. Sababi, dehqonchilik agrotexnikasiga e'tibor yetarli bo`lmadi, almashlab ekish texnologiyasi o`rnini paxta yakka hokimligi egalladi.

Kartalar me'yoridagidan kattalashib ketdi, ixotazorlar kamaydi, melioratsiya ishlari susaydi. Oqibatda tuproqning turli eroziyalarga chalinishi, sho`rlanish va botqoqlanishi tezlashdi, daryolar suvining dehqonchilikdagi sarfi ko`paydi, Orol dengizi halokat yoqqasiga keldi, undan tarqalayotgan tuzli qum atrof hududlar tuprog`iga yog`ilaboshladi. Shunday qilib, yo`l qo`yilgan bu xatoliklar oqibatida Qoraqalpog`iston, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarining 90-95% maydoni sho`rlandi. Faqatgina Buxoro viloyatida 270 ming gektar sug`oriladigan yerlarning 53 ming gektari shamol eroziyasiga uchradi. Tog`oldi hududlariga joylashgan Farg`ona vodiysi va Toshkent viloyatining ko`p miqdoridagi maydonlari suv eroziyasiga uchradi. Hozirgi kunda yer resurslaridan noto`g`ri foydalanish oqibatida respublika chorvachiligi ham jiddiy zarar ko`rmoqda. Chorvachilik uchun yaylov sifatida foydalanilayotgan 22 mln. gektarning 6 mln. gektari shamol eroziyasiga va 3 mln. gektari suv eroziyasiga uchragan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Karimov, E., Akhrorov, A., & Sh, T. (2022). Natural Geographical Zoning of Agricultural Land. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, *2*(2), 100-103.

2. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).

3. Karimov E. K., Bobozhonov S. U., Mukhammadov K. M. Influence of the properties of irrigated soils on the productivity of the vobkent district EK Karimov //" Online-conferences" platform. – 2021. – С. 59-61.

4. Асатов С.Р., и.др. Пути улучшению мелиоративно-экологического состояния почвенного покрова Бухарского оазиса республики Узбекистан. “ПОКОЛЕНИЕ БУДУЩЕГО: Взгляд молодых ученых-2021”. Сборник научных статей 10-й Международной молодежной научной конференции.Россия, г. Курск, 2021.ст-265-268

5. Asatov Sayitqul, Axtamov Suxrob, Mahmudov Mironshoh. Removal of chemical weed killers and organics from irrigated land. International Conference on Scientific, Educational & Humanitarian Advancements Hosted online from, Samsun, Turkey, July 15 th , 2021.pp-264-267. www.econferenceglobe.com.

6. Қўзиев Р.Қ., Бобомуродов Ш.М., Баҳодиров З.А., Турдалиев Ж.М. «Тупроқ хосса – хусусиятлари ва тупроқ унумдорлигини бошқаришда замонавий геоахборот технологиялардан фойдаланиш бўйича тавсиялар» // Тавсиялар. - Тошкент, 2019. – Б. 30.

7. Сатторов Ж. Ер ресурсларининг мелиоратив ҳолати, унумдорлигини яхшилаш,улардан самарали фойдаланиш ва муҳофаза қилиш.// Агро илм.-Тошкент, 2014-№1(29). –Б.53-54.

8. Назарова С.М., Курвантаев Р. Бухоро воҳаси тупроқлари // «O’zbekiston qishloq xo’jaligi» журналининг «Agro ilm» илмий иловаси. – Тошкент, 2012. -№3 (23). - Б. 54-55.

9. Karimov E Q 2020 Improvement Effectiveness of Soil Quality Index Assessment in Irrigated Areas Int. J. Adv. Res. Sci. Eng. Technol. **7(3)** 13145-13150

10. Adizov SB, Obidovich AB, Maxmudov MM 2021 Rights and Responsibilities of the Spouses Academic Journal of Digital Economics and Stability **7** 10

11. Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. **International** Journal of Human

Computing Studies (IJHCS). https://journals.researchparks. org/index. php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 | April 2022. Page 70

12. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.

13. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.

14. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.

15. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.

16. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.

UO‘T 528.02

MUHANDISLIK GEODEZIYASINING QURILISH JARAYONIDAGI ROLI.

Abdulloyev Ashraf Muzaffarovich, Sulaymonov Mirjon Valijonovich – assistentlar Email: shsattorov1993@mail.ru
Ochilov Askar Boymurodovich, Ismatov Temur Akbar o’g’li - magistrantlar
Kalandarova Zarinabonu Shokirovna – talaba

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada har qanday qurilish loyihasini amalga oshirishda, geodezik tadqiqotlar asosiy roli keltirib o’tilgan Geodezik ma’lumotlarsiz bino va inshootlarning loyihalarini relefga o’tkazish mumkin emasligi. Zamonaviy inshootlarni hech birini geodezik o’lchovlarsiz qurib bo’lmayligi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: geodeziya, o’chash, loyiha, qurilish, topografik plan, syomka.

УДК 528.02

РОЛЬ ИНЖЕНЕРНОЙ ГЕОДЕЗИИ В СТРОИТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.

Абдуллоев Ашраф Музаффаро, Сулаймонов Миржон Валижонович – ассистенти Email: shsattorov1993@mail.ru
Очилов Аскар Боймуродович, Исматов Темур Акбар угли – магистранти
Каландарова Заринабону Шокировна – студент

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета “Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”

Аннотация. Основная роль геодезических изысканий при реализации любого строительного проекта в данной статье заключается в том, что без геодезических данных невозможно

перенести проектирование зданий и сооружений на рельеф. Подчеркивается, что ни одно современное сооружение невозможно построить без геодезических измерений.

Ключевые слова: геодезия, изыскания, проектирование, строительство, топографический план, изыскания.

UDC 528.02

THE ROLE OF ENGINEERING GEODESY IN THE CONSTRUCTION PROCESS.

Abdulloyev Ashraf Muzaffarovich, Sulaymonov Mirjon Valijonovich – assistent Email: shsattorov1993@mail.ru
Ochilov Askar Boymurodovich, Ismatov Temur Akbar oglu - masters
Kalandarova Zarinabonu Shokirovna - student

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Abstrakt. The main role of geodetic surveys in the implementation of any construction project in this article is the fact that without geodetic data it is impossible to emboss the designs of buildings and structures. It is emphasized that none of the modern structures can be built without geodetic measurements.

Key words: geodesy, survey, design, construction, topographic plan, survey.

Qadimda ma’lum inshootlarni qurishda geodezik ishlar olib borilgan. Hozirgi vaqtda geodezik o’lchovlar muhandislik tadqiqotlarida, rejalashtirilgan qurilish maydonchasini o’rganishda, qurilish va bino va inshootlarni loyihalashda, jihozlarni o’rnatishda, binolar va turli muhandislik inshootlarini ekspluatatsiya qilish jarayonida deformatsiyalarni kuzatishda keng qo’llaniladi. O’lchash usullari va natijalarini matematik qayta ishlashda hamda geodezik tayanch tarmoqlarini barpo etish va rejalash ishlarini bajarishda turli xil geodezik asbob-uskunalar qo’llaniladi. Hozirgi kunda injenerlik geodezik ishlarni

bajarish uchun zamonaviy hisoblash texnikasi, lazer qurilmalari, elektron asboblar, hamda GRS- tizimlari keng qo'llanilmoqda.

Qurilish maydonchasidagi geodezik ishlar umumiy tadqiqot majmuasining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Tekshiruv natijasida olingan yirik masshtabli topografik plan asosida qurilish maydonchasining bosh rejasi tuzilib, unda binolar, inshootlar, transport yo'llari, muhandislik tarmoqlari va boshqalarni loyihalash ishlari amalga oshiriladi. Yordamchi va vaqtinchalik bo'lgan binolar va inshootlarning butun majmuasi joylashgan qurilish bosh rejasini loyihalashda, topografik plan, shuningdek vertikal syomkaning ishchi chizmalari, binolar, inshootlar va turli muhandislik tarmoqlarning arxitektura va qurilish chizmalarini tayyorlash uchun manba materiali bo'lib xizmat qiladi.

Bino va inshootlarning loyihalarini joyiga kochirish uchun, qurilish maydonchasida poligonometrik tarmoq yoki qurilish tarmog'i shaklida yaratilgan geodezik bazadan foydalaniladi. Geodezik bazaning punktlaridan, bino va inshootlarning asosiy o'qlari joyga kochiriladi, undan keyin binolarning qismlarini batafsil taqsimlash ishlarj amalga oshiriladi.

Qurilish loyihalari, ishlab chiqishning muhim bosqichi muhandislik-geologik tadqiqotlar bo'lib, ular asosida uchastkaning gidrogeologik va tuproq sharoitlarini baholash amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, poydevorning turi va konstruksiyasi tanlash amalga oshiriladi. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun zarur mutaxassislar, asboblar va jihozlarga ega bo'lgan ixtisoslashgan kompaniyalar jalb qilinadi. Ko'pgina kompaniyalar o'zlarining doimiy mijozlari uchun bunday ishlarni sifatli qilib bajarish uchun kafolat beradilar. Qurilish jarayonida turli xil nazorat o'lchovlari amalga oshiriladi, ular loyihalash ishlari bilan bir vaqtda bino va inshootlarni loyihalashtirilgan o'lchamlari va shakllariga mos ravishda o'rnatishni ta'minlaydi. Sanoat va fuqarolik qurilishida yig'ma temir-beton konstruktsiyalardan foydalanish jarayonida geodezik ishlar alohida ahamiyatga ega. Bunday sharoitlarda o'rnatilgan konstruksiya elementlarning to'g'riligini har kuni va doimiy tekshirish zarur.

Qurilish tugagandan so'ng, chizmalarni tayyorlash uchun geodezik tadqiqot o'tkaziladi, uning asosida tugallangan qurilish obyektining ijro etuvchi bosh rejasi tuziladi. Geodezik nazorat yordamida qurilish nuqsonlarini aniqlash va bartaraf qilish mumkin. Qurilish ob'ektlarida

geodezik ishlariga yetarlicha e'tibor bermaslik natijasida qurilish obyektini qurib topshirish muddatining cho'zilishiga hamda qurilish sifatini pasayshiga olib keladi. Masalan, g'ishtli binolarda o'qlarning noto'g'ri joylashishi , devorlarni yoki ustunlarni pastki qavatlarni qo'llab-quvvatlash maydonini sezilarli darajada kamaytiradi va qo'llab-quvvatlovchi tekisliklar ostidagi g'isht ustunlarini haddan tashqari zo'riqishiga olib keladi. Bino o'qlarining siljishi atigi 6 sm bo'lgan armatura to'rlari bilan mustahkamlangan g'isht ustunlarining kuchi deyarli ikki baravarga kamayadi.

Muhandislik geodeziyasi bino va inshootlarni qurishning barcha jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, barcha turdagi geodezik ishlarini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Muhandislik tadqiqotlari; (qidiruvlari)

- gidrologik tadqiqotlar); (qidiruvlar)
- geologik tadqiqotlar; (qidiruvlar)
- geodezik tadqiqotlar; (qidiruvlar)
- keng ko'lamli tadqiqotlar; (qidiruvlar)
- chiziqli inshootlarni trassalash;
- syomka qilish asosini yaratish.

Muhandislik tadqiqotlari - bu inshootning iqtisodiy jihatdan foydali va texnik jihatdan asoslangan joylashuvini tanlash, inshootlarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liq asosiy masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun olib boriladigan kompleks ishlar majmui. Muhandislik-geodezik tadqiqotlari jarayonida rejalashtirilgan qurilish hududidagi vaziyat va yer uchastkasining relefi o'rganilishi va tekshirilishi kerak; buning natijasida konstryksiya uchun zarur bo'lgan keng ko'lamli planlar olinadi.

Topografik va geodezik ishlarga quyidagilar kiradi:

- davlat geodezik tarmog'ini qurish;
- planli va balandlik balandlik tadqiqot asoslarini yaratish;
- topografik syomka qilish;
- syomka qilingan hududning keng ko'lamli planini tuzishda chiziqli ob'ektlardagi tadqiqotlar bir qator xususiyatlarga ega va ular katta murakkablikdagi aloxida holatlar bilan farq qiladi. Shu sababli, temir yo'l va avtomobil yo'llari, kanallar, quvurlar, elektr uzatish liniyalari, telekommunikatsiya liniyalari va boshqalarni loyihalash va qurish bo'yicha tadqiqotlar alohida e'tiborni talab qiladi.

2. Muhandislik-geodezik loyihalashda- bino va inshootlarni planiy va balandlik bo'yicha joylashtirishda zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun bajariladigan kompleks ishlar to'plami.Bunga quyidagilar kiradi**:**

- qurilish obyektini planli va balandlik bo'yicha joylashtirish;
- inshootning asosiy o'qlarini orientirlash;
- yer usti relyefini loyixalash ;
- yer ishlari hajmlarini hisoblash;
- chiziqli inshootlarni loyihalash bilan bog'liq hisob-kitoblarni bajarish (shu jumladan gorizontal va vertical egri chiziqlarni hisoblash, kelajakdagi marshrutning bo'ylama va ko'ndalang profilini tuzish);
- loyihani joyiga ko'chirish uchun zarur bo'lgan hisob-kitob ishlarini bajarish;
- razbivka qilish chizmalarini tayyorlash.

Inshootlarni qurish faqat loyihada ishlab chiqilgan chizmalarga muvofiq amalga oshiriladi. Loyiha bu - texnik-iqtisodiy jihatidan asoslangan hisob-kitoblar, chizmalar**,** tushuntirish yozuvlari va qurilish uchun zarur bo'lgan boshqa materiallarni kompleks o'z ichiga olgan texnik hujjatlar to'plami. Loyihalashning topografik asosi; tadqiqot bosqichida tuzilgan 1:5000 - 1:500 o'lchamdagi yirik masshtabdagi topografik plan hisoblanadi.

Qurilish maydonidagi geodezik ishlarning tarkibi, aniqligi, usullari, hajmi, muddati va tartibi bo'yicha ko'rsatmalar qurilish tashkilotlari loyihasida (ПОС), qurilish obyektining ishlab chiqarish loyihasi (ППР), umumiy loyihaning tarkibiy qismlari bo'lgan geodezik ishlar loyihasi (ПППГР)ga kiritilgan.

Loyihani geodezik tayyorlashning vazifasi, qurilish maydonchasida alohida joylashgan inshootlarni bir-biriga bog'lash va ma'lum bir aniqlik bilan ularning maydonga joylashtirishni ta'minlashdir. Loyihalarni tayyorlashda geodezik hisob-kitoblar konstruksiya nuqtalarining koordinatalari va balandliklarini topishdan iborat bo'lib, ularni planiy va balandlik bo'yicha joylashtirish uchun nuqtalarni o'rnini aniqlash hisoblanadi. Vertikal planirovka qilish loyihasida; binolarni, inshootlarni, yer osti kommunikasiyalarini joylashtirishda qurilgan hududning mavjud relyefiga muvofiq ravishda joylashtirishni, maydonlarni, ko'chalarni, kvartal ichidagi hududlarni rel'efini minimal darajada o'zgartirib er usti suvlarini chiqarib yuborish hisoblanadi . Vertikal planirovka loyihasining asosiy hujjatlari bu yerni tekislash bo'yicha plani va tuproq ishlarining

kartogrammasi bo'lib, ular topografik plan, ko'chalar va yo'llarning ko'ndalang profillarining ishchi chizmalari asosida tuziladi.

Umumiy loyihaning tarkibiy qismlari bo'lgan geodezik ishlar (ПППГР).

Qurilish maydonchasida geodezik ishlarini loyihalash tamoyillari amalda ishlab chiqilgan dastlabki asos ПОС (qurilishni tashkil etish loyihasi) va ППР (ishlab chiqarish loyihasi) hisoblanadi. ПОС ham, ППР ham, geodezik qismni o'z ichiga oladi.

Ushbu qism quyidagilarni o'z ichiga oladi;

-razbivka qilish va balandlik asosini yaratish bo'yicha ishlarning tarkibi, hajmi, muddati va ketma-ketligi;

-qurilish davri uchun razbivka qilish ishlarining tarkibi, hajmi, muddatlari va ketma-ketligi;

- talab qilinadigan aniqlik, asboblar va ishni bajarish usullari.

3. Geodezik ishlarini ishlab chiqarish loyihasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Qurilish maydonchasida geodezik ishlarini tashkil etish.

Ushbu bo'limda geodezik ishlarini ishlab chiqarish sxemasiga muvofiqlashtirish masalalari va geodezik guruhlari tomonidan amalga oshiriladigan geodezik ishlarni bajarishning kalendar rejalari ko'rib chiqiladi.

2. Asosiy geodezik ishlar. Bo'limda qurilish maydonchasida planiy va balandlik bo'yicha geodezik bazani qurish sxemalari, geodezik o'lchovlarning kerakli aniqlikdagi hisoblari, mavjud to'r tarmog'ini qurish usullari va sxemalari, belgilar turlari, reperlar va markalar, bosh va asosiy o'qlarning razbivka qilish sxemalari.

3. Bino va inshootlarning bosh va asosiy o'qlarini dastlabki rejalashtirilgan planli va balandlik asosi bo'yicha o'tkazish sxemasi va ularni aniqligini hisoblash hamda ishlarni bajarish metodologiyasi, o'q nuqtalarining joylashish sxemasi, shuningdek batafsil geodezik tadkikot ishlarini bajarish.

4. Fundamentlarni montaj qilish vaqtida bino va inshootlarning er osti qismida geodezik nazoratni ta'minlash, konstruksiyalarni montaj qilish uchun ijro etuvchi tadqiqot ishlarini bajarish metodologiyasini ishlab chiqish.

5. Inshootlarninglarning er usti qismini qurishda geodezik ta'minot. U boshlang'ich gorizontda rejalashtirilgan va yuqori gorizontdagi geodezik

poydevor elementlarini o'lchashning zarur qilinadigan aniqligini yaratish va hisoblash metodlarini o'z ichiga oladi , asosiy o'qlar va balandlik belgilarini(reperlarni) montaj gorizontlariga chiqarish usullarini tanlash va asoslashni, ijro etuvchi tadqiqotni o'z ichiga oladi.

6. Geodezik usullar bilan konstruksiyalarning deformatsiyalarini o'lchash loyihasi. O'lchovlarning kerakli aniqligini, asboblar ro'yxatini va o'lchash usullarini, o'lchovlarning ketma-ketligini va natijalarni qayta ishlash usullarini o'z ichiga oladi.

4. Razbivka ishlari

- razbivka qilish tarmoqlari
- asosiy razbivka qilish ishlari
- qurilish bosqichlari bo'yicha bino va inshootlarni razbivka qilish. Geodezik razbivka ishlari qurilish – montaj jaraënining ajralmas qismi hisoblanadi. Inshootlarni planli va balandlik bo'yicha razbivka qilish ishlari bir-biridan farq qiladi va u asosiy va batafsil razbivka qilish tizimlariga kiradi.

Asosiy razbivka qilish ishlari, erdagi muhandislik inshootining qurilish maydonini va o'qlarning holatini aniqlashdan iborat. Ular qurilayotgan inshoot hududida qurilgan planli va balandlik geodezik bazaning nuqtalaridan kochirib otkaziladi. Batafsil razbivka qilish ishlari, muhandislik inshootining geometrik konturlarini va o'qlarini belgilaydigan asosiy qismlarining planli va balandligi bo'yicha geodezik tarmoq nuqtalariga nisbatan holatini aniqlashdan iborat. Asosiy va yordamchi o'qlarni, shuningdek, strukturaning barcha detallarining o'rnini aniqlaydigan xarakterli nuqtalar va kontur chiziqlarini sindirish orqali amalga oshiriladi. Inshootlarni razbivka qilish jarayonida, takroran syomka qilish va ularni yuqori aniqlikda bajarilishini ta'minlash bilan xarakterlanadi.

Agar bino konturini s'emka qilish jarayonida 10 sm xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, u holda 1:2000 masshtabdagi plan bo'yicha konturni chizishda u 0,05 mm gacha kamayadi, uni bunday masshtabda ifodalab bo'lmaydi. Agar 1:2000 masshtabda tuzilgan loyihadan chiziq uzunligini olishda 0,1 mm xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lsa (masshtabning grafik aniqligi chegarasi), u holda joydagi xato o'lchami 200mm bo'ladi bu ko'pincha razbivka qilish ishlarini bajarishda qabul qilinishi mumkin emas. Qurilishda bino inshoot o'qlarining va balandligining loyihaviy og'ishi asosan 2-5 mm tashkil qiladi. Shuning uchun plandagi nuqtaning

o’lchamlari va joylashuvi analitik yo’l bilan olinadi va koordinatalarni olish uchun 1:500 masshtabli plandandan foydalaniladi.

Razbivka qilish ishlari quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1. Triangulyatsiya, poligonometriya, trilateratsiya, qurilish to’ri, chiziqli-burchakli konstruktsiyalar ko’rinishidagi razbivka qilish asosini qurish. Geodezik razbivka asosi, tashqi razbivka qilish tarmog’ini qurish va ijro etuvchi s’emkani amalga oshirish uchun xizmat qiladi.
2. Binolarning bosh yoki asosiy o’qlarini (tashqi razbivka qilish asosini yaratish) hamda loyihaviy otmetkasini chiqarish. Tashqi razbivka qilish bazasi batafsil razbivka ishlarini bajarish uchun asosdir.
3. Kotlovanlarhi qazish jarayonida , kommunikatsiyalarni , poydevorlarni o’rnatish, balandliklarni (reperlarni) va o’qlarni kotlovanning tubiga yuborish, binoning er usti qismini o’rnatish bosqichida, batafsil razbivka qilish ishlari.

Razbivka qilish ishining asosiy elementlari loyihaviy burchak, loyihaviy masofa, loyihaviy qiyalik va loyihaviy balandlikni chiqarishdir. Inshoot turiga, o’lchash shartlariga va aniqligiga qarab uni qurishning to’g’riligini ta’minlash uchun razbivka qilish ishlari qutbli yoki to’rtburchaklar koordinatalar, burchakli, chiziqli yoki stvornoy zasechkalar va boshqa usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

5. Konstruksiyalarni va texnologik jihozlarni tekislash

- planga asosan;
- balandligi bo’yicha;
- vertikalligi bo’yicha;

Aniqlanishi kerak bo’lgan eng muhim geodezik xususiyatlar - to’g’ri yo’nalishlik, gorizontallik, vertikallik, parallellik, qiyaliylik va boshqalar. Ushbu xususiyatlarning kombinatsiyasi turli elementlarning planiy va balandligi bo’yicha holatini aniqlashga imkon beradi. Qurilish davomida, alohida elementlarning planli va balandlik holatini aniqlash uchun ijro etuvchi tadqiqot deb ataladigan geodezik ishlar kompleks amalga oshiriladi. Ijro etish syomkasi davomida qabul qilingan aniqlik razbivka qilish ishlarining me’yoriy aniqligidan past bo’lmasligi kerak.

6. Bino va inshootlarning deformatsiyalarini kuzatish.

- poydevor asosining va poydevorlarning cho’kishi
- gorizontal siljish
- minora tipidagi inshootlarning ogishi.

Bino va inshootlarning deformatsiyasi - fazoviy harakat yoki uning shakli o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan butun strukturaning yoki uning alohida qismlarining nisbiy holatining o'zgarishi. Inshootlarning deformatsiyalari burilishlar, buralishlar, rulonlar, kesishlar, buzilishlar va boshqalar shaklida namoyon bo'ladi. Umumiy holda, inshootning deformatsiyasi strukturaning ikkita eng oddiy siljishiga - gorizontalda siljishi va vertikal tekisliklarda cho'kishi shaklida namoyon bo'ladi.

Tuproqning qisqarishi natijasida hosil bo'lgan strukturaning notekis joylashishi, shuningdek, konstruksiyaning mustahkamligi etarli emasligi sababli inshootlarning deformatsiyalari sodir bo'ladi. Baxtsiz hodisalarning o'z vaqtida oldini olish va tizimlarning ekspluatasiya sifat me'erlarining buzilishi sabablarini batafsilroq o'rganish uchun, ularning konstruktsiyalarining deformatsiyalarini doimiy ravishda kuzatishlar olib boriladi. Shu maqsadda bino va inshootlarni qurishda maxsus cho'kish markalari yotqiziladi va ularning doimiy ravishda yuqori aniqlikdagi geodezik usullar bilan o'lchab boriladi. Qurilishda muhandislik faoliyati jarayonida, geodezik me'yoriy hujjatlarga amal qiladilar.

Xulosa.

Har qanday loyihani amalga oshirish, muhandislik tadqiqotlar majmuasidan boshlanadi: (geodezik, geologik va ekologik). Bu erda geodezik tadqiqotlar asosiy rol o'ynaydi. Berilgan hisobotlar relyefining konfiguratsiyasi, uning xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan topografik syomka tafsiflaridir. Keyinchalik ular qurilish maydonchasining bosh rejasining asosini tashkil qiladi. Geodezik ma'lumotlarsiz bino va inshootlarning loyihalarini relefga o'tkazish mumkin emas. Zamonaviy inshootlarni hech birini geodezik o'lchovlarsiz qurib bo'lmaydi. Muhandislik geodeziyasi, zamonaviy inshootlarni qurishning barcha jarayonlariga ishtirok etadi.. Umumiy ma'noda injenerlik geodeziyasi topografik-geodezik qidiruv, bino va inshootlar loyihalarini tuzish va ularni joyga ko'chirish, ularni qurish jarayonida geodezik materiallar bilan ta'minlash, bino va inshootlar deformatsiyasini aniqlash va hokazo ishlar bilan shug'ullanadi. Shuning uchun qurilish ishlarini geodezik xizmatlar bilan ta'minlash, qurilish sanoatining ajralmas va eng masuliyatli qismi hisoblanadi va u muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Nurmatov E.X., Utanov U. Geodeziya. T.: «O—zbekiston», 2002. –234 b.

2. Norxojaev K.N., Injenerlik geodeziyasi. T., Oqituvchi, 1984.
3. Nazirov A.N., Geodeziya.T. Oqituvchi, 1978.Maslov A.V. Geodeziya. M. Nedra, 1990. 324. 4. Raximbaev F.M., Hamidov M.M., «Qishloq xojaligi melioratsiyasi» (geodeziya bolimi) T.: Ozbekiston 1996.– 128 b.
4. Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛҒОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, (SPECIAL ISSUE).
5. Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O ‘RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
6. Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." *Агропроцессинг* SPECIAL (2020).
7. Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
8. SH.K. Avchiyev. Amaliy geodeziya. Toshkent 2010y.
9. SH.K. Avchiyev. Injenerlik geodeziyasi. Toshkent 2007y.
10. Internet saytlaridan olingan ma’lumotlar. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
11. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.
12. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
13. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
14. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.

UO‘T:63.634

INTENSIV BOG‘LAR YER RESURSLARI MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Nuriddinov Otabek Xurramovich – tayanch doktrant Email: nuriddinovotabek92@gmail.com

Sharipova Feruza Kaxromonovna-assistant, Raxmatullayeva Anora Baxtiyor qizi - magistrant

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya. Maqolada yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sug‘oriladigan tuproqlarning meliorativ-ekologik holatini yaxshilash, unumdorligini saqlash, oshirish va ulardan oqilona foydalanish, ikkilamchi sho‘rlanish jarayonlariga qarshi kurashda resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish muammolari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yer resurslari, o’g’itlash, tuproq eroziyasi, yer kodeksi, tuproq qoplami, sho‘rlanish, eroziya, cho‘llanish, voha, unumdorlik, almashlab ekish.

УДК:63.634

ИНТЕНСИВНЫЕ САДЫ ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ

Нуриддинов Отабек Хуррамович- базовый докторант Email: nuriddinovotabek92@gmail.com

Шарипова Феруза Кахромоновна- ассистенты, Рахматуллаева Анора Бахтиер кызы –магистрант

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета “Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”

Аннотация. В статье проанализированы проблемы повышения эффективности использования земельных ресурсов, улучшения мелиоративно-экологического состояния, сохранения, повышения и

рационального использования плодородия орошаемых почв, внедрения ресурсосберегающих технологий в борьбе с процессами вторичного засоления.

Ключевые слова: земельные ресурсы, удобрение, эрозия почв, Земельный кодекс, почвенный покров, засоление, эрозия, опустынивание, оазис, плодородие, севооборот.

UDC:63.634

INTENSIVE GARDENS EFFECTIVE USE OF LAND RESOURCES

Nuriddinov Otabek Khurramovich-base doktrant Email: nuriddinovotabek92@gmail.com

Sharipova Feruza Kakhromonovna-assistant, Rakhmatullaeva Anora Bakhtiyor kizi-master

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation. The article analyzes the problems of increasing the efficiency of the use of land resources, improving the meliorative-ecological condition of irrigated soils, maintaining, increasing productivity and their rational use, introduction of resurstejamkor technologies in the fight against secondary salinization processes.

Keywords: land resources, fertilization, soil erosion, Land Code, soil cover, salinity, erosion, desertification, Oasis, fertility, crop rotation.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida qayd qilinadiki, yer resurslari respublikaning milliy boyligidir. Ulardan oqilona va samarali foydalanish zarur. Bu esa ko‘p jihatdan yerning eng muhim xossalari va xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o‘rganilganligiga bog‘liq. Bu eng avvalo, yerdan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan tadbirlar majmuini ishlab chiqishga izchillik bilan yondoshish va amalda to‘plangan tajribalarga suyangan holda tashkil etilishi mumkin.

Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini oshirish – bu iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan qishloq xo‘jaligini yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishdir. Yerdan to‘g‘ri foydalanish, zamon va makonda har xil o‘simlik turlarining ilmiy asoslangan ketma-ketligini joriy etish, tuproqqa ekologik "toza" ishlov berish usullarini qo‘llash, o‘g‘itlash, qulay agrotexnik muddatlarda amalga oshirish, o‘simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, tuproq eroziyasiga qarshi kurash kabi muayyan elementlar aniq qonunchilik yo‘li bilan boshqarishni talab qiladi. Bunda ham yer kadastri yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning muhim richagi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 15-moddasiga muvofiq, davlat yer kadastri yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy tartibi, ularning toifalari, sifat ko‘rsatkichlari va qiymati, yer uchastkalarining joylashgan o‘rni va o‘lchamlari to‘g‘risidagi, yer uchastkalarini yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash to‘g‘risidagi zarur, ishonchli ma’lumotlar va xujjatlar tizimidan iborat.

Mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, ularning sifatini yaxshilash, shuning barobarida, mevali daraxt ko‘chatlari turini ko‘paytirish orqali intensiv bog‘lar barpo etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yil mart oyining seryog‘in kelishi, yog‘ingarchilik miqdori oylik me’yoridan sezilarli darajada ko‘p bo‘ldi, bu bevosita yangi bog‘lar va tokzorlarni barpo etish ishlari kechikishiga olib keldi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro hamda Navoiy viloyatlari tuproq-iqlim sharoiti va dehqonchilik madaniyatini turlichaligi bilan xarakterlanadi. Yer osti sizot suvlari yaqin joylashgan qismida o‘tloq va o‘tloq botqoqli tuproqlidir. Shuning uchun, ko‘chat ekishdan oldin tuproqda namlik 70 foizdan yuqori bo‘lgan joylarda drenaj tarmoqlari (zovurlar) qazib suvni qochirib, ekish tavsiya etiladi.

Intensiv bog‘lardagi agrotexnik tadbirlar

Bu yilgi ob-havo haroratidan kelib chiqib, bahorgi qora sovuqlardan mevali daraxtlarni asrash uchun gektariga 100-200 go‘ng, xashak va xazon aralashmasini yig‘ib qo‘yiladi va havo harorati pasaishi bilan tutatiladi. Hosilli bog‘ qatorlaridan 70-80 sm uzoqlikda egatlar olinib, sug‘oriladi. Egatlarning chuqurligi 22-24 sm., uzunligi 100 m. dan 300 m. gacha, yengil tuproqlarda kaltaroq, og‘ir tuproqlarda uzunroq bo‘ladi. Suv 24-36 soat

davomida tuproq yaxshi zaxlaguncha sug‘oriladi. Og‘ir soz tuproqlarda bitta sug‘orish me’yori gektariga 700-800 m3, toshloq tuproqlarda 400-500 m3 bilan sug‘oriladi. Hosilli bog‘larga ammiak selitrasi 360 kg yoki ammofos 250 kg, fosforli 130-180 kg, kaliyli 200 kg/ga o‘g‘itlar solinadi. Organik o‘g‘itlarni mineral o‘g‘itlar bilan qo‘shib solish va bunda organik mineral aralashmada oziqa moddalari miqdori yuqori bo‘lishini ta’minlash kerak.

Yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lganligi mevali bog‘larda zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan kasalliklarni avj oladi. Mevali bog‘larda, (urug‘li, danakli) asosiy zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan kalmaraz, un shudring, monilioz, klyasterosporioz, shaftolini barg bujmayish va olxo‘ri cho‘ntakchasi kasalliklariga qarshi quyidagi tadbirlar bajariladi: Mevali (urug‘li, danakli) daraxtlarni tinim davrida (kurtaklar yoyilishidan oldin) 3-4% li Bordo suyuqligi bilan daraxtlarga purkaladi. Kurtak yoyilish davrida (gullashdan oldin) 1% li Bordo suyuqligi, falkon, alto super, panch, topsin, skor, ampakt, difen super va strobi fungisidlaridan birini qo‘llash lozim.

Bunday bog‘larning ko‘plab afzalliklarga ega ekani bugungi kunda amalda namoyon bo‘lmoqda. Misol uchun, oddiy mevali daraxt ekilganidan boshlab dastlabki hosilini berguniga qadar odatda 4–5 yil o‘tadi. Intensiv bog‘dorchilikda esa daraxt ikkinchi-uchinchi yildayoq hosilga kiradi.

Intensiv bog‘lardagi pakana va yarim pakana daraxtlarning tanasi kichik bo‘lganligi bois ularga yorug‘lik tushishi, havo aylanishi yaxshi bo‘lganligi uchun mevasining sifati va ta’mi yaxshi bo‘ladi. Qolaversa, bunday bog‘larga ishlov berish juda qulay, mevasini terish ham oson. Ayniqsa simbag‘azga olingan bog‘larda narvon ishlatmasdan hosil teriladi. Bunda ish unumli, yuqori bo‘lishi bilan birga terilgan mevalar kelgusida yaxshi saqlanadi.Yurtimizning turli hududlari tuproq-iqlim sharoitida pakana payvandtaglarga ulangan ko‘chatlarning turlari va navlariga qarab, parvarish ishlarini olib borish talab etiladi.

Yurtimizning iqlim sharoiti past bo‘yli payvandtagga ulangan mevali bog‘larni barpo qilish uchun juda qulay. Intensiv bog‘larning hosildorligini oshirishda tuproqni doim oziqlantirib turishga ham ahamiyat qaratish zarur. Buning uchun har yili gektariga 30–40 tonna chirindi hamda sof holda 240–260 kg azot, 120–150 kg fosfor va 60–70 kg kaliy solib turish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, yangi ekilgan ko‘chatlarni dastlabki davrda suv bilan ta’minlashga katta e’tibor berish kerak. Ko‘chatlar to‘liq tutib ketishi uchun (agar tomchilatib sug‘orish texnologiyasi o‘rnatilmagan bo‘lsa) ular atrofini aylana shaklida ariq olib sug‘orish lozim. Mevali daraxtlar qishda tinim davriga kirgani bois, sentabr oyining ikkinchi yarmidan sug‘orish tavsiya etilmaydi. Oktabr-noyabr oylarida ko‘chatlarning qator oralig‘i chopilib, yumshatiladi. Begona o‘tlardan tozalanadi. Boisi, bu davrda tuproqda namlik darajasi yaxshi saqlanadi.

Ushbu agrotexnik jarayonlar o‘z vaqtida to‘liq va sifatli o‘tkazilsa, yangi ekilgan pakana va yarim pakana daraxtlar ikkinchi-uchinchi yildan boshlab hosilga kira boshlaydi. Yangi intensiv mevali bog‘larning yaratishdan maqsad, avvalo xalqimizni yil davomida to‘liq meva mahsulotlari bilan ta’minlash, qayta ishlash, eksport qilinayotgan meva turlari va hajmini oshirib borishdir. Hozirda meva mahsulotlarimiz nafaqat Qozog‘iston va Rossiya mamlakatlariga, balki Yevropa davlatlariga ham eksport qilinmoqda. Bundan keyingi bizning asosiy maqsadimiz eksportyor davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda bunday bog‘lar kelgusida yanada kengayadi, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi. Mazali, vitaminlarga boy mevalar yangi texnologiyalar asosida qayta ishlanib, chetga chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Bularning barchasi mamlakatimiz iqtisodiy qudratini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.agro.uz
2. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
3. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.
4. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
5. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.

6. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.Адизов, Ш. Б., & Музафаров, Р. М. (2020). БУХОРО ВИЛОЯТИ ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИГИ ВА АҲОЛИ ТОМОРКА ЕРЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАҚСАДИДА ЭКИЛАДИГАН ЭКИНЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).
7. THE ROLE AND IMPORTANCE OF LAND MONITORING IN THE USE OF LAND RESOURCES. FK Sayidov, AK Akhrorov - Euro-Asia Conferences, 2022 Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. **International** Journal of Human Computing Studies (IJHCS). https://journals.researchparks**.** org/index. php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 ǀ p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 ǀ April 2022. Page 70
8. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).
9. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. Актуальные проблемы современной науки (pp. 101-103).
10. Karimov, E. Q. (2020). IMPROVEMENT OF SOIL QUALITY ASSESSMENT WITH OF INFORMATION TECHNOLOGIES. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 321-324).
11. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)
12. Karimov, E. K., Bobozhonov, S. U., Mukhammadov, K. M., & Akhtamov, S. (2021, June). POSITION AND EFFECTIVE USE OF LAND FOR AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In E-Conference Globe (pp. 50-53).
13. Karimov E, Ahrorov A, & Tolibov Sh. (2022). FUNDAMENTALS OF EFFICIENT USE OF LAND AND WATER RESOURCES. Euro-Asia Conferences, 39–41.

14. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In E-Conference Globe (pp. 35-37).
15. 13.Shuxrat, A., & Erkin, K. (2020). WAYS TO INCREASE THE EFFECTIVE USE OF LANDS OF PERSONALITIES AND DEKHAN ECONOMIES IN THE BUKHARA REGION. Агропроцессинг, 2(2).

UO'T: 630.181

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

Nuriddinov Otabek Xurramovich- tayanch doktrant Email: nuriddinovotabek92@gmail.com

Hamroyeva Zarina Bekmurodovna-assistant, Muxamadov Qamoriddin Muxtor o'g'li-talaba

Raxmatullayeva Anora Baxtiyor qizi-magistrant

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Maqolada Suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, inshootlarni hamda boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, tiklash va ishga tushirishda, yangi texnologik jarayonlarni joriy etishda aholining sog'lig'ini saqlash va ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlarini hamda maishiy ehtiyojlarini birinchi navbatda qondirish talablariga rioya etgan holda suvdan oqilona foydalanish jarayonlari tahlil qilingan

Kalit so'zlar: Tabiatni muhofazasi, suv birlashmalari, yirik daryolar, kommunal-maishiy, Suv resurslari, huquqiy hujjatlar, qor, muz, yer osti suvlari, daryolar, ko'llar, sun'iy ko'llar, suv omborlari, kanallar.

УДК: 630.181

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ

Нуриддинов Отабек Хуррамович - базовый докторант Email: nuriddinovotabek92@gmail.com

Хамроева Зарина Бекмуродовна-ассистент, Мухамадов Камориддин Мухтор угли-студент

Рахматуллаева Анора Бахтиер кызы-магистрант

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета "Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"

Аннотация: В статье анализируются процессы рационального использования воды при размещении, проектировании, строительстве, реконструкции, ремонте, восстановлении и вводе в эксплуатацию предприятий, сооружений и других объектов, влияющих на состояние вод и водных объектов, внедрении новых технологических процессов с соблюдением требований охраны здоровья населения и первоочередного удовлетворения потребностей в питьевой воде и бытовых нужд. Сделано

Ключевые слова: Охрана природы, водные сообщества, крупные реки, коммунальные услуги, водные ресурсы, правовые акты, снег, лед, подземные воды, реки, озера, искусственные озера, водохранилища, каналы.

UDC: 630.181

PROBLEMS OF WATER RESOURCES USE

Nuriddinov Otabek Khurramovich-base doktrant Email: nuriddinovotabek92@gmail.com

Hamroeva Zarina Bekmurodovna-assistant, Mukhamadov Kamoriddin Mukhtor oghlu - student

Rakhmatullaeva Anora Bakhtiyor kizi-master

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation: the article analyzes the processes of rational use of water in accordance with the requirements for the placement, design, construction, reconstruction, repair, restoration and commissioning of enterprises, structures and other objects that affect the condition of water and water bodies, maintenance of the health of the population and meeting

the needs of drinking water in the first place, as well as the household needs

Keywords: Nature Protection, water associations, large rivers, Utilities, Water Resources, legal acts, snow, ice, groundwater, rivers, lakes, artificial lakes, reservoirs, canals.

Suv O‘zbekiston Respublikasining davlat mulki — umummilliy boylik hisoblanadi va suvdan oqilona va samarali foydalanish lozim bo‘lib, u davlat tomonidan qo‘riqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi (yer osti suvlari) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa’rini geologik o‘rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (yer osti issiq suvlari va mineral suvlar) o‘z vakolatlari doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hisoblanadi.
Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa’rini geologik o‘rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradilar. Suvdan foydalanish ustidan idoraviy nazoratni O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi organlari amalga oshiradilar.

Suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta’sir etuvchi korxonalar, inshootlarni hamda boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash, tiklash va ishga tushirishda, yangi texnologik jarayonlarni joriy etishda aholining sog‘lig‘ini saqlash va ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda maishiy ehtiyojlarini birinchi navbatda qondirish talablariga rioya etgan holda suvdan oqilona foydalanish, shuningdek kollektor-drenaj suvlarini va oqindi suvlarni chiqarib yuborishning qulay rejimi ta’minlanishi lozim. Bunda suv obyektlaridan olinadigan va shu obyektlarga qaytariladigan suvni hisobga olishni, suvlarni bulg‘anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashni, suvlarning zararli ta’sirining oldini olishni, yerlarning suv bosishini imkon

qadar kamaytirishni, yerlarni sho‘rlanishdan, zax bosishdan yoki qaqrab qolishdan muhofaza qilishni, shuningdek qulay tabiiy sharoitlar va landshaftlarni saqlab qolishni ta’minlovchi tadbirlar nazarda tutiladi.

Bozor munosabatlariga o‘tish natijasida O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishning yangi tarkiblari ham paydo bo‘ldi. Lekin shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, suv resurslarini boshqarish borasida hali yechilmagan muammolarning ko‘pligini ham aytib o‘tish mumkin. Ular ichida muhimlari quyidagilar:

1.Suv resurslarini boshqarishning yagona davlatlararo organini tashkil etishning zarurligi. Mutaxassislarning hisoblariga qaraganda bunday organ maxsus maqomga, tarkibga, havzada suv resurslardan foydalanish va uning holatini baholash borasidagi ma’lumot markaziga ega «Sirdaryo», «Amudaryo» havzaviy suv birlashmalarini o‘z ichiga oluvchi Xalqaro suv — energetika konsorsiumi bo‘lishi lozim.

2.Mamlakatimizning yirik daryolari va suv manbalari (Amudaryo, Sirdaryo, Arnasoy, Orol dengizi)ning ijtimoiy — iqtisodiy maqomini belgilash;

3.Suv resurslarini boshqarish masalalariga oid qonuniy va huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, bu masala bo‘yicha yagona davlatlararo konsepsiyani ishlab chiqish;

4.Respublikalarning manfaatlarini hisobga olgan holda, suv sifati va miqdori monitoringi tizimini rivojlantirish;

5.Gidroekologik jihatdan «xavfli» hududlarni batafsil o‘rganish;

6.Orol dengizi havzasi suv resurslarining yagona ma’lumotlar manbaini yaratish, bunda ulardagi tadrijiy o‘zgarishlarni hisobga olish.

Kommunal xo‘jaligida Yevropa mamlakatlari bir sutkada 300-350 l suv sarflasalar, bizda esa 600-550 l ni tashkil etadi.

Shuning uchun mustaqillikni dastlabki yillaridan boshlab suv resurslaridan foydalanishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarga e’tibor berildi.

1).Ishlatilayotgan suvni hisobga olish. (qishloq xo‘jaligi, sanoat va kommunal xo‘jaligida ham)

2).Suvdan foydalanishni iqtisodiy mexanizmini yaratish. (normadan kam foydalanilganda va kam ifloslantirganda rag‘batlantirish, aksi bo‘lganda jarima solish, suvning tannarxini belgilash va baholash va hokazo).

3)Suvdan foydalanganlik uchun haq to‘lashni tashkil etish. (suv o‘lchagichlar o‘rnatish, foydalanish normalarini belgilash).

4).Suv resurslarini nazorat qilish va foydalanishni rejalashtirish.

5).Qo‘shni davlatlar bilan tranzit suv resurlaridan foydalanishni xuquqiy asosini yaratish.

6).Suv resurslaridan foydalanishning jahon tajriba va texnologiyalarini o‘rganish va o‘zimizda qo‘llash.

Suv resurslarini tarkibi va tuzilishi.

Suv resurslari tarkibiga ko‘ra yer osti, yer usti, berk havzalar hamda muz va qor suvlariga bo‘linadi. Suv resurslarining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tarkibining barchasi yagona suv resurslari hisoblanadi. O‘zbekiston hududida qor, muz, yer osti suvlari, daryolar, ko‘llar, sun’iy ko‘llar, suv omborlari, kanallar va boshqa irrigatsiya va sug‘orish inshootlari asosiy suv resurs va manbalari hisoblanadi.

Suvning ifloslanishining oldini olish usullari

Suv resurslarini ifloslanishi deganda biz har xil organik, noorganik, mexanik, bakteriologik va boshqa moddalar to‘planib, uning fizik xossalari (rangi, tiniqligi, hidi, mazasi) va tarkibining (reaksiyasi o‘zgarishi, organik va mineral qo‘shimchalar miqdori ortib, zaharli birikmalar paydo bo‘lishi) o‘zgarishini, suvning yuzasida har xil moddalar suzib, tagiga cho‘kaverishini, suvning tarkibida kislorodning kamayib ketishi, bakteriyalar ko‘payishi, yuqumli kasalliklar bakteriyalarini paydo bo‘lishini tushunamiz.

Suvni ifloslovchi manbalar orasida eng muhim o‘rinni sanoat ishlab chiqarishdan hosil bo‘lgan va maishiy kommunal xo‘jalikdan chiqqan oqava suvlar egallaydi.

O‘zbekiston suvlari va suv havzalari antropogen ifloslanishiga qarab 6 tipga bo‘linadi:

1.Toza suv oqimlari va suv havzalari.

Ular asosan tog‘liq hududlarda joylashgan bo‘lib, suvda mineral zarralari kam, biogen elementlar va organik qo‘shilmalar kam uchraydi. Suv havzalariga xos bo‘lgan og‘ir metallar va pestitsidlarga o‘xshash zararli moddalar me’yordan oshmagan (PDK). Piskom, Oqbuloq, Qizilsoy, Toshkeskin, Terekli, Oqsu, Gelendaryo.

2.Tog‘ oldidagi sust ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari.

Rekreatsion ob'ektlar va kichik aholi punktlari ta'sirida ifloslangan. Oqtashsoy, Ugom, Ohangaron (Angrendan yuqori), G'ovasoy, Qashqadaryo (Varganza qishlog'i), Omonqo'tan, Sazagan, Chorvoq va Hisor suv omborlari.

3.O'rtacha ifloslangan tog' oldi va tekislikdagi suv oqimlari va suv havzalari.

Ular ko'pgina aholi zich joylashgan yerlarda mavjud. Biogen, mineral, organik moddalar me'yordan 2-3 barobar ortiq. Og'ir metallar va neft mahsulotlari me'yordan ortiq. Chirchiq, Ohangaron (o'rta oqim), Salarni yuqori qismi, Qorasuv kanali, Qo'qonsoy, Norin, Qoradaryo, Isfaraymsay, Marg'ilonsoy, Zarafshon (Samarqanddan yuqori), Tuyabo'g'iz, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on, Qayroqqum, Tuyamo'yin suv omborlari, Sirdaryoni Farg'ona vodiysi, Amudaryoni Termiz – Nukus yo'nalishi.

4.O'rtacha ifloslangan va ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari.

Bunday suvlar qishloq xo'jaligida foydalanayotgan qadimgi sug'oriladigan yerlarda uchraydi. Sanoat oqiziqlari, suvda azot minerali, organik modda uchraydi. Me'yordan 3-4 barobar og'ir metall, neft qoldiqlari va pestitsidlar uchraydi. Chirchiq (Chirchiq sanoat kompleksidan quyi), Qo'qonsoy (Qo'qondan quyi), Shimoliy Bog'dod kollektori, Siab kollektori va boshqalar.

5.Iflos suv havzalar va suv oqimlari.

Ular asosan sho'r tuproqli qishloq xo'jalik yerlarida, yuqori minerallashgan suvli yerlarda joylashgan. Yirik aholi punktlarini qo'yi qismida joylashgan. Bu kategoriyaga kiruvchi suvlar, Amudaryoni - Orolbo'yi zonasi, Buxoro vohasi, Mirzacho'l massivi va Farg'ona vohasi.

Biologik, mineral, organik moddalar, og'ir metallar va neft qoldiqlari me'yordan 3-5 barobar ko'p. Keyingi vaqtlarda og'ir metall konlari (mis, xrom va boshqalar) ko'plab uchramoqda. Ular Toshkent shahrining qo'yi qismidagi Qorasu Ohangaron, Chirchiq daryolari.

6.Iflos, juda iflos suv oqimlari va suv havzalari.

Bunday suvlar yirik aholi punktlariga, shaharlarga to'g'ri keladi. Ularning suvlarida ko'p miqdorda turli zaharli moddalar uchraydi. Og'ir metall me'erdan 40-50 barobar ortiq. Bundaylarga - Chirchiq (Salardan keyin), Salar (Toshkent va Yangiyo'ldan so'ng) kiradi.

Respublikada eng iflos suvlar Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga mansubdir.

Iflos suvlarni tozalashda asosan to'rt usuldan:

✓ Mexanik usul: maxsus qurilmalar, suvga qo‘shilgan og‘ir zarralar orqali suv yuzasidagi moy, yog‘, neft va boshqa aralashgan moddalarni ushlab qoladi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, davlat kadastri axborotlarini yangilash, davlat kadastrlari yagonatizimida GATni joriy qilishni takomillashtirish, kadastr hujjatlari mulkchilik va xo‘jalik yuritishning barcha shakllaridagi ob’ektlar to‘g‘risidagi huquqiy, iqtisodiy va texnik ma’lumotlarining boshlang‘ich manbai sifatida qabul qilinishi, hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini yagona umumdavla tjihatdan kompleks hisobga olish va baholashni a’minlash maqsadida yaratish va yuritish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: Davlat kadastrlari yagona tizimi, davlat kadastrlari, yer kadastri, ko‘chmas mulk, kadastr ob’ektlari, yer uchastkalari, kadastr.

УДК 631.4.6(575.16).415.52

ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЕДЕНИЕ ЕДИНОЙ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО КАДАСТРА

Ахмадов Бехзод Обидович - преподаватель кафедры

Раджабова Гуллола Исламовна – магистр

Олтинов С Х- магистр Email:gullolarajabova41@gmail.com

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета “Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”

Аннотация: В данной статье представлены инновационные технологии ведения единой системы государственных кадастров, обновления государственной кадастровой информации, совершенствования внедрения ГАТ в единую систему государственных кадастров, кадастровых документов по правовым, экономическим и техническим вопросам всех форм собственности. и управления Особое внимание уделялось созданию и ведению данных как первичного источника информации, созданию и ведению комплексного учета и

оценки природно-экономического потенциала регионов в едином общегосударственном масштабе.

Ключевые слова: Единая система государственных кадастров, государственные кадастры, земельный кадастр, недвижимость, кадастровые объекты, земельные участки, кадастр.

UDC 631.4.6(575.16).415.52

INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MAINTAINING THE SINGLE SYSTEM OF STATE CADASTRE

Ahmadov Behzod Obidovich - teacher of the department, Rajabova Gullola Islamovna – master

Oltinov S H– *master* Email: gullolarajabova41@gmail.com

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Abstract: This article introduces innovative technologies in the maintenance of a single system of state cadastres, updating state cadastre information, improving the introduction of GAT in the unified system of state cadastres, cadastral documents on legal, economic and technical issues of all forms of ownership and management Special attention was paid to the creation and maintenance of data as a primary source of information, the creation and maintenance of a comprehensive accounting and assessment of the natural and economic potential of the regions from a single national scale.

Keywords: Unified system of state cadastres, state cadastres, land cadastre, real estate, cadastral objects, land plots, cadastre.

Kirish Davlat kadastrlari yagona tizimi O‘zbekiston Respublikasi va uning alohida hududlarining tabiiy-iqtisodiy salohiyatini yagona umumdavlat jihatidan kompleks hisobga olishni va baholashni ta’minlash maqsadida yaratiladi va yuritiladi. Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish bilan bog‘liq munosabatlar mazkur Nizom, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib boriladi. Davlat kadastrlari yagona tizimi davlat hokimiyati va boshqaruvi

organlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni ularning faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha turdagi davlat kadastrlari axborotlari bilan tezkor ta’minlash uchun mo‘ljallangan. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami yerlar 44 892,4 ming gektarni tashkil etib, yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko‘ra 8 ta toifaga bo‘linadi, jumladan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, aholi punktlarining yerlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, o‘rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari; zaxira yerlar. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar unumdor yerlarga taalluqli bo‘lib, umummilliy boylik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYaT) — davlat kadastrlarining barcha turlarini birlashtiruvchi hamda O‘zbekiston Respublikasi va uning ayrim hududlarining tabiiy-iqtisodiy salohiyati yagona umumdavlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan ko‘p maqsadli axborot tizimi. Belgilangan tartibga muvofiq aniqlangan kadastrlar obyektlarining huquqiy maqomi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, kartografiya-geodeziya materiallari, statistik hisobga olish ma’lumotlari, davlat kadastrlari ma’lumotlari Davlat kadastrlari yagona tizimining asosini tashkil etadi. Davlat kadastrlari yagona tizimi doirasida hududlarni kompleks baholash uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ham jamlanadi. Davlat kadastrlari yagona tizimida belgilangan chegaralarda har bir hisobga olingan yer yuzasi uchastkasi uchun uning jug‘rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda tabiiy baholash, xo‘jaliklar va boshqa kadastrlar obyektlari to‘g‘risida hujjatlashtirilgan ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Muammoning qo’yilishi O’zbekistonda 21 turdagi davlat kadastri mavjud.. Lekin bugungi kunda 9 ta kadastr bo’yicha ma’lumotlar atigi 50 foiz shakllantirilgan 21 ta davlat kadatstiridan biri bo’lgan o’rmon kadastri ma’lumotlari 1987-yildan buyon yangilanmagan.Bu kabi kamchiliklar o’z navbatida davlat kadastrlari yagona tizimining mukammal bazasini yaratishga to’stqinlik qiladi. Ko’chmas mulk tizimida ham kamchiliklar yetarligina.Misol uchun 340 mingta obyektning kadastr qiymati belgilanmagan. Shundan 200 mingdan ziyod obyekt bo’yicha soliq hisoblanmayapti. Bundan tashqari, 1 milliondan ortiq uy-joyning kadastr

hujjati yo'q. Davlat kadastrlari yagona tizimi ma'lumotlari davlat boshqaruvi barcha organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy kuchga egadir. Kadastr hujjatlari mulkchilik va xo'jalik yuritishning barcha shakllaridagi obyektlar to'g'risidagi huquqiy, iqtisodiy va texnik ma'lumotlarning boshlang'ich manbai sifatida qabul qilinishi kerak.

Tadqiqot uslubi Geografik axborot tizimi (geoaxborot tizimi)- geografik obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, modellashtirish va aks ettirish, shuningdek raqamli kartografik, o'xshash va matnli axborotdan foydalangan holda umumdavlat (tarmoqlararo) yoki tarmoq ahamiyatiga molik axborot va hisob-kitob vazifalarini hal etish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan tizim. Davlat kadastrlari yagona tizimining GAT - Davlat kadastrlari yagona tizimi masalalarini yechish uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan GAT. Davlat kadatsrlari yagona tizimini GAT O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining Geodeziya va kartografiya milliy markazi tomonidan kartografik va tematik kadastr axborotini yagona geofazoviy axborot bazasiga integratsiyalash maqsadida yaratiladi hamda yuritiladi. Davlat kadatsrlari yagona tizimini GAT davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni ularning faoliyati uchun, shu jumladan barcha turdagi resurslardan foydalanishni boshqarish va prognozlash masalalarini hal etish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha loyihaviy qarorlar qabul qilish, hududlarni rivojlantirish va boshqa shu kabi maqsadlar uchun zarur bo'lgan fazoviy (geofazoviy) axborot bilan operativ ta'minlashga mo'ljallanadi.Davlat kadastrlarining yagona tizimi O'zbekiston Respublikasi va uning ayrim hududlari tabiiy-iqtisodiy salohiyatining yagona umumdavlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishini ta'minlashga mo'ljallangan ko'p maqsadli axborot tizimi tarzida yaratiladi. Hududlar davlat kadastri tizimining axborot resurslari — hudud yagona raqamli kartografik asosining geofazoviy ma'lumotlar bazasi, manzillar, ko'chalar, mahallalar va boshqa nomlangan obyektlar reyestrlari, yer kadastri va boshqa davlat kadastrlariga oid geofazoviy ma'lumotlarning profil to'plami, shaharsozlik va yer tuzish normalari va reglamentlari, qonun hujjatlariga muvofiq hududlar davlat kadastri tizimida ro'yxatga va hisobga olinishi lozim bo'lgan boshqa hujjatlar.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritiladigan davlat kadastrlarining axborotini taqdim etish tartibi davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.Yer, foydali qazilma konlari, belgilari va texnogen hosilalar, suvlar, o‘rmonlar, o‘simliklar va hayvonot dunyosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, tabiiy va texnogen xavfi yuqori bo‘lgan tegralar, ishlab chiqarish va iste’mol chiqindilarini ko‘mib tashlash va utillashtirish joylari, binolar va inshootlar, geodeziya punktlari, avtomobil yo‘llari va temir yo‘llar, transport va muhandislik kommunikatsiyalari davlat kadastrlarining obyektlari hisoblanadi.Kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlari davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda tasdiqlanishining yuridik hujjatidir. Kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotni davlat reyestrlariga kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ko‘chmas mulk hisoblangan kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish kadastr obyektlarining barcha mulkdorlari va kadastr obyektlariga doir boshqa huquqlarning egalari uchun majburiydir.

Xulosa o’rnida Davlat kadatsrlari yagona tizimini GATga tegishli tematik qatlamlar davlat kadastrlarining har bir turi bo‘yicha bazaviy kartografik asosdan foydalanib, obyekt turlari va axborot turlari (ro‘yxatdan o‘tkazishga oid, hisobga olishga oid, baholashga oid) bo‘yicha, ArcGIS dasturiy ta’minotida (*.shp, *.gdb, *.mdb formatlarda) shakllantiriladi. Davlat kadatsrlari yagona tizimini GAT bazaviy kartografik asosining tematik qatlamlari hamda davlat kadastrlarining tegishli GATlarini yuritish uchun zarur kartografik asoslar O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan shakllantiriladi hamda davlat kadastrlarini yuritish bo‘yicha vakolatli organlarga taqdim etiladi. Yuqoridagi tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar kadastrob’ektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari vabahosi to‘g‘risida, shuningdek ularning holatidagi joriy o‘zgarishlar haqidagiaxborotlarni belgilangan tartib va muddatlarda Davlat kadastrlarining yagonatizimiga kiritish uchun taqdim etib borilsa, O‘zbekiston Respublikasining tabiiy iqtisodiy salohiyatining yagona umumdavlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishinita’minlashga mo‘ljallangan ko‘p maqsadli axborot tizimi o‘z vaqtida yaratilar edi. Bu ko‘p maqsadli axborot tizimi davlat kadastrlarini yuritishda, kadastrga

doir axborotni to‘plashda va undan xalq xo‘jaligining turli soxalarida foydalanishda keng imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritishning ayni paytda muhim va dolzarbdir.Bu sohadagi muammolarni bartaraf yetish ayni paytda bu sohani rivojlantirishga qaratilgan eng muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.O‘zbekistonRespublikasiningYer kodeksi 1998 yil 30 aprel.
2. O‘zbekiston. Respublikasi “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonuni O’RQ-171-son 15 dekabr 2000yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo’mitasi huzuridagi davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi to’g’risidagi, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to‘g‘risidagi Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 16 fevral 2005- yil 66-son
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastri to’g’risida” gi qonuni 1998 yil 28 avgust 666-I-son
5. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya vadavlat kadastri davlat qo‘mitasining “Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma’lumotlarining tarkibi va ularni taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 12-son qarori 2014 yil 12 sentabr
6. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
7. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.
8. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
9. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
10. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL

INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.Адизов, Ш. Б., & Музафаров, Р. М. (2020). БУХОРО ВИЛОЯТИ ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИГИ ВА АҲОЛИ ТОМОРКА ЕРЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАҚСАДИДА ЭКИЛАДИГАН ЭКИНЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).

11. THE ROLE AND IMPORTANCE OF LAND MONITORING IN THE USE OF LAND RESOURCES. FK Sayidov, AK Akhrorov - Euro-Asia Conferences, 2022 Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. **International** Journal of Human Computing Studies (IJHCS). https://journals.researchparks**.** org/index. php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 ǀ p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 ǀ April 2022. Page 70

12. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).
13. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. Актуальные проблемы современной науки (pp. 101-103).
14. Karimov, E. Q. (2020). IMPROVEMENT OF SOIL QUALITY ASSESSMENT WITH OF INFORMATION TECHNOLOGIES. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 321-324).
15. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)
16. Karimov, E. K., Bobozhonov, S. U., Mukhammadov, K. M., & Akhtamov, S. (2021, June). POSITION AND EFFECTIVE USE OF LAND FOR AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In E-Conference Globe (pp. 50-53).
17. Karimov E, Ahrorov A, & Tolibov Sh. (2022). FUNDAMENTALS OF EFFICIENT USE OF LAND AND WATER RESOURCES. Euro-Asia Conferences, 39–41.
18. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In E-Conference Globe (pp. 35-37).

УДК: 631.4.6(575.16)

СОВРЕМЕННОЕ МЕЛИОРАТИВНОЕ СОСТОЯНИЕ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ И ПУТИ ЕЕ УЛУЧШЕНИЯ

Асатов Сайиткул Рахимбердиевич – Доктор философии по биологическим наукам (PhD) Email:sasatov1968@gmail.com.

Сулаймонов Жавохир Неъматжон угли – ассистент, Мухамадов Камориддин Мухтор угли – студент

Бобожонов Саиджон Уткирович– студент

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета "Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"

Аннотация. В данной статье анализируются современные проблемы использования орошаемых земель Бухарского оазиса и пути их преодоления: сохранения, повышение и эффективное использование плодородия почв, развитие научно обоснованного земледелия за счет внедрения ресурсосберегающих технологий в борьбе с вторичными засоление.

Ключевые слова: орошаемых земель, вторичное засоление, деградация, водно-солевого баланс, коллекторно-дренажной сети, хлопчатник, люцерна.

UDC: **631.4.6(575.16)**

MODERN RECLAIM STATE OF IRRIGATED LAND AND WAYS TO IMPROVE IT

Asatov Sayitqul Rahimberdiyevich – (PhD), Doktor of Philosophy of Biological Sciences, Email:sasatov1968@gmail.com, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu – student

Bobojonov Saidjon Utkirovich – student, Sulaymonov Javokhir Nematjon oglu- assistant

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Abstrakt. This article analyzes current problems of the use of irrigated lands of the Bukhara oasis and ways to overcome them: the conservation, increase and efficient use of soil fertility, the development of science-based agriculture through the introduction of resource-saving technologies in the fight against secondary salinization.

Key words: irrigated lands, secondary salinization, degradation, water-salt balance, collector-drainage network, cotton, alfalfa.

В мире проводятся научные исследования, по таким приоритетным направлениям, как определение современного состояния почв и их изменения под воздействием антропогенных факторов, предотвращение таких отрицательных процессов, как дегумификация, потеря водостойкой зернистой структуры, уплотнение, оптимизация водно-солевого баланса, вторичное засоление, эрозии и других, улучшения мелиоративно-экологического состояния почв. В этом плане уделяется особое внимание исследованиям, направленным на оценку водно-физических, технологических, агрохимических свойств и мелиоративного состояния, разработку агромелиоративных, агротехнических мероприятий в соответствии с почвенно-климатическими условиями регионов, а также исследованиям, направленным на сохранение, воспроизводство и повышение плодородия почв.

В республике проводятся широкомасштабные мелиоративные мероприятия и научные исследования и достигнуты определенные результаты по улучшению мелиоративно-экологического состояния орошаемых земель, их сохранению, повышению и эффективному использованию, развитию научно обоснованного земледелия, путем внедрения ресурсосберегающих технологий в борьбе с вторичным засолением. Бухарский оазис расположен в среднем и нижнем течении реки Зарафшан и разделен на 3 своеобразных геоморфологических района: Навои-Конимехский, Бухарский и Каракульский. Раньше река Зарафшан снабжала водой земли этих трех геоморфологических районов. Общая площадь Бухарской области составляет 4173,1 тыс. га, а площадь орошаемых земель составляет 274,9 тыс. га.

С геологической точки зрения, территория Бухарской области имеет седлообразную (мульда) структуру и заполнена континентальными отложениями мощностью до 400 метров. Они

залегают на повсеместно широко распространенных морских гиллах палеогенового периода. Гидрогеологические условия–подземные воды Кармана-Конимехского оазиса состоят из медленно движущихся потоков подземных вод в аллювиальных и аллювиально-пролювиальных, гравийно-песчано-глинистых слоях почвы. Уровень залегания грунтовых вод 1,5-3,0 метр. Направление потока северо-западное, уклон составляет 0,001-0,004. Химический состав грунтовых вод в верхней части оазиса гидрокарбонатный и гидрокарбонатно-сульфатный; в центральной части сульфатный, на окраине и в пустыне сульфатно-хлоридный и хлоридно-сульфатный. Высокая температура воздуха и обилие жарких дней приводят к высокому расходу грунтовых вод, расположенных у поверхности, на эвапотранспирацию. Это, в свою очередь, приводит к резкому увеличению содержания солей в зоне аэрации. В результате на орошаемых территориях происходит вторичное засоление.

Одним из основных факторов, характеризующих эколого-мелиоративное состояние орошаемых земель, является содержание и состав солей в активной зоне распространения корневой системы растений. При всех оптимальных условиях агротехники потеря урожая на слабозасоленных почвах составляет около 20-30%; в среднезасоленных почвах–40-50%; в сильнозасоленных почвах–60-80%. Под влиянием природных и экономических условий, количественные показатели солей, процесс засоления, а также выведение солей из почвенных горизонтов наблюдется в очень широком диапазоне. Эти процессы очень четко отражены в результатах нашего исследования в Каракульском районе. Исследования почвенных разрезов, выбранных для наблюдений, показывают, что степень засоления староорошаемых лугово-аллювиальных почв колеблется в разных диапазонах. Количество солей в 0-100 см слое почвы колеблется от 0,090-0,925% (1001, 1021 разрезы) до 1,090-2,740% (1059, 1021 разрезы) по сухому остатке, количество иона хлора, опасного для растений, колеблется в пределах от 0,01% до 0,35%.

Более 70% орошаемых земель Каракульского оазиса, где проводились исследования, составляют староорошаемые лугово-аллювиальные, лугово-аллювиально-такырные, пустынно-песчаные почвы. 40-45% этих почв в разной степени засолены и уплотнены, количество гумуса и содержание оснавных питательных элементов в

них также было обнаружено разное. Такая же ситуация наблюдалась на орошаемых почвах Бухарского оазиса.

Известно, что одним из основных показателей оценки изменений и направленности эколого-мелиоративных процессов орошаемых почв является сравнение и анализ количественных показателей водно-солевого баланса. С целью изучения водно-солевого баланса в оазисе в 2015-2018 гг. были взяты и проанализированы пробы воды из специально отобранных участков Бухарской области, в начале и на выходе коллекторно-дренажной сети из территории. В целом результаты анализа средних показателей водно-солевого баланса Бухарского оазиса по отдельным годам следующие: в 2015 году на территорию оазиса поступило 4218,9 млн. м^3 воды, вместе с данными водами в регион привнесено 3833396 тонн водорастворимых солей. В том же году через коллекторно-дренажные сети с орошаемых земель области было вынесено 1643,76 млн. м^3 воды через дренажные сети. Количество вынесенных солей составило 631151 тонны. В 2018 году вместе с 3995,1 млн. м^3 воды на территорию оазиса было привнесено 4366643 тонны солей, что свидетельствует о негативном развитии водно-солевого баланса. В результате, на наш взгляд, отрицательный водно-солевой баланс, развивающийся в орошаемых почвах, свидетельствует о том, что на данном этапе нет оснований говорить о благоприятной эколого-мелиоративной ситуации. Действительно, при текущем уровне коэффициента землепользования техническое состояние внутрихозяйственной коллекторно-дренажной сети оказалось непригодной для выведения водорастворимых солей, большая часть которых поступает с орошаемых земель.

На основании полевых исследований и лабораторных анализов установлено, что количественные показатели солей, степень и типы засоления различаются на разных территориях района. Результаты анализа были тщательно изучены, определено валовое количество водорастворимых солей в почвенном профиле и их суммарные запасы, оценено мелиоративное состояние почв на основе количественных показателей запасов солей и составлена картограмма засоления почв массивов.

Промывка засоления считается одной из ключевых мер улучшения мелиоративного состояния засоленных почв, в условиях Бухары такое орошение (солевые промывки) ускоряет естественное

рассоление с осенне-зимними атмосферными осадками. В результате зимнего профилактического орошения может быть достигнуто удовлетворительное снижение количества солей в пахотном и подпахотном горизонтах. Зимнее профилактическое орошение дает хорошие результаты при норме 1500-3000 м^3/га. Проведение промывки засоленных почв с учетом механического состава почвы, степени засоления и водопроницаемости, промывка слабозасоленных староорошаемых лугово-аллювиальных почвах 2,0-2,5 тыс. м^3/га, среднезасоленных почвах 3,5-5,0 тыс. м^3/га и сильнозасоленных почвах объемом воды 5,0-6,5 тыс. м^3/га, и проведение данных промывок в несколько этапов, использование при этом картограмм засоления составленных для массивов даёт положительные результаты.

Наряду с агромелиоративными мероприятиями, внедрение системы севооборотов также важно для улучшения мелиоративного состояния земель. В почвенно-климатических условиях Бухарского оазиса люцерна за вегетационный период снижает уровень грунтовых вод в среднем на 30-60 см. Для улучшения мелиоративного и экологического состояния земель в условиях дефицита воды рекомендуется широкое применение в Бухарском оазисе ресурсосберегающих агротехнологий и методов эффективного использования земель путем внедрения системы севооборота: хлопчатник: люцерна: зерновые (4:3:3) повышающие плодородие почв.

ЛИТЕРАТУРА

1. Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. International Journal of Human Computing Studies (IJHCS). https://journals.researchparks. org/index. php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 | April 2022. Page 70
2. Asatov Sayitqul, Axtamov Suxrob, Mahmudov Mironshoh. Removal of chemical weed killers and organics from irrigated land. International Conference on Scientific, Educational & Humanitarian Advancements Hosted online from, Samsun, Turkey, July 15 th , 2021.pp-264-267. www.econferenceglobe.com.

3. Асатов С.Р. Пути улучшения эколого-мелиоративного состояния орошаемых почв Бухарского оазиса республики Узбекистан при дефиците воды. Ж:. «Актуальные проблемы современной науки». – Москва, 2021. – №4 (121). – С.98-100.
4. Erkin Kodirovich Karimov, Behzod Obidovich Ahmadov, Sallax Atayevich Khamrayev., & Asadbek Oybekovich Khudaynazarov. (2021). MECHANISMS OF RICE GROWING AND RICE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. & quot; ONLINE - CONFERENCES & quot; PLATFORM, 13–15.
5. SB Adizov, AB Obidovich, MM Maxmudov - Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021 Rights and Responsibilities of the Spouses
6. Sattorov J. Reclamation of land resources, improvement of fertility, their efficient use and protection.//Agro ilm.-Tashkent, 2014-№1 (29). –P.53-54.
7. Khudoyberdiyev F Sh 2020 Foreign experience in the field of pasture areas, opportunities and conditions for their use in Uzbekistan Land management, cadastre and land monitoring 10 24-27
8. Asatov AR, Pirimov JJ, Muhamadov KM, Bobojonov SO, Axtamov SF 2021 The Importance of Orthophotoplans in Cadastre Work *International journal on orange technology* **3** 40
9. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
10. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.
11. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
12. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
13. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.

UO’T 631.582

QISHLOQ XO’JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA ALMASHLAB EKISH TIZIMINI JORIY ETISH USLUBLARINI RIVOJLANTIRISH

Karimov Erkin Qodirovich – “Yer tuzish va yerdan foydalanish” kafedrasi dotsenti Baxronova Shaxnoza Ilxomovna .-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi magistranti sbaxronova753@gmail.com

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy

tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya. Maqolada almashlab ekishni joriy qilish asosida yerlarning unumdorligini oshirish, takroriy ekinlarni ekishni rivojlantirishni asoslash. Almashlab ekish tizimidagi ekinlarni hosildorligini oshirish bilan bog’liq bo’lgan ma’lumotlar yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Almashlab ekish, takroriy ekin, unumdorlik, samaradorlik, makkajo`xori, arpa, yasmiq.

УДК:631.582

РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ СЕВООБОРОТА В РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

Аннотация. В статье обосновано для повышение продуктивности земель на основе внедрения севооборотов. Приведены сведения о повышении урожайности сельскохозяйственных культур в системе севооборота.

Ключевые слова. Севооборот, продуктивность, эффективность, кукуруза, ячмень, чечевица.

UDC: 631.582

DEVELOPMENT OF METHODS FOR INTRODUCING A CROP ROTATING SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE

Karimov Erkin Qodirovich-dotsent, Baxronova Shaxnoza Ilxomovna-master

sbaxronova753@gmail.com

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Abstract. In the article, increasing the fertility of lands on the basis of the introduction of crop rotation is the rationale for the development of replanting. Increase crop yields in the crop rotation system.

Keywords: Crop rotation, replanting, productivity, efficiency, corn, barley, lentils.

Prezidentimiz qishloq xo`jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan yig`ilishida mamlakatimiz qishloq xo`jaligi bo`yicha ulkan salohiyatga ega ekanligi, bozorlarimiz to`kin, xalqimiz rizqi mo`l-ko`l bo`lishidan tortib, eksportdan qo`shimcha daromad topishgacha bo`lgan juda ko`p masalalar shu yo`nalish bilan bevosita bog`liqligini ta`kidlagandilar. Prezidentimiz aytganidek uzoq yillar davomida agrar sohaga yetarlicha e`tibor berilmadi. Mablag` va ilmiy innovatsiyalar jalb etilmadi.Oqibatda yerlar yaroqsiz holatga kelib, unumdorlik darajasi pasayib ketgan.

Dehqonlar almashlab ekish deganda, faqat paxta-g`allani tushunib, ya`ni bir yili g`allani eksa, ikkinchi yili uning o`rniga paxtani qayta-qayta ekaverdi. Orada sabzavot mahsulotlarini ham ekish lozimligini esdan chiqarib qo`yishdi. Bundan tashqari, ilmiy asoslangan agrotexnika tadbirlarini hamda o`g`itlarni ham o`z vaqtida bermaslik oqibatida, hosildorlik ko`zlanganidek bo`lmay qoldi. Qishloq xo`jaligi rivojlangan xorijiy davlatlarda yerga munosabat umuman boshqacha. Ular yerga biogumus va mikroo`g`itlarni o`z vaqtida, hattoki minutma-minut hisobini olgan holda berishadi. Xalqimizda bir gap bor “Yerga mehr bersang, yer ham senga o`z mehrini beradi”deb aytilgan. Hozirgi kunda qilinayotgan ilmiy kashfiyotlarni fermerlar amalda qo`llashlari lozim. Yer unumdorligini oshirish bo`yicha ko`pgina doktorlik ishlari qilingan. Bunday ilmiy ishlar, dissertatsiyalar o`zining ijobiy natijasini ko`rsatishi uchun amaliyotda qo`llanilishi zarur. Shunchaki, qog`ozda qolib ketmasligi, amalda ham qo`llanilishi lozim. Biz Sholi almashlab ekish, sabzavot almashlab ekish, bug`doy va arpa almashlab ekish, paxta

almashlab ekishi, g`o`za almashlab ekishi va boshqa turli xil almashlab ekishlarni eshitganmiz lekin ulardan faqat bitta yoki ikkitasini qo`llaymiz.Yuqorida aytilganidek, fermerlarimiz almashlab ekishni tizimli ravishda olib borishmayabdi. Balki fermerlarimiz almashlab ekish mohiyatini to`laqonli tushunishmagandir. Buning uchun har bir fermer uning qo`l ostidagi xodimlari, mutaxassislari almashlab ekish tizimi bo`yicha (kamida 6 oy) bosqichma- bosqich o`qitilishi, almashlab ekish tizimi bo`yicha tushunchaga ega bo`lishi, ilmiy asoslangan usullardan foydalanishni o`rganishi va albatta o`z ishining mutaxassisi nazoratida olib borilishi zarur. Shundagina ko`zlangan samaradorlikka erishishimiz mumkin.



1-Rasm. Almashlab ekish tizimida tuproq unumdorligining o'rni.

Almashlab ekish tizimida tuproq unumdorligining pasayishini oldini olishimiz ham kerak. Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalangan holda yurtimiz iqlimiga mos, tuprog`iga mos tarzda ilmiy ishlar qilishimiz kerak. Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga va yevropa davlatlari tarixiga nazar soladigan bo'lsak:

Ikki maydonli tizim: Ikki dalali aylantirish asosida yerning yarmi bir yilda ekilgan, qolgan qismi ishlatilmagan. Keyingi yilda, esa teskari jarayon qo'llanilgan, ya`ni ishlatilmagan yerga ekin ekilgan va aksincha birinchi ekilgan yerga dam berilgan. Bu usul natija bermagani uchun uch dalali almashlab ekish tizimiga o`tishgan.

Uch maydonli tizim: 20-asrga qadar yevropaning dehqonlari shug`ullangan uch maydonli aylanish, mavjud yerlarni uch qismga bo`lish. Bir qismi kuzda ekilgan javdar yoki qish bug`doyi keyin bahor makkajo`xorisi yoki arpa; Ikkinchi bo`limda no`xat, yasmiq yoki loviya kabi ekinlar yetishtirilgan; Uchinchi maydon esa bo`sh qoldirilgan. Har 3 yilda bir dalada dam olish va bo`sh qolish uchun 3 ta maydon shu tarzda aylantirilgan. Ikki maydon tizimiga ko`ra agar u jami 600 gektar maydonga ega bo`lsa, (2,4 km kv-240 gektar) unumdor yerlardan 300 gektar maydon ekish mumkin bo`lgan.Yangi uch maydonli aylantirish tizimiga ko`ra, 400 gektar maydon ekish (va shuncha hosil olish) kerak edi. Ammo qo`shimcha ekinlar shunchaki miqdoriy unumdorlikka qaraganda sezilarli ta`sir ko`rsatgan. Bahorgi ekinlar asosan dukkakli ekinlar bo`lgani uchun ular Shimoliy Yevropa aholisining umumiy ovqatlanishini ko`paytirdi.

**To`rt maydonli tizim:** Mintaqadagi fermerlar Vaslendda (hozirgi shimoliy Belgiyada) XIV asr boshlarida to`rtta maydonni aylantishni kashf qilishgan va Charlz Tausend (1674-1738) 18 asrda ushbu tizimni ommalashtirgan.To`rt hosilning ketma-ketligi (bug`doy, sholg`om, arpa, va yoncha kiritilgan.To`rt dalali almashlab ekish asosiy rivojlanish bo`lgan Britaniya qishloq xo`jaligi inqilobi ba`zan ekin maydonlari va Ley o`rtasida aylanish ham deyilgan. Jorj Vashington Carver (1860-1943) yillarda almashlab ekish tizimi usullarini o`rgangan. Fermerlar tuproqni susaytiradigan (ya`ni unumdorligini pasaytiradigan)ekinlarni paxtaga o`xshatib, tuproqni boyitadigan ekinlar esa yerfistig`i (yeryong'oq) va no`xat deyilgan.Yashil inqilob 20 asr o`rtalarida an`anaviy almashlab ekish amaliyoti dunyoning ayrim qismlarida tuproqqa kimyoviy qo`shimchalar kiritish orqali o`z o`rnini topdi.Ekinlarni tanlash fermer erishmoqchi bo`lgan maqsadiga bog`liq bo`ladi. Ekinlarni almashtirishni muhokama qilishda ekinlar qanday sifatga qarab baholanayotganiga qarab har xil usulda tasniflanadi: oila, ozuqa moddalariga bo`lgan ehtiyoj. Masalan, o`simliklar oilasiga yetarlicha e`tibor berish zararkunandalar va patogenlarni kamaytirish uchun juda muhimdir. O`simlik tanlovida dukkaklilar almashlab ekishning katta afzalligi o`zaro bog`liqlikdan kelib chiqadi. Azotni biriktiruvchi va azot talab qiladigan ekinlarga dukkaklilar,

beda va yoncha singari o`simliklar kiradi. Bu ekinlar mavjud bo`lgan azotni atmosferadan to`playdi va ularni ildiz tuzilishidagi tugunlarda saqlaydi. O`simlik yig`ib olinganda yig`ilmagan ildizlarning biomassasi parchalanib saqlanadigan azotni kelajakdagi ekinlar uchun beradi. Bundan tashqari, dukkakli ekinlar tuproqqa chuqur singib ketadigan og`irroq moyilligi va suvning singishi uchun tuproqni ko`taradigan og`ir tabiat ildizlarga ega.

Ekinlarni navbatlab ekish bu hali almashlab ekish emas, tuproqni ishlash, o'g'itlash va sug'orishlarning to'g'ri sistemasiz,ekinlarni almashtirmasdan turib, almashlab ekishning oldiga qo'yilgan masalani hal etish, tuproq unumdorligini oshirish va ekinlar hosildorligini ko'paytirish mumkin emas.Tuproqni ishlashning to'g'ri sistemasini joriy etish juda muhim hisoblanadi. Almashlab ekishda o'g'itlardan foydalanish va sug'orish sistemasi ishlab chiqilishi kerak. G'o'zani parvarish qilishdagi ushbu ikki usul almashlab ekish dalalari bo'yicha tabaqalashtirilgan holda amalga oshiriladi. Ekinni sug'orish va unga o'g'it solish o'tzor buzilib, tuproqning suv fizik xususiyati yomonlashishi hamda beda tomonidan to'plagan biologik azotning nisbatan kamayishi sodir bo'lishi bilan o'tkaziladi. Bu xildagi tavsiyanomaga ko'proq ishlab chiqarish sharoitida amal qilinadi. B.P.Kondatyuk tomonidan olib borilgan maxsus kuzatishlarda, bedaning bargi ildizidan qirqib ajratildi. O'simlikning to'pbargida esa yengil o'zlashtiriladigan oziq moddalar to'plangan bo'lib, u to'pbargda bo'ladigan ko'plab tinim holatidagi kurtaklarning unib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, bedapoya buzilgandan keyin parchalanish o'simliklarning to'pbarg qismida boshlanib, ildizning qolgan qismiga o'tadi. To'pbargidan ajratilgan va tuproqqa chuqur qilib ko'mib yuborilgan ildizlar parchalanmay bir necha yil davomida saqlanishi mumkin. Almashlab ekishni tashkil etishda har xil yo`nalishlarda ta`sir etadigan ko`plab omillarni hisobga olish kerak.

Har xil dehqonchilik tizimlaridan foydalanish ko`p dalali almashlab ekishlarni joriy etishni, yangi dalalarni sug`orishni, yerlarni bir turdan ikkinchi turga o`tkazishni (transformatsiyalash) talab etadi. Qishloq xo`jaligi uchun tuproq unumdorligini oshirish va uni himoya qilish juda

katta ahamiyatga ega.Har bir xo`jalikda tuproqdagi gumusning ijobiy balansini ta`minlash kerak,bunga xususan,to`g`ri almashlab ekishlarni boshqa tadbirlar bilan birga kompleks loyihalashda erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qishloq xo`jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan yig`ilishi"da aytilgan nutqlari.
2. Bullock.D.G 1992 yil "Ekinlarni aylantirish".O`simlikshunoslik bo`yicha tanqidiy sharhlar. Ekinlarni aylantirish.Yangi xalqaro ensiklopediya.1905 yil.
3. Oq.L.T 1962 yil "O`rta Asr texnologiyasi va ijtimoiy o`zgarishlar.Oksford universiteti matbuoti.
4. Adizov SB, Obidovich AB, Maxmudov MM 2021 Rights and Responsibilities of the Spouses Academic Journal of Digital Economics and Stability **7** 10
5. Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. **International** Journal of Human Computing Studies (IJHCS). https://journals.researchparks**.** org/index. php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 | April 2022. Page 70
6. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
7. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.
8. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
9. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
10. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL

INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.
11. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).
12. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. Актуальные проблемы современной науки (pp. 101-103).
13. Karimov, E. Q. (2020). IMPROVEMENT OF SOIL QUALITY ASSESSMENT WITH OF INFORMATION TECHNOLOGIES. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 321-324).
14. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)
15. Karimov, E. K., Bobozhonov, S. U., Mukhammadov, K. M., & Akhtamov, S. (2021, June). POSITION AND EFFECTIVE USE OF LAND FOR AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In E-Conference Globe (pp. 50-53).
16. Karimov E, Ahrorov A, & Tolibov Sh. (2022). FUNDAMENTALS OF EFFICIENT USE OF LAND AND WATER RESOURCES. Euro-Asia Conferences, 39–41.
17. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In E-Conference Globe (pp. 35-37).

UO‘T 631.2

O‘ZBEKISTONDA KO‘P TARMOQLI FERMER XO‘JALIKLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Bo’riyev Sulaymon - professor Email:sasatov1968@gmail.com

Ramazonov Feruz Furqatovich –magistrant.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizda ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklarini rivojlantirishning tashkiliy huquqiy mexanizmalari, ko’p

tarmoqli fermer xo'jaliklarini boshqarish asoslari, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari yerlaridan samarali foydalanishda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi yerlari, ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi, intensive boshqaruv, yerdan samarali foydalanish, oqilona foydalanish, yer uchastkasi.

УДК 631.2

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МНОГОПРОФИЛЬНЫХ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Буриев Сулейман – профессор Email: sasatov1968@gmail.com

Рамазонов Феруз Фуркатович-магистрант.

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета "Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства

Аннотация: В данной статье особое внимание уделено организационно-правовым механизмам развития многопрофильных фермерских хозяйств в нашей стране, основам управления многопрофильными фермерскими хозяйствами, внедрению новых инновационных технологий эффективного использования земель многопрофильных фермерских хозяйств.

Ключевые слова: сельскохозяйственные угодья, многопрофильное хозяйство, интенсивное управление, эффективное использование земли, рациональное использование, земельный участок.

UDC631.2

ORGANIZATIONAL AND LEGAL BASIS OF DEVELOPMENT OF DIVERSIFIED FARMER FARMS IN UZBEKISTAN

Buriyev Suleyman-professor Email:sasatov1968@gmail.com
Ramazonov Feruz Furqatovich-master.

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation: in this article, the organizational legal framework of the development of multi-sectoral farmer farms in our country, the basics of the management of multi-sectoral farmer farms, the introduction of new innovative technologies in the effective use of the lands of multi-sectoral farmer farms are discussed.

Keywords: agricultural land, diversified farming, intensive management, effective use of land, rational use, land plot.

Bugungi kunda Respublikamizning agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida qishloqda asosiy ish beruvchi hisoblanuvchi va qishloq xo'jaligi tadbirkori deya nom olgan – fermer xo'jaliklari har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu bilan bir qatorda, fermer xo'jaliklarining iqtisodiiy barqarorligini ta'minlash va xo'jalikda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish asosida bozor tamoyillariga mos xo'jalik yuritish tizimini shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Hozirda, fermer xo'jaliklari negizida ko'p tarmoqli ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalasi ustida amaliy tadbirlar olib borilmoqda. Qishloq xo'jaligida asosiy xo'jalik yuritish shakli sifatida fermer xo'jaliklari oldiga qo'yilgan asosiy maqsad barcha tadbirkorlar qatori – tabiat omillari va moddiy-texnik resurslardan samarali foydalanish asosida sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarib, moliyaviy barqarorlikka erishish hisoblanadi.Respublikamiz qishloq xo'jaligi tarmog'ida olib borilayotgan islohotlar va ularning amaliyotga tadbiq etilishi, xususan, yer resurslaridan samarali foydalanish tamoyillariga alohida e'tibor qaratilishi o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Bu borada mavjud sug'oriladigan va lalmi

yerlardan unumli foydalanish, ularning tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish, ularni himoya qilish hamda maqsadli foydalanishni ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Hukumatimiz tomonidan qishloq xo‘jaligida izchillik bilan o‘tkazilayotgan islohotlar, xo‘jalik yuritishning yangi shakllari - fermer va dehqon xo‘jaliklarini boshqarish tizimini yaratish hamda faoliyatini erkinlashtirish borasida qilinayotgan ishlar bevosita qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Yerga bo‘lgan mulkchilik shakllarining o‘zgarishi hisobiga halqimizning chinakam milliy boyligi, bebaho mulki, rizq-ro‘zimiz manbai bo‘lgan sug‘oriladigan yerlarga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda hamda shu bilan moddiy manfaatdorlikka erishilmoqda.

Qishloq xo‘jaligini isloh qilish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Buning natijasida keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi tubdan o‘zgardi. Fermer xo‘jaliklari, o‘z mohiyatiga ko‘ra, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishning asosiy shakliga, sohani barqaror va samarali rivojlantirishni ta’minlaydigan yetakchi kuchga aylandi. Eng muhimi, qishloqda haqiqiy mulkdor - yer egasi paydo bo‘ldi. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishi bilan birgalikda ularni qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholiga servis xizmati ko‘rsatishi bilan ko‘zga ko‘rinmoqda. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning qo‘shimcha tarmog‘i asosiy tarmoq bilan bog‘liq holda yoki asosiy tarmoq bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarda tashkil etilishi mumkin. Qo‘shimcha tarmoqni asosiy tarmoq (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va uni qayta ishlash sohalari) bilan bog‘liq bo‘lmagan: suratxonalar tashkil qilish, cho‘milish havzalari, dam olish uylari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, umumovqatlanish shoxobchalari, avtomobillarga texnik èrdam ko‘rsatish kabi sohalarda tashkil etish mumkin.

So‘nggi yillarda fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalaridan samarali foydalanish, izchil va aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, fermerlar faoliyatini samaradorligi oshirilishining muhim omili bo‘ldi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, barqaror fermer xo‘jaliklarini shakllantirish, ularning shaxsiy aylanma pul mablag‘larini sezilarli darajada oshirish, yer va suv resurslaridan, shuningdek mineral o‘g‘itlar, qishloq xo‘jalik texnikasi va

boshqa resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash, shuningdek mehnatni yanada aniq tashkil etish imkoni yaratilib, fermer xo‘jaliklarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Fermer xo‘jaliklarining tasarrufidagi yer uchastkalaridan foydalanish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘li bilan ular faoliyati samaradorligini yanada oshirish, fermerlarni, yerning haqqoniy egalari sifatida xolis va oshkora tanlab olish, shu asosda yer va boshqa resurslardan oqilona foydalanish, kelgusida hosildorlikni oshirish hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, xo‘jaliklarning moliyaviy ahvolini va qishloq aholisi daromadlari o‘sishini yaxshilash maqsadida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish hamda ularning yer maydonlarini maqbul hajmlariga keltirish bo‘yicha joylardagi ishchi guruhlar bilan ishlar olib borilib, fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarining o‘lchamlarini maqbullashtirish (optimallashtirish) ishlari yakunlandi

Fermer xo’jaliklarning 2020 yil 1 yanvar xolatiga ko’ra, umumiy soni 84222 tani, shu jumladan ixtisosligi: paxta-g’allachilik 25597 ta, gallachilik 6436 ta, chorvachilik 10133 ta, bog’dorchilik 21030 ta, uzumchilik 4864 ta, sabzavotchilik-polizchilik 4773 ta, tutchilik 743 ta xamda boshka yunalishda 10646 tani tashkil kildi. Respublikamizda 2020 yil 1 yanvar xolatiga ko’ra ,ularga ajratib berilgan umumiy yer maydoni 7331 ming gektarni, shu jumladan, ekin yerlar 3271,9 ming gektar, ko’p yillik daraxtzorlar 273,5 ming gektar, bo’z yerlar 31 ming gektar, yaylov va pichanzorlar 3131,2 ming gektar xamda boshka kishlok xo’jaligida foydalanilmaydigan yerlar 623,4 ming gektarni tashkil qildi.

Fermer xo’jaligi – o’ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi fermer xo’jaligi a’zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo’jalik yurituvchi subyekt. Endi yana bir muhim masala “Ko’p tarmoqli fermer xo’jaligi” o’zi qanday tushuncha ekanligiga aniqlik kiritib olishimiz lozim.

Odatda tarmoq so‟zi iqtisodiy nuqtai-nazardan yagona bir soha doirasida amal qiladigan ammo, ishlab chiqarishning biron bir tugallangan, alohida mahsulot yetishtirish maqsadlariga bo'ysindirilgan yo‟nalishiga aytiladi. Bunda ko‟pincha asosiy va qo'shimcha tarmoqlar ajratib olinadi. Masalan, qishloq xo‟jaligi alohida soha hisoblanadigan bo'lsa, uning asosiy tarmoqlari sifatida o'simlikchilik va chorvachilik yo'nalishlari qabul qilingan. Har bir tarmoq o'z o'rnida yana kichik tarmoqlarga bo'linib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktabrda “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5199-son farqmon qbul qilindi.bu normativ huquqiy hujjat qishloq xo'jaligi tizimini yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu hujjatda fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

O'zbekistonda fermerlik harakatini yanada rivojlantirish va ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish hamda “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 9-oktabrdagi PF-5199-son farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respulikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 29-dekabrda “Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 972-son qarori qabul qilindi. Ushbu normativ huquqiy hujjat ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining yagona reyestrini shakllantirish tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu qarorga ko'ra ko‘p tarmoqli

fermer xo‘jaligi - qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlari bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligi hisoblanadi. Ushbu qarorga ko’ra ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari reyestri -qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlari bilan shug‘ullanuvchi ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari ro‘yxati hisoblanadi.

Reyestr ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashuvidan kelib chiqib shakllantiriladi. Reyestrga kiritishda yoki uni yangilashda har bir ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligiga nisbatan quyidagi ma’lumotlar va ko‘rsatkichlar aks ettiriladi (yangilanadi):

-ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining nomlanishi;

-soliq to‘lovchining identifikatsion raqami (INN)

-korxona va tashkilotlarning umumiy tasniflanish kodi (KTUT kodi)

-ma’muriy-hududiy mansubligini aniqlash kodi (MHOBT);

-ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi joylashgan joyi

-ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining ixtisoslashuvi

-ishlab turgan o‘z asosiy vositalari ro‘yxati (ishlab chiqarish bazasi, mashina va mexanizmlar);

-yer uchastkasining konturlari

-aloqa vositalari (telefon, faks, mavjud bo‘lsa elektron pochta)

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari quyidagi holatlarda Reyestrdan chiqarilishi mukin:

-ular tomonidan tuman kengashiga Reyestrdan ixtiyoriy chiqarish to‘g‘risida ariza berilishi;

-ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining tugatilishi;

-ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining qonun hujjatlarida ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligiga qo‘yilgan talablarga muvofiq emasligi

Fermer xo‘jaligini Reyestrga kiritish uchun taqdim etilgan hujjatlar to‘plami tuman kengashiga tushgan kundan boshlab ikki kundan

kechiktirmay Kengashga yuboriladi. Kengash taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqish, natijalari bo‘yicha uch kun muddatda fermer xo‘jaligini Reyestrga kiritish yoki kiritmaslik to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Fermer xo‘jaligining qonun hujjatlarida ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga qo‘yiladigan talablarga mos kelmasligi Kengashning fermer xo‘jaligini Reyestrga kiritishni rad etish to‘g‘risidagi qarori qabul qilinishiga asos hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak.. Mamlakat qishloq xo’jaligining rivojlanishi qishloq xo’jaligi mahsulotlarining ko’payishiga olib keladi. Qishloq xo’jaligi mahsulotlarining ko’payish esa xalqning to’la to’kis baxtli yashashining kafolatidir. Shunday ekan fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalarining yer maydonlaridan yanada samarali foydalanishini tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Yerlardan samarali foydalanish uchun esa eng avvolo uni munosib egasiga topshirish kerak. Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish nafaqat qishloq xo’jaligining balki mamlakat iqtisodiyotining rivojlantirishiga olib keladi.O’zbekiston Respublikasida qishloq xo’jaligi yerlari yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo’lganligi uchun bu sohaga e’tibor oldingi o’rinlarga ko’tarildi. Buning rivoji uchun turli qonun, qaror va farmonlar chiqarildi. Ilg’or davlatlar modelini umumiylashtirilgan holda joriy qilindi. Hozirgi texnologiyalashgan davrda yangi texnologiyalarni qo’llash va oqsayotgan nuqtalarda o’rgartirishlar kiritish soha rivojiga ulkan hissa qo’shadi. Yerga oid axborotlarni olish, ularni tizimga solish, saqlash , tahlil qilish va yangilab turish asosiy vazifa bo’lib qolaveradi. Bu kadastr ma’lumotlardan yerlardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish uchun foydalaniladi. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish asosida jamiyat ko‘radigan naf hisoblanadi. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida qo‘shimcha tarmoq faoliyati hisobiga yetishtirilgan mahsulotlar fermer xo‘jaliklarining ichki iste’moliga yo‘naltirilishi va shuningdek bozorga chiqarilishi ham mumkin. Lekin, iqtisodiy jihatdan qo‘shimcha tarmoq yuqori tovarlilik

darajasiga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bu ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligini rivojlantirishda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga ham mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2017-yil 9-oktyabr PF - 5199
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 2017-yil 10-oktyabr
3. Vazirlar mahkamasining qarori Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida.
4. 2018-yil 29-noyabr,972-son
5. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘g‘risida
6. MILLIY HISOBOT. Yergeodezkadastr davlat qo‘mitasi, 2020 yil.
7. www.google.uz
8. www.ziyonet.uz Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
9. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.
10. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
11. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
12. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia*

Conferences, 98–101.Адизов, Ш. Б., & Музафаров, Р. М. (2020). БУХОРО ВИЛОЯТИ ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИГИ ВА АҲОЛИ ТОМОРКА ЕРЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАҚСАДИДА ЭКИЛАДИГАН ЭКИНЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).

13. THE ROLE AND IMPORTANCE OF LAND MONITORING IN THE USE OF LAND RESOURCES. FK Sayidov, AK Akhrorov - Euro-Asia Conferences, 2022 Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. **International** Journal of Human Computing Studies (IJHCS). https://journals.researchparks**.** org/index. php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 ǀ p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 ǀ April 2022. Page 70
14. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).
15. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. Актуальные проблемы современной науки (pp. 101-103).
16. Karimov, E. Q. (2020). IMPROVEMENT OF SOIL QUALITY ASSESSMENT WITH OF INFORMATION TECHNOLOGIES. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 321-324).
17. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)
18. Karimov, E. K., Bobozhonov, S. U., Mukhammadov, K. M., & Akhtamov, S. (2021, June). POSITION AND EFFECTIVE USE OF LAND FOR AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In E-Conference Globe (pp. 50-53).
19. Karimov E, Ahrorov A, & Tolibov Sh. (2022). FUNDAMENTALS OF EFFICIENT USE OF LAND AND WATER RESOURCES. Euro-Asia Conferences, 39–41.
20. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In E-Conference Globe (pp. 35-37).

UO‘T: **631.671,1:631.811(255.12)**

TADQIQOT O‘TKAZILAYOTGAN HUDUDNING (BUXORO VILOYATI ROMITAN TUMANI) IQLIM SHAROITLARI

Islomov Ismoil - Qishloq xo‘jaligi fanlar doktori “Yer tuzish va yerdan foydalanish” kafedrasi professori. islomov1949ismoil@gmail.com

Hikmatov Fozilbek San’atilloyevich - Stajyor doktorant.
hikmatovfozilbek1992@mail.com

Toshkent Irrigatsiya va Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti MTU, Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqot o‘tkazilayotgan hududning iqlim sharoitlari keltirilgan bo‘lib, unda yog‘ingarchilik vegetatsiya davrida 114-125 mm ni yillik effektiv harorat 2430-2690 °S, shamol tezligi 18 – 20 metrni va vegetatsiya davri 220 kunni tashkil etadi.

Kalit so’zlar: yog‘ingarchilik, shamol, vegetatsiya va effektiv harorat.

УДК : 631.671,1:631.811(255.12)

КЛИМАТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ МЕСТНОСТИ (РОМИТАНСКИЙ РАЙОН БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)

Исламов Исмаил-доктор сельскохозяйственных наук, профессор кафедры” Землеустройство и землепользование”. islomov1949ismoil@gmail.com

Хикматов Фозилбек Санатиллоевич-стажер докторант.
hikmatovfozilbek1992@mail.com

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета “Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”

Аннотация. В данной статье представлены климатические условия местности, где проводится исследование, при которых количество осадков за вегетационный период составляет 114-125 мм, годовая годовая температура 2430-2690 °C, скорость ветра 18 – 20 метров в секунду и вегетационный период 220 дней.

Ключевые слова: осадки, ветер, вегетация и эффективная температура.

UDC: **631.671,1:631.811(255.12)**

CLIMATIC CONDITIONS IN THE RESEARCH AREA (BUKHARA REGION ROMITAN DISTRICT)

Islamov Ismoil – Doctor of agricultural sciences, professor at the department of " Land management and land-utilization". islomov1949ismoil@gmail.com

Hikmatov Fozilbek Sanatilloyevich – Trainee doctoral student.

hikmatovfozilbek1992@mail.com

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Abstract. This article presents the climatic conditions in the area of research, the purpose of which is the amount of precipitation during the growing season of 114 - 125 mm, the annual effective temperature of 2430 - 2690 ° C, wind speed of 18 - 20 meters and the growing season - 220 days**.**

Key words. Atmospheric precipitation, vegetation, wind speed and effective temperature.

Buxoro viloyati O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, shimoldan Navoiy viloyati, janubiy sharqdan Qashqadaryo viloyati, g‘arbdan Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan chegaralangan.Viloyat janubidan Amudaryo oqib o‘tadi. Bu daryo asosoiy suv manbai hisoblanib, suv, Hamza nasos stansiyasi orqali Buxoro viloyatiga olib boriladi. Bu o‘ziga xos iqlim sharoitiga ma’lum darajada tasir ko‘rsatadi.Buxoro viloyati arid mintaqada joylashgan bo‘lib, iqlimi mo‘tadil kontinental. Viloyatning sug‘oiladigan yerlarining iqlim sharoiti subtropik saxro zonasi tekisligiga kiradi. Yoz oylari quruq issiq tez-tez garmsellar bo‘lib turadi, qish fasli aytarli darajada qisqa, qattiq sovuq kunlari kam, yog‘in-sochin kam kuzatiladi. Deyarli yog‘ingarchilik ko‘p kuzatilmaydi.

Effektiv harorati 2430-2690 °S dan iborat. Yog‘ingarchilikning asosiy qismi qish hamda bahor (yanvar oyining 60% dan aprel oyinigoxirlarigacha) fasillariga to‘g‘ri keladi. Hududda yil davomida shamol esib turadi, shamolning asosiy tezligi sekundiga 18-20 metr/s dan iborat. Gidrometeorologik bosh boshqarmasi xizmatining kuzatuv ishlariga binoan hududda bug‘lanish ishlatiladigan suvning bor yo‘g‘i 10% qismi atmosfera yog‘in – sochinlarini tashkil qiladi. Iyul oyining o‘rtacha harorati 28-30 °S, yanvar oyining o‘rtacha havo harorati 0 °S dan – 2 °S gacha bo‘ladi. Vegetatsiya davri 220 kunni tashkil etadi. Hududda havoning quruq kelishi, yoz oyining issiq bo‘lishi, yer ostidagi sizot suvlarning yer yuzasiga yaqin joylashuvi sababli evakotranspiratsiyaga sarflanadigan suv miqdori juda ko‘p. Buning oqibatida tupoq tarkibidagi tuzlarning ko‘payishiga va o‘z navbatida qayta sho‘rlanishga sabab bo‘lib kelmoqda. Viloyatning 86% yerlari turli darajada sho‘rlangan. L.N. Babushkin tasnifiga ko‘ra samarali haroratning o‘rtacha uzoq muddati yig‘indisi taxminan 2550 °S ga teng bo‘lsa, issiq termal zonaga kiritish mumkin.

2019-2021 yillarda yillik yog‘in miqdori to‘g‘risida ma’lumot,mm.
(Buxoro ob-havoni kuzatish stansiyasi ma’lumoti)

1-Jadval

Dekada	Oylar											
№	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
2019 yil												
1	2.0	0	2.5	25.7	0	0	0	0	0	0.3	0	3.9
2	3.0	22.0	1.6	28.3	7.5	0	0	0	0	0	0	0
3	16	0	6.8	36.2	10.1	1.1	0	0	0	0	2.0	0
2020 yil												
1	17.5	5.8	0	10.8	14.8	0	0	0	0	0	0	0
2	1.4	15.7	0	24.4	12.8	0	0	0	0	0	0	6.7
3	14.6	9.4	28.2	5.8	0	0	0	4	0	0	0	3.7
2021 yil												
1	0	2.5	19.4	3.1	1.4	0	0	0	0	2.2	0	0.5
2	0	0	24.2	0	0	0	0	0	0	0	0	4.6
3	6.4	0.5	31.7	0	0	0	0	0	0	8.0	0	5.8

Ushbu jadvalda ko‘rinib turibtiki, asosiy yog‘ingarchilik yanvardan iyun oyiga qadar davom etgan. Vegetatsiya davrining o‘rtalarida kelib yog‘in miqdari kuzatilmagan. Bizlarni Romitan tumanimiz Qizilqum cho‘li etagida joylashgan. Shamol katta tezlik bilan esib 18-20 metrni tashkil etadi. Natijada asosan yoz oylarida havo namligi keskin kamayib boradi, o‘simlik tanasidagi namlik bug‘lanib, transpiratsiya xolati kuchayadi. Yozning issiq oylarida garmselning esishi ko‘proq kuzatiladi, bunda g‘o‘za o‘sib rivojlanishiga tasir qilib bazi elementlarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi №1 jadvaldan ko‘rinib turibtiki , eng kam yog‘in miqdori vegitatsiya davriga to‘g‘ri keladi.

Xulosa o‘rnida akademik V.R.Vilyams tomonidan yaratilgan qonunni esga olamiz; O‘simlikni yashash sharoitida yorug‘lik, issiqlak, havo, suv va ozuqa moddalari kiradi. Yoruglik, issiqlik,havo kosmik (koinot) omillari hisoblanadi va nisbatan inson tomonidan boshqariladi. Suv va oziqa moddalari o‘simlikka tuproq orqali o‘tadi va inson mehnati va bilimi bilan boshqariladi. Shunday ekan o‘simlikka kerakli suvni yetkazib berish bizlarni zimmamizga yuklatilgan.

Foydalanilgan dabiyotlar

1. В.Р.Вилямс Собранные сочинения, том7. Травопольная система земледелия.Изд с/х литературы. Москва 1957-418с
2. Костяков.А.Н. Основы мелиорации. Сельхозгиз,Москва. 1960,411,с

3. Бабушкин Л.Н. Агроклиматичиские раеонирование хлопковой зоны Средний Азии. Гидрометеоиздат. Лелинград, 1960,134.с
4. Ikromova M.L “Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida boshoqli don ekinlarining almashilib ekish tizimi va tuproq unumdorligini oshirishdagi axamiyati” O‘z PITI ilmiy to‘plami Toshkent-2004 y 45b
5. Mirzajonov A.B va boshqalar. “G‘o‘zani parvarishida suv va resers tejovchi agro texnologiyalar bo‘yicha tavsiyalar”, Toshkent, 2008.15b
6. Islomov I, To‘xtayeva G.P “Режим орошения хлопчатника сорта Бухара -8 в условиях аллювиально – луговые почвы Бухарской области” Xorazm Mamun Akademiyasi axborotnomasi 2021-12.Xiva 109-112 bet
7. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
8. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.
9. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
10. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
11. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.
12. Karimov E Q 2020 Improvement Effectiveness of Soil Quality Index Assessment in Irrigated Areas Int. J. Adv. Res. Sci. Eng. Technol. **7(3)** 13145-13150
13. Adizov SB, Obidovich AB, Maxmudov MM 2021 Rights and Responsibilities of the Spouses Academic Journal of Digital Economics and Stability **7** 10
14. Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. **International** Journal of Human Computing Studies (IJHCS). https://journals.researchparks**.** org/index.

php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 | April 2022. Page 70
15. Egamova, D.A, Shukurova N.O, Ahmadov B.O (2020). EFFICIENT AND RATIONAL USE OF LAND RESOURCES IS A REQUIREMENT OF THE TIME. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 327-328).
16. Egamova, Dilchehra Adizovna; Bobojonov, Said; Muhamadov, Qamariddin Muxtarovich. "BUXORO VILOYATIDA TUPROQ MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Студенческий вестник 18-11 (2021): 92-94
17. Tukhtaeva K. T., Egamova D. A. CHARACTERISTICS OF DESERT-SANDY SOILS OF KANIMEKH DISTRICT //The Way of Science. – 2014.

UO'T:528.924:004

MADANIY MEROS OBYEKTLARINI GEODEZIK VA GEOINFORMATIK JIHATDAN TADQIQ ETISH VA XORIJIY TAJRIBALAR BILAN TAQQOSLASH.

Sattorov Shahzod Yarashovich, Sulaymonov Mirjon Valijonovich – assistentlar Email: shsattorov1993@mail.ru

Ochilov Askar Boymurodovich, Ismatov Temur Akbar o'g'li - magistrantlar

Qalandarova Zarinabonu Shokirovna - talaba

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Madaniy meros obyektlarini geodezik va geoinformatik jihatdan tadqiq etish va xorijiy tajribalar bilan taqqoslash keltirilgan va tarixiy inshootlarni zamonaviy geodezik o'lchovlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: geodeziya, o'chash, loyiha, qurilish, topografik plan, syomka.

UDC:528.924:004

GEODESICAL AND GEOINATICAL RESEARCH AND COMPARISON OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS WITH FOREIGN EXPERIENCES.

Sattorov Shahzod Yarashovich, Sulaymonov Mirjon Valijonovich – assistant

Email: shsattorov1993@mail.ru

Ochilov Askar Boymurodovich, Ismatov Temur Akbar oglu - masters

Kalandarova Zarinabonu Shokirovna - student

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Abstrakt. **:** *This article provides a topographic and geodetic study of cultural heritage sites and a comparison with foreign experience, and describes the modern geodetic dimensions of historical structures.*

Key words: geodesy, survey, project, construction, topographic plan, survey.

O‘zbekiston Respublikaasining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, mavjud bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish tizimida mamlakatni 2022–2026 yillarda rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad - olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, respublikadagi barcha sohalarni modernizatsiya qilish bo‘yicha eng ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizda Madaniy meros obyektlari davlat kadastrlarini yuritish hamda ularni geodezik, kartografik ta’minlash, elektron raqamli kartalarini yangilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan “Madaniy meros obyektlari davlat kadastri”ni geografik koordinatalar tizimi asosida joylashuvi bo‘yicha nizom[5]da belgilangan talablarga ko‘ra atributiv ma’lumotlar jadvallarini to‘ldirish bo‘yicha markaz tomonidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Hususan 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasining Davlat dasturidagi 76 bandiga muvofiq «O‘zbekiston Respublikadagi madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog‘liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish va geografik axborot tizimini yaratish[6]» vazifasi belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish, jumladan modernizatsiya qilish va Davlat dasturidagi band talablari ijrosini ta’minlash maqsadida “Madaniy meros obyektlari davlat kadastri”ning geoaxborot tizimini yaratish va shakllantirish hamda

[5] https://lex.uz/docs/-285207?ONDATE=15.05.2017
[6] https://lex.uz/uz/docs/5841063

Madaniy meros obyektlari davlat kadastri kadastri kartalarini tuzish uslubiyatini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar va ularning amaliyotga tatbiq etilishi, xususan, obektlarni davlat kadastlar ro‘yxatidan o‘tkazish shuningdek madaniy meros obektlarini kadastrini yuritish v ro‘yxatdan o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilishi o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Bu borada madaniy meros obektlarini asrash, keyingi avlodga qoldirish, ularni himoya qilish hamda maqsadli foydalanishni ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va Davlat kadastrlari palatasining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 8338 ta madaniy meros obektlari mavjud. Shundan Arxeologik yodgorliklari 5302 ta, Arxitektura ydgorliklari 1693 ta, Monumental sanat yodgorliklari 659 ta, Diqqatga sazovor joylar 684 tani tashkil etadi 2022 y. [].

Q.Raxmonov, I.Ixlosov, D.Rizaeva va F.Xudoyberdievlarning "Davlat kadastri" asarlarida keltirilishicha, Moddiy madaniy meros obektlarining davlat kadastri "Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida", "Davlat kadastrlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek “O‘zbekiston Respublikasi moddiy madaniy meros obektlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq moddiy madaniy meros obektlarining davlat muhofazasini hamda ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash maqsadida yuritiladi.

Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari hamda “Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Madaniy meros obektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish bu madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan ko‘riladigan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, axborotga doir, moddiy-texnikaviy va boshqa chora-tadbirlar tizimidir.

Moddiy madaniy meros obektlarining davlat kadastri Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u moddiy madaniy meros obektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi,

miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma’lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Moddiy madaniy meros obektlarining davlat kadastrini yuritishga quyidagilar kiradi:

- moddiy madaniy meros obektlariga doir mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- moddiy madaniy meros obektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish;
- moddiy madaniy meros obektlarini sifat va qiymat jihatidan baholash;
- kadastr axborotini tizimga solish, saqlash va yangilab borish;
- moddiy madaniy meros obektlarining holati haqida hisobotlar tuzish;
- Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborot taqdim etish;
- foydalanuvchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kadastr axboroti bilan ta’minlash.

Moddiy madaniy meros obektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obektlarining ro‘yxatini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan obektlarni Moddiy madaniy meros obektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obektlarining ro‘yxatiga kiritish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning takliflari asosida amalga oshiriladi.

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan obektlarni moddiy madaniy meros obektlarining davlat kadastriga yoki nomoddiy madaniy meros obektlarining ro‘yxatiga kiritish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi olingan kundan e’tiboran mazkur obyektlar aniqlangan madaniy meros obyektlari jumlasiga kiritiladi.

Arxeologiya yodgorliklari topilgan paytidan e’tiboran aniqlangan moddiy madaniy meros obektlari jumlasiga kiritiladi.

Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan yangi aniqlangan moddiy madaniy meros obyektlari moddiy madaniy meros obektlarining davlat kadastriga kiritilishi to‘g‘risidagi masala hal qilingungacha “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun talablariga muvofiq muhofaza qilinishi kerak.

Topografik-geodezik va kartografik ishlar xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga qarashli bo‘lgan davlat hamda xususiy korxonalar tomonidan juda keng miqiyosda bajariladi. Topografik-geodezik ishlab chiqarishning mahsulotlari ma’lum bir muayyan texnik topshiriqning talabini qondirishga ishlatiladi. Barcha tarmoq korxonalari tomonidan bajarilayotgan topografik-geodezik va kartografik ishlarning texnologik jarayonlari hamda ularga qo‘yilgan texnik talablar bir xil.

Topografik-geodezik ishlab chiqarish sanoatli ishlab chiqarishdan o‘ziga xos jixatlari bilan farq qiladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1.Topografik-geodezik dala ishlari turli fiziko-geografik hamda klimatik sharoitda, cheklangan dala ishlari mavsumida bajariladi va bu sharoitlar har yili o‘zgarib turadi.

2.Har yili tashkiliy va tugatish tadbirlarini bajarish talab qilinadi.

3.Topografik-geodezik ishlarning tannarxi ish olib borilayotgan tuman fizik-geografik sharoitiga bog‘liq bo‘ladi.

4.Topografik-geodezik ishlar asosan davlat budjeti hamda xo‘jalik shartnomalari asosida moliyalashtiriladi.

5. Obyektlarda ishlab chiqarish xususiyati va zichligiga qarab ish davomiyligi har xil bo‘ladi.

Topografik-geodezik ishlarni quyidagi ish turlari tashkil qiladi: geodezik, gravimetrik, tasvirga olish va kartografik ishlar. Kartografik ishlarning yakuniy mahsuloti tayyor holdagi topografik kartalardir. (1-rasm)



1.-rasm Labi - havuz ansambilining topografik plani

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilgan moddiy madaniy meros obyektiga moddiy madaniy meros obyektining pasporti berilib, unga mazkur moddiy madaniy meros obyektini muhofaza qilish mazmunidan iborat ma’lumotlar va obyektning tavsiflari kiritiladi.

Moddiy madaniy meros obektini moddiy madaniy meros obektlarining davlat kadastridan chiqarish, agar obekt jisman to‘la yo‘qotilgan bo‘lsa yoki moddiy madaniy meros obekti sifatidagi o‘z qimmatini yo‘qotgan bo‘lsa, tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish to‘g‘risidagi qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

Yuqorida berilgan ma’lumotlar, uslublar va ilmiy izlanishlarni tahlil qilish respublikamizda yuritilayotgan yer sohasini nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan rivojlantirish imkonini beradi. Xorijiy mamlakatlarda Madaniy meros obyektlari davlat kadastr tizimining yuritishda tajribalari o‘rganilib, quyidagi xulosalar berildi:

Butun dunyoda, ayniqsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda madaniy meros obyektlari asrab avaylanadi yoki qayta tiklanadi, ular har qanday xalqning tarixi va manaviyatining mezoni hisoblanadi. Bular nafaqat katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, balki jamiyatda kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki madaniy meros obektlari yangi qurilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki me’yoriy yodgorliklar o‘zlarining tarixiyligi saqlanishi kerak va yirik memoriy ansambllar ham yagona obyektlar hisoblanadi. Aholi o‘rtasidagi turli guruhlari o‘tmish yodgorliklarini turlicha baholaydilar, binoni buzish masalasi jamoatchilik noroziligiga sabab bo‘ladi. Bu atrof-muhitni muhofaza qilish va madaniy merosni saqlash ancha yangi hodisa ekanligi bilan izohlanadi

Rossiyada tarixiy va madaniy meros Obektilari davlat kadastri geografik axborot tizimi (GAT) dasturlari yordamida olib borilmoqda. GAT dasturlaridan foydalanib obektlarning raqamli kartografik ta’minoti va ushbu malumotlarni tahlil qilish jarayonlari orqali amalga oshirilmoqda. (2-rasm)



2-rasm Rossiyada GAT dasturlaridan foydalanib obektlarning raqamli kartografik ta’minoti va ushbu malumotlarni tahlil qilish jarayonlari.

Turkiyada madniy meros obektlarini Openheritage3D veb-saytda internetga asoslangan platformalarda o‘zini namoyon qiladi. Bu partal orqali Madaniy meros obektlari haqidagi malumotlar to‘'plami mavjud bo‘lib bu obekt to‘g‘risidagi malumotlarni qayta ishlash imkoni mavjud.(3-rasm)

3-rasm Turkiyadagi Openheritage3D veb-saytda internetga asoslangan platformasi

Xulosa

Madaniy meros obyektlarini topografik-geodezik jihatdan tadqiq etish va xorijiy tajribalar bilan taqqoslab, quyidagi xulosalarga kelindi: Madaniy meros obyektlarini topografik-geodezik jihatdan obyektlarini zamonaviy geodezik asboblar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo’lardi, bulardan masofadan zondlashga alohida e’tibor qaratilishi talab etiladi. Obyektlarni masofadan zondlashda kosmosuratlar va masofadan boshqariluvchi qurilmalar yordamida madaniy meros obyektlarini monitoring qilish ishlari amalga oshirildi. Natijada madaniy meros obyektlarning elektron raqamli kartalarini yangilash masalalari o‘z yechimini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Nurmatov E.X., Utanov U. Geodeziya. T.: «O—zbekiston», 2002. –234 b.
2. Norxojaev K.N., Injenerlik geodeziyasi. T., Oqituvchi, 1984.
3. Nazirov A.N., Geodeziya.T. Oqituvchi, 1978.Maslov A.V. Geodeziya. M. Nedra, 1990. 324. 4. Raximbaev F.M., Hamidov M.M., «Qishloq xojaligi melioratsiyasi» (geodeziya bolimi) T.: Ozbekiston 1996.– 128 b.

4. Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛҒОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, (SPECIAL ISSUE).
5. Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O ‘RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
6. Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." *Агропроцессинг* SPECIAL (2020).
7. Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
8. SH.K. Avchiyev. Amaliy geodeziya. Toshkent 2010y.
9. SH.K. Avchiyev. Injenerlik geodeziyasi. Toshkent 2007y.
10. Internet saytlaridan olingan ma’lumotlar.
11. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
12. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.

UO‘T: 631.1.349.422.231

ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI YER MONITORINGIDA QO’LLASHNING AFZALLIKLARI

Egamova Dilchehra Adizovna - tayanch doktoranti
dilchehraadizovna@gmail.com
Abdulloyev Ziyodjon To’ymurodovich- magistr

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda yer monitotoringini yuritishda zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida olib borish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va ularning samarasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: monitoring, texnologiya, yer monitoringi, yer-axbarot tizimi, yer resurslari, yerlarni ro'yxatga olish, yerlarni nazorat qilish.

UDC: 631.1.349.422.231

ADVANTAGES OF USING MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LAND MONITORING

Egamova Dilchehra Adizovna-base doctoral student

dilchehraadizovna@gmail.com

Abdulloyev Ziyodjon Toymurodovich-master

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation: The article deals with the current state and techniques of land monitoring, the use of innovative technologies and their effectiveness.

Key words: monitoring, technology, land monitoring, land information system, land resources, land registration, land control.

Kirish. Yer va suv resurslari boshqaruvchilari uchun unumli va barqaror strategiya va uslubiyotni rivojlantirishda aerokosmik usullar foydali vosita hisoblanadi. Hozirda har bir sohada bu borada katta yutuqlarga erishilmoqda, shu o'rinda yer monitoringini yuritishda ham zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Avvalo yer monitoringi o'tkazish uchun yerlar kompleks yo'qlamadan o'tkaziladi. Yerlarni yo'qlama qilish asosan 1:10000 masshtabdagi plan-xaritalar asosida amalga oshiriladi. Ayrim maydonlar uchun plan-xaritalar bo'lmasa, ular yangidan tayyorlangan holda amalga oshiriladi.

Mavzuning dolzarbligi: Yer monitoringi yuritish ishlarini zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida olib borilsa vaqt va ish unumdorligi yuqori darajada oshadi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda fermer xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlari maqbullashtirilishini ta'minlash maqsadida bir qancha hukumat idoralari

tomonidan ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.. Iqtisodiy jihatdan maqbullashtirish ishlarining amaliy va nazariy natijalariga ko‘ra quyidagi namunalarni keltirib o‘tamiz.

1-usul (an’anaviy usul). O‘rtacha 500 gektar maydonni yuzasini aniqlash va optimal taqsimlash uchun 5 nafar malakali mutaxassislar, 2-4 kun muddat oralig‘ida sortin yoki ruletka yordamida mehnat qilishi kerak bo‘ladi. Olingan natijalarni jadvalda shakllantirish, dalolatnoma tuzish, vakillar ishtirokidagi komissiya a’zolaridan tasdiqlatish, hudud planini yangilash va hisob kitob natijalarini oxiriga yetkazish ishlariga qo‘shimcha 2-3 kun vaqt ketsa, jami bo‘lib hududni 500 gektar maydonini aniqlash uchun 4-7 kun muddat talab qilinadi.

4-7 kun muddat uchun 5 nafar mutaxassisga turar joy, avto texnika, yoqilg‘i, kunlik ehtiyojlar va boshqa sarf xarajatlar uchun qo‘shimcha mablag‘lar talab qilinishi tabiiy hol.

2-usul (zamonaviy usul). Zamonaviy usul yordamida o‘rtacha 500 (ga) gektar maydonni yuzasini aniqlash va optimal taqsimlash 2 nafar malakali mutaxassis yordamida 2-4 kun muddat oralig‘ida GPS qurilmasi bilan amalga oshiriladi. Dalada olingan natijalarni jadvalda shakllantirish, dalolatnoma tuzish, vakillar ishtirokidagi komissiya a’zolari tasdiqlatish, hudud planini yangilash va hisob kitob natijalariga yakun yasash uchun qo‘shimcha 2-3 kun talab etilsa umumiy hisobda hududni 500 gektar maydonini aniqlash uchun 4-7 kun muddat talab qilinadi. 4-7 kun muddat davomida 2 nafar mutaxassisga yashash uchun joy, avto texnika, yoqilg‘i, kunlik ehtiyojlar va boshqa sarf harajatlar uchun qo‘shimcha mablag‘lar talab qilinadi. Zamonaviy usullar yordamida qishloq xo‘jaligi yerlarini maqbullashtirish uchun doimiy o‘tkaziladigan xatlov ishlarida GPS ProMark-3 va Stonex-S3 priyomniklaridan keng ko‘lamda foydalanish tavsiya etiladi.

Syomka jarayonida mayda konturlarni birma-bir o‘lchash yoki to‘liq maydonni priyomnik bilan aylanib chiqish o‘rniga quyidagi takomillashgan optimal yechimni tavsiya etamiz. Agar zamonaviy GPS priyomnik yordamida har bir kontur maydonni o‘lchash uchun alohida vaqt ajratilsa, jami hudud bo‘yicha 438 metr masofani bosib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bu esa kamida 20 daqiqa vaqtni talab etadi.

Jami hudud bo‘yicha 304 metr masofani bosib o‘tiladi va buning uchun 12-14 daqiqa vaqt talab qilinadi.

Xulosa o'rnida yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, yer monitoringini yuritishda zamonaviy texnika va texnalogiyalardan foydalanish yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega. Shu bilan birga zamonaviy texnologiyalarning afzallik tomonlari ham bor va ularni biz SWOT tahlil asosida yoritib berishga harakat qildik.

1.1-jadval

SWOT tahlil

Kuchli tomonlari - mehnat unumdorligi; - vaqt unumdorligi; - sifat darajasining yuqoriligi; - ma'lumotlarga avtomatik tarzda qayta ishlov berish; - yer maydonining ustidan umumiy nazorat; - yer maydonlarini xatlovdan o'tkazish; - yuqori darajadagi aniqlik; - ishchi kuchini kam talab qiladi.	Kuchsiz tomonlari - ko'p mablag' talab qiladi; - zamonaviy texnologiyalar bo'yicha yuqori bilimga ega bo'lgan kadrlarning yetishmasligi ; - zamonaviy texnologiyalardan biri dronlardan foydalanish uchun olinadigan ruxsatnomaga belgilanganidan ko'ra ko'proq vaqt ketishi ; - dronlar yordamida maydoni juda katta bo'lgan hududlarni s'yomka qilib bo'lmaydi.
Imkoniyatlar - elektron karta yaratish imkoniyati; - ekranda ko'rib turgan xolda tahlil qilish imkoniyati ; - shartli belgilar yaratish imkoniyatiga ega; - ma'lumotlar bazasini yaratish imkoniyati; - grafik tasvirlarni o'qish imkoniyati; - elektron kartalarni tahrir qilish imkoniyati.	Xavflar -xavfsizlik qoidalariga rioya etilmagan holatlarda inson hayoti uchun havfli bo'lishi mumkin; - shamolli, qorli va noqulay ob-havo sharoitida ba'zi bir zamonaviy texnalogiyalarning aniqlilik darajasining kamayishi.

Foydalaniladigan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-martdagi 258-F-sonli "Qishloq xo'jaligi ekinlarini monitoring qilish, xududni

kartografiyalashda texnik va texnologik ishlab chiqishni rivojlantirish va yangilashni amalga oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5742-son Farmoni.
3. Raxmonov Q.R. Yer monitoringi asoslari O‘quv qo‘llanma Toshkent-2008
4. 4.Rustamboev M.H. va boshq. Yer huquqi. Darslik – T.: Toshkent davlat yuridik instituti, 2002
5. Safarov E.Y. Geografik Axborot Tizimlari. Toshkent., Universitet, 2010 y
6. www.ygk.uz
7. www.Esri.com
8. www.Landsat.com
9. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 43-47.
10. Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, *1*(1), 48-53.
11. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
12. Нуриддинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушилки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
13. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. *Euro-Asia Conferences*, 98–101.
14. Karimov E Q 2020 Improvement Effectiveness of Soil Quality Index Assessment in Irrigated Areas Int. J. Adv. Res. Sci. Eng. Technol. **7(3)** 13145-13150
15. Adizov SB, Obidovich AB, Maxmudov MM 2021 Rights and Responsibilities of the Spouses Academic Journal of Digital Economics and Stability **7** 10
16. Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic

Substances and Protection of Them. **International** Journal of Human Computing Studies (IJHCS). https://journals.researchparks**.** org/index. php/IJHCS e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 | April 2022. Page 70

17. Egamova, D.A, Shukurova N.O, Ahmadov B.O (2020). EFFICIENT AND RATIONAL USE OF LAND RESOURCES IS A REQUIREMENT OF THE TIME. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 327-328).
18. Egamova, Dilchehra Adizovna; Bobojonov, Said; Muhamadov, Qamariddin Muxtarovich. "BUXORO VILOYATIDA TUPROQ MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Студенческий вестник 18-11 (2021): 92-94
19. Tukhtaeva K. T., Egamova D. A. CHARACTERISTICS OF DESERT-SANDY SOILS OF KANIMEKH DISTRICT //The Way of Science. – 2014. – С. 49.

UO‘T 528.02

BINO VA INSHOOTLARNING DEFORMATSIYALARI UCHUN GEODEZIK KUZATISHLAR.

Abdulloyev Ashraf Muzaffarovich, Sulaymonov Mirjon Valijonovich – assistentlar Email: shsattorov1993@mail.ru

Ochilov Askar Boymurodovich, Ismatov Temur Akbar o‘g‘li, To’xtamishov Azizjon Boltayevich - magistrantlar

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada defopmatsiya nima ekanligi hamda Bino va inshootlar deformatsiyalarning ayrim turlari ko’rsatilgan bo’lib ularning yuzaga kelishi sabablari va tahlil qilish usullari tushuntirib berilgan.

Kalit so’zlar: deformatsiya, turlari, sabablari, kuzatish geodeziya, o’chash, loyiha, qurilish, topografik plan, syomka.

УДК 528.02

ГЕОДЕЗИЧЕСКИЕ НАБЛЮДЕНИЯ ЗА ДЕФОРМАЦИЯМИ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ .

Абдуллоев Ашраф Музаффаро, Сулаймонов Миржон Валижонович – ассистенти

Email: shsattorov1993@mail.ru

Очилов Аскар Боймуродович, Исматов Темур Акбар угли, Тўхтамишов Азизжон Болтаевич – магистранти

Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета "Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"

Аннотация. В данной статье будет объяснено, что такое деформация. Приведены некоторые виды деформаций зданий и сооружений. Также будут объяснены причины возникновения деформаций и проанализированы методы

Ключевые слова: деформация, виды, причины возникновения, наблюдение. геодезия, изыскания, проектирование, строительство, топографический план, изыскания.

UDC 528.02

GEODESIC OBSERVATIONS OF DEFORMATIONS OF BUILDINGS AND CONSTRUCTIONS.

Abdulloyev Ashraf Muzaffarovich, Sulaymonov Mirjon Valijonovich – assistant

Email: shsattorov1993@mail.ru

Ochilov Askar Boymurodovich, Ismatov Temur Akbar oglu, To'xtamishov Azizjon boltayevich – masters

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Abstrakt. This article will explain what a deformation is. Some types of deformation of buildings and constructions are given. The causes of the

deformation will also be explained. The article introduces methods of observing deformations.

Key words: deformation, types, causes, observation geodesy, survey, design, construction, topographic plan, survey.

Barcha bino va inshootlarda turli xil deformatsiyalar sodir bo'ladi. O'zgarishlar vertikal yo'nalishlarda va gorizontal yo'nalishlarda ham sodir bo'ladi. Bu bino yoki inshootning konstruksiya xususiyatlariga, shuningdek, inson faoliyati va tabiiy sharoitlarga bogliq.Binoning holatidagi barcha o'zgarishlar uchun kuzatishlar olib boriladi, kuzatishlar loyihalash bilan bir vaqtda boshlanib va keyingi foydalanish jarayonida ham davom etadi . Kuzatishlar natijasida hisob-kitoblarning to'g'riligini baholash mumkin. Bu deformatsiyaning namoyon bo'lish vaqtini oldindan belgilashga imkon beradi, shuningdek uning oqibatlarini bartaraf etish uchun o'z vaqtida choralar ko'rishga yordam beradi .

Deformatsiya nima? Bino va inshootning deformatsiyasi - bu butun strukturaga yoki uning alohida qismlariga nisbatan fazoviy siljish yoki uning shakli o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarish.

Bino va inshootning deformatsiyalari turlari: ko'tarilish, tortishish, tuproqning siljishi va harakatlanishi.

Deformatsiyalarning sabablari er osti sizot suvlari darajasining o'zgarishi; mavsumiy haroratning o'zgarishi; qurilish binosining o'z bosimi; tuproqning siqilishi va harakatlanishi.

Inshootlarning deformatsiyalarini kuzatish geodezik o'lchovlar yordamida amalga oshiriladi . Barcha asosiy o'lchovlar geodezik tayanch nuqtalaridan amalga oshiriladi.Geodezik tayanch nuqtalari faqat qurilish ishlarining maydonidan tashqaridagi barqaror bo'lgan joylarda (yer ustida) joylashtiriladi. Ko'pincha ular qurilish ob'ektiga yaqin bo'lgan joylarda o'rnatiladi. Bitta ob'ekt uchun - kamida uchta tayanch punkti o'rnatiladi. Geodezik tayanch nuqtalari g'isht yoki beton quduq ustlarida temir-beton monolit shaklida o'rnatiladi.Tayanch nuqtalarni o'rnatgandan keyingina ularning koordinatalari aniqlanadi.

Bino va inshootlarning deformatsiyasiga ko'plab misollar keltirish mumkin. So'nggi bir necha yil ichida O'zbekistonning ayrim hududlarida cho'kish holatlari tez-tez uchrab turibdi . Keyingi yillarda respublikamizda yangi qurilish obeklarining qurish ishlari jadal suratlarda olib borilmoqda. Shuning uchun bugungi kunda bino va inshootlarning deformatsiyalari jarayonini to'g'ri kuzatish juda muhimdir.

Cho'kishni ko’rsatuvchi belgilar (ikki turi mavjud: umumiy maqsadli va maxsus) binolarning burchaklarida, asosiy devorlarning kesishgan joylarida, eng katta kuchlanishlari bo’lgan joylarda joylashgan bo'lishi mumkin, joylashuv oralig'I 10-15 m bo’lishi kerak.

Umumiy qurilish inshootlari uchun kuzatuvlarning davriyligi: birinchi yilda qurilishning boshlanishida o'tkaziladi,
ikkinchisi – inshootni 25% ga qurilganda, uchinchisi inshootni - 50% ga qurilganda,
to'rtinchisi inshootni - 75% ga qurilganda, beshinchisi inshootni - 100% ga qurilganda .

Katta panelli binolar uchun kuzatuvlarning davriyligi:
birinchi kuzatish -poydevor qo'ygandan so'ng amalga oshiriladi,
ikkinchisi - ikkinchi qavatni o'rnatgandan so'ng,
uchinchisi - binoning butun ramkasini o'rnatgandan so’ng,
oxirgisi - tayyor binoni ishga tushirishdan oldin .

Buni tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, binoni yillik cho’kish tezligi 1-2 mm dan oshmasa, deformatsiyani kuzatish to'xtatiladi. Hisob-kitoblar vaqtida o'lchashdagi xatolar 1 yil davomida ruxsat etilgan xatolar qiymatidan oshmasligi kerak. Kuzatuvlarning barcha jarayonlari tugagandan so'ng, ma'lum hujjatlarni rasmiylashtirish kerak, ya'ni: nivelirlash markalari otmetkalarining ro'yxati, cho'kish jadvallari, vaqt bo'yicha cho’kishning o'zgarish grafigi .

Cho’kishlarni o‘lchash usullari: geometrik nivelirlash (yuqori aniqlikda), gidrostatik nivelirlash, trigonometrik nivelirlash va fotogrametrik usulda . Tuproqdagi turli xil o'zgarishlar, binolarning o'z ogirligi natijasida cho'kishi, shuningdek inson faoliyati natijasida, turli xil deformatsiyalar paydo bo'ladi. Shuning uchun binolarni barcha deformatsiyalarini minimal miqdorda kamaytiradigan tarzda loyihalash va qurishni amalga oshirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Nurmatov E.X., Utanov U. Geodeziya. T.: «O—zbekiston», 2002. –234 b.

2. Norxojaev K.N., Injenerlik geodeziyasi. T., Oqituvchi, 1984.

3. Nazirov A.N., Geodeziya.T. Oqituvchi, 1978.Maslov A.V. Geodeziya. M. Nedra, 1990. 324. 4. Raximbaev F.M., Hamidov M.M., «Qishloq xojaligi melioratsiyasi» (geodeziya bolimi) T.: Ozbekiston 1996.– 128 b.

4. Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛҒОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, (SPECIAL ISSUE).

5. Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O ‘RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.

6. Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." *Агропроцессинг* SPECIAL (2020).

7. Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.

8. SH.K. Avchiyev. Amaliy geodeziya. Toshkent 2010y.

9. SH.K. Avchiyev. Injenerlik geodeziyasi. Toshkent 2007y.

Annotation: This article analyzes the current energy consumption of old types of electric motors in industrial enterprises and the success of replacing them with new types of electric motors, energy saving issues through the use of accurate measurement and control systems considered.

Basic terms: Energy resources, air spray equipment, temperature, pressure, humidity, energy saving.

Asinxron motorlarning FIK ini oshirishning asosiy usullaridan biri, bu motorlarning umumiy konstruktiv tuzilishlarini o'zgartirmagan holda ularni yaratishda eng yaxshi zamonaviy izolyasion materiallardan foydalanishdir. Motor magnit tizimining konstruktiv tuzilishi magnit quvvat isroflari eng kam bo'ladigan magnit materiallardan iborat bo'lishi

kerak. Yuqori sifatli podshipniklarni qo‘llash motorning ishlash muddatini oshiradi.

O‘tgan asrning saksoninchi yillaridan boshlab AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya, Yaponiya va boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlarda FIK va quvvat koeffitsientlari yuqori bo‘lgan asinxron motorlarni loyihalash va ishlab chiqarish ishlari amalga oshira boshlandi. Bunday energiya tejamkor asinxron motorlarni loyihalashda ulardagi quvvat isroflarini kamaytirish asosiy mezon bo‘ldi.

Yangi asinxron motorlarda stator ariqchalarining ko‘ndalang kesimi yuzalarini kamaytirib, ariqchalarning to‘ldirish koeffitsientini oshirish hisobiga magnit o‘zak kesim yuzasini oshirishga erishilgan va natijada quvvat isrofi kamaytirilgan. Chulg‘amlarni ariqchalarga joylashtirishda yangi texnologiyani qo‘llash natijasida ariqchalarni to‘ldirish koeffitsientini 10-20% ga oshishiga erishilgan va natijada po‘latdagi quvvat isroflarini 8% ga kamaygan.

Yangi seriyadagi motorlarda qo‘shimcha quvvat isroflarini kamaytirish uchun ariqcha izolyasiyasini tayyorlashda alohida texnologiyadan foydalanilganligi va rotorning tashqi yuzasi qisman jilvirlanganligi sababli bu quvvat isroflarini qariyib 7% ga kamayishiga erishilgan

1 – jadval

Standart va yangi seriya asinxron motorlaridagi asosiy quvvat isroflarining qiyosiy tavsifi va taqsimlanishi

N	Asosiy quvvat isroflari	Standart asinxron motor (% larda)	Yangi seriyadagi asixron motor (% larda)
1	Stator va rotor chulg‘amlaridagi aktiv quvvat isroflari	50	47
2	Magnit tizimidagi quvvat isroflari	30	25
3	Mexanik quvvat isroflari	5	5
4	Qo‘shimcha quvvat isroflari	15	8
5	Umumiy quvvat	100	85

	isroflari		

Yangi seriyadagi asinxron motorlarning ishonchligini va ishlash muddatini oshirish maqsadida Toscoat rusumidagi yuqori darajadagi ishonchli izolyasiya qo‘llanilgan. Podshipniklarning uzoq muddat normal ish rejimidada ishlashi yuqori haroratga chidamli maxsus moylar bilan moylab turish hisobiga erishiladi.

2 – jadvalda uch fazali, juft qutblar soni 2R = 4 bo‘lgan nominal quvvatlari 0,75 kVt va 18,7 kVt bo‘lgan standart va yangi seriyadagi asinxron motorlarning energetik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tavsiflari keltirilgan.

Bu asinxron motorlarda FIK oshishi chulg‘am qarshiliklarini va magnit tizimidagi quvvat isroflarini kamaytirish hisobiga erishilgan. Stator va rotor o‘zaklari yuqori sifatli po‘latdan yasalgan; stator va rotor chulg‘amlarida mis va alyuminiy miqdori oshirilgan; ariqchalarning o‘lchamlari va stator va rotor oralig‘idagi havoli tirqichning o‘lchamlarining optimal qiymatlarga keltirilgan.

Bu motorlarning energetik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda kam qiziydi (bu esa motorning ishlash muddatini uzoqroq bo‘lishiga olib keladi), ishlaganida kam shovqun chiqarib ishlaydi, quvvat koeffitsienti motorga berilayotgan kuchlanishning sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi sust. To‘g‘ri, standart motorlarga nisbatan narxi yuqori bo‘ladi, ammo ikki yilcha ekspluatatsiya qilinishi davomida iqtisod qilingan elektr energiya hisobiga to‘liq o‘zini oqlaydi.

2 – jadval

Standart va yangi seriyadagi asinxron motorlar energetik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tavsiflari

Motorning nominal quvvati, kVt	Standart bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan motor		Yangi seriyada ishlab chiqarilayotgan motor	
	FIK, %	$\cos\varphi$	FIK, %	$\cos\varphi$
0,75	76	0,71	81,5	0,84
18,7	89	0,83	91,0	0,865

Hozirda Fransiyaning Jeumont-Schneider firmasi ishlab chiqarayotgan FNBB, TNBB, RNBB, ISTAND, TNCB, PNCB seriyadagi asinxron motorlarning hamda Germaniyaning Helmke va Brown Boveri firmalari ishlab chiqarayotgan DSOR, DKOK va boshqa seriyadagi asinxron motorlarning, shuningdek Universal Electric (AQSH) firmasi kabi o‘nlab elektromashinasozlik sohasidagi etakchi firmalar ishlab chiqarayotgan asinxron motorlarning foydali ish va quvvat koeffitsientlari standart asinxron motorlarnikiga nisbatan mos ravishda 7-8% va 18-21% gacha yuqoridir.

Elektr motorlardagi isroflar elektr energiyasini uzatish va taqsimlashdagi umumiy isroflar bilan tenglashadi. Shuning uchun, korxona miqyosida rejalashtirilgan motorlarda elektr energiyasini tejash tadbirlari katta iqtisodiy samara berishi mumkin. Bu tadbirlar eng avvalo elektr ta’minoti tizimi elementlarini almashtirish bilan bog‘liq tadbirlar kiradi. Kam yuklangan motorlarni almashtirish, FIK past bo‘lgan uskunalarni zamonaviy samarador uskunalarga almashtirish, tarmoq kuchlanishi o‘zgartirish, reaktiv quvvatni qoplash shular jumlasidandir.

Sanoat korxonalarida shunga o‘xshash masalalar bilan deyarli har kuni to‘qnash kelinadi. Bu masalalarni hal qilish ma’lum texnik iqtisodiy hisoblashlarni bajarishni talab qiladi. Ko‘pgina hollarda bunday hisoblashlarga tekshirib ko‘rilmasdan qaror qabul qilinadi.

FIK yuqori bo‘lgan motorlarni almashtirish bo‘yicha tahliliy ma’lumotni aktiv quvvat isrofini quyidagi ifodadan aniqlab olish mumkin:

$$\Delta P_a = P\frac{1-\eta}{\eta}; \qquad (3.5)$$

Bu yerda, R va η- elektr motorni yuklamasi va FIK. Motorlar aktiv quvvat isroflari taqqoslanib samarador variant aniqlanadi.

Korxonalarda ko‘pgina motorlar to‘la yuklamada ishlamaydi. Bu holda yuklama 50-60 % bo‘lsa motor quvvatini kichikroq quvvatga o‘zgartirish maqsadga muvofiq. O‘zgaruvchan yulamada esa motor quvvati ko‘pincha hisobiy maksimal yuklamaga qarab tanlanadi. Agar maksimal cho‘qqi yuklama 2 marta katta bo‘lsa maxsus usullar qo‘llash tavsiya etilati. Masalan, bunda aktiv quvvatdan tashqari reaktiv quvvat istemoli ham ancha kamayadi.

Tejab qolingan elektr energiyasi bunda quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta W_э = (\Delta P + k\Delta Q\ ) \cdot \Delta t; \qquad (3.6)$$

Bu yerda, ΔR va ΔQ - motorlarni aktiv va reaktiv quvvat isroflari farqi, kVt; kVar; t-uskunaning «yulduz» sxemada yillik ishlash vaqti, soat motor chulg‘amlarini «uchburchak» sxemadan «yulduz» sxemaga o‘tkazishda aktiv quvvat isrofini kamayishi quyidagi ifodadan aniqlash mumkin:

$$\Delta P_a = \frac{P}{\eta_\Delta} - \frac{P}{\eta_Y} = \frac{P}{\eta_\Delta} \cdot (\frac{\eta_Y - \eta_\Delta}{\eta_Y}); \quad (3.7)$$

Reaktiv quvvat istemolini kamayishi:

$$\Delta Q = \frac{P}{\eta_\Delta} tg\varphi_\Delta - \frac{P}{\eta_Y} tg\varphi_Y; \quad (3.8)$$

Aktiv quvvatni umumiy kamayishi:

$$\Delta R_\Sigma = k \cdot \Delta Q + \Delta P \quad (3.9)$$

Bu yerda *k*-har bir kvar reaktiv quvvatga to‘g‘ri keladigan aktiv quvvat isrofi, kVt/kVar.

Tejab qolingan elektr energiyasi:

$$\Delta W_e = \Delta R_\Sigma \cdot \Delta t. \quad (3.10)$$

Elektr motorlarni almashtirish orqali olingan samara:

$$\Delta W_э = [(\Delta P_1 - \Delta P_2) + k(\Delta Q_1 - \Delta Q_2)] \cdot t \quad (3.11)$$

Bu yerda, ΔR_1 va ΔR_2 -almashtiriladigan va almashadigan motorlarni quvvat isrofi, kVt; ΔQ_1 va ΔQ_2 reaktiv isroflar, kVar; t-uskunaning yillik ishlash vaqti, soat.

Elektr energiyasi isroflarini kamaytirish uchun biz korxonada standart seriyadagi asinxron motorlarni xorijiy firmalarda ishlab chiqarilayotgan yangi seriyadagi asinxron motorlarga almashtirish orqali erishamiz.

Dastlab quyidagi jadvalda korxonadagi sanoat mexanizmlari uchun qo‘llaniladigan yangi seriyadagi asinxron motorlarning pasport parametrlarini kiritamiz.

3.3-jadval.

№	Ishlab chiqarish mexanizmi	Soni	Tipi	P_H kVt	η_H %	V	n_H ayl/ min	$\cos\varphi$ -
1	Tola kondensori	8	DSOR	7,5	89,4	380	1000	0,855
2	Buruvchi moslama	4	DSOR	4	88,7	380	1000	0,845

3	Siljituvchi dastgoh	3	DSOR	1,1	81,5	380	1000	0,84
4	Zichlovchi dastgoh	5	DKOK	37	93,0	380	1000	0,895
5	Linterlash dastgohi	28	DSOR	4,5	88,7	380	1500	0,845
6	Jinlash dastgohi	24	DKOK	75	94,0	380	730	0,925
7	Harakatlantiruvchi lenta	4	DSOR	7,5	89,4	380	1000	0,855
8	Nasos qurilmalari	12	DKOK	75	94,0	380	730	0,925
9	Ochuvchi moslama	5	DSOR	2,2	82,8	380	1000	0,835
10	YUklovchi moslama	3	DSOR	2,2	82,8	380	1000	0,835
11	CHiqindi lentasi	6	DSOR	4,5	88,7	380	1500	0,845
12	Tola tozalovchi dastgoh	6	DKOK	13	91	380	1500	0,88
13	Aralashtiruvchi dastgoh	10	DKOK	10	90	380	1000	0,86
14	Urug‘ ventilyatori	2	DKOK	37	93,0	380	1000	0,895
15	Ajratuvchi dastgoh	14	DSOR	3	85	380	1000	0,84
16	Tarovchi dasgoh	6	DSOR	3	85	380	1000	0,84
17	Tekislovchi dastgoh	6	DSOR	7,5	89,4	380	1000	0,855
18	Separator	6	DSOR	7,5	89,4	380	1000	0,855
19	So‘ruvchi moslama	4	DKOK	55	94,2	380	1000	0,93
20	Ventilyator	8	DKOK	30	92,7	380	1500	0,895
21	Elevator	2	DSOR	7,5	89,4	38	100	0,85

						0	0	5

Korxonadagi ishlab chiqarish mexanizmlarining elektr motorlari modernizatsiya qilingandan keyingi iste'mol qilingan energiyani quyidagi tartibda hisoblaymiz.

Tola kondensoridagi Germaniyaning Helmke firmasida ishlab chiqarilgan DSOR tipidagi uch fazali asinxron elektr motordagi umumiy isroflarni aniqlaymiz. Bunda motorning texnik ko'rchatkichlari quyidagicha bo'ladi: P_n=7,5 kVt, cosφ=0,855, k_e=0,13, motor bir yil ichida Δt=7500 soatga ishlagan, η=0,894;

Aktiv quvvat isrofini kamayishi quyidagi miqdorni tashkil etadi.

$$P_a = \frac{P}{\eta} = \frac{7,5}{0,894} = 8,39 \ \kappa Bm;$$

Reaktiv quvvat istemolini kamayishi:

$$Q = \frac{P}{\eta} tg\varphi \ = 7,5(0,61/0,894) = 5,09 \kappa Bap;$$

Aktiv quvvatning umumiy kamayishi:

$P_Σ=k·Q+P=0,13·5,09+8,39=9,05$ kVt.

Bu yerda *k*-har bir kvar reaktiv quvvatga to'g'ri keladigan aktiv quvvat isrofi, kVt/kVar.

Tola kondensoridagi elektr motorda bir yilda iste'mol qilingan elektr energiyasi:

$W_e=P_Σ·t=9,05·7500=67881$ kVt·soat/yil.

Korxonada bunday mexanizmlar soni 8 ta ekanligini hisobga olsak ulardagi aktiv quvvat isrofi 72.41 kVt va energiya isrofi 543048 kVt soatni tashkil qiladi.

Demak korxonada sanoat mexanizmlari uchun xorijiy firmalarda ishlab chiqarilayotgan yangi seriyadagi asinxron motorlardan foydalansak, korxona iste'mol qilayotgan aktiv quvvat miqdori 84.15 kVt ga hamda iste'mol qilayotgan elektr energiya 585180 kVt soat ga kamayadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Маркин Н. Д., Куликова М. Н. Солнце — альтернативный источник энергии // Юный ученый. — 2017. — №4. © 2013-2019, altenergiya.ru

2. Свен Уделл. «Солнечная энергия и другие альтернативные источники энергии»Л.М. Четошникова. «Нетрадиционные возобновляемые источники энергии»

3. Хуррамов А.Ж. Interactive approaches to the organization of the educational process - guarantees the quality of education // Social sciences and humanities in the education system. - T., 2014. - № 3.

4. Мирзоев.Д.П. Use of interactive educational technologies in the training of specialists.-B. 2019.-№6. 122-127.

5.Dilshod Polotovich Mirzoyev . Siddiq Kakhkhorovich Kakhkhorov Scientific reports of Bukhara State University Issue 6 BSU 2020 (6) Volume 4 https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss6/13/

UO'T: 621.313

ASINXRON MOTORLARDA ELEKTR ENERGIYANI TEJASH USULLLARINI TAHLIL QILISH

Boboxonov O.A, Mardonov M.A, Komilov Sh.I – "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti" ta'lim yo'nalishi talabalari

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqotlari universiteti Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti

Xolliyev J.F – "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti" kafedrasi assisenti javohirx1993@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada biz asinxron elektr matorlarini quvvat isroflarini hisoblash va ularni tejash usullari haqida ma'lumotlar berilgan yani reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish.

Kalit so'zlat: Divigatel, mator, reaktiv, to'g'irlagich, koeffisent.

UDC: 621.313

ANALYSIS OF ELECTRICAL ENERGY SAVING METHODS IN ASYNCHRONOUS MOTORS

Bobokhonov O.A, Mardonov M.A, Komilov Sh.I-Students of the educational direction "energy supply in agriculture and water economy"

Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management

This Is Not True.F-assistant of the department" energy supply in agriculture and water economy " javohirx1993@gmail.com

Annotatsiya: bu maqsad biz asinxron elektr matorlarini himoya qilish va ularni o'rganish usullari haqida ma'lumot berilgan yani faol quvatni kompensatsiya qilish.

Kalit so'z: Divigatel, mator, reaktiv, to'q'irlagich, koeffisent.

Reaktiv qiymatni kompensatsiya qilish va $\cos\varphi$ ni oshirish hamma ishlab chiqarish sohalari uchun ham muhimdir. Quvvat koeffisiyentining past bo`lishi quyidagi sanab o`tilgan sabablarga bog`liqdir:

1. Asinxron motorlarni quvvat bo`yicha hamda ishlash sharoitini noto`g`ri tanlash. Faza rotorli asinxron motorlarning induktiv qarshiligi sochilishining yuqoriligi sababli $\cos\varphi$ qiymati rotori qisqa tutashtirilgan asinxron matorlarnikiga nisbatan past bo`ladi. Yopiq konstruksiyali motorlarda sovush sharoitlari ochiq konstruksiyali motorlarnikiga nisbatan pastroq bo`ladi. Turi va quvvati bir xil bo`lgan motorlar ichida qaysi birining tezligi yuqori bo`lsa shuning $\cos\varphi$ qiymati yuqori bo`ladi.
2. Ishlab chiqarish mexanizmlari va ularning elektr jihozlari vaqt bo`yicha to`liq bo`lmagan va notekis yuklanganligi sabab bo`ladi.
3. Elektr motor va transformatorlarning yuklanishsiz ishlashi.
4. Quvvati yuqori bo`lgan elektr motor va transformatorlarni quvvati kam bo`lgan ishlab chiqarish qurilmalarida qollash.
5. Elektr motorlarni nominal quvvatidan yuqori quvvatda ishlatish magnit oqimi sochilishini ko‘paytiradi va natijada $\cos\varphi$ pasayadi.
6. Ishdan chiqqan yoki yomon ta’mirlangan elektr jihozlari ishlatilishi: masalan, rotor po`lati tunukalarini zich siqmaslik, tator chulg`ami o`ramlari soni birlamchi sonidan kam bo`lishi va h.k. uulg`amlar sonining 10% ga kamayishi motor salt yurishini 25% ga shiradi va bu esa quvvat koeffisiyentini 6 – 8% ga kamayishiga olib keladi. Rotor po‘lati o`lchamining 10 mm ga farq qilishi $\cos\varphi$ ning 15 – 30% kamayishiga olib keladi.
7. Tushlikda, kechki smenada, quvvati yuqori bo`gan ashinalarning uzoq vaqt o`hirib qo’yilgan vaqida hamda kichik uklanishli rejimda ishlayotgan paytda tarmoqdagi kuchlanishning bir necha voltga oshishi induktiv istye’molchi magnitlovchi tokining oshishiga olib keladi va natijada $\cos\varphi$ ning pasayishiga sabab bo‘ladi.

Payvandlovchi apparatlar kabi induktivligi yuqori bo`lgan elektr istye'molchilarning reaktiv quvvat kompensatorlarisiz ishlatilishi sabab bo`adi.

8. To`g`rilagichli qurilmalarning bo`lishi va to`yinish rejimiga yaqin rejimda ishlayotgan ferromagnit o`zakli elektr istye'molchilarning bo`lishi natijasida tarmoqdagi kuchlanishning sinusoidalligi buziladi. Asinxron motor va transformatorlarda nosinusoidal kuchlanish ta'sirida qo`shimcha quvvat pasayishi paydo bo`ladi va bu izolyasiyaning ishlash muddatini kamaytiradi.

$$K_M = \cos\varphi_1 K_{П1}, \qquad (1.1)$$

bu yerda $\cos\varphi_1$ – birinchi garmonikaning quvvat koeffitsiyenti,

$K_П = \frac{I_1}{\sqrt{\Sigma I_i^2}}$ – tuzatish koeffitsiyenti, i – garmonik tashkil etuvchining tartib soni.



1 – rasm. Asinxron elyektr motor quvvat koeffisiyentining (a), elektr motor $\eta_м$, ishchi mashina $\eta_{iм}$, yuritma η_{yu} FIK larining (b) yuklanish koeffisiyentiga bog`liqlik grafiklari

Qurilma umumiy quvvat foizining kamayishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

Sanoat korxonalarida ishlatilayotgan quvvat koefisiyenti 0,2 – 0,5 (payvandlash qurilmalari, kranlar, ekskavatorlar) dan 0,7 – 0,8 (ventilyatorlar, betonaralashtirgichlar, konveyerlar) gacha bo'lgan, shu bilan bir qatorda quvvat koeffiqiyenti birga yaqin bo`lgan va sig`imli yuklanishli (sinxron motorli kompressor va nasoslar) elektr istye'molchilar bo`lishi mumkin. Vaxolanki elektr qurilmalarni ekspluatasiya qilish qoidalariga ko`ra tarmoqning quvvat koeffisiyenti qiymati 0,92 – 0,95 bo'lishi talab etiladi.

Quvvat koeffisiyentini oshirish va elektr jihozlardagi quvvat isrofini kamaytirish maqsadida quyidagi tadbirlar ko`riladi:

1. rotori qisqa tutashtirilgan asinxron motorlarni tanlash hamda imkoni va sharoitiga qarab sovushi oson kechuvchi ochiq konstruksiyali motorlarni qo`llash.



2 – rasm. Ishchi mashinada sarflanayotgan elektr enyergiya solishtirma qiymatining yuklanish koeffisiyentiga bog`liqlik grafigi

2. Ishchi mexanizimi elektr jihozlarini to`liq yuklatish va ishlab chiqarish davomida bir tekis taqsimlanishiga erishish. 2.2 – rasmda

motorning $\cos\varphi$ va FIK, ishchi mexanizm va yuritmaning FIK larining yuklanish koeffitsiyenti K_{yu} ga bog`liq ravishda o`zgarishi keltirilgan.
Iqtisod qilingan elektr energiyani hisoblash uchun elektr energiyaning avval solishtirma qiymatini hisoblaymiz:

$$Э_{CQ} = \frac{1}{\eta_M * \kappa_{yu}} \left[\kappa_{yu} + \frac{\alpha(1-\eta_M)}{\kappa_T} \right] \qquad (1.2)$$

bu yerda η_M – ishchi mexanizmning to`liq yuklanganligidagi FIK; $K_{yu}$ – yuklanish koeffitsiyenti; $K_T$ – ishchi mexanizmning ishlatilish koeffitsiyenti; $\alpha = 0{,}7 - 0{,}9$ – ishchi mexanizmning turi va konstruksiyasiga bog`liq bo`lgan koeffitsiyent.
K_{yu} va K_T koeffisiyentlar quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$K_{yu} = \frac{P}{P_H}, K_T = \frac{t_M}{(t_M + t_O)} \qquad (1.3)$$

,

bu yerda P_N – motorning nominal quvvati, t_m – mexanizmning ishlash vaqti, t_o – salt yurish vaqti.
Ishchi mexanizmning maksimal ish rejimi uchun $t_o = 0$ va $K_T = 1$, $K_{yu} = 1$ bo`lgani uchun elektr energiyaning solishtirma qiymati eng minimal bo`ladi:

$$Э_O = \frac{[1 + \alpha(1-\eta_M)]}{\eta_M} . \qquad (1.4)$$

Ishchi mexanizmi yuklanishini oshirish natijasida energiyadan qilinadigan iqtisodni hisoblash uchun 2.3 – rasmdagi grafiklardan hamda $\beta = Э_{CQ} / Э_0$ koeffitsiyentini hisobga olgan holda har soatda elektr energiyadan qilinadigan iqtisod quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\Delta Э = (\beta_1 - \beta_2) * Э_O, \qquad (1.5)$$

bu yerda β_1, β_2 – yuklanish oshirguncha va oshirilgandan so`ng elektr energiya solishtirma qiymatining nisbiy o`zgarish koeffisiyentlari.

Адабиётлар

1.Беллман Р. Введение в теорию матриц / Р.Беллман.- М.: Наука, 1976.-352 б.
2. Бернштейн А.Я. Тиристорные преобразователи частоты в электроприводе /
А.Я. Бернштейн, Ю.М. Гусяцкий, Р.С. Сарбатов; под ред. Р.С. Сарбатова.-М.:Энергия, 1980.-328 б.

3.Браславский И.Я. Асинхронный полупроводниковый электропривод с параметрическим управлением /И.Я. Браславский.-М.: Энергоатомиздат, 1988.

UO‘T: 621.303.

KONTROLLERLI ENERGIYA TEJAMKOR ELEKTR YURITMALARDAN FOYDALANISH ORQALI ENERGIYA TEJASH USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Jumayev Axrom Asror o’g’li, SHarofov Islombek Oybek o’g’li -Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti ” . axrom jumayev @ gmail.com.

SHarofov Islombek Oybek o’g’li

Annotatsiya. Ishlab chiqarish mexanizmlari asinxron elektr yuritmalarining kam yuklama bilan ishlashi ularning o‘rnatilgan quvvatidan to‘la foydalanilmaslikka, motor talab qiladigan aktiv va ayniqsa, reaktiv quvvatlarining asossiz ortiqcha sarflanishiga, qurilmaning energetik samaradorligi pasayishiga va ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga sarflanadigan elektr energiyasining kattalashuviga olib keladi.

Tayanch so‘zlar: asinxron; elektr yuritma; energiya tejamkor; kontroller.

UDC 621.303.

DEVELOPMENT OF ENERGY-SAVING METHODS THROUGH THE USE OF CONTROLLED ENERGY-EFFICIENT ELEKTRA PROCEEDINGS

Jumayev Axrom Asror o’g’li , Sharofov Islombek Oybek o’g’li Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of the Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers. axrom jumayev @ gmail.com.

Annotation. The operation of asynchronous electric circuits with low load leads to the fact that their installed capacity is not fully utilized, unreasonable excessive consumption of the active and especially reactive power required by the engine, a decrease in the energy efficiency of the

device and an increase in the amount of electrical energy consumed per unit of the product being produced.

Base words: asynchronous; electric circuit; energy-efficient; kontroller.

Low-load operation of asynchronous electric drives of production mechanisms leads to underutilization of their installed capacity, unreasonable overuse of active and especially reactive power required by the motor, reduction of energy efficiency of the device and increase of electricity consumption per unit of output.

Keywords: asynchronous; electric drive; energy saving; controllers.

Xozirgi zamon energetika krizisi sharoitida ishlab chiqarish qurilmalarining avtomatlashtirilgan elektr yuritmalarini ishga tushirish, tormozlash, tezlikni va momentni rostlash kabi an'anaviy funksiyalaridan tashqari, qo'shimcha, lekin hozirda eng muxim bo'lgan funksiya - energiyani tejash funksiyasi ham yuklatiladi. Bu muxim funksiya amalga oshirilsa, elektr yuritma tizimi elektr motorning validagi yuklama salt ishlashidan nominalgacha bo'lgan keng diapazonda o'zgarganda, yukori texnik-iqtisodiy va energetik ko'rsatkichlarga ega bo'ladi.

Ko'pchilik mashina mexanizmlarining (ventilyatorlar, nasos agregatlari, kompressorlar, xavo haydagichlar va b.) asinxron elektr yuritmalari doimo yuklangan xolda ishlaydi, statik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ularning o'rtacha yuklamalari nominal yuklamaning 30-60% ga yakinini elektr motorlarning yillik ishlash vaqti 1500 soatni tashkil qiladi.

Motorlarning o'rnatilgan quvvatidan to'la foydalanilmaslik yoki ularning quvvatlarini asossiz oshirish, shuningdek, qo'shimcha operatsiyalar vaqtida elektr motorning kam yuklama bilan ishlashi elektr yuritmalarning energetik ko'rsatkichlari anchagina pasayishiga olib keladi.

O'zgaruvchan tokning asinxron motorli elektr yuritmalarning o'rnatilgan quvvatlaridan samarali foydalanish va ularni energetik ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun, shuningdek, elektr motor talab qiladigan quvvatning asossiz ortiqcha sarflanishini yo'qotish (kamaytirish) maksadida ommaviy qo'llaniladigan rostlanmaydigan asinxron elektr yuritmalar, chastota bilan rostlanadigan avtomatlashtirilgan elektr yuritma va asinxron-ventilli kaskadlar uchun energiya tejaydigan yangi kontroller taklif qilingan.

Umumsanoat asinxron elektr yuritmalarida energiya tejamkorlikka erishishning fizik asoslari

Qo‘yilgan masalani hal qilishning fizikaviy asosi asinxron motor uchun quyidagi ifodaning minimumini ta’minlash hisoblanadi, ya’ni:

$$\frac{di}{d\varphi} = 0,$$

(bu yerda, i — stator cho’lgamining nisbiy toki; I va I_n — tokning xaqiqiy va nominal qiymatlari; A

Ψ-motorning havo oraligidagi nisbiy oqim;

F vaF_n — magnit oqimining xaqiqiy va nominal qiymatlari.

Motorning xaqiqiy yuklanganlik diapazoni (0,3-1.0) $R_n$chegarasida yotadi:

buerda, R_n — motorning nominal quvvati. Magnitlanish egri chizigidan ma’lumki,magnitlanish tavsifning bu qismi chegarasida u to‘gri chiziqli deb olish mumkin, ya’ni:

$$\Phi = f(u) \cong K U$$

Unda tenglamadagi oqim hech qanday zararsiz kuchlanish bilan almashtiriladi, ya’ni:

$$di/du = 0$$

bu erda, u — motorning nisbiy kuchlanishi.

Kontrollerli energiya tejamkor asinxron elektr yuritma

Energiya tejaydigan kontrollerli asinxron elektr yuritma quyidagicha ishlaydi.

Summator (jamlovchi) 4 ning birinchi kirishiga topshiriq, signali beriladi (ushbu xolda o’zgarmas tokning rostlanadigan kuchlanishi) asinxron motor 1 ning ishga tushib ketishi vaqtida elektr yuritma tokining minimumi bilan ishlash rejimi ko’zda tutilmaganligi uchun xotira bloki 5 berk xolatda bo’ladi va tiristorni boshqarish bloki 3 ning kirishiga jamlovchi 4 ning chiqishidan $U = U_{top}$ signali beriladi. Bu katta tokli tiristorlar bloki 2 da U_{max}shakllanishiga mos keladi, bu kuchlanish dvigatel 1 ning kuchlanishi I_i ga teng. Motor 1 ishga tushib bo’lgandan katta tokli tiristorlar bloki 2 ning chiqishida kuchlanish dvigatel 1 ning yuklama toki bo’yicha bevosita tok datchigi 9 orqali rostlanadi. Signal tok datchigi 9 dan tokni differensiallash chiqishida di/dt signali bo’ladi, bu signal kuchlanishni differensiallash bloki 7 dan olinadigan signal, bu erda

kuchlanish datchigi 6 ning chiqishidan olinadigan signal differensiallanadi. Bo'lish bloki 8 da bo'lish operatsiyasi bajariladi.



Kontrollerli energiya tejamkor asixron elektr yuritmaning blok sxemasi

Bu signal bo'lish bloki 8 ni chiqishidan jamlagich 4 ning ikkinchi kirishiga xotira bloki 5 orqali beriladi. Xotira bloki xisob-kalitli rejimda ishlaydi, ya'ni uning chiqishida signal bor bo'lsa, 5 blokda xozirgi va oldingi signallarni di/du solishtirish bajariladi va minimum sharti bajarilgan vaqt momentida di/du=0 xotira blok 5 ning chiqishida di/du ning oldingi qiymati mahkamlanib qoladi, bu esa yuklanganligiga qarab dvigatel 1 ga kuchlanishning optimal qiymatini beradi.

Umumsanoat energiya tejamkor asinxron elektr yuritma ish rejimining tajribaviy natijalari

1-rasmda rostlanadigan kuchlanish manbaidan ta'minlanadigan, energiya tejaydigan kontrollerli 4A71V4UZ markali asinxron motorning talab qiladigan quvvati R_{pot}, f.i.k.-η; quvvat koeffitsienti cos f lar o'zgarishining tajribadan olingan egri chiziklari keltirilgan.



Kontrollerli energiya tejamkor asinxron elektr yuritma ishchi tasnifi

Rasmda R_{pot}, f, sosf =1da olingan motorning ko'rsatkichlari;

$R_{pot}(0)$, f(0)-f=f_{pot}. da olingan motorning kursatkichlari.

Motorning yuklamasi nominalga nisbatan 30% dan 100% gacha o'zgarganda uning talab qiladigan kuvvati R_{tal} 55% dan 8% gacha kamayadi, mos xolda f.i.k. 2,1 dan 1,1 martagacha va quvvat koeffitsienta 1,7 dan 1,08 gacha kattalashadi. Bunday o'zgarishlar motorning o'sha parametrlarida, lekin u rostlanmaydigan kuchlanish manbaidan ta'minlanganda olindi.

SHunday kilib, energiya tejaydigan qurilmali asinxron elektr yuritma asinxron motorning energetik ko'rsatkichlarini anchagina kattalashtiradi va bu uning ishlash muddatini oshirishga imkoniyat yaratadi. Energiya tejamkor kontrollerli asinxron elektr yuritmaning qo'llanish soxalari va joriy qilishning iqtisodiy samarasi

O'zgarmas tezlikda ishlaydigan ventilyatorlar, nasos agregatlari, kompressor qurilmalari, dudburonlar va boshqa ommaviy qo'llanadigan mexanizmlar elektr yuritmalarining energetik ko'rsatkichlarini yaxshilash katta axamiyatga egadir.

Agar energiya tejaydigan qurilma qo'llanganda tejalgan elektr energiyasi o'rtacha 30% ni tashkil qilgan bo'lardi.

Xulosa: Ushbu moqolada biz komplek elektr yurutmalarning samarali usullarini uning kamchilik va yutuqlarini ko'rib o'rgandik.Elektr

yurutmalarning energiya tejamkor usullarini amalga oshirishga va ularni loyihalash ishlarini bajarish maqsad qilib qo‘yilgan.Ushbu ishimizdan ko‘zda tutilgan maqsad algoritm va modellarini yaratish va elektr yuritmalarni loyihalash jarayonini avtomatlashtirish rejalashtirilgan va yuqori samarali natijalar olish ko’zda tutilgan va tavsiyalar berib o‘tilgan.

LITERATURЫ

1. Xashimov A.A., Imomnazarov A.T. Elektromexanik tizimlarda energiya tejamkorlik. Tashkent: 2005.

2. Kahhorov S.K., Mirzoev D.P. IZUCHENIE KOMMUTATSIONNYX USTROYSTV european science № 2 (51). Part II [6].

3. SELECTION OF THE OPTIMAL METHOD OF THE PURIFYING THE WHITE WEAR RESISTANCE OF IRON MAKE 300H32N2M2TL AA Jumaev - Вестник науки, 2019 https://cyberleninka.ru/article/n/selection-of-the-optimal-method-of-the-purifying-the-white-wear-resistance-of-iron-make-300h32n2m2tl

UO‘T: 621.303.

NOAN’ANAVIY ENERGIYA MANBALARI QURULMALARIDA QO‘LLANILADIGAN QARSHILIKNI O‘LCHASH SENSORLARINI TAHLILI

Nurov Xomid Ibroximovich , Jumayev Axrom Asror o’g’li
”Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti” o’qituvchilari
Davlatov Shaxboz Shuxrat o’g’li
”Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti” talabasi

Annatatsiya : Noan’anaviy energiya magbalarida qo‘llaniladigan haroratni o‘lchash uchun ishlatiladigan qarshilik sensorlarining (qarshilik

termometrlari) ishlash prinsipi metallar elektr qarshiligining temperaturaga bog‘liqligiga asoslangan.

Tayanch iboralar: temperatura , qarshilik termometrlari, nikel, platina, rezistor, kontak.

UDC: 621.303.

ANALYSIS OF RESISTANCEILIKNI MEASURING SENSORS USED IN NON-TRADITIONAL ENERGY SOURCES QURULM

Nurov Khomid Ibroximovich, son of Jumayev Akhrom Asror
" Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers" National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management " teachers
Davlatov Shahbaz Shukhrat son
" Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers" National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management " student

Annatasiya: the principle of operation of resistance sensors (resistance thermometers), which are used to measure the temperature used in non-conventional energy magnets, is based on the dependence of the electrical resistance of metals on the temperature.

Base phrases: temperature, resistance thermometers, nickel, platinum, resistor, contact.

Hozirgi kunda noan’anaviy energiya magbalarida qo‘llaniladigan haroratni o‘lchash uchun ishlatiladigan qarshilik sensorlarining (qarshilik termometrlari) ishlash prinsipi metallar elektr qarshiligining temperaturaga bog‘liqligiga asoslangan. Metallar elektr qarshiligining temperaturaning o‘zgarishiga bog‘liqligi har bir metall uchun aniq va o‘zgarmas qiymatga ega bo‘lgani sababli, uni “α – temperatura koeffitsienti” deb atashgan. Bu temperatura koeffitsienti 0°S va 100°S oralig‘i uchun o‘rnatiladi. Metall elektr qarshiligining temperaturaga bog‘liqligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$R_\theta = R_o\ (\ 1 + \alpha\ \Delta\ T)$ bunda R_θ – temperatura θ bo‘lgandagi qarshiligi, Ω, R_o - temperatura θ = 0°C bo‘lgandagi qarshiligi, Ω, α - temperatura koeffitsienti , $\frac{1}{K}$, ΔT – temperaturalar farqi, K Temperatura koeffitsienti va solishtirma qarshiligi katta bo‘lgan materiallar qarshilik termometrlarini yaratishga yaraydi. Materiallarga qo‘yiladigan keyingi talab- bu uning

temperatura koeffitsientining temperaturaga iloji boricha kam bog‘liq bo‘lishi, qarshilikning temperatura xarakteristikasi $R_\theta = f(\Delta T)$ temperaturani o‘lchash diapazonida chiziqli bo‘lishi. Bunday talablarga eng yaxshi javob beradigan metallar bu nikel va platina. Bu metallarning qarshiligi, temperaturasini qancha marotaba ko‘tarib, tushirsa ham, ma’lum temperaturalarda ma’lum aniq qiymatlarga ega bo‘lib turaveradi, ya’ni ularning temperatura xarakteristikalari mo‘‘tadilligi bilan ajralib turadi. Bu metallarning nisbatan katta solishtirma qarshiligi ulardan sensor yaratishda kam sim ketishini ta’minlaydi va sensorning o‘lchamlari kichik bo‘ladi. Qarshilik termometrlari mis simidan ham yaratiladi.

Qarshilik termometrlari standart xarakteristikalarga ega bo‘lishi shart, chunki ular ishdan chiqqanda, boshqasi bilan almashtirilish imkoni bo‘lishi kerak. SHuning uchun ularning nominal qarshiliklari standart qiymatlarga ega bo‘ladi. Nikel va platinali qarshilik termometrlarning temperaturasi 0°S nominal qarshiligi R_o = 100 Ω bo‘ladi. Qarshilik termometrlarining nominal qarshiligi ularning belgisida yoziladi. Nikelli qarshilik termometri Ni – 100, platinaligisi esa – Pt – 100 belgisi bilan belgilanadi.

Nikelning temperatura koeffitsientining o‘rtacha qiymati temperatura 0°S dan 100 °S gacha $\alpha = 0{,}00618\ \frac{1}{K}$ ga teng. 1 – jadvalda Ni - 100 va Pt – 100 qarshilik termometrlarining ishlash temperaturasi – 60 °C ≤ θ ≤ 180 °C (Ni-100) va – 200 °C ≤ θ ≤ 850 °C (Pt – 100) diapazonlarida $R_\theta = R_o (1 + \alpha\Delta T)$ formulasi bo‘yicha hisoblangan qarshilik qiymatlari keltirilgan.

Pt – 100 platinali qarshilik termometrlarining ikki aniqlik sinfdagi A va V turlari mavjud. V sinfiga mansub qarshilik termometrlari amaliy o‘lchashlarni bajarish uchun ishlatiladi. Aniq o‘lchashlarni bajarish uchun aniqligi yuqori bo‘lgan A sinfdagi qarshilik termometrlari ishlatiladi, lekin ularning ishlash temperaturalari 650 °S bilan chegaralanadi. DIN 43 760 standartida platinali qarshilik termometrlari uchun temperaturalarga muvofiq qarshilik qiymatlari jadval shaklida keltirilgan. Texnikada, ba’zi hollarda, nominal qarshiligi yuqori bo‘lgan qarshilik termometrlari ham ishlatiladi.

Nominal qarshiligi 100 Ω li nikelli qarshilik termometri (belgisi: Ni – 100)
O‘rtacha temperatura

koeffitsienti α		$\alpha = 0,\ 00618\ \frac{1}{K}$	
(0 °S dan 100 °S gacha)			
Temperaturani o‘lchash diapazoni : °S gacha		- 60 °S dan + 150	
Asosiy qiymatlari:			
O‘lchangan temperatura	- 60 °S	0 °S	100 °S
Qarshiligi	69,5 ± 1,0 Ω	100,0 ± 0,2 Ω	161,8 ± 0,8 Ω
Nominal qarshiligi 100 Ω li platinali qarshilik termometri (belgisi: Pt- 100)			
O‘rtacha temperatura koeffitsienti α		$\alpha = 0,00358\ \frac{1}{K}$	
(0°S dan 100 °S gacha)			
Temperaturani o‘lchash diapazoni	- 200 °S dan 650 °S gacha (A –sinf);		850 °S gacha
(V – sinf)			
Asosiy qiymatlari:			
O‘lchangan temperatura	- 200°S	0 °S	200 °S 400°S
Qarshiligi			
(A – sinfi)	18,49 ± 0,24 Ω	100,00 ± 0,13 Ω	175,84 ± 0,20 Ω 247 ± 0,33 Ω
(V – sinfi)	18,49 ± 0,56 Ω	100,00 ± 0,30 Ω	175,84 ± 0,48 Ω 247,04 ±).79Ω

1 – Jadval . Ni – 100 va Pt – 100 qarshilik termometrlarining qarshiliklari va ruxsat etilgan chekinishlari.

Qarshilik termometrlarining rezistiv elementi juda ingichka nikel va platina simlaridan ishlab chiqariladi. Simlarning diametrlari 0,05 dan 0,3 *mm* gacha bo‘ladi. Sim dielektrik karkas ustiga to‘g‘ri va bifilyar usulida o‘raladi.

Bifilyar yo‘li bilan o‘ralgan simlarning induktivligi bo‘lmaydi va shuning uchun uni o‘zgaruvchan tokda ham ishlatish mumkin. Plata shaklida ishlab chiqarilgan platinali qarshilik termometri 1 – rasmda ko‘rsatilgan. Ba’zi hollarda nikel simli qarshilik termometrlarining simi shisha yoki slyuda tasmasiga o‘raladi va slyuda bilan sensorning ikki yuzasi qoplanadi. Slyuda qoplami adgeziv suyuqlik bilan qotiriladi.

Qarshilik termometrlarining boshqa turlarida sim shisha asosga o‘ralib, usti himoyalovchi metall qobiq bilan qoplanadi. YUqori temperaturalarda ishlatiladigan platinali qarshilik termometrlarida sim keramika asosga o‘ralib, uning ustiga keramika qoplanadi.

YUqorida qayd etilgan qarshilik termometrlarining yakka o‘ramli turlari bilan birga ikki o‘ramli turlari ham bo‘ladi. Ular ikkita, biri biriga bog‘liq bo‘lmagan qarshilik termometrlaridan iborat va bir erdagi temperaturani mustaqil o‘lchashga imkon beradi. Bular nazorat o‘lchashlar uchun juda muhim. Ikki o‘ramli qarshiliklardan biri sensorning temperatura xarakteristikasini chiziqli qilish, o‘lchangan qiymatlarni kompensatsiya qilish uchun ham ishlatiladi. Texnologik jarayonlarda o‘lchamlari kichik bo‘lgan qarshilik termometrlariga ehtiyoj bo‘ladi. Bunday sensorlarning qarshilik elementi mikroelektronika texnologiyalari yordamida yaratiladi. Misol uchun yuzasiga metall qoplangan yassi yoki silindr shaklidagi dielektrikning yuzasida lazer nuri bilan metall spiral yaratiladi (lazer ortiqcha metallni eritib, olib tashlaydi). Bunday usulda yaratilgan sensorning xarakteristikalari yuqori aniqlikka ega bo‘lib, o‘zining o‘lchamlari kichik bo‘ladi. Bu esa ularning inersionligini keskin kamaytiradi. 1– rasmda shunday sensorning konstruksiyasi ko‘rsatilgan.



1 – rasm. Platina yotqizilgan qarshilik termometrining konstruksiyasi

O‘lchash rezistori himoyalovchi qobiq bilan qoplangan va uchlari alohida kommutatsiya terminaliga chiqarilgan sensorlar qarshilik termometri deb ataladi va ular standart o‘lchash vositasi sifatida sotiladi. 2- rasmda shunday sensorlarning ikki namunasi keltirilgan.

Ustida himoyalovchi qobig‘i bo‘lgan qarshilik termometrlarining qarshiligini o‘zgarishi vaqtga bog‘liq bo‘ladi. 3 – rasmda uchta platinali qarshilik termometrlarining temperatura 20 K ga o‘zgarganda qarshiligining o‘zgarishi ko‘rsatilgan.

Qarshilik termometrlari bilan temperatura o‘lchanganda, ularni o‘lchash qurilmasiga ulash simlari va kontaktlarining qarshiliklari ham o‘lchashlarga xatolik kiritishi mumkin. Ularning ta’sirini kamaytirish maqsadida turli ulash sxemalari ishlatiladi.

2 – rasm. Qarshilik termometrlarining sanoat ishlab chiqargan namunalari

a) ikki rezistorli qarshilik termometri

v) kichik himoyalovchi qobig‘li qarshilik termometri



3–rasm. Qarshilik termometrlarining vaqt xarakteristikasi



4 – rasm. Qarshilik termometrlarini ulash sxemalari

Ikki simli ulash sxemasida sensorning qarshiligi to‘liq ko‘prikli o‘lchash sxemasi bilan o‘lchanadi. Atrof muhit temperaturasi mo‘‘tadil bo‘lganda, uning ulash simlarining qarshiligiga ko‘rsatgan ta’sirini qarshiligi temperaturaga bog‘liq bo‘lmagan rezistorlar bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Uch simli ulash sxemasi ulash simlarini ancha uzaytirishga imkon beradi. Bu sxemada tashqi muhit temperaturasining ulash simlarining qarshiligiga ko‘rsatgan ta’siri olib tashlangan. Eng aniq o‘lchash natijasini to‘rt simli ulash sxemasi yordamida olish mumkin. Bu sxemada sensorga manba berish zanjirlari bilan qarshiligini

o‘lchash zanjirlari ajratib qo‘yilgan va shu yo‘l bilan o‘lchash natijasiga barcha tashqi ta’sirlar olib tashlangan (4 – rasm).

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. Allaev K.R., Azimov R.K., Siddikov I.X., Xoliddinov I.X., Xasanov M.YU., Axmedov N.J. Elektromagnitnыy preobrazovatel nesimmetrichnosti trexfaznogo toka v napryajenie // Patent RUZ IAP 2014 0463 B.I. №4, 2016 g.
2. Allaev K.R., Azimov R.K., Siddikov I.X., Xoliddinov I.X., Xasanov M.YU., Kodirov F.M., Mirzaeva M.M. Elektromagnitnыy preobrazovatel nesimmetrichnosti trexfaznogo toka v napryajenie // Patent RUz IAP 2014 0509 B.I. №6, 2016 g.
3. Allaev K.R., Azimov R.K., Xoliddinov I.X., Yulchiev M.E., Borisova E.A., Amurova N.YU. Elektromagnitnыy preobrazovatel nesimmetrichnosti trexfaznogo toka v napryajenie // Patent RUz IAP 2014 0540 B.I. №6, 2016 g.

UO‘T: 621.303.

ASINXRON MOTORLARNING ENERGETIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Bobojanov Maqsud Qalandarovich – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Elektr taminoti” kafedrasi prof. t.f.d. – tel:+998909686853

To‘rayev Sardor Do‘stmurodovich – TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash fakulteti “Qishloq va suv xo‘jaligida energiya ta’minoti” kafedrasi assistenti. – tel:+998934780399

Amrullayev Behzod Boburovich – TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash fakulteti “Qishloq va suv xo‘jaligida energiya ta’minoti”yo‘nalish talabasi. – tel:+998912479748

Annotatsiya – Ushbu maqolada rostlanuvchan yuritmalarga qo‘llanilib kelinayotgan elektr motorlar o‘rniga qutblari o‘zgaruvchan, ko‘p tezlikli asinxron motorlarni qo‘llash orqali elektr energiyasi va tabiiy resurslarni tejash tahlil qilindi.

UDC: 621.303.

ANALYSIS OF THE ENERGY PERFORMANCE OF ASYNCHRONOUS MOTORS

Bobojanov Maksud Kalandarovich-Tashkent State Technical University named after Islam Karimov Department of "electrical supply" prof. t.f.d. – tel:+998909686853

Turayev Sardor Dostmurodovich-assistant of the department "energy supply in agriculture and water economy" of the Faculty of Agriculture of the Institute of Natural Resources Management tel:+998934780399

Amrullayev Bekhzod Boburovich is a student of the Department of "energy supply in agriculture and water economy"of the Faculty of Agriculture of the Institute of Natural Resources Management tel:+998912479748

Annotation:-this article analyzes the savings in electrical energy and natural resources by using variable, multi-speed asynchronous motors instead of Poles of electric motors, which are being applied to rectifying angles.

Hozirgi kunda Respublikamizda elektr energiyaning 70-80 % ini elektr yuritmalar iste'mol qilmoqda. Ko'p yillar davomida elektr yuritmalarda qo'llanilib kelinayotgan elektr motorlarning aksariyati ma'nan eskirganligi, motorlar yuritmalarga mos holda tanlanmaganligini va rostlanuvchan elektr yuritmalarga qo'llanilayotgan motorlarning FIK pastligini kuzatish mumkin. Rostlanuvchan elektr yuritmalarning ish rejimlari o'zgarishi hisobiga ularga qutblari o'zgaruvchan bir chulg'amli elektr motorlarni tanlash elektr energiyasi va tabiiy resurslarni tejashga olib keladi.

Ikkita alohida chulg'amli elektr motorlarni bir chulg'amli ikki tezlikli motorlar bilan almashtirish, rostlanuvchan elektr yuritmalarda ekspluatatsion sifatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi va ularni ish unumdorligini oshiradi, bu esa o'z navbatida elektr energiyasini va tabiiy resurslarni tejashga olib keladi.

Ikki tezlikli elektr motorlar uzoq vaqtlar davomida qishloq xo'jaligi va sanoatning ko'plab sohalarida, xususan:

- Lift va boshqa ko'tarish mexanizmlari;
- Kimyo sanoati va metallurgiya dastgohlari;
- Shamollatish qurilmalari;
- Burg'ilash dastgohlari va boshqa bir qancha rostlanuvchan yuritmalarni ishlatishda

muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda.

Ikki tezlikli asinxron motorlar bilan tezlikni rostlash usuli eng sodda va nisbatan arzon usuldir. Bundan tashqari, kuchsiz tarmoqli motorlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga tushirish natijasida kuchlanish 30% dan ortiq pasayishiga olib keladi. Bunda, birinchi navbatda, elektr yuritma tomonidan ishlab chiqilgan moment kamayadi, ikkinchidan, kuchlanishning pasayishini qayd etadigan elektron va mikroprotsessor qurilmalar elektr yuritmani tarmoqdan uzib qo‘yadi. Ikki tezlikli asinxron motor orqali ishlaydigan elektr yuritmalardan foydalanish quvvati katta bo‘lgan motorlarni pog‘onali ishga tushirish jarayonini osonlashtiradi.

Ikki tezlikli motorlarni bitta chulg‘amli va ikkita alohida chulg‘amli qilib tayyorlash mumkin. Bir xil quvvatga ega bo‘lgan bitta chulg‘amli va ikkita alohida chulg‘amli ikki tezlikli motorlarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ikki chulg‘amli motorlar bitta chulg‘amli motorlarga nisbatan ko‘proq xarajatlarni talab qiladi. Elektrotexnik po‘lat uchun 30-40 % ga va chulg‘am mis 40-50 % ga, bundan tashqari motorning foydali ish koeffitsienti va cosφ o‘rtacha 10-15% ga pasayadi.[3]

1-jadvalda DP112A6/8 turidagi ikkita alohida chulg‘amli ikki tezlikli asinxron motorlarni, AIR100S6/8 uch fazali bir chulg‘amli ikki tezlikli asinxron motorlarni energetik ko‘rsatkichlari taqqoslangan. Qutblar soni o‘zgaruvchan chulg‘amli ikki tezlikli motorning r_1=3 qutb tomonda foydali quvvat qiymati 1,25 kVt va ushbu quvvatga mos keladigan f.i.k. va cosφ qiymati mos holda 78% va 0,69 ni tashkil etdi, nominal tok 3,5 A, r_2=4 qutb tomonda esa foydali quvvat qiymati 1 kVt va ushbu quvvatga mos keladigan f.i.k. va cosφ qiymati mos holda 72% va 0,66 ni tashkil etdi, nominal tok 3,2 A ga teng bo‘ldi. Ikkita alohida chulg‘amli ikki tezlikli motorning r_1=2 qutb tomonda foydali quvvat qiymati 1,35 kVt va ushbu quvvatga mos keladigan f.i.k. va cosφ qiymati mos holda 78% va 0,65 ni tashkil etdi, nominal tok 1,35 A, r_2=3 qutb tomonda esa foydali quvvat qiymati 0,75 kVt va ushbu quvvatga mos keladigan f.i.k. va cosφ qiymati mos holda 70% va 0,62 ni tashkil etdi, nominal tok 2,61 A ga teng bo‘ldi. (2-rasm).

1-jadval

DP112B turidagi ikkita alohida chulg‘amli va AIR100S6/8 bitta chulg‘amli asinxron motorlarni energetik ko‘rsatkichlari

2r	P, kVt	I, A		cosφ	M, Nm
DP112A6/8					
6	1.35	4,02	78	0,65	13,3

8	0,75	2,61	70	0,62	10,1
AIR100S6/8					
6	1,25	3,5	78	0,69	9,84
8	1	3,2	72	0,66	17,6



2-rasm. DP112A6/8 turidagi ikkita alohida chulg‘amli ikki tezlikli va AIR100S6/8 bitta chulg‘amli ikki tezlikli asinxron motorlarni energetik ko‘rsatkichlari

Hozirgi kunda elektr motorlarning tezligini rostlashning bir qancha usullari qo’llanilishiga qaramasdan, bir chulg’amli ko’p tezlikli asinxron motorlar hatto eng zamonaviy uskunalarda ham qo’llanilmoqda.

Qutblar soni o‘zgaruvchan chulg‘amli motorning energetik ko‘rsatkichlari xuddi shu o‘lchamdagi ikkita alohida chulg‘amli motorlarni energetik ko‘rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi. Shuning uchun kam sonli chiqishlarga va kommutatsiyalovchi kontaktlarga, sodda ishlab chiqarish va ta’mirlash texnologiyasiga ega bo‘lgan qutblar soni o‘zgaruvchan chulg‘amli asinxron motorlarni ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir.[3]

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan 1-jadval asosida bir chulg'amli qutblari o'zgaruvchan ikki tezlikli asinxron motorlarni energetik ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, sanoat va qishloq xo'jaligining rostlanuvchan yuritmalarida qo'llash orqali elektr energiyasi va tabiiy resurslarni tejash imkonini paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vanurin V.N. Статорные обмотки асинхронных электрических машин: Учебное пособие. - 2-е изд., испр. и доп.- СПб.: Издательство «Лань», 2016. - 224 с.: ил. ISBN 978-5-8114-1769-8

2. Rismuxamedov D.A. Полюсопереключаемые асинхронные двигатели для турбомеханизмов. Diss. kand. tex. nauk. Toshkent, 2006 г.- 153 с

3. Bobojanov M.Q. Электрические машины с полюсопереключаемыми, обмотками, используемые в целях энерго-и-ресурсосбережения. Под редакцией проф.Х.Г.Каримова. «Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi», Toshkent, 2012, 179

UO'T: 621.303.

VODOROD YOQILG'I ENERGIYASIDAN FOYDALANIB ENERGIYA TEJASH

To'rayev Sardor-Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti milliy tadqiqotlar universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti kafedrasi asisstenti.

Amrullayev Behzod-Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti milliy tadqiqotlar universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minotiyo'nalish talabasi.

Sunnatov Shahzod- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti milliy tadqiqotlar universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minotiyo'nalish talabasi.

Tayanch so'zlar: vodorod, quvur, elektroenergiya, kosmik, metan gaz, azotli o'g'it, organik yoqilg'i

Ключевые слова: водород, труба, электричество, пространство, газ метана, азотное удобрение, ископаемое топливо

UDC: 621.303.

ENERGY SAVING USING HYDROGEN FUELILGI

Turaev Sardor - Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management Department of energy supply in agriculture and water economy.
Amrullayev Bekhzod-student of National Research University of Tashkent Institute of irrigation and agricultural engineers Bukhara Institute of Natural Resources Management of energy supply in agriculture and water economy.
Sunatov Shahzad-Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management student of energy supply in agriculture and water economy.

Key words: hydrogen, pipe, electricity, space, methane gas, nitrogen fertilizer, fossil fuel

Vodorod energiyasidan foydalanish energiya tejashning bir usuli bo'lib. Ushbu maqolada vodorod energiyasidan foydalanishning nazariy jihatlari keltirilgan va qo'llaniladigan sohalar, energoya turlari yoritilgan.
Использование водородной энергии является одним из способов экономии энергии. В данной статье представлены теоретические аспекты использования энергии водорода и описаны области применения, виды энергии.
Using hydrogen energy is one way to save energy. This article presents the theoretical aspects of the use of hydrogen energy and describes the scope, types of energy.

Biz ko'rib chiqqan tabiatdagi qaytalanuvchi energiya manbalaridan tashqari energiyaning boshqa turlari ham mavjud. Quyida hozirgi kunda insoniyat tomonidan foydalanish yo'lga qo'yilayotgan vodorod yoqilg'isi va shahar chiqindilaridan energiya olishni qarab chiqamiz.

Ana'naviy-organik yoqilg'i bozorida ozgina krizis boshlanishi bilan neft va gaz mahsulotlarining o'rnini bosadigan boshqa energiya manbalaridan foydalanishga harakat qilinadi. Juda ko'p olimlarning fikricha, zamonaviy energetikaning rivojlanishida uglevodorod yoqilg'ilarinig o'rniga tabiatda juda ko'p tarqalgan ximik element-vodoroddan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Vodorod zahiralari planetamizda bitmas-tuganmasdir. Bundan tashqari bir xil og'irlikda vodorod, benzinga qaraganda 3 marta ko'proq issiqlik ajratadi hamda undan yoqilg'i sifatida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida foydalanish mumkin (transportda, sanoatda, maishiy xizmatda va boshqalarda).

Vodorod yoqilg'isini qo'llash, atrof-muhitni toza saqlashga sharoit yaratadi, chunki vodorod yoqilishi natijasida undan chiqindi sifatida distillangan suvning bug'lari ajarlib chiqadi xolos.Vodorodni tashish va saqlash juda qulaydir. Uzoq masofalarga uni quvurlar orqali uzatish mumkin. Vodorodni quvurlar orqali uzatish, elektroenergiyani ulkan elektr uzatish tarmoqlarida uzatishga nisbatan bir necha barobar arzonroqdir [1, 153].

Olimlar vodorod yoqilg'isini sanoat asosida ishlab chiqishning ko'pgina usullarini topishdi, asosan odatdagi suvdan. Uning juda katta miqdorini er kurrasida zahiralari juda katta bo'lgan toshko'mirdan olish mumkin. Vodrod yoqilg'isini suvda, havoda, hattoki havosi siyraklashgan kosmik kengliklardan olish mumkinligi, bu yoqilg'ini biznes olamidagi dovrug'ini nihoyatda oshirib yubordi,chunki uni ishlab chiqarish uchun deyarli xarajatlar qilinmaydi, foyda to'g'ridan-to'g'ri havodan olinadi. 21-asr boshlarida dunyodagi katta biznes namoyondalari, vodorod energetikasiga qiziqish juda katta ekanligi to'g'risida ochiq-oydin gapira boshlashdi. AQSH. Xitoy, Evropa Ittifoqi mamlakatlari vodorod yoqilg'itsi ishlab chiqarish uchun milliardlab dolllar mablag'larni investitsiya qilishdi. Faqat birgina «FutureGen» vodorod elektrostansiya-sining loyihasi uchun AQSH hukumati 1,2 mlrd. dollar mablag' sarfladi, Xitoy davlati xuddi shunday elektrostansiya uchun bundan ham ko'p mablag' sarfladi. Hozirgi kunda vodorod energetikasini rivojlantirish uchun Sharp, Sanyo, Hitachi, Toyota, Panasonic kompaniyalari juda katta mablag'larni investitsiya qilmoqdalar.

Vodorod energiyasidan foydalanish mumkin bo'lgan usullardan biri, bu ximik elementni vodorod yoqilg'isiga aylanishidir, ya'ni vodorod va

kislorod aralashmasining siqilgan yoki gaz holatidagi ko‘rinishidir. Bu ko‘rinishdagi aralashmaning yonish issiqligi, benzin (tabiiy gaz) va havo aralashmasi issiqligidan yuqoriroqdir. Vodorod yoqilg‘isini ishlab chiqish va undan ommaviy tarzda foydalanish, hozircha uning tannarxi qimmatligi hamda uni tarqatish infrastrukturasini yo‘qligi sababli kechikmoqda. Vodorod yoqilg‘isini ishlab chiqarish, uni olish usuliga bog‘liqdir. Masalan, quyidagi moddalardan ishlab chiqarilgan 1 kg vodorod yoqilg‘isi narxi:

- metan gazidan ishlab chiqarish – 2,5 doll./kilo;
- suvdan elektroliz yo‘li bilan - 2÷10 doll./kilo;
- toshko‘mirga havosiz joyda yuqori temperaturada ishlov berish yo‘li bilan 1,5÷2,0 doll./kilo.

Ma’lumki, vodorod yoqilg‘isi ishlab chiqarish texnologiyasining bu xilda rivojlanishi, uni ana’naviy organik yoqilg‘ilar bilan konkurensiya qila olmasligini bildiradi. Ammo hozirgi texnologiyalar, zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirilishi natijasida vodorod yoqilg‘isini ishlab chiqarish tannarxini pasayishiga olib kelmoqda, ana’naviy yoqig‘i turlari esa kundan-kunga qimmatlashib bormoqda.

Hozirgi kunda dunyodagi juda ko‘p engil avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar vodorod yoqilg‘isi hamda gibrid (benzin+vodorod) yoqilg‘isida harakatga keladigan avtomobillarniishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqda. Nemis olimlarinig hisobiga ko‘ra, 21-asrning o‘rtalarida vodorod yoqilg‘isi bilan ishlaydigan avtomobillar er yuzida 75 % ni tashkil qiladi, qolgan 25 % igina organic yoqilg‘ilardan foydalanadi [154].

Bu sohada AQSHning Daimler va Honda, Xitoyning Shanghai hamda nemislarning VW kompaniyalari etakchi o‘rinlarni egallab kelishmoqda. Masalan, volorod yoqilg‘isi bilan ishlaydigan Honda FCX avtomobilini ko‘rib chiqaylik. To‘liq vodorod yoqilg‘isida ishlaydigan Honda FCX avtomobili, 160 km/soatgacha tezlikni oshira oladi va to‘ldirilgan yoqilg‘i baki bilan 500 km masofani o‘ta oladi. Uning yoqilg‘i bakiga 5 kg siqilgan vodorod yoqilg‘isi joylashadi. Hozirgi kunda 200 dona shunday avtomobillarga ega shaxslar bo‘lib, yana 50 mingdan ortiq avtomobilistlar shu kabi mashinalarga ega bo‘lish istagini bildirishgan. Havo temperaturasi 30^0 ga sovub ketganda ham uni birdan o‘t oldirish mumkin

a

b

1-rasm. Vodorod yoqilg‘isida ishlaydigan Honda FCX engil avtomobili va yoqilg‘i quyish stansiyasi(a)hamda Citaro avtobusi(b)

Honda FCX avtomobilini 3 dona elektrodvigatel harakatga keltiradi. Ulardan biri oldingi g‘ildiraklarni aylantirsa, qolgan 2 dona elektrodvigatel keying g‘ildiraklarga ulangan. Oldingi elektrodvigatelning quvvati 80 kVt/soat quvvatga ega bo‘lsa, keyingi g‘ildiraklarni harakatga keltiruvchi elektrodvigatellarninng quvvati 25 kVt/soatga teng (1a-rasm).

Mercedes-Benz konsernining Mercedes Citaro loyihasi katta shaharlar uchun vodorod yoqilg‘isida ishlaydigan jamoat transportini ishlab chiqarish-dan iboratdir. Hozirgi kunda dunyoda bu kabi avtobuslardan 40 donasi ishlab turibdi. Avtobus elektrodvigatellarinig quvvati 250 kVt/soatga teng bo‘lib, 40 kishidan iborat yo‘lovchilar va ularning yuklari bilan 80 km/soat tezlikda harakat qiladi. Har 100 km masofaga 25 kg vodorod yoqilg‘isi sarflaydi. Avtobusning yoqilg‘i bakiga 42 kg vodorod yoqilg‘isi joylashadi va bu yoqilg‘i bilan avtobus 167 km masofani bosib o‘tadi (1b-rasm).

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha 55÷60 mln tonna vodorod ishlab chiqariladi. Vodorod asosan azotli o‘g‘itlar ishlab chiqarishda, past chastotali xom neftni motor yog‘iga aylantirishda qo‘llaniladi. Siqilgan vodoroddan juda past (minus) temperata olishda hamda kriogen raketa dvigatellari uchun yoqilg‘i sifatida foydalaniladi. Vodorod yoqilg‘isidan ko‘proq foydalanish hamda undan benzin o‘rnida foydalanish to‘g‘risida doimiy ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Majidov T.SH. Noana’naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Toshkent, 2014. – 153

2. Neprorjnыy P.S., Obrezkov V.I. Vvedenie v spetsialnost: gidroelektroenergetika. Moskva, 1990. – 352 s.

3. Potopov V.M. i dr. Ispolzovanie vodnoy energii. Uchebnoe posobie, “Kolos”, Moskva, 1972. -340 s.

UO‘T: 621.313

YOMG’IRLATIB SUG’ORISHDA ELEKTR MOTORLARNI QO’LLASHNING OPTIMAL USULLARIDAN FOYDALANIB ELEKTR ENERGIYASI VA RESURSLARNI TEJASH

Bobojanov Maqsud Qalandarovich – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Elektr taminoti” kafedrasi prof., t.f.d. – tel:+998909686853

To’rayev Sardor Do’stmurodovich – TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash fakulteti “Qishloq va suv xo’jaligida energiya ta’minoti” kafedrasi assistenti. – tel:+998934780399

Askarov Laziz Alisher o’g’li – TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash fakulteti “Qishloq va suv xo’jaligida energiya ta’minoti” yo’nalishi 2/1- guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yomg’irlatib sug’orish texnologiyalarga qutblari o’zgaruvchan ko’p tezlikli elektr motorlarni qo’llashning afzalliklari va tejamkorligi, qutblari o’zgaruvchan elektr motorlarni boshq elektr motorlardan farqi va qulayliklari to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Qutb, yuritma, asinxron, juft qutb, chulg’am, sxema, tabiiy resurs, tezlikni rostlash, ko’p chulg’amli, bir chulg’amli.

UDC: 621.313

SAVING ELECTRICITY AND RESOURCES USING OPTIMAL METHODS OF APPLYING ELECTRIC MOTORS IN SPRINKLER IRRIGATION

Bobojanov Maksud Kalandarovich-Tashkent State Technical University named after Islam Karimov Department of "electrical supply" prof., t.f.d. – tel:+998909686853

To’rayev Sardor Do’stmurodovich - *Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers National Research University Bukhara Institute of*

Natural Resources Management Department of energy supply in agriculture and water economy.
Amrullayev Bekhzod-student of National Research University of Tashkent Institute of irrigation and agricultural engineers Bukhara Institute of Natural Resources Management of energy supply in agriculture and water economy.

Annotation: This article provides information on the advantages and savings of using multi- speed electric motors with variable polarity in sprinkler technology, the difference and convenience of alternating electric motors with other electric motors.

Key words: Pole, drive, asynchronous,dual pole, coil, circuit, natural resource, speed adjustment, multi-coil, single-coil.

Turli mamlakatlarning hududlarida qurg'oqchilik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishi sug'oriladigan maydonlarni kengaytirish bilan ham, ekinlar hosildorligini oshirish bilan ham bog'liq. Shu bilan birga, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va suv tanqisligi sharoitida sug'orish usullarining ekologik xavfsizligiga bo'lgan talablarning ortib borishi ekinlarni yetishtirishda ularning o'sishi va rivojlanishi uchun barcha muhim shartlarning bajarilishini ta'minlaydigan resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish zarurligini oldindan belgilab beradi. Bunday ishlanmalar o'simliklarni kichik hajmlarda va ma'lum bir tekislik bilan suv bilan ta'minlashning impulsli printsipi bilan sug'orishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, hozirgi bosqichda tomchilatib yondashuv va impulsli sepishni sug'orishning progressiv usullari deb hisoblash mumkin. Bunday usullar ekinlarni iste'mol qilish me'yorlariga muvofiq suv bilan uzluksiz ta'minlashga qaratilgan.

Buxoro viloyati iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi (paxtachilik, g'allachilik, mevachilik, polizchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, chorvachilik) tashkil etadi. Viloyat dehqonchiligida sug'oriladigan yerlar (tomorqa yerlar bilan birga) 273,7 ming ga, partov yerlar 14,2 ming ga, cho'l yaylovlari 2764, 6 ming ga, Paxta 129 ming ga, makkajo'xori 857 ga,

donli ekinlar 81,2 ming ga, sholi 200 ga, pomidor 2741 ga, sabzavot-poliz ekinlari 9,3 ming ga, lavlagi 116 ga, kartoshka 2967 ga, yemxashak ekinlari 15,9 ming ga, shu jumladan beda 7,1 ming ga, bog'lar 18,2 ming ga, tutzorlar 5,9 ming gektar maydonni tashkil etadi. Shundan birgina cho'l zonasini oladiga bo'lsak 1000 gektarga yaqin maydonlarni sug'orish ishlarini amalga oshirish bir qancha muamolarni keltirib chiqaradi. Bunga katta quvvatli nasos qurilmasi, transformatorlar,elektr uzatish liniyalari va boshqa bir qancha muamolar yuzaga keladi. Bu masalani hal qilishda yomg'irlatib sug'orish texnologiyalaridan foydalanish elektr energiyasi va suv resurslarini tejashgaga olib keladi.

Buxoro viloyatining ekiladigan yer maydonlarini bostirib sug'orishni hisobiga elektr energiyasi va suv resurslarini isrof bo'lishini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida elektr energiyasi va suv tejamkor texnologiyalardan foydalanishni taqozzo etadi. Yomg'irlatib sug'orish texnologiyalarini ishlab chiqarishni mahaliylashtirish va elektr motorlarni boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiy jihatdan tejamkorlikka erishish mumkin.

Elektr yuritmalar turli xil rejimlarda ishlaydi bu esa o'z navbatida tezligi rostlanuvchan elektr motorlarni qo'llashni taqqozo etadi. Asinxron motorlarning tezligini rostlashning usullariga, sirpanish, tarmoq chastotasi va juft qutblar sonini o'zgartirish orqali tezlikni rostlash kiradi. Qutblari o'zgaruvchan asinxron motorlar sanoat va qishloq xo'jaligining ba'zi bir sohalarida qo'llanilib kelinmoqda. Bunga misol yuklarni ko'tarib tushirish, lift, nasos stansiyalari, kon metallurgiya kombinatlari va shamollatish tizimida va boshqa texnologik jarayonlarni amalga oshirishda qo'llanilib kelinmoqda.

Elektr yuritmalarda qo'llanilib kelinayotgan asinxron motorlarni ishlab turgan holatida tezligini rostlash ancha qimmat va murakkab jarayon hisoblanadi. Bu muamoni bartaraf etish maqsadida qutblari o'zgaruvchan chulg'amli ko'p tezlikli asinxron motorlarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Asinxron motorlarning juft qutblar sonini o'zgartirishning ikki xil usuli mavjud bo'lib. Birinchi usulda stator pazlariga ikki xil qutbga ega

bo’lgan alohida alohida chulg’am joylashtiriladi, ikkinchi usulda esa bir chulg’amli qutblari o’zgaruvchan chulg’am joylashtiriladi.

Ko’p tezlikli qutblari o’zgaruvchan asinxron motorlar bilan tezlikni rostlash usuli eng sodda va nisbatan arzon usuldir. Bundan tashqari, kuchsiz tarmoqli motorlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga tushirish natijasida kuchlanish 30% dan ortiq pasayishiga olib keladi. Bunda, birinchi navbatda, elektr yuritma tomonidan ishlab chiqilgan moment kamayadi, ikkinchidan, kuchlanishning pasayishini qayd etadigan elektron va mikroprotsessor qurilmalar elektr yuritmani tarmoqdan uzib qo‘yadi. Ikki tezlikli asinxron motor orqali ishlaydigan elektr yuritmalardan foydalanish quvvati katta bo‘lgan motorlarni pog‘onali ishga tushirish jarayonini osonlashtiradi.

Bir xil quvvatli bir chulg’amli va ko’p chulg’amli qutblari o’zgaruvchan asinxron motorlarni taqqoslaydigan bo’lsak, ko’p chulg’amli sxemalarda bir chulg’amli qutblari o’zgaruvchan sxemalarga nisbatan 40-50% ga mis chulg’am va 30-40% ga elektrotexnik po’lat ko’proq sarflanishini ko’rish mumkin. Bu esa elektr motorning F.I.K va $\cos\varphi$ ni pasayishiga olib keladi.

Ko’p tezlikli elektr motorlardan foydalanishning asosiy talablari quyidagilar.

- Eng kichik aylanish tezlikdan yuqori darajada foydalanish uchun quvvati bir tezlikli elektr motorlarning quvvatidan kamroq farq qilishi kerak, o’lchamlari bir biriga yaqin bo’lishi kerak,
- Har bir aylanish tezlikda optimal elektr va mexanik xarakteristikalarga ega bo’lishi kerak,
- Qutblari o’zgaruvchan chulg’am tuzilish jihatidan sodda va mumkin bo’lgan eng kichik o’lchamlarga ega bo’lishi kerak,
- Qutblari o’zgaruvchan chulg’amlar ekspluatatsiya talablariga javob berishi kerak.

Rostlanuvchan elektr yuritmalarda qutblari o’zgaruvchan asinxron motorlar keng foydalanish muhim rol o’ynaydi. Ko’p tezlikli asinxron motorlar rostlanuvchan elektr yuritmalarda qo’llash quyidagi qulayliklarga ega.

- Elektr yuritmani ishlab turgan holatida to’xtatmasdan tezligini rostlash,

- Samaradorlikni oshirish, xizmat ko'rsatish qulay, to'g'ri ekspuluatatsiya qilish,
- Ishga tushirish, reverslash, tormozlash va tarmoqdan ajratish avtomatik boshqarish jarayonlarini soddalashtirish,
- Elektr energiyasi va tabiiy resurslarni tejash va boshqa bir qancha qator qulayliklarni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, qutblari o'zgaruvchan asinxron motorlar yomg'irlatib sug'orish texnologiyalariga qo'llash elektr energiyasi va tabiiy resurslarni 10-15 % ga tejashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Vanurin Статорные обмотки асинхронных электрических машин: Учебное пособие. - 2-е изд., испр. и доп.- СПб.: Издательство «Лань», 2016. - 224 с.: ил. ISBN 978-5-8114-1769-8

2. D.A.Rismuxamedov Полюсопереключаемые асинхронные двигатели для турбомеханизмов. Diss. kand. tex. nauk. Toshkent, 2006 г.- 153 с

3. M.Q.Bobojanov. Электрические машины с полюсопереключаемыми, обмотками, используемые в целях энерго-и-ресурсосбережения. Под редакцией проф.Х.Г.Каримова. «Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi», Toshkent, 2012, 179

UO'T: 621.313

STATORDAGI OQIM ILASHUVI DOIMIY BO'LGAN HOLATDAGI VENTIL MOTORLI ELEKTR YURITMANING TEZLIK BO'YICHA YOPIQ ROSTLASH TIZIMI.

Achilov Xusen Djabarovich-«Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti» kafedrasi assistenti

Amrullayev Behzod Bobir o'g'li-Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti kafedrasi

3–kurs talabasi

Asrorov Shoxboz Oybek o'g'li-Kuchkarov Xusan Amanulla o'g'li

Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti kafedrasi 2–kurs talabalari

Annatatsiya. Ventilli dvigatellar asosidagi elektr yuritmalarni boshqarish tizimi modelining matematik ifodalash masalasiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Invertor, elektr yuritma, rotor holatining datchigi, dvigatel, kalit, vektor, stator, magnit oqimi.

UDC: 621.313

CLOSED ADJUSTMENT SYSTEM FOR THE SPEED OF THE ELECTRIC CIRCUIT WITH A VENTIL MOTOR IN A STATE WHERE THE FLOW IN THE STATOR IS CONSTANT.

Achilov Husen Djabarovich-Assistant of the department" energy supply in agriculture and water economy"

Amrullayev Behzod is the son of Bobir-Department of energy supply in agriculture and water economy 3-course student

Son of Asrorov Shakhbaz Oybek-Son of Kuchkarov Husan Amanulla Department of energy supply in agriculture and water economy 2-course students

Annotation. Focuses on the mathematical representation of the model of electric drive control system based on valve motors.

Keywords: Inverter, electric drive, rotor position sensor, motor, switch, vector, stator, magnetic flux.

Аннотация. Основное внимание уделено математическому представлению модели системы управления электроприводом на основе вентильных двигателей.

Ключевые слова: Инвертор, электропривод, датчик положения ротора, двигатель, переключатель, вектор, статор, магнитный поток.

O‘z-o‘zini boshqaradigan sinxron dvigatelning ishlash prinsipini statorga qo‘yilgan tokning shakli to‘g‘ri burchak bo‘lgan kontaksiz o‘zgarmas tok dvigatelli elektr yuritma misolida ko‘rib chiqish qulayroq bo‘ladi.

Elektr yuritma tuzulmasini 1a rasmdagidek tasvirlash mumkin. Soddalashtirish uchun valdagi yuklama mavjud emas deb hamda stator cho‘lg‘amidagi juft qutblar soni birga teng deb qabul qilingan, bu esa fizik va elektrik fazolarini ajratmaslik imkonini beradi. Statorning *A, B, C* faza cho‘lg‘amlari avtonom tok invertordan (ATI) dan ta’minot oladi va bu ATI 4.10-rasmda tasvirlangan boshqaruvchi kalitlar (1-6) yordamida ishlovchi avtonom tok invertoridan farqli ravishda rotor holatining datchigi (RHD) yordamida boshqariladi. Ko‘rilayotgan hol uchun (1a rasmga q.) rotor

datchigi dvigatel valiga o‘rnatilgan va u bilan birga aylanuvchi segment shaklida ishlangan. Datchikning qo‘zg‘almas qismida 1-6 raqamlar bilan belgilangan oltita sezgir element, hamda invertor kalitlari joylashgan. Agar qachonki segment biror bir sezuvchi elementni yopsa, ushbu element aktivlashadi va invertorni boshqarish tizimi (IBT) orqali invertorning mos kalitiga ta’sir qilib kalitni ulaydi va sezuvchi element segment ostidan ochilguncha ushlab turadi. Vaqtning ixtiyoriy momentida 1-3-5 guruhidan bir kalit va 2-4-6 guruhidan bir kalit ulangan bo‘ladi va I_{1d} tok dvigatel statorining ikki cho‘lg‘ami orqali oqib o‘tadi. Agar ma’lum bir ideal holat mavjud deb qabul qilib, RHD aktiv elementlarining ulanishi yopuvchi sigmentsiz amalga oshsa, ya’ni ixtiyoriy vaqt momentida invertorning ikkita kaliti ulanadigan bo‘lsa, unda kalitlarning ulangan holatlarini va faza toklarini 1,*b* rasmda ko‘rsatilganidek grafiklar orqali tasvirlash mumkin.

$\omega t = \omega t_0$ bo‘lgan holda rotor 1a rasmda tasvirlangandek holatga ega bo‘ladi. Bunga mos ravishda invertorning 1- va 6- kalitlari ulangan holatda bo‘ladi. Rotor magnit oqimining vektori *F* hamda rotor bilan bog‘langan aylanuvchan *d-q* koordinata tizimining *d* bo‘ylanma o‘qi esa gorizontal yo‘nalgan bo‘ladi. Agar *x-y* qo‘zg‘almas koordinata tizimiga nisbatan rotorning burilish burchagini θ_s deb belgilasak, unda bu holat uchun $\theta_s = 0$ qiymat mos keladi.



а

б

1-rasm. Kontaksiz o‘zgarmas tok dvigateli:
a-dvigatel tizimi; *b*-invertor kalitlarining ulanish algaritmi va faza toklarining shakli

2-rasmda uch xil vaqt momentida stator faza cho‘lg‘amlarining $\tilde{F}_{1A}, \tilde{F}_{1B}, \tilde{F}_{1C}$ magnitlovchi kuchlari fazoviy vektorlarining o‘zaro joylashgan holatlari tasvirlangan. Vaqtning har bir momentida I_{1d} tok ularning ikkitasi orqali o‘tadi. Rasmda shuningdek natijaviy magnitlovchi kuch vektori $\tilde{F}_1$ va rotor magnit oqimi $\tilde{F}$ ham ko‘rsatilgan. Natijaviy magnitlovchi kuch vektori cho‘lg‘amlar uchlarining boshi va oxiriga nisbatan tokning

yo‘nalishini hisobga olgan holda ikki faza magnitlovchi kuchlarning geometrik yig‘indisi ko‘rinishida aniqlangan. CHo‘lg‘amlarning bosh uchlari * bilan belgilangan.



2-rasm. Kontaksiz o‘zgarmas tok dvigatelidagi magnitlovchi kuchlar fazoviy vektorlarining holatlari: *a*- $t=t_1$ bo‘lganda; *b*- $t=t_2$ bo‘lganda; *v*- $t=t_3$ bo‘lganda;

Dvigatel t_0 vaqt momentidan keyingi t_1 vaqt momentida soat millariga qarrama-qarshi yo‘nalishda aylanganda (1a rasmga q.), invertorning uzilgan 6-kaliti o‘rniga 2-kaliti ulanadi. Bunda tok *A* faza cho‘lg‘amining bosh uchidan oxirgi uchu tomon va *C* faza cho‘lg‘amining oxirgi uchidan boshi uchi tomon yo‘nalishida oqib o‘tadi. Bu esa $\tilde{F}_{1A}$, $\tilde{F}_{1C}$ vektorlarning va natijaviy $\tilde{F}_1$ vektorning holatlarini aniqlaydi (2,a rasmga qarang). Rotor va mos ravishda u bilan bog‘liq bo‘lgan $\tilde{F}$ magnit oqimi vektori hali 1a rasmga ko‘rsatilgandek holatda turadi. Dvigatelning elektromagnit momenti

$$M_d = \frac{3}{2} p_n \left|\tilde{F}_1\right| \left|\tilde{F}\right| \sin\theta,$$

bu erda $\left|\tilde{F}_1\right|, \left|\tilde{F}\right|$- mos ravishda magnitlovchi kuch va rotor magnit oqimining moluli; θ- vektorlar orasidagi burchak, ko‘rilayotgan hozirgi vaqt momentida bu qiymat $2\pi/3$ rad.ga teng.

Elektromagnit moment ta’siri natijasida dvigatel rotori soat millariga qarama-qarshi yo‘nalishda buriladi va burchak θ kamayadi. Agar qachonki bu burchak $\pi/2$ qiymatgacha kamaysa dvigatel momentining qiymati maksumumga erishadi, θ burchakning keyingi kamayishida dvigatel momentining qiymati kamayishni boshlaydi. Qachonki $\omega t = \omega t_2$ bo‘lsa θ burchak $\theta_s = \pi/3$ rad. teng bo‘ladi (2,b rasmga q.), dvigatel momentining qiymati $\omega t = \omega t_1$ bo‘lgan holatdagi qiymatgacha kamayadi. Agar invertor

kalitlarining holatlari o‘zgarmay turganda edi, unda rotorning burilishi $\tilde{F}_1$va $\tilde{F}$ fazoviy vektorlar bir-biriga mos tushgunga qadar davom etar edi. Lekin $\theta_s = \pi/3$ rad. bo‘lganda 1-kalit uziladi va 3-kalit ulanadi va bu $\omega t = \omega t_3$ ga mos keladi (1-rasmga q.). Natijada $\tilde{F}_1$ vektor $\pi/3$ rad.ga sakrab buriladi (2,v rasmga q). Bu holatda vektorlarning o‘zaro joylashuvi xuddi 2,a rasmga tasvirlangandek bo‘ladi, lekin rotorning holati boshlang‘ich holatga nisbatan $\pi/3$ rad.ga farq qiladi. Bayon qilingan jarayon davom edati va dvigatel aylanadi.

Dvigatel momenti va tezligi pulsatsiyalanuvchi xarakterga ega. Dvigatel momentining berilgan pulsatsiya darajasidagi tezligining pulsatsiya darajasi elektr yuritmaning inersiya momentiga bog‘liq va inersiya momenti qanchalik kichik bo‘lsa tezliklikning pulsatsiya darajasi shunchalik kuchayib boradi.

Avtonom tok invertori bilan ishlovchi asinxron dvigatelli elektr yuritmaga o‘xshash ravishda bayon qilingan ushbu dvigatelli elektr yuritmalarda tezlikni rostlashning yopiq konturi mavjud bo‘lishi kerak. U holda tezlikning o‘zgarishi masalan, beriluvchi signal tezligining oshishi I_d tok qiymatini va F_1magnitlovchi kuchning oshishiga olib keladi. Dvigatel momenti oshadi va u tezlikning oshishiga olib keladi. Agar bu holda yuklama momenti o‘zgarmas tursa, o‘tkinchi jarayon oxirida I_d tok va mos ravishda dvigatel momenti oldingi qiymatga qaytadi.

Moment pulsatsiyasining mavjudligi va shu bilan bog‘liq bo‘lgan dvigatelning notekis aylanishi qarab chiqilgan elektr yuritmaning asosiy kamchiliklardan biri hisoblanadi. Stator cho‘lg‘amlariga berilayotgan tok shaklini sunusoidal bo‘lishi ushbu kamchilikni bartaraf qilishi mumkin. Bu tokning chastotasini rotor holatining datchigi orqali aniqlanishi kerak.

Zamonaviy ventilli dvigatellar, rotoriga o‘rnatilgan o‘zgarmas magnitdan qo‘zg‘aluvchi sinxron motorlar asosida ishlab chiqariladi. O‘zgarmas magnitli dvigatellarning asosiy afzalligi-cho‘tka kontaktlarining mavjud bo‘lmasligi bilan bir qatorda o‘zgarmas magnitlarning qo‘llanishi bir qator ijobiy sifatlarni paydo bo‘lishiga olib keladi. Ular: rotor inersiya momentining kichikligi; sovutish tizimining soddaligi (chunki rotorda yuklama toki bilan qiziydigan cho‘lg‘amning bo‘lmaydi); qo‘zg‘atishda isrofning mavjud bo‘lmasligi sababidan FIK ning yuqoriligi. Yuqori statik aniqligi va tezlikni keng diapazonda rostlash imkoniyatining mavjudligi bilan bir qator ushbu sifatlar asinxron dvigatelga nisbatan tan narxining

balandligiga qaramay ventilli dvigatellarni elektr yuritmalarda qo‘llanilishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Вешеневский С.Н.* Характеристики двигателей в электроприводе / С.Н. Вешеневский.- М.: Энергия, 1966.- 400 с.
2. *Шрейнер Р.Т.* Математическое моделирование электроприводов переменного тока с полупроводниковыми преобразователями частоты / Р.Т. Шрейнер. – Екатеринбург : УРО РАН, 2000. – 654 с.
3. *Бычков М.Г.* Элементы теории вентильно-индуктивного привода // Электричество.-1997.-№8.-С.35-44.

3. Toychiev, H. J. Achilov,H. N. Mamadiev,Zh. B. Razhabov Vol. 1 No. 6 (2021): Journal of Ethics and Diversity in International Communication "Energy Saving with Two-Speed Motors in Pumping Stations" F. N. //http://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/751/715

4. K.Bobozhanov, F.N.Tuychiev, H.J.Achilov, KH. N. Mamadiyev,J.B Rajabov. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES "MODELLING OF INDUCTION MOTOR WITH ANSYS MAXWELL RMXPRT PROGRAMMM" . https://www.gejournal.net/index.php/IJRCIESS/article/view/173/146

5. Achilov Xusen Djaborovich,Mamadiyev Xumoyun Norqul o’g’li,Rajabov Jamoliddin Bahtiyor o’g’li Eurasian Journal of Academic Research, "Boshqariluvchan to‘g‘rilagichli chastota o‘zgartirgichlar" //https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/115

6. Achilov Xusen Djabarovich, Asrorov Shoxboz Oybek o’g’li, Ergashev Jo’rabek G’ofurovich. Development issues of innovative economy in the agricultural sector "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta’minlash muammolari" https://www.researchgate.net/profile/Ulugbek-Yazdonov-2/publication/352282263_Iqtisodiyotda_raqamli_texnologiyalarni_joriy_etish_va_jamoatchilik_nazoratini_o'rnatish_zarurati/links/60c1acb04585157774c25bea/Iqtisodiyotda-raqamli-texnologiyalarni-joriy-etish-va-jamoatchilik-nazoratini-ornatish-zarurati.pdf#pag

UO‘T: 621.313

ASINXRON MOTORLAR AYLANISH TEZLIGINI ROSTLASH USULLARINING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI

Achilov Xusen Djabarovich-«Qishloq va suv xo’jaligida energiya ta’minoti» kafedrasi assistenti

Bobojanov Maxsud Qalandarovich –t.f.d., professor,ToshDTU, «Elektr ta’minoti» kafedrasi

Amrullayev Behzod Bobir o’g’li- Qishloq va suv xo’jaligida energiya ta’minoti kafedrasi

3–kurs talabasi

Asrorov Shoxboz Oybek o‘g‘li-Ergashov Jo‘rabek G‘ofurovich

Qishloq va suv xo’jaligida energiya ta’minoti kafedrasi 2–kurs talabalari

Annatatsiya. Ushbu maqolada asinxron motorlarni tezligini rostlash usullari, ularning yutuq va kamchiliklari tahlil qilingan. Asinxron motorlarni aylanish tezligini rostlash orqali nasos qurilmalarining ishonchliligini, elektr jihozlarini ishlash saradorligini oshirish to’g’risida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Stator, aylanish tezligi, rotor, avtotransformator, qutb, chastota cho’tkalar va kontaktli halqa.

UDC: 621.313

ACHIEVEMENTS AND DISADVANTAGES OF METHODS OF ADJUSTING THE SPEED OF ROTATION OF ASYNCHRONOUS MOTORS

Achilov Husen Djabarovich-Assistant of the department” energy supply in agriculture and water economy”

Bobojanov Makhsud Kalandarovich-t.f.d., professor,ToshDTU, Department of” power supply”

Amrullayev Behzod is the son of Bobir-Department of energy supply in agriculture and water economy 3-course student

Son of Asrorov Shakhbaz Oybek-G Suite-Gmail, Docs, Drive, Calendar And More For

Department of energy supply in agriculture and water economy2-course students

Annotation. This article analyzes the methods of adjusting the speed of asynchronous motors, their advantages and disadvantages. There is information on increasing the reliability of pumping equipment and the efficiency of electrical equipment by adjusting the speed of asynchronous motors.

Keywords: Stator, rotational speed, rotor, autotransformer, pole, frequency brushes and contact ring.

Hozirgi kunda Respublikamizning qishloq xo'jaligi tizimidagi ekin maydonlariga suv yetkazib berish uchun 1623 dan ortiq stastionar nasos stanstiyalari xizmat qilmoqda. Nasos stanstiyalarda o'rnatilgan jihozlar yirik energiya iste'molchilari hisoblanadi va energiya ta'minoti to'xtovsiz bo'lishini talab qiladi. Masalan, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tizimidagi nasos stanstiyalar uchun Respublikadagi barcha iste'molchilarga beriladigan elektr energiyasining 12…15 % i har yili ajratilmoqda.

Elektr energiyasi xarajatlari (ko'p hollarda bu xarajatlar yalpi ekspluatatsiya xarajatlarining 70...85% ini tashkil etadi) shubxasiz haydab berilayotgan suv tannarxini oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 5 iyundagi "2014 — 2018 yillar davrida O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi suv xo'jaligi tashkilotlarining nasos – kuch asbob – uskunalarini bosqichma – bosqich yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 158 – sonli qarorida hozirgi paytda suv xo'jaligi tashkilotlari nasos stanstiyalarining 81% elektro-dvigatellarining eskirganligi, ularni elektr energiyasini tejaydigan zamonaviy turlariga almashtirish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu qarorda nasos stanstiyalarining eskirgan elektr dvigatellari tomonidan elektr energiyasining ortiqcha iste'moli zamonaviy energiyani tejaydigan asbob-uskunaga almashtirish natijasida 10...15 % gacha elektr energiyasi va tabiiy resurslarni tejashga olib keladi.

Ekin maydonlarni sug'orish va aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash jarayonida, elektr yuritmalarni turli xil ish rejimlarda ishlash zarurati paydo bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida sohada zamonaviy va tezligi rostlanuvchan elektr motorlarni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Asinxron motorlarning tezligini rostlashning bir nechta usullari mavjud bo'ib ularga quyidagilar kiradi.

1) Fazali rotorli asinxron motorlarning rotor zanjiriga aktiv qarshilik kiritish orqali amalga oshiriladi.
2) Ta’minlash manbai kuchlanishini o’zgartirish orqali sinxron motor tezligini rostlash
3) Aylanish tezligini impulsini rostlash.Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, kerakli qiymatdagi tezlikni olish uchun davriy ravishda ma’lum oraliqda
4) Stator chulg’am qutblari sonini o’zgartirish orqali tezlikni rostlash

Bizning tahlillar shuni ko’rsatadiki ko’p tezlikli rotori qisqa tutashgan asinxron motorlarni yuqorida aytib o’tilgan sohalarda qo’llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Respublikamizning qishloq va suv xo’jaligi barcha tarmoqlarida qo’llanilib kelayotgan yuritmalar

Fazali rotorli motorining zanjiriga aktiv qarshilik kiritish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu usul quyidagi kamchiliklarga ega:

1) Mexanik xarasteristikasi o’zgarib, uning qattiqligi pasayadi, natijada elektr motor ishlash vaqtida barqarorlikni yo’qotishi mumkin;
2) Aylanish tezligini rostlash diapazoni elektr motorning yuklanish koeffisientiga bog’liq, yuklama ortib borgan sari diapazon torayadi;
3) Elektr motor aylanish tezligini rostlashda bir vaqtning o’zida uchchala qarshilikni o’zgartirish kerak;
4) Cho’tkalar va kontaktli halqalarga ega bo’lgan faza rotorli elektr motor ishlatilganda, elektr motordan foydalanish xarajatlari oshadi va elektr yuritma sxemasi murakkablashadi;
5) Aktiv elementlardan foydalanish qo’shimcha energiya sarfiga (qizish orqali)olib keladi;
6) Aylanish tezligining pasayishi elektr motorning ruxsat etilgan momentini pasaytiradi, bu esa elektr motor quvvatini oshishiga olib keladi;
7) Aylanish tezligi katta diapazonda faqat sinxron tezlikdan pastga, ya’ni kamayish tomoniga o’zgaradi.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, rostlashning ushbu usuli nasos stansiyalarida mexanizmlar tezligini boshqarishda kam qo’llaniladi.

Kirish kuchlanish simmetriyasini buzgan holda aylanish tezlikni boshqarish.

Ushbu usulda ta’minot manbasi kuchlanishini o’zgartirish uchun fazalardan biriga bir fazali rostlovchi avtotransformator (AT) kiritiladi. AT chiqish kuchlanishini pasayishi bilan nosimmetriya ortadi va natijada rotor tezligi pasayadi.

Elektr motor aylanish tezligini rostlashning ushbu usulining kamchiliklari rostlash doirasini juda kichik ekanligi va nosimmetriya ortishi bilan elektr motorning samaradorligi pasaayishi hisoblanadi. Ko’p hollarda, aylanish tezligini rostlashning ushbu usuli orqali kichik quvvatli elektr motorlar aylanish tezligini rostlashda qo’llaniladi.

Aylanish tezligini impulsini rostlash.Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki,kerakli qiymatdagi tezlikni olish uchun davriy ravishda ma’lum oraliqda

Chastota bilan motor tarmoqdan o’chiriladi yoki uning cho’lg’am ulanish sxemasi o’zgaradi. Elektr motor aylanish tezligini o’zgartirishining ushbu usulini afzalligi, nisbatan arzonligi va sxemani soddaligi hisoblanadi.

Ushbu usulning kamchiliklari:

1) Ishlash vaqtida elektr motor ortiqcha qiziydi;
2) Aylanish tezlikni rostlash diapazoni juda kichik, bu esa kerakli rostlash oralig’ini olishga imkon bermaydi:
3) Yuklama turlicha xarakterga ega bo’lganligiga sababli, elektr motorning aylanish tezligini sifatli o’zgartirish imkoni bo’lmaydi.

Keltirilga kamchiliklar ushbu usulini yuk ko’tarish mexanizimlar elektr yuritmasida qo’llanishiga yo’l bermaydi.

Ta’minot manbasi kuchlanishi chastotasini o’zgartirish orqali tezlikni rostlash.

Asinxron motor tezligini rostlashning ushbu usuli chostotasini rostlovchi quvvat manbai talab qilinadi. Bunday manbalar sifatida elektr mashinali va yarimo’tkazgichli chastota o’zgartirgichlari qo’llanishi munkin.

Chastota o’zgarishi bilan bir vaqta, mexanik harakteristikaning yuqori qattiqlikgini va talab etilgan qiymatini ham ma’lum bir qonunga muvofiq rostlash kerak. Hozirgi vaqtda ushbu usul keng tarqalgan bo’lib, u orqali asinxron motor tezligini bir maromda keng diapazonda rostlash munkin.

Shu bilan birga asinxron motor tezligini rostlashning usbu usuli quyidagi kamchiliklarga ega:

- Motor iste’mol qilayotgan to’la quvvat chastota o’zgartkich orqali o’tishi bilan, qo’shimcha quvvat isrofi yuzaga keladi;

- Chastota o’zgartgichlar nochiziqlik yuklama hisoblanib, elektr tarmog’iga yuqori garmonikalarni generasiya qiladi, shu sababli elektr energiyasi sifatini yomonlashuviga olib keladi
- Moment pul’sasiyalanuvchi xarakterfga ega bo’lib, elektr yuritma ishlaganda yuqori darajada tebranish, shovqin va qo’shimcha quvvat isroflarini keltirib chiqaradi;
- Chastota o’zgartgichlarning tuzilishini murakkabligi, ularga xizmat ko’rsatish hodimlarning yuqori malakasini talab qiladi, hamda rekuperativ tormozlash rejimi sxemalarda amalga oshirishning qiyinchiligidir.

Stator chulg’am qutblari sonini o’zgartirish orqali tezlikni rostlash

Qutblar soni p ni o’zgartirish orqali tezlikni rostlash faqat qisqa tutashgan rotorli motorlarda amalga oshiriladi, chunki bunda faqat stator chulg’am uchun p ni o’zgartirish talab etiladi. Tezlikni rostlashning ushbu usuli tezlikni pog’onali rostlashga imkon beradi. Shunday qilib, f=50gs va juft qutblar soni 1 dan 5 gacha bo’lganda quyidagi sinxron aylanish tezliklarni olish mumkin: 3000, 1500, 1000, 750, 600 ayl/min.

Juft qutblar soni p o’zgartirishning ikkita usuli mavjud

1) umumiy paz ichida joylashgan va turlicha juft qutblar soni p ga ega bo’lgan statorda bir nechta chulg’amlarni qo’llanilishi orqali;
2) chulg’am ulanish sxemasini o’zgartirish (qo’shib-uzish) orqali turli xil qiymatdagi p ni olish imkonini beradigan msaxsus turdagi chulg’amni qo’llanilishi orqali.

Statorga turli xil qutblarga ega ikkita alohida chulg’am joylashtirish orqali yoki g’altak guruhlarini qo’shib-ulab turli sondagi qutblarni olish mumkin bo’lgan maxsus konstruksiyali bitta chulg’amni joylashtirish orqali stator chulg’amidagi qutblar sonini o’zgarishi mumkin. Ikkinchi usul eng keng qo’llaniladi.

To’rt qutbli chulg’amni ikki qutbli chulg’amga (bir faza uchun) o’zgartirish prinsipi ko’rsatilgan: ikkita g’altak to’g’ri ketma-ketlik bilan ulanganda ular tomonidan qo’zg’atilgan magnit maydon to’rt qutbni (teskari ketma-ketlik bilan (yoki parallel ulanganda – ikkita qutbni xosil qiladi. Shunday qilib, qutblari o’zgaruvchan chulg’amni yaratish prinsipi chulg’amning har bir fazasini qisimlarga (chulg’am guruhlariga) ajratib, ulanish sxemasini o’zgartirib turli xil qutblarni olishga asoslanadi.

Ko’p tezlikni motorlar aylanish tezlikini pog’onali rostlashga imkon beradigan elektr yuritmalarida keng qo’llaniladi (liftlar yuritmasi, dastgohlar, ventilyatorlar va boshqalar). Rostlashning ushbu usulini

avzalligi bitta tezlikdan ikkinchi tezlikka o'tish vaqtida yuqori energetik ko'rsatkichlarni saqlanib qolinishiga imkom beradi, chunki stator chulg'amini barcha pog'onalarida motorni FIK va quvvat koefisenti deyarli o'zgarmay qoladi.

Adabiyotlar

1. D.Rismuxamedov, F.Tuychiev, S.Rismuxamedov. Pole-changing windings for turbomechanism engines. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, Volume 883, Issue 1, pp. 012140 (2020), DOI: 10.1088/1757-899X/883/1/012140

2. Bobojanov M.K., Rismukhamedov D.A., Tuychiev F.N., Shamsutdinov H.F. and Magdiev H.G. Construction and analysis of the pole-changing windings for the pole pairs ratio 5/6 by method discretely specified spatial function. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 11s, (2020), pp. 1410-1415.

3. Toychiev, H. J. Achilov,H. N. Mamadiev,Zh. B. Razhabov Vol. 1 No. 6 (2021): Journal of Ethics and Diversity in International Communication "Energy Saving with Two-Speed Motors in Pumping Stations" F. N. //http://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/751/715

4. K.Bobozhanov, F.N.Tuychiev, H.J.Achilov, KH. N. Mamadiyev,J.B Rajabov. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES "MODELLING OF INDUCTION MOTOR WITH ANSYS MAXWELL RMXPRT PROGRAMMM" . https://www.gejournal.net/index.php/IJRCIESS/article/view/173/146

UO'T: 621.323

QISHLOQ XO'JALIGIDA QO'LLANILAYOTGAN YEM MAYDALASH QURILMALARINING ASINXRON MOTORIDA ENERGIYA TEJASH YO'LLARI.

Panoyev A.T.- Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti" kafedrasi mudiri Тел.: (+99894) 542-73-74,E-mailpanoev -abdullo@mail.ru.

Amrulloyeb B.B.- "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti"yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Maqolada asinxron elektr motorlarining tezligini chastotali usulda boshqarib energiya tejamkorligiga erishishi keltirilgan.Chastotaviy boshqarish tejamlidir, chunki u asinxron motorning tezligini rostlash hisobiga foydali ish koyfitsiyentini oshirish va quvvatni kamaytirishni ta'minlaydi.

Tayanch so'zlar:chastotali boshqarish,asinxron motor, energiya tejamkorlik, yuklama, ishga tushirish toki,motorning aylanish chastotasi.

UDC: 621.323

WAYS OF ENERGY SAVING IN ASYNCHRONOUS MOTORS OF FEED CRUSHING EQUIPMENT USED IN AGRICULTURE.

Panoev A.T. -- doctor of philosophy in technical sciences, associate professor. Head of the Department "Energy supply in agriculture and water management"

Amrulloyeb B.B- student of the group 3 the"Energy supply in agriculture and water management"

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers.

Annotation: In article are brought frequency regulation of the asynchronous electric motor and that reach to energy saving itself. Frequency management is energy saving so regulation of the frequency of the rotation of the anisochronous engine are provided increasing coefficient of efficiency and reduction of the loss to powers.

The Keywords:frequency management, anisochronous engine, economy to energy, load, activate current, frequency of the rotation of the engine.

Bizlarga ma'lumki hozirgi vaqtda Respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasi borgan sari takomillashib, rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan yem maydalash qurilmalarining asinxron motorini bir necha usullar yordamida yurgizish mumkin. Masalan makkajo'xori urug'ini maydalashimiz uchun qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan yem maydalash qurilmalaridan foydalanganimizda, yem maydalash qurilmalarining asinxron motorida juda katta tok sakrashlari

hosil bo‘ladi, uni ishga tushirish toki yoki tormozlangan rotordagi tok deb nomlanadi. Qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan yem maydalash qurilmalarining asinxron motorini ekspluatatsiya qilish jarayonida bir necha usullar yordamida yurgizish mumkin. Em maydalash qurilmalaridagi asinxron motorini ishga tushirish jarayonida juda katta ishga tushirish toklariga ega bo‘lagani bois, ularni ishga tushirish usullariga alohida e’tibor qaratish lozim. Yem maydalash qurilmalaridagi asinxron motoriga kuchlanish berilganda, tok sakrashi hosil bo‘ladi, uni ishga tushirish toki yoki tormozlangan rotordagi tok deb nomlanadi. Ishga tushirish toki nominal tokdan 5-7 barobar yuqori bo‘ladi, qisqa muddat ta’sir qiladi. Tezlashib olganidan so‘ng asinxron motordagi tok minimal qiymatga tushib ketadi. Mavjud me’yor va qoidalarga mos ravishda, ishga tushirish tokini kamaytirish uchun ishga tushirishning turli usullaridan foydaliniladi. Shu bilan bir qatorda ta’minot kuchlanishini stabillashtirish uchun bir qator choralar ko‘rilishi lozim. Shu usullardan biri yem maydalash qurilmalaridagi asinxron motorini chastota o‘zgartgich yordamida boshqarish usulidir[5].

Yem maydalash qurilmalaridagi asinxron motorini ishga tushirish va boshqarishda chastota o‘zgartgich yordamida amalga oshiriladi, u avtomat va motor orasida o‘rnatiladi va motorning aylanish chastotasi bilan boshqariladi, qo‘shimcha tarzda elektr energiya tejalishiga olib keladi. 1-rasmda, taklif etilgan usulni amalga oshirish sxema tarzida ko‘rsatilgan.



1-rasm. Em maydalash qurilmalaridagi asinxron motorini chastota o‘zgartgich yordamida ishga tushirish sxemasi:A-avtomat,ChO’-chastota o‘zgartgich,
M-motor,YeM- Yem maydalash qurilmasi[1].

Kuchlanish tarmog‘i U=380 V ga avtomat ulanadi, avtomat va motor orasida chastota o‘zgartgich o‘rnatilgan bo‘lib, u yem maydalash qurilmalaridagi asinxron motorining aylanishi chastotasini boshqaradi. Yem maydalash qurilmalaridagi asinxron motorini ishga tushirish vaqtida motor ohista ishlaydi, yuklama bilan ishlayotgan vaqtda asinxron motorga ortiqcha yuklama tushmaydi va asinxron motorning ishlash muddatini uzaytiradi, asinxron motorning kuyishini oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari ishga tushirish vaqtida elektr energiyasi tejaladi. Shunday qilib, boshqaruv usulini amalga oshirish avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Yem maydalash qurilmalari orqali yemlarni maydalash jarayonida yem maydalash qurilmalarining asinxron motorini aylanish tezligini chastota o‘zgartgichlar asosida boshqarish jarayonida, yem maydalash qurilmalarini ishga tushirish vaqtida asinxron motori silliq harakatlanadi va natijada asinxron motori haddan tashqari yuklama bilan ishlashini oldi olinadi, hamda asinxron motorida elektr energiyasi 3-4 marotaba tejaladi, kam vaqt sarflab sifatli maxsulot ishlab chiqaradi. Bu turdagi qurilmalar qo‘llanilishidan avval bunday vazifani amalga oshirish uchun tishli uzatma (shesteryonka) reduktorlardan foydalanilar edi[1]. Bu esa o‘z navbatida turli qiyinchiliklar keltirib chiqarar edi. Ishlab chiqarish texnologiyalarni o‘ziga xos tomonlaridan kelib chiqqan xolda asinxron motor aylanish sonini kamaytirish yoki ko‘paytirishga to‘g‘ri kelsa, elektr yuritmada qo‘shimcha mexanizmlardan foydalanish, o‘z navbatida elektr motor quvvatini ortirishga olib kelar edi. Chastota o‘zgartgichlar yordamida bevosita, asinxron motor chastotasini o‘zgartirib aylanishlar sonini nazorat qilish mumkin[1]. Bu usulning qulayliklaridan biri shundaki tok va aylanuvchi moment o‘rtasida mustahkam bog‘liqliq bo‘lgani bois, chastota o‘zgartgich ishga tushirish tokini pasaytirish imkonini beradi. Asinxron motorlarni silliq ishga tushirish qurilmalarining ishlash prinsipi ta’sir etuvchi kuchlanish qiymatining tiristorli rostlagichlari bo‘lib, rostlash sxemasi, elektr motorga tushayotgan yuklamaga bog‘liq ravishda o‘zgartirish algoritmlari, servis funksiyalari bilan bir biridan farqlanishi mumkin. Silliq ishga tushirish qurilmalari boshqaruvning faza usullaridan foydalanilgani bois, “nominal - nominal” og‘ir ishga tushirish rejimlari bilan ifodalanuvchi elektr yuritmalarni ishga tushirish imkonini beradi[5]. Bunday ishga tushirish qurilmalarda quvvat koeffitsienti korreksiyasi va energotejamkor rejim o‘rnatilgan bo‘lib, ishga tushirishlar sonini ko‘paytirish imkonini beradi. Ravon ishga tushirishda eng yaxshi natijalarga erishishni ta’minlovchi, funksional jihatdan ham, texnik jihatdan ham mukammal echim bo‘lib, aylanib o‘tuvchi kontaktorga ulanmasdan, boshqaruv zanjirlarida doimiy qoladigan, mexanik kommutatsiyalardan mustasno, demak kontaktlarni uchqunlanishi mutloq bo‘lmaydi va bu holat portlashga xavfli ishlab chiqarishlarda juda qo‘l keladi[7]. Texnik jihatdan qo‘llanilish sohasi universal bo‘lib, dinamik tormozlash va motorni teskari aylantirishda qo‘llash imkoni mavjud. Uch

fazali boshqarish belgilangan algoritmlarni qo‘llanilganda elektr motor ishlashini optimallashtirishi mumkin, bu bilan elektr motor energetik xarakteristikalarini yaxshilash mumkin. Shunday qilib yem maydalash qurilmalarining asinxron motorini silliq ishga tushirib yuborish motorni samarali ishga tushirish va yem maydalash qurilmalarini ishga yaroqsiz bo‘lib qolishdan ximoyalaydi. Asinxron motorlarni silliq ishga tushirib yuborish yem maydalash qurilmalarini samarali qo‘llanilishi belgilangan nominalni aniq tanlov shartidagina maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday tanlovning mezoni bo‘lib odatda asinxron motor yuklamasi turi, ishga tushirishlar chastotasi va pasport ma’lumotlari hisoblanadi[6]. Shuning uchun asinxron elektr motorlarni silliq ishga tushirib yuborish qurilmalarini tanlashda ularning kelajakdagi qo‘llanilish sohasini hisobini olish muhimdir.

Yem maydalash qurilmalaridagi asinxron motorini silliq ishga tushirish rejimlarini quyidagi uch guruhga bo‘lamiz:

- normal rejim ishga tushirish vaqti 10 sekunddan 20 sekundgacha, ishga tushirish toklari qiymati 3.5x I_{nom} darajada bo‘lishlik bilan cheklanadi;

- og‘ir rejim biroz katta inersiya momentli yuklamalar bilan xarakterlanadi. Ishga tushirish toklari 4.5x I_{nom} bilan cheklanadi, tezlanish vaqti esa 30 sekund;

- juda og‘ir rejim juda yuqori inersiya momentlari mavjudligini nazarda tutadi. Ishga tushirish toklari 5.5x I_{nom} etishi mumkin, tezlanish vaqti esa 30 sekundan sezilarli darajada ortishi mumkin.

Yem maydalash qurilmalaridagi asinxron motorini silliq ishga tushirish turlari:

1. Ishga tushirish momenti regulyatorlari uch fazali asinxron motorni faqat bitta fazasi (bir fazali boshqaruv) ni nazorat qiladi. Bunday boshqaruv usuli ravon ishga tushirishni nazorat qila olsada, ishga tushirish toklarini pasayishini ta’minlay olmaydi. Aslida ishga tushirish momenti boshqarishda asinxron motor chulg‘amlaridagi tok, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga tushirishdagi tok bilan teng bo‘ladi[7]. Shu bilan birgalikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga tushirish usulidan farqli ravishda, bunday tok chulg‘amlarda uzoq vaqt oqib o‘tadi, shuning uchun asinxron motor qizishi mumkin. Bu turdagi qurilmalardan ishga tushirish toklari pasayishi zarur bo‘lgan yuritmalarda foydalanib bo‘lmaydi. Ular yuqori inersion mexanizmlarni

ishga tushishini (asinxron motor qizib ketish xavfi), shuningdek elektr yuritmani ketma-ket ishga tushirish (tormozlash)ni ta’minlay olmaydi[4].

2. Teskari bog‘lanish signalisiz kuchlanish boshqaruvi. Bu faqat foydalanuvchi tomonidan kiritilgan dastur yordamida ishlashi mumkin. Elektr motordan teskari aloqa yo‘qligi tufayli, o‘zgarayotgan yuklamaga qarab motor aylanish chastotasini o‘zgartirish imkoni yo‘q. Boshqa holatlarda esa bunday qurilmalar silliq ishga tushirish qurilmalariga qo‘yiladigan barcha talablarga javob beradi, asinxron motorni barcha fazalarini boshqarish imkoniga ega. Silliq ishga tushirish qurilmalarining bu turi keng tarqalganlaridan biridir. Asinxron motorni ishga tushirish sxemasi boshlang‘ich kuchlanishni dastlabki qiymatini berish va ishga tushirish uchun ketadigan vaqtni aniqlash yo‘li bilan aniqlanadi. Bu turdagi ko‘plab qurilmalari ishga tushirish tokini cheklashda ham qo‘llanilishi mumkin, buning uchun ishga tushirishda kuchlanishni pasaytirish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek bu qurilmalar yordamida yem maydalash qurilmalaridagi asinxron motorining tezligini boshqarib, yuritmani sekin va oxista to‘xtatishni amalga oishirish mumkin. Ikki fazali rostlagichlar, motorning uchala fazasidagi kuchlanishini pasaytirishi mumkin, ammo tok muvozanatlanmagan bo‘ladi[3].

3. Teskari aloqa signalli kuchlanish boshqaruvi qurilmalari- bu yuqorida aytib o‘tilgan bu turdagi qurilmalarni zamonaviy ko‘rinishidir. Bu qurilmalar foydalanuvi tomonidan kiritilgan qiymatlardan ortmagan holda tokni joriy qiymatini hisobga olib, kuchlanishni boshqarishi mumkin. Shuningdek olingan ma’lumotlar turli ximoya vositalari(fazalar disbalansi, o‘ta yuklanish va boshqalar)ni ishlashida qo‘llanilishi mumkin. Asinxron motorlarni ravon ishga tushirishni bu turi va shu kabi qurilma va vositalarni birlashtirib asinxron motorni boshqaruvchi birlik tizimni shakllantirish mumkin[2].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, qishloq xo‘jaligi korxonalarida qo‘llanilayotgan yem maydalash qurilmalarining asinxron elektr motorini ekspluatatsiya qilish jarayonida asinxron motorni chastotaviy boshqarishda elektr energiya iste’moli tejamlidir, chunki chastota o‘zgartgich asinxron motor tezligini rostlashni, elektr yuritma F.I.K. ni oshishini ta’minlaydi.

№	ADABIYOTLAR	REFERENCE

8.	Baratov R, Pirmatov N, Panoev A, ChulliyevYa, Ruziyev S and Mustafoqulov A.Achievement of electric energy savings through controlling frequency convertor in the operation process of asynchronous motors in textile enterprises IPICSE 2020 IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 1030 (2021) 012161 IOP Publishing doi:10.1088/1757-899X/1030/1/012161	Baratov R, Pirmatov N, Panoev A, ChulliyevYa, Ruziyev S and Mustafoqulov A.Achievement of electric energy savings through controlling frequency convertor in the operation process of asynchronous motors in textile enterprises IPICSE 2020 IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 1030 (2021) 012161 IOP Publishing doi:10.1088/1757-899X/1030/1/012161
9.	Имомназаров А.Т. Асинхрон моторларнинг минимум қувват исрофи режимида ишлаши асослари // Тош ДТУ хабарлари. – Тошкент, 2005, № 2, 33 – 38 б.	Imomnazarov A.T. Basics of operation of asynchronous motors in the mode of minimum power dissipation // Stone DTU news. - Tashkent, 2005, № 2, 33 - 38 p.
O’zbekiston Respublikamizda qishloq xo’jaligida intensiv foydalaniladigan yerlar, ya'ni sugo’riladigan maydonlar 4,325 mln gektarni tashkil qilib, ushbu yerlar respublikamizning oltinfondi hisoblanadi, Ular jami yer fondining 10 foizga yaqinini tashkil etib, yalpi qishloq xo’jalik maxsulotlarining 97 foizini yetkazib beradi. Bu esa respublikamiz ishlabchiqarish faoliyatini belgilab berib, davlatimiz iqtisodiy saloxiyatini oshirishda bosh omil bo’lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda sugoriladigan yerlarning 45 foiz atrofida turli darajada sho’rlangan bo’lib, buning qariyb 18 foizi kuchli va o’rta darajada 23 foizdan ortig’i esa boniteti past yerlar toifasiga kiradi.

Meliorativ xolati qoniqarsiz yerlarning katta qiismi Qoraqalpog’iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Jizzax va Fargona viloyatlariga to’gri keladi.[1,*14,15,16,17,18,*]

Tadqiqot obyekti: Olib borilgan tajribalar 2020-2021 yillarda Buxoro viloyati Kogon tumani “Mavlon Sattor” fermer xo’jaligini qiyin melioratsiyalanadigan, o’rta darajada sho'rlangan, mexanik tarkibi bo’yicha og'ir qumoq, gipsli tuproqlar sharoitida g’ozaning Buxoro-102 navini yetishtirish bo’yicha tajribalar olib borildi.

Tanlab olingan tajriba maydoni tuprog'ining 0-100 sm qatlamdagi tuproqning hajmiy og'irligi 1,52 g/sm^3 ni, chegaraviy dala nam sig'imi 65,6 %, tashkil qilib bu tuproqlar mexanik tarkibli og'ir tuproqlar turiga mansub bo’lib, tuproq tarkibida gips kristallari, donalari mavjud.

Tadqiqot dalasida zovurlar orasidagi masofa 250 metrni, zovur chuqurligi 3,2-3,8 metrni, zovur oqimi vegetatsiya davrida 0,38 m^3/kun. ga, novegetatsiya davrida esa 0,22 m^3/kun ga teng bo'ldi. Bu suv miqdorining o'zgarishi vegetatsiya davomida qishloq xo’jaligi ekinlarini sug’orishda dalaga beriladigan sug'orish me'yorlari bilan izohlanadi.

. Olib borilgan tajribaning natijasi: Tajriba dalasida chuqur yumshatilgandan so'ng 2020 yil dekabr oyining ikkinchi o'n kunligidan 2021 yil fevral oyining 2 o'n kunligigacha 3 marta sho'r yuvish tadbirlari olib borildi.Tadqiqotlarning (2-jadval)da ko'rsatilganidek I-variantida birinchi sho'r yuvishda 2560 m^3/ga ikkinchi va uchinchi sho'r yuvishda 2050-1875 m^3/gani tashkil qilib mavsumiy sho'r yuvish me'yori 6480 m^3 /ga teng bo'ldi. II-variantida birinchi sho'r yuvishda 2280 m^3/ga ikkinchi va uchinchi sho'r yuvishda 1640-1295 m^3/gani tashkil qilib, mavsumiy sho'r yuvish me'yori 5210 m^3 /ga teng bo'lgan bo'lsa, III-variantida birinchi sho'r yuvishda 1980 m^3/ga ikkinchi va uchinchi sho'r yuvishda 1620-1235 m^3/gani tashkil qilib, mavsumiy sho'r yuvish me'yori 4835 m^3 /ga teng bo'lgan bo'lsa, IV-variantida birinchi sho'r yuvishda 2060 m^3/ga ikkinchi va uchinchi sho'r yuvishda 1680-1270 m^3/gani tashkil qilib, mavsumiy sho'r yuvish me'yori 5100 m^3 /ga teng bo'ldi va V-variantida birinchi sho'r yuvishda 1895 m^3/ga ikkinchi va uchinchi sho'r yuvishda 1620-1230 m^3/gani tashkil qilib, mavsumiy sho'r yuvish me'yori 4745 m^3 /ga teng bo'ldi. Bu esa I-variant (nazorat)ga nisbattan II-variantda 1470 m^3/ga, III-variantda -1645 m^3/ga, IV-variantda 1380 m^3/ga hamda V-variantda 1745 m^3/ga kam suv sarflanganligini ko'rish mumkin.

3-jadval

Tajriba dalasida sho'r yuvish me'yori (m^3/ga)

Variantlar	I-sho'r yuvish	II-sho'r yuvish	III-sho'r yuvish	Mavsumiy sho'r yuvish me'yori m^3/ga
I (nazorat)	2560	2050	1870	6480
II	2280	1640	1290	5210
III	1980	1620	1235	4835
IV	2060	1680	1270	5010
V	1895	1620	1230	4745

Tajribalarda go'zaning Buxoro-102 navini sug'orish bo'yicha tajriba natijalari tahlil qilinganda ya'ni (4-jadval) da ko'rsatilganidek I-variantida birinchi sug'orishda 1450 m^3/ga ikkinchi sug'orishda 1180 m^3/ga uchinchi sug'orishda 1090 m^3/gani hamda to'rinchi va beshinchi sug'orishda 1090-

1011 m^3/gani tashkil qilib mavsumiy sug'orish me'yori 5821 m^3 /ga teng bo'ldi. II-variantida birinchi sug'orishda 1330 m^3/ga ikkinchi sug'orishda 1120 m^3/gani, uchinchi sug'orishda 985 m^3/gani hamda to'rinchi va beshinchi sug'orishda 939-910 m^3/gani tashkil qilib mavsumiy sug'orish me'yori 5284 m^3 /ga teng bo'ldi. III-variantida birinchi sug'orishda 1240 m^3/ga ikkinchi sug'orishda 1090 m^3/ga uchinchi sug'orishda 905 m^3/gani hamda to'rinchi va beshinchi sug'orishlarda 830-782 m^3/gani tashkil qilib mavsumiy sug'orish me'yori 4847 m^3 /ga teng bo'ldi. IV-variantida birinchi sug'orishda 1280 m^3/ga ikkinchi sug'orishda 1120 m^3/ga uchinchi sug'orishda 965 m^3/gani hamda to'ringchi va beshinchi sug'orishlarda 930-805 m^3/gani tashkil qilib mavsumiy sug'orish me'yori 5100 m^3 /ga teng bo'ldi va V-variantida birinchi sug'orishda 1180 m^3/ga ikkinchi sug'orishda 1020 m^3/ga uchinchi sug'orishda 875 m^3/gani hamda to'rinchi va beshinchi sug'orishlarda 830-789 m^3/gani tashkil qilib mavsumiy sug'orish me'yori 4694 m^3 /gani qilib mavsum davomida go'za 5 marta sug'orildi.

Bu esa I-variant (nazorat)ga nisbatan II-variantda 537 m^3/ga, III-variantda -974m^3/ga, IV-variantda 721 m^3/ga hamda V-variantda 1127 m^3/ga kam suv sarflanganligini ko'rish mumkin.

4-jadval

Tajriba dalasida sug'orish me'yori

Variantlar	**I-sug'orish**	**II-sug'orish**	**III-sug'orish**	**IV-sug'orish**	**V-sug'orish**	**Mavsumiy sug'orish me'yori m^3/ga**
I (nazorat)	1450	1180	1090	1090	1011	5821
II	1330	1120	985	939	910	5284
III	1240	1090	905	830	782	4847
IV	1280	1120	965	930	805	5100
V	1180	1020	875	830	789	4694

3-rasm tajriba dalasining sho'r yuvishdan oldin va keying quruq qoldiqlarning o'zgarishi



3. Xulosalar: Mexanik tarkibi og'ir qumoq (gips)li tuproqlarda chuqur yumshatish va kimyoviy birikma (Spersal) qo'llanilgan tuproqlar bo'yicha olib borilgan tajriba natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, faol qatlamdagi xlor ioni miqdori nazoratga nisbattan II-variantda 0,003 %, III-variantga 0,006 %, IV-variantga 0,004% va V-variantga 0,008 % kamayganini ko'rishimiz mumkin, quruq qoldi miqdori esa nazorat variant nisbattan II-variantda 0,058 %, III-variantga 0,067 %, IV-variantga 0,063 % hamda V-variantga 0,074 % pasayganligi ma'lum bo'ldi.

Mavsumiy sho'r yuvish me'yori esa I-variant (nazorat)ga nisbattan II-variantda 1470 m^3/ga, III-variantda -1645 m^3/ga, IV-variantda 1380 m^3/ga hamda V-variantda 1745 m^3/ga farqqildi.G'o'zani sug'orish me'yori esa I-variant (nazorat)ga nisbatan II-variantda 537 m^3/ga, III-variantda -974m^3/ga, IV-variantda 721 m^3/ga hamda V-variantda 1127 m^3/ga kam suv sarflandi va tuproqning suv, havo, tuz rejimini yaxshilashga erishildi.

G'o'za hosildorligi esa nazoratga nisbattan II-variantda 3,9 s/ga, III-variantga nisbattan 9,7 s/ga, IV-variantda esa 5,2 s/g ava V-variatda 12,9 s/ga oshganligini kuzatildi

Shu bilan birga paxtadan yuqori va sifatli hosil olinib, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. M. Xamidov, A.Jo'raev, U.Jo'raev, B.Atamurodov, O'zbekiston Qishloq va Suv Xo'jaligi, 2021 36-37 bet.

[2]. Kambarov A. Vliyanie razlichnoy glubiny osnovnoy obrabotki pochvy na rost, razvitie i produktivnost khlopchatnika na lugovo-allyuvialnykh zasolennykh pochvakh Xorezmskogo oazisa [The effect of different depths of the main tillage on the growth, development and productivity of cotton on meadowalluvial saline soils of the Khorezm oasis]. Abstract of the dissertation. The candidate of agricultural sciences. Tashkent, 1984, 24 p. (in Russian)
[3]. Rekomendatsii po tekhnologii promyvok trudnomelioriruemykh zasolennykh pochv Uzbekistana s primeneniem meliorativnoy obrabotki i khimmeliorantov [Recommendations on the technology of leaching of difficultly reclaimed saline soils in Uzbekistan using reclamation treatment and chemical ameliorants]. Ramazanov A.R., Ostrobrod B.G. Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan, Ministry of Water Eco-nomy of the Republic of Uzbekistan, SANIIRI, SoyuzKHLOPOK, 1986. (in Russian)
[4]. Bespalov N.F. Sposoby uskorennogo rassoleniya silnozasolennykh trudnomelioriruemykh zemel` [Methods of accelerated desalinization of highly saline hardly reclaimed lands]. Abstracts of the All-Union Scientific and Technical Meeting "Progressive Methods for Land Reclamation and Development of Heavy Saline Lands". April 21-23, Baku, 1981. (in Russian)
[5]. S.Abdullayev X.Nomozov Tuproq melioratsiyasi darslik “O’zbekiston milliy enskplapediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2011
[6]. Abdurahanov A.A., Ramazanov A.R. Agromeliorativnye priyomy povysheniya plodorodiya serozemno-lugovykh zasolyonnykh pochv Sentralnoy Fergany [Agromeliorative methods of increasing the fertility of gray-meadow saline soils in Central Fergana]. "Materials of the Republican Conference on problems of increasing the fertility of irrigated soils of Uzbekistan" Tashkent, 1982, Pp. 80-88. (in Russian)
[7]. Xamidov M.X., Juraev F.U. Ustroystvo I printsipi raboti drenajno-krotovo boorudiya // J."Irrigatsiya va Mellioratsiya" –Toshkent, №1(7)2017. 9-12 S
[8]. Xamidov M.X., Shukrullaev I.X., Mamataliev A.B. Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi. “Sharq” Sharq-nashriyoti matbaa akt sionerlik kompaniyasi bosh taxririyati. Toshkent 2008, 223-234 b
[9] U..Norqulov Tuproqning sho’r yuvishi va suvni tejash texnologiyalarining ilmiy va amaliy asoslari Qishloq xo’jaligi fanlari doktorlik dissertatsiyasi.

[10]. Xamidov M.X. Sravnitel noevodo potreblenie I rejim orosheniya xlopchat nika, lyutserni I kukuruzina lugovix tyajelo suglini stix pochvax Xorezmskogo oazisa // Dis. kand. sel–xoz. nauk. –Tashkent: 1985. s-108-116.
[11]. Jo'raev A.Q., Xamraev Sh.R., Buxoro viloyati yangidan o'zlashtirilgan taqir tuproqlari sharoitida Buxoro-6 g'o'za navini sug'orish hamda oziqa tartiblari // Materiali pervoy natsionalnoy konferentsii, posvyashennoy selektsii, semenovodstvui texnologiya proizvodstva pshenitsi v Uzbekistane. Tashkent, 2004. str. 193-195.
[12] Khamidov, M.K., Balla, D., Hamidov, A.M., Juraev, U.A.Using collector-drainage water in saline and arid irrigation areas for adaptation to climate change. 2020. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science 422(1),012121
[13]. Хамидов М.Х., Жураев У.А. Снижения минерализации коллекторно-дренажных вод //Аграрная наука. 2016. № 6. С. 2-3.
[14] Хамидов М.Х., Жўраев У.А. Influence of phytoremediation plants on soil salts // Innovative technologies in water management complex. – Ukraine, Rovno, 2012. – С. 32–34.
[15] Balla Dagma, Ahmad Hamidov, Khamidov Muhammadkhon, U.Jurayev. Improvement of drainage water quality through biological methods: a case study in the Bukhara region of Uzbekistan // European Science Review. – Ausrtia Vienna. – 2016. – № September-october. (05.00.00. №3).
[16]. Murodov Otabek Ulugbekovich, Kattayev Bobir Sobirovich, Saylixanova Maftuna Komiljonovna, & Ibodov Islom Nizomiy o`g`li. (2020). Smart irrigation of agricultural crops. Middle European Scientific Bulletin, 3, 1-3. https://doi.org/10.47494/mesb.2020.3.16
[17]. Murodov Otabek Ulugbekovich, Saylixanova Maftuna Komiljonovna, Kattayev Bobir Sobirovich, Muzaffarov Muxriddin Murodovich. Determination of efficiency of groundwater use in irrigation of millet planting, Euro-Asia Conferences, 2021/3/31, 131-134.
[18]. Murodov O.U., Kattaev B.S., Saylixanova M. K. // The use of sprinkler irrigation in the cultivation of agricultural crops // " Proceeding of The ICECRS.Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution 4.0 "conference. - Indonesia 2020.
[19]. AQ Jurayev, UA Jurayev, BN Atamurodov, MM Najmiddinov, Scientific Benefits and Efficiency of Drip Irrigation, Journal of Ethics and Diversity in International Communication 2021/12/2 62-64 st.

[20]. UA Jo'rayev, AQ Jo'rayev, BN Atamurodov, Application of provided irrigation technologies in irrigated agriculture, International Journal of Development and Public Policy, 2021/12/1 164-166
[21]. AQ Jurayev, UA Jurayev, BN Atamurodov, MM Najmiddinov,Cultivation of Corn as a Repeated Crop, European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 2021/11/29 49-51 st.
[22]. UA Jo'rayev, AQ Jo'rayev, BN Atamurodov Application of Provided Irrigation Technologies in Irrigated Agriculture, - International Journal of Development and Public Policy, 2021 164-166 st.

UO'T: 631.2

TOMCHILATIB SUG'ORISH RESURSTEJAMKOR TEXNOLOGIYANING AFZALLIKLARI

Jo'rayev Anvar Qurbonovich -"Suv xo'jaligi va melioratsiya" kafedrasi qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent
Ro'zieva Qursiya Umarovna – Yaylovlar melioratsiyasi yo'nalishi II-bosqich magistranti, Telegram: @qursiyaroziyeva

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot unversiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Tomchilatib sug'orish tizimida g'o'zani parvarishlash texnologiyasiga quyidagi asosiy ko'rsatkichlar kiradi: Turli tuproq iqlim sharoitiga mos yuqori hosildor va tezpishar navlardan foydalanish, tuproqqa asosiy, haydov oldi va qator orasiga ishlov berishning ratsional tizimi, yuqori sifatli chigitni ekish, ma'dan o'g'itlarni tabaqalashtirib berish, sug'orish jarayonini to'liq avtomatlashtiruvchi, suvdan tejamli va samarali foydalanishga yordam beruvchi tizim, o'simliklarni kasallik, zararkunanda va begona o'tlardan uyg'unlashgan himoya tizimi, g'o'zani mexanizatsiya yordamida chilpish va defolyatsiya qilish, paxta hosilini mashinalar yordamida yig'ishtirib olish. Mazkur texnologiya aslida qabul qilinib, keng foydalanayotgan egat orqali sug'orish texnologiyasiga mos keladi. Tomchilatib sug'orish tizimining asosiy farqi, vegetatsiya mobaynida ma'dan o'g'itlarning va gerbitsidlarning ma'lum qismi o'simlikka sug'orish bilan birga berish imkoniyati borligida hamda qator orasiga ishlov berilmasligida.

Kalit so'zlar: Hosildor nav, tomchilatib sug'orish tizimi, yuqori sifatli chigit
UDC: 631.2

ADVANTAGES OF DRIP IRRIGATION RESOURCE-SAVING TECHNOLOGY

Jurayev Anvar Qurbonovich - Candidate of Agricultural Sciences, Associate Professor
Ruziyeva Qursiya Umarovna – mater's degree in water resources and melioration

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"

Annotation: In the drip irrigation system, the technology of caring for the soil includes the following basic indicators: the use of high-yielding and fast-growing varieties suitable for different soil climatic conditions, the rational system of processing between the main, hay-picked and row to the soil, the planting of high-quality seeds, the stratification of mineral fertilizers, the system of fully automating the, spraying and defoliation with the help of gauze, harvesting cotton with the help of machines. This technology is actually adopted and is compatible with irrigation technology through a widely used rut. The main difference of the drip irrigation system is in the fact that during the growing season, a certain part of the mineral fertilizers and herbicides are allowed to be combined with irrigation to the plant, and not processed between rows.
Key words: Crop grade, drip irrigation system, high quality seeds

Hurmatli Prizidentimiz Mirziyoev Shavkat Miramonovich tashabbuslari asosida yurtimizda sug'orish madaniyatini yuksaltirish, suv xo'jaligida islohotlarni jadallashtirish, soha moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga jiddiy e'tibor berilmokda. Ekinlarni sug'orishda ilg'or usullar, jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmokda.

"Qishloq va suv xo'jaligida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prizident farmoni qabul qilindi,bunga sabab Respublikada asosiy ekin maydonlarini sug'orishda hamon eskicha,bostirib sug'orishga asoslanib qolinayotgani,shuningdek,

latok tarmoqlari, drenaj tizimlarining yangi texnologiyalarga asoslanmaganligi sababli, suviste'molchigacha suv manbalarining 40 foizdan ortiq qismi ekin maydonlariga yetib borguncha bo'lgan jarayonda yo'qotilishi hamda tuproqlarning meliorativ holatiga salbiy ta'siri oshganligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida reja asosidagi meliorativ dasturlari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Meliorativ dasturlardan birinchisi 2008-2012 yillarga belgilangan, ikkinchisi dastur 2013-2017 yillarga rejalashtirilgan hamda uchinchasi 2018-2022 yillar uchun mo'ljallangan dastur asosida ish olib borilmoqda. Hukumat rahbarini topshirig'iga asosan hozirda Respublika qishloq va suv xo'jaligining 2030 yilgacha bo'lgan uzoq yillik dasturi ishlab chiqilmoqda. Shu konsepsiya asosida kamida 10 yil ichida 2 million ya'ni mavjud sug'oriladigan ekin maydonlarimiz 50 foizi tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy qilinadi.Ushbu katta marra va tadbirni amalga oshirish uchun yirik subsidiyalar ajratilyapti natijada, 2030 yilga qadar 50 foiz maydanlarda tomchilatib sug'orish usuliga o'tilishi rejalashtirildi.

Tajriba o'tkazilgan maydonning tuprog'i o'rta qumoq bo'lib, yer osti sizot suvlarining chuqurligi 1,9-2.7 metr, g'o'za o'suv amal davrida esa 1,9-2.5 metrni tashkil etib, kam sho'rlangan. Tajriba natijalarining yakuniga ko'ra, egatlab sug'orishga nisbatan tomchilatib sug'orish tizimi bir muncha afzalliklarga ega bo'lib, sug'orish suvining 45-50 %, yoqilg'i moylash materiallarini hamda mineral o'g'itlarni 45-55 % iqtisod qilinishi tadqiqotlardan aniqlangan. Shuningdek, qator oralariga ishlov berish soni ham 8.0 marta qisqarishi, 1 s/ga paxta hosili yetishtirish uchun 93 m^3/ga suv sarflanishi aniqlandi.

1-jadval

Tajriba tizimi

Variantlar	Sug'orish usuli	Tuproqning sug'orish oldi namligi, ChDNS ga nisbatan, %,	Ma'dan o'g'itlarning yillik me'yori, kg/ga
1	Egat orqali (nazorat)	70-75-65	N240, P170,K120,
2	Tomchila	70-75-70	N240,

	tib sug‘orish tizimi		P170,K120,
3	Tomchila tib sug‘orish tizimi	70-75-65	N240, P170,K120,
4	Tomchila tib sug‘orish tizimi	70-80-65	N240, P170,K120,

Tomchilatib sug‘orilgan dalalarda tuproqning agrofizik xususiyatlaridan: hajm og‘irligining yengillashishi, suv o‘tkazuvchanligining yaxshilanib borishi kuzatilgan. Shuningdek, zararli, suvda eruvchi tuzlarning ildiz tarqalgan qatlamida kam to‘planishi, ma’dan o‘g‘ildarning suvda eritib berilishi sababli o‘simlik tomonidan oziq moddalarining o‘zlashtirilishi ortib, hosil elementlarining ko‘payishi aniqlandi. Hosildorlik tomchilatib sug‘orilganda 16,4 s/ga oshganligi kuzatildi. Bundan tashqari, tomchilatib sug‘orilgan maydonlarda doimiy ravishda namlik me’yorda ushlab turilishi

hisobiga tuproqda sho‘rlanish jarayoni juda kam miqdorni tashkil etib, vilt kasalligiga chalinmadi.

G‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda maqbul sug‘orish va oziqlantirish tartibini ishlab chiqish bo‘yicha tajribalar eskidan sug‘orilib kelinayotgan maydonlarda bajarildi. Tajribalarda har egatga yotqizilgan uzunligi 200

metr bo‘lgan namlatuvchi quvurlar 0,011 katta qiyalikka ega dalaning maksimal nishabligi qiyaligi bo‘yicha shuningdek uch yillik bedadan so‘ng birinchi yili haydalgan 0,006 qiyalikdagi dalaning maksimal nishabligi bo‘ylab, 60 sm uzunlikdagi namlatuvchi quvurlar o‘rnatilib izlanishlar olib borilgan.

Tajriba maydonlari o‘rta qumoq mexanik tarkibli, G‘o‘zaning o‘rta tolali Buxoro-8 navi 90 sm qator oralig‘ida, Izroil texnologiyasi asosidagi namlatuvchi quvurlar traktor ketidan 1,2 metr yetkazilgan holda yetishtirildi. Tajribalarda g‘o‘za 4 variantda har bir variant (delyanka) 8 qator qilib ekildi.

Barcha dala va laboratoriya tadqiqotlari O‘zPITI uslubiy qo‘llanmalari bo‘yicha o‘tkazildi. Haydov qatlamida (0-30 sm) tuproqning hajmiy og‘irligi 1,36-1,38 g/sm3, haydov osti qatlami (30-50 sm) esa bu ko‘rsatkich bir muncha ortib 1,42-1,56 g/sm3, solishtirma og‘irlik va umumiy g‘ovaklik ko‘rsatkichlari bu qatlamlarda tegishli ravishda 3,14-3,21 g/sm3 va 51,3-47,1 % ni tashkil etadi.

Tuproqning gidrofizik ko‘rsatkichlari quyidagicha, tuproq qatlamining 0-100 sm qismida cheklangan dala nam sig‘imi (ChDNS) 20,3-21,4, tabiiy namlik haydov qatlamida 17,2-18,5 %, haydov osti qatlamida esa 18,3-20,8 %. G‘o‘zani sug‘orish tartibi tajriba tizimida belgilangan sug‘orish oldi namlik miqdori va tuproqning 0-50 sm.hisobiy qatlamidan kelib chiqib shakllanadi. Olingan ma’lumotlar tomchilatib sug‘orishni egat orqali sug‘orishga nisbatan yuqori samaradorligidan dalolat beradi. Jumladan, egat orqali sug‘orishda mavsumiy 6300 m3/ga brutto suv sarflangan bo‘lsa, tomchilatib sug‘orishda 2 va 3 variantlarda 2730 m3/ga, to‘rtinchi variantda (70-80-65) esa jami 2980 m3/ga me’yorida suv sarflanganligini kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, 70-75-70 % tartibida tomchilatib sug‘orishda 57 %, 70-80-65 % tartibida tomchilatib sug‘orishda 53 % suv iqtisod qilingan.

G‘o‘zani mineral oziqlantirish tartibi ma’dan o‘g‘itlarning eruvchanlik xususiyatiga bog‘liq. Suvda qiyin eriydigan fosforli (ammofos) va kaliyli (Kaliy xlor) ma’dan o‘g‘itlarining to‘liq me’yorlari tajriba tizimiga asosan haydovdan oldin solingan. Azotli o‘g‘itlar (Ammiakli selitra) nasos stansiyasida o‘rnatilgan gidroo‘g‘itlagich moslamasi yordamida sug‘orish suvi bilan berilgan. Gidroo‘g‘itlagich ejektor prinsipida ishlab uning konstruksiyasi KI-50 “Raduga” yomg‘irlatib sug‘orish mashinasidan ko‘chirib olingan.

Tomchilatib sug‘orish tizimi sug‘oriladigan dalaning barcha qismini bir tekistda namlanishini ta’minlashi lozim. Bunday namlanish, dalaga beriladigan suv bosimi quvurlarining bosh qismida ma’lum ko‘rsatgichga ega bo‘lgandagina (1,0-4,0 atm) bosimi ta’minlanganda tomchilatgichlarning bir maromda ishlashi uchun sharoit yaratiladi.

Tizimni yaxshi ishlab nosozlikni oldini olish uchun uni doimiy nazoratda ushlab turish talab etiladi. Yopiq tizimdagi bosimni pasayib ketishiga olib ketishi mumkin bo‘lgan yoriqlar va nosozliklar natijasida geometikligi buzilib, suv bexuda oqayotgan joylarni tezda tuzatish kerak. Sug‘orishlar mobaynida suvdagi yirik va mayda zarrachalarni ushlab qoluvchi filtrlar joriy tozalanib, yuvilishi kerak. Zarurat tug‘ilganda sug‘oruvchi quvurlar ham yuviladi. Buning uchun barcha quvurlarning oxiridagi tiqinlar olinib, oqova suv tashlama ariq orqali oqiziladi. Har doim sug‘orish quvurlari suv o‘tkazgichlar tuproq ustida, egat o‘rtasida to‘g‘ri joylashganligini nazorat qilinishi kerak.

Tomchilatgichlardan birortasining ishdan chiqishi kuzatilsa, uni darhol almashtirish zarur bo‘lib, buning uchun quvurning (20-30 sm) ishlamayotgan qismi tomchilatgich bilan birga qirqib olinib tashlanadi, o‘rniga yangi kesma-suv o‘tkazgich tomchilatgichi bilan almashtiriladi.

Eskidan sug‘orilib kelinayotgan o‘tloqi botqoq tuproqlar sharoitida g‘o‘za va uning majmuasiga kiruvchi ekinlarni yangi texnologiya tomchilatib sug‘orish tizimlarida parvarishlash agrotexnikasi xususiyatlari yuqorida bayon etilgan. Mazkur tajribalarda suv tejash borasida olingan yukori samaradorlik,ekologik jixatidan uzini ijobiyligini xam namoyon etdi.O‘tloqi botqoq tuproklar mintakadagi keng tarkalgan irrigatsion eroziya va okava suv bilan birga ma’dan ugitlarni chetga chikib ketishi oldi olinadi.Shuning uchun birinchi navbatdaTST aynan shu yer osti suvlari yuza joylashgan avtomorf tuproklar xududida kurish maksadga muvofik.

Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini ilmiy asosda mukammal o‘rganish va ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida sobiq UzPITI Buxoro filiali tajriba xo‘jaligi dalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.Tajriba uchun mo‘ljallangan dala Kuymozor suv omboridan “BUXOROSUVOQAVA” boruvchi quvur orqali Buxoro shahriga qiruvchi institut hududidan o‘tuvchi koturda o‘rnatilgan bo‘lib , hamda shu maydonda ilmiy tadqiqot izlanishlari o‘tkazilgan.

Xulosa

Ko‘p yillik izlanishlarning natijalarini umumlashtirib,quyidagi fikrlarni bayyon qilish mumkin. Tuproqning gidrofizik ko‘rsatkichlari quyidagicha, tuproq qatlamining 0-100 sm qismida cheklangan dala nam sig‘imi (ChDNS) 20,3-21,4, tabiiy namlik haydov qatlamida 17,2-18,5 %, haydov osti qatlamida esa 18,3-20,8 %. G‘o‘zani sug‘orish tartibi tajriba tizimida belgilangan sug‘orish oldi namlik miqdori va tuproqning 0-50 sm hisobiy qatlamidan kelib chiqib shakllanadi. Olingan ma’lumotlar tomchilatib sug‘orishni egat orqali sug‘orishga nisbatan yuqori samaradorligidan dalolat beradi. Jumladan, egat orqali sug‘orishda mavsumiy 6300 m3/ga brutto suv sarflangan bo‘lsa, tomchilatib sug‘orishda 2 va 3 variantlarda 2730 m3/ga, to‘rtinchi variantda (70-80-65) esa jami 2980 m3/ga me’yorida suv sarflanganligini kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, 70-75-70 % tartibida tomchilatib sug‘orishda 57 %, 70-80-65 % tartibida tomchilatib sug‘orishda 53 % suv iqtisod qilingan. Tomchilatib sug‘orilgan dalalarda tuproqning agrofizik xususiyatlaridan: hajm og‘irligining yengillashishi, suv o‘tkazuvchanligining yaxshilanib borishi kuzatilgan. Shuningdek, zararli, suvda eruvchi tuzlarning ildiz tarqalgan qatlamida kam to‘planishi, ma’dan o‘g‘ildarning suvda eritib berilishi sababli o‘simlik tomonidan oziq moddalarining o‘zlashtirilishi ortib, hosil elementlarining ko‘payishi aniqlandi. Hosildorlik tomchilatib sug‘orilganda 16,4 s/ga oshganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zPITI Buxoro filiali 1995-1998 yillardagi hisobotlari.
2. “Tomchilatib sug‘orishda g‘o‘za va uning majmuasiga kiruvchi ekinlarni parvarishlashbo‘yicha tavsiyalar” Toshkent 2009 y.

UO’T: 631.2.3

YAYLOVLAR SHAROITIDA CHORVA OZUQA EKINLARINI YETISHTIRISHDA LAZER TEKISLASH TEXNALOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Jo'rayev Anvar Qurbonovich -"Suv xo'jaligi va melioratsiya" kafedrasi qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent
Ro'zieva Qursiya Umarovna – Yaylovlar melioratsiyasi yo'nalishi II-bosqich magistranti, Telegram: @qursiyaroziyeva

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot unversiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya. Yer tekislash nafaqat dala yuza qismini tekislaydi, balki serxosil tuproq qatlamining fizik – mexanik xususiyatlarini o'zgartiradigan omillardan biri hisoblanadi. Yer tekislashda tuproqqa bir vaqtni o'zida ko'p yo'llar bilan; traktorning yurish qismi va tuproq sudralishi prizmasini ishqalanishi bilan, kesish kuchlari, yer tekislagichning yurish qismi, tuproq qatlamining biologik jihatidan hosildor qismini kesish va aralashtirish bilan ta'sir ko'rsatiladi. Ko'rsatib o'tilgan ta'sirlar asosan tuproqqa noqulaydir: struktura buziladi, yuqori qavat zichlashadi, ozuqa moddalari olib ketiladi va shu kabilar, ya'ni tuproqni hosildorligi yomonlashadi. Shuning uchun bu muhim agrotexnik ishni bajaruvchi qurolga tuproqqa minimum zararli ta'sir ko'rsatib, rel'efni tekislashni yuqori sifatini ta'minlaydigan talablar qo'yiladi.

Kalit so'zlar: Yer ,serhosil tuproq, hosildor qism, ozuqa modda,tekislagich

UDC: 631.2.3

DEVELOPMENT OF LASER LEVELING TECHNOLOGY IN THE CULTIVATION OF LIVESTOCK FEED CROPS IN THE CONDITIONS OF FEED

Jurayev Anvar Qurbonovich - Candidate of Agricultural Sciences, Associate Professor
Ruziyeva Qursiya Umarovna – mater's degree in water resources and melioration

Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"

Annotation. Earth leveling not only smoothes the surface of the field, but is also one of the factors that changes the physico – mechanical properties of the fertile soil layer. In the Earth leveling, the soil is affected in many ways at one time; by friction of the prism of the tractor's gait and soil drag, by the forces of shear, the gait of the Earth's gait, by the shear and spacing of the fertile part of the soil layer in biological terms. The shown effects are mainly unfavorable for the soil: the structure is broken, the upper floor is densified, nutrients are taken away, and so on, that is, the soil yield worsens. For this reason, requirements are imposed on the gun carrying out this important agrotechnical work, which has a minimum harmful effect on the soil, ensuring a high quality of leveling of the relay.
Key words: Land, fertile soil, fertile part, nutrient, leveler

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2007 yil 29 oktabrdagi PF3932-sonli farmoniga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” gi PF-4533-sonli farmoni hamda “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan og‘ilona foydalanish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1958-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan meliorativ tadbirlarni amalga oshirishga tizimli va kompleks yondashishni ta’minlash bo‘yicha ham bir qator ishlar bajarildi.Shu jumladan yaylov va sug‘oriladigan yerlardan unumli foydalanish maqsadida lazer tekislash texnalogiya usullaridan hozirgi vaqtda samarali foydalanilmoqda.

Meliorativ ishlar kompleksida sug‘oriladigan yer yuza qismini tekislash yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Dala yuza qismi holatiga mashinalar bilan tuproqqa ishlov berish, suv va shamol eroziyasi ta’sir ko‘rsatadi. Ag‘darib yoki to‘ntarib yer xaydashni noto‘g‘ri almashlash, har yilgi to‘liq tekislamaslik , vaqtinchalik sug‘orish va yer balandlarini keskin va sifatsiz tekislash, shuningdek vegetatsion va sho‘r yuvish uchun sug‘orishdagi yuvib ketish va o‘yib ketishlar sun’iy notekisliklar hosil bo‘lishiga olib keladi. Sug‘orib dehqonchilik qilinadigan va zaxi qochiriladigan rayonlardagi maydonlar yuzasini tekislashga mo‘ljallangan. Qishloq xo‘jalik yerlarini tekislash qishloq xo‘jalik texnikasidan samarali foydalanishning va barqaror yuqori hosil olishning eng muhim

shartlaridan biridir. Dalalarning yuzasi notekis bo‘lsa, donli ekinlar hosildorligi 15-20%, sabzavot ekinlariniki esa bundan ham ko‘p kamayadi. Tekislagichlar I-II kategoriyalardagi gruntlarda qo‘llaniladi. Sug‘oriladigan dalalar tekislanganda tuproqning bir tekis namiqishi uchun yaxshi sharoit yuzaga keladi va sug‘orish normasi kamayadi. Melioratsiya qilinadigan yerlarda tekislashning ikki turi: dastlabki (xomaki) va asosiy turlari qo‘llaniladi. Dastlabki tekislash paytida dalaning relefi tekislanadi: do‘ngliklar kesib tashlanadi va o‘ydim-chuqurlar to‘ldiriladi. Bu ish buldozerlar, greyderlar yoki okreperlar bilan bajariladi. Yerning mikrorelefini tekislash uchun uzun bazali va kombinatsiyalangan tekislagichlar yordamida asosiy tekislash amalga oshiriladi. Do‘ngliklar, o‘ydim-chuqurlar, katta kesaklar bo‘lmagan tekis dalalarda faqat asosiy tekislash o‘tkaziladi. Bunday tekislash tufayli dalaning 30 sm gacha bo‘lgan notekisliklarini yo‘qotish mumkin.

Lazerli tekislagichda yerlarni tekislash

Yerlarni lazerli tekislagichda tekislash bu- dala maydoni yuzasidagi eng past va baland joylar farqi 1-3 sm.dan oshmaydigan darajada, maxsus lazer jihozli qurilmalarida tekislash usuli tushuniladi. Qishloq xo‘jaligida yerlarni lazer nivelirida tekislashda traktorchi, traktor, tekislash uskunasi va lazer qurilma ishtirok etadi Meliorativ ishlar kompleksida sug‘oriladigan yer yuza qismini tekislash yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Dala yuza qismi holatiga mashinalar bilan tuproqqa ishlov berish, suv va shamol eroziyasi ta’sir ko‘rsatadi. Ag‘darib yoki to‘ntarib yer xaydashni noto‘g‘ri almashlash, har yilgi to‘liq tekislamaslik , vaqtinchalik sug‘orish va yer valiklarini keskin va sifatsiz tekislash, shuningdek vegetatsion va sho‘r yuvish uchun sug‘orishdagi yuvib ketish va o‘yib ketishlar sun’iy notekisliklar hosil bo‘lishiga olib keladi.

Lazer uzatkich (transmitter) – ushbu qurilma 360 gradusli gorizontal aylana bo‘ylab lazer nurini tarqatadi. Dunyo bozorida ushbu qurilma turli kompaniyalar tomonidan ishlab chiqariladi. Ularning lazer nurini uzatish uzunligi bir necha yuz metrdan kilometrgacha bo‘lgan maydonni tashkil etadi. Havfsizlik tariqasida lazer transmitter bilan ishlagan vaqtda lazer nuri ko‘zga tushishidan qochish lozim yoki maxsus himoya ko‘zoynaklarni taqish lozim.



Lazer nurini qabul qilgich (resiver)ning asosiy vazifasi transmiterdan qabul qilingan lazer signalni ma’lumotlarni boshqaruv qurilmasiga uzatadi. Transmitterdan uzatilayogan signal, resiverdagi har xil fotoelement chiroqli indikatorlarda namoyon bo‘lib, dala maydon gorizontal tekisligining past va baland joylarini ko‘rsatadi. Resiver skreper kovshasi ustidagi machtaga mahkamlanadi. Ma’lumotlarni boshqaruv (blok) qurilmasi signalni qabul qilgich (resiver)dan olib, uni elektrogidroklapanga uzatadi. Dala maydon gorizontal tekisligining balandpastligi boshqaruv

qurilmasining fotoelementli chiroqlarida aks etadi. Ma’lumotlarni boshqaruv qurilmasi traktor kabinasiga o‘rnatilgan bo‘lib, avtomatik yoki qo‘lda boshqarish orqali ishlaydi.

Elektrogidroklapan (solenoid gidroklapan) ma’lumotlarni boshqaruv qurilmasidan olgan elektr signalni kovshaning mexanik ishiga aylantiradi. Traktordan chiquvchi shlangalar elektrogidroklapan orqali skreper kovshasiga boradi. Signalning qanday berilishiga qarab, skreper kovshasining ko‘tarilishi yoki tushirilishi boshqariladi.

Teleskopik o‘lchov lineykasiga mahkamlangan, dala maydon topografiyasini qo‘lda o‘lchashga moslashgan resiver. Teleskopik o‘lchov lineykasi (uzunligi 3-4 m), asosan topografik relefni aniqlashda ishlatiladi. Tuproq namligi yuqori bo‘lmasligi; Dala maydoni o‘simlik qoldiqlaridan tozalangan; Dala chuqur haydalib, tekislangan; Ekinlarni ekish va sug‘orish yo‘nalishlari aniqlangan. Lazer niveliri va qo‘shimcha ishchi qurilmalarni tekshirish; Dala maydon tomonlari uzunligini o‘lchash; Dala maydon topografik holatini aniqlash; Tekislash ishlarini olib borish (qiyalik 1-5 % èki absolyut 0%); Tekislash ishlari tugaganidan keyin dalani qayta topografik tekshirish. Lazerli tekislagich yordamida tekislangan dala maydonida suv va boshqa ozuqa moddalarning bir xil taqsimlanishi bois, barcha turdagi ekinlarning yaxshi rivojlanishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Sug‘orish suvi sarfi 20-25 %ga tejaladi; Suvdan foydalanish samaradorligi 30 - 40%ga ortadi; Sug‘orish suvi orqali ortiqcha tuz kelishining oldi olinadi; Sug‘orishga ketadigan vaqt, ishchi kuchi va energiya tejaladi; Dala maydoni ekinlar bir tekis unuvchanlikga ega

bo‘ladi; Ekinlar bir xil oziqa moddalar va namlik bilan ta’minlanadi; Begona o‘tlar miqdori kamayadi; Qishloq xo‘jaligida 1 gektar maydonda qo‘shimcha 5-7 s hosil olishga erishiladi; Qo‘shimcha olingan hosil xo‘jalikni qo‘shimcha iqtisodiy daromat man’baiga olib keladi; Qo‘shimcha olingan hosil hisobiga mahsulotni eksport qilishsalohiyati yanada ortadi; Eng asosiysi, yerga ishlov berish to‘g‘ri olib borilsa dala maydoni 3-5 yilda qayta tekislanadi. Lazer tekislagichining texnik qismlari iqtisodiy jihatdan qimmat; An’anaviy tekislashga nisbatan xarajatlar yuqori; Foydalanuvchining uquvsizligi tufayli buzilib qolish ehtimoli yuqori; An’anaviy tekislashga nisbatan yerlarni zichlashtirib yuboradi; Agar shudgorlash ishlari yaxshi olib borilmsa, har yil tekislashga to‘g‘ri keladi;

Xulosa

Demak xulosa qilib shuni aytish joizki lazerli tekislagich texnalogiyalarni qo‘llaganimizda sug‘orish suvi sarfi 20-25 %ga tejaladi; suvdan foydalanish samaradorligi 30 - 40%ga ortadi; sug‘orish suvi orqali ortiqcha tuz kelishining oldi olinadi; sug‘orishga ketadigan vaqt, ishchi kuchi va energiya tejaladi; dala maydoni ekinlar bir tekis unuvchanlikga ega bo‘ladi; ekinlar bir xil oziqa moddalar va namlik bilan ta’minlanadi; begona o‘tlar miqdori kamayadi; qishloq xo‘jaligida 1 gektar maydonda qo‘shimcha 5-7 s hosil olishga erishiladi; qo‘shimcha olingan hosil xo‘jalikni qo‘shimcha iqtisodiy daromat man’baiga olib keladi; qo‘shimcha olingan hosil hisobiga mahsulotni eksport qilish salohiyati yanada ortadi; eng asosiysi, yerga ishlov berish to‘g‘ri olib borilsa dala maydoni 3-5 yilda qayta tekislanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raximov N., Muradov R. Lazerli yer tekislash va tuproqni chuqur yumshatish ishlari bo‘yicha qo‘llan- ma. Toshkent, BMTTD, 2012, 52 b
2.Shaymanov N.O., Muradov R.A. Yer tekislash ishlarini loyihalash // Agroilm jurnali 2017y. 1(45)-son. 73 b

UO'T: 631.2.3

АСОСИЙ ЭКИН СИФАТИДА МАККАЖЎХОРИ НАВЛАРИНИ СУВТЕЖАМКОР ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТАРТИБЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ.

Жўраев Фазлиддин Ўринович. Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурларини бошқариш институти илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор

Исаева Лайло Бахтиёровна. Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурларини бошқариш институти докторанти.

Бобирова Мадина Бобир қизи. Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурларини бошқариш институти талабаси.

Нажмиддинов Мангуберди Маьруф ўгли. Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурларини бошқариш институти талабаси.

Аннотация: Маккажўхори энг қимматли, юқори ҳосилли дон экини ҳисобланиб озиқ – овқат, ем – хашак, техник ва агротехник аҳамиятга эга. Озиқ-овқат сифатида маккажўхорининг дони ишлатилади. Унинг дони жуда ҳам тўйимли ҳисобланиб, таркибида ўртача 10,6% клетчатка, 1,4% кул моддалари бор. Лекин, маккажўхори донида оқсил миқдори кам бўлади. Шу сабабли маккажўхори унига 25-30% буғдой уни қўшиб нон ёпилади. Маккажўхори дони таркибида ёғ моддаси (4,3-5,0%) кўп бўлганлиги учун унинг уни тез ачийди. Дон муртаги махсус машиналарда ажратиб олиниб, қолган қисмидан ун тайёрланади, чунки маккажўхорининг муртаги таркибида 25 – 40 % гача мой моддаси бўлиб, ундан озиқ – овқат учун ишлатиладиган мой тайёрланади. Бундан ташқари, маккажўхори донидан ёрма тайёрланади, сут – мум пишиш даврида уни қовурилган (бодроқ) ва қайнатиб пиширилган ҳолда озиқ – овқат сифатида ишлатиш

мумкин. Шу даврда унинг донидан консерва тайёрлаш ҳам мумкин. Ем – хашак сифатида маккажўхорининг дони ва пояси ишлатилади. Унинг дони жуда тўйимли (1 кг маккажўхори дони 1,34 кг озуқа бирлигига эга) ҳисобланиб, уй паррандаларига ва молларга бутунлигича ёки ёрма ҳолида берилади.

Калит сўзлар: Маккажўхори, юқори ҳосил, ем – хашак, тўйимли, маккажўхори дони, маккажўхори уни.

UDC: 631.2.3

DEVELOPMENT OF PROCEDURES FOR IRRIGATION OF CORN VARIETS AS MAIN CROPS.

Isayeva Laylo Bakhtiyorovna., Doctoral student

Anotation Corn is the most valuable, high-yielding cereal crop with food, fodder, technical and agrotechnical significance. Corn kernels are used as food. Its grains are very nutritious, containing an average of 10.6% fiber and 1.4% ash. However, the amount of protein in corn kernels is low. That is why corn is covered with bread by adding 25-30% wheat flour to it. Due to the high content of fat (4.3-5.0%) in corn kernels, it makes it ferment quickly. Grain husks are separated on special machines and the rest is used to make flour, because corn husks contain 25-40% of fat, which is used for cooking oil.

Keywords: Corn, high yield, fodder - fodder, nutritious, corn grain, corn flour.

Кириш. Дунёда аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари, саноатни ҳомашё, чорвачиликни эса озуқага бўлган талабини қондиришда дала экинларининг биологик хусусиятлари, тупроқ ва иқлим шароитларини ҳисобга олган ҳолда уларни етиштириш агротехнологияларини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Маккажўхорининг майдони дунё бўйича буғдой ва шолидан кейин учинчи ўринни, ем-хашак экинлар гуруҳида эса биринчи ўринни эгаллайди. Бугунги кунда маккажўхори экин майдони АҚШда 22,5 млн., Хитойда 20,6 млн., Бразилияда 11,8 млн. гектарни ташкил этади. ФАО маълумотларига кўра, экинлар структурасида маккажўхори майдони буғдойга нисбатан АҚШда-23 фоиз, Австралияда-63 фоиз, Германияда-70 фоиз, Францияда-43 фоиз, Россияда-3,5 фоиз кўп миқдорда жойлаштирилиб, ўртача ҳосилдорлик гектарига 7-10 тоннани ташкил этмоқда.

Дунёда маккажўхорини асосий ва такрорий муддатларда етиштиришда суғориш усули ва суғориш тартибларини такомиллаштириш орқали тупроқда озиқа моддалар мувозанатини мақбуллаштириш, юқори дон ва яшил масса ҳосили олиш, аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари, саноатни ҳомашё ва чорвачиликни тўйимли озуқа билан таъминлашга эришилмоқда. Бу борада фосфоритлар негизида ишлаб чиқилган янги ўғитларни азотли ва калийли минерал ўғитлар билан биргаликда қўллашнинг маккажўхорини ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсири ҳамда уларни қўллашнинг мақбул технологиясини ишлаб чиқиш бўйича илмий-тадқиқотлар долзарб бўлиб ҳисобланади.

Маккажўхори дунёда энг кўп етиштириладиган ва тарқалган донли экинлардан ҳисобланиб, дунё деҳқончилигида энг қадимий экинлардан биридир. У ем-хашак, озиқ-овқат ва техникавий экин ҳисобланади. Дони таркибида углеводлар 65-70%, оқсил 9-12%, 4-8% ёғ сақлайди, бундан ташқари, минерал тузлар ва витаминлар бор. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (ФАО)нинг маълумотларга кўра, дунё бўйича 2019 йил маккажўжори (дон учун) 192 млн. га экилган бўлиб, жами ҳосилдорлик 1046 млн. тоннани ташкил қилган. Экин майдони ва юқори ҳосил етиштириш бўйича АҚШ биринчи, Хитой иккинчи, Бразилия эса учинчи ўринни эгаллаган. Республикамизда ўртача ҳар йили 30-32 минг га майдонга (асосий экин сифатида) маккажўхори (дон учун) экилади.

Ташқи муҳит шароитига талаби

Сувга талаби. Ўсиб ривожланиш даврида маккажўхори кўп сув талаб қилади. Яхши ривожланган маккажўхори муқобил меъёрда сув билан таъминланганда бир кунда 4 *л* сув буғлатади. Тупроқда сув миқдори 9,5% дан паст бўлса ўсимлик ўсишдан тўхтайди, 6,7% дан камайса сўлий бошлайди. Сувни барглари орқали буғлатади. Транспирация коэффициенти 230-250 (370) ва ундан ортиқ.

Ёруғликка талаби. Ёруғликнинг маккажўхорига ўсиш ва ривожланишда, фотосинтез жараёнида, ҳосил аъзоларининг шаклланишида ва ҳосилдорликнинг ошишига таъсири катта. Ёруғлик ўсимликда хлорофилл шаклланишида аҳамияти баланд, чунки баргда хлорофилл бўлмаса фотосинтез жараёни кечмайди. Маккажўхори

ёруғлик энергиясининг кўп миқдорини ўзлаштиради, натижада баргнинг ривожланишига ёрдам беради.
Барг - ўсимликнинг энг зарур қисми, барг ёрдамида қуёш энергияси ютилади, CO2 гази ютилади, углерод тўпланади ва транспирация жараёни кечади.
Об-ҳаво шароити қулай келиб, сув ва озиқ модда етарли бўлганда барг майдони 40-50 минг м2 /га ташкил қилади. Маккажўхори – ёруғсевар, қисқа кун ўсимлиги бўлиб, бунда унинг тропик мамлакатдан келтирилганлигининг таъсири намоён бўлади.

МАККАЖЎХОРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ДАВРЛАРИ

Маккажўхорида ўсиш ва ривожланишнинг қуйидаги даврлари мавжуд: майсаланиш, най ўраш, рўвакланиш, гуллаш, сут-мум пишиш, тўлиқ пишиш. Маккажўхори мақбул муддатларда экилганда 8-10 кунда униб чиқади. У биринчи даврда секин ўсади. Пояси тўпгул ҳосил қилиш даврида ўсиши тезлашади. Бу вақтда суткалик ўсиши 8-10 см ва ундан ортиқ бўлади. Маккажўхорининг навига қараб уруғ униб чиққандан сўнг 60-70 кун ўтгач, оталик тўпгули ва 4-6 кундан кейин оналик тўпгули, сўта ҳосил бўлади. Одатда, сўта рўвакка нисбатан (оталик гултўплам) 2-3 кун кейин гуллайди. Маккажўхори четдан чангланувчи ўсимлик. Шунинг учун уни сунъий равишда ҳам чанглантириш мумкин.

Тажриба олиб боришда тупроқда амалга ошириладиган ишлар:

- тупроқнинг морфологик тузилиши тажриба қўйишдан олдин ўрганилди. Бунинг учун сизот сувлари сатҳигача бўлган чуқурликда тупроқ қирқими қазилиб, тупроқнинг генетик қатламлари бўйича морфологияси аниқланди.
- тупроқнинг сув ўтказувчанлиги ҳар йили тажриба амал даври бошида ва амал даври охирида барча вариантлар бўйича аниқланди.
- тупроқнинг чегаравий дала нам сиғими 2х2 метр ўлчамдаги майдонга рамка қўйиш йўли билан тажриба бошида аниқланди.
- тупроқнинг намлиги суғоришлардан олдин систематик равишда термостатда қуритиш йўли билан аниқлаб борилди. Тупроқ намуналари ҳар бир вариантда 3 та қайтариқда 1,0 метрли қатламнинг ҳар 10 см қатламларидан олиниб, таҳлил қилинди.

- суғориш муддати ва меъёрларини аниқлашда тажриба схемасига мувофиқ тупроқнинг суғоришлардан олдинги намлиги орасидаги ЧДНСга нисбатан фарқ С.Н.Рыжов формуласи бўйича ҳисобланди.

- тажриба даласига берилаётган сув миқдори Чиполетти (ВЧ-50) сув ўлчагичлари ёрдамида ва томчилатиб суғоришда датчик ёрдамида ҳисобга олиб борилди.

- сизот сувлари сатҳининг ўзгариши тажриба майдонида ўрнатилган

3 та кузатув қудуқлари ёрдамида аниқлаб борилди. Қувурлар 40 мм диаметрда бўлиб, 2,5 метр чуқурликка ўрнатилди. Қувурларнинг қуйи 1,2 метрли қисми ғалвираксимон тешикчалардан иборат бўлиб, улар фильтр (капрон материал) билан ўралган. Сизот сувлари сатҳи ҳар 10 кунда 1 марта ўлчаб борилди.

- сизот сувларининг минераллашганлик даражаси барча кузатув қудуқлари бўйича шўр ювишдан олдин ва шўр ювиш тўлиқ тугагандан кейин ҳамда ўсув даврининг охирида аниқланди, шунингдек қуруқ қолдиқ , хлор-иони ва сульфат миқдорлари аниқланди.

- тупроқни туз режимини аниқлаш учун тадқиқотнинг бошланишида, ўсув даври бошида ва охирида ҳар бир дала ва вариантлар бўйича тупроқ намуналари олиниб, қуруқ қолдиқ, хлор-иони ва сульфат миқдори аниқланди, (0-30; 30-50; 50-70 ва 70-100 см. да).

- тажриба қўйишдан олдин тупроқнинг 0-30, 30-50 см қатламларидаги гумус миқдори И.В.Тюрин усулида, азот ва фосфорнинг умумий миқдорлари Л.П.Гриценко, И.М.Мальцева усулида, нитратли азот калориметр усулида, ҳаракатчан фосфор Б.П.Мачигин, алмашинувчи калий эса П.В.Протасов усулида аниқланди.

- барча агрокимёвий таҳлиллар «Методика агрохимических анализов почв и растений» асосида олиб борилди.

Маккажўхори ўсимлигида фенологик кузатувларда амалга оширилган ишлар:

- уруғни униб чиқиши ва амал даври охирида кўчат қалинлиги ҳар бир вариант ва қайтариқлар бўйича аниқланди.

- маккажўхорининг бўйи, барглар сони, ҳосил элементлари ҳар ойнинг (май, июн, июл, август, сентябрь, октябрь) 1-кунида доимий кузатув олиб бориладиган 75 та ўсимлик (ҳар бир такрорланишда 75 тадан) вариантлар бўйича;

- 1000 дона маккажўхори донининг вазни доимий кузатиш олиб борилган ўсимликлар (75 дона ўсимлик) вариантлар бўйича;

- тажрибада ҳосил ҳар пайкалнинг 4-та ҳисобли қаторларидан йиғиб олиб, тортилиб, янчиб, тозаланиб, яна тортиб кейин гектар ҳисобида аниқланди;

- маккажўхори донининг сифат кўрсаткичлари барча вариантлар ва қайтариқлар бўйича аниқланди.

Тажриба майдонидаги экинларни суғориш, озиқлантириш ва бошқа агротехник тадбирлар Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий-тадқиқот институтининг "Дала тажрибаларини ўтказиш услублари" (ПСУЕАИТИ 2007 йил) асосида олиб борилди .

Хулоса:

1. Тажриба қўйиш учун дала танланиб унинг тупроқ кесмаси қазилди ҳамда генетик қатламлар бўйича таърифланди ва морфологик белгилари ўрганилди.

2. Дала тажрибаси майдонининг тупроғини ҳажм массасини ўрганиш мақсадида (умумий тагликда) баҳорда уч нуктада тупроқни ҳар 10 см қатламидан то 0-100 см қатламигача уни ҳажм массаси аниқланди. Куз пайтида бу иш тажрибанинг барча вариантларида амалга оширилди.

3. Баҳорда тупроқнинг сув ўтказувчанлигини умумий тагликда уч нуқтада, кузда эса барча вариантлар бўйича аниқланди.

4. Тупроқнинг намлиги суғоришлардан олдин систематик равишда термостатда қуритиш йўли билан ҳар бир вариантда 3 та қайтариқда 1,0 метрли қатламнинг ҳар 10 см қатламлари бўйича аниқланди.

5. Тупроқнинг агрокимёвий тавсилотини аниқлаш мақсадида тупроқнинг 0-30; 30-50 см ли қатламларидан намуналар конверт усулида олиниб, тажрибани бошлашдан аввал (баҳорда) умумий чиринди миқдори И.В.Тюрин, азот, фосфор К.Гингбург, Е.М.Шеглова ва В.В.Вульфиус, калий Смит, нитратли азот-канометрик усулда ёки Гранвальд-Ляжу, харакатчан фосфор Б.П.Мачигин, алмашинувчи калий П.В.Протасов усулларида аниқланиб, кузда ушбу қатламлардан вариантлар бўйича тупроқ намуналари олиниб, уларда ҳам N, P, K ни умумий ва харакатчан турлари аниқланди.

6. Тупроқда харакатчан нитрат, фосфор ва калийни аниқлаш мақсадида маккажўхорини шоналаш, гуллаш олдидан ва кузда тажрибанинг барча вариантларидан 0-50 см. гача тупроқ намунаси (0-30; 30-50 см) икки қайтариқ бўйича олинди.

7. Сизот сувларининг минераллашув даражаси Маккажўхорининг амал даври бошида ва кузда барча вариантлар бўйича аниқланди.

8. Тупроқ шўрланиш даражаси ва миқдорини аниқлаш мақсадида Маккажўхорининг амал даври бошида ва кузда барча вариантлар бўйича аниқланди.

9. Маккажўхорининг фенологик кузатувлар: ҳар бир қайтариқларда уруғни униб чиқиши ва кўчат қалинлиги, ҳар бир вариантда маккажўхорининг бўйи, ҳосил шохлари, ҳосил элементлар сони (май, июн, июл, август, сентябрь, октябрь ойларининг 1 санасида), 1000 дона маккажўхори донининг вазни, дон ҳосили, доннинг сифат кўрсаткичлари барча вариантлар ва қайтариқлар бўйича ўрганилди.

10. Бухоро вилоятининг ўтлоқи аллювиал тупроқлар шароитида асосий экин маккажўхори NS-6010 ва NS-770 навларини сувтежамкор томчилатиб суғориш тартибларини қўллаш орқали дарё сувларини иқтисод қилинди, юқори ва сифатли дон ҳосили олинди, суғориш учун сарфланган сув миқдорини 40-45 фоизга камайтирилди, дон ҳосилдорлигини20-25фоизга, 1 $м^3$ сувнинг самарадорлигини оширилди ҳамда тупроқ-иқлим шароитларига мос деҳқон, фермер хўжаликлари ва кластерлар учун тавсиялар ишлаб чиқилди.

Маккажўхорини етиштириш ва ундан ҳалқ хўжалигининг турли соҳалрида, фармацевтика, қорамолчилик ва бошқа соҳалардаги аҳамиятлари ҳисобга олиниб Бухоро вилоятининг ўтлоқи аллювиал тупроқлар шароитида истиқболли маккажўхори NS-6010, NS-770 навларининг сувтежамкор суғориш технологиясини ишлаб чиқиш долзарб масала бўлиб турганлиги инобатга олиниб, илмий тадқиқот изланишлари Бухоро туманлари далаларининг қадимдан суғориладиган ўтлоқи аллювиал, кучсиз шўрланган тупроқлари шароитида асосий экин сифатида экилган маккажўхорининг навини етиштириш бўйича илмий-тадқиқот ишлари олиб борилиб дастлабки натижаларга еришилиб ва бу йўналишда илмий тадқиқот ишлари давом эттирилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Александрова Л.Н., Найденова О.А. – Лабораторно-практические занятия по почвоведению. Изд-во «Колос», 1976, 275 с.

2. Белоусов М.А-Физиологические основы корневого питания хлопчатника, Ташкент, изд-во «Фан», 1975, 175 с.

3. Гаркуша Ф, Яцюк М.М. Почвенный раствор. Почвоведение с основами геологии. 140 - 193 с.

4. Гедроиц К.К -Учение о поглотительной способности почв, М.1933, 176-194 с.

5. Генкель П.А. Физиология растений с основами микробиологии. Изд-во «Просвещение», Москва, 1965. 242 – 302 с.

6. Конобаева Г.М. – Почвы Узбекистана, их районирование и качественная оценка. Изд-во «Мехнат», Ташкент, 1985, 199 с.

8. Ковда В.А. – Почвенный раствор. В учебнике «Почва и почвообразование», Москва, «Высшая школа», часть I, с. 152-164.

9. Ковда В.А - Происхождение и режим засолённых земель, М-Л. Изд-во АНСССР, 1937, 91-102 с.

10. Легостаев В.М. – Мелиорация засоленных земель. Госиздат Узбекистана, Ташкент, 1959, 149 с.

11. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах, Ташкент, 1963, 263 с.

12. Методы агрофизических исследований, Ташкент, 1973, 126 с.

14. Панков М.А-Процессы засоления и рассоления почвы Голодной степи, Ташкент, 1961, 375 с.

15. Панков М.А-Мелиоративное почвоведение. Изд-во «Ўқитувчи", Ташкент, 1974, 415с.

17. Рабочев И.С. Королева И.К. Расширенное воспроизводство почвенного плодородия. Изд-во «Знание», Москва 1983, 63-с.

18. Умаров М.У. Физиологические свойства почв районов нового и перспективного орошения Узбекистана. Изд-во «Фан». Ташкент, 1974, 263 с.

19. Атабаева Х., Худойқулов Б, «Ўсимликшунослик» Тошкент, 2018,

UO‘T: 631.633

EKINLARNI SUG’ORISH MASALASINING DOLZARB JIHATLARI

Poziljonov Javlonbek G’ayratali o’g’li, *Farg’ona Davlat Universiteti Uzumchilik, mevachilik va sabzavotchilik qo’shma fakulteti Agronomiya (Anorchilik) yo’nalishi 4 – kurs talabasi*

Emai; ljavlonbekpoziljonov844@gmail.com

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich., q.x.f.f.d (PhD) FarDU Mevachilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish usullari sug'orish suvini sug'oriladigan uchastkalarga taqsimlash va suvning oqim shaklini tuproq va atmosfera namligiga aylantirishda qo'llaniladigan usul va tadbirlar majmuasi bo'lib, hozirgi vaqtda yer yuzasidan, tuproq ustidan, yomg'irlatib, tuproq orasidan, tomchilatib va aerozol (mayda dispers yomg'irlatib) sug'orishlar farqlanadi

Kalit so‘zlar: dispers, aerozol, irrigatsiya eroziyasi, geomorfologik, akveduk, dyuker

UDC: 631.633

DIFFICULTIES OF CROP IRRIGATION

Poziljonov Javlonbek Gayratali oglu, Fergana State University Joint Faculty of Viticulture, Fruit and Vegetable Growing 4th year student of Agronomy

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich., Ph.D. (PhD) Head of the Department of Fruit and Vegetable Growing FarDU

Annotation; Irrigation methods for agricultural crops are a set of methods and measures used to distribute irrigation water to irrigated plots and convert the flow of water into soil and atmospheric moisture. From the soil, drip and aerosol (finely dispersed sprinkler) irrigation is distinguished).

Keywords: dispersion, aerosol, irrigation erosion, geomorphological, aqueduct, duke,

O‘zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligining eng yirik tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng bu sohani rivojlantirish

maqsadida mulkchilikning yangicha shakllari teng huquqli asosda ravnaq topishini ta’minlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish borasida islohotlarni chuqurlashtirish kabi dolzarb masalalarga alohida e’tibor berilmoqda. Yurtimizda qabul qilinayotgan qonunlar, Hukumat qarorlari qishloq xo‘jaligida yer-suv resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishga, sug'oriladigan gektar mahsuldorligini oshirishga imkon bermoqda. 1998-yil 30-aprelda «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to ‘g‘risida», «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida», «Dehqon xo'jaligi to ‘g‘risida»gi qonun va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, Respublika Prezidentining 2003-yil 24- martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to ‘g‘risida» va 27 - oktabrdagi «2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari talablaridan kelib chiqqan holda ularga tegishli qo‘shimcha va o'zgartirishlar kiritildi, yangi tartibdagi «Fermerlar xo'jaligi to ‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Bularning barchasi dehqon va fermer xo‘jaliklarining yer-suv resurslariga bo'lgan munosabatlarini to'laqonli shakllanishiga yo‘l ochdi[1, 4].

Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish usullari sug'orish suvini sug'oriladigan uchastkalarga taqsimlash va suvning oqim shaklini tuproq va atmosfera namligiga aylantirishda qo'llaniladigan usul va tadbirlar majmuasi bo'lib, hozirgi vaqtda yer yuzasidan (tuproq ustidan),yomg'irlatib, tuproq orasidan, tomchilatib va aerozol (mayda dispers yomg'irlatib) sug'orishlar farqlanadi.

Sug'orish texnikasi sug'orishni o'tkazish texnologiyasi va bunda qo'llaniladigan texnik vositalarni o'z ichiga oladi. Sug'orish texnikasi zamonaviy sug'oriladigan dehqonchilikda eng murakkab va mas’ul agromeliorativ tadbir hisoblanadi.Sug'orishning sifati va suvdan tejamli foydalanish, sug'orishda ish unumdorligini oshirish, tuproqning qulay suv, havo, tuz va oziq rejimlarini, meliorativ ahvolini ta’minlash, tuproq unumdorligini oshirish ko'p jihatdan sug'orish usulini to'g'ri tanlanganligi hamda sug'orish texnikasini to'g'ri tashkil etilganligi va amalga oshirilishiga bog'liq bo'lib, bularning barchasi ekinlardan yuqori va barqaror hamda sifatli hosil yetishtirish shartlaridir[2,3]..

Sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligi sug'orish usuli va texnikasiga ma’lum darajada bog'liq. Qabul qilingan sug'orish usuli va texnikasi sug'orish suvini dalaga bir tekisda taqsimlash va tuproqning hisobiy qatlamini bir xilda namiqtirish, suvni filtratsiya va

oqavaga behuda sarfini eng kam darajaga tushirish, tuproqqa va ekinlarga ishlov berishni mexanizatsiyalash, suvchilar uchun tegishli gigiena sharoitlarini yaratgan holda sug'orishni kechayu-kunduz o'tkazish va ulaming ish unumdorligini oshirish imkoniyatlarini berishi lozim. Tanlangan sug'orish usuli va texnikasi sug'orish tizimida suv taqsimlash jarayonlarini hamda sug'orishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga erishishni ta’minlamog'i zarur.

Shuningdek, sug'orishga qilinadigan mehnat sarfi va xarajatlarining eng kam bo'lishligi, sug'orishning tuproqni zichlashuvi va strukturasini buzilishi hamda irrigatsiya eroziyasiga sabab bo'luvchi salbiy ta’sirini eng kam darajada bo'lishi, mazkur usulni ma’lum bir tabiiy sharoitda qo'llash mumkinligi e’tiborga olinadi.

1 - jadval

Turlicha sug‘orish usullarini qo‘llash maqsadlari

Sug‘orish usullari	Tuproqni namiqtirish	Havo namligini oshirish	Nam to‘plash	Sho‘r yuvish	O‘g‘itlash	Chiqindi suvlar bilan sug‘orish	Haroratni boshqarish	Provaka-tsion
Yomg‘irlatib	+	+	x	-	+	x	+	+
Tuproq ustidan	+	x	+	+	x	+	-	+
Tuproq orasidan	+	-	-	-	+	+	-	-
Tomchilatib	+	-	-	-	+	-	-	-
Aerozol	-	+	-	-	-	-	+	-

Izoh: maqsadga «+» – muvofiq; «-» – nomuvofiq; «x» – qisman muvofiq.

2 - jadval

Turlicha sug‘orish usullarini qo‘llash sharoitlari

Sug‘orish usullari	Sho‘rlangan tuproqlar	Yengil qumoq tuproqlar	Og‘ir tuproqlar	Murakkab relyefli tuproqlar	Katta nishobli yerlar	Minerallashgan sizot suvlar yaqin joylashgan yerlar	Suv resurslari kam yerlar	Sug‘orish suvlari minerallashgan	Kuchli shamolli rayonlar
Yomg‘irlatib	-	+	x	+	+	+	+	-	x
Tuproq ustidan	+	x	+	x	x	x	x	x	+
Tuproq orasidan	-	x	x	x	+	-	+	-	+
Tomchilatib	-	x	+	+	+	-	+	-	+
Aerozol	+	+	+	+	+	+	+	-	+

Izoh: qo‘llash «+» – mumkin; «-» – mumkin emas; «x» – qisman mumkin.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish usullari va texnikasini tanlashda joyning iqlim, geomorfologik, gidrogeologik sharoitlari, biologik, xo'jalik,

iqtisodiy va boshqa bir qator omillarni e’tiborga olish talab etiladi. Hududning nam bilan ta’minlanganlik darajasi, suvning bug'lanishga sarfi, havoning harorati va nisbiy namligi, shamolning tezligi va yo'nalishi kabi muhim iqlim elementlari ham hisobga olinishi lozim. Hududning nam bilan ta’minlanganlik darajasi bug'lanish kamomadi (mavsum davridagi umumiy bug'lanish *(E)* va yog'in suvlaridan foydalanish *(P)* miqdorlari farqi: $D = E - P$) va namlanish koeffitsienti *(Pn)* ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Qabul qilingan sug'orish usuli va texnikasi ushbu kamomadni to'liq yoki undan ko'proq miqdorda ta’minlay olishi zarur.

Sug'orish tizimlari alohida xo'jalikka (dehqon-fermerlar uyushmasi, fermer, dehqon) xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa xo'jalik sug'orish tizimi,ikki yoki undan ortiq xo'jalikka xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa xo'jaliklararo sug'orish tizimi deb yuritiladi. Agar sug'orish tizimi bir nechta tuman, viloyat yoki respublikalar hududida joylashgan bo'lsa, u tegishlicha tumanlararo, viloyatlararo va respublikalararo sug'orish tizimlari deyiladi. Xo'jalik sug'orish tizimlaridan foydalanish bo'yicha barcha tadbir va xarajatlar xo'jalik tomonidan, xo'jaliklararo tizimlarda esa davlat tomonidan bajariladi va ta’minlanadi.

Geomorfologik sharoitlarga ko'ra tog'oldi (Markaziy Osiyoning tog'li) rayonlarida, daryolarning vodiylarida (yirik daryolar Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Chirchiq va b.) va tekisliklardagi suv ayirg'ichlarda (Ukrainaning sahro va yarim sahro rayonlari) tashkil etilgan sug'orish tizimlari o'zaro farqlanadi.

Sug'orish tizimlari tuzilishi (konstruksiyasi), suv uzatish usuli, qo'llanish holatiga qarab ham turlarga bo'linadi. Tuzilishiga ko'ra ochiq,yopiq va aralash; suv o‘z oqimi bilan, mexanik ko‘tarib berish va o‘z oqimi-mexanik, ya’ni aralash usullarda uzatiluvchi; qo'llanish holatiga ko'ra k o‘chmas (turg'un), yarim k o‘chma va ko'chma sug'orish tizimlari ajratib ko'rsatiladi.Ochiq sug'orish tizimlarida barcha yirik va mayda kanallar tuproq yoki to'shamali o'zanga ega yoki beton nov holida ochiq bo'lib, yopiq tizimlarda sug'orish tarmoqlari sifatida bosimli va bosimsiz quvurlardan foydalaniladi. Aralash turdagi tizimlarda yirik taqsimlash kanallari ochiq holda, xo'jalik taqsimlagichlari, karta sug'orish tarmoqlari yopiq quvurlardan iborat bo'ladi.Sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jaligini ixtisoslashganligiga ko'ra quyidagi sug'orish tizimlari o'zaro farqlanadi: paxtachilik,

sholichilik, meva-sabzavotchilik va boshqalar. Aholi istiqomat joylari, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarida shakllanayotgan chiqindi suvlardan namiqtiruvchi-o'g'itlash maqsadlarida foydalanish uchun maxsus tizimlar — chiqindi suvlardan foydalaniladigan sug'orish tizimlari barpo etiladi[5,6]..

Sug'orish tizimlari murakkab suv xo'jalik majmui bo'lib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: bosh suv olish inshooti (sug'orish suvini suv manbaidan olib, magistral kanalga uzatish uchun xizmat qiluvchi to'g'o n , shlyuz, nasos stansiyalari va b.); suv uzatish va taqsimlash kanallari (magistral kanal va uning tarmoqlari, xo'jaliklararo taqsimlagichlar); xo'jalik taqsimlash tarmoqlari (xo'jalik taqsimlagichi, almashlab ekish uchastkasiga suv taqsimlagich); katta sug'orish tarmoqlari (muvaqqat va o'qariqlar, sug'orish egatlari, yo'laklar va cheklar); oqova tarmoqlari (ortiqcha sug'orish va yog'in suvlarini chiqarib yuboruvchi tashamalar); kollektor zovur tarmog'i (ortiqcha sizot suvlarni tashqariga chiqarib tashlashda qo'llaniladigan birlamchi va guruh zovurlari, vertikal zovurlar, xo'jalik va xo'jaliklararo kollektorlar, magistral kollektorlar); gidrotexnik inshootlar (suv o'lchash-taqsimlash inshootlari, akveduk, dyuker

Xulosa Qabul qilingan sug'orish usuli va texnikasi sug'orish suvini dalaga bir tekisda taqsimlash va tuproqning hisobiy qatlamini bir xilda namiqtirish, suvni filtratsiya va oqovaga behuda sarfini eng kam darajaga tushirish, tuproqqa va ekinlarga ishlov berishni mexanizatsiyalash, suvchilar uchun tegishli gigiena sharoitlarini yaratgan holda sug'orishni kechayu-kunduz o'tkazish va ulaming ish unumdorligini oshirish imkoniyatlarini berishi lozim. Tanlangan sug'orish usuli va texnikasi sug'orish tizimida suv taqsimlash jarayonlarini hamda sug'orishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga erishishni ta’minlamog'i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 5 b.

2.Sh.M.Mirziyoyev. Konun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-47 b.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

4. Z.A. Artukmetov, H.Sh. Sheraliyev. Ekinlarni sug‘orish asoslari. Qishloq xo‘jaligi oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent—2007.

5.www.gov.uz-O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.

6.www.lex.uz- O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotl*ari milliy bazasi.*

UO‘T: 631.645

JANUBIY OROLBO‘YI MINTAQASIDAGI AMUDARYO VA YOMG‘IR VA QOR YOG‘INLARI SUVINING MIKROELEMENTLAR TARKIBI

Jumamuratov M.A – b.f.d., dotsent, Nukus davlat pedagogika instituti,
Sattarov J.D. o‘qituvchi – magistrant, Nukus davlat pedagogika instituti,
Ajimuratov A.M – talaba, Nukus davlat pedagogika instituti,
mirza.aj.1974@mail.ru

Annotatsiya: Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amudaryo suvi barcha kimyoviy elementlar bilan ifloslangan bo‘lib, qish mavsumida drenaj va kollektor suvlarining oqizilishi natijasida boshqa fasllarga qaraganda ko‘proq ifloslangan.

Kalit so‘zlar: Janubiy Orolbo‘yi, Orol dengizi, Amudaryo, mikroelement, qor va yog‘in suvi.

UDC: 631.645

COMPOSITION OF MICROELEMENTS OF AMUDARYA AND RAIN AND SNOW RAIN WATER IN THE SOUTHERN Aral Sea Region

Jumamuratov M.A. – b.f.d., dots Nukus State Pedagogical Institute
Sattarov J.D. – master Nukus State Pedagogical Institute

Ajimuratov A.M – student, Nukus State Pedagogical Institute
mirza.aj.1974@mail.ru

Annotation: The water of the Amudarya river is polluted with all chemical elements and in the winter season it is polluted more than in other seasons due to discharges of drainage and collector waters.

Key words: South Aral Sea, Aral Sea, Amudarya, trace elements, snow and rainwater.

Tabiiy suvlar eng harakatchan ma'lumot manbayi bo'lib, ularning kimyoviy tarkibida ham yaqin o'tmishdagi jarayonlar, ham geologik davrlarda, sodir bo'lgan jarayonlar haqida ma'lumotlar mavjud.

Shuning uchun tabiiy suvlarning elementlar tarkibini o'rganish doimo tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib, dolzarb vazifa ekanligi, eng muhim geokimyoviy, gidrokimyoviy va nihoyat, ekologik muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Orol dengizning qurishi Qoraqalpog'istonning ham yer usti, ham yer osti suvlari holatining sezilarli gidrokimyoviy o'zgarishiga olib keldi.

Hozirgi vaqtda Orol dengizi zonasi tabiiy suvlarining holatini o'rganish, bugungi davrning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki mintaqadagi o'ta halokatli ekologik vaziyat suvlarning tabiiy harakati va kimyoviy tarkibi, haroratining o'zgarishi va boshqa fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.

Orol bo'yi zonasidagi alohida hududlarni suv bilan ta'minlash va ichimlik suvi sifati masalalari Qoraqalpog'iston tadqiqotchilari tomonidan yetarlicha batafsil o'rganilgan [1-3]. Bu ishlar hududda salbiy antrapogen omillar ta'sirida aholining immuniteti pasayganligi, buning natijasida kamqonlik, sil, oshqozon-ichak, buyrak va boshqa kasalliklari keng tarqalganligidan dalolat beradi. Bu kasalliklarning rivojlanishi yaroqsiz suvdan foydalanish bilan bog'liq ekanligi ta'kidlangan. MDH davlatlari bilan solishtirganda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar nisbatan yuqori bo'lib, bolalar o'limi bo'yicha ma'lumotlar qayt etilgan.

Shuning uchun biz oldimizga Qoraqalpog'iston tabiiy suvlarining elementlari tarkibini o'rganish vazifasini qo'ydik va bu ma'lumotlar asosida ularning tarqalish va to'planish yo'llarini izlashga harakat qildik.

Suv namunalari Amudaryo va Janubiy Orol bo‘yining markaziy kollektor-drenaj tarmoqlaridan birida o‘tkazildi.

Qish faslida daryo suvida qaytib keladigan suvlarning oqishi va yer usti suv oqimining yer osti suvlari bilan oziqlanish natijasida Na, K, va Ca miqdori maksimal va kuzdan boshlab bu elementlarning darajasi ko‘tariladi (rasm-1).

Amudaryo suvlarining neytron faollashuv tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki yozda (iyulda) suvlarning elementlar tarkibi ozmi-ko‘pmi barqaror qish, bahor va kech kuz davrlarida esa deyarli barcha elementlar bilan ifloslanish sodir bo‘ladi.

Drenaj-kollektor suvlarida daryo suvlariga nisbatan kimyoviy elementlarning ko‘pligi aniqlangan.

Qish mavsumida daryo suvidagi kimyoviy elementlarning miqdori yozgi davrdagi nisbatan 0.5 dan 26 barobar yuqori. Daryo suvlari bilan tuzlar va mikroelementlar miqdori yiliga 72 kg/ga dan ortiq.



1-rasm. Daryo suvida Na, K, va Ca ning mavsumiy o‘zgarishlari Amudaryo, Janubiy Orol dengizi hududida.

Hamda Janubiy Orolbo‘yi hududidagi atmosfera chang-to‘zonlari, yomg‘ir va qor yog‘inlari elementlari tarkibi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari bayon qilingan. Tahlil natijalaridan olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, yomg‘ir suvlari kimyoviy elementlarga

ancha to‘yingan bo‘ladi. O‘rganilayotgan Janubiy Orolbo‘yi hududini Na, Ba, Cl keragidan ortiq bo‘lgan biogeokimyoviy viloyat (provinsiya)lar jumlasiga kiritish mumkin. Yomg‘ir suvlarining ifloslanishini aerozol zarralari tarkibi bilan bog‘lash mumkin Na va Cl dan keyin yomg‘ir suvlarining ifloslanish darajasi quyidagi elementlarga bog‘liq: Se (C_y/C_q=5,25), Ba (C_y/C_q=1,94), Cd (C_y/C_q=1,91), Co (C_y/C_q=1,85), Cr (C_y/C_q=1,8), Sb (C_y/C_q=1,56), Rb (C_y/C_q=1,52), Eu (C_y/C_q=1,50), Mn (C_y/C_q=1,45), Th (C_y/C_q=1,40), Sm (C_y/C_q=1.30), Ca (C_y/C_q=1,23), Fe (C_y/C_q=1,18), Sr (C_y/C_q=1,08) va b. Ta’kidlash kerakki, atmosfera yog‘inlari (yomg‘ir, qor) elementlari tarkibining shakllanish darajasi aerozol zarralari tarkibiga yoki yerdan ko‘tarilgan chang-to‘zonlar tarkibiga bog‘liq bo‘ladi (rasm-2).



	Na*	Ca*	Cl	Sc	Cr	Mn	Fe*	Co	Se	Rb	Cd	Sr	Sb	Ba	La	Ce	Sm	Eu	Au	Hg	Th	U
Ёмғир суви	86	35	184	0	3,2	14	0,9	0,2	1,1	1	0,2	53	1,3	2,1	1,1	3,2	0,2	0	0	0,1	0,1	0,1
Қор суви	4,5	28	19	0,1	1,8	9,7	0,8	0,1	0,2	0,7	0,1	49	0,8	1,1	1,1	3	0,1	0	0	0,1	0,1	0
Сё/Сқ	19	1,2	9,5	0,6	1,8	1,4	1,2	1,9	5,3	1,5	1,9	1,1	1,6	1,9	1	1,1	1,3	1,5	0	1	0	0

2-rasm. Yomg‘ir, qor suvining elementlik tarkibi. Nukus shahri (mkg/l, *mg/l)

Bu jarayon, bilishimizcha, iqlim, harorat, zamon-makon omillari, shuningdek, ximiyaviy elementlarning fizik, ximik holatlariga va atrof-muhitga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu natijalarni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, atmosfera chang-to‘zonlar, tuproq (landshaftlarda) va sahro zonalarida uning elementlari tarkibi taxminan bir xil hamda bir-biri bilan aniq korrelyatsiya qilinadi. Atmosfera chang-to‘zonlarining element tarkibi Orol dengizi akvatoriyasida kuzatilgan darajaga va sahro zonasida hamda Amudaryo deltasida, shunga yaqin va tuprog‘ining elementlari tarkibining o‘rtacha darajasi bir-biriga yaqin va (Gk)=0,98 koeffitsienti bilan korrelyatsiya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абдиров Ч. А., Агаджанян Н.А., Северин А.Е. Экология и здоровье человека. Нукус, 1993, с.153.

2. Реймов Р.Р., Экологическая обстановка ухудшается. Вестник ККО АН РУз.2001, №1-2, с.12-15.

3. Атаниязова О.А. Константинова Л.Г. Ещанов Т.Б., Курбанов А.Б. Аральский кризис и медико-социальные проблемы Каракалпакстана, Нукус, Билим, 2001,с.116.

UO'T: 633.51:631.67

G`O`ZANI SUG`ORISHDA YANGI ZAMONAVIY DATA SNAP USKUNASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Durdiyev Normat Hasanovich, q.x.f.f.d, katta ilmiy xodim,
normat8986@gmail.com
Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatining o`tloqi bo`z tuproqlari sharoitida g`o`zani sug`orishda yangi zamonaviy Data Snap uskunasidan foydalanish samaradorligi, hosildorlikni oshirish va sug`orish suvlaridan samarali foydalanish bo`iyich ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Data Snap uskunasi, tomchilatib sug`orish texnologiyasi, o`tloqi bo`z tuproqlari, sug`orish me`yorlari, paxta hosili.

UDC: 633.51:631.67

EFFICIENCY OF USING NEW MODERN DATA SNAP EQUIPMENT FOR COTTON IRRIGATION

Durdiyev Normat Hasanovich, senior research fellow,
normat8986@gmail.com
Research Institute of agrotechnologies of cotton selection, seed growing and cultivation

Annotation The paper presents materials on the effectiveness of the use of new modern Data Snap equipment and increasing water use efficiency in

the irrigation of cotton in the conditions of meadow-serozem soils of the Samarkand region.

Key words: Data Snap equipment, drip irrigation technology, meadow sierozem soils, irrigation rates, seed-lint yield of cotton.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni hamda “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi bo`yicha bir qator dolzarb vazifalar soha oldiga qoyilgan. Yuqoridagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishda bir qator muammolar borligi borligi ta`kidlangan. Jumladan, suv xo‘jaligi tashkilotlaridagi suv o‘lchagichlarning yetarli emasligi suv resurslaridan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, qishloq xo‘jaligining barcha yo‘nalishlari uchun “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalari bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash va kadrlar malakasini oshirib borish zarurligi hamda suv xo‘jaligi tashkilotlaridagi suv o‘lchagichlarning yetarli emasligi suv resurslaridan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilayotganligi ta`kidlangan [2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-144-son qarori bo`yicha 2020 yilda 230 ming gektar, shu jumladan 160 ming gektar paxta xomashyosi yetishtiriladigan maydonlarda tomchilatib sug‘orish; 28 ming gektar, shu jumladan 25 ming gektar boshoqli don yetishtiriladigan maydonlarda yomg‘irlatib sug‘orish; 2 ming gektar qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarida diskretli sug‘orish tizimlari joriy qilinishini; 218 ming gektar ekin maydonlarining lazerli uskuna yordamida tekislanishini rejalashtirilgan. Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, mintaqada kuzatilayotgan suv tanqisligining salbiy ta’sirini yumshatish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suv resurslaridan yanada samarali foydalanish maqsadida 2022-yilda 478 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish rejalashtirilgan [2].

Ma’lumki, respublikamizda paxtachilikka ixtisoslashgan fermer xo’jaliklari va agroklasterlarda suvchilar sug’orish muddatlarini belgilashda asosan g’o’zaning tashqi belgilariga va o’simlikning umumiy holatiga qarab sug’orish ishlarini olib borishadi. Masalan, g’o’zaning

sug'orish muddatlarini g'o'za gullashgacha davrida barglarning kuchsiz so'lishi (turgorning pasayishi), gullash davrida gullash bo'g'inining almashishi va barg rangining to'q rangga kirishi yoki o'simlik gullari o'simlikning yuqori qismida joylashib, dala oppoq gulla gullaganligiga qarab belgilash fermerlar amaliyotida keng qo'llaniladi. Ilmiy tadqiqotlarda esa g'o'zaning sug'orish muddatlarini belgilashda asosan eng ishonchli usullardan biri bo'lgan tuproq namligini termostat-tarozi usulida sug'orish muddatlari aniqlanadi. Ushbu metod eng ishonchli bo'lishiga qaramasdan ko'p vaqt va mehnat talab etadi. Ushbu muammodan kelib chiqib, 2019-2021 yillarda Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida g'o'zani tomchilatib sug'orish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimizda g'o'zaning sug'orish muddatlarini aniqlashda ana'naviy termostat tarozi usulida tuproq namliklarini aniqlash bilan bir vaqtda paralel ravishda yangi zamonaviy Data Snap asbobi orqali tuproq namliklari aniqlandi. Termostat tarozi usulida aniqlangan tuproq namliklari natijalari Data Snap asbobi orqali aniqlangan namlik ko'rsatkichlariga taqqoslab tadqiqotlar olib borildi.

Tajribalarimiz Ishtixon tumani "Maroqand sifat tekstil" agroklasteri maydonlarida sizot suvlari sathi 2-3 m da joylashgan o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida olib borildi. Tadqiqotlar 2 ta tajriba tizimida S-8286 va Buxoro-102 g'o'za navlarida olib borilib, har bir tajriba tizimi 7 ta variantdan iborat bo'lib, 3 tadan takrorlanishda, bitta yarusda joylashtirildi. Qator orasi 60 sm bo'lib, tomizgichlar qator oralatib to'shaldi. Egat uzunligi 70 m, har bir variant 8 qatordan iborat, 3 ta qaytariqda olib borildi. Bitta delyankaning umumiy maydoni 336 m^2 ni, hisobiy maydoni 168 m^2 ni tashkil etdi. Tomchilatib sug'orish uchun tik quduq (skvajina) dan olingan suv va ariq suvi hovuzda tindirib foydalanildi [1].

Olib borilgan tadqiqotlarimizda Data Snap ko'rsatkichi tuproqning 0-30 sm qatlamida 20,95 % ni ko'rsatib, buni 0-30 sm tuproqdagi hajm massa ko'rsatkichi ya'ni 1,31 g/sm^3 ga bo'lganimizda tuproqning quruq vazniga nisbatan namligi 15,99 % (Data Snap ko'rsatkichi) kelib chiqadi va bu sonni 100 doimiy songa ko'paytirib, 0-30 sm dagi CHDNS ko'rsatkichiga bo'lsak 70,14 % (Data Snap ko'rsatkichi) ya'ni, ChDNSga nisbatan tuproq namligini beradi. Bunda ChDNSga nisbatan tuproq namligi Data Snap ko'rsatkichi bo'yicha 70,14 % ni, ChDNSga nisbatan tuproq namligi termostat tarozi usulida aniqlanganda esa 68,37 % ni tashkil etib, oradagi

farq 1,77 % ni tashkil etganligini ko‘rish mumkin. Data Snap ko‘rsatkichi va ana’anaviy usulda aniqlangan tuproq namliklari natijalari orasidagi farq 1,5-2,0 % ni tashkil etib, natijalar metodikaga mos ekanligi aniqlandi.

4.3-jadval

Tomchilatib sug‘orishda Data Snap uskunasi yordamida aniqlangan tuproq namliklari ko‘rsatkichlari 1-sug‘orish (Samarqand viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida, 2019 yil)

Tuproqning hisobiy qatlamlari, sm	ChDNSga nisbatan tuproq namligi, % (Data Snap)	Tuproqning quruq vazniga nisbatan namligi, % (Data Snap)	ChDNSga nisbatan tuproq namligi, % (Termostat tarozi)	Termostat tarozi usulida aniqlangan tuproq namligi, ChDNSga nisbatan, %	Data Snap ko‘rsatkichi (Moisture)
1-nuqta					
0-30	70.14	15.99	68.37	15.59	20.95
0-50	72.03	16.21	69.91	15.73	21.88
Ўртача	71.09	16.10	69.14	15.66	21.4
2-nuqta					
0-30	69.17	15.77	67.20	15.32	20.66
0-50	70.75	15.92	69.18	15.58	21.49
Ўртача	69.96	15.84	68.19	15.45	21.1
3-nuqta					
0-30	66.73	15.21	68.50	15.62	19.93
0-50	72.30	16.27	69.96	15.74	21.96
Ўртача	69.51	15.74	69.23	15.68	20.9
O`rtacha					
0-30	68.68	15.66	68.02	15.51	20.51
0-50	71.69	16.13	69.68	15.68	21.78
Ўртача	70.19	15.89	68.85	15.60	21.15

Izoh: ushbu ma’lumotlar 3 variant ya’ni tomchilatib sug‘orish texnologiyasi qo‘llanilgan ChDNSga nisbatan 70-70-60 % sug‘orish oldi tuproq namligi va 50-70-50 sm hisobiy qatlam bo‘yicha keltirilgan.

2019-2021 yillardagi har bir sug‘orish oldi tuproq namliklari bo‘yicha Data Snap ko‘rsatkichlari natijalari har bir sug`orish bo`yicha alohida aniqlangan. Bu ma`lumotlarni barchasini ushbu maqolada keltirish

imkoniyati yo`qligi sababli faqat izohda keltirilgan variant va sug`orish tartibi boyicha 1 sug`orish ma`lumotlari keltirildi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, g‘o‘zaning sug‘orish muddatlarini aniqlashda Data Snap uskunasidan foydalanish mumkin. Bunda g‘o‘zaning o‘suv fazalari bo‘yicha Data Snap ko‘rsatkichi (Moisture) ChDNSga nisbatan 70-70-60 % sug‘orish oldi tuproq namligida hisobiy qatlam 50-70-50 sm bo‘lganda gullashgacha va gullash-hosil to‘plash fazalarida 21,0-21,5 % va pishish fazasida esa 18,0-18,5 % ni, 75-75-70 % sug‘orish oldi tuproq namligida esa gullashgacha va gullash-hosil to‘plash fazalarida 22,5-23,0 %, pishish fazasida 21,0-21,5 % ni tashkil etganda sug‘orish maqsadga muvofiq. Data Snap uskunasidan foydalanishda har qanday foydalanuvchi Data Snap o‘rnatiladigan dala tuprog‘ining hajm massa va CHDNS ko‘rsatkichini aniqlab olishi zarur. Chunki, Data Snap ko‘rsatkichi dala tuprog‘ining hajm massaga bo‘lib topilgandagi ko‘rsatkichiga qarab sug‘oriladi.

Adabiyotlar

1. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. O‘zPITI. -Toshkent 2007. -B. 1-46.
2. https://lex.uz/ru/docs/-5179198
3. https://lex.uz/ru/docs/-5884584

UDC: 631

EFFECTS OF ELEMENTS OF WATER SUPPLY IRRIGATION TECHNOLOGY IN SOYA IRRIGATION IN THE CONDITIONS OF BUKHARA REGION

Abdullayeva Sitora Alisherovna- Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University Bukhara Institute of Nature Management Assistant of the Department of Water Management and Melioration Email: abdullayeva9520@gmail.com

Tagiev Akmal Hasanovich-Student of Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"

Abdullayev Akmal Azimjonovich-Student of Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"

Abstract: This article provides information about the work being done by the state to grow soybeans in Uzbekistan, the conditions created. There is also brief information about the natural conditions of Bukhara region, its location, water sources, drainage networks. At the same time, in this article, mainly on the experiments carried out on the middle-ripening "Nafis" and middle-ripening "Uzbek-6" varieties of soybeans in the Bukhara region, the elements of water-repellent irrigation technology in irrigation The results of experiments on the effects of

Keywords: shade, irrigation, technology, soil, moisture, delta, blue mass, egat, hydrogel, straw, field, flowering, biology, agrotechnics, black film.

УДК: 631

ВЛИЯНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ ТЕХНОЛОГИИ ВОДОСНАБЖЕНИЯ ПРИ ОРОШЕНИИ СОИ В УСЛОВИЯХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Abdullayeva Sitora Alisherovna- Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства Национальный исследовательский университет Бухарский институт природопользования ассистент кафедры водного хозяйства и мелиорации

Email:abdullayeva9520@gmail.com

Tagiev Akmal Hasanovich- Студент Бухарского института природопользования Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Abdullayev Akmal Azimjonovich- Студент Бухарского института природопользования Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Аннотация: В данной статье представлена информация о проводимой государством работе по выращиванию сои в Узбекистане, созданных условиях. Также даны краткие сведения о природных условиях Бухарской области, ее расположении, источниках воды, дренажных сетях. При этом в данной статье, в основном на опытах, проведенных на среднеспелых сортах сои «Нафис» и среднеспелых «Узбек-6» в условиях Бухарской области, рассмотрены элементы

водоотталкивающей технологии полива при поливе. Результаты опытов по воздействию

Ключевые слова: тень, полив, технология, почва, влага, дельта, синяя масса, эгат, гидрогель, солома, поле, цветение, биология, агротехника, черная пленка.

Today, a lot of attention is paid to agriculture. In the world's soybean-growing countries, it is important to increase its productivity, increase the quality of crop production, increase productivity through timely agro-technical measures and the use of land use technologies, mineral fertilizers for high-yielding varieties. depending on the number and duration of the tabs. Properly determining the norms, number and timing of shade irrigation, taking into account soil and climatic conditions, will have a positive impact on the quantity and quality of crops. Therefore, scientific research is being conducted to grow high-quality and high-yield soybeans.

Great attention is paid to agriculture in the country, the use of modern irrigation methods in the cultivation of crops, ie the use of water-saving irrigation technologies, achieving an efficient and high-quality increase in productivity while saving water. The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the Strategy of agricultural development of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030" makes a significant contribution to the further development of agriculture. It is also included in the Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021, approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947. That is, the priorities of economic development and liberalization are highlighted in Section 3.3 on the modernization and accelerated development of agriculture. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-3144 of July 24, 2017 Resolution No. PP-2832 and amendments to this resolution "On the creation of high-yielding soybean varieties in the Republic for 2017-2021, the establishment of primary seed production, cultivation and expansion of the area The resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 11, 2020 "On the introduction of water-saving technologies in agriculture" PQ – 4919 risida on measures for accelerated organization [8].

In the meadows of Bukhara region - alluvial, saline and saline soils, medium-ripening shade varieties "Nafis" and late-ripening Uzbek-6 varieties are elements of water-saving irrigation technology in the order of 70-70-60%

of the ChDNS. Field experiments In 2017-2019, field research was conducted on the soils of medium mechanical composition of the farm "Abror Muhammad Sakhovati" located in the territory of Halvagaron Farm, Vobkent district, Bukhara region.

Briefly about the natural location of Bukhara region, where the experiments were carried out, Bukhara region is located in the south-western part of the Republic, occupying the area of 640-690 northern and 380-440 western latitudes. The land area is 39,400 km2. The Bukhara oasis is located in the central part of the Kyzylkum desert, bordering Kashkadarya region in the southeast, Turkmenistan in the northwest, Khorezm region and the Republic of Karakalpakstan in the northeast, and Navoi region in the northwest. It is located in the lower and middle parts of the dried-up riverbed, and the main part of its land area consists of barren pastures. The Bukhara oasis is located between two major deserts in the natural geographical location of the Republic: between the Kyzylkum and Karakum deserts of Central Asia.

Irrigated lands are located in the plains of the Southern Kyzylkum desert. The Bukhara oasis stretches along the banks of the Zarafshan River to the Bukhara and Karakol oases.

Bukhara-Karakul oasis Irrigated lands in the ancient and modern delta of the Zarafshan river and its surrounding areas, Bukhara and Karakul, Karmana-Konimex settings are coming. Karmana-Konimex oasis is located in the foothills of the upper reaches of the Zarafshan River, and the Zarafshan River serves as a channel for groundwater; Bukhara region is located in the central part of the basin and forms the sub-aerial delta of the Zarafshan River. The relief of the desert on the left bank of the oasis, which surrounds the left bank of the oasis, is surrounded by ancient erosion pits, such as Khoja-Kab, Lower-Tomb, Kunja-Lake. The first depth will be used as a reservoir to collect water from the Zarafshan River and the Amu-Bukhara canal.

The Karakol oasis is located in the lower delta of the river and at low hypsometric heights. The Karmana-Konimex oasis is located between the Nurata Mountains in the north and the Zirabulak Mountains in the south. The Karakol oasis is bordered by the Bukhara oasis by the Kyzylkum plateau.

The area of Bukhara region is 4 million 200 thousand hectares, irrigated lands - 275100 hectares, of which 21329 hectares (0.3%) are gardens, 2674186 hectares (64%) are pastures, 205616 hectares (4.9%) are forests and 978,348 hectares (23.3%) are other lands, the remaining 7.5% are abandoned lands.

Regarding the biological classification of soybean varieties studied in the experimental fields:

Biological classification of soybean variety "Nafis": Biological classification of soybean variety "Nafis" Authors: Saitkanova RU, Sadikova NI, Ibragimov F.Yu., Sattarov MA, Mirzaeva I. Created by individual selection method at the Uzbek Agricultural Research Institute . Botanical species - Glycine hispida L. Growth period 115-120 days. Plant height 145-150 cm. The number of lower pods is – 120–130, and the number of grains per pod is 2–4. The weight of 1000 soybean seeds is 165-175 g. The grain contains 40-41% protein and 25-27% fat. Resistant to spills, spills, diseases and mechanized harvesting. Nafis soybean can yield 30-32 s / ha of grain and 250-300 s / ha of green mass under favorable conditions.

Biological classification of Uzbek – 6 varieties of soybeans: Biological classification of medium Uzbek – 6 varieties of soybeans Authors: Saltas MM, Bugina O.V., Yunusov B.K. Created by the Uzbek Research Institute of Rice. Botanical species - Glycine hispida L. Growth period 140-145 days. Plant height 160-170 cm. The lower pods are 12-14 cm long, the number of horns is 3-5, the number of pods per plant is 150-160, and the number of grains per pod is 2-4. 1000 seeds weigh 160-170 g. The protein content of grain is 41-42%. Stem contains 22-24% protein and 21-22% fat. Intended for bed rest, shedding, disease resistance and mechanized harvesting. Under favorable conditions, the variety can yield 32-35 s / ha of grain and 400-450 s / ha of green mass.

Field experiments were carried out in the following system to identify elements of the scientifically based water-based irrigation technology of the above-mentioned shade varieties (see Table 1).

According to the experimental system, field experiments were carried out in 10 variants and 3 returns. The dimensions of the sections are as follows: length of the edge Le = 100 m, distance between the edges 0.6 m, number of rows 8, of which 4 are calculated rows, the rest are protective rows, in which case the area of one variant

8X0,6x100 = 480 m2, a reduction area 480x10 = 4800 m2, total experimental area 4800x3 = 1.44 ha and experimental system diagram..

1 - table.

Experimental system

Variant	Irrigation methodi	Egat length, m	Egat spacing, cm	Water consumption

				per hectare, l / s
“Nafis” variety				
1	Irrigation (control)	100	60	0,20; 0,14; 0,08
2	Irrigate the area with a black film			
3	Irrigate the soil with hydrogel after planting			
4	Straw watering between rows			
5	Irrigation of the opposite side			
“O‘zbek-6” variety				
6	Irrigation (control)	100	60	0,20; 0,14; 0,08
7	Irrigate the area with a black film			
8	Irrigate the soil with hydrogel after planting			
9	Straw watering between rows			
10	Irrigation of the opposite side			

Before dwelling on the effect of elements of aquifer irrigation technology on pre-irrigation soil moisture in soybean irrigation, the limited field moisture capacity of the experimental field soil is given by the norm of water plant growth, development, harvesting and vertical growth of the plant. This is very important in the care of the plant. Given that water is involved in all the chemical and biochemical processes that take place in plants, it is also a major source of organic matter in plants. One of the water-physical parameters of irrigated lands is the limited field moisture capacity, which allows to plan the amount of water supplied to plants.

The limited field moisture capacity of the soil plays an important role in determining the norms and timing of irrigation and in meeting the water needs of crops. Therefore, it is important to determine the limited field moisture capacity of the soil based on the soil climatic conditions of each region (see Table 2).

The ratio of soil to limited field moisture capacity (CHDNS) was determined prior to field research.

It is known that many of our scientists Mirzajanov Q.M., Bespalov N.F., Rijov S.N., Rakhimboyev F.M., Khamidov M.H., Fayziyev T.Z., Norkulov U., Avliyokulov N.E., Isashev A., Isayev S.H. and Matyakubov B.Sh. According to the research, in the harsh continental climate of Central Asia, the water-physical properties of the soil, the order of irrigation and its water consumption depending on the different hydromodular regions are widely covered in the scientific literature.

2 – table.

Limited field moisture capacity of soil, in%, (ChDNS)

Soil layers, cm	**ChDNS relative to dry soil weight, %**		
	2017 year	**2018 year**	**2019 year**
0-10	22,3	22,4	22,2
10-20	22,4	22,6	22,5
20-30	21,6	21,7	21,6
30-40	21,4	21,5	21,5
40-50	20,8	21,1	20,9
50-60	20,7	20,8	20,7
60-70	20,9	20,9	20,9
70-80	21,4	21,5	21,3
80-90	21,6	21,6	21,5
90-100	21,8	21,8	21,9
0-40	21,9	22,1	22,0
0-50	21,7	21,9	21,7
0-70	21,4	21,6	21,5

0-100	21,5	21,6	21,5

The data show that in the experimental area, the soil moisture content varied over the years relative to the limited field moisture capacity in the average one-meter layer. In different layers of the experimental field soil, the field moisture capacity varied from 20.7% to 23.4%, depending on the density of the layers. In 2017, the field moisture capacity was 21.9% in the 0–40 cm layer, 21.7% in the 0–50 cm layer and 21.5% in the 0–100 cm layer. . In 2018, the limited field moisture capacity of the soil was 22.1% in the 0–40 cm layer, 21.9% in the 0–50 cm layer, and 21.6% in the 0–100 cm layer. did. As a result of experimental observations in 2019, the limited field moisture capacity of the soil was 22.0% in the 0–40 cm layer, 21.7% in the 0–50 cm layer and 21.5% in the 0–100 cm layer. was found to be These values are typical for alluvial alluvial soils of the Bukhara oasis with average mechanical composition, according to the table.

Regarding the effect of elements of water-saving irrigation technology on pre-irrigation soil moisture in soybean irrigation: In variant 3, irrigation was carried out at 15.3% of the soil weight and 70.6% of the ChDNS in the flowering phase, and 16% of the soil weight at the flowering stage. 9%, compared to 70.6-70.9% compared to ChDNS. During the shade ripening period, irrigation was not carried out due to high soil moisture. During our observations, in the cultivation of shade, mulching between rows with straw, in the 4 – variant, the pre-irrigation soil moisture was 70-70-60% relative to the ChDNS, and irrigation in the flowering phase of the soil was carried out. Irrigation was carried out at 14.6% of the total area, 68.4% of the ChDNS, and 70.8-70.5% of the ChDNS during the flowering and fruiting phases. During the ripening period, irrigation was carried out at a soil moisture content of 67.1% relative to the ChDNS. Germination in the case of irrigation on the opposite side of the field, in the flowering phase of the shade when the soil moisture is 14.6% relative to ChDNS, in the flowering and fruiting phase 70.8–70 , Was carried out at 2%. In the shade ripening phase, irrigation was carried out at 60.2%. During the

experiments, the results of irrigation of the late Uzbek-6 shade variety were similar to the above experiments.

Conclusion:

In the case of soybean irrigation, soil moisture was well maintained during irrigation in options 2 and 3, when the soil was irrigated mainly with a black film and the soil was irrigated with hydrogel. and 1 time less irrigation than our other options. Our experiment was observed in Option 1, which showed that soil moisture was lower than in other variants and that large amounts of water were used for irrigation.

REFERENCES	ЛИТЕРАТУРА
1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 10, 2019 No PF-5853 "On approval of the Strategy of agricultural development of the Republic of Uzbekistan for 2000-2030" (www.lex.uz) ;	1. Указ Президента Республики Узбекистан от 10 октября 2019 года № ПФ-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы» (www.lex.uz);
2. Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021, approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017 (www.lex.uz);	2. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, утвержденная Указом Президента Республики Узбекистан № ПФ-4947 от 7 февраля 2017 года (www.lex.uz);
3. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoyev dated March 14, 2017 "On measures to increase the sowing of soybeans and soybeans in the Republic in 2017-2021" No PP-2832 (www.lex.uz);	3. Постановление Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева от 14 марта 2017 года «О мерах по увеличению посевов сои и сои в Республике в 2017-2021 годах» № ПП-2832 (www.lex.uz);
4. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoev dated December 11, 2020 "On measures to further	4. Постановление Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева от 11 декабря 2020 года «О мерах по

accelerate the introduction of water-saving technologies in agriculture" PQ – 4919 ((www. lex.uz);	дальнейшему ускорению внедрения водосберегающих технологий в сельском хозяйстве» PQ – 4919 ((www.lex.uz);
5. Bespalov N.F. under the general editorship of the team of authors, // Gidromodulnoe rayonirovanie i rejima orosheniya selskokhozyaystvennykh kultur po oblastyam Respubliki Uzbekistan // Tashkent - 1992 yil;	5. Беспалов Н.Ф. под общей редакцией коллектива авторов // Гидромодульное районирование и режим выращивания сельскохозяйственных культур по областям Республики Узбекистан // Ташкент - 1992 г.;
6. Dospexov B.A. // Methodology of field opyta. Moscow: Agropromizdat, // 1985;	6. Доспехов Б.А. // Методология полевого опыта. Москва: Агропромиздат, // 1985;
7. Sattorov M and others – Recommendation on "Technology of soybean cultivation in Bukhara region", Tashkent-2017	7. Сатторов М. и др. - Рекомендация «Технология возделывания сои в Бухарской области», Ташкент-2017;
8. Atabayeva H., Kadyrkhojayev - "Botany" - Tashkent - 2006;	8. Атабаева Х., Кадырходжаев - "Ботаника" - Ташкент - 2006г.;

UO'T: 633.853.52:632.122:631.4:631.548.5

TAKRORIY EKILGAN SOYA- IKKINCHI DAROMAD

Jumayeva Sitora Rahmonovna- Buxoro Tabiiy resurslarni boshqarish instituti suv xo'jaligi va melioratsiya" kafedrasi stajyor o'qituvchisi
Toshpo'latov Alisher G'anisherovich- Buxoro Tabiiy resurslarni boshqarish instituti "Suv xo'jaligi va melioratsiya" yo'nalish talabasi

Annotatsiya: Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda irrigatsiyaning o'rni. Respublikamizda yetishtirilayotgan soyaning sifatli va yuqori hosil berishini ta'minlashda suv tejamkor sug'orish texnologiyalardan foydalanib kelmoqdamiz. Takroriy ekilgan soya -

ikkinchi daromad biz uchun. Bug'doydan bo'shagan yerlarda takroriy soya yetishtirib, bozorlarda oziq- ovqat tannarxini pasaytirish.

Kalit so'zlar: takroriy soya**,** dukkakdosh, sertuk, bandli, litsitin, tropik va subtropik, changlash, silos, tuganak bakteriya, sershox, haydalma qatlam

UDC: 633.853.52: 632.122: 631.4: 631.548.5

REPLANTED SHADOW SECOND INCOME

Jumayeva Sitora Rahmonovna
Internship teacher at the Department of Water Resources and Land Reclamation
Toshpolatov Alisher Ganisherovich
TIQXMMI MTU Institute of Natural Resources Management, student of "Water Management and Land Reclamation"

Annotation: The role of irrigation in food production. We are approaching water-saving irrigation technologies to ensure high quality and high yields of soybeans grown in our country. Re-planted shade - a gain for us. Reducing the cost of food in the markets by re-cultivating soybeans in wheat-free areas.

Keywords: repetitive shade, legume, sertuk, band, lycitin, tropical and subtropical, pollination, silage, complete bacteria, sediment, driving layer

Jahonda ocharchilik hukm surayotgan davrda oziq-ovqat taqchilligini kamaytirish, bozorlarda mahsulot tannarxini pasaytirish va aholini sifatli, ishonchli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, nafaqat rivojlanayotgan davlatlarni balki, dunyoning barcha xalqlarini asosiy maqsadi bo'lib turibdi. Ma'lumki, oziq- ovqat mahsulotlarini yetishtirish uchun kerakli omillardan biri bu – suv hisoblanadi. Sug'orish suvi tanqisligini inobatga olgan holda biz suv sarfini kamaytirib, sifatli, yuqori va barqaror hosil olishni asosiy maqsad qildik.

Respublikada soya ekini maydonlarini yanada kengaytirish, serhosil va ertapishar soya navlarini yaratish, birlamchi urug'chilikni tashkil etish, soya yetishtirishda yangi zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash, aholining soya yog'iga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, parrandachilik korxonalariga soya shroti mahsulotini yetkazib berish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda respublikada soya

ekishni ko‘paytirish va soya dukkakli ekinlarini o‘stirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 14-martdagi PQ-2832-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.[1]

Soya haqida umumiy tushuncha beradigan bo’lsak, soyaning xususiyatlari, uning biologiyasi, inson organizmiga foydaliligi bois jahonda o’z mavqeiga ega bo’lgan ekin sifatida tan olingan.

Soya, **So‘ya** (Glycine) — dukkakdoshlarga mansub bir yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumi, dukkakli don va moyli ekin. 10 turi Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyoning nam tropik va subtropiklarida, 1 yovvoyi turi, Uzoq Sharqda uchraydi. Vatani — Xitoy. Soya juda qadimdan ekiladigan ekin. Milloddan avvalgi. 5 ming yillikdan boshlab ekib kelinadi. AQSH, Rossiya, Hindiston, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Ukraina, Moldaviya, Gruziya va O‘zbekistonda yetishtiriladi. [4] Soya fasulyesi o'simliklarni yetishtirishda eng mashhur ekinlardan biridir. U dukkaklilar oilasiga mansub, yuqori hosildorlikka ega va qumloqlardan tashqari deyarli barcha turdagi tuproqlarda o'sadi. Soya mevalari ko'p miqdorda o'simlik oqsilini o'z ichiga oladi. Ular eng keng dasturga ega: ular turli xil idishlarni tayyorlash uchun va oziq-ovqat ishlab chiqarishda, shuningdek qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun ozuqa sifatida ishlatiladi.[2]
Jahon bo‘yicha Soya ekin maydoni 73,6 millionga, o‘rtacha don hosildorligi 22,1 s/ga (2000): O‘zbekistonda 20-asrning 60 yilllaridan keng tarqala boshladi. Oddiy soya turining ildizi yaxshi rivojlangan, o‘q ildiz, sershox, tuproqqa 2 m chuqurlikkacha kirib boradi, asosiy qismi haydalma qatlamda joylashadi (ildizida tuganak bakteriyalar rivojlanadi). Poyasi dag‘al, silindrsimon, tik o’sadi, ammo yotib qoladigan navlari ham bor. Bo’yi 15 sm dan 2 m gacha, shoxlanadi, yon shoxlari 2—8 ta bo‘ladi. Bargi sertuk, bandli, bandining uzunligi 8—20 sm, barg shapalog‘ining uzunligi 13—15 sm., Guli mayda, oq yoki pushti, shingil gulto‘plamga yig‘ilgan, barg qo‘ltig‘ida joylashadi. Mevasi dukkak, sariq, qora, qo‘ng‘ir, sertuk. Har bir dukkagida 2—6 ta don bor, 1000 ta doni vazni 40—425 g. Tarkibida 24—45% oqsil, 13—37% yog‘, 20—32% uglevodlar, 1—2 % litsitin, D. V, Y va boshqa vitaminlar bor. Urug‘idan yog‘, oqsil va litsitin olinadi. O‘suv davri 75—200 kun. Soya issiqsevar va namsevar, yorug’sevar qisqa kun o‘simligi. 21—23° da yaxshi rivojlanadi. Urug‘i 8—10°da unib chiqadi. Soya o’zidan changlanadi. Gullash davri 15—55 kun davom etadi. Soya uni va moyi olinadi. Doni, pishib yetilmagan (dumbul) dukkagi ovqatga ishlatiladi. Soya unidan sut, tvorog, qandolat mahsulotlari tayyorlashda

foydalaniladi. Somoni, tuponi, ko‘k poyasi, silosi ozuqa sifatida chorva mollariga beriladi. O‘zbekiston sholichilik institutida 1981—88 yillarda Soyaning O‘zbekiston 2, O‘zbekiston 6, Do‘stlik navlari chiqarilgan va barcha viloyatlar uchun moslashtirilgan**.** [4]

Takroriy ekilgan soyadan sifatli va barqaror hosil olish uchun sug’orish ishlarini zamonaviy sug’orish texnologiyalarini joriy qilgan holda amalga oshirildi. Sug’orish ishlarida, tomchilatib sug’orish texnologiyasidan foydalandik. Bu usul orqali sug’orilgan ekinlarmizda, tomchilatib sug’orish texnologiyasining afzalliklari yaqqol ko’rindi.

Mutaxassislar soya o'simliklarini begona o'tlardan holi bo'lmagan maydonlarda ozuqa va namlikning optimal zaxiralari bilan o'stirishni maslahat berishadi. Unutmangki, bu o'simlik yaxshi hosil olish uchun ekinlarga qaraganda ikki-uch barobar ko'proq ozuqa moddalariga muhtoj. Bu shuni anglatadiki, soya yetishtirish uchun tuproq unumdor va yetishtirilgan bo'lishi kerak, aks holda siz ko'p miqdordagi o'g'itni sarflash uchun qo'shimcha xarajatlarsiz qilolmaysiz. Tuproq turlari uchun maxsus imtiyozlar mavjud emas, ammo fosfor, gumus va kaltsiyga boy neytral yoki ozgina kislotali (pH 5.5-6.5), suv o'tkazuvchan tuproq eng mos keladi. [2]

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan shuni aniqladikki, barcha pulslar singari, soya ham almashlab ekishdagi qimmatli ekin hisoblanadi. Uni donli ekinlar (eng yaxshisi - kuzgi bug'doy), makkajo'xori, qand lavlagi, kartoshka, ko'p yillik o'tlar o'sgan dalalarga ekish mumkin. [2]

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. **“**2021-yillarda respublikada Soya ekishni ko‘paytirish va soya dukkakli ekinlarini o‘stirishni tashkil etish chora-tadbirlari’’ to‘g‘risida 2017-yil 14-martdagi PQ-2832-son qarori

Internet saytlari:

[2]. https://optolov.ru/uz/balkon-i-lodzhiya/vyrashchivaniya-soi-pravila-i-tehnogoiya-tehnologii-vyrashchivaniya.html

[4]. https://uz.wikipedia.org/wiki/Soya

UO‘T: 634

O‘ZBEKISTON TABIIY SHART- SHAROITLARIDA INTENSIV BOG‘LARNI TASHKIL QILISH YAXSHI DAROMAD GAROVIDIR

Sharifov Firdavs Qobil o‘g‘li – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Suv xo‘jaligi va melioratsiya” kafedrasi assistenti. sharifovf009@gmail.com

Saksonov Umidjon Sattorovich – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Suv xo‘jaligi va melioratsiya” kafedrasi assistenti.

Sharipov O‘tkir Shokir o‘g‘li – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan intensiv bog‘ larni bugungi kungidagi ahamiyati, bog‘larni barpo qilish agrotexnikasi haqida bayon qilingan. Shu bilan birga maqolada intensiv bog‘larni afzalliklari hamda kamchiliklari haqida ham yozilgan. Intensiv bog‘ larni shaklantirish bilan birga qanday sug‘ orish usullarini qo‘llash bo‘yicha ham ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Intensiv, bog‘, suv, resurs, tomchilatib sug‘oriish, simbag‘az, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, agrotexnika, global, daraxt.

UDC: 634

ORGANIZATION OF INTENSIVE GARDENS IN THE NATURAL CONDITIONS OF UZBEKISTAN A GOOD INCOME PLEDGE

Sharifov Firdavs Qobil o‘g‘li –”Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers” National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management Assistant of the Department ”Water culture and Land Reclamation”. sharifovf009@gmail.com

Saksonov Umidjon Sattorovich —”Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers” National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management Assistant of the Department ”Water culture and Land Reclamation”.

Sharipov O‘tkir Shokir o‘g‘li – Master’s degree from the Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University” Tashkent Institute of irrigation and agricultural engineers

Annotation: This article mainly describes the importance of intensive gardening in today's day, the agrotechnics of restoration of gardens. At the same time, the article also writes about the advantages and disadvantages of intensive Gardens. Along with the formation of intensive gardening, information is also provided on how to use methods of cultivation.

Key words: Intensive, garden, water, resource, drip irrigation, symbiosis, agriculture, ecology, agrotechnics, global, tree.

Bugungi kunda dunyoda juda ko‘plab ekologik muammolar avj olgan davr bo‘lib kelmoqda. Ekologik muamolar tufayli bugungi kunda turli xil tabiiy muamolar avj olmoqda shu sababli ham qishloq xo‘jaligiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmayapti albatta. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida asosan quydagi muammolar paydo bo‘lmoqda global isish, suv resurslariga bo‘lgan talab ortishi, ekinga turli xil zarar kunandalarning zarar yetkazishi, yerlarning turli darajada haddan ziyod sho‘rlanishi, unumdor tuproqlarning eroziyaga uchrashi bundan tashqari turli xil muamolar tufayli qishloq xo‘jaligi zarar ko‘rmoqda bunga asosiy sabab esa ekologiyaning buzilishi sabab bo‘lmoqda ekologiya buzilishiga esa insonlarning tabiat resurslaridan haddan ziyod ko‘p hamda samarasiz foydalanishi bo‘lmoqda. O‘zbekiston hududida ham ayrim bir yillik ekin turlarining hosildorlik darajasi turli xildagi faktorlar tufayli pasayib bormoqda buni oldini olish uchun esa bir turdagi ekin bilan yerlarni band qilmasdan balki ayrim hosildorligi nisbatan past bo‘lgan tuproqlarda bog‘ va tokzorlarni barpo etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu sababdan ham yangi bog‘larni shaklantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi albata. Agarda bizlar bugungi kunda yuqori samaradorlikka ega bo‘lga intensiv bog‘lar to‘risida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak zamonaviy intensiv bog‘larda ilg‘or agrotexnika tadbirlarini qo‘llash natijasida mevani salkashligi to‘liq bartaraf etilgan. Hosildorlik ham oldingi intensiv bog‘ lardan 1.5-1.7 barobar yuqoriroq hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bugungi kundagi intensiv bog‘lar mevasi eksport bop mahsulot hisoblanadi bundan tashqari

O‘zbekiston sharoitida bunday bog‘lar ko‘pi bilan 3-5 yilda sarflangan xarajatlarni qoplab bir necha yil sof daromad manbayiga aylanishi ham tajribalarda sinab ko‘rilgan. Agarda intensiv bog‘larni tashkil qilishda qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak past va pakana bog‘lar ekilgan yerda chuchuk yer osti suvi 1.5-2 m va minerallashgan yer osti suvi 3-3.5 m yaqin bo‘lmasligi lozim. Daryolarda yaqin bo‘lgan yerlarda esa yer osti suvi sathi 1.0-1.2 m bo‘ lsa ham bo‘ladi faqatgina ularning tuproq tarkibida zararli (xlorid va sulfat) tuzlardan holi bo‘lishi lozim. Sug‘oriladigan intensive bog‘ lar uchun ajratilgan maydon tekis bo‘lishi va uning nishabligi 4-5 gradusdan oshmasligi lozim. Simbag‘azli bog‘larda o‘stirilayotgan meva daraxtini eni pakana bo‘yli daraxtlarda 100 sm va past bo‘yli daraxtlarda 150 smni tashkil qilishi lozim shunda tanasini quyosh nurlari yaxshi yoritadi bundan tashqari qator oralari 3.5-4.0 m bo‘ lganda daraxtlarni tanalari quyosh nurlari bilan yaxshi ta’minlangan bo‘ladi. Har yili meva daraxtlari to‘liq hosilga kirguncha gektariga kuzda 40-50 kg hajmida fosfor 30-40 kg hajmida kaliy 60-70 kg azot o‘g‘tlari solinadi. Bundan tashqari turli xil vaqtlarga turli xildagi zarar kunandalardan hioya qilish maqsadida turli xildagi dori vositalari qo‘ llaniladi.[1]

Intensiv bog‘larni eng qulay tomonlaridan biri shundaki bu turdagi bog‘larda zamonaviy sug‘orish turlarini xususan tomchilab sug‘orishni qo‘llash juda qulay va yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.Bundan tashqari daraxtlar orasiga poliz ekinlarini ekish imkoni bor bu esa qo‘ shimcha daromaddan dalolat beradi. Yana qo‘shimcha tarzda intensiv bog‘larni yaratish afzalliklari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak:

Hosildorlik darajasi yuqori ekanligi, qilingan xarajatlarni tezda qoplashi, agrotexnik ishlarni qo‘llash osonligi, hosilini yuqori sifatga ega eknligi (eksportbop mahsulot hisoblanadi), bog‘lardan olingan hosilni saqlash mudati uzoqligi, qayta ishlash korxonlari qurilsa ishchi o‘rinlari yaratilishi, zamonaviy sug‘orish usullari qo‘llanganda sug‘orish suvining tejalishi va boshqalar.

Bugungi kunga kelib Respublikada uzoq muddatli bog‘larni yaratishga katta e’tibor berilib kelinayotganiga sabablardan biri

bo‘g‘lardan olingan hosilni xorij mamlakatlariga eksport qilish juda qulay hisoblanadi. Bog‘ va tokzorlardan olinadigan hosillar ko‘p yillik bo‘lganligi sababli bir yillik o‘simliklardan farqli o‘laroq agarda agrotexnik ishlar o‘z vaqtida ob - borilsa har yili yuqori hosildorlikka erishish mumkin.

Har bir narsani afzalligi bo‘lgani singari intensiv bog‘larning ham kamchiliklari bor kamchiligiga quydagilar kiradi:

– Intensiv bog‘lar yaratish sarmoya talab qilishi:

– Agarda agratexnikasiga rioya qilinmasa ko‘zlangan hosildorlikni bermasligi;

– Xorijdan keltirilgan navlar bo‘ lsa qishda sovuq urishi mumkinligi, yozda esa turli xil kasalliklarga uchrashi va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Garchi intensiv bog‘lar tashkil qilishda ayrim kamchiliklar bo‘lsada lekin intensiv bog‘lar tashkil qilish istiqbolli rejalardan hisoblanadi. Shu sababdan ham o‘zbek olimlari tomonidan yangi o‘zimizning tabiiy shart - sharoitimizga mos bo‘lgan ekin navlari yartilib sinov maydonlarida sinab ko‘ rilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak intensiv bog‘lar yaratishda chet el davlatlari katta tajribaga ega hisoblanadi. Agarda chet el davlatlari tajribalarini o‘rganib buni o‘zimizda tatbiq eta olsak bu bizning yana bir katta yutug‘imiz hisoblanadi. Shu sababdan ham bugungi kunda kadrlar malakassini oshirishga katta e’tibor berlib kelinmoqda. Kadrlar malakasini oshishi asa kelajakdagi yutuqlar garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Isashov, A.Aripov. Tuproq unumdorligini yaxshilashda zamonaviy agrotexnologik usullarni qo‘llash. 2016-yil
2. www.yandex.ru
4. www.ziyonet.uz
5. www.google.ru

UO'T: 634

QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARINI YETISHTIRISHDA YOMG'IRLATIB SUG'ORISH USULIDAN FOYDALANISH

Shodieva Sitora Ulug'bek qizi - Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Suv xo'jaligi va melioratsiya" kafedrasi assistenti.
sitorashodiyeva@gmail.com
Murtazoyev Azizbek Nusrat o'g'li-Buxoro davlat universiteti "Texnologik ta'lim" kafedrasi mudiri
Ibragimova Aziza O'tkir qizi -Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi.
Shodiyeva Barchinoy Zokir qizi-Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi.

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda XXI asrning o'nta global chaqiriq- muammolaridan biriga aylangan suv resurslarining o'ta tanqisligi, jahondagi sug'oriladigan yerlarning maydonlari, qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan suv resurslari, ularni iqtisod qilib ishlatish, samaradorligini oshirishda qo'llanilayotgan tejamkor sug'orish texnologiyalari, bu soxada mamlakatimizda olib borilayotgan ijobiy ishlar buning yaqqoll misolidiryomg'irlatib sug'orishning afzalliklari va bu sug'orish usulini qo'llash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yomg'irlatib sug'orish usuli; yomg'irlatib sug'orishning afzalliklari; yomg'irlatib sug'orishning kamchiliklari; yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlari; yomg'irlatish jadalligi; yomg'ir tomchisining o'lchami.

UDC: 634

USE OF SPRINKLER IRRIGATION IN THE CULTIVATION OF AGRICULTURAL CROPS

Shodieva Sitora Ulug'bek qizi - "Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers" National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management Assistant of the Department "Water culture and Land Reclamation". sitorashodiyeva@gmail.com

Murtazoyev Azizbek Nusrat o'g'li- The Department of "technological education" of Bukhara State University
Ibragimova Aziza O'tkir qizi -Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management student
Shodiyeva Barchinoy Zokir qizi- -Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management student

Abstract. The article discusses the acute shortage of water resources, which is one of the ten global challenges of the XXI century, the area of irrigated land in the world, water resources used in agriculture, their economical use, cost-effective irrigation technologies, positive work in this area. advantages and recommendations for the use of this irrigation method.

Keywords: irrigation method; Advantages of Irrigation; Disadvantages of Irrigation; Elements of Irrigation Technique; Irrigation Intensity; Rain Drop Size.

Dunyoning ko'pgina qismida, qolaversa, mintaqamizda, jumladan, mamlakatimizda ham suv resurslariga bo'lgan talab ortayotganligi bilan birga, suvning taqchilligi ham yildan yilga oshib bormoqda. 2000 yilgacha kam suvli mavsum har 6-8 yilda bir marta kuzatilgan bo'lsa, oxirgi yillarda bu jarayon har 3-

4 yilda takrorlanmoqda. Bunda suv taqchilligini, ayniqsa, daryolarning quyi qismida hamda kanal va boshqa suv manbalaridan uzoqda joylashgan iste'molchilar chuqur his etmoqdalar.

Suv manbalaridan 1 gektar sug'oriladigan maydonga 90-yillarda 18 ming m^3/ga ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 40 foizga kamaydi. Bu ko'rsatgichlarga rioya qilib yer sug'orishni suv tejovchi usullarsiz amalga oshirish murakkab jarayondir.

Bugungi kunda mamlakatimiz ekin maydonlarida suv tejovchi texnologiyalarning quyidagi turlari qo'llanilmoqda.

1. Egatga plyonka to'shab sug'orish;
2. O'q ariqlar o'rniga egiluvchan plenkali quvurlardan foydalanish;
3. Tuproq ostidan sug'orish texnologiyasini qo'llash, bunda dalaga suv berishmiqdori 25–30 foizgacha kamayadi, egat olinmaydi;
4. Yomg'irlatib sug'orish (bunda asosan bir yillik ekinlar

sug‘oriladi).

5. Tomchilatib sug‘orish.

Ushbu suv tejovchi texnologiyalar ichida yomg‘irlatib sug‘orish alohida ahamiyatga ega.

Yomg‘irlatib sug‘orish usuli - suvni tuproq sathi va o‘simlikka maxsus mashina, qurilma va agregatlar yordamida sun’iy yomg‘ir shaklida yetkazib berish hisoblanadi.

Yomg‘irlatib sug‘orishning afzalliklari:

- sug‘orish me’yori orqali tuproqning namiqish chuqurligini o‘zgartirish;
- havoning yer usti qatlamining nisbiy namligini oshirish va haroratini pasaytirish, ekinlarning sovuq urmasligini ta’minlashi;
- suvning dala bo‘ylab tekis taqsimlanishi va uning relefiga talab qo‘yilmasligi;
- sug‘orish egatlari va o‘q ariqlarni qurishga hojat yo‘qligi;
- sug‘orish suvi bilan mineral o‘g‘itlarni berish mumkinligi;
- egatlab sug‘orishga moslashtirish mumkinligi;
- suv tejamkor usulligi, suvdan foydalanish koeffitsientining yuqoriligi;



- Yerdan foydalanish qoeffitsientining yuqori bo‘lishi.
- *1-rasm. Yomg‘irlatib sug‘orish jarayoni.*

Yomg‘irlatib sug‘orishning kamchiliklari:

- mashina va qurilmalar uchun metallning ko‘p talab qilinishi;
- sug‘orish jarayonida ko‘p energiya sarflanishi (m = 300 m.kub/ga ni amalga oshirish uchun 40-100 KVt soat);
- katta sug‘orish me’yorlarida ish unumining pastligi;
- kuchli shamolda suv tekis taqsimlanmasligi,

bug‘lanishning oshishi;

- sug‘orish texnologiyasining murakkabligi;
- sho‘rlangan yerlarda foydalanishning cheklanganligi;
- tuproq yuza qatlamining strukturasining buzilishi, qatqaloq paydo bo‘lishi.

Yomg‘irlatib sug‘orish texnikasi elementlari:

- yomg‘irlatish jadalligi;
- yomg‘ir tomchisining o‘lchami;
- yomg‘irning maydon bo‘yicha tekis taqsimlanishi.

Yomg‘irlatib sug‘orish texnikasi elementlarining to‘g‘riligi - tuproqning qulay suv tartibining ta’minlanishi, tuproq strukturasining buzilmasligi, o‘simlikning shikastlanmasligi, tuproq ustida suvning to‘planmasligi, suv oqimining yuzaga kelmasligi bilan belgilanadi.

Yomg‘irlatish jadalligi - bir minutda sug‘oriladigan yuzaga tushayotgan yomg‘ir miqdori (mm/min), yoki vaqt birligi ichida sun’iy yomg‘irdan hosil qilingan suv qatlamining qalinligi tushuniladi.

Yomg‘irlatish jadalligi orqali tuproqning suv o‘tkazish qobiliyatiga ko‘ra

yomg‘irlatish mashina yoki agregati tanlanadi.

Yo‘l qo‘yiladigan yomg‘irlatish jadalligi tuproq ustida suv to‘pla nishabligiga bog‘liq bo‘ladi.

Ekinlarni yomg‘irlatib sug‘orishning yo‘l qo‘yiladigan jadalligi.

1-jadval

Tuproqning mexanik tarkibi,mm	Nishablik			
	0,0 - 0,05	0,05 - 0,08	0,08 - 0,12	> 0,12
Qumloq	0.85	0.85	0.64	0.42
Yengil qumoq	0.74	0.53	0.42	0.32
O‘rtacha qumoq	0.42	0.34	0.25	0.17
Og‘ir qumoq	0.09	0.07	0.05	0.04

Yomg‘ir tomchisining o‘lchami **-** yo‘l qo‘yiladigan yomg‘irlatish jadalligi, suvning bug‘lanishga isrof bo‘lishi, tuproqning zichlanishi, sug‘orish me’yorining tuproq ustida suv oqimi paydo bo‘lguncha yo‘l

qo‘yiladigan miqdoriga ta’sir etuvchi ko‘rsatgichdir. Masalan: ***yomg‘ir tomchisining diametri 1.0-1.5 mm.*** **va yomg‘irlatish jadalligi 0.5 mm/min** bo‘lganda, sug‘orish me’yorining tuproq ustida suv oqimi paydo bo‘lguncha yo‘l qo‘yiladigan miqdori 130-700 m.kub/ga, 2,0 mm/min bo‘lganda esa, 50-190 m.kub/ga ga teng bo‘ladi. O‘simlik va tuproqqa qulay bo‘lgan suv tomchisining diametri 0.4-0.9 mm. ni tashkil etadi.

Yomg‘irning maydon bo‘yicha tekis taqsimlanishi samarali sug‘orish va yetarlicha sug‘orilmaganlik koeffitsientlari orqali aniqlanadi.

Samarali sug‘orish koeffitsienti sug‘orilgan maydonning qancha qismi yo‘l qo‘yiladigan yomg‘irlatish jadalligida sug‘orilganligini ko‘rsatadi. Yomg‘irlatish mashina yoki agregatlariga qo‘yiladigan agrotexnik talablarga ko‘ra bu koeffitsient 0.7 dan kam bo‘lmasligi lozim. ***Yetarlicha sug‘orilmaganlik koeffitsienti*** dalaning qancha qismi yo‘l qo‘yiladigan yomg‘irlatish jadalligida kam miqdorda sug‘orilganligini ko‘rsatadi va u 0.15 dan katta bo‘lmasligi kerak.

Yomg‘irlatish muddati va tavsifiga hamda tuproq va o‘simliklarga ta’siriga ko‘ra: ***odatiy va impulsli yomg‘irlatib*** sug‘orishlarga bo‘linadi.

Odatiy yomg‘irlatib sug‘orishda tuproqning 0.5 - 0.6 m. li qatlamida qulay suv tartibini ta’minlash va yer usti xavo qatlami mikroiqlimini yaxshilash maqsadidaekinlar 6-12 kun oralatib sug‘orib turiladi.

Imulsli yomg‘irlatib sug‘orish**d**a xavo namligi taqchilligini kamaytirish maqsadida ekinlar har kuni xarorat eng yuqori bo‘lgan vaqtda (soat 12-15 larda) sug‘orib turiladi.

Yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari

Tabiiy va tashkiliy-xo‘jalik sharoitlarga bog‘liq holda: ***ko‘chmas, yarim ko‘chma*** va ***ko‘chma*** yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari mavjud.

Ko‘chmas yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari- magistral, taqsimlash va sug‘orish quvurlari, suv taqsimlash quduqlari, nasos stansiyalari va yomg‘irlatish texnikasi o‘rnatiladigan gidrantlardan iboratdir.

Yarim ko‘chma yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari - ko‘chmas sug‘orish tarmoqlari va nasos stansiyalaridan va ko‘chma yomg‘irlatib sug‘orish texnikalaridan iboratdir.

Ko‘chma yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarida tizim elementlarining barchasibir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilib yuriladi.

Yomg‘ir tomchilarinig yetib borish uzoqliligiga qarab: ***yaqinga otar, o‘rtacha otar*** va ***uzoqqa otar*** turlariga bo‘linadi.

Yaqinga otar turlariga 0.05-0.2 MPa bosimda ishlaydigan va suvni 4-8 metrga otadigan ***uchlik-nasadkalar*** kiradi.

O‘rtacha otar turlariga 0.1-0.4 MPa bosimda ishlaydigan, suv sarfi 5 l/s vafaoliyat radiusi 15-35 metr bo‘lgan apparatlar kiradi.

Uzoqqa otar apparatlar esa, 0.4 MPa dan ortiq bosimda ishlaydi, suv sarfi 5 l/s dan ko‘p, suvni otish masofasi 35-100 m. va undan ortiq bo‘ladi.

Yomg‘irlatib sug‘orish qurilmasi – yengil yig‘iladigan, ko‘chirib yuriladigan quvurlar va yomg‘irlatgich uchlik (nasadka) lardan iborat qurilmadir.

Yomg‘irlatib sug‘orish mashinasi, bu mexanik xarakatlanadigan yomg‘irlatib sug‘orish agregatlari bo‘lib, ular traktorlarga o‘rnatiladi yoki sug‘orish dalasi bo‘ylab o‘zlariga o‘rnatilgan dvigatellar yordamida xarakatlanadi.

DDN-70 va DDN-1 yomg‘irlatish shleyfi

DMU “Fregat” DDA-100M va DDA

DSh-10

3-rasm. Yomg‘irlatkich qurilmalari.

DDA-100M va DDA-100MA ikki konsollik yomg‘irlatish agregatlari-nishabligi 0.003 dan katta bo‘lmagan yerlarda texnik, sabzavot, donli va yem-xashak ekinlarini sug‘orishda qo‘llaniladi. Suv sarfi 100 (130) l/s, suvni ochiq manbadan nasos yordamida oladi. Ochiq tarmoqlar orasi – 120 m. Xizmat ko‘rsatuvchilar soni: 1-2 kishi. O‘rtacha otar yomg‘irlatib sug‘orish apparatlari o‘rnatilgan mashinalar: DKSh-64“Voljanka”, DMU “Fregat”, DF-120 “Dnepr”, KI-50 “Raduga”, DSh-25/300 va boshqalar. DKSh-64 “Voljanka”- yomg‘irlatish quvurlarining uzunligi 395.6 m., diametri 130 mm., mustaqil ishlovchi ikkita qanotdan iborat bo‘lib, suv sarfi 0.9-1.0 l/s bo‘lgan 32 ta o‘rtacha otar (17-18m) apparatlardan iborat. O‘rtasidagi “Drujba-96” dvigatelidan harakatlanadi.

Uzoqqa otar yomg‘irlatib sug‘orish apparatlari o‘rnatilgan mashinalar: DDN- 70 va DDN-100 mashinalari nishabligi 0.02 dan katta bo‘lmagan yerlarda texnik, sabzavot, donli va yem-xashak ekinlarini sug‘orishda qo‘llaniladi. DDN-70 va DDN- 100 apparatlari traktorlarga o‘rnatilgan xolda ishlatiladi. Suv bosimi 52 va 65 metr, suv sarfi 65 va 100 l/s. Suvni mos ravishda 70 va 80-85 metrga otadilar. Suvni ochiq manbadan nasos yordamida oladi. Ochiq tarmoqlar orasi - 120 m. Ularga bir ishchi xizmat ko‘rsatadi.

Shunday qilib, tuprog‘i g‘ovak va suv o‘tkazuvchanligi baland bo‘lgan, tez-tez kichik me’yorlar bilan sug‘orish talab qilinadigan tuproqli maydonlarda yomg‘irlatib sug‘orishni qo‘llash suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Tuprog‘i eroziyaga moyil yengil tuproqli, tekislash qiyin bo‘ladigan adir maydonlarida ekinlarni sug‘orishda yomg‘irlatib sug‘orish tizimlaridan foydalanish iqtisodiy jihatdan yaxshi samara beradi. Ildizi chuqurga ketmaydigan (popuk ildizli) ekinlarni, ayniqsa sabzavotlar va dalaga yoyib ekiladigan ekinlar yomg‘irlatib sug‘orilganda yaxshi iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Kuchli shamollar tez-tez bo‘lib turadigan va tuprog‘ining mexanik tarkibi og‘ir bo‘lgan suv o‘tkazuvchanligi past bo‘lgan tuproqli hududlarda esa yomg‘irlatib sug‘orishni qo‘llash tavsiya qilinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

	Literaturы	Reference
1	Xamidov M.X, Suvanov B.U. Ekonomiya vodnыx resursov pri oroshenii xlopchatnika s pomoщyu primeneniya polimernыx kompleksov // byulleten nauki i praktiki. 2018. T. 4. №7. S. 153-159.	Khamidov M.Kh., Suvanov B.U. Saving water resources during the irrigation of cotton using polymer complexes // Bulletin of science and practice. 2018.Vol. 4. No. 7. S. 153-159
2	Avliyagulov A.E. Oroshenie iz tonkogovolokna xlopka. Izdatelstvo «Uzbekistan». Tashkent, 1977, s. 1-53 (nauzbekskom yazыke).	Avliyagulov A.E. Fine fiber cotton irrigation. Publishing house "Uzbekistan". Tashkent, 1977, p. 1-53 (in Uzbek).

3	Osobennosti vodopotrebleniya i rejima orosheniya kultur xlopkovogo sevooborota. /Trudы.UzNIIX, vыp. 34.-T., 1976. - s. 3-8 (na russkom yazыke).	Features of water consumption and irrigation regime of cotton crop rotation. / Trudy.UZNIIH, vol. 34.-T., 1976. - p. 3-8 (in Russian).
4	Bespalov N.F., Rii ov S.N. Rasxod vodы i oroshenie xlopka na gidromorfnыx pochvax. Tashkent.: Vestnik agrarnoi nauki, 1973. № 2., s. 1-8. (na russkom yazыke).	Bespalov N.F., Riyov S.N. Water consumption and irrigation of cotton onhyd
5	Bespalov N.F., Malabaev N.I. Gidromodulnoe rai onirovanie i rejim orosheniya xlopchatnika v Xorezmskoi oblasti./ Trudы UzNIIX, vыp. 27. -T., 1974., - s. 15-25. (na russkom yazыke).	Bespalov N.F., Malabaev N.I. Hydro- modular zoning and the regime ofirri
6	Dospeksov B.A. Metodы polevogo opыta (osnovы staticheskoi obrabotki rezultatov issledovanii). M.: Agrporomizdat, 1985., s. 415. (na russkomyazыke).	Dospeksov B.A. Field experience methods (basics of static processing ofr es
7	Spravochnik po xlopkovodstvu. Tashkent., «Mexnat» 1989. s. 502. (na uzbekskom yazыke).	A guide to cotton growing. Tashkent.,"Mehnat" 1989. p. 502. (in Uzbek).
8	Raximbaev F.M., Bespalov N.F., Xamidov M.X., Isabaev K.T., Alieva D. Osobennosti poliva selskoxozyaystvennыx kultur v Nijnem Amudare. Tashkent, izdatelstvo «Mexnat», Akademiya nauk Respubliki Uzbekistan. 1992. s. 164. (na russkom yazыke).	Rakhimbaev F.M., Bespalov N.F., Khamidov M.Kh., Isabaev K.T., Aliyeva D. Features of virrigation of crops in the Lower Amu Darya. Tashkent, publishing house "Mehnat", Academy of Sciences oft he
9	Programmnoe obespechenie Cropwat 8.0.http://www.cawater-info.net/best-practices/base/marker/78 http://www.fao.org/land-	Cropwat 8.0 software. http://www.cawater-info.net/best-practices/base/marker/78

	water/databases-and-software/cropwat/en/	http://www.fao.org/land-water/databases-and-software/cropwat/en/
10	Matyakubov B.Sh. Effektivnoe ispolzovanie vodы v Xorezmskom oazise. // Mejdunarodnыy jurnal innovatsiy v oblasti injenernыx issledovaniy i texnologiy [IJIERT], ISSN: 2394-3696, TOM 5, VЫPUSK 11, noyabr-2018., S. 44-49 (na angliyskom yazыke).	Matyakubov B.Sh. Efficient use of water in the Khorezm oasis. // International Journal of Innovation in Engineering Research and Technology [IJIERT], ISSN: 2394-3696, VOLUME 5, ISSUE 11, November-2018., P. 44-49 (in English).

UO‘T: 634

МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ЧЕКЛАНГАН СУВ РЕСУРСЛАРИНИНГ ТАҚСИМЛАНИШИ

О.МУРОДОВ – “ТИҚХММИ” миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти, докторант
М.РЎЗИЕВА – Бухоро муҳандислик – технология институти, ассистент
М.БОБИРОВА - Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти, СХМ 3/1 гурух талабаси

Аннотация:Мақолада бугунги кунда XXI асрнинг ўнта глобал чақириқ-муаммоларидан бирига айланган сув ресурсларининг ўта танқислиги, Марказий Осиёдаги давлатларнинг қишлоқ хўжалигида ишлатилаётган сув ресурслари, Трансчегаравий сув объектлари мақомига эга бўлган Амударё ва Сирдарё дарёларининг ўртача кўп йиллик сув оқимлари ҳамда трансчегаравий ва маҳаллий сув объектлари сув ресурсларини ҳисобга олиш, уларни бошқариш бўйича турли (кўп томонлама, икки томонлама шартномалар, келишувлар, конвенциялар ва ҳ.к.) меъёрий ҳужжатлар келтирилган.

Калит сўзлар: Трансчегаравий, Амударё ва Сирдарё дарёлари, Трансчегаравий сув объекти, Оролни Қутқариш Халқаро

Жамғармаси (ОҚХФ), давлатлараро сув хўжалигини мувофиқлаштириш комиссияси (ДСХМК)

UDC: 634

DISTRIBUTION OF LIMITED WATER RESOURCES OF CENTRAL ASIA

O Muradov- Bukhara Institute of Natural Resources Management, doctoral student
M.Ruzieva- Bukhara Institute of Engineering and Technology, Assistant
M.Bobirova- Bukhara Natural Resource Institute of Students

Annotation: Article at the Kunda KHI asning summit, he will meet the global sinai puzzle bariga aylangan Suwan resourcing, he will criticize the league, the Asian center for Public Technical Services hadjaligijalatilayetgan suvursar, Transchegaraviy with the center of power of eg B. Amudgan and Sirdargan in Kulyab, issues of cooperation between Tajikistan and Tajikistan and Tajikistan were also discussed.k.) the norm of Gujatlar keltirilgan.

Kalit shvaylar: Transportegaraviy, Amu Darya and Syr Darya darelari, Transchegaraviy SUV facility, Polar Orolnish Jamgarmasi (GASKHF), state institution suizhaligin, corresponding Commission (DSMK)

Орол денгизи ҳавзаси, деб номланувчи бизнинг минтақамиз айнан чучук сув ресурсларининг қитьалар бўйича ҳудудий жиҳатдан ўта нотекис тарқалиши (табиий омил) оқибатида шаклланган чекланган сув ресурсларига эга берк ҳавза ҳисобланади. Орол денгизи ҳавзасининг сув ресурслари табиий ҳолда шаклланадиган ва қайта тикланиб турадиган ер усти ва ер ости сув ресурслари ҳамда қайтариладиган сувлардан ташкил топган. Орол денгизи ҳавзасининг умумий ўртача кўп йиллик сув оқими 114.4 км^3 ни ташкил этади, шу жумладан Амударё бўйича - 78.34 км^3 ва Сирдарё бўйича - 36.06 км^3 га тенг. Мавжуд умумий сув ресурслари минтақада яшовчи 60 миллиондан кўпроқ аҳолининг ҳаётий

неъмати, минтақа барқарор тараққиётининг муҳим асосларидан бири ҳисобланади.

Трансчегаравий сув объектлари мақомига эга бўлган Амударё ва Сирдарё дарёларининг ўртача кўп йиллик сув оқим миқдори катта диапазонда ўзгариб турибди. Умумий чекланган сув ресурслари минтақа мамлакатлари томонидан биргаликда иқтисодий ва экологик эҳтиёжлар учун фойдаланилади [1].

“Трансчегаравий сув объекти”- тушунчаси икки ва ундан ортиқ мамлакатлар чегарасини кесиб ўтадиган ёки икки ва ундан ортиқ мамлакатлар чегарасида жойлашган ҳар қандай ер ости ёки ер усти сув объектларини англатади. Бугунги кунда дунёда мингдан ортиқ трансчегаравий мақомга эга бўлган сув объектларини мавжуд.

“Маҳаллий сув объекти” – тушунчаси эса ҳар қандай сув ресурслари шаклланиш, тарқалиш ёки оқиш ва сарфланиш зоналари бир мамлакат ҳудудида жойлашган ер усти ва ер ости сув объектларини ифодалайди. Шу кунгача дунё миқёсида трансчегаравий ва маҳаллий сув объектлари сув ресурсларини ҳисобга олиш, уларни бошқариш ва улардан фойдаланиш бўйича мингдан ортиқ турли (кўп томонлама, икки томонлама шартномалар, келишувлар, конвенциялар ва ҳ.к.) меъёрий ҳужжатлар қабул қилиниб, улар асосида иш олиб борилмоқда.

Шулардан энг асосийлари Европа Ҳамжамиятининг “Халқаро кўллар ва трансчегаравий сув артерияларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш Конвенцияси”си (Хельсинки шаҳрида 1992 йили 17 мартда қабул қилинган) ва БМТнинг “Халқаро сув оқимларидан кема қатновисиз фойдаланиш ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция”си (Нью-Йорк шаҳрида 1997 йил 21 мартда қабул қилинган) ҳисобланади. Ушбу конвенцияларнинг асосий тамойиллари - барча давлатларнинг манфаатларини бирдек ҳисобга олиш, трансчегаравий сув ресурсларидан адолатли ва оқилона фойдаланиш ва қўшни давлатларга “зарар етказмаслик”дир [2].

Марказий Осиё давлатлари ўртасида Амударё ва Сирдарё ҳавзаларидаги мавжуд сув ресурслари ва уларнинг тақсимланиши қуйидаги жадвал ва диаграммаларда тўлиқ кўрсатиб ўтилган [3].

Орол денгизи ҳавзасининг ер усти сув ресурслари (ўртача йиллик оқим, км³)

Давлатлар	Ҳавза номи		Орол денгизи ҳавзаси бўйича жами	
	Сирдарё	Амударё	км³	%
Қозоғистон	2,516	-	2,516	2,2
Қирғизистон	27,542	1,654	29,196	25,2
Тожикистон	1,005	58,732	59,737	51,5
Туркманистон	-	1,405	1,405	1,2
Ўзбекистон	5,562	6,791	12,353	10,6
Афғонистон ва Эрон	-	10,814	10,814	9,3
Орол денгизи ҳавзаси бўйича жами	**36,625**	**79,396**	**116,021**	**100**

Орол денгизи ҳавзаси шароитида ҳам умумий сув ресурсларидан биргаликда самарали фойдаланишни ташкил этиш бўйича минтақа мамлакатлари томонидан муҳим ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон ташаббуси билан Марказий Осиё ва Қозоғистон ҳудудида собиқ иттифоқдан кейин мустақил давлатлар раҳбарлари томонидан Орол денгизи ҳавзасида трансчегаравий мақомга эга бўлиб қолган дарёларни бошқариш бўйича халқаро мақомга эга бўлган Оролни Қутқариш Халқаро Жамғармаси (ОҚХФ) ташкил этилиши, давлатлараро сув ресурслари бошқарувининг тузилмасини, давлатлараро сув хўжалигини мувофиқлаштириш комиссияси (ДСХМК) тузилиши ҳамда улар фаолиятини йўлга қўйилиши энг тўғри ва узоқни кўзлаб қабул қилинган муҳим қарорлардан бири бўлди [4]. Ўтган давр давомида мазкур халқаро тузилма минтақада умумий сув ресурсларини биргаликда барқарор бошқариш масаласида жуда муҳим вазифани бажариб келмоқда.

Марказий Осиёда сув муаммосини ҳал қилишнинг оқилона йўли. Марказий Осиёда трансчегаравий дарёлар ҳавзаси даражасида сув ресурсларини бошқариш ва улардан ҳамкорликда фойдаланишдаги муаммолар, мавжуд ўсиб бораётган сув тақчиллиги, уларнинг сифатини ёмонлашиши ҳамда сувга бўлган кўп сонли ва турли туман тафовутлашувчи эҳтиёжлар шароитида мураккаблигича қолмоқда. Бундай шароитда дарёларнинг юқори қисмида жойлашган давлатлар ўз иқтисодий тараққиёт дастурларида йирик гидроэнергетик лойиҳаларга, мавжуд йирик, минтақага хизмат қилувчи гидротехник иншоотлардан фойдаланишни гидроэнергетик режимга ўтказишга урғу берсалар, дарёнинг қуйи оқимида жойлашган мамлакатлар бундай қарорларнинг минтақа экологияси, хавфсизлигига, мамлакатлар иқтисодиётига кўрсатиши мумкин бўлган кескин салбий таъсиридан ҳавотирга тушмоқдалар [5].

Минтакада сув таъминоти билан боғлиқ мавжуд вазият асосан куйидаги муаммолар ва кескинликлар билан характерланади:

- сув ресурслари чекланган ва ўта нотекис тарқалган;

- иқлимнинг ўзгариши таъсирлари, музликлар захирасининг камайиб бориши ва сув ресурсларининг кутилаётган 10-15% камайиши, фавқулодда вазиятлари сонининг ортиши;

- ер-сув ресурслари деградацияси, экотизимларнинг бузилиши, чўллашиш, сув ресурслари ифлосланиши ва биохилмахилликни йўқолиши жараёнлари;

- Марказий Осиё мамлакатларидаги аҳоли сонининг тез ўсиши;

- минтақада иқтисодий жараёнларнинг интенсивлашиши, сув ресурслари тақчиллигининг ортиши (киши бошига сув билан таъминланганлик кўрсаткичи 3,5 марта камайди, бугунги кунга келиб сувга бўлган қўшимча талаб 700-800 млн.м^3 /йил ни ташкил этади);

- сув ресурсларига бўлаётган табиий ва антропоген таъсирлар остида табиат ва жамият ўртасида сувга бўлган талабдаги тафовутлар ортиб бормоқда;

- умумий сув ресурсларини ҳамкорликда бошқариш, улардан биргаликда фойдаланиш сувдан фойдаланиш билан боғлик (трансчегаравий) масалаларда кескинликлар мавжуд.

Хулоса қилиб айтишимиз жоизки, Ўзбекистон аҳолиси 2030 йилга бориб 39 млн. нафардан ошиши ва иқлим ўзгаришлари туфайли Ўзбекистоннинг сув ресурслари 7 млрд. м^3 га камайиши кутилмоқда [3]. Бунда йиллик сув ресурслари 44 млрд. м^3 ва натижада аҳоли жон бошига 1130 м^3 миқдорида сув тўғри келиши башорат қилинмоқда. Сув Марказий Осиё давлатларининг ижтимоий-иқтисодий фаровонлиги ва атроф-муҳитини сақлашнинг асосий омилларидандир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ш.Р. Хамраев - қ.х.ф.н, Қишлоқ ва сув хўжалиги вазири ўринбосари,
Ў.П. Умурзаков - и.ф.д., проф., А.Т. Салохиддинов - т.ф.д., проф., Т.З. Султанов - т.ф.д., доц. “Сув, тинчлик ва хавфсизли муаммоларининг чамбарчас боғлиқлиги” ирригация ва мелиорация журнали №3(9).2017.

2. O.U. Murodov Development of the effectiveness of the use of intensive drip irrigation in saline soils of Bukhara region // Dissertation for the Master's degree in 5A450201 - "Hydromelioration" // - Tashkent, 2019. - UDK 631.445.52: 634: 631.674.6: (575.146) (043) p.94

3. У.Абдуллаев, Г.Хасанханова, С.Мягков, Т.Хамзина, Н.Агальцева, М.Фазилова, О.Лысенко, А.Воронов, Ш.Абдуллаев, А.Меркушкин, Н.Манюк, Г.Нечаева. Сув Ўзбекистон келажаги учун муҳим ҳаётий ресурс E-mail: registry@undp.org Веб-сайт: www.undp.uz

4. Murodov O.U., Kattaev B.S., Saylixanova M. K. The use of sprinkler irrigation in the cultivation of agricultural crops // "Proceeding of The ICECRS.Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution 4.0". - Indonesia 2020.

5. Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирилиги маълумотлари ва слайтларидан.

UO‘T: 634

TOMCHILATIB SUG‘ORISH TEXNOLOGIYANING AFZALLIKLARI

X.B.Bo‘riyev - “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Suv xo‘jaligi va melioratsiya” kafedrasi assistenti.

A.V.Boqayev – "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti

J.J.Usmonov – "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tomchilab sug'orish usuli afzaligi va kamchiliklari haqida bayon qilingan. Shu bilan birga tomchilab sug'orish usuli bo'yicha o'tqazilgan tajriba natijalari, g'o'za o'simligini sug'orish tartibi, meyorlari, sug'orish muddati, soni va g'o'za o'simligini o'sib rivochlanishiga ta'siri hamda hosildorligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: g'o'za, mineral, o'g'it, resurs, hosildorlik, tizm, sizot suvlari, tuproq, o'simlik.

UDC: 634

ADVANTAGES OF DRIP IRRIGATION TECHNOLOGY

X.B.Buriyev – "Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers" National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management Assistant of the Department "Water culture and Land Reclamation".

A.V.Boqayev - Master's degree from the Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University" Tashkent Institute of irrigation and agricultural engineers.

J.J.Usmonov - student from the Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University" Tashkent Institute of irrigation and agricultural engineers.

Annotation: This article describes the advantages and disadvantages of drip irrigation. However, the results of experiments on the method of drip irrigation, the order of irrigation of cotton plants, criteria, duration of irrigation, the number and growth of cotton plants The impact on the development and productivity.

Keywords: Cotton, mineral, fertilizer, resource, yield, system, groundwater, soil, plant.

Hurmatli Prizidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miramonovich tashabbuslari asosida yurtimizda sug‘orish madaniyatini yuksaltirish, suv xo‘jaligida islohotlarni jadallashtirish, soha moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ekinlarni sug‘orishda ilg‘or usullar, jumladan, tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

“ Qishloq va suv xo‘jaligida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prizident farmoni qabul qilindi,bunga sabab Respublikada asosiy ekin maydonlarini sug‘orishda hamon eskicha, bostirib sug‘orishga asoslanib qolinayotgani, shuningdek, latok tarmoqlari, drenaj tizimlarining yangi texnologiyalarga asoslanmaganligi sababli, suv iste’molchigacha suv manbalarining 40 foizdan ortiq qismi ekin maydonlariga yetib borguncha bo‘lgan jarayonda yo‘qotilishi hamda tuproqlarning meliorativ holatiga salbiy ta’siri oshganligi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida reja asosidagi meliorativ dasturlari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Meliorativ dasturlardan birinchisi 2008-2012 yillarga belgilangan, ikkinchisi dastur 2013-2017 yillarga rejalashtirilgan hamda uchinchasi 2018-2022 yillar uchun mo‘ljallangan dastur asosida ish olib borilmoqda. Hukumat rahbarini topshirig‘iga asosan hozirda Respublika qishloq va suv xo‘jaligining 2030 yilgacha bo‘lgan uzoq yillik dasturi ishlab chiqilmoqda. Shu konsepsiya asosida kamida 10 yil ichida 2 million ya’ni mavjud sug‘oriladigan ekin maydonlarimiz 50 foizi tomchilatib sug‘orish texnologiyalari joriy qilinadi.Ushbu katta marra va tadbirni amalga oshirish uchun yirik subsidiyalar ajratilyapti natijada, 2030 yilga qadar 50 foiz maydanlarda tomchilatib sug‘orish usuliga o‘tilishi rejalashtirildi.

Tomchilatib sug‘orish tizimida g‘o‘zani parvarishlash texnologiyasiga quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar kiradi: Turli tuproq iqlim sharoitiga mos yuqori hosildor va tezpishar navlardan foydalanish, tuproqqa asosiy, haydov oldi va qator orasiga ishlov berishning ratsional tizimi, yuqori sifatli chigitni ekish, ma’dan o‘g‘itlarni tabaqalashtirib berish, sug‘orish jarayonini to‘liq avtomatlashtiruvchi, suvdan tejamli va samarali

foydalanishga yordam beruvchi tizim, o‘simliklarni kasallik, zararkunanda va begona o‘tlardan uyg‘unlashgan himoya tizimi, g‘o‘zani mexanizatsiya yordamida chilpish va defolyasiya qilish, paxta hosilini mashinalar yordamida yig‘ishtirib olish. Mazkur texnologiya aslida qabul qilinib, keng foydalanayotgan egat orqali sug‘orish texnologiyasiga mos keladi. Tomchilatib sug‘orish tizimining asosiy farqi, vegetatsiya mobaynida ma’dan o‘g‘itlarning va gerbitsidlarning ma’lum qismi o‘simlikka sug‘orish bilan birga berish imkoniyati borligida hamda qator orasiga ishlov berilmasligida.

Tajriba o‘tkazilgan maydonning tuprog‘i o‘rta qumoq bo‘lib, yer osti sizot suvlarining chuqurligi 1,9-2.7 metr, g‘o‘za o‘suv amal davrida esa 1,9-2.5 metrni tashkil etib, kam sho‘rlangan. Tajriba natijalarining yakuniga ko‘ra, egatlab sug‘orishga nisbatan tomchilatib sug‘orish tizimi bir muncha afzalliklarga ega bo‘lib, sug‘orish suvining 45-50 %, yoqilg‘i moylash materiallarini hamda mineral o‘g‘itlarni 45-55 % iqtisod qilinishi tadqiqotlardan aniqlangan. Shuningdek, qator oralariga ishlov berish soni ham 8.0 marta qisqarishi, 1 s/ga paxta hosili yetishtirish uchun 93 m^3/ga suv sarflanishi aniqlandi.

1-jadval

Tajriba tizimi

Variantlar	Sug‘orish usuli	Tuproqning sug‘orish oldi namligi, CHDNS ga nisbatan, %,	Ma’dan o‘g‘itlarning yillik me’yori, kg/ga
1	Egat orqali (nazorat)	70-75-65	N240, P170, K120,
2	Tomchilatib sug‘orish tizimi	70-75-70	N240, P170, K120,
3	Tomchilatib sug‘orish tizimi	70-75-65	N240, P170, K120,
4	Tomchilatib sug‘orish tizimi	70-80-65	N240, P170, K120,

Tomchilatib sug‘orilgan dalalarda tuproqning agrofizik xususiyatlaridan: hajm og‘irligining engillashishi, suv o‘tkazuvchanligining yaxshilanib borishi kuzatilgan. Shuningdek, zararli, suvda eruvchi tuzlarning ildiz tarqalgan qatlamida kam to‘planishi, ma’dan o‘g‘ildarning suvda eritib berilishi sababli o‘simlik tomonidan oziq moddalarining o‘zlashtirilishi ortib, hosil elementlarining ko‘payishi aniqlandi. Hosildorlik tomchilatib sug‘orilganda 16,4 s/ga oshganligi kuzatildi. Bundan tashqari, tomchilatib sug‘orilgan maydonlarda doimiy ravishda namlik me’yorda ushlab turilishi hisobiga tuproqda sho‘rlanish jarayoni juda kam miqdorni tashkil etib, vilt kasalligiga chalinmadi.

G‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda maqbul sug‘orish va oziqlantirish tartibini ishlab chiqish bo‘yicha tajribalar eskidan sug‘orilib kelinayotgan maydonlarda bajarildi. Tajribalarda har egatga yotqizilgan uzunligi 200 metr bo‘lgan namlatuvchi quvurlar 0,011 katta qiyalikka ega dalaning maksimal nishabligi qiyaligi bo‘yicha shuningdek uch yillik bedadan so‘ng birinchi yili haydalgan 0,006 qiyalikdagi dalaning maksimal nishabligi bo‘ylab, 60 sm uzunlikdagi namlatuvchi quvurlar o‘rnatilib izlanishlar olib borilgan.

Tajriba maydonlari o‘rta qumoq mexanik tarkibli, G‘o‘zaning o‘rta tolali Buxoro-8 navi 90 sm qator oralig‘ida, Izroil texnologiyasi asosidagi namlatuvchi – quvurlar traktor ketidan 1,2 metr yetkazilgan holda yetishtirildi. Tajribalarda g‘o‘za 4 variantda har bir variant (delyanka) 8 qator qilib ekildi.

Barcha dala va laboratoriya tadqiqotlari O‘zPITI uslubiy qo‘llanmalari bo‘yicha o‘tkazildi. Haydov qatlamida (0-30 sm) tuproqning hajmiy og‘irligi 1,36-1,38 g/sm3, haydov osti qatlami (30-50 sm) esa bu ko‘rsatkich bir muncha ortib 1,42-1,56 g/sm3, solishtirma og‘irlik va umumiy g‘ovaklik ko‘rsatkichlari bu qatlamlarda tegishli ravishda 3,14-3,21 g/sm3 va 51,3-47,1 % ni tashkil etadi.

Tuproqning gidrofizik ko‘rsatkichlari quyidagicha, tuproq qatlamining 0-100 sm qismida cheklangan dala nam sig‘imi (CHDNS) 20,3-21,4, tabiiy namlik haydov qatlamida 17,2-18,5 %, haydov osti qatlamida esa 18,3-20,8 %. G‘o‘zani sug‘orish tartibi tajriba tizimida belgilangan sug‘orish oldi namlik miqdori va tuproqning 0-50 sm hisobiy qatlamidan kelib chiqib shakllanadi. Olingan ma’lumotlar tomchilatib sug‘orishni egat orqali sug‘orishga nisbatan yuqori samaradorligidan dalolat beradi.

Jumladan, egat orqali sug‘orishda mavsumiy 6300 m3/ga brutto suv sarflangan bo‘lsa, tomchilatib sug‘orishda 2 va 3 variantlarda 2730 m3/ga, to‘rtinchi variantda (70-80-65) esa jami 2980 m3/ga me’yorida suv sarflanganligini kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, 70-75-70 % tartibida tomchilatib sug‘orishda 57 %, 70-80-65 % tartibida tomchilatib sug‘orishda 53 % suv iqtisod qilingan.

G‘o‘zani mineral oziqlantirish tartibi ma’dan o‘g‘itlarning eruvchanlik xususiyatiga bog‘liq. Suvda qiyin eriydigan fosforli (ammofos) va kaliyli (Kaliy xlor) ma’dan o‘g‘itlarining to‘liq me’yorlari tajriba tizimiga asosan haydovdan oldin solingan. Azotli o‘g‘itlar (Ammiakli selitra) nasos stansiyasida o‘rnatilgan gidroo‘g‘itlagich moslamasi yordamida sug‘orish suvi bilan berilgan. Gidroo‘g‘itlagich ejektor prinsipida ishlab uning konstruksiyasi KI-50 “Raduga” yomg‘irlatib sug‘orish mashinasidan ko‘chirib olingan.

Tomchilatib sug‘orish tizimi sug‘oriladigan dalaning barcha qismini bir tekistda namlanishini ta’minlashi lozim. Bunday namlanish, dalaga beriladigan suv bosimi quvurlarining bosh qismida ma’lum ko‘rsatgichga ega bo‘lgandagina (1,0-4,0 atm) bosimi ta’minlanganda tomchilatgichlarning bir maromda ishlashi uchun sharoit yaratiladi.

Tizimni yaxshi ishlab nosozlikni oldini olish uchun uni doimiy nazoratda ushlab turish talab etiladi. Yopiq tizimdagi bosimni pasayib ketishiga olib ketishi mumkin bo‘lgan yoriqlar va nosozliklar natijasida geometikligi buzilib, suv bexuda oqayotgan joylarni tezda tuzatish kerak. Sug‘orishlar mobaynida suvdagi yirik va mayda zarrachalarni ushlab qoluvchi filtrlar joriy tozalanib, yuvilishi kerak. Zarurat tug‘ilganda sug‘oruvchi quvurlar ham yuviladi. Buning uchun barcha quvurlarning oxiridagi tiqinlar olinib, oqova suv tashlama ariq orqali oqiziladi. Har doim sug‘orish quvurlari suv o‘tkazgichlar tuproq ustida, egat o‘rtasida to‘g‘ri joylashganligini nazorat qilinishi kerak.

Tomchilatgichlardan birortasining ishdan chiqishi kuzatilsa, uni darhol almashtirish zarur bo‘lib, buning uchun quvurning (20-30 sm) ishlamayotgan qismi tomchilatgich bilan birga qirqib olinib tashlanadi, o‘rniga yangi kesma-suv o‘tkazgich tomchilatgichi bilan almashtiriladi.

Eskidan sug‘orilib kelinayotgan o‘tloqi botqoq tuproqlar sharoitida g‘o‘za va uning majmuasiga kiruvchi ekinlarni yangi texnologiya tomchilatib sug‘orish tizimlarida parvarishlash agrotexnikasi xususiyatlari yuqorida bayon etilgan. Mazkur tajribalarda suv tejash borasida olingan

yuqori samaradorlik,ekologik jixatidan o‘zini ijobiyligini ham namoyon etdi. O‘tloqi botqoq tuproqlar mintaqadagi keng tarqalgan irrigatsion eroziya va oqava suv bilan birga ma’dan o‘g‘itlarni chetga chiqib ketishi oldi olinadi.Shuning uchun birinchi navbatda TST aynan shu yer osti suvlari yuza joylashgan avtomorf tuproqlar hududida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini ilmiy asosda mukammal o‘rganish va ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida sobiq UzPITI Buxoro filiali tajriba xo‘jaligi dalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.Tajriba uchun mo‘ljallangan dala Quymozor suv omboridan “BUXOROSUVOQAVA” boruvchi quvur orqali Buxoro shahriga qiruvchi institut hududidan o‘tuvchi koturda o‘rnatilgan bo‘lib , hamda shu maydonda ilmiy tadqiqot izlanishlari o‘tkazilgan.

Xulosalar

Ko‘p yillik izlanishlarning natijalarini umumlashtirib,quyidagi fikrlarni bayyon qilish mumkin. Tuproqning gidrofizik ko‘rsatkichlari quyidagicha, tuproq qatlamining 0-100 sm qismida cheklangan dala nam sig‘imi (CHDNS) 20,3-21,4, tabiiy namlik haydov qatlamida 17,2-18,5 %, haydov osti qatlamida esa 18,3-20,8 %. G‘o‘zani sug‘orish tartibi tajriba tizimida belgilangan sug‘orish oldi namlik miqdori va tuproqning 0-50 sm hisobiy qatlamidan kelib chiqib shakllanadi. Olingan ma’lumotlar tomchilatib sug‘orishni egat orqali sug‘orishga nisbatan yuqori samaradorligidan dalolat beradi. Jumladan, egat orqali sug‘orishda mavsumiy 6300 m3/ga brutto suv sarflangan bo‘lsa, tomchilatib sug‘orishda 2 va 3 variantlarda 2730 m3/ga, to‘rtinchi variantda (70-80-65) esa jami 2980 m3/ga me’yorida suv sarflanganligini kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, 70-75-70 % tartibida tomchilatib sug‘orishda 57 %, 70-80-65 % tartibida tomchilatib sug‘orishda 53 % suv iqtisod qilingan.

Tomchilatib sug‘orilgan dalalarda tuproqning agrofizik xususiyatlaridan: hajm og‘irligining engillashishi, suv o‘tkazuvchanligining yaxshilanib borishi kuzatilgan. Shuningdek, zararli, suvda eruvchi tuzlarning ildiz tarqalgan qatlamida kam to‘planishi, ma’dan o‘g‘idlarning suvda eritib berilishi sababli o‘simlik tomonidan oziq moddalarining o‘zlashtirilishi ortib, hosil elementlarining ko‘payishi aniqlandi. Hosildorlik tomchilatib sug‘orilganda 16,4 s/ga oshganligi kuzatildi. Bundan tashqari, tomchilatib sug‘orilgan maydonlarda doimiy ravishda namlik me’yorda ushlab turilishi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zPITI Buxoro filiali 1995-1998 yillardagi hisobotlari.
2. "Tomchilatib sug'orishda g'o'za va uning majmuasiga kiruvchi ekinlarni parvarishlash bo'yicha tavsiyalar" Toshkent 2009 y.
3. www.ziyonet.uz
4. www.aim.uz
5. www.yandex.ru
6. www.google.ru

UO'T: 621, 34

SUVNI TEJASH VA SUVLARDAN OQILONA FOYDALANISH

Ixlosov Adham Jurabekzoda, talaba, Toshkent davlat agrar universiteti
To'rayeva Habiba Toshboboyevna, Assistant, Toshkent davlat agrar universiteti
turayevaxabiba2020@gmail.com

Annatosiya-ushbu maqolada dunyo miqiyosida bo'lgan barcha jonzodlarni suvga bo'lgan ehtiyoji aytib utilgan. Bundan tashqari oqova suvlardan oqilona foydalanish ko'zda tutilgan.

Kavitatsiya-mahalliy bosim tushib, kritik qiymatga etgan uchastkalarda sodir bo‘ladigan suyuqlik oqimining jipsligini buzilishidir. Bu jarayon ko‘proq suyuqlik bug‘lari va shuningdek, eritmadan chiqayotgan gazlar bilan to‘lgan ko‘p miqdordagi pufakchalar hosil bo‘lishi bilan boradi.



1-rasm. Markazdan qochma nasoslarda sodir bo‘ladigan kavitatsiyasiz va Kavitatsiyali xolatlar.1-ishchi parrak; 2-suv tarkibidagi havo; 3- havo qobig‘i.

Suvning tarkibidan xavoning ajralib chiqishi kavitatsion bo‘shliqlarni hosil qilishga olib keladi, hamda zichlantiruvchi xalqa yuzasining so‘nggi qismlarini jadal eyilishini kuchaytiradi.Oqimning uyurmasimon harakati kelib chiqadi, bu ham eyilish intensifikatsiyasining qo‘shimcha manbai hisoblanadi.

Nasos qurilmalaridan foydalanish davrida yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari kavitatsion eyilish tufayli xam ishdan chiqishlar sodir bo‘ladi.

Nasos qurilmalarini ishdan chiqish sabablari:

Kavitatsiya-mahalliy bosim tushib, kritik qiymatga etgan uchastkalarda sodir bo‘ladigan suyuqlik oqimining jipsligini buzilishidir. Bu jarayon ko‘proq suyuqlik bug‘lari va shuningdek, eritmadan chiqayotgan *r* bilan to‘lgan ko‘p miqdordagi pufakchalar hosil bo‘lishi bilan boradi.

Pufakchalarni hosil bo‘lishi suyuqlik qaynashi bilan birmuncha umumiylikka ega. SHunga ko‘ra, bu 2 ta jarayon ko‘pincha o‘xshash bo‘lgani uchun mazkur haroratda kavitatsiya boshlanadigan kritik bosim sifatida bug‘ga to‘yingan suyuqlik bosimini qabul qilinadi. Past bosim sohasida kavern pufakchalari hosil bo‘ladi. Keyin pufakchalar oqim bilan bosim kritik chegaradan yuqori bo‘lgan sohaga oqib borib, u erda buzilish hosil bo‘ladi. SHunday qilib, oqimda harakatlanuvchi pufakchalar bilan to‘la yaqqol ifodalangan kavitatsiya zonasi hosil bo‘ladi. Kavitatsiya hodisasi suv mahalliy torayishga ega bo‘lgan shisha truba (orqali oqib o‘tishi misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Sarfning asta-sekinlik bilan ortishi oqimning ancha katta tezligida toraygan joyida bosim kritik qiymatgacha tushib ketishiga olib keladi [1].

Dastlab kavitatsiya o‘rnatilmagan halqasimon zona shaklida paydo bo‘lib, qandaydir pulsatsiya tufayli kattagina chastotada bosim vaqti-vaqti bilan yuzaga kelib-yo‘qolib turadi oqibatida esa kavitatsion zona beqaror bo‘lib qoladi va uning oqim yo‘nalishida uzayib, oqim markazi tomon chuqur tarqalib borishi natijasida xajmi ham ortib boradi va nihoyat, sarfning qandaydir qiymatida kavitatsion zona butun oqim kesimini egallab, oqim bo‘ylab pastga anchagina joygacha tarqaladi.



2-rasm. Markazdan qochma nasoslarda kavitatsiyaning sodir bo‘lish joyi

Misol sifatida markazdan qochuvchi nasosning ishchi g‘ildiragidagi oqim sxemasi keltirilgan. Bunday holatda kavitatsiya pufakchalari ishchi g‘ildirakning parraklarida paydo bo‘ladi. Parrak yuzasidan chiqib, ular kavitatsion zona hosil qilib, oqim bilan olib ketiladi va parraklardan bir qancha masofada yo‘qoladi. Kavitatsiya uchun keyingi misol bo‘lib

suyuqlikda tebranib turuvchi jism sirti yaqinida sodir bo‘luvchi holat xizmat qiladi. Etarli darajadagi katta chastotada va tebranishning ma’lum amplitudasida jism sirtida kavitatsion pufakchalar hosil bo‘lib, tebranish davrining o‘sha qismi davomida sirt yaqinidagi bosim tushib ketib, pufakchalar kattalashadi va davrning qolgan qismi davomida bosim ko‘tarilib, pufakchalar yoriladi.

Odatda kavitatsiya ikkita tipga bo‘linadi: sirt kavitatsiyasi va ajraladigan kavitatsiya. Sirt kavitatsiyasi yo‘naltiruvchi elementning sirtida yoki bevosita uning yaqinida sodir bo‘ladi. Xozirgina biz tasvirlagan markazdan qochuvchi nasosning ishchi g‘ildiragidagi kavitatsiya holati sirt kavitatsiyasiga misol bo‘la oladi. Ajraladigan kavitatsiya sirtdan ancha naridagi masofada yuzaga kelib, turbulent aralashuv natijasi hisoblanadi, odatda oqimga kirayotgan elementlar, ba’zi gidravlik mashinalarning ishchi g‘ildiraklari, shuningdek yo‘naltirilayotgan yuzadan oqimning ajralishi natijasida yuzaga keladi[2].

Nasos qurilmalarining asosiy gidromexanik uskunalari ba’zi elementlarning kavitatsion va gidroabraziv eyilishdar sodir bo‘lib natijada ularning ish rejimining yomonlashuvi va ularning foydali ish koeffitsientining pasayishiga va sezilarli darajadagi yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Nasoslarning kavitatsion eyilishga uchrashi vaqtida pasayishiga agregatning, ularning ekspluatatsiya hususiyatlariga ko‘ra, quyi bef suv sathiga nisbatan noto‘g‘ri joylashishi sabab bo‘ladi.

Nasoslarda bo‘ladigan kavitatsion eyilishlarni oldini olish uchun quyidagilarni ta’minlash lozim:

- ✓ Nasos yordamida so‘rilayotgan suv sathini me’yorida bo‘lishini ta’minlash;
- ✓ So‘rish quviri bilan nasosninin birlashtirish joyini germetik bo‘lishini ta’minlash;
- ✓ Nasosning ichki qismida suvning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab xarakatlanish tezligini kamaytirish;
- ✓ Markazdan qochma nasoslar ishchi parraklari yon yoriqlarini zichlashtiruvchi elementlarni sozlangan bo‘lishiga erishish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Majidov T. “Nasos va nasos stansiyalar”. Toshkent. Davr 2012 y.
2. Karelin V.YA. Iznos gidravlicheskix mashin ot kavitatsii i nanosov.-M: Mashinostroenie, 2000.

UO‘T: 626.83 (574)

NARPAY KANALI VA UNDAGI ENERGETIK NUQTALAR.

[1]Shomurodov A.A. katta o’qituvchi
[2]Hojiyev F.O’. talaba farruxhojiyev65@gmail.com
[(1,2)]“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

Annotatsiya; Atrof-muhitga zarar keltirmay insoniyat xizmatini bajaradigan energiya, Narpay kanalidagi 1-GESda 1 dona agregat 12 oy, ikkinchi agregat esa atigi 6 oy (aprl-sentyabr) ishlaydi xalos. SHunday qilib yilik ishlab chiqariladigan elektroenergiya miqdori aniqlash

Kalit So’zlar: Narpay kanaliga,tabiiy resruslar,grafik,hisobkitoblar,formulalar energiya turlariga, suv, quyosh, shamol, geotermal suvlar, GES lar.agregatlar

UDC: 626.83 (574)

NARPAY CHANNEL AND ITS ENERGY POINTS.

[1]Shamuradov A.A. senior teacher
[2]Hajiyev F.A’. student farruxhojiyev65@gmail.com
[(1,2)]Bukhara Institute of Natural Resources Management, National Research University, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Annotation; Energy that serves humanity without harming the environment, 1 unit at HPP No.on the Narpay Canal will work for 12 months, and the second unit will work for only 6 months(April September). Thus determining the amount of electricity produced annually.

Keywords: Narpay channel, natural resources, graphs, calculations, formulas types of energy, water, solar, wind, geothermal waters, hydroelectric power plants.

Atrof-muhitga zarar keltirmay insoniyat xizmatini bajaradigan energiya, tabiatda mavjud bo‘lgan ekologik toza tabiiy energiyalardir. Bu energiya turlariga suv, quyosh, shamol, geotermal suvlar, geyzerlar, to‘lqinlar, suv sathining ko‘tarilib-tushishi, vulqonlar, chaqmoqlar, okean va dengiz-lardagi har xil oqimlar, biomassa, vodorod yoqilg‘isi, shahar chiqindilari, fotosintez; fotoelektrik o‘zgartiruvchilar, ximik (galvanik) elementlar hamda boshqalar kirishi mumkin. Mana shu energiya turlariga noana’naviy va qaytalanuvchi energiya turlari deyiladi. Faqatgina

yuqorida ko‘rsatilgan energiya manbalaridan toza ekologik energiya ishlab chiqarish mumkin[1].

Ma’lumki o‘tgan asrning 20 yillaridan boshlab dunyoda kichik elektrostansiyalar qurib ulardan foydalanish avj olib ketdi. Keyinchalik (1960 yillardan boshlab) katta daryolarda yirik suv omborli GESlar qurila boshladi. **Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishini uning energiya bilan ta’**minlanganligi belgilaydi. Ammo energiya iste’molining kundan-kunga oshib borishi hamda uni ishlab chiqarish uchun organik yoqilg‘ilardan foydalanish, atrof-muhitni global ifloslanishiga olib kelmoqda va natijada insoniyat hayotiga jiddiy xavf solmoqda.

Narpay kanaliga qurilishi rejalashtirilayotgan 2 dona GES(105+70-piket-dagi 1- GES, 238+00-piketdagi 2-GES)lar qurib ishga tushirilgandan sung shu GESlar atrofidagi aholining, kichik ishlab chiqarish korxonalarining elektroenergiya bilan ta’minlanishi yaxshilanadi[2]..



1-rasm. Narpay kanalining 105+70-piketiga quriladigan «1-GES»ning joylashish sxemasi.



2-rasm Narpay kanalining energetik nuqtalar ko‘rsatilgan bo‘ylama kesimi.



3-rasm. Agregatlar sonini aniqlash uchun takrorlanish gidrografi.

GESning dastlabki quvvati,

$$N_{GES\ dastlabki} = 9{,}81 \cdot Q_{GES\ dastlabki} \cdot N_{hisob\ dastlabki} \cdot \eta_{GES}$$

$$N_{GES\ dastlabki} = 9{,}81 \cdot 47 \cdot 6{,}0 \cdot 0{,}94 = 2\ 600\ kVt/soat$$

Har bir agregatning hisob suv sarfini aniqlaymiz.

$$Q_{Турб.} = \frac{Q_{ГЭС}}{n_{агрегат}} = \frac{47}{2} = 23{,}5\ \text{m}^3/\text{s}$$

Har bir turbinaning quvvatini hisoblaymiz.

$$N_{turbina} = N_{GES} : n_{agregat} = 2\ 600 : 2 = 1\ 300\ kVt/soat.$$

Narpay kanalidagi 1-GESda 1 dona agregat 12 oy, ikkinchi agregat esa atigi 6 oy (aprl-sentyabr) ishlaydi xalos. SHunday qilib yilik ishlab chiqariladigan elektroenergiya miqdori –

$E_{yil.}$={[($N_{1gen.}$ + $N_{2gen.}$)T_{VII} + ($N_{1gen.}$ + $N_{2gen.}$)T_{VI} + ($N_{1gen.}$ + $N_{2gen.}$)T_{IV} + ($N_{1gen.}$ + $N_{2gen.}$)T_{V} + ($N_{1gen.}$ + $N_{2gen.}$)T_{VIII} + ($N_{1gen.}$ + $N_{2gen.}$)T_{IX}] + [($N_{1gen.}$) T_{X} + ($N_{1gen.}$) T_{XI} + + ($N_{1gen.}$)T_{XII} + ($N_{1gen.}$)T_{III} + ($N_{1gen.}$)T_{II} + ($N_{1gen.}$)T_{I}]} = {[31(1250 + + 1250) + 30(1250 + 1250) + 30(1250 + 1250) + 31(1250 + 1250) + 31(1250 + 1250) + 30(1250 + 1250)] + (31 *x* 1250 + 30 *x* 1250 + 31 *x* 1250 + 31 *x* 1250+ 28 *x* 1250 + 31 *x* 1250)]} *x* 24 = [(77500 + 75000 + 75000 + 77500 + 77500 + 75000) + (38750 + 37500 + 38750 + 38750 + 35000 + 38750)] *x* 24 =685 000 *x* 24 = 16 440 000 kVt.

Bu erda: $N_{1\ gen.,\ 2\ gen.}$ =1 250 kVt - birinchi va ikkinchi generatorlarning kuvvati;

SHunday qilib yilik ishlab chiqariladigan elektroenergiya 16 440 000 kVt ni tashkil qiladi. GES qurilgandan kiyin ushbu xududa axolining energiyaga bo‘lgan talab qondiriladi va qo‘shimcha ishlab chiqarish korxonalari uchun elektr energiya bilan ta’minlaydi[3,4].

Xulosa 1. Hozirgacha kichik suv sarfi va aylanishlar sonida ishlaydigan GES agregatlarini, shu jumladan Narpay kanaliga quriladigan 1-GESni ham gidromexanik (turbina) va gidroenergetik (generator) jihozlar bilan ta’minlash, kichik energetikaning asosiy muammolardan biridir.

2. Narpay kanaliga quriladigan 1-GES uchun PL 510 –VB markali turbina hamda SV-250/75-24 markali gidrogenerator tanlandi.

3. Narpay kanaliga quriladigan 1-GES bir yilda 16 440 000 kVt elektroenergiya ishlab chiqaradi.

4. Kanaldagi 1–GESning agregatlari bir yilda 6580 soat ishlaydi, GESdan foydalanish koeffitsienti 0,75 ni tashkil qiladi.

5. Narpay kanaliga quriladigan 1–GES qurib ekspluatatsiya qilinishi natijasida, sug‘orish suvlaridan kompleks foydalaniladi, atrofdagi aholining bir qismi ish bilan ta’minlanadi, aholi hamda mahalliy kichik korxonalarni elektr energiyasi bilan ta’minlanishi oshadi, aholini yashash sharoiti yaxshilanadi va turmush darajasi ko‘tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Majidov T.SH. Noana’naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Darslik, «Voris» nashriyoti, Toshkent, 2014. -168 bet.
2. Potapov V.M. i drugie. Ispolzovanie vodnoy energii. Uchebnoe posobie, Moskva, Kolos, 1972. – 344 s.
3. Ergashev R.R., Bekchanov F.A., Nasыrova N.R. Diagnosticheskie ispытaniya vertikalьnых nasosov. Materialы mejdunarodnoy nauchno-

prakticheskoy konferentsii «Puti povыsheniya effektivnosti oroshaemogo zemledeliya» - Novocherkassk, №3(59), 2015. -31-36 s.
4. Cheboevskiy V.F. i dr. Nasosы i nasosnыe stantsii. M., Agropromizdat,

UO‘T: 626.83 (574)

ҒЎЗАНИНГ БУХОРО-102 НАВИНИ ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ СУҒОРИШ ТЕХНИКАСИ ФОЙДАЛАНИБ СУҒОРИШ ТАРТИБИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

М.Х.Хамидов – профессор. У.А.Жўраев - доцент
Ф.Қўзиев-мустақил тадқиқотчи. О.У.Муродов-докторант
Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти ”Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти”

Аннотация: Мақолада Бухоро вилоятининг ўтлоқи аллювиал тупроқлари, сизот сувларининг сатҳи 1,5–2,0 м бўлган шароитида ғўза экилган тажриба даласида томчилатиб суғориш қўлланилганда тупроқнинг суғоришдан олдинги намлиги ЧДНСга нисбатан 70-80-65 % бўлганда, ғўза жами бўйича 9 маротаба суғорилди. Мақолада ғўзанинг ўсиб, ривожланиши ва ҳосилдорлигига томчилатиб суғоришнинг таъсири ва бу суғориш технологиясини ўрганиш бўйича ўтказилган тажрибаларнинг натижалари келтирилган.

Таянч сўз ва иборалар: Турли механик таркибли тупроқлар, мелиоратив шароит,

UDC: 626.83 (574)

DEVELOPMENT OF IRRIGATION PROCEDURES USING IRRIGATION TECHNIQUES OF DRIP IRRIGATION TECHNOLOGY OF BUKHARA-102 VARIETIES OF GOOSE

M.X.Khamidov-professor. U.A.Jo ’ raev-associate professor
F.Lamb-independent researcher. O.U.Corodov-doctoral student

Annotation: in the article, when drip irrigation was applied on the field of experimental irrigation of the Bukhara region Meadow alluvial soil, where the level of the sizot Waters was 1,5–2,0 m, when the soil was 70-80-65%

relative to the Chdns, 9 marotaba was watered in total. The article presents the effects of drip irrigation on the growth, development and yield of the goose and the results of experiments on the study of this irrigation technology.

Base words and phrases: soils of different mechanical composition, reclamation conditions,
суғориладиган ерлар; томчлатиб суғориш, агротехник тадбирлар, суғориш техникаси элементлари, тарқатувчи қувурлар, сув сарфи, шўрланиш, ғўза, пахта ҳосили, суғориш меъёрлари, чегаравий дала нам сиғими (ЧДНС), сизот сувлар сатҳи, минерал ўғитлар, вегетация даври.

Сўнгги йилларда республикамизда қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда сувни тежайдиган технологияларни жорий этишга алоҳида эътибор қаратилди. Ушбу технологияларни жорий қилишни Давлат томонидан қўллаб-қувватланаётганлиги натижасида сувни тежайдиган технологиялар жорий этилган майдонлар йилдан йилга ортиб бормоқда.

Бироқ, сув тежовчи суғориш технологиялари қўлланилаётган умумий майдон 291,2 минг гектарни ёки умумий суғориладиган ер майдонларининг 7 фоизини ташкил этаётганлиги қишлоқ хўжалигида сув тежовчи технологиялардан фойдаланишни кенгайтиришга ва сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни янада фаоллаштириш заруратини тақозо этмоқда.

Илмий тадқиқотлар олиб бориш объекти бўлиб, Бухоро вилоятининг шўрланган, турли механик таркибли тупроқлари, ғўзанинг “Бухоро-102” нави ва ғўзани етиштиришда томчилатиб суғориш технологиясининг суғориш техникаси элементлари ҳисобланади.

Тадқиқотнинг мақсади: Бухоро вилоятининг шўрланган, турли механик таркибли тупроқлари шароитида ғўзанинг Бухоро-102 навини томчилатиб суғоришда мақбул суғориш техникаси элементларини аниқлаш, уларнинг ғўзани ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлиги ҳамда пахта толасининг сифат кўрсаткичларига таъсирини баҳолаш ҳамда ғўзани томчилатиб суғоришнинг

суғориладиган ерларнинг мелиоратив режимига таъсирини аниқлашдан иборат.

Тадқиқотнинг вазифалари: Тадқиқот олиб бориладиган йилларда:

- вилоят тупроқларнинг шўрланиш даражаси, сизот сувлари сатхи ва минерализацияси, суғориш ҳамда шўр ювишга олинаётган сув миқдори ва ғўзани ананавий эгатлаб суғоришда сарфланаётган сув ресурслари ўрганилади;

- вилоятда ғўзанинг Бухоро-102 навини турли механик таркибли тупроқларда анъанавий эгатлаб суғоришда қўлланилаётган суғориш тартиби ўрганилади;

- вилоятнинг шўрланишга мойил, енгил, ўрта ва оғир механик таркибли тупроқларида ғўзанинг Бухоро-102 навини томчилатиб суғориш усулидаги мақбул суғориш тартиби ишлаб чиқилади;

Ишнинг бажарилиш усуллари: Тадқиқотларни ўтказишда «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари», Тупроқнинг агрофизик ва агрокимёвий таҳлиллари "Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии", "Дала тажрибаларини ўтказиш услублари", иқтисодий самарадорлик Н.А.Баранов услубномалари асосида аниқланади

Олинган натижалар: Бухоро вилоятининг шўрланган, турли механик таркибли тупроқлари шароитида ғўзанинг Бухоро-102 навини томчилатиб суғориш усулидаги илмий асосланган суғориш тартиби ўрганилди, суғориш техникаси элементлари: томчилатгичнинг сув сарфи, томчилатгичлар орасидаги ва суғориш қувурлари орасидаги масофаларнинг мақбул кўрсатгичларини аниқланди ҳамда уларни суғориладиган ерларнинг мелиоратив режимига, ғўзанинг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсири аниқланди:

- механик таркиби енгил қумоқ тупроқлар шароитида чигитни қатор ораси 60 см қилиб экилиб, ғўзани суғориш олди тупроқ намлигини ЧДНС га нисбатан 70-80-65 % да ушлаб туриб, 384-415 м^3/га суғориш меъёрлари билан мавсум давомида 9 марта суғориш, бунда томчилатиб суғориш техникаси элементлари: томчилатгичнинг сув сарфи 2 *л*/соат, томчилатгичлар орасидаги масофа 25 см ҳамда суғориш қувурлари ҳар бир эгатга *(а=0,6 м)* ўрнатилганда ғўзанинг

ўсиб ривожланишига қулай шароитлар яратилиб, ғўзадан 45,4-46,2 ц/га ҳосил олишга эришилди.

1-расм. Тажриба даласини томчилатиб суғоришнинг кўриниши

Хулоса. Хоразм воҳасининг қадимдан суғорилиб келинаётган ўтлоқи аллювиал тупроқларида ғўзани томчилатиб суғориш технологиясидаги илмий асосланган суғориш тартибини ўрганиш асосида қуйидаги хулосага келинди:

Механик таркиби енгил қумоқ тупроқлар шароитида ғўзани қатор ораси 60 см қилиб экилиб, томчилатиб суғориш технологияси жорий қилинганда, томчилатгичнинг сув сарфи 2 *л*/соат, томчилатгичлар орасидаги масофа 25 см, суғориш қувурлари орасидаги масофа 60 см бўлганда, 384-415 м^3/га суғоришлар меъёри билан 384-415 м^3/га мавсумда 9 марта суғорилганда ғўзанинг ўсиб ривожланишига қулай шароит яратилиб, ғўзадан 45,4-46,2 ц/га ҳосил олишга эришилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБАЛАР РУЙХАТИ

1. Хамидов М.Х., Суванов Б.У. Ғўзани суғоришда полимер комплекслар қўллаш орқали сув ресурсларини иқтисод қилиш // "ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ" журнали. – Тошкент, 2018. – №2(12). - Б. 8-12.
2. Ўзбекистон Республикаси патенти. № IAP03072 14.07.2006 й. “Томчилатиб суғориш учун қувур–Труба для капельного орошения”. Муаллифлар: Б.Усманалиев., И.Н.Азаров.
3. Т.Ш.ШАМУДИНОВА, Сизот сувларининг турлича жойлашувида ғўзанинг суғориш режимларини ишлаб чиқиш (Тошкент вилояти Ўртачирчиқ тумани мисолида) 5А450205–“Гидромелиоратив тизимлар фойдаланиш” мутахассилиги бўйича магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация ТОШКЕНТ - 2020 й, 75-бет
4. С.У.Шодиева, А.Қ.Жўраев, А.У.Жўраев Сув ваер ресурсларидан оқилона фодаланиш самарадорлигини ошириш мавзусидаги

республика илмий-назарий анжуман материаллари 22-25-ноябрь 2019 й. Бухоро.

5. Хамидов М.Х., Суванов Б.У. ғўзани суғоришда томчилатиб суғориш технологиясини қўллаш // "ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ" журнали. – Тошкент, 2018. – №2(12). - Б. 8-12.

6. Ulugbekovich, M. O., Komiljonovna, S. M., Sobirovich, K. B., & Murodovich, M. M. (2021). Efficiency Of Cotton Growing By Drip Irrigation. *European Journal of Research Development and Sustainability*, *2*(4), 52-54.

UO'T: 626.83 (574)

ҒЎЗА ЕТИШТИРИШДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТИЗИМИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ

М.Х.Хамидов – профессор. У.А.Жўраев - доцент
Ф.Қўзиев-мустақил тадқиқотчи. М.А.Рўзиева-ассистент
Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти "Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти"

Аннотация: Мақолада Бухоро вилоятининг ўтлоқи аллювиал тупроқлари, сизот сувларининг сатҳи 1,5–2,0 м бўлган шароитида ғўза экилган тажриба даласида томчилатиб суғориш қўлланилганда тупроқнинг суғоришдан олдинги намлиги ЧДНСга нисбатан 70-80-65 % бўлганда, ғўза жами бўйича 9 маротаба суғорилди. Мақолада ғўзанинг ўсиб, ривожланиши ва ҳосилдорлигига томчилатиб суғоришнинг таъсири ва бу суғориш технологиясини ўрганиш бўйича ўтказилган тажрибаларнинг натижалари келтирилган.

Таянч сўз ва иборалар: Турли механик таркибли тупроқлар, мелиоратив шароит,

UDC: 626.83 (574)

IMPLEMENTATION OF DRIP IRRIGATION SYSTEM IN THE CULTIVATION OF HUSKS

M.Khamidov – Professor. U.A.Zhyraev - Associate Professor
F.Kyziev-mustakil tadkikotchi. M.A.Rzieva-assistant

Tashkent Institute of irrigation and Agricultural Engineers" National Research University Bukhara Institute of Natural Resources Management"

Annotation: in the article, when drip irrigation was applied on the field of experimental irrigation of the Bukhara region Meadow alluvial soil, where the level of the sizot Waters was 1,5–2,0 m, when the soil was 70-80-65% relative to the Chdns, 9 marotaba was watered in total. The article presents the effects of drip irrigation on the growth, development and yield of the goose and the results of experiments on the study of this irrigation technology.
Base words and phrases: soils of different mechanical composition, reclamation conditions,
суғориладиган ерлар; томчлатиб суғориш, агротехник тадбирлар, суғориш техникаси элементлари, тарқатувчи қувурлар, сув сарфи, шўрланиш, ғўза, пахта ҳосили, суғориш меъёрлари, чегаравий дала нам сиғими (ЧДНС), сизот сувлар сатҳи, минерал ўғитлар, вегетация даври.

Дунё мамлакатлари молиявий-иқтисодий инқирозни бошидан кечираётган бир пайтда, Республикамиз қишлоқ хўжалигини юқори босқичга кўтаришда мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш, экинларни парваришлашнинг илмий асосланган, ресурстежамкор, такомиллашган агротехнологияларини жорий этиш, кам маблағ сарфлаб, юқори ва сифатли ҳосил етиштириш шу куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Бугунги кунда ер юзида аҳоли сонининг ўсиши ҳисобига сув ресурсларига бўлган талабнинг ортиши ва шу билан бирга дарё сувларининг йилдан - йилга камайиши кузатилмоқда.

Шу сабабли ҳам бугунги кунда мавжуд сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, сувни тежайдиган суғориш технологияларини кенг жорий қилиш олдимизда турган долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Суғориладиган майдонларда қишлоқ хўжалиги экинларини суғоришда томчилатиб суғориш технологиясини жорий қилиш бўйича республика ва чет эл олимларидан Қ.Мирзажонов, А.Э.Авлякулов, М.Хамидов, Б.Суванов, А.Жўраев, Б.Матякубов, У.Жўраев, Р.К.Икрамов, A.Shabbir, D.A.Horneek, A.Scott, B.Chandrosekaran, K.Annadural, E.Fallik ва бошқалар томонидан кенг қамровли илмий тадқиқот ишлари олиб борилган.

Томчилатиб суғоришнинг авзалликлари: Томчилатиб суғориш экиннинг илдизи ривожланадиган тупроқ қатламида (айниқса, ўсимликнинг амал даврида) оптимал сув-физик режимни бирдай ушлаб туриш имкониятини яратади. Натижада юқори ҳосил олиш учун қулай шароит яратилади.

Ўсимлик илдиз қатламида оптимал намликни таъминлаш эса ўсимликнинг ўзига зарур бўлган вақтда сув ва озиқ моддаларни олишига доимий имконият яратади. Натижада ўсимликнинг энергияси тўлалигича ўзининг ривожланиши ва ўсиши, пировардида эса ҳосилини кўпайтиришига йўналтирилади. Мақбул суғориш ва озиқланиш ҳисобига боғ ва токзорларда ҳосилдорлик 20-40% гача, сабзавот экинларида эса 50-80% гача ошиши тажрибаларда тасдиқланган. Бундан ташқари сабзавотларни пишиб етилиши ҳам 10-15 кунга аввалроқ бўлади.

Томчилатиб суғориш тизимларида сув ўсимликка қувур ва шланглар воситасида етказиб берилиши ва тизим бир жойда доимий туриши туфайли суғориш ва озиқлантириш жараёнларини тўлиқ автоматлаштириш имконияти яратилади. Даланинг фақат экинлар жойлашган қисмигина намланади. Бунда дала тупроғи қотмайди, натижада тупроқни юмшатиш (культивация) ва ундан кейин яна ариқ олишга ҳожат қолмайди. Ўғит сув билан бирга берилганлиги боис, ўғитлаш учун техника ишлатишнинг зарурияти қолмайди. Натижада меҳнат ва ёнилғи мойлаш материаллари сарфи камаяди.

Томчилатиб суғориш тизимларининг энг асосий авзаллиги мавжуд сувдан самарали фойдаланиш имкониятини яратишидир. Томчилатиб суғориш тизимлари қўлланилганда суғоришга ишлатиладиган сув миқдори бошқа суғориш усулларидагига нисбатан 20 % дан 80 % гача кам бўлади.

Сувни тежаш катталиги жойнинг табиий-иқлим ва тупроқ шароитлари, етиштирилаётган экин тури ва қўлланилаётган томчилатиб суғориш тизимининг техник кўрсаткичларига боғлиқ бўлади.

Томчилатиб суғоришда сувни тежашга одатда қуйидагилар ҳисобига эришилади:

- суғориш режимининг ўзига хослиги (суғориш меъёрининг ўсимликнинг сувга бўлган талабига мослиги);

- суғориладиган (намланадиган) майдоннинг чекланганлиги (сув тўғридан-тўғри ўсимликнинг илдизи ривожланадиган қатламга етказиб берилади);

- тупроқдан буғланадиган сув миқдорининг камлиги (даланинг кўп қисми қуруқ қолиши туфайли);

- бегона ўтлар ривожланишини чекланиши (мазкур ўтлар бўлмаганлиги туфайли барча сувдан экинлар фойдаланади);

- суғоришга берилаётган сувнинг дала бўйлаб тарқалиб кетмаслиги ва тупроққа сингиб кетмаслиги;

- даладан ташламага сув ташланмаслиги.

Томчилатиб суғоришда фақат ўсимликнинг илдизи атрофи намланганлиги туфайли суғоришнинг фойдали иш коэффициенти 90-95% га тенг бўлади. Эгатлаб ва ёмғирлатиб суғориш усулларида бу кўрсаткич 70-75% дан ортмайди.

Қайд этилган асосий авзалликлардан (ҳосил миқдори ва сифати яхшиланиши, меҳнат сарфи камайиши ва сув тежалишидан) ташқари томчилатиб суғориш тизимларининг яна бир қанча ижобий томонлари мавжудир:

- томчилатиб суғориш озуқани (ўғитни) ўсимлик ривожининг турли фазаларида ўсимлик эҳтиёжига мос равишда суғориш сувига қўшиб бериш имкониятини яратади. Бунда меҳнат сарфи ва бериладиган ўғит миқдори 50% гача камайиши мумкин.

- томчилатиб суғориш тизими сув ва озуқани экин майдони бўйича бир текис тақсимланишини таъминлайди. Бунда ўсимликлар бир хил ривожланади ва ҳосили ҳам бир вақтда пишади. Натижада ҳосилни йиғиб олиш осонлашади.

- экин даласини чекланган равишда намланиши далага механизмлар киришига имконият қолдиради. Дала қуришини кутишга ҳожат йўқлиги боис агротехник тадбирларни суғориш билан бир вақтда олиб бориш мумкин, яъни меҳнатни тўғри ташкил этишга имконият яратилади.

- суғориш вақтида даладан оқава чиқмаганлиги боис тупроқ эрозияси буткул бартараф этилади. Ушбу жиҳат катта нишабли ва текисланмаган майдонларда томчилатиб суғоришни қўллаш айниқса катта самара беришини кўрсатади.

- сувни тупроққа шимилишининг чекланганлиги ер ости сувлари сатҳининг кўтарилиб кетишига имконият қолдирмайди, демак дала ботқоқланмайди ва шўрланмайди.

- суғоришга бир вақтда бериладиган сув сарфининг кичиклиги кам дебитли сув манбаларидан (қудуқлардан) фойдаланишга, ёки ушбу кам сув билан катта майдонларни суғоришга имконият яратади;

- эгатлар оралиғидаги тупроқ доимо қуруқ бўлганлиги туфайли бегона ўтларни чопиб йўқотиш осонлашади. Бундан ташқари гербицидларни сув билан бирга бериш имконияти ҳам яратилади;

- ўсимлик илдиз қатлами атрофи доимо нам бўлганлиги боис, у ерда туз йиғилишига шароит қолмайди.

Кейинги йилларда Ўзбекистонда ҳам томчилатиб суғориш усули техникаси ва технологияларини яратиш ҳамда уларни илмий ўрганиш бўйича тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Мамлакатимизга ҳозиргача ўрганиш учун келтирилган томчилатиб суғориш техникалари асосан чет мамлакатлардан (Исроил, Туркия, Германия ва ҳ.к.) жуда катта маблағ ҳисобига сотиб олинган. Бундан ташқари келтирилган томчилатиб суғориш технологияларининг жуда кўп элементлари бизнинг турли иқлим тупроқ ва мелиоратив шароитимизга мос келмайди.

Арзон ва конструкцияси содда бўлган “Шўртангазкимё” мажмуасининг эгилувчан полиэтилен қувурли томчилатиб суғориш технологиясини қўллаш, сув тақчил бўлган йилларда ҳам қишлоқ хўжалик экинларидан юқори ҳосил олиш имконини беради.

Томчилатиб суғориш технологиясининг жуда кўп авзаллик томонлари мавжуд. Жумладан:

- сув ресурслари 45-55 % гача тежалади;
- нотекис ерларни суғориш имконини беради;
- суғориш ишлари енгиллашади;
- сувчилар сони камаяди;
- минерал ўғитларнинг исроф бўлишини олди олинади;
- ортиқча меҳнат-ўқ ариқлар олиш, жўякларни бошини ҳар хил материаллар билан қоплаш, ўқ ариқларни бузиш ва бошқалар бажарилмайди;
- экин қатор оралари қотиб кетмайди, қатор ораларига ишлов бериш сони камаяди ва бошқалар.

Ушбу томчилатиб суғориш техникасини Республикамизнинг турли иқлим, тупроқ, гидрологик, мелиоратив шароитларида етиштириладиган қишлоқ хўжалик экинларини суғоришда қўллаш ва ҳар бир маълум шароитларда экин турлари учун янги томчилатиб суғориш техника элементларини ўрганиш ва уларни такомиллаштириш долзарб масала ҳисобланади.

Хулоса. Бугунги кунда ғўза етиштиришда томчилатиб суғориш тизимини жорий қилишни янада кенгайтиришнинг устувор йўналишлари этиб қуйидагилар белгиланмоқда:

ғўза етиштиришда томчилатиб суғориш тизимини жорий қилиш бўйича лойиҳани амалга оширувчи пахта хомашёси ишлаб чиқарувчиларига давлат томонидан кўмак кўрсатишнинг таъсирли тизимини жорий қилиш, томчилатиб суғориш тизими ва унинг бутловчи қисмларини ишлаб чиқарувчиларини рағбатлантириш механизмини такомиллаштириш;

мавжуд сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, томчилатиб суғориш орқали ғўза етиштириш соҳасида инновацион ғоялар, илмий-тадқиқот ишланмалари, замонавий технологиялар ва илмий ютуқларни кенг жорий қилиш;

республика ҳудудларининг тупроқ-иқлим ва бошқа шароитларини ҳисобга олган ҳолда томчилатиб суғориш технологиясини қўллаш учун илмий-амалий ва услубий асосларини шакллантириш;

томчилатиб суғориш технологиясидан фойдаланган ҳолда пахта етиштиришда фойдаланиладиган қишлоқ хўжалиги техникаси, машина ва механизмлари, шунингдек минерал ўғитлар ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш;

сувни тежайдиган суғориш технологияларини жорий этиш ва ундан фойдаланиш бўйича мутахассис кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни ташкил этиш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБАЛАР РУЙХАТИ

7. Хамидов М.Х., Суванов Б.У. Ғўзани суғоришда полимер комплекслар қўллаш орқали сув ресурсларини иқтисод қилиш // "ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ" журнали. – Тошкент, 2018. – №2(12). - Б. 8-12.

8. Ўзбекистон Республикаси патенти. № IAP03072 14.07.2006 й. “Томчилатиб суғориш учун қувур–Труба для капельного орошения”. Муаллифлар: Б.Усманалиев., И.Н.Азаров.

9. Т.Ш.ШАМУДИНОВА, Сизот сувларининг турлича жойлашувида ғўзанинг суғориш режимларини ишлаб чиқиш (Тошкент вилояти Ўртачирчиқ тумани мисолида) 5А450205–“Гидромелиоратив тизимлар фойдаланиш” мутахассилиги бўйича магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация ТОШКЕНТ - 2020 й, 75-бет

10. С.У.Шодиева, А.Қ.Жўраев, А.У.Жўраев Сув ваер ресурсларидан оқилона фодаланиш самарадорлигини ошириш мавзусидаги республика илмий-назарий анжуман материаллари 22-25-ноябрь 2019 й. Бухоро.

11. Хамидов М.Х., Суванов Б.У. ғўзани суғоришда томчилатиб суғориш технологиясини қўллаш // "ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ" журнали. – Тошкент, 2018. – №2(12). - Б. 8-12.

12. Ulugbekovich, M. O., Komiljonovna, S. M., Sobirovich, K. B., & Murodovich, M. M. (2021). Efficiency Of Cotton Growing By Drip Irrigation. *European Journal of Research Development and Sustainability*, *2*(4),

UO‘T: 631.1:332.334 (575.111)

QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA TUMANDA YER HISOBINING TAHLILI (TOSHKENT VILOYATI PSKENT TUMANI MISOLIDA)

Tadjiyeva Madina Zoirovna

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti magistranti

tadjiyeva.mz@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublikada yer hisobini jumladan qishloq xo‘jaligi yer hisobini yuritishning zarurati, bugungi kundagi holati hamda muommolari haqida ma’lumotlar Toshkent viloyati Pskent tumani misolida yoritilib berilgan.

Аннотация. В статье представлены данные о необходимости учета земель, в том числе земель сельскохозяйственного назначения, а также текущее состояние и проблемы учета земель на примере Пскентского района Ташкентской области.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi yerlari, yer hisobi, asosiy yer hisobi, joriy yer hisobi, yer balansi.

Ключевые слова: сельскохозяйственная земля, земельный учет, основной земельный учет, текущий земельный учет, земельный баланс.

UDC: 631.1:332.334 (575.111)

THE STATE OF AGRICULTURAL LAND USE AND THE ANALYSIS OF LAND ACCOUNTS IN THE DISTRICT (ON THE EXAMPLE OF PSKENT DISTRICT OF TASHKENT REGION)

Tadjiyeva Madina Zoirovna

Master of National Research University ” Tashkent Institute of irrigation and agricultural engineering

Annotation. The article presents data on the need for land accounting, including agricultural land, as well as the current state and problems of land accounting on the example of the Pskent district of the Tashkent region.

Key words: agricultural land, land accounting, basic land accounting, current land account, land balance

Kirish. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biri bo‘lgani bois uni izchil rivojlantirish doimiy e'tiborda turibdi. Xususan, agrar tarmoq imkoniyatlaridan keng foydalanish, ayniqsa, oziq ovqat xavfsizligi masalalari nafaqat mamlaktimizda balki butun dunyoda dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Shu nuqtai nazardan yerlardan oqilona va samarali foydalanish, ayniqsa qishloq xo‘jaligi yerlari ustivorligini doimo yodda tutgan holda doimiy ravishta o‘zgarib borayotgan respublika yer balansini uzluksiz tarzda hisob qilib borishni taqazo qilmoqda.

Qishloq xo‘jalik ehtiyojlari uchun ajratib berilgan yerlar shu sohaga mo‘ljallangan yerlar deb hisoblanadi. Bu yerlar qishloq xo‘jaligi maqsadlarida faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan ekinzorlar, daraxtzorlar, ichki xo‘jalik yo‘llari, kommunikasiyalar, o‘rmonlar, berk suv xavzalari, binolar va inshootlar, aholi yashash joylari bilan band bo‘lgan yerlarga ajratiladi. Yer hisobi juda aniq bajarilishi zarur. Buning uchun yer hisobini yer toifalariga, jamoa, shirkat, fermer va dehqon xo‘jaliklariga, yer turlariga, jumladan, haydalma yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar, yaylovlar va boshqalarga bo‘lingan holda olib borish talab

qilinadi, shuningdek yer hisobi o‘z mazmuni va vazifasiga qarab asosiy va joriy yer hisobi turlariga ajratilib o‘tkaziladi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining ustivorligini hisobga oladigan bo‘lsak, uni hisobini yuritish ham shu darajada muhim ahamiyatga egadir.

So‘nggi yillarda bo‘lgan tub o‘zgarish shundaki, boshlab yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va bekor bo‘lishini nazarda tutuvchi qarorlar, auksion va tanlov bayonnomalari, notarial tasdiqlangan bitimlar hamda boshqa hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimida yuritilishi belgilab berildiyu Yer kadastri, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish orqali to‘plangan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi [2].

Asosiy yer hisobi bu dastlabki plan kartografik ma’lumotlar, plan – xaritalarni olishdagi dala ishlari va olingan ma’lumotlarning tahlili, yerlar o‘lchamlarini, sifat holatini, taqsimlanish va foydalanish xolatini aniqlash, maxsus yer hisobi xaritalarini tayyorlash va yer hisobi matn hujjatlariga birlamchi yozuvlarni kiritishni o‘z ichiga oladi.

Asosiy hisobni o‘tkazish paytida aniqlangan va qayd qilingan ma’lumotlar vaqt o‘tishi bilan haqiqiy holatga mos kelmay qoladi. Shuning uchun ham yer kadastri hujjatlariga tushirilgan boshlang‘ich ma’lumotlar vaqt o‘tgan sayin eskiradi, shuning uchun ularni tizimli tarzda yangilab turish zarur buladi. Bu ishlar joriy yer hisobi sifatida amalga oshiriladi.

Asosiy va joriy yer hisobini yuritish jarayonidagi ma’lumotlar asosida hisobot hujjati ya’ni yer balansi tuziladi. Yer balansini tuzishda hisobot davrida yerdan foydalanishdagi yuz bergan barcha o‘zgarishlar hisobga olinadi. Bunda yerdan foydalanuvchining umumiy o‘lchamlaridagi o‘zgarishlar shuningdek yer turlarida ro‘y bergan o‘zgarishlar xujjatlar asosida rasmiylashtirilgan va asoslangan bo‘lishi zarur. Yer balansini tuzish uchun yer tarkibida vujudga kelgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda yerdan foydalanish holati to‘g‘risidagi korxona, muassasa va tashkilot rahbarlarining hisoboti asos qilib olinadi. Shuningdek, davlat yer kadastri kitobidagi ma’lumotlardan olinadigan yillik yer balansidan kuzatuv, tuproq bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy baholash, joriy o‘zgarishlarni grafik hisobi materiallaridan, yerdan foydalanishning davlat nazorati ma’lumotlaridan ham foydalaniladi.

Tuman yer-axborot bazasi geoaxborot tizimining quyi pog‘onasi bo‘lib, yer ko‘chmas mulk va ularga bo‘lgan huquqlar bilan bog‘liq axborotlarni boshqarish, tahlil qilish, aks ettirish uchun mo‘ljallangan yer kadastrini tizimli takomillashtirishga asos bo‘ladi [4].

So‘nggi yillarda davlat va jamoat maqsadlari uchun o‘n minglab gektar yer qishloq xo‘jalik maydonlaridan ajratilgan, masalan, Toshkent viloyati Pskent tumani hududidan 2020 yil umumiy yer maydonidan jami 1473,89 ga yer maydoni “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ga rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarish maqsadida ajratilib berilgan. (1-jadval)

Pskent tumanida davlat korxona va tashkilotlari, yuridik hamda jismoniy shaxslar ehtiyoji uchun 2020 yil va 2021 yil yanvar oyida ajratilgan yerlar to‘g‘risidagi ma’lumot[8]

1-jadval (2021 yil 1 fevral holatiga)

Yer maydonlari ajratilgan yer egalari va yerdan	Ajratilgan umumiy maydoni	Shu jumladan								
		Doimiy foydalanishga,	Ekin yerlar		Bo‘z yerlar	Yaylovlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar	Tmorqalar	O‘rmonzor	Boshqa yerlar
			Sug‘oriladigan	lalmi						
“Qirqqiz Obod” massivi	614,08	614,08	378,67	70,61	1,47	92,29	2,44	-	0,46	67,96
“O‘zbekiston mustaqilligi” masiivi	859,81	859,81	608			115,19	16,46	20,55	7,13	92,48

1-jadvaldagi raqamlardan ko‘rinib turibdiki, “Qirqqizobod” hamda “O‘zbekiston mustaqilligi” massivlari hududidan ajratilgan yer maydonining asosiy qismi ya’ni 1057,28 ga yer maydoni ekin yerlar maydonidan ajratilib berilgan.

Yer balansini qabul qilish chog‘ida davlat, jamoat va boshqa

[8] Toshkent viloyati Piskent tumani hokimligi statistika bo‘limidan olingan ma’lumotlar asosida ishlangan shaxsiy ishlanmasi

maqsadlar uchun ajratilgan yerlar o‘rniga qishloq xo‘jalik yerlarini o‘z vaqtida o‘zlashtirilganligiga, oldin ajratilgan yerlarni qishloq va o‘rmon xo‘jaligida foydalanish uchun o‘z vaqtida qaytarilganligiga, shuningdek yerlarni o‘zlashtirish uchun pul mablag‘ini o‘z vaqtida tushganligiga va undan to‘g‘ri foydalanilganligiga alohda e'tibor beriladi.

Bugungi kunda tumanda umumiy yer maydoni 78659 ga.ni shundan umumiy qishloq xo‘jaligi yerlari 54030 ga.ni tashkil etadi.(2-jadval)

Toshkent viloyati Pskent tumani bo‘yicha yer hisobi

2-jadval (2021 yil 1 yanvar holatiga)

Piskent tumani umumiy yer maydoni	**78658**	Ekin yerlar	**jami**		**21911**
			shu jumladan	Suvli	21026
				lalmi	885
			holati yomon yerlar		820
		Ko‘p yillik daraxtzorlar	**jami**		**1695**
			shu jumladan	bog‘zorlar	1115
				uzumzorlar	141
				tutzorlar	439
		Yaylov va pichanzorlar	**jami**		**32739**
		Jami qishloq xo‘jaligi yerlari	**jami**		**56345**
		Fuqorolarning tomorqa yerlari	**jami**		**6476**
			shu jumladan	ekin yerlar	5253
				bog‘ va daraxtzorlar	658
				imorat bilan band yerlar	565
		O‘rmonzorlar	**jami**		**205**
			shu jumladan	ixota daraxtzorlar	6
				terakzorlar	101
		butazorlar	**jami**		**212**
		Kanal, zovur suv ostidagi yerlar	**jami**		**4366**

		Yo‘llar	**jami**	**1379**
		Ijtimoiy hovli, ko‘cha va yo‘llar	**jami**	**2709**
		Ijtimoiy binolar	**jami**	**878**
		Jami foydalanilmaydigan yerlar	**jami**	**6088**

Tuman yer fondi yer toifalari, yerdan foydalanuvchilar yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi, yerlarning sifat holati va iqtisodiy baholash ma’lumotlarini aks ettiradigan yer hisoboti har 5 yilda tuziladi.

Ma’lumki, respublikamiz ma’muriy tumanlari hududlarining tabiiy va iqtisodiy sharoitlari xilma-xilligini hisobga olinib, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini davlat tomonidan xarid qilishda yer hisobiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

-xo‘jalikning yirik shahar, sanoat markazi va qayta ishlash korxonalariga nisbatan joylashishi;

-qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer miqdorining sifati va tabiiy sharoiti;

-chorvachilikda iqtisodiy foyda keltiradigan u yoki bu ekin turlarini tanlash;

-qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish.

Bulardan tashqari har bir tumanda, viloyatlarda asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yalpi manbai hisoblangan, iste’mol mollarining hajmi ham aniqlanadi.

Tumanda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishda unda mavjud bo‘lgan yer resurslarining huquqiy, tabiiy va xo‘jalik holatlari to‘g‘risida chuqur va har tomonlama ma’lumotlarga ega bo‘lish muhim ahamiyatga egadir. (3-jadval)

Toshkent viloyati Pskent tumanining qishloq xo‘jaligi yer hisobi

3-jadval

umumiy qishloq	54030	Ekin yerlar	jami		21550
			shu jumladan	suvli	20664
				lalmi	886
			holati yomon yerlar		820

		Ko‘p yillik daraxtzorlar	jami		1652
			shu jumladan	bog‘zorlar	1088
				uzumzorlar	139
				tutzorlar	426
		Yaylov va pichanzorlar	jami		17918
		Jami qishloq xo‘jaligi yerlari	jami		41120
		Fuqorolarning tomorqa yerlari	jami		5153
			shu jumladan	ekin yerlar	4051
				bog‘ va daraxtzorlar	607
				imorat bilan band yerlar	495
		O‘rmonzorlar	jami		88
			shu jumladan	ixota daraxtzorlar	4
				terakzorlar	84
		Kanal, zovur suv ostidagi yerlar	jami		3366
		Yo‘llar	jami		1379
		Ijtimoiy hovli, ko‘cha va yo‘llar	jami		1709
		Ijtimoiy binolar	jami		878
		Jami foydalanilmaydigan yerlar	jami		337

Tumanda yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, yer hisobi hamda yerning qiymati haqidagi ma’lumotlar yerdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliqqa asos bo‘lishini yodda tutgan holda, yer hisobini doimiy ravishta yuritish hamda tuman yer hisobi hududidagi yerni davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib berilishida ham xo‘jalik yerlarining miqdori, sifati, yer turlari va ulardan foydalanish darajasi, o‘zlashtiriladigan yangi yer maydonlarining hisob-kitoblariga alohida ahamiyat berish kerakligini anglatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”. T.:O‘zbekiston, 1998 y.

2. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentyabr “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061 sonli farmoni
3. Bobojonov A.R., Rahmonov Q.R., G‘ofirov A.J. “Yer kadastri” fanidan o‘quv qo‘llanma.T.:TIMI, 2006 y.
4. Raxmonov Q. Ma’muriy tumanda yer kadastri axborot ta’minoti tizimini takomillashtirish // “Irrigatsiya va melioratsiya” jurnali №4(6).2016. Toshkent.
5. Qurbonov E.Q., Bobojonov A.R., Rahmonov Q.R. “Yer kadastri asoslari”. T.: TTESI, 1999 y.
6. Tolipov G‘.A. va boshq. “O‘zbekiston Respublikasi yer kadastri”. T.:Agroinform, 1994

G'O'ZANI PARVARISHLASHDA TOMCHILATIB SUG'ORISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

N.N.Yaxyoyeva tayanch doktorant, nyaxyoyeva@mail.ru
Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
M.A.Avazova, magistr
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda Respublikamizda suv tejovchi texnologiyalar keng miqyosda joriy etilishi, tomchilatib sug'orish texnologiyasi va uning afzalliklari, texnikasi,g'o'za maydonlarida qo'llash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: suv tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug'orish texnologiyasi, g'o'za, o'g'itlash.

Annotation. The information related to wide implementation of water saving technologies in Uzbekistan, drip irrigation, its advantages, technics, drip irrigation application on cotton fields were presented in article.

Key words: water saving technologies, drip irrigation technology, cotton, fertilizer application

Respublikada zamonaviy suv tejovchi sug'orish texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish yo'nalishida qishloq xo'jalik ekinlarini

sug'orishda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish 175 ming gektardan 2025 yilgacha 1 million gektarga, 2030 yilga kelib 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasi 77,4 mingdan 2025 yilgacha 300 ming gektargacha va 2030 yilga kelib 600 ming gektargacha yetkazilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 dekabrdagi PQ-4087-son va 2019 yil 25 oktyabrdagi PQ-4499 sonli qarorlari qabul qilinib, qarorlar bo'yicha paxta xom ashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etgan fermer xo'jaligi va klasterlarga quyidagi imtiyozlar belgilangan.

1.O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan paxta xom-ashyosi ishlab chiqaruvchilariga tomchilatib sug'orish tizimini qurish uchun g'o'za ekiladigan maydonning har gektariga 8 mln so'm subsidiya beriladi.

2. Tomchilatib sug'orish texnologiyasini (TST) qurish uchun tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratiladi va bir gektarga 20 mln. so'mdan oshmaydigan xarajatlar qismi 10 foiz miqdorida stavkasi bilan qoplanadi.

3. Tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilgan oydan boshlab xo'jalik yurituvchi sub'ekt 5 yilgacha yagona yer solig'idan ozod etiladi.

4. Tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish hisobiga tejalgan suvdan takroriy ekin yetishtirishda foydalanish huquqi beriladi. Tomchilatib sug'orish usulini qo'llash natijasida paxta hosili 12-15 kunga erta pishib yetiladi, hosil salmog'i 5-10 s/ga ortib, tola sifati yaxshilanadi, sug'orishga sarflanadigan suv me'yori 40-50% tejaladi, mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligi 15-20% ortadi, dalaga texnikalarning kirish soni keskin kamayishi hisobiga yoqilg'i moylash materiallari 60% gacha tejaladi, sug'orish ishlarida qo'l mehnati qisqaradi.

Respublikamizda g'o'zani tomchilatib sug'orish bo'yicha quyidagi ilmiy tadqiqotlar olib borilgan:

1) Surxondaryo viloyatining mexanik tarkibi o'rta qumoq sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida "Sulton" navida.
2) Surxondaryo viloyatining taqir-o'tloqi tuproqlari sharoitida ingichka tolali Termiz-31, Termiz-32, Termiz-202 g'o'za navlarida.
3) Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida Oqdaryo-6 g'o'za navida.

4) Samarqand viloyatining och tusli bo'z va o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida S-8286 va Buxoro-102 g'o'za navlarida.

Odatdagi sug'orish usullari qo'llanilganda, dala tuprog'i sug'orishdan oldin haddan ziyod qurib ketsa, sug'orishdan keyin uning namligi keragidan ortib ketadi. Bunday sharoitda ekin avval namlik yetishmasligidan, keyinchalik namlik ko'pligidan aziyat chekadi, ya'ni bir stress holatdan chiqib, boshqa stress holatga tushadi. Bunda u o'z energiyasini ana shu stress holatidan chiqib ketish uchun sarflaydi. Tomchilatib sug'orilganda esa o'simlikning ildiz qatlamida doimiy bir xil namlik sharoiti yaratiladi va stress oldi olinadi. Tomchilatib sug'orish texnologiyasida suv butun dalaga emas, balki dalaning ekin yetishtirilayotgan qismiga – o'simlikning ildiz qatlamiga yetkazib beriladi. Shu sababli ham dehqonlar tilida aytganda tomchilatib sug'orishda dala emas, balki o'simlik sug'oriladi. Dalaning barcha qismidagi o'simliklar bir hilda suv va oziqa bilan ta'minlanadi hamda ular bir tekis o'sib, rivojlanadi, natijada yuqori va sifatli hosil olishga hamda eng asosiysi mashina terimini sifatli o'tkazishga imkon yaratiladi.

Tomchilatib sug'orish uchun hovuzlar qurish. Tomchilatib sug'orish ekin maydonlariga suvni muntazam yetkazib berish maqsadida suv to'plash hovuzlari quriladi. Ushbu hovuzlar suv yetkazib berish bilan birga suvni tindirish vazifasini ham bajaradi. Hovuzning hajmi sug'oriladigan g'o'za maydoni va uning suvga bo'lgan talabi hamda tuproqning mexanik tarkibidan kelib chiqib tanlanadi. Hovuz dalaning elektr tarmog'iga yaqin joyida va suv yetkazib beruvchi quvurlar kamroq sarflanadigan masofada qurilishi lozim. Hovuz tubiga polietilen plyonkali qoplama yoki geomembrana to'shash tavsiya etiladi (1-rasm).



1-rasm. Hovuz tindirgich

G'o'zani tomchilatib sug'orishda qator orasiga ishlov berishda ishchi organlarining qamrov kengligi va chuqurligi, begona o'tlarning to'la

kesilishiga, g'o'za ildizlarining kam shikastlanishiga, tuproqning mayda donador holda yumshatilishiga erishish lozim. Bunda, g'o'za qator oralariga birinchi ishlov berish nihollar 75-80 % paydo bo'lishi bilan boshlanadi, natijada qolgan 20-25 % nihollar unib chiqishi tezlashadi.

Tomchilatib sug'orish namlagich shlanglarini qator orasiga o'rnatishdan oldin 2 marta kultivatsiya 1 marta chuqur yumshatish o'tkazish zarurligini yana bir bor eslatib o'tamiz. Birinchi kultivatsiyada ishchi organlari (ko'pincha pichoqlar) o'simlikdan 6-8 sm masofada 10-12 sm gacha chuqurlikka tushadigan qilib o'rnatiladi, egat o'rtasini yumshatish uchun strelkasimon panjalar 14-16 sm chuqurlikda joylashtiriladi.

Qator orasi 60 sm kenglikda ekilganda 32-34 ta, 76 sm hamda 90 sm kenglikda ekilganda esa kultivatorga 37-39 ta ishchi organ qo'yilishi maqsadga muvofiq.

G'o'za qator oralariga 2-chi marta ishlov berishda kultivatorga 31 ta ishchi organlari o'rnatiladi. 60 sm qator oralaridan yuradigan 18 ta noralniklar o'simlikdan 10-12 sm uzoq va 7-8 sm chuqurlikda, 2-chi qator noralniklar 1-chisidan 7-8 sm uzoq va 8-10 sm chuqurlikda, egat markazidan yuradigan g'ozpanja 12-14 sm chuqurlikda harakatlanib, 60 sm g'o'za qator orasini qatlamma-qatlam yumshatib ketadi.

2-rasm. G'o'za qator oralariga ishlov berishda ishlatiladigan chuqur yumshatgichli va frezerli kultivator. Turkiyada ishlab chiqarilgan

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, g'o'zani tomchilatib sug'orish texnologiyasi qo'llanilgan dalalarda 2 martadan ortiq qator orasiga ishlov berish zarurati ko'zatilmaydi, sababi tuproqning yuza qismi yumshoq holda saqlanadi. Faqatgina shlang tashlashdan oldin sifatli chuqur yumshatish va qator oralariga ishlov o'tkazilgan bo'lsagina. Agar shlanglar

tashlangandan keyin ham g'o'za qator oralariga ishlov berishga zarurati yuzaga kelsa quyidagi rasmlarda keltirilgan kultivatorlardan foydalanish lozim. Turkiyada ishlab chiqarilgan kultivator bir vaqtda 4 ta vazifani bajaradi. Ya'ni qator orasini yumshatish, shlanglarni dalaga yoyish, o'g'itlash va begona o'tlarni chopiq qilish.

3-rasm. Turkiyada ishlab chiqarilgan kultivator.

4-rasm. Shlang tashlangandan keyin kultivatsiya o'tkazish jarayoni

Tomchilatib sug'orish tizimi sug'oriladigan dalaning barcha qismini bir tekisda namlanishini ta'minlashi lozim. Bunday namlanish dalaga beriladigan suv bosimi quvurlarning bosh qismida ma'lum ko'rsatkichga ega bo'lgandagina (1,0-4,0 atm) ta'minlanib, tomchilatgichlarning bir maromda ishlashi uchun sharoit yaratiladi.

Tizimni yaxshi ishlab nosozlikni oldini olish uchun uni doimiy nazoratda ushlash talab etiladi. Yopiq tizimni germetikligi buzilib bosimni pasayib ketishiga olib kelishi mumkin bo'lgan nosozliklar, suvni behuda oqayotgan joylarni tezda tuzatish kerak.

5-rasm. Qator orasi 90 sm sxema

6-rasm. Qator orasi 60 sm sxema

Sug'orishlar mobaynida suvdagi yirik va mayda zarrachalarni ushlab qoluvchi filtrlar joriy tozalanib yuvilishi kerak. Zarur bo'lganda sug'oruvchi quvurlar ham yuviladi. Buning uchun barcha quvurlarning oxiridagi tiqinlar (zarrachalar) olinib, oqova suvi tashlama ariq orqali oqiziladi. Har doim sug'orish quvurlari suv o'tkazgichlar tuproq ustida, egat o'rtasida to'g'ri joylashganligi nazorat qilinishi kerak.

Bir tomchilatgich orqali o'tgan suv sarfi miqdori ma'lum o'lchovga ega idishga ma'lum vaqt ichida yig'ilgan suv hajmini o'lchash yo'li bilan aniqlanadi.

Ekinlarni oziqlantirish mintaqaviy qo'llanmalarga asosan olib boriladi. Bunda g'o'zaga fosforli o'g'itlarning yillik me'yorining 70 foizi shudgordan oldin qolgan 30 foizi ekish bilan birga solinadi. Kaliyli o'g'itlarning yillik me'yori tabaqalashtirilgan holda asosan ikki marta beriladi-50 % shudgordan oldin va 50 foizi ekish bilan birga beriladi. Azotli o'g'itlarning yillik me'yori (ammiakli selitra) tabaqalashtirilib, ya'ni 25 foizi ekishdan oldin qolgan qismi sug'orishda suv bilan quyidagi miqdorlarda 20 foizi g'o'zaning shonalash davrida, 30 foizi gullashning boshlanishi bilan, 25 foizi esa ommaviy gullash davrida maxsus o'g'itlovchi qurilma orqali suyuq xolda suv bilan birgalikda qo'llaniladi. Azotli o'g'itlar tavsiya etilgan me'yorlarga asosan bo'lib-bo'lib har sug'orishda 10-15 kg/ga dan oshmasdan beriladi. Oziqlantirishda mineral o'g'itlarni g'o'zaga qo'llash muddatini 10-15 iyuldan kechiktirmay tugallash kerak. G'o'zadan yuqori hosildorlikka erishish uchun mineral o'g'itlarning quyidagi yillik me'yorlari tavsiya etiladi: (ta'sir etuvchi modda hisobida) N-200 kg/ga, R-140 kg/ga, K-100 kg/ga.

7-rasm. Tomchilatib sug'orishda azotli o'g'itlarni qo'llash jarayoni

Tomchilatib sug'orishda azotli o'g'itlarning isrofgarchiligi kamayib, foydalanish samaradorligi oshadi, ildiz tarqalgan qatlamga tayyor erigan holda yetkazib berilganligi sababli ildiz orqali o'zlashtirish qulaylashadi. Natijada g'o'zaning o'sish-rivojlanishi yaxshilanib, tola sifati va hosildorlik oshadi. Azotli o'g'itlarning havoda behuda isrofgarchiligi oldi olinib, qo'llaniladigan mineral o'g'itlar me'yori 10-15 % ga tejaladi. Azotli o'g'itlar sug'orish tugashiga 2-3 soat qolganda maxsus o'g'it bo'chkalariga solinadi va ustidan suv solib eritilgan holda sug'orish suviga qo'shib qo'llaniladi.

So'nggi yillarda Paxta selektsiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida g'o'zani tomchilatib sug'orish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar natijalari asosida berilgan xulosalar va tavsiyalar hamda global iqlim o'zgarishlarini inobatga olgan holda g'o'za maydonlarida tejamkor sug'orish, jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda quyidagilarni inobatga olish lozim. Jumladan:

-Tuproqning mexanik tarkibini inobatga olgan holda tomchilatgich shlanglari turini to'g'ri tanlash. Bunda tomchilatgich shlanglarida tomchilagichlar orasi yengil va o'rta mexanik tarkibli tuproqlarda 30 sm, og'ir mexakin tarkibli tuproqlarda esa 40-50 sm bo'lishi maqsadga muvofiq.

-G'o'za qator orasi 60 sm bo'lganda yengil mexanik tarkibli tuproqlarda tomchilatish shlanglarini har bir egatdan, o'rta va og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda qator oralatib tashlash maqsadga muvofiq.

-Sug'orishda suv tanqisligi (podsushka)ni oldini olish maqsadida o'simlikning ildiz tizimi tarqalgan faol hisobiy qatlamlarni to'g'ri belgilashga alohida ahamiyat berish zarur. Bunda texnik g'o'za maydonlarida gullashgacha 50 sm, gullash – hosil to'plash davrida 50 sm va pishish davrida 50 sm qatlamlarni namlantirish va sug'orishlarni imkon qadar kechki soatlarda (salqin paytda tungi sug'orish) olib borish.

-G'o'za navlarining biologiyasi va suvga bo'lgan talabini inobatga olgan holda tezpishar g'o'za navlarini uzog'i bilan har 7-9 kunda, suvga talabi kamroq bo'lgan o'rta va kechpishar Buxoro tipidagi g'o'za navlarini esa har 12-14 kundan kechiktirmasdan sug'orish lozim.

Ushbu maqola Paxta selektsiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining "Yangi g'o'za navlari agrotexnikasi" va "Sug'orish va suv qo'yish texnikasi" laboratoriyalarida bajarilgan ko'p yillik tadqiqotlar asosida tayyorlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil «Yangi O'zbekiston Strategiyasi» nomli kitobi. -Toshkent 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-son farmoni. -Toshkent 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF–6024-son farmoni. -Toshkent 2020.
4. Nerozin S.A., Kambarov B.F., Nurjanov S. Kapelnoye orosheniye v usloviyax Samarkandskoy oblasti Respubliki Uzbekistan. Sbornik nauchnыx trudov po kapelьnomu orosheniyu. Tashkent, 1995. Str.34-40.
5. PSUEAITI olimlari. G'o'zani tomchilatib sug'orish texnologiyasidan foydalanish bo'yicha asoslangan tavsiyalar. Toshkent, 2021. B.3-36.
6. Suv xo'jaligi vazirligi Matbuot xizmati. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kengaymoqda. // O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali. – Toshkent, 2020. № 12. –B. 5.
7. Cetin, O., and L. Bilgel. "Effects of different irrigation methods on shedding and yield of cotton." *Agricultural Water Management* 54.1 (2002): 1-15.
8. Dağdelen, N., et al. "Different drip irrigation regimes affect cotton yield, water use efficiency and fiber quality in western Turkey." *Agricultural Water Management* 96.1 (2009): 111-120.
9. http://www.gov.uz/uz/news/view/1442 (Hukumat portali).

УДК 626.04/086

PAST BOSIMLI GIDROUZELDAGI SUV OLISH NUQTALARINING HISOBI

(Beshariq gidrouzelining kobdun suv olish inshooti misolida)

[1]U Ravshanov. [2]M Fayzulloyev., [3]A Abdirimov., [4]D Ahrorov.,

[1]"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurlarni boshqarish instituti magistranti

[2]"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurlarni boshqarish instituti o'qituvchisi

[3]"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurlarni boshqarish instituti talabalari

Annotatsiya. Beshariq gidrouzelining Kobdun asosiy suv olish inshootidagi zatvorlarni bosim orqali ochilish balandligini boshqargan xolda oraliqlardan o‘tadigan suv sarfi aniqlangan. Aniqlangan suv sarflari hozirgi holatdagi gidropostlarda o’lchangan suv sarflari bilan solishtirilgan.
Tayanch so’zlar: Gidrouzel, zatvor, gradiurovka, suv sarfi, yuqori bief.

UDC: 626.04/086

CALCULATION OF WATER SUPPLY POINTS IN LOW PRESSURE HYDROZELL

[1]Ravshanov.U.X., [2]Fayzulloev M.N. [3]Sadulloev.S.S., [4]Abdirimov.A.E.,

[1]Magis Bukhara Institute of Natural Resources Management of the NRU “TIIAME”

[2]Teacher Bukhara Institute of Natural Resources Management of the NRU “TIIAME”

[3,4]Students Bukhara Institute of Natural Resources Management of the NRU “TIIAME”

Annotation. The flow of water through the gaps was determined by controlling the pressure opening height of the dams at the Kobdun main water intake of the Besharik hydroelectric power station. The identified water consumption was compared with the water consumption measured at the current hydroposts.

Keywords: Gidrouzel, zatvor, gradiurovka, water flow, high bief.

Buxoro viloyati Kogon tumanida Shoxrud kanalining oxirgi oqimida joylashgan “Beshariq” gidrouzeli bo‘lib, suvni Shoxrud tarmog‘idan oladi Amu Buxoro ITXB ga qarashli Gidrouzel 1937 yil “ishga tushurilgan. Gidrouzening vazifasi Shoxrud tarmog‘idan keladigan suvni “Kobdun”, “Qarajeri” “Jo’yzar”, “Xushbegi” kanallariga va “Jayxun” tashlama kanaliga taqsimlashdan iborat. Gidrouzelning suv o’tkazish qobiliyati Q=66 m^3/s shundan Kobdun suv tashlash inshooti suv o’tkazish qobiliyati Q=34 m^3/s Xizmat ko’rsatish maydoni 39215 ga [2]

1-rasm Beshariq gidrouzelini google map orqali ko'rinishi.

Graduirovkalangan inshootning yassi g'ildirakli zatvori ochilishi balandligini aniqlash (**Kobdun suv olish inshooti misolida**). Suv sarfi va zatvor ochilishi balandligi o'rtasidagi funksional bog'lanishi grafigini tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar:

1. Yuqori befdagi maksimal dimlangan suv sathi ↓MDS= 235,99 m;
2. Yuqori befdagi normal dimlangan suv sathi ↓NDS= 235,69 m;
3. Inshoot ostonasi belgisi ↓i.o =233,67 m;
4. Inshootdagi teshiklar (oraliqlar) soni N = 1;
5. Inshootdagi bir teshigi (oraligi) kengligi b_{st} = 6 m;[6]

Graduirovkalangan inshootlar yordamida suv o'lchash gidravlik qarshiliklar prinsipiga asoslangan. Bunda zatvorlar ochilishi darajasi gidravlik qarshiliklarning o'zgarishi va zatvor bilan ochilgan inshootning ko'ndalang kesimi yuzasi bilan zatvor ochilishi funksiyasida funksional bog'langan. Yassi zatvor ostidan suvni erkin quyilib chiqishi holatidagi suv sarfini avtomatik o'lchaydigan graduirovkalangan inshootning sxemasi 2 - rasmda ko'rsatilgan.



2 - rasm. Yassi zatvor ostidan suvni erkin quyilib chiqishi holatidagi suv sarfini avtomatik o'lchaydigan graduirovkalangan inshootning sxemasi: *1* — zatvor; *2, 5, 6, 9* - zatvorning ochilishi balandligi, suv bosimi, suv sarfi, pastki befi suv sathini — o'lchovchi o'zgartirgichlari; *3* — zatvorning joylashuvi ko'rsatkichi; *4* — suv sathini o'lchovchi o'zgartirgichi joylashuviga mo'ljallangan quduq; *7, 10* — nazorat reykalar; *8* — impulslik quvurcha.[4]

Suvni o'lchashda yuqori befi inshoot ostonasi ustidagi suvni chuqurligi *H* ni va zatvorning ochilishi balandligi *a* ni o'lchaydilar. Suv sarfini quyidagi formulalar yordamida aniqlashadilar: Yassi vertikal zatvorlar uchun

$$Q = [2{,}72 - 0{,}9 \cdot (a/H)] \cdot a \cdot b \cdot \sqrt{H} \qquad (1)\ [4]$$

bunda *b* — bir oraliklik inshooti uchun oralikning kengligi, m. *a* — inshoot zatvori ochilishi balandligi, metr o'lchamida qo'yiladi. H- inshoot ostonasidagi suv bosimi, metr o'lchamida qo'yiladi.

Hisob tartibi

1. Yuqori befdagi inshoot ostonasidagi ↓NDS suv sathi uchun suv bosimi aniqlanadi

$$H_{norm} = \downarrow NDS - \downarrow i.o = 235{,}69 - 233{,}67 = 2{,}02 \text{ m}$$

2. Yuqori befdagi inshoot ostonasidagi ↓MDS suv sathi uchun suv bosimi aniqlanadi

$$H_{mak} = \downarrow MDS - \downarrow i.o = 235{,}99 - 233{,}67 = 2{,}32 \text{ m}$$

3 Inshoot teshiklar (oraliklar) kengligi *b* =6 m.

4 Yuqori befdagi inshoot ostonasi ustidagi a)↓NDS va b)↓MDS suv sathlari uchun alohida quyidagi $Q = [2{,}72 - 0{,}9 \cdot (a/H)] \cdot a \cdot b \cdot \sqrt{H}$ formulasi bo'yicha zatvor ochilishi balandligi taxminan balandligi $0 < a_i < 0{,}7 \cdot H$ atrofida belgilanadi va unga asosan suv sarfi aniqlanadi. Hisob yaxshirog'i jadval shaklida bajarilsa va hisobga asoslanib $Q_i = f(a_i)$ funksional bog'lanish grafigi chiziladi.

a) Yuqori biefdagi ↓NDS (Kobdun suv olish inshooti) suv sathi uchun

1-jadval

№	a_i (m)	$H = H_{nor}$ (m)	$\sqrt{H}$	a_i/H	b (m)	Q_i (m3/s)
1	0,30	2,02	1,42	0,15	6	6,92
2	0,60	2,02	1,42	0,30	6	13,78
3	0,90	2,02	1,42	0,45	6	20,57
4	1,20	2,02	1,42	0,59	6	27,29
5	1,51	2,02	1,42	0,75	6	34,05



3-rasm. Gidrouzeldagi NDS bo'lganda Q=f(a) bog'lanish grafigi.

b) Yuqori befdagi ↓MDS (Kobdun suv olish inshooti) suv sathi uchun

2- jadval

№	a_i (m)	$H = H_{mak}$	$\sqrt{H}$	a_i/H	b (m)	Q_i (m3/s)

		(m)				
1.	0,25	2,32	1,52	0,11	6	6,19
2.	0,60	2,32	1,52	0,26	6	14,79
3.	0,85	2,32	1,52	0,37	6	20,87
4.	1,15	2,32	1,52	0,50	6	28,12
5	1,40	2,32	1,52	0,60	6	33,99



4-rasm. Gidrouzeldagi MDS bo'lganda Q=f(a) bog'lanish grafigi

Suv sarfini aniqlash uchun keltirilgan formulasi faqat graduirovkalangan inshootning aniq konstruktiv bajarilishi uchun ishlatiladi.

Suv sarfini o'lchash nuqtai nazaridan gidrotexnik inshootiga kirish qismi siliq, doiraviy chizilishida, to'g'ri yoki konussimon sho'ng'uvchi devorlari shaklida yasalgani eng ratsional hisoblanadi.

Agarda kirish qismi teskari devorlar (portal) shaklida yasalgan bo'lsa zatvorni pastki bef tomoniga (1...1,5)·H_{max}, inshoot ostonasini esa gorizontal yasalgan holda (0,32 ...0,64)·b masofaga joylashtirish maqsadga muvofiq. O'lchov vositalari ishi ustidan vizual nazorati uchun har bir inshootida yuqori bef tomoniga (3... 4)·N_{mak} va pastki bef tomoniga 40·h_{bmax} masofada suvni o'lchash reykalarni, zatvorda esa zatvor balandligi ko'rsatkichini o'rnatishadi. Suv bosimini o'lchash uchun quyidagi DUP-1, DUCh-1, DUK-DSU-1M asboblarni ishlatish mumkin; suv bosimlari ayirmasini o'lchash

uchun — DRI; zatvorni ochilishi balandligini o‘lchash uchun — IPZ, IPZK va boshqa asboblarni ishlatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakiyev M., Majidov I., Nosirov B., Xo’jaqulov R., Rahmatov M. Gidrotexnika inshootlari. 1-jild, darslik. T., “Yangi asr avlodi”, 2008.
2. Bakiyev M., Majidov I., Nosirov B., Xo’jaqulov R., Rahmatov M. Gidrotexnika inshootlari. 2- jild, darslik T., “Таълим” 2009.
3.М.Бакиев,Н.Кавешников, Т.Турсунов Гидротехника иншоотларидан фойдаланиш. Тошкент:, 2008.
4. М-Г.А.Қодирова “Дарё гидроузелларидан фойдаланиш” дарслик ТИМИ Т – 2010й. 335
5. Справочник проектировщика. Гидротехнические сооружения,под ред.В.П. Недриги, Москва: Стройиздат, 1983.
6. DAVSUVXO’JALIKNAZORAT inspeksiyasi ma’lumotlari

8-SHO‘BA. QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHNING IJTIMOIY, PEDAGOGIK-MA’NAVIY OMILLARI

УДК: 168.1

СПЕЦИФИКА ЯЗЫКА НАУКИ В СВЕТЕ СИНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ПАРАДИГМЫ

[1]Птицина Ольга Вячеславовна
кандидат философских наук, доцент кафедры экономики, управления и гуманитарных наук e-mail: ptitsina_o@mail.ru
[2]Болдырева Татьяна Петровна
доцент кафедры экономики, управления и гуманитарных наук e-mail: mailto:ptitsina_o@mail.ru*bold-tp@rambler.ru*
[3]Гадоева Абера Хасановна
Старший преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук, физической культуры и спорта, e-mail: aberaxasanovna2208@gmail.com
[1,2]Курская ГСХА, г. Курск, Россия.
[3]Бухарский институт управленя природными ресурсами, г. Бухара, Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы формирования языка науки в современном образовательном пространстве. Отмечается, что язык как система масштабного социального и культурного хранилища, формирует бесценную систему вербальных и невербальных кодов в контенте «Я – в - Мире» и «Мир – во - Мне». Подчеркивается несомненная значимость соблюдения лингвистических требований в эпистемологии именно в контексте синергетической парадигмы так как синтетический характер современного научного знания очевиден и междисциплинарность в научной работе сегодня необходимое условие.

Ключевые слова: эпистемология, язык науки, междисциплинарный подход, дефинирование, концепт, метафора, модель

UDC: 168.1

THE SPECIFICS OF THE LANGUAGE OF SCIENCE IN THE LIGHT OF THE SYNERGETIC PARADIGM

[1]*Ptitsina Olga Vyacheslavovna*
Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor of the Department of Economics, Management and Humanities e-mail: ptitsina_o@mail.ru
[2]*Boldyreva Tatiana Petrovna*
Associate Professor of the Department of Economics, Management and Humanities e-mail: bold-tp@rambler.ru
[3]*Gadoeva Abera Khasanovna*
Senior Lecturer of the Department of Social Sciences, Physical Culture and Sports e-mail:aberaxasanovna2208@gmail.com
[1,2]*Kursk State Agricultural Academy, Kursk, Russia*
[3]*Bukhara Institute of Natural Resources Management, Bukhara, Uzbekistan*

Abstract. The article deals with the problems of the formation of the language of science in the modern educational space. It is noted that language, as a system of large–scale social and cultural storage, forms an invaluable system of verbal and nonverbal codes in the content of "I-in–the-World" and "The World-in-Me". The undoubted importance of compliance with linguistic requirements in epistemology is emphasized precisely in the context of the synergetic paradigm, since the synthetic nature of modern scientific knowledge is obvious and interdisciplinarity in scientific work is a necessary condition today.

Keywords: epistemology, language of science, interdisciplinary approach, definition, concept, metaphor, model

Являясь связующим звеном мира и человека, язык – это система масштабного социального и культурного хранилища, которая обеспечивает фиксацию, оценку и трансляцию многосферного и многоуровневого опыта человечества посредством вербальных и невербальных кодов. Благодаря языку формируется система взаимодействия в контенте «Я – в - Мире» и «Мир – во - Мне».

Современная эпистемология и ее язык есть квинтэссенция исторических, философских, лингвистических поисков в культурно - цивилизационном развитии с древнейших времен и до наших дней.

Язык науки как специфическая система понятий, символов, знаков, также, прошел длительный путь становления и является

сегодня лингвистической синтетической формой, объединяя естественные и искусственные типы языка. При этом, стоит отметить, что язык науки имеет ряд специфических обязательных концептов, соблюдение которых отличает его от других языковых видов. К таким концептам следует относить точность словоупотребления, ясность изложения (что не есть синоним общедоступности), полнота изложения, формализация.

Эпистемологические лингвистические требования к исследовательской работе следует рассматривать в свете синергетической парадигмы, так как синтетический характер современного научного знания очевиден и междисциплинарность в научной работе сегодня необходимое условие.

Г.Хакен, профессор Штутгарттского университета, автор синергетического подхода, справедливо отмечал, что миссия синергетики заключается в реализации всеобщей универсальной метапрограммы, способной изучить и обосновать общий характер результатов частнонаучного знания.

Для языка науки такой подход крайне важен, потому что он дает перспективу истолкования сложных и часто неоднозначных выводов отдельных областей научного знания.

Вопрос о смыслообразовании в языке науки сочетает в себе традиции и новаторство, преемственность и прогностику. Эти тенденции относятся как к содержательному (словесному) искусственному языковому пространству, когда слова естественного языкового поля дополняются специальными знаками и символами. Эпистемологический язык всегда терминологичен, что позволяет избежать двусмысленности его использования разными научными школами и направлениями. Но термин не есть застывшая неизменная форма, потому обязательным методологическим принципом использования термина в разных сферах науки является его концептуальная значимость.

Непременным требованием языка науки является дефинирование – логическое раскрытие содержания понятия. Следовательно, при оперировании терминами следует исключить фактор субъективности и чувственно-эмоционального обоснования. Если в результате научного исследования автором генерируется и вводится новое понятие, то его дефинирование производится на

основе базовых терминов. Особенное внимание следует обращать при конструировании нового термина в социально-гуманитарных науках, так как здесь возможно контекстуальное определение, которое не дает четкого разъяснения одномоментно, а процедура раскрытия его смысла имеет концептуальный характер. Философская программа М.М.Бахтина тому прямое подтверждение, когда понятия «хронотоп» и «текст» излагаются автором контекстуально.

Следует уделить особое внимание такой языковой форме языка науки как конструкт. Его особенностью является не обязательность онтологического статуса, так как объективная реальность не дает нам его целостных аналогов. Следовательно, его критериями являются теоретизация (гипотетический конструкт) и логическое моделирование объекта с соблюдением эпистемологических требований конкретной научной области (эмпирический конструкт).

В научно-исследовательской работе авторами часто используется термин «концепт». Природа концепта носит ментальный характер, ибо он всегда есть результат культурно-цивилизационного процесса коммуляции знаний об объекте и их переосмысления как во всеобщем пространственно-временном ареале на уровне менталитета, так и на уровне ментального восприятия исследователя.

Предметом дискуссий в эпистемологии является возможность использования метафорических конструкций и моделей в научном исследовании. Следует разграничивать метафору и модель: «Для обсуждения роли метафоры в научной теории необходимо провести различение между метафорой и моделью. Метафора — это фигура речи; модель — это нелингвистическая аналогия, связывающая объект или положение вещей с некоторыми другими объектами или положениями дел. Отношение между метафорой и моделью можно прояснить на таком примере: если мы используем образ жидкости для объяснения предполагаемого действия электрической энергии, то мы говорим, что жидкость функционирует как модель для нашего представления о природе электричества. Если, однако, мы затем говорим об «оценке потока» или об «электрическом токе», то мы используем метафору, основанную на модели жидкости. ...Модель порождает множество метафорических терминов (поток, количество электричества, конденсатор, сопротивление и т.д.), которые мы используем при формулировании теории электричества; при этом

понятно, что отсутствует намерение точь-в-точь сравнивать жидкость и электрическую энергию» [1, с. 89].

Нельзя не согласиться с К.И.Алексеевым, который подчеркивал, что модель выступает как выражение научного знания, имеющего истинный или ложный характер, что является главным при их оценке, что раскрывается при анализе метафор научного дискурса и метафор естественного языка [2].

Таким образом, следует отметить, что современный язык эпистемологии способен упрочить и развить интеллектуальный капитал для творческой реализации человеческого потенциала [3].

Список литературы

1. Martin J., Harre R. Metaphor in Science // Metaphor: Problems and Perspectives. Brighton, 1982.
2. Психологические исследования дискурса /Отв.ред.Н.Д.Павлова. – М.: ПЭРСЭ, 2002. С.40-50
3. Птицина О.В. Экзистенциальный аспект проблемы социальной адаптации современной молодежи. - Региональный вестник. 2020. № 4 (43). С. 72-74.

UO'T: 168.1

KASBIY KOMPETENTLIK RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHNING ASOSI

Safarov T.T. dotsent, Xudoydotov R.U talaba.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda kasbiy kompetentlikning mazmun-mohiyati, kadrlar sifatini, bilimini oshishidagi o'rni haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, kompetent, ijtimoiy bilimdonlik, uslubiy bilimdonlik, ixtisoslik bilimdonligi.

UDC: 168.1

Professional competence is the basis for training competitive personnel

Safarov T.T. Khudoydotov R.U.

Annotation: This article discusses the essence of professional competence in the training of competitive personnel, the role of personnel in improving the quality and knowledge.

Keywords: Education system, competence, social knowledge, methodological knowledge, specialty knowledge.

Bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy hayotining barcha sohalarida misli ko'rilmagan ko'p qirrali o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda.Bu jarayonlar esa o'z navbatida raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishga yangicha yondashuvni talab etadi. Butun dunyoda bo'lgani singari yurtimizda ham ta'lim sohasida kechayotgan o'zgarishlar, insonning ijtimoiy olamga kirishini ta'minlashga qaratilgan global masalalarga mos keladi. Xususan, ta'lim tizimini takomillashtirish hujjatlarida kompetentli yondashuv ta'lim mazmunini yangilashning muhim bir kontseptual holati sifatida e'lon kilinmoqda. Ta'lim tizimida kompetentli yondashuvni amalga oshirish uchun real hayotda va kasbiy amaliyotda asosiy kompetentligini ko'llash qobiliyatiga ega bo'ladigan axborot texnologiyalari yo'nalishi kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash zarur[1]. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilinishi, ya'ni ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan bir paytda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda, chunki aynan o'qituvchi murabbiygina barkamol avlod bunyodkori sanaladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida kayd etilgan tamoyillardan biri yoshlar orasidagi qobiliyatli va iste'dodlilarini aniqlash va ularning har tomonlama kamol topishini ta'minlash hisoblanadi[2]. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning ijodiy iste'dodlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biriyoshlarning tashabbuskor innovatsion g'oya va fikrlarini, iste'dod va iqtidorini o'zvaqtida ko'ra olish va uni ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashishdan iboratdir. Yoshlardan tashkilotchilik qobiliyati va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma'naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo'naltirish talab etiladi.

Bugungi pedagogning ma'naviyati, mafkuraviy e'tiqodi va o'quv jarayonini yaxshi bilshi katta ahamiyatga ega. Bu o'rinda davlatimiz

raxbari Sh.M. Mirziyoevning: «Kadrlar tayyorlashning sifati, erkin fikrlovchi shaxs - fuqaroni kamol toptirish ertaga sinfxonalar va auditoriyalarda kimlar dars va saboq berishiga bogliq» [3]degan gaplari juda o'rinlidir. Bugun pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilayotgan ekan, uning bilimdonligi qay darajada ekanligini tahlil qilish o'ta muhim sanaladi.

Bunda albatga pedagogning kasbiy bilimdonligi va kompetentligi aloxida axamiyat kasb etadi. "Kompetentsiya" tushunchasi (lotincha "competere" - mos kelmoq ma'nosini beradi) quyidagi moxiyatlarni ifodalaydi: Kompetentsiya so'zi keng ma'noda - umumiy yoki muayyan keng qamrovli masalalarni yechishda mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada ko'llay olish qobiliyatini anglatadi[4]. Kasbiy kompetentlik - kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetentsiya - bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetentsiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniklab ham, baxolab ham bo'lmaydi[5]. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi. Hozirgi paytda oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisidan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajratiladi: • professor-o'qituvchi tomonidan o'z bilimini muntazam ravishda boyitib borish, egallagan malakalarini takomillashtirishga tayyor bo'lish, zamon yangiliklaridan boxabar bo'lish; • ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya, informatsion texnologiyalari va o'qitish vositalarining barcha turini qo'llay olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lish; • anglangan va mustaqil faoliyat (mustakil fikr, maqsad qo'yish, o'quv adabiyoti va qo'shimcha manbalardan to'g'ri foydalana olish); • tashabbuskorlikda o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qila olish; • tanqidiy fikr yurita olish va dars jarayonida yuzaga kelgan muammolim vaziyatlarni ijobiy hal eta olish; • hamkorlik, o'zaro bir-birini tushunish, empatiya bildirish, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik muloqotni o'rnata olish; • chuqur kasbiy bilimdonlikka ega bo'lish[6]. Hozirgi zamon oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisining kasbiy bilimdonligi va kobiliyati mezonlariga kuyidagilar kiradi:

Ijtimoiy bilimdonlik - dars mobaynida auditoriya bilan samarali o'zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til topish va sog'lom ma'naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati. Uslubiy bilimdonlik - barcha bilimlarini, ko'rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlaridan samarali foydalanishi.Ixtisoslik bilimdonligi o'z fani va predmeti sohasi bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlarga ega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyati[7]. Bugungi talaba ilmga, yangiliklarga bo'lgan kuchli qiziqishi, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yangiliklaridan boxabarligi sababli anchagina ma'lumotlarga ega, uning extiyojlar tizimini, 7 o'qituvchiga bo'lgan talab-takliflarini aniq bilib til topisha olgan shaxsgina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida kobiliyatning kuyidagi turlari mavjud bo'lmog'i lozim. Bilish qobiliyati – yani bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurrok biladi, o'z fani soxasidagi kashfiyotlarni xamisha kuzatib boradi, materialni mukammal biladi, unga nihoyatda qiziqadi, ilmiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi. Tushuntira olish kobiliyati - o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda to'g'ri fikrlashga qiziqish uyg'ota bilish. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, kiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noanik narsani tushunarli kilib talabalarga yetkaza olishi lozim[8]. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularni nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi. Kuzatuvchanlik kobiliyati - o'quvchi shaxsini va uning vaktinchalik ruxiy holatlarini tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchining ruhiyatndagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham faxmlab oladi. Nutq qobiliyati - nutq yordamida, shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalashdir. O'qituvchining nutqi darsda xamisha talabalarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, talabaning javobini tahlil qilayotgan yoki baxolayotgan bo'lsa ham, uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi[9]. Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish,

jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruxlantirishni, ikkinchidan, o’z ishini uyushtirishni nazarda tutadi.

O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali ukituvchilarda vaqtni o'ziga xos his etish – ishni vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatga ulgurish xususiyati hosil bo'ladi. Obro' orttira olish qobiliyati – o'quvchilarga bevosita emotsional irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchilarning fanni yaxshi bilishi, mexribonligi, nazokatliligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Talabalar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, halol-pokiza to'g'ri talab ko'ya oladigan o'qituvchini juda xurmat qiladilar. To'gri muomala qila olish qobiliyati – bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati – o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm, tarbiyaning qudrati, odamga ishonch bilan bog'liqdir. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - xajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir. O'qituvchi yukorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga – aniq maksadni ko'zlash, kat'iylik, mexnatsevarlik, kamtarlik kabi fazilatlarga ham ega bo'lishi kerak. Professor-o'qituvchi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin, degan xulosaga keldik. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostguylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mexnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mexnatkashligi, kamtarligi, ma'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi talabalari, bo'lajak kasb egalarining hurmat ehtiromiga sazovor etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Ta'lim to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda).
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun 3.Anoshkina V. L., Rezvanov S. V. Obrazovaniye. Innovatsiya. Buduщeye. 2001. Razdel. 3. Stadii stanovleniya kontseptsii neprerыvnogo obrazovaniya. URL: sbiblio.com/biblio/archive/ resvanov_obrasovanie/
4.Axmedov A.E., Smolьyaninova I.V., Shatalov M.A. Sistema neprerыvnogo obrazovaniya kak drayver sovershenstvovaniya professionalьnыx kompetentsiy// Professionalьnoye obrazovaniye i rыnka truda. 2016. №3. S.26-28.
5. Zaxlebayeva V.V. Psixologo-pedagogicheskiye usloviya uspeshnoy sotsializatsii sfere dopolnitelьnogo obrazovaniya detey// Sinergiya. 2016. №3. S.7-12.
6.Kizin M.M. Vokalьnoye iskusstvo v prostranstve sifrovыx texnologiy// V sbornike: Muzыkalьnoye iskusstvo v kontekste sovremennыx problem kulьturы i obrazovaniya. Moskva, 2016. S.215-220.
7. Nikitenko L.I. Samostoyatelьnaya rabota v sisteme individualьnogo obrazovatelьnogo marshruta studenta// Ustoychivoye razvitiye nauki i obrazovaniya. 2016. №3. S.39-43.

UO‘T: 930.2:299(575.146)/00/07/

RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHNING IJTIMOIY, PEDAGOGIK-MA’NAVIY OMILLARI.

T.Safarov t.f.n.,dotsent
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy, pedagogik-ma'naviy omillari, uzliksiz ta'limning turlari uning mazmun va mohiyati, O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning istiqbollari hamda muammolari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, raqobat, uzluksiz ta'lim, kontsepsiya, intelektual salohiyat.

Bugungi kunda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'limga ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rolь o'ynaydi.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta'lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ba'zi bir manbalarga ko'ra, ta'limning uzluksizligi to'g'risidagi ilk g'oyalarni G'arb tadqiqotchilari hususan, Suqrot, Aflotun, Aristotelь va Senekanning insonning doimiy ravishda ma'naviy takomillashuvi haqidagi diniy-falsafiy tasavvurlarida va ilmiy asarlaridan hamda bunga o'xshash g'oyalarni muqaddas islom dinimizda ham uchratishimiz mumkin. . Uzluksiz ta'lim g'oyasining paydo bo'lishi o'z navbatida, bir tomondan pedagogik kontseptsiya sifatida, boshqa tomondan esa, amaliyotning natijasida paydo bo'lgan. Umuman, bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta'limi rivojlanishi XIX asrdagi sanoat inqilobi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar oqibati bilan bog'liq. “Uzluksiz ta'lim” kontseptsiyasi birinchi marta YuNESKOning 1965 yildagi forumida taniqli nazariyotchi P. Langrand tomonidan o'rtaga tashlanib sezilarli darajada nazariy va amaliy rezonansga sabab bo'ldi va natijada o'tgan asrning 60 yillari oxiriga kelib mazkur ibora ilmiy tahlilning maxsus predmetiga aylandi. Uzluksiz ta'limni xalqaro darajada o'rganishning ustuvorliklarini o'z ichiga ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlovchi uzluksiz kasbiy ta'lim, qo'shimcha ta'lim, kattalar ta'limi, aholining himoya qilinmagan qatlami ta'limini va iqtisodiy modellarni qamraydi[1]. Uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga sezilarli darajada hissa qo'shgan MDH olimlaridan S.G.Vershlovsiy, N.V.Vasilenko, S.M. Vishnyakova, V.I.Ilьina, O.M. Nikandrov, V.I. Podobeda va boshqalarning nomlarini keltirib o'tish mumkin. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta'lim borasida bir-biridan farqlanuvchi bir necha nuqtai nazarlarni uchratish mumkin. Ulardan eng ko'p uchraydiganlari: “uzluksiz ta'lim-butun hayot davomida egallaydigan ta'lim”, “uzluksiz

ta'lim - kattalar uchun ta'lim", "uzluksiz ta'lim - bu uzluksiz kasbiy ta'lim" kabi iboralar qo'llanilsa, jahon pedagogikasida uzluksiz ta'lim bir nechta atamalar bilan izohlanib ular ichida "davom etuvchi ta'lim", "hayot davomida o'qish", "doimiy o'qish" iboralari keng qo'llaniladi. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimining o'rni va ahamiyatini ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil, tizimli yondashuv, analiz va sintez, tarixiylik tamoyillari asosidagi usullardan foydalanildi. Tahlil va natijalar O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, davlat uchun uzluksiz ta'lim har bir shaxsning kasbiy va umumiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlash borasidagi ijtimoiy siyosatning yetakchi sohasi hisoblansa, jamiyat uchun esa, uzluksiz ta'lim ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim sharti, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtiruvchi hamda uning kasbiy va madaniy salohiyatini oshirib boruvchi mexanizm hisoblanadi. Jahon hamjamiyati uchun uzluksiz ta'lim xalqaro hamkorlik asosida milliy madaniyatlarni va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va o'zaro boyitish usuli hisoblanadi.Bu,engavvalo, bilimlarniegallashvao'ganibolishnitalabetadi. YuNESKO ning "Ta'lim – yashirinxazina" ("Learning:TheTreasureWithin") debnomlangan XXI asr uchun ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyasining ma'ruzasida ilmiy taraqqiyot hamda iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning yangi shakllari butun hayot davomida o'qishni talab etayotgani alohida ta'kidlanadi. Ma'ruzada butun hayot davomida ta'lim olish to'rt ustunga tayanishi lozimligi ta'kidlanadi. YuNESKOning butun hayot davomida ta'limolishustunlari[2]. 1.Bilishga o'rganish. Bu shaxsning keng umumiy madaniyatini fanlarning cheklangan sohasida bilimlarni chuqur egallashni nazarda tutadi. Shaxsning umumiy madaniyati ta'lim olishni rag'batlantiradi, uning bilimini muttasil oshirib borishga o'rgatadi. Bu, shuningdek, uzluksiz ta'lim tug'dirgan imkoniyatlardan foydalangan holda o'qishni o'rganishni ham ko'zdatutadi. 2. Ishlashni o'rganish. Har bir shaxs faqat kasb malakasini egallabgina qolmasdan, ayni paytda turli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish va jamoa bilan birga ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirgan kompetentlikka ega bo'lishi kerak. Shuningdek, shaxs hayoti davomida duch keladigan turli ijtimoiy yoki ishlab chiqarish muhitida mehnat faoliyatini amalga oshirishga ham o'rganishi kerak. 3. Birgalikda yashashga o'rganish. Umumiy loyihalarni amalga oshirish, hurfikrlilik, o'zaro anglashuv, kelishish qadriyatlarini

hurmat qilgan holda mojaroli vaziyatlarni hal qilishda bevosita ana shu fazilat asqotadi. 4. Yashashni o'rganish. Bu o'z shaxsini kamoltoptirish, mustaqil fikrga ega bo'lish, shaxsiy mas'uliyat demakdir. Shuning uchun ta'limda insonning ushbu fazilatlarini rivojlantiradigan barcha vositalardan: xotira, mushohada yurgizishga qodirlik, estetik did, jismoniy imkoniyatlar, aloqa qilishga qodirlik va hokazolardan samarali foydalanilishi lozim. Umuman olganda, uzluksiz ta'lim shaxs va jamiyatning mos ehtiyojlari davlat va jamiyat institutlari va tashkiliy ta'minlovchi tizim orqali shaxsning butun hayoti davomidagi ta'lim (umumiy va kasbiy) salohiyatining o'sish jarayoni bilan kechadi. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, kreativ, ma'naviy boy shaxsni shakllantiruvchi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oldindaborishlik uchun zarur sharoitlar yaratadi. Ta'limning turlariga o'z navbatida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar qayta tayyorlash va malakasini oshirish va maktabdan tashqari ta'limni kiritish mumkin. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin jahon hamjamiyatinining teng huquqli sub'ekti va ajralmas bir qismi sifatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, strategik rivojlanish, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik kuchli huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurmoqda. . 2020 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi qonun [3] mamlakatda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashning huquqiy asoslarini yaratdi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib boriladi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konventsiyalarning bajarilishi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va

kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanish omillaridan biridir. O'tgan yillarda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik baza yaratildi.Intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilashga ko'maklashdi. Mustaqillik yillarida Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq, o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda [4]. Shu bilan birga, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi[5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 8 oktyabrdagi F-4724-son farmoyishi bilan tashkil qilingan Ishchi guruh tomonidan oliy ta'lim tizimidagi holatni o'rganish natijalariga ko'ra, bir qator oliy ta'lim muassasalarida hali ham ilmiy-pedagogik salohiyatning pastligi, ta'lim jarayonlarini axborot-uslubiy va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash zamonaviy talablarga javob bermasligi, ularning moddiy-texnika bazasini tizimli yangilashga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'orxorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayapti [6]. Tahlillarning ko'rsatishicha, oxirgi yillarda o'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Mutaxassislar tayyorlash, ta'limtarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yetarli darajada bog'lanmagan. Aholi turli toifalarini “Hayot davomida ta'lim olish” printsipi bo'yicha kasbga tayyorlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi aksariyat katta yoshli aholi, shuningdek, ishsiz yoshlar va nogiron shaxslarning mehnat bozorida keraksiz bo'lib qolishiga olib kelmoqda [7]. Shu bilan birga, islohotlar amalga oshirilgan yillarda

umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, 12 yillik majburiy ta'limga o'tish natijalarini har tomonlama tahlil qilish hozirgi o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi tizimi bugungi kun talablariga javob bermasligini va tubdan isloh qilishga muhtoj ekanligini ko'rsatdi [8]. Umuman olganda, kasb-hunar ta'limining obro'si hamda o'qituvchilar, tarbiyachilar va murabbiylarning, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning ijtimoiy maqomi pasayib bormoqda. Oliy malakali kadrlardan samarali foydalanilmayapti. Kadrlar bilimi va ular tayyorgarligining sifatini nazorat qilish hamda baholash tizimi hozirgi zamon talablari darajasida emas. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida samarali o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi. Respublikamiz ta'lim tizimi amaliyotidagi mavjud muammolar hisobga olingan holda hamda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlarni yaratish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-sonli farmoni qabul qilindi. . Ushbu Farmonning qabul qilinishi mavjud kasb-hunar kollejlarining moddiytexnika bazasidan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlash, malakali vamehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va umuman uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish borasidagi muhim qadamlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim butun ta'limdagi o'zgarishlarni shakllantiruvchi tizim sifatida, mehnat bozorida mutaxassislarning malakasi va kasbiy kompetentsiyalarining rivojlanishini belgilovchi va umuman iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanish darajasini oshiruvchi asosiy omillardan biri

hisoblanadi. Uzluksiz ta'limning maqsadi bilimlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish bo'g'inining ajralmas bo'g'ini sifatida insonning o'zgarishlarga va iqtisodiyotni modernizatsiyalashga, kasbiy hayot, madaniyat, jamiyat va hokazolarga moslashish qobiliyatini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi.Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi [6] tasdiqlandi. Ta'lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko'tarish, shuningdek uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi tashkil etildi. Shu bilan birga, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur'atlar oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimi sharoitida orttirilgan tajribaning mohiyatini qator xorijiy mamlakatlarning mazkur sohadagi ilg'or amaliyotini hisobga olgan holda qayta anglash zarurligini taqozo etmoqda. Hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta'lim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va undan respublikaning innovatsion rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda[9]. Respublikada ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalari qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompьyuter texnikasi, o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli choralar ko'rilmoqda. Ta'lim sohasini isloh etish borasida 2016-2018 yillarning

o'zida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasiga doir yetmishdan ortiq farmon, qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Ushbu g'oyat muhim huquqiy hujjatlar mamlakatimizda ta'lim tizimini tom ma'noda sifat jihatdan tubdan o'zgarish va yangilashlar jarayonlari uchun asos bo'ldi. Olib borilgan tahlillarga ko'ra xalqaro standart klassifikatsiyaga muvofiq uzluksiz ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari quyidagicha taqsimlanadi: - o'z ichiga institutsional ta'lim tashkilotlarini oluvchi rasmiy ta'lim (maktablar, kollejlar, universitetlar va boshq.); - norasmiy ta'lim, rasmiy ta'limga taalluqli bo'lmagan har qanday ta'lim faoliyatini tavsiflaydi. Shuni ta'kidlash zarurki, mazkur ta'lim shakli o'z oldiga ta'lim oluvchilarni attestatsiyalashni maqsad qilmaydi; - ma'lumot beruvchi (informal) ta'lim o'zida uzluksiz ta'limning bir muncha innovatsion shaklini namoyon qiladi. Bunday shaklga misol tariqasida mustaqil ta'lim (shaxsiy darajada) yoki ish joyida yoki oilada (guruh darajasida) bo'lishi mumkin. Hozirgi davrda zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga javob beradigan uzluksiz ta'limning roli va ahamiyatini yangicha qarash va anglash talab etiladi. Uzluksiz ta'lim ijtimoiy talablarga javob berishi lozim bo'lib, ular aynan quyidagicha:[10] - an'anaviy ta'lim tizimining eng yaxshi an'analari bilan yangi ta'limni tashkil etishning jahon tajribasi va ilmiy texnologiyalarini birlashtirish; - egiluvchan va bashorat qilinuvchanlik; - darajalar, turlar, fan mazmuni, insonlar va davlatning ta'limga bo'lgan ehtiyojlari, aralash tarmoqlar integratsiyasi; - zamonaviy asosiy kompetentlik va ko'nikmalarning rivojlanishi; - innovatsionlik. Uzluksiz ta'lim bugungi global iqtisodiyot sharoitida har bir insonning butun hayoti davomida rivojlanib borishining asosini namoyon etuvchi sifatidagi innovatsion ta'lim modelining eng muhim kontseptsiyalaridan biri hisoblanadi. Tahlillarga ko'ra, rivojlangan davlatlar amaliyotida o'zini oqlagan qo'shimcha ta'limda kutiladigan yondashuvlar balansini amalga oshirish sezilarli darajada yengil hisoblanadi, sababi unda asosan o'rta yoshdagilar tahsil olishadi. Katta yoshda ta'lim oluvchilar – yetarli darajada yuqori rivojlanish darajasidagi bir muncha muvaffaqiyatli insonlardir. Qo'shimcha ta'limning har bir yangi bosqichida umumjamiyat ahamiyatidagi maqsadga – har qanday yoshda hayotdagi muvaffaqiyati uchun har bir insondagi qobiliyat va iqtidorni rivojlantirishga sezilarli darajada tezroq erishilishi mumkin. Ushbu maqsadga erishish uchun fikrimizcha, uzluksiz va qo'shimcha ta'limning jahon amaliyotida mavjud bo'lgan yuqoridagi uchta shakllaridan respublikamiz amaliyotida

foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy tamoyillar quyidagilar bo'lishi lozim: - atrofdagi reallikka emas, balki mamlakat kelajagini innovatsion jamiyat sifatida tasavvur qilishga tayanish; - o'z va o'zganing boshqa ijobiy tajribalariga tezda moslashish; - ta'limda katta miqdordagi foydali innovatsiyalarni yaratishni rag'batlantirish; - inson kapitaliga investitsiyalarning dastlab ham ta'lim oluvchi, ham o'qituvchi sifatidagi kiritilishi; - uzluksiz ta'limning innovatsion asosda ilgarilab ketuvchi sifatida rivojlanishi. Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lim va fan darajasiga bog'liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko'proq talablar qo'ymoqda. Zamonaviy xodimning ma'lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o'zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda “Kasbiy kompetentlik” sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga bo'lgan qobiliyati, ma'lumotliligi va boshqa sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, uzluksiz ta'lim tizimi nafaqat “hayot davomida” ta'lim mexanizmi sifatida, balki iqtisodiyotning o'zgarishlariga korxona va muassasalar kadrlar salohiyatining moslashuvchanligi va safarbarligini oshirish, doimiy shaxsiy va kasbiy takomillashishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Ta'limto'g'risida” O'zbekistonRespublikasiqonuni // O'zbekistonRespublikasiOliyMajlisiningAxborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y.,
2. Kadrlartayyorlashmilliydasturi // O'zbekistonRespublikasiOliyMajlisiningAxborotno masi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda; O'zbekistonRespublikasiqonunhujjatlarito'plami, 2007 y.,
3. O'zbekistonRespublikasiOliyMajlisining 2018 yil 5 yanvardagiaxborotnomasi, 03/18/456/0512-sonli qonunhujjatlarima'lumotlarimilliybazasi.

4. O'zbekistonRespublikasiPrezidentining 2017 yil 16 fevraldagi “Oliyo'quvyurtidankeyingita'limtiziminiyanadatakomillashtirishto'g'risida ” gi PF-4958 sonlifarmoni.
5. 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
UDC: 930.2:299(575.146)/00/07

RELIGIOUS BELIEFS IN BUKHARA IN THE PRE-ISLAMIC PERIOD (ACCORDING TO THE WORKS OF THE ACADEMICIAN V.V.BARTOLD)

Sobirov Komil Sodiq o’g’li- Studetnt of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management
Scientific supervisor: Khudoyqulov Tuymurod Bekmurodovich
PhD. Lecturer of ”TIIAME”NRU Bukhara natural resources management

Abstract: in the following article, there is an analysis of the religious views which has indicted in Bukhara and its environs prior to the advent of Islam on the basis of the works of academician V.V. Bartold. The analytical relation is expressed to the views of V.V.Bartold regarding the varieties of pre-islamic religions faiths, area of allocation and their mutual interaction.
Key words: academician V.V.Bartold, pre-Islamic religious faith in Bukhara, iconoclasm, fire-worshipping, zaroastrism, moon-worshippers, Christianity

Introduction

The religious belief is one of the most essential concepts of the human life. According to the researches conducted there were more than 3000 religious views and types of faiths formed during the history of human society. Many forms of religious beliefs have undergone the influence paving the way for others; others during the elapsed time had expanded their geography. Of course, all of them have occurred under the impact of human factor.

There were several types of religious faiths in ancient Bukhara prior to the arrival of Islam. The diversity of habitual types of the belief of the populace of Bukhara has attracted the local and foreign researchers with their considerable characteristics. Well reputed academician, orientalist V.V.Bartold (1869-1930) has conducted part of his researches dealing with

this problem, whilst revealing the problem V.V.Bartold had referred to the works of local historians, as well as to the sources in Hindi, Chinese, and Persian.

Literature review

The valuable information regarding the types of religious faiths which were espoused by the population of pre-Islamic Bukhara while analyzing the scientific legacy of V.V.Bartold can be established. There is a research work related with this theme: "Singnificance of pre-Islamic cult in Bukhara and its environs"[11].

In this work V.V.Bartold gives complete info on the types of religious faiths and their importance in Bukhara and its vicinity. The scholar mentions that he relied on the data given by the "History of Bukhara" of M.Narshakhi. In the meantime V.V.Bartold had extensively used the rare sources offered by the legacy of Beruni[1], Istakhri, Sam'ani, Mas'udi and Tabari.

In the exposure of theme the scholar refers also to scientific works of his contemporary scholars. In this case the rare info given by the works of L.A.Zimin, I.I.Umnyakov, I.V.Sitnyakovski, V.L.Vyatkin, Kyuzing, Kristensen are used effectively by V.V.Bartold.[20]

Research methodology

This work is conducted in accordance with the methods of historiography, sources studies and historical research. In the article the works of V.V.Bartold are scrutinized. Therefore, the scientific approach to the researches on the types and importance of the religious faiths existing in the pre-Islamic Bukhara is formed.

The conclusions of V.V.Bartold on the skills of usage of primary sources and results of his researches are reconsidered. The conclusions and recommendations are drawn on the basis of the data regarding the types of religious faiths in the pre-Islamic Bukhara.

Analysis and results

Until the beginning of the 8th century there was a temple in the Bukhara Ark kourgan. Afterwards in 713 the temple was demolished and the mosque was built in its place. V.V.Bartold says that "The term temple may not relate to Zaroastrism. While relying on Narshakhi he makes a turning point by stating the following: "the idols which are called images as such by the Muslim relates to the Zaroastrian's. After the Arabic conquest the rich tradesmen living in Bukhara Shakhristan to the north-western part of the fortress constructed 700 castles. They have built

magnificent dwellings each having the replica of the family idols on the door. The houses are "Castles of Mughs", that's Zaroastrian's, says V.V.Bartold[11].

V.V.Bartold having difficulties in establishing the location point of the temples of idols, expressed that their location is not definitely shown. He casted doubt on the Narshakhi's views on the location of these temples. In the Khanikov's scheme it is said that the temple was located not far from the north of the kourgan's wall[11]. V.V.Bartold confirms that there was an ancient mosque built in the place of temple and it was not marked by the Europeans.

Tabari described that there was an idol temple (House of Gods) and fire temple in Tavais. V.V.Bartold confirms that "House of Gods" Tabari has written this info relying on the Madai.

Narshakhi confirms that the peacocks were kept in the households of Tavais indicating that they were decoration of the house, not having link with any religions.

In his story "Bazoor of Mokh" it is expressed that the people had bought idols, the people of Bukhara was idolatry and in the location of the "Mokh mosque" (besides the ditch) there was an idol commerce took place. Afterwards it was turned into the place where fire was kept. On market days the people had gathered there, worshipping for the fire in the temple[1].

According to the legend of the population of Bukhara, there was a temple in ancient Romitan, the accessories of the temple were brought by the Chinese princess who had married to one of the rulers of Bukhara.

As a result of squeezing the Buddhism in Bukhara in some places it was substituted by the Zaroastrism, according to the V.V. Bartold it occurred in the same way such as in Turkestan in the 7th century. The struggle between the Zaroastrism and Buddhism has links to the immemorial times. According to V.V.Bartold the Zaroastrism himself was the enemy of those people worshipping for Buddhism.

According to Bartold there was a Siyavush faith in Ark related with the Zaroastrism. Because there is a legend on the construction of Ark by Siyavush. Siyavush's tomb was located in the entrance to the Eastern gate inside of Ark. Mughs (Zaroastrians) used to make pilgrimage to his tomb. Every year in Navruz, just before the sunrise the cock was sacrificed. Sacrificing the cock takes place in the Siyavush faith, but the cock was

considered as the holy animal in Zaroastrism. It means that the Siyavush faith was distinct from the Zaroastrism. In the sources the Siyavush faith is referred as the Tengrianism. Siyavush tomb was situated in the entrance of the eastern gate of the fortress, as for Bartold the "Mughs of Bukhara" were glorifying this place.

According to the Narshakhi in Bukhara fire-worshipping was formed after the advent of Buddhism. Firstly, faith of fire, afterwards the faith of idols were formed. The selling of idols had been taking place even during the time of the historians's lifetime. The expansion of Zaroastrism didn't damage to other customs and habits. There were many fire temples in Bukhara. In the kourgan, in the dwellings of households there were firehouses.

According to Beruni, the pagans had gathered in the fire temple of the Romush village and were celebrating the "Brother Romush"[4].

Worshipping to fire and construction of special firehouses were the customs of the ancient Bukhara's population, being one of the pre-Islamic religious faiths. It is noteworthy to mention that the fire places observed to the date in the Paykent city are the indicators of it.

V.V. Bartold compares the data given by Narshakhi with those presented in the Persian sources. There was a temple of fire of Kaykhusrav and according to the Persian chronology is more ancient than the Bukharaian one. As it can be revealed from the above-mentioned data worshipping to fire in the environs of Bukhara was formed before the advent of the Zoroastrianism.

Narshakhi reminds of Mokh gate, Maghok mosque. In Bukhara there is an oral tradition according to which Maghok mosque is the Mokh Mosque. According to Umnyakov there, there were two Maghok mosques, located in Attar and Kurpa bazaars. While giving info on the Mokh mosque V.V.Bartold refers also to the scholars of his epoch. By analyzing all these opinions he expresses his impartial stance [11].

The word Mokh as a proper name is very frequent in Bukhara. In Soghd language it means moon. According to the phonetics rule of Soghdian it corresponds to the mokh of Persian, Soghd version being mokh. Beruni uses the word moh as the first month of Soghd calendar. Here Bartold refers to the view of persologist Kristensen. Kristensen 1904 advances his own hypothesis. According to him: Moh mosque at first was "lunar" temple and worshipping to moon was one of the local faiths of the

Bukharians. According to the Khyuzing's article worshippers to the moon had no links to the Zaroastrism.

The description of the full moon in the coins of Sasanids, the replica of the moon in the roof of the Zoroastrian temple confirms the views of Kristensen. In the editions of 1907 Kristensen defends his views of the existence of worshipping to the moon as a local faith. In his references to the Narshakhi, in Bukhara there was a faith of worshipping to the moon.

According to the V.V. Bartold referring to Narshakhi there is "the existence of Attaron gate in between the gates of Bukhara Shakhristan". It was also called market gate. If you enter the interior of the shakhristan, on the left there was a Christian church, being directed at the mosque of benukhonzola tribe. According to the legend given by the Umnyakov, the church was located in the place of the contemporary Grand Mosque and its location was changed by the Arslankhan in the 12th century. There are data in the disposal of Narshakhi, says V.V.Bartold.

Conclusion

As a result of the analysis we can conclude that there were several religious faiths in the pre-Islamic Bukhara. Based on the data available in the works of V.V.Bartold we can divide the religions existing in the Bukhara into the following types: Fireworshippers, Buddhism, Zaroastrism, Moon worshipping, faith of Siyavush (tengrianism), Christianity.

The formation, the vital significance, philosophical shape of these types of religious faiths are important for the ancient period of the life of populations of the Bukhara (from BC. 9-8th to AD.7th).

Academician V.V.Bartold had conducted the researches on the types of religious faiths, their formation period and dissemination place based on the local and international sources. The scholar had used masterly the primary sources while conducting the survey. Thus, the researcher translates the original versions of the sources, carefully studying them. We can highly appreciate the fact that scholar had relied on the multilateral sources while giving the info on the theme.

In the central makhallas of the ancient Bukhara city there were the representatives of diverse types of religious faiths living in the harmony. As it revealed from the abovementioned data the sprouts of the contemporary religious harmony in Uzbekistan has its deep roots stretching to the centuries.

References

[1] Abu Raykhan Beruni. Qadimgi khalqlardan qolgan yodgorliklar. G'.G'. Tanlangan asarlar. U. T. "Fan", 1968
[2] Asqarov A.A. Bukhoroning ibtidoiy davr tarixidan lavhalar. T., 1973
[3] Bukhoro sharq durdonasi / Mualliflar jamoasi. Toshkent: Sharq. 1997
[4] Bartold V.V. Soch. -T. II. Ch.1 Moscow, 1963
[5] Bartold V.V. Bukhara. Soch. -T. III. Moscow , 1965
[6] Bartold V.V. Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya. Soch. -T. I.Moscow, 1963
[7] Bartold V.V. Bukhara. Yeyo pamyatniki I ikh sudba. Soch. -T. IV. Moscow, 1966
[8] Bartold V.V. Zeravshan. Soch. -T. III. Moscow , 1965
[9] Bartold V.V. Sochineniya. -T. IV. Moscow , 1966
[10] Vambery A. "Istoriyabukhari ili Transoxanii"(perevodPavlovskogo, SPb., 1873)
[11] Mesta domusulmanskogo kulta v Bukhare I yeyo okrestnostyakh. Soch II. T. p. 471-485.
[12] Eversmann E., Reise von Orenburg nach Bukhara. Berlin, 1823.Takje Russian missions into the interior of Asia, London, 1823
[13] Lunin B.V. Istoriya Uzbekistana v istochnikakh. Sostavitel. T. Fan. 1984
[14] Narshakhi. Bukhoro tarikhi. Toshkent 1991
[15] Nekrasova Ye.G. O neskolkikh starikh planakh Bukhari. V. sb. Iz istorii kulturnogo naslediya Bukhari.Vip. 10. Bukhara. 2006
[16] Qosimov F.Kh. Bukhoro tarikhshunosligi. Bukhara: 1996
[17] Rempel L.I. Dalyokoye I blizkoye. Bukharskiye zapisi. Tashkent, 1982
[18] Turayev H. "Bukhoro tarikhining ilk o'zbekcha tarjimasi" Imom Bukhoriy saboklari, 2015/2, 53-56 p.
[19] Turayev H. Makhalliy o'lkashunoslar ilmiy merosida tarikhiy topographiya va me'moriy obidalar. Bukhoro, 2019
[20] Aripov D. Yu.Bukharskoye khanstvo v russkoy vostokovedcheskoy istoriografii, Moscow. MGU Press, 128 P. 1981
[21] Khanikov N. Opisaniye Bukharskogo khanstva. SPb., 1843
[22] https://islaminstitut.uz/?p=6126

UO‘T: 930.2:299(575.146)/00/07/

“MEHR” MADANIYATI: NAZARIYA VA AMALIYOT.

Bozorova Ro‘zigul SHarofovna
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi E.mail: r.bozorova85mail.ru

Annotatsiya: Maqolada mehr tushunchasining falsafiy lug‘atlar, tarixiy manbalarda keltirilgan izohli tahlili, genezisi, nazariyasi, amaliy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mehr, mehrsizlik, axloq, oqibat.

UDC: 930.2:299(575.146)/00/07

KINDNESS CULTURE: THEORY AND PRACTICE.

Bozorova Ruzigul Sharofovna
Buxarskiy institut prirodopolzovaniya, fakultet sotsialno-gumanitarnykh nauk, fizicheskoy kultury i sporta great teacher E.mail: r.bozorova85mail.ru

Annotation: V state raz’yasnyaetsya ponyatie lyubvi v filosofskix slovaryax, ob’yasnitelnыy analiz, genesis, teoriya, prakticheskie aspekty istoricheskix istochnikov.

Klyuchevые slova: miloserdie, besposhchadnost, nravstvennost, sledstvie.

Mehr murakkab falsafiy-axloqiy kategoriya bo‘lib, jamiyatda shakllangan yaxlit ijtimoiy munosabatlar hosilasi hisoblanadi. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev e’tirof etganlaridek, “Barchamizga yaxshi ayonki, inson manfaatlarini yurt tinchligi, jamiyatimizdagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidan ajratgan holda tasavvur etolmaymiz”[1]. SHuningdek, “YAngi O‘zbekiston kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, madadga muhtoj insonlar va oilalarga chinakam ko‘mak va yordam berish, mehr-oqibat ko‘rsatish hayotimiz qoidasiga aylanib borayotgan ijtimoiy makondir”[2].

Mehrning mazmun-mohiyatini ilmiy tahlil etish ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal etishda progressiv[3] ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun ham unga barcha gumanist mutafakkirlar alohida e’tibor qaratganlar. Zero, mehr irq, millat va e’tiqod tanlamaydigan umuminsoniy mohiyat kasb etuvchi fenomenal qadriyatdir.

Mehrning mazmunini aniqlashtirmasdan turib, amaliy jihatlari haqida gapirish mushkul. Hatto, bugungi mehrsizlik tufayli sodir etilayotgan g‘ayriinsoniy xatti-harakatlar, turli shakldagi jinoyatlar ham uning mazmunini turlicha, ayrim hollarda qarama-qarshi tushunish sababli, desak xato bo‘lmaydi. Mehrning mazmun-mohiyatini falsafiy axloqiy kategoriyalar sifatida tahlil qilib, shu asosda ijtimoiy hayot uchun tegishli nazariy va amaliy kompleks taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Lug‘atlarda “mehr” tushunchasiga bir qator ta’rif va tavsiflar keltirilgan. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “mehr” (forscha sevgi, muhabbat, moyillik) insonning o‘z tug‘ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo‘lgan samimiy muhabbati; yaxshi ko‘rish tuyg‘usini, shuningdek shafqat, rahmdillik ma’nolarini anglatadi, - deb keltiriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, mehr kishining u yoki bu ob’ektga bo‘lgan muhabbatini ifoda etadi, boshqacha aytganda mehr muhabbat bilan bir ma’noga ega. Bizningcha, bunday qarashga qo‘shilib bo‘lmaydi. Uni muhabbat yoki rahm-shafqat bilan aynan tushunilishi to‘g‘ri emas. Mazkur holat uning mazmunini to‘laqonli ifodalamaydi.

Q.Nazarovning “Jahon falsafasi qomusi” kitibida “Mehr” xolis, beta’ma yaxshi ko‘rish, muhabbat, sevgining teranlashgan shaklini ifodalovchi tushuncha. Mehr insoniyat ma’naviy taraqqiyoti davomida shakllangan axloqiy fazilat bo‘lib, individuallik xususiyatiga egadir. Mehr kishilar shaxsiy, oilaviy hamda etnik birligini, maqsad va manfaatlarini amalga oshirishda ezgulik yo‘lidagi ijtimoiy munosabatidir[4] degan ta’rif berilgan. Inson tomonidan ko‘rsatilayotgan munosabat faqat xolis bo‘lsagina haqiqiy mehrni anglatadi. Agar munosabatlarga qandaydir evaz kutilsa bunda mehr emas boshqa bir tuyg‘u namoyon bo‘ladi. Masalan onaning bolaga bo‘lgan mehri xolis, shuning uchun ham bu mehrni boshqa munosabatlar bilan qiyoslab bo‘lmaydi va onaning mehri eng yuksak mehr deb e’tirof etiladi.

“Ba’zi olimlar mehr qadimgi davrda tabiat kuchlariga qarshi turish, insonning ijtimoiy hamkorligi zaruriyati natijasida vujudga kelgan ijobiy his tuyg‘udir, deydilar. Biroq mehr tuyg‘usini davriylashtirish unchalik ham to‘g‘ri emas, chunki, u inson yaratilganidan buyon uning tabiatiga xos xislatdir. Abu Nasr Forobiy mehr deganda fozil odamlarga xoslikni tushuncha, Abu Rayhon Beruniy nazarida insonning oliy fazilati o‘zgalar haqida g‘amxo‘rlik, ayniqsa, kambag‘allarga mehr-muruvvat ko‘rsatishida

namoyon bo‘ladi”[5]. Abu Ali Ibn Sinoning ta’kidlashicha barchani bir xil ijtimoiy mavqega, boshqa ijtimoiy ne’matlardan bahramand bo‘lishga erishtirish imkonsizdir. Aslida jamiyatning har bir a’zosi uchun muayyan sharoitlar yaratib berish har qanday davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Barchaning boy va mansabdor bo‘lishi yoki hammaning qashshoq bo‘lishi jamiyatning tanazzuli hamda inqirozidir. SHuni alohida ta’kidlash lozimki inson o‘zgalarga mehr-muruvvatli, g‘amxo‘r bo‘lmog‘i, kerak vaqtda ko‘mak berishi va saxovat qo‘lini nochorlarga uzatishi zarurdir.

B.Karimov “Mehr madaniyati: genezis, nazariya, amaliyot” nomli monagrafiyasida “Mehr” insonlararo munosabatlarda namoyon bo‘ladigan ruhiy-ma’naviy jarayon bo‘lib, shaxsning boshqalarga nisbatan anglangan empatik munosabatini ifodalaydi. Mehr atamasi turli tillarda turlicha mazmunga ega bo‘lsa-da, mohiyatan bir-birini to‘ldiradi. Bugungi kunda o‘zbek tilida ishlatilayotgan “mehr” so‘zi fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “xayrixohlik”, “qayg‘urish”, “rahm-shafqatlilik”, “quyosh” ma’nolarini anglatadi. Mehr so‘zining quyoshga nisbat berilishi qiyoslash asosida juda keng ma’no imkoniyatlarini vujudga keltirishi bilan o‘zbek tilida bu tushunchani boy tasavvur qilishga ko‘maklashadi.

Inson hayoti buyuk bir tuyg‘u bilan ustuvorki, uni mehr tafti deb aytishadi. Bu jumlaning ma’nosida “Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi” kabi hikmat yotadi. “Duo ol” deyilganda, ko‘ngil nazarda tutiladi. Sababi ko‘ngil isisa, mehr uyg‘onadi. Mehr tushgan joy – muqaddas hisoblanadi. Bu muqaddas joyga nisbatan yovuz niyat, yomon so‘z aytilmaydi.

O‘rta asr Evropasida esa odamlarning ijtimoiy hayotda o‘zaro bir biriga yordam berishi, o‘zgalarning moddiy va ma’naviy ahvoliga e’tibor bilan qarashning ijtimoiy me’yori sifatida qaror topgan. Jamiyat taraqqiyotida mehr shaxsning o‘zgalar bilan birgalikda turmush kechirishlaridagi ijtimoiy hamkorlik, etim-esir, beva-bechoralarga beg‘araz moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatishga qobillik, aniqrog‘i, saxiylik madaniyati sifatida shakllangan.

O‘zbekistonda “jamiyatni yanada demokratlashtirishda mehr komil insonning fazilati, milliy g‘oyaning tarixiy-falsafiy, axloqiy-g‘oyaviy manbaidir. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida mehr millatni ozod va obod Vatan, farovon hayot qurishda o‘zaro birlashuvida o‘zgalar oromi uchun o‘z oromidan kechishdir. Mehr insonning davlat va jamiyat munosabatlarida turli millat va dinga mansub kishilar bilan bunyodkorlik

ishida o‘zgalarga foyda keltirish qobiliyatidir. Mehr insonga xos barqaror tuyg‘u bo‘lib, shaxsning kelajak avlodlar baxt-saodati yo‘lidagi beg‘araz faol hatti-harakati hisoblanadi. Mehr o‘z mohiyatiga ko‘ra axloqiy tushuncha bo‘lib, muhabbatga nisbatan jamoaviy birlikni ta’minlashdagi o‘zaro aloqalarning murakkab qismini anglatadi. CHunki, mehr shaxsning o‘zgalarga beg‘araz yordamini, o‘zgalar g‘am-tashvishlariga hamdardligini anglatadi. Mehr ijtimoiy birdamlik ifodasi sifatida kishilik jamiyati uchun juda zarurdir. Azaldan odamlar ikki toifa “qon- qarindosh” va “begona”ga bo‘linib yashab keladi. Bunda mehr ba’zan ma’naviy me’zon bo‘ladi. Mehr ijtimoiy yaqinlikning muhim axloqiy jihatidir. Jamiyat taraqqiyotida qon-qarindoshlik bir oila, mahalla, qishloq, tuman, viloyat va millat doirasida namoyon bo‘ladi. Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzida dehqonchilik tabiat bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, jamoaviy mehnatni taqozo etgan”[6]. Xalqimiz quyoshni mehrga qiyoslagan, har oyning 16 sanasini Mehr kuni deb nishonlab kelgan, yilning o‘n ikkinchi oyining birini Mehrmoh deb atagan, to‘rt faslning har birida nishonlangan umumxalq bayramlarining kuzgisini - Mehrjon deb atagan. Muqaddas deb sanalgan Qur’oni karim kitobi ham - mehribon degan so‘z bilan boshlangan. Har bir ishni boshlashdan, har bir qadamni bosishdan oldin ham - mehribon degan so‘z muqaddas sanalgan Olloh nomi bilan birga aytilgan. SHuning uchun ham mehr tushunchasi xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

“Bu hol odamlar orasida o‘zaro ichki qalb birligi tuyg‘usini o‘stirgan. SHu boisdan mehr-oqibat ikki jihatni, ya’ni shaxsning o‘z qavmi a’zolariga moddiy yordam ko‘rsatish bilan birga, ularning ma’naviy g‘am-tashvishlariga hamdardlik qilishga tayyor turish fazilatini mujassam etgan. Diniy ta’limotlarda mehr g‘oyasi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Mehr turli madaniyat va dinlarga ega bo‘lgan millatlar totuvligini ta’minlaydi. Uning ijtimoiy ildizi oila bo‘lib, mehr ota-ona va farzandlarning ma’naviy aloqalarida mujassamlashadi”[7]. Keyingi bir asrlik mustabid tuzum ushbu qadriyatlarimizning barchasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Hijriy shamsiy yil hisobi milodiyga o‘zgartirildi. Umumxalq bayramlari inkor qilindi. Qur’on va diniy an’analar ta’qib qilindi. Mehr bilan bog‘liq qadriyatlar, an’ana va urf-odatlarni qayta tiklashga yo‘l berilmadi. Mehr madaniyati susayib uning o‘rnini ta’sir-ta’zyiqqa asoslangan kuch madaniyati egallay boshladi. Natijada qatag‘onlar, surgunlar, urushlarni boshidan kechirgan xalqning didasi qotib o‘zligini yo‘qotishga olib keldi.

Qayd etish kerakki, mehr haqida tadqiqotlar olib borgan ko‘plab G‘arb faylasuflari va diniy ulamolarning aksariyatida uni rahm-shafqat va muhabbat bilan aynanlashtirish yoki chambarchas aloqadorlikda qarash kuzatiladi. Ushbu tushunchaning mazmuniga doir fikrlar rus va ingliz tillarida “miloserdie/charity” (rahm, shafqat), “blagosklonnost/kind” (xayr, yaxshilik istash) yoki “lyubov/love” (sevgi, muhabbat) kabi atamalar orqali ifoda etilishi fikrimiz dalilidir. Rus manbalarida “mehr” tushunchasi ko‘proq “dobrata” degan so‘z bilan ifodalanishini ham kuzatish mumkin. Mehr milliy va jahon dinlari paydo bo‘lishi bilan muqaddas norma sifatida qaror topgan. Xristianlik dini mehrni qiyin vaziyatda qolgan kishilarga yordam ko‘rsatish, ularga xayr-ehson qilish ko‘rinishida bayon etgan bo‘lsa, keyinchalik yangi Evropa axloqiy falsafasida u boshqalarga yaxshilik istash, oqko‘ngillik ma’nosida ishlatiladi. XX asr falsafiy-madaniy kontekstida esa u muloqot shakli sifatida qo‘llanila boshladi. Umuman, mehr o‘z tuzilishiga ko‘ra, birinchidan, o‘zgaga nisbatan uni tushungan va qayg‘usiga sherik bo‘lgan holda o‘ziga xos yondashish; ikkinchidan, o‘zganing saodati, manfaati yo‘lida tashabbuskor harakat qilish kabi ikkita zaruriy komponentni o‘z ichiga oladi. Unga inson xulq-atvorining ma’naviy va aniq-amaliy jihatlarining birligi deb qarash kerak. SHu ma’noda, mehr individual madaniy tajriba, “o‘z yaqinlariga muhabbat” hissiy-psixologik holatining turli yordamlarda ko‘rinadigan amaliy ifodasi sifatida tasavvur etiladi. Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karim “mehr” so‘zi bilan boshlanib, bu so‘z mazkur manbaada 722 marta takrorlanadi. Qur’onda “Olloh - mehribonlarning mehribonrog‘idir” yoki “Rahmatim mehribonligim hamma narsadan kengdir” degan fikrlar keltiriladi.

Mehrni ifodalashga va izohlashga xizmat qiladigan badiiy ijod hamda uning ilmiy tahlili xulosalarida ham shunday yondashuv kuzatiladi. YA’ni, SHarqda qadimdan quyoshni “mehr” deb atashgani, bu ularga umid bag‘ishlagani, hayotini muayyan ma’no va mazmun bilan boyitgani asos qilib olinadi. Masalan, Alisher Havoiy asarlarida ham mehr ishq, muhabbat, jamol, yorug‘lik, porloqlik, quyosh ma’nolarida ishlatiladi:

Zohir o‘lub tavrida osori mehr,
Aylar edi har nafas izhori mehr.
Mehmonning mehrin asragil jon ichra,
Ne’mat qalin ayla xoni ehson ichra[8].

“Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonining markazida inson degan buyuk zot turadi. Inson – yorug‘ dunyoning mo‘‘jizasi. Uni YAratgan butun er yuzidagi hayvonlarga, o‘simliklarga, er usti va er osti boyliklariga ega qilib yaratdi. Yigirmanchi maqolatning 64-bobida insonni ulug‘lash, undagi imon tuyg‘usini poklash, turli illatlardan xoli qilish maqsadi xususida aytilgan. Adolat, rostgo‘ylik, himmat, andisha, vafo, ilm, hunar, yaxshilik, vatanni sevish, xalq xizmatiga tayyor turish, mehnatni ulug‘lash, ta’madan uzoqda bo‘lish, do‘stga hamdardlik kabi fazilatlarni jismiga singdirgan odam, shoir falsafasiga ko‘ra, o‘zini “Men insonman”, deyishga haqlidir”[9]- degan fikrni keltiradi.

“Alisher Navoiy o‘z zamondoshlarini, o‘z o‘quvchilarini, qo‘yingki, keyingi avlod vakillarini inson bo‘lib dunyoga kelganliklariga munosib bo‘lishga, jaholatga berilib, odam qiyofasidagi hayvonga aylanib qolmaslikka chaqiradi”[10].

“Navoiy odamlarni avvalo yaxshilarga yaqinlashmoqqa chaqiradi. U odam bolasi mehribondir, yaxshilar, ishchan, tajribali kishilar bilan yaqinlashmog‘i kerak, deb maslahat beradi”[11].

Mehr so‘zi pozitiv ma’nodagi, insonning hissiy sensitiv[12] munosabatlarini bildiruvchi tushuncha sifatida kelishini ifodalaydi. Ayni paytda, mehrning hissiy tuyg‘u sifatidagi shakllari, yuzaga kelish va namoyon bo‘lish, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarda amal qilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar haqida tizimli javoblarni topolmaymiz.

Tadqiqotchi B.Karimovning fikricha “Inson tug‘ilgan zahoti ota-onaning mehrini tuyadi. Ulg‘aygan sari atrofdagilarning mehr-muhabbatidan bahramand bo‘lishi tufayli insonni har qanday qiyinchiliklardan olib o‘tadigan kuchga aylanadi. SHu tariqa bola mehr hissining ilk shakllarini ona bag‘ridaligida his etadi. Onaning bola tug‘ilgan zahoti birinchi bo‘lib mehrini berishi tabiiy asoslarga ham ega deb hisoblash mumkin. Onada irsiyat orqali o‘tgan mehr ma’lum ma’noda bolaga meros bo‘lib o‘tadi. Lekin falsafada aytilishicha, “nimaiki me’yordan oshsa o‘zining aksiga aylanadi”[13].

Mening fikrimcha, “mehr” falsafiy-axloqiy kategoriya bo‘lib, insonning borliqqa nisbatan eng samimiy va yuksak tuyg‘usi sifatida irratsional, shu bilan birga, aql qarori bilan qabul qilinadigan rotsional munosabat hisoblanadi. Mehr individual, oilaviy, etnik birligini, maqsad hamda manfaatlarni amalga oshirishda ezgulik yo‘lidagi ijtimoiy munosabatdir.

Mehr barcha ijtimoiy munosabatlarda u yoki bu darajada amal qiladigan insoniy tuyg‘u sanaladi. Turli hayotiy vaziyatlarda u yoki bu ishni “mehr bilan bajarish”, har qanday munosabatda “mehr bilan yondashish”ni qiyinchiliksiz amalga oshirish uchun uni ilmiy-falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil etish zarur.

Mehr-muruvvat his-tuyg‘ulari vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg‘ulari zamirida va aksincha mehr-muruvvat his-tuyg‘ulari zamirida vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg‘ulari paydo bo‘ladi[14]. Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg‘ularini shakllantirish yoshlar ma’naviy-ahloqiy tarbiyasining muhim jihatlari sifatida muhim ahamiyatga ega. Bunda ota-onaning bolaga bo‘lgan mehr-muhabbati hamda shaxslararo munosabatlarda o‘zaro muomala, muloqot va munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi. “YOshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mustahkam iroda, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish”[15] bugungi kunning dolzarb vazifasi sanaladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, inson hayoti buyuk bir tuyg‘u bilan ustuvorki, uni mehr tafti deb aytishadi. Bu jumlaning zamirida “Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi” kabi hikmat yotadi. “Duo ol” deyilganda, ko‘ngil nazarda tutiladi. Sababi ko‘ngil isisa, mehr uyg‘onadi. Mehr tushgan joy – muqaddas hisoblanadi. Bu muqaddas joyga nisbatan yovuz niyat, yomon so‘z aytilmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild - Toshkent: O‘zbekiston. NMIU, 2017. - B. 126.
2. Mirziyoev SH.M. YAngi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 27.
3. Progress. (lot. progressus — oldinga harakatlanish) — rivojlanishning quyidan yuqoriga boradigan yo‘nalishi.
4. Q.Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. - Toshkent: Ma’naviyat, 2019. - B. 792.
5. Q.Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. - Toshkent: Ma’naviyat, 2019. - B. 792.
6. Q.Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. - Toshkent: Ma’naviyat, 2019. - B. 792.

7. Q.Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. - Toshkent: Ma’naviyat, 2019. - B. 792.
8. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati.Tom № 2. Toshkent: Fan, 1983. – B. 300.
9. Madaev Omonulla. Navoiy suhbatlari. – Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2018. – B.166.
10. Madaev Omonulla. Navoiy suhbatlari. – Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2018. – B.167.
11. Qayumov Aziz. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar. – Toshkent: SHarq, 2014. - B.164.
12. Sensitiv. lotincha “sensitiv” — “sezgilar bilan idrok qilinadigan” degan ma’noni anglatadi.
13. Karimov B.SH. Formirovanie sotsialnыx mexanizmov miloserdiya v semyax Uzbekistana // Vestnik interaktivnoy psixologii. – Moskva: 2019. – S. 194 - 200.
14. Otavalieva O‘. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his- tuyg‘ularini shakllantirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.- Samarqand, 2007. – B. 4.
15. Mirziyoev SH.M. YAngi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 291.
16. Bozorova, R. SH. (2020). EKOLOGIK TARBIYA-INSON MA’NAVIYATINING ASOSI. In Effektivnost primeneniya innovatsionnыx texnologiy i texniki v selskom i vodnom xozyaystve (pp. 539-541).
17. Bozorova, R. S. (2020). FORMATION OF MUTUAL LOVE ATMOSPHERE IN THE FAMILY IS THE KEY TO THE DEVELOPMENT OF SOCIETY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(9), 171-178.
18. Zaripova, G. K., & Ramazonov, J. J. (2019). Informatsionnaya bezopasnost (obyazannosti). Nauchnыe issledovaniya, (1 (27)).
19. Ramazonov, J. J. (2021). The role of self-governance in providing personal perfection. Scientific progress, 2(2), 1075-1078.
20. Ramazonov, J. (2021). Reflexive Mechanism-As The Main Form Of Controlling Students' Pychological Conditions. Sentr Nauchnыx Publikatsiy (buxdu. uz), 7(7).
21. Ramazonov, J. J. (2021). O‘zini o‘zi idora qilish ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida. Scientific progress, 2(4), 306-314.

22. Djalolovich, R. J. (2021). O‘zini o‘zi idora qilish ijtimoiy psixologik muammo sifatida. Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 1(4), 51–57. Retrieved from http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/169
23. Safarov, T. (2021). A General Description Of The Trade Routes And Relations Of The Central Asian Khanates With Neighboring Countries. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 9-15.
24. Muxamedjanova, L. P., SHukrullaevv, YU. A., & Safarov, T. T. (2020). Buxara v konse XVIII i v nachale XX veka. Buxara Izdaniya “Durdona.
25. Zaripova, G. K., & Ruzieva, K. I. (2018). Ispolzovanie interaktivnыx metodov v protsesse obucheniya studentov kompyuternым texnologiyam. Problemы pedagogiki, (7 (39)).

УДК: 930.85

ИСТОРИЯ КУЛЬТУРЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРИОД 2017-2021гг.

Ходжаева Санобар Насруллаевна -Ассистент кафедры социально-гуманитарных наук, физической культуры и спорта Бухарского института управления природными ресурсами Национального исследовательского университета “ТИИИМСХ”.sanobarkhodjayeva75@gmail.com.

Аннотация.В статье приводится анализ комплекса мер направленных на дальнейшем развитии национальной культуры Узбекистана, создании новой истории нашей страны, повышении духовно-образовательного уровня и знаний нашего народа, сохранении и популяризации материального и нематериального культурного наследия, введение активной интеграции в мировую культуру, укрепление материально-технической базы учреждений культуры, поддержку представителей сферы культуры.

Ключевые слова:реформа, культура, искусства, объектов культурного наследия, ЮНЕСКО, театр, кино, музей, кинофестивал

UDC: 930.85

HISTORY OF CULTURAL CHANGES IN UZBEKISTAN IN 2017-2021

Khodzhaeva Sanobar Nasrullaevna - Assistant of the Department of Social and Humanitarian Sciences of the Bukhara Institute of Natural Resources

Management of the National Research University "TIIAME".
sanobarkhodjayeva75@gmail.com.

Abstract. The article describes the further development of the national culture of Uzbekistan, the creation of a new history of Uzbekistan, raising the spiritual and educational level and knowledge of our people, preservation and promotion of tangible and intangible cultural heritage, active integration into world culture, strengthening the material and technical base of cultural institutions. , an analysis of a set of measures aimed at supporting representatives of the cultural sector

Key words:reform, culture, art, cultural heritage sites, UNESCO, theatre, cinema, museum, film festival

В стране за последние 5 лет наряду с другими сферами уделяется особое внимание и развитию культуры, реализуется комплекс мер направленные на дальнейшее развитие национальной культуры Узбекистана, создание новой истории Узбекистана, повышение духовно-просветительского уровня народа, сохранение и популяризацию объектов материального и нематериального культурного наследия, обеспечение активной интеграции в мировое культурное пространство, укрепление материально-технической базы учреждений культуры и искусства, поддержку представителей сферы культуры.

Импульс новым свершениям, изменениям и реформам в сфере культуры, безусловно, внесли постановления Президента «Об утверждении Концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан»[1], «О мерах по коренному совершенствованию деятельности в сфере охраны объектов материального культурного наследия»[2], «О мерах по совершенствованию деятельности Министерства культуры Республики Узбекистан»[3] и Указ «О мерах по дальнейшему повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества»[4].

Основными задачами вышеуказанной Концепции определены совершенствование нормативно-правовой базы, сохранение исторического и культурного наследия, доведение до сознания молодежи национальных и общечеловеческих ценностей, сохранение этнических культурных традиций, широкое внедрение современных ИКТ в сферу культуры, организация и развитие взаимоэффективных

международных отношений в сфере культуры, рассмотрение национальной культуры как неотъемлемой части мировой культуры, обеспечение полноценной деятельности учреждений культуры и искусства, дальнейшее укрепление их материально-технической базы, налаживание общественного контроля за сохранностью объектов культурного наследия.

Также в целях повышения эффективности правового регулирования принят Закон «О культурной деятельности и организациях культуры» [5]регламентирующий отношения в сфере культурной деятельности, а также деятельности организаций культуры. При этом, следует отметить, что до принятия данного закона правовые отношения в области культурной деятельности регулировались несколькими нормативно-правовыми актами, в частности законами «О вывозе и ввозе культурных ценностей»[6], «О музеях»[7], «Об охране и использовании объектов культурного наследия»[8] и множеством подзаконных актов.В рамках реформирования сферы утверждена программа реновации музеев, а «Хорезмский танец – лазги», являющийся образцом древнего и неповторимого искусства узбекского народа, внесен в Репрезентативный список ЮНЕСКО нематериального культурного наследия человечества. Образованы Общественный фонд по поддержке творческих деятелей Узбекистана «Илхом», Фонд развития культуры и искусства при Министерстве культуры, Союз композиторов и бастакоров Узбекистана, Государственная филармония Узбекистана, Ферганский региональный филиал Государственного института искусств и культуры Узбекистана.

В свою очередь, проведение 10-15 сентября 2019 года в городе Коканде первого Международного фестиваля народно-прикладного искусства под эгидой ЮНЕСКО, присвоение Международной организацией ремесленников городу Коканду статуса «Города ремесленников мира» свидетельствует о высоком признании узбекского народно-прикладного искусства на международном уровне.

Особого внимания заслуживает проведение международных фестивалей искусства макома в Шахрисабзе и искусства бахши в Термезе, форумов «Шелк и приправы» в городе Бухаре и «Праздника атласа» в Маргилане, участие в этих мероприятиях зарубежных деятелей культуры и искусства из многих стран мира, а также ученых

и специалистов, известных своими научными трудами и практической деятельностью в сфере ремесленничества. Данные мероприятия не только создали уникальные площадки для отечественных представителей сферы, но и обратили внимание мирового сообщества на творцов и саму страну.

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества» деятельность по сохранению и использованию объектов нематериального культурного наследия (дорбоз, аския и лапар) введен в Перечень видов деятельности (услуг, работ), по которым выдаются временные трудовые удостоверения самозанятым гражданам.

Данным же документом отменены сборы, взыскиваемые за выдачу разового разрешения на проведение концертно-зрелищных мероприятий и требования получения разрешений на проведение массовых зрелищных мероприятий, проводимых передвижными цирками. А начиная с сентября 2020 года в государственных музеях первое воскресенье каждого месяца объявлено «Днем открытых дверей», где граждане бесплатно допускаются в государственные музеи к музейным предметам и музейным коллекциям.

В целях дальнейшего укрепления национального самосознания и расширения мировоззрения соотечественников путем глубокого изучения древней и богатой истории нашей Родины, активизации научно-исследовательской работы в данном направлении, воспитания молодого поколения на основе национальных ценностей и уникального духовно-нравственного наследия наших предков с 1 сентября 2019 года запущен телеканал «O‘zbekiston tarixi», задачами которого определено широкое информирование населения страны, а также зарубежной общественности о древней и богатой истории Узбекистана, насчитывающей многие тысячелетия.

Возрожден проводивший ежегодно в Узбекистане в 1968 — 1997 годах Ташкентский международный кинофестиваль стран Азии, Африки и Латинской Америки, который прошел с 28 сентября по 3 октября 2021 годав столице под названием Ташкентский международный кинофестиваль «Жемчужина Шелкового пути». Почетными гостями кинофестиваля были известные звезды мирового и отечественного кино и эстрады.

В последние 5 лет уделяется также особое внимание финансированию сферы культуры, к примеру если в 2016 году бюджетные средства выделенные на ремонт, реставрацию и консервацию объектов культурного наследия составляли 22,8 млрд.сум, то в 2021 году выделено 73,5 млрд.сум (рост в 3,2 раза) или для производства кинофильмов по государственному заказу в 2016 году составляло 10,3 млрд.сум, то в 2021 году их сумма возросла почти в 8 раз и составила 81,4 млрд.сум[9].

Бюджетные средства выделенныедля финансирования отдельных мероприятий в сфере культуры, млн.сум.

Также уделяется внимание на строительство и ремонт объектов культуры, для этих целей только в 2020-2021 годах из государственного бюджета выделено свыше 160 млрд.сум, что позволило улучшить облики укрепить материально-техническую базу 34 центровкультуры, 6 театрови 20 музеев.

Подводя итог, необходимо отметить, что созданные условия в сфере культуры и искусства позволили повысить активность населения, которое потверждается ростом числа посещений музеев с 5371,2 тыс. в 2016 году до 7777,8 тыс. в 2019 году (в 2020 году из-за введенных в стране карантинных ограничений в связи с пандемией посещения составили 1515,8 тыс.), концертов и театров с 4194,5 до 5467,6 тыс.посещений.

Говоря о сохранности объектов культуры, за последние пять лет мы стали свидетелями того, что значительно выросла гражданская позиция общества по отношению к сохранению историко-культурного наследия. Граждане страны, начали реагировать на снос исторических зданий, постройку многоэтажных домов в исторической части города. Возрос общественный контроль, что является в целом показателем формирования гражданского общества в стране.

Несмотря на это, важно создать систему по доведению в общественное сознание ценности историко-культурного наследия особенно начиная с младшего возраста. В этом плане целесообразно разработать и обеспечить образовательные учреждения, в том числе дошкольные, общеобразовательные и высшие образовательные учреждения литературой информирующей ценность историко-культурного наследия, так как сохранение историко-культурного наследия сегодня стало важным ориентиром политики современных стран в мире.

В результате широкого общественного обсуждения на основе принципа «От Стратегии действий – к Стратегии развития» была разработана Стратегия развития Нового Узбекистана, состоящая из семи приоритетных направлений на 2022-2026 годы.В 76-цели данной стратегии отмечены мероприятие по дальнейшему развитию сфер культуры и искусства, улучшение материально-технической базы учреждений и объектов культуры. В том числе:

Материальная поддержка и улучшение условий жизни представителей сферы культуры и искусства, творческих работников, а также профессоров-преподавателей и работников, осуществляющих деятельность в данной сфере.

Развитие театрального искусства и укрепление его материально-технической базы.

Психик холатларнинг ўзини ўзи идора қилиш структураси қуйидаги даражаларда ифодаланади: физиологик (организмнинг фаол келгуси фаолиятга мослашишини таъминлаш); психофизиологик (тананинг физиологик функциялари, фаровонлик, рухий жараёнларнинг фаолияти ўзгариши); психологик (психик холатларни идора қилиш, унинг сабабларини ва хаётдаги ролини англаш); ижтимоий-психологик (шахснинг психик холатларини идора қилишнинг ижтимоий нормалари, кадриятлари, урф- одатлари). Физиологик даражада харакат ва тана, унинг барча тизимлари (нафас олиш, юрак-кон томир, мушак, эндокрин, ва хоказо) ни таъминлаш: талаба-ёшларнинг психик холатларини ўзини ўзи идора қилишни шакллантириш психологик механизмларидан фойдаланиш оркали амалга оширилади. Психик холатларни ўзгартириш билан боғлиқ келгуси фаолияти учун; психофизиологик даражада харакат ва асаб, хиссий стресс ва рухий холатини ўзгартириш, мушаклар ихтиёрий енгиллик хис қилса; психологик даражада харакат қиладиган ва талаба-ёшларни психик холатларини идора қилишга ундайдиган мотивацион механизм; ижтимоий-психологик даражада харакат қиладиган ва талаба-ёшларнинг психик холатларини идора қилишга қаратилган харакатларининг қўшимча маъносини ўзгартириш ва яратишга хисса қўшадиган иродавий механизм; рефлексив механизм, бу ўзини ўзи идора қилишнинг барча даражаларида ишлайдиган ва талаба-ёшларнинг психик холатлари ва харакатлари, рефлексив тахлил жараёнида уларни қайта бахолаш, идора қилиш ва ўзгартириш хақида ўзини ўзи идора қилишни таъминлайдиган асосий механизмдир. Талаба-ёшларда психик холатларнинг ўзини ўзи идора қилишнинг самарали шаклланишига муносабатлардаги рефлексив, мотивацион ва иродавий каби психологик механизмлар орқали эришилади ва салбий психик холатларнинг оғирлигини

камайтиришга ва талаба-ёшларнинг ижобий психик холати даражасини оширишга ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Аристотел “Рух тўгрисида”
2. Эргаш Гозиев, “Умумий психология”. Тошкент 2002,
3. Моросанова, В.И. Личностные аспекты саморегуляции произвольной активности человека [Текст] / В.И. Моросанова // Психологический журнал. - 2002.-Т. 23.-№6.-
4. Моросанова, В.И. Стилевые особенности саморегуляции личности [Текст] / В.И.Моросанова И Вопросы психологии. -1991. - №1. - С. 121 — 127.
5. Моросанова, В.И. Стилевая саморегуляция поведения человека [Текст] / В.И.Моросанова, Е.М. Коноз // Вопросы психологии. - 2000. - № 2. - С. 118 — 127.
6. Зарипова, Г. К., & Рамазонов, Ж. Ж. (2019). Информационная безопасность (обязанности). Научные исследования, (1 (27)).
7. Ramazonov, J. J. (2021). THE ROLE OF SELF-GOVERNANCE IN PROVIDING PERSONAL PERFECTION. Scientific progress, 2(2), 1075-1078.
8. Рамазонов, Ж. Д. (2021). ЎЗИНИ ЎЗИ ИДОРА ҚИЛИШ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА. Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали, 1(4), 51-57.
9. Ramazonov, J. (2021). Reflexive Mechanism-As The Main Form Of Controlling Students' Pychological Conditions. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7
10. Рамазонов, Ж. Ж. (2021). ЎЗИНИ ЎЗИ ИДОРА ҚИЛИШ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Scientific progress, 2(4), 306-314.
11. JALOLOVICH, R. J. (2021). TALABA-YOSHLARDA O ‘ZINI O ‘ZI IDORA QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 2(3), 123-133.
12. Рамазонов, Ж. Ж. (2020). ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР Трансформациялашувининг Ижтимоий Психологик Хусусиятлари. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 594-596).

13. Рамазонов, Ж. Ж., & Абдуахадов, А. А. канд. пед. наук, доцент БГУ, г. Бухара, Узбекистан E-mail: baqtria@ mail. ru. АКАДЕМИЧЕСКАЯ ПУБЛИЦИСТИКА, 16.
14. Исматова, Д., Кадырова, Х. А., & Каримов, Б. Ш. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ 2019 Выпуск 19.
15. Каримов, Б. Ш. (2021). МЕҲР–МУВАФФАҚИЯТ ОМИЛИ. Журнал Социальных Исследований, 4(1).
16. Бекмуродов, М. Б., & Каримов, Б. Ш. (2021). МЕҲР ТУШУНЧАСИНИНГ ижтимоий муносабатларни консенсус даражасида юксалтиришдаги роли. журнал социальных исследований, (special issue

UO'T: 930.85

ЎЗИНИ ЎЗИ ИДОРА ҚИЛИШМОТИВАЦИЯСИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ЭМПИРИК АСОСЛАРИ.

Рамазонов Жаҳонгир Джалолович Бухоро давлат университети таянч докторанти. E-mail: ramazonov2020@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақолада ўзини-ўзи идора қилишмотивацияси шаклланиши, ўзини-ўзи бошқариш ва такомиллаштириш, ўзини-ўзи кўлга олиш,ўзини-ўзи идора қилишижтимоий-психологик феноменини, ўзини-ўзи тарбиялашнинг ижтимоий психологик хусусиятлари хусусидаги назарий ҳамда амалий масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: руҳий жараёнлар,хулқ-атвор, ўзини-ўзи идора қилиш,мотивацияси,рефлектор, руҳий ҳолатлар,ижтимоий муносабатлар.

UDC: 930.85

EMPIRICAL BASIS OF MODELING MOTIVATION OF SELF-GOVERNANCE.

Ramazonov Jahongir Djalolovich-Basic doctoral student of Bukhara State University. E-mail: ramazonov2020@mail.ru

Annotation: This article covers the theoretical and practical issues of the formation of motivation for self-government, self-management and improvement, self-discovery, the socio-psychological phenomenon of self-government, the socio-psychological features of self-education.

Keywords: mental processes, behavior, self-management, motivation, reflector, moods, social relationships.

Ўзини ўзи идора қилиш шахснинг муҳим жиҳати бўлиб, инсонга ўз хулқ-атворини бошқариш имконини беради. Ўзини ўзи идора қилиш яхши ривожланган шахс ўз ҳисларини ақл измига буйсундиш, турли кўринишдаги вазиятларда аниқ қарор қабул қилиш каби хусусиятларга эга бўлади. Бундан ташқари Ўзини ўзи идора қилиш орқали субъект ўзининг эмоционал ҳолатини назорат қилиб туради. Ўрганилган илмий манбалар асосида талаба-ёшларда қуйидаги хусусиятларнинг устунлик қилиниши тадқиқотимизнинг психокоррекцион дастурини яратишда асос сифатида хизмат қилди. Яъни,

– билимлар, қўникмалар ва малакалар эгаллашдаги индивидуаллик;
– фаолият индивидуал услубининг пайдо бўлиши;
– касбий мотивациянинг устуворлиги;
– маънавий эҳтиёжнинг, барқарор қизиқишнинг қатъиян этакчилиги;
– мутахассисликка муносабатнинг шахсий позицияга бўйсунганлиги;
– олий мактаб муҳити ўзига хослигининг улар шахсиятида ифодаланиши;
– амалиётга ва муҳитга мослашишнинг сифат жиҳатидан тафовутланиши.

Талаба-ёшлардаги ушбу хусусиятлар орқали биз олинган дастлабки эмпирик маълумотлар асосида психокоррекцион ишларни олиб бордик.

Талаба-ёшларда иродавий сифатлар ўртасидаги интеркорреляцион боғланишлар (n=310)

1-жадвал

Шахс иродавий сифатлари	масъулият-лилик	ташаббус-кордлик	журъат-лилик	мустақил-лик	матонат-лилик	қатъият-лилик	ғайрат-лилик	эътибор-лилик	мақсадга интилув-чанлик
масъулият-лилик	1	0,22	0,12	0,03*	0,30*	0,11	1,01	0,40*	0,12**
ташаббус-		1	0,12	0,41	0,10	0,42	0,30	0,02	0,69

корлик									
журъатлилик			1	0,72**	0,79**	0,22**	0,63	0,93**	0,36
мустақиллик				1	0,56*	0,62**	0,30	0,68**	0,03
матонатлилик					1	0,67**	0,34	0,33**	0,29*
қатъиятлилик						1	0,61	0,82**	0,14
ғайратлилик							1	0,19	0,06
эътиборлилик								1	0,36*
мақсадга интилувчанлик									1

Дастлабки иродавий сифат ҳисобланган маъсулиятлилик мустақиллик (r=0,03; p≤0,01), матонатлилик (r=0,30; p≤0,01), эътиборлилик (r=0,40; p≤0,01), мақсадга интилувчанлик (r=0,12; p≤0,01) орасида ўзаро корреяцион боғлиқлик мавжудлиги аниқланди. Бу эса ўз навбатида талаба-ёшларда маъсулиятлилик сифати қанчалик юқори бўлса, мустақиллик, матонатлилик, эътиборлилик ва мақсадга интилувчанлик хусусиятлари ҳам шунчалик юқори бўлар экан.

Иродавий сифатлардан журъатлилик мустақиллик (r=0,72; p≤0,01), матонатлилик (r=0,79; p≤0,01), қатъиятлилик (r=0,22; p≤0,01) ва эътиборлилик (r=0,93; p≤0,01) каби муҳим иродавий хусусиятлар билан ўзаро алоқадорликка эга. Натижалардан кўринадики, ўз олдига мақсад қўйиб, унга томон интилишда юзага келадиган қийинчиликлар ҳамда фаолиятда, турли ҳаётий вазиятлардаги тўсиқларни енгиб ўтишда талаба-ёшлар шахсидан журъатлилик талаб қилинади. Шу туфайли талаба-ёшларда журъатлиликнинг намоён бўлиши унда мустақиллик, матонатлилик, қатъиятлилик, эътиборлилик каби иродавий сифатларнинг юқори даражада ривожланишини тақозо этади.

Журъатлилик сифати талаба-ёшлик даври учун хос бўлиб, у турли фаолият, хатти-ҳаракатларни амалга ошириш, зиммага юклатилган

вазифани сидқидилдан бажаришда намоён бўлади. Журъатлилик тушунчаси кўпгина муаллифлар томонидан турлича тавсифланади. Аксарият ҳолларда журъатлилик вазиятнинг аҳамиятлилик даражасини англаш ва қарор қабул қилишга сарфланадиган вақтга боғлаб таърифланади. Е.П.Ильиннинг таъкидлашича, айрим олимлар журъатлиликни ҳеч бир иккиланиш ва шубҳаларсиз қарор қабул қилиш, деб тушунтирадилар.

Е.П.Ильиннинг таъкидлашича, журъатлилик-бу шахснинг ўзи учун муҳим бўлган вазиятда тезкор қарор қабул қилиш қобилиятидир. Журъатлиликнинг асосий тавсифномаси натижа қандай бўлишидан қатъи назар, ўйлаб кўрган ҳолда қарорни қабул қилишдир [1].

Натижалардан мустақиллик сифатининг журъатлилик (r=0,72; p≤0,01), қатъиятлилик (r=0,62; p≤0,01) ва эътиборлилик (r=0,68; p≤0,01) билан юқори даражада ҳамда матонатлилик (r=0,56; p≤0,05) билан паст кўрсаткичда боғлиқлигини кўришимиз мумкин. Бундан кўринадики, мустақилликнинг шаклланиши талаба-ёшларнинг ўз олдига қўйган мақсадлари ва уларни амалга оширишга нисбатан унинг эътиборли муносабатда бўлиши билан боғлиқдир. Таъкидлаш жоизки, мустақиллик талаба-ёшнинг ижобий хислати бўлиб, у фаолиятга нисбатан кучли интилишда намоён бўлади.

Психологик луғатда мустақиллик шахснинг муайян ақлий, ахлоқий ёки амалий масалаларни ҳал қилишда, айниқса, мураккаб вазиятни баҳолаш ва мақсадга мувофиқ йўлни танлашда ўзининг мустақил фикрлари, тамойиллари ҳамда эътиқодига эга бўлишидан иборат иродавий характер хислати сифатида тавсифланади[2].

Иродавий сифатларнинг навбатдагиси ҳисобланган матонатлилик хусусияти ўз навбатида масъулиятлилик (r=0,30*; p≤0,05) журъатлилик (r=0,79*; p≤0,05), мустақиллик (r=0,56*; p≤0,05) сифатлари билан ўзаро корреляция берди. Талаба-ёшларда матонатлилик сифатининг шаклланишида журъатлилик, қатъиятлилик, эътиборлилик каби иродавий сифатларнинг ривожланган бўлиши муҳимдир.

Психологик луғатга кўра, матонатлилик бу – шахс ўзининг салбий эмоционал ҳолатларини бошқариши, импульсларни, ўйланмаган эмоционал реакцияларни, низоли вазиятларда агрессив хатти-ҳаракатларга бўлган истакларни босиб туришдир.

Натижаларда қатъиятлилик сифатининг журъатлилик (r=0,22; p≤0,01), мустақиллик (r=0,62; p≤0,01) ва матонатлилик (r=0,67; p≤0,01) каби

иродавий сифатлар билан юқори даражада мутаносиблигини кўришимиз мумкин.

Қатъиятлилик – бу шахснинг қийинчилик ва тўсиқларга қарамасдан узоқни кўзлаган мақсад сари интилишида юзага келувчи "ирода кучи"нинг узоқ вақт тизимли равишда намоён бўлишидир [3]. Бу шундан далолат берадики, қатъиятли шахсларда журъатлилик, мустақиллик ва матонатлилик сифатлари ҳам мужассам бўлар экан.

Талаба-ёшлардаги эътиборлилик бир вақтда кўпгина иродавий сифатлар билан ўзаро алоқадорликка эгадир. Жумладан, масъулиятлилик (r=0,40*; p≤0,05), журъатлилик (r=0,93; p≤0,01), мустақиллик (r=0,68; p≤0,01), матонатлилик (r=0,33; p≤0,01), қатъиятлилик (r=0,82; p≤0,01) каби иродавий сифатлар ва эътиборлилик ўртасидаги ўзаро алоқадорликнинг кучлилигини кўришимиз мумкин. Шунингдек, эътиборлилик мақсадга интилувчанлик сифати билан ҳам ўрта даражада (r=0,36; p≤0,01) ўзаро мосликдадир. Бу ҳолат мақсад сари интилишда Талаба-ёшлардан бажарилаётган ҳар бир ишга нисбатан синчков, эътиборли бўлиш талаб қилиниши билан изоҳланади. Шу боис, Талаба-ёшларда ўзлари томонидан бажараётган ишларига нисбатан жавобгарлик ҳиссини, бошлаган ишини охирига етказиш каби хусусиятларни шакллантириш лозим.

Эътиборлилик бу – шахснинг атрофдаги нарса ва ҳодисаларга, бошқа инсонларга ҳамда ўз шахсий кечинмаларига, таассуротларига нисбатан фаол муносабатда бўлиш қобилияти ҳисобланади.

Мақсадга интилувчанлик масъулиятлилик сифати билан юқори даражада (r=0,12; p≤0,01), матонатлилик (r=0,29*; p≤0,05), эътиборлилик (r=0,36; p≤0,05) сифатлари билан ўртача даражада мутаносиблиги тадқиқот натижаларидан аён бўлиб турибди. Олинган натижалардан кўринадики, талаба-ёшларда мақсадга интилувчанликнинг намоён бўлиши, аввало, масъулиятлилик билан, яъни зиммасига юклатилган вазифаларни ўз вақтида, талаб даражасида бажариш билан чамбарчас боғлиқ. Бу ҳолатни фаолият давомида бериладиган топшириқни бажаришда фаолликнинг зарурий даражада сақлаб турилиши масъулиятлилик даражасига боғлиқлиги билан тушунтириш мумкин.

Психологик манбаларда келтирилишича, мақсадга интилувчанлик шахснинг ўз хатти-ҳаракатларини барқарор ҳаётий мақсадларга

бўйсундира олишида, мақсад йўлида ҳамиша тайёр, қатъий бўлишида ифодаланадиган характер хислати ҳисобланади [4].

Олинган эмпирик натижалар асосида шуни таъкидлаш керакки, талаба-ёшлик даврида иродавий сифатлар ўртасида ўзаро алоқадорлик мавжуд бўлиб, улар фаолият жараёнида ўзаро бир-бирини тақозо қилади. Шунингдек, айрим иродавий сифатлар мустақил компонент сифатида намоён бўлиб, шахс характерига хос кўплаб хусусиятлар кўринишида намоён этилиши мумкин.

Ўзини ўзи назорат қилиш турлари билан иродавий сифатлар ўртасидаги алоқадорлик (n=310)

Ўзини ўзи назорат қилиш турлари	**Шахснинг иродавий сифатлари**								
	масъулиятлилик	**ташаббускорлик**	**журъатлилик**	**мустақиллик**	**матонатлилик**	**қатъиятлилик**	**ғайратлилик**	**эътиборлилик**	**мақсадга интилувчанлик**
ижтимоий-лашув жараёнида ўзини ўзи назорат қилиш	0,52**	0,12	0,89**	0,42**	0,08	0,01	0,22**	0,33**	0,56
эмоционал ҳолатларда ўзини ўзи назорат қилиш	0,38	0,10	0,92*	0,47**	0,53**	0,49**	0,30	0,21	0,57**
фаолият жараёнида ўзини ўзи назорат қилиш	0,37**	0,16**	2,43	3,36	1,46	0,78**	1,56	0,40**	0,73**

Олинган эмпирик маълумотлар асосида ўзини ўзи назорат қилиш турлари ва иродавий сифатлар ўртасида маълум бир корреляцион боғланишлар аниқланди. Жумладан, ижтимоийлашув жараёнида ўзини ўзи назорат қилиш билан масъулиятлилик (r=0,52; p≤0,01), журъатлилик (r=0,89; p≤0,01), мустақиллик (r=0,42; p≤0,01), ғайратлилик (r=0,22; p≤0,01), эътиборлилик (r=0,33; p≤0,01) сифатлари ўзаро боғлиқлиги аниқланди. Бу эса ижтимоийлашув жараёнида ўзини ўзи назорат қила оладиган талаба-ёшларда мазкур сифатлар маълум бир аҳамият касб этар экан.

Талаба-ёшлар шахсида эмоционал ҳолатларда ўзини ўзи назорат қилишнинг иродавий сифатлардан журъатлилик (r=0,92; p≤0,05), мустақиллик (r=0,47; p≤0,01), матонатлилик (r=0,53; p≤0,01), қатъиятлилик (r=0,49; p≤0,69) ҳамда мақсадга интилувчанлик (r=0,57; p≤0,01) кабилар билан алоқадорлиги аҳамиятли даражани ташкил қилади. Эмоционал жараёнлар ўз таркибига ижобий ёки салбий ҳисларни қамраб олганлиги сабабли, талаба-ёшлар эмоционал соҳасининг иродавий сифатлар билан боғлиқлиги яққол намоён бўлади. Ҳаётий вазиятларда шахс ўзининг эмоционал соҳасини назорат қилишида журъатлилик, яъни ҳар қандай қийинчиликларда ҳам жасорат кўрсата олиш, мустақиллик (шахснинг атрофдаги нарса ва ҳодисаларга нисбатан мустақил қараш, фикрга эгалиги), жавобгарлик ҳиссининг юқори даражадалиги каби хусусиятлар билан ўзаро алоқадорлиги маълум даражада юқори эканлигини кўришимиз мумкин.

Шунингдек, мақсадга интилувчанлик, матонатлилик, қатъиятлилик каби иродавий сифатлар ҳам шахснинг эмоционал ҳолатларини идора қилишини таъминловчи механизмлардан ҳисобланади. Шу боис, талаба-ёшларда юзага келадиган эмоционал зўриқишлар, аффектлар, стресс, хавотирланиш, қўрқув ҳолатларини енгиб ўтишда ироданинг у ёки бу сифати муҳим аҳамият касб этади.

Фаолият жараёнида ўзини ўзи назорат қилишнинг масъулиятлилик (r=0,37; p≤0,01), ташаббускорлик (r=0,16; p≤0,01), эътиборлилик (r=0,40; p≤0,01), қатъиятлилик (r=0,78; p≤0,01), мақсадга интилувчанлик (r=0,73; p≤0,01) каби хусусиятлар билан ўзаро узвий боғлиқлик акс этади. Талаба ёшлар шахсида ўзини ўзи назорат қилиш хусусияти ўз олдига қўйилган мақсад сари интилишда муҳим аҳамият касб этади.

Бевосита талаба ёшларнинг ўз мақсадларига эришишда иродавийлик, дадиллик, журъатлилик каби шахсий сифатларнинг ўрни муҳим ҳисобланади. Шунингдек ушбу иродавий сифатлар фаолият жараёнида ижтимоий характерга эга бўлиб, у шахслараро муносабатларда ва турли хилдаги техникалар билан ишлаш имкониятини оширади. Талаба шахсида иродавий сифатлар яхши шаклланган бўлса, у хар қандай фаолиятни ташкил қилишда ҳар қандай психологик тўсиқларни енгиб ўтади ва ҳам касбий фаолиятида ҳам шахсий фаолиятида жуда кўп ютуқларни қўлга киритиши шубҳасиз.

Юқоридаги илмий таҳлиллардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, талаба ёшларнинг иродавий сифатлари ўртасида ўзаро адекват муносабатлар шаклланган экан. Айни пайтда, масъулиятлилик, журъатлилик, мустақиллик, матонатлилик, қатъиятлилик, эътиборлилик, мақсадга интилувчанлик каби иродавий сифатлар ўртасида муҳим узвий боғлиқлик мавжуд экан. Фақатгина ташаббускорлик ва ғайратлилик хусусиятларининг бошқа иродавий сифатлар билан ўзаро алоқадорлиги кузатилмади.

Эмпирик натижалардан шундай хулосага келиш мумкинки, талаба-ёшлик даврида ўзини ўзи назорат қилиш ва иродавий сифатлар ўртасидаги алоқадорлик ўзига хос психологик хусусиятларга эгалиги билан тавсифланади. Талаба-ёшлик даврида ўзини ўзи идора қилишнинг шаклланиши бир қатор психологик омиллар билан боғлиқ. Жумладан, шахсда ўзини ўзи идора қилишнинг таркибий қисмлари ва темперамент хусусиятлари, шунингдек, эмоционал ҳолатлардан хавотирланиш ўртасида боғлиқлик мавжудлигини тахмин қилиш мумкин. Назаримизда, талаба-ёшлик даврида ўзини ўзи идора қилиш темпераментнинг реактивлик, ригидлик хусусиятлари ва хавотирланиш ҳолатлари билан қандай даражада алоқадорликка эга эканлигини ўрганиш муаммони кенг доирада таҳлил қилиш имконини беради.

Шахсий эмоционал ҳолатларга таъсир этиш профилактик характерга эга бўлиши мумкин. Шахс ҳақиқий имкониятларини ҳисобга олиб, бундай вазиятда ўзига хос таъсир этишнинг усуллари орқали эмоционал номувофиқликнинг олдини олишга интилади. Талаба-ёшлар эмоционал ҳолатлар ва шахс хусусиятларини назорат қилиш кўникмаларини шакллантириш керак. Бу эса талаба-ёшларда

кундалик фаолиятидаги ҳар бир ўзгаришларга нисбатан ақл билан мушоҳада қилган ҳолда ёндашиши талаб қилинади.

Тадқиқотнинг шакллантирувчи қисмида қўлланилган тренинг машғулотлари эмоционал ҳолатларни бошқариш ва эмоционал ҳолатларда ўзини ўзи идора қилиш жараёнлари ҳамда шахс хусусиятларини ривожлантиришга қаратилган. Тренинг машғулотлари якунлангандан сўнг синалувчи талабалар билан тегишли методикалар ёрдамида психодиагностик текширув қайтадан ўтказилди ва натижалар таҳлил қилинди.

Олиб борилган психокоррекцион ишлар давомида тўпланган маълумотларга асосланиб, қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

1. Шахснинг эмоционал ҳолатларда ўзини ўзи идора қилиш имкониятларини кучайтириш бевосита индивидуал-психологик хусусиятларнинг ривожлантирилиши билан боғлиқ бўлади.

2. Фаолият жараёнида ўзини ўзи назорат қилиш ижтимоийлашув жараёнида ўзини ўзи назорат қилиш билан узвий алоқадорликка эга, чунки фаолият талабларидан келиб чиққан ҳолда, ижтимоий жараёнда ўзини ўзи идора қилиш имконияти кучаяди ёки, аксинча, пасайиш ҳолати кузатилади.

3. Эмоционал ҳолатларда ўзини ўзи назорат қилиш методикаси бўйича тажриба ва назорат гуруҳларидан олинган эмпирик натижалар орасида ишончлилик даражаси мавжуд эканлиги аниқланди. Жумладан, тренинг натижаларидан сўнг талаба-ёшларда ижтимоий жараёнда ўзини ўзи идора қилиш жараёни нисбатан юқори эканлиги кузатилди.

Адабиётлар.

1. Ильин, -Е.П. Психология воли [Текст] / Е.П. Ильин. - СПб : Изд-во «Питер», 2000.-288 с

2. Психология. Словар / Под общ. ред А.В.Петровского, М.Т.Ярошевского. – 2-е изд, испр. и доп. – М.: Политиздат, 1990. – 494 с.

3. Анохин, П.К Очерки по физиологии функциональных систем [Текст] / П.К.Анохин. -М.: Медицина, 1975.-446 с.

4. Васильев, Н.А. Мотивация и контроль за действием [Текст] / И.А. Васильев, М.Ш. Магомед-Эминов. - М.: Изд-во МГУ, 1991. - 144 с.

5. Зарипова, Г. К., & Рамазонов, Ж. Ж. (2019). Информационная безопасность (обязанности). Научные исследования, (1 (27)).

6. Ramazonov, J. J. (2021). The role of self-governance in providing personal perfection. Scientific progress, 2(2), 1075-1078.
7. Ramazonov, J. (2021). Reflexive Mechanism-As The Main Form Of Controlling Students' Pychological Conditions. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz), 7(7).
8. Рамазонов, Ж. Ж. (2021). Ўзини ўзи идора қилиш ижтимоий-психологик феномен сифатида. Scientific progress, 2(4), 306-314.
9. Джалолович, Р. Ж. (2021). Ўзини ўзи идора қилиш ижтимоий психологик муаммо сифатида. Ижтимоий фанларда инновация онлайн илмий журнали, 1(4), 51–57. Retrieved from http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/169
10. Ramazonov Jahongir Jalolovich. (2021). Reflexive mechanism - as the main form of controlling students' pychological conditions. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(03), 34–36. Retrieved from https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/16
16. Ramazonov J.J. Reflexive Mechanism-As The Main Form Of Controlling Students' Psychological Conditions. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3(02), 379-382, 2021.
17. Jahongir Jalolovich Ramazonov. The role of self-governance in providing personal perfection Scientific progress // Scientific jurnal Vol#2, ISSUE#2, JUNE 2021.P:1075-1078. http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-2.%20179.%201075-1078.pdf
18. Рамазонов Жаҳонгир Джалолович. Талабалик даврида ўзини ўзи идора қилишнинг мотивацион механизимлари. Международная конференция академических наук. Scientific coferences platform. Г. Новосибирск 2021октябрь. http://doi.org/10.5281/zenodo.5576511 Б.26-30
19. Рамазонов Жаҳонгир Джалолович. Ўзини ўзи идора қилиш ижтимоий-психологик муаммо сифатида. Journal of Innovations in Social Sciences. //Volume:01, Issue: 04/ 2021. http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/ P.:51-57.
20. Рамазонов Жаҳонгир Джалолович. Талабалар таълим жараёнида ўзини ўзи идора қилишининг ижтимоий-психологик механизимлари. Образование и наука в XXI веке // Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск №14 (том 4) (Май, 2021). Дата выхода в свет: 35.05.2021. 794-800.

21. Рамазонов Жаҳонгир Джалолович. Талабалик даврида ўзини ўзи идора қилиш механизмлари. Ijodkor o'qituvchi // Ilmiy-uslubiy jurnal materiallari to'plami. 5-Iyun. 2021-yil. 7-son. 347-354-betlar
22. Рамазонов Жаҳонгир Джалолович. Ўзини ўзи идора қилиш психологик муаммо сифатида. «Педагогические и психолингвистические особенности развития, формирования и становления личности врача» // Международная научно-практическая конференция. https://us02web.zoom.us/j/81478649558?pwd=Z21iM2xnTjl4L28zSHduMGo4NDlNQT09 Самарқанд дата: 6.05.2021. 2021-1. Б.175
23. Jahongir Jalolovich Ramazonov. Talaba-yoshlarda o'zini o'zi idora qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Innovation in the modern education system: a collection scientific works of the International scientific conference (25th March, 2021) // – Washington, USA: "CESS", 2021. Part 4, Issue 1 – p.165. 173
24. Рамазонов Жаҳонгир Джалолович. Ўзини ўзи идора қилиш ижтимоий-психологик феномен сифатида. International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education // (IJDIIE) https://summusjournals.uz Vol. 3 No. 2 (2021): IJDIIE 153-158
25. Рамазонов Жаҳонгир Джалолович. Reflexive Mechanism - As The Main Form Of Controlling Students' Pychological Conditions. Emergent: Journal of Educational Discoveries end Lifelong learning, (EJEDL) // https://ejedl.academiascience.org Vol. 2 No. 2021. Pages: 34-36.

UO'T: 930.85

YANGI O'ZBEKISTON – YANGI KADRLAR YANGI OLIY TA'LIM TIZIMI: MUAMMO VA KREATIV YECHIMLAR

Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o'qituvchisi Bahronov Bahriddin Bo'rievich

Annotatsiya: YAngi O'zbekistonda yangi oliy ta'lim tizimiga doir qarorlar ishlab chiqilishi zamirida yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash, iqtisodiyot va xalq farovonligini oshirish maqsadi mujassamdir.

Kalit so'zlar:YAngi O'zbekistonda ,yangi oliy ta'lim ,tizim, muammo, kreativ muhim,yangilanish.

Har qanday jamiyat istiqbolini yuksak salohiyatli, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, innovatsion g‘oyalarni hayotga tatbiq eta oladigan, islohotlarga munosib hissa qo‘sha oladigan mutaxassislar belgilaydi. Keyingi o‘ttiz-qirq yilda jadal rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlardagi islohotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasida ta’lim tizimi birinchi o‘ringa qo‘yilib, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, salohiyatli mutaxassis tayyorlanishiga jiddiy e’tibor qaratilgan. YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimiga doir qarorlar ishlab chiqilishi zamirida yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash, iqtisodiyot va xalq farovonligini oshirish maqsadi mujassamdir. YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimidagi muammolarni kreativ echim topish orqali muhim yangilanishlarga erishiladi.

Aniq taklif va mulohazalar:

YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimi davlat standartlari ish beruvchining ehtiyoji orqali belgilanishi maqsadga muvofiq. Ta’lim mazmuni hukumat tomonidan nazorat qilinmay, oliy o‘quv yurtlari ixtiyoriy ta’lim darajasi bo‘yicha asosiy ta’lim dasturi va fan dasturini mustaqil qabul qilishi, talabaga semestr boshida har bir fan bo‘yicha fanning maqsadvazifalari, kiritilgan mavzular, baholash tizimi haqida aniq ma’lumot berilishi, fanlardan dars o‘tadigan professor-o‘qituvchi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi va talaba o‘qituvchini o‘zi tanlashini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu talabaning ham, o‘qituvchining ham mas’uliyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Ilmga intiluvchi fidoyi yoshlar ko‘p.

SHu bilan birga, uzluksiz ta’lim tizimidagi nomuvofiqlik, ya’ni ta’lim tizimida maktabning o‘rni yo‘qolishi, muallimning mavqei tushib ketishi, maktabning zaif bo‘g‘inga aylanishi, oliy ta’limga ana shu zaif bo‘g‘inlardan bilim va dunyoqarashi o‘ziga yarasha bo‘lgan yoshlar kirib kelishi, oliy o‘quv yurtlari ham ular darajasiga moslashishi, eng achinarlisi, qo‘shni davlatlar oliy ta’lim tizimida kirish imtihonlarisiz o‘qishga qabul qilingan talabalarning O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalariga o‘qishlarini ko‘chirishlari natijasida jamiyatga o‘z sohasi bo‘yicha zamonaviy ilmlardan bexabar, diplomi boru mutaxassislik ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan kadrlar tayyorlanishiga yo‘l qo‘yilmoqda. Kirish imtihonlarida shaffoflikka erishish va bu jarayonni yanada takomillashtirish orqali yo‘qotilgan mavqeni tiklash, jamiyatni etuk, ilg‘or fikrli mutaxassislar bilan ta’minlashga erishiladi. YAngi O‘zbekiston va xorij mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo‘lish uchun sifatli ta’lim muhimdir.

YAngi O‘zbekistonda yangi ta’lim tizimi uchun mustaqil fikr hamda keng dunyoqarashni shakllantirish, ta’lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so‘nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, talabaning ochilmagan qirralarini kashf etib, yangilik va ixtirolar yaratishga ruhlantirish maqsadga muvofiq.

YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim qisqa muddatda katta hajmdagi dasturni o‘zlashtirishni taqozo etadi. Masalan, bakalavriat bosqichida talaba oltmishga yaqin fanni o‘zlashtiradi. Eng achinarlisi, umumta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida o‘tilgan fanlar oliy ta’limda takror o‘qitilishidir. Buning o‘rniga mutaxassislik fanlari, tanlov fanlari, boshqaruv asoslari, muloqot pedagogikasi, nutq mahorati, iqtisodiy tahlil kabi fanlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. SHuningdek, bitta fan doirasi, masalan, falsafa (etika, estetika, mantiq, dinshunoslik, sotsiologiya)ga bir necha fanlarni “zip”lashtirish orqali sifat va samaradorlikka erishib bo‘lmaydi.

YAngi O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish, tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, iqtidorli talabalar ilmiy faoliyati natijadorligini oshirish, ilmiy izlanish olib borishlari uchun zarur sharoit yaratish, ta’lim jarayoniga innovatsion usullarni joriy etish, o‘quv dasturlarining ishlab chiqarish bilan hamohangligini ta’minlashni tizimli tashkil etish muhimdir.

4. YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini ko‘rsatuvchi yagona omil talabaning bilimi va kasbiy mahorati bo‘lishi shart. YUqoridan belgilangan o‘quv rejasi va fan dasturlari talabaning mustaqil izlanishi, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishiga imkon bermaydi. 50-60 varaq konspekt, mustaqil ish, kurs ishlari ko‘chirmachilikdan boshqa narsa emas, ya’ni kurs ishi, referatlar internet yoki kitobdan ko‘chiriladi. Muammoning echimini topish uchun mustaqil ta’limga alohida e’tibor qaratilib, talabaning mavzuni innovatsion yo‘nalish bo‘yicha takomillashtirishi va iqtidorini ko‘rsatishiga imkon yaratilishi kerak. 5. YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida asosiy e’tibor ta’lim samaradorligi va sifatiga qaratilishi, tartib va ta’lim mushtarak bo‘lishi shart. Oliy ta’lim tizimidagi majburiy tarbiya, masalan, qadri galstukdan past oliy ta’lim bilan taraqqiyotga ham, salohiyatga ham erishib bo‘lmaydi, 6. YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida ta’lim sifati talabalarning fanni o‘zlashtirishi va bilimdan qoniqish darajasi bilan belgilanishi, tizimda “akademik erkinlik” hukmron bo‘lishi, professoro‘qituvchi o‘zi o‘qitayotgan fan bo‘yicha (darslar mazmuni, o‘qitish usullari, baholash

turlari va ularga ajratilgan ballar, fanni o‘qitishda ishlatiladigan adabiyotlar va hakazo) mustaqil qaror qabul qilishi, darsga professor-o‘qituvchining ruxsatisiz hech kim (xoh hamkasbi bo‘lsin, xoh rahbariyat bo‘lsin) kirish huquqiga ega bo‘lmasligi, erkin sharoitdagi ta’lim sifati texnik vositalar yordamida nazorat qilinishi lozim.

YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida asosiy e’tibor talabalarning o‘z ustida ishlashi, ijodiy fikrlashi, muammoni tahlil qila olishi, nazariy bilimlarni aniq kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olishi kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi lozim. O‘qitishga ijodiy, kreativ va innovatsion yondashish orqali talaba o‘z ustida ishlab, qo‘shimcha ma’lumotlar qidiradi, mavzu haqida keng ma’lumotga ega bo‘ladi, innovatsion g‘oya asosida yangilik yaratishga intiladi. 8. YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida asosiy e’tibor sifat, sifat va yana sifatga qaratilishi shart. Talaba sifatli bilim olmasa, ta’lim sifatidan qoniqmasa, bu ta’lim jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan ta’lim muassasasi, o‘qituvchi, talaba, ota-onalar, jamiyat uchun jiddiy yo‘qotishdir. Uning o‘rnini qog‘oz va jadval bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Qog‘ozbozlik ta’lim sifati va samaradorligiga eng katta to‘siqdir. Talabalar bilimini baholashning reyting tizimini qayta ko‘rib chiqish lozim. Test talabaning malaka va ko‘nikma darajasini aniqlaydigan usul emas, lekin bugungi kunda test talabalar bilimini baholashning asosiy usuliga aylantirilgan.

Qabul imtihonlarida test tizimidan voz kechish vaqti keldi. Talabaning amaliy mashg‘ulot va ma’ruzada olgan bilimlari joriy va oraliq baholarda mujassamlashadi. Nizomga muvofiq, faqat yakuniy baho (joriy va oraliq jamlanmasdan) onlayn test orqali qo‘yiladi. Bu tizim o‘zini oqlamaydi. Test va nazorat ishlari, asosan, talabalarning yodda saqlash qobiliyatini tekshiradi. Haqiqiy bilimni emas. Nazorat savollari shunday tuzilishi kerakki, talaba qo‘shimcha ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi, fanda o‘rgangan tushunchalarini amaliyotga tatbiq qilishi, tanqidiy fikrlashi lozim. Talaba professor-o‘qituvchining bevosita ilmiy rahbarligida o‘z ustida ishlashi va ilmiy-tadqiqotlar olib borish malakasini shakllantirishi, ilmiy maqolalar yozish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Vaholanki, hozirga qadar bitiruv malakaviy ishlari talabaning izlanishi, sa’y-harakati va mehnati mahsuli emas, ilmiy ishlar “xo‘jako‘rsin”ga bajarilib, ko‘chirmakashlikka yo‘l qo‘yilmoqda.

YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga yo‘l qo‘yilmasligi shart. Korrupsiya ta’lim sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir

etadi. Fanlarni modul tizimida qisqa vaqt ichida o‘zlashtirilishi, axborotning ko‘pligi, vaqt etishmasligi, dangasalik, mas’uliyatsizlik, sohaga adashib kirib qolishlik, o‘qituvchi mehnatining qadrsizligi, o‘qituvchi oylik maoshining ozligi, tanish-bilishchilik kabi ko‘plab sabab va bahonalar korrupsiyani keltirib chiqaradi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z-o‘zini aldashdan boshqa narsa emas. Korrupsiyani yuzaga keltirayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etishga tizimli yondashuv kerak, ya’ni bir korrupsionerni ikkinchisiga almashtirish bilan vaziyat o‘zgarmaydi.

YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida vazirligu boshqa tashkilotlar oliy ta’lim muassasalarining faoliyatiga aralashishini qonun bilan ta’qiqlash, har kuni o‘nlab keraksiz hisobotu jadvallarni talab qilishni cheklash, har bir oliy o‘quv yurti asosiy e’tiborni hisobotu qog‘oz to‘ldirishga emas, ta’lim sifatiga qaratishi lozim. 11. YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan aloqadorligini ta’minlash, iqtisodiy samaradorlikka erishish dolzarb vazifadirki, amaliy natija bermagan ilmning, ilmiy darajaning, muqovasi qalin kitoblarning jamiyatga hech qanday nafi yo‘q. 12. YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida bitiruvchi talabaning bilimi davlat ta’lim standartida belgilangan talabga javob berishi ahamiyatli bo‘lishi lozim. Diplomi bor, lekin layoqati yo‘q mutaxassis jamiyat ravnaqiga hech qanday foyda keltirmaydi. Tafakkurni o‘zgartirish, ta’lim tizimini yangilash uzoq vaqt talab etadi. YOshlarning ilm olishi, zamonaviy fan va mutaxassisliklarni puxta egallashi uchun nimaiki zarur bo‘lsa, hammasi muhayyo. Hal qilinishi lozim bo‘lgan muammo talaba-yoshlarning dunyoqarashini, ta’lim-tarbiyaga munosabatini o‘zgartirishdir. YAxshi mutaxassisni ish beruvchining o‘zi izlab topadi. Xullas, YAngi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimida islohotlar samaradorligi, mamlakat farovonligi, yurt istiqboli, oliy ta’lim sifatini oshirish, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidagi ilg‘or texnologiyalardan unumli foydalanish uchun o‘quv dasturlarida mutaxassislik fanlari, tanlov fanlariga ko‘proq vaqt ajratish, baholash tizimini takomillashtirish va shaffofligini ta’minlash, professoro‘qituvchilarni ham, talabalarni ham rasmiyatchilik va qog‘ozbozlikdan xalos qilish orqali maqsad anglashiladi. Muhtaram Prezident ta’kidlaganidek, YAngi O‘zbekistonga jadal islohotlar sur’atiga mos, har jihatdan etuk va ilg‘or mutaxassislar kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. Xalq so‘zi gazetasi. 2018 yil 6 iyun. 1-2-betlar. Mirzieyov SH. Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so‘zlangan nutq. 2017 yil 30 iyun / Mirzieyov SH. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2018. 505-bet.

UDC: 008.316.77

IMPACT OF MASS CULTURE ON PERSONNEL POTENTIAL IN ECOTOURISTIC SPHERE

Albina Romenovna Sharipova – English teacher ofBukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers
The student of extra mural department of the 1-st course group 2 of “Hydromelioration” faculty majoring in “Hydraulic structure for the operation of a pumping station”
direction Yaxshiyev Hakim

Abstract: This article is devoted to one of the functions of mass culture as a form of social relations, which consists in ensuring the socialization of a person, helping him to master new social roles and values, to teach him how to regulate behavior in various non-standard situations so inherent to modern society. This by modeling different life situations, it gives people an idea of how to act in certain conditions, gives guidelines for the way of life. The article reveals the meaning of the concept “human potential”. In the article much attention is focused on the idea that in the modern sphere of ecotourism, no society can see its own perspective without strengthening of cultural and spiritual potential, ecclesiastical and moral values in the minds of people. Therefore the problem of spirituality, the problem of spiritual and moral education is becoming especially important today. The analysis of the research is provided.

Key words: modern ecotourism, human potential, civilization, mass culture, consciousness, functional qualities, to participate in society life,

moral values, spiritual basis, significance, mentality, folk culture, intersocial diffusion.

УДК: 008.316.77

ВЛИЯНИЕ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ НА ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ В ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ

Альбина Роменовна Шарипова преподаватель английского языка кафедры «Узбекского языка и литературы».
Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства
Студент 1-го курса группы 2 заочного отделения факультета «Гидромелиорация», специализирующегося в направлении «Гидротехническое сооружение эксплуатации насосной станции» Яхшиев Хаким. sharipovaa@1965umail.uz

Аннотация: Данная статья посвященаодной из функциймассовой культуры, как формы общественных связей, которая состоит в том, чтобы обеспечить социализацию человека, помочь ему освоить новые социальные роли и ценности, научить его способам регуляции поведения в разных нестандартных ситуациях, столь свойственных современному обществу. Массовая культура добивается этого путём моделирования разных жизненных ситуаций, она даёт людям представление, как действовать в тех или иных условиях, даёт ориентиры образа жизни. Статья раскрывает значение понятия «человеческий потенциал». В статье большое внимание уделено идее о том, что в современной сфере экотуризма, ни одно общество не может видеть свою перспективу без развития и укрепления культурного и духовного потенциала, духовных и нравственных ценностей в сознании людей. Поэтому проблема духовности, проблема духовного и нравственного воспитания приобретает сегодня, особенно важное значение. Анализ исследования приведён.

Ключевые слова: современный экотуризм, человеческий потенциал, цивилизация, массовая культура, сознание, функциональные качества, участвовать в общественной жизни, моральные ценности, духовные основы, важность, менталитет, народная культура, межсоциальная диффузия.

In modern scientific literature of foreign countries, there are various definitions of the concept "human potential". In particular, the UN Human Development Report 2021 notes that "Human potential is the various combinations of functional qualities that a person can provide, and reflects the freedom to acquire these functional qualities". At the same time, "…the functional qualities of a person reflect what is useful that this person can do or provide for himself, for example, eat well, live a long time and participate in the life of society" [1,32].

In the past, with the transition of developed countries to the stage of post-industrial development, the beginning of the transformation processes of independent states, the civilization shifts of the globalizing world, in modern conditions the question of finding new development guidelines, that is human development. If we recall the recent past, then the main issue for society has always been to make a profit, and only recently the priorities of society have begun to change. And the true history of human development begins from the moment when society directs its resources and efforts to human development in the tourist sector.

In the modern sphere of tourism, no society can see its own perspective without strengthening of cultural and spiritual potential, ecclesiastical and moral values in the minds of people. Therefore the problem of spirituality, the problem of spiritual and moral education is becoming especially important today. The future of each nation, first of all depends on itself, on spiritual energy and creative force of its national consciousness. Thus, for example scientist T.I.Zaslavskaya, describing human potential, writes that it "it is enshrined in such physical and spiritual qualities of citizens, a significant part of which depends on the gene pool of the country, the conditions for the socialization of new generations and the characteristics of the national culture. The nature of the mentality, the structure of values, the types of individuals change relatively little over the life of people, to a large extent are passed from generation to generation" [2, 12]. Scientist Soboleva I.V. defining this category, notes that human potential is the stock of physical and moral health accumulated by the population, general cultural and professional competence, creative, entrepreneurial and civic activity, implemented in various fields of activity, as well as in the level and structure of needs" [3,12].

In tourism, folk culture is the culture inherent in particular people. Its constituent parts are language, writing, beliefs, customs, traditions,

folklore, symbolism, and everyday life. It originates in the depths of centuries, bears the stamp of centuries. It is characterized by intersocial diffusion. Folk culture penetrates into aristocratic, urban-into rural, settled-into nomandic, capital-into provincial, and vice versa [4,26].

Popular culture is a product of an industrial society. It could not have appeared without the development of cinematography, gramophone recording, radio and television. The concept of "mass culture" was first substantiated in the collection "Mass Culture" edited by R. Rosenberg and D. White, published in the USA in 1957. It has incorporated elements of such terms as "mass communication", "mass society", "folk culture", "mass spirituality", "mass consciousness". Back in 1960, one of the authors of the doctrine of mass society, American sociologist E. Shils argued that industrialization provides an intensive development of the mass media, which, in turn, contribute to the unification of individuals into a social and cultural whole-mass society [5,12].

It can be supplemented-a controlled society. Controlled because the media unites people into a social and cultural whole through the values of mass culture. Similar tastes and forms of "cultural consumption" are spreading in both the privileged and the low-income strata of society. The media become not only carriers of culture, but also a means of manipulating the consciousness and moods of people with the help of objects of this culture – films, books, musical works, computer games. Popular culture is a culture of large audiences. Spread through mass communications, this culture is expansionist and aggressive. Its products easily find an echo in the minds and souls of millions, it does not require tension of mind and feelings for its perception, but at the same time it is able to create positive and negative emotions, evoke empathy, a sense of pleasure.

The primary function of mass culture as a form of social relations follows from the statement of the French researcher M.Dufrein: mass art exists…due to the fact that mass culture can form a state of aesthetic, mental and psychological pleasure in a huge number of people, it becomes, according to Dufrein, an ideal tool for influencing human consciousness. "Commercial art", he wrote, "can be as effective as the police apparatus"[6,9].

Another function of mass culture as a form of social relations is to ensure the socialization of a person, to help him master new social roles

and values, to teach him how to regulate behavior in various non-standard situations so inherent to modern society. Popular culture achieves this by modeling different life situations, it gives people an idea of how to act in certain conditions, gives guidelines for the style of life.

Especially in XXI century, mass culture plays a colossal role both in society, providing the necessary propaganda for the customer, and in any area, including ecotourism. Ultimately, the products of mass culture are expressed in the quantity and quality of artistic myths embodied in books, films, music, theater and concert performances. Popular culture has become a myth-making industry. Social order and artistic method, combined with mythological units and a general mythological concept, are tools for creating myths in any field of activity, as well as in ecotourism.

Popular culture is governed by the public relations system through social order. The social order for mass culture comes from the management of companies producing cultural products – from publishing concerns, film and television corporations, music firms. And this, in turn, pushes to the appearance of such guidelines as material consumption, standards for housing, household items, food, for certain clothes and shoes, which set high for people seeking to join the values of Western civilization, "imposed" political direction, etc. To overcome such "barriers" it is necessary to pay special attention to the development of culture and high values, upbringing and educating younger generation, since it is the young people who are and will be the successors and bearers of culture.

In conclusion, it must be said that it is the culture inherent in each nation, being the most powerful means of forming national self-consciousness, national pride, that is the universal spiritual basis for the development of human potential for the country.

REFERENCES:

1. Zaslavskaya T.N. Human potential in modern transformational process// Public sciences and modernity. 2005.№ 3.p. 12
2. Soboleva I.V. Human potential of Russian economy: problems of keeping and development.-M: Science, 2007.p.12.
3. Brasov B. Social culturology. M., 1996, p.15.
4. Shils E. Mass society and its culture//Daedalus.1960. № 2.p.25.
5. Dufreine M.L'art de masse existestence//Revue d'Estherique. 1974. № 3-4.p.37-49.

6. Alimuradov O.A., Guseva M.A. Structural and models of concept BEAUTY, objected in modern English women discourse//Questions of cognitive linguistics.-2010.-№ 3.-p.12-19.
7. Alimuradov O.A., Latu M.N. The features of terminological nomination: cognitive-semantic approach (on material of Chinese and English terminology of fighting arts/Philological sciences. Questions of theory and practice.-2008.- № 1-2. – p.6-13.
8. Alimuradov O.A., Latu M.N. The Peculiarities of modeling semantics of termunits. Terminological oppositions (on materials English military terminology. ISU.-2010.-№ 3(11).-p.6-15.
9. Alimuradov O.A., Latu M.N. Dynamic processes in terminological systems (on materials of modern English terminosystems)//Actual problems of Philology and pedagogical linguistics.-2012.-№ 14.- p.250-259.
10. Alimuradov O.A., Razduyev A.V. Terms-eponyms in Russian and English of nanotechnologies: structural-semantic and gender aspects.-PSLU.-2011. -№ 2. P.157-161.
11. Alimuradov O.A., Chursin O.V. Pictures of music language. Functional-semantic characteristics of modern English musical lexis: cognitive-frame approach.-M.:KRASAND, 2009.-p.200.
12. Alimuradov O.A. The Pecularities of structure and functioning of industry terminosystems (on the example of terminosystems of nanotechnologies).-Pyatigorsk: SNOW,2011.-p.112.
13. Alimuradov O.A., Razduyev M.N., Latu M.N. The Peculiarities of structure and functioning of industry terminosystems (on the example of terminosystems of nanotechnologies).- Pyatigorsk: SNOW,2012.-p.128.
14. Allafi L.M. Cognitive analysis of dental terminology.-M., 2003.-p.164.
15. Apresyan U.D. Deixis in lexis and grammar and naïve model of the world//Semiotics and informatics.-M.: Science, 1986.- p.5-32.
16. Arnold I.V. The basis of scientific researches in linguistics. – M.: Higher School, 1991. – p.140.
17. Arutyunova N.D. Discourse// Linguistic encyclopedic dictionary. – M.: Sov. encyclopedia, 1990. – p.136-137.
18. Arutyunova N.D. Language and the world of a person. – M.: Languages of Russian culture, 1998. – p.896.
19. Arutyunyan B.E. Substantiveness and procedurality of tobacco industry terminology //Linguistics. Literature study: theses of International conference “Cognitive paradigm”.-Pyatigorsk: Publ.PSLU, 2000. -p.5-8.

20. Ahmanova O.S. Dictionary of linguistic terms. – M.: Sov. encycl., 1969. – p.605.
21. Baranov A.N., Karaulov U.N. Dictionary of Russian political metaphors. – M., 1994.- p.330.
22. Belyavskaya E.G. About character of cognitive bases in language categories// Cognitive aspects of language categorization: collec.scient. tr. – Ryazan: Publ.RSPU named after S.A.Yesenin, 2000. – p. 9-14.
23. Abchuk V.A. Management.- Series: Higher School. – SPB.: Soyuz, 2002. – p.463
24. Avakova L.A. Structural-semantic and functional analysis of termsystem "Chess". – Maykop, 2006. – p.200.
25. Avksentyeva A.G. Latin and the basis of medicine terminology. – Mn.: New knowledge, 2007. P.318.
26. Ageyeva O.O. The features of equivalent relativity of economical terms in English and Russian: on materials of terminology "personnel Management".-M., 2009.-p.165.

УДК: 372.881.111.1

АУТЕНТИЧНОЕ ТОК-ШОУ, КАК СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ УСТНОМУ ОБЩЕНИЮ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ, НА ПРИМЕРЕ "THE ELLEN DEGENERES SHOW"

Преподаватель Альбина Роменовна Шарипова кафедры узбекского языка и литературы Бухарского института управления природными ресурсами национального исследовательского университета Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства
Студент 1-го курса группы 2 заочного отделения факультета «Гидромелиорация», специализирующегося в направлении «Гидротехническое сооружение эксплуатации насосной станции»
Сайпуллоев Фуркат.

Аннотация: В статье показано, что аутентичное ток-шоу обладает значительным лингводидактическим потенциалом для развития умений устного неформального общения. Оно может быть использовано в качестве средства обучения умениям общения в трех его компонентах: собственно коммуникации, интеракции и перцепции. Анализ выпусков программы "The Ellen DeGeneres Show"

позволил выделить образцы речевого поведения но-сителей языка в пределах каждого компонента общения.

Ключевые слова и фразы: аутентичное ток-шоу; устное общение; умения; средства обучения; видеоматериалы.

UDC: 372.881.111.1

Hozirgi kunda so‘zlash madaniyatida sezilayotgan yana bir tendentsiya arab va fors so‘zlarini zo‘rma-zo‘raki ishlatish hisobiga yozma va og‘zaki nutqni jimjimador, dabdabali qilishga intilishdir: Jumladan, sarafroz, zuhur etmoq, alhol, muxtasar, nomavzun kabi so‘zlar o‘rniga o‘zbekcha muqobillarini ishlatish o‘rinli bo‘ladi. Xuddi shuningdek, adabiy til lug‘at tarkibidan o‘rin olmagan, faqat so‘zlashuv nutqida ishlatiladigan gostinisa, stolovoy, bolnitsa, biblioteka kabi qator so‘zlarning o‘zbekcha muqobillarini ishlatish nutqiy to‘g‘rilikni ta’minlaydi.

To‘g‘ri nutq tuzish kishining ruhiy holati munosabati bilan bog‘liq. Jumladan, sen va siz kishilik olmoshlari nutq vaziyati hamda so‘zlovchi va tinglovchi munosabatiga ko‘ra turlicha semantik-uslubiy vazifa bajaradi. “Sen” kishilarni yaqinligini (yoshi yoki qarindoshligi jihatidan) ko‘rsatadi. “Siz” so‘zida hurmat semasi bo‘lganligi uchun yoshi ulug‘ yoki tanish bo‘lmagan kishilarga nisbatan ishlatiladi va orada oz bo‘lsada masofa saqlanadi. Ayni zamonda “sen” qo‘pollik, hurmatsizlikni, “siz” esa diqqat va xushmuomalalikni ifodalaydi. Nutq jarayonida biror bir sababsiz sharoitda “siz” dan “sen” ga va aksincha so‘zlashga o‘tish o‘rinli emas. Chunki “siz” so‘zidan keyin “sen”lash noqulaylik tug‘dirsa, “sen” dan

keyin “siz”lash esa muomalada sovuqlik yaratadi. Xulosa qilganda, har ikkala holatda ham nutqiy to‘g‘rilik buziladi.[5; 22-b]

Nutqda ortiqcha keraksiz so‘zlarni qo‘llash uning ma’nosini, ta’sir kuchini sayozlashtiradi. Jumladan, ayrim notiqlar nutqidagi masalan, demak, tak, nihoyat, xo‘sh so‘zlarining takror-takror ishlatilishi bunga misol bo‘ladi.

Ayrim shaxslar nutqida beparvolik oqibatida ruscha so‘zlarni ehtiyoji bo‘lmagan o‘rinlarda ishlatadilar: aka o‘rniga brat, bratan, band o‘rniga zaynit, ota o‘rniga paxan marhamat o‘rniga pojalista kabi. Xuddi shuningdek, yoshlar orasida juda chiroyli ismlarni buzib, ruschaga taqlidan talaffuz etadilar: Irodani – Ira, Adolatni – Adik, Dilbarni – Dilya, Ulug‘bekni – Udik, Jahongirni – Jo‘xa kabi.

Yuksak nutq madaniyatiga erishish uchun shevachilikning ayrim salbiy ta’siridan ham qutulmoq lozim. Hozirgacha matbuot, radio va teleko‘rsatuvlarda shevachilik ta’siri seziladi.

Nutq madaniyati, nutqning to‘g‘riligi grammatika bilan uzviy bog‘langan. Grammatik me’yorlarni yaxshi bilish fikrni yuqori saviyada shakllantirishga yordam beradi. Nutqda grammatik shakllarning ma’no va tuzilishiga befarq qarash, vaziyatga mos tushmaydigan so‘zlarni sintagmatik munosabatga kiritish, gaplarni o‘rinsiz takrorlash aytilayotgan fikrni xiralashtiradi. To‘g‘ri nutqqa qo‘yiladigan talablardan biri uning grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirilishdir. Shuning uchun to‘g‘ri nutq tuzishda leksik vositalar bilan bir qatorda grammatik ko‘rsatgichlarga ham etarli e’tibor qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida, nutqning tozaligi uchun kurash adabiy til madaniyati uchun kurashdir. Nutqning tozaligini asrash, sofligini avaylash, tilimiz boyligini ko‘z-ko‘z qilish davri mustaqillik bergan ne’matlardan biri ekanligini doimo esda saqlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G‘. Stilistik normalar haqida// O‘zbek tili va adabiyoti, 1969, № 6, 51-b.

2. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M.Adabiy norma va nutq madaniyati. T., 1983. 26-b

3.Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. T., 1972. 39-b

4. Nutq madaniyatiga oid masalalar. (Maqolalar to‘plami) T., 1973. 83-b

5.Tojiyev Yo., Hasanova N., Tojimatov H., Yo‘ldosheva O.O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1994. 22-b

UO‘T: 372.881.111.1

МАНГУБЕРДИ ДАВРИ МАЪРИФАТИ

Ибодова Насиба Комиловна Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ассистенти

Аннотация: Мазкур мақолада туркий ислом тарихидаги энг машҳур ҳукмдорлардан бири, мўғулларга қарши курашган сўнгги Хоразмшоҳ Жалолиддин Мангуберди даври илм-маърифати ҳақидаги фикр-мулоҳазалар ўрин олган.

Калит сўзлар: Жалолиддин Мангуберди, жасорат, мардлик, илм-фан, маърифат, асар, давлат, пойтахт, давр, илмий ворисийлик.

“Бизнинг танимизда Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Паҳлавон Маҳмуд каби боболаримиз қони оқмоқда. Биз шунга муносибмиз ва бу муносибликни ҳар дақиқада бутун халқимизга, жаҳон аҳлига тараннум қилишга шошилишимиз керак!” Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Президенти

Ўзбекистоннинг давлат мустақиллигини қўлга киритиши туфайли халқимизнинг асрий орзуси ушалди, ўз тақдири ва келажагини ўзи яратадиган бўлди. Тарихан қисқа даврда жамиятимиз ижтимоий-сиёсий ҳаётининг барча соҳаларида кескин бурилиш ясалди. Мамлакатимизни модернизация қилиш, фаол демократик янгиланишларни амалга ошириш билан боғлиқ қатор ислоҳотлар ўтказилди. Жумладан, ана шу буюк ўзгаришларни асрлар давомида орзу қилган халқимизнинг кўҳна тарихига бўлган муносабати тубдан ўзгарди. Зеро, Биринчи Президент Ислом Каримов таъкидлаганидек: “Ўз тарихини билмайдиган, кечаги кунини унутган миллатнинг келажаги йўқ”.[12] Айниқса, бугунги мураккаб глобаллашув даврида маънавият соҳасида вужудга келаётган долзарб муаммолар, халқимиз маънавиятини асраш ва янада юксалтириш, ёш авлоднинг қалби ва онгини турли зарарли ғоя ва мафкуралар таъсиридан сақлаш ва ҳимоя қилишда Ватан тарихини ҳар томонлама ва чуқур тадқиқ этиш, бирламчи манбаларга таяниб талқин этиш, келажак авлодга ҳақиқий тарихимизни ўқитиш орқали уларни юксак маънавиятли шахслар этиб тарбиялаш долзарб аҳамият касб этади. Янги Ўзбекистон

[12]Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, Маънавият, 2008. 4-бет.

тарихида янги давр – мустақил тараққиёт даври бошланди. Шунингдек, халқимизнинг маънавий юксалиши йўлида “Миллий тикланишдан – миллий тараққиёт сари” деган дастурий ғоя асосида катта аҳамият қаратилмоқда. Бундан мақсад - ёш авлод онгида инсоният учун энг муҳим бўлган маънавиятни шакллантириш ҳамда янада юксалтириш, улар онгида юксак маънавий фазилатларни шакллантириш жараёнида миллий онг ва соғлом фикрни уйғотиш, тарихий хотиранинг ёшларимизни Ватанга садоқат ҳамда миллатпарварлик руҳида тарбиялашдаги мислсиз аҳамиятини ифода этиш, ўз тақдири ва келажагини барпо этадиган ёш авлодни янги жамиятни янада ривожлантиришга йўналтирилган ғоялар асосида тарбиялашга қаратилган. Бунинг учун тарихимиз ва тарихий шахсларимизни ҳар томонлама чуқур ва пухта ўрганиш ёшларимизда ватанга бўлган муҳаббатини ва ватанпарварлик ғояларини янада ривожлантиришга хизмат қилади.

Хоразм диёри Ўзбекистон ҳудудидаги қадимий маданият масканларидан бири бўлиб, бунинг тасдиғи археологик тадқиқотларда ҳам, ёзма маълумотларда ҳам ўз аксини топган; бу ҳақда қатор илмий изланишлар чоп этилган. Хоразмнинг географик ўрни, Амударё этагида жойлашганлиги узоқ мозийдан бошлаб суғорма деҳқончилик ривожланиши, шаҳарлар барпо этилиши, давлат ташкил топиши, фан ва маданият тараққий этиши учун қулай имконият яратди. Қадимги Хоразм катта ҳудудда ястанган бўлиб, Амударё этагида иккала соҳил бўйлаб то Орол денгизигача, ғарбда Қаспий денгизигача, жанубда Хуросон ерларигача оралиқни ўз ичига олган.[13]

Ўтмишда бу ўлкада вақти-вақти билан йирик сиёсий бирикма — давлатлар таркиб топган ва уларнинг вужудга келишида айрим шахслар, саркардаларнинг алоҳида хизмати бор. Жумладан, ўрта асрларда Ануштегинлар-Хоразмшоҳлар салтанатида Жалолиддин Мангубердининг саркардалик фаолияти, мустақиллик учун фидокорона кураши тарих зарварақларида битилиб қолган.

Ҳозиргача сақланиб қолган ёзма ёдгорликлар асосида илмий анъаналар давомийлигини ўрганиш фан тарихи учун катта аҳамиятга эга. Шу сабабдан, ушбу мақолада ҳам илмий ворисийликка дахлдор

[13]О.Бўриев, Н.Тошев. Жалолиддин Мангуберди. (Даври. Саркардалак фаолияти. Манбалар). Тошкент “Фан” нашриёти 1999. 5-бет.

Ануштагинлар — Хоразмшоҳлар ва Темурийлар даврларидаги табиий фанлар, аниқроғи география ва астрономия бўйича ёзма манбаларни қиёсий таҳлил қилиш кўзда тутилган. Фанда бу мавзу Хоразмшоҳлар салтанатида яратилган илмий салоҳиятнинг давомийлиги тарзида кун тартибига қўйилмаган. Ануштагинлар — Хоразмшоҳлар салтанатида (1097—1231) фан ва маданият ривожи, ўша даврда Хоразмнинг сиёсий ва иқтисодий мавқеи билан бевосита боғлиқ эди. Айниқса, Муҳаммад Хоразмшоҳ (1200—1220) ҳукмдорлиги чоғида Хоразм улкан давлатга айланди; унинг чегаралари шимолда Каспий денгизининг шимолий соҳилларидан жанубда то Ҳиндукуш тоғларигача етган бўлса, шарқда Қашғардан тортиб, ғарбда то Ироқ чегараларигача оралиқда ястанган. Гурганж шаҳри (ҳозирги Туркманистон ҳудудидаги Кўҳна Урганч) мамлакатнинг сиёсий, иқтисодий ва маданий маркази бўлган. Йирик сиёсий ва ҳудудий-иқтисодий бирликнинг вужудга келиши ҳамда Хоразмда илгаридан илмий ривожланишнинг тарихий анъаналари мавжудлиги илм-фан тараққиёти учун бош омил бўлди. Хоразмшоҳлар давлати таркибига киритилган, Бухоро, Марв, Самарканд, Нисо, Исфаҳон, Ахсикат, Жанд, Журжон, Хўжанд, Марғилон, Ҳирот каби шаҳарларда ҳам илм-маърифат ва маънавият юксалди; Мовароуннаҳр, Хуросон, Форс, Озарбайжон ва Ироқ ўлкалари ўртасида маданий алоқалар кучайди. Ушбу даврнинг таниқли олимлари ва зиё аҳли жумласига Рашидиддин Вотвот, Исмоил Исфаҳоний, Тоҳир Фарёбнй, Абулфайз Ахсикатий, Сайфуддин Бухорий, Абулмажид Жандий, Али Ҳижозий, Исмоил Журжоний, Али Хоразмий, Абулҳасан Хоразмий, Нажиб Бакрон, Маҳмуд ал-Чағминий, шайх Нажмиддин Кубро, Фаридуддин Аттор, Муҳаммад Ахсикатий, Абдуллоҳ ар-Розий, Маҳмуд Самарқандий, Масъуд Хўжандий, Маҳмуд Замахшарий, Абдулкарим ас-Самъоний ва бошқаларинг исмларини келтириш мумкин.[14]

Улкан давлат миқёсида иқтисодиёт ва савдо-сотиқни ривожлантириш ҳамда бошқа мамлакатлар билан элчилик ва савдо муносабатлари ўрнатиш эҳтиёжи асосида, географнк билимларга ҳам талаб ортди. Муҳаммад Хоразмшоҳ салтанатида географиянинг мавқеи ҳақида

[14]Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов — Ануштегинидов. М., 1986, С. 118-127.

хулоса қилиш учун имкон берувчи ёзма манба Нажиб Бакроннинг бизгача етиб келган «Жаҳоннома» номли географик асаридир.[15]

Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон Ануштагинлар — Хоразмшоҳлар даврида дастлаб Хуросонда, аниқроғи Тус шаҳрида яшаган. Сўнгра Нишопурда ва Хоразмшоҳлар давлатининг пойтахти Гурганжда яшаб ижод этган. Шу даврда битта дунё харитаси тузиб, уни Алоуддин Муҳаммад Хоразмшоҳга тортиқ қилгани маълум. Афсуски, бу харита бизгача етиб келмаган, фақат унга ёзилган «Жаҳоннома» номи билан машҳур изоҳнома сақланган холос.

«Жаҳоннома» географияга оид қимматли ёдгорлик. Муаллиф бу асарни ёзишда шахсий мушоҳадаси ва бошқалардан сўраб билганларидан ташқари, кўпроқ ёзма манбалардан фойдаланган. Айрим манбаларнинг номлари қайд этилган: Ибн Хурдодбеҳ «Китоб ал-масолик ал-мамолик», ал-Истахрий «Китоб ал-масолик вал-мамолик», Носир Хисрав «Сафарнома», Абу Райҳон Беруний «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар» («Осор ал-боқия») ва «Китоб ат-тафҳим» ва ҳ.к. Нажиб Бакрон «Жаҳоннома»да ёзган тафсилотлардан у чизган карта ҳақида умумий тасаввур олса бўлади. Мазкур карта матога ярим шарлар картасига ўхшатиб доира шаклида чизилган бўлган. Картанинг муҳим томонларидан бири, унда градус тўри (параллел ва меридиан чизиқлари) ҳамда мамлакатлар чегаралари ўтказилганидир. Бошланғич меридиан Холидот оролларидан ҳисобланган. Картада ифодаланган жой номларининг бир қисмига, аниқроғи олти юзтасига «Жаҳоннома»да изоҳлар ёзилган.[16]

Маълумки, Ғарб адабиётларида Оврўпо мамлакатларида кескин маданий юксалишга олиб келган XV— XVII асрларни Ренессанс — Уйғониш даври номи билан юритадилар. Бироқ кўпчилик муаллифлар Шарқда шундай жараён бўлганлигидан кўз юмадилар. Ҳолбуки, IX—XII асрларда Марказий Осиёда Оврўподан бир неча аср илгари маданий юксалиш юз берганлигини ҳеч ким инкор эта олмайди. У Оврўподагидек янги сиёсий-иқтисодий жараёнларнинг вужудга келиши билан боғлиқ бўлмаган бўлса-да, маданият тарихида

[15]О.Бўриев Ўрта Осиё IX—XII ва XIV-XV асрлардаги илмий ворисийлик ҳақида. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1999, 7-8-soni. 9-bet.

[16]Ўша журнал 9-бет

сўнмас из қолдирди ва Оврўпо Ренессансининг вужудга келишига катта таъсир кўрсатди.

Ануштагинлар — Хоразмшоҳлар салтанатида астрономик билимлар ҳам ривожланган ва уни Махмуд Чағминий илмий мероси мисолида кўриш мумкин. Абулфазл Маҳмуд ибн Муҳаммад ибн Умар ал-Чағминий (вафоти тахминан 1221 йил), Ануштагин — Хоразмшоҳлар салтанатида яшаб ижод этган таниқли математик ва астроном олим. Манбаларда Чағминий ҳаёти ва ижоди ҳақида маълумот йўқ ҳисоби. Унинг нисбасидан келиб чиқиб, туғилгаи жойини Хоразмнинг Чағмин қишлоғидан дейиш мумкин. Маҳмуд ал-Чағминий Хоразмшоҳлар пойтахти Гурганж шаҳридаги илмий муҳитда ижод қилган. Асарлари: «Ал-мулаххас фи-л-ҳайъа» («Қисқача астрономия»), «Сайланма», «Тўққиз сонининг риёзиётдаги ўрни ҳақида рисола», «Меросин бўлиш масалаларида риёзиёт усулларига шарҳ» кабилар. Унинг барча асарлари ўша давр мусулмон оламининг илмий тили — араб тилида ёзилган. Маълум бўладики, Чағминий, астрономия соҳасида етук олим бўлиши билан бир қаторда, риёзиёт (математика) йўналишида ҳам ижод қилган. Астрономияга оид асарларида эса, географияга дахлдор маълумотлар ҳам ўрин олган. Маҳмуд ал-Чағминийнинг астрономияга оид асосий асари «Алмулаххас фи-л-ҳайъа» 1205 йили Гурганжда Муҳаммад Хоразмшоҳ салтанатида ёзилган ва Мадраса талабалари учун астрономия асосларидан қўлланма вазифасини ўтаган. Чунки бу асарда фанда мавжуд астрономия тушунчалар оддий, равон услубда баён қилинган эди.

Чағминийнинг астрономия соҳасида дарслик яратганлиги ҳамда математикага оид асарлар ёзгани эътиборидан, у Хоразмшоҳлар пойтахти Гурганж мадрасаларида астрономия асосларидан ва риёзиёт илмидан дарс берган, деб хулоса қилиш мумкин.[17]

Дарҳақиқат, Шарқ ўрта асрларда дунё илм-фанининг марказига айланди. Бу марказда астрономия, математика, геометрия, тиб илми, география, геодезия, табиатшунослик, кимё, тарих, қонуншунослик фанларининг буюк намояндалари етишиб чиқдилар. Ал-Хоразмий, Беруний, Ибн Синодан тортиб Мирзо Улуғбек, Али Қушчигача яшаб, илмий фаолият кўрсатган улуғ алломалар сони бир неча мингдан ошади. Уларнинг илм-фанда яратган кашфиётлари, янгиликлари

[17] О.Бўриев Ўрта Осиё IX—XII ва XIV-XV асрлардаги илмий ворисийлик ҳақида. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1999, 7-8-soni. 11-bet.

ниҳоятда беҳисоб. Бу алломалар жаҳон тамаддунини мислсиз янгиликлари билан бойитдилар. Уларнинг яратган кашфиётларини европалик олимлар XVIII асрдан кейин ўз даврлари учун қайтадан кашф қилдилар ва амалиётга татбиқ эта бошладилар.

Юқоридагилардан маълум бўладики, Ануштагинлар - Хоразмшоҳлар салтанатида иқтисодиёт билан бир қаторда илм-фан ҳам ривожланган ва унда астрономия ва география соҳалари ўзига хос муҳим ўрин тутган. Бу йўналишда ёзилган асарлар нафақат ўз даврида, балки Темурийлар давригача етиб келиб географик ва астрономик билимлар ривожига ижобий таъсир кўрсатган.

Дарҳақиқат, Хоразмга 1219 йили келган араб сайёҳи Ёқут шундай деб ёзади: "Мен ҳеч вақт бундай (Хоразмдай) кўп аҳоли яшаган вилоятни кўрмаганман... узлуксиз зич жойлашган, бир-бирига яқин қишлоқлар, даштларда жуда кўп қасрлар ва ҳовлилар, рустакларда ўзлаштирилмаган ерлари деярли кўринмайди. Бу ерда дарахтлар жуда ҳам кўп. Айниқса, тут дарахтлари ва бўй тераклар. Улардан аҳоли қурилишда ва ипак қурти боқишда фойдаланади. Қишлоқлар ва шаҳарларни кезганда, бозорларни кўрганда бутун вилоятда аҳоли жойланиши бир хил кўринади. Хоразмдек фаровон ҳаёт ва аҳолиси зич вилоят ҳеч қаерда бўлмаса керак... Хоразм аҳолиси нозу - еъматларга тўла дўконлар ва бой бозорларга эга. Бозори бўлмаган қишлоқ жуда кам учрайди. Мазкур аҳвол мамлакатда умумий осойишталик ва хавф-хатарсиз хотиржамлик ҳукм сурганидан далолат беради.[18]

Бугунги кунда Янги Ўзбекистоннинг мустаҳкам пойдевори сифатида илм-маърифатни талқин этар эканмиз, мамлакатни ислоҳ қилишнинг янги босқичида ватанимиз олдида турган асосий вазифалардан бири маънавий жиҳатдан бой инсонни тарбиялаш, таълим ва маориф тизимини такомиллаштириш, ахлоқий ва маънавий жиҳатдан янги авлодни миллий мафкура ғояларига мувофиқ садоқатли қилиб тарбиялаб етиштиришдан иборат. Илм аҳли нафақат Хоразм воҳаси, балки тарихимизнинг барча илдизларини мукаммал тадқиқ этиб, келажак авлодга асл ҳолича етказиш ватан олдидаги бурч ва вазифаларимиздан биридир

Адабиётлар рўйхати

[18]И.Жабборов. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. Шарқ нашриёти. Тошкент, 1999 йил. 110-бет.

1. Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, Маънавият, 2008. 4-бет.
2. О.Бўриев, Н.Тошев. Жалолиддин Мангуберди. (Даври. Саркардалак фаолияти. Манбалар). Тошкент “Фан” нашриёти 1999. 5-бет.
3. Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов — Ануштегинидов. М., 1986, С. 118-127.
4. О.Бўриев. Ўрта Осиё IX—XII ва XIV-XV асрлардаги илмий ворисийлик ҳақида. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1999, 7-8-soni. 9-bet.

UO‘T: 37.026

ENERGETIKA TA’LIM YO’NALISHIDA ELEKTR TA’MINOTI FANINI O'QITISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Mirzayev Sanjar Olimovich- Qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti kafedrasi assistenti Sanjar.mirzaev.1981@mail.ru
Hakimboyev B.- Qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti 2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fanini o’qitishning didaktik tamoyillarini belgilashga doir asoslar yoritilgan bo’lib, mazkur fanning o’ziga xosligini inobatga olib o’qitish tamoyillari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.
Kalit so’zlar: qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fani, didaktik tamoyillar, ilmiylik, izchillik, aqliy va hissiy birlik, predmetga yo’naltirilgan, shaxsga yo’naltirilgan, faollik, hayot bilan bo’liqlik tamoyili.

UDC: 37.026

DIDACTIC PRINCIPLES OF TEACHING THE SUBJECT POWER SUPPLY IN THE DIRECTION OF ENERGY EDUCATION

Mirzaev Sanzhar Olimovich-Assistant of the Department of Power Supply of Agriculture and Water Management Sanjar.mirzaev.1981@mail.ru
B. Khakimboev- Electricity supply in agriculture and water management 2nd year student

Annotation: The article describes the foundations for determining the didactic principles of teaching the subject "Electricity supply in agriculture and water management", and also scientifically studied the principles of teaching, taking into account the specifics of the subject.
Key words: science of electricity supply in agriculture and water management, didactic principles, scientific approach, systemic, the

principle of the unity of the rational and the emotional, subject-oriented, personality-oriented, activity, the principle of connection with life.

Oliy o'quv yurtlaridayetuk mutaxassislarni tayyorlashda didaktikaning umumiy tamoyillariga tayaniladi. Qishloq va suv xo'jaligida elektr ta'minoti fanining didaktik tamoyillari o'quv-tarbiya jarayonlarining tashkiliy-pedagogik soslariga qo'yiladigan ijtimoiy talablarni, uni boshqarishda rioya qilinadigan meyorlar sifatida amal qiladi.
Fikrimizcha, qishloq va suv xo'jaligida elektr ta'minoti fanining tamoyillarini belgilashda quyidagilarga asoslanadi:
1) qishloq va suv xo'jaligida elektr ta'minoti fani oldida jamiyat ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi yo'llari;
2) qishloq va suv xo'jaligida elektr ta'minoti fanini o'qitish qonuniyatlari;
3) ta'lim muassasalarida qishloq va suv xo'jaligida elektr ta'minoti fanini o'qitishning didaktik-metodik shart-sharoitlari.
"Didaktika" darsligi mualliflari (O.Roziqov va boshqalar) ning yozishlaricha "Prinsiplar umumdidaktik kategoriyalar bo'lib, ular ta'limning barcha turlari (individlar, guruh, umumsinf), darajalari (boshlang'ich, o'rta, professional, oliy), subyektlari (o'qituvchilar, o'quvchilar kollektivi) o'quv-tarbiya jarayonlarining hamma komponentlari (ta'limning maqsadi, vazifasi, vositasi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, natijalari)ga daxldor umumiy qoidalardir"[19].
Demak, tamoyillar jamiyat ehtiyoj va talablari asosida fanning maqsadi, vazifalariga, o'qitish qonunlariga, fanlarni o'qitishning didaktik-metodik shart-sharoitlariga va nihoyat umumdidaktik kategoriya sifatlariga ta'limning turlariga, darajalariga, subyektlariga, o'quv-tarbiya jarayonining komponentlariga daxldor qoidalar ekan, qishloq va suv xo'jaligida elektr ta'minoti fanini o'qitish metodikasini o'rgatishda ularga avval yaqin zaruriy holat hisoblanadi hamda oliy ta'limda ushbu fanni o'rgatuvchilarni barcha-barchasi bu tamoyillarni bilishlari lozim degan xulosa qilib chiqadi.
Didaktikaning asosiy muammolari quyidagilardan iborat: o'quv jarayonining qonuniyatlarini ochib berish, ta'lim mazmunini aniqlash, o'qitishning eng samarali usullari va tashkil etish.
Har bir fan, jumladan qishloq va suv xo'jaligida elektr ta'minoti fani o'ziga xos xususiyatlar, o'ziga xos metodlar va o'qitishning tashkiliy shakllarini talab qiladi.

[19]Roziqov O. va boshqalar "Didaktika" darsligi –T.: O'zR F A "Fan", 1997, 149-bet.

So'nggi yillarda nafaqat talabalarni o'qitish va tarbiyalash, balki ularning rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda, shuning uchun qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fanini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy rivojlanishlarini ham tarkib toptirishga xizmat qilishi zarurdir.

Qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti faninio’qitish metodikasi vazifasi uchta savolga javob topishdir: nima uchun o’qitish, nimani o’qitish va qanday qilib o’qitish (1-rasm).

Birinchi savolga javob o'quv maqsadlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, oliyta’limmuassasalari ijtimoiy buyurtmani bajaradilar. Bu shuni anglatadiki, qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fani maqsadlari jamiyat ehtiyojlari bilan belgilanadi. Jamiyatning rivojlanishi ta'lim maqsadlarining o'zgarishiga olib keladi. Uning mazmuni (nimani o'rgatish kerak) bevosita ta'lim maqsadlariga bog'liq. Masalan, agar maqsad talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bo'lsa, u holda qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fanining mazmuni mafkuraviy xarakterdagi materialni o'z ichiga olishi kerak; agar maqsad ilmiy -texnik taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari haqida talabalarning fikrlarini shakllantirish bo'lsa, u holda tegishli material bu darsga kiritilishi kerak.

Vaqt o'tishi bilan oliy ta'limning maqsadlari o'zgarishi bilan qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fanining mazmuni ham o’zgarmoqda. Bundan tashqari, bu kursning mazmuniga fanning rivojlanish darajasi, talabalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari, axborot muhitining rivojlanish darajasi ta'sir qiladi, bu esa talabalarga norasmiy ta'lim olish imkonini beradi.

Qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fanini qanday o'rgatish kerakligi haqidagi savolga javob biz o'quv maqsadlari uchun ham, uning mazmuniga ham bog'liq bo'lgan o'quv metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini tanlaymiz. Masalan, agar maqsad o'quvchilarning eksperimental ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, u holda dars mazmuni tegishli eksperimental ishlarni o'z ichiga olishi, o'qitishning tadqiqot usuli, muayyan o'quv qurollari (asboblar, bosma nashrlar) va o'quv faoliyatini tashkil etishning individual shakli bo'lishi kerak. Ta'lim usullari, vositalari va shakllariga psixologik va pedagogik fanlarning, fizika va texnikaning rivojlanish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, o'qitishning maqsadlari, mazmuni, usullari, shakllari va vositalari pedagogik faoliyat strategiyasini belgilab, o'qitish maqsadlari yetakchi rol o'ynaydigan metodik tizimni tashkil qiladi.

Ta’limmetodlari, vositalari va shakllari o'zaro bog'liqlikda o'qitish texnologiyasini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda "pedagogik texnologiya" tushunchasining turli xil ta'riflari mavjud. Akademik B.T.Lixachyov pedagogik texnologiya orqali o'qitish shakllari, metodlari, usullari, vositalarining maxsus to'plami va tartibini belgilaydigan psixologik va pedagogik munosabatlar majmui debta’riflagan. Muayyan pedagogik muammolarni hal qilish uchun o'qitishning turli usullari, vositalari va shakllarining kombinatsiyasi tegishli pedagogik texnologiyalardir. Qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fanini o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan, birinchi navbatda, pedagogika, psixologiya, fizika bilan chambarchas bog'liq (2 -rasm). Bu fanlar bilan bog’liqlik elektr ta’minoti fanining mazmunida ham, ta'lim usullari, vositalari va shakllarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, fizikaning rivojlanishi yarimo'tkazgichlarning fizik asoslari, maxsus nisbiylik nazariyasi elementlari va boshqalar elektr ta’minoti asoslari kursining dasturiga kiritilganligiga olib keldi.



Ta'lim psixologiyasining rivojlanishi, yangi psixologik tushuncha va nazariyalarning yaratilishi, xususan, aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi (L.S. Vigotskiy, P.Ya.Galperin, N.F.Talyzina), rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi (L.V.Zankov, D. Elkonin), nazariy umumlashtirish tushunchasi (V.V.Davydov) asosida elektr ta’minoti fanini o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyati vujudga keldi.

Qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fanini o'qitish falsafa, mantiq va texnika fanlari bilan ham bog'liq. Texnologiyaning rivojlanishi yangi o'quv -uslubiy vositalarini yaratilishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida ularni o'quv jarayonida qo'llash metodikasini ishlab chiqishni talab qiladi.

Metodik tayyorgarlik va umuman o'qitish tamoyillarini bilish o'qituvchining o'quv jarayonini amalga oshirish samaradorligining asosidir.

Xususan, pedagogik tayyorgarliksiz talabalarga individual yondashuvning samaradorligi masalasini hal qilib bo'lmaydi. Talabalar orasida har doim tayyorgarlik darajasi, qobiliyati va umuman individual fazilatlari jihatidan juda farq qiladi. Xuddi shu ma'ruza usuli bilan, ba'zilar materialni yaxshi o'zlashtiradilar, boshqalari yetarli darajada o'zlashtirmaydilar, ayrimlari esa tushunmasligi mumkin. Pedagogik jarayonda vazifalar, mazmun, shakl va usullarning tabiiy aloqasi uzviy mantiqiy zanjirni tashkil qiladi. O'qituvchining ta'lim jarayonining tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lanishida eng oqilona variantni tanlash qobiliyati yakuniy natijaga erishish uchun asosdir.

Shunday qilib, oliy ta'limi tizimida qishloq va suv xo'jaligida elektr ta'minoti fanini o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, nafaqat maqsad va vazifalar nuqtai nazaridan, balki o'qitish tamoyillari asosida ham ko'rib chiqishni talab qiladi.

Xo'sh tamoyil nima? Uning mazmun-mohiyati nimadan iborat? qishloq va suv xo'jaligida elektr ta'minoti fanini o'qitish prinsiplariga nimalar kiradi?

"O'zbek tilining izohli lug'atiga bu iboralarga berilgan izohlarga qaratamiz. "Prinsip ⌈lot. principium-asos, negiz; ibtido⌋[20]. Biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash, va sh.k.ning dastlabki asosiy qonun qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida".

"Tamoyil [ar.-tebranish, chayqalish; o'zgarib turish; o'zgaruvchanlik; moyillik] 1. Mayl, moyillik 2. Biror sohada tartib qoida, tusini olgan narsa, tadrijiy yo'nalish".

"Didaktika" o'quv qo'llanmasida qayd etilishicha "Prinsip-rahbar g'oya asosiy qoida, xulqqa nisbatan asosiy talab"[21] .

Shuningdek, N. Saidahmedovning "Yangi pedagogik texnologiyalar" risolasida prinsip tushunchasiga shunday ta'rif beradiki; "Prinsip- lotincha "principium" so'zidanolingan bo'lib asos, dastlabki xolat, boshqaruvchi g'oya, umumlashtirilgan talab kabi ma'nolarni anlatadi".[22]

[20]O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklapediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 309-bet

[21]Zunnunov A. Mahkamov U. Didaktika: Oliy o'quv yutrlari talabalari uchun o'quv qo'llanma.- T.; "Sharq", 2006, 36-bet

[22]Saidahmedovning N. Yangi pedagogik texnologiyalar nazariya va amaliyot. –T.: "Moliya" nashriyoti, 2003 82-bet.

Biz oliy ta’limda qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fanini o'qitish tamoyillari deganda mazkur fanlarni o‘qitish jarayonlarini tashkil etishi va amalga oshirishda o‘quv tarbiya mazmunini, shakllari, metodlarini tanlanishini begilaydigan dastlabki holatni, umumiy qoidalarni va talablarni tushunamiz.

Tamoyillarda ta’lim beruvchi va ta’lim o‘rganuvchiga o‘qitish jarayonida rioya qilishi lozim bo‘lgan talablar mujassamlashgan. Bu masalalar tanlangan o‘quv mavzusining mazmunidan kelib chiqib qo‘llaniladigan faoliyatning shakli, yo‘l-yo‘riqlari, vositalarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tanlanishini belgilaydi hamda ta’lim-tarbiya muvaffaqiyatni ta’minlaydi. Zero, metodika o‘quv predmetining tamoyillari ilmiy-amaliy dunyoqarashni, ma’naviy-axloqiylikni, mazmunli hamda oqilona ehtiyojlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni nazarda tutadi va yo‘lga qo‘yadi.

1. **Ilmiyliktamoyil**i. Qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fanini o'qitish **ilmiylik** tamoyilirga asoslanadi. Har qanday ma’lumot ilmiy asosga ega bo‘lsagina taraqqiyotga hissa qo‘sha oladi. Zero, ilmiy bilim bu tajribada sinalgan, fan, texnika rivojini ta’minlab, svilizatsiyaning ilgarilashga mos kelishini ifodalaydi. Ma’lumki, o‘qitishning ilmiylik prinsipi “fan-o‘quv predmeti” kesimida amalga oshadi. O‘quv predmeti fan asoslab bergan ma’lumotlar asosida ko‘riladi. Bunda ilmiy bilimlar borliqdagi qonuniyatlarni o‘zlashtirish, nazariy ma’lumotlarni anglash sari olib boradi. Chunki, ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan har bir o‘quv predmeti, jumladan qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti o‘quv predmeti ham o‘ziga taaluqli bo‘lgan fanning umumiy asoslaridan iborat bo‘lgan. Bunda fanda tushuncha va kategoriyalarning ko‘pligi, mazmunan boyligi, qo‘llanish doirasining kengligi bilan o‘quv predmetidan yuqori turadi. O‘quv predmeti esa ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini, real o‘quv imkoniyatlarini, qiziqishlari asosida yaratildi. Shuning uchun o‘quv predmetlaridagi ma’lumotlar ham ilmiylik prinsiplariga asoslangan deb aytish mumkin. Ilmiylik prinsipida, ilmiy bilimlar, fan asoslarini egallash jarayonida ta’lim oluvchilarga aqliy qobiliyat, ijodiy tafakkur rivojlanadi, ilmiy dunyoqarash tarkib topa boradi. Ilmiy xarakter printsipi o'rganilayotgan o'quv materialining elektrotexnika fanining zamonaviy yutuqlariga mos kelishini, ob'ektiv ilmiy faktlarga, nazariyalarga, qonunlarga zid kelmasligini talab qiladi. Elektrotexnika fanini o'qitishda ilmiy printsipga rioya qilish talabaga etkazilgan ma'lumot dalillarga

asoslangan bo'lishi kerakligini bildiradi. Bunga tegishli tadqiqot usullarini tavsiflash orqali erishish mumkin.

2. **Izchilliktamoyili** o'quv materiali ma'lum bir ketma -ketlikda va mantiqiyizchillikda o'rganilishini nazarda tutadi, bu esa o'quv intizomining tizimli ko'rinishini beradi. Shu bilan birga, turli nazariyalar va tushunchalarning bir -biri bilan aloqasi ko'rsatiladi. Buning uchun o'quv dasturining mavzulari tuzilgan va tizimli bo'lishi kerak. O'rganiladigan material mantiqiy bo'limlar va mavzularga bo'linadi, keyin ular bilan ishlash tartibi va metodologiyasi o'rnatiladi, har bir mavzuda asosiy tushunchalar, g'oyalar ajratib ko'rsatiladi, dars materiallari tuziladi, nazariyalar va faktlar o'rtasida aloqa o'rnatiladi. Bir mavzudan ikkinchisiga, bir kursdan ikkinchi kursga ma'lum uzluksizlik va fanlararo bog'liqlik saqlanib qolishi kerak.
3. **Aqliy va hissiy birlik tamoyili.** Bu tamoyilga muvofiq, agar talabalar va talabalar ta'lim maqsadlari, berilgan mavzuni o'rganish zarurligi, uning shaxsiy yoki kasbiy ahamiyatini bilsalar va bilimga ongli ravishda qiziqish bildirsalar, o'qitish samarali bo'ladi. Shu bilan birga, texnik obyektlar va hodisalarga bevosita hissiy qiziqish elektrotexnikani o'rganishga eng kuchli rag'batdir. Bu tamoyilga muvofiq, fanni o'qitishni faqat talabalarning o'zlari uchun zarur va foydali ekanligiga ishontirishga asoslanadi. Boshqa tomondan, elektr ta’minoti kursidan beixtiyor e'tiborni tortadigan faqat qiziqarli mavzularni tanlash noto'g'ri.

4 Predmetga va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning birligi printsipi. Qishloq va suv xo’jaligida elektr ta’minoti fan sifatida boshqa fanlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bir tomondan, bu boshqa texnik va gumanitar fanlar kabi o'zining obyektiv predmet mazmuniga ega bo'lgan fandir. Shuning uchun uni alohida va xolis o'rganish kerak. Boshqa tomondan, bu fanning mavzusi har bir talaba uchun shaxsan ahamiyatlidir. Shuning uchun ular olgan bilimlarini o'zlariga havola qilish, o'z-o'zini tasdiqlash maqsadida uni amalda qo'llash zarurati tug'iladi. Bu borada yaxlitlik tamoyiliga rioya qilish elektr fanlari bo'yicha mavzuga va shaxsga yo'naltirilgan tarkibning zarur muvozanatini saqlashni anglatadi

5 Nazariy va empirik bilimlarning birligi tamoyili. Bu tamoyil - aniq va mavhum birligining didaktik tamoyilini konkretlashtirish bo’lib, ushbu tamoyilga muvofiq, elektr ta’minoti fanini o'qitish, bir tomondan, nazariy g'oyalar tavsifi, ularning mantiqiy asoslari va ikkinchi tomondan, ularga asos bo'lgan aniq empirik faktlar, ularni ko'rsatadigan aniq misollarni

optimal tarzda birlashtirishi kerak. Afsuski, ba'zida elektr ta’minoti darsliklarida, hatto ma'ruzalarda ham aniq faktlar va misollar bilan tasdiqlanmagan nazariy fikrlar haddan ziyod keng tarqalgan. Mazkur tamoyil “Fan-ta’lim-ishlab chiqarish” kesimida yo‘lga qo‘yilishini talab etadi. Shu bilan birga bu prinsip pedagogika fanlaridan o‘zlashtirilgan bilimlarni shaxsiy qarashlari asosida voqelikdagi voqealarni tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu esa bilimlarni hayotga tadbiq etishda talablarning amaliy faoliyati mehnatini birlashtiradi hamda nazariy bilimini amaliy faoliyati uzviyligini ta’minlaydi.

6 Mavjudlik tamoyili ta'lim mazmuni va usullarini talabalarning individual xususiyatlari, ularning ta'limga nisbatan qiziqishlari, yosh xususiyatlariga va rivojlanish darajasiga bog'liqligini taqozo etadi. Bu tamoyilga muvofiq, oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga o'tish kerak. Xuddi shu mazmun turli xil bilim va qiziqishlarga asoslangan holda o'qitilishi kerak: a) elektr ta’minoti yo’nalishida o’qiydigan talabalar; b) oliy ta’limda boshqa texnik mutaxassisliklar bo'yicha o'qiyotgan talabalar; v) o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari; d) umumiy ta'lim muassasalari o'quvchilari.

7 Ko‘rgazmalilik tamoyili tushunishning eng muhim psixologik asosi bo‘lgan ko‘rgazmali (obrazli) va og‘zaki mazmun birligini nazarda tutadi. Tasviriy obrazlar elektr ta’minoti fanini o‘qitishda muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, bu tamoyilga muvofiq, axborotni ko‘rgazmali taqdim etish va har xil ko‘rgazmali ravishdan (og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy) foydalanish lozim. Ko‘rgazmalilik tamoyili elektr ta’minoti fanini o‘qitishda eng muhim hisoblanadi, bu yerda u vizualizatsiya tamoyili holatiga o‘tadi. Ko‘rgazmalilik (vizualizatsiya)ni amalga oshirish o‘rganuvchiga taqdim etilgan axborotni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi hamda miyaning murakkab narsani yaxlit sifatida idrok etish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi.

8 Faollik tamoyili bilimlarning samarali o‘zlashtirilishi faol o‘quv-biluv faoliyatida yuz berishi kerak. Ushbu tamoyilni amalga oshirish bilimlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, ta'limning dialogik shaklini rivojlantirish, o'qitishda muammoli yondashuvni qo'llash, o'qitishning amaliy usullaridan foydalanish (o'quv tajribalari, test sinovlari, psixologik treninglar va boshqalar shaklida) yordamida amalga oshiriladi.

9 Hayot va amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili elektr ta’minoti fanini o‘qitish jarayonini amaliyot bilan bog‘lab olib borish, darslar mavzusi

bo‘yicha hayotiy misollar, faktlardan keng foydalanish, ta’lim oluvchilarning o‘rganayotgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda amalda qo‘llay oladigan bo‘lishlarini ta’minlab borishga xizmat qiladi.

№	ADABIYOTLAR	REFERENCE
.	Бабиков М.А., Сергеев А.С., Комаров Н.С., Техника высоких напряжений, Госэнергоиздат, 2000, 245 с.	Babikov M.A., Sergeev A.S., Komarov N.S., High voltage engineering, Gosenergoizdat, 2000, 245 p.
.	Бургсдорф В.В., Исследование грозозащиты энергосистем, «Электричество», 1998г, №2.	Burgsdorf V.V., Investigation of lightning protection of power systems, "Electricity", 1998, No. 2.
.	Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi. –B., Durdona nashriyoti, 2019 y.	Davronov I.E., Jurayev B.T. Methodology of teaching pedagogical and psychological sciences. - What?, Durdona publishing house, 2019 y.
.	Roziqov O. va boshqalar “Didaktika” darsligi –T.: O‘zR F A “Fan”, 1997, 149-bet.	I'm Sorry. and others textbook " didactics – - T.: UZR F A "Science", 1997, 149-page.
.	O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklapediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 309-bet	Explanatory Dictionary of the Uzbek language. T.: State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2006, page 309

UO‘T 378.37.02

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING TEXNIKA FANLARINI O‘QITISHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI

Safarov Husniddin Sirojiddin o‘g‘li, Qurbonboyev Sindorbek Sarvarbek o‘g‘li
Sadulloyev Asadbek Dilmurotovich, Ro‘ziqulova Dilnoza O‘ktamovna,
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabalari
Ilmiy rahbar: Ro‘ziqulov Jasur O‘ktam o‘g‘li
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi
jasurruzikulov@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarining moddiy – texnik bazasi va ilmiy – texnik salohiyatini yanada mustahkamlash, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy – pedagog kadrlar va mutaxassislarning tizimli ravishda malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashni tashkil etish borasida so‘z olib borilgan.
Kalit so‘zlar: Melioratsiya, pedagogika, pedagogik texnologiyalar, analitik metodlar, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari.

UDC 378.37.02

THE ROLE AND EFFECTIVENESS OF THE USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF TECHNICAL SCIENCES

Safarov Khusniddin Sirojiddin ugli, Kurbonboyev Sindorbek Sarvarbek ugli
Sadulloyev Asadbek Dilmurotovich, Ruzikulova Dilnoza Uktamovna
Studetnts of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
Scientific supervisor: Ruzikulov Jasur Uktam ugli
Teacher of "TIIAME"NRU Bukhara natural resources management.
jasurruzikulov@mail.ru

Annotation: The article radically improves the quality of training of engineers and technicians for agricultural production, further strengthening the material and technical base and scientific and technical capacity of specialized higher education institutions, the introduction of modern pedagogical and information and communication technologies in the educational process. There was a talk on the introduction of, systematic training and retraining of scientific and pedagogical staff and specialists.

Keywords: Land reclamation, pedagogy, pedagogical technologies, analytical methods, information and communication technologies.

Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, qishloq va suv xo‘jaligi soxasi oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini yanada mustaxkamlash, ta’lim jarayoniga zamonaviy yuqori samarali pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or usullarini faol joriy etish bo‘yicha bugungi kunda respublikamizda qator maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning oliy ta’lim

muassasalarida «qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash», «gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash», «melioratsiya va suv xo‘jaligi», «gidrotexnika inshootlaridan foydalanish» hamda qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarining boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha 15 ming nafardan ortiq muhandis – texnik kadrlar tayyorlandi.Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun muhandis – texnik kadrlar tayyorlash tizimini o‘rganish va tahlillar kadrlar tayyorlashga real ehtiyojni aniqlash, o‘quv jarayoni bilan ishlab chiqarishning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirish, ilmiy-metodik bazani ishlab chiqishda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, o‘qituvchilar tarkibi malakasini oshirish masalalarida Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Suv xo‘jaligi vazirligi, tarmoq korxonalari va ixtisoslashgan oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud emasligini ko‘rsatmoqda, bu esa kadrlar tayyorlash, ayniqsa qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash sohasida kadrlar tayyorlash sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarining moddiy – texnik bazasi va ilmiy – texnik salohiyatini yanada mustahkamlash, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy – pedagog kadrlar va mutaxassislarning tizimli ravishda malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston respublikasi prezidentining “Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlari uchun muhandis – texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi [1].

O‘zbekiston – o‘ziga xos mustaqil taraqqiyot yo‘lini belgilar ekan, Oliy ta’limda har bir mutaxassislikka qarab muhandis-pedagoglar tayyorlashni zaruriy ehtiyoj deb biladi, bularning barchasi orqali har tamonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, inson kamoloti va uning ma’naviy – ma’rifiy tarbiyasiga alohida e’tabor beriladi. Bugungi islohotlar o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim tarbiyasi bilan bog’liq kasb egallash, muhandis – pedagoglar, ularning kasbiy salohiyati, malaka va mahorat darajalari, ma’naviy qiyofasi ham davlat siyosatining ustuvor maqsadlaridan biridir. Respublikamizda malakali kadrlarni tayyorlash “Ta’lim to‘g’risida” gi qonunning yangi tahriri va uning bosqichlarida belgilab berilgan tadbirlar asosida amalga oshirilib borilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash yozma,

og’zaki va test shaklida o‘tkaziladi. Bugungi kunga kelib, pedagog xodimlar uchun qulay bo‘lgan, o‘qituvchi va talabalarga mukammal bilim berish hamda ularning olgan bilimlarini to‘g’ri baholash maqsadida yangi pedagogik texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Texnika fanlarini o‘qitish maqsadida, uning mazmuni, o‘qish va o‘qitish usullarini, o‘qitish natijalarini nazorat qilish va baholashni, hamda ularni o‘zaro bog’lanishda loyihalash, yangi pedagogik texnologiyaning tashkiliy asosi hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, o‘qitishda tub o‘zgartirishlar qilishni talab etadi. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi tom ma’nosi bilan ta’lim tizimida shunday o‘zgartirishlar qilishni ko‘zda tutgan. Ya’ni shu kungacha ta’lim tizimida amal qilib kelinayotgan uslublar kamchiliklari bilan birga o‘ziga xos afzalliklarga ham egadir. O‘qitilishning maqsadiga erishilganligini aniqlashda o‘quvchi tamonidan unga berilgan o‘quv materialini o‘zgartirish darajasini aniqlash me’zonlari mavjud. Bularga, bilim, tushuncha, umumiy tushuncha, usul va qoidalarni qo‘llay olish, tahlil qilish, xulosa qilish va baho berishlar kiradi. Texnika fanlarini o‘qitishning an’anaviy usuli bo‘lib ma’ruza, labaratoriya va amaliy mashg’ulotlar, hamda o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari hisoblanadi. Ularni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, shular jumlasidan vertual stentlar va animatsion materiallardan foydalanib, texnikalarni harakat holatlari va ularni tuzilishini haqiqiy texnikada bajarayotgan holatlarini kompyuter texnologiyalardan foydalangan holda ko‘rsatish talabalarda yuqori bilim berish orqali sohani mukammal bilishga asos bo‘lib xizmat qiladi. AKT vositalari bo‘yicha fikr yuritadigan bo‘lsak, ma’lum metodlar yordamida mukammallashgan ayni vaqtda izlanishlarning kuchayishiga, ma’lumotlarning izlanish darajasida hamda analitik metodlar orqali axborotning izlashini,ya’ni uzviyligini ta’minlab beradi. Demak, har bir dars soatlarini u qaysi fan bo‘lishidan qat’iy nazar o‘zlashtirish tizimlilik jarayonini, o‘qitishda yuqori natijaga erishish uchun multimediya ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanishning ahamiyatini oshirishga e’tiborni kuchaytirsa, o‘quv jarayonlari tashkil etish ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalarida ta’lim mazmuni, tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo‘l ochish uchun chet – el tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish ta’lim jarayonida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirishga imkon beradi.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlari uchun muhandis – texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3003 sonli qarori. 2017 y.
2. I.Naxatov, A.Do‘smatova. Fanlarni o‘qitishda AKT vositalarining ahamiyati. Toshkent 2012.40-43 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni O‘RQ-637 23.09.2020 y.

UO‘T: 681.14237

MUTAXASSISLIK FANLARINI O’QITISHDA KOMPAS 3D DASTURINING AHAMIYATI.

Abduraximov Mustafo Akmaljon o’g’li, Suv xo’jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta’lim yo’nalishi2-bosqich talabasi Email: abduraximovmustafo5@gmail.com
Saidova Guljamol Komilovna,“Umumkasbiy fanlar” kafedrasi stajyor-o’qituvchisi, Email: guljamolsaidova30@gmail.com
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”

Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti
Annotatsiya. Maqolada muhandis-mexanik ixtisosligi bo’yicha Kompas 3D dasturidan foydalanib, loyihalash ishlarini bajarish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: “Kompas 3D” dasturi, qo’lyozma, muhandis, kurs loyiha, kurs ishi, loyihalash, mexnika bo’limi.

UDC: 681.142

THE IMPORTANCE OF COMPASS 3D PROGRAM IN TEACHING SPECIALTIES

Abdurakhimov Mustafo Akmaljon ogli, 2nd year student of Mechanization of Water Management and Land Reclamation. Email: abduraximovmustafo5@gmail.com
Saidova Guljamol Kamilovna, Teacher-trainee of the department "General professional sciences" Email: guljamolsaidova30@gmail.com
Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”

Annotation. The article recommends the design work using a Compas 3D program in mechanical engineering.
Keywords: Compas 3D software, manuscript, engineer, course project, course work, design, mechanics department.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimida o’tkazilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi mamlakatimiz yoshlarni jahon andozalariga muvofiq yuqori malakali mutaxassis qilib yetishtirishdan iborat. Bu borada talabalarga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'grisida so'z borganda o'quv jarayoniga yangi axborot, pedagogik va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish muhim vazifalardan biri sanaladi.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonini kompyuter texnologiyasidan foydalanib keng joriy qilish davr talabi hisoblanadi. Bugungi kunda TIQXMMI MTU BTRBI da muhandis –mexanik ixtisosligi bo’yicha ta’lim yo’nalishlari mavjud bo’lib, bunga “Suv xo’jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash” hamda “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” ta’lim yo’nalishlari misol bo’ladi.

Ushbu yo’nalishlarda o’tilayotgan “Mashina detallari va loyihalash asoslari” fanidan kurs ishi va kurs loyihalarini bajarish qo’lyozma tarzda amalga oshirib kelinmoqda. Bu ko’p vaqt va mehnat sarfini talab etadi. Mutaxassislik fanlarida mavjud loyihalar, konstruktorlik ishlarini zamonaviy kompyuter dasturlari orqali amalga oshirishni joriy etish bugungi kunda dolzarb va muhim masalalardan biri hisoblanadi.

So’nggi yillarda ta’lim tizimida ko’pchilik fanlarni o’qitishda komyuter dasturlaridan foydalanish ommalashib bormoqda [1,2,3,4]. Bu dasturlar o’qituvchiga o’quv jarayonini tashkil qilishda, talabalarga esa fanni o’zlashtirishlarida katta yordam beradi. Ular yordamida o’quv jarayoni borishini jadallashtirish, o’quv materiallarini ancha sodda va yaqqol tasvirlar yordamida ko’rgazmali tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

Bunday dasturlar yordamida kompyuterli modellashtirish, konstruktorlik loyihalash ishlarini sifatli bajarish, foydalanuvchiga texnik chizmalarni tez va malakali, yuqori aniqlikda ishlab chiqishda, hamda bir vaqtning o’zida qog’ozda chiqarish imkoniyatlarini yaratadi.

Hozirgi vaqtda uch o’lchamli kompyuterli modellashtirish dasturlari foydalanuvchilarning katta e’tiboriga sabab bo’lmoqda. Bunday dasturlardan biri bu “Kompas 3D” dasturidir. Bu dastur yordamida asosan

muhandislik sohalariga oid chizmalar, sxemalar va uch o'lchamli modellarni yaratish mumkin (1-rasm). Ushbu dastur boshqa dasturlardan farqli ravishda 3 qismdan iborat bo'lib, u o'z ichiga jihozlar bo'limi, mexanika bo'limi va asbob-uskunalar yaratish bo'limini qamrab oladi. Yuqorida sanab o'tilgan bo'limlardan muhandis-mexaniklar uchun taaluqli bo'lim bu mexanika bo'limidir [5,6].

Mexanika bo'limi keng imkoniyatlarga ega bo'lgan mexanizmlar, agregatlar, yuritmalar, tranmissiya qurilmalari, energetik va ishchi mashinalarni loyihalash va yaratish uchun mo'ljallangan. Ushbu bo'lim ham o'z navbatida quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- Uch o'lchamli vallar va mexanik uzatmalar bo'limi;
- Prujinalar bo`limi;
- Elektrodvigateller katalogi;
- Reduktorlar katalogi;
- O`lchamlar qo`yish bo`limi;
- Muftalar katalogi;



1-rasm. Kompas 3D dasturida loyihalangan yuritmaning chizmasi.

Mexanika bo'limida avtomatlashtirilgan tizim asosida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- Zamonaviy usullardan foydalanib loyihalash ishlarini bajarish;
During the previous years, a large proportion of expenditure on education, particularly public education spending accounted for on the local budget. In order to radically strengthen the income base of local budgets, reduce dependence on deductions from higher budgets and increase responsibility, from July 1, 2017 to December 31, 2017, as an experiment in terms of the expenditures of local budgets of the city of Tashkent and districts , changes were made related to the costs of public education [12].

Firstly, the costs of wages of employees of general education schools financed from the territorial budgets, and the costs of a single social payment, are carried out at the expense of a targeted interbudgetary transfer allocated from the budgetary funds of Tashkent City.

Secondly, the costs of strengthening the material and technical base of educational institutions are financed from the budgetary funds of the city of Tashkent.

Thirdly, the costs of providing special schools, boarding schools and specialized boarding schools were transferred to the budget of Tashkent City.

Regardless of which budget funds are allocated to finance public education, they should be used rationally, only in this case the goal will be achieved.

Thus, as a result of control measures carried out by the Department of State Financial Control of the Ministry of Finance and its territorial offices in 2019, a number of cases of illegal use of budgetary funds in the system of public administration were revealed (Table 2).

Table 2

Results of control activities carried out By the Ministry of Finance in the public education system in 2019 [6]

	Budgetary organizations subject to control	**Budgetary organizations in which deficiencies are established**		**Amount of identified financial deficiencies**	**Recovered amount of identified financial deficiencies**	
	Qty	**Qty**	**IN %**	**mln UZS**	**mln UZS**	**in %**
Total	**8 074**	**6 616**	**81.9**	**142,592**	**129 139**	**90.5**
In the system of the Ministry of Public Education	1 301	1 112	85.5	29821	25,228.6	84.6
In relation to "total"	16.1	16.8	x	20.9	19.5	x

71.3 per cent of the amounts illegally wasted at different times, or UZS 21 258.5 are the funds allocated for wages and similar payments to the organizations in the Ministry.

Conclusions and offers

Only effectively organized system of public education funding mechanism provides the efficiency of the education system. And this, in turn, contributes to the achievement of the goals of the education system.

Summing up, we can say that the financing of the expenditures of the public education system in our country is mainly carried out at the expense of budgetary funds, and a significant share of these expenditures falls on wages. The increase in the wages of workers in this system in the last 2 years has led to an increase in expenditures carried out at the expense of budgetary funds. The local budget funds are insufficient to finance social expenditures from the budgetary funds of the region and the city, in particular, expenditures on education. So, translated from 1 January 2020 financing salary costs of employees comprehensive and unified social payment schools in the national budget, is directed at the effect in hydrochloric organization of financing the public education system. But, as can be seen from the above situation, it is the funds allocated from the budget for wages and payments equated to it that have been spent in different years in illegal ways, in particular, it has been revealed:

–admitting a shortage of cash;

–unjustified transfer of funds to plastic cards;

–expenditure of funds in the name of actually unemployed citizens (i.e. "dead").

In order to ensure distribution and the use of funding s funds on the basis of an efficient and transparent schemes, with the current year expenditure systems s public education will be implemented through the Ministry of Public Education. Targeted use of budgetary funds is subject to constant monitoring not only the financial regulatory authorities, but also the heads of educational institutions and special offices of the Ministry, respectively , is appropriate to place the responsibility for their use is, on both sides, i.e. on both institutions.

Considering the above, when exercising control over the process of spending budget funds in the public education system, it is advisable to carry out the following work:

First, public scrutiny should be strengthened. At the same time require that the heads of secondary schools on the spending of budget funds report not only to the Ministry of Finance, but also to the public or the parents (taxpayers). That is, at present, when attention is paid to the

development of the digital economy, it is possible to post monthly reports on the use of funds on electronic boards.

Secondly, you should pay more attention to proper planning costs and ensure timely e informing e on the results of inspections. And the significance of this in determining the effectiveness and efficiency of the results of the checks carried out is great.

List of used literature

[1] Message from the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the Oliy Majlis , 24.01.2020, http : // www . press - servise . uz

[2] Batova B.Z., Aslanova L.O., Alikaeva M.V., Gubachikov A.M. Problems of financing education in Russia // Fundamental research. - 2016. - No. 5-3. - S. 546-550

[3] Chia-HuiLu. "Social status, compulsory education, and growth" / / Economic Modeling . Volume 68 , January 2018, Pages 425-434.

[4] Imomov, S., Shodiev, E., Tagaev, V., Qayumov, T.Economic and statistical methods of frequency maintenance of biogas plants (2020) IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 883 (1), статья № 012124.

[5] Malikov TS, Gaidarov ND. Давлат бюджети. Textbook / Tashkent Financial Institute. - T .: "ИКТИСОД-МОЛИЯ", 2007. 84 p .

[6] Chekha V.V., Financing of education: the system of legal regulation // Questions of Russian and international law. 2017. Volume 7. No. 7A. S.274-283

[7] Belyakov SA, Financing the education system in Russia. M .: MaxPress, 2006.304 s, 114

[8] Nurmukhamedova B., Srozhiddinova Z., Sugirbaev B., Узбекистан Республикасида таълим харажатларини режалаштириш. InfoCapitalGroup, 2013. - 447. 450 p .

[9] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 7, 2017 No. UP-5075 " On measures to expand the powers of local government bodies in the formation of local budgets ", http // www . lex . uz

[10] Khamidov, F.R., Imomov, S.J., Abdisamatov, O.S., Sarimsaqov, M.M., Ibragimova, G.Kh., Kurbonova, K.I.Optimization of agricultural lands in land equipment projects(2020) Journal of Critical Reviews, 7 (11), pp. 1021-1023.

[11] Ismailova, Z., Choriev, R., Musurmanova, A., Aripjanova, M. Methods of training of teachers of university on advanced training courses (2020) Journal of Critical Reviews, 7 (5), pp. 413-416.

[12] Imomov, S.,Kholikova, N.,Alimova, Z.,Nuritov, I., Temirkulova, N. Oil purification devices used in internal combustion engines (2019) International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9 (1), pp. 3103-3107.

[13] Imomov, S., Sultonov, M., Aynakulov, S., Usmonov, K., Khafizov, O. Mathematical Model of the Processes of Step-By-Step Processing of Organic Waste (2019) International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2019, статья № 9011929, .

[14] Ismatovna, T.D.,Ikramovich, K.A., Djaxanovich, I.S., Farhodovich, M.F. Dynamic Modeling of Vibrating System N-S Component Parts Which of That the Mobile Machines for Fast Acting Pneumatic Actuator with Self-Damping (2019) International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2019, статья № 9012010

[15] K.Astanakulov. Parameters and indicators of the longitudinal-transverseoscillation sieve. IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 883 (2020) 012151, doi:10.1088/1757-899X/883/1/012151

[16] Bakhtiyar Matyakubov, Kasimbek Isabaev "Features of Modeling the Flow of Water in the Furrow". ISSN: 2350-0328 International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 6, Issue 10 , October 2019., 11158-11162 pp.

[17] Bazarov D., Uralov B., Matyakubov B., Vokhidov O., Uljaev F., Akhmadi M. "The effects of morphometric elements of the channel on hydraulic resistance of machine channels of pumping stations" // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2020

[18] M.Khamidov, K.Khamraev Water-saving irrigation technologies for cotton in the conditions of global climate change and lack of water resources 2020 CONMECHYDRO - 2020

[19] M.K.Khamidov, K.S.Khamraev, K.T.Isabaev Innovative soil leaching technology: A case study from Bukhara region of Uzbekistan 2020

[20] Ismatovna, T.D., Ikramovich, K.A., Djaxanovich, I.S., Farhodovich, M.F. Dynamic Modeling of Vibrating System N-S Component Parts Which of That the Mobile Machines for Fast Acting Pneumatic Actuator with Self-Damping (2019) International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2019, статья № 9012010

[21] Ismailova, Z., Choriev, R., Salomova, R., Jumanazarova, Z. Use of economic and geographical methods of agricultural development (2020) Journal of Critical Reviews, 7 (5), pp. 409-412.

---

[1] http // www . mf . uz - prepared by the author based on the analysis of data from the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan .
[2] http // www . mf . uz - prepared by the author based on the analysis of data from the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan
[3] http // www.mf.uz- prepared by the author based on the analysis of data from the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan .

УДК: 06.01.02

ҚОВУН ПОЛИЗ ЭКИНИНИНГ БИОЛОГИК ВА МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.

И.Ж.Худаев – т.ф.д., профессор,
Н.Ш.Шохимарданова – стажёр тадқиқотчи,
Ш.М.Тожиев – магистр,.
ТИҚХММИ МТУ Бухоро табиий ресурслардан бошқариш институти.

Аннотация: Ўлкамизда етиштириладиган қовунларнинг таркибида 85-92% сув, 8-15% қуруқ модда, 0,8% оқсил, 1,8% клетчатка, 6,2% бошқа углеводлар, 0,9% мой, 0,6% кул, 20-30 мг% аскорбин кислотаси, 0,03- 0,07 мг% бошқа дармондорилар, фосфор, олтингугурт, марганец, рух, бром, темир, кальций, магний, калий, пектин каби микроэлементлар, органик ва минерал тузлар мавжуд. Ўзбекистон қовун навлари меваларидаги қанд моддаси миқдори 14-16% га етади.

Калит сўзлар: полиз экинлари**,** тупроқнинг физик хоссалари, туроқдаги озиқли моддалар, қовун илдизи, қовун уруғи.

BIOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL PROPERTIES OF MELON MELON CULTIVATION.

I.J Khudaev - Ph.D, Professor,
N.Sh.Shoximardanova - trainee researcher,.
Sh.M.Tojiev - Master,
TIIAME NRU Bukhara Institute of Natural Resources Management.

Annotation: Melons grown in our country contain 85-92% water, 8-15% dry matter, 0.8% protein, 1.8% fiber, 6.2% other carbohydrates, 0.9% oil, 0.6% ash, Contains 20-30 mg% ascorbic acid, 0.03-0.07 mg% other drugs, trace elements such as phosphorus, sulfur, manganese, zinc, bromine, iron, calcium, magnesium, potassium, pectin, organic and mineral salts. The content of sugar in the fruits of melons of Uzbekistan reaches 14-16%.

Keywords: melon crops, physical properties of soil, nutrients in the soil, melon root, melon seeds.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 29 декабрдаги ПҚ-2460-сон қарори билан 2021 йилгача пахта ва буғдой

майдонларининг қисқариши ҳисобига сабзавот майдонлари 91 минг гектарга кўпаяди. Шу билан бир қаторда такрорий муддатда буғдойдан бўшаган майдонларга (июньавгуст) сабзавот ва полиз экинларини экиш йилдан-йилга ортмоқда. Президент Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг 2018 йил 29-30 ноябрь кунлари Хоразм вилоятига ташрифи давомида берилган топшириқлари ва 30 ноябрь куни Халқ депутатлари вилоят кенгашининг навбатдан ташқари сессияси йиғилиши баёни ижроси, шунингдек, Хоразм вилоятида қовун етиштирувчилар хўжаликларини ташкил этиш, илмий-тадқиқот муассасалари билан ҳамкорликда ишлар олиб бориш, инновацион технологиялар асосида қовуннинг очиқ майдонларда ва иссиқхонларда етиштириш, уни қайта ишлашни комплекс ривожлантириш, соҳанинг экспорт салоҳиятини янада юксалтириш мақсадида, Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 февралдаги "Хоразм вилоятида қовун етиштириш ҳажмларини янада кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 114-сон қарори тасдиқланди. Фермер ва деҳқон хўжаликларида юқори сифатли ҳосил олиш учун, аввало, ҳар бир экин биологияси унинг ўсиш даврида озиқа ва сувга бўлган талаби, етиштириш жараёнида ҳар бир агротехник тадбирларни ўз вақтида, сифатли ўтказиш зарур. Деҳқончиликда ишлар, аввало, экинларни тупроқ турига қараб жойлашни режалаштиришдан бошланади. Экинларни жойлаштиришда, албатта, уларни алмашлаб экиш кўзда тутилиши шарт. Экиш муддатларини тўғри белгилаш ҳам катта аҳамиятга эга. Экиш муддатлари бир ҳафта муддатга кечикса, ҳосилдорлик 20-25% га камаяди. Республиканинг об-ҳаво иқлим ва тупроқ шароитига қараб ҳар бир вилоят учун ҳудудлаштирилган, мўл ҳосилли, сифат кўрсаткичлари юқори бўлган, касалликларга чидамли, сифатли уруғ ҳамда ҳар бир экиш муддати учун мос бўлган навларни тўғри танлаш лозим. [1,2]

Ўзбекистон кўпгина неъматлари қатори, ўзининг қовунтарвузлари билан ҳам машҳур. Мирзачўлнинг тилими тилни ёрадиган қовунлари тилларда достон бўлган Оқуруғ, Амири, Обиноввот, Кампирчопон, Бўрикалла, Гурвак, Кўк тинни, Кўкча-588, Шакарпалак, Гулоби, Кўк каллапўш каби қовун навларининг номларини эса чет элларда ҳам билишади. Полиз ўсимликлари жумласига тарвуз, қовун ва қовоқ киради. Бу ўсимликларнинг ҳаммаси Қовоқгуллилар (Cucurbitaceae) оиласига мансубдир. Бу

ўсимликларни битта гуруҳга бирлаштирадиган умумий белгилари уларнинг иссиқликка, ёруғликка, тупроқнинг физик хоссаларига, туроқдаги озиқли моддалар миқдорига нисбатан юксак талабчанлиги ва шунга асосланган агротехникасидир. [3]

Ўлкамизда етиштириладиган қовунларнинг таркибида 85-92% сув, 8-15% қуруқ модда, 0,8% оқсил, 1,8% клетчатка, 6,2% бошқа углеводлар, 0,9% мой, 0,6% кул, 20-30 мг% аскорбин кислотаси, 0,03-0,07 мг% бошқа дармондорилар, фосфор, олтингугурт, марганец, рух, бром, темир, кальций, магний, калий, пектин каби микроэлементлар, органик ва минерал тузлар мавжуд. Ўзбекистон қовун навлари меваларидаги қанд моддаси миқдори 14-16% га етади. Таркибида фруктоза моддаси миқдорининг кўплигида қовун эти ширин, глюкоза моддаси кўпроқ бўлганда нимширин таъмга эга бўлади.[4]

Барча полиз экинлари жанубдан (қовун Кичик Осиё билан Ўрта Осиёдан) келиб чиққанлигидан иссиқсевардир. Қовуннинг уруғи +14-16 °С да уна бошлайди. Ҳарорат бундан пасайганда уруғлар ерда чириб қолади, сийрак униб чиқади. Шунинг учун полиз экинларини жуда эрта – ер қизимасдан экиш мақсадга мувофиқ эмас. Уруғнинг униб чиқиши учун мақбул ҳарорат +20 °С ҳисобланади. Сутка давомида ҳарорат +15-32 °С атрофида ўзгариб туриши мумкин. Ана шундай ҳароратда уруғ экилгандан кейин 5-6 кунда майсалар кўрина бошлайди. Ҳароратнинг пасайиши майсаларнинг униб чиқишини пасайтиради. Қовуннинг ўсиб ривожланиши учун қулай ҳарорат +25-30 °С ҳисобланади. Ҳарорат +12-15 °С гача пасайса, экинларнинг гули тўкилиб кетади, улар ўсишдан тўхтайди ва секин-аста қуриб қолади. 0 °С ёки -1 °С полиз экинлари майсаларини ёппасига нобуд қилади. Ҳарорат -3-5 °С га тушиб қолса, вояга етган ўсимликлари ҳам зарарланади. Қовун ёруғсевар ўсимликдир. Сояда улар секин ривожланади ва натижада ҳосилдорлиги пасайиб кетади. Шунинг учун уларни соялаб қўядиган ўсимликлар билан бирга ёки мева боғлари қатор ораларига экиш тавсия этилмайди. Қовун ўсимлигининг ерга ёйилиб ўсадиган палаги 2-3 метргача етади. Барглар қўлтиғидан жингалаклар ўсиб чиқади. Ўсимлик шулар ёрдамида атрофдаги нарсаларга илашиб олиб, ер юзасидан юқори кўтарилади. [5]

Қовуннинг илдиз тизими кучли ривожланган, асосан ўқ илдиз ҳамда ён илдизлардан иборатдир. Одатда қовуннинг ўқ илдизи, ён

илдизларига қараганда камроқ ривожланган бўлади. Ўсиш даврининг охирида илдиз бўғзи 5-6 см йўғонликда, ундан пастроқда эса икки баравар ингичкалашади, 1 м чуқурликда эса ўқ илдиз 0,4 см йўғонликда бўлади.

Биринчи даражали ён илдизларнинг сони 10-15 та бўлиб, улар тубининг диаметри 0,2-0,4 см, узунлиги эса 2-3 м га етади, улар қовун палагининг йўғонлигидек бўлади. Ён илдизлар тупроқда ҳар хил жойлашади. Айрим навларнинг илдизлари 15-25 см чуқурликда ёнига тарқалади, фақат илдизнинг учидаги қисмигина тупроққа 1,5 м чуқурликда тарқалади, баъзи навларнинг ён илдизлари ёнига жойлашмайди. Илдиз тизими ривожланиши қовун навларининг ташқи муҳит шароитига, тупроқ таркиби, унумдорлиги, озиқланиш майдони, юмшоқлиги ва намлигига боғлиқ. [6]

Қовуннинг палаги бақувват бўлиб, ер бағирлаб ёки чирмашиб ўсади, ундан 3-4 та тартиб шохлар ўсиб чиқади ва узунлиги 3-4 м га, палагидаги ҳамма шохларнинг ўртача узунлиги 20-25 м га етади. Навларга боғлиқ ҳолда ҳар тупда 200-400 та йирик (узунлиги 15-16 см, кенглиги 26-28 см) яхлит ёки қирқимли, кунгирали барглар бўлади. Барг япроқлари қовун навига ва ташқи муҳитга қараб 12-15 см ли барг банди пояларда навбат билан жойлашади. [7]

Қовун бир уйли, айрим жинсли ўсимликдир, баъзан икки жинсли ўсимликлари ҳам учрайди. Икки жинсли ўсимликларда оналик гуллари алоҳида, оталик гуллари эса гулшода ҳолида, барг қўлтиқларида пайдо бўлади.

Қовун меваси кўп уруғли – сохта мева ҳисобланади. Катталиги навига, турига, шаклига, рангига қараб ҳар хил бўлади. Уруғлари уруғ туткичлари билан мева ўртасидаги бўшлиқда жойлашади ва уни тўлдириб туради.

Қовун уруғи ҳарорат +15 °С дан юқори бўлганда 5-7 кунда, +25-30 °С га етганда 48 соатда қийғос униб чиқади ва ҳарорат +40 °С дан ошганда эса уруғ унмайди. Қовун уруғи тўқ сариқ, оқиш, оч қаймоқ рангли, чўзиқ ва кенг овал шаклда, майда-йирик бўлиб, узунлиги 14-28 мм, 1000 дона уруғ оғирлиги 40-80 г Уруғ унувчанлиги 8-10 йил сақланиши мумкин. Хулоса қилиб айтганда, қовун – жуда қадимий экин бўлиб, Кичик Осиё, Эрон, Афғонистон ҳамда Ўрта Осиё ҳудудлари унинг ватани ҳисобланади. Мевасидан истеъмолда янгилигича, фармацевтикада ва саноатда қайта ишлаш учун хомашё

ҳамда чорвачиликда озуқа сифатида фойдаланилади. Ўлкамизда етиштириладиган қовунларнинг таркибида 85-92% сув, 8-15% қуруқ модда, 0,8% оқсил, 1,8% клетчатка, 6,2% бошқа углеводлар, 0,9% мой, 0,6% кул, 20-30 мг% аскорбин кислотаси, 0,03- 0,07 мг% бошқа дармондорилар, фосфор, олтингугурт, марганец, рух, бром, темир, кальций, магний, калий, пектин каби микроэлементлар, органик ва минерал тузлар мавжуд.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 29 декабрдаги ПҚ-2460-сон қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида экиш учун тавсия этилган қишлоқ хўжалик экинлари Давлат реестри. – Тошкент, 2018. б 53-56.
3. Туркия Республикаси “Озиқ-овқат қишлоқ хўжалиги вазирлиги” ҳамда “Denizbank” ҳамкорлигида тайёрланган “100 та китоб”дан иборат тўплами.
4. Балашев Н.Н. “Полизчилик” Тошкент, 1975. б 17-25, 98- 99.
5. Бўриев Х.Ч., Ашурметов О.А Полиз экинлари биологияси ва етиштириш технологияси Тошкент – 2000. б 31-34-.
6. Ҳакимов Р.А., Ҳалимова М., Расулов Ф., Алимуҳаммедов С.С Қовундан юқори сифатли ҳосил етиштириш агротехнологияси бўйича тавсиялар. Тошкент – 2017. б 3-10.
7. Ҳакимов Р.А., Ҳакимов А.С., Тошмуҳаммедов А.А. Сабзавот полиз экинлари уруғчилиги. Тошкент, 2003. б 144.
8. Алимуҳаммедов С.С., Холдоров М.У. Уруғдорилагич препаратларининг қовун ва тарвуз уруғлари унувчанлигига таъсири//“Республикада сабзавот, полиз экинлари ва картошка етиштириш истиқболлари, муаммолари ва ечимлари” Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. – Тошкент, 2019. – б 375-379.

UDK 631.6; 626.8

BEDANI OQOVA SUVLAR BILAN YETISHTIRISHDA SUG'ORISH REJIMINI ISHLAB CHIQISH.

I.Islomov – q.x.f.d., professor,
Z.Z.Hakimova – tayanch doktorant, (zarina_khakimova90@mail.ru)
Q.Hakimov – magistr,
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

Annotatsiya: Buxoro shahridagi oqova suvlarida beda ekinini sug'orish rejimi (me'yori)ni ishlab chiqishda 2 yillik ilmiy – amaliy tadqiqot ishlari olib borilib, natijalari yoritilgan. Eng maqbul variant chegaralangan dala nam sig'imi (ChDNS) ga nisbatan 80% hisobida, bo'lgan variant. Yangi ochilgan o'tloqi allyuvial Buxoro viloyati tuproqlarida sug'orish me'yori 2020 yilda CHDNS ga nisbatan 70 % hisobida - 4000 m^3/ga, CHDNS ga nisbatan 80 % hisobida - 3743 m^3/ga tashkil qildi. Sug'orish rejimiga asosan bedaning hosildorligi ho'l holatida CHDNS ga nisbatan 70 % hisobida 1- variantda 173 s/ga, 2- variantda 195 s/gani, CHDNS ga nisbatan 80 % hisobida 1- variantda 342 s/ga, 2- variantda 384 s/gani; quruq holatida esa CHDNS ga nisbatan 70 % hisobida 1- variantda 54 s/ga, 2- variantda 61 s/gani, CHDNS ga nisbatan 80 % hisobida 1- variantda 95 s/ga, 2- variantda 155 s/gani tashkil etdi. Bedani oqova suvlarda yetishtirishda eng yaxshi variant bu CHDNS ga nisbatan 80 % hisobida 1- varianti.

Kalit so'zlar: oqova suvlar, sug'orish muddati, solishtirma massasi, sug'orish rejimi (me'yori), mavsumiy sug'orish, hosildorlik, beda.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.06.2019 yil 5742 – pf "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmoniga asosan qo'shimcha suv zaxiralaridan unumli foydalanish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi vaqtlarda ko'plab davlatlar zamonaviy va suv tejovchi texnologiyalar asosida sug'orish ishlarini amalga oshirishmoqda. [1] O'zbekiston hududida 1 gektar yerga ishlov berishda 12-14 ming^3/m suv sarflanadi. Lekin, ayrim davlatlarda misol uchun Isroilda gektariga atigi 5 ming^3/m suv ishlatiladi.[3.4.5.6] So'nggi yilllarda qishloq xo'jaligi

ekinlaridan yuqori va sifatli mahsulot olish, yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, suv resusrlaridan to'g'ri va samarali foydalanish uchun bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. Sug'orma dehqonchilikda suv resurslaridan unumli foydalanish bugungi kunning global muammolaridan biridir. Bunga sabab suv manbasining cheksiz emasligidir. Suv taqchil mintaqalarida kollektor – zovur hamda oqova suvlari tarkibini o'rganib undan foydalanishga ijozat berilgan. [7.8.9] Oqova suvlar hamda kollektor – zovur suvlari tarkibida zararli moddalar bilan birgalikda foydali moddalar ham mavjuddir.

Metod. Akademik V.R.Vilyams tomonidan olamshumul qonun yaratilgan bo'lib, bu quyidagicha ta'riflanadi: - O'simliklarning yashash sharoitlariga yorug'lik, issiqlik, havo, suv va ozuqa moddalari kiradi. Yorug'lik, issiqlik, havo kosmik (koinot) omillari hisoblanadi va nisbatan inson tomonidan boshqariladi. Suv va ozuqa moddalari o'simlikka tuproq orqali o'tadi va inson mehnati, bilimi bilan to'liq amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olish uchun asosan doimiy suv va oziq moddalar bilan butun vegetatsiya davrida ta'minlab turish lozim. Bizning sharoitimizda bedani suv va oziq moddalar bilan ta'minlashga to'g'ri keladi. [10.11.12] Ma'lumki, Buxoro viloyatida eng kam yog'in yog'adigan hudud va bu rayonlashtirishda arid mintaqaga kiradi. Yog'ingarchilikga nisbatan bug'lanish ancha yuqori. Natijada qishloq xo'jalik ekinlarni sug'orishga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi va rivojlanishi tuproqning sug'orishdan oldin namligini chegaralangan dala nam sig'imini belgilangan foizda saqlashga bog'liq. Agar chegaralangan dala nam sig'imi belgilangan darajada ushlansa ekinlaridan yuqori hosil olinadi.[13.14] Ekinlarning bir me'yorda rivojlanishini ta'minlaydi. Suv resurslari tabiatning asosiy komponenti hisoblanib, inson va o'simlik dunyosi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Aholining va ishlab chiqarishni ko'payishi bilan suvga bo'lgan ehtiyoj yanada ko'payaveradi. Toza suv qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda hamda aholi ehtiyojlari uchun iste'mol qilishga orqali foydalanilmoqda. Ishlatilgan suvlar oxir oqibatida tashlamalarga va ko'llarga chiqarib tashlanadi. Inson tomonidan toza suvdan samarasiz foydalanish natijasida Amudaryo va Sirdaryolarning suv manbalari Orol dengizigacha yetib bora olmagan. Shuning oqibatida Orol dengizining ahvoli bugun kunda achinarli holatda. Bizning oldimizga qo'yilgan ulkan vazifa va maqsad bu Buxoro shahridan chiqayotgan oqova suvlaridan qishloq

xo'jaligi ekinlarini sug'orish va suv manbalaridan oqilona, samarali foydalanishdir. Bunda qishloq xo'jalik ekinidan, bedani sug'orish rejimi ishlab chiqildi. Ilmiy izlanishlarga muvofiq beda ekini Buxoro tumanidagi "Zarmanoq" MFY siga qarashli 2 ta variant uchun 288 m^2dan tajriba olib borish uchun yer maydonchasi tanlanib olindi. Tajriba maydoni, tuproq tarkibi va oqova suvlarning tarkiblari to'liq o'rganilib chiqildi. Tajriba o'tkazish usuli bo'yicha 2 variant CHDNSga nisbatan 70 va 80 % hisobida bo'lganida 1- variant oqova suv bilan sug'orish, 2-variant oqova suvlar bilan sug'orish va qo'shimcha oziqlantirish uchun mineral o'g'it berish. CHDNS ga nisbatan 60 % hisobida bo'lganida Buxoro hududining tuproq sharoitlariga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Bu sharoitda o'simlik unmaydi. [12.13] Urug' ekilish jarayoni ikkala variantida ham 10.03.2020 yilda amalga oshirildi. Urug' qadalmasidan oldin ikkala hududga ham bir xil me'yorda 500 m^3/ga miqdorida suv berildi.

Sug'orish me'yorini hajm massasi bo'yicha hisoblanishi, S.N.Rijov sug'orish me'yorlarini aniqlashni A.N.Kostyakov va L.P.Rozovlarning formulalariga asoslanib quyidagicha hisoblanadi.

$$M=(A-B)h+K \ m^3/ga;$$

Bunda, m – sug'orish me'yori (m^3/ga); A – chegaralangan dala nam sig'imi (% hajm birligi hisobida); B – sug'orishdan oldin tuproq namligi (% hajm birligi hisobida); h – faol tuproq qatlami (sm); K – usulga muvofiq, bug'lanish uchun susarfini hisobga olgan holda, sug'orish paytida umumiy normasining 10 % miqdorida qo'shilgan. [2]

Bedani sug'orish muddatlari me'yori, sug'orishdan oldingi namligi, sug'orishlar soni, sxemasi va umumiy sug'orish me'yori birinchi jadvalda keltirilgan.

Bedaning 2020 yilda sug'orish me'yori diagrammasi.


4000
3500
3000
2500
2000
1500
1000
500
0
ChDNS ga nisbatan 70 % hisobida
ChDNS ga nisbatan 80 % hisobida

Bedani sug'orish rejmi, sug'orishdan oldingi namligi va umumiy sug'orish me'yorining (2020 yil holatidagi) yillik sxemasi.

1-jadval

Sug'orishlar soni	Tuproqning sug'orishdan oldingi namligi					
	CHDNS ga nisbatan 70 % hisobiga			CHDNS ga nisbatan 80 % hisobiga		
	Sug'orish muddatlari (sana)	Sug'orishdan oldingi namlik CHDNS ga nisbatan % hisobida	Sug'orish me'yori (m^3/ga)	Sug'orish muddatlari (sana)	Sug'orishdan oldingi namlik CHDNS ga nisbatan % hisobida	Sug'orish me'yori (m^3/ga)
Urug' ekilganda	10.03.2020	-	500	10.03.2020	-	500
1	25.04.2020	68	415	12.05.2020	80	275
2	5.06.2020	71	616	28.05.2020	78	468
3	28.06.2020	70	638	19.06.2020	81	402
4	29.07.2020	73	572	4.07.2020	80	430
5	20.08.2020	71	616	22.07.2020	81	402
6	26.09.2020	70	638	8.08.2020	80	430
7	-	-	-	5.09.2020	79	451
8	-	-	-	28.09.2020	82	385
9	-	-	-	-	-	-
Umumiy sug'orish	**-**	**591**	**4000**	**-**	**416**	**3743**

me’yori						
Sug’orish sxemasi	**3-2-2**	**-**	**-**	**4-3-2**	**-**	**-**

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, bedani 2020 yilda sug'orish rejimini CHDNSga nisbatan 70% hisobida variantida umumiy sug'orish me'yori 4000 m^3/ga, sug'orish sxemasi 3-2-2 va o'rtacha sug'orish me'yori, 592 m^3/gani tashkil qilgan. Sug'orish rejimini CHDNSga nisbatan 80% hisobida variantda: sug'orish, umumiy sug'orish me'yori 3743 m^3/ga, sug'orish sxemasi 4-3-2 va o'rtacha sug'orish me'yori 416 m^3/ga tashkil etdi. Ilmiy izlanishlarimizdagi ma'lumotlarga nazar tashlaganimizda qayta farqlar ko'rinadi buning asosiy sababi, 2020 yilda CHDNSga nisbatan % hisobida tuproqning 0-60 sm faol qatlamida zaxira namligi 1180 m^3/ga, 0-100 smga 1920 m^3/ga teng. Bizlar yetishtirgan qishloq xo'jalik ekini (beda) chorva mollari va parrandachilik uchun ozuqa yetishtirishga mo'ljallangan. Shuni ham aytib o'tish lozimki, shahar oqova suvlaridan qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda foydalanish faqatgina sanitariya epidemiologiya tavsiyasiga muvofiq parranda va chorva mollarini oziqlantirish uchun mo'ljallangan. Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishda sug'orish hamda oziqlantirish muhim rol o'ynaydi. Ekinlardan yuqori hosil olishda, asosan o'simlikning o'sib rivojlanishiga bog'liq bo'ladi, yuqori o'sib rivojlanishi uchun o'simliklarga suv bilan ozuqani me'yorida berish lozim bo'ladi. Chorvachilikga mo'ljallangan qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orishga moyilligi ko'proq bo'ladi. Beda bo'yicha 2- jadval natijalarini tahlil qilganimizda, uning ham o'sib rivojlanishi va yuqori hosil berishi uchun, sug'orish rejimi, ozuqa rejimi, tuproq – iqlim sharoitlari ta'sir qilishi aniqlandi. Bedaning o'rim soni variantlarga ta'sir qilmaydi. Ikkala variantda 3ta o'rim olingan. Bedaning o'sishidagi farq sug'orish rejimi hamda mineral o'g'it qo'llanilganda ko'rinadi. Sug'orishdan oldingi namlik ChDNS ga nisbatan 70 % hisobida (1 – variant) o'rtacha o'sishi 53 smni, ikkinchi variantda 59 smni tashkil etgan. Katta farq sug'orish oldi namlikning 70 % dan 80 % ga oshishi bilan bedaning o'sish balandligi ham ortadi. Bedani 2020 yil ChDNSga nisbatan 70% hisobidagi namlikning bo'lganida uning o'sishi birinchi variantida 53 sm bo'lsa, namlik 69 smni bo'lib, ikkinchi variantda 59-74 smni tashkil etgan

2020 – yil holatidagi bedaning o'rimdan oldin rivojlanishi va o'sish balandligi (yillar va kunlar bo'yicha).

2-jadval

Tajriba	Beda o'rimi soni	O'rtacha

variantlari	1	2	3	
ChDNS ga nisbata 70 % hisobida				
Oqova suv bilan sug'orish	19.04.2020	9.08.2020	21.09.2020	53
	54	56	50	
Oqova suv bilan sug'orish va oziqlantirish ($N_{100}P_{225}K_{110}$)	19.04.2020	9.08.2020	21.09.2020	59
	60	62	55	
ChDNS ga nisbata 80 % hisobida				
Oqova suv bilan sug'orish	19.04.2020	9.08.2020	21.09.2020	69
	73	70	60	
Oqova suv bilan sug'orish va oziqlantirish ($N_{100}P_{225}K_{110}$)	19.04.2020	9.08.2020	21.09.2020	74
	78	76	68	

Sug'orish rejimiga asosan hosildorlik ham 2020 yilda bedaning ho'l holatida CHDNSga nisbatan 70% hisobida bo'lganda 1-variantda 173 s/ga, 2-variatnda 195 s/gani, CHDNSga nisbatan 80% hisobida bo'lganda 1-variantda 342 s/ga, 2- variantida esa 384 s/gani tashkil etgan. Eng yuqori hosil va samaradorlik bedani birinchi turg'un yilida sug'orish rejimining CHDNSga nisbatan 80% hisobida, oqova suv bilan sug'organ variantda 80.4 s/ga, ikkinchi turg'un yilida ham sug'orish rejimini CHDNSga nisbatan 80 % hisobida, oqova suv bilan sug'orilgan variantda 210 s/gani tashkil etdi.

Xulosa: Bedaning 2020 yilida oqova suv bilan sug'organda sug'orish rejimi CHDNSga nisbatan 70% hisobidagi variantida umumiy sug'orish me'yori 4000 m^3/ga, sug'orish sxemasi 3-2-2 va o'rtacha sug'orish me'yori 592 m^3/gani tashkil qilgan. Sug'orish rejimi CHDNS ga nisbatan 80 % hisobidagi variantida esa umumiy sug'orish me'yori 3743 m^3/ga, sug'orish sxemasi 4-3-2 va o'rtacha sug'orish me'yori 416 m^3/ga tashkil etdi. Bedani oqova suvlarda yetishtirishda eng yaxshi variant bu CHDNS ga nisbatan 80 % hisobidagi 1- variantidir. Oqova suv bilan sug'orishda bedaning hosildorligi, o'sib rivojlanishi ikkala variantda ham deyarli bir xil natijani ko'rsatdi. Demak oqova suvlar bilan sug'orishda qo'shimcha

oziqlantirish uchun mineral o'g'it berish shart emas. Sababi oqova suvlar tarkibida o'simlikning unib yetilishi uchun barcha zarur minerallar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. SH.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.06.2019 yil
5742 – sonli farmonlari.
2. Kostyakov A.N. "Osnovqe melioratsii. Sel'khozgi moskvy. 1960. 411.6
3. (Орлова С.С., Панкова Т.А. Saratov Davlat agrar universiteti. N. I. Vavilov) "S**ug'orish uchun chiqindi suvdan foydalanish samaradorligini baholash**" Nashr qilish. 2014, NASHR MART 2014, TEXNIK FANLAR. (2014, Выпуск Март 2014, ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ).)
4. Tahere Mokhtari, Amin Bagheri, MohammadJavad Alipour ("**Qishloq xo'jaligida oqava suvlardan foydalanishning afzalliklari va xatarlari"** *Qishloq xo'jaligi bo'limi Hoshimiy Nejad Mashhad ta'lim markazi.* 1-xalqaro va 4-Milliy Kongress Qishloq xo'jaligida organik chiqindilarni qayta ishlashEronning Isfahon shahrida 26-27 aprel 2012yil (The 1th International and The 4th National Congress on Recycling of Organic Waste in Agriculture 26 – 27 April 2012 in Isfahan, Iran1.))
5. Anita Kunhikrishnan, Nanthi S.Bolan, Karin Muller, Ravi Naidu, Won il Kim. (Chapter Five – "The Influence of Wastewater Irrigation on the Transformation and Bioavailability of Heavy Metal(Loid)s in Soil". Advances in Agronomy. Volume 115. 2012-y. Pages 215-297. https://www.sciencedirect.com/bookseries/advances-in-agronomy.)
6. **Rowa -** "Novus-environmental" elektron jurnalidagi "The benefits of using wastewater irrigation in agriculture" maqolasi. (https://www.novus-environmental.co.uk/blog/the-benefits-of-using-wastewater-irrigation-in-agriculture/.) Posted on February 5th, 2019y.
7. Blanca Jiménez – "Irrigation in developing countries using wastewater" International Review for Environmental Strategies Vol. 6, No. 2, pp. 229 – 250, 2006 © 2006 by the Institute for Global Environmental Strategies. All rights reserved.
8. Faiza Ambreen, Muhammad Khalid Bashir, Muhammad Ashfaq, Ghaffar Ali, Sarfraz Hassan, Maria Shabir **"**The Use of Wastewater for Irrigation Purposes: Perceptions and Willingness to Pay for Treated Wastewater" ***SSRG International*** *Journal of Agriculture & Environmental*

Science (SSRG-IJAES) – Volume 7 Issue 4 – July – Aug 2020. Page 9-22. http://www.internationaljournalssrg.org
9. Yucui Zhang va Yanjun Shen "Wastewater irrigation: past, present, and future" WIREs Water 2017, e1234. doi: 10.1002/wat2.1234): https://www.researchgate.net/project/Impacts-of-agricultural-land-use-change-on-evapotranspiration-and-groundwater-depletion-in-North-China-Plain-NSFC-project-2015-2018
10. I.Islomov "Tuproqshunoslik va dehqonchilik asoslari" darslik. "Durdona" –
nashriyoti Buxoro – 2021 yil. 243-b.
11. I.Islomov «Водопотребленние люцерны на аллювиальнло луговой почвы Бухарской области.» O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. Jurnal.Toshkent – 2019. №8. 42-43 b.
12. I.Islomov "Влияние режимов орошения и минерального питания на урожай люцерны." O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnalining, Agro-ilm ilovasi. Toshkent 4(60) son. 88-89 b.
13. I.Islomov "Влияние режима орошения и минерального питания люцерны на динамику и баланс элементов плодородия серо-бурых каменистых почв." "Агрохимический вестник" jurnali. Rossiya Moskva №5. 2019 yil. 37-41 b.
14. I.Islomov «Сочетание режимов орошения и минералбного питания на накопление корневой массы люцерны в условиях аллювиально луговой почвы Бухарской области.» Agro – ilm jurnali. №5-son. Toshkent – 2019y. 94-95 b.
15. Chang, A., A. Page, and T. Asano. 2002. *Developing human health-related chemical guidelines for reclaimed wastewater and sewage sludge applications in agriculture.* Geneva: World Health Organization. Cockram, M., and S. Feldman. 1996. The beautiful city gardens in third world cities. *African Urban Quarterly* 11 (2–3): 202–208.
16. Маматов С.А. Современные тенденции изменения качества воды реки Сырдарья // «САНИИРИ - 80 лет. 1925-2005»: Сборник научных трудов / САНИИРИ. - Ташкент, 2006. - С. 251-258.
17. Ruiz-Rosa I, García-Rodríguez FJ, Antonova N (2020) Developing a methodology to recover the cost of wastewater reuse: a proposal based on the polluter pays principle. Util Policy 65:101067. https://doi.org/10.1016/j.jup.2020.101067
18. Jiminez N, Caucci S, Hettiarachchi H (2018) Safe use of wastewater in agriculture: exchanging knowledge in Colombia. In: Proceedings,

Bogotá, Colombia, 27-28 November 2018. Dresden: United Nations University Institute for Integrated Management of Material Fluxes and of Resources (UNU-FLORES)
19. Hueske A-K, Guenther E (2015)What hampers innovation? External stakeholders, the organization, groups and individuals: a systematic review of empirical barrier research. Manag Rev Q 65:113–148. https://doi.org/10.1007/s11301-014-0109-5
20. Hueske A-K, Guenther E (2018) Balancing comprehensiveness and parsimony: towards a context-specific barrier identification across multiple levels combined with complexity reduction through barrier groups. J Eng Technol Manag 49:46–59. https://doi.org/10.1016/j.jengtecman.2018.05.002

УДК 637

БЕШАРИҚ ГИДРОУЗЕЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ ДАВРИДАГИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАМИНЛАШ.

[1]Равшанов.У.Х., [2]Файзуллоев М.Н. [3]Садуллоев.С.С., [4]Абдиримов.А.Э.,
[1]"ТИҚХММИ" МТУ Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти-магистранти.
[2]"ТИҚХММИ" МТУ Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти-ўқитувчиси
[3]"ТИҚХММИ" МТУ Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти талабалари.

Аннотация: Ушбу мақолада гидротехника иншоотларини лойиҳалаш пайтидан бошлаб қурилиш ва эксплуатация қилиш даврларида иншоотларни хавфсизлиги ва ишончлилигини таъминлайдиган тадбирлар бажарилиши кўзда тутилган. Гидротехника ишоотларининг талаб қилинадиган хавфсизлиги, ҳар бир муайян ҳол учун чегаравий ҳолатни белгиланган меъёрлари бўйича, хавфсизлик мезонлари билан аниқланадиган қатор шартларни бажарилиши ўрганилган.

Таянч сўзлар: Ишончлилик, иншоот хавфсизлиги, чидамлилик, авария, чегаравий ҳолат.

УДК 637

ENSURING SAFETY DURING USE OF BESHARIK HYDROZELL.

[1]Ravshanov.U.X., [2]Fayzulloev M.N. [3]Sadulloev.S.S., [4]Abdirimov.A.E.,

[1]*Magis Bukhara Institute of Natural Resources Management of the NRU "TIIAME"*
[2]*Teacher Bukhara Institute of Natural Resources Management of the NRU "TIIAME"*
[3,4]*Students Bukhara Institute of Natural Resources Management of the NRU "TIIAME"*

Annotation: This article provides for the implementation of measures to ensure the safety and reliability of structures during construction and operation from the design of hydraulic structures. The required safety of hydraulic structures is studied in accordance with the established norms of the boundary condition for each specific case, the fulfillment of a number of conditions determined by safety criteria.

Keywords: Reliability, construction safety, durability, accident, boundary condition.

Гидротехника иншоотларини лойиҳалаш пайтидан бошлаб қурилиш ва эксплуатация қилиш даврларида иншоотларни хавфсизлиги ва ишончлилигини таъминлайдиган тадбирлар бажарилишини кўзда тутиш зарур.

Гидротехника объектларини ишончлилик ва хавфсизлик соҳасидаги айрим тушунча ва ибораларни кўриб ўтайлик.

Ишончлилик деб – белгиланган вақт ичида, эксплуатациянинг ўрнатилган режими ва шароитида талаб қилинадиган функцияларни бажариш қобилиятини тавсифловчи иншоотнинг хоссаларига айтилади.

Иншоот хавфсизлиги деганда – унинг белгиланган вақт интервали ичида берилган шарт-шароитларда талаб қилинадиган функцияларни бажариш қобилияти тушунилади.

Чидамлилик – бу иншоотнинг хизмат қилиш муддати ичида берилган шарт-шароитларда чегаравий ҳолатгача етиб бормаслигидир.

Авария деб – объектда, маълум бир ҳудудда инсон ҳаёти ва соғлигига хавф туғдирадиган, бошқа иншоотларнинг бузилишига олиб келадиган, шунингдек, теварак-атрофдаги табиий муҳитга зарар етказадиган хавфли техноген ҳодисага айтилади.

Чегаравий ҳолат деб – бу ҳолатдан кейин ўз вазифасига кўра объектни ишлатишга йўл қўйилмаслиги ёки мақсадга мувофиқ эмаслиги нуқтаи-
назаридан гидротехника иншоотининг ресурс тугаганлигини белгиловчи ҳолатга айтилади.[1,3]

Гидротехника ишоотларининг талаб қилинадиган хавфсизлиги, ҳар бир муайян ҳол учун чегаравий ҳолатни белгиланган меъёрлари бўйича, хавфсизлик мезонлари билан аниқланадиган қатор шартларни бажариш орқали таъминланади. Хавфсизлик мезонлари сифатида мустаҳкамлик, устуворлик, сув ўтказмаслик ва бошқа хоссаларини тавсифловчи, гидротехника иншоотларини ишлаш қобилияти ва соз ҳолати билан боғлиқ шарт-шароитлар, шунингдек, ўрнатилган эксплуатация, техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш режимлари ва шартлари, бузилган объектларни эксплуатациядан чиқариш, экологик меъёрлар ва техника хавфсизлиги талаблари ҳам қабул қилинади.

Шу ўринда Бухоро вилоятида жойлашган “Бешариқ” гидроузелини кўриб чиқсак. “Бешариқ” гидроузели “Шохруд” каналининг охирги гидроузели бўлиб, ПК226+00 жойлашган, 1937 йилда ишга туширилган. Гидроузелнинг вазифаси “Шохруд” каналидан келадиган сувни “Кобдун”, “Қаражери”, “Жўйзар”, “Хушбеги” каналларига ва “Жайхун” ташлама каналига тақсимлаб беришдан иборат. Сув ўтказиш қобилияти Q=66,0 м3/с. Хизмат кўрсатадиган майдони 39215 га.

Гидроузел таркибига қуйидагилар киради:

- “Шохруд” сув олиб келувчи канал;
- “Кобдун” канали ростлагичи;
- “Қаражери” канали сув чиқаргичи;
- “Жўйзар” канали сув чиқаргичи;
- “Хушбеги” канал сув чиқаргичи;
- “Жайхун” сув ташламаси;

Иншоотларни, фойдаланиш журналларини ва бошқа инспекторлик текширишлар бўйича техник ҳужжатларни текширилиши натижасида қуйдагилар аниқланди:

Сув олиб келувчи канални лойқа босган ва қияликлари йиқилган. Мазкур каналнинг “Кобдун” сув олиш иншоотига уланган бетон қисми ёрилиб, чўкган. Гидроузелнинг “Хушберг” ариғига сув чиқариш учун гидроузелнинг юқори бьефида сув сатҳи кўтарилганда, дамбадан сув уриб кетиш эҳтимоллиги мавжуд.[2]

1-расм. Пастки бъеф.

2-расм.Гидроузелдаги сегментли затвор.

3-расм. Шохруд канали.

4-расм.Гидроузелдаги туташтириш иншооти.

“Кобдун” канали ростлагичи: Сув беришни бошқариш сегментли затворлар орқали амалга оширилади.Ўлчами 6,0х2,5 метрбўлган сегментли затворнинг металл қопламасида кўп йиллик ишлатилиши натижасида чириган қисмлари мавжуд. Ушбу сегмент затворни маҳкамлагичлари ишончли эмас, шунингдек, ростлагичнинг чап томон бетон қисмида ёриқлар мавжуд.

“Жўйзар” канали сув чиқаргичи: Сегментли затворнинг металл қопламасида кўп йиллик ишлатилиши натижасида чириган қисмлари мавжуд.[2]

Гидроузелдаги барча регуляторларнинг темир затворлари коррозияга қарши ишлов берилган, кўтаргичларнинг темир арқон (тросс) лари янгиланган, бироқ затворларнинг айрим ерларида тешиклари мавжуд бўлиб, улардан сув сизиб чиқмоқда.

Юқорида аниқланган нуқсон ва камчиликлар юзасидан қуйидагича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқдик.

- "Хачкаб" гидроузелидан "Бешариқ" гидроузелигача бўлган 9.6 км "Шохруд" каналида лойиҳа-қидирув ишларини амалга ошириш, уни ўрганиш ва якуни бўйича канал тубини кўтариш масаласида таклиф киритиш;
- Гидроузелдаги барча затвор ва уларнинг маҳкамлагичларини таъмирлаш, затвор-ларни ушлаб турувчи конструкцияларни кучайтириш ва уларга коррозияга қарши доимий ишлов бериш зарур;
- Ростлагичлардаги авария пазлари таъмирлаб, уларга мос ўлчамда шандор тайёрлаш керак;
- Гидроузелдаги энергияни сўндириш иншоотларни таъмирлаб, каналларнинг икки ён дамбаларини мустаҳкамлаш;
- Меъёрий ҳужжатлар билан, хусусан, ЎР "Гидротехника иншоотларнинг хавфсиз-лиги тўғрисида" ги Қонуни, ВМ нинг 1992 йилдаги 174-сонли ва 2013 йилдаги 82-сонли Қарорлари ижросини таъминлаш;
- Гидроузелда фавқулодда ҳолатда ҳаракат қилиш режасини ишлаб чиқиш ва амалда синаб кўриш;
- Гидроузелда масофадан бошқариш мосламаларини қайта тиклаш зарур.
- Авария-заҳира материал ва асбоблар билан тўлиқ жиҳозлаш;

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гидротехника иншоотларидан фойдаланиш. Бакиев М.Р., Турсунов Р.Т., Кавешников Н. Тошкент 2008й
2. Ўзбекистон республикаси сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги гидротехник иншоотларнинг техник ҳолатини ҳамда бехатар ишлашини назорат қилиш давлат инспекцияси («давсувхўжаликназорат» инспекцияси) Бухоро вилоят инспекцияси

Техник ҳолатни инспекторлик текширувдан ўтказиш далолатномаси “Бешариқ” гидроузели. 23.07.2019й
3. **К**аналдаги гидротехника иншоотларидан фойдаланиш Бакиев М.Р.,Раҳматов.Н., Ибраимов А., Тошкент 2019 й

UO‘T: 006.1.21

METROLOGIYA BO’LIMIGA OID XALQARO BIRLIKLAR TIZIMI. O’LCHASH ASBOBLARINING TURLARI.

Badriddinova Nafosat Baxtiyor qizi
Buxoro davlat universiteti pedagogika fakulteti “Texnologik ta’lim yo’nalishi” 4-1 TEX 20 guruhi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur tezisda o’lchash asboblarini konstruksiyala`sh nazariyasi, konstruksiyalash qoidalari va tamoyillari, axborot tehnologiyalarini loyihalash jarayonida qo’llash, o’lchash asbobi elementi bo’lgan datchik va o’zgartkichlarni konstruksiyalash, hamda mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko’rsatish sifatini va raqobatbardoshligini oshirishda o’lchash asboblarining roli yoritilgan.*

Kalirt so’zlar: *SI (farangcha Système International d’Unités so‘zidan), O‘lchov va Tarozilar Xalqaro Konferensiyasi - O‘TXK, Texnik Qo‘mitasi ISO/TC, IEC 60027, ALT, EHM.*

UDC:006.1.21

SYSTEM OF INTERNATIONAL UNITS OF THE DEPARTMENT OF METROLOGY. TYPES OF MEASURING INSTRUMENTS.

Badriddinova Nafosat Bakhtiyor qizi
Student of 4-1 TEX 20 group "Technological education" of the pedagogical faculty of Bukhara State University

Annotation. *In this thesis the theory of design of measuring instruments, rules and principles of design, application of information technology in the design process, design of sensors and transducers as an element of measuring*

instruments, as well as improving the quality and competitiveness of products and services the role of measuring instruments is highlighted.

Keywords: *SI (from the French Système International d'Unités), International Conference of Weights and Measures - ICS, Technical Committee ISO / TC, IEC 60027, ALT, Computer.*

Zamonaviy o‘lchash texnikasi xalq xo‘jaligining hamma sohasi bilan yagona bog‘lamda rivojlanib bormoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyotni ta’minlashda uning roli juda kattadir. Shu sababdan olimlar va muxandis-asbobsozlar oldida turgan muhim vazifalardan biri ilmiy texnik taraqqiyot yo‘lida ortda qolmaslik, bu taraqqiyot yo‘lidagi to‘siq bo‘lmasdan, aksincha, uni olg‘a siljituvchi qudratli omil bo‘lishdir. Bizning oldimizda juda ko‘p, o‘ta murakkab, hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar turibdi. Bulardan quyidagilarni aytib o‘tishimiz mumkin: - yangi, progressiv yutuqlarni tez va keng ko‘lamda ishlab chiqishga tadbiq etish va xalq xo‘jaligida qo‘llash. Bu muammoni yechish uchun asbobsozlikdagi rejalash va boshqarish tamoyillarini tubdan qayta qurish kerak; - o‘lchash asboblarining sifatini keskin oshirish. Bu masalani yechish uchun faqat asbobsozlarning harakatlarini o‘zi kamlik qiladi. Statik asbob uskunalarning aniqligi va ishonchliligini oshirish, yuqori sifatli materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish, elektron texnikasi mahsulotlarining tavsiflarini yaxshilash va ishonchliligini oshirish lozim [1].

Ushbu risola, SI (farangcha Système International d’Unités so‘zidan) nomi bilan yaxshi tanish bo‘lgan Xalqaro Birliklar Tizimi haqida tashuncha olish va uni amalda qo‘llash borasida axborot vositasidir. SI, O‘lchov va Tarozilar Xalqaro Konferensiyasi - O‘TXK tomonidan joriy etilgan bo‘lib, bu haqidagi tarixiy ma’lumotlar, quyida, 1.8 bo‘limda bayon qilinadi* . SI da foydalaniladigan kattaliklar va ularga bog‘liq tenglamalar, amalda barcha olimlar, texnologlar va muhandislarga yaxshi tanish bo‘lgan fizik kattalik va tenglamalardir. Ular ko‘plab darslik va boshqa turdagi manbalarda bayon qilib o‘tilgan, biroq, har qanday shu kabi matnlarda, aslida soni cheksiz bo‘lgan fizik kattalik va tenglamalarning, cheklangan sondagi kichik bir qismini o‘z ichiga oladi xolos [2]. Aksariyat fizik

kattaliklar va ular uchun tavsiya etilgan nom, tenglama va ramzlar uchun, Xalqaro Standartlashtirish va Sertifikatlashtirish Tashkilotining 12-chi Texnik Qo‘mitasi ISO/TC 12 tomindan ishlab chiqilgan ISO 31, hamda, Xalqaro Elektrotexnika Hay’atining 25-Texnik Qo‘mitasi IEC/TC 25 tomonidan ishlab chiqilgan IEC 60027 Xalqaro Standartlari va Sertifikatlari amal qiladi. ISO 31 va IEC 60027 standartlari hozirgi vaqtda, har ikkala tashkilot tomonidan o‘zaro hamkorlikda qayta ko‘rib chiqilmoqda. O‘zaro muvofiqlashtirilishi kutilayotgan yangi standart, ISO/IEC 80000 Fizik kattaliklar va birliklar nomi bilan atalishi kutilmoqda va unda SI da qo‘llaniladigan kattaliklar va ularga tegishli tenglamalar, Xalqaro Kattaliklar Tizimi sifatida atalishi taklif qilingan[3].

Zamonaviy o‘lchash texnikasini rivojlanish tendensiyasi aniqlikka, sezgirlikka, o‘lchash diapazoniga, narxi va tayyorlash texnologiyasiga qo‘yilgan talabni oshirish bilan xarakterlanadi. Zamonaviy o‘lchash texnikasi zamonaviy element bazasining asosiy tavsiflarini tahlili uchun murakkabroq matematik modellarni, struktura va parametr bo‘yicha optimal konstruksiyalarni tanlashni yanada takomillashgan usullarini talab qiladi. Xozirgi vaqtga sanoat ishlab chiqarishni kompleks avtomatlashtirish jarayonining asosini ALT (avtomatlashtirilgan loyixalashtirish tizimi) tashkil qiladi. ALT keng ko‘lamda 50-60 yil oldin EHM ni seriali ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilganda taraqqiy eta boshlagan. O‘lchash texnikasida ALT ni tadbiq etish ba’zi konstruktorlik ishlaridan boshlangan: konstruksiyadagi element va o‘zgargichlarni moslashtirish, bosma plata va integral mikrosxemalar qo‘llash orqali o‘lchash o‘zgartgichlarini tayyorlash. Bunday ALT lar o‘lchash o‘zgartkichlari, o‘lchash 7 qurilmalari va asboblaridagi elektr, magnit, issiqlik va boshqa jarayonlarni xisobga olgan sxemalarda mashina usulini qo‘llash imkon beradi [4,5].

O‘lchash vositalarining turlari xilma-xil. Ular sodda yoki murakkab, aniqligi katta yoki kichik bo‘lishi mumkin. O‘lchash vositalari me’yorlangan metrologik tavsiflarga ega bo‘lishlari lozim va bu metrologik xossalar davriy ravishda tekshirilib turiladi. O‘lchash amalida o‘lchanayotgan kattalikning qiymati to‘g‘ri aniqlanishi aynan mana shu

o‘lchash vositasining to‘g‘ri tanlanishiga va ishlashiga bog‘liq. O‘lchash vositalarining namoyondalari 1.1-rasmda keltirilgan.



1.1-rasm. O‘lchash vositalarining

Qayd qiluvchi o‘lchash asboblari qog‘oz lentalarga yoki diskda o‘lchanayotgan kattalikning hozirgi qiymatini vaqt bo‘yicha avtomatik yozib beruvchi moslama bilan ta’minlanadi. Bu holda qog‘oz lentada (diskda) uzluksiz chiziq pero bilan chiziladi, boshqa holda lentada davriy ravishda sanoqlarning sonli qiymatlari chop etiladi. Bitta qog‘oz lentada bir necha egri chiziq yozilishi (chizilishi) mumkin. Bu holda o‘lchash asbobining ichiga avtomatik uzgichulagich o‘rnatiladi, u o‘lchashning bir necha nuqtalarida joylashgan birlamchi o‘zgartkichlardan birini o‘lchashtizimga navbat bilan ulaydi.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G.K.Vijayaraghavan., R.Rajappan., Engineering Metrology and Measurements., For 5th Semester Mechanical and Automobile Engineering (As per the Latest Anna University Syllabus – Reg., 2008.
2. Dj. Frayden. Handbook of modern sensors. /Springer-Verlag New York, Inc., 2015.
3. Ron S. Kenett , Emanuel Baker., Software Process Quality: Management and Control (Computer Aided Engineeringyu, Taylor &Frances., 2005.
4. G. M. S. de Silva., Basic Metrology for ISO 9000 Certification (1st Editio)., Ships from and sold by Amazon.com. Gift-wrap available., 2002.

5. Дж. Фрайден. Современные датчики. Справочник. /Пер. с анг. - М.: Техносфера, 2006
6. П.Р. Исматуллаев, П.М. Матякубова, Ш.А. Тураев Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик. -Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2015.

ФИТОМЕЛИОРАНТ ЎСИМЛИКНИНГ ЕРЛАРНИНГ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИГА ТАЪСИРИ

Ш.М.Хамидова –ТИҚХММИ МТУ Гидромелиоратив тизимлардан фойдаланиш кафедраси ассистенти

Глобал иқлим ўзгариши муаммоси инсоният кун тартибида долзарб бўлиб, бу сайёрамизда фақат ҳароратнинг ўртача йиллик кўтарилиши эмас, балки барча геотизимнинг ўзгариши, жаҳон океани сатхининг кўтарилишини юзага келиши, муз ва доимий музликларнинг эриши, ёғингарчиликнинг бир текисда ёғмаслигининг ортиши, дарёлар оқими режимининг ўзгариши ва иқлимнинг беқарорлиги билан боғлиқ бошқа ўзгаришлар ҳам демакдир.

Сув таъминоти сиёсати иқлим ўзгариши ва мослашувининг минтақавий ва миллий стратегиясини ишлаб чиқишнинг асосий элементидир. Сув таъминоти сиёсати доирасидаги мослашиш чораларининг энг мухимлари бўлиб, сув ресурсларини интеграллашган бошқаришни татбиқ этиш, иқтисодиётнинг барча тармоқларида, айниқса, қишлоқ хўжалигида сув ресурсларини тақсимлаш ва ишлатишни ҳисобга олиш, сув сифатини бошқариш ва ҳисобга олиш тизимини яхшилаш ва сувни тежаш технологияларини татбиқ этиш ҳисобланади.

Сув танқислиги тобора ортиб бораётган шароитда сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, суғориш ва шўр ювишда сув тежамкор технологияларни жорий қилиш, шўрланган ерларнинг мелиоратив холатини яхшилашда фитомелиоратив тадбирлар орқали тупроқнинг сув, туз, озиқа ва бошқа тартибларини мақбуллаштириш орқали асосий қишлоқ хўжалиги экинларидан юқори ҳосил олишга бағишланган мазкур диссертация тадқиқоти, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли фармони билан тасдиқланган "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси" ва 2020 йил 10 июлдаги ПФ-6024-сонли Фармони билан тасдиқланган "Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган концепцияси" ни амалга оширишга муайян даражада хизмат қилади.

2009-2011 йиллар тажриба майдонларида фитомелиорант сифатида экилган оқ жўхори ва мош етиштиришнинг тупроқни сув ва туз режимларига таъсири ўрганилди. 2009-2011 йилларда тузларнинг ҳаракат қилиш динамикасини ўрганиш мақсадида тупроқнинг 0-10, 10-20, 20-30, 30-40, 40-50, 50-60, 60-70, 70-80, 80-90, 90-100 см қатламларидан намуналар олиниб, ўсимликни ўсиши ва ривожланиши учун салбий таъсир этадиган (CL^1, SO_4 , HCO_3, қуруқ қолдиқ) тузлар миқдорларини лаборатория шароитида таҳлил қилиб борилди. Тупроқнинг туз режими бўйича олинган натижалар 4.11.1 – жадвалда келтирилган.

2009 йилда кузги буғдой йиғиштириб олингандан сўнг дала челлари олиниб, тупроқни намлатиш мақсадида (1100-1150 $м^3$/га) суғорилди. Ер етилиши билан дала экишга тайёрланиб, фитомелиорант ўсимликлари экилди. Фитомелиоратив экинларни экканимиздан сўнг даладан умумий тупроқ намуналари олиниб, ҳар суғоришдан олдин ва кейин, вегетация давринининг охирида фитомелиорантлар йиғиштириб олингандан сўнг тупроқ таркибидаги тузлар миқдори аниқлаб борилди. Тупроқдаги тузлар миқдорининг ўзгаришини таҳлил қилганимизда, дастлаб вегетация даври бошида тупроқнинг 0-30 см қатламида хлор миқдори 0,015 % ни, 0-100 см ли қатламида эса 0,012 % ни ташкил қилган бўлса, тажрибалар охирига бориб шудгорлаб экин экилмаган далада (0-30 см) 0,045 % гача ошган бўлса, 0-100 см қатламда 0,040 % га тенг бўлди. Оқ жўхори етиштирилган 2-вариантда вегетация даври охирида тупроқдаги хлор иони миқдори 0-30 см қатламда 0,033 % га, 0-100 см қатламда 0,029 % га тенг бўлиб, назорат вариантига нисбатан 0,011-0,012 % га кам йиғилганлигини кўриш мумкин. Шунингдек, мош экини экилган 3-вариантда тупроқдаги хлор иони миқдори дастлабки олинган миқдорига нисбатан 0,020-0,21 % гача ошиб 0,036 ва 0,032 % ни ташкил қилди. Бу эса, назорат- шудгорлаб экин экилмаган далага нисбатан 0,008-0,009 % га кам йиғилганлигини кўрсатади.

Илмий тадқиқотларда тупроқ таркибидаги гидрокарбонат HCO_3 миқдорининг ўзгаришини таҳлил қилинганда фитомелиорант ўсимликлари экилган далаларда унинг миқдори вегетация бошига нисбатан 50 % гача ошиши кузатилди. 2009-2011 йилларда олиб

борилган тажрибаларда фитомелиорант ўсимликлари экишдан олдин тупроқнинг ҳайдов (0-30 см) қатламида HCO_3 миқдори 0,044 % га тенг бўлган бўлса, 0-100 см қатламида 0,037 % ни ташкил қилди. Вегетация охирига бориб, яъни фитомелиорант ўсимликларини йиғиштириб олгандан сўнг назорат вариантида HCO_3 миқдори ҳайдов (0-30 см) қатламда 0,103 % га тенг бўлган бўлса, 0-100 см ли қатламда 0,085 % га тенг бўлди. Шунингдек, оқ жўхори етиштирилган 2-вариантида HCO_3 миқдори 0-30 см ва 0-100 см ли қатламларда мос равишда 0,077 ва 0,058 % ни ташкил қилиб, назорат вариантига нибсатан 0,026-0,027 % га кам йиғилди. Мош етиштирилган 3-вариантда тупроқ таркибидаги гидрокарбонат миқдори дастлабки олинган натижага нисбатан 0,034-0,029 % гача ошиб, 0,082-0,070 % ни ташкил қилди.

Тадқиқотлар давомида фитомелиорант ўсимликларининг тупроқ таркибидаги қуруқ қолдиқ миқдорига таъсирини аниқлаш мақсадида тадқиқотлар натижасини таҳлил қилинганда, 2009 йилда дастлаб ҳайдов (0-30 см) қаталмидаги қуруқ қолдиқ миқдори 0,187 % га, 0-100 см ли қатламда 0,163 % ни ташкил қилган бўлса, вегетация охирига бориб, шудгорлаб экин экилмаган далада мос равишда 0,445 ва 0,412 % ни ташкил қилиб, вегетация бошига нисбатан 0,258-0,249 % га ошганлигини кўриш мумкин. Оқ жўхори экилган тажриба даласида бошқа вариантларга нисбатан қуруқ қолдиқ миқдори нисбатан кам йиғилганлигини кузатилиб, ушбу вариантда вегетация даври охирида тупроқдаги қуруқ қолдиқ миқдори мос равишда 0,269 ва 0,228 % га тенг бўлиб, назорат вариантига нисбатан 0,175-0,183 % га

кам йиғилди. Шунингдек, фитомелиорант сифатида мош етиштирилган 3-вариантда тупроқдаги қуруқ қолдиқ миқдори ҳайдов қатламда 0,312 % га тенг бўлган бўлса, 0-100 см ли қатламда унинг миқдори 0,302 % ни ташкил қилиб, шудгорлаб экин экилмаган далага нисбатан 0,109-0,123 % кам йиғилди.

Бухоро вилоятида фитомелиоратив тадбирларни қўллаш орқали тупроқларнинг мақбул мелиоратив режимини таъминлаш, тупроқ шўрини ювишдаги сув сарфларини камайтириш, суғориладиган ерлар махсулдорлигини ошириш бўйича олиб борилган илмий-тадқиқот изланишлари асосида қуйидаги хулоса қилиш мумкин:

Тупроқнинг туз режимига сув тежовчи фитомелиорант ўсимликларини таъсири таҳлилига кўра, тупроқдаги хлор иони миқдори дастлаб ҳайдов қатламида 0,015 % га, 0-100 см қатламда 0,012 % га тенг бўлган бўлса, вегетация охирига бориб, шудгорлаб қўйилган далада бу кўрсаткичлар 0,045 % ва 0,040 % га ни ташкил қилди. Фитомелиорант экин сифатида оқ жўхори экилганда бу кўрсаткичлар 0,033 ва 0,029 %, мош экилганда 0,036 ва 0,032 % га тенг бўлиб, назорат даласига нисбатан хлор иони 0,008-0,012 % га кам йиғилганлигини кўрсатди. Мавсумий туз тўпланиш коэффициенти хлор иони бўйича оқ жўхори экилган далада 2,3 ни, мош етиштирилган далада 2,6 ни ва шудгорлаб, экин экилмаган далада 3,3 ни ташкил этди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБЁТЛАР

[1]. Jurayev, A. Q., Jurayev, U. A., Atamurodov, B. N., & Najmiddinov, M. M. (2021). Scientific Benefits and Efficiency of Drip Irrigation. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, *1*(6), 62-64.

[2]. Jurayev, A. Q., Jurayev, U. A., Atamurodov, B. N., & Najmiddinov, M. M. (2021). Aphorisms of Farming in the Method of Kidroponics. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, *1*(6), 133-135.
[3]. Atamurodov, S. U. (2022). IMPLEMENTATION OF IMPROVEMENT OF EMOTIONS BASED ON NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS ACTIVITIES. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, *2022*(2), 10-23.
[4]. JURAYEV U., KHAMIDOV M. Influence of phytoremediation plants on soil salts //Kiev, Ukraine. – 2012.
[5] Khamidov, M.K., Balla, D., Hamidov, A.M., Juraev, U.A.Using collector-drainage water in saline and arid irrigation areas for adaptation to climate Chang. 2020. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science 422 (1), 012121
[6]. Xamidov M.X., Joraev U.A. Sniceniya mineralizasii gallektorna-drenajnix VAD / / Agrarnaya Nauga. 2016. № 6. С. 2-3.
[7] Khamidov M.X., Juraev U.A. Influence of phytoremediation plants on soil salts / / innovative technologies in water management complex. – Ukraine, Rovno, 2012. - What? 32-34.
[8] Balla Dagma, Ahmad Namidav, Khamidav Muhammadghan, O.About us Improvement of drainage water quality through biological methods: a case study in the Bukhara region of Uzbekistan // European Science overview. - Ausrtia Vienna. – 2016. Page not found (05.00.00. №3).

ФИТОМЕЛИОРАНТ ЎСИМЛИКЛАРИНИНГ ШЎР ЮВИШ МЕЪЁРИГА ТАЪСИРИ

Ш.М.Хамидова –ТИҚХММИ МТУ Гидромелиоратив тизимлардан фойдаланиш кафедраси ассистенти

Глобал исиш туфайли тоғли ҳудудларда музликларнинг эриши, улар ҳажмининг камайиши, яқин 20 йилда дарёлар оқими, хусусан, Амударё ҳамда қисман Сирдарё ва Зарафшонга қуйиладиган

сувларнинг 25-30%га қисқариши мумкин бўлиб, минтақага жиддий муаммолар туғдириши, қурғоқчил йилларда Амударёнинг қуйи қисмида сув минерализациясининг ўртача йиллик миқдори 1,5 мартага ортиши мумкин.

Сўнгги 50 йил давомида Ўзбекистонда ҳарорат динамикаси режимининг кузатувлари шуни кўрсатдики, максимал ҳароратнинг ўсиш суръати йилига 0,22 даражага, минимал эса -0,36 даражани ташкил қилди. Шунга асосланган ҳолда, 20 йилдан кейин Республиканинг шимолий қисмида ўртача йиллик ҳарорат 2-3 даражага, жанубий қисмда эса, 1 даражага ортади. Иқлим ўзгариши сув юзаларидан сувнинг буғланишини 10-15% га, ўсимликлар транспирацияси ва суғориш меъёрларининг ортиши туфайли сувнинг 10-20% кўпроқ сарфланишига ҳамда сувнинг тикланмай истеъмол қилинишини ўрта ҳисобда 18% га ортишига олиб келади. Бу, шубҳасиз, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг кейинги ўсишини қийинлаштиради.

Тадқиқотнинг вазифалари. Тадқиқотнинг мақсадига эришиш учун қуйидаги вазифаларни ҳал этиш белгилаб олинди:

- Бухоро вилоятининг табиий ва хўжалик шароитларини ўрганиш;

- тажриба ўтказиладиган майдоннинг тупроқ шароитлари (механик таркиби, сув-физик хоссалари, мелиоратив ҳолати ва унумдорлиги)ни ўрганиш ҳамда уларнинг вилоят учун репрезентативлигини аниқлаш;

Кузги буғдой даласида фитомелиорант ўсимликлари етиштирилгандан сўнг куз-қиш ойларида далани сифатли қилиб шудгорлаб, шўр ювиш ишлари амалга оширилди. Шўр ювиш меъёрларини белгилашда шудгор даласидан тупроқ намуналари олиниб, шўри ювиладиган қатламда тузлар миқдори аниқланди. Тупроқнинг механик таркиби ва тупроқдаги тузлар миқдорига қараб шўр ювиш меъёри ва муддалари белгиланди. Шўр ювиш меьёрини ҳисоблашда тупроқнинг сув-физик хусусиятини ва тузлар миқдорини ҳисобга олган ҳолда бир метрлик тупроқ қатлами учун В.Р.Волобуевнинг қуйидаги формуласи бўйича шўр ювишнинг назарий меъёрлари ҳисоблаб чиқилди:

$$N = 10000 * lg * [\, S_i / S_{adm} \,]^{\alpha} \ (м^3/га).$$

Ушбу формулада α – эркин туз бериш коэффициенти, S_i , S_{adm} – тупроқдаги тузларнинг шўр ювишгача ва йўл қўйилган миқдори, оғирликка нисбаттан % ҳисобида.

Тажриба даласида ўтказилган шўр ювиш ишлари бўйича маълумотлар 4.13.1-жадвалда келтирилган. Жадвал маълумотларига кўра, энг юқори шўр ювиш меъёри кузги буғдойдан сўнг шудгорлаб, экин экилмаган далада кузатилди. Энг кам шўр ювиш меъёри эса, фитомелиорант сифатида оқ жўхори (сорго) экилган вариантда кузатилганлигини кўришимиз мумкин.

2008-2011 йилларда илмий тадқиқот олиб борилган далада шўр ювиш ишлари куз ва қиш ойиларида амалга оширилди. Илмий изланишлар давомида тажриба даласида энг юқори шўр ювиш меъёрлари тадқиқотларнинг шудгорлаб, экин экилмай қўйилган

назорат, яъни 1-вариантда кузатилиб, ушбу вариантда мавсумий шўр ювиш маъёри ўртача 3 йилда 5383 м³/га ни ташкил қилиб, мавсум давомида 3 марта шўр ювиш ишлари амалга оширилди.

Тажрибаларнинг фитомелиорант сифатида оқ жўхори (сорго) экилган 2-вариантда шўр ювиш меъёри 2380 м³/га ни ташкил қилиб, назорат вариантига нисбаттан 3003 м³/га кам сув сарфланди. Ушбу вариантда 1 марта шўр ювиш ишлари амалга оширилди. Мош етиштирилган 3-вариантда эса, мавсумий шўр ювиш меъёри 3403 м³/га ни ташкил қилиб, назорат вариантига нисбаттан 1980 м³/га кам сув сарфланган бўлса, оқ жўхори етиштирилган 2-вариантга нисбатан 1023 м³/га кўп сув сарфланди. Фитомелиорант сифатида мош етиштирилган далада мавсум давомида 2 марта шўр ювиш ишлари амалга оширилди.

Тадқиқотлар давомида шўр ювиш тадбирлари декабр ойининг учинчи ўн кунлигидан январ ойининг охирги ўн кунлигигача давом этиб, суғоришлар орасидаги давр 14-18 кунни ташкил қилди.

Тажриба натижалари бўйича қуйидагича хулоса қилиш мумкин: Тажриба даласида энг юқори шўр ювиш меъёри шудгорлаб қўйилган назорат вариантида - 5383 м³/га ни ташкил қилди. Фитомелиорант сифатида оқ жўхори экилган 2-вариантда мавсумий шўр ювиш меъёри 2380 м³/га ни, мош экилган 3-вариантда эса, шўр ювиш меъёри 3403 м³/га ни ташкил қилиб, назорат вариантига нисбатан 37-56 % ёки 1980-3003 м³/га кам сув сарфланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБЁТЛАР

[1]. Jurayev, A. Q., Jurayev, U. A., Atamurodov, B. N., & Najmiddinov, M. M. (2021). Scientific Benefits and Efficiency of Drip Irrigation. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, *1*(6), 62-64.

[2]. Jurayev, A. Q., Jurayev, U. A., Atamurodov, B. N., & Najmiddinov, M. M. (2021). Aphorisms of Farming in the Method of Kidroponics. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, *1*(6), 133-135.

[3]. Atamurodov, S. U. (2022). IMPLEMENTATION OF IMPROVEMENT OF EMOTIONS BASED ON NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS ACTIVITIES. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, *2022*(2), 10-23.

[4]. JURAYEV U., KHAMIDOV M. Influence of phytoremediation plants on soil salts //Kiev, Ukraine. – 2012.

[5] Khamidov, M.K., Balla, D., Hamidov, A.M., Juraev, U.A.Using collector-drainage water in saline and arid irrigation areas for adaptation to climate Chang. 2020. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science 422 (1), 012121

[6]. Xamidov M.X., Joraev U.A. Sniceniya mineralizasii gallektorna-drenajnix VAD / / Agrarnaya Nauga. 2016. № 6. С. 2-3.

[7] Khamidov M.X., Juraev U.A. Influence of phytoremediation plants on soil salts / / innovative technologies in water management complex. – Ukraine, Rovno, 2012. - What? 32-34.

[8] Balla Dagma, Ahmad Namidav, Khamidav Muhammadghan, O.About us Improvement of drainage water quality through biological methods: a case study in the Bukhara region of Uzbekistan // European Science overview. - Ausrtia Vienna. – 2016. Page not found (05.00.00. №3).

[9]. Ruziyeva M. A., Najmiddinov M. M., Sobirov K. S. COMPARATIVE ANALYSIS OF METHODS FOR MEASURING BURNUP OF SPENT FUEL ASSEMBLIES BETI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 385-389.

УДК631.67:633.511

СУҒОРИШ УЧУН ЕР ОСТИ СУВ МАНБАЛАРИНИНГ БОШОҚЛИ ДОН ЭКИНЛАРИГА БЎЛГАН ТАЪСИРИ БАҲОЛАШ

Ахмедов Шарифбой Рўзиевич
“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” миллий тадқиқот университети
Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти
“Умумкасбий фанлар кафедраси” доценти
E-mail.ogabekshamuratov7@gmail.com

Шамуротов Оғабек Кузибой ўғли .
“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” миллий тадқиқот университети
Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти
Экология ва атроф-муҳит муҳофазаси 2 курс 1-гуруҳ талабаси
E-mail.ogabekshamuratov7@gmail.com

Аннатация. Ер ости сувлари ҳароратининг пастлиги ўсимликларнинг вегетация давринининг чўзилиб кетишига олиб келади. Мисол учун, пахта ва ғалланинг ўсиб ривожланиши 7-15 кунга кечикади. Буларнинг барчаси пировардида қишлоқ хўжалиги экинининг ҳосилдорлиги ва сифатига, унинг мевалари пишиб етиш муддатига таъсир қилади. Ўз навбатида, аэрация зонасининг паст ҳароратли сув-ҳаво тупроқ муҳити, табиийки, табиий ва сунъий озуқа моддалари ва ўғитларнинг ўз вақтида эришини таъминламайди ва уларнинг ўсимлик илдиз тизимлари томонидан ўз вақтида тўлиқ ўзлаштирилишига йўл қўймайди. Бундай шароитда ушбу озуқа моддаларининг бир қисми, совуқ сувнинг тушаётган оқимлари таъсири остида чўкиб кетади ва ер ости сувлари билан аралашади. Бошқа томондан, 14–18 С° гача бўлган совуқ сувли-ҳаво тупроқли муҳит пахта учун зарарли бўлиб, ўсиш ва ривожланиш тезлигини сезиларли даражада пасайтиради ва уни турли хил касалликларга дучор қилади. Буларнинг барчаси пировардида қишлоқ хўжалиги

экининг ҳосилдорлиги ва сифатига, унинг мевалари пишиб етиш муддатига таъсир қилади.

Калит сузлар: суғрориш манбалари; ер ости суви; ҳарорат; сув сарфи режими.

EFFECTS OF GROUNDWATER SOURCES FOR IRRIGATION ON AGRICULTURAL CROPS

Akhmedov Sharifboy Ruzievich
Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, Associate Professor, Department of General Professional Sciences
E-mail.ogabekshamuratov7@gmail.com

Shamurotov Ogabek Kuziboy oglu.
Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers
Ecology and environmental protection 2nd year 1st group student
E-mail.ogabekshamuratov7@gmail.com

Annotation. Low groundwater temperatures lead to longer plant growth periods. For example, the growth and development of cotton and grain is delayed by 7-15 days. All this ultimately affects the yield and quality of the agricultural crop, the ripening period of its fruits. In turn, the low-temperature water-air soil environment of the aeration zone, of course, does not ensure the timely dissolution of natural and artificial nutrients and fertilizers and does not allow their timely full assimilation by plant root systems. Under such conditions, some of these nutrients sink under the influence of falling currents of cold water and mix with groundwater. On the other hand, a cold aquatic-airy soil environment of 14–18 C° is detrimental to cotton, significantly reduces the rate of growth and development, and exposes it to various diseases. All this ultimately affects the yield and quality of the agricultural crop, the ripening period of its fruits..

Key words: irrigation sources; underground water; temperature; water consumption regime**.**

Муз сифатида тўпланган сувдан ташқари, ер ости сувлари Ер юзидаги энг катта чучук сув манбаи ҳисобланади. Бу нисбатан тоза, ишончли ва тежамкор манба, айниқса, ер ости сувларига деярли боғлиқ бўлган Африканинг баъзи қисмлари каби ер усти сув таъминоти чекланган жойларда. Шунинг учун ер ости сувлари ичимлик суви ва қишлоқ хо'жалигида суғоришда муҳим рол ўйнаши ажабланарли эмас, чунки дунёдаги озиқ-овқат маҳсулотларининг тахминан 40% суғориладиган деҳқончилик натижасида ҳосил бўлади (Шикломанов 1997). Ер ости сувлари, шунингдек, кўлларга оқимлар ва дарёларга қуйиладиган оқим орқали ер усти сув тизимларини сақлаб туришда муҳим рол ўйнайди. Ушбу "атроф-муҳит оқимлари" кўпинча сезгир экотизимларнинг биологик хилма-хиллиги ва яшаш жойларини сақлаб қолиш учун жуда муҳимдир (Тҳарме 2002). Бироқ, ушбу функтсияларнинг барчаси иқлим ўзгариши билан тобора заифлашиб бормоқда [1].

Қайд этилсинки, узоқ муддатли истиқболда ичимлик суви таъминоти тизимини ривожлантириш ва модернизатсиялаш бўйича комплекс чора-тадбирлар ва мақсадли дастурларни амалга ошириш асосида республикамиз аҳолисини сифатли ичимлик суви билан таъминлаш ижтимоий сиёсатимизнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Кейинги йилларда республикамизнинг аксарият минтақаларида аҳолини марказлаштирилган ичимлик суви билан таъминлаш бўйича кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилди. Ҳозирги пайтда 69 та шаҳар, 335 та посёлка ва 2 902 та қишлоқ аҳоли пунктлари аҳолисининг эҳтиёжлари ер ости сувлари захиралари ҳисобига қондирилмоқда. Шу билан бирга, охирги 40 — 50 йилда саноат ва қишлоқ хўжалигининг жадал ривожланиши чучук ер ости сувлари ҳолатига салбий таъсир кўрсатди, бу ўз навбатида сув олиш иншоотларининг рухсатсиз қурилиши ва сувни назоратсиз олиш оқибатида конлардаги захираларнинг 35 фоизга қисқаришига ҳамда айрим манбаларда сув захираларининг тугашига олиб келди. Республикамизнинг айрим ҳудудларида ер усти сувларини чиқариб ташлаш тармоқлари ва дренаж тизимларининг қониқарсиз ҳолати, ер ости сувлари сатҳининг интенсив кўтарилиши, шунингдек, режали

асосда гидрогеологик мониторинг олиб борилмаганлиги оқибатида айрим шаҳарлар ва бошқа аҳоли пунктларида ер ости сувлари сатҳининг кўтарилиши кузатилмоқда [2].

Ер ости сувлари бу ер пўстининг юқори қисмидаги тоғ жинслари қатламлари ғовак бўшликдарида жойлашган суюқ, қаттиқ (муз), буғсимон ҳолатдаги сувлардир. Ер ости сувлари умумий сув ресурсларинг бир қисми бўлиб, сув таъминоти ва суғориш манбаи сифатида халқ хўжалиги учун катта аҳамиятга эга. Суғориладиган ерларнинг мелиоратив аҳволи грунт сувларининг ҳолати билан белгиланади. Ер ости сувларини гидрогеология фани ўрганади. Сув молекуляр кучлар тутиб турадиган боғланган ҳамда оғирлик кучи ёки босим фарқи таъсирида ҳаракатда бўладиган гравитацион ёки эркин ҳолатда бўлиши мумкин. Боғланмаган сув билан тўйинган тоғ жинслари қатламлари сувли горизонт дейилади, улар сувли комплексларни ҳосил қилади. Ер ости сувлари сув сақловчи жинсларда тупланиш характерига кўра ғовак (юмшоқ жинсларда), дара (томир) — қаттиқ жинсларда ва карст (ғор) (дарз-карст-енгил эрийдиган карбонат ва гипсли жинсларда) сувларига бўлинади. Жойлашиш шароитига кўра ер ости сувлари тупроқ суви (қ. Тупроқ сув резкими), мавсумий сувлар (юза сувлар; аэрация зонасидаги сув сакловчи қатламлар устида ёғинлар ёки суғориш сувларининг шимилишидан ҳосил бўлади), грунт сувлари (ер юзасига энг яқин биринчи сув ўтказмайдиган қатлам устида тўпланади) ва қатламлараро (босимсиз, босимли, артезиан, сув ўтказмайдиган қатламлар ўртасида жойлашган сувли қатламлар) сувларга бўлинади.

Келиб чиқишига кўра ер ости сувлари атмосфера ёғинлари, дарё ва суғориш сувларининг шимилиши натижасида ҳосил бўлувчи инфильтрацион; тоғ жинслари қатламларида сув буғларининг қуюқлашувидан ҳосил бўлувчи конденсацион; чўкинди тоғ жинслари пайдо бўлиш жараёнида денгиз сувларининг кўмилиб қолиши натижасида ҳосил бўлган седиментацион ва магма совиганда ёки ер мантиясидан чиқадиган ювиниль сувларига бўлинади. Ер ости сувларининг ер юзига табиий чиқиши булоқ, (чашма) дейилади ва оқиб чиқувчи ва қайнаб чиқувчи (қайнар булоқ)ларга бўлинади.

Ер ости сувлари табиий эритмалар бўлиб, таркибида деярли барча маълум кимёвий элементлар учрайди. Минераллашуви (сувда эриган

моддаларнинг умумий миқдори, г/л) бўйича ер ости сувлари чучук (1,0 гача), шўртам (1,0—10,0), шўр (10,0— 50,0) ва намакоб (50 дан кўп) турларига бўлинади. Ҳарорати бўйича эса совиган (4° гача), совуқ (4—20°), илиқ (20—37°), иссиқ (37-42°), қайноқ (42—100°) ва ўта қайноқ (100° дан юқори) Ер ости сувларига бўлинади.

Инфильтрацион сув табиатда кенг тарқалган, қолганлари соф ҳолда жуда кам учрайди. Аҳоли, саноат ва яйловларни сув билан таъминлашда, ерларни суғоришда, тиббиётда (минерал сувлар), иссиқлик билан таъминлашда (иссиқ сувлар), ҳар хил туз ва кимёвий элементлар (йод, бор, бром ва б.) олишда ер ости сувларидан фойдаланилади. Ер ости сувлари ерларнинг ботқоқланиши ва шўрланишига сабаб бўлади. Бунга қарши курашиш учун очиқ ва ёпиқ горизонтал дренажлар ва бурғи қудуқлари ковланади. Чўлларда ер ости сувларидан кенг фойдаланилади. Қорақум, Қизилқум ва Устюрт яйловлари асосан ер ости сувлари билан таъминланган.

Ўрта Осиё ҳудудида 150 дан ортиқ йирик ер ости сувлари конлари аниқланган. Уларнинг ҳар йили тикланиб турадиган эксплуатацион захираси 1500 м/с дан ортиқ, чучук сувлар ҳиссаси 1000 м/с яқин, қолган қисми эса турли даражада (2—3 дан 15 г/л гача) минераллашган. Ўрта Осиёда 40 мингдан ортиқ фойдаланиладиган бурғи қудуқлари мавжуд, улардан 5 мингга яқини суви отилиб чиқадиган артезиан қудуқларидир; уларнинг кўпчилигидан экинларни суғоришда фойдаланилади (қ. Артезиан сувлари) [1,2,3,].

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгач, мамлакатимизда ҳар бир соҳада жадал ўзгаришлар амалга оширилди ва бир талай ютуқлар қўлга киритилди.

Шунингдек, Қишлоқ хўжалиги тармоғининг жадал ривожланиши, ўз навбатида, сув ресурслари истеъмолининг ортиб боришига олиб келади. Сув ресурсларини бошқариш соҳасида ягона сиёсатни амалга ошириш, шунингдек сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилиш, сувнинг зарарли таъсирининг олдини олиш ва бартараф этиш саҳасида ҳам тубдан янгиланишлар жорий этилди. Қишлоқ хўжалигини изчил ва барқарор ривожлантириш, мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашдир. 2020-2030 йилларда сув хўжалигини ривожлантириш концепциясини ишлаб чиқиш сув хўжалиги соҳасидаги истиқболли лойиҳаларни амалга ошириш учун хорижий инвестициялар, сув тежовчи суғориш

технологияларни жорий этишда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларга фаол кўмаклашиш, замонавий суғориш тизимларини ишлаб чиқариш қувватларини хусусий инвестициялар жалб қилиш ҳисобига кенгайтириш орқали сув тежовчи технологияларни қўллаган ҳолда суғориладиган ерларнинг улушини суғориладиган ерлар умумий майдоннинг камида 10 фоизгача етказишдир [4,5,].

Илмий тадқиқотнинг долзарблиги:

Ер юзида жами сув хажмини 100 фоиз деб оладиган булсак 97,5 шўр сувларни ташкил этса, чучук сувлар 2,5 фоизни ташкил этади. Ер ости сув манбалари суғориш майдонига яқин бўлганида жуда арзон ва қулай манбалардан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам чет давлатларда бундан кенг фойдаланишади. Жумладан АҚШда 40 % суғориш майдони ер ости сув манбасидан суғорилса, Хитой Халқ Республикасида 33%, Ўзбекистонда эса 5-6 % ни ташкил этади. Бугунги кунга келиб минтақадаги мавжуд ва чекланган сув ресурслари мамлакатлар орасида тўлиқ тақсимот қилинган ва ўзлаштирилган. Вужудга келган шароитларда минтақадаги сувга бўлган ортиб бораётган талаблар асосан мавжуд сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва сув ресурсларининг ички захираларини топиш ҳисобига қондирилиши мумкин. Шунинг учун сув тежамкор технологияларини ривожлантириш масалаларига олимлар томонидан ҳам катта эътибор қаратилмоқда.

Суғориш ва яйловларини сув билан таъминлаш учун ер ости сув ресурсларидан ташқари ер усти сувлари ҳам ишлатилади. Хозирча умумий ер ости сув ресурсларининг 7 % миқдори ишлатилаяпти. У асосан Қрим, Молдавия, Украина, Волга бўйи, Козоғистон, Қирғизистон, Туркманистон, Арманистон, Грузия, Озарбайжон, АҚШ, Ҳиндистон, Жазоир, Италия ва бошқа давлатларда ишлатилади. Ер ости сувларидан фойдаланилганда унинг динамик захираси ишлатилади, аксинча у йўқолиб қолади. Ер ости

сувларидан фойдаланишнинг авфзалликлари қуйидагилардан иборат:

1. Суғориш майдонига якинлиги ва магистрал канал салт қисмининг қисқалиги.

2. Суғориладиган майдонда грунт сувлари сатҳининг пасайиши.

3. Сув исрофининг камлиги, канал узунлиги сабабли каналарнинг юқори ФИК.
4. Каналларда сув лойкаланмаганлиги сабабли лойка чўкмаслиги.
5. Шурланиш ва ботқоқланиш хавфи камлиги.

Камчиликлари:

1. Айрим жойларда сувлар чуқур жойлашгани ва захираси камлиги.
2. Минераллашуви юқори булиши мумкин.
3. Температураси паст даражада.
4. Сувни кўпинча механик кўтариш шартлари.
5. Эксплуатацион ҳаражатлари юқорлиги.

Ер ости сувлари Суғориш учун қуйидагича фойдаланилади:

булоқлар орқали, шахтали кудуклар оркали, сув йиғувчи галерея орқали [8,9,10].

Булоқларни каптаж қилиш ўз-ўзидан суғоришда фойдаланилади.

Қудуқлар шахтали, қувурли бўлиши мумкин. Қувур диаметрлари 30-100 см гача бўлади. Чукурлиги 100 м гача, 50-100 л/с гача сув насослари ёрдамида кўтарилади. Битта қудук 200 гача ерни

суғориши мумкин. Ер ости сувларидан фойдаланилганда купинча тугриловчи резервуарлар кулланилади. Улар суғориш майдони улчамини оширади, сувни иситишга ёрдам беради.

Агар сув олиш сарфи ер ости сув захираларининг қайта тикланишидан ошиқча бўлса улар сунъий равишда сув билан тўлдириб турилади, яъни ер ости сув омборлари вазифасини бажаради. Бунинг учун ер ости табиий оқимлари (тошқин ва межень), махаллий сув оқимлари, ташландиқ сувлар (суғоришдан, ишлаб чиқаришдан, канализациядан) ишлатилиши мумкин. У ўз-ўзидан инфильтрация ёки босим остида инфильтрация билан амалга оширилади. Биринчиси қуйидаги усуллар билан бажарилади:

1) Майдонни сув бостириш, бунда кўп майдон кетади, кам нишабликли, тинч рельефли ерларда яхши натижа беради.
2) Сув ўтказувчи бубли ва эгат, майда каналли зич тармоқли махсус бассейн қуриш орқали (қийин ер шароитида).
3) Доимий ва вақтинча сув оқадиган ўзанлардан, қудуқлардан, шахталардан, карьерлардан, табиий карьердан фойдаланилади.

Ҳозирги даврда ғалла ҳосилдорлигининг ошишига салбий таъсир кўрсатаётган омиллардан бири, вегетация даври давомида юзага келаётган сув тақчиллиги бўлса, иккинчиси, аксарият фермер хўжаликларида ғаллани суғоришда махаллий тупроқ ва гидрогеологик шароитларни, уларнинг ўсиши ва ривожланишининг

ўтиш фазалари даврида сувга бўлган ҳақиқий талабларнинг ҳисобга олинмаслигидир. Ғаллани суғориш жараёнидаги тупроққа солинаётган ўғитларнинг, бегона ўтлар ва ҳашаротларга қарши қўлланилаётган заҳарли кимёвий моддаларнинг бир қисми ер ости сувларига ювилиб тушиб, уларнинг экологик-мелиоратив ҳолатининг ёмонлашувига олиб келмоқда. Юқорида келтирилган сабаблар, суғориладиган ерларга ажратилаётган сув захираларидан самарали фойдаланиш, экологик вазиятга салбий таъсир этмайдиган агротехнологик тадбирлар тизимини, гидрогель сунъий полимер кристалларидан фойдаланиб суғориш усуллари ер ости сувларидан бошоқли дон махсулотларини етиштиришда рационал фойдаланиш имкониятларини яратиш [12,13,14].

Тадқиқотнинг мақсади:

Суғориш учун сув манбалари қуйидаги кўрсатгичлари билан бахоланади: сувнинг сифати, йиллик ва вегетация давридаги сув оқими миқдори, сув оқимининг йиллар бўйича ўзгариб туриши, сув сарфи режими, сатҳи ва босимининг режими, суғориладиган майдонга нисбатан жойлашганлиги.

Сувининг сифати, унинг температураси, механик оқизиқлар миқдори, минераллашуви ва кимёвий таркиби, бактериологик таркиби билан характерланади.

Ғалла майдонларидан юқори ҳосил олишда суғориш манбаи ер ости сувларидан унумли фойдаланишда тажрибалар асосида унинг ҳароратига боғлиқ равишда ўрганиш.

Тадқиқотнинг долзарблиги:

Қишлоқ хўжалиги экинлари суғориладиган майдонларининг кенгайиши ва Ўзбекистоннинг турли хил, шу жумладан, текисликдаги зоналарида суғориладиган ҳар гектар майдоннинг ҳосилдорлигини оширишда бир қанча муаммолар келиб чиқмоқда. Уларни бартараф этиш мақсадида, ер ости сувларининг ҳароратини, ўз навбатида, табиий шароитлари мураккаб динамик тизимининг комплексини ҳар томонлама чуқур ўрганишни ва Ўзбекистоннинг қурғоқчил зонаси ҳар бир минтақасида ер унумдорлигининг функционал боғлиқлиги параметрларининг миқдорий қийматларини белгилашни, шунингдек, инсоннинг фаол фаолияти натижасида юзага келадиган омилларни талаб қилади;

Тадқиқотнинг ўрганилганлик даражаси:

Буғдой бир йиллик ўсимлик. Унинг илдиз тизими попук илдиз бўлиб, асосий қисми ернинг ҳайдов қатламида ривожланади, баъзи илдизлари 100 см. гача чуқурга, поясининг бўйи 40-130 см. га етиб боради. Буғдой ўсимлигининг транспирация коэффиценти 231-557 га тенг (ўртача 400-500), дон ҳосили бўйича сувга эҳтиёж коэффициенти 60-190 $м^3$/ц. ни ташкил этади. Ушбу кўрсаткичлар иқлим шароитлари, буғдойнинг тури ва нави, сув билан таъминланганлик, тупроқдаги озиқ элементлари миқдорига боғлиқ равишда ўзгариб туради. Етиштириладиган минтақаларнинг табиий шароитига кўра суғориладиган ерларда унинг кузги ёки баҳорги турлари экилади. Кузги буғдой баҳорги буғдойга қараганда совуққа ва қурғоқчиликка чидамли, тупроқ ҳарорати 4-5 ˚С бўлганда ўниб чиқади. Ўсув даврида кузги буғдой учун 2100 ˚С, баҳорги буғдой учун эса камида 1300 ˚С самарали ҳарорат талаб этилади.

Суғориш манбалари ҳароратининг кузги бошоқли дон экинларига таъсири ҳақиқатда ҳам илмий томондан кам ўрганилган.

Тадқиқотнинг вазифаси:

Қилинган тажрибалар асосида суғориш манбаи ер ости сувларидан унумли фойдаланишда унинг ҳароратига боғлиқ равишда ўрганиш аниқ кўрсатмаларни яратиш. Сув тежамкор технологиялардан фойдаланиб бошоқли дон экинларининг ўсиши ва ривожланиши давомида, яъни уруғдан ўниб, ҳосил қилгунча маълум даврларни (фазаларни) ўтайди. Ривожланиш фазаларида ўсимликларда морфологик ўзгаришлар содир бўлади ва янги органлар шаклланади. Буғдой қуйидаги фазаларни ўтайди: ўниб чиқиш, тўпланиш, найчалаш, бошоқланиш, гуллаш ва пишиш

фазаларида кузатувлар олиб бориш ҳамда хосилдорлигининг самарадорлигини ўрганиш [18,19,20].

Тадқиқотнинг объекти:

Ер ости сувлари йил фасллари бўйича кўтарилиш даражасининг диаграммасини тузиш (Бухоро вилоятининг Ғиждувон тумани мисолида). Ғалла ҳосилдорлиги етиштиришда ер ости сувларидан рационал фойдаланиш ва тажриба участкаси сифатида "Оқил Алишер" номли фермер хўжалиги танланди. "Оқил Алишер" фермер хўжалиги Бухоро вилояти Ғиждивон тумани "Пахтаобод" ҳудудида жойлашган.

№	АДАБИЁТЛАР	LITERATURE
1	C.Isabella, B.G. Parkin School of Civil Engineering and Geosciences, Newcastle University, Newcastle upon Tyne, NE1 7RU, UK Marios Sophocleous Kansas Geological Survey, The University of Kansas, 1930 Constant Avenue, Lawrence, KS 66047, USA	C.Isabella, B.G. Parkin School of Civil Engineering and Geosciences, Newcastle University, Newcastle upon Tyne, NE1 7RU, UK Marios Sophocleous Kansas Geological Survey, The University of Kansas, 1930 Constant Avenue, Lawrence, KS 66047, USA
2	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 — 2021 йилларда Ер ости сувлари захираларидан оқилона фойдаланишни назорат қилиш ва ҳисобга олишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида ПҚ-2954 қарори	
3	Хамидов М. Центральная Азия – водные ресурсы, озера и межгосударственные отношения. Международный симпозиум, 2003 г. Льеж, Бельгия Хамидов М. Центральная Азия – водные ресурсы, озера и межгосударственные отношения. Международный симпозиум, 2003 г. Льеж, Бельгия	Xamidov M. Stentralnaya Aziya – vodnыe resursы, ozera i mejgosudarstvennыe otnosheniya. Mejdunarodnыy simpozium, [Central Asia – water resources, lakes and international relations. International Symposiom] 2003 g. Lej, Belgiya
4	Ҳамидов М. Х., Д. В. Назаралиев Технология полива озимой пшеницы и хлопчатника по микроборозддам. ЎзҚСХВ, ЎзИИЧМ, ЎзПИТИ, ИКАРДА, ИВМИ, Тошкент. 2006. стр. 363-366	Ҳamidov M. X., D. V. Nazaraliev Texnologiya poliva ozimoy pshenistы i xlopchatnika po mikroborozdom. [Technology poliva ozimoy pshenisty i xlopchatnika po mikroborozdom] O'zҚSXV, O'zIIChM, O'zPITI, IKARDA, IVMI, Toshkent. 2006. str. 363-366
5	М. А. Саттаров, Ш. Р. Ахмедов Исследование влияния термических эффектов источников орошения на продуктивнисть хлопчатника	M. A. Sattarov, Sh. R. Axmedov Issledovanie vliyaniya termicheskix effektov istochnikov orosheniya na produktivnist xlopchatnika [Investigation of the effects on the production of xlopchatnika]
6	Ш. Р. Ахмедов Мудульные исследование динамики роста и продуктивности хлопчатника методом	Sh. R. Axmedov Mudulnye issledovanie dinamiki rosta i produktivnosti xlopchatnika metodom matematicheskogo modelirovaniya

	математического моделирования	[Mudulnye issledovanie dynamics of xlopchatnika method of mathematical modeling]
7	Хамидов М. Х., Сувонов Б. У Ғўзани суғоришда томчилатиб суғориш технологиясини қўллаш// “Irrigatsiya va melioratsiya” журнали. – Тошкент, 2018. - № 4(14).- Б.9-13.	Xamidov M. X., Suvonov B. U. G`o’zani sug`orishda tomchilatib sug`orish texnologiyasini qo’llash// “Irrigatsiya va melioratsiya” [Irrigation and Land Reclamation] jurnali. – Toshkent, 2018. - № 4(14).- B.9-13.
8	Салохиддинов А. Т., Хомидов А. О., Боиров Р. К., Юсупов Х. Кучли шишувчан гидрогелларнинг лалмикор бўз тупроқлар шароитида кузги буғдойнинг биометрик курсаткичларига таъсири // “AGRO ILM” журнали. – Тошкент 2018. - №5 (55). – Б. 76-77	Saloxiddinov A. T., Xomidov A. O., Boirov R. K., Yusupov X. Kuchli shishuvchan gidrogellarning lalmikor bo’z tuproqlar sharoitida kuzgi buғdoyning biometrik kursatkichlariga ta’siri // “AGRO ILM” [Influenc of ctrongly swollen hydrogels on biometric idicators of winter wheat in dry gray soils] ejurnali. – Toshkent 2018. - №5 (55). – B. 76-77
9	Жўраев А ва бошқалар, Туманлаштирилган турли ҳил буғдой навларининг Бухоро вилояти тупроқ иқлим шароитида ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлик кўрсаткичлари. ЎзИИЧМ, ЎзПИТИ, ИКАРДА, Тошкент, 2004. 240-242-бетлар	Jo’raev A va boshqalar, Tumanlashtirilgan turli ҳil buғdoy navlarining Buxoro viloyati tuproq iqlim sharoitida o’sishi, rivojlanishi va ҳosildorlik ko’rsatkichlari. [Growth developmet and productivity of different types of regionalized wheat varieties in the soil climate of Bukhara region] O’zIIChM, O’zPITI, IKARDA, Toshkent, 2004. 240-242-betlar.
10	Хамидов М. Режим орошения и минеральное питание растений в условиях Хорезма. Журнал «Вопросы мелиорации» № 5-6., Москва. 2000 г., 94-96 стр.	Xamidov M. Rejim orosheniya i mineralnoe pitanie rasteniy v usloviyax Xorezma. Jurnal «Voprosы meliorastiya» [Questions of melioration] № 5-6., Moskva. 2000 g., 94-96 str.
11	Хамидов М. Разработка режима орошения озимой пшеницы для получения максимального и качественная урожая в условиях Харезмского оазиса. Журнал «Вопросы мелиорация» № 1-2., Москва. 2000 г. 52-58 стр.	Xamidov M. Razrabotka rejima orosheniya ozimoy pshenistы dlya polucheniya maksimalnogo i kachestvennaya urojaya v usloviyax Xarezmskogo oazisa. Jurnal «Voprosы meliorastiya» [Devopment of the regime of orosheniya ozimoy pshenisty dly polucheniya maksimalnogo urojaya v usloviyax I I Khorezmskogo oazisa] 1-2., Moskva. 2000 g. 52-58 str.
12	Хамидов М. и др. Орошения сельскохозяйственных культур Хорезмского оазиса. Аграрная наука, № 5, Москва 2001. 43-48 стр.	Xamidov M. i dr. Orosheniya selskoxozyaystvennыx kultur Xorezmskogo oazisa. [Orosheniya selsxozyaystennyx kultur Khorezmskogo oasis] Agrarnaya nauka, № 5, Moskva 2001. 43-48 str.
13	Хамидов М. Орошения земель в Хорезмском оазисе. Аграрная наука, № 6, Москва 2001. 84-88 стр	Xamidov M. Orosheniya zemel v Xorezmskom oazise. [Orosheniya land in Khorezm oasis] Agrarnaya nauka, № 6, Moskva 2001. 84-88 str.
14	Хамидов М. Альтернативные стратегии	Xamidov M. Alternativnыe strategii

	водосбережения. Вопросы мелиорации. Москва, № 3-4, 2001. 52-56 стр.	vodosberejeniya. [Alternative water management strategies] Voprosы meliorastii. Moskva, № 3-4, 2001. 52-56 str.
15	Хамидов М. и др. Узбекистан водно-мелиоративные проблемы и диверсификация сельскохозяйственных культур. Материалы Международного научного симпозиума «70-летие Аграрного университета Молдовы», 7-8 октябрь, 2003 г. Кишинёв	Xamidov M. i dr. Uzbekistan vodno-melioativnыe problemы i diversifikastiya selskoxozyaystvennыx kultur. Materialы Mejdunarodnogo nauchnogo simpoziuma [Uzbekistan water and reclamation problems and diversification of agricultural culture. Materials of the International Scientific Symposiom] «70-letie Agrarnogo universiteta Moldovы», 7-8 oktyabr, 2003 g. Kishinyov
16	Urazkeldiev A.B. Kimyoviy melioratsiya. Buxoro. 2011. 24-35 b.	Urazkeldiev A. B. Kimyoviy melioratsiya [Chemical reclamation]. Buxoro. 2011. 24-35 p.
17	S. Abdullaev, X. Nomozov. Tuproq melioratsiyasi. Toshkent. 194-247 b.	S. Abdullaev, X. Nomozov. Tuproq melioratsiyasi [Soil reclamation]. Tashkent. 194-247 b.
18	Нерозин А.Е. Сельскохозяйственные мелиорации//Тошкент. 1980, -262-б.	Nerozin A.E. Selьskoxozyaystvennыe melioratsii [Agricultural land reclamation] // Toshkent. 1980, -262-b.
19	F. O'. Jo'ryev, Z. O'. Amanova Тупроқнинг шўрланиш даражаси ва унинг типларини аниқлаш . ТИМИ Бухоро филиалида 15-17 апрел профессор –ўқитувчилар ва талабаларнинг "Соғлом бола йили" ва "Наврўз" умумхалқ байрамига бағишланган анъанавий 1-илмий-назарий анжумани. Бухоро 2014. 15-17 б.	F.O.Joriev, Z.O.Amanova Tuproqning sho'rlanish darajasi va uning tiplarini aniqlash . TIMI Buxoro filialida 15-17 aprel professor –o'qituvchilar va talabalarning "Sog'lom bola yili" va "Navro'z" umumxalq bayramiga bag'ishlangan an'anaviy 1-ilmiy-nazariy anjumani [Determination of soil salinity and its types.] Bukhara 2014. 15-17
20	Рахимбаев Ф.М. Ҳамидов М.Ҳ. Беспалов Ф.А. Амударё қўйи қисмида қишлоқ хўжалик экинларини суғоришнинг ўзига хослиги. Тошкент, Фан-1992.	Raximbaev F.M. Hamidov M.H. Bespalov F.A. Amudaryo qo'yi qismida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishning o'ziga xosligi [Peculiarities of irrigation of agricultural crops in the Amudarya sheep section] Tashkent, Fan-1992
21	Жураев А.Қ., Жураев У.А., Қодиров З.З, Аманова З.У. Тежамкор суғориш технологиясининг ғалла экинларида самарадорлиги //Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси.–Хива, 2020 №2020-1, 71-75 б.	Juraev A.Q., Juraev U.A., Qodirov Z.Z, Amanova Z.U. Tejamkor sug'orish texnologiyasining g'alla ekinlarida samaradorligi //Xorazm Ma'mun akdemiyasi axborotnomasi. [Effectiveness of economical irrigation technology in grain crops] .–Xiva, 2020 №2020-1, 71-75 b
22	Тўраев А. Қишлоқ хўжалик экинларини суғоришда сувни тежовчи янги суғориш технологияларидан фойдаланиш. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 276 б.	To'raev A. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suvni tejovchi yangi sug'orish texnologiyalaridan foydalanish. [Use of new water-saving irrigation technologies in irrigation of agricultural crops] - Tashkent: